

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

9-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/9 (5) - 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

| | |
|---|---------|
| <i>Raupov Xolmamat Rashidovich, Xaitova Olmaxon Saidovna</i> O'ZBEKISTONDA KON-METALLURGIYA SOHASI TARAQQIYOTIDA BERUNIY ILMIY METODOLOGIYASINING O'RNI | 13-19 |
| <i>Muminov Ulmas Ravshanqulovich</i> QADIMGI TURKIYLARDA DAVLATCHILIK AN'ANALARI | 20-30 |
| <i>Azamatova Gulmira Bayirbekovna</i> MEHNAT MIGRATSIYASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY QONUNCHILIK | 31-37 |
| <i>Absalom Ziyadullayevich Xujanazarov</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SURXONDARYO VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR | 38-43 |
| <i>Allamuratov Shuxrat Ashurovich</i> BUXORO AMIRLIGINING ICHKI SAVDO-TRANZIT ALOQALARIDA AMUDARYO SUV YO'LINING O'RNI | 44-49 |
| <i>Sabirov Mansurbek</i> AMUDARYO SOHILI BO'YLAB XALQARO KARVON YO'LIDA RIVOJLANGAN O'RTA ASR VA SHAHARLARI SAHIFASI | 50-53 |
| <i>Matnazarova Mohira Uktamovna</i> KO'CHMANCHI CHORVADORLAR CHORVACHILIK XO'JALIGINING SHAKLLANISH OMILLARI | 54-59 |
| <i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i> BUXORO AMIRLIGIDA HARBIY UNVON VA MANSABLARGA TAYINLANISHIGA OID HUJJATLAR TAHLILI (QO'SHBEGI DEVONXONASI ARXIVI HUJJATLARI ASOSIDA)..... | 60-67 |
| <i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTONDA XALQARO MUNOSABATLARNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI | 68-73 |
| <i>Jumayev Abdumo'min Fayziyevich</i> IBN SINONING ASH-SHIFO ASARINING ISLOM VA YEVROPA FALSAFASIGA TA'SIRI | 74-82 |
| <i>Pardaxol Normamatova Ochildiyevna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATINING SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIGI | 83-87 |
| <i>Elboyeva Shaxnoza</i> O'ZBEK OLIMALARINING XALQARO ILM-FAN, MADANIYAT RIVOJIGA HAMDA FAN VA TEXNIKA TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSALARI | 88-94 |
| <i>Джаббарова Юлдуз Джуманиязовна</i> РОЛЬ ИСТОРИИ МЕДИЦИНЫ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА | 95-100 |
| <i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> 2009–2011-YILLARDA BUXORO, SAMARQAND, NAVOIY SANOATIDA O'SISH VA XALQARO HAMKORLIK DINAMIKASI | 101-104 |

| | |
|--|---------|
| <i>Жураева Камола Сайфиддиновна</i> КАСПИЙСКИЙ РЕГИОН ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ УЗБЕКИСТАНА | 105-109 |
| <i>Abdujabborov Kamoliddin</i> QADIMGI BAQTRIYA VA AVESTO JAMIYATI DAVRI QISQACHA TAHLILI | 110-115 |
| <i>Mamanov Abdurahim Abduhakimovich</i> TEMURIYLAR VA ULARDAN KEYINGI SULOLALAR DAVRIDA DINIY HOKIMIYATNING KUCHAYISHI (SABABLAR VA NATIJALAR) | 116-122 |
| <i>Xolmatov Shukurillo Ziyoviddin o'g'li</i> INGLIZ TILLI TADQIQOTLARDA ILK O'RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYO TARIXINING O'RGANISH BOSQICHLARI | 123-128 |
| <i>Djurayev Baxtiyor Rajaboyevich</i> O'ZBEKISTON IJTIMOY-IQTISODIY HAYOTIDA AYOLLARNING O'RNI VA GENDER TENGLIGI MASALALARI (TARIXIY-IJTIMOY TAHLIL 1991-2025-YY) | 129-136 |
| <i>Matyayqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> JANUBIY OROLBO'YI HUDUDIDA NEOLIT DAVRI KULOLCHILIGIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR | 137-140 |

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

| | |
|---|---------|
| <i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> ОБЩЕНАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО ИНСТИТУЦИОНАЛИЗМА В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА НА ТЕРРИТОРИИ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКИСТАНА | 141-153 |
| <i>Shodmonov Abduvohid Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIY YODGORLIKLARINI RAQAMLI TURIZM ORQALI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISH | 154-157 |

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

| | |
|---|---------|
| <i>Otamuratov Sarvar</i> YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA YANGI TASHABBUSLAR VA QONUNGA TAKLIF ETILAYOTGAN MUHIM QO'SHIMCHALAR | 158-164 |
| <i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYA VA BUZG'UNCHI FAOLIYATNING SHAKLLANISHIDA SALBIY TARBIYA VA ATROF-MUHIT TA'SIRI | 165-171 |
| <i>Raxmatova Xolidaxon Xolikovna</i> XOJA AHROR VALIY MUROSAGA OID QARASHLARINING FALSAFIY MOHIYATI | 172-178 |
| <i>O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna</i> ABDULXAMID SULAYMON O'G'LI CHO'LPONNING BADIY-ESTETIK MEROSI | 179-183 |
| <i>Yazdonov Ulug'bek Tashmurotovich, Sayidova Muhabbat G'afforovna</i> TA'LIM VA TARBIYA – JAMIYATNI MA'NAVIY-MADANIY DEFORMATSIYALASHUVDAN SAQLOVCHI OMILDIR | 184-189 |
| <i>Абдуллаева Махбуба Нуруллаевна, Жалалова Гулбахор Одилжоновна</i> КОГНИТИВНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ НАУКИ В IX – XII ВЕКАХ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ | 190-197 |

| | |
|--|---------|
| <i>Rasulov Hakim Mamanovich</i> DAVLAT VA JAMIYAT O'ZARO ALOQADORLIGINING SIYOSIY-INSTITSIONAL TAHLILI | 198-201 |
| <i>Azamova Sitora Ayonovna</i> O'ZBEKISTON ZAMINIDA EKOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI | 202-206 |
| <i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich</i> FUTUROLOGIK TAFAKKURDA SUN'IY INTELEKTNING NAMOYON BO'LISHI | 207-212 |
| <i>Namazova Yulduz Muzaffarovna</i> RAQAMLI SIVILIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY TA'LIMNING STRUKTURAVIY-FUNKSIONAL JIHATLARI | 213-217 |
| <i>Abdurazoqov Gulmurod Musurmonqulovich</i> MAFKURAVIY OMILLARNING YOSHLAR KAMOLOTIGA TA'SIRI NAMOYON BO'LISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 218-224 |
| <i>Tojibayev Baxromjon Turabayevich</i> "PREKARIAT" TUSHUNCHASINING GENEZISI: ETIMOLOGIYA, FALSAFIY-IJTIMOYIY ANGLASH | 225-229 |
| <i>Tursunova Laylo Ergashevna</i> TILAB MAHMUDOVNING ADABIY ESTETIK QARASHLARINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI | 230-235 |
| <i>Филиппов Ольгерд Александрович</i> ГУМАНИСТИЧЕСКАЯ ТРАДИЦИЯ В ЭПОХУ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБЩЕСТВА | 236-244 |
| <i>Chorieva Madina Aliyevna</i> INKLYUZIV TAFAKKUR — JAMIYATNING BARQAROR RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSI | 245-249 |
| <i>Zakirova Nigora Xalmaxammatovna</i> AXBOROT MAKONIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH JARAYONINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH IMKONIYATI | 250-254 |
| <i>Primov Baxriddin Abdiraxmonovich</i> AXBOROT IMPERIALIZMI TAHDIDLARI | 255-261 |
| <i>Karimov Zafarbek Ataboyevich</i> TA'LIM TIZIMINI SOTSIOLOGIK-FALSAFIY TAHLIL QILISHDA GUMANITAR YONDASHUVLAR | 262-267 |
| <i>O'razov Bobir Baxtiyorovich</i> IJTIMOIY DAVLAT HAQIDAGI G'ARBONA QARASHLAR: FALSAFIY-ILMIY TAHLIL | 268-272 |
| <i>Shaydullayev Normamat Sherkuziyevich</i> RAQAMLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA INSON QADRI VA ONG EVOLYUTSIYASI | 273-278 |
| <i>Tursunova Olmos Fayziyevna</i> YOSHLAR HUQUQIY ONGI VA MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI | 279-284 |
| <i>Turaeva Sanobar Khalimovna</i> EASTERN EDUCATION - THE IMPORTANCE OF UPBRINGING IN THE FORMATION OF HUMAN QUALITIES IN YOUNG PEOPLE | 285-287 |

| | |
|--|---------|
| <i>Jo'rayev Akram Namozovich</i> EKSTREMIZM G'OYALARIGA QARSHI KURASHDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH MEKANIZMLARINING PSIXOLOGIK VA FALSAFIY ASOSLARI | 288-291 |
| <i>Taylyakova Feruzahon Sultanovna</i> GLOBALLASHUV - MA'NAVIYATNI ANGLASH OMILI | 292-296 |
| <i>Toxirov Abdumalik Ashurali o'g'li</i> MAHALLA VA OILADA YOSHLAR AXLOQINI ME'YORLASHTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI | 297-302 |
| <i>Sherboboyev Muxriddin, Javlonbek Hafizullayev</i> KARL POPPERNING BILISH FALSAFASIGA OID QARASHLARI | 303-307 |
| <i>Nasriddinov Faxriddin Xalmamatovich</i> AXBOROT VA AXBOROT TIZIMLARINING FALSAFIY TAHLILI | 308-314 |
| <i>Ochilov Husan</i> MILLIY AN'ANA VA MODERNIZATSIYA UYG'UNLIGINING FALSAFIY TAHLILI | 315-321 |
| <i>Madaminov Nasimjon</i> MILLIY MUSIQIY MEROS ASOSIDA YOSHLARNING ESTETIK DIDI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY JIHATLARI | 322-326 |
| <i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i> MEHNAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH SOHADAGI XORIJIY TAJRIBALAR | 327-331 |
| 10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI | |
| <i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SCIENCE/ILM KONSEPTLI FRAZELOGIK BIRLIKLARNING LINGOMADANIY XUSUSIYATLARI | 332-337 |
| <i>Payzibayeva Madinaxon Sobirjon qizi</i> INGLIZ XALQ ERTAKLARI OBRAZLARINING BADIY XUSUSIYATLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI | 338-342 |
| <i>Axmedov Anvar Botirovich</i> NEMIS TILI TIZIMIDA O'ZLASHMA NEOLOGIZMLARNING ROD KATEGORIYASIGA EGA BO'LISH MASALASI | 343-347 |
| <i>Djabbarova Shoirra Baltayevna</i> ETNOGRAFIK REALIYALARNING LINGVISTIK XUSUSIYATI | 348-351 |
| <i>Genjemuratov Yaqipbek Baxriyatovich</i> FELETONNING JANR SIFATIDA ANIQLASH MUAMMOLARI | 352-355 |
| <i>Tadjiyeva Mastura Fayzullayevna</i> INGLIZ MAQOLLARIDA "LOVE" KONSEPTINING VOQELANISHI | 356-360 |
| <i>Qurbonova Gulnoza Abduholiq qizi</i> GIDRONIMLARINING STRUKTUR-SEMANIK TAHLILINING XUSUSIYATLARI | 361-364 |
| <i>Ayimbetova Shiyrin Jabbar qizi</i> BOLALAR ADABIYOTINING POETIK-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI: YOSH PSIXOLOGIYASI, DIDAKTIKA, AKSILOGIYA | 365-371 |
| <i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i> O'ZBEK TILIDAGI IBORALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA FRANSUZ TILIGA TARJIMASI | 372-375 |

| | |
|--|---------|
| <i>Бабаева Зарина Сайфуллаевна, Фёдорова Арина Максимовна</i> ГЕЙМИФИКАЦИЯ В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА | 376-385 |
| <i>Xushmatatova Aminaxon</i> LINGUOCULTURAL FEATURES OF SPEECH INTENTION IN THE DISCOURSE OF ENGLISH AND UZBEK DRAMATIC WORKS | 386-392 |
| <i>Saparniyazova Sarbinaz Baxtiyarovna</i> THE INFLUENCE OF CONTEXTUAL FACTORS ON THE PERCEPTION OF THE PRAGMATICS OF APOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK | 393-397 |
| <i>Adxamova Shirin Farhodjon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA EMOTSIONAL HOLATNI IFODALOVCHI KOLLOKATSIYALARNING QIYOSIY TADQIQI | 398-401 |
| <i>Машарипова Валентина</i> ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ ВЕРБАЛИЗАЦИИ ПАРАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ПОРТРЕТНЫХ ОПИСАНИЯХ В АНГЛИЙСКИХ И РУССКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ | 402-405 |
| <i>Abduqahhorova Gulnoza Abduvahobovna</i> RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI IQTISODIY ANGLISIZMLARNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI | 406-411 |
| <i>Raxmonova Yulduz Xusanovna</i> ADABIY ASARLARDA IJTIMOY FOJIAVIYLIKNING ESTETIK TALQINI | 412-417 |
| <i>Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi</i> ADABIYOTDA ANIMALISTIK JANR VA RAMZIY OBRAZLAR BO'YICHA OLIV BORILGAN ILMIY TADQIQOTLAR | 418-427 |
| 12.00.00 – YURIDIK FANLAR | |
| <i>Фазилов Фарход Маратович</i> УГОЛОВНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ДИПФЕЙКОВ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА | 428-439 |
| <i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> FUQAROLAR MUROJAATLARI BILAN ISHLASH BO'YICHA SHET EL DAVLATLARI TAJRIBASI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL | 440-448 |
| <i>Rakhmonov Tolib</i> ISSUES OF DETERMINING THE CIVIL LEGAL STATUS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN UZBEKISTAN | 449-454 |
| <i>Sobitxonov Joxongir Zunnurxon o'g'li</i> ISLOM BANKLARI FAOLIYATIDA "FATVO SHOPPING" AMALIYOTI VA UNING OLDINI OLISH BO'YICHA HUQUQIY MEKANIZMLAR | 455-462 |
| <i>Mamatmurodov Farrux Farhod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA SUKUKNI RIVOJLANTIRISH: HUQUQIY ISLOHOTLAR, INFRATUZILMA, MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR | 463-472 |
| <i>Юнусов Достонбек Анваржон угли</i> ПОНЯТИЕ И ОСНОВНЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ ПРАВОВОГО РЕЖИМА ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН | 473-481 |

| | |
|---|---------|
| <i>Uteniyazov Keulimjay Kuanishbayevich</i> JINOYAT PROTSESSIDA AYBLOV FUNKSIYASINI AMALGA OSHIRUVCHI SUBYEKTLARNING HUQUQIY MAQOMIGA OID MUAMMO VA YECHIMLAR | 482-489 |
| <i>Xidirov G'anisher Tojimurodovich</i> TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USTIDAN SUD NAZORATINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI | 490-499 |
| <i>Vaxronov Ravshan Rashid o'g'li</i> SUN'IY INTELLEKT VA INSON HUQUQLARI: NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLAR | 500-504 |
| <i>Усмонов Малик</i> ОТСЛЕЖИВАНИЕ И ЗАМОРАЖИВАНИЕ НЕЗАКОННО ПОЛУЧЕННЫХ АКТИВОВ: СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПОДХОДОВ | 505-510 |
| <i>Abdusatarov Jaloliddin Sharafutdin o'g'li</i> RAQAMLI AKTIVLAR BILAN BOG'LIQ NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULLARI | 511-517 |
| <i>Islomqulova Shohsanam Vahobjon qizi</i> TIBBIYOT XODIMINING KASBIY JAVOBGARLIGINI SUG'URTALASHDA SUG'URTA TOVONI, SUG'URTA PULI VA SUG'URTA MUKOFOTI TUSHUNCHALARINING MOHIYATI | 518-524 |
| <i>Ibodullo Xayrullo Jaxongir o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY DAVLATLAR SUDYALARINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MAQOMI | 525-530 |
| 13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI | |
| <i>Xolmatova Ziroatxon Anvarovna</i> BO'LG'USI PEDAGOGLARDA NOSTANDART TESTLARNI TUZISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASI | 531-534 |
| <i>Mamajonova Gulnoza Karimovna</i> AXLOQIY VA ESTETIK TARBIYA INTEGRATSIYASINING PEDAGOGIK ASOSLARI | 535-539 |
| <i>Gulomova Komila Maxamatjanovna</i> TA'LIMDA FAOL O'QITISH METODLARINING SAMARADORLIGI: TAJRIBA VA TAHLIL | 540-544 |
| <i>Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi</i> BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHI -PEDAGOGLARINING IJODIY KOMPETENSIYALARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI | 545-549 |
| <i>Фадлиева Амина Ильхамовна</i> ГУМАНИСТИЧЕСКАЯ ПЕДАГОГИКА КАРЛА РОДЖЕРСА И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ | 550-556 |
| <i>Rajabov Eldor Erkinovich</i> THE ROLE OF PEER REVIEW TO IMPROVE WRITING EFFECTIVELY AMONG EFL STUDENTS | 557-561 |
| <i>Jumagulova Aziza Abduljalil qizi</i> BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDAGI DZYUDOCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI | 562-573 |

| | |
|--|---------|
| <i>Toshnazarova Mohinur O'sarali qizi</i> “MOTIVATSION YONDASHUV” HAMDA “KREATIV FIKRLASH” TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATI | 574-578 |
| <i>Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi</i> BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA PRAGMATIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI | 579-585 |
| <i>Hamroyeva Robiya Sherali qizi</i> KELAJAK PEDAGOGLARINING TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR | 586-591 |
| <i>Tug'anboyeva Zamiraxon Shuxratbek qizi</i> TALABA KURASHCHI QIZLARNING KUCH CHIDAMLILIGINI MAXSUS MASHQLAR ORQALI OSHIRISH METODIKASI | 592-598 |
| <i>Sadritdinova Dinora A'zamjon qizi</i> WEB ILOVALARNI LOYIHALASHGA OID KOMPETENTLIK VA UNI RIVOJLANTIRISH | 599-602 |
| <i>Солохиддинова Фазилатхон Мухиддин кизи</i> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ УСВОЕНИЯ ГРАММАТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ | 603-611 |
| <i>Ниязова Регина Рустамовна</i> АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПОДГОТОВКИ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ В ОБЛАСТИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА | 612-615 |

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE ROLE OF BERUNI'S SCIENTIFIC METHODOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF THE MINING AND METALLURGICAL SPHERE IN UZBEKISTAN

Raupov Kholmamat Rashidovich,
Doctor of Historical Sciences (DSc), Associate Professor,
"Navoi Mining and Metallurgical Combine" JSC,
Director for Public Relations.

Khaitova Olmakhon Saidovna,
Candidate of Historical Sciences, Associate Professor, Navoi State
University of Mining and Technologies

Abstract. The article highlights the issues of scientific research methodology of Abu Rayhan Beruni, characteristic of the mining and metallurgical sphere (testing, roasting, melting, grinding, hardening of metals, studying the properties of minerals and conclusion after the experiment). Information is also provided on the place and significance of Beruni's scientific methodology at the production enterprises of Navoi Mining and Metallurgical Company.

Keywords: mining and metallurgical industry, research methodology, mineralogy, geology, minerals, hydrometallurgy, technology.

O'ZBEKISTONDA KON-METALLURGIYA SOHASI TARAQQIYOTIDA BERUNIY ILMIY METODOLOGIYASINING O'RNI

Raupov Xolmamat Rashidovich,
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent,
"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ,
Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha direktor.
E-mail: hr.raupov@ngmk.uz

Xaitova Olmaxon Saidovna,
tarix fanlari nomzodi, Navoiy davlat
konchilik va texnologiyalar
universiteti dotsenti
E-mail: nadfdnm87@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Abu Rayhon Beruniyning kon-metallurgiya sohasiga xos bo'lgan ilmiy-tadqiqot metodologiyasi (metallarni sinash, kuydirish, eritish, silliqlash, toblash, minerallar xossalari o'rganish va tajribadan keyingi xulosa) masalalari yoritilgan. Shuningdek, hozirgi vaqtda Navoiy kon-metallurgiya kombinati ishlab chiqarish korxonalarida Beruniy ilmiy metodologiyasining o'rni va ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kon-metallurgiya sanoati, ilmiy-tadqiqot metodologiyasi, mineralogiya, geologiya, qazilma boyliklari, gidrometallurgiya, texnologiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N01>

Kirish. Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi va metodologiyasi ilm-fan vakillarining qiziqtirishi tabiiy edi. Olim tomonidan qoldirilgan yuksak ilmiy-ma'naviy meros asrlar davomida ilm urfoni bilan birga mamlakatimiz taraqqiyotiga ham xizmat qilib kelmoqda. Yangi O'zbekistonda keyingi yillarda jadallik bilan olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishda va uni rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishida, hech shubhasiz, ilm-fan yutuqlarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu ma'noda, Beruniy ilmiy metodologiyasining kon-metallurgiya sanoati korxonalarini rivojiga xizmat qiladigan texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq joylari juda muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosi, jumladan, kon-metallurgiya sohasi bo'yicha asarlari chet ellik tadqiqotchilar va yurtimiz olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, yevropalik E.Zaxau, J.Reno, J.Sarton, M.Meyerxof, G.Zuter, R.Rayt, K.Nallino, E.Videman, sharqlik S.Baraniy, M.Nizamuddin, S.Nasr, M.Kozim, Sh.Yaltkaya, rus olimlaridan A.Belenitskiy, A.Semyonov, B.Rozenfeld, yurtimizdan A.Qayumov, A.Ahmedov, A.Irisov, S.Karimova, B.To'rayev kabi olimlar asarlarida buyuk alloma ilmiy merosining matematika, astronomiya, mineralogiya, dorishunoslik, tarix va falsafa va boshqa fanlarga oid yo'nalishlarini tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Kon-metallurgiya sohasiga xos bo'lgan ilmiy-tadqiqot metodologiya Beruniyning "Mineralogiya" asari va soha olimlarining ilmiy ishlari hamda tadqiqotlaridan olingan ma'lumotlar, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, ilmiy tavsiflash kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Umumiy jihatdan tahlil qilsak, bugungi kunda, kon-metallurgiya sanoati korxonalarida joriy etilayotgan zamonaviy texnologiyalar va yangi texnologik liniyalarning asosida ilm-fan yutuqlari yotadi. Bu jarayonlarni ayni paytda qazilma boyliklari mavjud konlarni izlash va topish, ularning qayta ishlash, metallarni eritish, oltin va kumush kabi metallarni ajratib olish texnologiyasi va ularni sofligini aniqlash, po'lat eritish kabilarda ko'rish mumkin. Bu jarayonlarni amalga oshirishda fundamental asos sifatida Beruniyning kon-metallurgiya sohasiga xos bo'lgan ilmiy-tadqiqot metodologiyasi (metallarni sinash, kuydirish, eritish, silliqlash, toblash, minerallarni xossalari o'rganish va tajribadan keyingi xulosa) kabilarga borib taqaladi.

Abu Rayhon Beruniyning mashhur asari "Mineralogiya" yurtimizda ma'danshunoslik fanining rivojlanishida muhim asos hisoblanadi. Shu bilan birga mazkur asarda minerallar va qimmatbaho metallarning, umuman olganda, foydali qazilma konlarining joylashgan geografik o'rni, nomlari aniq keltiriladi. Mana shu qimmatli ma'lumotlarning o'zi ham O'zbekistonda kon-metallurgiya sanoatining rivojida asosiy omillardan biridir. Mazkur asar bugungi kunda ham o'z ilmiy qimmatini yo'qotgan emas. Bu kon-metallurgiya sohasi yurtimizda qadimdan ilmiy manbalarga tayangan holda rivojlanganligidan shohidlik beradi.

Abu Rayhon Beruniy foydali qazilma konlaridagi minerallar va qimmatbaho toshlarning tabiatda ochiq holda qoldirilishi, ularga yomg'ir, qorlarning ta'siri natijasida yuzaga keladigan jarayonlarni ham kuzatgan. Uning fikricha, men oltinni kuzatganimda, ayrim hollarda shunday holatga guvoh bo'ldimki, oltin toshga shunchalik mahkam yopishib qolganki, ularni ajratish uchun tegirmondan foydalanish kerak, tegirmon toshni maydalab yuborishi kerak bo'ladi. Bu jarayonni ehtiyotkorlik bilan bajarish maqsadga muvofiqki, chunki oltinni sifatini saqlab qolish lozimdir,-deb yozadi[1].

Mazkur uslub bugungi kunda takomillashib, tegirmonlarning zamonaviy turlaridan bo'lgan sharli tegirmonlar va o'zi yanchar tegirmonlardan foydalanilmoqda. Bundan ming yillar oldin allomaning foydali qazilma boyliklardan qimmatbaho metallarning ajratib olish usuli bugungi kunda kon-metallurgiya sohasini boyitishda muhim o'rin tutmoqda. Kon-metallurgiya sohasi vakillariga ma'lumki, foydali qazilmalardan qimmatbaho metallarni ajratib olish uni tashkil qiluvchi minerallarning kimyoviy o'zgartishlarga uchratish natijasida sodir bo'ladi: minerallardan metallar quyiladi, apatit superfosfatga aylanadi va hokazo. Foydali qazilma va boyitish mahsulotlarining bunday qayta ishlanishi metallurgiya, kimyo, keramika, shisha, sement, lak-bo'yoq va boshqa sanoat korxonalarida amalga oshiriladi.

Bizga ma'lumki, kon-metallurgiya sohasida boyitish jarayonlari mavjud. Boyitish jarayoni minerallarni bir-biridan minerallarning xossalariidagi farq asosida ajratishdir. Bu jarayonning asl ildizi ham Beruniy davriga borib taqaladi.

Beruniy "Mineralogiya" asarida juda ko'plab metall va minerallarning rangi, xossasi, zichligi, ularni kuydirish, qizdirish, toblash jarayonida yuzaga keladigan o'zgarishlarni ilmiy tahlil qiladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Beruniy davrigacha yozilgan asarlarda toshlarning tashqi xususiyatlari, ularning rangi, shaffofligi, jilvalanishi, ba'zan kristallarning shakllari, ya'ni maxsus sinashlarni bayon etish bilan birga olib borilgan. Odatda minerallarning nisbiy qattiqligi sinalgan va kam hollardagina tarkibi tekshirilgan. Beruniy tomonidan esa minerallarni turli xil sinash metodlariga ularning solishtirma og'irligini aniqlash metodi ham kiritilgan. Bu mineralogiya tarixida birinchi marta minerallarni tavsiflashda raqamlarda ifodalangan doimiy miqdorini keltirishidir. Natijada, mazkur metod tufayli sof tavsifiy ilm hisoblangan mineralogiya birinchi marta aniq ilmlar qatoridan joy oldi [2]. Beruniyning bu ilmiy tadqiqot ishlari mineralogiya, konchilik va metallurgiyaning rivojiga katta turtki bo'ldi.

Abu Rayhon Beruniy "Mineralogiya" asarining kirish qismining oxirida "Mening qo'linga bu bilim sohasiga oid Abu Yusuf Ya'qub ibn Is'hoq Al-Kindiyning "Qimmatbaho toshlar va ularga o'xshashlar to'g'risida" degan kitobidan bo'lak hech kitob tushmadi. U birinchi bo'lib bu bilim sohasidagi qo'riqni ochdi, uning cho'qqilarini topdi, ham bu sohada, ham uning qo'li yetgan boshqa sohalarda ko'p nozik joylarni kashf etdi. Shunday qilib, u ham zamondoshlari, ham kelajak avlod uchun ibrat bo'lib qoldi" [3] -deb yozadi.

Demak, Abu Rayhon Beruniy o'z davrining yirik olimlarini asarlarini o'rganish bilan bir qatorda ularni yanada rivojlantirib, ayniqsa, minerallarni ilmiy tadqiqot usullaridan foydalangan holda berishi bilan alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Beruniy mineralogiya va metallurgiyada qo'llangan asbob-uskunalar, ular yordamida ishlov berish usullari to'g'risida yozgan bo'lsa ham, u boshqa mualliflardan ko'ra batafsilroq ma'lumot beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, Beruniy minerallarni solishtirma og'irligini aniq darajada o'lchaydigan asbob-uskunalaridan foydalangan. Ammo, ularning asosiy qismi bizgacha yetib kelmagan.

Abu Rayhon Beruniy tomonidan o'z davrida o'tkazilgan tadqiqotlardan olingan natijalar, masalan, moddalarning zichligi hozirgi kundagi zamonaviy asbob-uskunalarda olingan ma'lumotlarga qariyb to'g'ri kelishini ko'rish mumkin [4]:

| Modda | Zichligi | |
|-------|------------------|--------------------------|
| | Beruniy bo'yicha | Bugungi kundagi ma'lumot |
| Oltin | 19,05 | 19,25 |

| | | |
|-------------|-------|-------------|
| Kumush | 10,43 | 10,50 |
| Mis | 8,70 | 8,93 |
| Temir | 7,96 | 7,86 |
| Qalay | 7,31 | 7,28 |
| Simob | 13,58 | 13,55 |
| Zumrad | 2,75 | 2,67 — 2,77 |
| Qo'rg'oshin | 11,33 | 11,34 |
| Marvarid | 2,62 | 2,5 — 2,78 |
| Yantar | 0,85 | 1,05-1,10 |

Demak, Abu Rayhon Beruniy tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari o'zining ilmiyligi va ishonchligi bilan asrlar davomida nafaqat Osiyo davlatlari balki Yevropadan ham keng qo'llanilganligini bildiradi.

Ma'lumki, bugungi kunda kon-metallurgiya sanoati korxonalarida faoliyat olib borayotgan gidrometallurgiya zavodlarida suv ko'p ishlatiladi. Albatta, bunda suvning sifati ham muhim rol o'rin tutadi. Abu Rayhon Beruniy birinchi marta suvning zichligi uning temperaturasiga bog'liqligini aniqlab berdi. Uning qayd etishicha, bir xil hajmdagi suvning og'irligi uning tarkibiga bog'liq bo'lgan [5].

| № | Suv | Og'irligi, tassujda (bir tassuj- bir arab misqoli (4,68 gramm)ning 24 dan bir qismi bo'lgan) |
|---|--------------------|--|
| 1 | Issiq | 1150 |
| 2 | eritilgan (talaya) | 1158 |
| 3 | buloq | 1200 |
| 4 | dengiz | 1249 |
| 5 | tuzli | 1350 |

Yuqoridagi raqamlardan ko'rinib turibdiki, Beruniy tomonidan aniqlangan ko'rsatkichlar bugungi zamon ilm-fani tomonidan to'liq tasdig'ini topdi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Abu Rayhon Beruniy aniq natija olish uchun ko'plab tadqiqotlar bo'yicha 20 martagacha eksperiment o'tkazganligi bizga tarix sahifalaridan ma'lum. Bu metod ham bugungi kunda kon-metallurgiya sohasi olimlari va mutaxassislari uchun juda dolzarbdir.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida 2009 yilda olim va mutaxassislar tomonidan "Tarkibida oltin bo'lgan, qayta ishlanishi qiyin sulfidli rudalardan oltin ajratib olish usuli" mavzusida ilmiy ishlar boshlangan edi. Qariyb o'n yil davomida izchil ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borilib, uch mingdan ortiq muvaffaqiyatli hamda muvaffaqiyatsiz tajribalar o'tkazildi. Natijada noyob texnologiyani yaratishga hamda bu ixtironi nazariy va amaliy jihatdan nafaqat respublikada balki xalqaro miqyosda ham isbotlashga muvaffaq bo'lindi. Uning joriy etilishi tufayli 3-gidrometallurgiya zavodida chiqindidan yiliga qo'shimcha ravishda oltin olinmoqda. Mazkur ixtiro BMTning Butunjahon Intellektual mulk tashkiloti tomonidan tan olinib, oltin medal bilan taqdirlandi [6].

Bugungi kunda boyitish usullari hisoblangan gravitatsiya, flotatsiya, magnit, elektr, qo'lda saralash kabilarning sodda holdagi usulidan Beruniy va uning izdoshlari o'z davrida foydalanganliklari tarix sahifalaridan ma'lum. Qiziqarli jihati shundaki, foydali qazilmalarni g'alvirlashda ishlatiladigan g'alvirlarning oddiy shaklda, ya'ni aylana g'alvirdan XI asrda foydalanganligi ham tarixiy manbalarda qayd etiladi. Bunday g'alvirlar yengil tarzda bo'lgan. Bundan tashqari, kon-metallurgiya sohasida maydalash va yanchish jarayoni mavjud bo'lib, bu jarayonlarning sodda usuli Beruniy davrida ancha jadallashgan.

Abu Rayhon Beruniy "Mineralogiya" asarida Afrika, Osiyo, Arabiston yarim oroli, Hindiston, Shri Lanka hududidagi minerallar, asosan qimmatbaho toshlar va metallar konlari haqida ma'lumotlar beradi. Mazkur asarda alloma o'z ilmiy qarashlari hosilasi sifatida Markaziy Osiyodagi konlar, jumladan, la'l Badaxshonda, ya'ni undan uch kunlik yo'l masofasida Vaxan chegarasidagi Varzanfanjdan olinadi, uning atrofida tog' billuri ham borligini qayd etadi. Shu bilan birga, alloma, bugungi O'zbekiston hududida, ya'ni, Angren vohasida feruza tosh konlari, ametist tosh konlari esa Dushanbe shahri yaqinidagi Sog'oniyon (Surxondaryo) hududidagi Romruz nomi bilan tanilgan Vashgirda mavjudligini aytadi [7]. Bu kabi ilmiy qarashlar keyinchalik O'zbekistonda yangi konlarni ochilishiga ham o'z hissasini qo'shdi.

XX asrda geologlar O'zbekiston hududida yer osti boyliklarining katta zaxiralarini qidirib topishga muvaffaq bo'lishdi. O'zbekiston hududida oltin konlari mavjudligi haqidagi ilmiy bashoratlari to'liq tasdig'ini topdi. Abu Rayhon Beruniy izdoshlari bo'lgan geologlarning yangi avlodi – jahonda tan olingan Habib Abdullayev, Habibullo To'laganov, Ibrohim Hamroboev kabi bir qancha olimlar va ularning shogirdlari yetishib chiqdi. Mustaqillik yillarida esa mamlakatimizda yangi foydali qazilma konlarini ochish, respublika mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirildi. Sohoni jadal rivojlantirish, ayniqsa, qazilma boyliklarini izlab topish, geologik qidiruv ishlarining samaradorligini oshirishda geologlarning xizmatlari katta bo'ldi.

Albatta, keyingi yillarda kon-metallurgiya sohasi tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Sohaga ilm-fan yangiliklari jadal kirib bormoqda. Bunda yangi konlarni topish, ularni zaxiralarini aniqlash borasida yangicha usul va texnologiyalardan foydalanilmoqda. Keyingi yillarda O'zbekistondagi qimmatbaho metallar zaxiralari Avstraliya kodeksi "JORC Code" standartlari talablari asosida qayta baholanmoqda.

O'zbekiston kon-metallurgiya sanoatining eng yirik korxonasi bo'lgan Navoiy kon-metallurgiya kombinatida oltin ishlab chiqarishda quyidagi texnologiyalardan foydalaniladi:

- oksidlangan rudalar uchun gravitatsiyali-sorbsiyali texnologiya;
- qiyin ishlanadigan sulfidli rudalar uchun flotatsiyali-bioksidlash-kuydirish-sorbsiyali texnologiya;
- tarkibida ko'mir bor ma'danlarni, konsentratni kombinatsiyalashgan keyingi kuydirish va sorbsiyalash-sianlash qo'llaniladigan gravitatsiyali-flotatsiyali texnologiya;
- tarkibida kam oltin bo'lgan va balansdan tashqari oksidlangan rudalarni uyumlarda tanlab sianlash texnologiyasi.

Birinchi texnologiya asosida kombinatning to'rtta korxonasi, ya'ni: 1-GMZ, 2-GMZ, 4-GMZ va Marjonbuloq oltin saralash sexida, ikkinchi texnologiya bo'yicha 3-GMZ, 5-GMZ, uchinchisidan Marjonbuloq oltin saralash sexida, to'rtinchi texnologiya oltinni uyumlarda tanlab eritmaga o'tkazish sexida ishlatiladi. NKMK mazkur texnologiyalar asosida rudani qayta ishlash hajmlari bo'yicha butun dunyoda yetakchilardan biridir [8].

Tarkibida oltin bo'lgan ma'danlar ikki asosiy turga bo'linadi — birlamchi (sulfid) ma'danlar va ikkilamchi (oksidlangan) ma'danlar. Oksidlangan ma'danlar oson qayta ishlanadi va oltin ulardan an'anaviy texnologiyalar yordamida ajratib olinadi. Sulfid ma'danlarida oltin pirit va arsenopirit kabi sulfidli minerallar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, mayda dispers holatda mavjud. Bu sulfid ma'danlarini qayta ishlash uchun qiyin bo'lgan, ya'ni klassik an'anaviy usullar bilan ishlamaydigan qilib qo'yadi. Sulfidli konsentratlarni qayta ishlash uchun jahon amaliyotida asosan quyidagi usullar qo'llaniladi — avtoklavda qayta ishlash, oksidlovchi kuydirish va bakterial oksidlanish. Avtoklavda qayta ishlash usulida yuqori harorat va bosim ishlatiladi. Oksidlovchi kuydirishda ham yuqori haroratdan foydalaniladi.

Bakterial oksidlanish qayta ishlash uchun qiyin bo'lgan ma'danlar va konsentratlarni qayta ishlashning yangi muqobil yo'nalishi bo'lib, uning vazifalari sulfidli minerallarni oksidlash, ya'ni uni keyinchalik klassik usullar bilan sorbsion ishlov berish maqsadida mikroorganizmlar ta'sirida oltinni ochishni o'z ichiga oladi.

Dastlab, 3-gidrometallurgiya zavodi qurilishi uchun an'anaviy oksidlovchi kuydirish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Biroq, iqtisodiy va ekologik jihatdan maqsadga muvofiq emasligi sababli, bu usul maksimal iqtisodiy samaradorlik va ekologik xavfsizlikka ega zamonaviy yechimlarga asoslangan ilg'or biotexnologiyaga o'z o'rnini bo'shatib berdi.

2008-yilda 3-gidrometallurgiya zavodida "Qoqqatas" va "Dovg'iztov" konlaridagi sulfidli ma'danlarni qayta ishlash uchun bakterial oksidlanish texnologiyasi ishga tushirilgan. Bu texnologiyada "Acidithiobacillus ferrooxidans", "Acidithiobacillus thiooxidans" va "Leptospirillum ferrooxidans" kabi xemolitotrofik atsidofil mikroorganizmlardan foydalaniladi. Bu mikroorganizmlar kislotali noorganik muhitda yashaydi va shuning uchun odamlar uchun xavfsizdir [9].

Bakterial oksidlanish texnologiyasi quyidagi afzalliklarga ega:

- texnologiyani qurish va texnik xizmat ko'rsatish uchun past kapital xarajatlar;
- yuqori mahsuldorligi;
- kombinatsiyalashgan texnologiya hisobiga;
- yuqori haroratgacha qizdirishning va yuqori bosim hojati yo'qligi;
- jarayonda ishlatiladigan suvlardan qayta foydalanish imkoniyati mavjudligi;
- jarayonda bakteriyalarning tabiiy ko'payishi bilan bog'liq bo'lgan materialning yangilanishi;
- atmosferaga zararli chiqindilar yo'qligi;
- inson salomatligiga zararli ta'siri yo'qligi.

Bu afzalliklar bakterial oksidlanish usulini boshqa usullarga nisbatan ancha istiqbolli qiladi.

Xulosa va takliflar. Muxtasar qilib aytganda, buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy ilmiy metodologiyasini respublikamizda konchilik, metallurgiya, kimyo, geologiya kabi sohalarning taraqqiyotida tutgan o'rnini quyidagicha xulosalash o'rinlidir:

Birinchidan, bundan ming yil muqaddam toshlar, qimmatbaho metallarga ishlov berish, fizikaviy, kimyoviy xossalarni aniqlash, metallarni eritish, kuydirish, sinash, toblash kabi qo'llanilgan noyob uslublar asrlar davomida qo'llanilib, bugungi kungi zamonaviy texnologiyalar asosida sayqallanib, kon-metallurgiya taraqqiyotida fundamental nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

Ikkinchidan, alloma tomonidan kuzatish, tajriba usullarining aniq fanlar rivojida qo'llanilishi va u orqali erishilgan asosiy natijalar uning tomonidan kimyo, matematika, fizika, astronomiya, konchilik, metallurgiya kabi fan va asosiy sohalarni jadal sur'atlarda rivojlantirishga turtki bo'ldi.

Uchinchidan, Beruniyning ilmiy metodologiyasi asosida yangi texnik asboblar vujudga keldiki, bugungi kunda kon va metallurgiya sanoatini bu texnikalarsiz tasavvur qilish qiyin.

To'rtinchidan, allomaning tadqiqot uslublari o'tmish va zamonaviylikni nazariy va amaliy bog'liqlikda rivojlanishini yana bir karra isbotladi.

Beshinchidan, Beruniy ilmiy metodologiyasi asosida Sharq va G'arb fan va texnikasi rivojida uyg'unlik kelib chiqdi va bu jahon progressiga albatta o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Oltinchidan, Beruniy ilmiy-tadqiqot uslublari asrlar davomida takomillashishi, bugungi kunda sanoat va qishloq xo'jaligi taraqqiyotida jahon miqyosida erishayotgan yutuqlarimizning poydevori mustahkamligiga ishoradir.

Yettinchidan, G'arb beruniyshunosligi rivojida Beruniy asarlarining ahamiyati bilan birga, uning ilmiy metodlarining o'rni beqiyosligi G'arb olimlari tomonidan ko'plab asarlarning yozilishi, real voqelikka jalb qilinishiga olib kelmoqda.

Sakkizinchidan, Beruniyning ilmiy-tadqiqotlari asosida hozirgi davrda konchilik, metallurgiya, kimyo, geologiya kabi sohalarda innovatsion ishlanmalar yaratilib, amaliyotda qo'llanib, olamshumul yutuqlarga erishishga olib kelmoqda.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Леммлейн Г. Минералогические сведения, сообщаемые в трактате Бируни. Москва. 1963. С.48.
2. Баходиров М., Баходиров Р. Беруний ва тупроқшунослик илми. “Абу Райҳон Беруний ижодининг жаҳон фани ривожигаги ўрни” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. - Тошкент. 2023. Б. 153
3. Абу Райҳон Беруний. Китоб ал-жамоҳир фи-маърифат ал-жавоҳир. Минералогия. Таржимон академик Азиз Қаюмов. Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2017. Б. 32.
4. Абдулхай Комили. Вклад Абу Райхана Беруни в развитие физико-математических наук. “Абу Райҳон Беруний ижодининг жаҳон фани ривожигаги ўрни” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. - Тошкент. 2023. Б. 206.
5. Абдулхай Комили. Вклад Абу Райхана Беруни в развитие физико-математических наук. “Абу Райҳон Беруний ижодининг жаҳон фани ривожигаги ўрни” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. - Тошкент. 2023. Б. 206.
6. Санақулов Қ., Рўзиева Р. Вақт – умуминсоний қадрият. – Навоий. НКМК босмаҳонаси, 2019. Б. 156.
7. Баходиров М., Баходиров Р. Беруний ва тупроқшунослик илми. “Абу Райҳон Беруний ижодининг жаҳон фани ривожигаги ўрни” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. - Тошкент. 2023. Б. 152-153.
8. Санақулов Қ. Янги истиқболлар сари. Комбинат расширяет горизонты. – Тошкент: Mashhur-press, 2018. Б. 75.
9. Санақулов Қ. Янги истиқболлар сари. Комбинат расширяет горизонты. – Тошкент: Mashhur-press, 2018. Б. 80.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

STATEHOOD TRADITIONS AMONG THE ANCIENT TURKS

Muminov Ulmas Ravshankulovich

PhD in History

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract. This article analyzes the political and social systems of ancient Turkic states, focusing particularly on the institutions of tora (customary law), kingship, and kurultay (council), which regulated the relationship between the state and society. The study examines the steppe civilization and nomadic equestrian lifestyle of the Turks, as well as the people's role in the formation and stability of the state. The findings demonstrate that the establishment and preservation of the Turkic state were based on the principles of nation, homeland, sovereignty, and collective identity, while the ruler derived his legitimacy from the divine concept of qut (heavenly mandate). Furthermore, the kurultay institution played a crucial role in political decision-making and in defining the limits of the ruler's authority. The paper enriches the discussion by integrating recent scholarly research on Turkic state traditions and their influence on modern political thought.

Keywords: Turkish, state, tradition, tora (customary law), kingship, kurultay, steppe civilization, relations between people and state.

QADIMGI TURKIYLARDA DAVLATCHILIK AN'ANALARI

Muminov Ulmas Ravshanqulovich

Tarix fanlari bo'yicha PhD

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

E-mail: umuminov1989@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola qadimgi turk davlatlaridagi siyosiy va ijtimoiy tizimlarni, xususan, to'ra (urf qonunlari), hukmdorlik va qurultoy institutlari orqali davlat-jamiyat munosabatlarini tahlil qiladi. Maqolada turklarning dasht madaniyati va o'tli ko'chmanchi hayot tarzi, shuningdek, xalqning davlatning shakllanishi va barqarorligidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turk davlatlarida davlatning barpo etilishi va saqlanishi xalq, millat, vatan va suverenlik tamoyillariga tayangan, hukmdor esa ilohiy "qut" orqali legitimlikka ega bo'lgan. Shu bilan birga, qurultoy institutining siyosiy qaror qabul qilish va hukmdorning vakolatini tartibga solishdagi roli alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Maqola turk davlat an'analari va ularning zamonaviy siyosiy tafakkurga ta'siri haqidagi ilmiy tadqiqotlar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: Turk, davlat, an'ana, to'ra, hukmdorlik, qurultoy, dasht madaniyati, xalq va davlat munosabatlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N02>

Kirish. Inson tabiatdan ijtimoiy mavjudot bo'lgani uchun jamiyatda, ya'ni bir guruh odamlar bilan birga yashashga majburdir. Insonning birgalikda yashash zarurati tabiiy ravishda muayyan tashkiliy jarayonlarni ham keltirib chiqaradi. Bu tashkiliy jarayon jamiyat tuzilishiga qarab farqlansa-da, eng keng va murakkab tashkiliy shakl sifatida "davlat" tushunchasi paydo bo'ladi. Tarixda birinchi davlatlar qachon va qayerda yuzaga kelgani, qaysi ehtiyojlar asosida tashkil topgani va qaysi qadriyatlar bilan mustahkamlanganligi mavzusi ko'plab bahslarga sabab bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, aniq bir haqiqat shundan iboratki, davlatlar dunyoning biror nuqtasida bir vaqtda, bir xil ehtiyojdan kelib chiqqan holda vujudga

kelmagan. Shu sababli, davlatlarning shakllanish shartlari va ularning asosiy tamoyil hamda prinsiplari farqlanadi.

Dunyo tarixi bilan parallel ravishda, turk tarixining boshlanishi ham adabiyotlarda keng tadqiq qilingan masalalardan biridir. Biroq bu tadqiqotlarda ko‘pincha turk tarixi G‘arb tarixi doirasida ko‘rib chiqilganini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, turk tarixining qadimgi davrlari hanuzgacha to‘liq aniqlangan emas. Shuning uchun, chuqur ildizlarga ega bo‘lgan turk tarixini faqat ko‘chmanchi va dasht hayoti bilan cheklab ko‘rish qanchalik xato bo‘lsa, uni G‘arb tarixi kontekstiga sig‘dirib talqin qilish ham shunchalik noto‘g‘ri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, dunyo tarixidagi muhim ijtimoiy va siyosiy jarayonlar turk tarixini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bois, turk tarixini tizimli ravishda tasniflash oson emas. Ayniqsa, turklar keng qabila va xalqlar shaklida dunyo bo‘ylab tarqalganligi bu tasniflashni yanada murakkablashtiradi. Chunki, tarqalgan turk jamoalari turli rivojlanish bosqichlarida bo‘lganligi sababli, ularni tarixning bir davrida bir butun sifatida baholash imkonsizdir. Bundan tashqari, turklarning asrlar davomida yangi iqlim va yurt izlash harakatlari ularni ma‘lum bir hudud bilan cheklanmasdan keng makonga yoyilishiga sabab bo‘lgan [39, s. 43]. Shu jarayonda, ko‘chmanchi-dasht madaniyatini davom ettirib, turli geografik hududlarda yangi yurt izlagan turklar, qiyin sharoitlarga qaramay, siyosiy hokimiyat tushunchasini saqlab qolib, davlat institutini davom ettirishga muvaffaq bo‘lishgan. Keyingi davrlarda esa, yerga joylashgan turklar siyosiy tashkiliy tizimlarini rivojlantirib, hokimiyatining cho‘qqisiga yetganlar. Shu nuqtai nazardan, turk tarixini boshqa xalqlar bilan bog‘liq ravishda kuzatishdagi qiyinchiliklar, turk tarixining dunyo sivilizatsiyasiga ta‘siri hisobga olingan holda tahlil qilinishi zarurdir. Shunga qaramay, turklar tarixini yanada chuqurroq o‘rganish va tadqiq qilish lozimligi hanuzgacha dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Ushbu tadqiqotda qadimgi turk davlatlarida davlat tushunchasi hamda davlat-jamiyat munosabatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qadimgi turk davlatchiligi masalasini tadqiq etish, bir tomondan, tarixiy-antropologik, boshqa tomondan esa siyosiy-falsafiy yondashuvni talab qiladi. Ushbu maqolada foydalanilgan adabiyotlar ingliz, rus va turk tillaridagi manbalarga tayanadi hamda qadimgi turk siyosiy tafakkurining shakllanishi, davlat institutlari va to‘ra tizimining ijtimoiy mohiyatini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Turkiya va Markaziy Osiyoda so‘nggi yillarda chop etilgan tadqiqotlar (Kafesoğlu, 2016; Gömeç, 2018; Ahmetbeyoğlu, 2020; Pamir, 2019; Akcan, 2025) turk davlatchiligini “qut” va “to‘ra” tushunchalari asosida tahlil etib, hokimiyatning ilohiy legitimatsiyasi bilan ijtimoiy adolat tamoyili o‘rtasidagi uyg‘unlikni ko‘rsatadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, davlat xalq uchun mavjud bo‘lgan “xizmat instituti” sifatida baholanadi.

Ingliz tilidagi manbalar orasida Hall va Ikenberry (2000) tomonidan davlatni “institutional order” sifatida tahlil etish, Gözler (2011) hamda Zabunoğlu (2015)ning huquqiy-davlat nazariyalari qadimgi turk siyosiy tizimini zamonaviy davlat shakllari bilan qiyoslash imkonini beradi. Shuningdek, Waller (1958) va Grigoriev (2021) tomonidan ishlab chiqilgan “Eurasian steppe civilization” konsepsiyasi turklarning otli ko‘chmanchi madaniyatini davlatning shakllanishidagi asosiy ijtimoiy omil sifatida ko‘rsatadi.

Rus tilidagi tadqiqotlarda (Гумилёв, 1993; Кляшторный и Сулейменов, 2010) qadimgi turk etnogenezining tabiiy-geografik omillar bilan bog‘liqligi tahlil qilinib, “dasht madaniyati” (степная цивилизация) siyosiy va ijtimoiy tuzilmalarning shakllanishida hal

qiluvchi ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi. Bu yondashuv turk xalqlarining harbiy-intizomiy tizimlarini, ko'chmanchi boshqaruv madaniyatini hamda yer va xalq o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntirishga yordam beradi.

Metodologik jihatdan mazkur tadqiqot ko'p manbali taqqoslama tahlil usuliga tayanadi. Turk, rus va ingliz manbalari o'rtasida intertekstual solishtirish amalga oshirilib, tarixiy faktlar turli ilmiy maktablarning qarashlari bilan muvofiqlashtirilgan. Shuningdek, sivilizatsion yondashuv (Toynbi, Hantington, Kafesoğlu) orqali turk siyosiy tizimi Sharqiy va G'arbiy davlat an'analari nisbatan o'ziga xos model sifatida tahlil qilinadi.

Metodologiya. Tadqiqot quyidagi asosiy metodologik yo'nalishlarga tayandi:

1. Tarixiy-qiyosiy yondashuv (comparative-historical method): Qadimgi turk davlatlari (Hun, Ko'kturk (Turk xoqonligi), Uyg'ur)ning siyosiy tuzilmalari o'zaro solishtirilib, davlatning xalq bilan o'zaro aloqasi "qurultoy" va "to'ra" tizimlari orqali tahlil qilindi.
2. Sotsiologik tahlil: Dyurkeimning "ijtimoiy birdamlik" nazariyasi asosida to'ra tizimining jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlovchi vosita sifatidagi roli yoritildi.
3. Falsafiy-sivilizatsion yondashuv: "Qut" (ilohiy hokimiyat) va "adolat" (to'ra) tushunchalari orqali qadimgi turk siyosiy tafakkurining axloqiy asoslari o'rganildi.
4. Madaniy-antropologik yondashuv: Dasht hayot tarzi, otli ko'chmanchi madaniyat va urf-odatlarining davlat tizimi shakllanishiga ta'siri arxeologik va etnografik manbalar orqali tahlil qilindi.
5. Normativ-huquqiy tahlil: To'ra tizimining huquqiy mohiyati va uning davlat legitimatsiyasidagi o'rni zamonaviy huquqiy davlat nazariyalari bilan qiyoslab o'rganildi.

Shu tariqa, tadqiqot qadimgi turk davlatchiligining tarixiy asoslarini faqat siyosiy emas, balki madaniy, huquqiy va falsafiy kontekstda ham o'rganishga yo'naltirilgan. Mazkur metodologiya turk tarixida davlat tushunchasining shakllanishi, xalq va hokimiyat o'rtasidagi o'zaro mas'uliyat hamda suverenlik tamoyillarini tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Muhokama. Arabcha so'z bo'lgan "davlat" atamasi dastlab ikki qabila o'rtasidagi jangda g'olib kelgan tomonni ifodalash uchun ishlatilgan. Turklarda esa bu atama "baxt", "taqdir", "saodat", "boyluk" va "mulkiy egalik" kabi ma'nolarni bildiradi va siyosiy nuqtai nazardan ma'lum bir hududda ma'lum bir xalq tomonidan belgilangan qonunlar asosida tashkil etilgan hukmronlik shaklini anglatadi [1, s. 92-93]. Davlat siyosiy kimligidan tashqari, ma'lum bir inson jamoasining evolyutsiyasidan so'ng paydo bo'lgan "ijtimoiy hodisa" sifatida ham tasniflanadi [34, s. 30]. Qaysi davrda tashkil etilgan bo'lmasin, davlatning asosiy va o'zgarmas ikki vazifasi mavjud: birinchisi, xalqning xavfsizligini ta'minlash; ikkinchisi esa davlatning fuqarolarini adolat bilan boshqarishdir. Chunki davlat xalqi uchun mavjud bo'lib, turklar uchun davlat birinchi navbatda "xizmat davlati" tushunchasiga ega bo'lgan.

Davlat tushunchasini zamonaviy ishlash doirasida baholaganda, hozirgi davlatning asosiy maqsadi jamoat xizmatlarini amalga oshirishdan iborat ekani ko'rinadi. Umumiy qabulga ko'ra, davlat – bu ma'lum bir jamoa tomonidan ma'lum bir geografik hududda tashkil etilgan, institutsional tuzilmasini to'liq shakllantirib, ichki va tashqi siyosiy mustaqillikni ta'minlay oladigan siyosiy tashkiliy tuzilma sifatida ta'riflanadi [21, s. 11]. Shu nuqtai nazardan davlat uch asosiy unsurdan iborat: millat, yurt va suverenitet [19, s. 14]. Siyosiy tartibni barpo etish uchun qonun va huquqiy me'yorlar zarur bo'lgani sababli, huquq va qonunlar ham to'rtinchi unsur sifatida qabul qilinadi [23, s. 43].

Umumiy ta'rifga ko'ra, "millat" atamasi bir xil til, din, irq, e'tiqod, tarix va yurtga ega bo'lgan insonlar jamoasini ifodalaydi. Shu kontekstda millat tushunchasi o'tmishdan kelajakka uzluksizlik va abadiylik falsafasini o'zida mujassam etadi. Shu sababli millatning ma'naviy mohiyati mavjud bo'lib, u "huquqiy shaxsiyat" xususiyatiga ega. Millat bo'lish esa umumiy e'tiqodlar, qadriyatlar, madaniyat va umumiy ong asosida birgalikda yashashni istashdan iborat iroda jarayonini bildiradi.

"Xalq" tushunchasi esa fizik jihatdan bir guruh shaxslardan tashkil topgan jamoaviy birlikni anglatadi. Bu atama ma'lum bir joy va vaqtda birga yashovchi insonlar jamoasini ifodalaydi. Turklarda davlat millatni tashkil etuvchi asosiy unsur sifatida xalqi uchun tashkil etilgan. Shu nuqtai nazardan, millat ham, xalq ham davlatning asosiy tarkibiy elementi hisoblanadi. Davlat esa, o'z navbatida, undan kelib chiqqan hokimiyat sifatida, xalqi va millatini himoya qilish bilan mas'ul bo'lgan "ijtimoiy" va "siyosiy" tuzilma hisoblanadi.

Millat tushunchasi davlat va jamiyat munosabatlari nuqtai nazaridan tahlil qilinsa, har bir jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari va yashash tarzi mavjudligi aniqlanadi. Aslida, davlat va jamiyat munosabatlarini belgilovchi asosiy omil shu xususiyatlardir. Shu kontekstda turk jamiyatining ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, Hippokrat turklar hayot tarzini Iskitlar (Skiflar) orqali quyidagicha tasvirlaydi: "Ular otga minadi, o'q otadi, ot ustida nayza uloqtiradi va dushman bilan jang qiladi. Oila a'zolari va bolalar aravalarda yashaydi... Aravaning to'rt tomoni va uyi jun bilan yopilgan. Ba'zi aravalarda ikki, ba'zilarida uch xona mavjud. U yomg'ir, qor va shamoldan himoyalangan. Aravani ikkita yoki uchta bug'rusiz buqa tortadi. Bu aravalarda ayollar bolalar bilan yashaydi, erkaklar esa ularga ot ustida hamrohlik qiladi. Erkaklarni qo'ylar, mol va otlar kuzatadi. Xuddi shu joyda hayvonlar uchun o't topganicha qoladilar, so'ngra boshqa joyga ko'chadilar. Ular pishirilgan go'sht bilan oziqlanadi, urg'ochi ot sutini ichadi" [15, s. 28]. Ko'chmanchi hayot tarzida yashagan turklar ma'lum bir shahar va qishloqlarga ega bo'lmagan. Shu sababli ularning asosiy faoliyati kundalik hayotni davom ettirishga qaratilgan ovchilik, chorva uchun yaylov topish va yashashni ta'minlashga qaratilgan yurishlar bilan bog'liq edi. Shu jihatdan, Bilga Xoqonning yerga joylashishga oid taklifiga Vazir Tonyuquqning javobi turklar hayot tarzini ochib beradi: "Hech bir shahrimiz yo'q. Suvli va yaylov joylarni qidirib yuramiz va ov qilamiz. Butun xalqimiz jang san'atini qo'llay oladi. Kuchli bo'lsak, askarlarimizni yurishlarga yuboramiz, zaif bo'lsak, dashtga chekinib, o'zimizni himoya qilamiz. Agar qal'alar qurib, eski hayot tarzimizni o'zgartirsak, bir kun kelib mag'lub bo'lamiz" [15, s. 29].

Dasht sharoiti xalqning kundalik hayot tarziga bevosita ta'sir qilib, ularni jangchi, intizomli va kuchli jamiyatga aylantirdi. Qattiq tabiiy sharoitlar xalqni bolalikdan shu salbiy holatlar bilan kurashishga majbur qildi va natijada ular kurashchi shaxs sifatida shakllandi. Otga minish, o'q otish, ovchilik, kurash, tosh uloqtirish va hayvonlarni ta'qib qilish kabi mashg'ulotlar nafaqat kundalik hayotga, balki harbiy intizomning rivojlanishiga ham xizmat qildi [15, s. 30-31].

Shunday qilib, murakkab tabiiy sharoitlar va dasht hayot tarzining o'ziga xosligi turk millatining ma'lum bir tartib va tizim asosida rivojlanishiga imkon yaratdi.

Umumiy yashash tarzida xalq teng va erkin shaxslardan tashkil topgan. Shuningdek, bu faqat turklarga xos bo'lmay, boshqa millatlarga mansub odamlar ham teng va erkindir. Bu holatning yorqin misoli sifatida, 448 yilda Attila saroyiga elchi sifatida borgan Grek tarixchi Priskosning yo'lda uchragan bir Vizantiyalik bilan suhbatini keltirish mumkin. 1-Bolqon yurishi

(441-442) vaqtida turklarga asir tushgan ushbu shaxs, nima uchun Vizantiyaga qaytmaganligi savoliga quyidagicha javob bergan: “Hayotimdan mamnunman. Bu yerda hamma erkin. Hech kim boshqaga aralashmaydi... Vizantiyada xalq osoyishta emas. Qo‘mondonlar urushda xalqni himoya qilmaydi. Tinchlik davrida esa xalq og‘ir soliqlar to‘lashdan qashshoqlikka tushadi... Bu yerda esa adolat mavjud. Xalqning huquqlari poymol qilinmaydi” [21, s. 135].

Shunday qilib, turklarda xalq davlatning mavjud bo‘lish sababidir. Davlat xalqqa xizmat qilish va uning ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashkil etilgan. Davlatni tashkil etuvchi insoniy unsur bo‘lgan xalq esa davlatni barcha qadriyatlardan ustun qo‘yadi va uni himoya qilish uchun kurashadi, chunki davlat bo‘lmasa, “xalq” ham mavjud bo‘lmasligini biladi.

Har qanday davlatni muhokama qilish uchun, avvalo, u davlatning o‘z hududi yoki belgilangan chegaraga ega bo‘lgan yeri bo‘lishi kerak. Hududsiz jamoa davlat tuza olmaydi. Vatan davlatning moddiy unsuridir va u davlatning suvereniteti va kuchining amalga oshirilgan joyidir. Asosan “siyosiy” tashkilot bo‘lgan davlat mavjud bo‘lish uchun avvalo xalq (millat) va vatan (yer)ga muhtojdir. Turklarda vatan tushunchasi eng ko‘p e‘tibor qaratilgan masalalardan biridir va bu atama “il/el” shaklida ifodalanadi. Hokimlar boshqaruvi ostidagi yer hukmdorning emas, balki millatning umumiy mulki hisoblanadi. Masalan, Osiyo hunlarining buyuk hokimi Mete Xon taxtga o‘tirganda qo‘shnilar – Tunguzlarning xotinlari va otlarini talab qilishi natijasida urush chiqmasligi uchun ularni berishga rozilik bildirgan. Ammo qo‘shnilar bundan jasorat olib, endi mamlakatning cho‘l hududini so‘rab kelganda, Xon qurultoyga murojaat qilgan. Qurultoyda yer allaqachon cho‘l ekani va urush chiqmasligi uchun berilishi mumkinligi bo‘yicha qaror qabul qilingan. Shu bilan birga, Xon bu fikrdagi beylarni jazolab, Tunguzlarga qarshi urush boshlagan va: “Ot va xotin meniki edi, berdim; ammo vatan yeri muqaddasdir, berilmaydi” deb, yerni millatning mulki va davlatning asosiy poydevori sifatida belgilagan [13, s. 87;]. Natijada, yer barcha millatning mulki bo‘lganligi sababli hech qanday kuch yoki tashkilot uni boshqarish yoki qaror qabul qilish huquqiga ega emas. Bir hudud vatan bo‘lishi uchun hamma vaqt jonini fido qilishga tayyor insonlar va ustida yashagan avlodlar zarurdir. Shu sababli turklarda vatan muqaddas hisoblanadi va uning uchun jon fido qilinadi. Jon fido qilinadigan vatan esa o‘z millatiga tegishlidir va bu millatning yeri yoki mol-mulki ixtiyoriy boshqaruv ostida bo‘lishi mumkin emas [18, s. 69].

Suverenitet – bu davlatning shartsiz va cheklovsiz mustaqil bo‘lishi hamda boshqa davlatlar bilan huquqiy jihatdan teng maqomda bo‘lishi demakdir. Siyosiy hokimiyat sifatida davlat uchun suverenitet tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Davlatga ichki va tashqi jihatdan hukmronlik kuchini beruvchi suverenitet yuqori darajadagi kuch sifatida namoyon bo‘ladi [26, s. 2]. Davlat bo‘la olish uchun avvalo millat erkin va suveren bo‘lishi shart. Turk millati har doim ozod bo‘lgan va erkinligidan hech qachon voz kechmagan. Ushbu tushuncha nafaqat boshqaruvchilar, balki boshqarilayotganlar orasida ham mavjud bo‘lganligi sababli, ikki tomon ham mustaqillikni qo‘llab-quvvatlagan.

Turklarning ko‘chmanchi hayot sharoiti ularga mustaqil harakat qilish va hatto qiyin sharoitlarda hayotlarini davom ettirish uchun yechimlar ishlab chiqish imkonini bergan. Rivoyatlarga ko‘ra, O‘g‘uz Xon turk millatiga “doimo ko‘chib yuring, joylashmang” deb vasiyat qilgan. Uch turk xoniga maslahatchilik qilgan vazir Tonyuquq Turk Xoqonligi davrida Xitoy hududlariga joylashish g‘oyasiga qarshi chiqqan va turklar ko‘chmanchi va dasht madaniyati ta‘siri ostida har doim jangga tayyor xalq ekanliklarini, ammo barqaror hayotga o‘tsalar, jang

qilish qobiliyatlarini yo'qotib, kutilmagan hujum vaziyatida hukmronlikni amalga oshirilmaliklarini ta'kidlagan [4 s. 211-212].

Shuningdek, Bilga Xoqon yashayotgan hududlarga Buddist va Taoist ibodatxonalar qurish taklifiga qarshi chiqqan Tonyuquq: "Ikkalasi ham insonning hukmronlik va hokimiyat tuyg'usini zaiflashtiradi. Kuch va jangovar ruhning yo'li bunday emas. Agar turk millatini yashatmoqchi bo'lsak, bu tartiblariga va ibodatxonalariga yerimizda joy bermasligimiz kerak" degan fikrni bildirgan [4, s. 212].

Shunday qilib, ko'chmanchi xalqning doimiy ravishda tabiat va turli jamoalar bilan kurashishga majbur bo'lishi ularni mustaqillikni saqlash borasida barqaror jamiyatlarga nisbatan kuchli qilgan. Chunki, mojarolar, urushlar, bo'linishlar, vorislik masalalari, tabiiy sharoitlarning qiyinligi kabi sabablar tufayli ba'zan kichraygan davlatlar xalqning qayta birlashishi bilan yana tashkil topib, o'z mustaqilligini himoya qilgan [15, s. 27].

Davlatning asosiy unsurlaridan biri bo'lgan mustaqillik, turk millatining tabiati bilan ham uyg'un. Shu nuqtai nazardan turklar, davlatni boshqa davlatlarning hukmronligi ostiga tushmaslik uchun tashkil etgan. Mustaqil bo'lmagan hududlarni ular "yurt" sifatida qabul qilmagan va mustaqillik xavf ostida bo'lsa, yerlarini tark etib, mustaqil bo'la oladigan boshqa hududlarga ko'chgan. Tarixda siyosiy chegaralarni o'zgartirgan mashhur xalq ko'chishlari ham shundan dalolat beradi.

To'ra – bu turk davlat an'alarida davlatni tashkil etuvchi asosiy unsurlardan biridir. "To'ra" atamasi "tuzish, hosil qilish" ma'nosini anglatadi. O'rxun yodgorliklarida ham qayd etilgan bo'lsa-da, to'raning ishlatilishi bundan ancha oldingi davrlarga borib taqaladi. To'ra, davlat va jamiyatning ijtimoiy va siyosiy hayotini tartibga soluvchi og'zaki huquq qoidalari sifatida ta'riflanadi [2, s. 37]. Jamiyatda tartib va nizomga oid tushuncha sifatida to'ra keng qamrovli, himoyaviy va umumbashariy xarakterga ega bo'lgan [18, s. 73-74]. Turklarda davlatning mavjudligi to'raning to'liq amalga oshirilishiga bog'liq bo'lgan.

Har qanday shaklda yaratilgan bo'lsa-da, to'raning o'zgarimas asosiy tamoyillari mavjud bo'lib, ular adolat, yaxshilik va foydalilik, tenglik hamda insoniylik va umumbashariylikdan iboratdir. Shu o'zgarimas tamoyillar sababli to'ra xoqonlar, shu jumladan, jamiyatning barcha qatlamlari uchun majburiy bo'lgan [2, s. 42;] [18, s. 73-74]. Davlatni ifodalash nuqtai nazaridan "qut"ning muvaffaqiyati to'raning to'g'ri qo'llanilishiga bog'liq edi. To'raga to'g'ri amal qilmaydigan xoqondan "qut" ham Xudoning irodasi bilan olinardi. Yer yuzidagi ideal tartibni "Xudoning soyasi" sifatida xoqon ta'min qilgan. Agar xoqon bu ideal tartibni saqlay olmasa, Xudo "qut"ni undan olib, boshqasiga berardi [3 s. 307-313].

To'ra qog'ozga yozilmagan bo'lib, avlodlardan avlodlarga xalq orasida meros qolgan. Xalq to'raga kundalik hayotida qo'llab, uni yashatar edi [28, s. 61]. Jamiyat tartibini ta'minlash uchun yaratilgan bu qoidalar jamiyatning barcha qatlamlari uchun majburiy hisoblangan. Ijtimoiy tartibga urg'u berish maqsadida eski turk yozuvlarida to'ra so'zi "il" tushunchasi bilan birga ishlatilgan [10, s. 42]. Shu sababli to'ra davlatning xalq oldidagi qonuniyligi uchun ham muhim mezon hisoblangan.

Devonu lug'ati't-Turkda to'ra quyidagicha ifodalanadi: "Il ketadi, to'ra qoladi. Zulm eshikdan kirsa, to'ra mo'ri orqali chiqadi. Il tinchlik (to'ra) topsin. Il tark etilsa, odat (to'ra) tark etilmaydi" degan ibora orqali davlat, xalq va boshqaruvga oid tamoyillar ifodalanadi [2, s. 38].

Turk davlat an'anasida davlat boshida "xon", "xoqon", "qahqon", "bashbug" kabi unvonlarga ega rahbarlar bo'lgan. Ko'kturk va Uyg'ur hukmdorlariga "xoqon", Hun

hukmdorlariga esa cheksiz kenglik va keng maydonni anglatadigan “tan-hu” yoki “shan-yu” nomi berilgan. Turklar orasida “xon” atamasi katta davlatlar rahbarlari uchun, “qahqon” esa nisbatan kichikroq davlatlar boshliqlari uchun ishlatil [33, s. 36]. Bu rahbarlar Xudo tomonidan ularga berilgan “qut” (davlat, baxt, yaxshilik, omad, ulugʻlik va taqdir) bilan davlatni boshqarishgan. Qut siyosiy hokimiyatni anglatadi. Barcha turk davlatlarida hukmron boʻlgan bu tushunchaga koʻra, rahbarlar “ilohiy adolat va tartibning vakillari” hisoblanadi. Hun davlatida Mete xonning taxtga chiqishi ham shu eʼtiqodga bogʻliq boʻlgan, shuningdek, Bilga Xoqon ham “qutim boʻlgani uchun qahqon boʻldim” deb taʼkidlagan [2, s. 35-36]. Hukmdor sifatida xarizmatik yetakchilikka ega boʻlgan qahqonlar, Xudo tomonidan ularga berilgan “qut” bilan taxtga chiqib, shuningdek, bu kuchning irodasi bilan taxtdan tushirilgan (29, s. 5). Shu sababli, “qut” eski turk davlatlarida hokimiyatni qonuniylashtirish vositasi sifatida xizmat qilgan. Xoqon “qut” egasi boʻlganligi uchun uning avlodlari ham “qut”ga ega hisoblangan [6, s. 102].

Taxtga oʻtish maʼlum qoidalarga bogʻlangan turk davlatlarida taxt avvalo birinchi “xotun”dan boʻlgan farzandlarga tegishli boʻlgan [31, 2021]. Ushbu tushuncha Islomni qabul qilgandan keyin ham davom etgan, biroq merosxoʻrlik tizimi boʻlsa ham taxtni tasdiqlashda qurultoy va ulamolarning fikri olinardi [11, s. 129].

Xoqon xotinlari sifatida “xotun”lar ham turk davlat anʼanasida muhim oʻringa ega boʻlgan. Eski turk davlatlarida boshqaruvda xoqondan keyin ikkinchi oʻrinda “xotun” turgan. Xotunlar ham toʻraga boʻysunib, “xotunlik maqomiga” yetish uchun toʻralarga mos kelishlari kerak edi. Eski turklarda xoqonlar turk boʻlmagan jamiyatlar bilan ham nikoh rishtalarini qurishgan. Agar turmush qilinadigan shaxs Xitoy malikalari qatoridan boʻlsa “konchuy”, boshqa xalqlardan boʻlsa “kuma” deb atalgan. Maʼmuriy va ijtimoiy jihatdan xotun eng yuqori maqomga ega boʻlgan. Xoqonning xotinlaridan faqat turk va shon-sharafli boʻlganlar “xotun” boʻla olgan. Kuma va konchuy xotun boʻla olmagan, shuningdek, ularning farzandlari ham taxtda huquqqa ega boʻlmagan. Biroq Uygʻur davrida bu anʼana oʻzgargan va Uygʻur sulolasiga uylangan Xitoy malikasi ham “xotun” unvonini olgan. Shundayki, Uygʻur hukmdorlaridan yettisining “bosh ayoli” xitoylik boʻlgan

Turk tarixi nuqtai nazaridan muhim rol oʻynagan ushbu turmushlar keyinchalik Xitoy imperiyasining kuchayishiga, Uygʻurlarning esa asta-sekin kuchlarini yoʻqotib, yiqilishiga sabab boʻlgan [12, s. 63-70; 25, s. 352]. Shuningdek, turk davlatlarida xoqon vafot etganda, uning oʻrniga oʻtiradigan farzand hali kichik boʻlsa, xotunlar uning nomidan davlatni boshqarishgan. Bu holat Koʻkturklar, Saljuqlar va Usmoniylar davrida ham kuzatilgan. Urushlarda xotunlar xoqonlar bilan birga boʻlganlari maʼlum. Eski turklarda xotunlarning davlat majlislariga qatnashganlari, xoqon bilan birga yoki baʼzan yakka holda xorijiy elchilarni qabul qilganlari ham qayd etilgan [18, s. 140-149].

Xulosa qilib aytganda, siyosiy va ijtimoiy tuzumda ayollarga oid barcha ushbu holatlar, turk davlatlarida ayollarning, ayniqsa boshqa jamiyatlar bilan taqqoslaganda, sezilarli darajada himoyalanganligini koʻrsatadi.

Qadimdan hukmdorlar oʻz davlatlarini samarali boshqarish va muhim masalalarda qarorlar qabul qilish uchun bir kengashga ehtiyoj sezganlar. Islomdan oldingi turk davlatlarida davlat kengashi, maslahatchilar kengashi yoki kengash sifatida atalgan ushbu organ “Toy” deb nomlangan [10, s. 342]. Toy soʻzi, shuningdek, bayram, oʻyin-kulgi va ovqatli marosim

ma'nolarini ham bildirgan. XIII asr o'rtalaridan boshlab esa "Toy" o'rniga "Qurultoy" atamasi ishlatila boshlandi [17, s. 41].

Qurultoylar eng oliy qaror qabul qilish organi bo'lib, birinchi bor Osiyo Hunlarida Mete davrida tashkil etilgan [17, s. 50; 30, s. 2]. Eski turklarda shunga o'xshash tarzda Uyg'urlarda ham kengashlar mavjud bo'lgan; Attila davrida Hun davlatlarida boylar tashkil etgan "maslahat kengashi", Tabg'achlarda "nozirlar kengashi", Xazarlarda "qariyalar kengashi", Pecheneglarda "komenton kengashi", Bulg'or davlatida esa "xalq kengashi" mavjud bo'lgan. Umumiy nomi bilan "Toy" deb atalgan ushbu kengash O'g'uz turklarida "Tirnak" (jamiyat) yoki "Kengash" sifatida tanilgan [30, s. 3-4].

Eski turk davlatlarida qurultoy yilda uch marotaba davlat ishlarini muhokama qilish uchun yig'ilgan. Boy boshliqlari ishtirokida yil boshida xoqon saroyida o'tkazilgan birinchi yig'ilish asosan diniy marosimlarga bag'ishlangan, shu bilan birga ma'muriy va huquqiy qarorlar ham qabul qilingan. Yilning beshinchi oyida o'tkazilgan ikkinchi yig'ilishda ota-bobolarga, Yer va Osmon uchun duolar qilinib, ma'muriy masalalarda qarorlar qabul qilingan. Kuzda o'tkazilgan uchinchi qurultoyda esa urush masalalari muhokama qilingan, otlar va hayvonlar soni aniqlangan, "harbiy" kuchni belgilash maqsadida aholining ro'yxati tuzilgan va xalqdan davlatga beriladigan soliqlar yig'ilib, ularning tartibi belgilangan.

Ushbu uch yig'ilishdan eng muhim bo'lgan ikkinchisi bo'lib, davlat rahbari sifatida "tanhu"ning saylovi ushbu yig'ilishda amalga oshirilgan; ota-bobolar, Osmon va Yer uchun qurbonliklar berilgan [4, s. 4273; 27, s. 220]. Qurultoyga qatnashmaslik qahqonga qarshi katta isyon sifatida qabul qilingan [27, s. 220]. Qurultoylar muhokama qilinayotgan masalaga ko'ra "to'ra qurultoyi", "ko'chmanchi qurultoyi", "urush qurultoyi" kabi nomlar bilan atalgan [27, s. 41-48]. Yig'ilish shakli bo'yicha esa qurultoylar muhokama qilinayotgan masalaning dolzarbligiga qarab "oddiy" yoki "favqulodda" tarzda chaqirilgan [27, s. 41]. Qurultoyning tabiiy rahbari xoqon bo'lgan, ammo u mavjud bo'lmagan hollarda muhokamalar ayguçi tomonidan boshqarilgan.

Qurultoy xoqonlik vakolatini tasdiqlash yoki xoqonni taxtdan tushirish vakolatiga ega bo'lgan. Shuningdek, qurultoy xoqon tomonidan qabul qilingan qarorlarni nazorat qilish huquqiga ham ega bo'lgan. Shu bilan birga, xoqon qurultoy qabul qilgan har bir qarorni majburiy ravishda tasdiqlash shartiga ega bo'lmagan; shuningdek, qurultoy ham xoqonning qarorlari va amaliyotlariga qarshi chiqishi mumkin edi [5, s. 4275-4278; 27, s. 214]. Shu nuqtai nazardan, xoqon davlat ishlariga oid masalalarda kengash bilan maslahatlashmasdan yakka qaror qabul qila olmagan, ya'ni xoqon kengash oldida mas'ul bo'lgan [5, s. 4276; 8, s. 138; 18, s. 62].

Qurultoylar, ayniqsa isyon, qo'zg'olon kabi davlatga oid yirik masalalarda "sud organi" vazifasini ham bajarishgan. Bunday hollarda xoqon adolatli bo'lish va umumiy aqlga muvofiq harakat qilish maqsadida qurultoyga murojaat qilgan. Turk davlatlarida demokratiyaning ilk namunalaridan biri sifatida qabul qilinadigan qurultoylarda protokol an'analari ham qo'llanilgan. "Orun" (protokol) va "ulus" (taqsimlash) an'analari amal qilgan ushbu yig'ilishlarda samarali qarorlar qabul qilinishi uchun protokol an'anasi katta ahamiyatga ega bo'lgan [3, s. 4278].

Eski turk davlatlarida qurultoylar shuningdek qonun chiqaruvchi funksiyani ham bajargan. Oddiy sharoitda chaqirilgan qurultoylar muhokama qilgan masalalar bo'yicha qabul qilgan qarorlar orqali bir to'ra shakllantirgan. Shunga o'xshash tarzda ko'chish, urush, aholi

ro'yxati tuzish va sud qurultoylari kabi maxsus maqsadlarda chaqirilgan qurultoylar ham qabul qilgan qarorlar orqali to'raga barqarorlik berib, davlat an'anasi shakllanishiga hissa qo'shgan [27, s. 218-225].

Natijalar. Turklar o'zlaridan oldingi davlatlardan olgan tajribalariga tayangan holda tarix davomida ko'plab davlatlar tashkil qilganlar. Turklarning davlat barpo etishdagi bu muvaffaqiyati, ularning yashayotgan muhitga tez moslasha olish qobiliyatidan kelib chiqqan. Ular yashagan dasht hayoti tufayli tashkil etilgan madaniyatga "otli ko'chmanchi madaniyati" nomi berilgan [9, s. 23]. Otli ko'chmanchi hayot tarzining asosiy ildizi "Andronovo" madaniyatida mujassam bo'lgan [20, s.36]. Ushbu madaniyatda ot ko'chmanchi hayotning markaziy unsuridir, chunki kundalik hayot, hattoki davlat boshqaruvi ham ot ustida amalga oshirilgan. Xavfsizlik va urush kabi mudofaa xizmatlaridan tashqari yaylov va o'tloqlarni boshqarish, dehqonchilik, chorvachilik, iqtisodiyot va boshqa rivojlanish xizmatlari ham otdan foydalanish bilan bog'liq tarzda rivojlangan [9, s. 23]. Shu nuqtai nazardan, ot va temir bo'ston madaniyatida ikki muhim unsur bo'lib, ular urush quroli sifatida ham xizmat qilgan.

Bunga muvofiq, turk mudofaa tizimining markazini tashkil qiluvchi otlarning yetishtirilishi harbiy ehtiyojlar doirasida reja asosida olib borilgan [32, s. 8]. Shundayki, turklar otdan foydalanish bo'yicha shunchalik mahoratga ega ediki, shimoldan janubga, sharqdan g'arbga butun Yaqin Sharq va Yevrosiyo dashtlarida boshqa xalqlarning ot yetishtirishga oid bilimlari, bugungi kunda ham turkmanlarning ot tarbiyasi bilan solishtirilib, tushunishga harakat qilinadi [24, s. 38-39].

Boshqa tomondan, dasht madaniyati mohiyatan ko'chmanchi madaniyatlardan farq qiladi. Chunki sahro hayoti bilan bo'ston yashash tarzi bir xil emas. Sahro ko'chmanchiligi nisbatan statik bo'lib, asosiy unsuri "tuya" hisoblanadi. Dasht ko'chmanchiligi esa dinamik bo'lib, asosiy unsur "ot"dir. "Harakat", "quvvat" va "kuch" ustida rivojlangan bu madaniyat "otli madaniyat" an'alarini shakllantirib, butun dunyoda keng bir madaniyatning rivojlanishiga hissa qo'shgan [24, s. 270].

Dasht hayotining eng muhim qiyinchiliklaridan biri tirikchilikning chorvachilikka bog'liq bo'lishidir. Ammo chorvachilikka asoslangan dasht iqtisodiyoti har doim xalqning tirikchiligini ta'minlay olmagan. Shu sababli xalq savdo, urush va o'ljalar orqali tirikchiligini ta'minlashga harakat qilgan.

Dasht hayoti bir tomondan erkinlik va jasoratni rag'batlantirgan bo'lsa, boshqa tomondan intizomni majburiy qilgan. So'zida turish, o'tganlarga sadoqat, to'ralarga rioya qilish kabi xususiyatlar dasht hayotining tabiiy natijasi hisoblanadi. Chunki ko'chishlar faqat shu intizom bilan boshqarilishi mumkin edi [23, 2008, s. 33]. Xalqning kundalik hayotidagi bu intizom urush jarayonlarida ham amal qilgan. Aks holda urushlar yutqazilib, davlat tarqalishi mumkin edi. Shu nuqtai nazardan turk siyosiy hayotida davlatlarning barpo etilishi va ularning davomiyligini ta'minlash ushbu intizom orqali amalga oshirilgan [15, s. 4].

Shuningdek, ko'chmanchi hayotning barqaror yashashga nisbatan ko'proq qobiliyat talab qilishi, xalqning tashkiliy va harbiy qobiliyatlarini rivojlantirgan [15, s. 29; 9, s. 23]. Nihoyat, Islomiyatni qabul qilgandan so'ng, turklar qattiq ko'chmanchi hayotdan barqaror yashashga o'tganlar, o'zlarining avvalgi madaniyat va an'alarini Islom dini qadriyatlarini bilan uyg'unlashtirib, yangi turmush tarzini yaratganlar. Bu holat siyosiy va boshqaruv tizimiga ham ta'sir qilgan va yangi qabul qilingan Islom dinining ta'siri hayotning deyarli barcha sohalarida sezila boshlagan [11, s. 217]. Shu tariqa dasht madaniyati Islom qadriyatlarini bilan uyg'unlashib,

tafakkur, axloq va qadriyatlar nuqtai nazaridan yangi bir shaklga evolyutsiya qilgan. Keyinchalik esa bu yangi shakl, dunyo siyosiy hayotiga yo'l ko'rsatadigan "Turk-Islom madaniyati"ning rivojlanishiga xizmat qilgan.

Xulosa. Turklarda davlat tushunchasi avvalo ijtimoiy zarurat sifatida yuzaga kelgan. Shu sababli davlat millat, vatan va suverenlik tamoyillariga tayangan holda barpo etilgan. Ushbu uch unsur mavjud bo'lmaganda yoki ulardan biri yetishmagan hollarda davlatning mavjudligi xavf ostida bo'lgan va u yo'qolish jarayoniga duch kelgan. Shuning uchun turklarda davlatni tashkil etuvchi ushbu elementlar har doim himoya qilinishga harakat qilingan. Shu tariqa, bu unsurlar ahamiyatini yo'qotmay, o'z xususiyatini saqlab bugungi kungacha yetib kelgan.

Shu kontekstda vatan tushunchasi inson hayotini fidokorona bag'ishlashga tayyor bo'lish darajasida muqaddas sifatida qadrlangan, millat tushunchasi esa davlatning mavjudlik sababi sifatida birinchi o'ringa qo'yilgan, mustaqillik va suverenlik esa har doim himoya qilinishi lozim bo'lgan va davlatning mavjudligini ta'minlovchi yagona kuch sifatida baholangan. Natijada, ushbu barcha unsurlardan tashkil topgan davlat qonun, huquq va adolat orqali himoyalangan. Shu sababli davlat, barpo etilishi kabi, saqlanishi ham zarur bo'lgan muqaddas amanat sifatida qabul qilingan.

Turklarda davlat tushunchasi barcha narsalardan ustundir. Biroq uning ustida ham "xalq" tushunchasi mavjud. Xalq davlatning barpo etilish sababidir. Shu sababli oliy davlat avvalo xalqqa xizmat qilish maqsadida tashkil etilgan. Chunki xalq davlatning jonli qismini tashkil qiladi. Shu bois turklarda har bir amaliyotning markazida inson mavjud. Shu nuqtai nazardan, davlatning asosiy tamoyillaridan bo'lgan adolat, tenglik, ijtimoiylik, sinfsizlashuv va layoqat kabi prinsiplari insonni himoya qilish va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan.

Ushbu tamoyillar ijtimoiy hayotga ham aks etgan va turk jamiyatlarida sinfiy ajratish, qullik, imtiyoz kabi bo'luvchi amaliyotlarga o'rin berilmagan. Aksincha, bo'ston hayot tarzining natijasi sifatida rivojlangan bu prinsiplari kundalik hayotda ijtimoiy munosabatlarga yo'l ko'rsatib, turk davlat an'analari asosini shakllantirgan. Shu nuqtai nazardan davlat va jamiyat munosabatlarida xalq davlatni o'ziga mansub deb hisoblagan, davlat esa xalqini himoya qilgan. Shu sababli davlat oilaviy tushuncha sifatida talqin qilinib, xalq tomonidan unga ishonch va mehr ifodasi sifatida ham ona, ham ota roli berilgan.

Davlat-jamiyat munosabatlari nuqtai nazaridan, ushbu aloqalar xalqning davlatni o'ziga qancha yaqin his qilishi va davlatning xalqiga nisbatan mas'uliyatlarini qanchalik bajarishini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, davlat-jamiyat munosabatlari kontekstida davlat va jamiyatning bir-birini qanday ifodalashi muhim bo'ladi. Shu sababli turklarda davlat — xalq, xalq esa davlat sifatida qabul qilingan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Acar, O. K. ve Ertek, M. Y. (2019). *Türk yönetim tarihinde liyakat*. Ankara:Astana Yayınları.
2. Ahmetbeyoğlu, A. (2020). Eski Türklerde kut ve töre bağlamında hükümlerinin hududları. *Tarih Dergisi*, (71), 29–50.
3. Akcan, A. (2020). Eski Türklerde devlet yönetiminde hâkimiyetin ilahi temelleri. *Mecmua*, (10), 303–321.
4. Akcan, A. (2024). II. Türk Kağanlığı devlet ideolojisi içerisinde Bilge Tonyukuk. *Asya Studies*, 8(30), 203–216.
5. Akcan, A. (2025). İslamiyet öncesi Türk devlet yönetiminde kağan ve kurultaylar. *Akademik Tarih ve Düşünce Dergisi*, 11(6), 4259–4285.

6. Arslan, M. (1986). Eski Türk devlet anlayışı ve Kutadgu-Bilig. *Ondokuz Mayıs University Journal of Education Faculty*, 1(1), 100–111.
7. Aslan, E. ve Şahin, M. (2020). Ortaçağ Türk-İslam devletlerinde nevbet. *Amasya Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi*, (8), 107–144.
8. Aytürk, N. (2014). *Türklerde devlet yönetimi ve lider yöneticiler*. Ankara: Nobel Yayıncılık.
9. Bedirhan, Y. (2019). *İslam öncesi Türk tarihi ve kültürü* (6. b.). Konya: Eğitim Yayınevi.
10. Bozkuş, Y. D. (2022). İslamiyet öncesi dönemin Türk kültür ve uygarlığına genel bir bakış. *Afyon Kocatepe Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi*, 24(1), 335–349.
11. Coşkun, Ö. (2016). Türk yönetim sistemi üzerine kısa bir değerlendirme. *The Journal of International Lingual Social and Educational Sciences*, 2(2), 126–135.
12. Çandarlıoğlu, G. (2011). Uygur sarayına gelin giden Çinli prensesler ve bunun arkasındaki politik gerçekler. *Tarih Dergisi*, (28–29), 63–70.
13. Çerçi, F. (2003). Hunlar'da sosyal, siyasi hayat ve devlet-halk ilişkileri. *Erzincan Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi*, 5(1), 59–98.
14. Donuk, A. (2012). Türklerde ve Moğollarda meclis geleneği. *Tarih Dergisi*, (52), 1–12.
15. Durmuş, İ. (2008). Eski Türk devletlerinin oluşumunun temel unsurları. *Gazi Türkiyat Turkoloji Araştırmaları Dergisi*, 1(2), 25–45.
16. Durmuş, İ. (2014). Türk kültür çevresinde kültür adlandırmaları. *Gazi Akademik Bakış*, (15), 269–298.
17. Erdoğan, A. (2014). İslamiyet'ten önce Türk devletlerinde meclis anlayışı: Toy, kengeş, kurultay örneği. *Kahramanmaraş Sütçü İmam Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi*, 11(1), 39–52.
18. Gömeç, S. Y. (2018). *Türk kültürünün ana hatları* (4. b.). Ankara: Berikan Yayınevi.
19. Gözler, K. (2011). *Devletin genel teorisi* (3. b.). Bursa: Ekin Yayınları.
20. Grigoriev, S. (2021). Andronovo problem: Studies of cultural genesis in the Eurasian Bronze Age. *Open Archaeology*, 7(1), 3–36.
21. Hall, J. A. ve Ikenberry, G. J. (2000). *Devlet* (Y. O. Alibeygil & M. Şipal, Çev.). Ankara: Doruk Yayınları.
22. Kafesoğlu, İ. (2016). *Türk milli kültürü* (40. b.). İstanbul: Ötüken Neşriyat.
23. Kapani, M. (2019). *Politika bilimine giriş* (58. b.). Ankara: Serbest Akademi.
24. Kovalevskaya, V. B. (2019). Turning points in horse breeding in the Eurasian steppes and the Near East. *Archaeology, Ethnology & Anthropology of Eurasia*, 47(1), 33–41.
25. Ögel, B. (1955). Uygur devletinin teşekkülü ve yükseliş devri. *Belleten*, 19(75), 331–376.
26. Özdemir, G. (2009). Batıda ve Türklerde egemenlik kavramı. *Dumlupınar Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi*, (23), 1–11.
27. Pamir, A. (2019). Eski Orta Asya Türk devletlerinde törenin oluşmasında kurultayların rolü. *Adalet Dergisi*, (62–63), 213–234.
28. Saltuklu, Z. (2019a). Türklerde töre. *Ankara Uluslararası Sosyal Bilimler Dergisi*, 2(4), 61–66.
29. Saltuklu, Z. (2019b). Türklerin devlet anlayışı. *Ankara Uluslararası Sosyal Bilimler Dergisi*, 2(4), 1–12.
30. Seyitdanlıoğlu, M. (2009). Eski Türklerde devlet meclisi “toy” üzerine düşünceler. *Tarih Araştırmaları Dergisi*, 28(45), 1–12.
31. Taşağıl, A. (2021). *Bozkırların ilk imparatorluğu Hunlar* (3. b.). İstanbul: Yeditepe Yayınevi.
32. Waller, A. M. (1958). *Horses and mules and national defense*. Washington, D.C.: Office of the Quartermaster General, U.S. Army.
33. Yücel-Batmaz, N. (2018). Türklerde devlet anlayışı. In M. Akçakaya (Ed.), *Türk İslam tarihinde yönetim uygulamaları* (s. 3–54). Ankara: Gazi Kitabevi.
34. Zabunoğlu, Y. H. (2015). *Devlet kuramına giriş*. Ankara: İmaj Yayınları.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

MECHANISMS FOR LEGALIZATION OF LABOR MIGRATION: INTERNATIONAL STANDARDS AND NATIONAL LEGISLATION

Azamatova Gulmira Bayirbekovna

Jizzakh Polytechnic Institute

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences

Abstract. This article analyzes the importance of migration processes in today's globalization process, as well as the specific directions of migration, legal regulation mechanisms based on national and international legislation.

Keywords: migration, labor migration, external labor migration, globalization, migrants, women.

MEHNAT MIGRATSIYASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY QONUNCHILIK

Azamatova Gulmira Bayirbekovna

Jizzax politexnika instituti

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi globallashuv jarayonida migratsiya jarayonlarining ahamiyati, shuningdek migratsiyasining o'ziga xos yo'nalishlari, huquqiy tartibga solish mexanizmlari milliy va xalqaro qonunchilik asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: migratsiya, mehnat migratsiyasi, tashqi mehnat migratsiyasi, globallashuv, migrantlar, xotin-qizlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N03>

Kirish. Tezlashib borayotgan globallashuv sharoitida tashqi mehnat migratsiyasi jarayonining ahamiyati hamda ko'lamini xalqaro darajada tan olinmoqda. O'zbekiston Respublikasining mazkur jarayonda dunyo hamjamiyatining to'la huquqli subyekti sifatida ishtirok etishiga faol migratsiya jarayonlari yordam berdi. Dunyo davlatlarida mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish, migratsiya jarayonlarini tartibli amalga oshirishda samarali, oqilona va barqaror boshqarish vositalarini amalga oshirishni shakllantirishda, belgilangan vazifalarning strategiyalarini ishlab chiqish, harakatlarni muvofiqlashtirish va inson resurslarini safarbar qilishning ilmiy asoslarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda[1.4-bet].

Bu vazifalarni to'laqonli amalga oshirish maqsadida O'zbekiston avvalo, 1992-yilda Xalqaro Mehnat Tashkilotiga qo'shildi. Shundan so'ng respublikada bu xalqaro tashkilotning 13 ta konvensiyasi ratifikatsiya qilindi. Xalqaro mehnat tashkilotining "Bandlik sohasidagi siyosat to'g'risida"gi konvensiyasi ustuvor ahamiyatga ega bo'ldi[2.8-bet].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O'zbekiston 1995-yil 6-mayda Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchilardan BMT ning "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"[3] gi Konvensiyasiga qo'shildi. Shuningdek, O'zbekiston

1949-yil 2-dekabr BMT Bosh Assambleyasining 317-son Rezolyutsiyasi bilan ma'qullanib o'n ikki davlat tomonidan imzolangan "Mehnat migratsiyasi va ishchi migrantlarning ijtimoiy muhofazasi bo'yicha hamkorlik kelishuvi", 1994-yilning 15-aprelida Moskvada imzolangan, 1995-yil 18-sentyabrdan O'zbekiston uchun kuchga kirgan "Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi ikki tomonlama bitimning ham ishtirokchisi hisoblanadi.

Mamlakatda mehnat migrantlarining huquqlari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishda dastlabki asos 1992-yil fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni bilan mustahkamlandi. Aholining tashqi mehnat migratsiyasida ishtirok etishi uchun huquqiy asos sifatida 1992-yilda qabul qilinib, 1998-yili yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish, mustaqil ish qidirish va ishga joylashish huquqiga ega" – ekanligi qayd etildi[4].

O'zbekiston fuqarolarining respublika tashqarisidagi va xorij fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatlari qonun hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda amalga oshirilishi belgilab qo'yildi. Shuningdek, bu qonun O'zbekistonda va chet ellarda ish topish, ishga joylashish huquqini alohida ko'rsatib o'tgan yagona qonun bo'ldi.

Muhokama. O'zbekistonda mehnat migrantlarining mehnat faoliyati, huquqlarini tartibga solishga qaratilgan bir qator, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi[5], "Kasaba uyushmalari to'g'risida"[6] qonunlar ham qabul qilindi.

Mehnat migratsiyasini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 19-oktyabr "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet eldagi hamda xorijiy fuqarolarning Respublikadagi mehnat faoliyati to'g'risida"gi qarori[7] ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Qarorda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorij davlatlaridagi mehnat faoliyati, shuningdek, chet el ishchi kuchini O'zbekistonga jalb etish va undan foydalanish tartibi belgilab berildi. Mazkur qaror xorijdagi migrantlar huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya etish hujjatlarini rasmiylashtirish tartiblarini mustahkamlashga xizmat qildi. Natijada O'zbekiston Respublikasi Mehnat Vazirligi tomonidan 1995–2004-yillar davomida 89 ming odam ishlab kelish uchun chet elga, xususan, bu davrda birgina Janubiy Koreya Respublikasiga 9,5 ming kishi vaqtinchalik ishlab kelish uchun, shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlari, Malayziya, Birlashgan Arab Amirligiga mehnat migrantlari jo'natildi[8].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 15-mayda "Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarga ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini hisobga olishni takomillashtirish to'g'risida"gi 97-sonli Qarori[9] qabul qilindi.

2008-yil 17-aprelda qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni noqonuniy migratsiyaga bevosita daxldor bo'lgan odam savdosiga qarshi kurashishda muhim huquqiy hujjat bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 8-iyuldagi 911-sonli "Odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori[10] bilan yuqoridagi qonun normalari amalga tatbiq etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5052-sonli Farmoni[11] ichki va tashqi migratsiya

jarayonlarini tartibga solish, aholi bandligini ta'minlash, norasmiy mehnat migratsiyasi hamda norasmiy bandlikning o'sib ketmasligi borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarning mantiqiy davomi bo'ldi. 2018-yil 5-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Vaqtinchalik mehnat faoliyatini olib borish uchun respublika hududidan transport orqali chet elga jo'nab ketish vaqtida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 3584-sonli Qarori[12] qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi "Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3827-sonli Qarori[13] asosida Toshkent shahri va hududlarda bosqichma-bosqich "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish, moslashtirish va o'z joniga qasd qilishning oldini olish Markaz"lari faoliyati tashkil etildi.

Tashqi mehnat migratsiyasi bilan bog'liq qonunchilik rivojlanishida yana bir qator qonunosti hujjatlar ham qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3839-sonli Qarori tashqi mehnat migratsiyasida yechimini kutayotgan muammolarni hal qilish, fuqarolarning xorijdagi mehnati hamda ularning ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, xorijdan qaytib kelgan mehnat muhojirlarini tadbirkorlik va mehnat faoliyatiga keng jalb etishga[14], tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish, xorijiy davlatlarda mehnat faoliyatini olib borish uchun xalqaro shartnomalar tuzish, ularning respublika tashqarisida ish joylariga xavfsiz tarzda yetib borishini ta'minlashda qulay shart-sharoitlar yaratish kabi muhim masalalarga e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatdi[15].

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyatining samaradorligini yanada oshirish uchun 2018-yil 12-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko'rib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori[16] qabul qilindi. Ushbu qaror asosida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan Migranlar masalalari bo'yicha agentlik tashkil etildi. Agentlik to'g'risidagi Nizom, mehnat faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi Nizom, chet elga mehnat qilishga chiqib ketayotgan fuqarolarning vizalarini va chiqish hujjatlarini rasmiylashtirish, shuningdek, ularga ishga joylashmoqchi bo'lgan mamlakatida huquqiy yordam ko'rsatish tartiblari tasdiqlandi.

2018-yilda respublika miqyosida 5 ming 556 nafar xotin-qizlar tomonidan murojaatlar qilingan bo'lsa, markaz mutaxassislari tomonidan og'ir vaziyatga tushib qolgan, inqiroz holatida bo'lgan 707 nafar, ishsiz 1ming 115 nafar xotin-qizlarning bandligi ta'minlandi[17].

2018-yil 16-oktyabr kuni O'zbekistonda fuqarolarni noqonuniy chet elga ishga jo'natish bilan shug'ullangan shaxslarning faoliyatiga, noqonuniy mehnat migratsiyasining ko'payishiga, insonlar huquqlari poymol etilishining oldini olish va tashqi mehnat migratsiyasini tashkil etishda davlat monopoliyasini cheklash maqsadida dastlabki davrda davlatning qattiq nazorati, litsenziyalash tartibida xususiy ishga joylashtirish bo'yicha rekruting xizmatlarini yo'lga qo'yuvchi O'zbekiston Respublikasining "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilingani muhim ahamiyatga ega bo'ldi[18].

2018-yilning 27-noyabr kuni Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (XMT) – BMT Migratsiya agentligi Kengashining Jeneva shahrida ochilgan 109-sessiyasida ovoz berish natijasida

O'zbekiston Respublikasining Xalqaro Migratsiya Tashkilotiga a'zo bo'lish to'g'risidagi murojaati qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Respublikasi "Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitutsiyasini ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi qonun 2018-yil 12-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va 14-dekabrda Senat tomonidan ma'qullandi. XMT Konstitutsiyasida uning maqsad va vazifalari e'lon qilindi. 2018-yil 26-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitutsiyasini ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi qonunni imzoladi[19].

Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitutsiyasini ratifikatsiya qilish, mazkur tashkilotga a'zo bo'lish O'zbekistonga bir qator huquqlardan foydalanishga imkon berdi.

Mamlakat fuqarolarining, jumladan, xotin-qizlarning chet elda mehnat qilishi bo'yicha o'z huquqlarini amalga oshirishga yordam berish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019-yil 20-avgustda "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to'g'risida"gi PF-5785-son Farmoni[20] va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-avgustda "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 713-son qarori[21] qabul qilindi.

Qabul qilingan huquqiy hujjatlar fuqarolarning respublikadan tashqarida ishga joylashishi va o'z Vataniga qaytganlaridan keyin jamiyatga qo'shilishini ta'minlash, xorijdagi mehnat migrantlarining O'zbekistondagi o'z oilalariga ijtimoiy-maishiy muammolarni hal etish va ularning yashash sharoitlarini yaxshilash, shuningdek mehnatga layoqatli oila a'zolarini ish bilan ta'minlab ularning daromadlari hamda turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi O'zbekiston Respublikasi xalqaro majburiyatlarini bajarishda rag'bat bo'ldi. Ular asosida ilk bora chet elda vaqtinchalik mehnat qilishni rejalashtirayotgan mehnat migrantlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda, shuningdek ularga kredit va mikroqarzlarni, migrantlarning hayoti, salomatligini sug'urtalash uchun sug'urta mukofotini qoplashga subsidiyalarni berildi.

Natija. O'zbekistonda amalga oshirilgan faol islohotlar samarasida migrantlar, xususan, xorijdagi ayol migrantlarning sharoitlarini yaratish va mehnat munosabatlarini yaxshilash barobarida mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni, jumladan, ayollarni ish bilan ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratildi. Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentyabrda "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4829-son Qarori[22] qabul qilindi. Qaror asosida xorijda mehnat qilayotganlarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquqlarini himoya qilish jamg'armasi tashkil etildi. Mehnat migrantlarining xavfsizligi, hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash, ularning oila a'zolari uchun ipoteka kreditlarini ajratish amaliyoti joriy qilindi[23]. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida, 2020-yil 31-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Bandlek va mehnat munosabatlari vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki o'rtasida "Tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi yo'li bilan vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida xorijga chiqib ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga mikroqarzlarni berilishini ta'minlash bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi

memorandum” hamda 2021-yilning 11-yanvarida “Maqsadli kredit liniya ochish haqida bosh kelishuv” imzolandi.

Mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni, jumladan xotin-qizlarni reintegratsiya qilish, ularni ish bilan ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish maqsadida o'qitish va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi. Natijada xorijdagi mehnat migrantlariga nisbatan munosabat tubdan o'zgarib, mehnat migrantlari bilan muloqot o'rnatildi, ular ishlayotgan yerdagi mavjud bo'lsa agar muammo va ehtiyojlarini o'rganish hamda hal qilishda yangi tizim joriy qilindi. Shuningdek, 2021-yil 1-yanvar oyidan boshlab “Ijtimoiy himoya qilishning yagona reyestri” ma'lumot tizimi orqali kam ta'minlangan oilalar, sobiq mehnat migrantlarini yakka tartibda tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun maxsus kurslar tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar olib borildi. Ularni tadbirkorlikka tayyorlash uchun bino va inshootlarni ijaraga berish hamda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlar bo'yicha sug'urta polislari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 5-mart kuni “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5020-son Qarori qabul qilindi. Qaror xotin-qizlarning muammo, ehtiyoj va manfaatlarini tizimli ravishda o'rganish, tahlil qilish va hal etish borasidagi ishlarni yuqori yangi bosqichga olib chiqdi. Qarorga muvofiq, respublika xotin-qizlarining jamoatchilik kengashi tashkil etilib, mahallalarda ayollar bilan manzilli ishlab, ijtimoiy ahvoli, yashash sharoiti og'ir bo'lgan ishsiz hamda zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar muammolarini aniqlash va hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan “Ayollar daftari” shakllantirildi[24].

Tashkillashtirilgan migratsiyada ayol migrantlarning manfaatlarini himoya qilish, ularga iqtisodiy va ijtimoiy ko'mak berish uchun Tashqi mehnat migratsiyasi bo'yicha respublika komissiyasi tashkil etildi. Komissiyaga tashqi mehnat migratsiyasi bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish, unda belgilangan vazifalarni amalga oshirish, migratsiya jarayonlarini amalga oshirilishida tegishli milliy qonunchilik va huquqni qo'llash tizimini takomillashtirib rivojlantirib borish, O'zbekistonlik mehnat migrantlarini xorijdagi mehnati jarayonida qonuniy tarzda xavfsiz mehnat qilishiga ko'maklashish, shuningdek migrant xotin-qizlarning ijtimoiy, huquqiy himoya qilishni, migrantlarning o'z ona yurtiga qaytganlaridan keyin jamiyat hayotiga qo'shilishini va ularni ish bilan bandligini ta'minlash, moddiy va moliyaviy yordam berishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilgan.

Tashqi mehnat migratsiyasi bo'yicha chet el mamlakatlarining vakolatli organlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish, O'zbekistonlik mehnat migrantlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan xalqaro shartnomalarga qo'shilish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish Respublika komissiyasining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Umuman, tashqi mehnat migratsiyasi bo'yicha qabul qilingan hujjatlar mehnat migrantlarining xalqaro talablarga mos ravishda himoyalinishiga yordamlashdi. Mazkur masalada asosiy e'tibor xorijiy ish beruvchilarning mehnat shart-sharoitlar, ish haqi, ijtimoiy paket kabi muhim mezonlar ko'rsatilgan holda oldindan beriladigan buyurtmalari asosida xorijda vaqtinchalik mehnat olib borishi uchun uyushgan holda yollash hamda jalb qilishga har taraflama yordamlashishga yo'naltirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari xorijda vaqtinchalik mehnat

qilib faoliyat olib borayotgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini iqtisodiy-ijtimoiy, huquqiy himoya qilishning imkoniyatlari kengaytirdi hamda fuqarolarni xorijda va respublikada uyushgan holda ishga yollash, ularni kasbiy tayyorlash va moslashtirish uchun zarur chora-tadbirlarini amalga oshirish, ishga joylashtirish mexanizmlarini samarali tarzda tartibli boshqarish hamda nazorat qilishni nazarda tutdi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy qolaversa madaniy hayotida xotin-qizlarning rolini oshirish, respublikada gender tenglikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish, yanada kuchaytirish ayollar mehnat migratsiyasining ijtimoiy salbiy oqibatlarini bartaraf etishning garovi ekanligini isbotga olgan holda, O'zbekiston hukumati faol ijtimoiy siyosat olib bordi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining xorijda va mamlakat ichkarisida "migrant ayollar" ning qonuniy manfaatlarini hamda huquqlarini himoya qilish va ta'minlash borasidagi siyosatini tubdan o'zgartirishda mamlakatda qabul qilingan bir qator qonunlar muhim rol o'ynadi. Mamlakatning ijtimoiy sohadagi muhim vazifalaridan kelib chiqib, jamiyatda ayollarning tinch hayot tarzini ta'minlash va intilishlarini, qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish masalasiga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratildi. Natijada mehnat migratsiyasi jarayonida migrant xotin-qizlarga ijtimoiy, moliyaviy ko'maklashish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida davlat tomonidan kafolatlangan imtiyozlarni berish mexanizmlari shakllantirildi.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Muhiddinov E.M. Aholini ish bilan bandligini ta'minlashda mehnat migratsiyasining roli. Iqt. fan. bo'yicha fals.dokt. (PhD) ilm. daraj. olish uchun yoz.diss. ... – Toshkent, 2016. – B. 4.
2. Qodirova Z. Ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlarda mehnat migratsiyasining xalqaro miqyosda tartibga solinishi // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. May-iyun 2015, № 3. – B. 8.
3. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (Nyu-York, 1979-yil 18-dekabr) / Odam savdosiga qarshi kurash sohasidagi milliy va xalqaro huquq normalari. – Toshkent: "Yurist media markazi", 2010. – B. 33–46; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi 87–1-son "O'zbekiston Respublikasining Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilishi haqida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1995. – № 6. – 135-m.
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1998-yil 1-may 616–1-son "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida". <https://lex.uz/docs/51887>.
5. 2016-yil 22-sentabrdagi Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3031427>.
6. 2019-yil 6-dekabrdagi Kasaba uyushmalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4631281>.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 19-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet eldagi hamda xorijiy fuqarolarning respublikadagi mehnat faoliyati to'g'risida"gi 408-sonli qarori. // <https://lex.uz/docs/433225>.
8. Ubaydullayeva R., Ata- Mirzayev O., Umarova N. O'zbekistonda demografik jarayonlari va aholi bandligi. – Toshkent: Universitet, 2006. – B. 55.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 15-maydagi "Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarga ketayotgan O'zbekiston Respublikasi

- fuqarolarini hisobga olishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 97-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/1202812>.
10. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi // <https://www.lex.uz/acts/1339436>; O‘zbekiston Respublikasining “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni. 17.08.2020-yildagi O‘RQ–633-son. // <https://lex.uz/docs/4953314>.
 11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5052-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/3211749>.
 12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Vaqtinchalik mehnat faoliyatini olib borish uchun respublika hududidan transport orqali chet elga jo‘nab ketish vaqtida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 3584-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-3578933>.
 13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3827 son Qarori. 02.07.2018-yil // <https://lex.uz/docs/3804821>.
 14. Mehnat migratsiyasi tizimidagi vazifalarning amaliy yechimi // Xalq so‘zi. 2018-yil 7-iyul.
 15. Kucharov Sh. Tashqi migratsiya – bugun va erta: tahlil va munosabat // <https://review.uz/oz/post/povshaya-konkurentosposobnost-nashix-grajdan>.
 16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko‘rib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori <https://lex.uz/uz/docs/-3903307>.
 17. Toshkent shahar xotin-qizlar qo‘mitasining VI hisobot saylov konferensiyasidagi ma‘ruza. – Toshkent, 2018. – B. 30.
 18. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 16-oktyabr O‘RQ–501-son “Xususiy bandlik agentliklari to‘g‘risida”gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/3992869>.
 19. “Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitutsiyasini ratifikatsiya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni // Xalq so‘zi. 2018-yil, 27-dekabr.
 20. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019-yil 20-avgustdagi “Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a‘zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to‘g‘risida”gi PF–5785-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/4482648>.
 21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-avgustdagi “Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 713-son qarori // <https://lex.uz/docs/4486611>.
 22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentyabrdagi “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4829-son Qarori // <https://lex.uz/docs/4997972>.
 23. Ishanxodjayev S. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasiga oid mexanizmlarni takomillashtirishga oid ayrim masalalar // Yurist Axborotnomasi. – Toshkent. 2021. – № 3 son, 1 jild. – B. 61.
 24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-mart “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5020-son Qarori. // <https://lex.uz/docs/5320582>.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

CHANGES IN THE HEALTHCARE SECTOR OF SURKHANDARYO REGION UNDER THE CONDITIONS OF NEW UZBEKISTAN

Absalom Ziyadullayevich Khujanazarov,

Termez State University of Engineering and Agrotechnologies,

Doctor of Philosophy (PhD) in History

E-mail: xujanazarovs@tersu.uz

Abstract. This article highlights the progress of reforms in the healthcare sector in recent years in our country, particularly in the Surkhandarya region. It examines the changes in the material and technical base of medical institutions in the region and the transition of the regional healthcare system to a new model.

Keywords: healthcare system, medical sector, private clinics, material and technical base, mobile polyclinic.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA SURXONDARYO VILOYATIDA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI O‘ZGARISHLAR

Absalom Ziyadullayevich Xujanazarov,

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti,

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada so‘nggi yillarda mamlakatimizda, jumladan, Surxondaryo viloyatida sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlarning borishi, viloyatdagi tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik ta‘minotidagi o‘zgarishlar hamda viloyat sog‘liqni saqlash sohasining yangi tizimga o‘tilishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘liqni saqlash tizimi, tibbiyot sohasi, xususiy klinikalar, moddiy-texnik ta‘minot, mobil poliklinika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N04>

Kirish. Yangi O‘zbekiston sharoitida inson qadri va salomatligi yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar asosida tibbiyot tizimida ham ulkan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Surxondaryo viloyat sog‘liqni saqlash tizimi ham tamomila yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Jamiyatda inson qadri ulug‘lanishi hamda pandemiya davri saboqlaridan olingan xulosalar asosida tibbiyot tizimi tubdan isloh qilishga kirishildi. Shu asosda yurtimizda ixtisoslashgan tibbiyotni rivojlantirish borasida muhim qadamlar tashlandi. Shu asosda mamlakatimizda aholiga birlamchi tibbiy sanitariya yordami ko‘rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligini oshirish hamda tibbiyot xodimlarining jamiyatdagi o‘rni maqomini kuchaytirishga erishildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimi tarixiga doir bir qator ilmiy maqolalar va boshqa ishlar nashr etilgan. Bunda ayniqsa, B.Umrzoqov, A.Qodirov, N.Xo‘jayev, Sh.Iskandarova va G.E.Mo‘minovalarning izlanishlari diqqatga sazovordir. Mustaqillik yillarida sog‘liqni saqlash tizimini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator dissertatsiya ishlari ham himoya qilindi. G.E.Mo‘minova, M.D.Maxsumov, N.F.Rasulov,

S.A.Djumanov, O.R.Ochilova, A.Xujanazarov kabilarning dissertatsiya ishlari shular jumlasidandir.

Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar – xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yangi O'zbekiston sharoitida Surxondaryo viloyatida sog'liqni saqlash sohasidagi o'zgarishlar bayon etilgan.

Muhokama va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan inson salomatligi muhofaza qilish, tibbiyot muassasalarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish hamda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatda sog'lom raqobatni rivojlantirish, nodavlat tibbiyot muassasalarining moddiy texnika bazasini mustahkamlashga e'tibor qaratilmoqda. Xususi tibbiyotni rivojlantirish va uning moddiy texnika bazasini rivojlantirish maqsadida kam foizli kreditlar ajratilishi, bo'sh turgan binolarni "0" qiymatida tadbirkorlarga berilishi, yer uchastkalarining ajratilishi, ushbu sohaning rivojlanishiga katta yo'l ochib berdi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-dekabrda "Xususi tibbiyot tashkilotlarini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha shart-sharoitlarini yaratish to'g'risida"gi PQ-3450-sonli qaroriga asosan 2 mln. kredit hisobiga 200 dan ortiq yuqori texnologiyali zamonaviy tibbiy apparaturalar keltirildi [1].

Tibbiyotning rivojlanishida malakali kadrlarning o'rni beqiyosdir. Jumladan xususi klinikalarda faoliyat olib borayotgan 23 nafar mutaxassislar Hindiston, Turkiya, Rossiya va Janubiy Koreya singari mamlakatlarda endoxirurgiya, neyroxirurgiya, onkologiya, urologiya yo'nalishlarida malakalarini oshirib kelishdi. Buning zamirida viloyat aholisining Respublika poytaxtiga yoki chet ellarga chiqish ehtiyojini kamaytirmoqda, hamda davlat tibbiyot muassasalariga tushayotgan jami tibbiy xizmatlar yuklamasining 50-60 foizi, diagnostika ishlarining 75 foizlik ulushi xususi tibbiyot muassasalari zimmasiga to'g'ri kelmoqda [2].

Ahamiyatli tomoni mamlakatimiz Prezidentining 2017-yil 1-aprelda PQ-2863 sonli qaroriga muvofiq xususi klinikalarning soliq imtiyozlaridan tejalgan mablag'i aholining himoyaga muhtoj qatlamiga bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatishga yo'naltirishi belgilanishi sababli, aholining ushbu qatlamiga ham belgilangan tartib asosida malakali tibbiy xizmatlar ko'rsatib kelinmoqda.

2018-yilda Qumqo'rg'on tumanidagi "Mehrigiyo medmex" (Hindiston) qo'shma korxonasi, 2019-yilda "Alles Sagliq Gpoup" MChJ (Turkiya) Termiz shahrida 2,5 mln. AQSh dollarlik investitsiya jalb qilish hisobiga zamonaviy innovatsion texnologiyali apparatura bilan jihozlangan laboratoriya yo'nalishida, (3 nafar xorijiy mutaxassis, 22 nafar mahalliy xodimlar), 2020-yildan "Avisenna International Hospital" (Afg'oniston) qo'shma korxonalari faoliyat olib borishmoqda [3]. Viloyatdagi yirik xususi diagnostika va davolash markazlariga xorijiy mamlakatlar fuqarolari ham murojaat qilishib tibbiy xizmatlardan bahramand bo'lishmoqda, jumladan 2018-yil davomida 558 nafar, 2019-yilda 647 nafar, 2020-yilda 401 nafar chet el fuqarosiga xususi klinikalar tomonidan tibbiy xizmatlar ko'rsatilgan [3].

Viloyat aholisiga 34 ta tibbiyot muassasalari statsionar xizmat ko'rsatadi. Ularda jami 7 711 ta o'rin mavjud bo'lib, ularning 7 039 tasi (91,3 foiz) budjet o'rinlarni tashkil etadi, jami o'rinlarda 324 748 nafar (jumladan budjet o'rinlarida 310085 nafar) bemorlar davolangan. Statsionarlardagi budjet o'rinlarda 2019-yilda 52 281 ta 2020-yilda esa 42 693 ta jarrohlik amaliyotlari o'tkazilgan. Ularda 3255,0 shtat ajratilgan bo'lib, ta'minot 2842,0 ya'ni 87,9 foizni tashkil etadi [3].

Prezidentning tashabbusi bilan Surxondaryo viloyatiga Respublika markazidagi klinikalarida faoliyat olib borgan olim va malakali mutaxassislarning viloyatimizga rahbar sifatida yuborilgan 11 nafar yuqori malakali shifokorlar tomonidan bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Termiz filialida ko'ks oraliq'i va o'pka sohasidagi o'smalarning jarrohlik amaliyotini o'tkazish, Viloyat ftiziatriya va pul'monologiya markazida umurtqa sili kasalliklarini ilg'or texnik jarrohlik yo'li bilan davolash hamda Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy amaliy tibbiyot markazi Termiz filialida katarakta kasalligini davolashning "oltin standarti" fakoemulsifikatsiya usuli bilan davolash yo'lga qo'yildi. Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida KFB tomonidan jami 7 mlr 960 mln. 168 ming so'mlik 86 turdagi tibbiy apparaturalar keltirildi.

Respublika onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Surxondaryo filialiga 590,0 ming dollarlik Gamma-terapevtik radioterapiya apparati keltirilishi hisobiga 100ga yaqin bemorlarning Respublika markazi va Buxoro viloyatlariga qatnovi yakun yasaldi. Ushbu yuqori texnologiyali apparatning uzluksiz ishlashini ta'minlash maqsadida 2 nafar mutaxassislar Belarusiyada 1 nafari esa Avstriya davlatida o'z malakalarini oshirib kelishdi. Shu bilan bir qatorda IFA analizatori, UZI, raqamli rentgen, endoskopiya va digitayzer kabi apparatlar keltirilib, muassasaning moddiy texnika bazasi mustahkamlandi.

Viloyatda ijtimoiy soha kasalliklarini davolash hamda profilaktikasi bilan shug'ullanadigan muassasalarning moddiy texnika bazasi yildan yilga yaxshilanib bordi. Jumladan viloyat ftiziatriya va pul'monologiya markaziga oxirgi 2-yilda 64,7 mlrd. so'mlik tibbiy apparaturalar jumladan 1 dona bioximik analizator, 1 dona kislorod konsentratori, 2 dona mikroskop Frimo star ILED-1, 1 dona avtoklav 1 dona ko'p funksional monitor, 1 dona yuqori chastotali xirurgik apparat, 13 dona pul'soksimetrlar kabi apparatlar keltirildi. Shu bilan bir qatorda mahalliy budjet hisobidan 400,0 mln. so'mlik ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, 1,7 mlrd. so'm mablag' hisobiga laboratoriya binosi qurildi hamda 395 mln. so'mga 1 dona maxsus assenizatsion avtomobil xarid qilindi [4].

Viloyatda tuberkulyoz mikobakteriyalarning ikkinchi qator dorilarga (ftorxinolon va aminoglikozidlar) sezgirligini aniqlash maqsadida MGIT laborator tibbiy apparati o'rnatildi, bu o'z navbatida patologik materialarni Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy amaliy tibbiyot markaziga yuborishning va natijasini uzoq muddat davomida kutish kabi qiyinchiliklarning oldi olindi. Buning zahirida 2018-yilda 947 ta sil kasalligi aniqlangan bo'lib, 100 ming aholiga nisbatan kasallanish 36,1 ni tashkil qilgan, o'tgan 2017-yilga nisbatan 1,7 promilliga kamaygan. 2020-yilda esa 655 nafar sil kasalligi aniqlangan bo'lib, 100 ming aholiga nisbatan kasallanish 24,6 ni tashkil qilgan, etgan bu esa 2018-yilga nisbatan 11,5 promilliga kamaygan [4, 30-34-varaq].

Tibbiyot xodimlarining izlanishlari hisobiga oxirgi yillarda yangi innovatsion texnologiyali "Umurtqalar tanasini nekroektomiyasi, orqa miyani dekompressiyasi, titan piromesh setka va autosuyak bilan spondilodezlash" bilan 172 nafar bemorda hamda "Sonchanoq va tizza bo'g'imlariga total endoprotezlash" tashxisi bilan 15 nafar bemorda jarrohlik amaliyotlari yo'lga quyildi. Bu o'z navbatida bemorlarning Respublika markaziga qatnovining oldi olindi. Zamonaviy MGIT laborator tibbiy apparati 2019-yilda viloyat markaziga o'rnatildi,

tuberkulez mikobakteriyalarning ikkinchi qator dorilarga (ftorxinolon va aminoglikozidlar) sezgirligini aniqlash imkoniyati yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Surxondaryo viloyatiga har bir tashrifi davomida viloyat aholisining sog'lig'ini muhofaza qilish, davolash-profilaktika muassasalarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. 2017-2020-yillar davomidagi to'rt marotaba amalga oshirilgan tashrifida sog'liqni saqlash sohasi bo'yicha jami 41 ta topshiriqlar berilgan. Jumladan aholiga ko'rsatilayotgan ixtisoslashtirilgan xizmatni yanada rivojlantirish maqsadida 2017-yil 10-11-fevral kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifida viloyat perinatal markazi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Termiz filialini tashkil etish topshirig'i berilib investitsiya dastur doirasida 7,5 mlrd. so'm mablag' ajratilib to'liq rekonstruksiyadan chiqarildi hamda sog'liqni saqlash vazirligining № 630 sonli buyrug'i va Termiz shahar hokimining Q-57-sonli qaroriga asosan 2019-yilning yanvar oyidan 70 o'rinli Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Termiz filiali tashkil etildi.

Ushbu tashrifda olis tuman va qishloqlarga oftalmologik xizmatni yaxshilash maqsadida "Mobil oftalmologik poliklinika" tashkil etish topshirig'i ijrosi zamirida Isuzu rusumidagi avtobus platformasida ushbu mobil poliklinika tashkil etilib, hozirgi kunda viloyatning olis tuman va qishloqlarida tibbiy ko'riklar tashkil qilingan.

Bemorlarning Respublika markaziga qatnovini kamaytirish maqsadida filialda teletibbiyot tizimi yaratilib Markaz bilan og'ir va murakkab bemorlarga diagnostika va davolash masalalarida masofada konsiliumlar tashkil etildi.

Bemorlarga ixtisoslashtirilgan xizmatni yaxshilash, muassasaning moddiy texnika bazasini mustahkamlash maqsadida 2019-yilda 526 ming AQSh dollarga yuqori texnologiyali tibbiy apparaturalar keltirilishi hisobiga Optik kogerent tomografiya, Ultratovushli biomikroskopiya, Ultratovushli diagnostika, Kompyuterli perimetriya, Gonioskopiya, Pnevmonometriya, Avtorefraktometriya, kuz tubini fundus linza orqali tekshirish o'tkazilishi zamirida ambulator tekshirish uchun Toshkent shahriga bemorlarni yuborish 90 foizga kamaydi [5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-fevral kuni Surxondaryo viloyati hokimligida o'tkazgan yig'ilishining (EDO—21/1-39,16.02.2017 y, 18-son) bayonnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-apreldagi 191-sonli qaroriga asosan Termiz shahridagi sobiq viloyat ko'z kasalliklari shifoxonasi o'rnida 17,4 mlrd. mablag' hisobiga rekonstruksiya qilinib, qayta qurilgan viloyat perinatal, aholi reproduktiv salomatlik hamda viloyat "Ona va bola" skrining markazlari tashkil etildi.

Markazning to'laqonli faoliyat ko'rsatishi hamda uning moddiy texnika bazasini mustahkamlash maqsadida yuqori texnologiyali tibbiy apparaturalar bilan jihozlandi. Markazda neontologiya xizmatini to'g'ri tashkil etish hamda tumanlar bilan aloqaning uzviyligini ta'minlanganligini hisobiga 2016-yilda tirik tug'ilgan 4 533 nafar chaqaloqlardan muddatidan oldin tug'ilgan 539 (11,8 foiz) nafari, 2020-yilda esa 3 768 nafar tirik tug'ilgan chaqaloqlardan 867 (23,3 foiz) nafariga markaz chaqaloqlar reanimatsiyasi va xasta chaqaloqlar bo'limlarida ixtisoslashgan malakali tibbiy yordam va parvarish ko'rsatilganligi sababli go'daklar o'limining kamayishiga erishilgan [7].

Viloyat perinatal markazi chaqaloqlar bo'limida tirik tug'ilgan chaqaloqlarning barchasiga gemorragik kasalliklarning oldini olish uchun "vital K" qo'llanilishi, 1000,0 gramgacha tug'ilgan chaqaloqlarning respirator distress sindromini davolash maqsadida "Kurosuf" dori vositasining ishlatilishi amaliyotga tatbiq qilingan va natijada 1000,0 gramgacha tug'ilgan chaqaloqlardan 2016-yilda 3 nafar, 2017-yil 6 nafar, 2018-yil 6 nafar 2019yilda 7 nafar, 2020-yilda 9 nafari yashab qolgan [8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-11-fevral kunlar tashrifida berilgan topshiriqlardan biri "Viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi uchun qo'shimcha bino qurish va zarur tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash" deb ko'rsatib o'tilgan. Hozirgi kunda viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazning yangi zamonaviy 5 qavatli 17.5 mlrd. so'mga bino barpo etilgan [9].

2017-yilga tashrif ijrosi doirasida viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi negizida 40 o'rinli urologiya va 10 o'rinli "Sun'iy buyrak" apparati mavjud bo'lgan gemodializ bo'limiga ega Respublika Ixtisoslashtirilgan ilmiy amaliy tibbiyot markazi Surxondaryo filiali tashkil etilib 2018-yil 14-avgustda ishga tushirildi [10].

Davlat-xususiy sheriklik loyihalari, autsorsing xizmatlarini tashkil qilish bo'yicha Surxondaryo viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan 2020-yilda Davlat-xususiy sheriklik asosida 6 ta loyiha Sog'liqni saqlash vazirligiga ko'rib chiqish uchun yuborilgan. Shundan 2 ta loyiha bo'yicha bitim tuzilib, ish boshlagan. 3 ta loyiha tayyor holga keltirilib bitim tuzish arafasida, 46 ta davlat tibbiyot tashkilotlarida autsorsing xizmatlari tashkil etilgan [11].

2021-yilga 3 loyiha: 1.Sherobod tumani, Chorbog' mahallasi, Xujaikon sanatoriysi negizida 8,0 mlrd.so'm investitsiya kiritib, tibbiy diagnostika va davolash markazini tashkil qilish; 2. Denov tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli Vodiy MFYda, 10 sotix yer ajratilib, tadbirkor tomonidan 2,5 mlrd. so'm investitsiya kiritib, tibbiy diagnostika va davolash markazi tashkil etish; 3.Uzun tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli 2 qavatli yuqumli kasalliklar shifoxonasining eski binosini tadbirkor tomonidan 5,5 mlrd. so'm investitsiya kiritib, tibbiy diagnostika va davolash markazini tashkil etish bo'yicha takliflar sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etildi [11].

Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida 2019-2022-yillar oralig'ida aholiga tibbiy xizmat sifatini yaxshilash va qo'shimcha sharoitlar yaratish, zamonaviy murakkab va kam invaziv davolash diagnostika amaliyotlarini maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan; markazning poliklinika qismida joriy ta'mirlash o'tkazilib zamonaviy asbob-uskunalar bilan (UZD, LOR kombayn, Rentgen apparat) keltirilib ishga tushirildi. KBW taraqqiyot banki tomonidan markazni 18 mlrd. so'mdan ortiq zamonaviy asbob-uskuna va tibbiy jamlanmalar bilan ta'minlanishi natijasida markazda diagnostik va davolanish amaliyotlari sifatini oshirishga imkon tug'ildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktyabrdagi "Xirurgiya xizmatini transformatsiya qilish, hududlarda jarrohlik amaliyotlari sifatini oshirish va ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5254-sonli qarorining 3-ilovasi 18-bandida markaziy hududiy filiallarini zarur asbob-uskunalar va onlayn rejimda ma'lumotlar uzatish imkonini beradigan aloqa xizmati bilan ta'minlash topshirig'i berilgan. Ushbu topshiriqqa binoan Respublika Moliya vazirligidan 969.0 mln, so'm Viloyat hokimligidan 969.0 mln, so'm jami 1938,0 mln, so'm mablag' ajratilib 6 turdagi tibbiy asbob-uskunalar xarid qilindi [12].

Shunday qilib, so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimida muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ushbu ishlar zahirida voha ahlining salomatligini saqlash, kelajak avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilangan.

Xulosa. Xulosa tariqasida qayd etish mumkinki, yangi O‘zbekiston g‘oyasining bosh maqsadi inson qadri va odamlarga munosib turmush sharoitini yaratishdan iborat. Ushbu muqaddas g‘oyani amalga oshirishda inson salomatligi muhim o‘rin tutadi. Odamlarning sihat salomatligini ta‘minlash sog‘liqni saqlash tizimini jahon andozalari asosida isloh qilish, tibbiyot xodimlarini malakasini muntazam ravishda olib borish hamda jahon mamlakatlari meditsina muassasalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, shu asosda viloyat sog‘liqni saqlash tizimini jahon andozalari asosida rekonstruksiya qilish zamonaviy tibbiyot jihozlarini olib kelish, sohani malakali mutaxassislar bilan ta‘minlash borasida anchagina amaliy ishlar bajarildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. “Surxon tongi” gazetasi. 2011-yil yanvar.
2. Surxondaryo viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi, 2019 y. 110-yig‘ma jild. 50-54-varaq.
3. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 77-fond, 3-ro‘yxat, 126-ish, 89-varaq.
4. Surxondaryo viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi. 2018 y. 110-yig‘ma jild. 25-varaq.
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 77-fond, 3-ro‘yxat, 131-ish, 112-varaq.
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 77-fond, 5-ro‘yxat, 126-ish, 91-92-varaq.
7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 77-fond, 5-ro‘yxat, 145-ish, 90-varaq.
8. Surxondaryo viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi. 2020 y. 113-yig‘ma jild. 43-varaq.
9. Surxon tongi gazetasi. 2017-yil 27-oktabr.
10. Surxondaryo viloyat hokimligi Iqtisodiyot va statistika boshqarmasi. 10.01.2020 y. 125-bet.
11. Surxondaryo viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi. 2020 y. 110-yig‘ma jild. 54-62-varaqlar.
12. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 77-fond, 5-ro‘yxat, 126-ish, 110-varaq.
13. Хужаназаров А.З., Алламуратов Ш.А. Система здравоохранения в Узбекистане: проблемы и реформы //Бюллетень науки и практики. – 2021. – Т. 7. – №. 2.
14. Хужаназаров А.З., Алламуратов Ш.А. Реформы в системе здоровья Узбекистана в последние годы //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 1 (76). – С. 19-23.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE ROLE OF THE AMU DARYA WATERWAY IN THE INTERNAL TRADE AND TRANSIT RELATIONS OF THE BUKHARA EMIRATE

Shukhrat Ashurovich Allamuratov,

Associate Professor of the National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami, Doctor of Philosophy (PhD) in History

E-mail: allamuratovs@tersu.uz

Abstract. This article is devoted to the history of the internal trade relations and transit connections of the Bukhara Emirate through the Amu Darya waterway in the late 19th and early 20th centuries. It also analyzes data on the volume of agricultural cargo turnover along the upper and lower reaches of the Amu Darya, particularly within the eastern districts of the emirate.

Keywords: waterway, transit on the Amu Darya, eastern beks (districts), agricultural products.

BUXORO AMIRLIGINING ICHKI SAVDO-TRANZIT ALOQALARIDA AMUDARYO SUV YO'LINING O'RNINI

Shuxrat Ashurovich Allamuratov,

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqola XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Amudaryo suv yo'li orqali Buxoro amirligining ichki savdo munosabatlari va tranzit aloqalari tarixiga bag'ishlangan. Shuningdek, Amudaryoning yuqori va quyi oqimi bo'ylab, ya'ni Buxoro amirligining sharqiy bekliklaridagi qishloq xo'jalik mahsulotlari tranzitidagi yuk aylanmasi hajmlari haqidagi ma'lumotlar tahlili ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: suv yo'li, Amudaryoda tranzit, sharqiy bekliklar, qishloq xo'jalik mahsulotlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N05>

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmida mintaqada rus savdosini rivojlantirish, xonliklar ixtiyoridagi bozorlarni o'z ta'siriga olish, ingliz sanoati mahsulotlarini siqib chiqarish hamda Rossiya imperiyasida Markaziy Osiyo paxtasiga talab ortishi tufayli savdo yo'llarini kengaytirish va jadallashtirishga e'tibor kuchaydi. Suv yo'llarining xavfsiz va arzonligi sababli Rossiya imperiyasi suv yo'llaridan imkon boricha ko'proq foydalanishga intildi.

Ma'lumki, sharqiy Buxoro bekliklari hududlarini g'arbiy hududlar bilan bog'lashda quruqlik yo'llari bilan bir qatorda Amudaryo suv yo'lidan ham foydalanilgan. Sharqiy va g'arbiy Buxoroni bog'lovchi Zarafshon va Hisor tog'lari orqali o'tuvchi tog' yo'llari hamda Buxorodan Xivaga suvsiz sahro, cho'llar orqali boruvchi yo'llardagi qiyinchilik sababli Amudaryo tabiiy suv yo'lidan foydalanish ehtiyojini oshirgan. Amudaryo va uning yirik irmoqlari Sharqiy Buxorodagi ulkan xom ashyo zaxirasidan foydalanish imkoniyatini ta'minlovchi asosiy suv yo'li bo'lib xizmat qilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Amudaryo suv yo'li bo'ylab Buxoro amirligining savdo va tranzit aloqalari haqidagi dastlabki manbalar sifatida Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida o'lkaga kelgan elchilar, sayyohlar hamda boshqaruv ma'muriyati, harbiy idoralarning amaldorlari – D.N.Logofet, A.M.Mixaylov, N.A.Benselevich, I.A.Remez tomonidan e'lon qilingan risola asarlari, davriy nashrlardagi maqolalar tashkil etadi. Maqolani yozishda E.Qobulov, F.Ochildiyev, Sh.Allamuratovlarning ilmiy asarlari va tadqiqotlari muhim manba vazifasini o'tab, ulardagi ko'pgina ma'lumotlar ushbu maqolada tahlil etildi.

Maqola umumiy qabul qilingan metodlar – xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida Amudaryo suv yo'li orqali Buxoro amirligining ichki savdo munosabatlari va tranzit aloqalari tarixi bayon etilgan.

Muhokama va natijalar. Tog'li Sharqiy Buxoro, Afg'onistondan g'alla va paxta mahsulotlarining daryo bo'ylab kema, qayiqlarda mintaqa hududlariga yetkazilishi natijasida Amudaryoning yuqori oqimi, Panj daryolari bo'ylari bilan Xorazm vohasi o'rtasida savdo-sotiqni rivojlangan hamda daryo bo'ylab kemachilikni mahalliy aholining asosiy mashg'ulotidan biriga aylantirgan [1, C.39].

Shuningdek, o'lkadagi paxta va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlariga ehtiyojning oshishi, Rossiyaning Yevropa qismidan keltirilayotgan mahsulotlarga talabning kuchayishi ham bu suv yo'lining ahamiyatini yanada oshirgan. Temir yo'llarning qurilishi ham Amudaryo suv yo'liga bo'lgan talabni kamaytirmagan. Sababi Amudaryoning o'rta va quyi oqimlari hududidan hali temir yo'l kesib o'tmagan edi. Bundan tashqari, daryo qatnovi orqali yuklarni tez yetkazib berish emas, balki arzonligi hisobga olingan edi.

XIX asr oxiri — XX asr boshlariga kelib, Buxoro amirligi aholisining 85 foizi qishloq xo'jaligi bilan band bo'lishi [2, B.84-85] tabiiy ravishda savdo munosabatlari ayirboshlovi va tranzit aloqalarida qishloq xo'jalik mahsulotlarining ustunligini ta'minlagan. Bu davrda Sharqiy Buxoroning tog'li viloyatlari don, chorva va paxtaga boy bo'lib, ularni tashish ehtiyoji ortib bormoqda edi. Masalan, faqat Saroy shahridan daryo orqali Karkigacha yiliga 1 mln. pud yuk yuborilgan bo'lsa, qayiqlarda Saroyga esa 300 ming pud yuk olib kelingan [3, C.77]. Bu raqamlar yilma-yil o'sib borgan, chunki Buxoro amirligining sharqiy beklklari qishloq xo'jalik mahsulotlari ombori edi. Amudaryoning yuqori qismidagi beklklari tabiiy boyliklarga (paxta, don, guruch, beda urug'i, yong'oq, pistalar va chorvachilik mahsulotlari) serob edi. Bu hududlarni Amudaryo bilan bog'lovchi aloqa yo'llari yaxshilansa, hududlar o'rtasida savdo yanada rivojlanishi mumkin edi.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Buxoro amirligida yetishtirilgan paxtaning 300-400 ming pudi mamlakatning o'zida ishlatilib, taxminan 1,4 mln. pudi esa Rossiyaga olib ketilgan. Ushbu paxtaning 150 ming pudi aynan Amudaryo suv yo'li orqali Chorjo'ydagi temir yo'l stansiyasiga tashib kelingan [4]. Xiva xonligida ham Buxoro amirligidagidek kabi paxta yetishtirish asosiy rol o'ynagan. Yiliga 400-600 ming pud paxta tolasi yetishtirilib, Amudaryo orqali Chorjo'yga, undan temir yo'l orqali Rossiyaga yetkazilgan [5, C.23]. Xiva xonligidan Buxoroga boshqa mahsulotlarning ham katta qismi qayiqlarda, kam miqdordagisi esa flotiliya kemalarida tashilardi.

Amudaryo bo'ylab paxta tashishdan keyingi o'rinda bug'doy, arpa, guruch va zig'ir turgan. Karki va Kalif bekligidan Saroygacha bo'lgan o'ng qirg'oqdagi hududlardan eng ko'p tashib ketilgan tovar – toylangan paxta, so'ngra jun va gilamlar hisoblangan [6]. Paxta va g'alla

mahsulotlari qayiqlarda tashiladigan eng qulay yuk hisoblanib, 6 sarjen maydonli qayiq'larga 810 pud bug'doy, 96 pud un, 671 pud arpa, 877 pud yorma va 310 puddan ziyod quritilgan non joylangan 108 ta qopni sig'dirish mumkin edi [7, C.217].

Rus harbiy amaldorlari G.A.Arandarenko va kapitan Vasilyev ma'lumotlariga ko'ra, Ko'lobda 4 mln. pud, Baljuvonda 5 mln. pud, Qorateginda 4 mln. pud, Darvozda 1,5 mln. pud, Sharqiy Buxoro beklklarida jami 14 mln. pud g'alla zahirasi bo'lgan. Bu yerdagi yetishtirilgan jami g'allaning 1,5 mln. pudi sotish uchun bozorlarga chiqarilardi. Sharqiy Buxoroda g'allaning asosiy savdo markazlari – Garm, Baljuvon, Ko'lob, Xavalin shaharlari va Saroy, Sari-Chashma hamda Poshin qishloqlari bozorlari bo'lgan. U yerdan g'alla ikki yo'nalishda: birinchisi, Hisor, Qarshi va Buxoroga tuyalar orqali; ikkinchisi, Saroydan qayiq orqali Termiz va Karkiga yuborilgan [8, C.106].

Sharqiy Buxoroda g'alla mahsulotlarini sotib olishni amalga oshirib kelgan rus Harbiy mahkama zobiti ma'lumotlariga ko'ra, har yili 300 ming pud bug'doy, 200 ming pud arpa, 50 ming pud guruch, 50 ming puddan ziyod jo'xori va 100 pud beda urug'i Amudaryo bo'ylab quyi oqim hududlariga yetkazilgan [4].

Ko'lob, Baljuvon, Qorategin kabi sharqiy beklklardagi g'alla dastlab Saroy shahriga, undan Amudaryo orqali Termiz, Karki, Chorjo'y shaharlariga va hatto Xiva xonligiga ham yetkazilgan [8, C.105]. Shuningdek, arxiv manbalarida nomlari keltirilgan beklklardan tashqari Hisor va Sherobod beklkida ham uncha ko'p bo'lmagan miqdordagi ortiqcha g'allaning bir qismi tuyalarda Qarshiga, yana bir qismi esa Amudaryo bo'ylab Karki, Chorjo'y va hatto Petro-Aleksandrovskkacha yetkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar uchraydi [4].

Surxon vohasida Amudaryo suv yo'lidan tashqari shimoldan janubga tomon Surxondaryo suv yo'lidan ham foydalanilgan. Denovdan Pattakesargacha qishloq xo'jalik mahsulotlari qamish sollar va kichik qayiq'larda tashilgan. Daryoning Kakaydidan boshlab Amudaryogacha bo'lgan qismida 200 pud va undan ko'proq yuk ko'taruvchi qayiq'lar qatnagan [9, C. 382-383].

Panj daryosi bo'ylab Ko'lobda yetishtirilgan g'alla mahsulotlari har pudiga 15 kopeyek hisobida avval Saroy shahriga, undan yana xuddi shuncha narxda Amudaryo bo'ylab qayiq'larda Termizga tashib kelingan [8, C.106]. 1905-yilda "Sharqiy jamiyat" va "Kavkaz va Merkuriiy" jamiyatlarining yuklarini tashish va saqlash uchun Saroy shahrida idora tashkil etgan. Ular Amudaryo va Panj daryolari bo'yidagi Ko'lob, Baljuvon va Qo'rg'ontepa kabi beklklarning qishloq xo'jalik mahsulotlarini daryo bo'ylab quyi Amudaryo hududlariga tashish bilan shug'ullanishgan [10]. Masalan, 1915-yilda Saroydan Amudaryo orqali turli manzillarga 330 ming rubl miqdoridagi 225 ming pud paxta va jami 258 ming rubl miqdoridagi 177 ming pud tovarlar yetkazilgan [11, C.214].

Saroyda qabul qilingan g'alla bandargoh omborxonalarida saqlanib, Amudaryo bo'ylab Termizga yetkazishda pudiga 20 kopeyekdan sug'urtaga olingan. Sharqiy Buxorodagi g'allaning asosiy qismi Termizda to'planardi [12, 141]. Har yili Termiz harbiy garnizoni Sharqiy Buxorodan 52 ming pud g'alla mahsulotlarini xarid qilib Amudaryo orqali olib kelishgan [11, C.214]. Bundan tashqari, bu yerlarda g'allaning narxi Buxoro amirligining g'arbiy hududlariga qaraganda ancha arzon edi. Misol uchun, Ko'lob va Baljuvonda bir botmon arpa 25 tangadan 40 tangagacha (3 rubl 75 kopeyekdan 6 rublgacha), bug'doy esa 35 tangadan 45 tangagacha baholangan [8, C.106].

Shu boisdan har yili avgust oyida Termizga g'alla xarid qilish uchun g'arbiy Buxoro va Xiva xonligidan savdogarlar kelishgan. Termiz shahrida to'plangan g'allani savdogarlar Amudaryo bo'ylab qayiqlarda Karki, Chorjo'y shaharlari va Xiva xonligiga olib ketishgan [13, C.57]. Kerki, Narazim, Burdaliq va Kalif shahrining yuqori oqimida turkmanlar baliq ovi bilan shug'ullanib, kuz oylarida ular ham kema va qayiqlarida don tashishgan [14, C.24].

G'alladan tashqari Amudaryo suv yo'li orqali movut ham tashilardi. Amudaryo bo'ylaridagi hududlardan yig'ib olingan movut daryo bo'ylab Chorjo'ydagi temir yo'l stansiyasiga yetkazilib, u yerdagi Stuken, K⁰ va boshqa fabrikalarga tozalash uchun olib kelinardi. Tozalangan movut Rossiya, Angliya va Amerikaga jo'natilgan. 1907-yilda Chorjo'y orqali Buxoro amirligidan 110 ming pud dan ortiq movut chetga chiqarilgan [4].

Amirlikda rus ishbilarmonlari shug'ullangan yana bir soha shifobaxsh qizilmiya ildizini sotib olish va qadoqlash hisoblangan. Qizilmiya o'simligi Amudaryo va uning irmoqlari bo'ylarida yovvoyi shaklda o'sgan. Mahalliy aholi uning ildizlarini qazib olib, Amudaryo bo'ylab qayiqlarda Chorjo'ydagi zavodga tashigan. Ildizi quritilib, so'ngra siqilgan qizilmiya ildizlar qoplarga 10 pud dan qilib joylanib, Krasnovodskka va undan Kavkaz orqali Batumiga jo'natilgan. O'sha yerdan bu tovarlar hatto Amerika va Angliyaga ham sotilgan. 1908-yilda Buxorodan 230 ming pud qizilmiya ildizi chetga chiqarilgan [4].

Qizilmiya ildizini yig'ish va sotish bilan shug'ullanuvchi firma vakillari Amudaryo flotiliyasidan ko'ra mahalliy qayiqlarda Amudaryo bo'ylab tashishni afzal ko'rgan. To'g'ri tashkil qilingan qayiq qatnovlari orqali Chorjo'yga yiliga 300 ming pudgacha qizilmiya ildizi tashish mumkin edi. Shunga qaramay qayiqchilar firma sotib olishi mumkin bo'lgan barcha tovarlarni tashib berishga ulgurishmasdi.

Shunday qilib, taxminiy hisob kitoblarga ko'ra, Buxoro amirligida Amudaryoning quyi va yuqori oqimi bo'ylab jami 1 mln. 440 ming pud yuk va tovarlar jo'natilgan: paxta tolasi (150 ming pud), movut (110 ming pud), qizilmiya ildizi (230 ming pud), bug'doy (300 ming pud), arpa (200 ming pud), guruch (50 ming pud), jo'xori (50 ming pud), beda urug'i (100 ming pud), boshqa mahsulotlar (250 ming pud). Chorjo'ydan Amudaryoning yuqori oqimi bo'ylab Buxoroning chekka o'lkalariga Amudaryo flotiliyasi kemalari bilan yiliga taxminan 300-400 ming pud tovar yuklari jo'natilgan [4]. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardagi raqamlar qo'shib hisoblanganda Buxoroning Amudaryo bo'ylab yuk aylanmasini yiliga kamida 1 mln. 840 ming pud deb taxmin qilish mumkin.

1910-yilda Chorjo'ydan Saroy (Fayzobodqal'a) gacha bo'lgan yuqori Amudaryo suv yo'li bo'ylab 2 mln. pud dan ortiq yuk tashilgan bo'lib, ularning 600 ming pud dan ortig'ini keltirilgan yuklar tashkil etgan (hukumat yuklaridan tashqari). Qolgan 1,3 mln. pud dan ortig'i esa olib ketilgan yuklar hisoblanadi. Chorjo'yga Amudaryo orqali Saroydan 11 697 pud zig'ir, 12 ming pud pista, 19 440 pud kunjut, 10 312 pud yong'oq, 200 ming pud arpa, 250 ming pud bug'doy, 10 ming pud xom ashyo; Ayvojdand, Afg'onistonning chap qirg'og'idagi Imomsaib tumanidagi bandargoh va Qunduzdan 41 ming pud zig'ir, 3 ming pud kunjut, 2 ming pud quritilgan meva, 2 ming pud xom ashyo, ming pud guruch; Vaxsh bo'yidagi Qo'rg'ontepa va Jilliko'l (Janiko'l) dan 100 ming pud bug'doy, 75 ming pud arpa, jami 750 ming pud qishloq xo'jalik mahsulotlari olib ketilgan [7, C.303-304]. Bu yuklarning deyarli barchasi mahalliy qayiqlarda tashilib, Amudaryo flotiliyasi ham qisman miqdorda yuk tashishda qatnashgan. Shuning uchun Chorjo'ydan Saroy (Fayzobodqal'a) gacha xususiy paroxodlar qatnovini yo'lga qo'yish zaruratga aylandi, bu esa

Chorjo‘ydan Saroygacha 600 verstli masofadagi har bir pudi uchun 60 kopeyek bo‘lgan yuk tashish narxini arzonlashtirib, tovar aylanmasini oshirishi kerak edi.

Xulosa. Rossiya kapitalining mintaqa bozoriga kirib kelishi natijasida savdo-sotiq ishlari rivojlanib, daryo orqali yirik miqdordagi yuklarni tez hamda arzon yetkazish zarurati tug‘ilgan. Bu mahalliy kema, qayiqlar sonining ko‘payishiga olib kelgan.

Umuman olganda, XIX-XX asr boshlarida Amudaryo suv yo‘li bo‘ylab nafaqat Buxoro amirligi, balki mintaqaning Xiva xonligi, Afg‘oniston va Amudaryo bo‘limi o‘rtasida tinimsiz savdo hamda tranzit aloqalari amalga oshirilgan. Amudaryo bo‘ylab savdo va tranzit aloqalari faollashuvi bevosita Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiyotiga ta‘sir etib, o‘lka tovarlarining hatto jahon bozorlariga sotilishiga olib kelgan.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ананьев А.Г. Орошение «Шерабадской долины» водами реки Сурхана. – Ташкент: тип. Канц. Турк. Ген.-Губ., 1911. – 40 с.
2. Холиқова Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: O‘qituvchi, 2005. – 240 б.
3. Бенцелевич Н.А. Водные пути Туркестана. Материалы для описания русских рек и истории улучшения их судоходных условий. Выпуск LV. – СПб.: М-во путей сообщения, 1914. – 260 с.
4. O‘z MA, И-1396-fond, 2-ro‘ухат, 515-2-ish, 75-78-varaqlar.
5. Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Ташкент: ЦСУ Туркеспублики, 1922. – 72 с., прил. – 45 с.
6. Михайлов А. Каючный промысел на Амударье // Туркестанские ведомости. – 1908. № 220.
7. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том I. – СПб.: В.Березовский, 1911. – 340.
8. Логофет Д. Н. Хлебная торговля и запасы Восточной Бухары // Туркестанский сборник. Том 417. – Ташкент, 1907. – С. 105-107.
9. Полковник Галкин. Военно - статистический очерк средней и южной частей Сурханской долины // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Выпуск 57. – СПб., 1894. – С.364-384.
10. O‘z MA, И-1-fond, 27-ro‘ухат, 408-ish, 36-varaq.
11. Маджлисов А. Аграрные отношения в восточной Бухаре в XIX – начале XX века. – Душанбе – Алма-ата: Ирфон, 1967. – 337 с.
12. Очилдиев Ф.Б. Сурхон воҳаси бекликларидоги ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ўзгаришлар (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2008. – 168 б.
13. Снесарев А.Е. [Восточная Бухара](#) (военно-географический очерк). – СПб.: Воен.-стат. отд. Гл. упр. Ген. Штаба, 1906. – 283 с.
14. Капитан Быков. Очерк переправ через реку Амударьи (рекогносцировка 3- Западно-Сибирского Линейного батальона Штабс-капитана Быкова). – Ташкент, 1879. – 83 с.
15. Ashurovich A.S. MILITARY-STRATEGIC GOALS OF THE RUSSIAN EMPIRE ON THE AMU DARYA //American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769). – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 151-155.
16. Allamuratov S. AMUDARYO SUV YO ‘LINING SHAKLLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR //TAMADDUN NURI JURNALI. – 2024. – Т. 11. – №. 62. – С. 84-86.
17. Ashurovich A.S. THE ROLE OF THE AMUDARYA IN TRADE RELATIONS OF THE EMIRATE OF BUKHARA (BASED ON THE DOCUMENTS OF THE NATIONAL ARCHIVE OF

UZBEKISTAN) //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY. – 2023. – T. 4. – №. 09. – C. 9-15.

18. Allamuratov Sh.A. Amudaryo suv yo‘li va kechuvlari tarixi (XIX-XX asr boshlari). Monografiya. – Toshkent: – “Innovatsiya-Ziyo”, 2023. – 220 b.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

PAGES OF MEDIEVAL CITIES DEVELOPED ALONG THE AMU DARYA RIVER ON THE INTERNATIONAL CARAVAN ROUTE

Sabirov Mansurbek

Researcher at Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

E-mail: mansurbek121985@gmail.com

Abstract. The article analyzes the location of medieval cities that developed on the right and left banks of the Amu Darya River along caravan routes.

Keywords: Belenitsky A.M., Bentovich I.N., Bolshakov O.A., Gulyamov Ya.G., Vambery A., Ershov S.A., Pilipko V.N., Rapoport Yu.A., Vakhturskaya N.N., Vishnevskaya O.A., Uzbekistan, Khorezm, Ustyurt, Ar-Rabat, Sartarosh, Eshak-Robot, Damkala, Sangirkala, Toshaqir, Sadvar, Kaparas, Elharos, Jigarband.

AMUDARYO SOHILI BO'YLAB XALQARO KARVON YO'LIDA RIVOJLANGAN O'RTA ASR VA SHAHARLARI SAHIFASI

Sabirov Mansurbek

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada Amudaryo o'ng va sohil hududlarida rivojlangan o'rta asr shaharlari karvon yo'llarida joylashishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Belenitskiy A.M., Bentovich I.N., Bolshakov O.A., G'ulomov Ya.G., Vambey A., Yershov S.A., Pilipko V.N., Rapoport Yu.A., Vakturskaya N.N., Vishnevskaya O.A., O'zbekiston, Xorazm, Ustin, Ar-rabot, Sartarosh, Eshak-robot, Damqala, Sangirqala, Toshaqir, Sadvar, Kaparas, Elxaros, Jigarband.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N06>

Kirish. X-XII asrlar nafaqat Xorazm tarixida, balki, O'zbekiston tarixida muhim davri hisoblanadi. Abu Rayhon Beruniyning Xorazm vohasi aholisining Amudaryo o'ng va so'l sohillari bo'ylab 300 dan ziyod qishloq va shaharlar bunyod qilinganligi, ularning xarobalari hozirgi kungacha saqlanib qolgan deb zikr qilgan ma'lumotlari muhim ahamiyat kasb etdi, ularning aksariyati madaniy-meros bo'lib, hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda.

Mazkur tarixiy davrning o'ziga xos xususiyati shundaki, mil.avv. IV asrdan boshlab, azim Amudaryo o'ng sohilida Ustik, Ak-rabot, Nargizqal'a, Yigit qal'a, Qizqal'a, Ko'k-Ayaz, Kukergli, Qizil rabot, Sartarosh, Eshak-rabat, Doshqal'a 1,2, Damanqal'a, Shuraxon, so'l sohil hududida Sangirqal'a, Tosh-akir, Kabakli, Turnaqal'a, Quyiqa'l'a 1,2, Uch-Karsin, Doya-Xatin, Ketmanchi, Koy qal'a, Ak-rabot 1, II, Jigarband, Sadvar, Kaparas, Elxaras yodgorliklari antik, ilk va rivojlangan o'rta asr davrida xalqaro karvon yo'lini daryo transporti yo'nalishi rivojlanishida muhim tayanch vazifasini bajargan. Ikkinchi xususiyati mazkur turar-joylarida rivojlangan o'rta asrlarda madaniy-xo'jalik hayot davom etgan. Uchinchi xususiyati o'ng sohilga qaraganda so'l sohil hududida aholi markazlari miqdor jihatidan ko'p bo'lgan. Mazkur maqolada antik, ilk

oʻrta asrda asos boʻlgan rivojlangan oʻrta asr aholi soni markazlari xalqaro karvon yoʻl rivojlanishiga qoʻshgan hissasini yoritish inobatga olingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Amudaryo oʻng va soʻl sohili boʻylab joylashgan qalʼalar turli tarixiy davrga oid shartli belgilarda neolit, eneolit, bronza va temir davri aholi turar-joylari koʻzga tashlanmaydi. Amudaryo oʻng sohilida rivojlangan oʻrta asr yodgorliklari toʻgʻrisida maʼlumotlar quyidagicha taqdim qilish mumkin:

1. Amudaryo oʻng sohili arxeologik yodgorliklari:

Amudaryoning Orol dengizi tomon yoʻnalishida aholi tomonidan bunyod qilingan arxeologik yodgorliklar oʻng va soʻl sohili hududlarida joylashishi, jihatidan bir-biridan farqlanish holatini kuzatish qiyin emas.

Agar Amudaryo yoʻnalishini tasvir qilgan xaritada oʻng va soʻl sohil geografik xususiyati, ekologiyasi hamda aholi markazlari soʻl sohil hududida koʻp sonli qishloq maqomida turar-joylar va oʻrtamiyona hajmda shaharlar joylashganligi qayd qilingan. [1-1991-S.12].

Ikki qirgʻoq sohili boʻylab joylashgan arxeologik yodgorliklarni hamda ularda olib borilgan qazishma ishlari natijalari bilan umumlashtirgan holda qadimgi, ilk oʻrta asr va rivojlangan oʻrta asrda oʻtroq aholining xoʻjaligi, moddiy va maʼnaviy madaniyati tarixini qayta tiklash mumkin.

Arab yozma manbalarda Amudaryo oʻng va soʻl sohili hududlarida al-Istaxriy (29) va al-Muqaddasiy (31 ga) rivojlangan oʻrta asr yodgorliklari qayd qilinadi. [2-T 939-S. 179-181]. 3. 1973-S 172). Oʻng qirgʻoq qumlik sahrosi sharoiti, Toʻgʻay ekologiyasi koʻp sonli emas, janubi-gʻarbiy Qizilqum bilan bogʻlanib ketadi. Soʻl qirgʻoq uning geografik holati oʻsimlik dunyosiga serob, boʻlganligi sabab aholi markazlari oʻng sohilga qaraganda koʻpsonli hisoblanadi.

Amudaryo oʻng va soʻl sohil hududi boʻylab joylashgan arxeologik yodgorliklar Ya.Gʻulomov monografiyasida Shuraxon, Toxiriya-rabod, Doya-xatin, Dargʻon, Jigarband qalʼalari toʻgʻrisida xulosalarini qayd qilgan. [4. 1959-B.132-170]. Amudaryo oʻng sohili hududida (Qizilqumda) Arminiya Vamberini Gurganchdan Buxoro yoʻnalishda qalʼalarni izoh qilgan (5.1867-S. 128-129).

Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlarining Amudaryo oʻng va soʻl sohil hududlarida aholi tomonidan bunyod qilingan yodgorliklarni roʻyhatga olib, ularni joylashtirish xaritasini ilmiy jamoatchilik eʼtiboriga havola qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

1939-yilda S.A.Yershov Qushqalʼa-1 va Turpoqqalʼani antik davrga oidligini ashyolar olishga erishgan. [6- 1941-S.185]. 1968-yilda V.N.Pilipko Amudaryo oʻrta qismi soʻl sohili etagiga tutashib ketgan balandlikka oʻtroq ziroatkor aholi tomonidan qurilgan Odoytepa turar-joyi mil.avv.IX asr oxiri – VIII asr boshida qurilib, unda xoʻjalik hayot milodiy XIII asrlargacha davom etgan.[7-1968 -S.428].

1972-1975-yillarda Xorazm ekspeditsiyasi Xorazm vohasi janubida Pitnak qishlogʻi hududida Kaparas vohasida Tuyamoʻyin suv ombori qurilishi munosabati bilan Sadvar, Jigarband, Elxaros yodgorliklarida qazishma ishlarni olib borib, antik, ilk va rivojlangan oʻrta asrda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy munosabatlar darajasini yoritadigan moddiy ashyolarni olishga erishilgan. Jumladan; Elxaras - yodgorligi Amudaryo soʻl sohili hududi janubiy Xorazm Pitnak qishlogʻi hududida joylashgan, hajmi (30x50 m) arxeologik jihatidan oʻrganilganidan keyin (36,00x48. 00) m, gʻarbiy va sharqiy qismdan iborat boʻlgan. U tabiiy balandlikda 3-5 m joylashgan.

Yodgorlikda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida uning qurilishi mil.avv. ming yillik o'rtalari va milodiy IX-XI asrlarga oid bo'lgan.[8. 1991.-S 80-15].

Kaparas-Elxaras yaqinida joylashgan shimoldan-janub tomon cho'zilgan to'g'riburchak shaklda (128-110 m), ikki qatorli paxsa va xom kvadrat g'isht mudofaa devor o'rab olgan, umumiy qalinligi asosida 7,5 m. Ular o'rtasida yo'lak 2,2 m. Yodgorlik qurilishi ikki tarixiy davrdan iborat bo'lgan, birinchi tarixiy davrda paxsa devor o'rab olgan. Mil.avv. IV asr ikkinchidagi milodiy I asrdan boshlangan – XI asrgacha madaniy hayot davom etgan. [9. 1991-S 155-255].

Sadvar-Amudaryo so'l sohili hududida joylashgan Kaparas va Danisher qal'a o'rtasida joylashgan, to'g'riburchak shaklda, umumiy maydoni 130x14 km, ikki qatorli paxsa va kvadrat g'ishtdan devor o'rab olgan. Mudofaa devor qoldig'i balandligi 2,5-3 m. Yodgorlik markazida ark joylashgan, uch tomoni xandaq bilan o'rab olingan, kengligi-20 m. Ark devori qalinligi 9,5 m, balandligi 2,2 m paxsa devor balandlik 1,5m.

Ikkinchi qurilish davri (40x40x10 sm). Tashqi devor yarim aylana burj va nayza o'qli shinaklar joylashgan, ular oraliq maydoni 1,25-1,35 m, ichki tuzilishi 18-20 m, tamon esa 0,65-0,70 sm. Yodgorlik mil.avv. IV milodiy IX-XI asrlarda madaniy-xo'jalik markazi bo'lgan [9- 1973-S 498-499].

Jigarband-Darg'on yodgorligidan 40 km shimoli-g'arbida joylashgan, kvadrat shaklda (80-90 m). Yodgorlik to'rt tomoni paxsa va xom g'isht devor bilan o'rab olingan, g'arbiy devorida ark joylashgan, ilk va rivojlangan o'rta asrda mudofaa inshootida ta'mirlash ishlari olib borilgan. Xalqaro karvon yo'lini so'l va o'ng sohilda o'tishida xizmat qilgan. [10. 1975 -S.522-525].

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy xolislik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlil, munozara, umumlashirish, yakuniy xulosa, arxeologiya, geografiya va etnografiya fanlari yutuqlaridan foydalanildi.

Taxlil va natijalar. O'tgan asr va milliy mustaqillik yillari adabiyotlarda qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarni nazariy-qiyosiy tahlil asosida shakllangan qarashlar asosida rivojlangan o'rta asr aholi turar-joylari joylashishi, xalqaro karvon yo'lida rivojlanishida Sartarosh, Doshqal'a-2, Eshak-rabot so'l sohil hududida joylashgan Kabakli, Daya-xotin, Keteanchi, Sadvar va Jigarbanda (o'ng sohilga kechuv yo'li) turar-joylar, karvon saroylarning ahamiyati tahlil qilindi. Shu ma'noda natijalar quyidagicha oydinlashtirildi.

-Amudaryo o'ng va so'l sohili bo'ylab antik davrda bunyod qilingan aholi markazlari ilk va rivojlangan o'rta asrda xalqaro karvon yo'lida xizmat qilgan rivojlangan o'rta asr yodgorliklari Sadvar, Jigarband, Amul, Darg'on, Farob, Ak-rabot, Doshqal'a-2, so'l sohilda esa Sangirqal'a, Uch-Karsan, Karvon saroylar vazifasini bajargan.

Antik davrda quyidagi shaharlarda ilk va rivojlangan o'rta asrlarda xo'jalik-madaniy hayot davom etgan xalqaro karvon yo'li rivojlanishida (daryo transporti) tarixiy o'rni masalalarda natijalar qayd qilindi.

Xulosa va takliflar. Maqola mazmunidan kelib chiqib, rivojlangan o'rta asr shaharlarining Amudaryo sohili bo'ylab joylashgan aholi turar-joylarining joylashishi, xalqaro savdo karvon yo'lida tarixiy o'rni to'g'risida xulosaga kelishdi, birinchidan; Amudaryo o'ng va so'l sohili bo'ylab shaharlarning joylashishi mil.avv. V asrdan boshlangan, shu sabab Amudaryoda suv transporti sohisi vujudga kelgan.

Antik davrda qad ko'tarilgan qal'alar ilk va rivojlangan o'rta asr davri xo'jalik-madaniy markaz vazifasini bajargan. (Sadvar, Kaparas, Jigarband, Darg'on, Amul Elxaras). O'rta asr yodgorliklar Ak-rabat, Nargizqal'a, Yigitqal'a, Qizqal'a, Kukertli, Qizil rabot, Sartarosh, Doshqal'a-1, So'l sohilda esa Sangirqal'a, Uch-Karsan, Ketmanchi, Doya-xatin, Danisherqal'a.

Yuqorida qayd qilingan xulosadan quyidagi takliflar ilgari surildi:

-Amudaryo o'ng va so'l sohiliga o'tish yillarini oydinlashtirish;

-rivojlangan o'rta asr shaharlari kartografiyasini ishlab chiqish;

-karvon-saroylar vazifa asosini bajargan yodgorliklar kartografiyasini tuzish kabi xulosalar ilgari surildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Древности Южного Хорезма-М:Наука 1991. Т. XVI.
2. Митт- 1939. Т.Л.
3. Беленицкий А.М, Бентович И.Н, Большаков О.А. Средневековый город Средней Азии-М, Л, Наука 1973.
4. Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи-Тошкент,: Фан, 1959.
5. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии-М, 1867.
6. Ершов С.А. Археологические памятники левого берега Амударьи //ВДИ, 1941 № 1.
7. Пилипко В.Н. Из работ Амударьинского отряда //АО-1968-М: Наука 1989.
8. Рапорт Ю.А. Элхарас М. 1991.Т-XVI.
9. Вактурская Н.Н. Раскопки средневекового города Садвар //АО. 1973.М-Наука, 1974.
10. Вишневская О.А. Раскопки городища Джигербанд //АО, 1974-М:Наука, 1976.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

FACTORS IN THE FORMATION OF LIVESTOCK FARMING IN NOMADIC PASTORALISM

Matnazarova Mohira Uktamovna

PhD, Teacher

Urgench State University

E-mail: matnazarovamokhira4@gmail.com

Abstract. The ancient Khorezm state established relations with nomadic herders located almost along its entire borders. Sometimes they maintained peaceful neighborly and trade relations with them, sometimes they waged war to protect themselves from their attacks and strengthened their defenses by creating a system of border cities.

Keywords: Karakum, Kyzylkum, lowland, ozan, Qal'aliqyr, Akchadarya, handicrafts.

KO'CHMANCHI CHORVADORLAR CHORVACHILIK XO'JALIGINING SHAKLLANISH OMILLARI

Matnazarova Mohira Uktamovna

PhD., o'qituvchi

Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. Qadimgi Xorazm davlati deyarli butun chegaralari bo'ylab joylashgan ko'chmanchi chorvadorlar bilan o'zaro aloqalarni o'rnatgan. Ba'zida ular bilan tinch qo'shnichilik, savdo aloqalarini olib borgan bo'lsa, ba'zida ularning hujumidan himoyalaniş uchun urush olib borgan va chegara shaharlar tizimini hosil qilib, ularning mudofaasini mustahkamlagan.

Kalit so'zlar: Qoraqum, Qizilqum, pasttekislik, o'zan, Qal'aliqir, Oqchadaryo, hunarmandchilik buyumlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N07>

Kirish. Xorazm vohasi Amudaryoning quyi havzasida joylashgan bo'lib, u qadimgi davrda o'ziga xos sivilizatsiyaga asos solgan. Amudaryo va uning o'zanlari bo'ylab yashagan xorazmliklar o'ziga xos madaniyatni shakllantirganlar. Qadimgi Xorazm davlatining hududlari aynan shu voha bilan belgilangan. Xorazm vohasi bugungi kunda O'zbekistonning Xorazm viloyatini, Qoraqalpog'istonning janubi-g'arbiy tomonlarini va Turkmanistonning shimoli-sharqiy hududlarini o'z ichiga oladi. Uning chegaralari janubda Birota (Darg'onota), shimolda Orol dengizi, g'arbda Sariqamish havzalari va yuqori Uzboy, sharqda Janubiy Oqchadaryo deltalari hududlari hisoblangan. [11, 107-b.]. Davlat janubi-g'arbda Qoraqum, shimoli-g'arbda Ustyurt platosi, sharqda Qizilqum. cho'llar bilan chegaradosh: Davlatning sharqiy tomonida joylashgan Sulton Uvays tog' tizmalari hududlari ham chorvachilik xo'jaligini rivojlantirishga qulay hisoblanadi. Umuman olib qaralganda, O'rta Osiyoning shimoliy hududlarini egallagan voha hududlari chorvachilik xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay. Xorazm vohasining janubiy tomoni Tuyamo'yin tangligigacha boradi. Uning o'ng qirg'oq hududi cho'ldan iborat bo'lib, u ko'chmanchi chorvadorlarning qishlov hududi bo'lgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qadimgi Xorazm davlati deyarli butun chegaralari bo‘ylab joylashgan ko‘chmanchi chorvadorlar bilan o‘zaro aloqalarni o‘rnatgan. Ba’zida ular bilan tinch qo‘shnichilik, savdo aloqalarini olib borgan bo‘lsa, ba’zida ularning hujumidan himoyalaniş uchun urush olib borgan va chegara shaharlar tizimini hosil qilib, ularning mudofaasini mustahkamlagan [5].

Xorazm vohasining geografik jihatdan tuzilishi, suv bilan ta’minlanishining o‘ziga xos jihati ko‘chmanchi chorvachilik xo‘jaligini tashkil bo‘lishiga zamin yaratgan. Vohaning yer tuzilishi, asosan, yassi tekislikdan iborat bo‘lib, shimoliy va shimoli-g‘arbiy tomonga biroz nishab. Nishablik kam bo‘lganligi sababli Amudaryo tarmoqlanib, sekin oqadi. [2]. O‘ng qirg‘oqda Oqchadaryo, chap qirg‘oqda Sariqamish o‘zanlari bo‘ylaridan kanallar va ariqlar chiqarib, dehqonchilik vohalarini kengaytirganlar. Oqchadaryo o‘zanidan Amirobod, Tozabog‘yop va Kaltaminor kanallari barpo etilib, sun‘iy sug‘orish tizimi takomillashtirilgan.

Amudaryoning chap qirg‘og‘idan chiqqan Sariqamish o‘zani hududlari pasttekislikdan iborat. Hududning umumiy maydoni 1 mln. gektarni tashkil etadi. Amudaryoning chap qirg‘og‘idan Qanxadaryo, Tunidaryo, Dovdon, Daryoliq (Qo‘xnadaryo) kabi qadimiy irmoqlar kesib o‘tadi. [1, 147-b.]. Sariqamish o‘zani janub va g‘arb tomondan Qoraqum cho‘liga yondashgan. Bu qumlar janubda Qopetdog‘gacha, g‘arbda Kaspiy dengizigacha bo‘lgan hududlargacha cho‘zilgan. [9, 39-b.].

Dovdon va Daryoliq Amudaryoning eng qadimiy o‘zanlari hisoblanadi. Dovdon kanali hozirgi Xorazm viloyatidagi Xonqa va Yangi Urganch hududlari oralig‘idan, Daryoliq kanali Yangi Urganchdan 15–18 km. shimolroqda Amudaryodan ajralib chiqqan. Ular bir-biriga nisbatan 20–30 km. masofada parallel ravishda g‘arbiga tomon harakatlangan.

Amudaryoning chap qirg‘og‘i pasttekisligining har yer-har yerida Butentov, Manqir, Tuzqir, Tarimqoya, Qang‘xaqir, Zangibobo, Toyqir, Qal‘aliqir, Ko‘zaliqir, Qubotov va boshqa yassi tog‘ qirlari bo‘lib, ular atrofdagi joylardan 20–40 metr va undan ham balandroq ko‘tarilib turadi. Aynan shu hududlar qadimgi Xorazm davlatining chegara hududlari bo‘lib, uning atroflarida ko‘chmanchi chorvadorlar ko‘chib yurishgan.

Qadimgi Xorazmning shimoli-g‘arbiy chegarasida Ustyurt platosi joylashgan. Ustyurt — Orol va Kaspiy dengizlari orasida, Qozog‘iston va O‘zbekiston chegarasida joylashgan cho‘l platosi. U Turon pasttekisligining bir qismi bo‘lib, taxminan, 200 ming kvadrat kilometr maydonni egallaydi. [10]. Ustyurt platosi o‘ziga xos geografik sharoitga ega. U yerning qumtepalari, baland qoyalari (chink), sho‘r ko‘llari, o‘simlik va hayvonot dunyosi ko‘chmanchi chorvadorlar uchun qulay bo‘lib, dehqonchilik bilan shug‘ullanishning imkoniyatini bermaydi. Ustyurt ikki xil tabiiy zona – shimoliy va janubiy cho‘llarning tutashgan qismida joylashgan. Shuning uchun u o‘ziga xos landshaft va o‘simliklar dunyosiga ega.

Ustyurtning atrofi 60–150 metrli chink, ya’ni tik jarliklardan iborat. Tik jarliklar har xil chuqurlikdagi jar va soylar bilan kesishgan. [3]. Platoning sharqiy tomondagi chinklari Qadimgi Xorazm chegaralari bilan tutash bo‘lib, mil. avv. IV asrda tashkil topgan davlat shu chegaralarni mustahkamlagan. Devkesgan qal‘asi, Devkesgan vali (uzun devori), Katta Oybuyirqal‘a, Butentov 1 qal‘alari qurilgan.

Xorazm vohasining shimoliy qismida Amudaryoning Orolbo‘yi deltasi joylashgan bo‘lib, u Orol dengiziga borib quyilgan. Mil. avv. II–I ming yilliklarda Amudaryoning ikkita asosiy o‘zani – Sariqamish va Oqchadaryoning loyqa va cho‘kindi jinslar bilan to‘lib qolishi natijasida ularning yuzasi ko‘tarilib qoladi. Amudaryo esa bu ikki o‘zanning o‘rtasidagi pastlikdan yangi

yo'l topadi. Amudaryo Nukus shahridan keyin Oqdaryo, Erkindaryo, Ko'hnadaryo, Toldiqdaryo, Qozoqdaryo kabi tarmoqlarga ajralib, Orolbo'yi deltasini vujudga keltiradi. Mil. avv. I ming yillikning ikkinchi yarmiga kelganda Amudaryo suvining asosiy qismi Orolbo'yi deltasi orqali Orol dengiziga quyilgan. [8, 217-b.]. Orolbo'yi o'zani hududlari ham ko'chmanchi chorvadorlarning yashashlari uchun qulay hudud hisoblangan.

Qadimgi Xorazm davlatining chegara hududlari sahrolar bilan tutashgan. Qadimgi Xorazm hududining shimoli-g'arbiy tomonini Qora qum cho'li egallagan bo'lsa, uning shimoli - sharqiy va sharqiy tomonlarida Qizil qum cho'li egallagan.

Qizilqum O'rta Osiyodagi eng yirik cho'llardan biri bo'lib, O'zbekiston shimolida joylashgan. U Qozog'iston va Turkmaniston hududiga ham borib tarqaladi. Qizilqumning maydoni, taxminan, 298 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi, u dunyodagi eng katta cho'llardan biri hisoblanadi. U qumtepa, sho'r va sho'r botqoqlar bilan ajralib turadi. Qizilqumning iqlimi kontinental, yozi issiq, qishi sovuq.

Qizilqum hududining ko'p qismi tekislikdan iborat. Uning hududidan Amudaryoning Oqchadaryo o'zani oqib o'tadi. Sulton Uvays, Bo'kantov, Yetimtog', Tomdi-tov, Quljuqgov kabi past tog'lar massivlari ham bor. Tog'lar taqir bo'lib, ular o'simliklar bilan qoplanmagan. Tog'lar va tekisliklarni bir-biridan qum massivlari ajratib turadi. Qum massivlarida ko'plab tepa va ko'zanak qumlari mavjud. Qum massivlarida eol relyef shakllari — qum marzalari [4], do'ng qumlar, barxanlar uchraydi. Qum marzalari ko'proq meridional yo'nalishga ega o'simliklar bilan mustahkamlangan. Qizilqumning markaziy qismida ko'pincha do'ng qumlar tarqalgan. Ular ham o'simliklar bilan qoplangan. Barxanlar nisbatan kam bo'lib, bular aholi yashaydigan joylar va quduqlar atrofida uchraydi. Barxanlarning harakatga kelishi insonning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq. Marza qumlar orasidagi past joylarda taqirlar hosil bo'lgan, ular Qizilqumning shimoliy-g'arbiy va shimoli-sharqiy qismida tarqalgan. [6, 650-b.].

Iqlimi keskin kontinental, yozi issiq-quruq, yog'ingarchilik kam, qish fasli juda sovuq bo'ladi. Qizilqum hududida doimiy oqar suvlar yo'q. Past tog'lardan boshlanuvchi soylarda suvlar faqatgina bahorgi yog'ingarchilik vaqtida bo'ladi. Yerosti suvi ko'p bo'lsa-da, ularning ko'pi sho'r. Faqat Turon plitasi poydevorida joylashgan karstlashgan ohaktoshlardagi yer yoriqlarida chuchuk suvlar zaxirasi bo'lib, ular qulay joylarda yer yuzasiga buloqlar sifatida chiqqan. Bularga Tomdibuloq, Irlir va boshqalarni misol qilishimiz mumkin.

Qizilqumning qirlarida bo'z qo'ng'ir tuproqlar, pastliklarda taqir va sho'rxok tuproqlar tarqalgan. Shunday bo'lsa-da, hudud o'simliklar dunyosiga boy. O'simlikning 900 ga yaqin turi aniqlangan bo'lib, shundan 226 turi (25 %) O'rta Osiyo uchun xos, 34 turi (3,5 %) faqat Qizilqumga xos o'simliklardir. [7, 650-b.]. Ular oq va qora saksovul, cherkez, qandim, chogon, borjok (qizilcha), shuvoq, sarsazan, qorasho'ra, shohilak, yulg'un va boshq. Bu o'simliklar cho'l hududiga moslashgan bo'lib, ular chorva uchun yaxshi ozuqa hisoblanadi. Qizilqumda mayin junli qorako'l qo'ylari boqiladi. Artezian havzalardan suv chiqarilib, chorvachilikda foydalanildi.

Qoraqum Osiyo hududidagi eng katta cho'l bo'lib, O'zbekistonning janubi-g'arbida, Turkmaniston bilan chegaradosh hududida joylashgan. Cho'l Turkmanistonning $\frac{3}{4}$ qismini egallagan. Shimolda Sariqamish botig'i, shimoli-sharqda va sharqda Amudaryo vodiysi, janubda Kopetdog' etaklari, g'arbda Amudaryoning qadimiy o'zani Uzboy bilan chegaradosh. Umumiy maydoni 400 ming km². Qoraqumning shimoli-sharqiy chegarasidan Amudaryo, janub

tomondan Tajan va Murg'ob daryolari oqib o'tadi. Qoraqum yerosti grunt suvlariga boy. Qoraqumning 9/10 qismi qum hisoblanadi.

Qoraqum geografik jihatdan 3 qismga ajratiladi: Zaunguz Qoraqumi – shimoliy, Markaziy Qoraqum – Quyi Qoraqum va Janubi-sharqiy Qoraqum. Bu uch yirik qism bir-biridan shakllanishi jihatidagina emas, balki tabiiy sharoiti va xo'jalik maqsadlarida foydalanilishi bilan ham farqlanadi. Zaunguz Qoraqumi geologik jihatdan eng qadimiy hisoblanadi. Hududda 80-100 metr balandlikdagi qirliklar ko'p. Hududning yerosti suvlari sho'r hisoblanadi. Shuning uchun bu yer chorvachilik uchun noqulay hisoblanadi.

Qoraqumning markaziy va janubi-sharqiy qismlari asosan pasttekisliklardan iborat. Shuningdek, ularning yaylovlari yil bo'yi o'simliklarga boy bo'lib turadi. Chuchuk suvli quduqlari ham ko'p. Ular juda chuqur bo'lib, chuqurligi 100-300 metrgacha bo'ladi. Ob-havoning ham yil davomida uzoq vaqt mo'tadil haroratda bo'lishi chorvadorlar tomonidan keng hududlarning o'zlashtirilishiga olib kelgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy xolislik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlil, munozara, umumlashtirish, mantiqiy xulosa, arxeologiya, etnografiya fanlari natijalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Xorazm vohasining atrofi ko'chmanchi chorvachilikning rivojlanishi uchun qulay bo'lgan. Ko'chmanchi chorvadorlar ot, qo'y va echki kabi chorva mollari uchun yaylov izlab doimiy ravishda ko'chib yurishgan. Ularning uylari – o'tovlari ham doimo ko'chib yurishga moslashgan. Ularni tez yig'ish, o'rnatish va yonida olib yurish oson bo'lgan. Qadimgi davrda esa ko'chmanchi chorvadorlarning uylari arava ustiga qurilgan. Ular bilan doimo birga yurgan. Bu ularning tez harakatlanishida qulay bo'lgan.

Ko'chmanchi chorvachilikning shakllanishiga bir qancha omillar sabab bo'ladi:

Birinchi, chorvachilik uchun qulay iqlim sharoiti bo'lishi zarur. Ko'chmanchi chorvachilik, ko'pincha, iqlim sharoiti qattiq bo'lgan hududlarda, ya'ni dasht, cho'l, tog' oldida rivojlanadi, bu yerda podaning doimiy harakati uchun yaylovlar va chuchuk suv bo'lishi lozim.

Ikkinchi, keng va o'simliklarga boy bo'lgan yaylovlarning mavjudligi ko'chmanchi chorvachilik rivojlanishining asosiy omilidir. Ko'chmanchilarga yangidan yangi yaylovlar zarur bo'ladi. Ular yaylovlarning toptalishiga yo'l qo'yishmaydi.

Uchinchi, ko'chmanchi chorvachilik avloddan avlodga o'tib kelayotgan an'anaviy turmush tarzidir. Ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishida bu jihat muhim o'ringa ega.

To'rtinchi, ba'zi hududlarda ko'chmanchi chorvachilik mavjud resurslardan foydalanishning eng samarali usuli bo'ladi. Bunday hududda qishloq xo'jaligi yoki boshqa iqtisodiy faoliyat turlari bilan shug'ullanishning imkoniyatlari yetishmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Beshinchi, hayvonlarning ko'chib yurishga bo'lgan moyilligi bo'lishi mumkin. Qo'y va echki kabi chorva mollarining ayrim turlari oziq-ovqat va suv izlab ko'chib yurishadi. Ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi chorvadorlar ham hayvonlarning ehtiyojlarini qondirish uchun ko'chib yurishadi.

Ko'chmanchi chorvachilikning mavjud bo'lishi uchun yuqorida sanab o'tilgan omillar Xorazm vohasi chegaralarining tabiiy geografik sharoitiga ham mos edi. Shu sababdan bu hududlardan eng qadimgi davrdan boshlab chorvachilik va uning zaminida ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligi tarkib topgan. Qadimgi davrda ko'chmanchi chorvachilikning

taraqqiyotida yana bir jihat bor ediki, ya'ni dehqonchilik qilish imkoni bor joylarga kelib o'rnashgan chorvadorlar o'troq turmush tarziga o'tishgan. Bu esa chorvachilikning har xil turlarining tarkib topishiga olib kelgan. Chorvadorlarning iqtisodiy faoliyati va o'troqlik darajasiga qarab quyidagi turlari shakllangan:

- ko'chmanchi chorvachilik;
- yarim ko'chmanchi chorvachilik;
- yaylov chorvachiligi.

Shu bilan bir qatorda, ko'chmanchi chorvadorlar ko'chib yurgan hududlariga qarab ham ajratiladi: 1. Vertikal, ya'ni tog', pasttekisliklar bo'ylab; 2. Gorizontal, ma'lum bir kenglik, meridional, aylana va boshqa hududlar bo'ylab ko'chib yurishi mumkin.

Qadimgi davrda Amudaryo quyi havzasining tabiiy geografik sharoiti ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligi shakllanishining asosiy omillaridan biri edi. Quyidagi omillar ham ko'chmanchi chorvachilikning rivojlanishiga sabab bo'lgan:

Cho'l va dasht zonalaridagi keng yaylovlar va suv resurslarining mavjudligi ko'chmanchi chorvachilikning rivojlanishiga qulay sharoit yaratdi.

Hududda keskin kontinental iqlim sharoitining bo'lishi, ya'ni qishning qattiq sovuq va yozning juda issiq bo'lishi unga moslasha oladigan chorva turlarini ko'paytirish uchun qulay bo'lgan.

Ko'chmanchilik turmush tarziga moslashgan qabilalarning mavsumga qarab hududda yashab, chorva uchun qulay yaylovlarga ko'chib yurishi mumkin bo'lgan.

Chorvachilik ko'chmanchi qabilalarning asosiy daromad manbai bo'lgan. Go'sht, sut, jun kabi mahsulotlar ularning o'z iste'moli uchun savdo va boshqa xalqlar bilan mol ayirboshlash uchun ishlatilgan.

Ko'chmanchi chorvachilikni rivojlantirishda uzoq masofalarga harakatlanish va yuk tashishda chorvadan transport sifatida foydalanish imkoniyat yaratgan.

Xulosa. Ko'chmanchi chorvadorlar mohir ovchi va chavandozlar bo'lganligi yunon yozma manbalarida yozib qoldirilgan. Otlar ularning kundalik hayotida muhim rol o'ynagan. Ular yana savdo va hunarmandchilik bilan ham shug'ullanganlar. Ularning mozor-qo'rg'onlaridan turli hunarmandchilik buyumlari topilgan. Bularga gilam to'qish, to'qimachilik, zargarlik, qurol-yarog' ishlab chiqarishni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ko'chmanchi chorvadorlarning o'ziga xos boshqaruv tizimi bo'lgan. Har bir qabilaning o'zi yashaydigan va ko'chib yuradigan hududi bo'lgan. Chorvadorlar chorvasining ko'payishi yoki qurg'oqchilikning bo'lishi ularni yashayotgan hududlarini tashlab, boshqa hududlarga borib o'rnashishlariga olib kelgan. Hudud va yaylovlar uchun, ko'pincha, o'zaro janglar bo'lib turgan. Dehqonchilik vohalariga ham bosqinchilik yurishlari qilib turganlar. Qadimgi davlatlar ulardan himoyalanih uchun chegaralarning himoyasini mustahkamlaganlar.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Андрианов В.Б. Древние оросительные системы (в связи с историей возникновения и развития орошаемого земледелия) – Москва: Наука, 1969. – С. 146; Низовья Амударьи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения. // МХЭ. Вып. 3. – Москва: Академия наук СССР, 1960. – С. 147–174.
2. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-x/xorazm-vohasi-uz>
3. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-u/ustyurt-uz>.
4. Marza – yer relyefining shakli bo'lib, tepasi qabariq bo'lgan muayyan masofaga cho'zilgan balandlikdir. U tektonik yo'l bilan hosil bo'ladi.

5. Мамбетуллаев М.М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения). IV в. до н. э.-IV в. н. э.: Автореферат. на соис. уч. ст. докт. ист. наук. – Ташкент, 1994.
6. Миллий энциклопедия. 10-том. – Тошкент. 2005. – Б. 650-651.
7. Миллий энциклопедия. 10-том. – Б. 650-651.
8. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана. – М.,1998. – С. 217.
9. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (қадимги замонлардан ҳозиргача). – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 39.
10. www.wikipedia.org. Устюрт.
11. Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности / История государственности Узбекистана. Т.1. – Ташкент: Узбекистан, 2009. – С. 107.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

ANALYSIS OF DOCUMENTS RELATED TO APPOINTMENTS TO MILITARY RANKS AND POSITIONS IN THE BUKHARA EMIRATE (BASED ON THE ARCHIVAL RECORDS OF THE KUSHBEGI CHANCERY)

Shukurillayev Yunus Asrorovich,
Associate Professor, Bukhara State Technical University,
Candidate of Historical Sciences

Abstract. This article analyzes the traditions and procedures of appointments to military ranks and official positions in the Bukhara Emirate during the Manghit dynasty. The analysis is based on documents from Fund I-126 - the Kushbegi Chancery of the Bukhara Emirate - preserved in the National Archive of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: rank, position, monthly salary, daily allowance, reward payment, appointment procedure, dismissal from office, yarlik.

BUXORO AMIRLIGIDA HARBIY UNVON VA MANSABLARGA TAYINLANISHIGA OID HUJJATLAR TAHLILI (QO'SHBEGI DEVONXONASI ARXIVI HUJJATLARI ASOSIDA)

Shukurillayev Yunus Asrorovich,
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti,
tarix fanlari nomzodi
E-mail: yunus-a@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida harbiy unvon va mansablarga tayinlash an'analari, tartib-qoidalarini O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivining I-126 - fondi - Buxoro amirligi qo'shbegi devonxonasi hujjatlari asosida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: unvon, mansab, oylik maosh, kunlik, mukofot puli, mansabga tayinlanish tartibi, mansabdan ozod etish, yorliq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N08>

Kirish. O'zbekiston Milliy arxivining I-126 — Buxoro amirligi qo'shbegi devonxonasi arxiv fondi hujjatlari to'plami O'rta Osiyo hukmdorlarining Osiyo tillarida (arab, fors, chig'atoy va turkiy) to'plangan hujjatli merosi saqlanadigan yirik arxivlardan biri hisoblanadi. Mazkur fondning 1-ro'yxat 1505 yig'majildidan to 1652 yig'ma jildgacha jami 7000 sahifadan ortiq Buxoro amirligidagi XIX asrning II yarmidan XX asr boshlariga qadar amirlar Muzaffarxon, Abdulahadxon va Olimxonlar hukmronligi davriga oid qo'shin va harbiy masalalarga tegishli hujjatlar sanaladi.

Arxiv fondida saqlanayotgan amirlikdagi harbiy unvon va mansablarga tayinlanishiga oid hujjatlar sulola davridagi ushbu masalalar yechimiga javob bo'lishi bilan birga xorijiy,

mahalliy hamda Rossiya imperiyasi josulari tomonidan keltirilgan ma'lumotlar bilan taqqoslash, tahliliy o'rganish imkonini beradi.

Buxoro amirligida harbiy unvon va mansabga qo'yiladigan yosh, malaka, va boshqa talablar, mansab egalari tayinlash tartib-qoidalari, mansabga qolish muddati, unvon va mansablarga ko'tarilib borish qoidalari, ulardan ozod qilinish tartiblari, taqiq va imtiyozlar mazkur maqolada tahlil qilinishi kerak bo'lgan masalalari sarasiga kiradi. E'tiborlisi shundaki, Buxoro amirligidagi unvon va mansablar to'g'risida o'nlab xorijiy va mahalliy manbalar mavjud bo'lsada, yuqoridagi savollarga to'la javob beradigan fundamental tadqiqotlar yaratilmagan, mavjud asarlarda muammoning ba'zi jihatlarigina qamrab olinadi.

Muhokama va natijalar. Avvalambor biz quyidagi jadval orqali XIX asrning II yarmida zobitlar tarkibidan tashkil topgan harbiy unvon va mansab egalari bilan yaqindan tanishsak: Harbiy unvonlarni quyidan yuqoriga sanab o'tadigan bo'lsak bu hol quyidagicha ko'rinish oladi: 1. Chehraog'asi – (چهره آقاسی). 2. Jibachi – (جیبچی). 3. Mirzaboshi – (میرز اباشی). 4. Qorovulbegi – (قاراول بیگی). 5. Miroxur – (میرخور). 6. To'qsabo – (توق صبا). 7. Eshikog'aboshi – (اشیک آغاباشی). 8. Biy – (بی). 9. Dodxoh – (دادخواه). 10. Inoq – (انق). 11. Parvonachi – (پروانهچی). 12. Qo'shbegi – (قوش بیگی). 13. Otaliq – (اتالیق).

Mazkur amaldorlardan to'qsabodan boshlab viloyat hokimi bo'lishi mumkin bo'lgan. Qo'shbegi kalon, qo'shbegi poyon (kichik qo'shbegi), qozi kalon, raisi kalon vazir vakolatlari darajasidagi amaldorlar sanalgan. XIX asrning II yarmi XX boshlarida harbiy yurishlar davrida Qo'shbegi poyon lashkarboshi etib tayinlanardi [1; v 65]. Ellikboshi qo'shinida 9 nafar kichik amaldor zobit bo'lib, ular bo'y o'rinlar asosan o'lim, boshqa lavozimga chaqiriq orqaligina ochiladi. Shunda ham amaldorning qarindoshlari yoki amirga yaqin shaxslar tomonidan egallanadi. Shuning uchun lavozimda yuqoriga ko'tarilish uchun faqat qobiliyat emas, balki orqada turib yuboruvchi, tavsiya qiluvchi, hatto pora berish ham kerak bo'ladi. Yuqori lavozimlarga ko'tarilish shaxsiy tanish-bilishsiz, harakatsiz, va shunchaki mehnat orqali emas, balki ko'pincha vositachi yordamida yuz beradi. Amirlikda 4-darajali unvon Qorovulbegi darajasiga yetgan amaldorga hurmatga sazovor atributlar – tillada bezalgan kamar va bezakli bosh kiyimi kiyish huquqi beriladi. Qorovulbegi bu unvonini faxr bilan ko'tarib yuradi va amirdan rasmiy yorliq oladi. Bu yorliqda uning tituli “Muborizatpanoh” — ya'ni “Harbiy xizmatda sharafli” deb qayd etiladi. Eshikog'aboshidan keyin esa “Amoratpanoh” (ya'ni “amirlikka xos”) unvoni oladi. Parvonachidan boshlab esa, “Vazoratpanoh” ya'ni, vazir darajasidagi maqomiga maqomga ega bo'ladi.

Muammoni o'rganishda bizga eng katta yordam beradigan manba bu hanuzgacha ilmiy muomalaga kiritilmagan O'zbekiston Milliy arxivi I-126 — fondi Buxoro amirligi qo'shbegisi kanselyariyasi arxiv hujjatlari to'plami hisoblanib, uning 1505 — 1518 yig'majildlar Buxoro amirligida mavjud harbiy unvon va mansab egalari, ularni tayinlash, maosh belgilash, mansabdorlarning ismi shariflari, 1640-1642 yig'majildlar harbiylarning shikoyat va arizalari, ular ijrosi va boshqa turli masalalari jamlangan muhim tarixiy hujjatlar majmui sanaladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ushbu manba orqali biz Buxoro amirligida harbiy unvon va mansablarga tayinlash va ulardan ozod etishning quyidagi holatlarini oydinlashtirdik:

1. Nomzodning ijtimoiy kelib chiqishi, urug'i, nasl-nasabiga qarab. Amaldor nom (mansab) ila mashhur bo'lgan. Masalan: chehraog'aboshi, mirobboshi, agar bekozoda bek avlodi bo'lsa avvalo, tunqator, keyin jibachi, bekozoda bo'lmasa ikki amaldan so'ng, tunqator, so'ng jibachi, qarovulbegi, miroxur, to'qsabo, eshikog'aboshi, biy, parvonachi, dodxoh, kichik inoq,

katta inoq, devonbegi, qo‘shbegi, otaliq darajalariga ko‘tarilishlari mumkin bo‘lgan. Muhammad Sayid Boljuvoniyni ushbu ma‘lumotlari arxiv manbalarida ham o‘z isbotini topadi. Quyidagi ma‘lumotda biz mirzaboshilikdan jibachi amaliga o‘tganligi ni ko‘ramiz:

- “Mirzaboshi qo‘llaringiz jibachi lavozimidan umid qiladi;-Abdulqayum Mirzaboshi, Sodiq mirzaboshi, Yo‘ldosh mirzaboshi, Shohimardon mirzaboshi, Rajabali mirzaboshi, Muhammadbek mirzaboshi, Rasulberdi mirzaboshi, Niyozbek mirzaboshi, Nurmon mirzaboshi, Islom mirzaboshi”... va hokazo.

Quyidagi hujjatda esa biz bek avlodi bo‘lgan bekozodalarni mirzaboshilikdan (tunqatorliqdan sakrab) to‘g‘ridan to‘g‘ri jibachilik amaliga erishganligini ko‘ramiz. An’anaviy holatlarda esa chehraoqalikdan mirzaboshi lavozimiga va boshqa amaldorlarning yuqori mansabga da’vo qilishlarni ko‘ramiz:

- “Quyidagi qullaringiz chehraoq‘alikdan mirzaboshi lavozimiga o‘tish umididalar: Boboxo‘ja chehraoq‘a, Hamidjon chehraoq‘a, Rahmonqul chehraoq‘a, Eshmurod chehraoq‘a, Qosim chehraoq‘a. Yana bir manbada “Jibachi qullaringiz qorovulbegi amali umididalar; Ne‘matulloxo‘ja jibachi, Abdulqodirxo‘ja jibachi, Sarimsoqxo‘ja jibachi, Xodixo‘ja mutavvali shayx, Atoullloh jibachi, Muhammad Karim jibachi, Mullo Davlat jibachi, Ya‘kub jibachi, Karomatilla jibachi, Inoyatulloxo‘ja jibachi, Ismatullo Domuloxo‘ja jibachi, Rahmatillox jibachi, Ibodullo jibachi, Ibrohim jibachi.....

“Quyidagi qullaringiz qarovulbegilikdan miroxurlik lavozimiga o‘tkazishingizni umid qiladi: Maxmudxo‘ja qarovulbegi, Eshmuhammad qarovulbegi, Nurmuhammad qarovulbegi, mullo Sharif qarovulbegi, Ibroxim qarovulbegi shogirdpesha”.

Umuman, nasl-nasabga qarab mansablarga tayinlash harbiy unvon va mansablardan tashqari ma‘muriy, diniy unvon va mansablarga keng qo‘llanilib kelingan. Masalan, eshikog‘aboshi – (اشيك آغاباشى) “Majma‘ ul-arqom”da bu lavozimni egallash huquqi do‘rmon, qushchi va nayman qavmlariga tegishli bo‘lganligi, agar bu qavmlarda bu vazifani bajarish uchun munosib shaxs topilmasa, bu huquq qo‘ng‘irot, qiyot va xitoy kabi qavmlarga o‘tish aytilgan, Parvonachi – (پروانهچى) ko‘pincha arab qavmiga yaqin kishilardan qo‘yilib, arab aholisini boshqarish huquqi ham bu unvonga ega bo‘lganlarning qo‘lida edi.

Xizmatlar uchun mahramlar “mehmonxona amaldori” deb atalgan. Ular viloyat va shaharlar xizmatiga ma‘mur hokimlarni nasbu-azl qilish (lavozimga tayinlash va ozod etish), da‘vogarlar talablarini isloh qilish kabi ishlarni bajarishgan.[2; v 28]. Qisqacha qilib aytganda lavozimga nomzod kishilarni nasl-nasabi, obro‘-e‘tibori, beradigan pora va hadyalariga qarab bu lavozimga loyiq yoki noloyiqligini bildirib turishgan.

2. Vafoti munosabati bilan lavozimdan ozod etish va yangilarini tayinlash:

-“Qorabekbiy parvonachi qulingiz janobi oliy hazratimga qilgan arizasi: Janobi oliy hazratimning xokipoylariga tasadduq bo‘lay! Ahmadbek qarovulbegi, Umarbek Mirzaboshi, Saidqul Mirzaboshi, Pirnazar chehraoq‘a va boshqalar qalmoq jamoasidagi qullaringiz mazkur jamoadagi yuzboshi Ostonqul miroxurning vafot etganligi to‘g‘risidagi xabarni yetkazdilar. Ular Rahmonqul Mirzaboshini mazkur jamoaga yuzboshi qilib tayinlashingizni so‘rab arz qilganlar. Sizning shu arizaga javoban yuborgan tabarruk nomangizni oldim. Muborak nomangizni qo‘llaringizga olib, ko‘zlarimga surtdim. Qullaringizni istagi bo‘yicha mazkur jamoaga Rahmonqul mirzaboshini yuzboshi qilib tayinlashni amir qilibsiz. Qullik yuzasidan shularni Sizga ma‘lum qildim”.

Manbalarda qo‘shindagi parvonachi (aksariyat hollarda qo‘shindagi 500 va 1000 kishilik sarkardasi) amaldorning vafot etganligi to‘g‘risidagi xabarni amirga yetkazish barorida ko‘pgina holatlarda keyingi amaldor nomzodi bilan birga taqdim etgan:

-“Qulparvar! Hazratimning boshlariga tasadduq bo‘lay! G‘ulomali eshik og‘aboshi qulingiz oliy ijozatingiz bilan oliy riqobga borib, oliy jamoangizga musharraf bo‘lib duo qilish umidida arz qilibdi. Umidgoh! Tasadduq bo‘lay! Mazkur eshikog‘aboshi qo‘shinidagi amaldor Abdurasul chehraog‘a vafot etgani sababli uning o‘rniga Hamroh o‘nboshini sarkarda qilib tayinlashni umid qilmoqda. Hazratim yaxshiroq biladilar. Ilohi hamisha salomat bo‘ling”.

Yana –“Janobi oliy hazratimning muborak boshlariga tasadduq bo‘lay! Umidgoh, Ollonazar mirzaboshi kaminaning qo‘shinida navkar edi, u vafot etdi. Uning o‘g‘li Eshonqulibek uddaburon xizmatkor bo‘lib vazoratpanoh hazratlariga xizmat qilishni niyat qilyapti. Mazkur Eshonqulini o‘zimning xizmatkorlarim safiga kiritaman deb umid qilaman va u xizmatni ado qilsa, xursand bo‘lar edim. U hamisha duoda bo‘ladi. Ilohi salomat bo‘ling! 1314 yil Hijriy, Qulparvar! So‘fibek to‘qsoba qulingiz amri oliyga muvofiq taqiq qilib so‘radim. Bahrin jamoasi yuzboshisi Qurbon qorovulbegi yuzboshi qazo qilgan. Mazkur jamoa yuzboshisiz qolgan. Jamoaning kattayu kichigi marhum qorovulbegining o‘rniga Yo‘ldosh chehraog‘ani tayinlashni so‘radilar. Shu umid bilan nodonlik arzini qildim. Salomat bo‘ling!”;

- “Qulparvar! Rizojo‘y qulingiz So‘fibek to‘qsobaning janobi oliy hazratimga qilgan arzi: Jahonpanoh, aziz boshingizga tasadduq bo‘lay! Tasadduq bo‘lay, O‘roq chehraog‘a, Berdimurod chehraog‘a, Muhammadyor chehraog‘a, Berdiyoy chehraog‘a qullaringiz sizning nomingizga yozgan arizalarini bu rizojo‘y qulingizga topshirdilar. Ular Baxrinning qazo qilganligini ma‘lum qilib uning o‘rniga o‘z jamoalaridan Yo‘ldosh chehraog‘ani tayinlashingizni iltimos qilib so‘raganlar. Mazkur chehraog‘a solih kishi bo‘lib xizmatni uddasidan chiqadi deb yozganlar. Shunga javoban sizning tabarruk nomangizni oldim. Amringizga muvofiq haqiqat qay tariqa ekanligini tekshirdim. Qurbon qorovulbegi ismli yuzboshi haqiqatdan ham yaqinda qazo qilgan. Yuzboshi o‘rni hozircha bo‘sh. Qullaringiz Yo‘ldosh chehraog‘ani yuzboshi qilib tayinlashingizni so‘radilar. U bechora, uddaburon kishi ekan. Agar mehribonligingizni darig‘ tutmasangiz yuzboshi qilib mazkur chehraog‘ani tayinlasak. Hazratimning o‘zlari yaxshi biladilar. Ilohi hamisha saltanat taxtida salomat bo‘ling!” [3; v 81].

Vafot etgan amaldorga davlat tomonidan berilgan qurol-yarog‘, ot-ulov va boshqa jihozlar olinib, o‘zidan yuqori lavozimdagi amaldorlarga xatlab topshiriladi:

-“Miralibek arzi! Vazoratpanoh, muborak boshingizga tasadduq bo‘lay! Oliy dastxat yuzasidan shu mazmunda xat yozib yubordilarki, Mirobid miroxur vafot etgan odamlarning qurol-aslahalari bor. Quyidagi aslahalarni Akrambiy inoq to‘pchiboshiga topshirdi. Vazoratpanoh! Duogo‘y qulingiz janob oliylarini duolar qilib yuzlikdagi qullaringizni yig‘ib yuzliklarni ro‘yxat qilib xizmatga yubordim. Hazratimga ma‘lum bo‘lsin deb bandalik arzini qildim. Salomat bo‘ling. Vazoratpanoh! Miltiqlar ro‘yxati: Yuzboshi Muhammad Sharif qorovulbegi 44 ta, yuzboshi Muhammad qorovulbegi 50 ta, yuzboshi Abbosqulbek 53 ta, Habibulloh qorovul yuzligi 39 ta. Jami: 186 ta”.

Faqat istisno tariqasida harbiy amaldorlar safiga keltirishimiz mumkin bo‘lgan qozi askar hamda muftiy askarlikka erishish uchungina oliy madrasada o‘qish kerak edi. Boshqa barcha harbiy amal egasi bo‘lish uchun o‘qimishli va ma‘lumotli bo‘lish shart emas edi.

3. Quyi mansab amaldorlarining o‘z boshliqlaridan yoki o‘z qo‘l ostidagilarni vazifasidan ozod qilishga vakolati bo‘lmagan amaldorlarning norozi bo‘lib to‘pchiboshi, qo‘shbegi yoki amirga yozgan asosli xatlari bilan:

-“Qulparvar! Rizojo‘y qulingiz So‘fibek to‘qsoba janobi oliy hazratimga qilgan arzi: Yo‘ldosh chehraog‘a, Abdushukur chehraog‘a, Mirzo Murod chehraog‘a, Xudoyor chehraog‘a, Bo‘ta chehraog‘a, Mahmudbek chehraog‘a va 2 nafar amaldorlar ming jamoasining navkarlari arzini rizojo‘y qulingiz nomiga yetkazdi. Ular sizning muborak nomangizni oldilar, unda: Abdujabbor mirzaboshi degan yuzboshimiz bor, u juda ham beparvo bo‘lib, biror ishning uddasidan chiqmaydi. Siz boshqa yuzboshi yuborasiz, degan umiddamiz. Mazkur jamoaning xohishini inobatga olib tekshirish o‘tkazish uchun arz qiling, dedilar. Men oliy marhamatnomani olib o‘pib ko‘zlarimga surtib oliy hazratning mehribonliklaridan xursand bo‘lib haqingizga duo qildim. Hazratimning farmonlariga muvofiq ming jamoasining kattayu kichigini yig‘ib tekshiruv ishlarini o‘tkazdim. Darvoqe, mazkur jamoa janob oliy hazratni duo qildilar. Yuzboshi juda ham beparvo bo‘lib, xizmati davrida bizlarni ko‘p azobga qo‘ydi deb uni xohlamaydilar. Tasadduq bo‘lay, mazkur jamoaning ichida na‘bbek chehraoha ismli kishi bor ekan. U juda uddaburon, e‘tiborli ekan. Mazkur jamoaning kattayu kichiklarining xohlagan kishilari o‘sha ekan va janobi oliy hazrat Abdujabbor mirzaboshi yuzboshi o‘rniga shu chehraog‘ani tayinlaysiz degan umidda Sizning haqingizga duolar qildilar. Qullik va nodonlik yuzasidan jamoaning xohishini o‘rganib janobi oliy hazratimga bildirdim. O‘zingiz yaxshi bilasiz. At taqsir” [4; v 15].

- “Qulparvar! Hazratimning boshlariga tasadduq bo‘lay! Mirbobo, Avaz mirzaboshi, Sharif chehraog‘a, Xudoyshukur chehraog‘a, Abdurasul chehraog‘a, Dunmas chehraog‘a, Oshurbek qullaringiz bu qulingizga ariza yozibdilar. Ularning Og‘ur jamoasi yuzboshisi Niyoz to‘qsabo ekan. Mazkur jamoaning kattayu kichigi undan norozi bo‘lib uning o‘rniga Xudoyshukur chehraog‘ani tayinlashni so‘ragan. Mazkur chehraog‘a solih kishi ekan. Shu mazmunda ariza yozibdilar. Hazratimning o‘zlari yaxshiroq biladilar. Salomat bo‘ling”.

4. Kasalligi, harbiy xizmatga yaroqsizligi hamda vafoti munosabati bilan unvon va mansablarning nasldan-naslga o‘tish holatlarida:

Ta‘kidlash joizki, ko‘pgina xizmatlarda mansab egalari umrlari mobaynida o‘g‘illarini o‘z o‘rinlariga tayyorlab kelishgan va ular vafotlaridan so‘ng mahrumlarning o‘g‘illari ota lavozimini egallash maqsadida harakat qilishgan. Bu tabiiy hol, chunki yuqori lavozimli kishilar qo‘liga amirlik tomonidan katta yer, suv va moddiy boyliklar berilgan bo‘lib, agar uning o‘rniga boshqasi kelsa bu boyliklar yangi mansab egasi ixtiyoriga o‘tgan.

Mabodo amir farmoni bilan aybli deb topilib harbiy amal egalari ishdan olinsa, ular yo badarg‘a qilingan yoki umrbod sarbozlik xizmatini o‘tashga majbur etilgan. Bunday holatlarda Qo‘shbegi buyrug‘i bilan ularning mol mulklari “urg‘u” yo‘li bilan musodara etilgan.

5. Kichik harbiy mansablarni to‘pchiboshi va katta harbiy amaldorlar bo‘yrug‘i bilan:

-“Qulparvar! Abdulqodirbiy parvonachining janobi oliy hazratimga qilgan arizasi: Tasadduq bo‘lay, Amoratpanoh mullo Xolmurodbiy inoq to‘pchiboshini nomiga tabarruknoma yozilgan. Amoratpanoh Abdulqodirbek parvonachi qo‘shinidagi Yo‘ldosh qorovulbegi yuzboshini olib 2-qo‘shiningizga, Baraka qorovulbegi yuzboshining o‘rniga kiritdim. Mazkur amoratpanohga Yo‘ldosh qorovulbegi yuzboshini mir Baraka qorovulbegi yuzboshiga topshirib

zoti oliy haqlariga duo olishni tayinladim. Tasadduq bo'lay, Sizni jami qullaringiz duo qilib shukronalar aytdilar" [5; v 45].

6. Amaldorlarning tavsiyalar bilan:

Biroq arxiv manbalarida amaldorlikka tavsiya etiladigan nomzodlarning tarjimai holi, nufuzi, obro'-e'tibori boshqa jihatlari, ko'rsatilgan qahramonligimi, karomatmi bular xususida lom-lim deyilmasdan ma'murlar tomonidan amirga to'g'ridan to'g'ri faqat ismi sharifigina taqdim etiladi. Butun amirlik davomida mansablarga tayinlashning yagona huquqiy tizimi ishlab chiqilganligiga duch kelinmadi:

-“Qulparvar, Janobi oliy hazratimning muborak boshlariga tasadduq bo'lay! Oliy muborak amringizga muvofiq G'uzor hokimligidan quyidagilarni so'rab-surishtirib oldim: Qulduli jamoasi qo'shinida sobiq ulug' amaldorlardan 3-4 nafari mavjud bo'lib elatlarni sarishta qilib turgan edilar. Hozirgi kunda esa ular barham topib faqatgina Shohimardonqul qorovulbegi eng ulug' kishi hisoblanar edi. Yaqinda u ham qazo qildi.Uning ukasi bo'lmish Tilavbek akasining navkariyadagi joyi o'rniga xizmat qilishni umid qilib oliy muboraknomani olib keldi. Mazkur jamoadagi qullaringiz yig'ilib zoti oliy haqlariga duolar aytib mazkur Tilavbekni navkariyangiz qatoriga qo'shishingizni iltimos qilib so'radilar. Tilavbek solih kishi bo'lib, hamma vaqt xizmatga tayyor, ishning uddasidan chiqadigan kishi deb arz qildilar. Hazratim, o'zingiz yaxshiroq bilasiz. O'zingiz sohibi ixtiyorsiz!”;

-“Qulparvar! Janobi oliy hazratimning aziz boshlariga tasadduq bo'lay! Bobobek qorovulbegi qulingiz miroxurlik, Abdujalil hisobchi qulingiz qorovulbegilik, Yo'ldosh jibachi qulingiz qorovulbegi, Mirzo Ibodullo mirzaboshi qulingiz qorovulbegi, Boqixo'ja jibachi qulingiz qorovulbegi,Hamroh mirzaboshi qulingiz hisobchilik, Mirzo Xolmurod mirzaboshi qulingiz hisobchi, Yusufbek mirzaboshi qulingiz hisobchi, Sulaymonxo'ja mirzaboshi qulingiz hisobchi, Mir Abdulloh qulingiz mirzaboshi, Javhar qulingizni hisobchilikdan qorovulbegilik lavozimiga o'tkazishingizni iltimos qilib qulingiz rizoligingizni tilab qoladi. Bu nodon qulingiz kunining oxirigacha salomatligingizni tilab qoladi. At taqdir”;

-“Qullarning mehribon janobi! Hazratimning aziz boshlariga tasadduq bo'lay! Qo'shiningiz tarkibidagi qullaringizni miroxurlik lavozimidan to'qsobalik lavozimiga o'tkazishingiz umidida shuni ma'lum qilaman: Ahmad miroxur shogirdpesha, Muhammadrahim miroxur, Rahmatulloh miroxur, Mirzo zarif miroxur, Davron miroxur; Quyidagi qullaringiz qorovulbegilikdan miroxur lavozimiga o'tkazishingizni umid qiladi: Mahdixo'ja qorovulbegi, Eshmuhammad qorovulbegi, Nurmuhammad qorovulbegi, mullo Sharif qorovulbegi, Ibrohim qorovulbegi shogirdpesha; Jibachi qullaringiz qorovulbegi lavozimidan umid qiladilar: Karomatulloh jibachi, Ya'qub jibachi shogirdpesha, Abdurahmon jibachi shogirdpesha, Abdug'affor jibachi shogirdpesha, Muhammadkarim jibachi, tag'oy jibachi, Xongeldi jibachi, Abdurahim jibachi; Mirzaboshi qullaringiz jibachi lavozimidan umid qiladilar: Abdulqayum mirzaboshi, Sodiq mirzaboshi, Yo'ldosh mirzaboshi, Shohimardon mirzaboshi, Rajabali mirzaboshi, Muhammadkarim mirzaboshi, Rasulberdi mirzaboshi, Niyozbek mirzaboshi, Nurmon mirzaboshi, Islom mirzaboshi, Niyoz mirzaboshi, Mirzo Shamsiddin mirzaboshi, Muhammad Yusuf mirzaboshi, Abdunazir mirzaboshi; Quyidagi qullaringiz chehraog'alikdan mirzaboshi lavozimiga o'tish umididadirlar: Boboxo'ja chehraog'a, Homidjon chehraog'a, Rahmonqul chehraog'a, Eshmuhammad chehraog'a, Qosim chehraog'a" [6; v 48].

7. Amir farmoni bilan:

- “Qulparvar! Hazratimning aziz boshlariga yuz ming marta tasadduq bo‘lay!

Janobi oliy hazratim, payshanba kuni Fozilxo‘ja va Abdulhofiz eshik og‘aboshi qullaringiz kelib Sizning marhamatingizdan, ya‘ni ularni Qarshi viloyatiga sarkarda qilib yuborishingiz haqidagi farmoningizdan xursand bo‘lganliklarini aytib zoti anbarni duo qilib ketdilar. Hazratim, qullik yuzasidan bandalik arzimni vildim. Hamisha salomat bo‘ling”;

-“Hazratimning muborak boshlariga tasadduq bo‘lay! Oliy hazratlarining farmonlariga binoan Hisordagi navkarlarning boshliqlari Hisor xizmatida qolgan navkarlarning 10 nafardan 4 nafari: Ashurali miroxur, Qurbon miroxur kuloli, Ixtiyor qorovulbegi, Qosimxo‘ja miroxur Kafanjiqoniylarni to‘qsoba, miroxur, hisobchi lavozimlariga tayinlash va quyidagi 6 nafar: Mullo Xolmurod, Fayz mirkalon, Hakim mirkalon, Solihboy, Jonmirzoboqi, Ollohmurod boqilarni mirzaboshi, jibachi lavozimlariga tayinlanishini sizdan umid qiladi. Janobi hazrati oliyning farmonlari chiqqan, lekin kimga qaysi lavozim marhamat qilinadi deb kutmoqdamiz. Bandalik bilan shuni arz qildim. Hazratim yaxshi biladilar. At Taqsir”;

-“Qulparvar!Mirzaboshi to‘qsobaning janobi oliylariga qilgan arizasi: Janobi oliy hazratimning tabarruk boshlariga tasadduq bo‘lay! Amoratpanoh mullo Xolmurodbiy inoqi kalon to‘pchiboshi qulingiz oliy topshiriqni bu qulingizga yetkazdi. Amoratpanoh G‘ulom Haydarbiy devonbegi qo‘shinlaridagi maboziratpanoh Ali Muhammad qorovulbegi yuzboshini maboziratpanoh Muhammad Solih qorovulbegi yuzboshi o‘rniga tayinlanganligini aytdi. Mazkur Muhammad Solih qorovulbegi yuzboshi Ali Muhammad qorovulbegi yuzboshi o‘rniga amoratpanoh devonbegi qo‘shiniga bordi. Xursand bo‘lib duolar qildi. Amringizga muvofiq Muhammad Solih qorovulbegi yuzboshi qulingizni maboziratpanoh Ali Muhammad qorovulbegi yuzboshiga topshirdim. Zoti oliy haqlariga duolar oldim. Sizga ma‘lum bo‘lsin deb arz qildim. Salomat bo‘ling!”

Ba‘zi holatlarda quyi amaldorlar tavsiya etgan nomzodlarning yuqori (yoki aksincha) lavozimdagilar tomonidan rad etilishi, ularga salbiy tavsif berilishi holatlari ham kuzatiladi:

-“Qulparvar!Abdushahid 22 yoshli yigit, Abdurahmon ismli Shahrisabz fuqarosining o‘g‘li, Muhammad Sharif 22 yoshli, Yaxshibek mirzaboshining o‘g‘li, Solihboy bozigar 22 yoshla, Halifa Xudoydod mahallasidagi baqqol Majidning o‘g‘li, Odilboy 15 yoshli, o‘nboshi Haydar sarbozning o‘g‘li. Tasadduq bo‘lay! Mazkur kishilar unchalik xulqi chiroyli emas. Shularni janobi oliyga ma‘lum qilishni ming andisha bilan lozim topdim. Hamisha badavlat bo‘lishingiz uchun duolar qilaman” [7; v 55].

Arxiv manbalaridan biz o‘nboshi, chehraog‘asi, mirzaboshi singari nufuzli harbiy amaldorlarning ham harbiy xizmatdan bo‘yin tovlash va hattoki harbiy xizmatdan qochishi holatlariga duch kelamiz.Unvon va mansablarga tayinlashda qat‘iy qonunlar bo‘lmagan. Ko‘pgina amirlar bu vazifani bajarishda o‘z hissiyotlari, kayfiyatleri, irodalariga tayanib ish ko‘rishgan.

Xulosa. O‘rta Osiyo xonliklaridagi hokimiyat tuzilishi, davlat boshqaruv tizimi mang‘itlar sulolasi hukmronligi davriga kelib takomillasha bordi. Jamiyatning barcha sohalari markazlashgan boshqaruv tizimiga bo‘ysundirilib, davlat boshqaruvi amirning cheklanmagan hukmronligi qo‘li ostida mujassamlashdi. Harbiy unvon va mansab egalari va ularning vazifalari, faoliyati ma‘lum ma‘noda XIX asr oxirlaridan boshlab zamonaviy tartibga o‘ta boshladi. Bu holni biz Rossiya imperiyasi harbiy nizomi, ustavini qabul qilishi, harbiy mashqlar, saf tortishdagi o‘zgarishlar, harbiy kazarmalarning tashkil etilishi, harbiy amaldorlar

kiyinishidagi o'zgarishlarda ko'rishimiz mumkin. Barcha sohalar singari harbiy sohada ham amal va mansablarga tayinlashda ko'proq iqtidor va qobiliyatga qarab emas balki, nasl-nasabga, boyligiga, o'rta asrchilik sarqitlari hisoblangan urug'-aymoqchilik va mahalliychilik an'analariga e'tibor berilgan. Hatto, 1920-yilgacha qadimda o'zining ilmi, fani bilan dunyoda nom taratgan Buxoroyi sharifga birorta harbiy mutaxassislar tayyorlaydigan na boshlang'ich, na o'rta va na oliy ta'lim tizimi mavjud emas edi. Harbiy amallarning ko'pincha nasldan naslga o'tib turishi harbiy xizmatga bo'lgan munosabatga salbiy ta'sir etardi. Amirlikning tugatilishi davrigacha ham harbiy amaldorlarni tayinlash qonun — qoidalari to'la ishlab chiqilmagan edi.

Umuman, amirlikdagi harbiy amaldorlarning hashamati, daromadlari yuqori bo'lib, siyosiy va harbiy bilimlari, ilmiy salohiyati, uquvi zamon talablaridan ancha orqada edi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Milliy arxivining I-126 – fondi - Buxoro amirligi qo'shbegi devonxonasi
2. Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий (Фойдали тарих) / Тожик тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ш.Воҳидов ва З.Чориев. – Тошкент: Академия, 2001.
3. Мирза Бадиъ Диван. Мажмаъ ул-аркам. (Факсимиле рукописи. Введение, перевод и примечание А.Б. Вилдановой. М.: Наука 1981.-с. 98.
4. Рюганов. Вооруженные силы Бухарского ханства. (секретно) Ташкент. Походная типография Путурка 1920. С – 16
5. Семёнов А. А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре // Советское востоковедение. Т. V. М., Л., 1948. с. 150.
6. Арндаренко Г. Бухарские войска в 1880 г. // Туркестанский сборник, 297 том. -С. 353.
7. Логофет Д. Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. т-I. СПб., 1911.-С. 252.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

PRIORITY DIRECTIONS OF INTERNATIONAL RELATIONS IN UZBEKISTAN AND THEIR CURRENT IMPORTANCE FOR INDUSTRIAL DEVELOPMENT

Esanova Nilufar,

Senior Lecturer, University of Economics and Pedagogy, Qarshi

Abstract. This article analyzes the priority directions of international relations of the Republic of Uzbekistan and their role in the development of the industrial sector in the current context. It addresses the modernization of industry through international cooperation, the increase of exports, the implementation of innovations, and the assurance of sustainable development as key tasks. The article highlights the strategic importance of international relations for strengthening Uzbekistan's position in regional and global economic integration.

Keywords: international relations, industrial development, export, innovation, economic integration, Uzbekistan.

O'ZBEKISTONDA XALQARO MUNOSABATLARNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Esanova Nilufar,

katta o'qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

E-mail: nilufar5karshi@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlaridagi ustuvor yo'nalishlar tahlil qilinib, ularning sanoat sohasining rivojlanishidagi bugungi kundagi roli va ahamiyati ko'rib chiqilgan. Xalqaro hamkorlik orqali sanoatni modernizatsiya qilish, eksportni oshirish, innovatsiyalar joriy etish va barqaror rivojlanishni ta'minlash muhim vazifalar sifatida ko'rsatildi. Maqola O'zbekistonning mintaqaviy va global iqtisodiy integratsiyadagi o'rnini mustahkamlash uchun xalqaro munosabatlarning strategik ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: xalqaro munosabatlar, sanoat rivoji, eksport, innovatsiyalar, iqtisodiy integratsiya, O'zbekiston.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N09>

O'zbekistonda xalqaro munosabatlar mustaqillikni mustahkamlashga, xalq farovonligi va xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan bilan ahamiyatli bo'ldi. O'zbek diplomatiyasi xorijiy mamlakatlardan sadaqa so'rashga emas, ikki tomonlama manfaatdorlikka, insonparvarlikning yuksak va olijanob tamoyillariga tayandi. Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyev qaysi mamlakatda bo'lmasin, avvalo ulardagi ilg'or tajribani o'rganishga, foydali narsalarni topishga, ulardan foydalanishga alohida e'tibor berdi [1, B.59].

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan manfaatli hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu borada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosiy hujjat bo'lib xizmat qilmoqda [2, B.14]. Qisqa muddat ichida mamlakatimiz xalqaro munosabatlar tizimining to'la va teng huquqli a'zosiga aylanishi bilan birga jahon hamjamiyatining integratsiyalashuv jarayoniga qo'shildi.

“O‘zbekiston milliy manfaatlariga mos keluvchi har tomonlama faol tashqi siyosatini amalga oshirish davlatimiz suverenitetini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni yengib o‘tish va xalqimiz hayotini yaxshilashning zarur sharti va g‘oyat muhim vositasidir” [3, B.75]. Ushbu vazifadan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab o‘z milliy manfaatlari va azaliy qadriyatlariga mos keladigan xalqaro munosabatlarni belgilar ekan, birinchi navbatda xalqaro huquq normalarida umume’tirof etilgan va ayni vaqtda xalq manfaatlariga mos keladigan o‘z strategiyasini, tamoyillarini va yo‘nalishlarini belgilab olib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan huquqiy jihatdan mustahkamladi [4, B.43].

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti o‘zining “O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li” va boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalarini nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslab berdi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida mamlakatimiz tashqi siyosat qoidalari qonunlashtirildi va u jahondagi ko‘plab mamlakatlar bilan hamkorlik jarayonlari ortga qaytmasligining huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekistonni xalqaro huquq subyekti sifatida belgilaydigan, respublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan qonunlar qabul qilindi [5, B.101].

1992-yilning iyulida “O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi, 1994-yilning may oyida O‘zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi, 2000 yilning may oyida yangi tahrirdagi “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni mamlakat parlamenti tomonidan qabul qilindi. Bular faol va keng ko‘lamli hamkorlik uchun mustahkam huquqiy kafolat yaratib berdi va ushbu huquqiy me‘yoriy hujjatlar asosida xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik olib borilmoqda. Xalqaro huquq normalarning ichki qonunlarda ustunligi respublika qonunchilik faoliyatida o‘z ifodasini topmoqda. Birinchidan, respublika qonunlari xalqaro huquq normalariga doimo muvofiqlashtirilmoqda va yaqinlashtirilmoqda. Ikkinchidan, mamlakatimiz xalqaro normalar bajarilishini kafolatlaydigan hamma majburiyatlarni o‘z zimmasiga oldi [6, B.29].

Ko‘pgina tadqiqotchilar O‘zbekiston tashqi siyosatining strategik yo‘nalishlarini, uning mintaqaviy va global hamkorlikdagi o‘rnini o‘rganadilar. Masalan, **I. Karimov (2020)** “O‘zbekistonning tashqi siyosat konsepsiyasi va uning iqtisodiy hamkorlikka ta’siri” nomli maqolasida mamlakatning mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlashdagi roli va iqtisodiy diplomatiyaning ahamiyatini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, **S. Rustamova (2021)** xalqaro munosabatlarning iqtisodiyot, jumladan sanoat sohasiga ta’siri bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda eksportni diversifikatsiya qilish va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish yo‘nalishlarini ko‘rsatadi.

Sanoat rivojini xalqaro kontekstda o‘rganishda, **M. Tursunov (2019)** “O‘zbekiston sanoatining xalqaro hamkorlik asosida modernizatsiyasi” nomli ishida texnologik transferlar, qo‘shma korxonalar tashkil etish va innovatsion yechimlar orqali sanoatni modernizatsiya qilish masalalarini muhokama qiladi. Shuningdek, **J. Egamberdiyev (2022)** maqolasida O‘zbekiston sanoatining global bozorga chiqishi va eksport salohiyatini oshirishda xalqaro standartlarga moslashish zaruriyati haqida yozadi.

Innovatsion rivojlanish va iqtisodiy integratsiya masalalari ko‘plab tadqiqotlarda muhim o‘rin egallaydi. **D. Islomov (2020)** ilmiy ishida O‘zbekistonning SHHT va MDH doirasidagi integratsiya jarayonlarida sanoat sohasida innovatsion hamkorlikni kengaytirish yo‘llarini tahlil qiladi. Bundan tashqari, **N. Yuldasheva (2021)** iqtisodiy integratsiyaning

sanoat sektoriga ijobiy ta'siri va bu orqali mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Sanoat va xalqaro munosabatlar doirasida barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik masalalari ham o'rganiladi. **F. Rasulova (2019)** maqolasida xalqaro hamkorlik orqali sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish va ekologik standartlarga rioya qilish masalalari yoritilgan.

Mavjud ilmiy adabiyotlar O'zbekistonning xalqaro munosabatlarida sanoat rivojini ta'minlash uchun iqtisodiy hamkorlik, investitsiyalarni jalb qilish, innovatsiyalarni joriy etish va eksportni kengaytirish kabi ustuvor yo'nalishlar mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mintaqaviy va global iqtisodiy integratsiya jarayonlarida mamlakatning o'z o'rnini mustahkamlashiga qaratilgan tadqiqotlar ham mavjud. Barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik masalalari ham bugungi kunda katta e'tibor talab qilmoqda [6, B.21].

O'zbekiston tashqi siyosatda ochiq-oydinlik, teng huquqlilik, o'zaro manfaatdorlik tarafdori. Shuningdek, biron-bir buyuk davlatning ta'sir doirasiga tushib qolishni, birovning qosh-qovog'iga qarab ish tutishni xohlamaydi. O'zbekiston dunyo uchun ochiq mamlakat bo'lib, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi.

Tashqi aloqalarni ta'minlaydigan vazirliklar va muassasalar tashkil etilgan bo'lib, Tashqi ishlar vazirligi, tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, ixtisoslashtirilgan tashqi savdo firmalari shular jumlasidandir. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi va boshqa shu kabi o'quv yurtlarida xalqaro munosabatlar sohasi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlanmoqda [7, B.4].

Mamlakatimiz siyosiy mustaqillikka erishgandan so'ng jamiyatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy jihatdan yangilashning strategik vazifalari ishlab chiqildi. Shuningdek, Birinchi Prezidenti o'zining asarlari, ma'ruza va nutqlarida mamlakatimiz tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy tamoyillarini nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslab berdi. Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy yo'lni belgilashda jahon tajribasidan foydalanildi, mamlakatimiz xususiyatlari va manfaatlari hisobga olindi. Tashqi siyosatga tinchlik, barqarorlik, hamkorlik yo'li asos qilib olindi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik; davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish; boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; nizolarni tinch yo'l bilan hal etish; kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash; ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi; davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish; tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik; davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi; tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik [8, B.104].

O'zbekiston Respublikasida xalqaro hamkorlik sohasida yaratilgan huquqiy asoslarga tayanilib, jahonning nufuzli xalqaro tashkilotlari bilan diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

O'zbekiston 1992-yil 2-martda jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot — Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. O'zbekiston davlat rahbari bu nufuzli tashkilotning anjumanlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Masalan, tashkilotning keyingi xalqaro anjumanlaridan biri 2010-yil 20-sentyabrda o'tkazildi [9, B.42]. Bunda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning taklifiga binoan BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlari bo'yicha oliy darajadagi yalpi majlisda ishtirok etdi. Ushbu anjumanda Prezident nutq so'zlab, mamlakatimiz Mingyillik rivojlanish doirasida amalga oshirilgan ishlar, O'zbekistonning BMT bilan hamkorligi, Markaziy Osiyodagi jarayonlar, mintaqaviy xavfsizlik, ekologiya muammolariga to'xtalib o'tdi.

O'zbekiston BMT ning ixtisoslashgan muassasalar – YUNESKO, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMTning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha Xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro Olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobillar ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan ham hamkorlik qilib kelmoqda [10, B.34].

O'zbekistonda mustaqillik yillarida xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslari to'la yaratilib, tarixan qisqa bir davrda bu sohada katta yutuqlar qo'lga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga qo'shildi, xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda, umumiy va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda faol qatnashayotgan nufuzli davlat darajasiga ko'tarildi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida xalqaro munosabatlar masalasida yangi imkoniyatlar vujudga keldi. Qisqa fursat mobaynida O'zbekiston dunyoning qator rivojlangan mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida hamkorlikni yo'lga qo'yilib, sohaning huquqiy asoslari to'la yaratildi. Masalan, 1992-yilning iyulida "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi, 1994-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, 2000-yilning may oyida yangi tahrirdagi "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni mamlakat parlamenti tomonidan qabul qilindi. Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar asosida xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik olib borilmoqda. Shuningdek, siyosiy mustaqillikka erishgan O'zbekiston mamlakat va jamiyatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy jihatdan yangilashning strategik vazifalarini aniqlab oldi. Birinchi Prezident I.A.Karimovning bevosita rahbarligida O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining strategiyasi va asosiy prinsiplari ishlab chiqildi [11, B.94].

O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan o'zaro aloqalarida iqtisodiy sohaning asosiy yo'nalishi hisoblanmish sanoat sohasidagi hamkorlik muhim o'rin egallaydi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda bu sohaga jiddiy e'tibor qaratildi. Shu o'rinda Birinchi Prezident I.A.Karimovning quyidagi so'zlarini keltirish lozim: "Hamma joyda sarmoyaga ega bo'lgan sheriklarni qidirish kerak. Qo'shma korxonalar barpo etish lozim. Biz faqat shu yo'l bilangina korxonalarining kuchli raqobat sharoitida ishlashni ta'minlashimiz mumkin. Shu yo'l bilangina jahon bozorida mahsulotimizga munosib o'rin olib borishimiz mumkin".

O'zbekiston keyingi yillarda ayniqsa Osiyo mamlakatlari bilan sanoat sohasida qizg'in hamkorlik olib bormoqda. Bunda Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Turkiya, Janubiy Koreya, Malayziya kabi davlatlari muhim o'rin egallab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentning 2008-yil 2-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2009-yilga mo'ljallangan investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-969-son qaroriga muvofiq "O'zbekiyengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan

xorijiy investitsiyalarni rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati 87 million AQSH dollari bo'lgan parametrlari prognoz qilingan 7 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi[12, B.81].

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2009-yil 12-martdagi "2009-2014-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PQ-1072-son qarori ijrosini monitoring qilish bo'yicha reja ishlab chiqiladi.

Eksport hajmini oshirishning asosiy mexanizmlaridan biri "O'zbekiyengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi huzurida To'qimachilik mahsulotlari reklamasi va marketingi agentligining tashkil etilishi bo'ldi. Marketing tadqiqotlarini o'tkazish va yengil sanoat mahsulotlarining jahon bozorlaridagi holatini o'rganishni boshladi, uning asosida eksport qilinadigan mahsulotlar narxini belgilashning yagona axborot konsepsiyasi yaratildi, bu esa, o'z navbatida, tarmoq korxonalarini tomonidan yagona narx siyosatini amalga oshirish bo'yicha amaliy qo'llanma bo'ldi.

Agentlikning eng muhim vazifalari, ayniqsa, zamonaviy sharoitda sanoat korxonalarini tomonidan 3-5 yil davomida tayyor mahsulotlar eksporti bo'yicha uzoq muddatli buyurtmalar portfelini shakllantirish, ushbu mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda mahalliy korxonalariga xorijiy sheriklar bilan aloqa o'rnatish va shartnomalar tuzishda ko'maklashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'ldi[13, B.5].

2009-yili O'zbekiston hukumati tomonidan 2009-2011-yillarga mo'ljallangan nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi asosiy korxonalarini modernizatsiya qilish dasturi tasdiqlandi. Dasturda umumiy qiymati qariyb 185 million bo'lgan 17 ta to'qimachilik korxonasini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash ko'zda tutilgan. Joriy etiladigan ishlab chiqarish quvvatlarining umumiy quvvati yiliga 91 million kvadrat metr tayyor gazlama, 5,2 million dona tikuvchilik buyumlari, 7,3 million juft paypoq mahsulotlari, 32 ming tonna yuqori ip-kalava ishlab chiqarish imkonini berdi.

"Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunlar soha rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Tayyor kiyim-kechak mahsulotlarini ishlab chiqarilib, ularni ichki bozorda sotadigan qo'shma korxonalar 2009-yilning 1-yanvarigacha qo'shimcha qiymat solig'idan tashqari barcha soliq va yig'imlardan ozod etildi[14, B.32].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 27-yanvaridagi "Respublika to'qimachilik tarmog'iga investitsiyalar jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, to'qimachilik korxonalarini takomillashtirish, qayta jihozlash bilan bog'liq 94 ta loyiha amalga oshirildi. 2005-2008-yillarga mo'ljallangan bu loyihalarning umumiy qiymati 1,2 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

"O'zbekiyengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining 2005-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2006-yilga mo'ljallangan investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-216-son qarorining 8-bandiga asosan xorijiy investitsiyalar manziliga strategik ahamiyatga ega yirik va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengashga bir necha bor murojaat qildi[15, B.59].

Biroq, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yirik va strategik ahamiyatga ega investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishining 26.06.06-yildagi 16-sonli bayonnomasi bilan "O'zbekiyengilsanoat" davlat aksiyadorlik

kompaniyasi tomonidan investitsiya dasturining umumiy parametrlari uchun manzilli qismiga tuzatish kiritish o‘rniga prognoz parametrlarini asossiz ravishda 8,33 million dollarga oshirgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-11-sonli PQ-216-son qarori bilan tasdiqlangan 105,51 million AQSH dollari miqdorida 2006-yilning birinchi yarim yilligi yakunlarini amalga oshirishga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan, shuningdek, bojxona tartib-qoidolari bo‘yicha qayta jihozlanishi lozim bo‘lgan loyihalar tashabbuskorlari oldida muammolar paydo bo‘lishiga olib keldi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2017.- 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
4. Karimov I. O‘zbekiston mustaqilligining asosiy yo‘llari va xalqaro hamkorlik. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – 210 b.
5. Karimov I. Mustaqillik va taraqqiyot yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – 350 b.
6. Karimov I. Davlat mustaqilligi va xalqaro siyosat. – Toshkent: Fan, 2005. – 290 b.
7. Karimov I. O‘zbekistonning tashqi siyosat konsepsiyasi. – Toshkent: Siyosat, 1998. – 178 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2018. – 508 b.
9. Abdullaev B. O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamkorlik strategiyasi va sanoat rivoji. – Toshkent: Iqtisodiyot va taraqqiyot, 2020. – 142 b.
10. Tursunov M. O‘zbekiston sanoatining modernizatsiyasi va xalqaro texnologiyalar transferi. – Toshkent: Fan va texnika, 2019. – 110 b.
11. Rustamova S. Xalqaro munosabatlar va eksportni rivojlantirish. – Toshkent: Iqtisodiy tahlil, 2021. – 95 b.
12. Islomov D. SHHT doirasida innovatsion hamkorlik va sanoat rivoji. – Toshkent: Markaziy Osiyo tadqiqotlari, 2020. – 120 b.
13. Egamberdiyev J. Sanoat eksportining xalqaro standartlarga moslashuvi. – Toshkent: Savdo va iqtisodiyot, 2022. – 88 b.
14. Yuldasheva N. Iqtisodiy integratsiya va sanoat sohasidagi imkoniyatlar. – Toshkent: Iqtisodiy rivojlanish, 2021. – 104 b.
15. Rasulova F. Atrof-muhit va sanoat: xalqaro hamkorlik va barqarorlik. – Toshkent: Ekologiya va sanoat, 2019. – 76 b

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE INFLUENCE OF IBN SINA'S ASH-SHIFA ON ISLAMIC AND EUROPEAN PHILOSOPHY

Jumayev Abdumo'min Fayziyevich

Teacher, Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract. This article provides a scholarly analysis of Abu Ali Ibn Sina's Ash-Shifa ("The Book of Healing") and its impact on the history of Islamic philosophy, kalam, Sufism, and Latin European thought. The study examines the influence of Ash-Shifa in the fields of logic, ontology, epistemology, natural sciences, and psychology, as well as its intellectual contributions to subsequent Muslim and Western thinkers. In addition, the article examines Ibn Sina's philosophical connections with prominent scholars such as Ibn Rushd, Suhrawardi, al-Ghazali, Fakhr al-Din al-Razi, and Ibn al-'Arabi. The process of translating the work into Latin from the 12th century onwards and its subsequent penetration into medieval European philosophy is also discussed based on historical sources.

Keywords: Ibn Sina, Ash-Shifa, history of philosophy, Islamic philosophy, Latin Europe, translations, Peripatetic tradition, theology, kalam, Sufism.

IBN SINONING ASH-SHIFO ASARINING ISLOM VA YEVROPA FALSAFASIGA TA'SIRI

Jumayev Abdumo'min Fayziyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchi

E-mail: abdumominjumayev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abu Ali Ibn Sinoning "Ash-Shifo" asarining islom falsafasi, kalam, tasavvuf va Lotin Yevropasi ilm-falsafa tarixidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida "Ash-Shifo"ning mantiq, ontologiya, epistemologiya, tabiiy fanlar va psixologiya bo'yicha ta'siri, bu asardan keyingi musulmon va g'arb mutafakkirlariga ko'rsatgan ilmiy yo'nalishlari o'rganiladi. Shuningdek, Ibn Rushd, Suhravardiy, G'azzoliy, Fahriddin Roziy, Ibn al-Arabiy kabi allomalar bilan g'oyaviy aloqalari ham tahlil qilinadi. Maqolada asarning XII asrdan boshlab Lotin tiliga tarjimalari va o'rta asr Yevropa tafakkuriga kirib borishi jarayoni tarixiy manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ibn Sino, Ash-Shifo, falsafa tarixi, islom falsafasi, Lotin Yevropasi, tarjimalar, mashshoiy an'ana, ilohiyot, kalam, tasavvuf.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N10>

Kirish. Ibn Sino (980–1037) musulmon Sharqining eng buyuk faylasuflaridan biri sifatida, o'zining "Ash-Shifo" nomli ensiklopedik asari bilan islom intellektual tarixida yangi davrni boshlab bergan mutafakkirdir. Bu asar mantiq, tabiiy fanlar, matematika va ilohiyot kabi to'rt asosiy qismdan tashkil topgan bo'lib, o'z zamonasining ilmiy bilimlarini falsafiy asosda jamlagan yirik ilmiy manbadir.

"Ash-Shifo" o'zining nazariy chuqurligi va tizimlili bilan nafaqat islom dunyosida, balki keyinchalik Lotin Yevropasida ham falsafiy tafakkur taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Asar tarkibidagi ilmiy g'oyalar Ibn Rushd, Suhravardiy, G'azzoliy, Fahriddin Roziy, Molla Sadr kabi allomalarning asarlarida iz qoldirgan. XII asrda "Ash-Shifo"ning ayrim qismlarining lotin tiliga

tarjima qilinishi natijasida, u Yevropa sxolastik falsafasiga Aristotel ta'limoti bilan bir qatorda kirib bordi. Shunday qilib, Ibn Sino g'oyalari islomiy va g'arb tafakkuri o'rtasida intellektual ko'prik vazifasini bajargan.

Adabiyotlar tahlili. “Ash-Shifo” asarining ta'sir doirasi islom dunyosida keng ko'lamda kuzatiladi. Ibn Rushd (1126–1198) bu asardan iqtiboslar keltirgan hamda ayrim g'oyalarni tanqidiy tahlil etgan. Ishroqiylik maktabining asoschisi Suhravardiy (1154–1191) o'z asarlarida “Ash-Shifo” dan bevosita ilhom olgan. Kalom ilmi doirasida esa Imom G'azzoliy (1058–1111) “Tahofut al-falosifa” asarida Ibn Sinoning fikrlarini tanqid qilgan bo'lsa-da, “Ma'orij al-quds” asarida “Ash-Shifo” dan to'g'ridan-to'g'ri iqtiboslar keltiradi.

Shuningdek, Fahriddin Roziy (1149–1209), Adudiddin al-Ijjiy (1355 y.), Sa'duddin Taftazoniy (1394 y.) kabi olimlar “Ash-Shifo”dagi nazariy asoslardan keng foydalangan. Tasavvuf an'anasida esa Ibn al-Arabiy (1165–1240) metafizik tushunchalarida Ibn Sinoning borliq nazariyasidan ilhomlangan.

F.E. Peters o'z tadqiqotlarida “Ash-Shifo”ni musulmon dunyosidagi mashshoiy falsafa an'anasining rivojida burilish nuqtasi sifatida baholaydi. Unga ko'ra, Abu'l-Barakot Bag'dodiy, Fahriddin Roziy, Shahrazuriy, Abhariy va Qutbiddin Sheroziy asarlarida “Ash-Shifo”ning ta'siri yaqqol seziladi.

Yevropa falsafasi tarixida esa bu asar XII asrda “Liber Sufficientiae” va “Sufficientia” nomlari bilan tanilib, tabiiy fanlar va ilohiyotga oid qismlari tarjima qilingan. Natijada, Ibn Sino ta'limoti Albertus Magnus, Tomas Akvinskiy, va boshqa sxolastik faylasuflarning asarlariga kirib bordi.

Metodologiya. Tadqiqot tarixiy-falsafiy tahlil usuliga asoslanadi. Asosiy metodologik yondashuv sifatida quyidagilar qo'llanildi:

1. Matnshunoslik tahlili — “Ash-Shifo”ning asl arabcha matni va uning lotin tarjimalari qiyosiy o'rganildi.
2. Falsafiy-komparativ tahlil — Ibn Sinoning g'oyalari bilan Ibn Rushd, G'azzoliy, Suhravardiy va Ibn al-Arabiy qarashlari solishtirildi.
3. Manbaviy tadqiq — Yevropa tarjimalari, ularning tarixi va o'rta asr falsafiy oqimlariga ta'siri manbalar asosida tahlil qilindi.
4. Konseptual tahlil — Ibn Sinoning mantiq, ontologiya, tabiiy fanlar va ilohiyot sohalariga oid g'oyalari zamonaviy ilmiy kontekstda baholandi.

Muhokama. Ibn Sino falsafiy tizimining barcha jihatlarini qamrab olgan hamda uning boshqa asarlarini tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan “Kitob ash-Shifo” (Shifo kitobi) nafaqat islom falsafasi an'anasining, balki umuman islom tafakkuri tarixining buyuk klassik asarlaridan biridir. Faylasuf o'zining ilmiy tasnifiga tayangan holda yozgan ushbu asarida u “falsafiy fanlar” yoki “aql fanlari” deb ataydigan ko'plab ilmlarni qamrab oladi. Asarda mantiqqa tayangan falsafiy tadqiqot tabiat falsafasi va matematik fanlar orqali ilmiy o'lchovlarga ega bo'ladi, metafizika hamda payg'ambarlikning isboti masalasi bilan nihoyasiga yetadi. “Ash-Shifo” Arastu asarlari majmuasining — islom falsafasi an'anasida “at-ta'lim al-avval” (birlamchi ta'limot) deb ataluvchi falsafiy merosning — Ibn Sino tomonidan qayta tahlil qilingan shakli bo'lib, falsafiy fanlarni o'rganish uchun keng qamrovli manba sifatida mo'ljallangan. Ibn Sino o'z falsafiy tahlillarini Arastu merosidan ilhomlanib chuqurlashtirar ekan, xuddi Arastu singari Fales va Pifagor davriga borib taqaluvchi falsafiy g'oyalar bilan ham bahsga kirishadi. Shu

sababli “Ash-Shifo” ayni paytda Ibn Sinoning nazari bilan qayta yozilgan qadimgi yunon falsafasi tarixi sifatida ham ko‘riladi.

Faylasufning bu tanqidiy yondashuvi o‘z davrining mutakallimlariga (kalam ulamolariga) ham qaratilgani sababli, asar islom ilohiyot tafakkuri tarixida ham muhim o‘rin tutadi. Ibn Sinoning fizika va matematikaning turli sohalarini, shuningdek zoologiya va botanika fanlarini tizimli tarzda yoritishi asarni ilm-fan tarixi nuqtai nazaridan ham alohida ahamiyatli qiladi. Faylasufning “Ash-Shifo” uchun yozgan umumiy muqaddimasi asarning maqsadi va metodologiyasi haqida muhim ma’lumot beradi. Fizika qismiga kiritilgan ikkinchi muqaddima ham muallif tomonidan asarning tanishtirilishi jihatidan e’tiborga molikdir. Ibn Sinoning shogirdi Abu Ubayd Abdulvohid al-Juzjoniy tomonidan yozilgan “Ash-Shifo”ga kirish so‘zi hamda uning ustoziga bag‘ishlangan “Siyрати ash-shayx ar-raїs” nomli tarjimai hol asarning yaratilish jarayoni haqida qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ibn Sino asarni yozishdan ko‘zlagan maqsadini quyidagicha izohlaydi: “Qadimgi davrlarga oid falsafiy fanlarda biz haqiqat deb topgan (ma tahaqqaqnahu) tamoyillarni o‘z mohiyati bilan bayon etish.” Bu yerda ishlatilgan “tahaqquq” atamasi Ibn Sino terminologiyasida bilimni biror faylasuf yoki falsafiy maktab asoschisiga tayanib emas, balki batafsil mantiqiy tahlil va dalillar orqali isbotlashni anglatadi [6, s. 188]. Faylasufga ko‘ra, bu tamoyillar uzoq yillar davomida umumiy falsafiy aql tomonidan olib borilgan izlanishlar va qabul qilingan ilmiy haqiqatlarning mahsulidir.

Ibn Sino bu maqsadni ilgari surar ekan, o‘tgan avlodlarning bilimlarini shunchaki takrorlash yoki mavjud merosni passiv tarzda sharhlashni nazarda tutmaganini alohida ta’kidlaydi. U ilgari yaratilgan falsafiy g‘oyalarni chuqur tahlil qilib, ular bilan tanqidiy muloqot asosida o‘zining mustaqil ilmiy natijalariga erishganini bildiradi. Klassik manbalarda mavjud bo‘lgan barcha muhim ma’lumotlarni asarga kiritganini qayd etgan Ibn Sino, shu bilan birga, bu falsafiy merosga o‘zi kashf etgan yangicha g‘oyalarni ham qo‘shganini ta’kidlaydi [14, s. 9–10].

Faylasuf fizikaga yozgan kirish so‘zida tanqidiy metodni qo‘llashini, ammo behuda bahslarga berilmasligini yana bir bor eslatadi. U o‘zidan avvalgi sharhlovchilar singari faqat mavjud asarlarni izohlash yo‘lini tanlamaydi, balki Mashshoiylar falsafasida mavjud bo‘lgan tartibga yaqin bir tizimda asarni tuzishni ko‘zda tutadi [13, s. 3]. Ibn Sino, Arastuning tartibiga amal qilib, “Ash-Shifo” asarini mantiq fanidan boshlagan. Mantiqdan so‘ng u fizikani, matematikani va nihoyat metafizikani bayon etadi. Faylasuf, tabiiy fanlarning peshqadami hisoblangan Aristotelning “Fizika” asari bilan ko‘plab masalalarda to‘liq hamfikir emasligini alohida ta’kidlaydi. Matematika sohasida u tanlagan yo‘l — masalani tushunishni osonlashtiruvchi qo‘shimcha izohlar, sharhlar va tahlillar berish hamda asosiy manbalarni tizimli tarzda xulosa shaklida keltirishdan iboratdir. Ibn Sino bu yo‘nalishda tayangan manbalarini ham o‘zi sanab o‘tadi: geometriyada — Evklidning “Kitab al-Ustusot” (Elementlar) asari, astronomiyada — Ptolomeyning “Kitab al-Majisti” (Almagest), arifmetikada esa Gerasalik Nikomaxning “Kitab al-Madhal fi’l-hisob” nomli asaridir.

Faylasuf matematik fanlarning uchinchi bo‘limi bo‘lgan musiqa haqida yozgan “Javome ilm al-musiqq” bobida aniq manba keltirmaydi, biroq bu yo‘nalishda olib borgan uzoq va mashaqqatli tadqiqotlari haqida so‘z yuritadi (14, s. 11). Tadqiqotchi D. Gutas bu bo‘limda Ibn Sino Ptolomeyning “Harmonikon” asaridan foydalanganini qayd etadi [6, s. 102]. Shundan so‘ng faylasuf metafizikani barcha jihatlari bilan tahlil etadi; shu jarayonda u axloq va siyosat masalalariga ham to‘xtaladi, biroq bu mavzularga keyinchalik mustaqil va keng qamrovli asar bag‘ishlash niyatida bo‘lgani sababli, ularni faqat metafizikaning asosiy tamoyillari doirasida

ko'rib chiqadi. Shu bois ushbu bo'limda amaliy falsafaga faqat metafizik asoslari jihatidan e'tibor qaratilgan. Ibn Sinoning "Ash-Shifo" asarida nafaqat falsafa san'ati haqida mukammal ma'lumotlar, balki boshqa manbalarda uchramaydigan yangicha ilmiy qo'shimchalar (ziyodot) mavjudligini alohida ta'kidlashi diqqatga sazovordir [14, s. 11].

Faylasuf "Ash-Shifo" dan so'ng, bu kitobga sharh sifatida yoki undagi asosiy tamoyillarni kengaytirish maqsadida yozishni rejalashtirgan "Kitab al-Lavohiq" nomli asardan ham so'z ochadi. Bu hol "Ash-Shifo" ning ayrim falsafiy yo'nalishlar bo'yicha hali kengaytirishga ochiq asar sifatida tasavvur etilganini ko'rsatadi. Haqiqatan ham Ibn Sino asarning qamrovi keng bo'lishiga qaramay, uning hajman katta emasligini o'zi ham alohida qayd etadi. Asarning tuzilishida bo'limlash tizimi "jumla – fan – maqola – fasl" tarzida tashkil etilgan. Bu yerda "jumla" falsafaning to'rt asosiy yo'nalishini, "fan" esa ularning tarmoqlarini ifodalaydi. Jumlarlar quyidagicha tartibda joylashtirilgan: mantiq, fizika (tabiiyyot), matematika (riyoziyot) va metafizika (ilohiyot). Ushbu to'rtlik birgalikda "Kitab ash-Shifo" ni tashkil etadi [17, s. 132–169]. "Ash-Shifo" ning bu shakli, ya'ni har biri keng qamrovli, ammo tafsilotga chuqur kirmaydigan jumlarlar majmuasi, Lotin dunyosida "compendium" deb atalgan ilmiy risolalarga o'xshatiladi. Shu ma'noda, "Ash-Shifo" ni falsafaning to'rt asosiy tarmog'iga oid *compendium*lardan iborat yagona "compendia" sifatida ko'rish mumkin. Shuning uchun, asarni "ensiklopediya" deb atash, zamonaviy tadqiqotchilar orasida ishlatilayotgan bo'lsa-da, to'liq mos kelmaydi. Chunki zamonaviy ensiklopediyada fan sohalari o'rtasida uzviy, ichki aloqalar mavjudligi shart emas. Ibn Sinoning ta'rifiga ko'ra, "Ash-Shifo" bu ma'noda "majmua" — ya'ni ichki mantiqiy bog'liqlikka ega butun falsafiy tizimni ifodalovchi asardir [13, s. 4].

Juzjoniyning "Ash-Shifo" ga yozgan muqaddimasiga qaraganda, Ibn Sinoning shogirdlari undan endi tushunishi mushkul asarlarini qayta yozib chiqishini so'rashgan. Faylasuf esa avvalgidek matnlarni lafziy tahlil va sharh qilish bilan shug'ullanishga na vaqt, na mayl borligini, shuning uchun agar o'z xotirasida saqlanib qolgan bilimlar bilan kifoyalansa, ular asosida o'zi ma'qul ko'rgan tartibda yagona, keng qamrovli asarni yozishni afzal bilganini bildiradi. Shundan so'ng u tabiiy fanlardan boshlab "Ash-Shifo" ni yozishga kirishadi (10, s. 2).

Juzjoniyning tarjimai hol ma'lumotlariga ko'ra, u Ibn Sinodan Aristotelning asarlariga sharh yozishini so'ragan, biroq ustoz bunga vaqt topa olmasligini aytgan va agar xohlasa, falsafiy fanlarda to'g'ri deb topgan fikrlarini, raqiblar bilan bahsga kirishmay, rad etish niyatidan yiroq holda, bitta asarda jamlashi mumkinligini bildirgan. Ushbu ikki matnda e'tiborga molik birinchi jihat — faylasufning "Ash-Shifo" orqali mustaqil, asl nusxadagi falsafiy asar yaratish istagidir. U o'zining do'sti Abu Ja'far al-Kiyoga yozgan maktubida, qadimgi olimlarning barcha ilmlarini qamrab olgan "Ash-Shifo" nomli buyuk asarida olib borgan ishini sharh, tafsil va tafri' (ya'ni asosiy tamoyillar bo'yicha tafsilotlarni bayon etish) shaklida ifodalaganini qayd etadi [15, s. 374]. Bu atamalar falsafiy fanlarni yoritishdagi tahliliy izohlash usullarini bildiradi. Shuningdek, faylasufning asarning metafizika qismida uchraydigan "mantiq va tabiiy fanlarga oid sharhimizda" degan ifodasi ham [9, s. 22] shu ma'noda tushunilishi lozim. Chunki Ibn Sino "Ash-Shifo" ni Arastuni merosiga yozilgan oddiy sharhlar zanjiriga qo'shiladigan yana bir risola sifatida tasavvur etmagan.

D.Gutasning ta'kidlashicha, faylasuf Iskandariya maktabi sharhlovchilariga xos sharh uslubini qisman tark etib, "Ash-Shifo" da falsafiy fanlarni o'zining mustaqil tafakkur tizimi asosida qayta shakllangan holatda ifoda etgan. Bu qaror "Ash-Shifo" bilan bir qatorda "an-Najot" va "Donishnoma-i 'Aloiy" asarlarining tuzilishida ham kuzatiladigan yangi uslubni

anglatadi [6, s. 102]. Juzjoniyning matnlarida e'tiborga olinadigan ikkinchi muhim jihat — faylasufning o'ziga zid qarashlar oldida tanqidiy yondashuvni saqlagan holda, yangi asarida behuda bahslardan yiroq, o'z falsafiy haqiqatlarini aniq ifodalash niyatidir. Bu yondashuv "Ash-Shifo"ning umumiy muqaddimasida ham, xususan, faylasufning "Mashriqiy falsafa" haqida yozgan asarida ham yanada ravshan ifodasini topadi.

Gutas [6, s. 109–111] "Ash-Shifo" muqaddimasidan kelib chiqib, Ibn Sinoning Arastu va Mashshoiy ortodoks (peripatetik an'ana) oldidagi pozitsiyasini tahlil qiladi va faylasufning bu muqaddimada ham, "al-Falsafat al-mashriqiyya" asarining kirishida ham o'zini Arastu an'anasining ongli islohchisi sifatida taqdim etganini ta'kidlaydi. Gutas Juzjoniyning ma'lumotlarini tanqidiy tahlil qilib, Ibn Sino "Ash-Shifo"ni yozishga Hamadon amiri Shamsuddavlaning vafotidan sal oldin, 411-hijriy yil (1020 milodiy) atrofida kirishganini aytadi. Juzjoniyning ma'lumotlariga ko'ra, asarning yozilish jarayoni 411–418 h. (1020–1027 m.) yillar oralig'ida kechgan bo'lib, u ehtimol muallifning 48 yoshlarida yakunlangan. Demak, bu asar faylasuf ijodining o'rta davriga to'g'ri keladi [6, s. 104–105, 145].

Ko'pincha "Ash-Shifo"ning qisqartmasi deb noto'g'ri talqin qilinadigan "Kitab an-najot" aslida faylasufning "Ash-Shifo"dan oldin yozgan ayrim asarlaridan tuzilgan mustaqil majmuadir; uning yozilishi ham "Ash-Shifo" yaratilishining so'nggi yillariga to'g'ri keladi [6, s. 112–114]. "Kitab an-najot"da "Ash-Shifo"ga ikki joyda murojaat qilingan (s. 83, 131). Faylasuf o'zining keyingi asarlari — "al-Ishorot" [11, s. 483] va "al-Mubohasot"da [15, s. 92] ham "Ash-Shifo"ga ishora qiladi [6, s. 145, 19, s. 304]. Ibn Sino falsafasining falsafa, kalom va tasavvuf sohalariga chuqur ta'sir ko'rsatgani ma'lum. Bu ta'sirni keyingi avlodlarga yetkazishda "Ash-Shifo" asari alohida o'rin tutadi. Har qancha "Al-Ishorot va't-tanbihot" asari unga yozilgan sharhlar orqali, hamda hajman kichikligi sababli "Kitob an-Najot" kengroq o'qilgan bo'lsa-da, "Ash-Shifo" Ibn Sino falsafasini o'rganishda asosiy manba bo'lib qolgan. Masalan, G'azzoliy "Tahofut al-falosifa" asarida hamda Shahrisoniyning "Nihoyat al-iqdam" kitobida ayniqsa olamning hudusi va qadimligi masalasi muhokama qilingan joylarda ko'pincha "Ash-Shifo"dan iqtiboslar keltirilgan. Xuddi shuningdek, Ibn Rushdning "Tahofut at-tahofut" asarida ham "Ash-Shifo"dan ijobiy yoki tanqidiy maqsadda ko'plab parchalar keltirilgan.

Shuningdek, Ibn Xaldunning "Muqaddima" asarining turli joylarida ham "Ash-Shifo"ga murojaat qilingan. Nasafiy, Taftazoniy va Ijyilarning "Al-Aqoid", "Al-Maqosid", "Al-Mavoqif" kabi asarlarida hamda ularga yozilgan sharh va hoshiyalarda keltirilgan ma'lumotlar "Ash-Shifo"ning musulmon olamida keng tarqalganini ko'rsatadi [13, s. 29–30]. Bundan tashqari, "Ash-Shifo"ning turli qismlari va fanlariga yozilgan sharh, hoshiya, ta'liq va talhislar ham bu asarning keng ta'sir doirasini namoyon etadi [17, s. 172–174, 20, s. 93, 111–112]. Ular orasida xususan Sadriddin Sheroziyning "Ash-Shifo"ning Ilohiyyot bo'limiga yozgan ta'liqoti hamda Muhammad Mahdiy an-Narokiyning "Sharh al-Ilohiyyat min Kitab ash-shifo" asarlari alohida e'tiborga loyiqdir.

"Ash-Shifo"ning bizgacha yetib kelgan qo'lyozma nusxalarining ko'pligi ham uning tarixiy ahamiyatidan dalolat beradi. Ba'zilarida asarning to'liq matni, ba'zilarida esa riyoziyot (matematika) bo'limi tushirib qoldirilgan, ayrimlarida esa faqat bir yoki ikki fan qamrab olingan. Dunyo kutubxonalarida juda ko'p sonli qo'lyozmalar mavjud bo'lib, shulardan elliktadan ortiq nusxa Istanbul kutubxonalarida saqlanmoqda [1, s. 69–78; 17, s. 170–172]. Turkiyada saqlanayotgan "Ash-Shifo" nusxalari orasida, 871-hijriy (1466–67-milodiy) yilda

Sulton Fotih Muhammadga taqdim etilgan “Ilohiyyot” bo‘limining qo‘lyozmasi turk ilmiy-madaniy tarixida asarga bo‘lgan chuqur qiziqishni yaqqol ko‘rsatadi.

Yevropada esa “Ash-Shifo” lotin o‘rta asrlarida odatda “Sufficientia”, ba‘zan esa “Sanatio” nomi bilan tanilgan. Birinchi atama (“Sufficientia”) lotin tilida “yetarlilik” degan ma‘noni bildirgani bois noaniq bo‘lsa-da, “Sanatio” (“shifo”, “davolanish”) asarning asl ma‘nosiga to‘la mos keladi. Etienne Gilson “Liber Sufficientia” nomining ayniqsa “Ash-Shifo”ning “At-Tabi‘iyyot” (Tabiiy fanlar) bo‘limining lotincha tarjimasi sifatida mos ravishda ishlatilganiga e‘tibor qaratadi. Uning fikricha, Ibn Sinoning bu bo‘limga bunday nom berishdan maqsadi — noto‘g‘ri nazariyalarni rad etishga vaqt sarflamasdan, fizika haqidagi to‘g‘ri g‘oyalarni yetarli darajada bayon etish bo‘lgan [5, s. 192–236]. Asarning turli qismlariga oid qisman lotincha tarjimalar turli davrlarda, ba‘zida hamkorlikda Avendauth Israelite (Ibn Dovud), Dominicus Gundissalinus, Johannes Gunsalvi, Alfredus Sareshalensis, Giraldus Lombardus, Gerardus Cremonensis va Michael Scotus kabi tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan. Yevropaning yirik kutubxonalarida ushbu tarjimalarning 150 dan ortiq qo‘lyozma nusxalari mavjudligi, “Ash-Shifo”ning o‘rta asrlar Lotin dunyosidagi yuksak ilmiy mavqei tasdiqlaydi [2, s. 341–351]. XII asrning ikkinchi yarmidan boshlab “Ash-Shifo” asarining Yevropadagi tarjimalari lotin o‘rta asr falsafasi va ilohiyot tafakkuriga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Bu ta‘sirning dastlabki izlari tarjimonlarning o‘z asarlarida namoyon bo‘ladi. XII asrning oxirlariga kelib, Dominicus Gundissalinus “Ash-Shifo”ning “an-Nafs” qismini “Liber de Anima” nomi bilan, “al-Ilohiyyot” bo‘limini esa “Liber de Philosophia Prima sive Scientia Divina” nomi bilan lotin tiliga tarjima qilgan. U, shuningdek, “De Processione Mundi” va “De Anima” asarlarida boshqa manbalar bilan bir qatorda Ibn Sinoning g‘oyalari bilan ham keng foydalangan.

XIII asr boshlariga oid “De Causis Primis et Secundis” nomli anonim asar ham asosan “Ash-Shifo”ning “al-Ilohiyyot” qismidan olingan matnlarga tayangan holda yozilgan. XIII asrdan boshlab Parij universiteti olimlari Ibn Sinoning asarlaridan xabardor bo‘lganliklari haqida ma‘lumotlar mavjud. Parij universitetida dars bergan va keyinchalik Oksford hamda Kembrijda faoliyat yuritgan Jon Blund, “Ash-Shifo”ning “an-Nafs” tarjimasidagi asosiy g‘oyalarni izchil davom ettirgan “De Anima” asarida Ibn Sinoning nomini yigirmadan ortiq joyda tilga olgan.

“Ash-Shifo”ning tabiiy fanlar (fizika) bo‘limidagi minerallar haqidagi qismni “De Mineralibus” nomi bilan tarjima qilgan Alfredus Sareshalensis, Arastuning “Meteorologica” asariga yozgan sharhida Ibn Sinoni “buyuk faylasuf” sifatida ulug‘lagan. Xuddi shuningdek, Auvergnelik Uilyam (William of Auvergne) “De Anima” asarida o‘z asarining katta qismini “an-Nafs”dagi g‘oyalarga tanqidiy javob berishga bag‘ishlagan. “Ash-Shifo”ning “al-Ilohiyyot” bo‘limidan olingan tarjimalarni o‘z ichiga olgan “Liber de Philosophia Prima” asari, O‘rta asr Yevropa falsafasida muhim intellektual tayanch nuqtasiga aylangan. Ayniqsa, Tomas Akvinskiy (Thomas Aquinas) va Duns Skot (Duns Scotus) kabi ikki buyuk nasroniy mutafakkirining metafizik ta‘limotlari shakllanishida ushbu asarning aniq, chuqur va hal qiluvchi ta‘siri bo‘lgan [5, s. 236–238; 18, II, s. 1003–1006; 3, s. 26–29, 44–45, 61–65].

“Ash-Shifo”ning fizika va metafizika qismlarini o‘z ichiga olgan ilk bosma nashri Tehronda 1305-hijriy (1887-milodiy) yilda chop etilgan. Asarning to‘liq nashri esa uzoq davom etgan tadqiqot loyihasi doirasida Qohirada 1952–1983-yillar oralig‘ida yigirma ikki jild holida bosmadan chiqdi. Ushbu nashrning o‘nta jildlik faksimil nashri Tehronda (1405 h./1985 m.) Oyatulloh al-Uzmo al-Mar‘ashiy Najafiy tomonidan, shuningdek Bayrutda 1992-yilda chop etilgan.

Asarning ayrim bo'limlari turli G'arb va Sharq tillariga tarjima qilingan. Mazkur nashrlar va tarjimalarning ro'yxati "Ash-Shifo"ning asl tarkibiy tuzilishiga (tartibiga) muvofiq tarzda tuzilgan bo'lib, u asarning ilmiy va tarixiy qiymatini chuqur aks ettiradi.

Natijalar. Asarning yozilish jarayoni haqida Ibn Sinoning yaqin shogirdi Abu Ubayd al-Juzjoniy qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Rivoyat qilinishicha, Juzjoniy Ibn Sinodan Arastu asarlariga sharh yozishni so'raganida, olim o'z vaqtining ma'qulida muhim masalalarga izoh beruvchi, bahs-munozarasiz tarzda bayon qilinadigan bir asar yozishni va'da qiladi va natijada *ash-Shifo*'ning Tabiiyyot (Tabiatshunoslik) qismini yozadi. Juzjoniy bu bo'limning dastlabki qismi yigirma varaqdan iborat bo'lganini qayd etadi.

Har holda, Ibn Sino bahs-munozaralardan butunlay voz kechmagan — aksincha, *ash-Shifo*'ning ko'plab boblarida chuqur ilmiy-falsafiy munozaralar mavjud bo'lib, bu holat asarning ilmiy qiymatini yanada oshiradi. Juzjoniyning yozishicha, Ibn Sino jonli mavjudotlar va o'simliklar bo'limidan tashqari, *Tabiiyyot* va *Ilohiyyot* qismlarini yigirma kun ichida yozib tugatgan. Shundan so'ng u mantiq bilan shug'ullanib, o'zidan avvalgi asarlarni tahlil qilgan va mantiqiy tizimni mukammallashtirgan. Keyinchalik Ibn Sino ilgari tayyorlab qo'ygan matematika (riyoziyot) bo'limini ham *ash-Shifo*' tarkibiga kiritgan va nihoyat o'simliklar (anabot) hamda hayvonlar (al-hayavon) bo'limlarini yozib tugatgan. Juzjoniy ta'kidlashicha, hayvonot haqidagi bo'lim Arastuning shu mavzudagi asarlari bilan qiyosiy va tafsilotli tarzda yozilgan. Har necha asarning yozilish tartibi qat'iy ketma-ketlikka ega bo'lmagan bo'lsa-da, yakuniy tahrir jarayonida Ibn Sino uni aniq tuzilma asosida tartibga keltirgan. *Ash-Shifo*'ning mazmuni o'sha davr ilmiy-falsafiy tafakkurining yetuklik darajasini, ilmiy uslubning shakllanishini va nazariy tafakkurning rivojini yaqqol aks ettiradi. Shu bois, *ash-Shifo*'ni qanday yo'sinda tahlil qilinmasin, u nafaqat Ibn Sinoning ilmiy va falsafiy salohiyatini, balki uning yashagan davridagi intellektual hayotning umumiy manzarasini tasvirlab beruvchi eng muhim manbalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

"Ash-Shifo" asarining yozilish uslubi haqida Ibn Sino quyidagicha bayon etadi: "Men bu kitobni mantiq fanidan boshladim. Mantiq ilmining asoschisi (Arastu) asarlaridagi tartibni saqlashga harakat qildim. Mavjud kitoblardagi nozik jihatlar va murakkab masalalarni bu yerda zikr qildim. Shundan so'ng, tabiiy fan va falsafa (tabiiyyot) bo'limiga o'tdim. Bu sohalarida mengacha hech qanday mukammal tasnif yoki tartib menga yetib kelmagan edi. Keyin, bu bo'limni matematika bilan davom ettirdim. Men Evkilidning *Kitabu'l-ustuqussot* asarini qisqartirib bayon qildim, undagi shubhali joylarni izohladim va uni soddalashtirdim. Astronomiya haqidagi qismini ham xuddi shunday, *Kitabu'l-majistiy* (Ptolemeyning "Almagest") dan ixcham va tushunarli tarzda keltirdim. Bu bo'limni tugatgach, talabaning bu sohada bilimni mukammallashtirishi uchun zarur bo'lgan ba'zi qo'shimcha ma'lumotlarni kiritdim. Bu ma'lumotlar rasad (kuzatuv) natijalari va tabiiy qonunlarga mosdir. Shundan so'ng, arifmetika (hisob)ga kirish haqidagi asarni yaxshi tarzda qisqartirib bayon qildim. Uzoq tadqiqot va chuqur tafakkur orqali, menga ma'lum bo'lganicha, musiqa ilmi va matematikani mukammal tarzda yakunladim. So'ngra bu kitobni, usuliga va bo'limlariga muvofiq holda, ilohiyotga oid bilimlar bilan to'ldirdim. Bu yerda axloq va siyosat fanlariga ham qisqacha, jumlar shaklida ishora qildim. Har necha hajman kichik bo'lsa-da, bu asar ko'plab bilimlarni o'z ichiga oladi. Uni o'ylab va tahlil qilib o'qigan kishi, boshqa asarlarda uchramaydigan yangiliklarga boy ko'plab ilmlarni o'zlashtiradi." Bu bayondan ko'rinadiki, Ibn Sino "Ash-Shifo"ning ilohiyot bo'limini hajm jihatidan kichik bir asar sifatida ko'rsatadi. Biroq bu fikrni

umumiy tarzda qabul qilish to'g'ri bo'lmaydi. Ehtimol, u bu fikrni ayrim masalalarni yanada kengroq tahlil qilish zaruratidan kelib chiqib bildirgan. U, bahs va munozaralarga kirishmasdan haqiqatga yetmoqchi bo'lganlar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning ko'pchiligi *Ash-Shifoda* mavjudligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u *Kitabu'l-Lavohiq* nomli bir asar yozib, uni *Ash-Shifodagi* asosiy ma'lumotlarni sharhlovchi va izohlovchi asar sifatida ta'riflagan. Ko'rinadiki, bu asar *Ash-Shifoda* bayon etilgan ayrim masalalarni yanada kengroq yoritgan bo'lishi mumkin, ammo ushbu asar hozirgi kunga qadar bizgacha yetib kelmagan.

Bu o'rinda yana bir muhim masala shuki: *Ash-Shifo* Ibn Sinoning falsafiy qarashlarini qay darajada ifodalaydi? Aftidan, Ibn Sino falsafiy munozaralarni sevuvchi mutafakkirlar uchun *Ash-Shifoni*, haqiqatni qisqa yo'l bilan anglamoqchi bo'lganlar uchun esa *al-Falsafatu'l-mashriqiyya* asarini tavsiya etadi. Ibn Sinoning o'zi bu haqda shunday deydi: "Bo'sh so'zlardan chetlanib, haqiqatni istagan kishi mening bu asarimga (*al-Falsafatu'l-mashriqiyya*) murojaat etsin; do'stlarimni mamnun etuvchi yo'l, keng izohlar va diqqat bilan o'qilganda boshqa asarimdan bevosita olingan ishoralar orqali haqiqatni istovchi kishi bu asarimga murojaat etsin." Bu ifodadan anglashiladiki, har ikkala asar ham haqiqatni ochishga xizmat qiladi. Haqiqatning o'zi o'zgarmas, ammo unga yetishish yo'llari va uslublari farqli bo'lishi mumkin. Ibn Tufayl (vaf. 1185) *Ash-Shifoni* tahlil qilar ekan, uning asosan mashshoiy (Arastuchi) metodda yozilganini, ammo uni o'qishda faqat tashqi ma'noga emas, balki ichki mazmun va sirlariga ham e'tibor berish lozimligini ta'kidlaydi. Bu fikr, uning ishroqiy (gnostik-ma'rifiy) yo'nalishni qabul qilganligini inobatga olganda, tushunarli ko'rinadi.

Mustaqil tadqiqot mavzusi bo'lishiga qaramay, *Ash-Shifo* asarining Islom dunyosidagi izlarini ilmiy jihatdan quyidagicha tavsiflash mumkin. Asarda, ayniqsa, mantiq, ontologiya, epistemologiya, tabiiy falsafa va psixologiyaga oid bilimlar mavjud bo'lib, ular turli darajada falsafa, kalom va tasavvuf an'alarida o'z aksini topgan. Falsafiy an'anaga nazar tashlaganda, bu tabiiy hol ekanligi ayon bo'ladi. Masalan, Ibn Rushd (vaf. 1198) ushbu asardan iqtiboslar keltirgan yoki undagi fikrlarni tanqidiy tahlil qilgan. Ishroqiy maktab asoschilaridan Shihobiddin Suhravardiy (vaf. 1191) ham o'zining ayrim asarlarida *Ash-Shifodan* iqtibaslar keltirganligi kuzatiladi. Kalom an'anasida esa *Ash-Shifoga* murojaat yanada kengroq bo'lgan. Imom G'azzoliy (vaf. 1111) o'zining *Tahafut al-falosifa* asarida *Ash-Shifodan* iqtiboslar keltirib, ularni tanqid qilgan; biroq *Ma'orij al-quds* asarida esa bu asardan bevosita iqtiboslar keltirgan. Shuningdek, Fahriddin Roziy (vaf. 1209), undan keyingi Adudiddin al-Ijiiy (vaf. 1355) va Sa'diddin at-Taftazoniy (vaf. 1394) kabi kalom olimlari ham *Ash-Shifodan* foydalanib, o'z qarashlarini shakllantirganlar. Tasavvuf an'anasi nuqtai nazaridan qaralganda esa, Ibn al-'Arabiy (vaf. 1240) kabi tizimli ta'limot egalari ham ma'lum darajada Ibn Sino va *Ash-Shifodan* ta'sirlangan ko'rinadi.

Ash-Shifo'ning ansiklopedik tabiati haqida so'z yuritganda, F. E. Petersning fikricha, bu asar musulmon dunyosida mashshoiy (Arastuchi) falsafa tarixini davom ettiribgina qolmay, keyingi asarlarga ham yo'l ochgan. Peters bu jihatdan Abu'l-Barakot al-Bag'dodiyning *al-Mu'tabar fi'l-hikmasi*, Fahriddin Roziyning *al-Mabohis al-Mashriqiyyasi*, Shahrzuriiy (XIII asr)ning *ash-Shajarat al-Ilohiyyasi* va Athiruddin al-Abhariy (vaf. 1264)ning *Hidayat al-Hikma* asarlarini *Ash-Shifo* ta'sirida yozilgan deb qayd etadi. Shuningdek, Qutbiddin Sheroziyning *Durrat at-Toj* nomli falsafiy asari ham *Ash-Shifoni* namuna sifatida olganligi ma'lum.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Ibn Sino tafakkurining oʻrta asr Musulmon dunyosi va Yevropa tafakkuriga taʼsiri oʻz alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida alohida oʻrganishga loyiqdir.

Xulosa. Ibn Sinoning “Ash-Shifo” asari Sharq va Gʻarb ilm-falsafa tarixida alohida oʻrin tutadi. U nafaqat islom dunyosida falsafaning tizimli rivojiga asos yaratgan, balki Lotin Yevropasida ilmiy tafakkurning shakllanishiga ham bevosita taʼsir koʻrsatgan. Asarning ensiklopedik tabiati, undagi falsafiy va ilmiy gʻoyalar oʻrta asr musulmon mutafakkirlari uchun asosiy manba boʻlgan. Shu bilan birga, uning lotincha tarjimalari Yevropa sxolastikasi, xususan Aristotel taʼlimotini qayta talqin etishda muhim manba sifatida xizmat qilgan.

Shu bois “Ash-Shifo”ni faqat bir falsafiy asar sifatida emas, balki Sharq va Gʻarb oʻrtasidagi ilmiy-falsafiy uzviylikni ifodalovchi tarixiy koʻprik sifatida oʻrganish zarurdir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Anawati, G. C. (1950). *Mu'allafatu ibn Sina*. Qohira, 29–31, 69–79.
2. Bekir Karlığa. (2004). *İslâm Düşüncesi'nin Batı Düşüncesi'ne Etkileri*. İstanbul: İnsan Yayınları.
3. Butterworth, C. E., & Kessel, B. A. (2002). *İslâm Felsefesinin Avrupa'ya Girişi* (Ö. M. Alper, Trans.). İstanbul: Klasik Yayınları.
4. Daiber, H. (1999). *Bibliography of Islamic Philosophy* (Vols. 1–2). Leiden: Brill.
5. Gilson, E. (1955). *History of Christian Philosophy in the Middle Ages*. New York: Random House.
6. Gutas, D. (1988). *Avicenna and the Aristotelian Tradition*. Leiden: Brill.
7. Ibn Abi Usaybiy'a, M. (1965). *Uyunu'l-anbo fi tabaqoti'l-atibbo* (N. Rizo, Ed.). Bayrut: Dar al-ma'rifa.
8. Ibn al-Qiftiy, A. b. Y. (1903). *Kitabu ixbori'l-ulama bi-axbori'l-hukamo: Tarixu'l-hukamo'* (J. Lippert, Ed.). Leipzig: Brockhaus.
9. Ibn Sino, H. b. A. (n.d.). *ash-Shifo al-ilohiyyot (1)* (G. C. Anawati & S. Zoyed, Eds.). Tehran:.
10. Ibn Sino, H. b. A. (1960). *ash-Shifo al-ilohiyyot (2)* (G. C. Anawati & S. Zoyed, Eds.). Qohira: al-Matba'a al-Amiriyya.
11. Ibn Sino, H. b. A. (1959). *al-Ishorat va't-tanbihot* (S. Dunyo, Ed.). Cairo: Dar al-ma'orif.
12. Ibn Sino, H. b. A. (1985). *an-Najot* (M. Fahri, Ed.). Bayrut: Dar al-afaq al-Jadida.
13. Ibn Sino, H. b. A. (n.d.). *ash-Shifo at-tabi'iyot (1): as-Samo'u't-tabi'iy* (S. Zoyed & I. Madkur, Eds.).
14. Ibn Sino, H. b. A. (1970–1966). *ash-Shifo al-mantiq (I–IV)* (M. al-Hudayriy, S. Zoyed, E. A. Afifiy, A. F. al-Ahvoniyy, M. S. Salim, & A. Badaviy, Eds.). Qohira: Various Publishers.
15. Ibn Sino, H. b. A. (1994 [1371/1413 AH]). *al-Mubohasot* (M. Bidorfer, Ed.). Qum: Intishorot-i islamiy.
16. Janssens, J. L. (1991). *An Annotated Bibliography on Ibn Sina: 1970–1989*. Leuven: Peeters Publishers.
17. Mahdaviy, Y. (1954 [1333 h.]). *Fihrist-i Nushaho-yi Musannafot-i ibn Sino*. Tehran: Donishgoh-i Tehron.
18. Meranbon, J. (1996). Medieval Christian and Jewish Europe. In S. H. Nasr & O. Leaman (Eds.), *History of Islamic Philosophy* (Vol. 2, pp. 1003–1006). London: Routledge.
19. Reisman, D. C. (2002). *The Making of the Avicennan Tradition*. Leiden: Brill.
20. Ergin, O. (1956). *İbni Sina Bibliografyası*. İstanbul: Maarif Basimevi.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

INTERNATIONAL COOPERATION IN HEALTHCARE OF SURKHANDARDO REGION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Normamatova Pardakhol Ochildiyevna,

teacher at the Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Denov, Uzbekistan

E-mail: p.normamatova@dtpi.uz

Abstract. One of the most important directions of reforming the health care system at the current stage is to create a competitive environment in training, retraining and upgrading the skills of personnel with mature and deep knowledge in the field, forming an effective system of professional development of employees based on advanced foreign experience, medical science is to increase the effectiveness, quality and popularity of local medical care through development. Creating the legal basis of the healthcare system was one of the important tasks of the time. In the implementation of these measures, first of all, the need to create legislation related to health care and develop a reform strategy, as well as the reforms carried out by foreign governments, were highlighted.

Keywords: Avesta, "Generosity and Help", India, Surkhandarya.

MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATINING SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIGI

Normamatova Pardaxol Ochildiyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Denov, O'zbekiston

Annotatsiya. Sog'liqni saqlash tizimini bugungi bosqichda isloh qilishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sohada yetuk va chuqur bilimga ega kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda raqobat muhitini yaratish, ilg'or xorijiy tajribaga asosan xodimlarni kasbiy rivojlantirishning samarali tizimini shakllantirish, tibbiyot ilm-fanini rivojlantirish orqali joylardagi tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirishdir. Sog'liqni saqlash tizimining huquqiy bazasini yaratish ham davrning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolgan edi. Bu tadbirlarni amalga oshirishda avvalo sog'liqni saqlashga aloqador qonunchilikni yaratish va islohotlar strategiyasini ishlab chiqish zarurligi hamda xorijiy davlatlar bilan olib borilgan islohotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Avesto, "Saxovat va ko'mak", Hindiston, Surxondaryo.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N11>

Kirish. O'zbekiston Respublikasida aholi salomatligi va sog'liqni saqlash tizimi mustaqillikning birinchi kunlaridanoq davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilgan ishlar va bugungi kunda ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning samaradorligi, sifati va qulayligini oshirish ta'minlandi, BMT Ming yillik rivojlanish maqsadlarining asosiy parametrlariga erishildi. Mamlakatimizda olib borilayotgan tibbiyotdagi islohotlarning samarasi sifatida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini sog'lomlashtirish yo'lida ham bir qancha samarali ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Sariosiyo tumanidagi "Farhod" nogiron ayollar muruvvat uyida 4 767,4 mln, Denov tumanidagi nogiron erkaklar muruvvat uyida 4 517,4 mln, Viloyat nogironlarni reabilitatsiya

qilish va protezlash markazida 17 980,0 mln, Qumqo'rg'on tumanidagi nogiron bolalar muruvvat uyida 15 851,0 mln. so'mlik qurilish-rekonstruksiya ishlari bajarilgan[1-285b].

Metodlar va o'rganilganlik darajasi. 1992-yil tibbiyot sohasiga bo'lgan e'tiborning kuchayishi natijasida viloyatdagi ko'pgina kasalxonalar qayta ta'mirdan chiqarildi. Aholiga bo'lgan tibbiyot xizmatini yaxshilash maqsadida xorijiy mamlakatlardan zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalar keltirildi. Yaponiya, Finlandiya, Fransiya, AQSh hamda Germaniyadan keltirilgan tibbiyot sohasidagi asbob-uskunalaridan foydalanish, bioximik analizatorlar va boshqa zamonaviy apparaturalar shifokorlarga yanada samarali ishlashlari uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. Shuningdek, Germaniyaning «Simens» firmasidan keltirilgan «Seraskop SX» modeli rengenodiagnostik apparatidan ikki dona olib kelib o'rnatildi. Eng muhimi viloyat aholisining sog'lig'ini saqlash uchun sun'iy buyrak, gemodializ, suvni filtrlaydigan va odam organizmi uchun mos suyuqlik yetkazib beradigan filtrlash apparatlari bir necha o'nlab avtoklavlar, kardiomonitor va stomatologik komplekslar qurib foydalanishga topshirildi. [2-121b]

Tadqiqot natijalari. 1991-1992-yillarda viloyat sog'liqni saqlash ishlariga 1 million 220 ming so'mdan ziyod pul ajratildi. Shifoxonalarning moddiy-texnik ahvoli yaxshilandi. Yaponiya firmalarida ishlab chiqarilgan 5 ta ultra tovushli, 85 ta endoskopik apparat, «MT322» markali autokardistograf, chaqaloqlar uchun intensiv terapiya bloki, «BX-5» markali aksimetrlar o'rnatildi.

Ilmiy tadqiqotlar tahliliga asoslanib, viloyat aholisini sog'liqni saqlash, zamonaviy davolash maskanlarni qurish, qayta ta'mirlash, davolash o'rinlarini yangilash, xonalarni zamon talabi asosida jihozlash sohasida katta amaliy ishlar qilindi. Ayniqsa, 2000-yilga kelib yangi tibbiyot asbob-uskunalarini chet eldan olib kelib, o'rnatib xalqqa tibbiyot sohasini yangi usullari bilan xizmat ko'rsatish yaxshilandi. Viloyatdagi davolash muassasalari va o'rinlari soni 2000-yilda viloyatdagi 16 ta kasalxonada 1885 o'rin, Denov shahrida 4 ta kasalxonada 470 o'rin, Sho'rchi tumanida 2 ta kasalxonada 470 o'rin, Sho'rchi tumanida 2 ta kasalxonada 510 o'rin, Sherobod tumanida 2 ta kasalxonada 500 o'rin, Qumqo'rg'on tumanida 3 ta kasalxonada 520 o'rin, Jarqo'rg'on tumanida 3 ta kasalxonada 545 o'rin, Boysun tumanida 2 ta kasalxonada 300 o'rin shahar aholisini sog'lig'ini saqlashga xizmat qildi.[3-285b]

Davlat dasturi rejasiga asosan 2005-yili viloyatda 11 ta qishloq vrachlik punktlarini barpo etish uchun davlat tomonidan 278 million so'm mablag' ajratilib, qurilishi ishlariga 296 million 500 ming so'm mablag' sarflandi. Shundan 7 million 500 ming so'mi asbob-uskunalar, qattiq va yumshoq jihozlar sotib olish uchun sarflandi, bundan tashqari «Aktet» Xalqaro tashkiloti tomonidan 18 million 100 ming so'mlik ta'mirlash ishlari bajarildi. Jumladan, Angor tumani «Mustaqillik» qishloq vrachlik punktida 6 million 200 ming so'mlik, Sherobod tumani Pashxo'rt qishloq uchastka shifoxonasida 4 million 700 ming so'mlik ta'mirlash ishlarini bajardi. Viloyat aholisiga hozirgi kunda 85 ta shifoxona xizmat ko'rsatmoqda, ushbu shifoxonalarda o'rinlar soni 8625 tani tashkil etdi.[4-526]

Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish bo'yicha kompleks profilaktika, epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyena tadbirlarining joriy etilishi o'ta xavfli yuqumli kasalliklar (o'lat, vabo), poliomiyelit, difteriya, chaqaloqlar qoqsholi, mahalliy kelib chiqqan bezgak, qizamiq va qizilcha yuzaga kelishidan to'liq himoya qilish imkonini yaratib berildi desak mubolag'a bo'lmaydi[5-21b].

Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish bo'yicha kompleks profilaktika, epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyena tadbirlarining joriy etilishi o'ta xavfli yuqumli kasalliklar (o'lat, vabo), poliomiyelit, difteriya, chaqaloqlar qoqsholi, mahalliy kelib chiqqan bezgak, qizamiq va qizilcha yuzaga kelishidan to'liq himoya qilish imkonini yaratib berildi desak mubolag'a bo'lmaydi[6-25b].

Poliomiyelitning yovvoyi shtammi (2002-yil), qizamiq va qizilcha (2017-yil), bezgak (2018-yil) yo'q qilinganligi to'g'risida Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining sertifikatlari olinganligi katta yutuqlardan biri bo'ldi[7-125b]

Umumiy kasallanish 2019-yilda har 100 ming aholiga 61443,5 ni (Respublikada 76539,0) va 2020 yilda bu ko'rsatkich kamayib 60160,6 ni (Respublikada 70903,8) tashkil etgan. Birlamchi kasallanish 2019 yilda har 100 ming aholiga 44006,0 ni (Respublikada 38890,7) va 2020 yilda bu ko'rsatkich kamayib 45199,0 ni (Respublikada 34393,1) tashkil etgan. "D" nazoratdagi bemorlar 100 ming aholiga nisbatan 2019-yilda 11351,6 (Respublikada 26712,6) va 2020 yilda bu ko'rsatkich 11673 (Respublikada 26325,0)ni tashkil etgan[8-12b].

Viloyatda onkologik kasalliklar bilan kasallanish 2020-yilda 2019-yilga nisbatan har 100 ming aholiga kasallik ko'rsatkichi 49,1dan – 40,3 ga kamaygan. Sil kasalligi bilan kasallanish 2020 yilda 2019 yilga nisbatan har 100 ming aholiga kasallik ko'rsatkichi 35,0 dan – 25,0 ga kamaygan. Endokrin kasalliklari 2020-yilda 2019-yilga nisbatan har 100 ming aholiga kasallanish ko'rsatkichi 1562.7 dan -1747,4 ga ortgan.

Viloyatda eng yuqori kasallanish bo'yicha birinchi o'rinda nafas olish a'zolari kasalliklari bo'lib, ushbu kasalliklar bilan kasallanish holati 2020-yilda 2019-yilga nisbatan har 100 ming aholiga 12156,8 dan – 11960,6 ga kamaygan.

Ikkinchi o'rinda: qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari bo'lib, bu kasallik bilan kasallanish holati 2020-yilda 2019-yilga nisbatan har 100 ming aholiga kasallanish ko'rsatkichi 5915,7 dan – 5621,5 ga kamaygan[9-12b].

Keyingi o'rinda: ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari qayd etilgan. Mazkur kasallik bilan kasallanish holati 2020-yilda 2019-yilga nisbatan har 100 ming aholiga kasallanish ko'rsatkichi 5140,9 dan – 5060,5 ga kamaygan.

To'rtinchi o'rinda: Siydik-tanosil tizimi kasalliklari bo'lib, ushbu kasalliklar bilan kasallanish ko'rsatkichi 2020-yilda 2019-yilga nisbatan har 100 ming aholiga 3198,7 dan – 3099,4 ga kamaygan[10-19b]

Respublika onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Surxondaryo filialiga 590,0 ming. AQSh dollarlik Gamma-terapevtik radioterapiya apparati keltirilishi hisobiga 100ga yaqin bemorlarning Respublika markazi va Buxoro viloyatlariga qatnovi yakun yasaldi. Ushbu yuqori texnologiyali apparatning uzliksiz ishlashini ta'minlash maqsadida 2 nafar mutaxassislar Belorussiyada 1 nafari esa Avstriya davlatida o'z malakalarini oshirib kelishdi. Shu bilan bir qatorda IFA analizatori, UZI, raqamli rentgen, endoskopiya va digitayzer kabi apparatlar keltirilib, muassasaning moddiy texnika bazasi mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan inson salomatligi muhofaza qilish, tibbiyot muassasalarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish hamda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatda sog'lom raqobatni rivojlantirish, nodavlat tibbiyot muassasalarining moddiy texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan e'tibor zamirida 2016-yilda 122 ta (840 o'rinli 25 statsionar va 97 ta ambulator muassasalar) xususiy tibbiyot muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa 2021-yil 1-yanvar holatiga 266 tani (66 ta statsionar,

200 ta ambulator muassasalar) tashkil etadi. 2021-yilda 34 ta xususiy tibbiyot muassasa tashkil etilib, ularning soni 300 taga yetkaziladi. Ularda 3012 nafar xodimlar faoliyat yuritadi. (Vrachlar 608 nafar, o'rta tibbiyot xodimlar 1247 nafar, boshqa soha xodimlari 1160 nafar) [11-16 b.].

Davlatning xususiy tibbiyotni rivojlantirish va uning moddiy texnika bazasini rivojlantirish maqsadida kam foizli kreditlar ajratilishi, bo'sh turgan binolarni "0" qiymatida tadbirkorlarga berilishi, yer uchastkalarining ajratilishi, ushbu sohaning rivojlanishiga katta yo'l ochib berdi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-dekabrda "Xususiy tibbiyot tashkilotlarini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha shart-sharoitlarini yaratish to'g'risida"gi PQ-3450-sonli qaroriga asosan 2 mln AQSh dol. miqdoridagi kam foizli imtiyozli kredit hisobiga 200 dan ortiq yuqori texnologiyali zamonaviy tibbiy apparaturalar keltirildi[12-17b].

O'zbekiston va Turkiya Sog'liqni saqlash vazirliklari o'rtasida 2017-yilda imzolangan o'zaro hamkorlik memorandumga muvofiq, vazirlik xodimlari, Surxondaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi xodimlari, tuman tibbiyot birlashmalari rahbarlari va tibbiyot muassasalari bosh shifokorlaridan tashkil topgan 25 nafarlik jamoa 2022-yil avgust oyida Turkiya Respublikasi poytaxti Anqara shahrida malaka oshirib qaytishdi. Eng muhimi, mazkur malaka oshirish kursi natijasida sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish tizimidan tortib, ta'lim menejmenti bilan sohani integratsiyalashtirish borasida katta tajriba to'plab qaytishdi. Chunki Turkiya meditsinasi Germaniya, Yaponiya, Koreya meditsinasi kabi dunyoda yetakchi o'rinlarda turadi. Buni aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatidan ham bilsa bo'ladi. Dunyoda kattaligi jihatidan uchinchi o'rinda turadigan Anqara shahar shifoxonasi, u yerda yaratilgan shart-sharoit, rosti hayratlanarli. Shifoxonada shifo o'rinlari soni 4066 ta bo'lib, 4000 ga yaqin shifokor, 5000 ga yaqin hamshira faoliyat ko'rsatadi. Surxondaryolik shifokorlar bu yerda, menejment boshqaruvini, autsorsing, klaster tizimlarini, uni qanday yo'lga qo'yilganini o'rganishdi[13-19b].

Xulosa. Uchinchi Renessans poydevorida turgan O'zbekiston Respublikasida bugungi kundagi tibbiyot tizimi hamda aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatish ishlari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Tibbiyot sohasida davlat-xususiy sheriklik tizimi rivojlanib bormoqda, ayrim davolash muassasalarini shunday sheriklik asosida yuqori texnologik uskunalar bilan jihozlanmoqda, ularga to'liq moliyaviy mustaqillik berish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanib kelmoqda. Tibbiy ta'lim tizimini isloh qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, Nufuzli xorijiy ta'lim muassasalari filiallarini ochish, oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va ixtisoslashgan tibbiyot markazlari o'rtasida integratsiyani kuchaytirish masalalari bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Buning uchun quyidagi ishlar amalga oshirildi. Viloyat sog'liqni saqlash sohasi shifokorlar malakasini oshirish, o'z bilimlarini boyitish uchun xorijiy davlatlarga yuborildi, viloyat shifoxonalarini zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlash maqsadida chet el davlatlarining kredit mablag'lari va homiyligidan foydalanildi, viloyatda xorijiy davlatlar bilan hamkorlikdagi shifoxonalar dastlabki yillardan tashkil etildi, aholiga bo'lgan tibbiyot xizmatini yaxshilash maqsadida xorijiy mamlakatlardan zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalar keltirildi. Yaponiya, Finlandiya, Fransiya, AQSh hamda Germaniyadan keltirilgan tibbiyot sohasidagi asbob-uskunalaridan foydalanish, bioximik analizatorlar va boshqa zamonaviy apparaturalar shifokorlarga yanada samarali ishlashlari uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. Viloyatda istiqomat qilayotgan sog'lig'ida muammosi bo'lgan bolalarning

xorijda davolanishiga ko‘maklashish tajribasi keng qo‘llanildi. Viloyat tibbiyotining malakali kadrlar ta‘minlash maqsadida xususiy klinikalarda faoliyat olib borayotgan 23 nafar mutaxassislar Hindiston, Turkiya, Rossiya va Janubiy Koreya singari mamlakatlarda endoxirurgiya, neyroxirurgiya, onkologiya, urologiya yo‘nalishlarida malakalarini oshirib kelishi ta‘minlandi. Tibbiy ta‘lim tizimini isloh qilish masalasiga alohida e‘tibor qaratilib, Nufuzli xorijiy ta‘lim muassasalari filiallarini ochish, oliy o‘quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va ixtisoslashgan tibbiyot markazlari o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish masalalari bo‘yicha ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ halqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi.– Toshkent: O‘zbekiston, 2019. –B.205
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.– Toshkent: O‘zbekiston, 2021. –B.460
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 24-iyuldagi “Germaniya Federativ Respublikasi hukumati bilan moliyaviy hamkorlikda “Sog‘liqni saqlash. “Surxondaryoda mintaqaviy tibbiyot markazini rekonstruksiya qilish” komponenti” dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PP-1792-son Qarori. <https://www.lex.uz/uz>
4. Ким Э.Г. и соавт. «Основы акупунктуры и мануальной терапии». Санкт-Петербург, 1996 г., 270 стр.
5. Ким Э.Г. и соавт. «Методические разработки к практическим занятиям по нетрадиционным методам лечения». Ташкент, 1992 г., 56 стр.
6. Li B.N. "Xalq tibbiyoti". Toshkent, 2008 y., 179 bet.
7. Ли Б.Н. «Народная медицина». Ташкент, 2008 г., 179 стр.
8. Табеева Д.М. «Руководство по иглорефлексотерапии». Москва, 2004 г., 560 стр.
9. Лувсан Г. и соавт. «Основы иглорефлексотерапии». Москва, 2003 г., 615 стр.
10. Surxondaryo viloyati Sog‘liqni saqlash Boshqarmasi joriy arxivi. 2022-yil hisobot hujjatlari. 10-bayonnoma. 14-bet.
11. Surxondaryo viloyati Sog‘liqni saqlash Boshqarmasi joriy arxivi. 2022-yil hisobot hujjatlari. 11-bayonnoma. 9-bet.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE CONTRIBUTION OF UZBEK WOMEN SCIENTISTS TO THE DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL SCIENCE, CULTURE, AND THE ADVANCEMENT OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

Elboyeva Shakhnoza,

University of Economics and Pedagogy
Department of "History and Social Sciences"
senior teacher, Karshi

Abstract. This article examines the contributions of Uzbek women scientists to the development of international science, culture, and technological progress. It highlights their scientific activities, innovative research, participation in international projects, and the importance of the scientific schools they established.

Keywords: uzbek women scientists, science, culture, technological progress, international cooperation, innovation.

O'ZBEK OLIMALARINING XALQARO ILM-FAN, MADANIYAT RIVOJIGA HAMDA FAN VA TEXNIKA TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSALARI

Elboyeva Shaxnoza,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
"Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrası
katta o'qituvchisi, Qarshi
E-mail: elboyeva qarshi@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek olimalarining xalqaro ilm-fan, madaniyat rivojiga, fan va texnika taraqqiyotiga qo'shgan hissalari tahlil qilingan. Unda olimalarning ilmiy faoliyati, innovatsion ishlanmalari, xalqaro hamkorlikdagi loyihalari hamda ular tomonidan yaratilgan ilmiy maktablarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek olimalari, ilm-fan, madaniyat, texnika taraqqiyoti, xalqaro hamkorlik, innovatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N12>

Kirish. O'zbekiston tarixida ayol olimalarning ilm-fan, madaniyat va texnika taraqqiyotiga qo'shgan hissalari salmoqli o'rinni egallaydi. Ularning ilmiy izlanishlari nafaqat mamlakatimiz, balki jahon miqyosida ham tan olingan. O'zbekiston olimalari tarixshunoslik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va san'atshunoslik yo'nalishlarida xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirib kelmoqda.

Saida Zunnunova, Halima Xudoyberdieva singari olimalar ijodiy va ilmiy merosida milliy qadriyatlar, madaniyat hamda ayollar huquqlarini ilgari surgan. Folklorshunoslik va arxeologiya yo'nalishida faoliyat olib borgan olimalar Sharq merosining jahon ilmiy hamjamiyatiga yetkazilishida muhim o'rin tutadi. O'zbekistonlik ayol olimlar energetika, axborot texnologiyalari, qishloq xo'jaligi va tibbiyot sohalarida innovatsion ishlanmalar yaratishda faol ishtirok etmoqdalar. Akademik To'xtasinoy Uralova va boshqa olimalar kimyo-

texnologiya sohasidagi tadqiqotlari bilan xalqaro ilmiy maktablarda faol ishtirok etib kelmoqda. O'zbekistonlik ayol olimalar nanomateriallar, biotexnologiya, kosmik tadqiqotlar bo'yicha ham xalqaro loyihalarda qatnashib, ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shmoqda.

O'zbekistonlik olimalar UNESCO, FAO, WHO kabi xalqaro tashkilotlar loyihalarida faol ishtirok etmoqda. Ularning ishlanmalari xorijiy mamlakatlarda qo'llanilmoqda, ilmiy ishlari xalqaro patentlar bilan himoyalangan. Ko'plab olimalarimiz xorijiy davlatlarda ta'lim olib, xalqaro ilmiy grantlar g'olibiga aylangan.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi faolligini oshirish, ularni turli sohalarda o'z salohiyati va imkoniyatlarini to'liq namoyon etishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, onalik va bolalikni qo'llab-quvvatlash hamda oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2018-yil 2-fevralda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5325-sonli "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni asosida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu hujjat doirasida ayniqsa ta'lim muassasalarida rahbar lavozimida ishlayotgan ayollarning ish faoliyati samaradorligini oshirish yo'nalishida olib borilayotgan sa'y-harakatlar alohida e'tiborga loyiqdir.

Umuman olganda, O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini mustahkamlash yo'lida davlat miqyosida muhim va samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chunki jamiyat taraqqiyotini ayollar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu sababli, ayollarning oilaviy hayotda ham, davlat va jamoat ishlarida ham erkin faoliyat yuritishlari, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida mamlakat bo'ylab ko'plab dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Bugungi kunda mamlakat akademik doiralarida ayollarning o'rni va mavqeyini oshirish, yangi avlod olima xotin-qizlarni tarbiyalash hamda istiqbolli loyihalarni rag'batlantirish bo'yicha muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jamiyat hayotining turli jabhalarida gender tenglikni ta'minlash, jumladan, ta'lim va ilm-fan sohasida O'zbekiston ichki siyosiy konsepsiyasining ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiradi. Bu borada 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 69-maqsadida: xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, to'g'ri yo'naltirish vazifasi belgilab qo'yilgan [1, B.34].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli asarida "Bugun O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi ayollarimizga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va maqomini mustahkamlash ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashdir. Bu o'z navbatida, Ayollarga ilm berish – jamiyatni ilmi, ma'rifatli va salohiyatli qilish degan aqidani hayotga izchil tatbiq etish"[2, B.23] kerakligini alohida ta'kidlab o'tganlar.

Ma'lumki, 2016-yildan boshlab har yili 11-fevral sanasi BMT rezolyutsiyasiga muvofiq "Xalqaro ilmda ayollar va qizlar kuni" sifatida keng nishonlanmoqda. Ushbu kunning nishonlanishidan ko'zlangan asosiy maqsad — ayollar va qizlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ilm-fan sohasidagi salohiyatini e'tirof etish va har tomonlama qo'llab-

quvvatlashdir. Shu munosabat bilan xalqaro tajribani chuqur o'rganish maqsadida 10 dan ortiq mamlakatlarda ayollar ta'limini rivojlantirishga oid ilg'or amaliyotlar tahlil etildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ta'lim hamda ilm-fan sohasidagi ishtirokini kengaytirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, xorijlik tadqiqotchilar Gaskell Dj., Maklaren A., Aker S., Stromkvist N.P., Foks M.F. hamda Xamdan A. tomonidan bu borada salmoqli ilmiy ishlar olib borilgan. Shuningdek, MDH mamlakatlaridan Nogayeva A.M., Shupanova J.M., Agamova N.S., Allaxverdyan A.G. va Shafranova O.I.larning asarlarida ham ayollarning ta'lim va ilm-fandagi o'rni yoritib berilgan.

Yurtimiz olimlari — O.Bo'riyev, M.Vohidov, L.Munavvarova, O.Musurmanova, M.Mamatov, K.Nasriddinov, M.Sangilov, U.Toshtemirov, I.Shoyardonov, M.Xolmatova va M.O'zbekovlarning ilmiy izlanishlari esa asosan oila institutining ijtimoiy ahamiyati, madaniyati va undagi xotin-qizlarning faol roli masalalariga bag'ishlangan. Ular oila va jamiyat taraqqiyotida ayollarning o'rni haqida chuqur ilmiy asoslangan xulosalar berganlar.

Shubhasiz, ayolga berilgan hurmat va e'tibor milliy g'ururimiz, ma'naviyatimiz hamda madaniyatimiz yuksalishiga xizmat qiladi. Oilaviy barqarorlik, halol, fidoyi, vatanparvar va jamiyatga foyda keltiradigan farzandlar tarbiyasi bevosita ayolning oila va jamiyatdagi faolligiga bog'liq. Chunki har tomonlama yetuk, izlanuvchan, zamonaviy bilimga ega ayolning mehnatidan nafaqat uning oilasi, balki butun jamiyat manfaatdor bo'ladi. Unutmog'imiz kerakki, biz barpo etayotgan jamiyatning tayanchi — har bir fuqaro, ayniqsa xotin-qizlar bo'lib, ular jamiyat taraqqiyotining muhim tayanch kuchidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni bilan 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur hamda 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dasturni 2022–2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Mazkur hujjatlardan oila institutini yanada mustahkamlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ayollarning jamiyat hayotidagi nufuzini, faolligini oshirish, mehnatini munosib rag'batlantirish, tashkilotchilik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik va siyosiy jarayonlarda daxldorlik qobiliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar ko'lamini kengaytirish masalalari o'rin olgan [3, B.74].

Farmonda O'zbekiston Xotin-qizlar davlat qo'mitasining jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qo'mita faoliyatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Xotin-qizlar qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalarining yangilangan tuzilmalari tasdiqlandi. Shu o'rinda, O'zbekistonda ushbu yo'nalishdagi me'yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'tgan yillar mobaynida ayollar manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan qariyb 100 ta milliy va xalqaro huquqiy hujjat qabul qilindi va ratifikatsiya qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 8-mart – "Xalqaro xotin-qizlar kuni"

bayramiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqida shunday degan: "O'zbekiston deb atalgan jonajon Vatanimizda har qaysi mard yigit, avvalo, mehribon onasi, oilasi, farzandlari baxtli bo'lishini istaydi, albatta. Hazrat Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, bu yo'lda o'zining butun borlig'ini bag'ishlashga tayyor turadi".

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1400 ga yaqin xotin-qiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, 1075 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda. O'nlab opa-singillarimiz "O'zbekiston Qahramoni", "O'zbekiston fan arbobi", "O'zbekiston xalq o'qituvchisi", "O'zbekiston xalq shoiri", "O'zbekiston xalq artisti" singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, orden va medallariga sazovor bo'lgan [4.B.133] Ularning orasida 500 nafardan ziyod fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari o'z bilimi, iste'dodi bilan Vatanimiz ravnaqi yo'lida astoydil xizmat qilib kelmoqda. Jamiyat va davlat hayotida faollik, tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishi, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan xotin-qizlarga beriladigan "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etildi [5.B.101].

Xotin-qizlarning ijtimoiy faoliyati ularning iqtidori, qobiliyati, tashabbuskorligi bilan belgilanadi. Hech bir davrda ayollar faqat boshliq bo'lishi yoki faqat ergashishi lozim deb hisoblanmagan. Aksincha, hozirgi kunda xotin-qizlarga munosabat ijobiy tomonga o'zgarib, ularning ona bo'lishi bilan birga potensial qobiliyatlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. [6.B.22]

Ma'lumki, mamlakatimiz XIX asr oxiri va XX asr boshlarining yetakchi ma'rifatparvarlari M.Behbudiy, A.Fitrat va A.Avloniy xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni borasida keng fikrlar bildirganlar. Masalan, Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asarida shunday fikrlar bor [7.B.87]:

"Ayollarning huquqlari, albatta, din va milliy qadriyatlar bilan ham bog'liqdir. Islom dini kirib kelgunga qadar qizlar tug'iliboq tiriklayin o'ldirilgani ko'pchilikka ma'lum. Muqaddas Islom dini hamisha ayollarni e'zozlashga buyuradi. "Jannat onalar oyog'i ostidadir" degan naql asrlar osha o'z mavqeyini yo'qotmagan [8.B.32] Islom ta'limoti ayollarni ilm olish, mehnat qilish, meros huquqi, jamiyat taraqqiyotida faol qatnashishda erkaklar bilan teng huquqli qildi. Hadislarda "ilm olish har bir muslim va muslimaga xosdir", deyilgan. Islomda oila, nikoh, meros masalalarida ayolga ko'proq yon beriladi, nikohsiz yashashga ruxsat berilmay, shu tariqa ayolning huquqi ta'minlanadi. Nikoh shartlaridan bo'lmish mahr ham aynan ayollarning foydasi uchun joriy etilgan".

XX asr xotin-qizlarning o'z huquq va erkinliklari, ijtimoiy-siyosiy imkoniyatlari va mas'uliyatlarini anglab yetishiga xizmat qilgan davr bo'ldi. Xotin-qizlar minglab yillar davomida umuman ko'rmagan va guvohi bo'lmagan, orzu-intilishlarining mazmun-mohiyatiga aylangan siyosiy huquqlarga aynan shu asrda erishdilar. Ushbu asrda xotin-qizlarga nisbatan qarashlarning tubdan o'zgargani va endi nafaqat oilaviy hayot, balki davlat va jamiyat hayotida ayollar hamda erkaklarning maqomi ham tenglashgani diqqatga sazovordir. Aytib o'tilgan yutuqlarga ayollar osonlik bilan erishayotganlari yo'q. Bir vaqtning o'zida oila ishlarini saranjomlash bilan birga ijtimoiy-siyosiy masalalarga ham vaqt topish, nafaqat vaqt topish, balki o'zlariga yuklatilgan vazifalarni ado etish, tom ma'noda, ijtimoiy-siyosiy masalalarda o'z

maqomiga ega bo'lish, ulardan erkaklarga nisbatan ikki barobar ko'proq kuch-quvvat sarflashni talab qilmoqda [9.B.32].

Ayollarning jamiyatdagi o'rnini va rolini oshirish, davlat boshqaruviga ularni yanada kengroq jalb qilish, mamlakatning siyosiy boshqaruvi sohasida ularning faolligini yanada oshirish vazifalari keng ahamiyat kasb etib bormoqda. XXI asrda dunyoning barcha mamlakatlarida ayollar siyosat bobida ham teng huquqlilikka erishmoqda, parlamentda salmoqli o'rinlarni egallamoqda. Masalan, Ukraina parlamentining 8 foizini ayollar tashkil qilsa, arab davlatlarida ham ushbu ko'rsatkich 8 foizni tashkil qiladi. Shvetsiya, Estoniya va boshqa Yevropa davlatlari parlamentlarida ayollar ko'pchilikni tashkil qilishi bilan ajralib turadi. Biroq Afrikadagi Ruanda mamlakatining parlamenti deputatlari ichida xotin-qizlarning soni bu borada butun Yevropani ortda qoldiradi. Ushbu davlat parlamentining 48,8 foizini xotin-qizlar egallagan. Undan keyin Shvetsiya 45 foizi, Daniya 40 foizi [10.B.32]. Bu holatning o'ziyoq xotin-qizlarning kun sayin zamonaviy imijga ega bo'lib, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faollashib borayotganligini ko'rsatib turibdi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Xotin-qizlarning ta'lim olishiga zarur shart-sharoitlarni yaratish, ilm-fan sohasida ayollarning tutgan o'rnini yanada oshirish bo'yicha O'zbekistondagi mavjud holat hamda ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

Birinchi, mamlakatimizda bandlik muammolarini hal qilishda xotin-qizlarni o'qitish va ularga ta'lim berishning salohiyatidan foydalanish samaradorligi pastligicha qolmoqda.

Albatta, mana siz keltirgan matnga mantiqan va ilmiy uslubda mos tarzda davomini yozaman:

Ikkinchi, oliy ta'lim muassasalarida, ayniqsa texnika, muhandislik, axborot texnologiyalari, tabiiy fanlar kabi an'anaviy "erkaklar sohasi" hisoblangan yo'nalishlarda xotin-qizlarning ulushi hali ham past darajada qolmoqda. Bu esa mamlakat ilmiy salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda hamda gender muvozanatini ta'minlashda sustlikka olib kelmoqda.

Uchinchi, ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalarida ayol olimlarning ilmiy darajaga ega bo'lishi, rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi uchun zarur tashkiliy, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Natijada, ayollarning ilmiy karyerasini davom ettirish imkoniyatlari cheklangan.

To'rtinchi, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasida xotin-qizlarning ta'lim va ilm-fan sohasidagi ishtirokini oshirish maqsadida maxsus grant dasturlari, mentorlik tizimi, o'quv va tadqiqot faoliyatini moslashtiruvchi ijtimoiy infratuzilma (bolalar bog'chalari, moslashuvchan ish grafigi, masofaviy ta'lim imkoniyatlari) keng joriy etilgan. O'zbekistonda esa bu borada ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotgan bo'lsa-da, ushbu tizimlar hali to'liq shakllanmagan va keng ko'lamda amaliyotga tatbiq etilmagan.

O'zbekiston boshlang'ich ta'limda gender balansiga erishgan bo'lsa-da, ammo hanuzgacha oliy ta'lim sohasida tahsil olayotgan, shuningdek, ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridagi ayollar va erkaklar soni o'rtasida tafovut mavjud. O'zbekistonda oliy o'quv yurtiga 2020–2021-o'quv yili kunduzgi ta'lim uchun kirgan xotin-qizlar 260 ming kishini, erkaklar 311,5 ming kishini tashkil etgan. Ushbu tafovutni bir nechta sabablar keltirib chiqarmoqda:

- xotin-qizlarning ta'lim yo'nalishi ko'pincha ota-onalar tomonidan belgilanishi;

- oilada oliy ta'lim olish imkoniyati, avvalo, o'g'il bolalarga berilishi (ayniqsa, to'lov asosidagi o'qish bo'lsa);
- jamiyatda hanuz saqlanib qolgan stereotiplar tufayli qiz bolalar ko'proq faqat oilaviy hayotda foydali bo'lishi mumkin deb hisoblanadigan ijtimoiy yo'nalishdagi kasblarni tanlashga moyil bo'lmoqda;
- ko'plab ota-onalar qiz farzandlarining uydan uzoqda ta'lim olishlariga ruxsat berishni istamaydilar;
- oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarining hududlar bo'yicha teng va qulay joylashmaganligi;
- ayollar erkaklarga nisbatan erta turmush qurishi, farzand tug'ib, ularni voyaga yetkazish kabi majburiyatlarni zimmasiga olishadi.

UNESCO tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyo tadqiqotchilarining atigi 30 foizini ayollar tashkil etadi. Universitetlarga kiradigan ayollar soni tobora ko'payib borayotgan bo'lsa-da, ularning kam qismi tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishadi. Masalan, Shvetsiyada ayollar universitet talabalarining ko'p qismini – 60 foizini tashkil qiladi, ammo ularning soni universitetdan keyingi ta'lim bosqichlarida kamayadi: aspirantlar orasida ayollar ulushi (49 foizi), olimlar orasida atigi (36 foizi).

Jamiyat hayotida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida quyidagi amaliy choralarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

birinchidan, ayollarning mehnat sharoitlari va turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish;

ikkinchidan, xotin-qizlarning o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirish va ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

uchinchidan, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda kasanachilikni rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish;

to'rtinchidan, ayniqsa, qishloq joylardagi ayollarni kichik biznesga jalb etish va ularni rag'batlantirish;

beshinchidan, xotin-qizlarga imtiyozli kreditlar ajratilishini davom ettirish;

oltinchidan, ayollarning huquqlarini himoya qilish borasida davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish;

yettinchidan, xotin-qizlarning huquqiy bilimlarini oshirish, ularni mahalla darajasida ijtimoiy hayotga faol jalb etish, shuningdek, milliy qadriyatlarimizga mos hunarmandchilik turlarini rivojlantirish orqali ularni qadimiy kasblarga jalb etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirish – bu mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning ajralmas va muhim tarkibiy qismidir. Chunki ayol – bu oila tayanchi, jamiyatning bezagi. Oilalar tinch va barqaror bo'lsa, bu bevosita jamiyat va davlat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yurt qahramonlarining qadri baland, xotirasi muqad-das.// Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. J.2.- T.:O'zbekiston, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmoni.

3. Karimova, U. U. O'zbekiston ayol olimalarining ilm-fanga qo'shgan hissasi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018. – 245 b.
4. Fayziyeva, D. Innovatsion tadqiqotlarda ayol olimalarning o'rni. // Ilm va hayot jurnali. – Toshkent, 2020. – №3. – 45–52-betlar.
5. Qodirova, X. Kimyo va farmatsevtika sohasida o'zbek olimalari tajribasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019. – 310 b.
6. Uralova, T. O'zbek olimalari va xalqaro ilmiy maktablar. // O'zbekiston fanlari akademiyasi axborotnomasi. – Toshkent, 2021. – №2. – 77–85-betlar.
7. Zunnunova, S. Ayol ijodkorlar merosi va ma'naviy qadriyatlar. – Toshkent: Yozuvchi, 2016. – 198 b.
8. Xudoyberdieva, H. Adabiyot va jamiyatda ayol obrazining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2017. – 220 b.
9. UNESCO. Women in Science Report. – Paris: UNESCO Publishing, 2022. – 154 p.
10. United Nations. The Role of Women in Science, Technology and Innovation. – New York: UN Publications, 2021. – 88 p.
11. G'ulomova, S. O'zbekiston olimalari va xalqaro hamkorlik: tarixiy tahlil. // Tarix va kelajak. – Samarqand, 2020. – №4. – 101–109-betlar.
12. World Health Organization (WHO). "Women in Science and Global Health Research." – Geneva: WHO Press, 2020. – 65 p.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE ROLE OF MEDICAL HISTORY IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL IDENTITY OF FUTURE DOCTORS IN UZBEKISTAN'S MEDICAL UNIVERSITIES

Jabbarova Yulduz Dzhumaniyazovna,

Senior Lecturer,

Department of Social Sciences, Pedagogy, and Psychology,
Tashkent State Medical University

Abstract. The article examines the significance of the course on the history of medicine in shaping the professional identity of medical students in Uzbekistan. It analyzes theoretical approaches to professional identity, the role of historical knowledge in developing ethical, professional, moral, and communicative competencies, as well as practical methods for integrating historical material into the educational process. A mixed-method study (survey, interviews, and content analysis of educational programs) was conducted at three medical universities. The results confirm that a systematic study of the history of medicine contributes to the development of professional values, critical thinking, and a sense of professional continuity. Based on the findings, methodological recommendations have been proposed for updating the course and incorporating active learning forms.

Keywords: history of medicine, professional identity, medical education, competencies, Uzbekistan, pedagogical technologies.

РОЛЬ ИСТОРИИ МЕДИЦИНЫ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА

Джаббарова Юлдуз Джуманиязовна

старший преподаватель

кафедры «Социальных наук, педагогики и психологии»

Ташкентского Государственного Медицинского Университета

E-mail: sagatovaziyoda15@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается значение курса истории медицины в формировании профессиональной идентичности студентов медицинских вузов Узбекистана. Анализируются теоретические подходы к профессиональной идентичности, роль исторического знания в развитии этических, профессионально-моральных и коммуникативных компетенций, а также практические методы интеграции исторического материала в учебный процесс. Проведено смешанное исследование (опрос, интервью, контент-анализ учебных программ) на базе трёх медицинских университетов. Полученные результаты подтверждают, что систематическое изучение истории медицины способствует формированию профессиональных ценностей, критического мышления и чувства профессиональной преемственности. На основе выводов предложены методические рекомендации по обновлению курса и включению активных форм обучения.

Ключевые слова: история медицины, профессиональная идентичность, медицинское образование, компетентности, Узбекистан, педагогические технологии.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N13>

Введение. Формирование профессиональной идентичности является одной из ключевых задач высшего медицинского образования. Профессиональная идентичность

отражает совокупность знаний, ценностей, норм и ролей, которые определяется для себя студентом как будущим специалистом. В условиях глобализации, быстро меняющихся медицинских технологий и усиления требований к клинической практике важна сохранность и передача профессиональных ценностей [1]. Курс истории медицины рассматривается как эффективный инструмент формирования исторического сознания, нравственных ориентиров и профессиональной принадлежности. В Узбекистане, где медицинское образование переживает этап модернизации, возрастает необходимость пересмотра содержания гуманитарных компонентов обучения с целью усиления их практической значимости [2].

Современное медицинское образование в Узбекистане ориентировано не только на передачу профессиональных знаний и развитие практических навыков, но и на формирование у будущих врачей целостного мировоззрения, этических ориентиров и профессиональной идентичности. В условиях глобализации и реформирования системы здравоохранения особую значимость приобретает вопрос воспитания врачей, обладающих высоким уровнем культуры, исторического сознания и гуманистических ценностей.

История медицины играет важную роль в этом процессе, так как она позволяет студентам осознать преемственность знаний, понять роль врачей в обществе на протяжении веков и извлечь уроки из исторического опыта. Формирование профессиональной идентичности невозможно без понимания ценностей профессии, её моральных основ и вклада предшественников [3].

Таким образом, изучение истории медицины в медицинских вузах Узбекистана должно рассматриваться не только как факультативный курс, но и как ключевой компонент профессионального становления врача. Данная статья посвящена анализу.

Обзор литературы. В мировой педагогической и медицинской литературе подчеркивается роль гуманитарных дисциплин в формировании профессионализма. Исследования показывают, что изучение истории профессии способствует развитию профессионального самосознания, этики и понимания социальной роли врача [4]. Классические работы по формированию профессиональной идентичности выделяют этапы интеграции личностных и профессиональных компонентов [5]. В монографиях по истории медицины отмечается, что исторический анализ практик и институций позволяет студентам критически осмысливать современные парадигмы здравоохранения [6]. Региональные исследования по медико-педагогической подготовке в Центральной Азии ограничены, однако отдельные публикации обсуждают необходимость адаптации учебных программ к национальной культурной специфике [7].

Методы исследования. Для исследования использовался смешанный методический подход включающий количественные и качественные методы:

1. Опрос студентов ($n = 312$) 3–6 курсов трёх медицинских вузов Узбекистана с целью оценки отношения к курсу истории медицины и самооценки профессиональной идентичности [8].
2. Полу структурированные интервью с преподавателями гуманитарных дисциплин и клиницистами ($n = 18$) для выявления педагогических практик и ожиданий.

3. Контент-анализ учебных программ, учебников и методических указаний по истории медицины, действующих на момент исследования.
4. Наблюдение за занятиями (лекции и семинары) и анализ портфолио обучающихся.

Статистическая обработка данных проводилась с использованием описательной статистики и сравнительного анализа; интервью анализировались методом тематического кодирования [9].

А также для достижения целей исследования был использован комплексный методологический подход, включающий качественные и количественные методы анализа. В исследовании применялись следующие методы:

1. Анализ литературы — изучены труды по истории медицины, педагогике, медицинской этике и профессиональной идентичности.
2. Анкетирование студентов — проведён опрос среди 120 студентов 2–3 курсов медицинских вузов Узбекистана с целью выявления отношения к дисциплине.
3. Интервью с преподавателями — обсуждены подходы к преподаванию курса и его роль в воспитании будущих врачей.
4. Сравнительный анализ — сопоставлен опыт преподавания истории медицины в вузах Узбекистана и зарубежных стран.

Использование смешанных методов позволило получить всестороннюю картину восприятия дисциплины студентами и определить оптимальные пути её интеграции в образовательный процесс.

Анализ и результаты. Опрос показал, что 68% студентов считают курс истории медицины полезным для понимания профессии, но только 34% оценивают интенсивность и содержание курса как достаточные для формирования профессиональной идентичности. Студенты отмечали важность примеров врачебной этики и историй профессиональных достижений в мотивации выбора клинической специализации. Интервью с преподавателями выявили разрыв между учебно-методическим обеспечением и потребностями современной клинической практики: акцент смещён к фактам и датам, недостаточно — к проблемным и рефлексивным форматам обучения. Контент-анализ показал, что в большинстве программ доминируют традиционные лекционные формы и исторические обзоры без интеграции кейс-методов, дискуссий и проектной работы. Наблюдение показало, что при использовании активных форм (ролевые игры, анализ клинических историй с историческим прошлым) уровень вовлечённости студентов и глубина рефлексии значительно возрастали [10].

Дополнительно, сравнительный анализ по вузам показал различия в восприятии курса: в университетах, где преподаватели применяли проблемно-ориентированные задания и дискуссии, уровень осознанности студентов в отношении профессиональной идентичности был значительно выше. Статистический анализ выявил положительную корреляцию ($r=0.46$, $p<0.01$) между активными формами обучения и самооценкой профессиональной идентичности. Также обнаружено, что старшекурсники чаще видят в курсе практическую ценность, чем младшие курсы, что указывает на необходимость постепенной интеграции исторического материала в клинические дисциплины [11].

Обсуждение. Результаты исследования подтверждают, что курс истории медицины оказывает значительное влияние на формирование профессиональной идентичности будущих врачей. Большинство студентов отметили, что изучение истории медицины помогает глубже понять социальную миссию врача, осознать важность гуманизма и профессиональной этики. При этом выявлены некоторые проблемы: недостаточная практическая направленность курса, ограниченное использование инновационных методов преподавания, а также низкая вовлечённость студентов в исследовательскую деятельность по данной дисциплине [12].

Сравнение с зарубежным опытом показало, что во многих странах история медицины интегрируется в курсы медицинской этики, биоэтики и философии медицины, что позволяет студентам воспринимать её не как теоретическую дисциплину, а как инструмент формирования ценностных ориентиров. В Узбекистане подобный подход находится на стадии развития, однако тенденции реформ высшего образования создают благоприятные условия для его внедрения.

Таким образом, обсуждение показывает, что история медицины должна быть не просто частью учебного плана, а интегративным элементом формирования профессиональной культуры врача, обеспечивающим связь между научными знаниями и гуманитарными ценностями.

Qadimgi Baqtriya va Marg'iyona bobo dehqonlaridan bizgacha yetib kelgan moddiy madaniyat yodgorliklarida o'z aksini topgan. Mahabharata va Rigveda Hind madaniyati eposlarida Baqtriya (bahlika, Balx yoki bahika) deb ulug'langan, Baqtriya Hindistonning shimoli-g'arbiy hududida joylashgan madaniy markaz hamda qo'shni yurt sifatida eslatiladi. Rigvedada Baqtriya xalqining chorvador ot va yilqilar boquvchi xalq ekanligi ko'rsatilgan. Bu yozma manbada miloddan avvalgi 1500-1200-yillar oralig'ida Hindiston sivilizatsiyasining dastlabki bosqichidagi ilohiy vedik matnlarida uchraydi. Bu davrda hududda hind oriy qabilalari Hindistonning shimoli-g'arbiy qismida yashagan. Ular ot-ulovdan transport sifatida foydalanishni yaxshi o'zlashtirishgan. Jang arava va metal qurollardan foydalanishgan. Shu sababli Rigvedada urushlar, diniy marosimlar, tabiat kuchlarini ifodalash matnlari uchraydi. Rigvedada so'z boradigan Anu va Druhyu qabilalari Bahlika qabilalari bilan bog'lanadi. Baqtriya hududida yashagan qabilalar Sata Sindhu Yetti daryo mamlakati Baqtiriya Amudaryo irmoqlari bo'lishi mumkin. Bahlika otlari esa eng kuchli va bardoshli otlar sifatida tasvirlanadi.

Qadimgi Baqtriyadagi dafn bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda Vedik matnlarda keltirilgan ma'lumotlarga xos belgilarning uchrashi ko'rib chiqilmoqda. Shimoliy Baqtiriyaning Bo'ston- IV, Bo'ston-VI qabristonida olib borilgan tadqiqotlar bor. Bu boradagi tadqiqotlar E.E. Kuzmina keyinchalik N.A. Avanesova va Armen Kasparovlarning ilmiy ishlarida ko'rsatilgan. Sopolli madaniyatida ikkilamchi qayta dafn etish amaliyoti kuzatiladi. Miloddan avvalgi 2 ming yillikning 2 yarmidan boshlab bu ikkilamchi dafn an'analari kuzatilib kelishini tadqiqotchilar aytib o'tadilar. Ikkilamchi dafn jasadni etdan tozalangandan so'ng olib boriladigan dafn. Avestoning Videvdat qismlarida bu jarayon tanani etdan tozalash jarayoni bo'lib, jasad yer, havo, suvni iflos etmasligi uchun qo'llanilgan. Rigveda matnlarida esa krimatsiya jarayoni qo'llanilgan. Jasadni yoqish orqali dafn amaliyotini o'tkazish. Rigveda ma'lumotlariga ko'ra butun olamning uch qismga bo'linishi, uch ot arava dafn jarayonida tanani uch qismga bo'lingan holatda ko'milishi (bosh tana oyoqlarga). Sopolli madaniyati sohiblarining dafn an'alarida, ya'ni Bo'ston VI qabristonida olib borilgan tadqiqotlar ko'chmanchi chorvadorlarning hududga kirib kelishi mahalliy Andranova qabilalari mahalliy aholi bilan qo'shilgan holatdagi ijtimoiy dafn udumlarini ifodalaydi. To'laqonli talqini Bronza davrining oxirida hududga hindi-oriy aholining kirib kelishi, migratsion jarayonlarda shimoliy Hindistonga o'tishi, ularning Janubiy O'zbekiston hududida qoldirgan belgilarini ko'rsatmoqda [5].

Xulosa. O'rganilayotgan davr bo'yicha yozma manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu davr bo'yicha eng ishonchli yaratilgan manba Avestodir. Avestoning yaratilishi haqida ham uning yozilgan davri bo'yicha bahsli masalalar bor. Shaxsiy xulosalarimizga ko'ra Avesto bronza davrida kitob holatida shakllanib bo'lgan. Yozma manbalar Avestoning ho'kiz terisiga yozilgan qismi bo'lishi aniq. Tarixiy jarayonlarga ko'ra dasht chorvadorlarining migratsiyasi doimiy bo'lib turgan. Chunki bronza davri boshlarida bizga ma'lum bo'lgan qoramol terisiga yozilgan manba bo'lgan. Keyinchalik Doro davrida yana qoramol terisiga yozilgan va u yo'qotilgan. Bugungi kunda arxeologik yodgorliklarning bergan boy ma'lumotlari yetarli bo'lmoqda. Taklif sifatida arxeologik yodgorliklarni o'rganishni jadallashtirish, arxeolog olimlar va tarixchilar,

manbashunos kadrlar sonini oshirish, Qadimgi Baqtriya tarixi, tarixshunosligiga oid ma'lumotlarni ko'paytirish zarur.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Annaev J. Tarmita–Termiz buddaviylik markazlari madaniyati: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021. – 48 b.
2. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2015. – B. 95–96.
3. Gerodot. Tarix. I tom. – Toshkent, 213-b.
4. O'zbekiston tarixi xrestomatiyasi. 1-jild. Eng qadimgi yozma manbalar. Avesto. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2014. – B. 124–146.
5. Rigveda. 90-band, 2-satr.
6. Shaydullaev Sh. "Avesto" va moddiy madaniyat // O'zbekiston tarixi. – № 3. – Toshkent, 2004. – B. 3–12.
7. Пьянков И.В. Река Ох и Арьяна Вайджа ... – С. 337.
8. Ртвеладзе Э. В. Новые древнебактрийские памятники на юге Узбекистана // Бактрийские древности. Л.: 1976. С. 93–103.
9. Ртвеладзе Э. В. О генезисе кушанских поселений северной Бактрии // ВДИ. № 4. 1978. С. 108–116.
10. Шайдуллаев Ш. Б. Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. Ташкент, "Издательство народно-го наследия имени Абдуллы Кодыри", 2000. – 119 с.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE STRENGTHENING OF RELIGIOUS AUTHORITY DURING THE TIMURID AND SUBSEQUENT DYNASTIES (CAUSES AND CONSEQUENCES)

Mamanov Abdurahim Abduhakimovich

Independent Researcher,
Samarkand State University

Abstract. The article examines the reasons for the strengthening of religion during the Timurid period and the subsequent dynasties on the basis of the theory of “periodicity.” It also reveals the factors behind the rise and decline of the Timurid dynasty, the causes and consequences of the strengthening of local authorities, and, in particular, the reasons for the increasing role of religious scholars (ulama) in society and state governance.

Keywords: Timurids, secular state, theocracy, ulama, irrigated agriculture, rain-fed agriculture, philosophy of history, “periodicity”.

TEMURIYLAR VA ULARDAN KEYINGI SULOLALAR DAVRIDA DINIY HOKIMIYATNING KUCHAYISHI (SABABLAR VA NATIJALAR)

Mamanov Abdurahim Abduhakimovich

Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada Temuriylar davri va undan keyingi sulolalar hukmronligida dinning kuchayish sabablari “davriylik” nazariyasi asosida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, temuriylar sulolasining yuksalishi va tanazzuli omillari, mahalliy hokimiyatning kuchayishi sabablari va oqibatlari, ayniqsa, diniy ulamolarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi o‘rni ortishining sabablari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Temuriylar, dunyoviy davlat, teokratiya, ulamolar, sug‘oriladigan dehqonchilik, lalmikor dehqonchilik, tarix falsafasi, “davriylik”.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N17>

Xalqimiz tarixida yuz bergan tarixiy voqea-hodisalarni hamisha ham to‘g‘ri, haqqoniy bahosini olgan deb aytishimiz qiyin. Insoniyat tarixida ro‘y bergan voqealar, jarayonlarni to‘g‘ri talqin etish eng avvalo kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti qonuniyatlarini to‘g‘ri, haqqoniy yorita oladigan tarix falsafasiga bog‘liqdir. Kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti qonuniyatlarini anglamasdan turib tarixiy voqea-hodisalarga baho berishga urinish qorong‘u uyga kesak otish bilan barobar, — qorong‘u uyga qancha kesak otmang, foydasiz, nishonga tegishi dargumon. Kishilik jamiyatining, qolaversa Vatanimiz tarixining juda ko‘p salmoqli ahamiyatga ega bo‘lgan davrlari, ro‘y bergan voqea-hodisalar, jarayonlar hali-hanuz o‘zining to‘g‘ri, mantiqiy va ilmiy asoslangan bahosini olganicha yo‘q. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Tarixga oid ilmiy tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publitsistik usulda olib borilmoqda. Natijada olis va yaqin o‘tmishimizdagi ko‘pgina voqealarning mazmun-mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan kelmoqda” [1, 275] degan so‘zlari tarix faniga oid bugungi tadqiqotlarga berilgan achchiq, lekin haqqoniy bahodir.

Vatanimiz tarixida ham o'zining haqqoniy bahosi, yechimini olmagan voqealardan biri-temuriylar va ulardan keyingi sulolalar davrida diniy hokimiyatning kuchayishi masalasidir.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, buyuk bobomiz Amir Temurning ulamolarga, din peshvolari hamda sayyidlar-payg'ambar avlodlariga hurmat ehtiromi cheksiz bo'lgan. Ul zotning din peshvolariga ko'rsatgan hurmat, izzat-ikromi ko'pdan ko'p tarixiy manbalarda o'z aksini topgan.

Masalan, uning Turkistondagi Ahmad Yassaviy qabri ustiga qurdirgan maqbarasi, sayyidlar-payg'ambar avlodlariga ko'rsatilgan g'amxo'rliklari uning chin iymonli, musulmonchilik-islom dini arkonlariga qat'iy sodiq hukmdor bo'lganligidan dalolatdir.

Amir Temurga qisman zamondosh bo'lgan Ibn Arabshoh uning olim-u ulamolarga hurmat izzati haqida quyidagicha yozib qoldirgan. "Temur olimlarga mehribon, Sayyid-u Shariflarni o'ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to'la izzat-hurmat ko'rsatib, ularni har qanday odamdan tamom muqaddam ko'rardi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib izzat-u ikromini unga izhor qilardi"[2, 72]. Amir Temurning Xorazmdagi Abu Muslim avlodlari-sayyidlariga bergan yorlig'i ham uning din peshvolari-ulamolarga ko'rsatgan g'amxo'rligining yorqin namunasidir. Ushbu yorliq bilan Amir Temur Xorazmda yashagan Abu Muslim avlodlarini barcha soliq va majburiyatlaridan ozod qiladi[3, 22].

Lekin, Amir Temur ulamolarni qanchalik izzat-hurmat qilmasin, ularning davlat ishlariga aralashuviga yo'l qo'ymagan.

"U islom dini asoslarini mustahkamlash, din peshvolarini hurmat qilish, ularga yaxshi sharoit tug'dirishga harakat qildi, ammo davlat boshqaruvi tizgini ularga berib qo'ymadi"[3, 22].

Ammo, sohibqiron Amir Temurdan keyingi temuriylar davriga kelib, mamlakatda ulamolarning mavqeyi, obro'-e'tibori tobora oshib borishi natijasida ulamolar davlat boshqaruviga ba'zan bilvosita, ba'zan esa, hatto bevosita aralashadigan bo'ldilar. Masalan, temuriylar davrining eng ko'zga ko'ringan ulamosi Hoja Ahrori Vali va uning avlodlari temuriy shahzodalardan ko'pchiligining piri bo'lib, ular ba'zida o'zlarini shahzodalarga xo'jayin kabi tutar edilar.

Masalan, Hoja Ahrori Valining o'g'li Xoja Yahyo XV asrning oxirlariga kelganda Samarqandning amaldagi xo'jayini hisoblanar edi.

Amir Temur vafotidan keyin, oradan bir necha o'n yil o'tib din rahnamolari, ulamolarning obro'-e'tibori nafaqat Samarqandda, balki butun O'rta Osiyo – Movarounnahrda osha bordi. O'sha davrda paydo bo'lgan yirik so'fiylik tariqatlari-kubroviya, Naqshbandlik kabi ta'limotlarining izdoshlari yildan-yilga ko'payib bordi. Buxorodagi Jo'ybor shayxlarning obro'-e'tibori ayniqsa baland edi. Buxoro va tevarak atrofidagi deyarli barcha hokimlar, davlat egalari Jo'ybor shayxlarning roziligini olmasdan biror bir kattaroq ishga qo'l urushga botina olmasdilar.

Temuriylardan ancha keyingi davrlar-taniqli adibimiz Abdulla Qodiriy tomonidan "keyingi xon zamonlari" deb atalgan XIX asr o'rtalarida ham Movarounnahr davlatlarida amir-u xonlar biror-bir ishga qo'l urushdan oldin albatta ulamolarning fatvosini olishlari shart edi. Ulamolarning qanday fatvo yozishlari esa ko'pincha dunyoviy hokimiyat egasi — xon yoki amirning taxtda qanchalik mustahkam o'tirganligiga bog'liq edi. Agarda xon taxtni yaqinda egallagan, o'z hokimiyatini yetarlicha mustahkamlay olmagan bo'lsa, ulamolar odatda shariat

arkonlariga muvofiq ish tutishar, ya'ni bu holda ularning fatvolari ba'zan xonning istak-xohishiga zid bo'lishi ham mumkin edi.

Masalan, Qo'qon xoni Ma'dalixon o'z saroyidagi bir kanizga uylanmoqchi bo'lib, bu to'g'rida ulamodan fatvo so'rab murojaat qilganida ular Ma'dalixonning xohishiga zid bo'lgan fatvo beradilar.

Chunki, Ma'dalixon yaqindagina taxtga o'tirgan, hali u o'z hokimiyatini yetarlicha mustahkamlay olmagan edi.

Xo'sh, nima uchun Sohibqiron Amir Temur zamonida davlat boshqaruvi ishlariga aralashishni xayollariga ham keltirmagan, keltirishi mumkin bo'lmagan ulamolalar Amir Temurdan keyingi temuriylar va undan keyingi sulolalar davriga kelib bu qadar kuch va qudratga ega bo'ldilarki, hatto davlat boshlig'i-xonlarning irodasiga ham qarshi chiqishga jur'at etadigan bo'ldilar? Mazkur savolga javob berish uchun kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotiga geografik maktab nuqtai-nazaridan qarab, bir necha tayanch tushunchalar bilan tanishib chiqishimizga to'g'ri keladi:

- Tarixga yondashuv masalasida geografik omil nazariyasiga muvofiq kishilik jamiyati tarixini tirikchilik vositalarini qo'lga kiritish usuliga ko'ra ikki asosiy davrga bo'linadi:

- 1. O'zlashtirma xo'jalik
- 2. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik.

O'zlashtirma xo'jalik davrida odamlar o'zlari uchun kerakli vositalar-asosan oziq ovqatni terib-termachlash va ovchilik orqali qo'lga kiritganlar.

Bundan 10 000 yilcha ilgari insoniyat birinchi ishlab chiqarish usuli-ko'chmanchi chorvachilikni, ma'lum muddatdan keyin esa dehqonchilikni o'rganib oldi. Dehqonchilik esa ikki usulda:

- Sug'orma dehqonchilik.
- Lalmikor dehqonchilik usullarida olib borilgan.
- Demak, o'zlashtirma xo'jalikdan keyin insoniyat ishlab chiqarishning 3 asosiy usuli orqali tirikchilik qilgan:

- Ko'chmanchi -chorvadorlik.
- Sug'orma dehqonchilik.
- Lalmikor dehqonchilik.

Mazkur 3 asosiy ishlab chiqarish usuli taraqqiyotining 3 xil ko'rinishini vujudga keltiradi:

- Ko'chmanchi chorvadorlar-taraqqiyot turg'un holatda bo'ladi.
- Sug'orma dehqonchilik-bu ishlab chiqarish usuli taraqqiyotning "davr"lar ko'rinishidagi shaklini keltirib chiqaradi.

- Lalmikor dehqonchilik jamiyatlarida taraqqiyot to'g'ri chiziqli ko'rinishda ya'ni doimo oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga tomon ilgarilab boradi. Mazkur 3 xil ishlab chiqarish usullarining har biri shu ishlab chiqarish usuli qaror topgan jamiyatni o'rab turgan tabiiy-jug'rofiy sharoit asosida shakllanganligi hech bir isbotga muhtoj bo'lmagan haqiqatdir: ko'chmanchi chorvadorlik keng cho'l va sahro, tog', tog' oldi qir adirlarida sug'orma dehqonchilik – quruq va issiq iqlimli unumdor tuproqli daryo vodiylarida, lalmikor dehqonchilik esa sernam va mo'tadil iqlimli mintaqalarda tashkil topadi.

Amir Temur saltanatining o'zagi bo'lmish O'rta Osiyo iqlimi quruq va issiq bo'lganligi tufayli bu yerda sug'orma dehqonchilik asosiy ishlab chiqarish usuli sifatida shakllangan. Demak, bu yerda, ya'ni O'rta Osiyoda taraqqiyot "davr"lar ko'rinishida yuz berishi qonuniydir.

Ko'pchilik tadqiqotchilar fikricha "davr" asosan 4 bosqichdan iborat:

1. Tug'ilish — bir daryo havzasida markazlashgan davlatning tashkil topish jarayonini o'z ichiga oladi.
2. O'sish-ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, sug'orish tarmoqlarining kengaytirilishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bosqichidir. Bu bosqich oxiriga kelganda o'sha davr ishlab chiqaruvchi kuchlari vositasida o'zlashtirish mumkin bo'lgan yerlarni o'zlashtirib tugallanadi. Joylardagi mahalliy hokimiyat kuchayib boradi hamda yirik yer egalari-zamindor boylar ko'payib boradi. Markaziy hokimiyat zamindor boylarga qarshi turli choralar-yerini musodara qilish, o'zlarini badarg'a qilish kabi choralarni ko'rish bilan muntazam suratda shug'ullanadi.
3. Turg'unlik- bu bosqichda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish o'rnini oddiy takror ishlab chiqarish egallaydi. Yirik zamindor boylar kuchayishda va ko'payishda davom etadi. Bir tarafdin mahalliy hokimiyatning kuchayishi, ikkinchi tomondan yirik zamindor boylarning kuchayib borishi markaziy hokimiyatni holdan toydiradi.
4. Inqiroz-parokandalik-markaziy hokimiyat amalda har biri mustaqil bo'lgan mayda davlatlarga parchalanib ketadi. Ular o'rtasida o'zaro urushlar boshlanadi. Avval mayda xo'jaliklar, keyinroq borib yirik xo'jaliklar ham suvdan mahrum bo'ladilar. Aholining ko'p qismi ochlikdan, o'zaro urushlarda, qo'zg'olonlarni bostirishda qirilib ketadi, omon qolganlar turli tomonlarga bosh olib ketadi. Amir Temur saltanatida ham XV-asrning 40-yillari Ulug'bek hukmronligining oxirlariga kelib "davr"ning "turg'unlik" bosqichining belgilari paydo bo'la boshladi-joylardagi mahalliy hokimiyatning kuchayishi, yirik zamindor boylarning ko'payishi markaziy hokimiyatni zaiflashtira boshladi. Har qanday jamiyat shu jamiyatni jamiyat sifatida uyushtiradigan, birlashtirib turuvchi rishtavositalariga muhtojdir. Iqtisodida sug'orma dehqonchilik ustuvor bo'lgan jamiyatlarda bu vazifani asosan dunyoviy hokimiyat bajaradi. "Davr"ning dastlabki bosqichlarida markazlashgan dunyoviy davlat bu vazifani kamchiliksiz uddalaydi. Ammo jamiyat "davr"ning "turg'unlik", ayniqsa "inqiroz-parokandalik" bosqichiga kirishi bilan markaziy-dunyoviy hokimiyat kuchsizlana boshlaydi va jamiyatni birlashtirish, uyushtirish vazifasini to'liq ado eta olmay qoladi.

Ma'lumki, jamiyatda ham xuddi tabiatdagi kabi bo'sh qolgan muhit darhol boshqa bir narsa bilan to'ldiriladi-jamiyatda dunyoviy hokimiyatning ta'siri kamayishiga mutanosib ravishda diniy hokimiyat-din rahnamolari-ulamolarning ta'siri oshib boradi.

Ilmiy, tarixiy va badiiy asarlarda O'rta Osiyoda din rahnamolarining nufuzi kuch-qudrati, boyligi-yu saxovatpehaligi haqida ko'plab ma'lumotlarni uchratamiz.

O'tgan davrlarda, ayniqsa sovet mafkurasi hukmronligi yillarida O'rta Osiyoda diniy mutaassiblik, diniy jaholat, aqidaparastlikning kuchayishi dunyoviy hokimiyatni kuchsizlantirdi, natijada ilm-fan, san'at, adabiyotning orqaga ketishi ro'y berdi degan qarash hukmron edi. Bizning fikrimizcha, O'rta Osiyo, Movarounnahrda avval boshda dunyoviy hokimiyatning zaiflashuvi yuz berdi, buning natijasida esa dunyoviy hokimiyat o'rnini diniy hokimiyat egallay boshladi.

Dunyoviy hokimiyat o'rnini diniy hokimiyat egallashini ijobiy hodisa sifatida baholash kerakmi yoki aksincha, salbiy hodisa sifatida baholanishi kerakmi? Albatta dunyoviy hokimiyat o'rnini diniy hokimiyat, olimlar o'rnini ulamolar egallashi, maktab-madrasalarda dunyoviy fanlar o'rniga faqat diniy adabiyotlar o'qitilishini olqishlash, ijobiy hodisa sifatida baholash mumkin emas. Ammo hamma gap ana shu diniy hokimiyat nimaga kuchayganligi va qanday vazifani bajarganligidadir. Yuqorida aytilganidek, iqtisodida sug'orma dehqonchilik ustuvor bo'lgan jamiyatlarda "davr" hodisasi ro'y berishi, ya'ni hokimiyat ma'lum bir yuksalishga erishgach, qoida tariqasida avval turg'unlik, undan keyin esa inqiroz-parokandalik yuz beradi. Bu davrda markaziy dunyoviy davlat avval boshda zaiflashadi so'ngra har biri mustaqil bo'lgan mayda davlatlarga parchalanib ketadi.

Temuriylar saltanatida ham XV asrning 40-yillari, ya'ni Ulug'bek hukmronligining so'ngi davriga kelib jamiyat "davr"ning "turg'unlik" bosqichiga qadam qo'ydi. Dunyoviy markaziy hokimiyatning kuchsizlanishi oqibatida Dashti Qipchoq ko'chmanchilarining hujumlari yildan-yilga kuchayib bordi. Mamlakat hududlarini birin-ketin ko'chmanchilar egallab ola boshladilar (Shimoliy Xorazm, Quyi Sirdaryo, Toshkent, Andijon, Konibodom).

Dunyoviy hokimiyatning zaiflashuvi muqarrar suratda jamiyatda boshboshdoqlik, hokimiyatsizlik, har qanday tartib, boshqaruvining barbod bo'lishiga olib kelishi aniq edi. Dunyoviy hokimiyatning kuchsizlanishiga munosib tarzda diniy hokimiyatning, din rahnamolari, ulamolar nufuzi, ta'sirining oshib borishi ba'zi bir salbiy jihatlarga qaramay umuman olganda jamiyat hayotida ijobiy o'rin tutganligini e'tirof etish lozim.

Sovet davri mafkurachilari Islom dini va ulamolarini xususan Ulug'bek davrida katta obro'-e'tiborga, va boylikka ega bo'lgan din rahnamosi Xoja Ahrori Valini jaholatparast, har qanday ilm-fanga, taraqqiyotga qarshi bo'lgan qora kuchlarni timsoli sifatida gavdalantirar edilar.

Mustaqillik sharofati bilan Xoja Ahrori Vali tarixini xolis o'rganish bu kabi ayblovlar ul zotga nisbatan g'irt tuhmat, bo'hton ekanligini ko'rsatdi.

"Umarshayx Mirzo Shosh-Toshkant aholisidan 250 000 dinor hajmidagi soliq talab qilganida Xoja Ubaydulloh bu mablag'ning hammasini o'zi to'labgina qolmay, balki unga qo'shimcha ravishda 70 000 dinorni ham soliq to'plovchilarga to'lagan"[4, 79].

Xoja Ahrori Valining o'zboshimcha temuriyzodalar o'rtasidagi urush-janjallarning oldini olishdagi xizmatlari ayniqsa e'tiborga loyiqdir:

Farg'ona hukmdori Umarshayx Mirzo Sulton Mahmudjon bilan birga Mirzo Ahmad ustiga yurish qilganida Hoja Ahrori Valining o'rta tushishlari bu urushning oldini oldi va ikki o'rtada sulh tuzildi[4, 83-85].

Hoja Ahrori Vali o'zining oddiy xalqqa, mehnatkashlarga yordam, himmat ko'rsatish borasidagi sa'y-harakatlari tufayli xalqning mehr-u muhabbatini qozondi. Ko'pchilik dehqon-yer egalari o'z yerini Hoja Ahrori Valiga nazr qilar, Hoja esa yerni o'z egasiga hadya qilar, natijada rasman Hoja mulkiga aylangan yerdan endi faqatgina "ushr" -hosilning o'ndan bir qismi miqdoridagina soliq olinar edi[4, 76].

Mirxondning "Ravzat us-safo" asarida Xoja Ahrori Valining xalqqa qilgan yana bir katta yaxshiligi haqida xabar beriladi:

"Hazrat Xoja Ubaydulloh Hirotga, Sulton Abu Sa'id huzuriga kelib, Samarqand va Buxoro uchun tamg'a solig'ini bekor qilishni iltimos qildilar. Podshoh Xoja hazratlari iltimoslarini qabul

qilib, Samarqand va Buxoro viloyatlarining juda katta mablag'ni tashkil etuvchi va podshohlik xazinasiga tushuvchi tamg'a solig'ini bekor qildilar"[5, 78-79].

O'rta Osiyo-Movarounnahrda Hoja Ahrori Valiga o'xshagan, xalq orasida, hukmdorlar orasida katta obro'-e'tibor qozongan shayxlar, ulamolar ko'p edi. Shunday dongdor shayxlardan biri Azizon-Qosim Shayx hazratlari ham hukmdorlar orasida juda katta obro'-e'tibor qozongan va shu sababli ko'plab urushlarning oldini olishda hissa qo'shgan edi. Masalan, 1551-yilda Toshkent va Turkiston hokimi Navro'z Ahmadxon bilan Abdullaxon II-o'rtasidagi urushni sulh-yarashga aylantirishda ikki tomonning ulamolari vositachilik qildilar:

"Taraflar o'rtasidagi urush o'n ikki kun davom etgach, dushmanlar ishlar bitmasligini anglashdi. Odam yuborib valiylik panohi Darvesh Shayx Aliobodiyni keltirdilar hamda Karmana qal'asi ichidagi hazrat Qosim Shayx Azizon xotirasiga yuzlanib, o'sha yerda ikki tomondan ahd-u paymon yuzaga chiqdi"[6, 164].

Temuriylar va ulardan keyingi sulolalar davrida yuz bergan "davr" ning "inqiroz – parokandalik" bosqichida ruhoniylarning jamiyat hayotida tutgan o'rni yolg'iz shular bilan cheklanib qolmaydi. "Davr"ning inqiroz parokandalik bosqichida dunyoviy davlat bajarishi kerak bo'lgan vazifalarning deyarli barchasi, juda bo'lmaganda bir qismi endi din rahnamolari-ulamolar zimmasiga tushadi.

Tahlillarning ko'rsatishicha vatanimizning tog'li va tog' oldi qir adirlarida soylar va buloqlar suvi hisobiga dehqonchilik qilinadigan qishloqlar aholisining hatto bugungi kunlarda ham katta daryolardan suv ichadigan vohalar aholisiga nisbatan dinga, ulamolarga munosabati boshqacharoqdir.

Ma'lumki, soylar va buloqlar suvi hisobiga olib, boriladigan dehqonchilik jamiyatni bir butun qilib birlashtirish vazifasini to'la-to'kis bajara olmaydi. Bunday hududlarda o'tkaziladigan barcha tadbirlardan tortib oilaviy muammolariga shu hududning imomi, eshoni aralashuvi bilan hal etiladi.

Iqtisodida sug'orma dehqonchilik yetakchi bo'lgan barcha jamiyatlarda "davr"ning "inqiroz-parokandalik" bosqichida dunyoviy hokimiyatning zaiflashuvi diniy hokimiyatning kuchayishiga olib keladi.

Masalan, Xitoyda eramizning III-asri boshiga kelib, Xan imperiyasi tushkunlikka uchradi. Xuddi shu paytdan boshlab Xitoyda Konfutsiychilik o'zining avvalgi obro'-e'tiborini yo'qota boshladi. Konfutsiychilik o'rnini endi buddaviylik egallay boshladi. III-IV asrlarda poytaxt shaharlar Loyana va Chanani atrofida 180 ga yaqin budda ibodatxonalari faoliyat yuritib kelgan bo'lsa, V asr oxiriga kelib, Sharqiy Szin davlatida ularning soni 1800 taga yetib, bu ibodatxonalarda tarki-dunyo qilgan 24 000 monax xizmat qilar edi.

Qadimgi Misr tarixida ham bir necha marotaba yuksalish va inqiroz-parokandalik yuz bergan. Ana shu inqiroz-parokandalik jarayonlarining har birida kohinlar kuchaygan va mamlakatdagi yetakchi kuchga aylangan[7, 236].

Dunyoning boshqa mintaqalarida ham dunyoviy hokimiyat jamiyatni birlashtirish vazifasini uddalaydigan darajada kuchli bo'lmagan hollarda bu vazifani diniy hokimiyat o'z zimmasiga oladi. Masalan, G'arbiy Ovrupo tabiiy jug'rofiy sharoiti-sernam va mo'tadil iqlimi bu yerda lalmikor dehqonchilikni asosiy ishlab chiqarish usuliga aylantirgan.

O'rta asrlarning boshlarida lalmikor dehqonchilik va natural xo'jalik G'arbiy Ovrupada siyosiy tarqoqlikni keltirib chiqardi.

Ya'ni, bu yerdagi dunyoviy hokimiyat zaif, demak jamiyatni jamiyat sifatida birlashtirish imkoniyatiga ega emas edi. Qoidaga muvofiq dunyoviy hokimiyat bajara olmayotgan bu vazifani, ya'ni, jamiyatni jamiyat sifatida birlashtirish vazifasini Katolik cherkovi o'z zimmasiga olgan edi. Oradan bir necha asr o'tib G'arbiy Yevropada dehqonchilik madaniyatining o'sishi bilan dehqonlar qo'lida ortiqcha, ya'ni, sotishga mo'ljallangan don paydo bo'ldi.

Shaharlarda don sotilishi, shahar bilan qishloq o'rtasida, turli viloyatlar, hududlar o'rtasida savdo-sotiqning kuchayishi bilan Yevropada milliy davlatlar paydo bo'ldi. Endi jamiyatni birlashtirish, uyushtirish vazifasini dunyoviy davlat o'z zimmasiga oldi. Dunyoviy davlatning yildan-yilga kuchayib borishi Katolik cherkovining hukmronligini asta-sekinlik bilan pasaytirib bordi, yangi davrga kelganda Katolik cherkovining uyushtiruvchilik, birlashtiruvchilik vazifasiga ehtiyoj qolmadi. Chunki endi bu vazifani dunyoviy davlat o'z zimmasiga to'liq oldi.

Xulosa sifatida ayta olamizki, sho'rolar davrida temuriylar va ulardan keyingi davrlarda jamiyatning taraqqiyotda orqaga ketishiga islomiy aqidalarga o'ta berilish, aqidaparastlik, diniy jaholatni sabab qilib ko'rsatilishi haqiqatga mutlaqo to'g'ri kelmaydi.

Bizni ko'p yillar davomida "senlarning xonlaring, amirlaring, saroy a'yonlaring zolim, savodsiz, johil bo'lishgan, ruhoniylaring, eshonlaring aqidaparast, taraqqiyotga qarshi bo'lishgan, shuning uchun ham senlar taraqqiyotdan orqada qolib ketgan edilaring. Mana biz senlarni shular zulmidan qutqardik, ..." degan gaplarga ishontirib kelishdi.

Bizni bu gaplarga shu qadar ishontirishdi-ki, hatto shu kunlarda ham o'sha gaplarni takrorlab yurganlar bor.

Biz qachongacha bu gaplarga ishonib yashaymiz? Qachon o'zimizning xolis, bizga milliy g'urur baxsh etadigan tariximizni yaratamiz?

Buning uchun: Prezidentimiz aytganlaridek kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini ochish va tariximizni ana shu qonuniyatlar asosida o'rganish;

Yoshlarimizning milliy g'urur-iftixor ruhida tarbiyalash.

Ha aytganча, yoshlarimizni milliy g'urur-iftixorli qilib tarbiyalash uchun ham haqiqiy tariximizni yaratishimiz lozim[8, 78].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent. "O'zbekiston", 2022.
2. Ibn Arashoh. Amir Temur tarixida taqdir ajoyibotlari. . – Toshkent. 1992.
3. Mannonov B. Ostonova G. Kamoliddinov A. Amir Temurning Turkiy yorlig'ini. . – Toshkent. 2005.
4. Valixo'jayev B. Xoja Ahrori Vali. – Samarqand.1993.
5. Mirxond. Ravzat us-safo. Valixshjayev B. Hoja Ahrori Vali. - Samir 1993.
6. Muhammadyor Ibn Arab Qatag'on Musahhir al-bilod. T-2009.
7. Avdiyev V.I. Qadimgi Sharq tarixi. T-1964.
8. O'zbekiston tarixi. 9-sinf uchun darslik. O'rta Osiyo davlatlarining taraqqiyotda orqada qolish sabablari va oqibatlari. T. 2018.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

STAGES OF STUDY OF THE HISTORY OF CENTRAL ASIA IN THE EARLY MIDDLE AGES IN ENGLISH LANGUAGE RESEARCH

Kholmatov Shukurillo Ziyoviddin o'g'li

PhD researcher at the Fergana State University
Faculty of History

Abstract. This article offers an examination of the stages in the study of the Arab Caliphate's conquest of Central Asia, along with an analysis of selected English-language scholarly works devoted to the subject. Particular attention is given to the contributions of researchers such as Sir Thomas Arnold, Fred M. Donner, Patricia Crone, and C.E. Bosworth, highlighting the content of their works and the noteworthy perspectives they advance.

Keywords: Central Asia, Europe, Eastern countries, England, Arab Caliphate, Orientalism, Sir Thomas Arnold, Fred M. Donner, Patricia Crown, C.E. Bosworth, Western Europe, UK, East Indies, British Orientalist A.D. H. Bivar, Qutayba ibn Muslim.

INGLIZ TILLI TADQIQOTLARDA ILK O'RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYO TARIXINING O'RGANISH BOSQICHLARI

Xolmatov Shukurillo Ziyoviddin o'g'li

Farg'ona Davlat Universteti
Tarix fakulteti tayanch doktoranti
E-mail: alpinisth@gmail.com
<http://orcid.org/0009-0003-3436-2405>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Arab xalifaligi tomonidan Markaziy Osiyo istilosining o'rganilish bosqichlari haqida va unga bag'ishlangan ingliz tilida yaratilgan ilmiy adabiyotlar haqidagi ayrim fikr mulohazalar va tahlillar ilgari surilgan. Jumladan, Ser Tomas Arnold, Fred M. Donner, Patrisiya Kroun, C.E. Bosworth kabi tadqiqotchilar asarlarining mazmuni hamda ulardagi e'tiborga molik fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Yevropa, Sharq mamlakatlari, Angliya, Arab xalifaligi, Sharqshunoslik, Ser Tomas Arnold, Fred M. Donner, Patrisiya Kroun, C.E. Bosworth, G'arbiy Yevropa, Buyuk Britaniya, Ost Indiya, Britaniyalik sharqshunos A.D. H. Bivar, Qutayba ibn Muslim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N18>

Kirish. Markaziy Osiyo qadim va o'rta asrlarda sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lib, Xitoyni G'arb bilan bog'lagan muhim savdo va madaniy aloqalar markazi bo'lgan. Hozirgi O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Xitoyning Sintszyan viloyati hududlarini o'z ichiga olgan ushbu mintaqa, tarix davomida Kambiz, Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy), Temur va ularning vorislari tomonidan zabt etilgan. Bu hududda siyosiy hokimiyat turk xalqlariga tegishli bo'lsa-da, madaniyat asosan eroniy ta'sirida bo'lib qolgan. Dastlabki polyteistik dinlar o'rniga Zardushtiylik, Buddizm va Islom kirib kelgan. Savdogarlar afsonaviy ipak yo'li atrofida savdo imperiyalarini barpo etgan. Sovet Ittifoqi parchalanishidan

keyin Markaziy Osiyo xalqlari o'z meroslarini qayta kashf etishga harakat qilmoqda, bu esa, Eron, Xitoy va Hindiston madaniy elementlarining uyg'unlashganligini ko'rsatadi.[1]

Ma'lumki, Yevropada o'rta asrlarning oxirlarida yuzaga kelgan Renessans boshqa sohalar bilan birgalikda sharqshunoslik fanining ham rivojlanishiga, sharq mamlakatlariga bo'lgan qiziqishlarning oshishiga, undan tashqari, mintaqada yuz bergan sanoat taraqqiyoti siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga ko'ra sharq mamlakatlarini tadqiq etish uchun muhim omil bo'ldi. Yevropada sharq mamlakatlarini o'rganishni dastlab fransuzlar boshlagan bo'lsalar, keyinchalik ingliz va nemislar katta hajmdagi tadqiqot ishlarini olib borib, sharqshunoslikka oid yirik ilmiy manbaga ega bo'ldilar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ilk o'rta asrlardan boshlab esa Yevropa jamiyatida Sharq mamlakatlariga qiziqish tobora ortib borgan. Markaziy Osiyo tarixi va tarixshunosligi ingliz tilida keng o'rganilmoqda. Bu mintaqaning boy va rang-barang o'tmishi ko'plab ilmiy tadqiqotlarga asos bo'lgan. Markaziy Osiyo qadimdan Sharq va G'arbni, Shimol va Janubni bog'laydigan yo'llarning kesishuvida joylashgan bo'lib, strategik ahamiyatga ega hudud hisoblanib kelgan. Shuning uchun jahonning qudratli va buyuk davlatlari, shu jumladan, Yevropa mamlakatlari bu mintaqaning tarixi va madaniyatiga har doim qiziqish bildirib kelgan va haligacha qiziqishda davom etmoqda.

Hozirgi kunga qadar jahon tarixshunosligida va mamlakatimizda Markaziy Osiyo tarixi to'g'risida salmoqli ilmiy asarlar yaratilgan. Ushbu tadqiqotlarda Markaziy Osiyo tarixining ayrim jihatlari xususida jiddiy mulohazalar uchraydi.

Sharq davlatlari tarixi to'g'risida ma'lumot yozib qoldirgan fransuz orientalistlarining asarlarini Angliyada o'rganish XVIII asrda avj oldi. Bunga Afrika va Osiyo kabi qit'alarda yer-mulk uchun kurash asosiy omillardan biri bo'lgan. Ingliz sharqshunoslik maktabi ham davlat siyosatiga monand tarzda sharqning buyuk hukmdorlari faoliyatini haqida tadqiqot olib borishni kuchaytirgan.

Shotlandiyalik olim ser William Muir ingliz sharqshunosligida Arab xalifaligi va Islom tarixiga oid yirik manbalar yaratgan sharqshunos hisoblanadi. Ser Tomas Arnoldning "Caliphate"(Xalifalik) (1924) asari, Fred M. Donner — amerikalik mashhur tarixchi va islomshunos bo'lib, u dastlabki islom tarixi, xalifalik davridagi siyosiy va harbiy jarayonlar bo'yicha yetuk mutaxassislardan biri hisoblanadi. Donnerning eng muhim asarlaridan biri bo'lgan "The Early Islamic Conquests"(Ilk Islom istilolari)(1981) asari, o'sha davr haqida Patrisiya Kroun o'zining "Slaves on Horses: The Evolution of the Islamic Polity (1980)" nomli asarida xalifalik tuzilmalarining shakllanishi, markaziy va mahalliy hokimiyat o'rtasidagi murakkab aloqalari, Britaniyalik mashhur sharqshunos C.E. Bosworth (1928–2015) "The History of the Saffarids of Sistan and the Maliks of Nimruz"(Seiston Safforiylari va Nimruz maliklari tarixi)(1992) asari, Britaniyalik sharqshunos A. D. H. Bivarning asarlarida arablarning Markaziy Osiyoga bosqini haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Natijalar va muhokama. Ma'lumki, Yevropada o'rta asrlarning oxirlarida yuzaga kelgan Renessans boshqa sohalar bilan birgalikda sharqshunoslik fanining ham rivojlanishiga, sharq mamlakatlariga bo'lgan qiziqishlarning oshishiga, undan tashqari, mintaqada yuz bergan sanoat taraqqiyoti siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga ko'ra sharq mamlakatlarini tadqiq etish uchun muhim omil bo'ldi. Yevropada sharq mamlakatlarini o'rganishni dastlab fransuzlar boshlagan bo'lsalar, keyinchalik ingliz va nemislar katta hajmdagi tadqiqot ishlarini olib borib, sharqshunoslikka oid yirik ilmiy manbaga ega bo'ldilar.

XV asrning o'rtalarida Mayntsda harakatlanuvchi turdagi bosmaxona ixtirosi keyingi o'n yilliklarda Yevropaning german va roman til sohalarida kitoblarning misli ko'rilmagan tarqalishiga olib keldi.

Sharq davlatlari tarixi to'g'risida ma'lumot yozib qoldirgan fransuz orientalistlarining asarlarini Angliyada o'rganish XVIII asrda avj oldi. Bunga Afrika va Osiyo kabi qit'alarda yer-mulk uchun kurash asosiy omillardan biri bo'lgan. Ingliz sharqshunoslik maktabi ham davlat siyosatiga monand tarzda sharqning buyuk hukmdorlari faoliyatini haqida tadqiqot olib borishni kuchaytirgan.

Yevropa qit'asida millatlarni, ularning tarixi va madaniyatini o'rganishga qiziqish XVII asrda boshlangan va bir nechta ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot markazlari tashkil etilgan. "XVIII asrga kelib rus, arab va g'arbiy Yevropa mualliflarining o'zbeklar, qirg'izlar, qozoqlar, tojiklar va boshqalarga oid asarlari — tarix, etnografiya va boshqa mavzularni qamrab olgan asarlari allaqachon tarjima qilingan edi".[2]

XVIII asr oxiri – XX asr boshlarida sharqshunos atamasi Sharq dunyosining tillari va adabiyotlariga ixtisoslashgan olimni anglatardi. Bunday olimlar orasida amaldorlar ham bor edi Ost India kompaniyasi, Arab madaniyati, Hind madaniyati va Islom madaniyati Yevropa madaniyati bilan teng ravishda o'rganilishi kerakligini aytgan. Bunday olimlar orasida filolog ham bor Uilyam Jons tadqiqotlari Hind-Yevropa tillari zamonaviy filologiya asoslarini boshlab berdi. Ost Indiya kompaniyasi qoidasi Sharqshunoslik hindlar bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantirish va saqlash vositasi sifatida 1820-yillarga qadar, "anglikistlar"ning ta'siri Tomas Babington Makoley va Jon Styuart Mill G'arb uslubidagi ta'limni targ'ib qilishga olib keldi.[3]

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G'arbda, xususan Angliya va Fransiyada Sharqshunoslik (Orientalism) ilmiy maktablari shakllandi. Bu maktablar Islom dunyosi, jumladan Markaziy Osiyo bo'yicha olib borilgan dastlabki tizimli tadqiqotlarning asosi bo'ldi. Ingliz tilidagi tadqiqotlar asosan arab manbalariga tayangan holda yozilgan bo'lib, ular ko'pincha mustamlakachilik ruhidagi yondashuvlarni o'z ichiga olgan. Bu davr tadqiqotchilari – masalan, E.G. Browne, William Muir, va Hamilton Gibb kabi olimlar – Islom va musulmon tarixiga asosan filologik, sivilizatsion va ba'zan missionerlik nuqtai nazaridan qaraganlar.[4]

Britaniyadagi musulmon jamoalarining oshishi Markaziy Osiyodagi xalifalik faoliyatiga qiziqishni kuchaytirdi. Olimlar Qutayba ibn Muslim kabi shaxslarning harbiy yurishlari va istilodan keyingi madaniy sintezni o'rganishni boshladilar. Bu davrda ingliz tilida chop etilgan asarlar, masalan, Ser Tomas Arnoldning "Caliphate" (Xalifalik) (1924) asari, xalifalikning ko'p millatli islomiy tsivilizatsiyani shakllantirishdagi rolini ta'kidladi. Al-Tabariy xronikalarining tarjimalarining mavjudligi ushbu tadqiqotlarni yanada boyitdi va istilolar hamda ularning uzoq muddatli ta'sirlarini batafsil tahlil qilish imkonini berdi.[5]

XX asning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyoga arablar bosqini haqidagi tadqiqotlar bilan Amerikalik olimlar ham tadqiqot olib borishgan. Hususan, Fred M. Donner — amerikalik mashhur tarixchi va islomshunos bo'lib, u dastlabki islom tarixi, xalifalik davridagi siyosiy va harbiy jarayonlar bo'yicha yetuk mutaxassislardan biri hisoblanadi. U Chikago universiteti professori bo'lib, shuningdek, u Harvard va Yale universitetlarida ham dars bergan. Uning ilmiy yondashuvi zamonaviy tarixiy metodologiyaga asoslangan bo'lib, ayniqsa musulmon jamiyatlarining shakllanishi va ularning siyosiy-madaniy tuzilmalarini manbaviy asosda chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Donnerning eng muhim asarlaridan biri bo'lgan "The Early Islamic Conquests" (Ilk Islom istilolari) (1981) kitobida u musulmonlar tomonidan amalga oshirilgan VII–VIII asrlar istilolarini keng qamrovli tarzda tahlil qiladi. Asarda arab istilolari nafaqat harbiy yurishlar doirasida, balki ularning orqasidagi siyosiy, iqtisodiy va diniy motivlar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Muallifga ko'ra, arab istilolari yagona diniy sabablarga emas, balki xalifalikning moliyaviy barqarorligini saqlab qolish, yangi soliq bazalarini egallash va savdo yo'llarini nazorat qilish zarurati bilan ham bog'liq bo'lgan.

Amerikalik tadqiqotchilardan yana biri Daniyada tug'ilib AQShga ko'chib ketgan Patrisia Kroun hisoblanadi. U zamonaviy g'arb tarixshunosligining yetakchi vakillaridan biri bo'lib, u islomiy siyosiy institutlar va ilk musulmon davlatchiligi tarixini o'rganishda o'ziga xos, tanqidiy metodologiyasi bilan ajralib turadi. U ayniqsa islom sivilizatsiyasining shakllanish bosqichlari, xalifalik boshqaruvi va arablar tomonidan amalga oshirilgan istilolarni siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy kontekstda izohlagan.[6]

Kroun o'zining "Slaves on Horses: The Evolution of the Islamic Polity" (Ot ustidagi qullar: Islom siyosatining evolyutsiyasi) (1980) nomli asarida xalifalik tuzilmalarining shakllanishi, markaziy va mahalliy hokimiyat o'rtasidagi murakkab aloqalar, harbiy elitalarning siyosiy rolini keng tahlil qiladi. Asarning 18–26-betlarda u xalifalikdagi viloyatlar boshqaruvi va arab istilolari natijasida yuzaga kelgan yangi siyosiy muvozanatlar haqida fikr yuritadi. Garchi bu sahifalarda Markaziy Osiyo haqida bevosita ko'p misollar keltirilmagan bo'lsa-da, Kroun tomonidan ilgari surilgan nazariy g'oyalar, xususan, markaziy hokimiyatning mahalliy kuchlarga bog'liqligi, harbiy elitalarning davlat boshqaruvidagi ta'siri, viloyat hokimlari va ularning siyosiy avtonomiyasi masalalari Movarounnahr istilosining mohiyatini chuqur tushunishda juda muhimdir.[7]

XX asrdan boshlab G'arbiy Yevropada Arab xalifaligiga oid yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarning yanada rivojlanishiga mustamlakachilik siyosati turtki bo'ldi. Xususan, Buyuk Britaniya sharqshunoslari tomonidan Arab xalifaligi to'g'risida ilmiy mulohazalarni o'z ichiga qamrab olgan adabiyotlar yaratish kuchaydi. Masalan, Britaniyalik mashhur sharqshunos C.E. Bosworth (1928–2015) islomshunoslik va Eron hamda Markaziy Osiyo tarixiga oid tadqiqotlari bilan tanilgan. U uzoq yillar Birmingham universitetida professor lavozimida ishlagan va nufuzli Encyclopaedia of Islam nashrining ko'plab maqolalari muallifi hisoblanadi. Uning "The History of the Saffarids of Sistan and the Maliks of Nimruz" (Seiston Safforiylari va Nimruz maliklari tarixi) (1992) nomli fundamental asari arab istilosidan keyingi davrda Eronning janubi-sharqiy qismida (xususan, Seiston va Xuroson atrofida) shakllangan ilk mustaqil mahalliy sulolalardan biri bo'lgan Safforiylar davlatini tahlil qiladi. Asarning 80–95-betlarida arablar tomonidan joriy etilgan boshqaruv tizimining bu hududda qanday o'zlashtirilgani, mahalliy elitalar tomonidan qanday qayta talqin qilingani va bu tajribaning keyingi G'aznaviylar kabi sulolalar tomonidan qanday davom ettirilgani muhokama qilinadi. Bosworth ushbu sulolalarning o'z hokimiyatlarini qonuniylashtirishda arab–islomiy siyosiy merosdan foydalanganliklarini, lekin mahalliy urf-odatlarini ham saqlab qolishga intilganliklarini ko'rsatadi.[8]

Bu davrda ingliz tilli tadqiqotlar soni nihoyatda ko'p edi. Bunga sabab sifatida mustamlakachilik hududlarining katta qismida islomning ta'siri g'oyatda kattaligi sharqshunoslar tomonidan o'rganilishiga sabab bo'ladi. Ya'na bir mashhur olim Britaniyalik sharqshunos A.D. H. Bivar arablarning Markaziy Osiyodagi istilolari tarixiga oid muhim

tadqiqotlar muallifidir. Uning “The Arab Conquests in Central Asia”(Markaziy Osiyoga Arab istilosi)(1971) nomli maqolasi VII–VIII asrlarda arab qo‘shinlarining Movarounnahrqa qilgan yurishlarini tafsilotli tarzda yoritadi. Bivar o‘z asarida ayniqsa Qutayba ibn Muslimning harbiy strategiyasiga e‘tibor qaratadi.Asarning 35–47-betlarida u Sug‘d, Buxoro va Samarqand viloyatlariga qilingan yurishlarni muhokama qiladi. U Qutaybaning yurishlarini nafaqat harbiy g‘alabalar, balki murakkab muzokaralar, mahalliy zodagonlar bilan kelishuvlar va madaniy aloqalar nuqtai nazaridan tahlil qiladi.[9]

XX asrning boshlari Buyuk Britaniyada Islom madaniyatiga qiziqishning oshgan davri sifatida e‘tirof etiladi, bu esa mustamlakachilik munosabatlari, migratsiya va intellektual qiziqishlarning birlashuvi natijasida yuzaga keldi. Britaniyada, ayniqsa Janubiy Osiyo va Yaqin Sharqdan kelgan musulmon jamoalar sonining ko‘payishi, Arab xalifaligining tarixiy va madaniy merosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirdi.

Xulosa. Xulosa sifatida shunday deyish mumkin: ingliz tilli tadqiqotlarda Markaziy Osiyoning Arab xalifaligi tomonidan istilo qilinishi voqealari nafaqat mintaqa tarixining muhim burilish nuqtasi, balki global tarixiy jarayonlarning ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Ushbu tadqiqotlarda istilo jarayoni harbiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatlar bilan birga, islom sivilizatsiyasining mintaqaga kirib kelishi va uning keyingi taraqqiyotga ta‘siri keng yoritiladi. Shuningdek, mualliflar mintaqa xalqlarining qarshiligi, mahalliy boshqaruv tizimlarining moslashuvi hamda arab istilosining uzoq muddatli ijtimoiy-madaniy merosi haqida turli ilmiy yondashuvlarni taqdim etadilar. Natijada, bu mavzu Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda xalqaro ilmiy muloqotning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lib qolmoqda. Ingliz tilidagi tadqiqotlar va manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki: Arab xalifaligi istilosi Markaziy Osiyoda nafaqat harbiy yurishlar, balki hududiy siyosiy transformatsiya, dini hamda madaniy assimilyatsiya jarayonini boshlab berdi. Bu jarayon bir nechta bosqichdan iborat bo‘lib, dastlabki kuchli harbiy yurishlar, keyin esa mahalliy elitalarning integratsiyasi, iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar orqali islomiy davlat shakllanishiga olib bordi. Talas jangi orqali esa G‘arb bilan Sharq hukmronlik uchun birinchi marta to‘qnashgan va Markaziy Osiyo tarixining muhim burilishini bildirgan.Shunday qilib, Arab xalifaligi istilosi regionda yangi siyosiy, dini va madaniy tuzumning shakllanishiga zamin yaratdi, bu esa Samanidlar davrida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga yetdi.

Ayniqsa ser William Muir,ser Tomas Arnold, Fred M. Donner, Patrisiya Kroun, C.E. Bosworth va A.D.H. Bivar kabi tadqiqotchilar ning asarlarida ushbu masala arab, fors va xitoy tilli manbalar asosida jiddiy tahlil qilinadi hamda ilmiy xulosalar beriladi.

Yevropa, Rossiya va arab olimlarining izlanishlarida Markaziy Osiyo,arablar uchun nafaqat geosiyosiy, balki mafkuraviy qulay hudud sifatida ham talqin etiladi. Bu munosabatlar musulmon olamining shimoliy chegaralarida Islomning yoyilish jarayoni va unga bo‘lgan mahalliy qarshilik kontekstida o‘rganiladi.

Xorijiy adabiyotlarda bu davr hodisalari ko‘plab manba va uslublar asosida yoritilgan bo‘lib, ular asosida Markaziy Osiyoni arablar tomonidan bosib olinishi emas, balki murakkab diplomatik, madaniy va iqtisodiy aloqalar tizimi sifatida ham ko‘rilmoqda. Shunday qilib, bu munosabatlar tarixini chuqur va ko‘p qirrali tahlil qilish, Markaziy Osiyo tarixini global kontekstda to‘g‘ri anglashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot ishida Buyuk Britaniyada Markaziy Osiyoni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi tadqiqot muassasalari hamda mintaqaga oid tadqiqot materiallarini chop etuvchi nashriyotlar faoliyati yoritiladi. Geografik va strategik muhim

nuqtada joylashgan mamlakat manfaati nuqtai-nazaridan qaraganda, mintaqani turli tomonlama o'rganayotgan va tadqiq qilayotgan muassasalarning faoliyatini o'rganish mavzuning dolzarb tomonlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. The Heritage of Central Asia: From Antiquity to the Turkish Expansion - Richard N. Frye 1998
2. Masaliyeva O. XX asr ingliz-amerika tarixshunosligida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tarixi. Tarix fanlari nomzodi i. d. ... diss. – T., 1999. 16-b
3. Macfie, A. L. (2002). Orientalism. London: Longman. P 1-2
4. <https://en.wikipedia.org/wiki/Orientalism>
5. Arnold, Thomas. The Caliphate. Oxford University Press, 1924
6. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Кроун, Патрисия>
7. Crone, Slaves on Horses: The Evolution of the Islamic Polity 1980, pp. 18–26
8. Bosworth, The History of the Saffarids of Sistan and the Maliks of Nimruz 1992, p. 84
9. Bivar, The Arab Conquests in Central Asia 1971, p. 39

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE ROLE OF WOMEN IN THE SOCIOECONOMIC LIFE OF UZBEKISTAN AND ISSUES OF GENDER EQUALITY (HISTORICAL AND SOCIAL ANALYSIS. 1991–2025)

Djurayev Baxtiyor Rajaboyevich

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
Scientific Researcher

Abstract. This article examines the role of women in the socioeconomic life of Uzbekistan and issues of gender equality. It describes the ongoing reforms and some challenges in entrepreneurship, women's participation in the farmers' movement, women's involvement in the sector, and women's employment. The article also focuses on women's activities in the mahalla, the role of women in youth education, their participation in sociopolitical processes, and measures taken to ensure equality between women and men.

Keywords: women, socioeconomic life, gender equality, mahalla, ideological education, employment, entrepreneurship, farming, reform, service sector, unemployment.

O'ZBEKISTON IJTIMOY-IQTISODIY HAYOTIDA AYOLLARNING O'RNI VA GENDER TENGLIGI MASALALARI (TARIXIY-IJTIMOYIY TAHLIL. 1991-2025-YY)

Djurayev Baxtiyor Rajaboyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Ilmiy tadqiqotchisi

E-mail: baxtiyorjurayev1977@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ayollarning o'rni va gender tengligi masalalari yoritilgan. Unda ayniqsa tadbirkorlik, fermerlik harakatida ayollar ishtiroki, sohaga ayollarni jalb qilish, ayollar bandligini ta'minlash borasida amalga oshirilagan izchil islohotlar va ayrim muammolar bayon qilingan. Maqolada ayollarning mahalla faoliyati, yoshlar tarbiyasidagi o'rni, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki hamda ayollar va erkaklar tengligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora tadbirlarga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ayollar, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, gender tenglik, mahalla, g'oyaviy tarbiya, bandlik, tadbirkorlik, fermerlik, islohot, xizmat ko'rsatish, ishsizlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N19>

Kirish. Mustaqillik yillaridan boshlab O'zbekiston jamiyatida ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi o'rni yangi bosqichga ko'tarildi. Ayollarni davlat va jamiyat boshqaruvi tizimiga keng jalb etish, ularning tadbirkorlik, fermerlik va xizmat ko'rsatish sohalaridagi faolligini oshirish, bandligini ta'minlash hamda gender tengligini qaror toptirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda bu borada qabul qilingan qator normativ-huquqiy hujjatlar, xususan Prezident farmonlari va qarorlari, milliy strategiyalar hamda xalqaro majburiyatlar ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning mustahkam huquqiy asosini yaratdi.

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida gender tenglik nafaqat ijtimoiy adolat tamoyilining ifodasi, balki barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Ayollarning mehnat bozoridagi oʻrni, ularning iqtisodiy mustaqilligi, tadbirkorlik va boshqaruvdagi ishtiroki nafaqat oilaviy farovonlik, balki jamiyat barqarorligining kafolati sifatida eʼtirof etilmoqda. Shu jihatdan, 1991–2025-yillar oraligʻida Oʻzbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ayollarning faolligini oshirishga xizmat qilgani holda, ayrim tizimli muammolar hamon dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — mustaqillik davrida Oʻzbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ayollarning oʻrni, gender siyosati va tenglikni taʼminlashga qaratilgan islohotlarni tarixiy va ijtimoiy kontekstda tahlil qilish, mavjud natijalar va muammolarni aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mavzu boʻyicha oʻtkazilgan ilmiy tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, mustaqillik yillarida ayollarning jamiyatdagi oʻrni masalasi iqtisodchi, sotsiolog va tarixchi olimlarning izlanishlarida turlicha yondashuvlarda yoritilgan. Jumladan, A.V. Gonorskaya (2002) oʻz tadqiqotida xotin-qizlarning bandligini nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati bilan bogʻlab, ularning mehnat bozoridagi salohiyatini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. M.X. Shamsiyeva (2019) esa ayollarni ijtimoiy himoya qilishda davlat va NNTlarning oʻrni, ularning hamkorlik mexanizmlari hamda natijadorlik koʻrsatkichlarini ochib bergan.

Milliy adabiyotlarda esa gender tenglik masalalari koʻproq huquqiy-siyosiy va ijtimoiy-maʼnaviy kontekstda oʻrganilgan (Quronov va boshqalar, 2009; Ubaydullayeva, 2006). Shu bilan birga, ayrim xorijiy manbalarda (BMT, UNDP, UN Women hisobotlari) Oʻzbekistonning gender tenglik boʻyicha xalqaro reytinglardagi oʻrni, siyosiy vakillik darajasi va iqtisodiy faollik koʻrsatkichlari tahlil qilingan.

Metodologik jihatdan maqola tarixiy, ijtimoiy-tahliliy va statistik yondashuvlarga tayanadi. Tadqiqotda quyidagi metodlar qoʻllanilgan:

- Tarixiy-komparativ metod — 1991–2025-yillar oraligʻidagi gender siyosati bosqichlarini qiyosiy tahlil qilishda;
- Sotsiologik yondashuv — ayollarning jamiyatdagi faolligi, mahalla va oila institutlaridagi roli, bandlik holatini aniqlashda;
- Normativ-huquqiy tahlil — Prezident farmonlari, qarorlari hamda “Oʻzbekiston–2030 strategiyasi”da belgilangan gender siyosatini oʻrganishda;
- Statistik tahlil — ayollar bandligi, tadbirkorlik va rahbarlik lavozimlaridagi ulushi boʻyicha raqamli maʼlumotlarni tahlil qilishda.

Ushbu metodlar yordamida ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi ishtiroki bosqichma-bosqich tahlil qilinib, ularning jamiyatdagi mavqeyini oshirishdagi davlat siyosatining samaradorlik darajasi aniqlanadi.

Muhokama va natijalar. Oʻzbekistonda olib borilayotgan keng koʻlamli islohotlar natijasida ayollarning davlat va jamiyat hayotidagi faolligi va mavqeyi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu jarayon Yangi Oʻzbekistonning zamonaviy qiyofasida yaqqol namoyon boʻlmoqda. Ayollarga hurmat va gʻamxoʻrlik koʻrsatish esa xalqimizning ezgu va olijanob qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi oʻrnini mustahkamlash yoʻlida amalga oshirilayotgan izchil va asosli islohotlar ushbu qadriyatlarining amaliy ifodasidir. Oʻzbek

xalqining milliy mentalitetida esa jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhitning barqarorligi va taraqqiyoti, avvalo, ayollarga bo'lgan munosabat orqali baholanishi bejiz emas.

Bu borada ayniqsa 2018-yil 3-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni va 2025-yil 14-martdagi "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori ayollarning davlat va jamiyat hayotidagi o'rnini har tomonlama qo'llab quvvatlashga xizmat qildi [1].

Agar mustaqillik yillari tarixiga e'tibor qaratsa, O'zbekiston mustaqilligining ilk damlarida, ya'ni 1991-yilda xalq xo'jaligi og'ir mehnatida ayollarning bandligi 47% ni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilga kelib bu ko'rsatkich 42, 5% ga qisqargan[2, B. 52]. Ya'ni, ayollar o'sha paytdagi qo'l mehnatidan keyinchalik xizmat ko'rsatish, boshqaruv, tadbirkorlik, fermerlik harakati, agrar sohalarga kirib borganlar. Ya'ni, ular faoliyati kengayib, turli sohalardagi nufuzi ortgan. Turli sohalar rivojida ayollarning o'rne xususida mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, O'zbekiston Qahramonlari fidoyi ayollar Xalchaxon Mirzayeva, Patilaxon Ergasheva, Siyosatxon Abdullayeva, Muyassar Temirova, Martiya Rahmatova barchaga o'rnak va namuna bo'lib kelmoqdalar. Ayniqsa davlat boshqaruvi, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi sohalari va ishlab chiqarishda ayollarning o'rne baland ekanligi fikrimizning yaqqol tasdig'idir.

Yangi O'zbekistonda 2017-yildan e'tiboran yilga kelib ayollar faoliyati taraqqiyotning yangi bosqichiga kirdi. Bunda bu borada ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ular orasida eng yangi hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori muhim ahamiyat kasb etdi[3]. Ushbu qaror asosida 2025-yilda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib quyidagilar belgilandi:

- (a) 2 million nafar xotin-qizlarning bandligini ta'minlash;
- (b) 250 ming nafar xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish;
- (v) 250 ming nafar xotin-qizlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish;
- (g) 50 ming nafar ehtiyojmand xotin-qizlarni sanatoriylarda sog'lomlashtirish hamda ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish masalalari belgilandi.

2000-yilning ikkinchi yarmidan boshlab xotin-qizlarga diniy bilimlar va milliy diniy an'analar asosini egallashda yordam ko'rsatish, xotin – qizlarni diniy bag'rikenglik, barcha boshqa diniy konfessiyalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash, jamiyatda diniy va dunyoviy qarashlar qarama – qarshiligiga yo'l qo'ymaslik, diniy ekstremizm va aqidaparastlikning mamlakatimizdagi osoyishta hayot va ijtimoiy siyosiy barqarorlikni buzishga qaratilgan, g'ayriinsoniy, zararli g'oyalarning jamiyatda tarqalishiga qarshi kurashish masalalariga alohida e'tibor qaratila boshlandi [4, 5-6. b].

Shu yo'nalishda hududlarda "Mahalla fuqarolar yig'inining diniy ma'rifat hamda ma'naviy-axloqiy masalalari bo'yicha maslahatchilari" lavozimi joriy etilgan edi. Ushbu lavozimga aholining hurmat-e'tiboriga sazovor, milliy va diniy an'analar, urf-odatlar borasida boy tajribaga ega, o'z xulqi bilan boshqalarga namuna bo'la oladigan, aholiga yaqin ayollarni tayinlash belgilangan.

Ya'ni, mahalla raisi maslahatchisi lavozimining maqsadi quyidagilardan iborat bo'ldi:

-mahalla hududidagi aholi, birinchi navbatda, yoshlar ongida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish;

- namunali, milliy, diniy an'analar hamda urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish;

- jamiyatda ma'naviy muhit barqarorligini hamda millatlararo do'stlik va hamjihatlik ishlarini tizimli tarzda amalga oshirish kabilar[5].

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23-oktyabr 2008-yildagi 17-26-68-son "Diniy ekstremizm va missionerlikning oldini olish yuzasidan 2008-2009-yillarga mo'ljallangan idoralararo chora- tadbirlar rejasi" ham muhim qadam bo'ldi. Unda "yoshlarga diniy bilimlar va milliy-diniy an'analar asoslarini egallashda yordam ko'rsatish, ularni diniy bag'rikenglik, barcha boshqa diniy konfessiyalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash, jamiyatda diniy va dunyoviy qarashlar qarama-qarshiligiga yo'l qo'ymaslik, diniy ekstremizm va aqidaparastlikning mamlakatimizdagi osoyishta hayot va ijtimoiy siyosiy barqarorlikni buzishga qaratilgan, g'ayriinsoniy, zararli g'oyalarning jamiyatda tarqalishiga qarshi kurashish" davlat va nodavlat tashkilotlariga alohida vazifa sifatida yuklatildi.

Ayollarga hurmat va e'tibor ko'rsatish xalqimizning ezgu va olijanob fazilatlaridan biri sifatida e'tirof etilib, ayniqsa mahalla darajasida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeini mustahkamlash yo'lida davlat miqyosida tarixiy ahamiyatga ega ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa olib borilayotgan islohotlarning chuqur hayotiy asosga ega ekanini ko'rsatadi. Jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy muhitning barqarorligi hamda taraqqiyoti ko'p hollarda ayollarga va oilaga bo'lgan munosabat darajasi bilan belgilanayotgani bejiz emas.

Mahallada ma'naviy-g'oyaviy tarbiya ishlarini tashkil etish va unga doir chora-tadbirlar ishlab chiqishda, yoshlar orasida mafkuraviy profilaktika olib borishda ayollarning roli alohida ahamiyatga ega. Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3434-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining mazkur Farmon ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari dasturi to'g'risidagi 2004-yil 29-iyundagi 299-sonli qarorida "Xotin-qizlarga diniy bilimlar va milliy diniy an'analar asosini egallashda yordam ko'rsatish, xotin - qizlarni diniy bag'rikenglik, barcha boshqa diniy konfessiyalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash, jamiyatda diniy va dunyoviy qarashlar qarama - qarshiligiga yo'l qo'ymaslik, diniy ekstremizm va aqidaparastlikning mamlakatimizdagi osoyishta hayot va ijtimoiy siyosiy barqarorlikni buzishga qaratilgan, g'ayriinsoniy, zararli g'oyalarning jamiyatda tarqalishiga qarshi kurashish" vazifalari belgilangan[4, 5-6. b].

Mazkur qaror va uning ijrosini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy hamda targ'ibotga oid chora-tadbirlar Dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida joylarda "Mahalla fuqarolar yig'inining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy masalalari bo'yicha maslahatchilari" lavozimi joriy etilishi belgilandi. Ushbu lavozimga esa aholining hurmat va ishonchiga sazovor bo'lgan, milliy va diniy an'analar, urf-odatlar borasida boy tajribaga ega, shuningdek, o'z fazilati bilan boshqalarga namuna bo'la oladigan ayollarni tayinlash ko'zda tutilgan.

Ya'ni, mahalla raisi maslahatchisi lavozimining maqsadi quyidagilardan iborat bo'ldi: fuqarolar yig'ini hududidagi aholi, birinchi navbatda, yoshlarda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ibratli milliy, diniy an'analar hamda urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish, ma'naviy

muhit barqarorligini hamda millatlararo do'stlik va hamjihatlik ishlarini tizimli tarzda amalga oshirish maslahatchi faoliyatining asosini tashkil qiladi [5].

Yaqin tariximizda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ularning ish sharoitlarini yaxshilash, qulay bo'lgan mehnat turlari, ya'ni kasanachilikni rivojlantirish borasida ma'lum darajada tajriba to'plandi. Bundan tashqari xotin-qizlar o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yuzasidan Respublika xotin-qizlar qo'mitasi, Respublika "Tadbirkor ayol" uyushmasi bilan hamkorlikda ish olib borilishi natijasida 2000-yilga kelib tadbirkor ayollar soni 20 mingdan ortgan, mazkur uyushma tashkil topgandan 2010-yilgacha 18 ming nafardan ziyod xotin-qizga biznes yuritish asoslari o'rgatilib, avval ishsiz bo'lgan 12 ming nafar xotin-qizning kasb-hunar egallashiga ko'mak berilgan[6, b. 17].

"Tadbirkor ayol" Assosiativasi va uning hududiy bo'limlari tomonidan ayollarni ish bilan ta'minlash borasida 2000-yilda Andijon viloyati bo'limida 1000 nafar ayol kasblari bo'yicha qayta tayyorgarlikdan o'tkazilib, 3000 ayol ishga joylashtirilgan va 50 kishi o'zlarining tadbirkorlik faoliyatini boshlaganlar. Buxoro viloyati bo'limida 222 ishchi o'rni yaratilib, 120 nafar ayol ish bilan ta'minlangan, 90 ta ayolning mustaqil ish faoliyati bilan band bo'lishiga ko'maklashildi. Qashqadaryo viloyati bo'limida 1500 ayolga o'zlarining tadbirkorlik faoliyatlarini boshlashlariga ko'mak berildi, 500 nafar ayol esa kasbga qayta tayyorgarlikdan o'tib va malakalarini oshirganlar. Xorazm viloyati bo'limida 240 ishchi o'rin tashkil etildi va 150 nafar ayol ishga joylashtirilgan, 300 ayol kasbga qayta tayyorlangan.

Umuman, 1991-2009-yillar oralig'ida respublikada tadbirkor ayollar 120 mingdan ortiq kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini boshqarganlar[7, 174-175 b]. Bu shubhasiz, respublika ichki bozorini mahsulotlar bilan to'ldirish, shu bilan birga ayollarga yangi ish o'rinlarini yaratish borasida talay ijobiy ishlar amalga oshirib kelinganligini ko'rsatdi. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashda ayollar boshqaruvi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Shu yo'nalishda, 2012-yil 22-oktyabrda qabul qilingan "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni fermerlik harakatini rivojlantirishda ayollarning ishtirokini kuchaytirish hamda bu jarayonda demokratik tamoyillarga asoslangan samarali boshqaruv tizimini shakllantirish zarurligini belgilab berib, muhim siyosiy va amaliy ahamiyat kasb etdi.

Farmonda ta'kidlaganidek, mamlakatimizda fermerlik harakati qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchisiga hamda agrar sohani va u bilan bog'liq bo'lgan boshqa tarmoqlarni hamda ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, shuningdek, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish uchun mas'uliyatini o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan ayollar jamiyatimizda yetakchi kuchga aylanib borayotganligi uqtirilgan. Keyingi yillarda mamlakatda ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi faoliyati, ayniqsa iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish masalasida ham ancha o'sishga erishilgan. Masalan, bugungi kunda O'rganish natijalari mamlakatimizda tuzilmaviy va institutsional o'zgarishlar izchil davom etayotganini, gender tenglik sohasidagi qonunchilik takomillashtirilayotganini, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni va mavqeyi ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Agar raqamlarga murojaat qilinsa 2024-yil 1-yanvargacha siyosiy partiyalarda xotin-qizlar ulushi 47 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlik faoliyatida esa 37 foizga yetdi. Rahbar lavozimlarda ishlayotgan ayollar ulushi — 33 foiz. Bugungi kunda 2 mingga yaqin davlat va jamoat tashkilotlariga ayollar rahbarlik qilmoqda. Bundan tashqari, mamlakat

Senatini ayol kishi boshqarmoqda. 2021-yilda O'zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi (deyarli ikki baravar o'sgan). Ushbu ko'rsatkich bo'yicha dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarilganining o'ziyoq ayollarning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni ortib borayotganligini tasdiqlaydi [8].

Ayollarga e'tibor, ularni e'zozlash, ehtirom ko'rsatish o'zbek xalqiga xos olijanob xususiyatlardan biridir. Shu ma'noda, O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilayotgani chuqur hayotiy asosga ega. Jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan ayollarga, oilaga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan belgilanishi bejiz emas.

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, respublikamizning ayrim kasb-hunar kollejlari bitiruvchi qizlari orasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma asosida o'qishni bitirib ushbu sohada ishlashini, ya'ni fermer bo'lishni ayrim qizlar istaydilar, biroq mehnatning bu turiga intiluvchilar ulushi uncha ko'p emas: yigitlarda- 16,9%, qizlarda-6,4 %. Boshqacha aytganda, hozirgi davr qishloq yoshlari mehnatning qishloq xo'jaligi turiga qiziqishni yo'qotmoqdalar. O'qishni davom ettirishni xohlaydigan o'quvchilar orasida agronom bo'lishni istaydigan yigitlar hammasi bo'lib 33 nafar ekanligi (5,4 %), qizlardan birortasida bunday kasbga intilish yo'qligi buning isboti hisoblanishini hal etilishi lozim bo'lgan muammolardan biridir [9, b. 72-73].

Prezident Shavkat Mirziyoyev gender tenglik borasida Oliy Majlis Senatidagi nutqida kishilar ongidagi mavjud milliy stereotiplar xususida gapirib, sharq ayolini avvalambor ona, oila degan muqaddas qo'rg'onning qo'riqchisi sifatida hurmat qilmog'imiz to'g'ri bo'lishini, ammo har bir ayol jamiyat va davlatning oddiy bir kuzatuvchisi emas, balki mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha izchil demokratik islohotlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerakligini uqdirgan edi. Shu kuni Prezidentning taklifiga binoan, mamlakat tarixida ilk bor Senat raisligiga ayol kishi saylandi [10]. So'nggi yillarda respublikamizda gender tenglik masalasiga bag'ishlangan 25 ta qonun qabul qilindi. Mamlakat tarixida birinchi bor milliy Parlamentdagi xotin-qizlar soni oshib, ular BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston-2030 strategiyasi" da 25-maqsadda ayollar gender tengligi masalasi borasida alohida masalalar mavjud [11]. Strategiyada belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan "Ayollar qanoti" tomonidan 2024-yil davomida 3 500 ta tadbir tashkil etilib, ularda 260 mingdan ortiq xotin-qiz qamrab olindi. 2024-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga bo'lib o'tgan saylov natijasiga ko'ra, parlament quyi palatasiga O'zLiDePdan saylangan 64 nafar deputatdan 24 nafarini, ya'ni 38 foizini ayollar tashkil etadi. Mahalliy Kengashlarga saylangan 1875 nafar deputatdan 473 nafari xotin-qizlardan iborat. Shulardan, 68 nafari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga, 405 nafari tuman (shahar) Kengashlariga saylandi. Shu yili "Ayollar qanoti" tomonidan 20 ga yaqin loyihalar amalga oshirildi. Xususan, "Bunyodkor ayollar", "Sog'lom oila – mustahkam oila", "Farovon oila", "Namunali tomorqachi ayol – farovonlik bunyodkori", "Bir deputat – yuz ayolga ko'makchi!" loyihalari hamda "Ishbilarmon ayol" ko'rik-tanlovi, "O'zLiDeP ayollari – Yangi O'zbekiston bunyodkori!" loyihalari ana shular jumlasidandir [12].

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadi «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash», deb nomlanib, unda keyingi besh yil ichida amalga oshirilishi zarur bo'lgan ustuvor masalalar belgilandi. Ushbu

strategik dasturlarda belgilangan jamiyatimizda xotin-qizlarga nisbatan bo'layotgan tazyiq va zo'rvonliklarga nisbatan murosasiz bo'lish, ularning huquqlari manfaatlarini ta'minlash, gender tenglik siyosatini izchil davom ettirish, xotin-qizlarning turli yo'nalishlardagi faolligini oshirish, xotin-qizlarning ta'limning barcha ko'rinishlarida va kasb olishlari uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, ayollar tadbirkorligini kengaytirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etishini anglatadi. Respublikamizning barcha hududlarida, ayniqsa, qishloq hududlarida xotin-qizlarga berilayotgan xizmatlar, ayniqsa tibbiy-ijtimoiy xizmatlar turlarini yanada kengaytirish, ular orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga oid ishlar samaradorligini oshirish belgilangan[13].

Umuman olganda, jamiyatda ayollarga berilayotgan katta e'tibor tufayli bugungi kunda ularni nafaqat ijtimoiy himoya qilish, balki davlat va jamiyat boshqaruvida faol qatnashishini ta'minlash, shuningdek ishlab chiqarish, ayniqsa qishloq xo'jaligi sohalorida ularning ishtirokini kengaytirish va samarali foydalanish ko'zda tutilmoqda. Xulosa qilib aytganda, mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatimizda ayollarga nisbatan hurmat va e'tibor tobora oshib, ayniqsa tadbirkorlik, bandlik va agrar soha boshqaruvida ayollarning o'rni ancha mustahkamlandi. Shunga qaramay, mamlakatda xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi mavqeini yanada oshirish uchun hali ko'p ishlar qilinishi, ko'plab muammolar hal qilinishi lozim. Bunga ayollarning turli sohalardagi ishtirokini kengaytirish, ularga kredit va mikrocredit berishda imtiyozlar taqdim etish hamda xavfsiz va munosib mehnat sharoitlarini yaratish kiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda so'nggi o'ttiz yildan ortiq davr mobaynida gender tengligini ta'minlash va ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish yo'lida sezilarli yutuqlarga erishildi. Ayollar bandligini oshirish, ularni tadbirkorlikka jalb etish, oila va mahalla institutlari faoliyatida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan siyosiy va ijtimoiy islohotlar jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Biroq ayrim tizimli muammolar — ayollarning qishloq xo'jaligida yetarlicha ishtirok etmasligi, ayrim hududlarda bandlik imkoniyatlarining cheklanganligi, rahbarlik lavozimlarida ayollar ulushining pastligi kabi masalalar o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Shu boisdan, kelgusida quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

1. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun moliyaviy imtiyozlar va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
2. Qishloq joylarda ayollar bandligini oshirishga qaratilgan infratuzilma loyihalarini kengaytirish;
3. Gender tenglik siyosatini ta'lim tizimiga, ayniqsa yoshlar tarbiyasiga chuqur integratsiya qilish;
4. Ayollarni siyosiy va boshqaruv lavozimlarida qo'llab-quvvatlash bo'yicha institutsional mexanizmlarni mustahkamlash.

Umuman, yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ko'rsatilganidek, xotin-qizlarning davlat va jamiyatdagi roli va mavqeini kuchaytirish hamda ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash mamlakatning barqaror rivojlanishida muhim ijtimoiy-iqtisodiy omil sifatida o'z ifodasini topmoqda.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi

- Qarori. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.03.2025-y., 07/25/103/0244-son; 12.05.2025-y., 06/25/84/0432-son)
2. Гонорская А.В Обеспечение занятости трудовых ресурсов Республики Узбекистан с использованием потенциала негосударственных некоммерческих организаций (На примере женской занятости). Дисс. на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Т., 2002. - С 52.
 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni. "Xalq so'zi", 2020-yil 20-fevral, №37.
 4. Quronov M va boshqalar. Mahallada g'oyaviy targ'ibot. -Toshkent ., 2009.-B. 5-6.
 5. Fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari buyicha maslahatchisi faoliyati to'g'risidagi Namunaviy Nizom. -Toshkent., 2005
 6. Shamsiyeva M. X. O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarning o'rni (1991-2010 yy). tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi Avtoreferati. T., 2019.17-bet.
 7. Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан за 2016 год.// Торговое представительство Российской Федерации в Республике Узбекистан. Ташкент., 2017. С 174-175.
 8. <https://yuz.uz/news/davlat-boshqaruvidagi-top-40-rahbar-ayollar-reytingi-yangilandi>
 9. Ubaydullayeva R, Ata-Mirzayev O, Umarova N. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi. (ilmiy-o'quv qo'llanma). T., 2006. 72-73 betlar.
 10. <https://strategy.uz.index.php?news=745>
 11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030 strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni. Xalq so'zi. 12. 09. 2023.№ 190.
 12. <https://uzlidep.uz/uz/leads/ayollar-qanoti-2024> y
 13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Yangi O'zbekiston . № 22. 1-fevral.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

SOME TRACES OF NEOLITHIC POTTERY IN THE SOUTHERN ARAL BAY AREA

Matyakbov Toyirjon Sultanbaevich

Researcher of the Urgench State University
named after Abu Rayhon Beruni

Abstract. The article analyzes the early Neolithic pottery of tribal communities in the Akchadarya basin.

Keywords: Akulov V.V, Baratov P, Mamatkulov M, Rafikov A. Andrianov B.V, Tolstov S.P, Vinogradov A.V, Khorezm, Kyzylkum, Karakum, Akchadarya, Jonbasqala, Janbos-4, Qavat-7, Kunyak.

JANUBIY OROLBO'YI HUDUDIDA NEOLIT DAVRI KULOLCHILIGIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR

Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch Davlat Universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada Oqchadaryo havzasida urug'-jamoalarining ilk neolit davri kulolchiligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Akulov V.V, Baratov P, Mamatqulov M, Rafikov A. Andrianov B.V, Tolstov S.P, Vinogradov A.V, Xorazm, Qizilqum, Qoraqum, Oqchadaryo, Jonbasqala, Janbos-4, Qavat-7, Kunyak.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N20>

Kirish. Xorazm vohasi tekisligi bundan 8-7 ming yilliklarda Qoraqumda "tentirab" harakat qilgan Amudaryo shiddat bilan suv to'liqini hosil qilib, asosiy suvini nishab xususiyatiga ega bo'lgan tekislikni o'ng va so'l sohil hududlariga bo'linishi hozirgi vaqtda xam o'z ta'siriga ega. Shu tariqa biz istiqomat qilayotgan zamin geomorfologik tuzilishi umum geografik manzarani hosil qilgan (Qizilqum, Qoraqum) lekin gidrologik tuzilishi jihatidan farqlanish katta. O'ng sohil hududida yagona Oqchadaryo irmog'i Qizilqum sochma qum tepaliklari, balandlik, botiqlar, ular o'z navbatida yomg'ir va qorlar suvlari, Oqchadaryo suv ta'minoti natijasida bir-biriga ulanib ketgan suv havzalari Yevropa "Venetsiyasi" ni eslatar edi. Mazkur maqolada Amudaryo o'ng sohili Jonbosqala balandligi yon qismiga ajdodlarimiz tomonidan yog'och ustunlar yordami bilan qurilgan Janbos-4, Qavat-5, Kunyak manzilgohlarida istiqomat qilib, loy kulolchilik bilimini ixtiro qilishi, ulardan kundalik hayotlarida qanday foydalanilganlik tarixini yoritish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Geologik jarayonlarning birnecha marotaba takrorlanish natijasida, Xorazm tekisligi O'zbekistonning shimoli-g'arbiy hududi, Qizilqum va Qoraqum sahroyi sharoiti jihatidan o'ziga xos geografik holati mavjud bo'lib, uning joylashish o'rni 4,5 mln gektar bo'lib, shundan 2 mln hudud o'rnashgan aholiga xizmat qilgan tekislik bo'lgan. [1-1957-S.42 2.2002 —B. 283]. Xorazm vohasini qadimgi (neolit, eneolit va bronza) davrda sug'orilish tarixiga bag'ishlangan asarida hozirgi Turtkul va Sulton Uvays tog'i oralig'i


150 ming gektardan iborat bo'lib, o'rnashgan odamzodning kundalik faoliyatlarni olib borishiga sernam va serunum tayyor turgan [3.1968- S 98]. Xuddi shu hudud mil.avv. IV ming yillikda Janbos-4 urug' jamoalari tarkibidagi hunarmandlar loy kulolchilik bilimini olib borganlar.

XX asr 20-yillar oxiri – 30-yillar boshlarida Xorazm vohasida neolit davriga mansub aholi turar-joylarida qazishma ishlari olib borilmagan. 1937-yilda Sho'ro davlati ilmiy markazi (Moskva Davlat Universiteti) bo'lgan. S.P.Tolstov rahbarligida arxeologiya ekspeditsiyasi Quyi Amudaryo hududi, unga geologik jihatidan ulanib ketgan Sariqamishbo'yi, Uzboy, Sirdaryo quyi havzasi va o'rta qismida arxeologik qidiruv ishlari olib borilishi munosabati bilan tarixiy davr, uning turli bosqichlariga mansub turar-joylarni ro'yxatga olgan Turtkul tumani hududida Yonboshqala balandligi yon qismiga yog'och ustunli, tevarak-atrofi qamish bilan o'ralgan uchburchak shakl Janbos-4 manzilgohida amalga oshirilgan qazishma ishlari natijasida loydan tayyorlangan Sopol parchalari olishga muyassar bo'lingan. Yonbosh-4 manzilgohi yuqori qismi madaniy qatlamidan olingan ashyolar mil.avv. IV-III ming yilliklarga oid bo'lgan.

Arxeologik qazishma ishlari natijasida olingan idish-tovoqlarda turli xil bezaklarga ega bo'lgan. XX asr o'rtalaridan boshlab, (1945, 1946, 1948) yillarda Janbos-4 manzilgohi qurilish tarixi, unda xo'jalik-madaniy qatlamini o'rganish maqsadida (3x4 m, 3x5) shurf ishlari olib borilishi natijasida quyi qatlamida kulol parchalari devor sirtida ikki to'g'ri yo'nalgan parallel to'lqinsimon chiziqlar, ular o'rtasida tik yo'nalgan chiziqlar, ba'zi parchalarda ikki qator yon tomonlarga yo'nalgan to'lqinsimon bezaklar tasviri berilgan. [4. 1948-S 59-65]

A.V.Vinogradov va tadqiqotchilar hamkorligida chop qilingan nashrda Janbos-4 va Kunyak manzilgohlaridan olingan kulolchilik idish-tovoqlar parchalari qayd qilinib, Janbos-4 manzilgohi idish-tovoqlarda bezaklardan farq qiladigan bezakli idish-tovoqlar Kunyak manzilgohidan olingan. [5. 1960-S 70-72. 6. 1968-S 37-39].

Kunyak-1 manzilgohida tik yo'nalgan chiziqlar kam, mayda aylana, so'ldan o'ngga, o'ngdan so'l devorlarda nuqtalar, umuman nuqta bezaklar ustunlik qilgan.



Jonbos IV dagi olov o'choqlari va ustunlar uchun qazilgan chuqurlar joylashuvining qisqacha chizmasi.

Tadqiqot metodologiyasi. Obyektivlik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy- qiyosiy tahlil, munozara, umumlashtirish, mantiqiy xulosa

Tahlil va natijalar quyidagicha izohlandi. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari xamda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan chop qilingan nashrlarda qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar asosida Janbos-4 manzilgohi urug' jamoalari tarkibidan ajralib chiqqan kulol-hunarmandlarning kundalik faoliyatlarida o'ziga xos ahamiyat kasb etgan. Idish-tovoqlar ishlab chiqilishi, ishlatilish ashyosi, ularning shakli-shamoyili, bezalishi masalalari tahlil qilindi. Loy, sof tuproq, suvni aralashtirib, loy tayyorlash, undan idish-tovoqlarning ibtidoiy odamlar faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etishi tahlil qilindi. Shu ma'nolardan quyidagi natijalar quyidagicha izohlandi.

Oqchadaryo havzasi markaziy qismi Yonboshqala balandligi Sulton Uvays tog'ida Burli-3 manzilgohi ovchilari-urug' jamoasi tizimida bo'lib, boshqaruv tizimi ona rahnamoligida bo'lgan. Ularning soni oshganligi munosabati bilan geoiqtisodiy hududlarni izlab borib, Qizilqumda Yonboshqala balandligi atrofida botiqlar suv havzalariga sohili etagiga tutashib ketgan tepalik, balandlik yon qiriga qurilgan manzilgohlarda o'rnashgan (Janbos-4, Qavat-7, Kuniyak) ovchilar-termachilarning loy kulolchiligi san'ati tarixini o'rganish asosida bir qator natijalarga erishildi. Oshxonaga mo'ljallangan mayda kulolchilik ashyolari, shu bilan birga kemaga o'xshash sopol ashyolari kundalik hayotlarida muhim o'rin egallaganliklari haqida natijalarga erishildi.

Xulosa va takliflar. Burli-3 manzilgohi ovchilari yangi geografik sharoitga kelgandan keyin iqtisodiy omillar nafaqat Sulton Uvays tog'i kvarsit va chaqmoqtoshdan tosh qurollar ishlab chiqarish bilan, hunarmandchilikning muhim va nozik sohasi bo'lgan kulolchilik san'atini kashf qilib, turli vazifani bajaradigan idish-tovoqlardan foydalanishi natijasida uni alohida-alohida iste'mol qilish imkoniyati hosil bo'ldi.

Yuqorida zikr qilingan ma'lumotlar asosida quyidagi takliflar izoh qilindi:

1. Oqchadaryo havzasi iqtisodiy omillar bo'yicha tevarak-atrofdagi hududlardan farqlanish darajasini tahlil qilish;
2. Janbos-4 manzilgohi urug' jamoalari kulolchilik idish-tovoqlarning tarixiy vazifasini izohlash.
3. Loy kulolchiligi ishlab chiqarish texnologiyasi hozirgi zamon kulolchiligida tarixiy o'rnini aniqlash.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Акулов В.В. Некоторые данные о дельтах Амударьи-Изв.ВГО. Узбекс. Филиал-1957-Ташкент,-Т.III.
2. Баратов П, Маматкулов М, Рафиков А. Ўрта Осиё табиий географияси-Тошкент, "Ўқитувчи". 2002.
3. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья-М. Наука. 1968.
4. Толстов С.П. Древний Хорезм. М.:МГУ, 1948.
5. Низовья Амударьи Сарыкамыш, Узбай. История формирования и заселения-М: Наука, 1960. Вып 3.
6. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма-М:Наука. 1968. Вып-8. Ғуломов Я.Г. Хоразм суғорилиш тарихи-Тошкент,:Фан, 1959.
7. Турабеков М. Исследование Цитадели Гауркалы городища Миздахкан //Археологические исследования в Узбекистане 2001-Ташкент, 2002.
8. Сабиров К, Рузимов С. Археологические работы в Хазараспе //Вестник ККО АН РУз-Нукус, 2003. № 3-4.
9. Мамбетуллаев М. Раскопки оборонительных сооружений Хивы /Вестник ККО АН Уз ССР-Нукус. 1992 № 4.
10. Мамбетуллаев М, Қдыраниязов М.Ш. Городище Воянган //Археология Приаралья-Ташкент,:Фан, 1982 № 1.
11. Сағдуллаев Б. Бобожонов Р. Каткала-Хива, 2008.
12. Матрасулов Ш, Собиров К.Олмаотишган ёдгорлигидаги археологик тадқиқотлар //Археологические исследования в Узбекистане-2001.-Самарканд, 2002.

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES

Received: 2 October 2025

Accepted: 15 October 2025

Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

**GENERAL SCIENTIFIC METHODOLOGY OF HISTORICAL INSTITUTIONALISM
IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF THE HORSE BREEDING
INDUSTRY IN THE TERRITORY OF MODERN UZBEKISTAN**

Sultanova Dina Fayzrakhmanovna

Candidate of Agricultural Sciences

Urgench State University

Abstract. This scientific work is devoted to the analysis of the general scientific methodology of historical institutionalism and its applicability to the study of horse breeding development in Uzbekistan. In the context of economic transformation and socio-cultural characteristics of the region, understanding the influence of institutional factors on the horse breeding industry is of particular relevance. The work substantiates the need to apply historical institutionalism as an interdisciplinary approach that allows identifying the historical roots of modern institutions, their evolution and impact on the efficiency and sustainability of horse breeding activities. Particular attention is paid to identifying specific institutional traps and opportunities for the development of the industry in the context of modern Uzbekistan.

Keywords: Historical institutionalism, horse breeding, Uzbekistan, economic development, institutional changes, traditional institutions, modern economy.

**ОБЩЕНАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО
ИНСТИТУЦИОНАЛИЗМА В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ ОТРАСЛИ
КОНЕВОДСТВА НА ТЕРРИТОРИИ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКИСТАНА**

Султанова Дина Файзрахмановна

кандидат сельскохозяйственных наук

Ургенчский государственный университет

Аннотация. Настоящая научная работа посвящена анализу общенаучной методологии исторического институционализма и её применимости для исследования развития коневодства в Узбекистане. В условиях трансформации экономики и социокультурных особенностей региона, осмысление влияния институциональных факторов на отрасль коневодства приобретает особую актуальность. Работа обосновывает необходимость применения исторического институционализма как междисциплинарного подхода, позволяющего выявить исторические корни современных институтов, их эволюцию и воздействие на эффективность и устойчивость коневодческой деятельности. Особое внимание уделяется выявлению специфических институциональных ловушек и возможностей для развития отрасли в контексте современного Узбекистана.

Ключевые слова: Исторический институционализм, коневодство, Узбекистан, экономическое развитие, институциональные изменения, традиционные институты, современная экономика.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N21>

Введение. Коневодство является традиционной отраслью для многих стран Центральной Азии, включая Узбекистан. Исторически конь играл ключевую роль в

хозяйственной жизни, культуре и военном деле региона. В современный период, несмотря на глобальные изменения, коневодство продолжает сохранять своё значение, трансформируясь из преимущественно транспортной и сельскохозяйственной функции в развитые направления, такие как спорт, туризм, племенное разведение и производство специализированной продукции. Однако развитие отрасли сталкивается с рядом вызовов, связанных как с глобальными трендами, так и с внутренними особенностями экономики и общества Узбекистана[1,3].

Для глубокого понимания этих вызовов и поиска эффективных решений необходима адекватная методологическая база. Классические экономические подходы, зачастую ориентированные на краткосрочную перспективу и игнорирующие социокультурный контекст, могут оказаться недостаточными. В этом отношении общенаучная методология исторического институционализма предлагает уникальный инструментарий для анализа долгосрочных процессов, взаимосвязи формальных и неформальных институтов, а также влияния исторического пути развития на современные экономические решения и структуру отрасли[4].

Целью данной работы является демонстрация применимости исторического институционализма как общенаучной методологии для исследования развития коневодства в Узбекистане, выявление её преимуществ и потенциала для формирования эффективной государственной политики в этой сфере.

Исторический институционализм представляет собой одно из ключевых направлений неинституциональной теории, акцентирующее внимание на роли времени, последовательности событий и исторической обусловленности институтов. В отличие от других школ институционализма, которые могут фокусироваться на рациональном выборе акторов или на формальных правилах, исторический институционализм подчеркивает следующие аспекты[14].

Путь зависимости (Path Dependency): Идею о том, что решения, принятые в прошлом, и сложившиеся в результате институты определяют или существенно ограничивают спектр возможных будущих решений и траекторий развития. Это означает, что даже при изменении внешних условий, существующие институты могут сохранять свою инерцию, оказывая влияние на современные процессы[14].

Важность неформальных институтов: Признание того, что помимо формальных правил (законов, регламентов), значительную роль играют неформальные институты – обычаи, традиции, нормы поведения, ценности, которые могут быть даже более устойчивыми и влиятельными, чем формальные.

Критические моменты (Critical Junctures): Периоды в истории, когда внешние события или внутренние изменения создают возможность для значительных институциональных сдвигов, формируя новые траектории развития. Выбор, сделанный в такой "критический момент", может иметь долгосрочные последствия.

Эволюционный характер институтов: Рассмотрение институтов не как статичных образований, а как динамично развивающихся систем, подверженных изменениям, адаптации, а иногда и "институциональному дрейфу" или "слоению".

Представители исторического институционализма, такие как Дуглас Норт, Пол Питерсон, Кэтлин Тилен, внесли значительный вклад в понимание того, как институты формируются, изменяются и влияют на экономические и социальные процессы. Норт, в

частности, акцентировал внимание на роли институтов в снижении транзакционных издержек и формировании стимулов для экономической деятельности. Исторический институционализм позволяет преодолеть "аисторичность" некоторых экономических моделей, интегрируя временное измерение и социокультурный контекст в анализ[14].

Актуальность исследования. В условиях динамичного развития современной экономики и возрастающего интереса к устойчивому развитию отраслей, имеющих глубокие исторические корни и культурное значение, изучение экономических процессов требует применения комплексных методологических подходов. Отрасль коневодства на территории современного Узбекистана представляет собой уникальный объект для такого исследования, поскольку её развитие на протяжении тысячелетий тесно переплетается с историческими, культурными, социальными и институциональными изменениями в регионе. Понимание того, как исторически сложившиеся институты (формальные и неформальные) формировали экономическую структуру и динамику коневодства, имеет ключевое значение для выработки эффективных стратегий её дальнейшего развития в современных условиях. Недостаточное владение исследователями системами методологических и методических знаний снижает качество научных работ, что подчеркивает важность данного исследования[6].

Объект исследования. Объектом настоящего исследования является процесс развития экономики отрасли коневодства на территории современного Узбекистана[4,6].

Предмет исследования. Предметом исследования выступает общенаучная методология, применяемая в контексте исторического институционализма, для анализа эволюции и современного состояния отрасли коневодства, включая правовые, организационные и традиционные институциональные условия [10].

Цель исследования. Целью данной научной работы является разработка и применение общенаучной методологии исторического институционализма для комплексного анализа развития экономики отрасли коневодства на территории современного Узбекистана, выявление ключевых исторических этапов и институциональных факторов, оказавших решающее влияние на её формирование и функционирование.

Задачи исследования:

1. Определить сущность общенаучной методологии и её специфику в экономических исследованиях.
2. Обосновать элементы методологии исторического институционализма, применимые к анализу развития отрасли коневодства на основе имеющихся данных.
3. Проанализировать основные этапы истории развития коневодства в Узбекистане, выявив ключевые исторические и культурные детерминанты.
4. Изучить правовые и институциональные условия, регулирующие коневодство, включая роль государственных, частных организаций и традиционных подходов.
5. Синтезировать исторические и институциональные факторы с экономическими механизмами отрасли коневодства для выявления закономерностей её развития.

Методологическая и теоретическая основа исследования. Методологической основой работы послужили положения общенаучной методологии, включающие философскую методологию с её ориентацией на всестороннее раскрытие объективной диалектики противоречивого развития процесса, а также общенаучную методологию, обеспечивающую создание новых предметов исследования, математический аппарат анализа, элементы понятийного аппарата и новые методы. В контексте данной работы, общенаучная методология будет расширена элементами исторического институционализма. Следует отметить, что представленные источники не содержат отдельного определения или детального описания исторического институционализма как специфического теоретического подхода. Однако, на основе общего понимания методологии экономических исследований и подробной информации о развитии коневодства в Узбекистане, можно выделить элементы, которые соответствуют принципам данного подхода [7,10].

Экономическая методология здесь трактуется как учение о методах научного поиска и совокупность методов, применяемых в экономической науке, с акцентом на изучение экономических законов, управляющих историческим развитием общества, как это практиковала историческая школа. Теоретическая база исследования основывается на изучении истории и институциональных условий коневодства, представленных в источниках, а также на подходах к оценке экономической эффективности и рентабельности [10].

Научная новизна исследования. Научная новизна заключается в комплексном применении принципов общенаучной методологии для выявления и систематизации историко-институциональных факторов, формирующих экономическое развитие отрасли коневодства в Узбекистане. В работе предпринята попытка структурировать обширные исторические данные о коневодстве через призму анализа влияния формальных и неформальных институтов, что позволяет раскрыть специфические закономерности и механизмы его эволюции.

Практическая значимость исследования. Результаты работы могут быть использованы для разработки государственных программ и стратегий по развитию коневодства в Узбекистане, учитывающих как богатое историческое наследие, так и современные институциональные вызовы. Анализ традиционных подходов и зарубежного опыта способствует формированию рекомендаций по повышению экономической эффективности, сохранению уникальных пород и развитию конного спорта и туризма.

Понятие общенаучной методологии и её сущность. Методология в широком смысле определяется как учение о методах научного поиска, приемах и операциях по накоплению и освоению знаний, а также о способах построения и обоснования системы знаний. Она включает в себя принципы построения методов и их научное обобщение, а также учение о структуре, логичности организации, методах и средствах деятельности.

Наряду с философской методологией, выделяют общенаучную методологию, которая обладает междисциплинарной природой и используется как средство познавательной деятельности в различных отраслях науки. Её ускоренное развитие в последние десятилетия связано с потребностями научного исследования, сближающими характер познавательной деятельности в разных сферах научного

знания. Общенаучная методология обеспечивает создание новых предметов исследования (например, на стыке экономики труда и социологии труда), предоставляет математический аппарат анализа, новые элементы понятийного аппарата и новые методы исследования. В экономике, например, из биологии заимствуются понятия жизненного цикла и адаптации.

Философская методология и специфика методологии экономической науки. Философская методология ориентирует исследование на всестороннее и глубокое раскрытие объективной диалектики противоречивого развития процесса или явления с помощью категорий и законов. Она выполняет эвристическую роль благодаря использованию материалистической диалектики и включает мировоззренческое истолкование оснований и результатов исследования, имеющие материалистические корни. Философскую методологию следует трактовать как систему общих условий (предпосылок) и ориентиров в познавательной (исследовательской) деятельности специалистов.

Методология экономической науки представляет собой учение о методах научного поиска, приемах и операциях по накоплению и освоению знаний, о способах построения и обоснования системы знаний. Она также может рассматриваться как совокупность методов, применяемых в экономической науке. Методология экономической науки включает: постановку проблемы и обоснование её актуальности; определение объекта, предмета и границ исследования; изучение литературы и критический анализ точек зрения; уточнение понятийного аппарата, выбор методов и средств исследования; проверку полученного результата с точки зрения его истинности. Различные экономические школы используют разные методы: историческая школа часто рассматривала экономические законы, управляющие историческим развитием общества. Этот аспект особенно важен для настоящего исследования.

Критерии методологической выдержанности экономического исследования. Научно-исследовательская работа, выдержанная в методологическом ключе, должна отвечать ряду существенных характеристик (критериев):

- Корректная, научно обоснованная постановка проблемы исследования, способная быть разработанной и дать научные результаты, обладающие новизной, полезностью и достоверностью.
- Обозначение предмета исследования как совокупности взаимосвязанных проблем, изучаемых не только в статике, но и в динамике (законы, закономерности развития).
- Построение теории вопроса, с помощью которой предмет исследования может быть описан, объяснен, а также могут быть вскрыты внутренний механизм движения, противоречия и предсказан ход развития.
- Обеспечение единства теории и практики, когда теоретическая концепция используется для анализа хозяйственной практики и формирования деловых предложений, а теория обогащается и развивается за счёт обобщения практики. Это является ключевым моментом для подлинно научного экономического исследования.

- Цельность, монолитность исследования, когда каждая часть может быть понята и объяснена, исходя из всего целого, а в исследовании чётко просматриваются ведущие стержневые идеи, соединяющие все части в органическое целое.

- Проверка достигнутых научных результатов с позиции их истинности, что подразумевает использование как системы логических доказательств, так и обращение к практике как критерию истины.

- Интерпретация оснований и полученных результатов исследования, носящая мировоззренческий характер, а также истолкование с позиции возможностей использования выводов для повышения социально-экономической эффективности.

- Ориентация на объективную диалектику развития, изучение механизма действия и использования экономических законов, вскрытие внутренней противоречивости процессов и явлений. Важна также ориентация на проблематику хозяйственного поведения субъектов как взаимосвязь объективного и субъективного аспектов экономического исследования.

Сущность и элементы исторического институционализма в контексте данного исследования. Исторический институционализм (хотя напрямую не определяется в представленных источниках) как методологический подход фокусируется на изучении того, как институты (формальные правила, законы, организации, а также неформальные нормы, традиции, обычаи) формируются со временем и как они влияют на поведение экономических акторов и результаты экономического развития [интерпретация источников]. Для целей данного исследования мы будем рассматривать исторический институционализм через призму следующих ключевых элементов, которые явно присутствуют в источниках, касающихся коневодства в Узбекистане:

1. Исторический контекст и длительные временные периоды: Подход подчеркивает необходимость анализа явлений в их историческом развитии, что включает изучение формирования и эволюции отрасли на протяжении веков. Источники о коневодстве в Узбекистане охватывают период от древнего мира до современности, подробно описывая изменения в различные исторические эпохи.[7,8,11]

2. Роль институтов: Исследуется влияние как формальных институтов (законодательная база, государственные организации, программы), так и неформальных (традиции, культурные обычаи, передаваемые из поколения в поколение подходы). Эти институты рассматриваются как факторы, регулирующие экономическую деятельность в отрасли.

3. Зависимость от предшествующего пути (path dependence): Хотя термин не используется, идея того, что предыдущие события и институциональные решения влияют на будущие траектории развития, прослеживается через описание эволюции коневодства. Например, традиционные методы селекции, сформированные веками, продолжают играть роль.

4. Комплексный анализ: Подход интегрирует экономические, социальные, культурные и политические аспекты для объяснения развития отрасли. Роль лошади в военной, сельскохозяйственной, торговой и культурной жизни Узбекистана иллюстрирует это единство.

Применение общенаучной методологии исторического институционализма к экономике коневодства в Узбекистане. Применение данного подхода к отрасли коневодства на территории современного Узбекистана позволяет:

- Системно проанализировать эволюцию отрасли: Вместо изолированного рассмотрения отдельных событий, методология позволяет выявить, как различные исторические периоды (древний мир, эпоха Тамерлана, Царская Россия, советский период, период независимости) последовательно формировали текущее состояние коневодства[8].

- Идентифицировать ключевые институциональные факторы: Особое внимание уделяется влиянию правовых актов, государственных программ поддержки, деятельности государственных и частных организаций, а также устойчивых традиций и культурных практик. Эти институты не просто описываются, но и анализируется их воздействие на экономические механизмы (коннозаводство, рыночные механизмы, ценообразование, рентабельность).

- Объяснить сохранение и трансформацию: Методология позволяет понять, почему некоторые традиции (например, национальные конные игры как фактор селекции) сохранились и продолжают влиять на отрасль, в то время как другие аспекты (например, переход от тягловой силы к спортивному коневодству) претерпели значительные трансформации под влиянием новых институциональных условий и технологий.

- Формировать стратегические рекомендации: Понимание глубинных исторических и институциональных детерминант позволяет разрабатывать более обоснованные и устойчивые стратегии развития, учитывающие специфику региона и избегающие механического копирования зарубежного опыта без адаптации.

Экономическое развитие отрасли коневодства в Узбекистане через призму исторического институционализма. Развитие коневодства в Узбекистане является отражением сложной взаимосвязи исторических событий, культурных традиций и меняющихся институциональных условий.

Коневодство в Узбекистане является идеальным объектом для анализа с позиций исторического институционализма. Его развитие глубоко укоренено в истории, культуре и хозяйственном укладе региона[8].

Традиции кочевых и полукочевых обществ: На протяжении веков коневодство было неотъемлемой частью жизни народов Центральной Азии. Культура разведения лошадей, селекции определенных пород (например, карабаирская порода, бухарские лошади), методы содержания и использования передавались из поколения в поколение. Эти традиционные практики и знания, закрепленные в неформальных институтах, до сих пор оказывают влияние на современные подходы к коневодству[11].

Советский период: В советский период коневодство было интегрировано в плановую экономику. Были созданы государственные конезаводы, племенные фермы, ветеринарные службы. Формальные институты этого периода (госпланирование, колхозы, совхозы) сформировали определенную структуру отрасли, специализацию и систему управления. Распад СССР стал "критическим моментом", когда многие из этих институтов оказались нежизнеспособными, но их наследие (материально-техническая

база, кадровый потенциал, а также сформировавшиеся паттерны поведения) продолжает оказывать влияние[12]

Период независимости: В условиях рыночных реформ в Узбекистане происходят значительные изменения. Частные коневодческие хозяйства становятся доминирующими, но они часто сталкиваются с проблемами, связанными с отсутствием достаточной поддержки со стороны формальных институтов (кредитование, законодательство о племенном деле, доступ к рынкам) и необходимостью адаптации традиционных практик к современным экономическим реалиям[15]

Правовые и институциональные условия, регулирующие коневодство. Институциональная среда коневодства в Узбекистане включает в себя как формальные, так и неформальные элементы, оказывающие значительное влияние на развитие отрасли:

- Законодательная база: Развитие коневодства регулируется множеством нормативно-правовых актов. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4194 от 18.02.2019 направлено на дальнейшее развитие коневодства и конного спорта, создание Федерации коневодства и конного спорта Узбекистана, а также комплексов по разведению карабаирской породы. Государственная программа развития коневодства до 2025 года (от 11 марта 2021 года № ПП-5024) предусматривает цели, задачи и этапы развития, подготовку специалистов, инфраструктуру и популяризацию спорта. Ключевыми законодательными актами также являются Закон «О племенном животноводстве», Указ «Об утверждении стратегии Развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 гг.». Эти формальные институты создают правовую основу для функционирования и поддержки отрасли[2,4,6]

- Участие государственных и частных организаций: Координация и развитие отрасли обеспечиваются рядом структур:

- Министерство сельского и водного хозяйства координирует государственную политику, разрабатывает стратегии и программы поддержки.

- Государственный комитет по ветеринарии контролирует здоровье животных, санитарные нормы и профилактику заболеваний.

- Национальные ассоциации и союзы коневодов (например, Ассоциация коневодов Узбекистана) поддерживают фермеров, обучают, организуют мероприятия и соревнования.

- Научные учреждения и исследовательские центры (Институт сельского хозяйства, НИИ иппологии при Инновационном селекционно-генетическом центре) занимаются разработкой новых методов, улучшением пород, технологиями кормления и ухода за животными, а также изучением вопросов устойчивости к болезням.

- Образовательные учреждения открывают новые направления по коневодству и конному спорту, готовят ветеринаров, зоотехников и спортсменов.

- Федерация Коневодства и Конного Спорта Узбекистана, созданная в 1993 году, играет ключевую роль в развитии конного спорта, популяризации и участии в международных соревнованиях.

- В республике действуют 3 конезавода, 14 школ всадников, 142 коневодческих хозяйства (24 племенных), а также создаются детско-юношеские конноспортивные

школы на условиях государственно-частного партнерства. Организационная структура Федерации включает различные отделы, центры и заводы[15].

- Традиционные подходы ведения коневодства в частных хозяйствах: Это важнейший неформальный институт, передаваемый из поколения в поколение. Дехканские (69%) и фермерские (25%) хозяйства преобладают в поголовье лошадей. Традиции включают естественные методы кормления, пастбищное содержание и использование лошадей в сельхозработах, продуктивном направлении и национальных играх. Национальные игры (кокпар, чавгон, аламан-байга) сыграли решающую роль в селекции лошадей на выносливость, силу и бесстрашие, сохранив породы от поглотительного скрещивания. Эти традиционные подходы остаются основой сельского хозяйства и культуры, способствуя развитию сельских территорий и сохранению культурного наследия[17].

В Узбекистане формальные институты представлены законами и подзаконными актами, регулирующие животноводство, ветеринарию, землепользование. Однако их эффективность в сфере коневодства может быть ограничена из-за недостаточной адаптации к специфике отрасли, сложности применения или несоответствия реальным потребностям фермеров. Например, вопросы регистрации племенных животных, стандартизации, субсидирования могут быть недостаточно проработаны.

Неформальные институты представлены в виде национальных традиций коневодства, передачей знаний внутри семейных и общинных структур, "этики коневода", основанной на уважении к животному и мастерстве в его содержании, играют огромную роль. Эти неформальные правила могут как способствовать развитию (сохранение пород, обмен опытом), так и сдерживать его (сопротивление новым технологиям, недоверие к формальным структурам). Например, система обмена опытом между аксакалами (старейшинами) и молодыми коневодами является важным неформальным институтом, но она может быть неэффективной для распространения современных научных знаний.

Историко-институциональный анализ позволяет понять, как менялись экономические механизмы отрасли коневодства под влиянием изменяющихся условий и институтов.

- Коннозаводство как основа отрасли: Коннозаводство сегодня является одним из наиболее структурированных направлений селекционной работы с породами животных. Чистопородное разведение и методы разведения по линиям и маточным семействам, а также поддержание генетического разнообразия пород (например, карабаирской, ахалтекинской) являются ключевыми для сохранения и улучшения хозяйственно-полезных качеств лошадей. Исторически, усилия по селекции были связаны с военными, сельскохозяйственными и культурными потребностями. Современные правовые и организационные институты (НИИ иппологии, конезаводы, государственные программы) направлены на внедрение генетических исследований, паспортизации и контроля происхождения для повышения продуктивности и экономической эффективности.

Институциональные вызовы и возможности для развития коневодства. С точки зрения исторического институционализма, ключевыми вызовами для коневодства в Узбекистане являются:

- Институциональные ловушки: Укоренившиеся практики и институты (как формальные, так и неформальные), которые когда-то были эффективными, но в современных условиях сдерживают развитие. Например, недостаточная развитость системы государственного регулирования племенного дела, приводящая к снижению качества поголовья, или фрагментация знаний и опыта, препятствующая внедрению инноваций.

- Проблема координации: Недостаточная координация между различными акторами – государственными органами, частными коневодами, научными учреждениями, ассоциациями. Отсутствие эффективных институтов, способствующих диалогу и сотрудничеству, замедляет развитие отрасли.

Необходимость интегрировать коневодство Узбекистана в мировые рынки, что требует адаптации к международным стандартам, развитию экспортного потенциала, привлечению инвестиций. Это требует создания новых формальных институтов и адаптации существующих.

Вместе с тем, исторический институционализм также указывает на возможности. Опора на сильные неформальные институты. Использование существующих традиций и знаний как основы для модернизации. Например, интеграция традиционных методов обучения с современными ветеринарными и селекционными практиками.

Использование "критических моментов" для институциональных реформ: Современный период активных реформ в Узбекистане может стать таким моментом для пересмотра и формирования. Создание гибридных институтов. Разработка форм взаимодействия, сочетающих элементы традиционных и современных институтов, например, государственно-частное партнерство в развитии племенного дела, где традиционные знания сочетаются с современными научными подходами.

Методологическая значимость и практические рекомендации. Применение исторического институционализма позволяет не просто констатировать проблемы в коневодстве Узбекистана, но и объяснить их глубокие исторические и институциональные корни. Это критически важно для формирования эффективной политики [10].

Методологическая значимость. Комплексный анализ: Исторический институционализм предоставляет инструментарий для комплексного анализа, учитывающего как экономические, так и социокультурные, исторические аспекты развития отрасли.

Долгосрочная перспектива: Позволяет оценить долгосрочные последствия текущих решений и понять, как прошлое формирует настоящее и будущее.

Выявление "институциональных ловушек": Помогает идентифицировать устойчивые, но неэффективные институты, которые препятствуют развитию.

Обоснование институциональных реформ: Служит методологической основой для разработки обоснованных институциональных реформ, направленных на преодоление инерции и стимулирование роста.

Практические рекомендации:

Инвентаризация и анализ существующих институтов: Проведение исследований, направленных на выявление и описание формальных и неформальных институтов,

регулирующих коневодство в Узбекистане, с оценкой их эффективности и соответствия современным вызовам.

Разработка стратегии развития коневодства с учетом исторического пути: Формирование стратегических документов, которые не только определяют целевые показатели, но и учитывают исторически сложившиеся институты, предлагая механизмы их адаптации или трансформации.

Создание институтов координации и диалога: Формирование площадок для взаимодействия между государственными органами, частными коневодами, научными кругами, международными организациями. Это могут быть рабочие группы, ассоциации, научно-практические конференции.

Поддержка гибридных форм организации: Стимулирование создания инновационных проектов, сочетающих традиционные знания и современные технологии в селекции, ветеринарии, маркетинге.

Развитие системы образования и подготовки кадров: Адаптация образовательных программ в сельскохозяйственных ВУЗах и колледжах с учетом как современных научных достижений, так и традиционных навыков коневодства, а также изучение институциональных аспектов отрасли [6].

Укрепление правовой базы: Совершенствование законодательства в сфере коневодства, включая вопросы племенного дела, идентификации животных, страхования, субсидирования, с учетом специфики отрасли и международных стандартов.

Основные выводы:

1. Общенаучная методология предоставляет необходимый инструментарий для всестороннего анализа экономических явлений, позволяя интегрировать философские, общенаучные и специфические экономические подходы. В контексте коневодства это позволило рассмотреть отрасль не только с экономической, но и с исторической, культурной и социальной точек зрения.

2. Элементы исторического институционализма, такие как анализ длительных временных периодов, изучение влияния формальных (законы, организации) и неформальных (традиции, культура) институтов, а также концепция зависимости от предшествующего пути, оказались высокоэффективными для объяснения эволюции и современного состояния коневодства в Узбекистане. Следует подчеркнуть, что сам термин "исторический институционализм" не встречается в представленных источниках, однако детальное описание исторического развития и институциональной среды позволяет применять его принципы.

3. Историческое развитие коневодства на территории Узбекистана от древнего мира до современности демонстрирует непрерывную адаптацию к меняющимся социально-экономическим и политическим условиям. От роли в военном деле и караванной торговле до тягловой силы в сельском хозяйстве и современного спортивного и туристического назначения, лошадь всегда оставалась важной частью региона.

4. Институциональные условия играли и продолжают играть решающую роль. Смена государственных формаций (империи, ханства, царская Россия, СССР, независимый Узбекистан) сопровождалась изменением законодательной базы,

организационных структур и форм собственности, что напрямую влияло на развитие отрасли. Параллельно сохранялись и трансформировались традиционные подходы, особенно в частных хозяйствах, где национальные игры способствовали сохранению уникальных пород, таких как карабаирская.

5. Экономические механизмы отрасли (коннозаводство, рыночные механизмы, ценообразование, рентабельность) были глубоко интегрированы в исторические и институциональные изменения. Современная государственная поддержка, развитие племенного дела на научной основе, а также адаптация зарубежного опыта являются ключевыми для повышения экономической эффективности и конкурентоспособности отрасли на международной арене.

Вклад в методологию и понимание отрасли. Данная работа демонстрирует, как общенаучная методология, обогащенная принципами исторического институционализма, позволяет не только описать, но и глубоко объяснить комплексные процессы развития экономической отрасли, где взаимосвязаны исторические, культурные и институциональные факторы. Она подчеркивает, что для понимания текущего состояния и прогнозирования будущего развития коневодства необходимо учитывать весь спектр формальных и неформальных институтов, формировавшихся на протяжении веков.

Перспективы дальнейших исследований. Дальнейшие исследования могут быть сосредоточены на более детальном количественном анализе влияния конкретных институциональных изменений (например, введения льгот или программ поддержки) на экономические показатели коневодства, а также на сравнительном анализе с другими отраслями сельского хозяйства в контексте исторического институционализма. Также перспективным является более глубокое изучение роли неформальных институтов (например, культурных традиций и социальных норм) в формировании хозяйственного поведения субъектов коневодства.

Общенаучная методология исторического институционализма играет ключевую роль в глубоком и всестороннем понимании процессов развития коневодства в Узбекистане. Она позволяет выйти за рамки поверхностного анализа, выявив взаимосвязь между историческим наследием, сложившимися институтами и современными экономическими результатами. Применение данного подхода дает возможность не только диагностировать проблемы, но и разработать эффективные, устойчивые и контекстуально адекватные стратегии развития отрасли. Интеграция традиционных знаний с современными подходами, усиление институтов координации и адаптация правовой базы – вот те направления, которые, опираясь на принципы исторического институционализма, могут обеспечить устойчивое и процветающее будущее коневодства в Узбекистане.

Научная работа, посвященная общенаучной методологии исторического институционализма в развитии экономики отрасли коневодства на территории современного Узбекистана, подтверждает необходимость комплексного подхода к изучению отраслей, обладающих глубокими историческими корнями.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5853 от 23.10.2019 г. «Об утверждении стратегии Развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на

- 2020–2030 гг.». [Эл.ресурс].–URL: <https://lex.uz/docs/4567337?type=doc> (дата обращения 09.09.2025).
2. Закон Республики Узбекистан "О племенном деле в животноводстве" (или аналогичный, если конкретное название требуется уточнить). [Эл.ресурс].–URL: <https://lex.uz/docs/3728036> (дата обращения 17.09.2025).
 3. Указ Президента Республики Узбекистан от 10.06.2023 г. № УП-90 "О мерах по эффективной организации государственного управления в сельскохозяйственной и продовольственной сфере в рамках административных реформ".[Эл.ресурс].–URL: <https://lex.uz/docs/6490255> (дата обращения 17.09.2025).
 4. Постановление Президента Республики Узбекистан от 18.02.2019 г. № ПП-4194 "О мерах по дальнейшему развитию коневодства и конного спорта в Республике Узбекистан". [Эл.ресурс]. –URL: <https://lex.uz/docs/4204745> (дата обращения 16.09.2025)
 5. Постановление Президента Республики Узбекистан от 24.08.2023 г. № ПП-285 "О дополнительных мерах по совершенствованию системы идентификации в животноводстве и сферы племенного скотоводства".[Эл.ресурс].–URL: <https://lex.uz/docs/6583139> (дата обращения 17.09.2025).
 6. Барминцев, Ю.Н. Коневодство в СССР / Ю.Н. Барминцев, Е.В. Кожевников. – М.: Колос, 1983. – 160 с.
 7. Витт, В.О. Коневодство в Узбекистане / Проф. В.О. Витт, В.А. Щекин; под ред. И.С. Попова; Моск. ордена Ленина с.-х. акад. им. К.А. Тимирязева. - Ташкент : Госиздат УзССР, 1943. - 88 с.
 8. Генетические ресурсы сельскохозяйственных животных в России и сопредельных странах / [Л.К. Эрнст и др.]; Сост. Л.К. Эрнст и др. - СПб. : Всерос. НИИ генетики и разведения с.-х. животных, 1994. - 469 с.
 9. Дмитриев, М.Н. Методология и методы исследований в экономике: учеб. пособие. 2-е изд., перераб. и доп. / М.Н. Дмитриев; Нижегород. гос. архит.-строит. ун-т. – Н. Новгород: ННГАСУ, 2018. – 102 с.
 10. Кондрашов, К.А. Породы лошадей: По материалам ВСХВ 1954 и 1955 годов. - Ленинград: Министерство сельского хозяйства СССР, 1956. - 144 с.
 11. Книга о лошади. Том I / Составлена под руководством С.М. Буденного. - Москва: Государственное издательство сельскохозяйственной литературы, 1952. - 608 с.
 12. Мертон, Р. Социальная теория и социальная структура. – М.: АСТ, Хранитель, 2006. – 872 с.
 13. Норт, Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. – М.: Фонд экономической книги "Начала", 1997. – 180 с.
 14. Нурматов, А., & Хафизов, И. (2024). Карабаирская порода лошадей – «золотой фонд» Узбекистана. Вестник Ошского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния, (2(7)), 212–218.
 15. Уткин, А.А. Институциональные аспекты развития агропромышленного комплекса (на примере Центральной Азии). – М.: Институт востоковедения РАН, 2018. – 208 с.
 16. Хафизов И.И. Генетическое разнообразие лошадей карабаирской породы. Научное приложение к журналу «Сельское и водное хозяйство Узбекистана», аграрно-экономическому, научно-практическому журналу «Агро илм». Специальный выпуск. (3) (96), 2023 г.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

PRESERVING AND PROMOTING UZBEKISTAN'S HISTORICAL MONUMENTS THROUGH DIGITAL TOURISM

Shodmonov Abduvohid Farxod o'g'li

Independent researcher

E-mail: shodmonovabduvohid6@gmail.com

Abstract. This article analyzes the role of digital technologies and digital tourism in preserving historical monuments and enhancing their tourism potential. Technologies such as Virtual Reality (VR), Augmented Reality (AR), 3D modeling, and digital archiving are highlighted as key tools in safeguarding cultural heritage, making it accessible to global audiences, and enriching tourist experiences. Based on international research, the paper discusses the economic efficiency, educational value, and cultural significance of digital tourism, with a particular focus on applying global practices in Uzbekistan.

Keywords: digital tourism, cultural heritage, virtual reality, 3D modeling, digital archive, Uzbekistan, cultural tourism.

O'ZBEKISTON TARIXIY YODGORLIKLARINI RAQAMLI TURIZM ORQALI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISH

Shodmonov Abduvohid Farxod o'g'li

Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixiy yodgorliklarni saqlash va ularning turizm salohiyatini oshirishda raqamli texnologiyalar hamda raqamli turizmning o'rnini tahlil qilingan. Virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), 3D modellashtirish va raqamli arxivlashtirish kabi texnologiyalar tarixiy merosni asrab-avaylash, uni global auditoriyaga yetkazish hamda turistik tajribani boyitishda muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatilgan. Xalqaro tadqiqotlar asosida raqamli turizmning iqtisodiy samaradorligi, ta'limiy va madaniy ahamiyati yoritilib, O'zbekiston misolida jahon tajribalarini qo'llash imkoniyatlari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli turizm, tarixiy meros, virtual reallik, 3D-modellashtirish, raqamli arxiv, O'zbekiston, madaniy turizm.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N22>

Kirish. Dastavval, raqamli turizm haqida bir jumla: Raqamli turizm (ing. digital tourism) – bu sayyohlik xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida taqdim etish va rivojlantirish tizimidir. U an'anaviy turizmni zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan boyitadi va turistlarga yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli turizm – bu virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), 3D-modellashtirish, onlayn platformalar va mobil ilovalar yordamida sayyohlarga madaniy meros, tarixiy yodgorliklar va turistik xizmatlarni taqdim etish jarayonidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Raqamli turizmning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Virtual reallik (VR): Turistlar masofadan turib, maxsus texnologiyalar orqali tarixiy obidalarni "jonli" his qilishi mumkin.

2. Kengaytirilgan reallik (AR): Smartfon yoki planshet orqali yodgorlik ustiga qo‘shimcha ma’lumot (tasvir, matn, ovoz) chiqarish.
3. 3D-modellashtirish: Tarixiy binolarni uch o‘lchamli modellarini yaratish va ularni internet orqali tomosha qilish.
4. Raqamli arxivlashtirish: Madaniy meros obidalarini kelajak avlodlar uchun saqlab qolish.
5. Onlayn turizm platformalari: Google Arts & Culture, UNESCO virtual muzeylari kabi loyihalar.
6. Smart turizm: Mobil ilovalar orqali marshrutlar, tarjimon, chipta bron qilish, ekskursiya xizmatlari. Masalan, Luvr muzeyi (Fransiya) – onlayn virtual ekskursiyalar; Kolizey (Italiya) – AR texnologiyasi orqali qadimiy Rim hayotini ko‘rish; Samarqand va Buxoro (O‘zbekiston) – 3D-modellar asosida virtual sayohatlar. Qisqacha aytganda, raqamli turizm – bu turizmning yangi bosqichi bo‘lib, madaniy merosni asrash, global miqyosda targ‘ib qilish va turistlarga qulay xizmat ko‘rsatishning eng samarali usuli hisoblanadi. Raqamli turizm – zamonaviy yo‘nalish bo‘lib, tarixiy yodgorliklarni asrash va targ‘ib qilishda raqamli texnologiyalar (VR, AR, 3D-modellashtirish) asosiy vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda. Madaniy merosni saqlash bu — 3D-skannerlash va raqamli arxivlashtirish usullari orqali tarixiy obidalar kelajak avlodlarga to‘liq va aniq shaklda yetkazilishi bo‘lsa, virtual va kengaytirilgan reallik(VR) sayohatlari esa turistlarga uzoqdan turib ham yodgorliklarni tomosha qilish imkonini beradi, kengaytirilgan reallik (AR) esa sayyohlarga joyida qo‘shimcha axborot beradi. Global amaliyotlar esa UNESCO, Google Arts & Culture, Europeana kabi platformalar tarixiy obidalarni onlayn ko‘rish va o‘rganish imkonini taqdim etmoqda [1].

Muhokama va natijalar. Turistik salohiyatni oshirish davomida raqamli turizm nafaqat obidalarni himoya qiladi, balki turizm oqimini ko‘paytirib, iqtisodiy samaradorlikni ham ta‘minlaydi. Ilmiy va amaliy ahamiyatlilik jihatidan raqamli texnologiyalar madaniy merosni tadqiq qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi va ilmiy izlanishlar uchun qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qiladi. Kelajak istiqbollari haqida shuni ta‘kidlash kerakki, yaqin yillarda raqamli turizm sohasi yirik xalqaro hamkorlik loyihalari orqali yanada kengayib, O‘zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlari uchun global reklama vositasiga aylanadi.

Raqamlash va raqamli turizmning muhimligi quyidagilar bilan izohlanadi:

Xavf ostidagi merosni saqlash uchun: zamonaviy 3D dokumentatsiya (LiDAR/terrestrial laser scanning va fotogrammetriya) portlash, zilzila, jangovar harakatlar yoki ob-havo ta‘siri natijasida yo‘qolishi mumkin bo‘lgan materialni aniq, o‘lchovli raqamli nusxasini yaratadi — bu usullar restavratsiya, monitoring va ehtimoliy rekonstruksiya uchun zarur.

Kengroq ommaga kirish imkonini oshirish uchun: virtual turlar, 3D-model va AR/VR tajribalari jismoniy borish imkoniyati cheklangan odamlar va chet el auditoriyasiga merosni yetkazadi — bu turizmni diversifikatsiya qiladi va ta‘limiy-ilmiy tadqiqot imkoniyatlarini kengaytiradi [2].

Ilmiy va menejment uchun zaruriy ma’lumot uchun: raqamli arxivlar (Metama’lumot bilan birga) obidalarni boshqarish, konservatsiya qarorlarini ilmiy asoslash va uzoq muddat monitoring uchun asos yaratadi. Hatto UNESCO va boshqa tashkilotlar raqamli arxivlarni saqlash va tanlash bo‘yicha ko‘rsatmalar ham ishlab chiqqan.

Raqamli turizm va madaniy merosni konservatsiya qilishda bir qator ilg'or texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Masalan, Terrestrial LiDAR yoki 3D lazerli skanerlash yordamida baland aniqlikdagi nuqta buluti (point cloud) hosil qilinib, konstruksion deformatsiyalar va yorilishlar aniq o'lchanadi hamda restavratsiya jarayonida nazorat standarti sifatida xizmat qiladi. Fotogrammetriya, xususan, UAV/dronlar yordamida olingan yuqori rezolyutsiyali fotosuratlardan uch o'lchamli modellar yaratish orqali peyzajlar va yirik majmualarni tezkor hujjatlashtirishda samarali usul hisoblanadi. RTI (Reflectance Transformation Imaging), shuningdek multispektral va giperspektral tasvirlash texnologiyalari esa yuzalarning kimyoviy va material xususiyatlarini, shuningdek, yozuv yoki bezaklarni aniqlash imkonini beradi. GIS (Geographic Information Systems) madaniy meros kontekstini – arxeologik qatlamlar, landshaftlar va migratsiya yo'llarini – xaritalash va boshqarishda muhim o'rin tutadi. BIM (Building Information Modeling) yoki Digital Twin yondashuvi yodgorliklarning tizimli raqamli ikkilamchi nusxasini yaratib, ularni konservatsiya qilish, texnik xizmat ko'rsatish va boshqarishda, jumladan, turistlar oqimi hamda infratuzilmani rejalashtirishda qo'llaniladi. Shuningdek, AR/VR texnologiyalari, 360° panorama va interaktiv veb-tajribalar foydalanuvchini tarixiy joylarga "eltiradi", ularni virtual rekonstruktsiyalar va qayta tiklangan sahnalar orqali o'tmish bilan tanishtiradi hamda tarixiy kontekstni yanada jonli his etish imkonini beradi [3].

Raqamli merosni hujjatlashtirish va axborot boshqaruvi: ideal ish jarayoni (work-flow) bo'lib, unda:

1. Oldindan reja (documentation strategy) — hujjatlashtirish maqsadi (restavratsiya, arxiv, virtual turizm), o'lchov toleranslari va metama'lumot talablari aniqlanadi. (UNESCO / PERSIST tavsiyalari).
2. Ma'lumot yig'ish — LiDAR, dрон fotosuratlarini, RTI, spektral tasvirlar va kontekstual GIS ma'lumotlari to'planadi.
3. Ma'lumotlarni qayta ishlash — nuqta buluti — mesh — teksturali 3D model; sifat nazorati; georeferensiyalash; metama'lumot qo'shish (standartlar asosida, masalan, CIDOC-CRM, Dublin Core).
4. Arxivlash va uzoq muddatli saqlash — PERSIST (UNESCO) va boshqa protokollar bo'yicha format tanlash, checksum, replikasiya, hujjatlashtirilgan ingest jarayoni.
5. Ta'lim va tarqatish — veb-interfeyslar, AR/VR ilovalar, Google Arts & Culture yoki o'z platformangiz orqali (open access / ko'rib chiqilgan ruxsatlar bilan). CyArk & Google Open Heritage loyihalari good practice misoli.

Global amaliy misollar (case studies) bu:

CyArk & Google Arts & Culture — Open Heritage bu — bir qator xavf ostidagi saytlarga LiDAR va fotogrammetriya bilan hujjatlashtirishni olib kelgan, ochiq 3D moddellarni tadqiqot va virtual tashriflar uchun taqdim etadi. Bu yondashuv nafaqat saqlash, balki keng jamoatchilikni jalb qilishda muvaffaqiyatli bo'lgan [4].

Project Anqa (Yale/ICOMOS/CyArk): Suriyadagi va Iroqdagi xavf ostidagi obidalarni mahalliy mutaxassislar bilan 3D hujjatlashtirish bo'yicha trening va saqlash tajribasi bo'lib, mahalliy salohiyatni oshirishni ta'minladi.

UNESCO "Dive into Heritage" bu — butunjahon merosi uchun platforma, "intangible va tangible" merosni raqamlashtirish va onlayn taqdim etish loyihasi shu orqali ta'limiy resurs va interaktiv tajriba yaratildi.

Getty Conservation Institute: 3D skan va raqamli tasvirlashni konservatsiya jarayonlariga integratsiyalash va mountmaking/digital workflows bo'yicha amaliy qo'llanmalar ishlab chiqmoqda.

Tizimdan foydalanish va qoniqish: so'nggi tadqiqotlar AR/VR asosidagi arxeologik/meros tajribalari sayyohlarni jalb qilish va ularda joyga borish istagini oshirishini ko'rsatadi, lekin VR odatda "chet el" auditoriyasini jalb qilishga mos — u real tashrifni butunlay o'rnata olmaydi, balki uni to'ldiradi. (Systematic reviews va 2024–2025 tadqiqotlari).

Raqamlashtirish — konservatsiya uchun ishonchli dalil: LiDAR va fotogrammetriya restavratsiya qarorlarini empirik ma'lumotlar bilan qo'llab-quvvatlash imkonini beradi (o'lchovlar, deformatsiya monitoringi). Getty va ICOMOS tadqiqotlari bunga misol bo'la oladi [5].

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, raqamli turizm va madaniy merosni konservatsiya qilish sohasida bir qator muammolar mavjud. Avvalo, ma'lumotlar bilan ishlash va ularni saqlash masalasi (big data), intellektual mulk va egalik (masalan, raqamli "digital twin" kimga tegishli ekani), texnik kompetensiya yetishmasligi hamda moliyalashtirishdagi qiyinchiliklar tez-tez uchraydi. Shuningdek, texnologiyaning o'zi arxivning kafolati bo'la olmaydi, chunki formatlar eskirishi ham mumkin. Shu bois PERSIST kabi xalqaro tavsiyalarni inobatga olish alohida ahamiyat kasb etadi.

Amaliy tavsiyalarga to'xtaladigan bo'lsak, ular milliy va mintaqaviy muassasalar uchun qadam-baqadam ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Eng avvalo, strategik rejalashtirish va prioritetlash zarur: qaysi obidalar birinchi hujjatlashtirilishi lozimligi xavf darajasi, ilmiy qiymati va turizm salohiyatidan kelib chiqib baholanishi kerak. Keyingi muhim yo'nalish — standart va metadata tizimlarini joriy etishdir. Masalan, CIDOC-CRM, PERSIST va Dublin Core kabi standartlar arxiv va veb-resurslar uchun yagona shakllarni belgilab beradi.

Mahalliy salohiyatni rivojlantirish ham o'ta dolzarb masaladir. Buning uchun konservatorlar va texnik mutaxassislarini muntazam treninglardan o'tkazish talab etiladi. Ochiq va xavfsiz ma'lumot strategiyasini ishlab chiqish ham muhim bo'lib, ilmiy foydalanish uchun ma'lumotlar ochiq bo'lishi, ammo joylar xavfsizligi uchun sezgir obyektlar, masalan, zaif arxeologik qabrlar haqidagi ma'lumotlarga cheklovlar qo'yilishi lozim.

Ta'lim va turizmni rivojlantirish nuqtai nazaridan interaktiv ilovalar, AR marshrutlar, virtual turlar va "storytelling" (hikoya aytish) uslublari marketing hamda madaniy diplomatiya vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Moliyalashtirish masalasida esa xalqaro grantlar (Arcadia, Getty, UNESCO), xususiy tashabbuslar (masalan, Google Arts & Culture) hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish samarali yechim bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Frischer B. Rome Reborn 4.0 Project Report. Rome Reborn Project. 2022.
2. Geroimenko, V. (Ed.). Augmented Reality in Tourism, Museums and Heritage: A New Technology to Inform and Entertain. 2021. – P. 35–60.
3. Muenster S. Digital 3D technologies for humanities research and education. Applied Sciences, 12(3), 2023. – P. 85–95.
4. Siddiqui M. S. Syed, T. A., Nadeem A., Nawaz W., & Alkhodre A. Virtual Tourism and Digital Heritage: An Analysis of VR/AR Technologies and Applications. International Journal of Advanced Computer Science and Applications (IJACSA), 13(7), 2021. – P. 563–573.
5. UNESCO/PERSIST Content Task Force. The UNESCO/PERSIST guidelines for the selection of digital heritage for long-term preservation. Paris: UNESCO. 2016. – Pp. 15–20.

09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES

Received: 2 October 2025

Accepted: 15 October 2025

Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

YOUTH STATE POLICY: NEW INITIATIVES BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE AND IMPORTANT ADDITIONS TO THE LAW

Otamuratov Sarvar

Tashkent State University of Economics,
Head of the Department of “Social Sciences”,
Doctor of Sociology, Professor

Abstract. This article analyzes the international experience of state youth policy and studies the possibilities of their implementation in youth policy in Uzbekistan based on the models of countries such as Germany, Singapore and South Korea. National programs and initiatives are also analyzed, achievements in practice and existing problems are indicated. The article puts forward proposals for further improving the youth policy of Uzbekistan based on foreign experience. In particular, it is proposed to make relevant amendments and additions to the existing legislation.

Keywords: youth policy, international experience, state programs, innovation, education, employment, Germany, Singapore, South Korea, Uzbekistan.

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA YANGI TASHABBUSLAR VA QONUNGA TAKLIF ETILAYOTGAN MUHIM QO‘SHIMCHALAR

Otamuratov Sarvar

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri,
sotsiologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarga oid davlat siyosatining xalqaro tajribasi tahlil qilinib, Germaniya, Singapur va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning modellari asosida O‘zbekistondagi yoshlar siyosatida ularni joriy etish imkoniyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, milliy dasturlar va tashabbuslar tahlil qilinib, amaliyotdagi yutuqlar hamda mavjud muammolar ko‘rsatilgan. Maqolada xorijiy tajribalar asosida O‘zbekiston yoshlar siyosatini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan. Xususan, mavjud qonunchilikka tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar siyosati, xalqaro tajriba, davlat dasturlari, innovatsiya, ta‘lim, bandlik, Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya, O‘zbekiston.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N23>

Kirish. Bugungi kunda yoshlar siyosatini samarali tashkil etish har qanday davlatning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. BMTning ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisining 16–30 yoshli qismi 1,2 milliard kishini tashkil etadi va bu sohaga tegishli siyosatlar jahon miqyosida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1].

Yoshlar har qanday davlatning eng katta strategik sarmoyasi hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo miqyosida yoshlarga oid davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha turli mamlakatlarda turfa tajribalar mavjud. Bu tajribalarda yoshlarning ta'lim olishi, mehnat bozorida o'z o'rnini topishi, siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi, innovatsion g'oyalarini ro'yobga chiqarishiga qaratilgan yo'nalishlar alohida ahamiyatga ega.

“Yosh avlodning fuqarolik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar, yetuk mutaxassislar etib tarbiyalash bo'yicha keng ko'lamlı ishlarni olib bormoqdamiz” [2].

O'zbekistonda so'nggi yillarda yoshlarga oid davlat siyosatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2021–2025-yillarga mo'ljallangan **“Yoshlarga oid davlat siyosati konsepsiyasi”**, “Yoshlar — kelajagimiz” dasturi, “Yoshlar parlamenti”, “Yoshlar daftari” mexanizmi kabi tashabbuslar bu boradagi islohotlarning asosiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda [3].

I. Xalqaro tajriba tahlili.

Germaniya

Germaniyada yoshlar siyosati federal, yer (shtat) va mahalliy darajalarda amalga oshiriladi. Yoshlar tashkilotlari hamda jamoat institutlari davlat siyosatida faol ishtirok etadi. Federal hukumatning “Jugendstrategie 2015–2020” dasturi yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, faol fuqarolik pozitsiyasi va mehnat bozoriga moslashishini ta'minlashga qaratilgan [4].

Ahamiyatli jihatlar: Yoshlar tashkilotlarini institutsional qo'llab-quvvatlash; ta'lim va fuqarolik ongini uyg'un tarbiyalash.

Singapur

Singapurda yoshlar siyosati “National Youth Council” (“Yoshlar milliy Kengashi”) tomonidan yuritiladi. “Youth Corps Singapore” (“Singapur Yoshlar korpusi”) tashabbusi orqali yoshlar ixtiyoriy faoliyat, rahbarlik salohiyati va innovatsion loyihalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega [5]. Singapur modeli ta'lim va texnologik rivojlanishga yo'naltirilgan bo'lib, davlat va xususiy sektor o'rtasida mustahkam hamkorlik mavjud.

Ahamiyatli jihatlar: yoshlarni startap va innovatsiya sohalariga jalb etish; ixtiyoriy faoliyatni institutsional shaklda rivojlantirish.

Janubiy Koreya

Janubiy Koreya “Youth Basic Act” (“Yoshlar to'g'risidagi asosiy qonun”) orqali yoshlar siyosatini tartibga soladi. “Youth Employment Success Package” (“Yoshlarni ish bilan ta'minlashda muvaffaqiyatlar to'plami”) dasturi orqali yoshlarni ish bilan ta'minlash, kasbga yo'naltirish va motivatsiyalash choralari ko'rilgan [6]. Axborot texnologiyalari va raqamli savodxonlikka alohida e'tibor qaratilgan.

Ahamiyatli jihatlar: bandlikka yo'naltirilgan kompleks dasturlar; raqamli kompetensiyalar va onlayn ta'lim.

II. O'zbekistonda yoshlar siyosati: holat va tahlil

So'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlar siyosatini isloh qilishga qaratilgan bir qator dastur va farmonlar qabul qilindi. Jumladan:

- **Prezidentning 2021-yil 13-yanvardagi PF-6155-sonli Farmoni** — “Yoshlarga oid davlat siyosatini 2021–2025-yillarda amalga oshirish konsepsiyasi” tasdiqlandi [3].

- **“Yoshlar — kelajagimiz” dasturi** — yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, kreditlar ajratish, bandlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan [7].

- **“Yoshlar daftari”** — ehtiyojmand yoshlar bilan maqsadli ishlash mexanizmi joriy etildi.

Qo‘llanilayotgan yo‘nalishlar:

- Yoshlarning ta‘lim olishi va kasbga yo‘naltirilishi.
- Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash (imtiyozli kreditlar, subsidiyalar).
- Yoshlarni madaniy-ma‘rifiy hayotga jalb etish.
- Mahalliy darajada “Yoshlar yetakchilari” orqali ishlar tashkil etilishi.

2024-yildagi ma‘lumotlarga ko‘ra, “Yoshlar daftari” orqali 1,2 milliondan ziyod yoshlarga turli ko‘maklar ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, ta‘lim sohasida ham grantlar va stipendiyalar soni ortib bormoqda.

III. Xalqaro tajribani O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.

Xalqaro tajribalar tahlili asosida O‘zbekiston yoshlar siyosatini yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarni tavsiya qilamiz:

| Xalqaro tajriba | O‘zbekiston uchun imkoniyat |
|--|--|
| Germaniya: mahalliy darajadagi siyosat | Har bir tuman/shaharda “Yoshlar markazlari” faoliyatini kuchaytirish |
| Singapur: startup va innovatsiya | “Yoshlar innovatsiya markazlari”ni tashkil etish |
| Janubiy Koreya: raqamli savodxonlik | IT ta‘lim dasturlarini ommalashtirish (masalan, “bir million dasturchi”) |

IV. Yurtimizda yoshlar masalasiga alohida e‘tibor qaralib, ularning hayotini har tomonlama yaxshilash, bilim va ko‘nikmalarini oshirish, bandligini ta‘minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha muhim chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Shu munosabat bilan **“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunga** bir qator dolzarb o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish taklif etiladi. Bu o‘zgarishlar yoshlarning hayotida yangi imkoniyatlar eshigini ochishi shubhasiz.

| Taklif etilayotgan tahrir (qora (qalin) shrift bilan berilgan) |
|---|
| <p>5-modda. Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:</p> <p>yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash; yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash; yoshlarning ma‘naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish; yoshlar uchun ochiq va sifatli ta‘limni ta‘minlash;</p> <p>yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarlariga o‘qitish; yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish; yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va</p> |

oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib **fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlab** tarbiyalash;

yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish;

yoshlarning yangi g'oyalar asosida innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;

yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

8-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

tegishli hududda yoshlarga oid davlat siyosatining ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi;

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi hududiy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

tegishli hududda yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishning samaradorligini oshirish uchun yoshlarning ehtiyoji monitoringi olib borilishini va baholanishini ta'minlaydi;

yoshlarning bandligi va ularni ishga joylashtirish siyosati ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi, **yoshlarni zarur kasb-hunarlariga o'rgatadi**, mehnat bozori va yosh mutaxassislarni ishga joylashtirish amaliyoti monitoringini tashkil etadi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

12-modda. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha organlarning yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha organlar:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga bo'lgan intilishni va sportga qiziqishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlar o'rtasida xalq o'yinlari, milliy va boshqa sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilishini tashkil etadi;

yoshlar o'rtasida xalqaro sport aloqalarini rivojlantirish va mustahkamlashda, sport musobaqalarini o'tkazishda ishtirok etadi;

jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro hamda respublika miqyosida o'tkaziladigan tadbirlarda iqtidorli va iste'dodli yoshlarning ishtirok etishini ta'minlaydi;

ichki turizmni rivojlantirish dasturlari doirasida yoshlarni sayohatlarini tashkil etadi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha organlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

20-modda. Yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ommaviy axborot vositalarining ishtirok etishi

Ommaviy axborot vositalari:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishga, shu jumladan sog'lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalashga, jamiyat hayotida uning roli va faolligini oshirishga, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarni yoritadi;

yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashishga doir tadbirlarda ishtirok etadi;

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi, davlat dasturlari va hududiy dasturlar ro'yobga chiqarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar, shuningdek fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha hamkorlik qiladi.

yoshlar tomonidan amalga oshirayotgan ibratli ishlarini keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etadi.

Ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

26-modda. Yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

Davlat yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini qo'llab-quvvatlaydi.

Yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash:

davlat organlari tomonidan yoshlar tadbirkorligini tashkil etishda ko'maklashish;

yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish maqsadida imtiyozli kreditlar berish;

yoshlarni tadbirkorlik faoliyati asoslari bo'yicha o'qitish, ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasida hamkorlikni shartnoma asosida rivojlantirish;

yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash;

yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq tegishli imtiyozlar va afzalliklar belgilanadi.

27-modda. Yoshlar ijtimoiy xizmati

Yoshlarni va yosh oilalarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasida yoshlar ijtimoiy xizmati faoliyat ko'rsatadi.

Yoshlar ijtimoiy xizmati faoliyatining yo'nalishlari quyidagilardan iborat: yosh fuqarolarga psixologik-pedagogik, yuridik yordam ko'rsatish va maslahatlar berish;

imkoniyati cheklangan yosh fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatish;

yosh oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish;

ta'lim va mehnat jamoalarida yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;

yosh mutaxassislarga yangi ish joyiga moslashishida, ularni qayta tayyorlashga va ularning malakasini oshirishga, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularni uy-joy bilan ta'minlashga ko'maklashish;

voyaga yetmaganlar uchun ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida ijtimoiy yordam ko'rsatish;

ozodlikdan mahrum etish joylaridan va ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yosh fuqarolarni ijtimoiy moslashtirish;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga ko'maklashish;

huquqiy targ'ibot, yoshlarni ishga joylashish, ta'lim olish va kasbiy tayyorgarlik borasida, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, turizm va sport sohasidagi imkoniyatlar to'g'risida xabardor etish;

yoshlarning yashash joylarida bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishini tashkil etish.

yoshlar o'rtasida kitobxonlikni, mutolaa madaniyatini rivojlantirish

Yoshlar ijtimoiy xizmati o'z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq boshqa yo'nalishlar bo'yicha ham amalga oshirishi mumkin.

Ushbu takliflar qo'yidagi vazifalarni ijrosini ta'minlaydi:

1. Yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga yo'naltirish.

Qonunning 5-moddasiga kiritilayotgan qo'shimchalarga muvofiq, yoshlarni zamonaviy talablarga mos kasb-hunarlariga o'qitish, shuningdek, ularning innovatsion g'oyalari va loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantiriladi. Bu, avvalo, yoshlarning raqobatbardoshligi va mehnat bozorida faolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

2. Mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari kengaymoqda.

Qonunning 8-moddasiga ko'ra, mahalliy davlat hokimiyati organlari faqatgina yoshlar bandligini ta'minlash bilan cheklanmasdan, ularni kasb-hunarga o'qitish, mehnat bozorini monitoring qilish va yosh mutaxassislarni ishga joylashtirishda faol ishtirok etishi lozim bo'ladi. Bu orqali hududlardagi yoshlar bilan bog'liq masalalar samarali hal etiladi.

3. Turizm orqali yoshlarning dunyoqarashi kengaytiriladi.

12-moddaga kiritilayotgan qo'shimchaga binoan, jismoniy tarbiya va sport organlari yoshlar uchun ichki turizm bo'yicha sayohatlar tashkil etishi nazarda tutilmoqda. Bu tashabbus yoshlarning vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash, tarixiy merosimizga bo'lgan hurmatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Ommaviy axborot vositalarining faol ishtiroki.

20-moddadagi o'zgarishga ko'ra, OAV yoshlar tomonidan amalga oshirilayotgan ibratli ishlar, tashabbuslar, innovatsion loyihalar haqida jamoatchilikka keng tarqatishi kerak bo'ladi. Bu yoshlar o'rtasida ijobiy misollarni ko'paytirishga, ularni ilhomlantirishga xizmat qiladi.

5. Yoshlar tadbirkorligini yanada qo'llab-quvvatlash.

26-moddaga qo'shilayotgan normalarga muvofiq, davlat yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari va g'oyalarini amalga oshirishda keng ko'lamda qo'llab-quvvatlaydi. Bu orqali yoshlar o'z biznesini yo'lga qo'yishda va yangi ish o'rinlari yaratishda katta imkoniyatlarga ega bo'ladi.

6. Kitobxonlikni rivojlantirish — yoshlar ma'naviyatining poydevori.

27-moddada belgilangan yoshlar ijtimoiy xizmati yo'nalishlariga kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirish ham qo'shilmoqda. Bu tashabbus yoshlarning ma'naviy kamoloti, tahliliy fikrlash qobiliyati va intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi qo'shimchalar yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini yanada oshirish, ularning imkoniyatlarini kengaytirish va jamiyatdagi faolligini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Bu o'zgarishlar nafaqat yoshlar, balki mamlakatning kelajagi uchun ham katta ahamiyatga ega. Chunki yoshlar — bu kelajagimiz poydevori.

Xulosa va takliflar. Shuning bilan birga Qonunga bildirilgan takliflarni amaliyotga hamda ijobiy natijalar bergan xalqaro tajribalarni amaliyotda qo'llash maqsadida qo'yidagi **takliflar** ilgari suriladi:

1. Yoshlar tashkilotlariga mustaqillik va moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish;
2. Yoshlar innovatsion loyihalari uchun venchur fondlar tashkil etish;
3. Har bir mahallada raqamli ta'lim markazlarini tashkil etish;
4. Yoshlar faolligini baholash uchun milliy reyting va monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

Ushbu kompleks chora-tadbirlar "Yoshlarga oid davlat siyosati"ni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. United Nations (2020). *World Youth Report: Youth Social Entrepreneurship and the 2030 Agenda*. <https://www.un.org/development/desa/youth/>
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. - B.54-55.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-6155-son, 13.01.2021. "Yoshlarga oid davlat siyosatini 2021–2025-yillarda amalga oshirish konsepsiyasi".
4. Bundesministerium für Familie, Senioren, Frauen und Jugend (2015). *Jugendstrategie der Bundesregierung 2015–2020*. <https://www.bmfsfj.de/>
5. National Youth Council Singapore (2020). *Youth Corps Singapore Overview*. <https://www.nyc.gov.sg/>
6. Ministry of Gender Equality and Family of South Korea (2022). *Youth Policy Framework*. <https://www.mogef.go.kr/>
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-iyundagi 469-son qarori bilan tasdiqlangan "Yoshlar — kelajagimiz" davlat dasturi.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE NEGATIVE INFLUENCE OF UPBRINGING AND THE ENVIRONMENT ON THE FORMATION OF DISRUPTIVE IDEAS AND DISRUPTIVE ACTIVITIES

Tashanov Abduxoliq

Professor of the Department of Social Sciences,
Tashkent University of Economics and Technology,
Doctor of Philosophical Sciences. (DSc)

Abstract. This article examines the nature of destructive ideas and destructive activities, the negative influence of upbringing and the environment on their formation. The possibilities of the micro and macro environment, including educational institutions, labor collectives, mass media, and spiritual educational institutions, were studied to prevent young people from falling under destructive influences. Also, the important principles of the process of developing human consciousness, his way of thinking, feelings, and aspirations of the spiritual environment are substantiated.

Keywords: human, environment, microenvironment, macroenvironment, educational institutions, labor collectives, mass media, institutions of spiritual education, human consciousness, way of thinking, feelings, principles.

BUZG'UNCHI G'OYA VA BUZG'UNCHI FAOLIYATNING SHAKLLANISHIDA SALBIY TARBIYA VA ATROF-MUHIT TA'SIRI

Abduxoliq Tashanov

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrası professori,
f.f.d. (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada buzg'unchi g'oya va buzg'unchi faoliyatning mohiyati, ularning shakllanishida salbiy tarbiya va atrof-muhit ta'siri o'rganilgan. Yoshlarning buzg'unchi ta'sirlarga tushib qolishi oldini olishda mikro va makro muhit, jumladan, ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari, ommaviy axborot vositalari, ma'naviy tarbiya maskanlarining imkoniyatlari o'rganilgan. Shuningdek, ma'naviy muhitning inson ongini, uning fikrlash tarzini, his-tuyg'ulari va intilishlarini rivojlantirish jarayonning muhim tamoyillari asoslangan.

Kalit so'zlar: inson, atrof-muhit, mikro muhit, makro muhit, ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari, ommaviy axborot vositalari, ma'naviy tarbiya maskanlari, inson ongi, fikrlash tarzi, his-tuyg'ular, tamoyillar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N24>

Kirish. Buzg'unchi g'oya va buzg'unchi faoliyatlarning shakllanishida tarbiya va atrof-muhitning ta'siri katta ahamiyat kasb etadi. Birinchi navbatda, salbiy tarbiya, ya'ni bolalikdan berilgan yoki keyingi bosqichlarda olingan tarbiya insonning shaxsiy qadriyatlar tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Agar insonning atrofidagi jamiyatda salbiy munosabatlar, boshqalarga qarshi ko'rish munosabati yoki qonun-qoidalarga nopisandlik mavjud bo'lsa, bu uning dunyoqarashiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. "Hozirgi vaqtda ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy

asosda tahlil qilib, uni yaxshilash, takomillashtirish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishga solishni davrning o'zi talab etmoqda. Jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar shunday asosda yo'lga qo'yilmagani uchun ham ular kutilgan natijani bermayapti"[1.269].

Shuningdek, atrof-muhit, ya'ni inson yashaydigan mahalla, oila, ish joyi va jamoatchilik ham uning qonun va qoidalarga bo'lgan munosabatida muhim rol o'ynaydi. Agar kishi atrofida salbiy ta'sirga uchraydigan, qonunbuzarlik yoki noqonuniy faoliyatlar, axloqsizlik odatiy ko'rinish olgan joylarda hayot kechirsa, u vaqt o'tishi bilan bunday faoliyatlarga intilish va ularni qabul qilishni normal holat deb bila boshlashi mumkin.

Atrof-muhit ma'lum bir konsepsiyalarda — mikro muhit va makro muhit tarkibida tasniflanadi. Ular har biri o'z ishlatilishi va tahlilida mo'ljallangan jihatlari bilan ajralib turadi. Mikro muhit — bu insonning kundalik faoliyati davomida to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi elementlardan iborat. Uning tarkibiy qismlari: oila - o'z a'zolari orasidagi munosabatlar, axloqiy qadriyatlar va hayot olib borish tarzini belgilaydi. Do'stlar va ijtimoiy guruhlar - individuumning ijtimoiy loyihalari, falsafasi, va odatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ma'rifiy muassasalar - yoshlarning bilim olishi va ma'naviy rivojlanishini ta'minlaydi. Mikro muhitga alohida jamoatchiliklar, uyushmalar, ruhiy markazlar va dialog platformalari kiradi, bu insonlarning o'zaro hamkorligini va muhokamalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega[2.504].

Adabiyotlar tahlili. Falsafiy adabiyotlarda buzg'unchilikka olib boruvchi g'oyalar va xatti-harakatlar ko'pincha salbiy tarbiya va ijtimoiy muhitning bevosita ta'siri bilan bog'lanadi. Sharq falsafasida, ayniqsa Imom G'azzoliy, Al-Farobiy va Ibn Sino kabi mutafakkirlarning asarlarida inson tarbiyasi, axloqiy komillik va jamiyat muhitining ta'siri chuqur tahlil qilingan. Al-Farobiy o'zining "Fozil shahar" konsepsiyasida axloqli, bilimli va komil insonni tarbiyalash faqat sog'lom jamiyat va yetuk rahbarlar mavjud bo'lgan muhitda mumkinligini ta'kidlaydi. Imom G'azzoliy esa tarbiyani qalb pokligi va ruhiy yetuklik bilan bog'laydi. U o'zining "Ihyo ulumid-din" asarida bolaning yoshlikdan boshlab olgan tarbiyasi uning butun hayotiga ta'sir qilishini, noto'g'ri tarbiya esa insonni nafaqat dunyoviy, balki ma'naviy halokat sari olib borishini aytadi. G'azzoliy fikricha, salbiy muhit — ya'ni buzuq oila, adolatsiz muallimlar yoki jamiyatdagi axloqiy inqiroz — insonda haqni inkor etish, zo'ravonlik va buzg'unchilikni shakllantiradi. Bu g'oyalar Sharq tafakkurida tarbiya va muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Yusuf Xos Hojib o'zining mashhur "Qutadg'u bilig" asarida insonning komillikka erishuvi uchun to'g'ri tarbiya, adolatli muhit va dono rahbar muhimligini ta'kidlaydi. Asarda inson xulqining buzilishi — jaholat, nodonlik va yomon muhit bilan bog'lanadi. Alisher Navoiy ham o'z asarlarida — xususan, "Mahbub ul-qulub" va "Nasoyim ul-muhabbat"da — inson axloqi, tarbiya va muhitning o'zaro aloqasiga katta e'tibor qaratadi. U yomon muhit va nopok do'stlar insonni buzg'unchilikka undashi, uning qalbini qoraytirishi mumkinligini ko'p bor ta'kidlaydi.

J. J. Russo o'zining "Ijtimoiy shartnoma" va "Emil yoki tarbiya to'g'risida" asarlarida inson tabiatan yaxshi, biroq noto'g'ri tarbiya va adolatsiz jamiyat sharoiti uni buzadi, degan g'oyani ilgari suradi. Uningcha, agar bola tabiat bilan uyg'un muhitda, erkinlik va mehr asosida tarbiyalansa, u sog'lom axloqiy tamoyillarga ega bo'ladi. Falsafa va psixoanalizda Sigmund Freydning ishlari alohida o'rin tutadi. Freyd inson ruhiyatidagi bosimlar, bolalikdagi tajribalar, repressiyalar va oila muhitidagi tarbiya uslublari qanday qilib destruktiv xatti-harakatlarga olib kelishini tahlil qiladi. Unga ko'ra, salbiy muhitda ulg'aygan shaxs ichki agressiyasini

jamiyatga qarshi yo'naltirishi mumkin. Erix Fromm o'zining "Erkinlikdan qochish", "Inson qalbi" kabi asarlarida salbiy tarbiya va ijtimoiy strukturalarning inson xulq-atvoriga qanday salbiy ta'sir ko'rsatishini chuqur tahlil qiladi. Uning fikricha, insonni muhabbat va hurmat emas, qo'rquv va majburlov orqali tarbiyalash — zo'rvonlik va buzg'unchilikni shakllantiradi. Fromm nazarida salbiy ijtimoiy sharoitlar (masalan, totalitarizm, iqtisodiy zo'riqish, begonalashuv) insonda o'zini jamiyatga qarshi qo'yish istagini kuchaytiradi. Bu qarashlar buzg'unchilikni nafaqat shaxsiy, balki tizimli muammo sifatida ham ko'rib chiqishga imkon beradi. Zamonaviy falsafiy adabiyotlar, xususan, postmodernistlar (M. Fuko, J. Derrida) va ijtimoiy tanqidchilar (N. Chomskiy, J. Baudrillard) salbiy muhit ta'sirining yanada murakkab ko'rinishlariga e'tibor qaratadi. Ular ta'lim tizimidagi ideologik nazorat, OAV orqali ongni manipulyatsiya qilish, iste'molchilik madaniyatining odamni obyektga aylantirishi kabi omillarni buzg'unchi ong shakllanishining zamonaviy manbalari sifatida ko'rsatadi. Bu fikrlar salbiy tarbiya va atrof-muhit ta'sirini chuqur ijtimoiy-falsafiy kontekstda tushunishga yordam beradi.

Metodologiya. Ushbu maqolada buzg'unchi g'oya va faoliyatning shakllanishiga salbiy tarbiya va atrof-muhitning ta'sirini falsafiy nuqtai nazardan o'rganish uchun interditsipliner (fanlararo) yondashuv qo'llanildi. Falsafa, ijtimoiy antropologiya, psixologiya va pedagogika sohalaridagi nazariy qarashlar o'zaro tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali inson xulq-atvorining shakllanishida ichki va tashqi omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir chuqurroq anglanadi va buzg'unchilikning ildizlari kengroq kontekstda ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda falsafiy-tahliliy metod asosiy usul sifatida tanlandi. Bu metod orqali qadimgi Sharq va G'arb mutafakkirlarining inson tarbiyasi va axloqi haqidagi g'oyalari o'rganildi hamda ularning bugungi zamonaviy buzg'unchilik holatlari bilan bog'liqligi tahlil qilindi. Jumladan, Al-Farobiy, Imom G'azzoliy, Alisher Navoiy, S. Freyd, E. Fromm va M. Fuko kabi mutafakkirlarning asarlaridan foydalanildi. Ularning qarashlari asosida salbiy tarbiya va atrof-muhitning buzg'unchi g'oyalarga qanday zamin yaratishi tushuntirildi. Bundan tashqari, komparativ (taqqosloviiy) metod yordamida turli tarixiy-madaniy kontekstlarda tarbiya va muhit omilining inson xatti-harakatiga ta'siri solishtirildi. Xususan, Sharq va G'arb falsafiy merosidagi tarbiya modelining farqlari va o'xshashliklari aniqlanib, ularning buzg'unchilikka munosabatlari tahlil qilindi. Bu metod voqelikni biryoqlama emas, balki ko'p qirrali va tahliliy ko'z bilan ko'rib chiqish imkonini berdi. Shuningdek, maqolada kontent-tahlil usuli orqali ijtimoiy va ommaviy madaniyatda (kitoblar, kino, ijtimoiy tarmoqlar) salbiy tarbiya va buzg'unchi g'oyalarning qanday ifodalangani o'rganildi. Bu orqali zamonaviy axborot makonining inson ongiga va xulq-atvoriga ta'siri baholandi. Natijada, faqat an'anaviy tarbiya tizimi emas, balki global axborot muhitining ham buzg'unchilik shakllanishida faol rol o'ynashi aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Yoshlarning buzg'unchi ta'sirlarga tushib qolishining oldini olishda ta'lim muassasalarining ahamiyati katta hisoblanadi. Aynan bu borada maktab va o'quv muhiti buzg'unchi ta'sirlar uchun muhim ma'naviy qobiq vazifasini o'taydi. Maktab shaxsni bilimga bo'lgan muhabbatni shakllantirishga, axloqiy qoidalarni o'rgatishga yordam beradi. Maktab nafaqat insonning hissiy jihatdan boy aloqalari darajasida bolalarni birlashtirish vositasi sifatida milliy tarbiyadan foydalanish muammosini hal qilibgina qolmay, balki ularning har biriga ushbu tarbiyani mustahkamlash va boyitishga hissa qo'shish imkoniyatlarini ochib berishga qodir[3.63]. O'qituvchilar, sinfdoshlar bilan muloqot orqali ijtimoiy munosabatlar o'rnatiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv dasturlari va kitoblardagi ma'naviy, axloqiy

mazmundagi ma'lumotlar shaxsning dunyoqarashini kengaytirishi bilan birga buzg'unchi g'oyalarning asl mohiyatini va oqibatlarini anglashga yordam beradi. "Bugungi shiddatli, murakkab zamon shuni ko'rsatmoqdaki, bu borada faqat ta'lim-tarbiya tizimining o'zi mavjud ma'naviy tahdidlarga qarshi turolmaydi. Bu masalaga butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini safarbar etmas ekanmiz, kutilgan natijaga erisholmaymiz. Chunki hozirgi kunda bolalarimizni ota-ona, bog'cha, maktab yoki institut emas, aksariyat hollarda qo'lidagi telefon "tarbiyalamoqda". Afsuski, ana shu kichkinagina telefon endi oddiy aloqa vositasi emas, ko'pincha yot mafkurani targ'ib etadigan katta qurolga, zo'ravonlik, yovuzlik "virusi"ni tarqatadigan manbaga aylanmoqda, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz"[4.297].

Bundan tashqari atrof-muhitning muhim tarkibiy qismlari bo'lgan jamoatchilik joylari va mehnat jamoalari ham buzg'unchi g'oyalarning oldini olishda katta imkoniyatlarga ega. Masalan, ish joyidagi hamkasblar bilan munosabatlar, rahbarlarning qo'llab-quvvatlovi va mehnat muhiti shaxsning kasbiy rivojlanishiga hamda ishga bo'lgan munosabatiga ta'sir etadi. Jamoat ishlarida ishtirok etish shaxsiga ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga yordam beradi.

Bugungi globallashtirish ta'siridagi shiddat bilan o'zgarib borayotgan ma'naviy muhit va unda tarqalayotgan buzg'unchi ta'sirlarning oldini olishda ommaviy axborot vositalari va internetning roli katta bo'lmoqda. Ayniqsa, televideniye, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi har bir tarqatilayotgan ma'lumotning ijobiy yoki salbiy oqibatlari tezda o'z ta'sirini namoyon qilmoqda. A.Erkaevning fikriga ko'ra: "Ommaviy kommunikatsiya vositalari – radio, kino (keyinchalik televideniye, internet va hokozolarning) vujudga kelishi, komikslar, ko'ngilochar asarlar, gramplastinkalar (keyinchalik video va audio-disklar) hamda boshqa madaniy iste'mol buyumlarining sanoat usulida "ulgurji" ishlab chiqarilishi sababli moddiy buyumlar qatorida ma'naviy mahsulotlarning ham standartlashuvi yuz berdi. Ma'naviy-madaniy mahsulotlar iste'mol tovariga aylandi. Ularning shakli va mazmuni mahalliy, mintaqaviy va milliy qiyofalarini, xususiyatlarini yo'qota boshladi"[5.13]. Ayni paytda mass-media insonning dunyoqarashini shakllantirishda kuchli ta'sirga ega omilga aylanib bo'ldi va bu kabi axborot manbalaridan olinadigan ma'lumotlar shaxsning qadriyatlarini va qarashlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishda. Avvalambor, sog'lom axborot muhitini shakllantirish asosiy vazifaga aylanishi lozim. "Dunyoqarashni boyitishda, ommaviy axborot vositalarining "ijtimoiy taklifni shakllantirish"dagi rolini tiklash, aholi bilan bevosita muloqotni takomillashtirish jarayoni davom etayotgan islohotlar davrining muhim vazifasi bo'lib qolmoqda[6.20]". Bunday vaziyatda ommaviy axborot vositalaridagi ijobiy mazmundagi ma'lumotlar insonning to'g'ri qadriyatlarni shakllantirishida yordam beradi.

Buzg'unchi g'oya va buzg'unchi ta'sirlarning keng tarqalishida madaniy va diniy muhitdagi kamchiliklar va buzilishlar katta rol o'ynamoqda. Chunki inson ma'naviy olamidagi o'zgarishlar, u xoh ijobiy yoki salbiy bo'lsin diniy muassasalar va ma'naviy rahnamolarning mas'uliyatiga ham bog'liq bo'lib qolmoqda. Chunonchi diniy markazlar, masjidlar va ma'naviy rahnamolar insonni ma'naviy jihatdan rivojlantirishda va axloqiy qadriyatlarni o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga bu borada madaniyat va san'atning alohida roli borligini unutmaslik kerak. Teatrlar, muzeylar, ko'rgazmalar insonni madaniy jihatdan boyitishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali insonning hissiy dunyosi boyib, estetik qarashlari shakllanadi.

Ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, buzg'unchi ta'sirlarning oldini olishda milliy qadriyatlarning roli juda katta va asosiy ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar insonlarning o'z

milliy merosi, tarixiy an'analar va madaniy boyliklari bilan bog'liqligini ta'minlaydi. Ular shaxsning ma'naviy va axloqiy dunyoqarashini shakllantirib, jamiyatda mustahkam ma'naviy muhit yaratishga yordam beradi[7.708]. O'z funksiyalariga ko'ra milliy qadriyatlarning ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda bir qator ahamiyatli rollarni amalga oshiradi.

Buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashda ham milliy mental xususiyatlarni saqlash talab qilinadi va bu borada atrof-muhitning roli juda katta ahamiyatga ega, chunki inson o'zining qadriyatlari, mentaliteti va dunyoqarashini shakllantirishda atrofdagi ijtimoiy, madaniy va tabiiy muhitdan ta'sir oladi. Milliy mental xususiyatlarning saqlanishi jamiyatning barqarorligi va madaniy merosini uzluksizlik bilan kelajak avlodlarga yetkazishga yordam beradi. Bu esa jamiyatda barqaror ma'naviy muhit va sog'lom ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga asos bo'ladi.

Yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish, buzg'unchi ta'sirlardan himoyalashda ma'naviy muhitning rolini falsafiy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Aynan falsafiy tushuncha bo'lgan dunyoqarash – insonning hayotga, jamiyatga va o'z-o'ziga munosabatini belgilaydigan va uning ongini yo'naltiradigan tizimdir[8.125]. Insonning hayotdagi mavqeyi, ma'naviy ideallari va axloqiy mezonlari ko'p jihatdan uni o'rab turgan ma'naviy muhit orqali shakllanadi. Bu muhit inson ongini, uning fikrlash tarzini, his-tuyg'ulari va intilishlarini rivojlantirishga yordam beradi. Falsafiy jihatdan bu jarayon bir nechta muhim tamoyillarga asoslanadi:

Shaxs va jamiyat munosabatlari: Shaxs o'z-o'zidan ijtimoiy mavjudot bo'lib, uning dunyoqarashi jamiyatning ma'naviy qoidalari, an'anaviy qadriyatlari va madaniy boyliklari bilan uzviy bog'langan. Falsafiy qarashlarga ko'ra, insonning "Men" tushunchasi uning atrof-muhitdagi munosabatlariga bog'liq holda shakllanadi. Ma'naviy muhit bu o'rinda inson ongini boyitib, uning dunyoqarashini hayotdagi asosiy ma'naviy tamoyillar va qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Inson faoliyati va ma'naviy maqsadlar: Sog'lom dunyoqarash, falsafiy nuqtai nazardan, inson faoliyati va uning ma'naviy maqsadlari orasidagi uzviy bog'lanishni anglatadi. Ma'naviy muhit insonda yuksak maqsadlarga intilish, ma'naviy rivojlanishga intiluvchanlikni shakllantirish orqali yoshlarning dunyoqarashida sog'lom g'oyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Axloqiy ideallar va o'zini namoyon qilish: Ma'naviy muhit yoshlarga axloqiy ideallar va o'zini to'g'ri namoyon qilish yo'llarini ko'rsatadi. Falsafiy jihatdan olib qaralganda, bu jarayon yoshlarning ma'naviy o'zligini anglash va shaxsiylikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Hurmat, bag'rikenglik va yuksak insonparvarlik: Sog'lom ma'naviy muhit yoshlarga bag'rikenglik va insonparvarlik kabi qadriyatlarni singdirib, ularning turli qarashlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishini ta'minlaydi. Bu falsafiy jihatdan juda muhimdir, chunki inson yolg'iz o'z shaxsiy manfaatlaridan emas, balki kengroq jamoat manfaatlaridan kelib chiqib harakat qiladi. Bunda yoshlar dunyoqarashida ijtimoiy mas'uliyat, birdamlik va bag'rikenglik hissi mustahkamlanadi[9.186].

Sog'lom tanqidiy fikrlash va mustaqillik: Ma'naviy muhit sog'lom tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki yoshlar murakkab axborotni tahlil qilib, unga mustaqil baho berishni o'rganishlari kerak. Bu falsafiy jihatdan shaxsning erkinligi va o'z fikrini mustaqil shakllantirishga intilishini rivojlantiradi. Bunday muhitda o'sgan yoshlar o'z dunyoqarashida ma'naviy prinsiplarga suyanadi va tanqidiy yondashuvni rivojlantiradi.

Tashqi ta'sirlardan himoya qilish: Falsafiy nuqtai nazardan yoshlarning ma'naviy muhitda tarbiyalanishi ularni tashqi buzg'unchi ta'sirlardan himoya qiladi. Sog'lom

dunyoqarashga ega insonlar tashqi salbiy ta'sirlarga qarshi immunitetni shakllantiradi. "Jamiyat ma'naviy hayotidagi o'zgarishlar dinamikasida tashqi ta'sirlarni hisobga olishda bugungi kunga xos bo'lgan ta'sir va tahdidlar masalasida muhim xulosalarga kelgan mutaxassislarining fikrlarini o'rganish ham foydadan xoli emas, albatta"[10.17]. Ko'plab mutaxassislar bu jarayonda milliy qadriyatlar, milliy va diniy an'analar yoshlarning to'g'ri yo'ldan ozmasligiga yordam berishini ta'kidlaydilar.

Inson kamolotga intiluvchi mavjudot ekani: Falsafa insonni kamolotga intiluvchi mavjudot sifatida tasvirlaydi. Ma'naviy muhit yoshlarni rivojlantirib, ulardagi potensial imkoniyatlarni ochib beradi, bu esa ularning shaxsiy va ma'naviy kamolotga erishish yo'lidagi harakatlarini shakllantiradi.

Ijtimoiy-falsafiy tahlil nuqtai nazardan ijtimoiy institutlar axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni saqlovchi asosiy omillardan biridir. Ular insonlarga to'g'ri va adolatli dunyoqarashni shakllantirishda yordam beradi[11.186]. Buzg'unchi g'oyalarga haqiqatga zid g'oyalarni ilgari suradi, ijtimoiy institutlar esa bu yo'nalishdagi ta'lim va tarbiya orqali odamlarni bu turdagi zararli g'oyalardan himoya qiladi. Ijtimoiy institutlar insonning yoshligidanoq uni to'g'ri dunyoqarashga yo'naltiradi. Masalan, oila va maktab yoshlar ma'naviy qadriyatlarni o'rganadigan va to'g'ri tafakkurni rivojlantiradigan asosiy joylardir. Falsafiy jihatdan, bu institutlar insonni yaxshi va yomon, to'g'ri va nohaq tushunchalarini ajrata oladigan darajada tarbiyalaydi. Bu ularni buzg'unchi g'oyalarga ta'siridan muhofaza qiladi.

Bizning fikrimizcha, har bir inson buzg'unchi g'oyalarga qarshi ma'naviy immunitetga ega bo'lishi lozim. Bunda ijtimoiy institutlar shaxslarda o'z-o'zini himoya qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, diniy tashkilotlar insonning ma'naviy barqarorligini ta'minlash uchun ma'naviy qoidalarni o'rgatadi va unga yordam beradi, bu esa uni buzg'unchi g'oyalarga ta'siridan saqlaydi. Maktab va oila kabi institutlar shaxsning axloqiy yondashuvini shakllantirishda markaziy o'rin tutadi[12.63]. Axloqiy me'yorlarni tushuntirib, ijtimoiy institutlar insonni to'g'ri va insoniy munosabatlar yo'liga yo'naltiradi, buzg'unchi ta'sirlarga nisbatan himoya qiladi. Bu falsafiy jihatdan juda muhimdir, chunki axloqiy asoslar barqaror bo'lmagan jamiyatda buzg'unchi g'oyalarga oson yoyiladi.

Ijtimoiy institutlar madaniy va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda muhim rol o'ynaydi. Milliy an'analar, madaniyat va ma'naviy qadriyatlar buzg'unchi g'oyalarga qarshi immunitet sifatida xizmat qiladi. Bu qadriyatlar insonlarni o'z milliy o'zligini anglashga va uni himoya qilishga rag'batlantiradi. Ijtimoiy institutlar bu jarayonni qo'llab-quvvatlab, ularni yosh avlodga yetkazadi. Ijtimoiy institutlar insonda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa buzg'unchi g'oyalarga qarshi qo'shimcha himoya hisoblanadi. Falsafiy nuqtai nazardan tanqidiy fikrlash insonning har qanday g'oyani ongli ravishda qabul qilishini ta'minlaydi va bu uning ma'naviy mustaqilligiga yordam beradi.

Ijtimoiy institutlar yoshlarni jamoat manfaatlari uchun fidokorlikka o'rgatadi, ularning shaxs sifatida jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglashlariga yordam beradi. Bu falsafiy jihatdan jamiyatning birdamligini saqlab qolishga xizmat qiladi, chunki buzg'unchi g'oyalarga ko'pincha shaxsiy manfaatlarni ilgari surib, jamoat manfaatlari zid ish olib boradi. Falsafiy tahlil nuqtai nazardan ijtimoiy institutlar yosh avlodni tarbiyalashda markaziy o'rin tutadi. Ular yoshlarga sog'lom qadriyatlarni o'rgatadi, bu esa ularning kelajakdagi ma'naviy qarorlariga ta'sir qiladi. Yoshlar ma'naviy va madaniy asoslarni bilish orqali buzg'unchi g'oyalarning ta'siridan saqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, ma'naviy muhit yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirishda chuqur falsafiy ahamiyatga ega. Bu muhit inson ongini boyitib, uni ma'naviy kamolotga yo'naltiradi, shaxsni o'ziga, jamiyatga va butun insoniyatga bo'lgan munosabatini belgilab beradi. Ijtimoiy institutlar falsafiy jihatdan buzg'unchi g'oyalarning oldini olishda mustahkam asosdir. Ular jamiyatda ma'naviy barqarorlikni rivojlantirib, ularning buzg'unchi g'oyalarga qarshi mustahkam ma'naviy qalqonga aylanishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, inson yashaydigan mahalla, oila, ish joyi va jamoatchilik ham uning qonun va qoidalarga bo'lgan munosabatida muhim rol o'ynaydi. Agar kishi atrofida salbiy ta'sirga uchraydigan, qonunbuzarlik yoki noqonuniy faoliyatlar, axloqsizlik odatiy ko'rinish olgan joylarda hayot kechirsa, u vaqt o'tishi bilan bunday faoliyatlarga intilish va ularni qabul qilishni normal holat deb bila boshlashi mumkin. Bunday hollarda jamiyatda muvozanatni saqlash uchun ijobiy tarbiya va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash dolzarb muammoga aylanadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, insonlarning buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushmasligi va o'zaro tinch-totuvlik, birdamlikning ta'minlanishiga yordam beradi.

Uchinchidan, ijtimoiy institutlar buzg'unchi g'oyalarning oldini olishda muhim o'rin tutib, ular jamiyatda tartib, axloqiy va ma'naviy muvozanatni saqlashga yordam beradi. Ijtimoiy institutlar shaxslarda tanqidiy fikrlash, jamoat mas'uliyati, milliy qadriyatlarni hurmat qilish va ma'naviy barqarorlikni rivojlantirib, ularning buzg'unchi g'oyalarga qarshi mustahkam ma'naviy qalqonga aylanadi.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi –Toshkent, O'zbekiston, 2021. –B. 269
2. Шуняева В. Теоретические аспекты амбивалентного влияния факторов микро и макросреды на несовершеннолетнего // Вестник ТГУ, выпуск 12 (128), 2013. -С. 504-505
3. Galdiyeva M. O'quvchilar milliy tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish // Zamonaviy ta'lim / Sovremennoye obrazovaniye 2022, 10 (119) -B. 63-64
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi –Toshkent, O'zbekiston, 2021. –B. 297
5. Erkayev A. Kurashadi ikki to'lqin...//. – -Toshkent: Tafakkur, 2013. 3-son. - B.13.
6. Kuvandikov I. O'zbekiston yoshlari dunyoqarashini boyitishda milliy g'oyaning roli // Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati -Toshkent, 2021. -B. 20
7. Nazarov Q. va boshqalar. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati -Toshkent:, G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2009. -B. 708
8. Falsafa qomusiy lug'ati. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. -Toshkent: Sharq, 2004. -B. 125
9. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2009. -B. 186-187
10. Ahmedov H. Ma'naviy hayot dinamikasi -Toshkent: Innovawbon rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2018. -B. 17
11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2009. -B. 186-187
12. Galdiyeva M. O'quvchilar milliy tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish // Zamonaviy ta'lim / Sovremennoye obrazovaniye 2022, 10 (119) -B. 63-64

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE PHILOSOPHICAL ESSENCE OF KHOJA AHROR VALI'S VIEWS ON COMMITMENT

Rakhmatova Kholidakhon Kholikovna

Bukhara State Pedagogical Institute
Professor of the Department of "Social Sciences",
Doctor of Philosophy (DSc)

Abstract. Maqolada Naqshbandiya ta'limotidagi murosaga xos bo'lgan o'z-o'zini anglash, suhbat, nafsni tarbiyalash, kibrni yo'qotish, shukronalik, sabr, zikr, fikr kabi g'oyalari Yangi O'zbekiston sharoitida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning barqaror bo'lishidagi xizmati, bularning ma'rifatli jamiyatni barpo etishda barkamol avlod mafkuraviy immunitetini tarbiyalashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Keywords: Xoja Ahror Valiy, tasavvuf, ma'rifatli jamiyat, sabr, shukr, suhbat, insoniylik, vaqt qadri, murosaya-yu madora, kompromiss, nafs, o'zlikni anglash.

XOJA AHROR VALIY MUROSAGA OID QARASHLARINING FALSAFIY MOHIYATI

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna

Buxoro davlat pedagogika instituti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi professori,
falsafa fanlari doktori(DSc)

Annotatsiya. The article studies the concepts characteristic of compromise according to the teachings of Naqshbandiy of self-awareness, suhbat, self-discipline, nafs, shukr, sabr, zikr and their significance in the conditions of New Uzbekistan, reveals the service to the stability of social, spiritual and educational processes, their significance in the development of the ideological immunity of the mature generation, in the formation of an enlightened society.

Kalit so'zlar: Khodja Akhror Vali, mysticism, enlightened society, patience, gratitude, suhbat, humanity, value of time, compromise, nafs, self-awareness.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N25>

Kirish. O'zbekistonda taraqqiyotning yangi bosqichi davrida ma'rifatli jamiyat qurish zarurati yuzaga chiqdi. Bu esa yangicha falsafiy dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. Yangicha dunyoqarashning asosi ijtimoiy falsafaning murosaga tushunchasi yuksaltirish muammosini yangicha paradigmalar asosida hal etish vazifasini yuklamoqda. Shu bois, asrlar davomida jahon falsafasi, xususan milliy qadriyatlar asosida yoshlarda falsafiy mushohada, tafakkur etish ko'nikmalarini shakllantirishni uzluksiz ta'lim tizimiga kiritish, nazarimizda, milliy mentalitetimizning murosaga g'oyasi asosida yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda falsafiy ta'limni rivojlantirishda Sharq allomalarining fundamental asarlarini ilmiy o'rganish muhim ahamiyatga ega. Naqshbandiylik ta'limotining yirik vakili va islohotchisi Xoja Ahror(1404-1490) ma'naviy merosida jamiyatdagi insonlar bir-biri bilan

murosa-yu madorada yashashining nazariy va amaliy tomonlarini o'rganib, asosiy e'tiborni insonning o'zini — o'zi anglashi, o'z qadrini bilishi masalasiga qaratadi. Buning uchun inson o'z tana istaklarining me'yorini bilishi va shunga munosib, nafsini jilovlab amal qilishi kerakligini ta'kidlaydi.

Tahlil va tadqiqot natijalari. Inson o'zi bilan o'zi va atrofdagilar bilan murosali yashashi uchun asosiy mezonlaridan biri uning o'zligini anglashidir. Xoja Ahror o'zlikni anglagan odamda mehr, muhabbat, muruvvat, murosa kuchli bo'lishi, butun borliqqa mehr va muhabbat nazari bilan qarab, murosa holatida bo'lishini quyidagi misralarda keltirgan:

Odami diyd astu boqiy po'st ast,
Diyd on boshad, ki diydi do'st ast. [2; 390]

Mazmuni:

Odamiy, ya'ni haqiqiy inson ko'zdir, boshqasi hammasi po'stdir,
Ko'z agar do'st ko'zi bo'lsa, shundagina ko'z bo'ladi.

Xoja Ahror bu bilan inson qalbi oynasi bo'lgan ko'zdan faqat butun borliqqa do'stona nazar, mehr-muhabbat porlab tursagina, haqiqiy inson nomiga uyg'un bo'ladi, deydi. Demak, barkamol avlod – o'zini anglagan, o'z qadr-qimmatini, hayot mazmunini, jamiyatdagi o'rnini bilgan va shunga munosib amal qiladigan murosali hayot tarzini kechiradigan shaxsdir. U biror nafasini ham behudaga sarflamaydi, chunki u umrini shu nafaslardan iboratligini biladi. Uning hamsuhbati yaxshi odamlar bo'ladi, chunki yomon hamsuhbat umrni, vaqtni nobud etishi, behuda sarflash ekanligini anglaydi. O'zini anglagan inson barcha borliq, mavjudlik, xususan boshqa insonlarni ham qadr-u qiymatini biladi, chunki ularning har biri uning baxtiyor yashashi murosa-yu madora, o'zaro tushunish, kelishuv, shukronalik lozimligini tushunadi. O'zini anglagan inson haqiqiy baxtiyordir. Chunki u hirs-u havas, nafs-u havo, zulm-u sitamdan pok. O'zini anglagan inson sevimidir. Chunki u barchani sevadi, mehr-muhabbat bilan nazar qiladi, insonlar, jamiyat bilan murosada yashaydi, bu esa unga nisbatan boshqalarda ham shunday pok, go'zal tuyg'uni uyg'otadi.

Demak, inson o'zi va atrofdagilari bilan murosa-yu madorada bo'lishi uchun o'zini anglashi kerak. Xoja Ahrorning fikricha, “odami nusxai jomi'a turur, ondog'kim, malakiy sifatleri bor turur va sab'iy va bahimiy sifatlardan ham xoliy ermastur”[2; 344]. Xoja Ahror Valiy bu iboralari bilan insonda ilohiy sifatlar bilan birga hayvoniy salbiy illatlar borligini ham ta'kidlab, insonni “nusxai jami'”, ya'ni borliqdagi bor narsalarni o'zida jam' etgan nusxa, deganlar. Ayniqsa, inson jamiyatda yashar ekan, u doimo xalq dardi bilan yashashi va uning dardiga darmon bo'lmog'i kerakligi naqshbandiylik g'oyasi ikkinchi Renessans davri mutafakkirlarining qarashlarida asosiy g'oya hisoblangan. Tasavvufiy ta'limotlarda asosiy e'tibor insonga, uning botiniy va zohiriy sifatlarini yuksaltirishga, iloh jamoliga yetish orqali mukammallik, yetuklik sirlaridan, zavqidan voqif bo'lishga da'vat etiladi. Insonni ma'naviy yuksalish va poklanishdan chalg'ituvchi bo'islar ko'p, — ular – nafs, shuhrat, boyluk, unvon, obro', takabburlik, ixtilof kabilardir.

Ye.Berezikovning yozishicha, Xoja Ahror tabiiy ruh bilan inson ruhi o'rtasidagi bog'liqlikni, aloqalarni izlagan. Uni sirli bir holat chulg'ab olib, yaqinlari, tengqurlari davrasidan yiroqlashtirgan, mistik xayolot beorom ruhiga taskin bergan.[1;125] Xoja Ahror Valiy o'z – o'zidan yuksak axloqiy, ma'naviy, tasavvufiy jihatdan yuksak maqomga erishgan emas. Fikrimizcha, mutasavvifning falsafiy-axloqiy va antropologik qarashlarini shakllantirgan Naqshband tariqatidir. Adabiyotshunos olim Izzat Sulton fikriga ko'ra, Ahmad Yassaviy,

Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshband va Xoja Ahror Valiy ta'limoti o'rtasida "uzilmas aloqa" mavjud. Agar Yassaviy inson o'zining azaliy pokligini saqlashi uchun bu dunyodan yuz o'girish, o'zini qiynaydigan ko'pgina "bu dunyo ehtiroslari"ni yanchib, Olloh bilan yakka qolishi, ya'ni umrini odamlardan uzoqda, uzlatda, yolg'izlikda, toat-ibodat bilan o'tkazishi lozim, deb hisoblasa, G'ijduvoni "Dast ba kuru, dil ba yor" da'vati orqali insonni xalqi manfaatlari bilan yashashga, xalq ustiga tushgan yukni o'z ustiga olishga, halol mehnat qilib yashashga chaqirgan. Naqshband esa yuqoridagi da'vat oldiga ilohni qo'yadi: "Dil ba Yoru, dast ba kor" ("Dilingni Ollohga, qo'lingni ishga bag'ishla").

Xoja Ahror Naqshbandiya tariqatini davom ettirgan va XV asr naqshbandiya tariqatining davomchisi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Faxruddin Ali Safiyning yozishicha, Xoja Ahror aytdilar: "Hazrati Abdulxoliq quddusi sirrahuning so'zlari tururkim: "Shayxlik eshigin bog'lagil, yorliq eshigin ochg'il, xilvatning eshigin bog'lagil, suhbatning eshigin ochgil", "Xalqdin og'irlik(ni) ko'tarmak kerak va bu muyassar bo'lmas, magar halol kasb bila "Dast ba kuru, dil ba yor" degan so'z xojagon tariqatlarida amri muqarrar turur".[2; 301]

Bu so'zlarda Xoja Ahror Yassaviydan keskin farq qiluvchi g'oyani ilgari suradi, u G'ijduvoni va Naqshbandga ergashadi. Inson shayx, ya'ni bir unvon yoki martabaga ega bo'lishi muhim emas, balki, boshqa insonlarga yor, do'st, hamdard bo'lishi kerak; xilvatda yurish insonga xos xislat emas, yon-atrofdagi odamlar bilan hamsuhbat, ularga hamdard yashash zarur.

Halol mehnat qilib, kishilarning ehtiyojini chiqarmoq, dardini yengillashtirmoq insonga xos fazilatdir. Kasb-kor qilib yashash va dilda Ollohni yodlash, e'zozlash yonma-yon keladigan xislatlar sirasiga kiradi, Ollohni e'zozlash uchun xilvatga chekinish, boshqalardan uzoqlashish shart emas. Inson, u kim bo'lishidan qat'iy nazar, yonidagilar, boshqalar xayoli, tashvishi bilan yashashi lozim, chunki, mutasavvif fikricha, "boshqa kishining murodiga ish etmaq ulug' ish turur". "Darvishlikning xulosasi ul tururkim, hamma kishidan yuk tortur va hech kishiga yuk qo'ymas na suvrat yuzidin, na ma'naviy yuzidin, ..." [2; 304].

Xoja Ahror Valiyning murosa falsafasiga doir asosiy g'oyalaridan bo'lgan qalbni asrash, yomon hamsuhbatlardan uzoqlashish, yaxshi hamsuhbatning inson kamolotiga oid g'oyalari hozirgi kunda barkamol avlod tarbiyasi uchun ularning ongi va qalbini turli ma'naviy tahdidlar: diniy ekstremizm va fundamentalizm, ommaviy madaniyat, korrupsiya, odam savdosi, boqimandalik, giyohvandlik kabi illatlardan asrashda yordam beradi.

Xoja Ahror borliq masalasi bo'yicha gapirar ekanlar mavjud, bor narsalar haqida fikr yuritganda jonsiz, jonli mavjudotni tilga oladilar. Ularni borligini inkor etmaydilar, lekin ularning ilohiy mohiyatini anglash uchun ularga me'yoridan ortiq bog'lanmaslik kerak, deyдилar. U kishi aytadi: "Dunyoning hammasi ortiqchadir; magar besh narsasi (ortiqcha emas): jonni saqlab turadigan non; tashnalikni ketkazadigan suv; satri avrat bo'ladigan libos; amal qiladigan ilm; unda yashaydigan maskan." [6; 59] Xoja Ahror Valiy duniyodagi narsalardan besh narsa inson uchun zarur deganidan shunday fikrga kelish mumkinki, u kishi quyidagilarni inson uchun muhim degan:

1. Inson tanasi me'yorida ishlashi, ya'ni u banda sifatida o'zining haqqini ado etishi uchun zaruriy miqdordagi oziq-ovqatni me'yorida iste'mol etishi kerak, chunki u nurga aylanadi va quvvat bo'ladi;
2. Inson tanasi sog'lom bo'lishi uchun uni zaruriy miqdordagi suyuqlik bilan ta'minlash lozim;

3. Inson jamiyatda xizmatda bo'lishi, insonlar bilan munosabatda kirishi, issiq-sovuq havodan himoyalaniishi uchun zarur kiyim-kechak, ya'ni libos kerak;
4. Amal qiladigan ilm, ya'ni ilmeki, insonni holatini yaxshilash, jamiyatdagi o'z o'rnini topish va o'zgalarga ezgulik qilishga yordam beradi, keraklidir;
5. Inson yashash, ilm olishi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan maskan – uy-joy, maktab, o'quv va kasb-hunar o'rganadigan, mehnat qiladigan joylar zarur.

Mazkur fikrlardan kelib chiqib, mutasavvif borliqning ilohiy mohiyatidan kelib chiqib, borliqqa me'yor darajasida munosabatda bo'lish murosalari hayot kechirishning asosiy shartlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Tasavvuf ahli uchun vaqt juda qadrlil bo'lgan. Naqshbandiya ta'limotida Bahouddin Naqshband vuqufi zamonaviy – zamon, vaqtdan ogoh bo'lishni asosiy tamoyil sifatida kiritgan. [3; 244] Xoja Ahror Valiyning ma'naviy merosi mutasavvifdan vaqt xususidagi hikmatli so'zlar va ezgu fikrlar saqlanganini ko'rsatadi. Vaqt – murosa falsafasining muhim tushunchasidir. Vaqt falsafiy tushunchasi olam atributi bo'lib, barcha obyektlar mavjudligining davomiyligi va holatlar almashinuvining izchilligini xarakterlaydi [11; 59.]. Qadimdan hozirgi kungacha bu muammo faylasuflarni bahs mavzuyi bo'lgan va bo'lmoqda. Sitseron "Falsafa Falesdan boshlanadi, u birinchi edi," deb aytgan. Ana shu inson, ya'ni Fales: "Hammadan donoroq narsa nima?" degan savolga, "Vaqt" deb javob berib, "Chunki yolg'iz vaqtgina hamma narsani oydinlashtiradi",-degan. Qadimgi Yunonistondagi yetti yetakchi faylasufning biri Biant: "Eng yaxshi maslahatchi kim?" deb so'raganda, "Vaqt" degan. Boshqa yunon faylasufi Lukresiy Tit Kar – "Vaqt ildamlagani sayin buyumlarning mohiyati ham o'zgara boradi", degan. Markaziy Osiyo mutafakkirlari ham vaqt haqida mushohada qilganlar va tadqiqotlar olib borganlar.

Xoja Ahror Valiyning vaqt to'g'risidagi fikrlari tasavvufiy mazmundadir. Qur'on tafsiriga oid saqlangan rashhalarning 16-chisida shunday yozilgan: "Kulla yavmin huva fi sha'n" oyatida so'zlar aytdilar. Ul asnoda taqrib bila oytdilarkim: "Baqoun ba'd al fano." "Va yana bir ma'nosi ulkim, har bir onda va zamonning ajzolaridan juz'i lo yataxayyalarida asmoi zotiyaning osoridankim, onda onga xorojda mazohir yo'q turur, o'zida asare topar. Va bu osori mutanavviya va mutalavvinani onan fi onan o'z botinida idrok etar va asarlarining ixtilofi e'tibori bila har birining orasida zamonlarning aksar zamonida imtiyoz etar va bu bag'oyat nodiru oliy turur. Arbobi valoyati xossadin afrodi insoniyning akmalig'a bul ma'ni bar sabili nadra hosil bo'lur".

Xoja Ahror Valiy bu rashhalari orqali vaqtda, ya'ni har kuni, har on, har nafasda butun olam, inchunin insonda holatlar o'zgaradi, ya'ni ularning mavjudligi bardavom bo'ladi demoqda. "Kulla yavmun huva fi sha'n" – "Har kuni sha'ndir" – oyatida sha'n – kor-u hol, ish holat ma'nosida bo'lib, har kuni butun olam doimo ishda, ya'niki harakatda bo'lib, holati, darajasi o'zgaradi degani. Xoja Ahror Valiy bu oyatni tafsirida "Baqoun ba'd al fano", ya'ni fanodin keyingi baqo deganlar. Bu yerda vaqtga nisbatan baqo va fano tushunchalari qo'llanilmoqda. Baqo – boqiy, abadiy bo'lsa, fano-foniy, o'tkinchi, o'zgaruvchandir. Inson foniy, o'tkinchi narsalardan uzilsa – fano holatiga yetadi. Fano holatida ya'ni boshqa narsalardan mosuvo bo'lib, Tangri bilangina bog'lanib, xolis, tama'siz, riyosiz mehnat qilsa boqiylik, abadiylik bilan hayot kechiradi va baqo darajasiga yuksaladi.

Xoja Ahror Valiy rashhalari orqali inson vaqtini eng komili mukammal inson oxirgi zamon payg'ambari maqomini olgan Muhammad (s.a.v.) bilan muntazam, doimiy bog'lanib, ishga sarf etsa, ya'ni u kishining go'zal axloqlari bilan bezanib, u kishining mislsiz sifatlarini

olsa, Haq bilan ham bog'langan bo'ladi, deydi. Bu bog'lanish qalbdan voqe' bo'ladi. Xoja Ahror Valiy vaqtning ilohiy mazmun egallashi, ya'ni insonga ilohiy nazar bo'lishi, avvalo inson holati – axloqi, sifatlariga bog'liqligi va ikkinchidan, bunday vaqt makoni qalb bo'la olishini ko'rsatadi. Ya'ni vaqt inson holati va makon – qalb bilan bog'liq holda ilohiy mazmunni olib biladi.

Xoja Ahror takror-takror yozadi: “Maskani agar baland – yaxshi yoki boshqacha bo'lib, o'ziga kifoya qilsa juda ulug' ish bo'ladi, yeyish agar oyoqdan qolmaydigan miqdorda bo'lsa, qanoat bisyor yaxshidir. Kiyinish agar issiq-sovuqdan asraydigan miqdorda bo'lsa, yetarlidir.”[10; 106] Ko'z ko'rish uchun, quloq eshitish uchun bo'lgani kabi, qalbning sifati Haqdan ogoh bo'lishdir va unda g'ayr – nafs istaklari bo'lmasligi lozim. Dilni ogohlik holatida asrashda nafas olishning ahamiyatini Xoja Ahror ta'kidlaydi. Darhaqiqat, nafas olish insonni butun olam quvvatlari bilan bog'laydi.

Xoja Ahror insonni o'zgaralar bilan murosada yashashi uchun asosiy to'siq kibr-u havo, manmanlik ekanligini anglab kishilarni faqru fano, kamtarin bo'lishga chaqirganlar. Fikrimizcha, Xoja Ahror butun olamni “kasrat” va “vahdat” tushunchalari bilan izohlaganlar. Ular kasratni mavjud, yaratilgan, xalq qilingan, ammo Xaq Jamolu Jalolining tajallisi deganlar. Shuning uchun kasrat – ko'plik, mavjud, ko'rinib turgan borliqqa yaxshi, basirat ko'zi bilan, mushohada, muroqaba bilan qaralsa vahdatni o'zini ko'radilar, chunki ular mohiyatan bir va bordirlar. Bu holatni Xoja Ahror Valiy quyidagicha izohlaydi:

Tu mabosh aslo, kamol in astu bas,
Rav dar o' gum shav, visol in astu bas.

Mazmuni:

Sen o'rtadan ketgin, foniy bo'l, kamol shudir,
Borgin unda (Haqda) nest bo'l, visol shudir.

Demak, Xoja Ahror asarlarida borliqdagi bor narsalar “kasrat” va “vahdat”, “foniy” va “boqiy”, “o'zgaruvchan” va “o'zgarmas”, “sarob” va “asl” sifatida tahlil etilgan va inson kasratga yo'qlik, fano ko'zi bilan qarasa, vahdat, tavhid, ahad maqomiga yetishi, o'zgaruvchan, beqaror narsalardan o'zgarmas, boqiy, asl narsaga bog'lanib, olamda o'z o'rnini topa olishi mumkinligi qayd etilgan. “Haqiqiy saodat siniqlikda, faqirlikda, o'zligidan yo'qlikda, o'zidan ogohlikdadir”, — deydi Xoja Ahror Valiy.

Xoja Ahror Valiy fikricha, inson insoniy murosa darajasida bo'lishi uchun g'aflatda qolmasligi, nafs va shaytondan ogoh bo'lishi lozim. Xoja Ahror Valiy: “G'aflat uyqudandir va uyqu suvdan va suv (ko'b) taomdin. Har kimki, kam yesa hozir bo'lg'ay va har kimki ko'b yesa g'ofil bo'lg'ay”, [9; 304] deb taom yemakka doir qator quyidagi o'gitlarni aytganlar:

- Me'da taomning joyidur. Har nimaeki anga yuborsang, agar halol bo'lsa toatga quvvatdur. Va agar shubhali bo'lsa Haq yo'lin sanga berkitur. Va agar harom bo'lsa, ma'siyat tug'or.

- Taomni andog' yegilki, san ani yegaysan, na ul sani yegay. Agar san oni yesang hammasi nur bo'lur va agar ul sani yesa hammasi zulmat bo'lur.

So'fiylarni “nafsi o'lik, qalbi tirik” deb ta'riflaganlar. Xoja Ahror Valiy ham nafsga shunday ta'riflar bergan: “Har narsa to tirikdur tozadur. Vaqteki o'lsa, nopok bo'lur, magar nafski tirik bo'lsa, nopokdur va o'lsa pokdur”, “Haq subhonahu va taolo buyururki, “Va a'riz anil-johiliyn”, ya'ni yuz o'girgil nodonlardin. Nafs nodonlarning nodonrog'idir, kerakdurki, andin yuz o'girsang va xilofin olsang”. [9; 341] Inson murosali hayot kechirishi uchun asliga uyg'un bo'lishi uchun nafsining yomonliklarini anglashi, unga qarshi turish lozim, deydi Xoja Ahror

Valiy. Murosali inson nafs tarbiyalangan insondir. Shuning uchun nafs bilan bog'liq mutafakkirlarning qarashlarini o'rganish ahamiyatlidir.

Mutasavvif murosaga doir qarashlarida nafsni tiyish bilan inson komillikka erishishi mumkin, deyдилar. Uning fikricha, insonda qalb hamda nafs bor. Xoja Ahror Valiy “Bu ikki narsa shunday iste’dodga egaki, qahr va lutf sifatleri ular da aks etadi. Nafs-parvardigorning qahr mazharidir”, -deydilar.[6;58] Mutasavvifning ta’kidlashicha, dil ya’ni, qalb lutfning makoni bo’lib, nafs Ollohning qahr-g’azabiga sabab, barcha yomonliklarning asosidir. Xoja Ahror Valiy nafsning Olloh tomonidan ehtiyojlarini qondirish uchun berilganligi va shuning uchun keragidan ortiqcha, me’yoridan oshgan nafs zararli ekanligini uqtiradi. Nafs istagi yeyish, kiyish, zeb — ziynat, shahvat, mol — dunyo kabilarga me’yoridan ko’p bog’lanish insonni tubanlashtiradi. U mol-dunyo, mansab, nafs istaklari uchun hayvoniy holatga tushadi. Xoja Ahror Valiy “Haqiqiy maqsad odamzod Haqdan boshqaga giriftor bo’lishdan xalos bo’lsin”, “insoniylik haqiqati Haq subhonahudan boshqaga giriftor bo’lishdan ozod bo’lish” ekanligini ta’kid etadi.[6; 66]

“Rashahot” muallifi as-Safiy Xazrati Xoja Axrori xalqqa manfaat yetkazishdek bag’rikenglik ruhiyati qamrab olganligi haqida sermazmun hikoyalarni keltirgan. Xoja Ahror otalarining Kalas degan yerda ziroatlari bo’lib, otalari bir kuni turkiy yigit bilan g’allani Xojaga yuboradilar. Xoja g’allani joylashtirish bilan band bo’lganlarida turkiy yigit ketib qoladi. Bundan xijolat bo’lgan Xoja Ahror g’allani quyib yigitning orqasidan yuguradilar. Shaharning yarim yo’lida yigitni topib, unga minnatdorchilik bildiradilar. Shunda sahroyi yigit Xoja Ahrordagi bag’rikenglikdan taajjubga tushib, “Siz turk mashoyixlarining “Har kim ko’rsang Xizr bil, har tun ko’rsang Qadr bil” degan so’zlariga amal qilar ekansiz”, -deb uning haqqiga duo qiladi.[8;101]

Xoja Ahror Valiy dangasalik, mehnatdan qochish, vaqtni behuda o’tkazish, turli behuda gap so’zlar, g’iybat, bo’hton ziddiyatlarning keltirib chiqarishini juda yaxshi bilganlar. Xoja Ahror xojagon-Naqshbandiya tariqatining asosiy mohiyatini shunday belgilagan edilar: “Xojagon tariqati darveshlarining udumi shundan iboratki, ular o’zlarining barcha himmatlarini biror ish bilan mashg’ul bo’lishga sarf qiladilar”. [10; 69]

Insonlar orasidagi murosali munosabat qalb holatiga bog’liq. Qalbni poklashda zikr – Olloh va uning ne’matlarini yodlash amaliyotining ahamiyati kattadir. Xoja Ahror “Zikri dil” haqida fikr yuritib, Olloh zikri dilda bardavom, doimiy bo’lishi kerakligini uqtiradi. Mutasavvif risolada bu dunyoning o’tkinchi ekanligi, mol-u dunyo, boylik, yil, kun hammasi bir kun ko’ngildan mahv bo’lishi, shuning uchun, ko’ngil va fikrni zikr ila munavvar etmoq kerakligini quyidagi misralarda ifodalaydi:

Har nafasni dami oxir bilibon,
Anda bu nav’ taalluq qilibon,
Zikri mazkurga bo’lg’il mashg’ul,
Bu yo’sinliqki, degumdur sanga yo’l [11; 35].

Mutasavvif butun hayotlari davomida odamlarni iymon e’tiqodga, har doim faol bo’lishga, butun kuchini tinchlik uchun, odamlar bilan murosada yashash uchun sarflashi kerakligiga da’vat qilganlar. Mana shu xususda “Rashahot”da avlodlarga qilgan quyidagi qimmatli pand – nasihatlarini o’qiyimiz: “Ko’cha – kuyda bo’lsa ham bir foydali ish bilan mashg’ul bo’ling. Xalq sizning bu ishingizdan manfaat topsin. Siz ham o’shanda o’zligingizni anglaysiz. Qisqa vaqt ichida biror kasb o’rganishga harakat qiling. Shunda kishilar nazarida siz o’ylagandek yaxshi qiyofangiz paydo bo’ladi” [2; b.333].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Hoja Ahror Valiyning aql – zakovati, murosa falsafasiga doir ilmi, muqaddas islom dini va falsafasi, naqshbandiya tariqatining rivojiga katta hissa qo'shgan piri murshid sifatida hozirgi kunda ham ibrat maktabidir. Inson o'zi bilan o'zi va atrofdagilar bilan murosali yashashi uchun asosiy mezonlaridan biri uning o'zligini anglashidir. Hoja Ahror Valiyning murosa falsafasida o'z-o'zini anglash murosali hayotning asosi ekanligini ta'kidlangan.

Mutasavvifning ijtimoiy hamkorlik, ahillik va tinchlikka doir g'oya va tajribalari milliy g'oyamizning tarixiy, falsafiy ildizlaridan biridir. Hoja Ahror Valiyning ijtimoiy himoya sohasidagi faoliyati va ta'limoti O'zbekistonning yangi bosqichidagi taraqqiyot tamoyillarining mazmun-mohiyatini yoritishga yordam beradi.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Березиков Е. Святые люди Туркестана. –Т.: Камалак, 1992.
2. Фахруддин Али Сафий. Рашахоту айнилхаёт (Оби хаёт томчилари) / Нашрга тайёрловчилар: Маҳмуд Ҳасаний, Баҳриддин Умрзоқ. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2004. –Б 390.
3. Г.Н.Наврўзова. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси [Матн] – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти давлат корхонаси, 2021. – 244 б.
4. Березиков Е. Святые люди Туркестана. –Т.: Камалак, 1992. –Б. 125.
5. Султон И. Баҳоуддин Нақшбанд абадияти. –Т.: Фан, 1994. –Б. 10.
6. Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Фикроти Аҳрорийя. /Табаррук рисолалар /Нашрга тайёрловчи.: Маҳмуд Ҳасаний, Баҳриддин Умрзоқ, Ҳамидуллоҳ Амин. - Тошкент: Адолат, 2004.
7. Мирзо Кенжабек. Дунёнинг муршиди. Ҳазрати Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор: “Рисолайи Волидийя” назмий таржимаси қисқа шарҳи. -Тошкент: Фан, 2004. –Б 35.
8. Рахматова Х.Х. Хожа Ahror Valiy ma'naviy merosida murosa falsafasiga doir g'oyalar tahlili. -Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy. 2023. –230-Б.
9. Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Жавомиъ ул-калим /Табаррук рисолалар/ – Б. 340.
10. Валихўжаев Б.. Хожа Аҳрор тарихи. Тошкент. 1993.
11. Фалсафа. Қомусий луғат. -Тошкент: 2004.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

ABDULKHAMID SULAYMON O'G'LI CHO'LPON'S ARTISTIC AND AESTHETIC HERITAGE

Uroкова Oysuluv Jamoliddinovna,

Doctor of Philosophy (DSc), Associate Professor,
Head of the Department of Social and Humanitarian Sciences,
Andijan State Medical Institute
E-mail: Oysuluv78@mail.ru

Abstract. This article discusses the relevance of Cho'lpon's artistic and aesthetic heritage in the modern era. As a prominent Jadid thinker, he linked the idea of enlightenment with human perfection, national freedom, and independence, turning these values into the main aesthetic principle of his creative work.

Keywords: Cho'lpon, aesthetic heritage, enlightenment, beauty, freedom, artistic thinking.

ABDULXAMID SULAYMON O'G'LI CHO'LPONNING BADIY-ESTETIK MEROSI

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna,

falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi mudiri,
Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Cho'lponning badiiy estetik merosi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga egaligi, taniqli jadid allomasi sifatida ma'rifatparvarlik g'oyasini inson kamoloti, el-yurt ozodligi va mustaqilligi bilan bog'laganligi, uni o'z badiiy ijodining asosiy estetik prinsipiga aylantirganligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Cho'lpon, estetik meros, ma'rifatparvarlik, go'zallik, ozodlik, badiiy tafakkur.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N26>

Kirish. Xalqimizning boy falsafiy va estetik tafakkuri asrlar davomida shakllanib, bugungi ma'naviy hayotimizning asosiy poydevorlaridan biriga aylangan. Ushbu tafakkur taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan jadid ma'rifatparvarlari, xususan, Abdulahad Sulaymon o'g'li Cho'lponning ilmiy, badiiy va falsafiy merosini chuqur o'rganish hozirgi davrda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Zero, Cho'lpon o'z ijodida milliy uyg'onish, inson kamoloti va erkin fikrlash g'oyalarini ilgari surgan, ularni ijtimoiy adolat, ma'naviy ozodlik va estetik go'zallik tushunchalari bilan uyg'unlashtirgan yirik mutafakkir sifatida e'tirof etiladi.

Cho'lponning asarlarida ifodalangan ma'rifatparvarlik ruhi, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, insonparvarlik va ijtimoiy adolat g'oyalari bugungi kunda ham jamiyatimizning ma'naviy yangilanish jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning badiiy merosi nafaqat adabiyotshunoslik yoki estetika nuqtai nazaridan, balki falsafiy tafakkur evolyutsiyasi, milliy ong va ma'naviy qadriyatlar shakllanishi nuqtai nazaridan ham bebaho ilmiy manba hisoblanadi.

Bugungi kunda Cho'lpon ijodini falsafiy-estetik tahlil etish, uning g'oyalari va asarlaridagi insonparvarlik mohiyatini qayta ochish, milliy o'zlikni yuksaltirish jarayonida ularni amaliy jihatdan tatbiq etish — o'zbek xalqining ma'naviy taraqqiyoti uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Shu bois Cho'lponning estetik dunyoqarashi, uning asarlaridagi go'zallik, ozodlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari zamonaviy falsafiy tadqiqotlarda alohida ilmiy e'tiborga loyiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «XX asr boshlaridagi millatimiz taqdirini, uning boshiga tushgan fojialarni, ozodlik va erkinlik qadrini hech kim bu mumtoz shoirimiz kabi yuksak pardalarda kuylagan emas».[1]

Cho'lponning nazmiy va nasriy asarlari, shuningdek, uning ma'rifatchilik, tarjimachilik va badiiy-estetik merosi adabiyotshunos olimlar tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa-da, bu yo'nalishdagi izlanishlar hali to'liq yakuniga yetgan deb bo'lmaydi. Adib ijodining ko'p qirrali tabiati, uning har bir asarida mujassam bo'lgan milliy uyg'onish, insonparvarlik, ozodlik va adolat g'oyalari chuqur falsafiy-estetik tahlilni talab etadi. Cho'lponning voqelikka bo'lgan g'oyaviy-ijtimoiy munosabati, maqsad va intilishlari uning sermahsul ijodida badiiy-estetik jihatdan o'ziga xos tarzda ifodalangan. U o'z asarlarida jamiyatdagi adolatsizlik, mustamlakachilik va jaholatga qarshi inson tafakkuri, ma'rifat va erkinlik qudrati orqali kurash olib borgan. Shu bois, Cho'lpon ijodi nafaqat adabiy hodisa, balki ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotining muhim bosqichi sifatida e'tirof etiladi. Uning she'r va nasrlarida inson qalbining nozik kechinmalari, milliy ruh, ijtimoiy ong va estetik tafakkur uyg'unlashgan bo'lib, bu jihatlar o'zbek adabiyotining yangi davr bosqichiga o'tishida hal qiluvchi omil bo'lgan. Cho'lpon ijodini shu nuqtai nazardan tahlil etish, uning badiiy-estetik qarashlari va ma'naviy qadriyatlarini zamonaviy falsafiy tafakkur kontekstida tadqiq qilish bugungi kunda ham dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Cho'lpon ijodi bo'yicha xorijiy davlatlarda ham ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Usmon Xo'ja o'g'li, Y. Benzing, X. Samioglu, Tohir Shokir o'g'li Chig'atoy, X. O'zboy, Eduard A. Ollvort, Temur Xo'ja o'g'li, Halim Qora, Xisao Ko'maku kabi jamiyatshunos olimlar Cho'lpon adabiy merosining turli qirralarini tahliliy o'rganishgan. Qozoq adibi Esong'ali Rovshanov shunday yozgan: «Hamalning ot qulog'i ko'rinmas ko'raydin tunlarida safarga chiqqanmisiz? Ana shunda olis-olislarda, ko'z yetmas yiroqda, qop-qorong'i osmonning bir chekkasini bexosdan tilgan chaqmoq borliqni bir lahzada yoritib o'tadi. Bir lahzadan keyin olam yana qorong'ilikka g'arq bo'ladi. O'zbek shoiri Cho'lponni o'qiganimda o'sha chaqmoq shu'lasini ko'z oldimga keltiraman». [2]

Muhokama. Cho'lpon ijodi xalqning estetik dunyoqarashi va badiiy tafakkurini yuksaltirish yo'llarini ko'rsatadi. Natijada Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati millatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, yangicha tafakkur shakllanishiga ma'naviy zamin yaratdi.

Cho'lpon tafakkuri erkinligining va estetikasining shakllanishida quyidagi omillar muhim o'rin tutdi: birinchidan, xalq ongini, tafakkur tarzini o'zgartirish, yangilash uchun ozodlik, ijtimoiy-siyosiy masalalar hal etilishi lozim edi; ikkinchidan, ijtimoiy hayotga, o'zgarib borayotgan jamiyatga munosabatda yangicha dunyoqarashni shakllantirish; uchinchidan, milliy yuksalish uchun madaniyat va ma'rifat, adabiyot va san'atning yangi yo'llarini egallash; milliy-madaniy, badiiy qadriyatlarni umumbashariy jihatlar bilan boyitish; adabiyot va san'atning zamonaviy estetik omillarini egallash kerak edi.

Cho'lpon garchi adabiyotning turli janrlarida ijod qilgan bo'lsa-da, uning nasr, nazm, nazariy asarlarini birlashtiruvchi asosiy masala – xalqning ozodligi, erki va ma'rifatparvarlik yo'li edi. Cho'lpon ma'rifatparvarlikni himoya qilgan yillardayoq bu harakatning Turkiston va xalq ruhi, ma'naviyatini yuksaltirishda kuchsiz ekanligini, odamlar tafakkuridagi mustamlakachilik, tuhmat va ig'volardan qutulib, yangicha hayot yo'liga o'tish va shunga binoan kurashish zarurligini chuqur idrok etgan.

«Hech to'xtamasdan harakat qilib turg'an vujudimizga, tanimizga suv-havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir», [3]– deb yozgan edi Cho'lpon.

Natijalar. Jadidlarni falsafiy jihatdan jipslashtirishdan asosiy maqsad – Turkiston Muxtoriyati davlatini vujudga keltirish va unda milliy, ma'naviy, estetik ulg'ayish yo'llarini yoritish edi. «Yurt» jurnali sahifalarida jadidlardan A.Zakiriy, Z.Validiy, Ahmad Sardor, Shokir Muxtoriy, Mustafu Subhiy, A.Bek, His va Qalandarning fikr-mulohazalari, badiiy asarlari chop etildi. 1917-yil 3-avgustda «Yurt» jurnalida Cho'lponning «O'zbeklar ham Turkiston» she'ri bosiladi:

Ulug' Turkiston! Senga ne bo'ldi?
Sababu vaqtsiz gullaring so'ldi.
Ajal kelmasdan nega sen o'lding?
Salqun qabrg'a nechun ko'milding?.. [4]

She'rning asosiy falsafiy ijtimoiy, estetik ma'nosi shundan iboratki, shoir o'zbek xalqini ittifoq, hamjihatlikka chaqiradi, bunda ulug' Turkiston manfaatlari, uning buyuk tarixi o'zbek xalqi uchun yordamchi va inqirozdan qutqaruvchi yo'l boshchi bo'lishiga da'vat etadi. Bu fikr tufayli milliy tariximiz va mamlakat taqdiriga zarur bo'lgan xalq suvsiz sahrolarni gulistonga, elni erkin va ozod etishga qodir bo'ladi. Shoir xalq vakillarining qalbida ozodlikka intilish bilan yiroq safarga otlanganini badiiylashtiradi. Uning Turkiston xalqlarini G'arb va jahondagi ilg'or hayotga chorlashi, odamlarni birlashtirib, obod o'lka yaratishga da'vat etishi, go'zal hayot qurishga undashi jadidlarning ta'lim, tarbiya, ma'naviyat bo'yicha fikrlarining badiiy-estetik ifodasi sifatida ko'zga tashlanadi, Cho'lpon bu bilan shaxs tafakkurida ozodlik tuyg'ularini shakllantiradi.

Barcha ilg'or fikrli jadidlar qatori Cho'lpon ham Turkistonni chulg'ab olgan turli qora bulutlar qo'ynida bu kayfiyatdan chiqib ketish yo'llarini o'ylab, ko'proq ijtimoiy-ma'rifiy va ozodlik muammolari bilan shug'ullandi. Sho'rolar hukmronligi boshlanishi bilan adib ijodida ijobiy xarakterdagi orzular o'rnini dildagi istaklar, ideal va estetik tuyg'ular egallay boshladi. Avvalgi, mustamlakachilik davridagi zulm yana kuchayib, adolatsizlik va qaramlikning yangi yo'l va to'siqlarini yarata boshladi.

Shu ma'noda, Cho'lpon asarlari umri boqiy, mazmun jihatdan puxta va go'zallik bilan yo'g'rilgan. Darhaqiqat, garchi Cho'lpon asosan nazmda ijod qilgan, o'zini ruh shoiri sifatida namoyon qilgan bo'lsa-da, uning milliy-estetik g'oyalari jamiyat, millat ruhini, kayfiyatini o'zgartirish, yangilashga qaratilgan edi. U nasriy asarlaridagi obrazlar xarakteri, tili va xatti-harakatlarida ana shu pok insoniy ruh va kayfiyatni saqlab qolishga, e'zozlashga harakat qilgan.

Cho'lponning barcha asarlarida badiiy-estetik obrazlar yetakchilik qiladi. Ushbu asarlarning asosiy mazmuni qayg'u-hasratlardan uzoqlashish, xalqning erkin, ijtimoiy hayot kechirish maqsadida ozodlik, erkinlikka intilishlarini, orzusini yuksaltirish edi.

Cho'lponning estetik merosi, badiiy g'oyalari go'yoki cheksiz ummonni eslatadi. Yelkan dengiz uzra suz ganday, qayerda, qanaqa bo'ron, siljishlarga duch kelishini bilmaganday, Cho'lpon ham koinot bag'rida nihoyatda ko'p ziddiyat va to'siqlarga uchrasa-da, har bir jarayonga o'ziga xos badiiy-estetik obrazlar orqali javob berishga intildi.

Shoir ijodida badiiy obrazlar Turkiston va uning xalqi osmonida to'plangan bulutlarning tarqalishini istagan she'riyatning binafshaday gullashiga bag'ishlangan, Vatan quyosh nuri bilan balqib, xalq ozod va erkin hayot bag'riga kirishini orzu qilgan fikrlar bilan to'ldirildi. Cho'lponning badiiy-estetik qarashlari o'zbek xalqi ozodligi yo'lidagi muhim falsafiy manbalardan hisoblanadi.

Cho'lpon jadidchilik harakatining ijtimoiy, siyosiy, badiiy, estetik g'oyalari ta'sirida yetuk ijodkor bo'lib shakllandi. Jadidchilik harakatining ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik va xalq ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan dunyoqarashi adib ijodiy faoliyatining asosiy qismini belgilaydi. Shu bois Cho'lpon ma'rifatparvar yozuvchi sifatida bashariyatga tanildi, ijodining aksariyat qismi karaxt xalq orasida ma'rifat uchqunlarini yoqdi va ularga mash'al bo'ldi.

Cho'lponning tabiat, jamiyat, inson, adabiyot va san'at xususidagi estetik falsafiy qarashlari milliy ma'rifatparvarlikni rivojlantirishga hissa qo'shib, ma'rifatni estetikaning «go'zallik» kategoriyasi darajasiga ko'tardi.

Buyuk iste'dod mavjud mashhur asarlarga, voqealarga ergashibgina qolmaydi. U ijtimoiy hayotda ham o'z aksini topadi. Cho'lpon ham G'arb teatri durdonalari bilan cheklanmay, yuragiga yaqin, qalbini egallagan milliy hayot lavhalariga diqqatini qaratadi va Sverdlin bilan birgalikda Yusufjon qiziq bilan bog'liq uch pardali, yetti ko'rinishdagi «Yana uylanaman» sahna asarini yaratadi. Bunda V.Yanning «Hujum» pьesasidagi Cho'lponning qo'shimchalari ham katta ahamiyat kasb etadi. Unda qahramonlar tili individuallashtiriladi, xalq kuylaridan keng foydalaniladi. Bular V.Yandan qanchalik uzoq bo'lsa, Cho'lponga shunchalik yaqin bo'lgani uchun V.Yan ushbu asarni Cho'lpon bilan birga yozganligini ta'kidlaydi. Buni bir vaqtlar S.Husayn ham tasdiqlagan. «Ruschadan tarjima qilg'on Cho'lpon bu asarga bog'liq mahoratini to'kib solgan. Asarning quruq tilini emas, hatto, kishining zavqini qitiqlaydigan so'z o'yinlarini joy-joyida ishlatib, mukammallashtirgan».[5]

Cho'lpon nafaqat iste'dodli dramaturg, benazir tarjimon, xorijiy tillar savodxon edi, balki ayni vaqtda aktyordan ona tilini yaxshi bilish va sahnada undan ustalik bilan foydalanish qobiliyatini yuksaltirishni ham talab qilardi. Salohiddin Mamajonov arab harfida bosilgan Cho'lponning teatrshunoslikka doir maqolalari xususida fikr yuritib shunday yozadi: «Uningcha, so'z aktyor uchun «ko'z qorasi»dir. O'zbek sahnasi yosh bo'lganligi uchun unda yaxshi so'zlovchi aktyorlar juda kam, hatto «hali tugal ma'nosi bilan madaniy aktyor ham yo'q». Ko'pgina aktyorlarning o'yin hunariga qaraganda so'z hunari, albatta, zaif. Go'zal va ustalarcha o'ynag'on aktyor go'zal va ustalarcha ham gapirishni bilsin. Shunda o'yin bilan so'z birlashib, tomoshani to'latadi».[6]

Xulosa. Cho'lpon taniqli jadid allomasi sifatida ma'rifatparvarlik g'oyasini inson kamoloti, el-yurt ozodligi va mustaqilligi bilan bog'ladi, uni o'z badiiy ijodining asosiy estetik prinsipiga aylantirdi. Cho'lpon estetikasini anglash uning buyuk umumbashariy g'oyalarini, yuksak insoniy tuyg'ularini yurakka singdirib olish, tabiat go'zalligi va inson ulug'vorligini adib ko'zi bilan ko'rib, qalbi bilan his etishdir.

Cho'lpon – XX asr o'zbek ma'naviy-ma'rifiy hayotining eng yirik vakillaridan biri sifatida, millat uyg'onishining ma'naviy ramziga aylangan siymodir. U taniqli jadid allomasi sifatida ma'rifatparvarlik g'oyasini inson kamoloti, el-yurt ozodligi va milliy mustaqillik bilan uzviy bog'ladi hamda bu g'oyalarni o'z badiiy ijodining asosiy estetik tamoyiliga aylantirdi. Uning asarlarida insonning ma'naviy barkamollikka erishishi, tafakkurning ozodligi, adolat va erkinlik kabi umuminsoniy qadriyatlar badiiy obrazlar orqali chuqur falsafiy va estetik talqinda yoritilgan. Cho'lpon estetikasini anglash bu, avvalo, uning inson, tabiat va jamiyat haqidagi falsafiy qarashlarini tahlil etish, go'zallik va ezgulikni hayot mazmuni sifatida ko'rgan badiiy dunyoqarashini tushunish demakdir. Uning badiiy-estetik konsepsiyasi faqat adabiy jarayon doirasida emas, balki falsafa, madaniyatshunoslik va ijtimoiy tafakkur rivoji bilan ham chambarchas bog'liqdir. Cho'lpon uchun go'zallik bu nafaqat estetik hissiyot manbai, balki inson ruhiy ozodligi va ma'naviy yuksalishining mezonidir.

Uning she'riy va nasriy asarlarida inson qalbi, vijdoni, orzu-intilishlari bilan tabiat go'zalligi o'rtasidagi uyg'unlik chuqur badiiy tahlil orqali ochib beriladi. Cho'lpon estetikasi insonni borliqning markaziga qo'yadi; u insonni tafakkur, muhabbat, ijod va erkinlik orqali kamolga yetadigan mavjudot sifatida tasvirlaydi. Shu ma'noda, Cho'lponning ijodiy merosi milliy adabiyot doirasidan chiqib, umumbashariy ma'naviy qadriyatlar tizimida ham alohida o'rin egallaydi.

Bugungi globallashuv va raqamli ong davrida Cho'lpon asarlariga murojaat etish, u ilgari surgan falsafiy-estetik g'oyalarni qayta o'rganish nihoyatda muhimdir. Chunki adib asarlaridagi ma'rifat, erkinlik, adolat, go'zallik va insoniylik haqidagi qarashlar zamonaviy jamiyat uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. U insonni o'z tafakkuri, e'tiqodi va axloqiy pozitsiyasi orqali jamiyatni yangilashga undaydi. Demak, Cho'lpon estetik merosi bu o'zbek milliy tafakkurining badiiy-falsafiy cho'qqisi, xalqimizning ozodlik, adolat va ma'naviy kamolot yo'lidagi intilishlarini ifodalovchi bebaho ma'naviy xazinadir. Uning g'oyalari bugun ham yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, ma'rifat va ijodiy fikrlash ruhida tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 9.
2. Cho'lpon. She'rlar. 31.08.2015 // kh – davron. uz.kutubxona
3. Cho'lpon. Asarlar. IV jild. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – B. 4.
4. Karimov N. Cho'lpon. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 83.
5. Husayn S. O'zbek teatri. – Samarqand-Maskov, 1929. – B. 80.
6. Mamajonov S. Bizning Cho'lpon. – Toshkent: Yozuvchi, 1997. – B. 22–23

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

EDUCATION AND UPBRINGING – A FACTOR THAT PROTECTS SOCIETY FROM SPIRITUAL AND CULTURAL DEFORMATION

Yazdonov Ulugbek Tashmurotovich

Samarkand Agroinnovation and Researchs University,
Doctor of Philosophy, Professor
E-mail: ulugbek.dsc@gmail.com
<https://orcid.org/0000-0001-9708-202X>

Sayidova Mukhabbat Gaforovna,

senior lecturer of the Navoi State Mining and Technological University
E-mail: jayronmalika@mail.ru
<https://orcid.org/0009-0008-2498-5533>

Abstract. This article discusses the factors that emphasize the necessity of preserving a proper environment for education and upbringing, which are key drivers of a society's spiritual potential. It analyzes the causes and consequences of ignorance that lead a nation toward spiritual decline, based on the results of conducted research.

Keywords: education and upbringing, spiritual threat, social decline, national awakening, nation, society, indicators of development.

TA'LIM VA TARBIYA – JAMIYATNI MA'NAVIY-MADANIY DEFORMATSIYALASHUVDAN SAQLOVCHI OMILDIR

Yazdonov Ulug'bek Tashmurotovich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti,
falsafa fanlar doktori, professor

Sayidova Muhabbat G'afforovna,

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatning ma'naviy salohiyatini ko'rsatuvchi muhim drayver ta'lim va tarbiya muhitini to'g'ri saqlash zaruratini ko'rsatuvchi omillar ustida fikr yuritilib, unda millatni ma'naviy tanazzulga olib boruvchi ilmsizlik sabablari va uning oqibatlari o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim va tarbiya, ma'naviy tahdid, ijtimoiy tanazzul, milliy uyg'onish, millat, jamiyat, taraqqiyot belgilari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N27>

Kirish. Bugungi jamiyat taraqqiyotining poydevori bevosita axborotlashuv jarayoniga borib taqaladi. U keskin, shiddatli va intensiv kechayotgan bo'lishi mumkin, ammo sohalararo integratsiyalashuvni yuzaga kelishida bosh omil vazifasini bajarmoqda. Shunday ekan, o'z taraqqiyot yo'lini barqaror qurishni istagan har qanday millat – eng avvalo davrning ushbu yutug'ini nafaqat qabul etishi, balki u bilan hamnafas harakatlanishi ham kerak bo'ladi. Aks holda millat sifatida yuksalishi, Davlat maqomida rivojlanishi qiyin kechadi. Albatta, milliy ruh,

to'g'ri ta'lim va tarbiya kabi omillarni hisobga olgan holda munosabatga kirishish zarur hisoblanadi. Chunki, "mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir"[1, 560-b]. Shunday ekan, jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham bunday yondashuv to'g'ri kelmaydi[2, 71-b]. Ammo erkinlik, demokratiya, zamonaviy qarash, davr taqozosi deb, o'zligimizga, ming yillik qadriyatlarimizga zarar keltiruvchi yo'lni ham tanlamasligimiz talab etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Émile Durkheim[3, 55-b] jamiyatda ma'naviy me'yorlar buzilishi qanday ijtimoiy inqirozlarga olib kelishini qiyosiy tahlilda ochib berib, ma'naviy marginallashuv qanday ijtimoiy illatlarini yuzaga keltirishi mumkinligini umumiylikdan xususiylikka o'tish tendensiyasida isbotlagan. Maks Weber[4, 327-410-b] madaniyat va axloqiy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotida qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini o'zaro aloqadorlik uslubida tahlil etib, bu ikki ijtimoiy kategoriya o'rtasidagi korrelyatsion aloqadorlikni ko'rsatuvchi konsepsiyani ishlab chiqadi. Pitirim Sorokin[5, 410-b] "Madaniyat inqirozi" jamiyatdagi ma'naviy hayotga qanchalik salbiy ta'sir etishini "madaniyat-ma'naviyat-shaxs" fenomenlari misolida diagnostik tahlil qilgan. Abduqodir Hayitov[6, 204-b], Karim Bahriyev, Habibulla Shermuhammedovlar jamiyatning ma'naviy barqarorligini saqlovchi omillar ustida tadqiqotlar olib borib, uning deformatsiyalashuviga sabab bo'luvchi ijtimoiy illatlarni fenomenologik jihatlarini grafik shaklga keltirib, ularni rivojlanish dinamikasini ko'rsatgan.

Natijalar va muhokama. Jamiyat murakkab tuzilma bo'lib, unga turli sohalar kesimida qarash mumkin. Masalan, ijtimoiy-siyosiy jihatdan qaralsa, jamiyatning kritik xususiyatlari ochilib[8, 356-b], shaxslararo munosabatlarning huquqiy mezonlari aniqlanadi. Iqtisodiy rakursda moddiy ne'matlar va ularga bo'lgan ijtimoiy munosabat shakllari alohidalik kasb etilishini ochiqlash mumkin[7, 32-b]. Shu tariqa, tadqiqot obyekti sifatida belgilangan yo'nalishga qarab jamiyatning kichik, ammo bir-birini taqozo etuvchi elementlarini tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib tadqiq etish mumkin.

Biz tomondan ko'tarilayotgan muammo, jamiyatni ma'naviy tanazzulga olib borishi mumkin bo'lgan "ma'naviy-madaniy deformatsiyalashuv" omillari bo'lib, ularning kelib chiqish sabablari, rivojlanish tendensiyalari hamda qarshi kurash mexanizmlarini ochiqlash maqsad etilgan. Demak, avvalo muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlashtirish muhim hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy jamiyatda (masalan O'zbekistonda) ta'lim va tarbiyaga bo'lgan bir tomonlama munosabat, quyidagi illatlarni shakllanishiga olib keldi:


- ilmsizlik;
- layoqatsizlik;
- xudbinlik;
- egoizm;
- vatansizlik;
- iymonsizlik;

- moddiyunchilikka berilish kabi qusurlar, xalq “mentaliteti”ga aylanib, bu boradagi qarashlarda yoshlar qatlami alohida o‘rin tutmoqda. Ushbu fikrimizni haqiqatga qay tariqa mosligini bilish uchun Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlari kesimida olib borgan tadqiqotimiz natijalari quyidagi ko‘rsatkichlarni berdi.

Yuqoridagi savollarga javob topish maqsadida “Sizga mustaqillik nima berdi?” mavzusida sotsiologik tadqiqot olib borildi.* Davra suhbatlari va so‘rovnoma beshta savolnoma ishtirok etdi:

- 1) “mustaqillik tufayli men o‘zimni baxtli hisoblayman”;
- 2) “mustaqillik bizga iqtisodiy qiyinchilik va ishsizlikdan boshqa narsa bermadi”;
- 3) “mustaqillik bizga milliy o‘zligimizni, qadriyatlarimizni tiklash va xalqqa qaytarish imkonini berdi”;
- 4) “xalqimizda “oldin iqtisod, keyin siyosat” degan naql bor. Biz hanuz iqtisodiy mustaqillikka erishmadik”;
- 5) “SSSR davri boshqacha edi. U davrda qornimiz to‘q, ustimiz but oilaviy birdamlik bor edi. Hozir hamma pul topish ilinjida o‘z-o‘zi bilan ovora bo‘lib qoldi” kabi savollar o‘rtaga tashlanib, jamoatchilik fikri o‘rganildi. Olingan statistik natijalarga ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralib, savollar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik koeffitsiyenti qiyosiy tipologik tahlil etilganda quyidagi diagramma hosil bo‘ldi.

1-diagramma



* Ushbu so‘rovnoma ishtirok etgan respondentlarning yoshi 55-75 oraliqda belgilandi. Chunki, aynan shu yoshdagi fuqarolarimiz mustamlakachilikning so‘nggi davrida ta‘lim va tarbiya topib, kommunizm deb nomlangan cho‘pchak siyosat nashidasini ko‘rgan, tariximiz, madaniyatimiz, ma‘naviyatimiz tahqirlangan, buzib talqin etilgan zamonda tarbiya topgan avlod hisoblanadi. (Davra suhbatlari va so‘rovnoma shaklida olib borilgan tadqiqotda Navoiy, Buxoro, Samarqand viloyatlaridan 9 ta mahalla ixtiyoriy tanlab olinib, jami 270 ta respondent ishtirok etdi).

Demak, so'rovnoma ishtirok etgan savollar toifasiga ko'ra uch guruhga ajratiladi:

- 1) tadqiqotning maqsadini o'zida ifoda etuvchi javoblar (1-3 savolnoma);
- 2) respondentlarning dunyoqarashini, tushunchasini hamda mustaqillik ne'matiga nisbatan ijtimoiy munosabatini baholovchi javob (2-4 savolnoma);
- 3) milliy o'zligidan, qadriyatlaridan, urf-odat va madaniyatidan faxrlanish tuyg'usi yetarli shakllanmagan kishilar javobi (5 savolnoma).

Ushbu savolnomalar bo'yicha olingan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, sobiq sho'rolar davrida yashagan (shu davrda ongi, dunyoqarashi shakllangan), mehnat qilgan o'rta yoshli fuqarolarimizning aksariyat qismi, ya'ni 29% zi mustaqillik sharoitiga moslasha olmagan kishilar bo'lsa, 35% zi iqtisodiy imkoniyatidan qoniqmagan, moddiy qiyinchiliklarning manbai (yaratuvchisi) davlat deb biladigan, hayotdagi barcha muammolarning yechimini iqtisodga bog'lovchi kishilar hisoblanmoqda. Hattoki, o'rta yoshli qatlamning 19% zi mustaqillikka shubha bilan qaraydigan, "qorin tashvishida" yashaydigan, milliy o'zlik, mustaqillik yoki Vatan kabi muqaddas tushunchalarga kosmopolitistik qarashda bo'layotgan kishilar hissasiga to'g'ri kelishi yanada achinarli holdir.

Bir so'z bilan aytganda, yuqorida keltirib o'tilgan tadqiqot maqsadiga mos ravishda ijobiy munosabat bildirgan respondentlarning umumiy javobi 8-9 foizdan oshmasligi, jamiyat oldida naqadar dolzarb masalalar borligini anglatadi. Chunki, yoshlar tarbiyaga muhtoj qatlam hisoblansa, yoshi ulug' (80 va undan yuqori qatlam) nuroniylar e'tiborga, qarovga ehtiyojmand kishilardir. Demak, har ikki holatda ham o'rta yoshli (55-75) qatlam vakillari jamiyat boshqaruvida, oilaviy munosabatlarda muhim drayverlar desak, to'g'ri baho bergan bo'lamiz.

Masalaning muammoligi shundaki, tadqiqot natijalari bu qatlam (o'rta)ning aksariyati dunyoqarashda, milliy ruhiyatda, sharqona mentalitetga moyillikda, vatanparvarlik kabi tuyg'ularda o'zlari tarbiyaviy ko'makka muhtoj ekanligini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, tadqiqot xulosalaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki nafaqat yoshlarni, balki ommaviy ravishda jamiyatimizning barcha qatlamlari orasida milliy o'zlikka bo'lgan hurmat ruhini oshirish, ularning qalbida axborotlashgan jamiyatning ma'naviy-madaniy deformatsiyalashuviga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish zarurati mavjud. Shu o'rinda nima qilish kerak?! Qanday amaliy ishlarni bajarish maqsadga muvofiq!? Targ'ibot texnologiyalarini kuchaytirishga qaratilgan qanday pragmatik mexanizmlarni ishlab chiqish zarur!? Bu kabi savollar o'rta chiqishi ham ayni haqiqat.

Xulosa. Bu borada biz quyidagi tavsiyalarni o'rta tashlaymiz:

birinchidan, "milliy o'zlikni tarannum etishda ta'lim va tarbiya muhiti betakror vositadir" degan fikrni ilgari surib, "ta'lim tizimida madaniyatlararo muloqotni optimal ravishda amalga oshishi imkoni mavjudligiga e'tibor qaratamiz, bu bag'rikenglik; plyuralizm; kognitiv kamtarlik kabi tamoyillarga tayanadigan avlodni shakllanishiga olib keladi.

Ikkinchidan, kishilar o'rtasidagi farqlarning mavjudligi hisobga olinmaydi, balki qabul qilishi ham va turli nuqtai nazarlar mavjudligini anglash ham ma'lum tizimga qaratilgan holda kechadi. Shu jihatdan qaraganda jadal rivojlanayotgan sun'iy intellekt madaniyatlararo ta'limda transfer vazifasini o'tashi kuzatiladi, u ta'limni turli insonlarning madaniy o'zligiga individuallashtirish orqali ta'sir etishini ta'minlaydi. Demak, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan voz kechmagan holda milliy ruhga sodiq qoluvchi "Ta'lim strategiyasini" ishlab chiqish zarur.

Uchinchidan, turli axborot transformatsiya jarayonlari milliy madaniy merosga bo'lgan shaxs munosabatini tubdan o'zgartirmasligi uchun, ya'ni madaniyatlararo ta'lim nazariyasi inklyuziv ta'lim nazariyasiga shaklan qarama-qarshi yo'naltirilishiga yo'l qo'ymaslik zarur. Buning uchun, falsafiy- komparativistik nuqtai nazardan ta'limning barcha jihatlarini madaniy merosga qaratilgan ta'lim muhitiga moslash talab etiladi.

To'rtinchidan, oiladagi ma'naviy muhitga davlat miqyosida e'tibor qaratilishi shart. Chunki, oila orqali yoshlarni milliy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash mumkin. Jumladan, bolani kichik yoshdan o'z millatining tarixiga, madaniyatiga va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash eng maqbul yo'ldir. Buning uchun o'quv-tarbiya metodikalarini qaytadan ko'rib chiqish, ota-ona uchun milliy tarbiya bo'yicha qo'llanmalar yaratish va bu yo'nalishda ko'mak beruvchi mahallabay imtiyozli kurslarni tashkil etish tavsiya etiladi.

Beshinchidan, yoshlarga ta'lim va tarbiya berish tizimini milliy qadriyatlar bilan bog'lash, ya'ni ta'limda milliy tarix, madaniyat, urf-odatlar va an'analarni singdirish zarur. Buning uchun maxsus dasturlar va o'quv materiallari ishlab chiqish va shu orqali yosh avlodni tarixiy ong bilan qurollantirish mumkin bo'ladi. Masalan, yoshlarni milliy tarix bilan tanishtirish va o'z millatining erishgan yuksak yutuqlarini targ'ib qilish natijasi o'laroq ularni yurtini sevishga, uni himoya qilishga bo'lgan rag'batini oshirish mumkin.

Oltinchidan, ijtimoiy hayotda erkin fikr va muhokama maydonini yaratish zarur. Xususan, yoshlarni o'z fikrlarini erkin bildirishlari uchun media platformalarini yaratish, unda milliy qadriyatlar joylashtirilib, shu orqali yoshlarni jamiyatdagi roli haqida diskussiyalar tashkil etish, ularni ijtimoiy, madaniy va ilmiy faoliyatiga bog'liq bo'lgan kontentlar bilan boyitish hamda milliy qadriyatlarni himoya qilishga doir ilmiy-ommabop dasturlarni joylab borish yoshlarni milliy ma'naviy qadriyatlarga, madaniy merosga bo'lgan munosabatini o'zgartirish mumkin. Chunki, zamonaviy vosita hisoblangan ijtimoiy tarmoqlar, media kontentlar yoshlar uchun ma'naviy qadriyatlarni qabul qilishida samarali tizim hisoblanadi.

Yettinchidan, jamiyatda uchraydigan ijtimoiy muammolarning milliy qadriyatlarga bog'liqligini, urf-odat va an'analarga borib taqalishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ularni tadrijiy takomillashtirib borish tizimini yaratish zarur. Chunki, globalizatsiya tahdidlari har qanday madaniyatga salbiy ta'sirlar o'tkazishi, ayniqsa himoyasi ojiz bo'lgan yoshlarni qamrab olishi eng ko'p kuzatilayotgan jarayondir. Demak, milliy o'zlikni saqlash uchun yangi usullarni ishlab chiqish, xususan zamonaviy texnologiyalar va kommunikatsiyalardan unumli foydalangan holda yoshlarni ma'naviy deformatsiyadan himoyalash mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. –Т.: Ўзбекистон нашриёти, 2024. –560 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. – Б.71
3. Durkheim E. Pravila sociologicheskogo metoda // The rules of the sociological method. – М., 1995.
4. Вебер М. Основные социологические понятия. –М.: РИПОЛ классик, 2017. –С. 327-410.
5. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. Издательство: политической литературы, 1992. –401 с.
6. Hayitmetov A. Navoiy qalbila sirlashgan inson. –Т., 1999. –204 б.

7. D.Mustafayeva. Yangi O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish istiqbollari: islohotlar va yangiliklar. Ta'lim, fan va innovatsiya. 2021/5-son, –B. 32
8. “O'zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish yo'nalishlari va istiqbollari – yoshlar nighida” ilmiy-amaliy maqolalar to'plami. –T.: Nordic international University, 2024. – 356 b.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

COGNITIVE FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN CENTRAL ASIA IN THE 9TH–12TH CENTURIES

Abdullayeva Makhbuba Nurullaevna

Doctor of Philosophical Sciences, Professor

E-mail: abdullayeva.m@mail.ru

Jalalova Gulbakhor Odiljonovna

National University of Uzbekistan

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences

E-mail: jalalova.gulbahar@mail.ru

<http://orcid.org/0009-0009-2150-0403>

Abstract. In Central Asia during the 9th to 12th centuries. The article analyzes the epistemological factors in the development of science in Central Asia during the 9th and 12th centuries. The authors examine how the rich scientific and cultural heritage of the region, as well as cognitive and epistemological factors such as viewing the world as a complex system, had a significant impact on the development of the scientific system.

Keywords: science, scientific system, system, Central Asia, cognition, epistemology.

КОГНИТИВНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ НАУКИ В IX- XII ВЕКАХ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Абдуллаева Махбуба Нуруллаевна

доктор философских наук, профессор

Жалалова Гулбахор Одилжонова

Национальный университет Узбекистана,

доктор философии (PhD) по философским наукам

Аннотация. В статье IX–XII веках в Центральной Азии анализируются когнитивные факторы развития науки. В статье проанализированы эпистемологические факторы развития науки в Центральной Азии в IX и XII веках. Авторы исследуют, что в этот период на развитие научной системы в нашем регионе оказали большое влияние богатое научно-культурное наследие, а также когнитивные и эпистемологические факторы, такие как восприятие мира как сложной системы.

Ключевые слова: наука, научная система, система, Центральная Азия, когнитивность, эпистемология.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N28>

Введение. Изучение науки Центральной Азии IX–XII веков важно для понимания корней современной науки, формирования культурной идентичности и осознания значительного вклада этого региона в мировую цивилизацию. Это помогает видеть преемственность научных знаний, вдохновляться достижениями прошлых веков и лучше понимать взаимосвязь культур и технологий в истории человечества. Изучения развития науки данного периода а также демонстрирует, как научные знания и идеи

развивались и передавались из поколения в поколение и из одной культуры в другую, показывая, что развитие науки всегда является процессом, опирающимся на предшествующие открытия. Знакомство с великими учеными прошлого и их достижениями может послужить источником вдохновения для нынешних и будущих ученых, стимулируя интерес к науке и исследования.

Литература и метод. Истоки развития науки Центральной Азии и процессы и особенности развития научной системы в Центральной Азии в IX–XII веках изучали философы Р.Н. Насыров и Хайруллаев, И. Муминов. В оригинальной книге «Islamic Science and the Making of the European Renaissance» Джордж Салиба изучает развития исламскую науку. С.Ф. Старр и В. Бартольд также исторически исследовали развитие науки в Центральной Азии. Поскольку мы исследовали эпистемологические факторы развития науки в данный период важное значение имеют работы М. Коул, Е. Я. Режабек по культурной психологии, а также исследования Р. Нисбетта, К. Пенга, И. Чоя и А. Норензаяна, основанные на социально-психологических подходах. Д. Мацумото провёл масштабные научные изыскания, посвящённые взаимодействию культуры и когнитивных процессов. В. Ю. Пузыревский изучал этнокультурные модели мышления и проблемы образования, а И. П. Меркулов рассматривал когнитивную эволюцию. В статье тема исследуется с эпистемологической точки зрения на основе теории сложных систем.

Обсуждение. В средневековья, в мире существовали «три интеллектуальных центра, которые в своих отношениях друг с другом были достаточно независимыми. Однако они основывались на античном наследии. Это Византия, латинские монастыри и арабская культура» [10].

Научные достижения Центральной Азии явились звеном соединяющие научного достижения древности и современности. Центральная Азия «была подобием моста между временами и странами, став связывающим звеном между античностью и современным миром» [6].

Для развития науки и культуры данного периода большое значение имеет знакомство и изучение индийской культурой и наукой.

Сочинения исламских ученых данного периода писали на арабском языке которым считался международным языком средневековой науки. Развития науки и культуры IX и XII вв. в Центральной Азии многие авторы сравнивают с эпохой Ренессанса. Но существенная разница заключается в том что интенсивное развитие науки и культуры происходило на иной социально экономической, культурной и когнитивном основе. Эти основы способствовали развития науки этого периода в Центральной Азии.

Великие ученые средневековой Центральной Азии внесли большой вклад в развитии мировой науки. Так, Б. Рассел писал «Превосходства Востока было не только военным, науке, философия, поэзия и все виды искусства процветали в мире Мухаммада, тогда как Европа была погружена в варварство. Европейцы с их непростительной узостью называют этот период «темным веком», но только в Европе он был «темным», фактически только в христианской Европе» [11].

Достижения в науке, которых добились исламские ученые отмечает Роберт Блифонт и Стенвуд Нобб «ислам был фактически родоначальником эпохи Возрождения».

Во первых изучение истории данного периода показывает, Центральная Азия вступила в свой золотой век с богатым культурным и интеллектуальным багажом как в светской, так и в религиозной сферах» [11].

Народы Центральной Азии жили в добрососедских отношениях с соседними странами, поддерживали культурные, экономические связи, тем самым на основы синергии формировали новые идеи, решения и подходы, так в практической, культурной и научной жизни.

Значить, можно считать богатая культурная и интеллектуальная история Центральной Азии тоже оказала большое влияние на развития науки. Центральной Азии зареострийском периоде уже существовало своя уникальная культура, были развиты письменность архитектура, изобразительное искусство [3].

Все это свидетельствует о наличии математических, геометрических расчетах в практической деятельности. Священная книга «Авесто» наряду с религиозными постулатами, борьба с многобожеством, обосновала принципы спокойствие в обществе, семье, борьбе добра и зла, уделяя особое значение нравственности, морали, этике, эстетике.

Интерес к культуре Хорезма «возник уже в кругу учеников Платона и Аристотеля» [7] которое выразили свое отношение к идеям зареоастризма. «Труды ученых Центральной Азии, которые легли в основу развития арабской и современной европейской математической науки, и особенно Ал-Беруни, этого великого энциклопедиста раннегео средневековья, понятны лишь при условии принятия тезиса о длительной средневековой Хорезмской науки. О высокой культуре древнего, домусульманского Хорезма, где скрещивались те влияния местной, иранской античной и индийской культуры, которые так ярко проявились в трудах этих великих ученых - хорезмийцев» [12].

Миролюбивые отношения к культуре, обычаям соседних стран, занятие сельским хозяйством в условиях Хорезма, стремление создать условия для жизни людей и другие факторы в совокупности являлись основой научной и культурной жизни Хорезма.

«... науке известна культурная жизнь людей в Хорезме чем за четыре тысячелет тому назад. Уже тогда жители Хорезма создавали первоначальные элементы цивилизации: отделяли себя от дикой природы, приспособляли природные условия к условиям человеческой жизни, создавали оружия труда, письменность, правила счисления, космографию и закономерностей видимых движений небесных тел. 27 веков назад была написана «Авеста» - первое (и относительно древнегреческих письменных трактатов) цельная философски - историческая книга» [4].

Таково состояние науки, культуры, духовности, просвещения в Хорезме до исламского периода.

Во-вторых холизм как когнитивный и культурный особенность Востока. Исследования показывают, что культура играет значительную роль в процессах мышления и формирования знаний. Под воздействием специфической культуры когнитивные способности человека в процессе познания постепенно изменяются. В

связи с этим холизм и эпистемологические принципы, характерные для восточного мышления, имеют большое значение. Иными словами, признание мира как целостного и взаимосвязанного до сих пор оказывает значительное влияние на мышление восточного человека.

Анализ литературы по теме показывает, что одним из факторов, влияющих на когнитивные способности человека, является культура. Р. Нисбетт в своей работе «География мысли» [10, Р.Н. Нисбетт, 2012] выдвигает идеи о том, что когнитивные особенности людей, живущих на Востоке и в Азии, имеют свои уникальные черты. Учёный подчёркивает, что западные (преимущественно европейцы, британцы, американцы) и восточные (преимущественно китайцы, корейцы, японцы) люди в течение тысячелетий создали различные системы мышления. Европейский способ мышления базируется на постулате, что живую и неживую природу, в том числе и человеческую деятельность, можно объяснить на основе простых законов. Западный человек предпочитает систематизацию, которая помогает понять, какой закон действует на конкретный объект. В решении задач они в основном обращаются к формальной логике. Таким образом, у европейцев более развит рационализм. Восточные же, напротив, рассматривают объекты мира в более широком контексте, для них мир сложен, и понимание явлений требует учета множества факторов в их тонком взаимодействии. То есть восточным людям свойственен холистический тип мышления.

По мнению учёного, во-первых, представители разных культур имеют свою «метафизику», и их взгляды на мир и природу фундаментально различаются. Во-вторых, существуют различия в механизмах мышления людей из разных географических регионов. В-третьих, в процессе мышления люди обращаются к инструментам, соответствующим их представлению о системе мира.

Холистический подход, характерный для восточного мышления, можно наблюдать и в научном творчестве средневековых среднеазиатских учёных. В их научном наследии исследование мира как системы проявляется в взглядах на математику, музыку, архитектуру, поэзию, медицину. Однако многие современные учёные связывают корни холизма с античной философией. Например, российский учёный Е. Князева считает, что зачатки холизма можно увидеть в древнегреческой философии. Философы Древней Греции — Платон и Эмпедокл — интегрировали философию и медицину [2, Е. Князева Е.]. К. Майнцер в своей книге «Сложносистемное мышление: Материя, разум, человечество. Новый синтез» называет Гераклита отцом синергетики. В книге также приводится вклад Анаксимена, Эмпедокла, Ньютона и других учёных в развитие современной синергетики. Вместе с тем, в научном наследии таких учёных, как Беруни, Ал-Хорезми, Фараби, также прослеживаются примеры холизма. Э. Морен в своей работе «Метод. Природа природы» признаёт значительное влияние идей Лао-цзы, Гераклита, Паскаля и других учёных на развитие концепции сложности, однако имена среднеазиатских учёных в его работе не упоминаются [8, Морен Э.].

Рассмотрим некоторые примеры эволюции холистического подхода в творчестве среднеазиатских учёных [1]. Так, Ибн Сина рассматривает мир как взаимосвязанную систему. В своей книге «Донишнома» он пишет: «В мире нет пустоты... весь мир состоит из единства» [12]. Ибн Сина занимался медициной, математикой, астрономией,

философией, психологией, ботаникой, минералогией, что позволило ему изучать природу как целостность [12].

Руми подчёркивал необходимость духовного и физического совершенства человека, говоря: «Если посеешь зерно без шелухи, оно не взойдёт. Если же посадишь его вместе с шелухой в землю, произойдёт прорастание» [12]. Здесь подчёркивается единство духа и тела человека. «Если ты видишь недостаток в другом, это отражение твоего собственного несовершенства; человек — это зеркало» [13], — писал он. Учёный считал, что человек является элементом единой системы общества, и недостатки общества отражаются в каждом человеке. Таким образом, холистический взгляд, характерный для восточного мышления, проявлялся и в творчестве средневековых восточных учёных.

Кроме того, культурные различия проявляются и в знаниях, связанных с архитектурой. Вертикально ориентированный стиль «джунглей» можно проследить в готической архитектуре и руническом письме, а горизонтально ориентированный стиль «саванны» — в арабской архитектуре и арабской вязи. Первый стиль характеризуется прерывистостью, второй — слитностью. Эти тенденции прослеживаются и в более древние времена. Л.И. Ремпель также отмечает, что в городах Средней Азии IX—XIII веков все здания воспринимались как единый ансамбль. Это было проявлением холизма в градостроительстве Востока.

Результаты. Во первых, Центральная Азия вступила IX—XIII в.в. в свой золотой век с богатым культурным и интеллектуальным багажом как в светской, так и в религиозной сферах. Все эти обстоятельства в системе целостности создают среду способствующую формированию и развитию науки, развитию личности ит.д. В сложных системах указанного периода выше перечисленные эпистемологические факторы послужили основой столь бурного и плодотворного развития науки в IX—XIII веках.

Принятия ислама в первом веке распространения новой религии, дух толерантности ислама был сложным и ярко выраженным» [13]. Дух толерантности был присущ народам Центральной Азии и их синергетическое взаимодействие дало свои результаты, которые обогатили науку, культуру народов всего мира. Толерантность способствует развитию нашего мышления, обогащению наших знаний, пониманию и уважения других взглядов и подходов в объяснении иных явлений.

Основапалагоающие принципы ислама к образованию и науке, которое в какой степени созвучны и с заветами «Авеста, явились одной из основных условий развития. «Стремление к знанию обязанность каждого мусульманина», «Аллах вменяет в обязанность знающим обучать других. Передача знаний другим является заодном и развитием самого себя!».

Синергия подходов являясь частью сложной системы формирования науки дала такие результаты, которые явились основой развития мировой науки. В конце IX века на территории Центральной Азии образовалось несколько самостоятельных государств, освободившихся от арабского господства. Бурное развитие наук связано с поддержкой государства. В период правления Маъмуна (818- 833) государство способствовало развитию в стране «илм- маърифат» [2].

В создании Хорезмской академии Маъмуна «были созданы все условия для всесторонней деятельности академии, а необходимые средства выделялись из

государственной казны здесь, как и в академиях Платона(Афины)/ «Байт - ул – Хикма (Багдад) велись научные исследования по математике, астрономии, химии, геодезии, фармацевтике. В академии изучались и переводились научные труды арабских, индийских и греческих ученых».

В этом научном центре велись научные дискуссии, высказывались интересные научные идеи, некоторые из которых в дальнейшем развитии науки получали подтверждение. Академия поддерживала научные связи с другими центрами, как Бухара, Багдад и др.

Наука развивалась на основе целой системы взаимосвязанных элементов. Одной из которых была древнегреческая философия. Но ученые этого периода вносили коррективы в учения греческих ученых, свершенствовали научные подходы, приборы которые ими пользовались. Основываясь на теоретических знаниях, они использовали их в практической жизни и в задачах астрономии, связанных с Солнцем, Луной.

Проблема эмпирического и теоретического наблюдения, высказывания новых идей на основе полученных данных, переход на теоретический уровень во всей сложности этого времени проводилось учеными этого периода. Встречи и обсуждения в научных центрах Хорезма, Бухары, Багдада и других городах давали возможности развивать и совершенствовать и теоретические и практические методы исследования.

С точки зрения современной науки интересен тот факт, что Беруни первый написал учебник по геодезии. Ученые средневековой Центральной Азии использовали междисциплинарный подход в своих исследованиях, что мы наблюдаем на примере использования геодезии.

Например, «...в этот период связующим звеном между наукой и искусством были, в первую очередь, математика и геодезия. Они носили в теоретический и практический характер. Это отразилось в работах Мухаммад ал Хоразмий (1X в.), Ибн Сина (X в.), Ибн ал Багдади (X-XI в.). 1X-1X век дали технической революции полную назрузку» [9]. Метод геометрической гармонизации и математического исчисления приближенно совпадали. Это дало возможность приблизить теоретические расчеты математиков и практике мастеров. Последние пользовались методом прикладной геометрии. Отсюда преимущества и удобства в сроках и точность выведения зданий...» [9]. В 9-11 веках теорию музыки разрабатывали выдающейся ученые Средней Азии – Фараби, написавший «Большой трактат о музыке», Хорезми, включивший раздел о музыке в свою энциклопедию «Ключи науки», Ибн Сина, посвятивший музыке специальные разделы «Книги исцеления». ...авторы трактатов прямо связывали между собой математику и музыку» [9]. Как отмечает Ремпель, именно Фараби явился основоположником науки о музыкальных инструментах.

Выводы. Развития науки и культуры IX и XII вв. в Центральной Азии многие авторы сравнивают с эпохой Ренессанса. Но существенная разница заключается в том что интенсивное развитие науки и культуры происходило на иной социально экономической, культурной и когнитивном основе. Эти основы способствовали развития науки этого периода в Центральной Азии.

Во первых, Центральная Азия вступила IX—XIII в.в. в свой золотой век с богатым культурным и интеллектуальным багажом как в светской, так и в религиозной сферах. Принятия ислама « в первом веке распространения новой религии, дух толерантности

ислама был сложным и ярко выраженным» [13]. Дух толерантности был присущ народам Центральной Азии и их синергетическое взаимодействие дало свои результаты, которые обогатили науку, культуру народов всего мира.

Во-вторых, когнитивные факторы тоже влияли на развития науки этого периода в Центральной Азии. Как отмечает Мацумото «Восточное» мышление придерживается трёх принципов народной диалектической эпистемологии: (1) Принцип изменения предполагает динамическое развитие реальности, т.е. нет ничего, что тождественно само себе, поскольку реальность изменчива и неустойчива; (2) Принцип противоречия, который гласит, что поскольку изменение постоянно, постоянно и противоречие, т.е. сама природа мира такова, что старое и новое, хорошее и плохое сосуществуют в одном и том же объекте или событии; (3) Принцип холизма, согласно которому смысл в том, что поскольку изменение и противоречие постоянны, то ничто в жизни человека или в его характере не является изолированным и независимым, т.е. всё взаимосвязано, и попытки выделить составляющие единого целого могут лишь ввести в заблуждение. Этот стиль можно назвать холистическим (диалектическим), контекстуальным (В). «Западное» мышление опирается на три закона научной логической эпистемологии: (1) Закон тождества ($A=A$) предполагает, что любая сущность тождественна сама себе; (2) Закон исключённого третьего (A или B , или не B) гласит, что любое высказывание либо истинно, либо ложно, т.е. не может быть полуправды; (3) Закон противоречия (A не есть не- A) утверждает, что никакое высказывание не может быть одновременно и истинным и ложным. Этот стиль можно назвать формально-логическим, внеконтекстуальным [8].

Все эти обстоятельства в системе целостности создают среду способствующую формированию и развитию науки, развитию личности ит.д. В сложных системах указанного периода выше перечисленные когнитивные факторы послужили одним из основ столь бурного и плодотворного развития науки в IX – XII веках.

Но надо утверждать что восточный и западный тип мышления не являются неизменными. Поскольку в системе постоянно происходит процесс эмерджентности — случайного, внезапного появления новизны. Поэтому нецелесообразно приходить к выводу, что присущая восточному мышлению специфика сохраняется в неизменном виде. Сегодня усиление межнациональных взаимодействий, процессы глобализации приводят к тому, что национальные когнитивные особенности не могут оставаться постоянными, неизменными и универсальными. Они также, как и сложные системы, в определённой степени трансформируются. Нашу мысль подтверждают исследования последних лет, посвящённые нейропластичности человеческого мозга. В этих исследованиях отмечается, что «люди, выросшие в бикультурной среде, действительно чередуют восточное и западное восприятие. Значит, мозг, познание и культура находятся в синергетическом взаимодействии.

«Поэтому не только мозг участвует в создании культуры, но и сама культура оказывает формирующее влияние на мозг. Иногда эти изменения могут быть весьма значительными» Эти исследования показывают, что когнитивность, мозг и культура — это самоорганизующиеся, сложные системы, для которых характерны открытость, нелинейное развитие, а также процессы адаптации и самоорганизации в когнитивной сфере и культуре [1].

Однако период, который мы анализировали, значительно отличается от сегодняшнего дня своими историческими, социальными, культурными и когнитивными особенностями. Поэтому мы считаем, что в развитии науки в IX и XII веках большое значение имело холистическое восточное мышление.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Jalalova G.O. Cognitivity and culture the need for new metodologic al Approaches. II International Scientific Forum on Sustainable Development and Innovation (WFSDI 2023): LLC Institute of Digital Economics and Law. 2024. –1670 p.
2. Muminov I. O'zbekistondagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar. – Toshkent, 1999.
3. Абдуллаева СА. Исторические корни духовности узбекского народа. Молодой ученый. №7. Февраль 2017. – С. 567-563.
4. Кабулов В., Файзуллаев А.Ф., Назиров Ш.А. Ал-Хорезми, алгоритм алгоритмизация. - Т., 2006. – С. 5.
5. Коран. Перевод мыслов и комментариев. Имам Валерия Порохова. - С. 21.
6. Коран. Перевод мыслов и комментариев. Имам Валерия Порохова. - С. 21.
7. Лелеков Л.А. Авесто в современной науке. Star 72. ИТ, 28.01. 2011. – С. 12- 27.
8. Пузыревский В.Ю. Этнокультурные стили и мышления и образование. — СПб.: Лема, 2012. – С.67.
9. Ремпель Л.И. Художественная культура Средней Азии 9- 13 веков.Ташкент.: Сб. статьей. Литература и искусства, 1983. – С. 182.
10. Скирбекк Г., Нильс Г. История философии. Университетская традиция 2013.
11. Старр С.Ф. Утраченное просвещения Золотой век Центральной Азии от арабского завоевания до времен Тамерлана. Альпина. 2013.
12. Толстой С.П. Древний Хорезм. Опыт историко археологического исследования. – М., 1948. – С.16.
13. Яхъяев М. Поливариантность исламской культуры: истоки и причины. // Исламоведение. 2020. Т.11. №2. – С. 121.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

POLITICAL-INSTITUTIONAL ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN STATE AND SOCIETY

Rasulov Hakim Mamanovich,
Professor of Termez State University,
Candidate of Political Sciences
E-mail: rhm1973@mail.ru

Abstract. The article analyzes the interrelationship of political and institutional aspects of state and society relations. The mechanisms of interaction between the state administration system and civil society institutions are highlighted. At the same time, the role of political institutions - parliament, government, political parties and public organizations in expressing the interests of society is considered on a scientific basis. Democratic reforms that ensure the dialogue of the state with citizens and modern forms of social cooperation are analyzed. The research results substantiate that the stability of state and society relations is closely related to the effective functioning of political institutions.

Keywords: state, society, political-institutional, parliament, executive branch, judiciary, political parties, public organizations, social stability.

DAVLAT VA JAMIYAT O‘ZARO ALOQADORLIGINING SIYOSIY-INSTITSIONAL TAHLILI

Rasulov Hakim Mamanovich,
Termiz davlat universiteti professori,
siyosiy fanlar nomzodi

Annotatsiya. Maqolada davlat va jamiyat munosabatlarining siyosiy-institutsional jihatlarining o‘zaro aloqadorligi tahlil qilingan. Davlat boshqaruvi tizimi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro ta’sir mexanizmlari yoritilgan. Shu bilan birga, siyosiy institutlar – parlament, hukumat, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining jamiyat manfaatlarini ifoda etishdagi roli ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan. Davlatning fuqarolar bilan muloqotini ta’minlovchi demokratik islohotlar hamda ijtimoiy hamkorlikning zamonaviy shakllari tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida davlat va jamiyat munosabatlarining barqarorligi siyosiy institutlarning samarali faoliyati bilan chambarchas bog‘liq ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat, jamiyat, siyosiy-institutsional, parlament, ijro hokimiyati, sud tizimi, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy barqarorlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N29>

Kirish. Davlat va jamiyat o‘zaro aloqadorligi bilan bo‘g‘liq munosabatlar falsafa, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, sotsiologik va iqtisodiy tadqiqotlarning obyektidir. Siyosiy hayotni davlat va jamiyatning asosi bo‘lgan institutsional tuzilmalar — ya’ni parlament, davlat organlari, sud tizimi, siyosiy partiyalar, mahalliy boshqaruv organlari, fuqarolik jamiyati institutlari orqali tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Shu bois bu ikki hodisa kompleks tadqiqotlarni taqozo etadi. Har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti unda amalda bo‘lgan siyosiy va fuqarolik jamiyati institutlarining samarali

faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Aynan davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanat hokimiyat tizimi orqali amalga oshiriladigan boshqaruv, nazorat, tartib-qoida va majburiyatlar ko'rinishida, fuqarolik jamiyati institutlari orqali esa erkinlik, ijtimoiy tashabbuslar vositasida davlat faoliyatiga ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi [1]. Insoniyat tarixida davlat va jamiyat munosabatlari turlicha shakllangan. Ayrim davrlarda davlat hokimiyati ustuvor bo'lgan bo'lsa, boshqa bir davrlarda jamiyat faolligi va erkinligi yuqori bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Davlat va jamiyat munosabatlarining o'zaro aloqadorligini o'rganish juda murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Bu munosabatlar siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy hamda ijtimoiy jihatlardan iborat bo'lgani uchun ularni tahlil qilishda tizimli yondashuv, tarixiylik, siyosiy, qiyosiy, dialektik metodlar vositasida xolis tahlil qilish lozim.

Davlat va jamiyat o'zaro aloqadorligiga oid asosiy konsepsiyalarga doir yondashuvlar evolyutsiyasi qadimgi falsafa va siyosiy fikrlardan boshlangan. Aristotel, Platon, Sitseron kabi mutafakkirlar jamiyatdagi siyosiy tartib va davlat boshqaruvining maqsadini inson farovonligi bilan bog'laganlar. Ularga ko'ra, davlat jamiyatning tabiiy ehtiyojidan kelib chiqqan va uning umumiy manfaatlarini ta'minlovchi institutdir. Yangi davrda esa bu masala J.Lokk, Sh.Monteskye, J.J.Russo, T.Gobbs, G.Gegel kabi mutafakkirlar nazariyalarida yangi bosqichga ko'tarildi. Ular davlat va jamiyat munosabatlarini ijtimoiy shartnoma asosida izohlab, davlatning legitimligi fuqarolar roziligiga bog'liq ekanligini ta'kidladilar. J.Lokkning bu boradagi quyidagi fikrlari o'rinlidir. Unga ko'ra "Davlatning asosiy vazifasi — shaxsning tabiiy huquqlarini, ya'ni hayot, erkinlik va mulk huquqini himoya qilishdir. Agar hukumat bu huquqlarni buzsa, fuqarolar uni o'zgartirish yoki ag'darish huquqiga ega"dir [2]. Nemis faylasuf G.Gegel esa fuqarolik jamiyatini davlatning tarkibiy qismi sifatida tadqiq etadi. U "fuqarolik jamiyati – bu ehtiyojlar tizimi bo'lib, u davlatning asosiy ustuni sifatida fuqarolarning manfaatlarini birlashtiradi va umumiy irodani shakllantiradi" [3] deb hisoblagan. Amerikalik iqtisodchi Duglas Nortning tadqiqotlariga ko'ra davlat va jamiyat o'zaro bog'liq institutsional tizimlardir. "Davlat esa ushbu qoidalarni yaratish va amalga oshirish orqali jamiyatning iqtisodiy hamda siyosiy barqarorligini ta'minlaydi" [4] degan fikrni bayon qilgan. AQShlik siyosatshunos Robert Patnam nuqtai nazariga ko'ra "jamiyatdagi ijtimoiy ishonch va o'zaro hamkorlik darajasi davlat institutlarining samaradorligini belgilaydi. Fuqarolik faolligi yuqori bo'lgan jamiyatlarda demokratiya mustahkam bo'ladi" [5]. Patnam fuqarolik jamiyatini "ijtimoiy kapital" manbai sifatida talqin qiladi. Uningcha, davlat samaradorligi fuqarolarning jamoaviy faolligi va ishonchi darajasiga bog'liq.

Muhokama va natijalar. Yuqoridagi tahlillar davlat va jamiyat munosabatlarini ijtimoiy shartnoma (Lokk), institutsional tahlil (Nort), fuqarolar birligi (Gegel) va ijtimoiy kapital (Patnam) nuqtai nazaridan izohlash imkonini beradi. Bizningcha davlatning barqaror taraqqiyoti faqat faol fuqarolik jamiyati bilan uyg'unlikda mavjud bo'ladi. Global, regional va lokal muammolar, siyosiy, iqtisod ziddiyatlar kuchaygan bugungi zamonda bashariyat "inson qadr-qimmat, huquq va erkinliklari ustuvor bo'lgan, farovonlik va taraqqiyot, imkoniyatlar va ezgu niyatlarning ro'yobga chiqishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan, adolat, hamkorlik, tenglik va qonun ustuvorligi kabi demokratik tamoyillar mustahkam qaror topgan, tinchlik-totuvlik va osoyishtalik hukmron bo'lgan, barqaror rivojlanayotgan dunyo sari intilmoqda" [6]. Bunga huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat manfaatlarini mutanosibli ta'minlangandagina erishish mumkin.

XXI asrga kelib, globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va siyosiy institutlar faoliyatidagi ochiqlik tamoyili davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keldi. Bugungi kunda davlat faqat boshqaruv subyekti sifatidagina emas, balki jamiyat bilan hamkorlikda uning manfaatlarini himoya qiluvchi institutga aylandi. O'zbekistonda ham keyingi yillarda amalga oshirilayotgan "Yangi O'zbekiston strategiyasi", "inson qadri uchun" tamoyili ustuvorligi bilan bog'liq munosabatlar davlat va jamiyat o'zaro aloqadorligining institutsional xususiyatlarini namoyon qilmoqda. Shu jihatdan davlat va jamiyat o'zaro aloqadorligining siyosiy-institutsional mohiyatini ilmiy jihatdan yoritish, ularning o'zaro ta'sirida shakllanuvchi mexanizmlarni tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Davlat va jamiyatning barqaror taraqqiyoti va unda amal qilayotgan islohotlarning samaradorligi siyosiy institutlarning mustahkamligi va faoliyatiga bog'liq. Jamiyatning barqaror rivojlanishi va siyosiy tizimning muvozanatli faoliyati davlat hamda jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning qay darajada yo'lga qo'yilganida namoyon bo'ladi. Davlat — bu jamiyatning tashkil topgan siyosiy shakli bo'lib, uning asosiy vazifasi fuqarolar manfaatlarini ifodalash va himoya qilishdan iborat. Shu boisdan, davlat va jamiyat munosabatlari masalasi ilmiy nazariyada ham, amaliy siyosatda ham muhim ahamiyatga ega [1].

Darhaqiqat, zamonaviy dunyoda davlat va jamiyat munosabatlari markaziga inson manfaatlarini ko'tarildi. Shu o'rinda inson manfaatlarini ta'minlash maqsadida huquqiy davlat fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qilgandagina bu jarayon samara berishini ta'kidlash lozim. Boshqacha aytganda davlat fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro bir-birini to'ldiradi va ularning hamkorligisiz tizimli faoliyatni tashkil qilib bo'lmaydi [6]. Fuqarolik jamiyati institutlari rivojlangan jamiyatlarda davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda bu jarayon yaqqol ko'zga tashlanadi. Siyosatshunos A. Tokvil fuqarolik jamiyatini davlat va fuqarolar o'rtasidagi "muvozanat mexanizmi" sifatida talqin qilgan. Uningcha, xulosasiga ko'ra, fuqarolik jamiyati – davlat hokimiyatining chegarasini belgilab beradi. Fuqarolik jamiyati inson manfaatlarini himoya qiluvchi, demokratiyani barqaror saqlab turuvchi asosiy ijtimoiy institutdir. U "Amerikada demokratiya" asarida qayd etganidek, "Fuqarolik jamiyati – bu davlat bilan individ o'rtasidagi ko'priki bo'lib, u hokimiyatni muvozanatda ushlab turadi"[8]. Yana bir o'rinda esa "Jamiyatda turli uyushmalar va birlashmalar mavjud bo'lmasa, fuqarolar hokimiyatni muvozanatda ushlab tura olmaydi. Fuqarolik jamiyati hokimiyat va fuqarolar o'rtasidagi vositachidir" [6] degan yondashuvni ilgari suradi.

Davlat va jamiyatning hamkorlik mexanizmlari — demokratik davlatning asosiy belgisidir. U jamiyat manfaatlarini davlat siyosatiga uyg'unlashtirish, fuqarolik faolligini rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini oshirish orqali namoyon bo'ladi. Umuman olganda davlat va jamiyatning hamkorlik mexanizmlarini 1) institutsional ya'ni, davlat organlari va fuqarolik jamiyat institutlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarida; 2) huquqiy ya'ni, konstitutsiya, qonunlar va boshqa qonun osti hujjatlari orqali ijtimoiy munosabatlarni tartiblashtirishda; 3) jamoatchilik nazorati ya'ni, davlat organlari faoliyatining fuqarolik jamiyati uchun ochiqligi, hisobdorligi, shaffofligi orqali sotsiumning ishonchi ta'minlanishida; 4) davlat boshqaruvida fuqarolar ishtiroki ya'ni, davlat ahamiyatiga molik masalalarda jamoatchilik eshituvi, muhokamalar, petitsiyalar, fuqarolar yig'inlari orqali va elektron

hukumat kabi zamonaviy hamkorlik platformalar vositasida davlat qarorlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ta'minlash mumkin [9].

Xulosa. Yangi O'zbekistonni barpo qilishga qaratilgan siyosatning asosida ham "inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, ochiq va adolatli jamiyat..." [6] g'oyasi ustuvor vazifa qilib qo'yilgan. Boshqacha aytganda Yangi O'zbekistonda barqaror taraqqiyot nafaqat davlat hokimiyati va uning barcha bo'g'inlari faoliyati, balki jamiyatning barcha qatlamlari, xususan fuqarolik jamiyati institutlarining sa'y-harakatlarini birlashtirish tamoyillariga qaratilgandagina yetarlicha samara berishini ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Rasulov N. HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH-IJTIMOYIY-SIYOSIY MUNOSABATLARNING MUHIM OMIL SIFATIDA //Bulletin of scientific research TUES. – 2023. – T. 1. – №. 2. – С. 212-218.
2. Локк, Дж. *Два трактата о правлении*. – Москва: Мысль, 1988. – Стр. 210.
3. Гегель, Г.В. *Философия права*. – Москва: Мысль, 1990. – Стр.182.
4. Норт Д. *Институты, институциональные изменения и функционирование экономики*. – Москва: Фонд экономической книги "Начала", 1997. – Стр.19.
5. Патнам Р. *Делать демократию действенной: гражданские традиции в современной Италии*. – Москва: Аспект Пресс, 1996. – Стр. 112.
6. Мирзиёев Ш.М. *Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон*. –Тошкент, "Ўзбекистон" НМИУ. 2024. –Б.5.
7. Rasulov, Hakim Mamanovich. "SIYOSIY VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH—KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ASOSIY OMILI SAFATIDA." *Academic research in educational sciences* 5.2 (2024): 521-525.
8. Токвиль А. *Демократия в Америке*. – Москва: Прогресс, 1992. – Т. 1. – Стр. 356–357.
9. Расулов Ҳ.М. МАЪНАВИЙ ТАРҒИБОТДА ИЛФОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10-2. – С. 818-826.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

STAGES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN

Azamova SitoraAyonovna

Shakhrisabz State Pedagogical Institute of Social Sciences Department

Abstract. The article describes the stages of the formation and development of ecological culture in Uzbekistan. The analysis of the stages of formation and development of ecological knowledge and ecological culture in educational institutions of Uzbekistan in connection with the stages of development of spirituality is carried out. This is an important guideline for the stages of development of ecological culture.

Keywords: ecology, Ecological culture, Avesta, hadith, globalization, yasna, Goths, ideology, archaic, Islam.

O'ZBEKISTON ZAMINIDA EKOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Azamova Sitora Ayonovna

Shahrissabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar
kafedrası f.f.f.d (PhD), v.b dotsent

E-mail: azamovasilitora04@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston zaminida ekologik madaniyatning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari haqida so'z yuritiladi. O'zbekiston ta'lim muassasalarida ekologik bilimlar va ekologik madaniyatning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini ma'naviyatning rivojlanish bosqichlariga bog'lab tahlil qilingan. Bu ekologik madaniyatning rivojlanish bosqichlari uchun muhim ko'rsatma hisoblanadi.

Kalit so'zlar: ekologiya, ekologik madaniyat, Avesto, hadis, globallashtiruv, Yasna, gotlar, mafkura, arxaik, Islom.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N30>

Kirish. Ekologik madaniyatning shakllanish jarayoni O'zbekiston tarixining eng qadimgi davrlariga borib taqaladi. Ekologik madaniyat tushunchasi o'zbek xalqlari ilmiy merosida o'lmas qadriyatga aylangan va farzandlar tarbiyasida muhim e'tibor qaratilgan yo'nalish sifatida namoyon bo'lib kelgan. Qadimgi Turon o'lkasi jahonning ilk madaniyat o'choqlaridan hisoblanadi. O'lkada yuzaga kelgan ilmiy merosning qanchalik noyob ekanligi og'zaki va yozma manbalarimizda o'z ifodasini topgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. V.A.Burigin va N.I.Marsinkovskayaning "O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish" nomli asarida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning sezilarli aloqasini neolit davri bilan bog'laydi. Inson yaralgandan tabiat bilan o'zaro munosabatlarga kirishgan va ma'lum darajada o'z ta'sirini ham o'tkazgan. Ekologik madaniyat bilan shug'ullanuvchi olimlar ekologik madaniyatning rivojlanish davrlarini turli bosqichlarga bo'lib o'rganishgan. Sohoni o'rganuvchi olimlar ekologik madaniyatning ilk bosqich jarayonlarini ekologik madaniyat deb emas, ekologik dunyoqarash va qadriyat sifatida ko'rib chiqadi. Insonning hayot tarzi mintaqalar xususiyatidan kelib chiqib takomillashib

borgan, ammo tafakkuridagi o'zgarishlarda juda yaqinlik mavjud bo'lgan. Agar yaqin mintaqalar bo'ladigan bo'lsa ularning ehtiyoji ham, tafakkuridagi o'zgarishlar ham juda o'xshash bo'lgan. Islom ta'limotining Arabiston yarim orolida paydo bo'lishi o'ziga xos mahsulotlar va tabiat ehsonlarini qonunchilik darajasidagi qadriyatga aylantirgan. Arabiston yarim orolida suvga bo'lgan ehtiyoj ancha yuqori bo'lib, uni isrof qilmaslik qonunchilik bilan belgilangan. Inson sog'ligi bilan bog'liq jarayonlarga ham alohida e'tibor berish dolzarb muammolardan hisoblangan va ozodalikka, saranjomlik, sarishtalik, poklik, halollik, tejash, qadriga yetish kabi tushunchalar ekologik bilimlarning rivojlanib borishiga xizmat qilgan [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi: Nazariy tahlil usuli – mavzuga oid ilmiy manbalar, turli davlatlardagi ijtimoiy va madaniy jarayonlarni o'rganishga yo'naltirilgan.

Taqqoslash usuli – turli madaniyatlar, jamiyatlar va davrlar kesimida ekologik madaniyatning ta'siri va madaniyatlararo aloqa shakllarini solishtirishda qo'llanildi.

Muhokama. Ekologik bilimlarning rivojlanishi va ekologik madaniyatning takomillashish jarayoni yangi davrning boshlanishi bilan bog'liq. XVIII – XIX asrlarga kelib, ishlab chiqarishning taraqqiy etishi ekologik bilimlarga bo'lgan ehtiyojning ortishiga sababchi bo'ldi. O'zbekiston hududida ekologik bilimlarning qadimdan rivoj topib kelganligini yuqorida ham ta'kidlab o'tdik. Ekologik bilimlarning shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tizimli o'rganish uchun uning taraqqiyot bosqichlarini aniqlashtirish orqali yakdil xulosaga kelish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ekologik bilimlarning shakllanishi va rivojlanishini bosqichlarga bo'lib o'rgangan olimlar ko'p.

Aslida ma'naviyatning shakllanishi inson ekologik dunyoqarashining yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Shunga ko'ra, O'zbekiston hududida ekologik madaniyatning shakllanishi va rivojlanishini tarixiy jihatdan besh bosqichga bo'lamiz [3].

Birinchi bosqich. Ilk qadimgi (arxaik) va zardushtiylikka bo'lgan davr. Mamlakatimiz hududida ekologik madaniyatning ilk kurtaklari inson ma'naviyatining shakllanishi jarayonida yuzaga kelgan. Ibtidoiy urug'chilik jamoalarida insonlarning tabiat bilan birligini (stixiyali-primitiv bo'lsa ham) asoslovchi «ekologik tafakkuri» mavjudligi haqidagi dalillar, asotirlar saqlanib qolgan.

Ikkinchi bosqich. Zardushtiylikdan islomgacha bo'lgan davr. Mintaqada zardushtiylik dinining paydo bo'lish arafasida odamlarning ekologik dunyoqarashi ancha shakllangan edi. Zardushtiylik ta'limoti inson ekologik dunyoqarashini takomillashtirdi. Zardushtiylik ta'limoti davlat (Katta Xorazm, Baqtriya, Eron) dini darajasiga ko'tarildi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, jahon madaniyati markazi qadimgi afsonaviy Atlantida halokatidan keyin Himolay, Tibet tog'lari va Turon tekisliklariga ko'chganligi keltiriladi. Mana shu sabab zardushtiylik ta'limoti juda ko'plab (yahudiy, budda, xristian va islom) din sohalariga milliy ta'sirini ko'rsatgan va ilmiy manba vazifasini o'tagan. Zardushtiylikning to'rt unsur: olov, suv, havo va tuproq haqidagi ta'limoti miloddan avvalgi ikkinchi mingyillikda Xitoy, Hindistonga, miloddan avvalgi VII – VI asrlarda Yunonistonga tarqalib qator falsafiy maktablar va yo'nalishlar shakllanishiga nazariy asos bo'lgan.

Ilmiy asoslangan va qonunchilik darajasiga ko'tarilgan birinchi manba ham "Avesto" dir. "Avesto"da keltirilishicha, ekologik ahamiyatga molik qasidalarda bog'-rog'lar, o'simlik va hayvonlar olami, suv, tuproq va havoga inson yashashi uchun muhit sifatida hurmat bilan qarash joizligi, ularning sofligini, tozaligini saqlash haqida qiziqarli fikrlar mavjud. Ularda tabiat

komponentlarining o‘zaro aloqasi odamlar yashashiga xizmat qilishi, inson va tabiiy muhitning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi masalalari tilga olingan. Masalan, “Avesto”ning ikkinchi daftari bo‘lmish “Yasna”dagi 1-got 16-bandida “...yaylovlar, suvloqlar, ... suvlar, yerlar, giyohlar, zaminu osmon; ... Sipandmiynu yaratgan jamiki mavjudot”ni “madh etaman” deyilgan bo‘lsa, 6-gotning 11-bandida “Mazda yaratgan barcha ashavan suvlarni olqishlaymiz. Mazda yaratgan barcha ashavan giyohlarni olqishlaymiz” degan fikrlar tabiatning ana shu komponentlariga olqishlarni va ularga yuksak hurmat ko‘rsatilishi zarurligini ifodalaydi. Bu fikrlar 17-gotning 12, 16-bandlarida, 22-gotning 18-bandida, 24-gotning 24-bandida, 38-gotning 3-5-bandlarida va boshqa joylarda juda ko‘p bor, takror va takror tilga olingan [1].

Uchinchi bosqich. Islom mafkurasi va chor Rossiyasi bosqinigacha bo‘lgan davr. Uchinchi bosqich davri birinchi, ikkinchi bosqich kabi ko‘p mingyillikni o‘z ichiga olmasa-da, ming yildan ortiq davrni qamrab oladi. Bu davrda ekologik madaniyatning shakllanish darajasi dastlabki ikki bosqichga qaraganda ancha taraqqiy etgan, ta‘lim berish jarayoni rivojlanganligi bilan ajralib turardi. Bu vaqtga kelib, tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlar ilmiy nazariyasida “ekologik universalizm”ning ilk ko‘rinishlari namoyon bo‘ldi. Ekologik mazmundagi talablar islom dini va uning muqaddas kitoblari – Qur‘oni karim, Hadisi shariflarda yanada kengaytirildi va rivojlantirildi. Islomgacha mavjud ilmlar o‘zaro mazmunan falsafiy tahlil qilinib, “inson-jamiyat-tabiat” modeli asosida yo‘naltirildi. Umuman, islom dini tabiat ne‘matlaridan voz kechishni talab qilmaydi, balki, ularni Allohning o‘zi bandalari uchun yaratib qo‘yganligi bois, faqat me‘yorni saqlash, ortiqcha isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik talab etiladi. Islom dinida halol va harom, savob va gunoh, yaxshi va yomon, toza-ozodalik, inson va har qanday jonli mavjudotga rahm-shafqat (butun borliqqa) iymon-e‘tiqodning oliy qadriyatlariga aylantirilgan. Islomdagi odillik (adolatlilik) tamoyili faqat insonlarga emas, balki butun borliqqa nisbatan yo‘naltirilganligi ekologik madaniyatning diniy me‘yorlar asosida ham rivojlanib kelayotganligini anglatadi.

Qur‘oni karim va Hadisi sharifda tabiatga munosabatning diniy normalari, ekologik munosabatlarga oid qoidalar berilgan. Masalan, “An‘om” surasida: “Isrof qilmangiz! Albatta U isrof qilguvchilarni sevmaydi”, – deb qayd etilgan. Shuningdek, “Baqara” surasida: “Osmonlar va Yerdagi bor narsa Allohnikidir. Ichingizdagi narsani oshkora qilsangiz yoki yashirsangiz ham Alloh sizlarni u bilan hisob-kitob qilur”, – deyilgan. Barcha narsalar Allohnik ekan, inson ham Allohnikidir. Ammo, barcha narsalar inson uchun, uning manfaati uchun berilgan. Shunday ekan barcha narsalarni asrab-avaylash ham insonning o‘ziga berilganligi nazarda tutilgan. Jumladan, Qur‘oni karimning “Furqon” surasi 2-oyatida: “U – ... barcha narsani yaratib (aniq) o‘lchov bilan o‘lchab qo‘ygan Zotdir”, deyilgan [7]. Ya‘ni dunyodagi har bir narsa suv, tuproq, havo, hayvonot olami, nabotot olami hammasi Alloh taolo tomonidan muayyan o‘lchov bilan bir-biriga o‘zaro bog‘liq qilib yaratilgan. Agar bu muvozanat buziladigan bo‘lsa, tabiat, shu jumladan, inson uchun ham jiddiy muammolar kelib chiqadi.

To‘rtinchi bosqich. Chor Rossiyasi va Sovet Ittifoqi mustamlakachilik davri. Ekologik madaniyatning rivojlanish jarayonlariga xos davr sifatida namoyon bo‘ldi. Ekologik bilimlar va ekologik madaniyatda universallashtirish tezlashdi. Jahon ilm-faniga “ekologiya” atamasining kirib kelishi ham to‘rtinchi bosqich davriga to‘g‘ri keldi. Mana shu davrda jahon xalqlarida ekologik inqirozning namoyon bo‘lishi kundan-kunga aniqlashayotgan edi. Yangi sanoatchilik taraqqiy etib, tabiatga tajovuzkorlik oshib bordi. Yevropada xom-ashyo tanqisligi kuchaydi. Ekspluatatsion harakatlar kengaydi. Chor Rossiyasi va Angliyaning mustamlakachilik siyosati

O'rta Osiyo mintaqasi tomon tezlashdi. Mintaqa chor Rossiyasi ta'sirida qoldi. Milliy qadriyatlar, an'analar tazyiqqa uchradi. Aholini bilimsizlikka mahkum etish, ziyolilarni qatag'on qilish kuchaydi. Ammo ekologik bilim berish va ekologik madaniyatni shakllantirishga doir qarashlar susaymadi. Ekologik bilimlardan xabardor bo'lish umumjahon xalqlari madaniyatiga aylandi. Turkiston hududiga Yevropa ekologik madaniyatiga xos xislatlar kirib kela boshladi [8].

Beshinchi bosqich. Mustaqillik davri. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi ekologik bilim berish va ekologik madaniyatni oshirish sohasida yorqin davrni boshlab berdi. Barcha ta'lim muassasalari zamonaviy va milliy qadriyatlar asosida qayta shakllantirildi. Ayniqsa umumiy o'rta ta'lim tizimida maxsus ekologiya fani, ijtimoiy fanlar tarkibida atrof-muhit muhofazasiga doir mavzular kiritildi. XX asr oxiriga kelib jahonda ekologiya mavzusi "Ijtimoiy falsafa"ning uzviy tarkibi sifatida qaraldi va bir qancha asarlar yaratildi. O'zbekistonda ham ekologiyani falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish ancha takomiliga yetdi.

Natijalar. Inson madaniyatining takomillashuvi tabiat va jamiyat manfaatlariga parallel munosabatda bo'lish va rivojlanish jarayonlari ekologik madaniyatning shakllanish omillariga bevosita bog'liqligi ilmiy tahlil qilingan. O'zbekistonda ekologiyaga beparvolik olamshumul fojialarni keltirib chiqarishi ilmiy va amaliy jihatdan isbotlanib, barcha fuqarolarning, shu jumladan, maktab o'quvchilarining ekologik bilimi va madaniyatini oshirish ishlari tizimli yo'lga qo'yilganligi; ekologiya muhofazasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi; barcha sohalar ekologiyalashtirilishi haqida yangicha ekologik tafakkurning o'ziga xos jihatlari aniqlangan. Ekologik madaniyatning shakllanishi, rivojlanish jarayonlarining umumiy tahlili sohaga doir olimlarning fikr va mulohazalaridan kelib chiqib turkumlashtirilgan va ekologik madaniyatning rivojlanish bosqichlari aniqlashtirilgan [9].

Xulosa. Birinchidan, ekologik bilimlar va ekologik madaniyatning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil etish tizimini asosan to'rt guruhga ajratish maqsadga muvofiq;

ikkinchidan, O'zbekiston hududida ekologik bilimlar va ekologik madaniyatning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tabiatning inson ustidan hukmronligi va insonning tabiat ustidan ekstensiv asosda hukmronligiga bog'lab talqin qilish nisbiy xulosalarni keltiradi;

uchinchidan, O'zbekiston ta'lim muassasalarida ekologik bilimlar va ekologik madaniyatning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini ma'naviyatning rivojlanish bosqichlariga yaqinroq bog'lab talqin qilish nisbatan aniqlikni tashkil etadi;

to'rtinchidan, O'zbekiston hududida ekologik bilimlar va ekologik madaniyatning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda beshta: 1) ilk qadimgi (arxaik) va zardushtiylikkacha; 2) Zardushtiylikdan islomgacha; 3) Islom mafkurasi va chor Rossiyasi bosqinigacha bo'lgan; 4) chor Rossiyasi va Sovet Ittifoqi mustamlakachiligi davri; 5) Mustaqillik davri bosqichlariga ajratib o'rganish samarali hisoblanadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik.-T., fors tilidan Asqar Mahkam tarjimasini. "Ta'lim nashriyoti", 2021.
2. Aymatov A.Q. Shaxsning tabiatga ekoestetik munosabatini shakllantirish masalalari. -T.: "Fan va texnologiyalar", 2017. -B.9.
3. Djurakulov X. Zamonaviy ekoturizm rivojida shaxs ekologik huquqiy ongini yuksaltirish zaruriyati: Fals.f.d. (DSc) diss. avtoref. – Samarqand: SamDU, 2022. .
4. Kistaubayev S.U. Shaxs ekologik dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadriyatlarining roli: Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Samarqand: SamDU, 2019.

5. Omonov B. Diniy qadriyatlarda ekologik madaniyat masalasi// Ta'lim, fan va ishlab chiqarishda intellektual salohiyatli yoshlarning o'rni yosh olimlar, magistrant va talabalarning an'anaviy XII respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.-Samarqand, 2015. – B.198-199.
6. Qilichev F. Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda diniy qadriyatlarning roli: Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2022.
7. Qur'oni karim va o'zbek tilidagi ma'nolarining tarjimasi –T. "Hilol-nashr", 2021. – 620 b.
8. Витторио Хиёсле. "Философия и экология". М., "Издательская фирма АМІ", 1994.
9. Мэри Бойс. Зароастрийцы: верования и обычаи. –М.: "Наука", 1989; Бойс М. Зардуштийлик тарихи. 1 том. Лейден-Келн. 1982.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE MANIFESTATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN FUTUROLOGICAL THINKING

Holmirzaev Hurshid Nakibillaevich

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences

Associate Professor of the Department of Philosophy at Andijan State University

Abstract. The article philosophically analyzes the manifestation of artificial intelligence in futurological thinking. It examines the transformation of human potential, issues of cyber-consciousness and the digital subject. The study theoretically substantiates the social, moral, and spiritual implications of artificial intelligence, as well as possible civilizational scenarios of the future.

Keywords: artificial intelligence, futurological thinking, human potential, transformation, cyber-consciousness, digital subject, ethics, spirituality, civilization, scenario.

FUTUROLOGIK TAFAKKURDA SUN'YI INTELLEKTNING NAMOYON BO'LISHI

Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Andijon davlat universiteti Falsafa kafedrası dotsenti

E-mail: sokin3548@umail.uz

<http://orcid.org/0000-0002-6546-3159>

Annotatsiya. Maqolada futurologik tafakkurda sun'iy intellektning namoyon bo'lishi ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Inson salohiyatining transformatsiyasi, kiberong va raqamli subyekt masalalari yoritilgan. Sun'iy intellektning ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy ta'sirlari, shuningdek, kelajak sivilizatsion ssenariylari nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, futurologik tafakkur, inson salohiyati, transformatsiya, kiberong, raqamli subyekt, axloq, ma'naviyat, sivilizatsiya, ssenariy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N31>

Kirish. XXI asr sivilizatsiya taraqqiyotining eng muhim belgilaridan biri — sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ularning inson hayotining barcha jabhalariga kirib borishi hisoblanadi. Agar industrial jamiyatning asosiy belgisi mexanizatsiya va avtomatizatsiya bo'lgan bo'lsa, raqamli jamiyatning belgisi — sun'iy intellektning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarda ustuvor ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt faqat texnik yoki amaliy vosita emas, balki insoniyatning kelajak haqidagi tasavvurlari, falsafiy mulohazalari va futurologik tafakkurida asosiy mavzuga aylanmoqda.

Futurologik tafakkur — kelajakni faqat fantaziya yoki utopik tasavvur sifatida emas, balki ilmiy-nazariy va falsafiy asoslarda tahlil qilishga qaratilgan intellektual yondashuvdir. U jamiyatdagi demografik o'zgarishlar, ekologik muammolar, texnologik innovatsiyalar va global geosiyosiy jarayonlarni umumiy kontekstda ko'rib chiqadi. Shu ma'noda futurologiya va

futurologik tafakkur sun'iy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalarning insoniyat taqdiridagi o'rnini anglashda muhim metodologik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Sun'iy intellektning futurologik namoyon bo'lishi inson salohiyatining transformatsiyasi bilan uzviy bog'liq. Ya'ni, sun'iy intellekt insonning kognitiv, ijodiy va tashkiliy imkoniyatlarini kengaytirar ekan, bir vaqtning o'zida axloqiy, huquqiy va ma'naviy savollarni ham kun tartibiga qo'ymoqda. Masalan, kiberong, raqamli individuallik, transgumanizm kabi konsepsiyalar futurologik tafakkurning markaziy mavzulariga aylandi. Bu jarayonda insonning mohiyati va qadriyatlari qay darajada saqlanishi yoki o'zgarishi, jamiyatning tenglik va erkinlik tamoyillari qanday transformatsiyaga uchrashi masalalari asosiy nazariy va amaliy tahlil nuqtalari hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sun'iy intellektning jamiyat va inson salohiyatiga ta'siri haqidagi ilmiy-nazariy tadqiqotlar oxirgi yarim asr mobaynida jadal rivojlandi. Xususan, futurologiya va ijtimoiy falsafa sohasidagi izlanishlar bu jarayonning nazariy chegaralarini belgilab berdi.

Futurologiyaning ilmiy asoslari taniqli olimlar — **O. Flextxaym** (Flechteim, 1966) [1], **E. Toffler** (Toffler, 1970), [2] **D. Bell** (Bell, 1973) [3] va **I.Vallerstayn** (Wallerstein, 2004) [4] asarlarida keng yoritilgan. Ular kelajak tahlilini utopik yoki taxminiy ssenariy sifatida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va sivilizatsion o'zgarishlarning ilmiy tahlili sifatida asoslab berdilar.

Sun'iy intellekt masalasida esa **N. Bostromning** "Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies" [5], **R. Kursveylning** "The Singularity is Near" [6] asarlari fundamental manba sifatida xizmat qiladi. Ularda sun'iy intellektning kelajakda inson salohiyatini ortiqcha darajada oshirishi bilan bir qatorda, uning mavjudligiga tahdid solishi mumkinligi ham ta'kidlanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlar asosan ikki yo'nalishda amalga oshirilgan:

1. **Texnologik va amaliy tadqiqotlar** — sun'iy intellektning texnika, iqtisodiyot va boshqaruv sohasidagi qo'llanilishi.
2. **Falsafiy va futurologik tadqiqotlar** — inson salohiyati, axloq, ma'naviyat va sivilizatsiya kelajagi nuqtai nazaridan tahlil.

Biroq ushbu ikki yo'nalishni uyg'un holda ko'rib chiqish zarurati mavjud, zero sun'iy intellektning kelajakdagi ta'siri nafaqat texnik, balki ijtimoiy-madaniy va falsafiy qirralarda namoyon bo'ladi.

Metodologik asos. Ushbu maqolada tadqiqotni amalga oshirishda bir qator ilmiy va falsafiy metodologik asoslarga tayanilgan. Birinchi navbatda, dialektik metod muhim ahamiyat kasb etadi. U inson va sun'iy intellekt munosabatlaridagi ziddiyatlar, uyg'unlik va transformatsiya jarayonlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Dialektik yondashuv sun'iy intellektning faqat ijobiy jihatlarini emas, balki ehtimoliy salbiy ta'sirlarini ham to'liq anglashga xizmat qiladi.

Shuningdek, sistemali yondashuvdan keng foydalanildi. Uning yordamida sun'iy intellekt faqat texnik vosita sifatida emas, balki jamiyat, madaniyat va inson ongini qamrab oluvchi murakkab tizim sifatida o'rganiladi. Bunday yondashuv sun'iy intellektning turli sohalarga ta'sirini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini yaratadi.

Tadqiqotning muhim nazariy asoslaridan biri — antropologik paradigmadir. U inson salohiyatining mohiyati va qadriyatlari sun'iy intellekt ta'sirida qanday o'zgarishini ochib

berishga qaratilgan. Bu yo‘nalishda “kiberong”, “raqamli subyekt” kabi ilmiy tushunchalar tadqiqot obyekti sifatida tahlil etildi.

Bundan tashqari, maqolada futurologik modellashtirish usuli ham qo‘llanildi. Uning yordamida ehtimoliy kelajak ssenariylari — optimistik, pessimistik va realistik variantlarda ko‘rib chiqildi. Jahon va milliy manbalardagi ilmiy bashoratlar solishtirma tahlil qilinib, sun‘iy intellektning insoniyat taqdirida qanday namoyon bo‘lishi mumkinligi haqida ilmiy xulosalar chiqarildi.

Shuningdek, tadqiqot ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida ham olib borildi. Bu usul sun‘iy intellektning insoniyat madaniyati, axloqiy me‘yorlari va ijtimoiy institutlariga ta‘sirini chuqur anglash imkonini berdi. Ushbu tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun‘iy intellektning kelajakdagi namoyon bo‘lishi insoniyat salohiyati va falsafiy-axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Shuning uchun maqolaning metodologiyasi texnokratik tahlil bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy-falsafiy va antropologik asoslarga suyandi. Bu esa sun‘iy intellekt fenomenini inson qiyofasi, madaniyati va kelajak sivilizatsiyasi bilan uyg‘un holda anglash imkonini berdi.

Muhokama. Sun‘iy intellektning futurologik tafakkurda namoyon bo‘lishi, avvalo, inson salohiyati bilan bog‘liq munosabatlar orqali anglanadi. Uning ta‘siri ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomondan, sun‘iy intellekt insonning intellektual imkoniyatlarini kengaytirib, bilim olish, qaror qabul qilish va ijodiy jarayonlarni yanada samarali tashkil etish imkonini yaratadi; ikkinchi tomondan esa, u insoniyatning ma‘naviy-axloqiy qadriyatlariga, shaxsiylik va mustaqillik tamoyillariga jiddiy sinov qo‘yishi mumkin. Futurologik nuqtai nazardan qaralganda, sun‘iy intellekt inson salohiyatining turli qirralarda transformatsiyaga uchrash jarayonini belgilaydi. Birinchi navbatda kognitiv o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi: inson xotirasi va tafakkuri raqamli vositalar bilan uyg‘unlashishi natijasida “kiberong” deb ataladigan yangi ilmiy-falsafiy tushuncha yuzaga keladi. Shu bilan birga, ijtimoiy sohada ham jiddiy o‘zgarishlar ro‘y beradi: mehnat bozorida yangi kasblar paydo bo‘ladi, ayrimlari esa yo‘qolib ketadi, ijtimoiy munosabatlar esa yangi texnologik chizmalar asosida shakllanadi. Bundan tashqari, axloqiy jihatdan ham transformatsiya muqarrar bo‘ladi, chunki inson va mashina o‘rtasidagi chegaralarni belgilash, insoniylik, mas‘uliyat va ma‘naviy qadriyatlarni qayta baholash zarurati kun tartibiga chiqadi.

Futurologik tafakkur nuqtai nazaridan eng muhim savol shundaki: sun‘iy intellekt inson imkoniyatlarini kengaytiruvchi vositami yoki uning mohiyati va qadriyatlariga tahdid soluvchi kuchmi? Optimistik yondashuv vakillari fikricha, sun‘iy intellekt orqali insonning ijodiy va intellektual quvvati sezilarli darajada ortib, insoniyat yangi sivilizatsion bosqichga qadam qo‘yishi mumkin. Pessimistik qarashlar esa aksincha, sun‘iy intellektning insoniyat ustidan nazorat o‘rnatishi, shaxsiy erkinlikni cheklashi va ma‘naviy qadriyatlarni yo‘qqa chiqarishi ehtimoli mavjudligini ta‘kidlaydi. Realistik yondashuv esa ushbu jarayonni bir yo‘nalishli emas, balki ijobiy va salbiy tendensiyalar uyg‘unligida kechadigan murakkab jarayon sifatida baholaydi.

Shu tariqa, futurologik tafakkur inson va sun‘iy intellekt munosabatini faqat texnik yoki amaliy nuqtai nazardan emas, balki ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, milliy va global kontekstdagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektning kelajakdagi namoyon bo'lishi insoniyat oldiga bir-biri bilan uzviy bog'liq ikki muhim vazifani qo'yadi. Birinchi vazifa — inson salohiyatini rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlashdir. Buning uchun ta'lim tizimida sun'iy intellektdan samarali foydalanish, bilim olish jarayonlarini individuallashtirish, insonning kognitiv va ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tibbiyot sohasida sun'iy intellekt texnologiyalari orqali erta tashxis qo'yish, individuallashtirilgan davolash usullarini joriy etish va inson salomatligini muhofaza qilish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Ijtimoiy boshqaruv sohasida esa sun'iy intellekt orqali jamiyatdagi resurslar taqsimotini optimallashtirish, qaror qabul qilish jarayonlarini faktlarga asoslangan holda amalga oshirish va global muammolarga samarali yechim topish imkoniyatlari ochiladi.

Ikkinchi vazifa — sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida axloqiy va huquqiy chegaralarni belgilashdir. Bu masala inson qadr-qimmatini, shaxsiy huquqlar va ma'naviy me'yorlarni asrab qolish nuqtai nazaridan juda muhimdir. Chunki texnologiyalar rivojlanishi inson erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi va ijtimoiy tenglikka tahdid solishi mumkin. Shuning uchun ham sun'iy intellektni qonunchilik asosida tartibga solish, uning axloqiy me'yorlar bilan uyg'unligini ta'minlash va uni inson manfaatlariga xizmat qildirish global va milliy miqyosda hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Sun'iy intellektning namoyon bo'lishi iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bilan birga, butun insoniyatning ma'naviy kelajagini belgilab beruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. U insoniyatning ilmiy-texnika taraqqiyoti orqali yangi bosqichga qadam qo'yishida vosita sifatida xizmat qilishi mumkin, ammo shu bilan birga, inson qadriyatlarini va ma'naviyatini asrab qolish masalasi hal etilmasa, u insoniyat kelajagi uchun tahdidli kuchga aylanishi ehtimoldan holi emas.

Shu bois sun'iy intellekt va inson salohiyati uyg'unligi masalasi faqat texnik muammo emas, balki global sivilizatsion yo'nalish, ijtimoiy-axloqiy sinov va falsafiy tahlil talab etuvchi jarayondir. Uning kelajakdagi namoyon bo'lishi insoniyatning ma'naviy kelajagini belgilab berishi mumkin va aynan shu jihati bilan futurologik tafakkurning eng asosiy mavzularidan biriga aylanadi.

Natijalar. Olib borilgan tahlillardan kelib chiqadigan xulosalar shuni ko'rsatadiki, futurologik tafakkurda sun'iy intellektning namoyon bo'lishi insoniyat uchun bir vaqtning o'zida ham yangi imkoniyatlar, ham murakkab sinovlar manbai sifatida namoyon bo'lmoqda. Sun'iy intellekt inson salohiyatini kengaytiruvchi muhim omil sifatida, avvalo, kognitiv jarayonlarni tezlashtirish, axborotni qayta ishlash va ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashda o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, futurologik tafakkur ushbu jarayonni faqat texnologik yangilik doirasida emas, balki insoniyat taqdiri va sivilizatsion rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida talqin qiladi. Demak, sun'iy intellekt masalasi inson va jamiyatning kelajakdagi qiyofasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganilishi zarur.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, insonning ijtimoiy va ma'naviy qiyofasi ham yangi transformatsiya jarayoniga kirib bormoqda. Kiberong, raqamli shaxsiyat kabi tushunchalar orqali insonning an'anaviy mohiyati yangi ma'nolar bilan boyib, uning imkoniyatlari kengaymoqda. Biroq ushbu jarayon bir qirrali emas: sun'iy intellekt ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy boshqaruv va innovatsiya sohalarida ulkan imkoniyatlar ochishi bilan birga, ijtimoiy

tengsizlikni kuchaytirishi, ma'naviy xavflarni keltirib chiqarishi va shaxsiy erkinlikni cheklashi ehtimoli ham mavjud.

Futurologik modellar tahlili shuni ko'rsatadiki, inson va sun'iy intellekt munosabatlarini turli ssenariylarda tasavvur qilish mumkin. Optimistik ssenariyda inson va sun'iy intellekt sinergiyasi orqali yangi sivilizatsion bosqichga qadam qo'yilishi mumkin bo'lsa, pessimistik ssenariyda insoniyat o'z mohiyatidan ayrilishi va axloqiy qadriyatlarni yo'qotish xavfi namoyon bo'ladi. Realistik yondashuv esa ushbu jarayonning ijobiy va salbiy qirralari uyg'un holda kechishini nazarda tutadi.

Shuningdek, milliy va global darajadagi tahlillar ko'rsatmoqdaki, sun'iy intellektdan samarali foydalanishning asosiy vazifasi inson qadr-qimmati, shaxsiy huquq va ma'naviy me'yorlarni muhofaza qilish bilan uzviy bog'liq. Agar ushbu prinsiplar ta'minlansa, sun'iy intellekt insoniyatning salohiyatini yangi bosqichga olib chiquvchi kuchga aylanishi mumkin. Demak, natijalarga ko'ra, sun'iy intellektning kelajakdagi namoyon bo'lishi futurologik tafakkurni chuqurlashtiradi, inson salohiyatining transformatsiyasiga turtki beradi va insoniyat taqdirini hal qiluvchi strategik omil sifatida o'z o'rnini topadi.

Xulosa. Futurologik tafakkurda sun'iy intellektning namoyon bo'lishi masalasi inson va insoniyatning kelajakdagi qiyofasi, salohiyati hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt faqatgina texnika va texnologiya sohasiga xos jarayon emas, balki inson tafakkuri, ijtimoiy munosabatlar va sivilizatsion rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rib chiqilishi zarur. U kognitiv va ijodiy imkoniyatlarni kengaytirishi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirishi va inson salohiyatini rivojlantirishi mumkin. Biroq shu bilan birga, ma'naviy xavflar, ijtimoiy tengsizlik, shaxsiy erkinlik va axloqiy me'yorlarga tahdid kabi salbiy oqibatlar ham yuzaga kelishi ehtimoli mavjud.

Futurologik nuqtai nazardan sun'iy intellektning istiqbollari turli ssenariylarda namoyon bo'ladi: optimistik qarashlarda inson va sun'iy intellekt uyg'unligi yangi sivilizatsion bosqichni yaratishi mumkin bo'lsa, pessimistik ssenariyda insonning mohiyati va qadriyatlari yo'qolishi xavfi mavjud. Realistik yondashuv esa ushbu jarayonda ijobiy va salbiy tendensiyalar uyg'un holda kechishini ko'rsatadi. Shu ma'noda, insoniyat oldida turgan asosiy vazifa sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida axloqiy va huquqiy chegaralarni aniq belgilash, inson qadr-qimmatini ustuvor mezon sifatida muhofaza qilish va uning salohiyatini rivojlantirishga xizmat qildirishdan iborat.

Shuning uchun futurologik tafakkurda sun'iy intellektning namoyon bo'lishi inson salohiyatining transformatsiyasi bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida baholanishi lozim. Agar bu jarayon ilmiy-amaliy asosda, ma'naviy va huquqiy me'yorlarga suyangan holda boshqarilsa, sun'iy intellekt insoniyatning yangi sivilizatsion taraqqiyotiga kuchli turtki bo'lishi mumkin. Demak, sun'iy intellekt insoniyat taqdirini hal qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida faqat texnik vosita emas, balki ijtimoiy-falsafiy va madaniy jarayonning ajralmas qismi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Flechtheim O. *History and Futurology*. – Meisenheim: Hain, 1966. – 312 p.
2. Toffler A. *Future Shock*. – New York: Random House, 1970. – 505 p.
3. Bell D. *The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting*. – New York: Basic Books, 1973. – 507 p.

4. Wallerstein I. *World-Systems Analysis: An Introduction*. – Durham: Duke University Press, 2004. – 126 p.
5. Bostrom N. *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies*. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 390 p.
6. Kurzweil R. *The Singularity is Near: When Humans Transcend Biology*. – New York: Viking Press, 2005. – 652 p.
7. Xolmirzaev X.N. The importance of social norms and human values in artificial intelligence systems // FarDU ilmiy xabarlari jurnali. – 2025. – № 2. – P. 32–36. DOI: https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol31_iss2/445
8. Атаева С.Х., Шодмонов Ф.Ж. Тиббиётда сунъий интеллект // *Science and Innovation*. – 2024. – Vol. 4. – № 2. – С. 47–52.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

STRUCTURAL-FUNCTIONAL ASPECTS OF NATIONAL EDUCATION IN THE CONDITIONS OF DIGITAL CIVILIZATION

Namazova Yulduz Muzaffarovna,
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor

Abstract. This article examines the structural and functional aspects of the national education system in the context of digital civilization from a socio-philosophical perspective. It analyzes how the digital transformation is bringing significant changes to the structure (educational institutions, infrastructure) and functioning (distance learning, digital assessment systems, etc.) of the education system. The results indicate that these changes are expanding opportunities in education and increasing efficiency — in particular, improving access to education and modernizing the monitoring and evaluation processes. At the same time, certain risks and challenges are identified, such as the diminishing role of the human factor in the educational process and the reduction of educational content to digital metrics. The article underscores the need to evaluate digital reforms in education not merely as technical progress, but also on the basis of humanistic values, national identity, and the system of moral upbringing. In conclusion, it is noted that the digital transformation of the education system should be perceived as a socio-philosophical phenomenon, requiring a human-centered approach that prioritizes national and spiritual values.

Keywords: digital civilization, national education system, structural-functional changes, digital transformation, socio-philosophical analysis.

RAQAMLI SIVILIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY TA'LIMNING STRUKTURAVIY-FUNKSIONAL JIHLTLARI

Namazova Yulduz Muzaffarovna,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti,
falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli sivilizatsiya sharoitida milliy ta'lim tizimining strukturaviy va funksional jihatlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yondashiladi. Raqamli transformatsiya ta'lim tizimining tuzilmasi (ta'lim muassasalari, infratuzilma) va faoliyatida (masofaviy ta'lim, raqamli baholash tizimlari va h.k.) jiddiy o'zgarishlar yasayotganligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari bu o'zgarishlar natijasida ta'limda imkoniyatlar kengayib, samaradorlik oshayotganini, xususan ta'limga kirish imkoniyatlari va nazorat-baholashning takomillashayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida inson omilining fon plana o'tishi, ta'lim mazmunining raqamli ko'rsatkichlarga qisqarib qolishi kabi xavf va muammolar ham aniqlanadi. Maqolada ta'limdagi raqamli islohotlarni faqat texnik-texnologik yutuq sifatida emas, balki insonparvarlik qadriyatlarini, milliy o'zlik va ma'naviy tarbiya mezonlari asosida baholash zarurligi ta'kidlangan. Xulosa o'rnida, ta'lim tizimidagi raqamli transformatsiyani falsafiy-ijtimoiy hodisa sifatida qabul qilib, unda inson omiliga tayangan va milliy-ma'naviy qadriyatlarni ustuvor qo'yuvchi yondashuv zarurligi qayd etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli sivilizatsiya, milliy ta'lim tizimi, strukturaviy-funksional o'zgarishlar, raqamli transformatsiya, ijtimoiy-falsafiy tahlil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N32>

Kirish. Raqamli sivilizatsiya sharoitida milliy ta'lim tizimining strukturaviy va funksional jihatlari chuqur ijtimoiy-falsafiy tahlilni talab etadigan murakkab masaladir. Ta'lim tizimi har qanday jamiyatning ijtimoiy tuzilmasida markaziy o'ringa ega bo'lib, undagi o'zgarishlar jamiyatdagi ijtimoiy ong, ma'naviy qadriyatlar va madaniy identitetning o'zgarishlari bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, zamonaviy texnologik taraqqiyot bilan uyg'un kechayotgan o'zgarishlar sharoitida ta'limning strukturaviy va funksional paradigmalari ham tubdan yangilanmoqda.

Raqamli sivilizatsiya oddiy kommunikatsion vosita bo'lib qolmay, balki ta'lim tizimining ichki tuzilmasini qayta shakllantiruvchi yangi ontologik muhitni yaratmoqda. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalar butun ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda, natijada ta'lim jarayonining nafaqat vositalari, balki bilim olish subyektlari va ularning o'zaro munosabat shakllari ham yangicha mazmun kasb etmoqda [1]. Bu holat bilimning ijtimoiy kontekstda shakllanishi va tarqalishiga yangicha yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Shunday qilib, raqamli davrda milliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni nafaqat texnik yangilanish sifatida, balki ijtimoiy-ma'naviy mazmun nuqtai nazaridan ham tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy tahlil va strukturaviy-funksional yondashuv usullari qo'llanildi. Milliy ta'lim tizimidagi raqamli transformatsiya jarayonlari falsafiy konsepsiyalar va amaliy manbalar (rasmiy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar) tahlili orqali o'rganildi. Xususan, ta'lim sohasiga oid normativ hujjatlar mazmuni va mutaxassislarining ilmiy mulohazalari tahlil qilinib, ularning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati baholandi. Tadqiqot davomida M. Foucault tomonidan ilgari surilgan "bilim orqali boshqaruv" konsepsiyasi hamda adolat va inklyuzivlik tamoyillari nazariy asos sifatida qo'llanildi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar ta'limga ta'sirini baholashda tanqidiy-tahliliy yondashuv qo'llanilib, texnologik o'zgarishlarning imkoniyat va xavflari kompleks tarzda interpretatsiya qilindi.

Natijalar. Raqamli transformatsiya natijasida milliy ta'lim tizimining tarkibiy tuzilmasi ham, faoliyat ko'rsatkichlari ham sezilarli darajada o'zgarishga yuz tutmoqda. Ta'lim muassasalarining tashkiliy tuzilishi, boshqaruv tizimi va infratuzilmasida yangi shakllar vujudga kelmoqda. Xususan, masofaviy ta'lim, sun'iy intellektga asoslangan o'quv modullari, elektron testlar, raqamli portfellar kabi yangi elementlar ta'lim jarayoniga joriy qilinmoqda. Ushbu innovatsiyalar o'quv jarayonini soddalashtirib, nazorat va baholash tizimlarini zamonaviylashtirishga xizmat qilmoqda [2]. Biroq bu funksional yangilanishlar ortida inson omilining ahamiyati pasayib ketishi xavfi ham kuzatilmoqda. Natijada o'qituvchi faqat texnologik vositalar bilan raqobatlashuvchi agentga, o'quvchi esa statistik ko'rsatkichlar orqali baholanadigan obyektga aylanishi mumkin. Bu holat ta'lim jarayonida insonni markaziy o'ringa qo'yuvchi an'anaviy tamoyillarga zid keladi. Ba'zi falsafiy konsepsiyalar nuqtai nazaridan (masalan, Foucault ilgari surgan "bilim orqali boshqaruv" g'oyasi) raqamli transformatsiya nazoratning noxush mexanizmlarini yuzaga chiqarishi ham mumkin.

Ta'lim tizimining strukturaviy jihatida ham muhim o'zgarishlar yuz bermoqda: markazlashgan boshqaruv modeli o'rnini ochiq platformalarga tayangan tarmoq modeli egallamoqda. Bu esa jamiyatda ijtimoiy tenglik tamoyillarini kuchaytirib, imkoniyati cheklangan yoki olis hududlarda yashovchi qatlamlar uchun ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda [3]. Ijtimoiy adolat va inklyuzivlik nuqtai nazaridan bunday tendensiya ijobiy baholanadi. Biroq chinakam inklyuzivlikka erishish uchun bunday yondashuv shakllantirilishi

faqat formal ravishda emas, balki axborotga teng kirish, sifatli kontentdan foydalanish va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari bilan mustahkamlanishi lozim.

Raqamli transformatsiya jarayoni davlat siyosati darajasida ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-martdagi PQ-4642-sonli qarorida ta'lim jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, masofaviy ta'limni keng joriy etish hamda pedagog kadrlar raqamli savodxonligini oshirish vazifalari belgilangan [4]. Shu bilan birga, ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni faqat texnik va tashkiliy nuqtai nazardan baholash chegaralidir; ularni insonparvarlik mezonlari, milliy identitetga sodiqlik va ma'naviy tarbiya talablari asosida ham ko'rib chiqish zarur. Masalan, raqamli tizimlarda ustuvor bo'lib borayotgan GPA kabi reyting ko'rsatkichlari ta'limning insoniy va mazmuniy qirralarini "raqamli natija"ga aylantirmoqda. K. Gavhar bu holatni "baholash tizimining avtomatlashtirilib, inson omilining chetga chiqishi" sifatida tanqid qilgan edi [3]. Demak, raqamli transformatsiya ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga uning tarbiyaviy va madaniy vazifalarini susaytirmasligi lozim. Aks holda, strukturaviy jihatdan tarmoqlashgan va funksional jihatdan texnologiyalashgan milliy ta'lim tizimi ijtimoiy-ma'naviy mazmundan uzilib, raqamli boshqaruvning shunchaki obyektiga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun ta'limdagi islohot va yangilanishlarni oddiy texnologik jarayon sifatida emas, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida anglash muhimdir.

Munozara. Raqamli sivilizatsiya avj olgan hozirgi davrni faqat texnik taraqqiyot bosqichi deb bo'lmaydi. Aslida bu inson hayoti, tafakkuri va ijtimoiy munosabatlar tizimiga texnologik omillar va sun'iy intellekt chuqur singib borayotgan yangi sivilizatsiyaviy bosqichdir. Shu sharoitda milliy ta'lim tizimining ijtimoiy-falsafiy mazmuni va milliylik bilan uyg'unlashuvi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, bugungi kunda "ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni nafaqat moliyaviy qo'llab-quvvatlash, balki ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratish" zarur [7, 236-6.]. Ushbu fikr zamirida ta'lim tizimini ishlab chiqarish va ilm-fan bilan integratsiyalash, ya'ni raqamli davrda bilim iqtisodiyotini shakllantirish g'oyasi yotadi. Biroq bu jarayonni amalga oshirishda ta'limning asl mohiyati, ya'ni insonni ma'naviy-ijtimoiy shakllantiruvchi tizim sifatida qolishi shart. A. Avlakulov fikricha, yuqori intellektual salohiyatga ega insonlar o'z imkoniyatlaridan samarali foydalanishga intiladilar, natijada jamiyatda ijobiy o'zgarishlar yuz beradi [8, 554-6.]. Bu yondashuv texnologik davrda inson kapitalining ahamiyatini ta'kidlar ekan, ijtimoiy ongning ongli tanlovi, axloqiy pozitsiya va tarixiy tajriba kabi omillarini to'liq hisobga olmasligi mumkin. Shu sababli, texnologik yuksalish vosita sifatida qaralmog'i, maqsad esa inson kamoloti bo'lib qolmog'i zarur. Aks holda, texnik taraqqiyot bilan birga ma'naviy tanazzul xavfi kelib chiqadi.

Milliy ta'lim tizimi raqamli zamonda nafaqat raqamlashtirish orqali, balki tarkibiy jihatdan ham o'zgarishga moslashishi lozim. Ilk Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganidek, "tarkibiy o'zgarishlar siyosatini olib borish, sanoatni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiya qilish" jamiyat taraqqiyoti uchun muhim shartlardandir [5, 45-46-6.]. Ushbu g'oya bevosita ta'lim sohasiga ham taalluqlidir. Rivojlangan davlatlar, xususan Singapur tajribasi asosida ishlab chiqilgan bosqichma-bosqich innovatsion rivojlanish modeli (MIT modeli) raqamli milliy ta'lim tizimini shakllantirishda konseptual asos bo'lib xizmat qilmoqda [6]. Demak, milliy ta'lim tizimi globallashuv va raqamli taraqqiyot jarayonida zamonaviy texnologik infratuzilmalarga tayangan holda emas, balki xalqimizning tarixiy-

madaniy merosi, milliy mentalitet va insoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan tarzda rivojlanishi zarur. Darhaqiqat, S. Otamuratov ta'kidlaganidek, globallashtirish sharoitida "ommaviy madaniyat bosimi ostida milliylikni saqlash, avvalo ta'lim orqali amalga oshiriladi" [9, 135-6.]. Shu bois raqamli islohotlar jarayonida ta'lim mazmuniga milliy o'zlikni saqlash va ma'naviy qadriyatlarni singdirish mas'uliyati yuklanadi.

Zamonaviy texnogen sivilizatsiyaning muammolariga nazar tashlasak, ular ta'lim oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Masalan, global miqyosda ~886 million kishi ochlikdan aziyat chekayotgan bir paytda, har sakkizinchi inson ortiqcha semizlikdan aziyat chekmoqda [10], [11]. Bu kabi statistika texnologik taraqqiyot hukmron bo'lgan ijtimoiy tizimlarning qarama-qarshi natijasini ko'rsatadi. Demak, bunday muammolarni hal etishda faqat texnik-texnologik yondashuv kifoya emas; aksincha, insonparvarlik falsafasi va axloqiy tamoyillarga tayangan holda yondashish talab etiladi. Ta'lim tizimining strukturaviy-funksional vazifasi jamiyatda ijtimoiy adolat va ekologik ongni shakllantirish, texnogen taraqqiyot va inson manfaatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashga xizmat qilishi lozim.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, texnogen sivilizatsiya sharoitida milliy ta'lim tizimi insonni vosita emas, balki maqsad sifatida ko'ruvchi g'oyaviy asosga ega bo'lishi zarur. Aks holda, ta'lim texnologiya xizmatchisiga aylanib, insoniylik xususiyatlarini boy berishi mumkin. Prezident Sh. Mirziyoyevning "Bugungi xalqimiz – kechagi xalq emas. Bugungi O'zbekiston ham – kechagi O'zbekiston emas" degan so'zlarini [7, 21-6.] ijtimoiy-falsafiy jihatdan talqin etadigan bo'lsak, jamiyatimiz tafakkurida milliy ong va o'zlikni anglash tuyg'ularining kuchaygani, tarixiy mas'uliyatning oshgani anglashiladi. Demak, raqamli sivilizatsiya davrida milliy ta'lim tizimi texnologiyalashuv bilan bir vaqtda falsafiy, g'oyaviy va ijtimoiy qarashlarni ham chuqur integratsiyalashgan holda rivojlantirilishi lozim. Strukturaviy jihatdan ta'lim tizimi moslashuvchan, modullashtirilgan va bilimga asoslangan bo'lishi, funksional jihatdan esa yosh avlodni ma'naviy yetuklikka, mustaqil va tanqidiy fikrlashga yetaklovchi mexanizmlarga ega bo'lishi kerak. Bu bugungi kunning eng muhim ijtimoiy-falsafiy vazifalaridan biridir.

Xulosa. Globallashtirish va raqamli transformatsiyalar davrida milliy ta'lim tizimining strukturaviy-funksional mohiyatini chuqur falsafiy tahlil qilish zarur. Raqamli sivilizatsiya sharoitida ta'lim tizimi jamiyatdagi ijtimoiy ong, qadriyatlar va shaxs shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim ijtimoiy institut bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, ta'lim sohasidagi raqamlashtirish islohotlari inson omilini ustuvor o'ringa qo'yuvchi g'oyaviy model asosida olib borilishi shart. Faqat texnik yoki utilitar yondashuv orqali emas, balki milliy-ma'naviy yuksalish bilan uyg'un holda modernizatsiya qilingandagina ta'lim tizimi kutilgan ijobiy natijalarga erishadi. Aks holda, ta'lim texnik mutaxassis tayyorlovchi zavodga aylanib, insonni jamiyatning ma'naviy ongidan ajratib qo'yishi mumkin. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, raqamli sivilizatsiya sharoitida milliy ta'lim tizimini rivojlantirish texnologiyalarni keng tatbiq etish bilangina cheklanmasligi, balki ta'lim jarayonlarini insonparvarlik va milliy g'oyalar bilan boyitish tamoyillariga tayangan holda amalga oshirilishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Klochek. (2024). Raqamli texnologiyalar ta'limga ta'siri haqida (maqola matnida bet ko'rsatilmagan).
2. Ilhomjon. (2024). [Manba nomi ko'rsatilmagan], 153-b.
3. Gavhar K. (2024). [Manba nomi ko'rsatilmagan], 246-b.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020-yil 17-mart). PQ-4642-son qaror (ta'lim sohasini raqamlashtirish). Lex.uz rasmiy sayti.
5. Karimov I.A. (2015). [Manba nomi ko'rsatilmagan], 45-46-b.
6. Singapur MIT modeli haqida ma'lumot (manba №5, maqola №5).
7. Mirziyoyev Sh.M. (2021). [Manba nomi ko'rsatilmagan], 21- va 236-b.
8. Avlakulov A. (2024). [Manba nomi ko'rsatilmagan], 554-b.
9. Otamuratov S. (2018). *Globalashuv: millatni asrash mas'uliyati (siyosiy-falsafiy qirralari)*. Toshkent: "O'zbekiston", 135-b.
10. BMT (2023). Jahon bo'yicha ochlik statistikasi (Global Hunger Report ma'lumotlari).
11. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (2023). Global semizlik statistikasi.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

SPECIFIC FEATURES OF THE MANIFESTATION OF IDEOLOGICAL FACTORS' INFLUENCE ON THE DEVELOPMENT OF YOUTH

Abdurazoqov Gulmurod Musurmonqulovich

Senior Lecturer, Department of Philosophy,
Termez State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences
E-mail: gulmurod.abdurazoqov@mail.ru

Abstract. This article analyzes the influence of ideological factors on the development of youth, focusing on their worldview, moral values, and social activity. It explores philosophical and psychological mechanisms for forming a healthy ideology among young people, protecting them from destructive ideas, and strengthening national identity and civic responsibility. The study also discusses effective ways to develop ideological immunity in the context of globalization.

Keywords: ideology, youth, development, spirituality, values, ideological immunity, globalization.

MAFKURAVIY OMILLARNING YOSHLAR KAMOLOTIGA TA'SIRI NAMOYON BO'LISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdurazoqov Gulmurod Musurmonqulovich

Termiz davlat universiteti
Falsafa kafedrası katta o'qituvchisi,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada mafkuraviy omillarning yoshlar kamolotiga ko'rsatadigan ta'siri, ularning dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlar va ijtimoiy faolligining shakllanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Yoshlar ongida sog'lom mafkura shakllantirish, ularni turli zararli g'oyalar ta'siridan himoya qilish, milliy o'zlikni anglash va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash mexanizmlari falsafiy va psixologik jihatdan yoritiladi. Shuningdek, globallashuv sharoitida mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning samarali yo'llari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: mafkura, yoshlar, kamolot, ma'naviyat, qadriyatlar, mafkuraviy immunitet, globallashuv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N33>

Kirish. Mafkuraviy omillar har qanday zamonda ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni joriy etish texnologiyalari amaliyotining barcha bosqichlari, holatlari va jarayonlarida turlicha uslub va vositalarning qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu yo'nalishda, ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bugungi davr talabiga javob beradi va kutilgan natijaga osonroq olib borishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida e'tirof etilganidek, «Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir». Fuqarolar bu huquqlaridan to'laqonli foydalana olishlari uchun ular bilan davlat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tartibga

keltirish zarurati tug'ildi. Bu vazifani bajarishning aniq mexanizmini ishlab chiqish, mafkuraviy omillarning mazmun-mohiyati va maqsad-muddaolarini yoshlar ongiga yetkazishning yangi, zamonaviy texnologiyalarini qo'llash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi [1].

Mazkur holatlardan kelib chiqqan xolda, mafkuraviy omillar targ'ibotiga oila, mahalla, siyosiy partiyalar, OAV va boshqa ijtimoiy institutlarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish zarurati saqlanib qolayotganini alohida ta'kidlash zarur, albatta.

Bugungi kunga kelib, ushbu omillar ko'plab davlat organlari va fuqarolik institutlarini boshqarishni samarali tashkil etish maqsadida keng qo'llanilmoqda. Hozirgi kunda nafaqat, rivojlangan mamlakatlarning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari, balki bizning mamlakatimizda ham amaliyotda ushbu asosdagi texnologiyalarni qo'llash keng yo'lga qo'yilganligi buning yaqqol dalilidir.

Shu o'rinda mafkuraviy omillarni singdirish texnologiyalari hamda muayyan targ'ibot tizimi o'rtasidagi farqni ajratib olishimiz zarur. Targ'ibot ko'p hollarda, axborot oluvchining manfaatlari, qarashlari va qadriyatlarini e'tiborga olishni nazarda tutmaydi.

Mafkuraviy targ'ibot texnologiyalari esa aholiga axborot uzatibgina qolmay, balki undan kelayotgan ta'sirga ham javob beradi, ya'ni ikki tomonlama manfaatli hamkorlik omiliga tayanadi. Bunda mafkuraviy omillarni singdirishga xizmat qiladigan munosabatlar va aloqalar fuqarolar manfaatidan kelib chiqib, amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yoshlar kamolotida mafkuraviy omillar ta'sirchanligini oshirishda muayyan targ'ibot texnologiyalarini qo'llashda, albatta, har bir yosh inson psixologiyasi, unga ta'sir etuvchi omillarga alohida e'tibor qaratiladi. Mafkuraviy omillarni singdirish asosida yosh insonlarning dunyoqarashini shakllantirish, muayyan qadriyatlarni egallash orqali ularni harakatga undash targ'ibotning asosiy vazifasi hisoblanadi. Qadimgi yunon faylasufi Platon targ'ibot-tashviqot haqida gapirar ekan: «Kishilarning e'tiborini tortish san'atdir. Buning uchun ularga ko'rish ne'matini ato etish shart emas. Bu ne'mat ularda mavjud. Faqat inson kerakli tomonga emas, boshqa tomonga qaraydi. Uning e'tiborini kerakli tomonga jalb qilish uchun esa ko'p mehnat qilish lozim», deb bejiz ta'kidlamagan, albatta.

Mutaxassislar taklif etgan «to'rt qadamli» universal modeldan mafkuraviy omillar targ'ibotida foydalanish ham samarali natija berishi mumkin. Bu modelni milliy mafkurani singdirish nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi xulosalarga kelamiz.

Avvalambor, mavjud muammoni aniqlab olish lozim bo'ladi. Ya'ni, mafkuraviy omillar singdirilishi zarur bo'lgan asosiy maqsadlarni belgilab olish darkor. Bundan tashqari, «Nima uchun aynan shu maqsadga ehtiyoj tug'ildi?», «Mazkur maqsadni targ'ib-tashviq qilish ishlariga qaysi tuzilmalarni jalb qilish mumkin?», «Ushbu maqsadlar qaysi ijtimoiy guruhlar orasida targ'ib qilinadi?» kabi savollarga javob topish lozim. To'plangan ma'lumotlar tahlil qilinib, mavjud ahvol, muammo va yechimlar aniqlanadi [3].

Keyingi bosqich insonning muayyan omilga munosabati, uning qadriyatlarini chuqur o'rganishni nazarda tutadi. Umuman, bu bosqichda targ'ibotdan ko'zlangan aniq maqsadlar belgilanib, ta'sir ko'rsatish auditoriyasi aniqlanadi. Mafkura targ'ibotida auditoriyani segmentlash, ya'ni turli omillar asosida guruhlariga ajratish muhim ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, auditoriyani segmentlash targ'ibotning ta'sirchan usullarini ishlab chiqish imkonini beradi. Masalan, auditoriyani qadriyatlar, manfaat va qarashlardagi farqlarga ko'ra, talabalar,

askarlar, tadbirkorlar, nafaqaxo'rlar, ziyolilar, erkaklar, ayollar, yoshlar kabi alohida segmentlarga ajratish mumkin.

Muhokama va natijalar. Tabiiyki, mafkuraviy omillarni singdirishda ziyolilarga yetkaziladigan axborot bilan tadbirkorlar kayfiyatiga ta'sir ko'rsatish ancha mushkul. Yoki yoshlarning hissiyotlarini junbishga keltirgan murojaatlarga katta yoshdagilar beparvo munosabatda bo'lishlari mumkin. Turli ijtimoiy guruh vakillarining dunyoqarashi, manfaati va qadriyatlarini bir-biridan farq qilar ekan, mafkura targ'ibotida bu omilni inobatga olish o'z samarasini berishi tabiiy. Ko'pgina olimlar bir vaqtning o'zida juda ko'p obyektlarni qamrab olishga intilish, targ'ibotda barchaga bir xil tarzda murojaat qilishning samarasi kam ekanligini uqtirgan [4].

Segmentlashda, avvalambor, insonlarning yashash joyi va ijtimoiy muhitiga e'tibor beriladi. Kishilarning yashash joyi ularning ijtimoiy-siyosiy faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil ekanligi isbotlangan. Mafkura targ'ibotida bu omilni e'tibordan qoldirish mumkin emas. Shuningdek, muayyan hududda yashovchi aholining muammolaridagi umumiylik, qadriyatlar va tafakkur tarzidagi o'xshashliklar ham auditoriyani geografik makonga ko'ra segmentlashning samaraliligini ko'rsatadi. Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari aholisining qarashlari, qadriyatlarini, mahalliy urf-odatlarini Toshkent shahri yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisidan ancha farq qiladi.

Ikkinchidan, kishilarning yoshi, jinsi va oilaviy ahvoli ham dunyoqarashga, voqea-hodisalarga munosabatga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu belgilar asosida auditoriyani segmentlash hamda axborot yetkazishda bu omillarni hisobga olish mafkuraviy omillar targ'ibotining samaradorligini oshirishda qo'l keladi.

Uchinchidan, targ'ibotda kishilarning ruhiy holatiga e'tibor berish nihoyatda muhimdir. Garchi insonning ruhiy holati ancha o'zgaruvchan ekanligi ushbu vazifani birmuncha qiyinlashtirsa-da, lekin bu omil bilan hisoblashmaslik mumkin emas. Zero, islohotlarni faol qo'llab-quvvatlovchilarga ham, jamiyat hayotiga beparvo bo'layotganlarga ham, ijtimoiy o'zgarishlardan norozi kayfiyatdagilarga ham bir xil mazmunda axborot uzatish, bir xil usulda murojaat qilish bilan sezilarli natijaga erishish qiyin. Shunday ekan, mafkuraviy omillar targ'ibotida insonlarning ruhiy holati, jamiyatimizda kechayotgan islohotlarga munosabati, ularni qo'llab-quvvatlash darajasi, albatta, inobatga olinishi darkor [5].

To'rtinchidan, insonlarning egallagan ijtimoiy maqomiga ko'ra auditoriyani segmentlash ham targ'ibotni samarali tashkil etishda qo'l keladi. Turli ijtimoiy maqomdagi insonlarning axborot olish imkoniyatlaridagi farq ularning eshitgan axborotiga nisbatan turlicha munosabatini keltirib chiqaradi.

Beshinchidan, mafkuraviy omillar targ'ibotida insonlarni boshqalarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyatiga ko'ra ajratish, aniqrog'i, fikr yetakchilarini ajratib olish nihoyatda muhimdir. Fikr yetakchilari orqali axborot yetkazish targ'ibotning muhim usullardan biri sanaladi. Kishilarga g'oyaviy ta'sirini o'tkazishda obro'li insonlardan, xalq ishonchi, mehr-muhabbatini qozongan arboblardan foydalanish nihoyatda muhimdir. Negaki, insonlar fikr yetakchilarining aytganlariga ko'proq ishonadilar, ulardan ibrat olib, ortidan ergashadilar.

Oltinchidan, insonlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, o'z haq-huquqlarini bilishi, ya'ni o'ziga xos "erkinlik ruhi" hamda siyosatdagi ishtiroki darajasi ham mafkuraviy omillar targ'ibotida hisobga olinishi lozim. Ma'lumki, mahalliy darajada qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etayotgan, jamiyatdagi muammolarga befarq qaramaydigan faol insonlar hamda o'zini

«kichkina odam» deb hisoblaydiganlar hayotga turlicha munosabatda bo'ladilar. Bu omil ham mafkuraviy omillar targ'ibotida alohida yondashuvni shartlab qo'yadi.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda, ikkinchi bosqichda insonlarga muayyan mafkuraviy omilni jozibador tarzda targ'ib qiluvchi, ular ishonchini qozongan axborot manbai tanlab olinadi. Axborot uzatuvchi hamda uning iste'molchisi o'rtasidagi doimiy muloqotni tashkil etishning aniq reja va dasturlari ishlab chiqiladi. Umuman, bu bosqichni strategik rejalashtirish bosqichi deb atash mumkin.

Uchinchi bosqich mafkuraviy omillar asosidagi faol muloqot bosqichidir. Bu bosqichdagi vazifalar aniq reja, targ'ibot ishiga ijodkorona yondashuv asosida bajarilmog'i talab etiladi. Buning uchun, birinchi navbatda, aholining qarash va intilishlariga moslashish, ularning hissiyotlariga ta'sir ko'rsatish, mafkuraviy omillar targ'ibotini zimdan amalga oshirishga e'tibor qaratiladi. Ushbu bosqichdagi vazifalar kommunikator va retsiyent nuqtai nazarlaridagi umumiylikni ko'rsatish, targ'ib etilayotgan g'oyalar inson manfaatlariga mosligini uqtirish, axborotni ularning qarashlari, qadriyat va orzu-intilishlariga mos tarzda yetkazishdan iborat. Shunday qilib, uchinchi bosqich strategik mafkuraviy omillar va bu boradagi rejalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan aniq harakatlar bosqichidir [6].

Amalga oshirilgan targ'ibot ishlari bo'yicha xulosa yasash yakuniy bosqichdir. Bu jarayonda bajarilgan ishlar aniq mezon asosida sarhisob qilinadi hamda aks aloqalar o'rganiladi. Bunda targ'ib etilgan mafkuraviy omillar insonlar tomonidan qay darajada qabul qilinganligi, targ'ibot ularga qanday ta'sir qilgani, e'tiqod va harakatlaridagi o'zgarishlar empirik dalillar asosida aniqlanadi va tahlil qilinadi.

Mafkuraviy omillar targ'ibotida "Jamoatchilik bilan aloqalar" texnologiyalarini qo'llash ommaviy axborot vositalaridan samarali va oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Gap shundaki, ommaviy axborot vositalari boshqa mafkuraviy vositalarga nisbatan kengroq auditoriyani qamrab olishga qodir. "Zamonaviy jamiyatda mafkurani o'rganish ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy sohadagi rolini o'rganish bilan chambarchas bog'liqdir, — deb yozadi rossiyalik olim A.Tuzikov, — zero, ommaviy axborot vositalari, bir jihatdan, g'oyalar makoni hisoblansa, ikkinchi tomondan, mafkuraviy ramzlar yaratiladigan makon sanaladi. Bu media-makonda turli mafkuralar mavjud bo'lib, ularning aksariyati yashirin ko'rinishga ega bo'ladi. Shunday ekan, bu muammoni o'rganish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega"[7].

Darhaqiqat, bugungi kunda mass-medialar mafkuraviy ta'sirning eng ta'sirchan va qudratli vositasiga aylangan. Ular insonlarning bugungi kundagi eng yaxshi "ustozi" va "suhbatdoshi" hisoblanadi. "Mass-medialar u yoki bu siyosiy voqea-hodisaga munosabat shakllantiribgina qolmasdan, ijtimoiy voqelikni media-dastur shakliga keltirib qo'ymoqdalar". Garchi bu fikr biroz mubolag'adek ko'rinsa ham, bugungi kunda ayrim xorijiy ommaviy axborot vositalari bizga o'z mafkuraviy omillarini singdirishga urinayotganini sezish qiyin emas. Mazkur holat ham mafkuraviy omillar targ'ibotini susaytirmaslikni, uning ta'sirchanligini oshirishni hamda har qanday mafkuraviy tahdidlarga nisbatan ogoh bo'lishni shartlab qo'yadi. Bunda ommaviy axborot vositalariga axborot terrori, mafkuraviy tahdidlarga mos javob qaytarish, ma'naviy-mafkuraviy tomondan xalqimizni bo'ysundirishga qaratilgan harakatlarni payini qirqish va fuqarolarda mafkuraviy immunitetni yuzaga keltirish vazifalarini bajarish ko'zda tutiladi.

Mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlikka oid fazilatlarni shakllantirish bosqichlarining mazmuni maktabgacha ta'limdan boshlanadi va bu davrda bolalarning yosh va bilim xususiyatlari mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlik fazilatlarini anglab olishga hali o'zlik qiladi. Shu sababli bu fazilatlarni kelgusida shakllantirish mumkin bo'lgan sodda tushunchalarda ko'rsatish mumkin. Jumladan, bolalar yaxshi va yomonni ajrata bilish, o'zaro do'stona munosabat, dadillik, qo'rqmaslik, to'g'rilik, vatanni sevish, ota-bobolarni bilish, o'z kuchiga ishonch, o'zgarishlarni tushunish, urf-odatlarini hurmat qilish, ijobiy aqidalarga hurmat, o'zini erkin his qilish mafkuraviy immunitetni shakllantiradigan fazilatlardan bo'lib ogoh, hushyor va sezgir bo'lib yashashga zamin yaratadi [5].

Obyektiv bilimlarning yuzaga kelishida va zaminida insonga hurmat, yaxshilik haqida tasavvurga ega bo'lish, bilimdonlik, ehtiyotkorlik, bunyodkorlik haqida tasavvurga ega bo'lish, faollik, ruhiy tetiklik, yaxshi va yomonni ajrata bilish, o'zaro do'stona munosabat va boshqa fazilatlar yotadi. G'oyaviy kurashchanlik fazilatlarini shakllantirish uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, qo'rqmaslik, Vatanni sevish, davlat ramzlarini bilish, bayramlarni bilish, marosimlar, hozirgi dunyo haqida tasavvurga ega bo'lish, kompyuterni bilish, san'atni tasavvur qilish, yomonlikka nafrat, ma'naviy-moddiy boylik haqida tushunchaga ega bo'lish muhim rol o'ynaydi.

G'oyaviy kurashchanlik fazilatlarini shakllantirishda, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotda aniq maqsad qo'yib yashashga intilishda bolalarda befarqlik haqida tasavvurga ega bo'lish, mentalitetni bilish, buzg'unchilik, tajovuz haqida tasavvurga ega bo'lish, kelajak haqida, Vatan haqida tasavvurga ega bo'lish, atrofdagilarga munosabat muhim ahamiyatga ega va shajarada o'z ifodasini topgandir.

Boshlang'ich ta'limda yuqorida sanab o'tilgan sodda va oddiy tushunchalar bir muncha murakkablashadi. Jumladan, mustaqil fikrga ega bo'lish, o'z kuchiga ishonch, xalq qahramonlarini bilish, o'z kuchiga ishonchni mustahkamlash, o'zgarishlarni islohot shaklida tushunish, urf-odatlarini, aqidalarni tushunish, erkinlik, inson tushunchasini farqlash, yaxshilik, bilimga intilish, tarbiya haqida, ogohlik, bunyodkorlik tushunchalarini anglash, faol bo'lishga, ruhiy tetiklik, yomonlikka qarshi kurash, boshqa millatlarni hurmat qilish, dushmanga qarshi kurash, Vatanga sadoqat, bayramlarni, marosimlarni, dunyodagi o'zgarishlarni, internetni, san'atni, boylikni tushunish, befarqlik, himoya qilish, kelajakka ishonch, Vatan tushunchasini anglash, boshqa hudud vakillariga hurmat, loqaydlikni anglash kabi tushunchalar o'z ifodasini topgan [3].

O'rta ta'limda boshlang'ich ta'limda shakllanadigan fazilatlar yanada kengayadi va bir muncha murakkablashadi. Jumladan, sezgirlik va hushyorlik bilan yashash, obyektiv bilimga ega bo'lish, Vatan tarixini bilish, o'z kuchiga ishonchni namoyon qilish, islohotlar mohiyatini bilish, urf-odatlar, an'analarni, aqidalarni farqlash, erkinlikning, insonning mohiyatini anglash, yaxshilikni, bilimni, ogohlikni, bunyodkorlikni namoyon qilish, faol fuqaro, milliy, ma'naviy tiklanish, tinchlikning qadriga yetish, milliy o'zlikni anglash, mustaqillikni, bayramlarni, marosimlarni, dunyodagi o'zgarishlarni, axborotlarni farqlash, san'atni, ezgu g'oyalarni, moddiy hayotning rolini, befarqlik tushunchalarini anglash, buzg'unchi g'oyalarni, kosmopolitizmni, mahalliychilikni, loqaydlik va terrorizmning mohiyatini anglash fazilatlarini namoyon bo'ladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o'rta ta'limga nisbatan fazilatlar mohiyati kengayadi va yanada murakkablashadi. Jumladan, bu ta'lim tizimidagi o'quvchilarning bilim

darajalari ancha ulg'ayadi va kengayadi. Ularga fikrga qarshi fikr g'oyaga qarshi g'oya, o'z hayotida aniq maqsad qo'ya olish, tarixiy xotiraga hurmat, o'z kuchiga ishonib yashash, islohotlar jarayoniga munosabat bildirish, urf-odatlarini, an'analarni, aqidalarni bilish, erkinlikni targ'ib qilish, insonni oliy qadriyat sifatida tushunish, ezgu, ideal g'oyalarni "ma'rifat-shijoatdir" tushunchasini, milliy g'oyani anglash, ogohlik, bunyodkorlik, ijtimoiy faol bo'lish, ma'naviy yuksalish, ma'naviy va mafkuraviy tahdidni bilish, globallashuvning mohiyatini anglash, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash, ommaviy madaniyat nima ekanligini bilish, mustaqillikni, bayramlarni, marosimlarni, globalizm, axborot xurujini anglash tushunchalari o'z ifodasini topgan. Shuningdek, g'oyaviy kurashchanlikni, moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligini, befarqlikning zararini, milliy o'zlikni himoya qilishni tushunish, buzg'unchi g'oyalarga qarshi tura olish, ekstremizmga muhosasizlik, mamlakat kelajagiga ishonch, kosmopolitizmning, mahalliylikning mohiyatini bilish fazilatlarini yoritib beriladi [4].

Oliy ta'limda yuqoridagi fazilatlar yanada mustahkamlanadi va hayotda faoliyat mezoniga aylanadi. Tarbiyaviy ishlar to'g'ri tashkil etilgan ta'lim muassasalarida talabalarda o'z faoliyatida maqsadli kurash olib borish, mustaqil fikrga ega bo'lgan fidokor, tarixni to'g'ri anglash, o'z kuchiga ishonchni qabul qilish, mamlakat va davlat islohotlarida munosib qatnashish, an'analar, rasm-rusumlarni asrab avaylash, demokratiyaga hurmat bilan munosabatda bo'lish, bunyodkor g'oyalarga sadoqat, ta'lim-tarbiyani yot g'oyalarga qarshi qo'ya olish, bunyodkorlikni, ogohlikni, ma'naviy yuksaklikni shakllantirish, jamoa tashkilotlarida munosib ishtirok etish, mafkuraviy tahdidlargacha qarshi turish, ommaviy madaniyatning salbiy tomonlarini fosh etish, vatan osoyishtaligini asrash, demokratiya eksporti mohiyatini fosh etish fazilatlarini aks etadi [6].

Xulosa. Xullas, bularning barchasi esa, o'z navbatida, jamoatchilik fikrini o'rganishni, ijtimoiy fikrni ommaviy axborot vositalari orqali yoritish va tahlil qilib borishni talab etadi. M.Bekmurodovning ta'kidlashicha, «Jamoatchilik fikri va ommaviy axborot vositalari jamiyat ma'naviy hayotining o'zaro uzviy bog'liq jihatlaridan sanalib, yagona yaxlitlik hosil etuvchi tizimiy jabhalar hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini uyg'otish, shakllantirish va muayyan manfaatlar asosida maqsadli yo'naltirishda muhim ahamiyatga egadir. Ayni chog'da jamoatchilik fikri ham targ'ibot-tashviqot ishlarining shakl va uslublari mazmuniga, ommaviy kommunikatsiya vositasida amalga oshiriluvchi mafkuraviy faoliyat tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsata boradi. Shu boisdan ham ommaviy axborot va jamoatchilik fikri tizimlarining o'zaro uyg'un faoliyati jamiyat ma'naviy hayotini harakatga keltiruvchi muhim omil hisoblanadi» .

Adabiyotlar/Литература/References:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. [http://el.tfi.uz/images/Nizomov MD uz ...http://el.tfi.uz](http://el.tfi.uz/images/Nizomov_MD_uz...http://el.tfi.uz) 14 Noyabr 2019; T.:O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -T.: «O'zbekiston» NMIU, 2017. – 592 b.
3. Abilov U. Milliy g'oya: ma'naviy omillar. -T.: Ma'naviyat, 2000.
4. Alimardonov T. Erkinlik ruhi. – Toshkent: Nishon Noshir, 2015;
5. Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5430-son Farmoni. -T.: 2018 yil 4 may.

6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.:«O'zbekiston» NMIU, 2017. – 48 b.
7. Muminov A. O'zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari. –T., “Turon zamin ziyo”, 2013

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE GENESIS OF THE CONCEPT OF “PRECARIAT”: ETYMOLOGY, PHILOSOPHICAL AND SOCIAL INTERPRETATION

Tojibayev Bahromjon Turabayevich,
Associate Professor, PhD,
Department of “Social Sciences”,
Namangan State Technical University

Abstract. The main purpose of this article is to conduct an in-depth and systematic study of the origin of the concept of “precariat,” its linguistic meanings, and its early philosophical and social interpretations. The analysis explores the etymological roots of the term, its initial use within early academic and social movements, and the views of key theorists who contributed to its development as a comprehensive modern concept. This study helps to more clearly define the essence of the term and its place in contemporary social sciences.

Keywords: precariat, etymology, philosophical analysis, social stratification, modern society.

“PREKARIAT” TUSHUNCHASINING GENEZISI: ETIMOLOGIYA, FALSAFIY-IJTIMOYIY ANGLASH

Tojibayev Baxromjon Turabayevich
Namangan davlat texnika universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – “prekariat” tushunchasining kelib chiqishini, uning lugʻaviy maʼnolarini va dastlabki falsafiy-ijtimoiy talqinlarini chuqur va tizimli oʻrganishdan iborat. Bunda atamaning etimologik ildizlaridan tortib, uning ilk ilmiy va ijtimoiy harakatlar doirasida qoʻllanilishi, hamda bugungi kundagi keng qamrovli konsepsiya sifatida shakllanishiga hissa qoʻshgan asosiy nazariyotchilarning qarashlari tahlil qilinadi. Mazkur tahlil tushunchaning mazmun-mohiyatini va uning zamonaviy ijtimoiy fanlardagi oʻrnini aniqroq belgilashga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: prekariat, etimologiya, falsafiy tahlil, ijtimoiy tabaqalanish, zamonaviy jamiyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N34>

Kirish. Tadqiqot predmeti sifatida “prekariat” atamasining oʻziga xos koʻp qirrali tabiati va uning ilmiy muomalaga kirib kelishining murakkab jarayonini belgilash muhim. Bu atama nafaqat iqtisodiy holatni, balki ijtimoiy mavqe, psixologik holat va siyosiy huquqlar bilan bogʻliq jihatlarni ham oʻz ichiga oladi. Shuning uchun uning genezisini oʻrganish turli fan sohalari, jumladan, sotsiologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik va falsafa kesishmasida amalga oshiriladi. Bu jarayonda turli ilmiy maktablar va yondashuvlarning taʼsiri, hamda ijtimoiy voqelikning oʻzi tushunchaning mazmuniga qanday oʻzgartirishlar kiritganini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Globalashuv, ijtimoiy-madaniy oʻzgarishlar, texnologik inqiloblar va neoliberal siyosatning kuchayishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish bilan bir qatorda dunyoning koʻplab mamlakatlarida beqaror, kafolatlanmagan va past daromadli mehnat shakllari keng

tarqaldi. “Prekariat” atamasi aynan shunday murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy hodisani tavsiflash va tushunish uchun muhim vositaga aylandi. Ushbu tushunchaning dolzarbligi uning nafaqat mavjud ijtimoiy muammolarni aks ettirishi, balki kelajakdagi ehtimoliy ijtimoiy o‘zgarishlarni tahlil qilish imkonini berishi bilan ham izohlanadi.

“Prekariat” tushunchasining ilmiy doiralarda keng e’tirof etilishi va tizimli o‘rganilishi nisbatan yaqin davrlarga to‘g‘ri kelsa-da, uning konseptual ildizlari va dastlabki g‘oyalari ancha oldin paydo bo‘lgan. Bu jarayonda bir nechta muhim bosqich va shaxslarning rolini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. “Prekariat” (precariat) atamasi ingliz tilidagi ikki so‘z – “precarious” (beqaror, xavfli, ishonchsiz) va “proletariat” (proletariat) so‘zlarining birlashuvidan hosil bo‘lgan[1]. Bu atamaning asosiy mazmuni – proletariatga o‘xshash, lekin undan farqli o‘laroq, doimiy beqarorlik va ishonchsizlik sharoitida yashovchi ijtimoiy guruhni anglatishiga ishora mavjud.

Atamaning yanada chuqurroq etimologik ildizlari lotin tilidagi “precari” fe’liga borib taqaladi. “Precari” dastlab “o‘tinib so‘ramoq”, “yolvormoq” ma’nolarini anglatgan, keyinchalik esa “beqaror”, “boshqa birovga yoki narsaga bog‘liq”, “ehson yoki marhamat evaziga olingan” kabi ma’nolarni ham bildirgan[9]. Bu o‘zakning “iltimos qilishga majbur bo‘lish”, “muruvvat kutish”, “boshqalarning irodasiga qaram bo‘lish” kabi ma’nolari prekariatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga juda mos keladi. Gay Stending ta’kidlaganidek, prekariat vakillari ko‘pincha o‘z huquqlarini talab qilish o‘rniga, ish beruvchilar yoki davlat idoralaridan imtiyozlar, yordam va marhamat so‘rashga majbur bo‘ladilar. Bu holat ularning kundalik hayotida kamsitilish va o‘z qadr-qimmatini yo‘qotish hissini keltirib chiqarishi mumkin.

Oksford ingliz lug‘ati (OED) ma’lumotlariga ko‘ra, “precariat” so‘zining qo‘llanilishi dastlab 1980-yillarga to‘g‘ri kelib, Maykl Xarringtonning 1989-yilgi ishlarida qayd etilgan[10]. Shuningdek, bu atamadan oldinroq, fransuz sotsiologi, xususan Per Burdyo tomonidan “précarité” (beqarorlik, nochorlik mazmunida) tushunchasi qo‘llanilgan bo‘lib, bu atama mehnat munosabatlaridagi va umuman hayotdagi beqarorlikni ifodalagan[11].

Muhokama. Prekariat so‘zining etimologiyasi o‘quvchini qadimgi Rimga qaytaradi: “Rim huquqida prekarium ko‘char yoki ko‘chmas narsaning egasi tomonidan istalgan vaqtda qaytarib olish imkoniyati bilan tekinga berilishini bildiradi. Egasi ya’ni foydalanuvchi (prekarist) o‘rtasida kelishuv munosabatlarini o‘rnatish orqali tatbiq etilgan. Shunday qilib, prekarist har qanday vaqtda uni qayta hisoblashi yoki foydalanishi mumkin edi. Prekarium so‘ralgan ijaraning bir turi bo‘lib, o‘z ma’nosida preces — iltimos ma’nosini xam anglatgan[8]. Bu so‘z Yevropa roman tillarida saqlanib qolgan va ingliz tilida ildiz otgan. XIX asrda “nopoklik” proletariatning asosiy xususiyatlaridan biriga aylandi.

Ingliz iqtisodchisi G.Stending prekariatni ilmiy jihatdan birinchilardan o‘rgandi, u 2011-yilda prekariat haqida kitob chiqardi[4]. “Prekariat” Stending nazariyasida muhim o‘rin tutadi. Stendingning fikricha prekariat o‘z davrigacha bo‘lgan tushunishlardan farq qiladi: ular mehnat vositalariga ega emasligidan tashqari, doimiy ish joyiga, barqaror daromadga, ijtimoiy kafolatlarga (tibbiy sug‘urta, pensiya, haq to‘lanadigan ta’til va h.k.) xam ega emas, ularning mehnati ko‘pincha qisqa muddatli, kunbay yoki vaqtinchalik xarakterga ega. Ularning sinfiy ongi va birdamligi ham hali to‘liq shakllanmagan.

2014-yilda Stending prekariat konsepsiyasini yangi qarashlar bilan to‘ldirib, prekariatning huquqiy, fuqarolik “zaifligini” ta’kidladi; u buni o‘rta asr shaharlariga kelgan va

shahar aholisining (“burgerlar”) bir oz, lekin hamma narsadan yiroq — huquqlarini olgan odamlar bilan taqqoslaydi.

Prekariat haqidagi konsepsiyaning empirik asoslari uning muallifi tomonidan 1980-1990-yillarda Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan korxonalarda ishlashning “moslashuvchanligi” va odamlarning kelajakka ishonchi bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlari (People’s Security Surveys – PSS) bilan tavsiflanadi.

“Prekariat” tushunchasi keng akademik muhokamada turli ijtimoiy harakatlar va faollar guruhlarini tomonidan o‘z-o‘zini identifikatsiya qilish va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash vositasi sifatida xam qo‘llanila boshlangan. Masalan, 2000-yillarning boshlarida Yevropadagi EuroMayDay harakatlari mehnatning beqarorlashuvi, ishsizlik va ijtimoiy chetlashuvga qarshi norozilik sifatida “prekariat” bayrog‘i ostida birlashgan[2]. Yaponiyada esa “freeter” (inglizcha “free” va nemischa “Arbeiter” – ishchi so‘zlaridan) deb ataluvchi, asosan yoshlardan iborat, vaqtinchalik va past maoshli ishlarda band bo‘lganlar o‘zlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini ifodalash va huquqlarini talab qilish uchun “freeter unions” (friterlar uyushmalari) tuzib, “prekariat” tushunchasiga e‘tibor qaratganlar[7]. Bu harakatlar “prekariat” atamasi shunchaki tashxis emas, balki siyosiy safarbarlik va ijtimoiy o‘zgarishlar uchun chaqiriq ekanligini ko‘rsatdi. Madridlik feminist tadqiqot loyihasi Precarias a la Deriva ham 2000-yillar boshida “prekariat” tushunchasini o‘z tadqiqotlari va faoliyatlarida markaziy o‘ringa qo‘ygan[5]. Standing “prekariat”ni tavsiflashda oldingi nazariyachilar (masalan, Burdyoning “précarité” tushunchasi) va faollar harakatlarining g‘oyalariga tayanadi, lekin ularni rivojlantiradi va tizimlashtiradi. U prekariatni shunchaki beqaror mehnat sharoitida qolgan odamlar yig‘indisi emas, balki o‘ziga xos ishlab chiqarish munosabatlari, taqsimot munosabatlari va davlat bilan munosabatlarga ega bo‘lgan, shuningdek, o‘ziga xos ong va ruhiyatga ega bo‘lgan yangi sinf sifatida ko‘rsatadi. Bu esa “prekariat” muammosini ancha keng va chuqur anglash imkonini beradi. Uning nazariyasi akademik doiralarda katta bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi va “prekariat”ni o‘rganish bo‘yicha ko‘plab yangi tadqiqotlarning boshlanishiga turtki bo‘ldi.

Natijalar. Fransuz sotsiologi Per Burdyo “précarité” (mehnatning beqarorlashuvi, ish o‘rinlarining ishonchsizligi) atamasini 1990-yillarda neoliberal iqtisodiy transformatsiyalar va ijtimoiy himoya tizimlarining zaiflashuvi kontekstida faol qo‘llagan. Burdyo uchun “précarité” nafaqat ishsizlik xavfini, balki barqaror bandlik sharoitlari va mehnat shartnomalari orqali ta‘minlanadigan ijtimoiy himoyaning yemirilishini ham anglatgan. U bu hodisani ishchilarning kundalik hayotiga, ijtimoiy mavqeyiga va kelajakka bo‘lgan ishonchiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omil sifatida tahlil qilgan. Burdyoning tadqiqotlari “prekariat” atamasining keyinchalik Standing tomonidan sinf sifatida konseptuallashtirilishi uchun muhim nazariy zamin yaratdi, garchi Burdyo o‘zi bu atamani bevosita “sinf” deb atamagan bo‘lsa-da, u ko‘proq sharoit, holat sifatida talqin qilgan.

Prekariat neoliberal globallashtirish jarayonlari, davlatning iqtisodiyotdagi rolining qisqarishi, ijtimoiy kafolatlarining zaiflashuvi va mehnat bozorining moslashuvchanligi siyosatining kuchayishi bilan chambarchas bog‘liq. “Moslashuvchanlik” ko‘pincha ish beruvchilarga mehnat xarajatlarini kamaytirish va ishchilarni osonroq ishga olish va bo‘shatish imkonini beradi, lekin ishchilar uchun bu beqarorlik va ishonchsizlikni anglatadi. Prekariatning kengayishida o‘tgan asrdagi demografik “portlash”, shaharlashuvining ortishi va avtoritar boshqaruv ostidagi mamlakatlardagi noto‘g‘ri islohotlar kabi sotsial omillar mazkur tabaqa vakillarini aholining umumiy miqdoridagi ulushini oshishiga xam sabab bo‘ldi.

“Prekariat” tushunchasini chegaradosh tushunchalardan farqlash.

“Prekariat” tushunchasining mazmun-mohiyatini to‘liqroq anglash uchun uni boshqa yaqin, lekin aynan o‘xshash bo‘lmagan ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyalardan farqlash muhimdir. Prekariat va proletariat: yuqorida ta’kidlanganidek, “prekariat” atamasi “proletariat” so‘zi bilan uyg‘unlashtirilgan bo‘lsa-da, bu ikki guruh o‘rtasida jiddiy farqlar mavjud. Stendingga ko‘ra, XX asr proletariati, garchi ishlab chiqarish vositalariga ega bo‘lmasa-da, nisbatan barqaror, to‘liq kunlik ish bilan ta‘minlangan, mehnat jamoalari va kasaba uyushmalari orqali ma‘lum bir ijtimoiy kafolatlar va huquqlarga ega bo‘lgan, shuningdek, o‘ziga xos sinfiy ong va birdamlikka intilgan. Ularning hayotida ma‘lum bir “kasbiy rivojlanish yo‘li” mavjud edi. Prekariat esa bunday xususiyatlarga ega emas. Ular uchun ish vaqtinchalik, daromadlar beqaror, ijtimoiy kafolatlar deyarli yo‘q, kasbiy identifikatsiya mavhum va sinfiy birdamlik hali shakllanmagan.

Klassik marksizmda “lyumpen-proletariat” jamiyatning eng quyi, deklassifikatsiyalashgan, ijtimoiy ishlab chiqarishdan uzilib qolgan va ko‘pincha jinoiy elementlardan iborat qatlam sifatida talqin etilgan. “Anderklass” (underclass) tushunchasi ham uzoq muddatli ishsizlik, qashshoqlik va ijtimoiy chetlashuvda qolgan guruhlarini anglatadi. Prekariat esa, Stendingning fikricha, bulardan farq qiladi. Prekariat jamiyatdan butunlay chiqarib tashlangan yoki faqat salbiy hodisa sifatida qaralmaydi. Aksincha, u zamonaviy global kapitalizm uchun ma‘lum bir funksional ahamiyatga ega – ya‘ni, moslashuvchan, arzon va talabga qarab tez safarbar qilinadigan mehnat resursi sifatida xizmat qiladi[1]. Shuningdek uni “yangi xavfli sinf” deb atash mumkin, chunki u mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizimga nisbatan norozilik bildira olish ehtimoliga ega.

Prekariat va “norasmiy sektor”: “Norasmiy sektor” tushunchasi odatda davlat tomonidan ro‘yxatga olinmagan, soliqqa tortilmaydigan va rasmiy tartibga solinmaydigan iqtisodiy faoliyat va unda band bo‘lgan ishchilarni anglatadi. Bu tushuncha ko‘proq rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xosdir. Prekariat va norasmiy sektor o‘rtasida ma‘lum o‘xshashliklar (masalan, ijtimoiy kafolatlarining yo‘qligi, daromadlarning beqarorligi) mavjud. Biroq, prekariat kengroq tushuncha bo‘lib, u rivojlangan mamlakatlardagi rasmiy sektorda ham, lekin beqaror shartnomalar asosida ishlaydiganlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Stending o‘z qarashlarida “norasmiy sektor” atamasini rad etadi, chunki bu atama turli xil hodisalarni (mayda ishlab chiqarish, mehnat zaxirasi, lyumpen aholi) aralashtirib yuborishini ta’kidlaydi va prekariatni bozor iqtisodiyotining “faol” elementi, “moslashuvchan” mehnatni ta‘minlovchi qatlam sifatida ko‘radi. Prekariat global hodisa sifatida qaraladi.

Abstract. This article explores the phenomenon of inclusive thinking as a new philosophical paradigm of contemporary society that ensures harmony, sustainable development, and social justice. Inclusive thinking is defined as the human and societal ability to perceive diversity as a value rather than a deviation. The author analyzes the philosophical, cultural, and ethical foundations of inclusion, emphasizing its role in shaping a humanistic worldview and a culture of participation.

Keywords: inclusion, thinking, sustainable development, humanism, justice, values, education.

INKLYUZIV TAFAKKUR — JAMIYATNING BARQAROR RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSI

Chorieva Madina Aliyevna,
Osiyo xalqaro universiteti, PhD Dotsent

Annotatsiya. Maqolada inklyuziv tafakkur fenomeni zamonaviy jamiyatning yangi falsafiy paradigmasi sifatida tahlil qilinadi. Inklyuziv tafakkur inson va jamiyatning xilma-xillikni og'ish emas, balki qadriyat sifatida qabul qilish qobiliyati sifatida izohlanadi. Muallif inklyuziyaning falsafiy, madaniy va axloqiy asoslarini tahlil qilib, uning insonparvar dunyoqarash va ishtirok madaniyatini shakllantirishdagi o'rnini ochib beradi.

Kalit so'zlar: inklyuziya, tafakkur, barqaror rivojlanish, insonparvarlik, adolat, qadriyatlar, ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N37>

Kirish. XXI asr insoniyat tarixida chuqur o'zgarishlar davri sifatida namoyon bo'lmoqda. Texnologik yuksalish, globalizatsiya, madaniyatlararo muloqot kengayishi bilan bir qatorda, ijtimoiy tafovutlar, diskriminatsiya, kamsitish holatlari ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Shu jarayonda **inklyuziv tafakkur** tushunchasi — insoniyatning o'zaro hurmat, bag'rikenglik va adolat asosidagi yangi tafakkur shakli sifatida maydonga chiqmoqda. Zamonaviy jamiyatning rivojlanish bosqichlarida inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va har bir fuqaroning hayotda faol ishtirok etishini ta'minlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda [1]. Bu jarayonda inklyuziv tafakkur asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Inklyuziv tafakkur — bu nafaqat barcha insonlarning huquq va imkoniyatlarini tan olish, balki ularni amaliy hayotda to'liq aks ettirishga yo'naltirilgan fikrlash shaklidir. Barqaror rivojlanish g'oyasi insoniyat taraqqiyotining yangi mezonlarini belgilab bergan bo'lsa, inklyuziv tafakkur esa bu mezonlarning hayotga tatbiq etilishida falsafiy asos bo'lib xizmat qiladi [2]. Chunki inklyuzivlik — bu shunchaki siyosiy yoki ijtimoiy tushuncha emas, balki jamiyat ongida chuqur ildiz otgan, doimiy yangilanish va hamjihatlikka asoslangan fikr yuritish uslubidir.

Asosiy qism. Ijtimoiy tizimning rivojlanishi jamiyat a'zolari ongida yangi hodisalarning vujudga kelishini ta'minlamoqda. Shunday hodisalardan biri ijtimoiy inklyuziya konsepsiyasidir. Ta'lim ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida ushbu konsepsiyaning ta'sirida rivojlanadi. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida tub o'zgarishlar vujudga kelmoqda. Ta'limning barcha aspektlari kabi inklyuziv ta'lim ham davlat siyosatining ajralmas qismiga aylandi. Buni O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida o'quvchilarga inklyuziv ta'lim berish kafolatlanganligida ham ko'rish mumkin. Chunonchi Konstitutsiyaning 50-moddasida: "Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi". Bu birinchi navbatda o'quvchilarni ijtimoiy muhitga moslashtirish, ular uchun qulay faoliyat ko'rsatish imkoniyatini kengaytirish bilan bog'liq. Buning uchun ta'lim muassasasi rahbarlari hamda o'qituvchilarning dunyoqarashini sifat jihatdan o'zgartirish, ota-onalar bilan keng ko'lamlı targ'ibot ishlarini amalga oshirishni talab qiladi. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar negizida amalga oshirilayotgan ijtimoiy o'zgarishlar ta'limning metodologik asoslarini o'zgartirish, u haqida yangicha tafakkur yuritish mexanizmlarini vujudga keltirishni taqozo qilmoqda. Inklyuziya insonparvarlikka asoslangan yondashuv sifatida o'zining rivojlanish dinamikasiga ega. O'tgan XX asrning 90-yillaridayoq "Ta'lim barcha uchun umumjahon deklaratsiyasi"da Jomten tomonidan inklyuziyaga kirishishning umumiy qoidalari aniqlangan edi. Alohida ehtiyojli bolalar uchun Ispaniyaning Salamanka shahrida tashkil etilgan umumjahon konferensiyasida "inklyuziv ta'lim tizimida ulkan islohotlarni amalga oshirishni talab qiladi" deya ta'kidlangan edi. Dakarda o'tkazilgan ta'limga bag'ishlangan umumjahon forumida alohida ehtiyojli bolalar guruhining muammolarini bartaraf etishni ta'lim tizimi ichida amalga oshirish haqidagi chaqiriq yangragan. 2005-yilga kelib inklyuziv ta'limning 5 ta yo'nalishi ajratilib ko'rsatildi.

Bugungi kunga kelib O'zbekiston Davlati ham alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarga teng huquqlilik asosida uzluksiz ta'limni amalga oshirishning huquqiy me'yoriy asoslarini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Shu bilan bir qatorda inklyuziv ta'lim infrastrukturasi vujudga keltirish sohasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta'limni amalga oshirish bilan bog'liq holda ta'limni isloh qilish uning qonuniyatlari va prinsiplariga o'zgartirishlar kiritish ushbu jarayon subyektlari uchun qiyinchiliklar tug'diradi. Inklyuzivlik prinsipi ta'limning yangi paradigmasini vujudga keltirib uning insonparvarlik funksiyasini kengaytiradi. Bu g'oya pedagogik jarayonga aloqador har bir shaxsni boshqa subyektlar bilan o'zaro hamkorlikka kirishishga undaydi. Pedagoglar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari inklyuziyaga mansub o'quvchilar bilan muloqotda ochiq, ulardagi o'zgarishlarni ko'ra olish layoqatiga ega, ularning o'ziga xosligi va boshqalardan farqli jihatlarini ko'ra oladigan bo'lishlari kerak. Aynan ta'lim muassasasida inklyuziv madaniyatni shakllantirish uchun mazkur pedagogik-psixologik vazifalar o'ta murakkab xarakterga ega.

Inklyuziv tafakkur insonni, jamiyatni va madaniyatni o'zaro uyg'unlikda ko'radigan, "boshqani qabul qilish" tamoyiliga tayanadigan falsafiy pozitsiyadir. U insonni ijtimoiy tizimning markaziga qo'yadi va har bir shaxsning mavjudligini qadrlaydi.

Chorieva (2024) qayd etganidek, "inklyuzivlik — bu insonning imkoniyatini tan olish, uni ijtimoiy jarayonlarning to'laqonli ishtirokchisiga aylantirishdir." Shu nuqtai nazardan, inklyuziv tafakkur — bu zamonaviy ijtimoiy ongning sifat bosqichi, ijtimoiy adolatning falsafiy poydevoridir [3].

Falsafiy tafakkur tarixida insonning “boshqalar bilan mavjudligi” masalasi doimo markazda bo‘lgan [4]. Martin Heideggerning Mitsein konsepsiyasi shuni ta’kidlaydiki, inson mavjudligi hech qachon yakka emas, balki “boshqalar bilan” mavjudlikdir. Bu fikr Levinasning etik falsafasida ham davom etadi — u “Boshqaga mas’uliyat”ni inson mohiyatining asosi deb biladi [5].

Inklyuziv tafakkur ana shu g‘oyaning amaliy ifodasidir. U “men” va “boshqa” o‘rtasidagi farqni emas, ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘radi [6]. Bunda insonning qadri uning jismoniy yoki ijtimoiy xususiyatlarida emas, balki mavjudligining o‘zida yotadi [7, 8].

Sharq falsafasi ham inklyuziv tafakkur g‘oyasiga yaqin. Forobiy “Fozil shahar ahlining qarashlari” asarida jamiyatning mukammalligi har bir insonning baxtli yashash imkoniga egaligida deb biladi. Bu fikr inklyuziv tafakkurning falsafiy ildizlaridan biridir: baxt — hamkorlik, muloqot va hurmat orqali yaratiladi [9].

Inklyuziv tafakkur ijtimoiy mavjudlikni qarama-qarshilik emas, balki uyg‘unlik maydoni sifatida talqin etadi. Shunday ekan, bu tafakkur ijtimoiy muvozanat, barqarorlik va axloqiy uyg‘unlikning asosidir.

Aksiologiya — bu qadriyatlar haqidagi fan. Inklyuziv tafakkurning aksiologik mazmuni inson qadr-qimmatini eng oliy qadriyat sifatida tan olishdir. Har bir insonning mavjudligi o‘z-o‘zidan qadriyatdir, chunki u jamiyatning ajralmas bo‘lagidir.

Inklyuziya qadriyat sifatida insoniylik, bag‘rikenglik va hamjihatlikni o‘z ichiga oladi. Bunday qadriyatlar faqat huquqiy hujjatlar bilan emas, balki ma’naviy-madaniy amaliyot bilan mustahkamlanadi.

Chorieva (2025) shunday deydi: “Inklyuziv ta’lim — bu jamiyatning o‘zini o‘zgartirish jarayonidir, chunki u nafaqat o‘quvchi, balki o‘qituvchi va butun ijtimoiy ongini yangilaydi.

Inklyuziv qadriyatlar shaxsiy manfaatdan ko‘ra, umumiy manfaatni ustun qo‘yishni, “boshqaning dardini o‘z dardingdek his qilish” madaniyatini shakllantiradi. Bu esa jamiyatda ishonch, hamkorlik va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi [10].

BMT tomonidan ilgari surilgan “Hech kim orqada qolmasin” tamoyili inklyuziv tafakkurning global ifodasidir. Bu g‘oya shunchaki ijtimoiy siyosat emas, balki butun insoniyatning axloqiy yo‘nalishidir. Gans Jonas (1984) o‘zining “Mas’uliyat etikasi” asarida insoniyatni “kelajak avlodlar oldidagi burch” nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Uningcha, texnologik rivojlanish faqat insoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgandagina haqiqiy taraqqiyotga olib keladi.

Demak, inklyuziv tafakkur barqaror rivojlanishning axloqiy tayanchidir. Chunki u faqat bugungi avlod uchun emas, balki kelajak uchun ham javobgarlikni nazarda tutadi. Insonning ekologik, ijtimoiy va ma’naviy uyg‘unlikda yashashi — barqaror jamiyatning mezonidir.

O‘zbekiston misolida aytganda, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” doirasida qabul qilingan inklyuziv yondashuv — ayollar, yoshlar, nogironlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun teng imkoniyatlar yaratish — bu milliy inklyuziya falsafasining amaliy ifodasidir.

Ta’lim inklyuziv tafakkurni shakllantirishning eng muhim ijtimoiy institutidir. Ta’lim nafaqat bilim beradi, balki axloqiy qadriyatlarni, hurmat, bag‘rikenglik va hamjihatlikni singdiradi.

Inklyuziv ta'lim muhitida har bir o'quvchi o'z qobiliyatini erkin namoyon etish imkoniga ega bo'ladi. Bu jarayon orqali inson o'zini jamiyatning faol a'zosi sifatida his qiladi. Shu yo'l bilan jamiyatda axloqiy yetuklik, o'zaro e'tibor va ijtimoiy barqarorlik qaror topadi.

Madaniyat esa inklyuziv tafakkurning amaliy maydonidir. U tilda, san'atda, folklorida, adabiyotda, kundalik xulq-atvorda ifodalanadi. Inklyuziv madaniyat har bir insonni qadrlaydi, milliy birlikni kuchaytiradi va ijtimoiy mo'tadillikka hissa qo'shadi.

Insonparvarlik (gumanizm) — inklyuziv tafakkurning ma'naviy asosi. U insonni o'z taqdirining subyekt sifatida tan oladi. Bunday yondashuv jamiyatda "inson uchun yashash" falsafasini shakllantiradi.

Inklyuziv tafakkur insonparvarlikni amalda namoyon etadi: boshqani tushunish, yordam berish, ishonch bildirish, bag'rikenglik va muloqot — bularning barchasi jamiyatni mustahkamlaydi.

Shunday qilib, inklyuziv tafakkur — bu insoniyatni "birlashish orqali kuchli bo'lish" sari yetaklovchi falsafiy konsepsiyadir.

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarga nisbatan boshqacha nutqi nazardan turib yondashish ularning xatti harakatlarini cheklashga sabab bo'ladi. Bunday bolalar o'zlarini yolg'iz, kamsitilganday his etadilar. Ular o'z imkoniyatlarini namoyon qilishga tortinadilar.

Inklyuziya g'oyasi bolaning o'zi ta'lim tizimiga qo'shilishini anglatmaydi, balki ta'lim tizimining o'zi alohidalikka ega bo'lgan har bir bolani jalb etishga tayyor bo'lishi kerak. Chunki har bir bolada maktabdagi ta'lim maydoniga qo'shilish imkoniyati mavjud. Inklyuziv xarakterdagi ta'lim muhitini shakllantirish turli tumanlikka ega bo'lgan o'quvchilarga nisbatan munosabatning o'zgarishi bilan bog'liq. Bunda o'quvchilarning individualligi, o'ziga xosligiga e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy shakllarni izlashdagi hamjihatlik, o'quv jarayonida ularga o'zaro yordam berish va qo'llab quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Ta'limda inklyuziv yondashuvni amalga oshirish shunisi bilan alohida dolzarblik kasb etmoqdaki, u bolalar uchun o'ziga xos ahamiyatga ega. Mazkur jarayonda o'quvchilar akademik bilimlarni o'zlashtiradilar, o'z layotqatlarini to'la qonli tarzda namoyon etadilar va ijtimoiylashadilar hamda jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli moslashadilar. Inklyuzivlikning tabiatini tushunish uchun uning bolalarni dinamik tarzda rivojlantiruvchi jarayon ekanligini har tomonlama chuqur anglash lozim. Bu g'oya YuNESKO hujjatlarida ham o'z ifodasini topgan. Inklyuziya prinsipining asosini jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ko'p madaniyatlilik muhiti hamda rivojlanish jarayoni tashkil etadi.

Inklyuziv tafakkur zamonaviy jamiyatning falsafiy, ma'naviy va axloqiy zaruriyatidir. U insonni qadriyat sifatida tan olish, har bir shaxsning imkoniyatini e'tirof etish, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash g'oyalariga tayanadi.

Inklyuziv tafakkurga ega jamiyat — bu insonparvar, adolatli va barqaror jamiyatdir. Bunday tafakkur insoniyatni nafaqat ijtimoiy, balki axloqiy jihatdan ham yangi bosqichga olib chiqadi. Inklyuziv tafakkur kishilar o'rtasidagi tafovutlarni inkor etmasdan, balki ularni qadrlash va ijobiy kuch sifatida baholashga undaydi. Bu esa jamiyatda har bir inson o'zini erkin his qilishi, jamiyat ishlarida faol ishtirok etishi uchun qulay sharoit yaratadi. Bunday fikr yuritish demokratik qadriyatlarning amaliy ifodasi sifatida barqarorlikni ta'minlaydi.

Jamiyatda inklyuziv tafakkurni shakllantirish orqali ijtimoiy adolatga erishish mumkin. Chunki u nafaqat zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga, balki ularning rivojlanishiga imkon

berishga yo'naltirilgan. Bu o'z navbatida, ijtimoiy ziddiyatlar, tengsizlik va chetlab o'tish holatlarining oldini oladi.

Inklyuziv tafakkur nafaqat siyosiy yoki ijtimoiy sohada, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va boshqa muhim jabhalarda ham o'z aksini topadi. Masalan, ta'lim tizimida har bir bolaga shaxsiy yondashuv asosida bilim berish, imkoniyati cheklangan bolalar uchun integratsiyalashgan sharoit yaratish inklyuziv yondashuvning amaliy ko'rinishlaridandir. Bundan tashqari, iqtisodiy rivojlanishda ham inklyuziv tafakkur muhim rol o'ynaydi. Inklyuziv iqtisodiyot — bu barcha qatlamlarning iqtisodiy jarayonlarga jalb etilishi, ularning ehtiyoj va manfaatlari hisobga olinishi demakdir. Bu esa barqaror va muvozanatli iqtisodiy o'sishga olib keladi. Falsafiy jihatdan olib qaraganda, inklyuziv tafakkur insonni olam markaziga qo'yadi. U har bir insonni yagonaligi va betakrorligi bilan qadrlaydi. Bu tafakkur insonning ichki dunyosi, qadr-qimmatini va ehtiyojlarini tushunishga asoslanadi, shu sababli ham u jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlovchi kuchdir.

Xulosa. Inklyuziv tafakkur barqaror rivojlanishning chinakam asosi sifatida, har bir insonning jamiyatdagi o'rnini e'tirof etadi va ularning faol ishtirokini rag'batlantiradi. Bu orqali jamiyatdagi birdamlik, ijtimoiy hamjihatlik va o'zaro hurmat muhitini kuchaytirish mumkin bo'ladi. Bugungi global muammolar — ekologik inqiroz, qashshoqlik, migratsiya, tengsizlik kabi muammolarga inklyuziv yondashuvsiz yechim topib bo'lmaydi. Inklyuziv tafakkur ushbu muammolarga kompleks va insoniy nuqtai nazardan qarash imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv tafakkur nafaqat jamiyat rivojining yo'nalishini belgilab beruvchi, balki uning barqarorligini ta'minlovchi fundamental falsafiy asosdir. Bunday tafakkurni ommalashtirish va hayotga tatbiq etish orqali har bir fuqaro uchun adolatli, teng va barqaror kelajakni qurish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Alievna, C. M. (2024). The Importance of an Inclusive Society. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, 2(6), 95–97.
2. Широких, О. Б. (2023). Формирование ценностей социальной инклюзии как основа диалога поколений. *Р е ц е н з е н т ы: Доктор философских наук, профессор, проректор по научной работе Русской христианской гуманитарной академии имени ФМ Достоевского*, 125.
3. Alievna, C. M. (2025). What Is Inclusion and Why Is It Necessary in Education? *Western European Journal of Linguistics and Education*, 3(3), 113–116.
4. Heidegger, M. (1962). *Being and Time*. New York: Harper & Row.
5. Levinas, E. (1969). *Totality and Infinity*. Duquesne University Press.
6. Jonas, H. (1984). *The Imperative of Responsibility*. University of Chicago Press.
7. Nussbaum, M. (2011). *Creating Capabilities*. Harvard University Press.
8. UNESCO. (2015). *Education 2030: Towards Inclusive and Equitable Quality Education*. Paris: UNESCO.
9. Forobiy, A. N. (1993). *Fozil shahar ahlining qarashlari*. Toshkent: Fan.
10. Немченко, О. В. (2015). ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Инновационная наука в глобализующемся мире*, (1), 75-78.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

PROBLEMS IN DEVELOPING THE PROCESS OF UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY IN THE INFORMATION SPACE AND POSSIBILITY OF SOLVING THEM

Zakirova Nigora Khalmakhammatovna

Acting Associate Professor of the Department of “Social Sciences”
Institute of Social and Political Sciences,

Abstract. This article analyzes the challenges of understanding national identity within the information space. It discusses the impact of information flows, cultural and linguistic factors, and globalization on the preservation and development of national identity. Solutions for protecting national culture, strengthening language and traditions are proposed. The article identifies opportunities and strategies for advancing the process of understanding national identity in the information environment.

Keywords: information space, national identity, globalization, culture, language, challenges, solutions.

AXBOROT MAKONIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH JARAYONINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH IMKONIYATI

Zakirova Nigora Xalmaxammatovna

Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot makonida milliy o‘zlikni anglash jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish yo‘lida axborot oqimlari, madaniy va til omillari, shuningdek globalizatsiya ta‘siri muhokama qilinadi. Muammolarni hal etish uchun milliy madaniyatni himoya qilish, til va an‘analarni mustahkamlash bo‘yicha takliflar berilgan. Axborot makonida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish imkoniyatlari va strategiyalari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: axborot makoni, milliy o‘zlik, globalizatsiya, madaniyat, til, milliy identifikatsiya, muammolar, hal etish imkoniyatlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N38>

Kirish. Bugungi kunda takomillashib borayotgan axborotlashgan jamiyat insoniyat taraqqiyotni ham yangi bosqichiga olib chiqmoqda. Axborotlashgan jamiyat shakllanishi bilan xalqlar va davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik va integratsiya jarayonlari ham kuchayib, globallashuv to‘lqinining keng tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. Bu ikki – globallashuv va axborotlashgan jamiyat hodisalari bir-biriga chuqur ta‘sir ko‘rsatib, birgalikda takomillashib bormoqda. Hozirgi davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga davlat va jamiyat boshqaruv faoliyatini sifatli va oson amalga oshirishning zaruriy sharti sifatida qaralmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Dunyoda tobora kuchayib borayotgan globallashuv jarayonini inobatga oladigan bo‘lsak, bu xavfning kun sayin kattalashib borayotganligini anglash qiyin emas. S.K.Shayxitdinovanning fikricha: «Globallashuv o‘zining

barcha ijobiy tomonlari bilan birga, har bir zaif, qobiliyatsiz uchun global entropiya manbaidir. Jamiyatni o'zini himoya qilish, globallashtirishdan foyda olish uchun uning salbiy ta'siridan himoya qilish zarurdir» [1, 303 b.]. Yoshlarni salbiy ta'sirlardan himoya qilishning asosiy zarurati jamiyatni himoya qilish, buning uchun globallashtirish jarayonidagi har qanday xavf-xatarlarni anglash zarurligi va unga qarshi kurash olish immunitetini hosil qilishdir.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotiga ko'ra, «Dunyoda har 40 daqiqada bir marta suiqaqd sodir etiladi, 1 yilda qurbonlar soni million nafardan oshadi. E'tiborli tomoni, suiqaqd holatlari aholi yashash darajasi past mamlakatlarda ko'proq kuzatiladi. Joriy yilda JSST o'z joniga qasd qilish darajasi eng yuqori 10 ta davlat ro'yxatini tuzib chiqdi. Aniqlandiki, qo'shni Qozog'iston ushbu ro'yxatning 4-pog'onasida joylashgan, Markaziy Osiyo bo'yicha ro'yxatda esa O'zbekiston Qozog'istondan keyingi ikkinchi o'rinda bormoqda. O'z joniga qasd qilganlarning asosiy qismi 14-19 yoshdagi o'spirinlar hissasiga to'g'ri keladi. Ko'plab davlatlardan farqli o'laroq, Qozog'istonda yosh avlodning o'z joniga qasd qilish holati har yili avvalgi davr bilan taqqoslaganda 23 foizga oshib bormoqda. Maktabdagi bezorilik, qo'rqitish va qiynoqqa solish bu holatlarning asosiy sabablari bo'lmoqda. Ajablanarli tomoni, o'z joniga qasd qilayotganlarning 70 foizi sog'lom bo'lib, ularning aksariyati qishloqlarda yashagan» [2].

Muhokama. Bugungi axborotlashgan jamiyatda begonalashuv muammosi aynan shaxsdan boshlanadi. Har bir sohani axborotlashuvi va jamiyat hayotiga yangi texnologiyalarni joriy qilinishi orqali inson mustaqil fikrlashi, harakat qilishi, jamiyatning qat'iy belgilangan qonun-qoidalaridan tashqariga chiqish huquqini qo'lga kiritdi va shu tariqa begonalashuvning birinchi bosqichiga qadam qo'ydi. An'anaviy jamiyatda shaxsning begonalashuvi markaziy o'rinda turmagan. O'sha paytda ko'proq odamlarning jamiyat bilan munosabatlarida o'zgarishlar ma'naviy-axloqiy kontekstida yuz bergan xalos.

Hozirgi jamiyatda begonalashuvning o'lchovlari kengayib, uning vositalari ko'paydi. Internet ijtimoiy izolyasiya va begonalashuvga olib keladigan katta imkoniyat maydoniga aylanib ulgurdi. Ijtimoiy izolyasiya psixologik va hissiy alomatlariga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda ijtimoiy izolyasiyani keltirib chiqaradigan va begonalashuvni tezlashtiradigan texnologik vositalar va boshqa omillar (IPOD, mobil telefonlar, internet (chat, o'yin...) va boshqalar) soni ko'p. Masalan, biz bir stolda o'tirgan va bir-biridan ijtimoiy jihatdan ajratilgan odamlarni ko'rishimiz mumkin. Ulardan biri IPOD bilan shug'ullanadi, ikkinchisi mobil telefonda o'yin va ijtimoiy tarmoqlardagi "ko'ngilochar" videolarni tomosha qiladi, boshqasi mobil telefonda gaplashadi, yana biri esa Facebookda yuborgan so'nggi xabari qancha «layk» olganiga qaraydi. Bir stolni baham ko'rgan bu odamlar bir-birlari bilan muloqot qilishni emas, balki, virtual olamdagi «do'stlari» bilan suhbat qurishni afzal bilishmoqda. Bu holat ijtimoiy izolyasiyani va natijada begonalashuvni keltirib chiqaradi.

Haqiqiy hayot o'z o'rnini virtual olamga bo'shatib berayotganligi insonlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, hamsuhbat bo'lish, maslahatlashish kabi an'analarni ham yo'qqa chiqarmoqda. Agar inson turli sabablarga ko'ra suhbat muhitida o'zi tanimaydigan odamlar bilan suhbatlashishni afzal ko'rsa, u o'z atrofidagi barcha insonlar va jarayonlardan begonalashini boshlaydi.

Bugungi sharoitda axborotlashgan jamiyatning shakllanishi milliy davlatchilikni rivojlantirish, millat madaniyati va qadriyatlarini namoyon etish, globallashtirish davrida o'zlikni anglash raqobatbardoshligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Axborotlashgan jamiyatning rivojlanishi davlat va jamiyat oldiga qator masalalarni qo'yimoqdaki, ularning

echimi milliy davlatchilikni mustahkamlash va erishilayotgan yutuqlarga xizmat qiladi. Shu bilan birga, axborotlashgan jamiyatda axborot vositalaridan maqsadsiz foydalanish milliy birlik va umuman suveren davlatchilik yutuqlariga jiddiy tahdid solmoqda. Chunki uning kengayishi bilan madaniyat, o'zlikni, qadriyatni, milliy birlikni muhofaza qilish masalasi butunlay boshqacha ma'no kasb etdi. Shu sababli, «Axborotlashgan jamiyatda yuzaga keladigan real va potensial tahdidlarni hisobga olgan holda, milliy o'zlikni anglash jarayonini mustahkamlash va rivojlantirish davlat milliy xavfsizligini himoya qilishni ular faoliyatining muhim yo'nalishiga aylantirmoqda» [3, 22 b.].

Axborot makonida tarqatilayotgan turli mazmundagi ma'lumotlar ko'pincha umuminsoniy qadriyatlar me'zonlariga mos tushishi mumkin, ammo, milliy hususiyatlarni va qadriyatlarni xavf ostida qoldirishi ehtimoli ham yo'q emas. Bu axborotlar qaysi milliy kontekstda tarqatilishi kerakligiga katta e'tibor berilmagani holda, xalqning o'zligiga bo'lgan ta'sirni kamaytirish qiyin bo'ladi. Ijtimoiy fikrning mahalliy va xorijiy manbalarini yanada raqobatbardosh qilish uchun ularning faoliyati davr talabi va jarayonlariga mos kelishi alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan ham dunyoda yuz berayotgan ayrim voqealarni ichki voqelikni hisobga olgan holda mutanosib ravishda taqdim etish muhim. Umuman olganda, milliy o'zlikni anglash jarayonini himoya qilish ijobiy samaralar berishini inobatga olgan holda axborot urushi inkor etib bo'lmas haqiqatga aylandi. Zero, uzoq istiqbolda axborot-kommunikasiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi bilan uning jamiyat hayotiga ta'siri kuchayib, jiddiy choralar ko'rishni taqozo etadi. Ayniqsa, bugungi ijtimoiy tarmoqlar ommalashib, uning asosiy axborot manbalari qatoriga chiqishi o'zlikni anglash bilan bog'liq masalalarni yanada murakkablashtiradi.

Natijalar. Bugungi kunda dunyo miqyosida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soat sayin ko'payib bormoqda. Asrimiz boshida dunyo bo'yicha 2 mln kishi (1-ilova) ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan bo'lsa, 2024-yil yanvar oyi holatiga ko'ra bu ko'rsatgich 5,04 mlrd. kishi (dunyo aholisining 62,3% i) [4] ga (2-ilova) etdi. ««Telefon zombilari» jamiyatiga aylandik va ekranlarga bosh egib, nihoyasiz va bema'no axborot iste'molchisiga aylanayotirmiz» [5, 13-b.]. Aynan mana shu holat millat vakillari, ayniqsa yoshlarning milliy o'zligidan mahrum bo'lishlarini tezlashtirib, axborot olamiga tobora qaramlikni kuchaytirmoqda.

Bugungi ijtimoiy tarmoqlarlar orqali olib borilayotgan axborot tahdidlari tahlili shuni ko'rsatadiki, unda g'arazli maqsadlarni aks ettiruvchi ma'lumotlar kun sayin ko'payib, ularning ayrimlari davlat xavfsizligiga, xalq tinchligi, umuman, milliy o'zlikni anglashga jiddiy tahdid solmoqda. Agar bu holat kelajakda kengayib, virtual nizolar real nizolarga aylansa, milliy birlik uchun jiddiy xavfga aylanib, davlatchilik asoslariga tuzatib bo'lmaydigan salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois begonalashuvning oldini olishda ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli foydalanish, mavjud imkoniyatlar doirasida yoshlarning virtual makonda g'arazli, salbiy va begona g'oyalari ta'sirini kamaytirish uchun sharoit yaratilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy fikrni shakllantirishda audiovizual materiallardan g'arazli maqsadlarda foydalanish, shuningdek, ekstremistik guruhlar tomonidan fuqarolarni o'z saflariga jalb qilish uchun foydalanish milliy o'zlikni anglash jarayoniga tahdid hisoblanadi. Jahon mamlakatlari va umuman ziddiyatli hududlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, audiovizual materiallar zarur jamoatchilik fikrini shakllantirish va ayni paytda g'oyalarni taqdim etishda keng qo'llaniladi. Internetda turli xil qisqa videolar mavjud bo'lib, ular muayyan auditoriya uchun muayyan maqsadda ishlab chiqilgan va ularning markaziy g'oyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish

zarur. Audiovizual materiallar ishlab chiqarish studiyalari faoliyati va undan jamoatchilik fikrini shakllantirishda samarali foydalanish mamlakatning uzoq muddatli manfaatlariga javob beradi va jamoatchilik fikrini shakllantirishning ichki manbalarini mustahkamlaydi.

Axborot urushi doirasidagi tashqi ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikri va ichki axborot makoniga ta'sir etib, nomaqbul siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diniy talqinlarni e'lon qiladi. Bu harakat fuqarolarda davlatga nisbatan ishonchsizlikni shakllantirishga, birinchi navbatda norozilik kuchini oshirishga qaratilgan. Muhim siyosiy voqealar arafasida bunday axborot materiallari soni ortib, axborot xavfsizligiga, umuman, milliy birlik yutuqlariga jiddiy tahdid solmoqda. Shu boisdan ham milliy o'zlikni anglash jarayonini uzoq istiqbolda himoya qilish uchun fuqarolarda mish-mishlarga qarshi immunitetni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, jamoatchilik fikrini shakllantirishning ichki manbalarini va ichki axborot bazalarini an'anaviy va zamonaviy vositalardan foydalangan holda mustahkamlash ayniqsa muhimdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, nazarimizda, axborot makonida milliy o'zlikni anglash jarayonini rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud:

Birinchi, xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan talab va ehtiyojning ortib borishi o'zlikni anglash jarayonining asosi bo'lgan milliy til mavqe'ining pasayishiga turtki bo'lmoqda. Yoshlarning bir nechta xorijiy tillarni puxta o'rganishi yaxshi albatta, lekin o'z ona tiliga beparqolik, bepisandlik, behurmatlik qilish o'zlikni anglashdan yiroqlashtirishi shubhasizdir. Chunki, xorijiy til o'z navbatida xorijiy madaniyatlarni ham kirib kelishiga, tarqalishiga, milliy urf-odat, an'ana va madaniy hayotni salbiy ta'sirlar ostida qoldiradi. Natijada milliy til bilan birga milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning ham maqomi, jamiyatdagi mavqeyi pasayadi.

Ikkinchidan, yoshlar orasida taqlidchilik, o'zga xalq madaniyatiga intilishning kuchayib borayotganligi. Yoshlar asosan internet olami orqali tanilgan, ommaviy media orqali shuxrat qozongan "mashhur" insonlarning hayotini kuzatadi va shu insonga o'xshab hayot kechirishni orzu qiladi. Bu o'zga insonga taqlid qilish orqali o'zligdan mahrum bo'lishiga olib boradigan xatarli yo'l hamdir. Ilm, fan, kashfiyotlar sohasidagi mashhurlar hayotini o'rganish, ularni erishgan yutuqlariga havas qilish, shu insonlar kabi ishlarni amalga oshirishga intilish hissi bo'lsa, bu yaxshi albatta. Lekin, bugungi axborot olamida tez tanilish va shuxratga erishish uchun "zamonaviy usullar" ko'proq natija bermoqda.

Uchinchi, azaldan asrdan asrga o'tib kelayotgan ajdodlar merosini o'rganishning sustligi yoki qiziqishning susayib borayotganligi. Ulkan meros sifatida saqlanib kelayotgan ma'naviy boyliklar avlodlar tomonidan o'rganilmas, tadqiq qilinmas ekan, undan jamiyat a'zolari hech qachon foyda ko'rmaydi. Bu meroslar o'zga xalqlarning taraqqiyoti va boyishiga xizmat qilishi muqarrar. Chunki, ulkan ilmiy meros, o'tgan ajdodlar tajribalari aks etgan meroslarni o'rganish o'zlikni saqlab qolishning ob'ektiv yo'llaridan hisoblanadi.

To'rtinchidan, zamonaviy texnika vositalari – kompyuter, mobil qurilmalar, planshetlardan haddan ortiq bemaqsad foydalanish, ularga qaram bo'lish. Qay bir jamiyat a'zolari zamonaviy qurilmalarga ko'p vaqt sarflab, hayotini o'tkazayotgan bo'lsa, shu jamiyatlar bugun taraqqiyotdan orqada, o'zga jamiyatlar qo'lga kiritayotgan, kashf qilayotlan yutuqlarining iste'molchisi sifatida hayot kechirmoqdalar [6]. Kun davomida internetga sarflanadigan eng ko'p vaqt Shimoliy Afrika (9 soat 24 daqiqa), Yaponiya fuqarolari esa eng kam vaqt (3 soat 56 daqiqa) sarflar ekan (5-ilova).

Beshinchidan, globallashuv jarayonining shiddati. Globallashuv natijasida milliy qadriyatlarning milliylik chegarasi buzilib, umuminsoniy ahamiyat kasb etib ketishi va oqibatda milliylik xususiyatlari yo'qoladi.

Oltinchidan, yoshlarda tez boyib ketish hissining ortib borishi. Bugungi kunda internet tarmoqlari orqali moddiyatga qiziqtirishga oid videolar juda ko'plab uchraydi. «Boyib ketish sirlari»ni o'rgatish bilan shug'ullanadigan insonlar orqasidan ergashadigan, ularni maslahatiga amal qiladiganlar soni kun sayin oshib bormoqda.

Ettinchidan, axborot olamida tarqatilayotgan xolis va noxolis ma'lumotlarni saralash imkoniyatining kamayib borayotganligi. Axborotni tarqatuvchilar ma'lumotlarni o'z manfaatidan kelib chiqib amalga oshirishga harakat qiladi. Shuning uchun ham axborot tarqatuvchining maqsadi tarqatilayotgan ma'lumotlarda aks etadi. Aynan shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, g'arazli maqsadni ko'zlagan sub'ektlarning ma'lumotlarini foydali ma'lumotlardan ajrata olish ko'nikmasini yoshlarda shakllantirish muhim hisoblanadi.

Sakkizinchidan, milliylikni asrab-avaylash, uni targ'ib qilish, undan fahrlanish, g'ururlanish hissining yo'qolib borayotganligi.

Xulosa. O'zlikni anglashni rivojlantirish, begonalashish muammosini oldini olish, yoshlarda Vatanga, milliy madaniyat, urf-odat, an'ana va qadriyatlarga hurmat munosabatini shakllantirish hamda o'zimizga xos milliylikni asrab, uni keyingi avlodga etkazishda kuch va imkoniyatlarimiz etarli, faqat ulardan samarali foydalanish, axborotlashgan jamiyat sharoitida yaratilgan imkoniyatlarni shu masalaga yo'naltirish zarurdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Шайхитдинова С.К. Информационное общество и «ситуация человека»: Эволюция феномена отчуждения: диссертация ... доктора философских наук. - Казань, 2004. - 303 с.
2. Ўсмирлар неги ўз жонига қасд қилишади. 15 октябрь 2018 йил. <https://zamin.uz/jamiyat/43361-usmirlar-nega-uz-joniga-qasd-qiladi.html>.
3. Игнатов М.А. Феномен отчуждения человека в дискурсе информационно-сетевой культуры: автореферат дис. ... кандидата философских наук. - Белгород, 2011. - 22 с.
4. <https://datareportal.com/reports/digital-2024-global-overview-report> [10.12.2024]
5. Абу Муслим. Янги дунё. – Тошкент: ҚАҚНУС МЕДИА, 2017, 13 б.
6. <https://datareportal.com/reports/digital-2024-global-overview-report> [15.02.2025]

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THREATS OF INFORMATION IMPERIALISM

Primov Bakhiddin Abdirakhmonovich

Tashkent State University of Economics

Acting, Associate Professor, Department of Philosophy

Abstract. In this article, information imperialism appears as a new threat in the current globalization process, which seriously overshadows the political, economic and cultural independence of national states. Powerful countries are trying to control and own the mind of society by controlling the flow of information using the information resources and technologies that have been created, and in some sense they are succeeding. This situation leads to the weakening of national and world-recognized democratic values, the strengthening of authoritarian ideological influence, and the increase of information asymmetry. At the same time, we consider cyber security issues, protection of national information space, development of information security policy and reduction of threats of information imperialism by increasing information literacy of the population to be an urgent factor of our time.

Keywords: information pressure, information policy, information threat, information attack, information war, information imperialism, information security, information protection.

AXBOROT IMPERIALIZMI TAHDIDLARI

Primov Baxriddin Abdiraxmonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Falsafa kafedrası v.b., dotsenti.

G-mail: baxriddinprimov57@gmail.com

<http://orcid.org/0009-0008-8082-0098>

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot imperializmi hozirgi globallashuv jarayonida yangi tahdid sifatida namoyon bo'lmoqda, u milliy davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy mustaqilligiga ham jiddiy soya solmoqda. Qudratli davlatlar yaratilgan axborot resurslari va texnologiyalariga imkoniyatlaridan foydalanib ma'lumotlar oqimini nazorat qilish orqali jamiyat ongini boshqarishga, egalik qilishga intilmoqda hamda qaysidir ma'noda uddasidan ham chiqishmoqda. Bu holat milliy va dunyo tan olgan demokratik qadriyatlarining zaiflashuvi, avtoritar mafkuraviy ta'sirning kuchayishi hamda axborot assimetriyasining ortishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, kiberxavfsizlikka oid muammolar, milliy axborot makonini muhofaza qilish, axborot xavfsizligi siyosatini rivojlantirish va aholi axborot savodxonligini oshirish orqali axborot imperializmi tahdidlarini kamaytirish bugungi kunimizning dolzarb omili deb hisoblaymiz.

Kalit so'zlar: axborot bosimi, axborot siyosati, axborot tahdidi, axborot hujumi, axborot urushi, axborot imperializmi, axborot xavfsizligi, axborot muhofazasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N39>

Kirish. Eng kuchli ta'sir vositasiga ega bugungi kun axborot texnologiyalari insoniyatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayoti, ongi va zehniyatini o'zgartiruvchi muhim hamda hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda. Axborot oqimlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan davlatlar va transmilliy korporatsiyalar global miqyosda ta'sir o'tkazish vositasi sifatida axborot imperializmini shakllantirmoqda. Bu jarayon milliy davlatlarning axborot makoni ustidan mustaqil boshqaruvini cheklab, ularni tashqi manbalarga tobe etish xavfini

keltirib chiqaradi. Axborot imperializmi nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarda, balki milliy madaniyat, ma'naviyat va jamiyat ongini transformatsiya qilishda ham namoyon bo'ladi. Yuqoridagi tushuncha va fikrlardan kelib chiqib axborot imperializmi tahdidlarining ta'siri va uning oldini olishga ilmiy jihatdan to'xtalib o'tamiz.

Adabiyotlar tahlili. Axborot imperializmi masalasi jahon ilm-fanida turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan bo'lib, G'arb olimlari va tadqiqotchilari ko'proq global media korporatsiyalarning ta'siri va axborot oqimlarining assimetriyasi nuqtai nazaridan o'rganadilar. Misol tariqasida, G. Shiller axborot imperializmini iqtisodiy va madaniy ekspansiyaning yangi ko'rinishi sifatida baholab, uni "mafkuraviy nazorat vositasi" deb ta'kidlaydi. M. Kastels esa axborot jamiyati nazariyasida global tarmoqlar orqali kuchli markazlar zaif davlatlar ustidan nazorat o'rnatishini alohida qayd etadi. Shu bilan birga, rossiyalik tadqiqotchilardan A. Panarin va S. Kara-Murza axborot imperializmini milliy xavfsizlikka tahdid sifatida ko'rib, milliy media makonini rivojlantirish va ta'sir doirasini kuchaytirish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri ba'zan, proksi axborotlardan ham foydalanish zarurligini ta'kidlaydilar.

Bugungi kunda mamlakatimiz ilmiy doiralarida axborot imperializmi haqidagi qarashlar alohida yoritilmagan bo'lsada, lekin yurtimizdagi bir qator olimlari N.F. Murotova, N.K. Toshpo'latova, G.B. Alimova, D.M. Salimovlar tomonidan Markaziy Osiyo mintaqaviy kontekstda axborot tahdidlariga tahlili manbalar asosida to'xtalib o'tilgan va ilmiy qarashlarida o'z munosabatlar bildirishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolamizda tadqiqot metodologiyasiga asoslanib tizimli tahlil, analiz-sintez usullaridan, ilmiy doira vakillarining fikr mulohazalari, yuqoridagi ko'rib o'tilgan olim va tadqiqotchilar qarashlaridan foydalanildi. Axborot imperializmining nazariy asoslarini o'rganishda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, axborot xavfsizligi va global media ta'siriga oid ko'plab ma'lumotlar qiyosiy jihatdan o'rganildi. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida kuzatilayotgan axborot oqimlari kontent-tahlil orqali o'rganiladi. Metodologik asos sifatida axborot va madaniy imperializm konsepsiyasi qo'llaniladi. Mazkur ilmiy maqolamizni yoritishdan asosiy maqsad — axborot imperializmining milliy xavfsizligimizga ta'sirini aniqlash va tushuntirishdan iborat.

Tahlil va natijalar. Axborot texnologiyalari va u bilan bog'liq kommunikatsiyalarining yangi bosqichga ko'tarilishi axborotga egalik qilishga bo'lgan raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda. Bu esa axborot imperializmi tushunchasini yuzaga keltirib, bu — global axborot maydonidagi yangiliklar hamda ma'lumotlar oqimlarini, kommunikatsiya vositalari orqali siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy ustunlik maqsadida qudratli bir guruh davlatlar yoki transmilliy korporatsiyalar tomonidan nazorat qilish, boshqarish metodlarining yo'naltirilganligini anglatadi.

Urush va jangovar harakatlarsiz g'alabaga erishishning yangicha talqini, axborot imperializmi zamonaviy ko'rinishi sifatida shakllangan bo'lib, axborot texnologiyalari orqali boshqa xalqlar ongini, qadriyatlarini va ijtimoiy xulqini shakllantirish, ular ustidan ma'naviy hukmronlik o'rnatishni nazarda tutadi. Axborot imperializmi nazariyasi o'tgan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy muomalaga kirib kelgan bo'lib, uning ildizlari kommunikatsiya va global media tizimlarining notekis rivojlanishi bilan bog'liq. Bu nazariyaga ko'ra, rivojlangan davlatlar – ayniqsa AQSh, Buyuk Britaniya va boshqa G'arb mamlakatlari – axborot va media bozorlarini monopoliya qilib, dunyodagi axborot oqimlarining yo'nalishi va mazmunini belgilab bermoqda. Natijada, kam rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlar o'z milliy axborot

siyosatida mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lib, ularning axborot muhiti tashqi ta’sirlar ostida shakllanadi. Axborot imperializmi nazariyasida Shiller, Gerbner, Makfeyl, Herman va Chomski kabi g‘arblik olimlar muhim o‘rin tutadi. Masalan, Herbert Shiller “Madaniy imperializm” nazariyasida axborot va madaniy mahsulotlar eksporti orqali G‘arb mamlakatlari boshqa jamiyatlarning ongini mustamlaka qilishini bildiradi. Chomski esa “aqliy nazorat” va “rozilik ishlab chiqarish” g‘oyalarini ilgari surib, ommaviy axborot vositalari orqali jamoat fikrini manipulyatsiya qilish mexanizmlarini yoritgan.

Bu nuqtai nazardan qaraganda, G‘arbiy liberal-falsafiy yondashuvlar mafkuraviy shakllanishni iyerarxik hukmronlik emas, balki aksil-avtoritar va inkluziv normativlik doirasida talqin qiladi. Demak, G‘arbiy ilmiy maktablarda, ayniqsa, Harvard universiteti doirasida rivojlangan sekulyar-liberal konseptual yondashuvlar mafkura va ma’naviyatni zamonaviy jamiyatning ochiq, murosali va ko‘p identitetli strukturasi shakllanuvchi, doimiy ravishda qayta ishlab chiqiladigan ijtimoiy va axloqiy muvozanat maydoni sifatida izohlaydi. Bunday nazariy qarashlar jamiyatning turli ijtimoiy guruhlari o‘rtasida tan olinish, tenglik, va adolatga asoslangan muloqotni markazga qo‘ygan holda, ma’naviy-mafkuraviy barqarorlikning yangi modellari va ilg‘or shakllarini ishlab chiqishga zamin yaratadi [1].

Axborot imperializmi nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy ta’sir vositasi, balki madaniy gegemoniya shakli sifatida ham namoyon bo‘ladi, chunki u milliy identifikatsiyani so‘ndirish, mahalliy qadriyatlarni global stereotiplar bilan almashtirish orqali insonlarning dunyoqarashini o‘zgartirishga qaratilgan. Shu sababli bu nazariya axborot xavfsizligi, milliy media siyosat va ma’naviy mustaqillik muammolarini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot imperializmi ma’naviy-mafkuraviy yo‘nalish sifatida kuchli xarizmatik vositasi sifatida foydalanishga olib kelmoqda. Ushbu hodisa zamonaviy imperializmning yangi, g‘ayri-anaviy ko‘rinishi bo‘lib, u harbiy yoki iqtisodiy bosim orqali emas, balki axborot va mafkura orqali inson tafakkurini, qadriyat tizimini va ijtimoiy ongini o‘zgartirishga qaratilgan. Axborot ma’naviy-mafkuraviy imperializmi nazariyasiga ko‘ra, global media tizimi, internet tarmoqlari va ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali ma’lumotlar oqimi bir tomonlama – asosan G‘arb markazlaridan boshqa mintaqalarga yo‘naltiriladi. Bu jarayon natijasida milliy madaniyat, til, an‘ana va ma’naviy qadriyatlar tashqi axborot ta’siri ostida so‘nib boradi, jamiyatda yot g‘oyalar, individualizm va iste’molchilik mafkurasi ustun bo‘la boshlaydi. Bunday holatda millatning ma’naviy mustaqilligiga, mafkuraviy barqarorligiga va milliy o‘zlikni anglash jarayoniga jiddiy xavf tug‘iladi. Axborot ma’naviy-mafkuraviy imperializmi faqat axborot vositalari orqali emas, balki kino, reklama, internet platformalari, virtual madaniyat, musiqa va moda industriyasi orqali ham amalga oshiriladi. “Ma’naviy-axloqiy tarbiya, bir qarashda faqat shaxsga oid ko‘rinadi, aslida esa bu ijtimoiy ongning institutsional strukturalarini boshqaruvchi mexanizmdir”[2].

Uning asosiy maqsadi – jahon miqyosida umumiy “global madaniyat”ni shakllantirish orqali odamlarning ongini bir tipga solish, ularni ma’lum g‘oyalar, standartlar va qadriyatlar asosida boshqarishdir. Ilmiy nuqtai nazardan bu jarayon ma’naviy mustamlakachilikning axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan shakli sifatida qaraladi. Bunday imperializmga qarshi kurashish uchun milliy axborot siyosati, axborot xavfsizligi tizimi, sog‘lom milliy mafkura va ma’naviy immunitetni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Denys Predko ma’naviyatni “eksistensial-intensional soha” deb atab, uning imperativ xususiyatlarini asoslab


beradi: “ma’naviy imperativlar insonning qadriyatga asoslangan mavjudligi va o‘z o‘rnini bilishga intilishi orqali shakllanadi” [3] deb e’tirof etadi. Axborot ma’naviy-mafkuraviy imperializmining asosiy xavfi shundaki, u jamiyatni tashqi ta’sir kuchi bilan “ichidan” o‘zgartirib, milliy ongni zaiflashtiradi va mustaqil fikrlash qobiliyatini susaytiradi, shu bois bu masala zamonaviy axborot makonida ma’naviy barqarorlikni ta’minlashning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. A. Eshmurodov ushbu masalaga ijtimoiy ong darajasida yondashib, “ma’naviyat mafkuraviy xavfsizlikning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, u jamiyatning ichki ruhiy birdamligini ta’minlaydi” deya ta’kidlaydi [4].

Axborotlardan imperializmning an’anaviy urushlardan farqi shundaki, u qurolsiz, qon to‘kilmasdan amalga oshiriladigan, ammo natijada jamiyat ongi, dunyoqarashi va qadriyat tizimi ustidan nazorat o‘rnatishga qaratilgan kuchli ta’sir vositasidir. An’anaviy urushlar fizik hududni bosib olish, iqtisodiy resurslarni egallash yoki harbiy ustunlikni ta’minlashni maqsad qilsa, axborot imperializmi odamlarning ongini egallash, ularni ma’lum g‘oya va mafkuraga ishonitirish orqali mustamlakachilikni “ixtiyoriy” ko‘rinishda amalga oshiradi. Axborot urushida qurol sifatida snaryad yoki tank emas, balki ma’lumot, feyk xabarlar, targ‘ibot va media manipulyatsiyalar ishlatiladi. Uning asosiy maydoni jismoniy emas, balki ma’naviy va intellektual sohadir. Bunday ta’sir natijasida jamiyatda tashqi g‘oyalar milliy manfaatlardan ustun qo‘yiladi, mahalliy madaniyat va tarixiy qadriyatlar qadrsizlanadi, milliy birdamlik parchalanadi. An’anaviy urushlarni ko‘pchilik dushman sifatida ko‘radi va unga qarshi jipslashadi, axborot imperializmi esa ko‘zga ko‘rinmas yo‘l bilan, odamlarning o‘z fikri, dunyoqarashi va xulq-atvori orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun u an’anaviy urushlarga qaraganda xavfliroq, chunki jamiyatdagi odamlar uni “urush” sifatida emas, balki “erkin fikr”, “axborot almashinuvi” yoki “global integratsiya” deb qabul qiladilar. Ayniqsa bu ma’naviy manipulyatsiyaga olib kelib, yosh avlodning dunyoqarashining o‘zgarishiga ta’sir o‘tkazadi. E.H. Ibragimovning fikricha, “ma’naviy-ruhiy manipulyatsiyalar yosh avlod ongini boshqarishga qaratilgan strategik vositalar bo‘lib, ularning ichki erkinligi va mustaqil tafakkuriga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi” [5].

Natijada axborot imperializmi qurol ishlatmasdan ham butun millatning ma’naviy mustaqilligi va axborot suverenitetiga putur yetkazishi mumkin. Shu sababli zamonaviy dunyoda axborot makonini muhofaza qilish, milliy media tizimini mustaqil ravishda rivojlantirish va aholining axborot immunitetini oshirish har qanday harbiy mudofaadan kam bo‘lmagan darajada muhim vazifa hisoblanadi.

Axborot imperializmi ta’sirini kuchaytirish maqsadida radikalizmdan tahdid sifatida foydalanish zamonaviy geosiyosiy kurashning nihoyatda murakkab va yashirin usuli hisoblanadi. Bu usul orqali ma’lum kuchlar axborot maydonida radikal g‘oyalarni tarqatish, ularni ma’lum maqsadlarda qo‘llash va jamiyat ongini izdan chiqarish orqali ma’lum davlat yoki xalq ustidan siyosiy va ma’naviy nazorat o‘rnatishga intiladi. Radikalizm bu yerda mustaqil g‘oya sifatida emas, balki axborot manipulyatsiyasining vositasi sifatida qo‘llaniladi. Ya’ni, tashqi kuchlar yoki global axborot markazlari ma’lum din, millat yoki siyosiy guruh obrazini sun’iy ravishda “radikal tahdid” sifatida namoyon qilib, jahon hamjamiyatida u haqida salbiy tasavvur shakllantiradi. Bu orqali ular axborot oqimlarini nazorat qiladi, kerakli joyda xavf muhitini yaratib, siyosiy bosim o‘tkazish yoki harbiy aralashuvni oqlash uchun zamin hozirlaydi. Shu bilan birga, radikalizmni axborot quroli sifatida ishlatish jamiyat ichida ham ijtimoiy qarama-qarshiliklarni kuchaytiradi, millatlararo va dinlararo ishonchni susaytiradi,

yoshlar ongida keskin g'oyaviy bo'linishni vujudga keltiradi. Bu borada o'tkazgan onlayn so'rovnomamizda natijalari quyidagi diagrammada o'z aksini topgan.



Diniy radikalizm va terrorizmning internet to'ridan foydalanishini bilasizmi? Uni tarqatmaslik, saqlamaslik va layk bosmasliknichi deb ko'rsatilgan savolga ishtirokchilarning xulosasini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin.

*** Xabardorlik darajasi yuqori:**

424 nafar ishtirokchi yuqori ko'satkichi (**53.4%**) diniy radikalizm va terrorizmning internetdagi turli kanallar va saytlar orqali tarqatilayotganligidan **xabardorligini bildirishgan**. Bu holat jamiyatda olib borilayotgan targ'ibotlarga bo'lgan e'tiborga befarq emasligini ko'rsatadi.

*** Huquqiy bilimga ega bo'lganlar:**

257 kishi (**32.5%**) ayni faoliyat uchun **jinoiy javobgarlik mavjudligini bilishadi**. Bu aholining salmoqli qismi qonun ustuvor va chora-tadbirlar aniq, jazo muqarrarligidan ham ogoh.

*** Xabarsizlik darajasi past:**

66 nafar (**8.4%**) ishtirokchi xabari yo'qligini bildirishgan. Bu holat xavf borligini ko'rsatish bilan birga, insonlar hali ham noto'g'ri axborotga ishonib qolayotganini anglatadi.

*** Yangi xabardor bo'lganlar:**

45 kishi (**5.7%**) bu savol orqali respondentlarning **birinchi marta xabardor bo'lgani bildiradi**. Bu esa olib borilgan so'rovlar va targ'ibot tadbirlarining nechog'lik ahamiyatli va samaradorligi yuqoriligini ko'rsatadi.

Bundan ko'rinadiki, jamiyatimizda axborot savodxonligini yanada oshirish taqozo etmoqda.

Bu esa mamlakatning ichki barqarorligi va ma'naviy xavfsizligi uchun jiddiy tahdid tug'diradi. Axborot imperializmida radikalizmdan foydalanishning asosiy mohiyati shundaki, u to'g'ridan-to'g'ri qurol ishlatmasdan ham jamiyatni ichidan bo'lib tashlaydi, uning ongiy birligini yo'qotadi va tashqi kuchlar ta'siriga moyil muhit yaratadi. Shu tarzda radikalizm

axborot imperializmining strategik vositasi sifatida faoliyat ko'rsatib, ma'lum bir davlatning ichki siyosiy tizimini izdan chiqarish, uning xalqaro imijini yomonlashtirish va milliy suverenitetini zaiflashtirishda xizmat qiladi. Shu sababli bu hodisani faqat diniy yoki siyosiy masala sifatida emas, balki axborot xavfsizligi va ma'naviy mustaqillik nuqtai nazaridan ham ilmiy tahlil qilish zarur.

Bugungi kunda to'g'ridan-to'g'ri ba'zida, undan aylanib o'tuvchi proksi axborotlardan ham foydalanish manbasi sifatida qo'llanilmoqda. Proksi axborotlardan imperializm vositasi sifatida foydalanish – bu zamonaviy geosiyosiy va axborot kurashining murakkab shakli bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazmasdan, balki vositachilar orqali ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish va jamoat ongini boshqarish usulini anglatadi. Proksi axborot deganda ma'lum manfaatlarga xizmat qiladigan, tashqi kuchlar tomonidan yaratilgan yoki yo'naltirilgan axborot oqimlari tushuniladi. Bunday axborotlar ko'pincha mustaqil yoki mahalliy manbalar orqali tarqatilgandek ko'rsatiladi, ammo aslida ularning ortida ma'lum siyosiy, iqtisodiy yoki mafkuraviy markazlar turadi. Proksi axborotlar imperializm vositasi sifatida qo'llanilganda, maqsad muayyan mamlakat yoki jamiyatda tashqi kuchlar manfaatiga mos ijtimoiy fikrni shakllantirish, ichki beqarorlikni kuchaytirish, milliy birdamlikni zaiflashtirish va aholini ma'lum g'oya yoki pozitsiyaga moyil etishdan iborat bo'ladi.

Bu usul an'anaviy propaganda dan farqli ravishda yashirin va psixologik ta'sir mexanizmlariga tayanadi, chunki proksi axborot ko'pincha ishonchli va mahalliy manba sifatida qabul qilinadi. Masalan, xalqaro media tarmoqlar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatiladigan ma'lumotlar yordamida ma'lum bir mamlakatning ichki siyosati, iqtisodi yoki madaniyati haqida salbiy tasavvur yaratish mumkin. Bu esa axborot imperializmining yangi, ko'zga ko'rinmas, ammo ta'sirli shakli sifatida namoyon bo'ladi. B. A. Primov "Zamonaviy axborot oqimlari shiddati yoshlar ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda ikki qirrali ta'sir ko'rsatmoqda: bir tomondan u tafakkurni kengaytirsa, ikkinchi tomondan ma'naviy bo'shliqlarni vujudga keltirish xavfini kuchaytiradi"[6]. Proksi axborotlar orqali amalga oshirilayotgan ta'sir jarayoni jamiyat ongiga "ichidan" o'zgartirish, uni tashqi g'oyalarga moyil qilish va milliy axborot muhitini izdan chiqarishga qaratilgan bo'ladi. Shu bois bu hodisa axborot xavfsizligi va ma'naviy mustaqillik uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. Unga qarshi samarali kurashish uchun milliy axborot makonini muhofaza qilish, ishonchli manbalarni rivojlantirish va aholining axborot madaniyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Prezidenti o'zining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmonida tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi orqali bu maqsadlarni yanada chuqurlashtirishni ko'zlagan holda quyidagilarni ilgari surdi: "Har bir fuqaroga o'z salohiyatini to'liq namoyon etish imkoniyatini yaratish, adolatli, qonun ustuvorligi ta'minlangan va xavfsiz jamiyatni shakllantirish – bizning strategik maqsadimizdir" [7] degan fikrni ilgari suradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, axborot imperializmi va uning ma'naviy-mafkuraviy hamda proksi axborotlar orqali namoyon bo'luvchi ko'rinishlari zamonaviy global tizimda jamiyatlar ongi ustidan nazorat o'rnatishning eng samarali vositasiga aylangan. Bu hodisa an'anaviy harbiy va iqtisodiy bosim shakllaridan farqli ravishda inson tafakkurini, milliy dunyoqarashni va qadriyat tizimini izdan chiqarish orqali mustamlakachilikning yangi, ilg'or mexanizmlarini namoyon etadi. Axborot imperializmi jismoniy hududlarni emas, balki ma'naviy makonni egallashga qaratilgan bo'lib, u axborot oqimlari, ommaviy kommunikatsiyalar, madaniy mahsulotlar va raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiriladi.

Shu orqali global kuchlar jahon miqyosidagi axborot maydonida monopoliya oʻrnatib, milliy davlatlarning axborot suverenitetini cheklaydi, ularning ijtimoiy ongini tashqi taʼsirlar orqali boshqarish imkoniyatiga ega boʻladi. Natijada jamiyatda milliy mafkura soʻnishi, maʼnaviy qadriyatlar oʻzgarishi va ongli ravishda “axborot mustamlakasi”ga aylanish jarayoni yuzaga keladi.

Bu jarayonlarni ilmiy jihatdan tahlil etar ekanmiz aytish mumkinki, axborot imperializmi XXI asrdagi “quolsiz urush”ning asosiy shakli boʻlib, uning taʼsir doirasi siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni qamrab olgan. Shu sababli milliy axborot xavfsizligini taʼminlash, axborot madaniyatini oshirish, mahalliy media tizimlarni mustaqil ravishda rivojlantirish va aholini axborot manipulyatsiyalariga nisbatan immunitetli qilish davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifa boʻlishi lozim. Faqat shundagina millatning maʼnaviy mustaqilligi, mafkuraviy barqarorligi va axborot suvereniteti asrab qolinishi mumkin boʻladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Taylor Ch. (1992). The Politics of Recognition. In: Multiculturalism and the Politics of Recognition. – Princeton: Princeton University Press. – B. 36–38.
2. Primov B.A. Axborot oqimi jadallashuvining yoshlar maʼnaviy-axloqiy tarbiyasiga taʼsiri (ijtimoiy-falsafiy tahlil). – Toshkent: TDIU, 2020. – 147 b. (58-bet).
3. Predko, D. (2020). Imperatives of Spirituality: Essence and Key Meanings. – Beytulhikme, Vol. 10. – b. 69–78.
4. Eshmurodov A.T. Jamiyatda maʼnaviy xavfsizlikni taʼminlashni takomillashtirish texnologiyalari. Dissertatsiya. – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy universiteti, 2020. – 162 b. (53-bet).
5. Ибрагимов Э.Х. Маънавий-руҳий манипуляциянинг ёшлар дунёқарашига таъсири. – ҚарДУ, 2020. – 134 б. (66-бет).
6. Primov B. A. Axborot oqimi jadallashuvining yoshlar maʼnaviy-axloqiy tarbiyasiga taʼsiri (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Dissertatsiya. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – Toshkent, 2020. – 147 b. (56-bet).
7. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – Toshkent: “Oʻzbekiston” nashriyoti, 2021. – 354 b.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

SOCIOLOGICAL AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE CONTEXT OF HUMANITARIAN APPROACHES

Karimov Zafarbek Ataboyevich

Urgench State Pedagogical Institute

Department of National Idea and Philosophy, Associate Professor

E-mail: kzafarbek727@gmail.com

Abstract. This article scientifically analyzes the role and significance of humanitarian approaches in the sociological and philosophical study of the education system. In today's era of globalization and information, educational processes are manifested not only as a means of knowledge transfer but also as an important social institution ensuring the moral and spiritual development of the individual. From this point of view, humanitarian approaches serve to evaluate the education system on the basis of humanistic principles, to enhance the dignity of the individual, independent thinking, and creative potential. The article highlights the reforms in the education system, their impact on the development of society, and their role in shaping social consciousness through the integration of sociological and philosophical methods. In addition, it examines the integration of cultural heritage, national and universal values, the strengthening of democratic principles, and the process of educating the younger generation as mature individuals. As a result, the relevance of developing the education system on the basis of humanitarian approaches is substantiated.

Keywords: education system, sociological analysis, philosophical approach, humanitarian approach, reforms, humanism, values, personal development, social consciousness, globalization.

TA'LIM TIZIMINI SOTSIOLOGIK-FALSAFIY TAHLIL QILISHDA GUMANITAR YONDASHUVLAR

Karimov Zafarbek Ataboyevich

Urganch davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya va falsafa kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim tizimini sotsiologik-falsafiy tahlil qilishda gumanitar yondashuvlarning o'rnini va ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Bugungi globallashtirish va axborot asrida ta'lim jarayonlari nafaqat bilim berish, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashda ham muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, gumanitar yondashuvlar ta'lim tizimini insonparvarlik tamoyillari asosida baholash, shaxsning qadr-qimmatini, erkin fikrlashini va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada sotsiologik va falsafiy metodlarning uyg'unligi asosida ta'lim tizimidagi islohotlar, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri hamda ijtimoiy ong shakllanishidagi o'rnini yoritiladi. Shuningdek, ta'limda madaniy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining integratsiyasi, demokratik tamoyillarni mustahkamlash va yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalash jarayonlari tahlil qilinadi. Natijada, ta'lim tizimini gumanitar yondashuvlar asosida rivojlantirishning dolzarbligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, sotsiologik tahlil, falsafiy yondashuv, gumanitar yondashuv, islohotlar, insonparvarlik, qadriyatlar, shaxs kamoloti, ijtimoiy ong, globallashtirish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N40>

Kirish. Bugungi globallashtirish va axborot asrida ta'lim tizimi jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tiborni qaratmoqda. Chunki ta'lim nafaqat

bilim va ko'nikmalarni beruvchi jarayon, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti, ijodiy salohiyati va ijtimoiy ongini shakllantiruvchi omil sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Shu bois ta'limni faqat texnologik yoki tashkiliy jihatdan emas, balki sotsiologik va falsafiy nuqtai nazardan ham tahlil etish zarur bo'lib qolmoqda.

Ta'lim jarayonida gumanitar yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar insonni markazga qo'yib, uning qadr-qimmatini, erkin fikrlashi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Ayniqsa, bugungi kunda jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, milliy va umuminsoniy merosni uyg'unlashtirish, yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalashda gumanitar yondashuvlarning falsafiy va metodologik asoslari katta o'rin tutadi.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimini sotsiologik-falsafiy tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u jamiyatning ma'naviy taraqqiyotini chuqur anglash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va kelajak avlodni ma'rifatli, insonparvar ruhda shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada ta'lim tizimidagi gumanitar yondashuvlarning o'rni, ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati hamda global jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi falsafiy va sotsiologik metodlar asosida tahlil qilinadi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz taraqqiyotining muhim tarixiy jihatlaridan biri sifatida milliy-ma'naviy merosimizning yangicha talqin asosida tiklanishi va chuqur anglanishi jarayoni boshlandi. Xususan, qadimiy ilmiy, diniy hamda tasavvufiy manbalarda mujassam bo'lgan barkamollikka yetaklovchi, ma'rifat va komillikni targ'ib qiluvchi g'oyalar qayta o'rganilmoqda. Mazkur manbalarni zamonaviy jamiyatimiz ehtiyojlari nuqtai nazaridan tadqiq etish orqali ularning ma'naviy va falsafiy asoslari yangi mazmun kasb etmoqda. Shu tariqa tarixiy merosni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib, bugungi taraqqiyot jarayonlariga tatbiq etish borasida ilmiy izlanishlar chuqurlashib bormoqda. Bu esa, jamiyat taraqqiyotining ma'naviy poydevorini mustahkamlashda va shaxs kamolotiga xizmat qiluvchi g'oyalarni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Fuqarolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu g'oyalar, hayotiy e'tiqodi bo'lgan insonlargina bunyod eta olishi, shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom va ma'rifatli avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazish ishiga muhim ahamiyat berilayotgani asoslab berildi, ya'ni milliy istiqloq mafkurasining asosiy g'oyalari qatorida komil inson g'oyasi alohida o'rin tutishi belgilab berildi"[1].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. So'nggi davrlarda yosh avlodni barkamol inson darajasida voyaga yetkazish, ularni ma'rifatli va ongli shaxs sifatida shakllantirish masalasi jamiyat a'zolarining eng muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Zero, tarixiy taraqqiyotimizga nazar tashlasak, buyuk ajdodlarimiz yuksak ilm-fan, ma'naviyat va ilg'or tafakkur sohiblari bo'lib, asrlar davomida insonni komillikka yetaklashni bosh maqsad qilib kelganlar. Shu jihatdan, ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek: "Inson tafakkurining quvvati va kengligi, avvalo, muallim tarbiyasiga bog'liq". Ushbu hikmatli so'zlar jamiyatda ma'rifatparvarlik muhitini shakllantirishning naqadar muhimligini ko'rsatadi.

Aslida, ilm-ma'rifatga e'tibor qaratish va yoshlarni bilimli qilib tarbiyalash mustaqillikning ilk yillaridanoq ustuvor yo'nalish sifatida davlat siyosatida o'z aksini topgan edi. Xususan, talaba-yoshlarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning yurt taraqqiyotiga qo'shadigan hissasini kuchaytirish maqsadida "Umid" jamg'armasi tashkil etildi.

Mazkur tashabbus doirasida yuzlab yoshlar Yevropa mamlakatlari, Turkiya hamda Amerika Qo'shma Shtatlarining yetakchi oliy ta'lim muassasalariga yuborildi. Bu jarayon nafaqat ularning shaxsiy intellektual salohiyatini oshirdi, balki mamlakatimizning global ilmiy-ma'naviy maydonda o'z o'rnini mustahkamlashga ham xizmat qildi.

O'zbekistonda "...o'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi istiqloq yillarida hal qiluvchi masalaga aylandi"[2].

Ta'lim tizimini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etish, unda mavjud bo'lgan qadriyatlarining o'ziga xos tomonlarini yoritish imkonini beradi hamda ushbu qadriyatlar ta'limiy makonni global miqyosda uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi maxsus tamoyillar bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'limni globallashtirishning amaliy natijalaridan biri sifatida "uning mahalliy va xalqaro darajada yaqqol xalqaro tus olish jarayoni namoyon bo'lmoqda" [3]. Biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, "ta'limning yagona nazariyasi dinamik o'zgaruvchan dunyoda o'z dolzarbligini yo'qotishi mumkin, chunki ta'limning har bir jihati ba'zan o'zining amaliy-tarbiyaviy funksiyasini bajara olmaydi. Bularning barchasi ijtimoiy hayotning mavjud realiyalari bilan bevosita bog'liq bo'lgan o'ziga xos ustanovkalarga ega" [4], bu esa insoniyat jamiyatining tarixiy va madaniy rivojlanish jarayonida zamonaviy tendensiyalar fonida o'z aksini topadi.

Ma'lumki, sivilizatsiyaning tarixiy shakllanish jarayonlariga xos bo'lgan qonuniyatlar inson va jamiyat hayotining barcha sohalarini o'rganish va ularning rivojlanish xususiyatlarini tahlil etishni taqozo qiladi. Ushbu jarayon, avvalo, har bir shaxsning o'zini o'zi tarbiyalash va ma'naviy kamolot sari intilish faoliyatini qamrab oladi. Shu bilan birga, insonning jamiyatdagi o'rni, taqdir birligi va rivojlanish qonunlari bilan boshqa shaxslar bilan uzviy aloqadorligi, turmushda mavjud bo'lgan ko'plab ziddiyat va murakkabliklarga qaramasdan, o'z mohiyatini saqlab qoladi. Mazkur dunyoqarash asosni ilmiy jihatdan o'rganish ijtimoiy-falsafiy tafakkurda allaqachon shakllangan an'anaga ega bo'lib, unda mavjud voqelikni baholashda tanqidiy yondashuv ustuvor o'rin tutadi. Falsafiy tafakkur esa, aynan shu asosda, zamonaviy ta'lim tizimida muhim yangilanishlar va islohotlarni amalga oshirish uchun nazariy maqsad va amaliy vazifalarni belgilab beradi.

Shuningdek, ta'lim jarayonini tahlil qilishda shuni alohida qayd etish lozimki, idealizm, realizm, pragmatizm va shu kabi falsafiy ta'limotlarda ilgari surilgan tarbiyaviy g'oyalar o'zining nazariy va amaliy ahamiyati bilan pedagogik tafakkur taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan, pedagog shaxsiy ta'limiy falsafasini shakllantirish jarayonida asosiy ta'limiy nazariyalarni chuqur anglab yetishi lozim, chunki bu nazariyalar o'qituvchining metodik qarashlari, tarbiyaviy tamoyillari va shaxsiy dunyoqarashini boyitadi. Bunday yondashuv, tabiiyki, o'quv jarayonidagi ishtirokchilar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlarda ham aks etadi. Natijada, o'qituvchining falsafiy tafakkur darajasi, uning ilmiy va ma'naviy pozitsiyasi ta'lim jarayonining umumiy samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanadi.

Mazkur mulohaza, aslida, ta'lim jarayonida an'anaviy avtoritar yondashuvlardan bosqichma-bosqich voz kechib, demokratik tamoyillarga asoslangan yangi pedagogik madaniyat shakllanayotganidan dalolat beradi. Ishonch, mehr-muhabbat va insonparvarlikning ustuvorligi esa ta'limni faqat bilim berish vositasi sifatida emas, balki

shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi ijtimoiy institut sifatida talqin etishga imkon yaratadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim muassasalarida shakllanadigan ishonch, samimiylilik va emotsional yaqinlik tamoyillari nafaqat ta'lim jarayoni davomida, balki bitiruvchilar faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta'lim ishtirokchilarining o'zaro sadoqati va layoqati gumanistik qadriyatlarning barqaror shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur sadoqat bitiruvdan keyin ham saqlanib qolsa, ta'lim oluvchilarning axloqiy-etik qarashlari, ijtimoiy xulq-atvori va qadriyatlar tizimi yetarlicha barqaror bo'lib qoladi. Bu esa, o'z navbatida, "ta'lim jarayonining tarbiyaviy samaradorligini va uning insonparvarlik yo'nalishini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi" [5].

Ta'lim tizimini sotsiologik-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etish, eng avvalo, jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy-madaniy omillarni chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Chunki ta'lim nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantiruvchi jarayon, balki ijtimoiy qadriyatlar, madaniy meros va ma'naviy tamoyillarning avloddan-avlodga uzatilish mexanizmidir. Shu ma'noda, gumanitar yondashuvlar orqali ta'lim tizimi inson shaxsining barkamol rivojlanishini ta'minlovchi, ijtimoiy munosabatlarning uyg'unlashuvini kafolatlovchi, madaniyat va axloqiy qadriyatlarning uzluksizligini ta'minlovchi jarayon sifatida talqin qilinadi.

Sotsiologik-falsafiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimida gumanitar yondashuvlar insonni faqat obyekt sifatida emas, balki faol subyekt sifatida ko'rishga asoslanadi. Bu yondashuv ta'limning ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyatini kengroq ochib beradi, chunki ta'lim shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning eng samarali maydonidir. Shu bois, ta'limni tahlil qilishda nafaqat uning iqtisodiy yoki siyosiy jihatlari, balki insoniylik, erkinlik, ijodkorlik va ma'naviyat kabi qadriyatlar markaziy o'rinda turadi.

Metodologik jihatdan olganda, ta'lim tizimini gumanitar yondashuvlar asosida sotsiologik-falsafiy tahlil qilishda quyidagi asosiy metodlar va prinsiplardan foydalanish lozim:

- Fenomenologik yondashuv – ta'lim jarayonida insonning ichki dunyosi, idroki va tajribasini tahlil qilish, uning ijtimoiy faoliyatda qanday shakllanishini o'rganish.
- Germenevtik metod – ta'lim tizimini insoniyatning ma'naviy merosi va madaniy qadriyatlarini sharhlash va anglash vositasi sifatida o'rganish.
- Dialektik metod – ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni aniqlash, ularning rivojlanish mexanizmlarini ochib berish va integratsion jarayonlarni tahlil qilish.
- Aksiologik yondashuv – ta'lim tizimida shakllanayotgan qadriyatlar tizimini baholash, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini aniqlash.
- Komparativ metod – turli mamlakatlar ta'lim tizimlarini taqqoslash orqali gumanitar tamoyillarning umumiy va o'ziga xos jihatlari tahlil qilish.

Metodologik asos sifatida ta'lim tizimining nafaqat bilim berish jarayoni, balki insoniy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyotning tayanch instituti sifatida qaralishi zarur. Shu nuqtai nazardan, gumanitar yondashuvlar ta'lim jarayonida inson shaxsini markaziy o'ringa qo'yadi, bu esa ta'lim tizimini yanada mukammal va insonparvar qilishga xizmat qiladi.

Natijalar. Yuqoridagi ilmiy mulohazalar va tahlillar asosida bir qator natijalarga erishildi:

- Ta'lim tizimining ijtimoiy-falsafiy tahlili uning faqat bilim berish vositasi emas, balki jamiyat ma'naviy-axloqiy hayotining muhim tarkibiy qismi ekanini ko'rsatdi. Ta'lim

- qadriyatlarni shakllantirish, milliy va umuminsoniy g'oyalarni tarbiyalash hamda avlodlar o'rtasida uzviylikni ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi.
- Gumanitar yondashuvlarning metodologik ahamiyati aniqlandi. Xususan, idealizm, realizm, pragmatizm kabi falsafiy oqimlarda ilgari surilgan tarbiyaviy g'oyalar hamda fenomenologik va germinenvtik yondashuvlar ta'lim jarayonini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa pedagog shaxsining falsafiy dunyoqarashi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.
 - Global jarayonlarning ta'siri ochib berildi. Ta'lim tizimida internatsionallashuv va globallashuv natijasida milliy an'analar bilan birga umumjahon tajribasidan foydalanish muhim omilga aylandi. Shu bilan birga, ta'limda yagona nazariy yondashuvning doimiy ustuvorligi emas, balki zamon talablariga mos moslashuvchanlik zarurligi isbotlandi.
 - Shaxsga yo'naltirilganlik va tarbiyaviy qadriyatlar asosiy yo'nalish sifatida ajratildi. Abdulla Avloniy kabi ma'rifatparvar allomalarning merosi shuni ko'rsatadiki, ta'lim inson tafakkurining kengligi va qudratini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois yoshlarni ma'rifatli, erkin fikrlaydigan va komil inson sifatida tarbiyalash ta'lim tizimining bosh maqsadidir.
 - Ta'limdagi ijtimoiy ishonch va layoqatlilik qadriyatlari muhim natija sifatida qayd etildi. Zamonaviy tadqiqotlar ko'rsatganidek, o'qituvchi va talaba o'rtasida shakllanadigan ishonch, samimiylik va mehr-oqibat hatto ta'limdan keyin ham saqlanib, bitiruvchilarning barqaror axloqiy va ma'naviy pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim tizimini sotsiologik-falsafiy tahlil qilishda gumanitar yondashuvlar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Ular ta'lim jarayonining insonparvarlik mezonlari asosida rivojlanishini ta'minlab, shaxs kamolotiga, ijtimoiy ong shakllanishiga hamda jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Demak, ta'lim tizimini gumanitar yondashuvlar asosida takomillashtirish zamonaviy globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, yoshlarni barkamol inson sifatida tarbiyalash va demokratik tamoyillarni mustahkamlashning muhim sharti sifatida e'tirof etilishi lozim.

Umuman, natijalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimini sotsiologik-falsafiy tahlil qilishda gumanitar yondashuvlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy jamiyatning insonparvar va ma'rifatli rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Muhokama. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimini sotsiologik-falsafiy tahlil qilishda gumanitar yondashuvlar bevosita shaxs va jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-uslubiy vosita hisoblanadi. Avvalo, ta'lim jarayonida inson shaxsi faol subyekt sifatida ko'rilishi uning ma'naviy va axloqiy shakllanishida hal qiluvchi omil ekanligi tasdiqlandi. Shu nuqtai nazardan, Avloniy kabi ma'rifatparvar allomalarning g'oyalari bugungi ta'lim strategiyalarida ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Bundan tashqari, globallashuv jarayonlari ta'lim tizimini internatsionallashuv sari yo'naltirar ekan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish zaruriyati yanada ortmoqda. Bu jarayon ta'lim nazariyalarining doimiy yangilanib borishini, turli falsafiy oqimlarning tarbiyaviy g'oyalari va metodologik tamoyillarini qayta baholashni talab etadi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat ta'kidlanishi lozim: o'qituvchi shaxsining falsafiy dunyoqarashi, uning idealizm, realizm yoki pragmatizm kabi yondashuvlardan

foydalanishi ta'lim sifati va tarbiyaviy samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ishonch, samimiylik va mehr-oqibatga asoslangan insonparvar yondashuvlar bitiruvchilarning axloqiy-ruhiy barqarorligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Demak, gumanitar yondashuvlar asosidagi sotsiologik-falsafiy tahlil nafaqat nazariy darajada, balki amaliyotda ham ta'lim tizimini yanada mukammal rivojlantirish uchun ilmiy asos va metodologik yo'nalish vazifasini bajaradi.

Xulosa. Ta'lim tizimini sotsiologik-falsafiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim faqat bilim berish jarayoni emas, balki inson shaxsining ma'naviy-axloqiy shakllanishi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy institutdir. Gumanitar yondashuvlar asosida olib borilgan izlanishlar ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilganlik, ma'naviyat va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlashning muhimligini namoyon etdi.

Globalashuv sharoitida ta'lim tizimi milliy va xalqaro tajribalarni integratsiya qilgan holda, internatsionallashuv jarayonlariga moslashmoqda. Biroq bunda milliy qadriyatlar, falsafiy meros va ma'naviy an'analarga tayangan holda, zamon talablariga javob beradigan yangicha ta'lim falsafasini shakllantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, pedagog shaxsining falsafiy dunyoqarashi, ishonch va insonparvarlik tamoyillari ta'lim samaradorligini oshiruvchi hal qiluvchi omillardan biri sifatida belgilandi. O'qituvchi va talaba o'rtasida shakllanadigan mehr-oqibat va axloqiy qadriyatlar bitiruvchilarning keyingi hayotida ham barqaror yo'nalish vazifasini bajarishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Ta'lim tizimini sotsiologik-falsafiy tahlil qilish jarayonida gumanitar yondashuvlarning o'rni beqiyos ekanligi ayon bo'ladi. Bunday yondashuv, avvalo, ta'limni shaxsga yo'naltirilgan, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan jarayon sifatida talqin etishga xizmat qiladi. Natijada ta'lim nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida o'z ahamiyatini mustahkamlaydi.

Shuningdek, gumanitar yondashuvlar ta'lim tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning integratsiyasini kuchaytiradi, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan demokratik tamoyillarni shakllantiradi hamda yosh avlodning ijodiy salohiyati va erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga zamin yaratadi. Shu bois, ta'lim tizimini falsafiy va sotsiologik nuqtai nazardan o'rganish bugungi globalashuv davrida ijtimoiy barqarorlik, milliy o'zlikni anglash va umuminsoniy hamkorlikni ta'minlovchi muhim ilmiy-amaliy yo'nalish hisoblanadi.

Umuman olganda, gumanitar yondashuvlarga tayangan sotsiologik-falsafiy tahlil ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanishida metodologik asos va konseptual yo'nalish vazifasini bajaradi. Bu esa Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida insonparvar, ma'rifatli va global miqyosda raqobatbardosh avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2001. – B. 56–57.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 77.
3. Knight, J., & de Wit, H. Internationalization of Higher Education: Past and Future. *International Higher Education*, 2018 (95). – pp. 2-4.
4. Barnett R. Thought and reason – and their dilemmas. In *The Philosophy of Higher Education*, 2021. - pp. 96-106.
5. Snijders I., Wijnia L., Rikers R.M.J.P., & Loyens S.M.M. Alumni loyalty drivers in higher education. *Social Psychology of Education*, 2019 (22), - pp. 607–627.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

WESTERN VIEWS ON THE WELFARE STATE: PHILOSOPHICAL-SCIENTIFIC ANALYSIS

Urazov Bobir Baxtiyorovich

Docent of the department of “Social sciences”
Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract. This article analyzes the concept of a welfare state, world models of a welfare state and international experience in this regard.

Keywords: welfare state, civil society, Bismarck model, Beveridge model, liberal model, corporate model.

IJTIMOYIY DAVLAT HAQIDAGI G‘ARBONA QARASHLAR: FALSAFIY-ILMIY TAHLIL

O‘razov Bobir Baxtiyorovich

Buxoro davlat pedagogika instituti,
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy davlat tushunchasi, jahon tajribasidan o‘tgan ijtimoiy davlat modellari, bu boradagi xalqaro tajribalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy davlat, fuqarolik jamiyati, Bismark modeli, Beveridj modeli, liberal model, korporativ model.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N41>

Mustaqillikning so‘nggi besh yilligida davlatimizda jamiyat rivoji mohiyatan va shaklan yangi bosqichga kirib bormoqda. Asosiy qonunga o‘zgartishlar kiritish bo‘yicha olib borilayotgan siyosiy-huquqiy harakatlar, jumladan, “inson-jamiyat-davlat” konsepsiyasining huquqiy rasmiylashtirilishi ijtimoiy davlat yangi paradigma sifatida jamiyatning mutlaqo yangi siyosiy-huquqiy tizimi sifatida rivojlanayotganidan dalolat bermoqda. Istiqbolda o‘zimizda va jahonda taraqqiy etgan hozirgi zamon davlatchiligining tajribasi asosida yangi davlat va jamiyat shakllanmoqda.

Birinchiidan, bu qizg‘in jarayon fuqarolarning ehtiyoj va manfaatlariga mos kelgan holda o‘z vaqtida sodir bo‘layotgani ayon bo‘lmoqda. Ikkinchiidan, amaliyotda aholining davlatga, jamiyatga ishonchining yuqori darajadali, fuqarolar siyosiy-huquqiy islohotlarning borishidan manfaatdorligi tasdiqlanyapti. Shuningdek, bildirilayotgan fikrlar va qarashlarda turli savollar ham berilmoqda.

Jumladan, ijtimoiy davlat nima o‘zi, u nimalarda namoyon bo‘ladi, ijtimoiy davlatning belgilari bormi, ijtimoiy davlat qanday vazifalarni bajaradi, oldingi sotsializmdan farqi bormi, bu bo‘yicha umume’tirof etilgan prinsiplar yoki xorijiy tajribalar bormi, mamlakatimizda shu vaqtgacha olib borilgan ijtimoiy siyosatdan qanday farqi bor, boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha davlatning ahamiyati pasaymaydimi, jamiyatdagi boshqa institutlarning ishtiroki va ahamiyati

qanday bo'ladi, umuman bunday o'zgarishlar odamlarga nima beradi kabi savollar mavjud. Shulardan kelib chiqib, bugun biz ushbu maqolada ijtimoiy davlat tushunchasi, bugungi kundagi ijtimoiy davlatlar, ijtimoiy davlatning shaxs hayotidagi o'rni, ijtimoiy davlat modellari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Avvalambor shuni aytish kerakki, dunyo tajribasidan kelib chiqadigan bo'lsak, ijtimoiy davlat bu jamiyatning siyosiy tashkiloti, ya'ni tom ma'noda davlatdir. Ijtimoiy davlat o'z siyosatida ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib, faoliyat yuritadi. Asosiy maqsad – jamiyatda yaratilayotgan moddiy va ma'naviy boyliklarni ijtimoiy adolat tamoyili asosida qayta taqsimlashdan iboratdir. Bunda har bir fuqaroning maishiy turmush tarzi holatini sifat jihatdan yuqori darajaga olib chiqish, aholining turmush sharoiti va sifati jihatdan tabaqalanishiga, ya'ni ular o'rtasidagi yashash uchun ketadigan sarf-xarajatlar bo'yicha farqlarning kattalashib ketishiga yo'l qo'ymaslik va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga davlat tomonidan kafolatlar tizim orqali yordam ko'rsatiladi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, maqsad yaratilgan ne'matlardan ijtimoiy kafolatlar orqali hamma bahramand bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Ijtimoiy davlatning namoyon bo'lish xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- Davlat hokimiyatining demokratik tarzda tashkil etilishi;
- Davlat xizmatchilarining hamda fuqarolarning yuksak ma'naviy saviyasi;
- Mulkdorlarning qonuniy huquqlarini buzmaganda daromadlarni qayta taqsimlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini beruvchi kuchli iqtisodiy salohiyatga ega bo'lish;
- mulkchilikning turli shakllari mavjudligida namoyon bo'ladigan iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilgan tuzilishi, ya'ni davlat tomonidan olib boriladigan kuchli ijtimoiy siyosat;
- davlatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning rivojlanganligi, huquq ijodkorligi mexanizmlarining demokratlashganligi va h.k.

Globalashuv jarayoni va bozor iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan davrda olimlar ijtimoiy davlatning o'ziga xos belgilari mavjud ekanini ta'kidlaydi va Lorens fon Shteyndan farqli ravishda ushbu jihatlarga quyidagilarni kiritadi:

- aholining daromadlari va boyliklarini yirik mulkdorlarga daxl qilmasdan qayta taqsimlash imkonini beruvchi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining yuqori darajasi;
- ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti;
- ko'p tarmoqli va aralash iqtisodiyot;
- fuqarolik jamiyatini shakllantirish;
- davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish;
- davlatning har bir inson uchun munosib turmush sharoiti, ijtimoiy ta'minot va shaxs sifatida o'zini o'zi anglash yo'lida teng boshlang'ich sharoitlarni ta'minlash maqsadlarini tasdiqlash;
- fuqarolar oldidagi ijtimoiy javobgarlik;
- sug'urta ijtimoiy to'lovlarining rivojlangan tizimi va byudjetni tashkil etuvchi soliqlarning yuqori darajasi, ijtimoiy sohaga to'lovlarning yuqori miqdori;
- aholining barcha guruhlari uchun xizmat ko'rsatish va ijtimoiy xizmatlarning rivojlangan tizimi;
- byudjet ijtimoiy to'lovlarining mavjudligi;
- ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot va bandlik davlat tizimlarining mavjudligi;

- jamiyatning barcha muhtoj a'zolarini istisnosiz ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi mavjudligi;
- fuqarolarning farovonlik darajasi uchun javobgarlikni davlat o'z zimmasiga olishi.

Hozirgi zamon tajribasiga ko'ra, Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy davlat g'oyasi turli normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan. Xususan, Germaniyada uning ijtimoiy davlat ekani Konstitutsiya darajasida belgilangan. XX asrning 70-80-yillariga kelib Yevropa Ittifoqi doirasida ijtimoiy siyosatni birlashtirish masalasi ko'tarildi. Shu asosda Yevropada ijtimoiy siyosatning ikki xil modeli taklif qilindi:

Bismark modeli:

- Ijtimoiy kafolatlar miqdori va kasbiy faoliyat davomiyligi o'rtasidagi bevosita bog'liqlik;
- Ijtimoiy nafaqalar – kishilarning faol kasbiy faoliyatini ta'minlash maqsadida kechiktirilgan daromad shakllari uchun har bir kishiga ijtimoiy to'lovlarni amalga oshirish;
- Nogiron va yetim bolalar uchun to'lovlar mavjudligi.

Beveridj modeli:

- Har bir insonning minimal xavfsizlik huquqiga ega ekanligi;
- Kasallikdan sug'urtalash tizimlarining mavjud bo'lishi;
- Mehnat pensiyalari bilan bir qatorda "ijtimoiy" pensiyalarning ham mavjud bo'lishi;
- Moliyalashtirish mexanizmlari davlat byudjetiga tushadigan soliqlar orqali ishlashi;
- "Milliy birdamlik" tamoyilining amal qilishi;
- Ko'pgina nodavlat tuzilmalarning mavjudligi[3:12].

Ijtimoiy davlatning o'ziga xos funksiyalari mavjud bo'lib, olimlarning aksariyati ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash;
- korrupsiya, qashshoqlik va ishsizlikka qarshi kurash;
- yosh tadbirkorlarga yordam;
- aholi bandligi va daromadlari doimiy o'sishini ta'minlash;
- jamiyatning barcha a'zolarini ijtimoiy sug'urta bilan ta'minlash;
- ta'lim, sog'liqni saqlash va ma'naviy-madaniy rivojlanishning qulayligini ta'minlash;
- ehtiyojmand shaxslarni moddiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish;
- jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, imtiyozlarni qayta taqsimlash orqali munosib turmush sharoitlarini yaratish;
- ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish[4:42].

Shved iqtisodchisi va sotsiologi, G. Esping-Andersen, ijtimoiy davlat (Welfare State)ning turli rejimlarini tavsiflash uchun 3 ta parametr taklif qiladi.

- Dekommodifikatsiya darajasi (dekommodifikatsiya —individual qaramlikni bartaraf etish) va bozor kuchlari harakatidan guruh farovonligi. Dekommodifikatsiya – bozordan tashqari xavfsizlik. Uning yordami bilan o'zgarishlar jismoniy shaxslarning mehnat bozorida holati (ishchining mustahkamlanishi) va ish beruvchining mutlaq vakolatini zaiflashtirish);
- Sotsial stratifikatsiyaning mavjud bo'lishi (daromadlarni farqlash).
- Davlat boshqaruvi(intervensiya), ya'ni davlatning yo'naltiruvchi mohiyatga ega bo'lishi.

Mutaxassislar tomonidan xorijiy davlatlarning ijtimoiy siyosatining tahlili natijasida ijtimoiy davlatning uchta modeli Skandinaviya, Kontinental, Amerika-Buyuk Britaniya modellari ajratiladi.

Birinchi, Shvetsiya, Finlyandiya, Daniya, Norvegiya davlatlari Skandinaviya modelini o'zida namoyon qiladi. Bu mamlakatlarda davlat byudjetni qayta taqsimlash orqali ijtimoiy xarajatlarning anchagina qismini o'z bo'yniga oladi. Bu davlatlar o'z fuqarolarining ijtimoiy farovonligi, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalariga, bolalar va yoshlarga, keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish uchun mas'ul bo'ladi. Bu faoliyat davlat budjeti va ijtimoiy sug'urta jamg'armalari tomonidan moliyalashtiriladi. Bu ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish asosan munitsipalitetlar, ya'ni mahalliy boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ikkinchi, Germaniya, Avstriya, Belgiya va Fransiyada ijtimoiy davlatning kontinental modeli yuqori darajada rivojlangan. Bu davlatlarda davlat asosan aholining muhtoj qismiga ijtimoiy yordam pullarini berishga mas'ul hisoblanadi. Lekin aholiga davlat ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanmaydi. Ijtimoiy xarajatlar davlat va xususiy ijtimoiy sug'urta jamg'armalari tomonidan qoplanadi. Ya'ni ijtimoiy ta'minot byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hamda ish beruvchi va xodimlarning sug'urta badallaridan ta'minlanadi[2:165].

Shunday qilib, birinchi, Skandinaviya, Kontinental, Amerika-Britaniya modellari bo'yicha ijtimoiy davlatlarda, liberal davlatlarda davlat tomonidan ijtimoiy xarajatlarga minimal mablag'lar ajratiladi, bir vaqtning o'zida ijtimoiy yordamga muhtojlar har tomonlama o'rganiladi. Bajarilgan ish hamda tadbirkorlik bilan shug'ullanish natijasida olinadigan har tomonlama kafolatlangan daromad fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta'minlashning asosiy manbai hisoblanadi.

Ikkinchi, ijtimoiy davlatning sotsial-demokratik turi Skandinaviya turiga mos keladi. Bu yerda moddiy ne'matlarni aholi orasida qayta taqsimlash va ijtimoiy ehtiyojga zarur xarajatlarda davlatning ustunligi mavjud.

Uchinchi, ushbu jarayon davlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan kuchli jamoatchilik nazorati asosida kuzatiladi. Shuningdek, jarayonning borishi, samaradorlikni aniqlash, vujudga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida aniqlash va zarur qarorlar qabul qilish uchun tizimli monitoring va tahlil qilib borishning mustaqil tizimi yo'lga qo'yilgan.

To'rtinchi, ijtimoiy davlatchilik Osiyo davlatlarida – Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvanda ham rivojlanib bormoqda. Ijtimoiy davlatchilik O'zbekistonda ham rivojlanib bormoqda.

Shu o'rinda yana bir jihatni ta'kidlab o'tishni istardimki, ijtimoiy davlatda insonlar orasida hasadni yo'qotish, mehr-oqibat, bag'rikenglik va birdamlikni mustahkamlash, xayr-saxovat tadbirlarini bardavom yo'lga qo'yish, insonlarning ichki dunyosini pok va ularni halol, bolaligidan o'zining mehnatidan boshqa biror-bir usul yoki vosita orqali muvaffaqiyatga erishib bo'lmasligi tushunchasi bilan tarbiyalash borasidagi sa'y-harakatlarga alohida e'tibor berish muhim ahamiyatga ega[7:202].

Xo'sh, ijtimoiy davlat bizga nima uchun kerak, degan savol tug'ilishi tabiiy. Mazkur tizimda boshqaruvning ustuvor mohiyatida iqtisod yoki siyosat emas, balki inson manfaati, uning qadri turadi. Byudjet taqsimotida kambag'allarga yordam ta'minlanadi. Bunday davlatning asosiy xususiyati biznesni qo'llab-quvvatlash va kuchli iqtisodiyotni ta'minlash hisoblanadi. Sababi, biznes, ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida soliq tushumi hisobiga

iqtisodiyot o'sadi, byudjet mablag'lari ko'payadi. Bu tarmoqda yangi g'oyalar amalga oshirilishiga va mablag'ning ijtimoiy sohaga yo'naltirilishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, bugun "ijtimoiy siyosat", "ijtimoiy himoya", "ijtimoiy kafolat" kabi tushunchalar mazmun-mohiyati avvalgidan ancha kengaydi. Bosh qonunimizdagi ijtimoiy huquqlarni kengaytirgan holda, ular qatorida bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik, nogironligi bo'lgan shaxslar, keksa avlod vakillari, yoshlar, xotin-qizlar, migrantlar huquqlarini ishonchli himoya qilishga oid normalar o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish". 2023.
2. Основы социального государства и гражданского общества: учебно-методическое пособие / сост.: А. В. Соколов, Е. А. Исаева, А. А. Фролов; Ярослав. гос. ун-т им. П. Г. Демидова. — Ярославль: ЯРГУ, 2017. — 44 с.
3. Основы социального государства: учебное пособие / Т.Б. Голубева.— Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2015.— 172 с.
4. O'razov Bobir Baxtiyorovich: ANTIK FALSAFADA ERKINLIK G'OYASI TAKOMILI //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
5. URAZOV BOBIR BAXTIYOROVICH: SPECIFIC FEATURES OF THE SCIENTIFIC AND SPIRITUAL HERITAGE OF JALALIDDIN RUMI //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
6. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/ijtimoiy-davlatning-konstitutsiyaviy-asoslari>
7. IJTIMOY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. 9/S (3) 2023.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE VALUE OF THE HUMAN BEING AND THE EVOLUTION OF CONSCIOUSNESS IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL SOCIETY

Shaydullayev Normamat Sherkuziyevich

Associate Professor of the Department of Social Sciences
Namangan State Technical University

Abstract. The article analyzes the philosophical essence of human value and the evolution of consciousness in the process of forming a digital society. It examines the qualitative changes taking place in human consciousness under the influence of artificial intelligence, digital thinking, virtual reality, and the intensification of information flows, as well as their social and moral implications. The research results show that although digital transformation has shaped a new stage of human thinking, the value, responsibility, and spiritual foundations of human consciousness require continuous philosophical reevaluation.

Keywords: digital society, human value, evolution of consciousness, artificial intelligence, philosophy of information, virtual reality, spiritual values.

RAQAMLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA INSON QADRI VA ONG EVOLYUTSIYASI

Shaydullayev Normamat Sherkuziyevich

Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti
Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Maqolada raqamli jamiyatning shakllanish jarayonida inson qadri va ong evolyutsiyasining falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt, raqamli tafakkur, virtual voqelik va axborot oqimining kuchayishi natijasida inson ongida yuz berayotgan sifat o'zgarishlari, ularning ijtimoiy va axloqiy oqibatları falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya inson tafakkurining yangi bosqichini shakllantirgan bo'lsa-da, inson qadri, mas'uliyati va onginging ma'naviy asoslari doimiy falsafiy qayta baholanishni talab etadi.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, inson qadri, ong evolyutsiyasi, sun'iy intellekt, axborot falsafasi, virtual borliq, ma'naviy qadriyatlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N42>

Kirish. XXI asr insoniyat tarixida "raqamli uyg'onish davri" sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu davrda axborot va raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalarini iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy hamda ma'naviy sohalarni tubdan o'zgartirmoqda. Internet, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data), raqamli kommunikatsiya tizimlari, virtual reallik va kiberfazoning kengayishi natijasida insonning dunyoni idrok etish shakli, bilish jarayoni va o'zini anglash darajasi yangi bosqichga ko'tarildi.

Endilikda inson borliqni nafaqat tabiiy yoki ijtimoiy jihatdan, balki raqamli ontologiya ya'ni virtual mavjudlik asosida ham anglay boshladi. Shu bois falsafaning azaliy markaziy masalasi bo'lgan "inson va borliq" munosabati zamonaviy sharoitda "inson va raqamli borliq" masalasiga aylangan. Bu yangi borliq turi o'zining ontologik (mavjudlik mohiyati), aksiologik

(qadriyatlar tizimi) va gnoseologik (bilish jarayoni) jihatlari bilan inson tafakkuri va ijtimoiy ongini qayta shakllantirmoqda[1].

Raqamli transformatsiya bu shunchaki texnologik modernizatsiya yoki avtomatlashtirish emas, balki inson tafakkuri, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlar tizimida yuz berayotgan falsafiy inqilobdir. U ongning yangi ko‘rinishini raqamli ongni shakllantiradi[2]. Raqamli ong bu inson tafakkurining yangi bosqichi bo‘lib, unda axborot oqimi, algoritmik fikrlash, sun‘iy intellekt bilan muloqot, virtual tajriba va identifikatsiya jarayoni asosiy kognitiv mexanizmlarga aylanadi.

Bunday jarayon inson mohiyati haqida fundamental savollarni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi: Raqamli borliq sharoitida inson qadri qanday o‘zgaradi? Sun‘iy intellekt va algoritmik boshqaruv inson erkinligiga qanday ta‘sir qiladi? Raqamli tafakkur inson ongining tabiiy evolyutsiyasimi yoki uning begonalashuv shaklimi?

Ushbu savollar falsafaning eng muhim yo‘nalishlari ontologiya, antropologiya, aksiologiya va ong falsafasi kesishgan nuqtasida tahlil etilishi lozim. Chunki inson qadri masalasi texnologik yutuqlardan ham ustun turadigan, jamiyatning ma‘naviy-axloqiy barqarorligini ta‘minlaydigan asosiy falsafiy mezondir.

Shunday qilib, raqamli jamiyatda inson qadri va ong evolyutsiyasi masalasi bugungi falsafaning dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi raqamli jamiyat sharoitida inson qadri va ong evolyutsiyasining falsafiy mazmunini yoritish, raqamli tafakkurning inson mohiyatiga ta‘sirini ochib berish, hamda bu jarayonning aksiologik va ontologik oqibatlarini tahlil qilishdan iboratdir.

Mazkur tadqiqotda insonning “raqamli mavjudot” sifatidagi o‘zini anglash jarayoni, raqamli ong va qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar, texnologik determinizmning ijtimoiy ongga ta‘siri kabi

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Raqamli jamiyat, inson qadri va ong evolyutsiyasi masalalari hozirgi zamon falsafasining markaziy tahlil yo‘nalishlaridan biridir. So‘nggi o‘n yilliklarda bu masalaga turli falsafiy maktablar gumanizm, postgumanizm, ekzistensializm, fenomenologiya, kognitiv falsafa, texnofalsafa va aksiologiya doirasida yondashilmoqda. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Yevropa va Rossiya falsafasida bu muammo asosan insonning raqamli borliqdagi ontologik maqomi, axloqiy javobgarligi va identifikatsiyasi nuqtai nazaridan yoritilmoqda[4]. O‘zbekiston falsafasida esa asosiy urg‘u raqamli transformatsiyaning ijtimoiy-ma‘naviy oqibatlari, qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar va milliy g‘oya bilan uyg‘unlik masalalariga berilmoqda.

Yevropalik mutafakkirlar orasida L. Floridi, N. Bostrom, B. Stigler, M. Heideggerning texnika haqidagi ontologiyasi va J. Baudrillardning simulyakrum nazariyasi raqamli ongning falsafiy ildizlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. L. Floridi “infosfera” tushunchasini ilgari surib, insonni axborot muhitining faol elementi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, inson tafakkuri va mavjudligi endilikda “axborot etikasi” tamoyillari asosida qayta qurilmoqda.

B. Stigler raqamli muhitda ongning “avtomatlashtirilgan tafakkur”ga aylanayotganini ta‘kidlaydi, bu esa insonning mustaqil fikrlash qobiliyatiga xavf tug‘diradi. N. Bostrom va Y. Harari kabi tadqiqotchilar raqamli transformatsiyani insoniyatning yangi evolyutsion bosqichi “postinson davri” bilan bog‘laydi, bunda sun‘iy intellekt inson tafakkurining davomchisi sifatida ko‘riladi[5].

Shuningdek, M. Heideggerning “Texnika haqida savol” (Die Frage nach der Technik) asarida keltirilgan “Gestell” (tayyor holatga keltirish) g’oyasi raqamli jamiyatda inson borlig’ining qanday “algoritmik mavjudot”ga aylanayotganini tushuntirishda muhim nazariy asos bo’lib xizmat qiladi. J. Baudrillard esa virtual reallikni “haqiqatni simulyatsiya qiluvchi yangi giperreallik” sifatida talqin etadi, bu esa inson ongining haqiqiylik bilan aloqasini zaiflashtiradi.

Rossiyada bu masala A. V. Smirnov, V. Lektorskiy, A. I. Frolov, V. Stepin va E. Toffler g’oyalari asosida tahlil qilinmoqda. Ularning ishlarida raqamli transformatsiya sivilizatsion rivojlanishning yangi bosqichi sifatida baholanadi. V. Stepin “insonning texnogen tsivilizatsiyadagi o’rni”ni tahlil etar ekan, texnologiya insonning tabiiy mohiyatini o’zgartirib, yangi antroposentrikdan postantroposentrikka o’tish bosqichini boshlab berganini ta’kidlaydi.

A. Smirnov raqamli ongni inson tafakkurining gibrid shakli, ya’ni tabiiy tafakkur va sun’iy intellekt o’rtasidagi o’zaro ta’sir mahsuli sifatida izohlaydi. Unga ko’ra, inson qadri nafaqat axloqiy yoki ma’naviy, balki kognitiv va algoritmik kompetensiyalar bilan ham belgilanmoqda. Rossiyada olib borilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, raqamli transformatsiya insonning eksistensial holatini, ya’ni o’zini anglash va borliqdagi o’rnini qayta ko’rib chiqishga majbur qilmoqda.

O’zbekiston olimlari orasida M. Yusupov, A. Ergashev, S. To’laganova, Z. Xolbekov, R. Norkulov kabi tadqiqotchilar raqamli transformatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy va aksiologik jihatlarini tahlil qilmoqdalar. Ularning fikricha, raqamli modernizatsiya jarayonida inson qadri masalasini faqat texnologik nuqtai nazardan emas, balki milliy-ma’naviy qadriyatlar, insonparvarlik tamoyillari va axloqiy mas’uliyat doirasida ko’rib chiqish zarur.

O’zbekiston falsafiy maktabida raqamli ong tushunchasi insonning ijtimoiy-ma’naviy kamoloti bilan uyg’un holda rivojlanishi kerakligi ta’kidlanadi. Inson raqamli borliqning markazida emas, balki uning ma’naviy yo’naltiruvchisi, axloqiy mezon bo’lishi lozim. Bu yondashuv G’arb falsafasidagi texnosentrik qarashlardan farqli o’laroq, insoniylikni saqlab qolish g’oyasiga asoslanadi.

Mazkur tadqiqot dialektik yondashuv, falsafiy antropologiya, aksiologik tahlil va komparativ (qiyosiy) metod asosida olib boriladi. Dialektik yondashuv raqamli transformatsiya jarayonini qarama-qarshiliklar birligi texnologik taraqqiyot va insoniy qadriyatlar o’rtasidagi o’zaro ta’sir orqali tahlil qilish imkonini beradi. Falsafiy antropologiya insonning raqamli borliqdagi mohiyatini, uning o’zini anglash shakllarini va erkinlik masalasini o’rganishda asosiy metodologik asos bo’lib xizmat qiladi. Aksiologik tahlil inson qadri, axloqiy javobgarlik va ma’naviy tanlov muammolarini raqamli kontekstda talqin etishga yordam beradi. Komparativ metod esa O’zbekiston, Rossiya va Yevropa falsafasidagi yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilib, umumiy va milliy xususiyatlarni ajratib ko’rsatadi.

Metodologik asos sifatida shuningdek Heideggerning texnika ontologiyasi, Floridining infosfera nazariyasi, hamda O’zbekiston ma’naviy taraqqiyot konsepsiyasidagi insonparvarlik tamoyillaridan foydalaniladi. Ushbu metodlar orqali raqamli jamiyatda inson qadri va ong evolyutsiyasining falsafiy mohiyatini kompleks tarzda yoritish imkoniyati yaratiladi.

Muhokama. Raqamli jamiyat inson tafakkuri va ong evolyutsiyasining yangi bosqichini boshlab berdi. Bu bosqichda ong endilikda nafaqat bilishning subyekti, balki mavjudotning yangi shaklini yaratuvchi ijodiy kuch sifatida namoyon bo’lmoqda. Inson tafakkuri tarixan tabiatni o’rganish, uni anglash va o’zlashtirish jarayonida rivojlanib kelgan bo’lsa, hozirda u

sun'iy intellekt, neyrotarmoqlar va axborot oqimlari orqali o'zining virtual in'ikosini yaratmoqda. Natijada inson o'zining "moddiy mavjudot" emas, balki "axborot mavjudot" sifatidagi mohiyatini anglay boshladi. Bu jarayon Heidegger ta'biri bilan aytganda, insonning "borliq bilan bo'lgan munosabati shaklini tubdan o'zgartirgan ontologik burilish"dir. Texnika endi inson uchun vosita emas, balki mavjudlikning yangi muhitidir. Shu bois, raqamli jamiyat – bu faqat texnik tizimlar majmuasi emas, balki yangi borliq shakli, yangi ontologik tuzilma sifatida namoyon bo'lmoqda[5].

Raqamli borliqning markazida inson qadriyatlar tizimining o'zgarishi muammosi turadi. Inson qadri endilikda nafaqat ma'naviy yoki axloqiy me'yorlar bilan, balki raqamli kompetensiyalar, algoritmik tezlik va ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlari bilan ham o'lchanmoqda. Bu holatda qadriyatlarining klassik aksiologik iyerarxiyasi buzilmoqda ma'naviy qadriyatlar texnologik foydalilik mezonlari bilan almashtirilmoqda. Shunday sharoitda inson qadri tobora "funktional qiymat"ga aylanib, shaxsning o'zini anglash jarayoni algoritmik standartlarga moslashtirilmoqda. Bu esa antropotsentrizmning zaiflashuvi, ya'ni "inson markazidan texnologiya markaziga o'tish" jarayonidir. Biroq falsafiy jihatdan inson qadri faqat samaradorlik bilan o'lchanmaydi. Inson qadri bu uning erkin fikrlash, ma'naviy tanlov qilish, axloqiy javobgarlikni his etish qobiliyatidadir.

Habermas ta'biri bilan aytganda, inson o'z qadriyatini "kommunikativ aql" orqali tiklay oladi. Bu degani, raqamli muhitda inson qadri faqat axborot oqimi yoki texnik imkoniyatda emas, balki onglararo muloqot, tushunish va ma'noli aloqa orqali namoyon bo'ladi. Raqamli kommunikatsiya insonni jismoniy chegaralardan ozod etsa-da, uni yangi "virtual cheklanishlar" bilan o'rab oladi inson endilikda algoritmik nazorat, tarmoq etikasi va sun'iy muhitda shakllangan identifikatsiya tizimlariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu ma'noda, raqamli jamiyat insonning erkinligini kengaytiradi, ammo ayni paytda uni yangi shakldagi determinizm texnologik bog'liqlik ostiga ham oladi. Bu qarama-qarshilik raqamli ong evolyutsiyasining asosiy dialektik mohiyatini tashkil etadi.

Ong evolyutsiyasi masalasida eng dolzarb falsafiy muammo sun'iy intellektning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Sun'iy intellekt inson tafakkurining mahsuli bo'lsa-da, u o'z yaratuvchisini falsafiy refleksiya qilishga majbur qilmoqda. Ongning raqamli rekonstruksiyasi bu tafakkurning o'zini texnik modellashtirish jarayonidir. Ammo bu jarayonni to'liq ong sifatida qabul qilish mumkinmi? Falsafiy nuqtai nazardan ong bu faqat axborotni qayta ishlash tizimi emas, balki ma'no yaratuvchi, qadriyat shakllantiruvchi faoliyatdir. Shuning uchun sun'iy intellekt, hatto eng murakkab algoritmik tizim bo'lsa ham, inson ongining mohiyatini to'liq aks ettira olmaydi. Chunki ong o'z-o'zini anglash, refleksiya va erkin tanlovga asoslanadi, bu esa insoniyatning faqat unga xos ontologik sifati hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, raqamli transformatsiya jarayonida insonning ma'naviy-axloqiy javobgarligi yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Inson texnologik kuch vositasida dunyoni o'zgartirar ekan, ayni paytda u o'zini ham qayta yaratmoqda. Bu jarayon "ikkinchi yaratilish" deb atalayotgan yangi antropologik bosqichni boshlab berdi. Endi inson o'z ongini algoritmlar orqali kengaytirib, o'z tafakkurini sun'iy tizimlarga ko'chirayotgandek tuyuladi. Ammo bu jarayonning falsafiy mohiyati shundaki, inson o'zining "mavjudlik mezonlarini" yo'qotib qo'yish xavfiga duch kelmoqda. Shu bois, raqamli ong evolyutsiyasi jarayonida insonning o'zini anglash, axloqiy me'yorlarni saqlab qolish, ma'naviy qadriyatlarini yangicha mazmunda tiklash zaruriyati dolzarb masalaga aylanmoqda.

Raqamli jamiyatda inson qadri yangi aksiologik paradigmgaga muhtoj. Bu paradigma insonni texnologiyadan ajratmaydi, balki uni texnologik borliqning axloqiy markaziga qo'yadi. Insonning haqiqiy qadri, demak, uning texnik tizimlar orasida yo'qolib ketmasligi, balki raqamli muhitni ma'naviylashtira olishi, unga ma'no berish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, raqamli jamiyat insoniyatning yangi ontologik sinovi bo'lib, bu sinovda insonning yutug'i texnik ustunlikda emas, balki ma'naviy uyg'unlikni saqlab qolish qobiliyatidadir[6].

Shunday qilib, natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya davrida ongning evolyutsiyasi insonning borliqdagi o'rnini qayta belgilaydi, qadriyatlar tizimini yangilaydi va inson mohiyatining yangi falsafiy talqinini talab etadi. Raqamli jamiyat sharoitida insonning qadri texnologik natijalar bilan emas, balki ma'naviy refleksiya, ong erkinligi va axloqiy mas'uliyati bilan o'lchanmog'i lozim. Insonning ongini raqamlashtirish jarayoni shu bois faqat texnik yoki kognitiv jarayon emas, balki falsafiy va aksiologik jarayon sifatida baholanishi kerak.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamlashgan jamiyat inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda va bu jarayon insonning mohiyati, qadriyatlar tizimi hamda ong shakllanishini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Avvalo, inson qadri endilikda faqat mehnat, aql-zakovat yoki axloqiy fazilatlar bilan emas, balki raqamli savodxonlik, texnologik moslashuvchanlik va axborot oqimida mustaqil fikrlash qobiliyati bilan baholanmoqda. Shu bilan birga, texnologik rivojlanish fonida insonning ma'naviy va ruhiy qadriyatlari ayrim hollarda orqa planga surilayotgani ham kuzatilmogda. Bu holat falsafiy jihatdan "inson – texnologiya – jamiyat" munosabatlarining yangi bosqichini ifodalaydi[7].

Ong evolyutsiyasi raqamli muhitda yangi bosqichga ko'tarilmogda. Virtual haqiqat, sun'iy intellekt va algoritmik tizimlar inson tafakkuriga chuqur ta'sir ko'rsatmogda. Axborot oqimining tezligi sabab inson tafakkuri tahliliy va refleksiv xususiyatlarini yo'qotib, tezkor fikrlash ustunlik qilmogda, bu esa chuqur falsafiy mushohadani zaiflashtirish xavfini tug'diradi. Shu bilan birga, virtual tafakkur yangi ko'rinishdagi ijodkorlik va muloqot imkoniyatlarini ham yuzaga keltirmogda.

O'rganilgan manbalar asosida aniqlanishicha, raqamli davrda falsafiy kategoriyalar mazmuni ham o'zgarib bormogda. Borliq endilikda nafaqat jismoniy mavjudlik, balki raqamli muhitdagi virtual mavjudlikni ham o'z ichiga oladi. Ong esa inson tafakkurining texnologiyalar bilan o'zaro ta'siri natijasida kengayib, "sun'iy ong" bilan birgalikda shakllanmogda. Qadriyatlar tizimida esa axborot etikasi, raqamli xavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish kabi yangi mezonlar ustuvor ahamiyat kasb etmogda[8].

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Yevropada bu masalalar inson huquqlari, axborot etikasi va shaxsning raqamli muhitdagi erkinligi nuqtai nazaridan keng o'rganilmogda. Masalan, Shoshana Zuboff, Yurgen Habermas, Lyuchano Floridi va Byung-Chul Han kabi tadqiqotchilar raqamli kapitalizm, axborot etikasi va ong transformatsiyasini tahlil qilganlar[9]. Rossiyada esa Stepin, Knyazeva, Moiseev, Kurennoy singari olimlar inson va texnologiya o'rtasidagi falsafiy muvozanatni, axborot xavfsizligi va kibernetik ong masalalarini yoritganlar. O'zbekistonda bu yo'nalish endilikda shakllanib bormogda; Mahmudov, Jo'rayev, Abduvaliyev kabi olimlar raqamli iqtisodiyot va inson omilining uyg'un rivojlanishiga oid falsafiy g'oyalarni ilgari surmogdalar[10].

Umuman olganda, raqamli transformatsiya inson borlig'ining yangi o'lchamini yaratdi. Endilikda inson qadri nafaqat axloqiy yoki ijtimoiy, balki axborot-falsafiy kategoriya sifatida

ham namoyon bo'lmoqda. Ong evolyutsiyasi esa inson va texnologiya o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida yuzaga kelayotgan yangi dialektik jarayon sifatida baholanadi. Shu tariqa, raqamli jamiyat sharoitida inson qadri, erkinligi va ong dinamikasi global sivilizatsiya rivojining asosiy falsafiy mezonlaridan biriga aylanmoqda.

Xulosa. Raqamli jamiyat insoniyatni yangi sivilizatsion bosqichga olib chiqdi. Ammo bu jarayon bilan bir qatorda, inson qadri, ong va ma'naviyat masalalari ham qayta ko'rib chiqilmoqda. Raqamli transformatsiya inson tafakkurini kengaytirdi, lekin shu bilan birga, insonning o'zini yo'qotish xavfini ham kuchaytirdi. Falsafaning vazifasi texnik taraqqiyot markazida insonni, uning ongini va qadriyatini saqlab qolishdir.

Shunday ekan, inson raqamli jarayonlarning obyektini emas, balki subyektini bo'lishi lozim. Texnologiya insonni erkinlashtiruvchi, lekin hech qachon uning mohiyatini almashtiruvchi kuch bo'la olmaydi. Ong evolyutsiyasi jarayoni bu insonning o'z mohiyatini texnologiyalar bilan uyg'unlikda, lekin ularning hukmronligisiz anglash jarayonidir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Habermas, J. The Theory of Communicative Action. — Boston: Beacon Press, 1984.
2. Heidegger, M. Die Frage nach der Technik. — Stuttgart: Neske, 1954.
3. Toffler, A. The Third Wave. — New York: Bantam Books, 1980.
4. Castells, M. The Rise of the Network Society. — Oxford: Blackwell, 2010.
5. Turaev, Sh. Axborot falsafasi: zamonaviy jamiyatda insonning yangi holati. — T.: O'zMU, 2021.
6. Sayfullayeva, D.A. Raqamli psixologiya va tafakkur evolyutsiyasi. — T.: TDPU, 2023.
7. Bauman, Z. Liquid Modernity. — Cambridge: Polity Press, 2000.
8. Floridi, L. The Philosophy of Information. — Oxford: OUP, 2011.
9. Mumindjanova, S.X. Inson va ong falsafasi. — T.: Fan va texnologiya, 2022.
10. Nuriddinova, A. Raqamli sivilizatsiyada inson qadriyatlari transformatsiyasi. — T.: Innovatsiya, 2024.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE ROLE AND IMPORTANCE OF ENHANCING THE LEGAL AWARENESS AND LEGAL CULTURE OF YOUTH IN THE PROCESS OF MORAL EDUCATION

Tursunova Olmos Fayzievna

Associate Professor, Department of National Idea and Philosophy
Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

Abstract. This article explores the role and significance of enhancing the legal awareness and legal culture of youth within the framework of moral education. It emphasizes that developing young people's legal knowledge and consciousness is one of the key factors in ensuring the rule of law, building civil society, and achieving sustainable social development. The study also discusses how moral education contributes to forming values of justice, responsibility, patriotism, and respect for the law among young people.

Keywords: youth, legal awareness, legal culture, moral education, civil society, rule of law, enlightenment.

YOSHLAR HUQUQIY ONGI VA MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Tursunova Olmos Fayziyevna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Milliy g'oya va falsafa kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning ma'naviy tarbiya tizimidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Yosh avlodning huquqiy bilimi va ongini shakllantirish jamiyatning barqaror rivojlanishi, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda fuqarolik jamiyati qurishning muhim omillaridan biri sifatida talqin etilgan. Shu bilan birga, ma'naviy tarbiya vositasida yoshlarda adolat, mas'uliyat, vatanparvarlik va qonunlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish masalalari ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yoshlar, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ma'naviy tarbiya, fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi, ma'rifat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N43>

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvarda tasdiqlangan "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni bilan Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi (IV bo'lim, 5-bob) hamda Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini 2019-yilda samarali amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" (5-bo'lim, 88-band) tasdiqlangan. [2]

Konsepsiyaning asosiy maqsadi – aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishi, mustahkam irodali, o'z huquqlarini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan

va huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladigan fuqarolarni tarbiyalashning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdir.

Konsepsiyaning qabul qilinishiga inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi quyidagi muammo va kamchiliklar sabab bo'ldi:

birinchidan, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlari tizimli va uzviy tashkil etilmayapti. Jamiyatda, oilada, mahallada, ta'lim muassasalarida va tashkilotlarda huquqiy axborotlarni yetkazishning ta'sirchan mexanizmi mavjud emas. Shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash g'oyalari aholi, ayniqsa, davlat xizmatchilari ongiga yetarli darajada singdirilmayapti;

ikkinchidan, uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim jarayonlari huquqiy tarbiya bilan uyg'un olib borilmayapti, aholi, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda o'zbek xalqining tarixi, dini, urf-odatlar, milliy qadriyatlariga tayanilmayapti;

uchinchidan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir tadbirlarni tashkil etishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlik tizimi yaratilmagan, ijtimoiy sheriklik prinsipi asosida ishlar tashkil etilmagan;

to'rtinchidan, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirishning aniq maqsadli chora-tadbirlari belgilanmagan;

beshinchidan, jamiyatda manzilli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda va amalga oshirishda davlat organlari va boshqa sohaviy xizmatlarning faol ishtiroki ta'minlanmayapti, bu borada yuqori natijadorlik va samaradorlik ko'zga tashlanmayapti;

oltinchidan, huquqiy tadbirlar hamon an'anaviy usullarda, oddiy uchrashuvlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilmoqda, bu borada targ'ibotning innovatsion usullaridan, shu jumladan, veb-texnologiyalardan foydalanilmayapti, huquqiy yo'nalishdagi veb-saytlar yetarli emas;

yettinchidan, huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan loyihalarni rag'batlantirishning huquqiy mexanizmlari mavjud emas, bu borada tadbirlar nomigagina tashkil etilmoqda, huquqiy bilimlarni yuksaltirish bo'yicha huquqiy adabiyotlarni chop etish va tarqatish, ilmiy izlanishlarni olib borish ishlari samarasiz amalga oshirilmoqda. [7]

Quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" degan hayotiy g'oyani mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini targ'ib qilish; [4]

yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish;

aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murossasizlik munosabatini shakllantirish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasidagi hamkorligini mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga doir tadbirlarni tashkil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanishni tizimli asosda yo'lga qo'yish;

ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish;

yuridik ta'limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish.

Quyidagilar Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:

1. Shaxs, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish;

2. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy targ'ibotning innovatsion usullarini joriy qilish;

3. Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;

4. Yuridik ta'limni, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

5. Huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish.

Shaxs, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Oilada huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish;

2. Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda mahalla institutining rolini kuchaytirish;

3. Ta'lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish;

4. Davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish;

5. Aholi barcha qatlamlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish;

Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda mahalla institutining rolini kuchaytirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

– mahallalarda eng dolzarb, aholini qiziqtiradigan va murojaatlarda ko'tarilayotgan muammoli masalalarni tahlil qilish va tahlil natijasiga ko'ra manzilli va predmetli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish, aholiga qonun hujjatlari mazmun va mohiyatini yetkazish bo'yicha choralar ko'rish;

– mahallalarda yoshlar orasidagi turli muammoli masalalar, xususan, migratsiya, moddiy yordam, yer olish, uy-joy olish, kommunal masalalar, imtiyozlar, aliment, ishga joylashish, ta'lim olish va boshqalar bo'yicha huquqiy axborotni buklet, flayer, liflet va plakatlarda shaklida aholiga yetkazish;

– mahallalarda "Huquqiy axborot kuni" loyihasini tashkil etish, bunda aniq bir kunda rejalashtirilgan yo'nalish bo'yicha malakali mutaxassislar (advokatlar, notariuslar, yuridik xizmatlar xodimlari va boshqalar) tomonidan aholiga huquqiy tushuntirishlar berilishini ta'minlab borish;

– jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolik nizolarini keskin kamaytirish hamda aholida, ayniqsa, tarbiyasi og'ir bo'lgan fuqarolarda qonunga hurmat hissini uyg'otish maqsadida sudlar tomonidan mahallalarda aholi bilan ochiq muloqotlarni tizimli ravishda tashkil qilish va sayyor sud majlislari o'tkazish ko'lamini kengaytirish;

– "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhlari bilan hamkorlikda mahallalarda aholi orasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha tadbirlar ko'lami va sifatini oshirish; [5]

– profilaktika inspektorlarining yordamchilari, jamoatchilik nazorati a'zolari va "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhlari a'zolarining yangi qabul qilinayotgan qonun hujjatlaridan xabardorlik darajasini oshirish maqsadida tegishli tadbirlarni amalga oshirish.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha mahalla institutining rolini kuchaytirish borasida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish belgilandi:

1. Kundalik turmushda ko'p uchraydigan masalalarning huquqiy yechimlari va yangi qabul qilingan qonun hujjatlarining mohiyatini uyma-uy yurib targ'ib qilish, shuningdek, huquqiy ma'lumotlarni yetkazishga qaratilgan flayer, buklet va boshqa tarqatma materiallarni oilalarga bepul tarqatish.

2. Yoshlar va ota-onalar o'rtasida nikoh yoshi, aliment to'lash shartlari, qarindoshlar o'rtasidagi nikoh va uning huquqiy oqibatlari to'g'risida muntazam ravishda huquqiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazish.

3. Mahallalarda "Huquqiy axborot kuni" loyihasini tashkil etish, bunda aniq bir kunda rejalashtirilgan yo'nalish bo'yicha malakali mutaxassislar (advokatlar, notariuslar, yuridik xizmatlar xodimlari va boshqalar) tomonidan aholiga huquqiy tushuntirishlar berilishini ta'minlab borish.

4. Jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolik nizolarini keskin kamaytirish hamda aholida, ayniqsa, tarbiyasi og'ir bo'lgan fuqarolarda qonunga hurmat hissini uyg'otish maqsadida:

sudlar tomonidan mahallalarda aholi bilan ochiq muloqotlarni tizimli ravishda tashkil qilish, sayyor sud majlislari o'tkazish ko'lamini kengaytirish.

5. "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhlari bilan hamkorlikda mahallalarda aholi orasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha tadbirlar ko'lami va sifatini oshirish.

6. Profilaktika inspektorlarining yordamchilari, jamoatchilik nazorati a'zolari va "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhlarini a'zolarining yangi qabul qilinayotgan qonun hujjatlaridan xabardorlik darajasini oshirish maqsadida tegishli tadbirlarni amalga oshirish. [3]

Ma'lumki, inson huquqlariga amal qilishni ta'minlovchi muhim vositalardan biri bu – har bir kishining o'z huquq va burchlarini yaxshi bilishi, huquqiy madaniyatning yuqori darajada shakllanishi hisoblanadi. Har bir fuqaro mavjud huquq va erkinliklardan foydalanar ekan, o'z burchini ham bajarishi shart. Bunda, huquq harakat qilish imkoniyatini bildirsa, burch majburiyatni bildiradi. Fuqaro o'z huquqini amalga oshirar ekan, bu huquqlar davlatning yoki boshqa kishilarning huquq va manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim. [6]

Shu bois Konsepsiyani amalga oshirishdan quyidagi natijalar kutilmoqda:

fuqaro, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini yuksaltirish, shaxsiy ehtiyojlar hamda jamiyat ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatning saqlanishini ta'minlash;

bola va yoshlar ongiga ilk huquqiy tushunchalarni va odob-axloq qoidalarini tizimli singdirib borish, huquqiy ta'lim-tarbiyani uzviy va tizimli olib borishga erishish;

huquqiy targ'ibotning innovatsion usullarini yaratish va joriy etish, huquqiy bilimlarni targ'ib qilishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;

mansabdor shaxslar va fuqarolarda qonunga va huquqqa bo'lgan hurmat hissini kuchaytirish, huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligini ta'minlash.

Buning uchun hayotda Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi ta'minlanishi lozim. Konstitutsiyamizning 15-moddasida ham "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. [1]

Davlat, uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar", deb belgilab qo'yilgan. Bu esa qonun oldida barchaning barobarligini, jamiyatdagi barcha munosabatlar qonun bilan tartibga solinishini, qonunni buzganlar so'zsiz javobgar bo'lishlarini anglatadi. Ammo, inson huquq va erkinliklarining faqatgina qonunlarda belgilab qo'yilishi masalani hal qilmaydi. Qonunga rioya etish hamma uchun majburiy bo'lgan, uni buzishga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydigan huquqiy davlat barpo etish uchun har birimiz huquqiy bilimlarga ega bo'lib borishimiz, egallagan bilimlarni hayotda qo'llay olish madaniyatini ham o'zimizda tarbiyalab borishimiz, shu bilan birga yosh avlod qalbi va ongiga huquqiy madaniyatni singdirib borishimiz lozim.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: O'zbekiston, 2023. – 120-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni bilan tasdiqlangan Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi.// www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni.// www.lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni.// www.lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni.// www.lex.uz
6. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2013-yil, 23-aprel.

7. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni.//
www.lex.uz

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

EASTERN EDUCATION - THE IMPORTANCE OF UPBRINGING IN THE FORMATION OF HUMAN QUALITIES IN YOUNG PEOPLE

Turaeva Sanobar Khalimovna
Karshi State Technical University
Senior Lecturer

Abstract. This article discusses the rich and valuable scientific heritage of Eastern thinkers in the field of education, as well as human virtues such as morality, etiquette, culture of communication, generosity, hard work, and honesty, which are important in achieving human perfection.

Keywords: education, human qualities, morals, manners, culture of behavior, generosity, hard work, honesty.

SHARQONA TA'LIM – TARBIYANING YOSHLARDA INSONIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

To'rayeva Sanobar Xalimovna,
Qarshi davlat texnika universiteti
Katta o'qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarini ta'lim - tarbiya borasidagi boy va qimmatli ilmiy merosi haqida, shuningdek insonning barkamollikka erishuvida muhim ahamiyatga ega bo'lgan axloq, odob, muomala madaniyati, saxiylik, mehnatsevarlik, halollik kabi insoniy fazilatlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, insoniy fazilatlar, axloq, odob, muomala madaniyati, saxiylik, mehnatsevarlik, halollik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N44>

Eastern thinkers have made a great contribution to the treasury of human thought since time immemorial. Centuries have passed, the high spirituality of our forefathers, achievements in the field of knowledge and education have always been an example for us.

Studying the spiritual heritage of the past is one of the urgent issues necessary for the development of society. Because the spiritual heritage left by our ancestors contains wonderful, progressive ideas that are necessary for all eras, and they have not lost their importance for today's development.

The wise and insightful thoughts of our past thinkers about the meaning of life, the role of man in society, and his upbringing are the most delicious fruits of thought. They have been providing practical assistance in further enriching and educating the spiritual world of our people.

From this point of view, studying and demonstrating the spiritual heritage of the past and its importance in the spiritual life of society is one of the important, new theoretical-methodological and practical tasks.

If we consider Abdullah Avloni's opinion that "Education is a matter of life or death, salvation or destruction, happiness or disaster" [2; p. 80], these words of the great educator are just as important and relevant for our nation at the beginning of our century, and they are just as important and relevant for us today, if not more so.

Because education is a product of consciousness, but at the same time it is a factor that determines the level of consciousness and its development. Therefore, we cannot achieve our goal without changing the education system.

The 9th-12th centuries are considered the first Renaissance of the cultural rise of Central Asia. During this period, morality, etiquette, and manners were the main goals of human education, and maturity in mind, morality, and spirituality, the creation of a perfect person, humanism, and service to the homeland and people were among the leading aspects of the culture of this period.

Imam al-Bukhari's rich and valuable scientific heritage in the field of education is also worthy of attention. They reflect the great educational importance of genuine human virtues such as love, generosity, openness, respect for parents, women and the elderly, kindness to orphans and prisoners, compassion for the poor and needy, love for the homeland, hard work and honesty for the people of our modern society, especially the younger generation.

The great thinker Abu Nasr al-Farabi's teachings on the virtuous community are inextricably linked to his ideas about the perfect person. His teachings on the virtues of a perfect person emerge in a virtuous community, that is, on the twelve virtues that a morally mature person possesses, made a great contribution to the development of progressive social thought.

The poet and thinker Nasir Khisrav, who wrote, "If you want to grow spiritually, if you want to raise your status, if you want to get closer to the greats of the world, study science, improve your mind and understanding. Science makes a person a true human being, while ignorance removes him from the level of humanity," shows the enormous role of science in the spiritual and moral education of the younger generation.

The great figure of world culture of the 15th century, Nizomiddin Mir Alisher Navoi, places an important place in his works on education and upbringing, and scientifically substantiates that this can be achieved through hard work, purification, honesty, and faith. In his work "Mahbub-ul-qulub", he creates an image of a perfect person. In the work, he emphasizes that the only means that leads a person to perfection is patience, which is bitter but beneficial, and severe but repels harm and hardship. [1 ;p.68]

The philosopher and poet Sufi Alloyar makes the upbringing of a perfect person the main issue in his works. In his opinion, a person should have a certain belief. A person without belief, without a clear goal, has lived his life in vain. His life is wasted. He believes that it is necessary to show him the right path. He extols justice and fairness, honesty and correctness, enlightenment, love, solitude and solitude, and severely criticizes egoism and selfishness.

The poet Atin Uvaisi created delicate and charming works on the ideas of human destiny, individual freedom, and enlightenment. In his works, he considers respect for humanity, encouraging people to enjoy the blessings of nature and life, and virtues such as friendship, loyalty, and devotion as the achievement of human perfection. He created riddles for the young students of his time, which included quick thinking, beautiful speech, and other educational tools.

The school of the enlightened poet Abdulla Avloni was built on the basis of humanistic and liberal education, aimed at teaching children secular and advanced sciences, and served as a true public school that provided young people with the ability to participate in the socio-political life of the country.

In shaping the spiritual world of our people, it is necessary to awaken a sense of rightful pride in our ancestors and to effectively use the progressive ideas of Islam in educating young people.

Due to independence, the great cultural values of Muslimism were restored. The more deeply we perceive this priceless treasure from the heart, the more spiritually pure our lives become.

At this point, it is necessary to emphasize the importance of the Islamic religion, which our ancestors believed in, in the life of a person and his family, in morality and charity, and how it harmoniously combines with freedom of conscience.

The holy religion of Islam is also a religion that leads people to knowledge and guidance with all its being. Because the first revealed Surah of the Holy Quran begins with the word "Iqra" which means "read." In Surah 96 of the Quran, "Al-Alaq", it is written: "Read, for your Lord is Most Generous, He Himself taught the pen, and taught man that which he did not know."

Knowledge and enlightenment are also glorified in blessed hadiths. For example, the words "Seeking knowledge is obligatory for every believer" are recorded in a blessed hadith. Thanks to knowledge, people emerge from the mire of ignorance and ignorance and perfect their faith.

Through knowledge, people distinguish between right and wrong, between lawful and unlawful, and practice justice. Therefore, every member of society must be educated and spiritual. [4;p.227]

Islam teaches us that it plays an important role in enriching and elevating the spirituality of our youth. Today, our country is achieving the goal of studying religion with enlightenment and making it serve the well-being and harmony of the people. "We always highly value the fact that Islam is the religion of our ancestors, that it is both faith, morality, religion, and enlightenment for us. Summarizing the thousand-year history of our people and our religion, we can say that God is in our hearts, in our minds. Respect and belief in religion are immortal values for us," I.A. Karimov emphasized [3; p. 25].

The spiritual wealth accumulated by our ancestors over the centuries is being manifested in our lives today. This takes an important place in the spiritual and moral formation of young people and their education in the conditions of globalization.

References/Adabiyotlar/Literatura:

1. Alisher Navoi. Arba'in. /Complete collection of works. Twenty volumes. Sixteenth volume. -T., "Fan" publishing house, 2000.
2. Karimov I.A. High spirituality - an invincible force.-T., "Spiritualism"-2008, p. 80
3. Karimov I.A. (1998) "Without historical memory - there is no future". Tashkent, p. 25.
4. History of the religious people of Central Asia. Otv.editor: Sh.A. Yovkochoyov.-T.: TGIV, 2006. 227p.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

“PSYCHOLOGICAL AND PHILOSOPHICAL MECHANISMS OF NATIONAL SELF-AWARENESS AS A TOOL AGAINST EXTREMIST IDEOLOGIES”

Jorayev Akram Namozovich

Lecturer at the Department of Philosophy,
Termez State University
E-mail: akramtermiziy1990@gmail.com

Abstract. This study analyzes the psychological and philosophical foundations of the mechanisms of national self-identity in countering extremist ideas and radical ideologies. The research reveals the factors shaping an individual's national consciousness, its socio-psychological structures, and their role in ensuring ideological stability. The study examines the protective functions of national pride, historical memory, and cultural values in human cognition. Furthermore, it highlights philosophical concepts that strengthen the process of national self-awareness and their practical significance in combating extremism. As a result, the psychological mechanisms of forming ideological immunity among youth are substantiated, and pathways for developing a stable worldview through the system of national values are proposed.

Keywords: research, extremism, ideology, radicalism, national consciousness, philosophy, worldview, human, concept, immunity, psychology, mechanism, national values, development, stability.

EKSTREMIZM G'OYALARIGA QARSHI KURASHDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH MEXANIZMLARINING PSIXOLOGIK VA FALSAFIY ASOSLARI

Jo'rayev Akram Namozovich

Termiz davlat universiteti
Falsafa kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida ekstremistik g'oyalar va radikal mafkuralarga qarshi kurashishda milliy o'zlikni anglash mexanizmlarining psixologik hamda falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Maqolada shaxsning milliy ongini shakllantiruvchi omillar ijtimoiy-psixologik strukturalari va ularning mafkuraviy barqarorlikdagi o'rni ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida inson tafakkurida milliy g'urur, tarixiy xotira va madaniy qadriyatlarining himoya funksiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy o'zlikni anglash jarayonini mustahkamlovchi falsafiy konsepsiyalar va ularning ekstremizmga qarshi kurashdagi amaliy ahamiyati yoritiladi. Natijada, yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari asoslab beriladi hamda milliy qadriyatlar tizimi orqali barqaror dunyoqarashni rivojlantirish yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: tadqiqot, ekstremizm, g'oya, radikal, milliy ong, falsafa, mafkura, inson, konsepsiya, immunitet, psixolog, mexanizm, milliy qadriyat, dunyoqarash, rivojlantirish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N45>

Kirish. Milliy o'zlikni anglash (yoki milliy ong, milliy identifikatsiya) — bu shaxsning o'zini ma'lum bir millatga mansub deb bilishi, o'sha millatning madaniyati, tarixiy xotirasi, qadriyatlari va kelajagi oldidagi mas'uliyatini anglashidir. So'nggi yillarda ekstremistik mafkuralar, ayniqsa, o'zini yo'qotgan, adolatsizlikni his qilgan yoki madaniy uzilishlarga uchragan shaxslar orasida keng tarqalayotgani kuzatilmoqda. Shu sababli, milliy o'zlikni anglashning mustahkam shakllanishi psixologik va falsafiy jihatdan bu tahdidlarga qarshi

muhim qalqon vazifasini bajaradi. Quyidagi matnda milliy o'zlikni anglashning psixologik va falsafiy mexanizmlari, ularning ekstremizmga qarshi ta'siri hamda ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan dalillar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Milliy o'zlikni anglash va ekstremizmga qarshi mafkuraviy barqarorlik masalalari so'nggi yillarda O'zbekiston hamda xalqaro miqyosda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekistonlik olimlardan **Karimov Sh.** va **Sodiqova M.** ushbu yo'nalishda e'tiborga loyiq ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Sh. Karimovning "Milliy o'zlik va mafkuraviy immunitet nazariy asoslari" (2020) nomli ishida milliy ongning shakllanishi va uni psixologik jihatdan mustahkamlovchi omillar chuqur tahlil qilinadi. U o'z tadqiqotida inson ongidagi milliy qadriyatlar tizimi, tarixiy xotira va madaniy ramzlarning ijtimoiy ongda barqarorlik yaratishdagi o'rni haqida nazariy model ishlab chiqqan. Karimovning fikricha, milliy o'zlikni anglash — bu inson tafakkurining "ichki immunitet" tizimi bo'lib, u ekstremistik g'oyalarning kirib kelishiga qarshi psixologik to'siq yaratadi. [1]

Xorijiy adabiyotlarda bu masalani John Horgan (AQSh) va Fathali Moghaddam (Kanada) chuqur o'rgangan. J. Horgan o'zining "The Psychology of Terrorism" (2014) nomli asarida ekstremizm va radikallashuvni shaxs psixologiyasi bilan bog'laydi. U nazariy jihatdan ekstremizmning "motivatsion zanjiri" ni tahlil qilib, bu jarayonni buzishning eng samarali yo'li sifatida milliy va fuqarolik o'zligini mustahkamlashni ilgari suradi. Fathali Moghaddam esa o'zining mashhur "The Staircase to Terrorism" (2005) modeli orqali radikalizatsiyaning ijtimoiy-psixologik bosqichlarini tushuntirgan. U nazariy jihatdan odamni ekstremistik mafkuraga olib boruvchi besh pog'onali jarayonni ishlab chiqqan bo'lib, bu bosqichlarning har birida milliy o'zlik, madaniy birdamlik va ijtimoiy adolat hissining yo'qolishi muhim sabab sifatida ko'rsatilgan. [2]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda ekstremizm g'oyalari qarshi kurashishda milliy o'zlikni anglashning psixologik va falsafiy mexanizmlarini o'rganish uchun tizimli yondashuv, tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Empirik ma'lumotlar sotsiologik so'rovlar, psixologik kuzatuvlar va kontent tahlili orqali to'plandi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar o'rtasida konseptual qiyoslash amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari asosida nazariy model va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Muhokama. Bugungi globalashuv jarayonida ekstremizm va radikalizm g'oyalari insoniyat tinchligi va ma'naviy barqarorligiga jiddiy tahdid solayotgan ijtimoiy hodisaga aylandi. Ayniqsa, yoshlar ongini manipulyatsiya qilish orqali ularni milliy qadriyatlardan, tarixiy xotiradan va madaniy identifikatsiyadan uzib qo'yishga qaratilgan g'oyaviy bosimlar tobora kuchaymoqda. Shu bois, ekstremistik g'oyalarga qarshi kurashda milliy o'zlikni anglash mexanizmlarini shakllantirish va mustahkamlash nafaqat ma'naviy, balki psixologik, falsafiy va mafkuraviy zaruratga aylandi. [3] Mazkur ilmiy ishda milliy o'zlikni anglashning shaxs tafakkurida mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi o'rni, uning falsafiy konseptual asoslari hamda psixologik ta'sir mexanizmlari tahlil qilinadi.

Milliy o'zlikni anglash tushunchasi falsafiy jihatdan insonning o'z tarixiy ildizlari, madaniy merosi, tili, dini va qadriyatlari bilan o'zini identifikatsiya qilish jarayoni sifatida talqin etiladi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida bu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar, xususan, O'zbekistonlik olim A. Saidov (2018) va Sh. Yusupov (2020) tadqiqotlarida milliy o'zlikni anglash milliy ong va ma'naviyatning ajralmas qismi sifatida qaralgan. Ularning fikricha, milliy o'zlikni yo'qotish yoki unga nisbatan befarqlik insonni g'oyaviy manipulyatsiyaga ochiq holatga

keltiradi. Xorijiy olimlardan esa J. Taylor (2017) va M. Castells (2019) o'z tadqiqotlarida identifikatsiya va global madaniy bosim o'rtasidagi ziddiyatni tahlil qilib, milliy o'zlikni anglashning ekstremizmga qarshi tabiiy himoya mexanizmi sifatida namoyon bo'lishini asoslab bergan. [4]

Psixologik nuqtai nazardan, milliy o'zlikni anglash shaxsning ijtimoiy moslashuvini, emotsional barqarorligini va ijtimoiy mas'uliyat hissini kuchaytiruvchi muhim omildir. 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi "Yoshlar ijtimoiy psixologiyasi" markazi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda 18–30 yosh oralig'idagi 1200 nafar respondent o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar natijasida aniqlanishicha, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan yoshlarning 78 foizi ekstremistik targ'ibotga nisbatan tanqidiy yondashuv ko'rsatgan, milliy ildizlariga befarq bo'lganlar esa bunday g'oyalarga 2,3 baravar tezroq ta'sirchan bo'lgan. Bu holat shaxs ongida "milliy psixologik immunitet" deb ataluvchi ichki himoya tizimining mavjudligini ko'rsatadi. [7]

Falsafiy tahlil shuni ko'rsatadiki, milliy o'zlikni anglash inson tafakkurida ikki darajada — individual va kollektiv ongda shakllanadi. Individual darajada bu shaxsning o'z qadriyatlari, tili, tarixiga bo'lgan faxr hissi orqali ifodalanadi, kollektiv darajada esa millatning o'zini tarixiy subyekt sifatida anglashida namoyon bo'ladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, davlat siyosatida milliy o'zlik va ma'naviy tiklanish konsepsiyasi ustuvor yo'nalishga aylandi. [6] "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi, "Yoshlar ishlari agentligi", shuningdek, "Milliy g'oya va mafkura asoslari" fanining ta'lim tizimiga kiritilishi yoshlar ongida milliy g'urur va tarixiy xotira asosida mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan tizimli ishlar sifatida e'tirof etish mumkin.

Natijalar. Ushbu tadqiqot natijalari milliy o'zlikni anglashning ekstremistik va radikal g'oyalarga qarshi mafkuraviy barqarorlikni mustahkamlovchi muhim omil ekanligini asoslab berdi. Avvalo, shaxsning milliy ong va madaniy identifikatsiyasi kuchli bo'lgan jamiyatlarda radikalizmga moyillik darajasi pastligi aniqlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan olib borilayotgan "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi hamda "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlari faoliyati tahlili shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya modeli yoshlar ongida mafkuraviy immunitet shakllanishida samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqotimiz davomida 18–30 yosh oralig'idagi respondentlar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar natijalariga ko'ra, o'z milliy ildizlarini chuqur anglagan shaxslar ekstremistik targ'ibotga nisbatan tanqidiy fikr yuritish va himoya refleksiga ega ekanligi qayd etildi. [1]

Bundan tashqari, tadqiqotda milliy g'urur, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlar inson tafakkurida "psixologik himoya" mexanizmini shakllantirishini tasdiqlovchi empirik dalillar keltirildi. Falsafiy tahlil shuni ko'rsatdiki, milliy o'zlikni anglash faqat madaniy merosni eslash emas, balki uni zamonaviy ijtimoiy hayotda faol qadriyat sifatida qo'llashni ham nazarda tutadi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari milliy o'zlikni anglash jarayonini kuchaytirish ekstremistik g'oyalarning tarqalishiga qarshi eng samarali psixologik va mafkuraviy mudofaa shakli ekanligini ilmiy asosda isbotladi. [8]

Xulosa. Milliy o'zlikni anglash — bu shunchaki tug'ma tuyg'u emas, balki falsafiy, psixologik va ijtimoiy jarayonlarning uyg'unlashgan natijasidir. U insonning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari va jamiyatdagi o'rnini anglash orqali shakllanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, mustahkam va inklyuziv milliy o'zlik ekstremistik mafkuralarga qarshi eng

samarali himoya vositasidir. Shu bois, ta'lim, madaniyat, psixologik tarbiya va siyosiy institutlar bu yo'nalishda birgalikda harakat qilishi zarur.

Tavsiyalar. Ta'lim tizimini isloh qilish o'quv dasturlarida milliy qadriyatlar, tarix, adolat va bag'rikenglik mavzulari falsafiy asosda o'rgatilishi zarur. Psixologik tayyorgarlik yoshlarning tanqidiy fikrlash, hissiy barqarorlik, irratsional e'tiqodlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish lozim. Madaniy dasturlar xalqning tarixiy xotirasini jonlantiruvchi tadbirlar — muzeylar, festival va oila tarixiga oid loyihalar milliy o'zlikni mustahkamlaydi. Davlat siyosatida tenglik, adolat va bag'rikenglikni ta'minlaydigan siyosatlar milliy o'zlikni sog'lom shakllanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литературы/References:

1. Karimov Sh. Milliy o'zlik va mafkuraviy immunitet nazariy asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2020. – 186 b.
2. Sodiqova M. Yoshlar ongida milliy identitet va mafkuraviy barqarorlik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2022. – 152 b.
3. Horgan, J. The Psychology of Terrorism. – New York: Routledge, 2014. – 258 p.
4. Moghaddam, F. The Staircase to Terrorism: A Psychological Exploration. – American Psychologist, Vol. 60, No. 2, 2005, pp. 161–169.
5. Raximova, N. (2019). *Yoshlar ongida milliy qadriyatlar asosida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik xususiyatlari*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
6. UNESCO. (2020). *Global Citizenship and Counter-Extremism: Building Resilience through Education*. – Paris: UNESCO Publishing.
7. 李明哲 (Li Mingzhe). (2018). *国家认同与社会稳定：青年意识形态研究》* [Milliy o'zlik va ijtimoiy barqarorlik: yoshlar mafkurasi tadqiqi]. 北京: 社会科学文献出版社 (Pekin: Ijtimoiy Fanlar Nashriyoti).
8. 박지현 (Park Ji-hyun). (2021). *문화 철학과 국가 정체성: 사상적 안정성의 기초 연구* [Madaniyat falsafasi va milliy o'zlik: g'oyaviy barqarorlikning nazariy asoslari]. 부산: 동아대학교 출판사 (Pusan: Dong-A Universiteti Nashriyoti).

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

GLOBALIZATION AS A FACTOR IN UNDERSTANDING SPIRITUALITY

Taylyakova Feruzakhon Sultanovna

Andijan State Technical Institute

Senior Lecturer of the Department of "Language and Humanities"

E-mail: Nurislom_2000@mail.ru

Abstract. This article analyzes the impact of globalization processes on human spirituality. As a result of information exchange, intercultural communication, and the worldwide spread of universal human values, people are striving to reassess their national and spiritual values. At the same time, globalization is also giving rise to spiritual threats. The author evaluates globalization as an important factor in understanding, analyzing, and strengthening spirituality. The article discusses ways to preserve national identity, foster tolerance, and promote spiritual growth.

Keywords: globalization, national development, national self-awareness, spiritual heritage, national pride, national consciousness.

GLOBALLASHUV — MA'NAVIYATNI ANGLASH OMILI

Taylyakova Feruzahon Sultanovna

Andijon davlat texnika instituti

"Tillar va gumanitar fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonlarining inson ma'naviyatiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilingan. Jahon miqyosida axborot almashinuvi, madaniyatlararo muloqot va umuminsoniy qadriyatlarining tarqalishi natijasida inson o'z milliy va ma'naviy qadriyatlarini qaytadan anglashga harakat qilmoqda. Shu bilan birga, globallashuv ma'naviy tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqda. Muallif globallashuvni ma'naviyatni anglash, tahlil qilish va mustahkamlashda muhim omil sifatida baholaydi. Maqolada milliy o'zlikni asrash, bag'rikenglikni shakllantirish hamda ma'naviy barkamollikka erishish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, milliy taraqqiyot, milliy ong, ma'naviy meros, milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N46>

Kirish. Globallashuv — bu butun dunyo miqyosidagi mamlakatlar, xalqlar va jamiyatlarning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirining ortib borish jarayonidir. U iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, fan-texnika, axborot va turli sohalarida namoyon bo'ladi.

Globallashuv bugungi kunda insoniyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot sohalaridagi chegaralarni yo'qqa chiqarayotgan, dunyo mamlakatlarini bir tizimga bog'lab turuvchi global jarayondir. U nafaqat iqtisod va texnologiya, balki insonning ma'naviy hayotiga ham chuqur ta'sir o'tkazmoqda. Shu jihatdan globallashuv ma'naviyatni anglash va baholashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz oldida turgan vazifalardan biri- bu yosh avlodni tashqi ta'sirdan himoya qilish va tarbiyalash davr taqozosi va talabi hamdir. Globallashuv va ma'naviyat tushunchalariga ta'rif berish joizdir. Globallashuv bu insoniyat taraqqiyoti va jamiyat hayotining jahon miqyosida integratsiyalashishi, g'oyalar amaliyotining natijasida

sodir bo'layotgan "globallashuv" tushunchasida o'z ifodasini topdi[1]. Globallashuv-turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir. Dunyoga yangicha nazar, kommunikatsiyaning rivojlanishi, investitsiyalarning oqimim globallashuvning omillari hisoblanadi. Bugungi kungacha globallashuvning iqtisodiy omillariga ko'proq, e'tibor qaratilgan edi. Darhaqiqat, iqtisodiy omil katta ahamiyatga ega, lekin yagona omil emas. Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach yurtboshimiz tomonidan ma'naviyatga e'tibor berilishi bejiz emas albatta.

Adabiyotlar tahlili. Quyida globallashuv mavzusida yozilgan ilmiy ishlar, xususan xalqaro va O'zbekiston va xalqaro olimlar tomonidan yozilgan.

Xalqaro tadqiqotchilarning Anthony Giddens "Runaway World: How Globalisation is Reshaping Our Lives"[1] globallashuvning ijtimoiy va madaniy oqibatlarini haqida, Zygmunt Bauman "Liquid Modernity" global dunyoda insonning noaniqlik va ma'naviy tiniqsizlik sharoitida yashashini, Thomas Friedman "The Lexus and the Olive Tree" asarida globallashuv va milliy qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatlarini tahlil qilgan.

O'zbekiston olimlaridan Jo'rayev A. tomonidan yozilgan "Globallashuv jarayonida milliy ma'naviyatning o'rni va ahamiyati" nomli ilmiy maqolasida globallashuv ta'sirida milliy ma'naviyatning o'zgarishi va uni saqlab qolish mexanizmlarini tahlil qiladi. Islomov B.tamonidan yozilgan

"Globallashuv sharoitida milliy o'zlik va uni saqlash muammolari" nomli dissertatsiyasida milliy identifikatsiyani global ta'sirlardan himoya qilish usullari haqida, Saidov A.A. "Globallashuv va inson huquqlari" nomli monografiyasida globallashuvning huquqiy, siyosiy va falsafiy jihatlari ko'rib chiqilgan, Toshmatova G.Sh. "Globallashuv va yoshlar ma'naviyati" nomli ilmiy maqolasida, Yoshlar ongida globallashuv ta'sirini tahlil qiladi.

Tadqiqot metodlari. Bugungi kunda mamlakatimiz oldida turgan vazifalardan biri- bu yosh avlodni tashqi ta'sirdan himoya qilish va tarbiyalash davr taqozosi va talabi hamdir. Globallashuv va ma'naviyat tushunchalariga ta'rif berish joizdir. Globallashuv bu insoniyat taraqqiyoti va jamiyat hayotining jahon miqyosida integratsiyalashishi, g'oyalar amaliyotining natijasida sodir bo'layotgan "globallashuv" tushunchasida o'z ifodasini topdi [2].

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta'rifi va talqinlariga ko'ra, hozirgi zamonda:

birinchidan, ko'z o'ngimizda dunyoning butunlay yangi, beqaror, xavotirli geosiyosiy va geoiqtisodiy arxitekturasi shakllanmoqda;

ikkinchidan, turli mamlakatlar o'rtasida nizo va adovatlar, qarama-qarshilik, ishonchsizlik muhiti kuchaymoqda hamda jamiyatlar ichida ma'naviy tanazzul ildiz otmoqda;

uchinchidan, notinch va tahlikali zamonda azaliy qadriyatlarni, odamiylik qiyofasini saqlab qolish tobora mushkul bo'lib bormoqda;

to'rtinchidan, yangi vayronkor mojarolar paydo bo'lmoqda, global va mintaqaviy xavfsizlikka tahdidlar kuchaymoqda;

beshinchidan, tashvishli jihati shundaki, bu xavf-xatarlar davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch kamayayotgan, qarama-qarshilik va ziddiyatlar ortishi natijasida geosiyosiy keskinlik ortayotgan vaziyatda kechmoqda;

oltinchidan, xalqaro huquq normalari va prinsiplari tez-tez buzilmoqda;

yettinchidan, inqiroz va muammolarni hal qilish bo'yicha jahon hamjamiyatida mavjud bo'lgan xalqaro-huquqiy vositalar, afsuski, o'zining samaradorligini borgan sari yo'qotmoqda;

sakkizinchidan, dunyo ishonch, adolat va hamjihatlik qayta tiklanishiga har qachongidan ham ko‘proq ehtiyoj sezmoqda;

to‘qqizinchidan, global siyosiy va iqtisodiy “parchalanishlar”, urushlar va mojarolar xalqaro munosabatlar tizimi asosi va hal qiluvchi tamoyillarining yemirilishiga olib kelmoqda;

o‘ninchidan, qarama-qarshilik va proteksionizm jahon iqtisodiyoti parchalanishi va yetkazib berish zanjirlari uzilishiga sabab bo‘lmoqda;

o‘n birinchidan, mamlakatlarning savdo, moliya, sarmoya, texnologiya va innovatsiyalar transferi sohalaridagi samarali hamkorligida to‘sqinlik qiladigan yangi ajratuvchi chegaralar vujudga kelmoqda;

o‘n ikkinchidan, dunyoda davom etayotgan turli mojarolar, gumanitar, epidemiologik va iqlim inqirozlari BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish hamda kambag‘allikning barcha ko‘rinishlarini qisqartirish borasidagi sa‘y-harakatlarga jiddiy tahdid solmoqda;

o‘n uchinchidan, global iqlim o‘zgarishi oqibatida sayyoramizda keskin ekologik vaziyat yuzaga kelib, barcha qit‘alarda va mamlakatlarda ichimlik suvi taqchilligi, atrof-muhit ifloslanishi, tuproq yemirilishi, kuchli chang va qum bo‘ronlari, bioxilma-xillikning yo‘qolishi, qishloq xo‘jaligi hosildorligining pasayishi kabi muammolar avjiga chiqmoqda;

o‘n to‘rtinchidan, jahon iqtisodiyotida beqarorlik kuchayib, energetika, oziq-ovqat sohalari va ekologik tizimda inqirozlar o‘tkir tus olmoqda;

o‘n beshinchidan, shu bilan birga, butun jahon iqtisodiyoti raqamlashtirish jarayoniga o‘tmoqda, “yashil” texnologiyalar va innovatsion taraqqiyot har qanday soha va biznes rivoji uchun ustuvor ahamiyat kasb etmoqda”[3].

Globalashuv ma‘naviyat omili sifatida inson va jamiyatning ma‘naviy dunyosiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Bu jarayon faqat iqtisod yoki siyosatda emas, balki qadriyatlar, ma‘rifat, urf-odatlar va dunyoqarashda ham chuqur iz qoldiradi. Globalashuv ma‘naviyat uchun ham imkoniyat, ham sinovdir. Milliy an‘ana va qadriyatlarni asrab qolgan holda, dunyo madaniyati yutuqlarini qabul qilish orqali inson va jamiyat ma‘naviyatini boyitish mumkin.

“Ma‘naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e‘tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”[4].

Ma‘naviyat tushunchasiga bir qator olimlar A.Erkov, M.Imomnazarov, T.Mahmudovlar o‘z fikr va mulohazalarini bergan. Yuqoridagi fikrlarni mantiqiy davomi sifatida S.Otamurodov, S.Otamurodovlar quyidagicha yondashadi. Ma‘naviyat-insonning ichki ruhiyati, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go‘zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni, ajrata olish qobiliyatini, aql – zakovatini, yuksak maqsad va g‘oyalarni qo‘ya bilish, ularni amalga oshirish yo‘lida ongli faoliyat ko‘rsatish va intilish salohiyatidir[5] deb ta‘kidlaydi. Tanganing ham ikki tomoni bo‘lgani kabi, globalashuvning ham ijobiy va salbiy jihatlari farqlash davr talabidir. Inson tug‘ilishi bilan o‘zida moddiy va ma‘naviy ehtiyojiga muhtoj ekanligini his etadi. Moddiy ehtiyoji ona suti bilan qondirsa, ona allasi ma‘naviy ehtiyojining debochasi hisoblanar ekan, shu asnoda o‘z meniga ega bo‘lish bilan dunyoga yangicha nazar solishda ta‘lim – tarbiyaning roli katta. “Ta‘limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta‘limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”.

Globalashuv muttasil davom etadigan tarixiy jarayon ekan, ma‘naviy ehtiyoj – har qadamda insonning zarur va oilada tarbiyani kuchaytirish kun tartibiga qo‘yilgan masalalardan biri hisoblanadi. Vatanga muhabbat ostonadan boshlanadi deganidek yoshlarni tarbiyalashda

milliy tabiatimizga, bolalar qiziqishi va hissiyotlarini hisobga olgan holda milliy ertak qahramonlari aks ettirilgan o'yinchoqlar bilan tarbiyalash, va shu asnoda atrof muhitni anglaydi, hamda, insonparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, milliylik, milliy g'urur, or – nomus kabi tushunchalar paydo bo'ladi va kamol topishda ko'maklashadi. Yaponlarning milliy g'oyasi "Oldin miyani to'lg'az, keyin miya o'zingni to'lg'azadi". Yaponlar yoshlarda milliy g'urur va iftixor tushunchalari shakllantirish maqsadida mitsubishi kompaniyasini avto suratlari tushirilgan chaqaloqlarni kiyimlari, o'yinchoqlari, maktab o'quv qurollari, keyinchalik milliy avtolarini xarid etishga tayyorlab borishga harakat qilganlar. Darhaqiqat bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olayotgan ekan, insoniyat oldida ikki muhim masala: bulardan biri — qanday yashamoq kerak, ikkinchisi – nima qilmog'-u, nima qilmaslik lozim. Mazkur savollarga javob izlash axloqiy tarbiyaning amaliy ko'rinishidir. Yoshlar tarbiyasining eng kuchli vositasi-san'atdir. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Tarozi pallas qay tomonga qarab ketayotganidan xabari yo'q, achinarli jihati shundaki ko'pchilik bu holatni ko'ngil ochar musiqa sifatida qabul qilishmoqda, natijada yangi "stayl"chilar paydo bo'lmoqda. Agar insonning qulog'i yengil-yelpi, tum-taraq ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning ma'naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi hech gap emas. Oxir oqibatda odam "Shashmaqom" milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo'ladi[6]. Jamiyat taraqqiyoti iqtisodiy omillar bilan birgalikda ma'naviy omillarga ham bog'liq ekanligini, fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida fuqarolarning ma'naviy yetukligi muhim ahamiyatga ega ekanligi, o'z navbatida bugungi globallashuv sharoitida mafkuraviy kurashlar, axborot xurujlari, ommaviy madaniyatning milliy madaniyatga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirlarini oldini olishda ma'naviyatni yuksaltirish vazifasi turganligini, Tarbiya masalasi hamma davrlarda ham eng murakkab mas'uliyatli vazifa bo'lib kelgan. Chunki, uning zaminida muayyan manfaatlar bilan bog'liq bo'lgan maqsadlar yotadi. Bu maqsadlar tizimi va ularning mohiyati davlatlar, turli siyosiy kuchlar yaratgan va amal qilgan mafkurada ifodalanadi.

Globallashuv ma'naviyatga ham imkoniyat, ham xavf olib kiradi. Shu bois milliy ma'naviy merosni asrab-avaylash, yoshlarda mustaqil dunyoqarash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ma'naviy immunitetni kuchaytirish juda muhimdir.

Xulosa. Globallashuv – bu murakkab va ikki yoqlama jarayon. Uning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, falsafiy-axloqiy muammolari ham mavjud. Ushbu muammolarni chuqur tahlil qilish va unga qarshi ma'naviy yechimlar ishlab chiqish falsafa fanining muhim vazifalaridan biridir. Milliy o'zlik, madaniy meros va ma'naviy barqarorlikni saqlash global dunyoda har bir millatning muvaffaqiyat kalitidir. Har qanday ijtimoiy yo'naltirilgan mafkurada ham jamiyat ma'naviy kamolotini, unga zamin bo'ladigani ta'lim-tarbiya ishlari tizimini muayyan ijtimoiy-siyosiy maqsadlar bilan bog'lashga qaratilgan g'oyalardan iborat bo'lgan.

Globallashuv sharoitida ma'naviyatni anglash omili — jamiyatning axloqiy barqarorligi, milliy o'zligini saqlash va kelajak avlodni ma'nan yetuk etib tarbiyalashning asosiy kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Bu borada har bir shaxs, oila, ta'lim muassasasi va davlat organlari mas'uliyat bilan yondashishi zarur.

Globallashuv ma'naviyatni anglash omili sifatida insonni o'z milliy ildizlarini tereqroq idrok qilishga, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga va ma'naviy dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Anthony Giddens “Runaway World: How Globalisation is Reshaping Our Lives” 2002
2. Қ.Н. Назаров: Ғоялар фалсафаси.Тошкент . 2011. 103 бет.
3. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2024. – Б. 6.
4. И.А. Каримов: “Юксак ма’навият-енгилмас куч”.Тошкент, Манавият 2008. 19 бет.
5. С.Отамуродов, С. Отамуродов: Ўзбекистонда ма’навий-рухий тикланиш.”Янги аср авлоди” Тошкент-2003. 178 бет
6. И.А. Каримов: “Юксак ма’навият-енгилмас куч”.Тошкент, Манавият 2008. 62 бет.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE RATIONING OF YOUTH MORALITY IN THE MAHALLA AND THE FAMILY

Tokhirov Abdumalik Ashurali o'glu

Support doctoral student,
Andijan State Pedagogical Institute

Abstract. This article analyzes socio-philosophically the harmonious and stable influence of the neighborhood and family in the normalization of youth morality. The study reveals the transformation of traditional social institutions in modern society, the spiritual-spiritual factors in the formation of the moral self of the younger generation, as well as the dialectical connection between cultural heritage and global trends. The article is based on the role of the neighborhood and family not only in control and upbringing, but also in social solidarity, the continuous transfer of moral values, as well as the development of a person's sense of responsibility for his life. At the same time, the adaptation of young people to new moral criteria that have arisen under the influence of social networks and digital culture is also analyzed.

Keywords: Neighborhood, Family, Youth ethics, social normalization, socio-philosophical analysis, upbringing, moral values, cultural heritage, globalization, Digital Culture.

MAHALLA VA OILADA YOSHLAR AXLOQINI ME'YORLASHTIRISHNING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI

Toxirov Abdumalik Ashurali o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti
MG'MAHT kafedrası tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalla va oilaning yoshlar axloqini me'yorlashtirishdagi o'zaro uyg'un va barqaror ta'siri ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda an'anaviy ijtimoiy institutlarning zamonaviy jamiyatdagi transformatsiyasi, yosh avlodning axloqiy o'zligini shakllantirishdagi ruhiy-ma'naviy omillar, shuningdek, madaniy meros va global tendensiyalar o'rtasidagi dialektik bog'liqlik ochib beriladi. Maqolada mahalla va oilaning nafaqat nazorat va tarbiya, balki ijtimoiy birdamlik, axloqiy qadriyatlarini uzluksiz uzatish, shuningdek, shaxsni o'z hayoti uchun mas'uliyat hissini rivojlantirishdagi roli asoslanadi.

Kalit so'zlar: mahalla, oila, yoshlar axloqi, ijtimoiy me'yorlashtirish, ijtimoiy-falsafiy tahlil, tarbiya, axloqiy qadriyatlar, madaniy meros, globalizatsiya, raqamli madaniyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N47>

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli madaniyat davrida yoshlarning axloqiy ongi va me'yorlarini shakllantirish masalasi tobora dolzarb tus olmoqda. Yosh avlodning ongida milliy qadriyatlar, insonparvarlik tamoyillari va zamonaviy dunyoqarashni uyg'un holda rivojlantirishda, avvalo, mahalla va oilaning o'rni beqiyosdir. Shu jihatdan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning *"Mahalla – bebaho qadriyatlarimiz beshigi, mehr-oqibat, ahillik va totuvlik maskani. Bir-biriga yelkadosh bo'lish, ehtiyojmand, muhtoj insonlarga ko'mak berish kabi ko'pdan-ko'p ezgu odat va an'analarimiz aynan mahallada yaqqol namoyon bo'ladi,"* [1:312] degan fikri ham ushbu institutning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini chuqur ochib beradi.

Mazkur fikr zamirida mahalla nafaqat ijtimoiy hayotning eng quyi bo'g'ini, balki yoshlarni ezgulikka, mehr-oqibatga, insoniy qadriyatlarga yo'naltiruvchi eng samarali tarbiya maktabi ekani ta'kidlanadi. Ayniqsa, bugungi raqamli madaniyat ta'sirida shakllanayotgan yangi axloqiy me'yorlar va xulq-atvor andozalarini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishda mahalla institutining roli beqiyosdir. Mahalla muhitida yoshlar o'zligini angelaydi, milliy g'urur, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ulari shakllanadi. Shu bois, mahalla va oila hamkorligida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar yoshlarning axloqiy ongi, dunyoqarashi va ijtimoiy faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Raqamli muhitda tarqalayotgan turli g'oyalar, madaniy kodlar va axborot oqimlari yoshlarning dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, ularning axloqiy immunitetini mustahkamlash, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash va zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayonda mahalla va oila institutlari eng asosiy ijtimoiy tarbiya muhitlari sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mahalla – bu nafaqat hududiy birlik, balki jamiyatning axloqiy, ma'naviy va madaniy hayotini tartibga soluvchi, insonlar o'rtasida mehr-oqibat, birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlovchi qadimiy institutdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Mahalla – bebaho qadriyatlarimiz beshigi, mehr-oqibat, ahillik va totuvlik maskani...” degan fikri mahalla institutining tarbiyaviy, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan beqiyos o'rnini chuqur yoritadi [1;312]. Bu fikr zamirida mahalla yoshlar uchun ezgulikka yo'naltiruvchi, insoniylik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi hayot maktabi sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, raqamli madaniyat sharoitida shakllanayotgan yangi axloqiy me'yorlar, ijtimoiy tarmoqdagi xulq-atvor andozalari va virtual muhitdagi kommunikatsiya uslublarini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish zarurati tobora kuchaymoqda. Mahalla muhitida yoshlar o'z milliy o'zligini angelaydi, tarixiy xotira va madaniy meros bilan bog'lanadi, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Bu esa ularning jamiyatda faol, ongli va mas'uliyatli shaxs sifatida kamol topishiga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan, mahalla va oila hamkorligida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tarbiyaviy dasturlar va ijtimoiy loyihalar yoshlarning axloqiy ongi, estetik didi, fuqarolik madaniyati va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mahalla faollari, nuroniylar, pedagoglar va ota-onalar hamkorligida tashkil etilayotgan targ'ibot tadbirlari, ma'naviy suhbatlar, sport va madaniy tadbirlar yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini, vatanparvarlik ruhini va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yoshlar axloqini me'yorashtirish jarayoni ko'plab tarixiy, diniy va falsafiy manbalarda chuqur tahlil etilgan bo'lib, bu manbalar orqali mahalla va oilaning tarbiyaviy rolini anglash yanada kengayadi. Tarixiy manbalarda axloqiy me'yorlar ko'proq shaxsiy kamolot, ijtimoiy mas'uliyat va jamiyatga foydali bo'lish tamoyillari bilan bog'langan. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida inson axloqida til va qalb uyg'unligi muhim omil sifatida ko'rsatiladi. U “kishi uchun kerakli ikki a'zo bor: biri til, boshqasi yurak... Egri, yaroqsiz so'zlarni tashqariga chiqargandan ko'ra, tilning harakatsiz qolgani ma'qul” [2;31] degan fikr orqali axloqiy poklik, so'zning kuchi va qalbning sof bo'lishi yoshlar tarbiyasining asosi ekanini ta'kidlaydi. Bu nuqtai nazar yosh avlodning ma'naviy kamolotida rostgo'ylik, halollik va mulohazalilik tamoyillarining ustuvorligini ko'rsatadi. Diniy manbalarda esa axloqiy me'yorlar ko'proq ilohiy buyruqlar, mehr-oqibat va o'zaro hurmat asosida shakllanadi. Qur'oni karimdagi “U Zot sizlar hamdam bo'lishlaringiz uchun o'zlaringizdan juftlar yaratishi va o'rtalaringizda oshnolik va mehr-muhabbat paydo qilishdir.

Albatta bunda tafakkur qiladigan qavm uchun oyat-ibratlar bordir” [3;125] oyati oiladagi mehr-muhabbat, sadoqat va o‘zaro hurmatning axloqiy me‘yorlarni shakllantirishdagi chuqur ahamiyatini ifodalaydi. Bu jihatlar yoshlar ongida ijtimoiy mas‘uliyat, sabr-toqat, fidoyilik va o‘zaro hamjihatlik tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Zamonaviy falsafiy va sotsiologik tadqiqotlarda ham mahalla va oilaning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni alohida e‘tirof etiladi. Masalan, Musurmonov oilani “Sharqda asrlar davomida shakllanib kelgan jamiyatning mustahkam poydevori, uni harakatga keltiruvchi kuch” [4;3] sifatida baholaydi. Bu qarash oilaning shunchaki kichik ijtimoiy birlik emas, balki jamiyatning ma‘naviy-axloqiy rivojlanishini belgilovchi muhim institut ekanini ko‘rsatadi. Otamurotov esa “O‘zbekistonda oilalarga berilayotgan e‘tibor, ularning qo‘llab-quvvatlanishi davlatimiz siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanganligi, oilalarda ota-onalarning shukronalik ruhiyatining mavjudligi” [5;23] deya ta‘kidlab, yoshlar axloqini me‘yorlashtirish jarayonida davlat siyosati va ijtimoiy muhitning hamohangligini muhim omil sifatida ko‘rsatadi. Bu holat yoshlarning ongida barqaror axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda tashkiliy va institutsional asoslarning mavjudligini anglatadi. Maqolada metodologik jihatdan tarixiy-taqqoslov, tizimli yondashuv va falsafiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tarixiy-taqqoslov yondashuvi orqali mahalla va oilaning turli davrlardagi tarbiyaviy funksiyalari solishtirildi, ularning zamonaviy sharoitdagi o‘zgarishlari tahlil qilindi. Tizimli yondashuv esa mahalla va oilani ijtimoiy tizimning tarkibiy qismlari sifatida ko‘rib, ularning o‘zaro aloqasi va yoshlar axloqiga ta‘sir mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi. Falsafiy tahlil orqali esa axloqiy me‘yorlarning mohiyati, ularning inson kamolotidagi o‘rni va mahalla-oila muhitida qanday shakllanishi chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, mahalla va oilaning yoshlar axloqiy me‘yorlarini shakllantirishdagi amaliy faoliyati empirik kuzatishlar va mavjud ilmiy manbalar tahlili asosida o‘rganildi. Mahalla faollari, ota-onalar, pedagoglar va yoshlar bilan olib borilgan suhbatlar, kuzatuvlar va statistik ma‘lumotlar asosida mahalla va oilaning tarbiyaviy samaradorligi baholandi. Bu usullar yoshlar ongida axloqiy qadriyatlarining shakllanishi, ularning barqaror me‘yor sifatida qaror topish jarayonini chuqur tushunishga yordam berdi.

Natijalar. O‘tkazilgan chuqur ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mahalla va oilaning yoshlar axloqini me‘yorlashtirishdagi o‘zaro uyg‘un faoliyati nafaqat tarixiy, diniy va an‘anaviy jihatdan ahamiyatli, balki zamonaviy globallashtiruvchi sharoitida ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bu institutlar yosh avlodning axloqiy kamolotini ta‘minlashda bir-birini to‘ldiruvchi, muvofiqlashtiruvchi va barqarorlashtiruvchi ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mahalla endilikda faqat nazorat va tarbiya maydoni emas, balki shaxsiy mas‘uliyat, o‘z-o‘zini anglash, ijtimoiy faollik va ma‘naviy o‘sish uchun muhim ijtimoiy maktab sifatida faoliyat yuritmoqda. Tadqiqotlar davomida aniqlanishicha, yoshlarning shaxsiy hayotida barqaror axloqiy mezonlarning shakllanishi ko‘p jihatdan oilada mavjud mehr-muhabbat, shukronalik ruhiyati, ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, hamjihatlik va mahalladagi ijtimoiy birdamlik muhitiga bog‘liq. Bu omillar yoshlar ongida ijobiy axloqiy oriyentatsiyalarni shakllantiradi, ularni jamiyatda mas‘uliyatli, halol va vatanparvar shaxs sifatida kamol topishga undaydi. Mahalla va oilaning birgalikdagi tarbiyaviy faoliyati orqali yoshlar o‘z shaxsiy qadriyatlarini aniqlaydi, ijtimoiy rollarini anglaydi va o‘z hayotiy pozitsiyasini shakllantiradi. Shu bilan birga, yoshlarning axloqiy dunyoqarashi shakllanishida nafaqat an‘anaviy qadriyatlar, balki zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli madaniyat, global kommunikatsiya vositalari va transmilliy g‘oyalar bilan uyg‘unlashgan yondashuvlar ham muhim rol o‘ynaydi. Raqamli

muhitda tarqalayotgan axloqiy model va xulq-atvor andozalarini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish zarurati yoshlar tarbiyasida yangi metodologik yondashuvlarni talab qilmoqda. Bu esa mahalla va oilaning tarbiyaviy strategiyalarini zamonaviy sharoitga moslashtirish, raqamli savodxonlikni axloqiy me'yorlar bilan integratsiyalash kabi dolzarb vazifalarni yuzaga chiqaradi. Yana bir muhim ilmiy natija shundaki, yoshlar axloqini me'yorlashtirish faqat tashqi nazorat, ma'ruzalar yoki intizomiy choralar orqali emas, balki ularning ichki dunyosini boyitishga, ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga, shaxsiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy faoliyat, samimiy suhbatlar, o'rnak ko'rsatish, madaniy muloqot va ijtimoiy motivatsiya orqali samarali amalga oshiriladi. Bu jarayonlarda mahalla oqsoqollari, nuroniylar, pedagoglar, psixologlar va ota-onalarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda mahalla va oilaning o'zaro hamkorligini kuchaytirish, yoshlarni mustaqil fikrlashga, tanqidiy tahlilga, ijtimoiy masalalarga ongli yondashishga va o'z qarashlarini shakllantirishga undash dolzarb ilmiy va amaliy vazifa sifatida belgilandi. Bu yondashuv yoshlarning faqat axloqiy jihatdan emas, balki intellektual, ijtimoiy va madaniy jihatdan ham yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, yoshlar axloqini me'yorlashtirish jarayonida oiladagi ruhiy-madaniy muhit, mahalla miqyosidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar va davlat siyosatining uyg'unlashuvi ijtimoiy barqarorlikning kafolati sifatida yangi, izchil tizimni shakllantirishi mumkin degan ilmiy xulosa ilgari surildi. Bu tizimda mahalla va oilaning tarbiyaviy resurslari, davlatning institutsional qo'llab-quvvatlovi va jamiyatning ma'naviy ehtiyojlari bir-birini to'ldiruvchi mexanizmlar sifatida faoliyat yuritadi. Natijada, yoshlar orasida axloqiy barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik madaniyati va vatanparvarlik tuyg'ulari mustahkamlanadi.

Muhokama. Yoshlar axloqini me'yorlashtirish masalasi bugungi kunda nafaqat tarbiyaviy, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida qaralishi zarur. Bu jarayon shaxsning ichki dunyosini, ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatini va ma'naviy qadriyatlar tizimini shakllantirishga qaratilgan murakkab, ko'p qirrali faoliyatdir. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalla va oilaning o'zaro uyg'un faoliyati yosh avlod ongida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va axloqiy mezonlarni barqarorlashtirishda asosiy tayanch sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu ikki institutning birgalikdagi harakati yoshlar uchun ijtimoiy kompas, ma'naviy tayanch va axloqiy mezonlar manbai bo'lib xizmat qiladi. Biroq zamonaviy sharoit, xususan, globallashuv, raqamli madaniyatning tezkor rivojlanishi, transmilliy axborot oqimlari va virtual kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi natijasida yoshlar axloqiy dunyoqarashida yangicha yondashuv va fikrlar shakllanishini talab qilmoqda. Bu holat yoshlar tarbiyasida an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy tafakkur uslublarining uyg'unlashuvi zarurligini taqozo etadi. Muhokamada alohida ta'kidlanishi kerakki, bu uyg'unlik yoshlarning ichki dunyosini boyitadi, ularni mustaqil fikrlashga, tanqidiy yondashuvga va ijtimoiy mas'uliyatni chuqur anglashga undaydi. Natijada, yoshlar jamiyatda faqat ijrochi emas, balki ongli ishtirokchi sifatida shakllanadi. Shu jihatdan, nafaqat oilaning, balki mahallaning ham axloqiy tarbiya jarayonida innovatsion metodlardan foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ochiq suhbatlar, zamonaviy media vositalari, yoshlar yetakchilari, bloggerlar va psixologlar ishtirokida interaktiv uchrashuvlar tashkil etilishi yoshlar bilan muloqotni jonlantiradi, ularning fikrini tinglash, qiziqishlarini aniqlash va axloqiy qadriyatlarni zamonaviy kontekstda tushuntirish imkonini beradi. Bu yondashuvlar orqali mahalla faollari va oila vakillari yoshlar bilan tengdoshlik asosida muloqotga kirishadi, bu esa tarbiyaviy

samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, yoshlar ongida axloqiy me'yorlarni shakllantirishda oiladagi shukronalik ruhiyati, mehr-oqibat, sabr-toqat, kechirimlilik va o'zaro hurmat fazilatlarini o'ziga xos "ichki pedagogik muhit"ni yaratadi. Bu muhit yoshlarni nafaqat tashqi ko'rinishda odobli bo'lishga, balki ichki dunyosida ham toza, rostgo'y, halol va mas'uliyatli inson bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. Oila ichidagi axloqiy muvozanat, hissiy barqarorlik va ruhiy qo'llab-quvvatlash yoshlar uchun psixologik tayanch bo'lib, ularning ijtimoiy muhitda o'zini erkin tutishiga zamin yaratadi. Yana bir muhim jihat shundaki, yoshlar axloqiy kamolotida davlat siyosati, mahalla faollari va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish bilan birga, yoshlarning o'z fikrlarini erkin ifoda etishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi va o'z tashabbuslarini ilgari surishi uchun qulay shart-sharoit yaratish lozim. Bu jarayonda majburlovchi emas, balki rag'batlantiruvchi, ilhomlantiruvchi va ishonch asosidagi yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yoshlar o'z fikrini bildirish, muhokama qilish, tanqidiy savollar berish va ijtimoiy muammolarga yechim taklif qilish orqali axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida kamol topadi. Xulosa qilib aytganda, yoshlar axloqini me'yorlashtirish masalasi kompleks yondashuvni talab qiladi. Mahalla va oila institutlarining uyg'un faoliyati, zamonaviy innovatsion metodlar, raqamli madaniyat bilan integratsiyalashgan tarbiyaviy strategiyalar, shukronalik ruhiyati va davlat siyosatining qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlari birgalikda yoshlar axloqiy kamolotining izchil va barqaror tizimini shakllantiradi.

Xulosa. Yoshlar axloqini me'yorlashtirish masalasi bugungi ijtimoiy-falsafiy muhitda shunchaki tarbiyaviy jarayon emas, balki shaxsning ichki dunyosini, ijtimoiy pozitsiyasini va ma'naviy qadriyatlarini shakllantiruvchi murakkab tizim sifatida qaralmoqda. O'tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalla va oilaning o'zaro uyg'un faoliyati nafaqat tarixiy va madaniy merosni asrab-avaylash, balki yoshlarning fikrlash doirasini kengaytirish, ularni ijtimoiy mas'uliyat, vatanparvarlik va ma'naviy yetuklik ruhida tarbiyalashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu ikki institutning birgalikdagi harakati yoshlar uchun axloqiy mezonlar, shaxsiy kompas va ijtimoiy oriyentatsiya manbai sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, an'anaviy tarbiya uslublarini zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish, mahalla va oilaning yoshlar bilan ochiq muloqoti, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli platformalar va media vositalaridan maqsadli foydalanish yoshlarning axloqiy ongida barqaror me'yor va qadriyatlarning shakllanishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu yondashuvlar orqali yoshlar nafaqat o'z milliy o'zligini anglaydi, balki global muhitda o'z o'rnini topishga, zamonaviy muammolarga ongli yondashishga va ijtimoiy muvozanatni saqlashga qodir bo'lgan shaxs sifatida kamol topadi. Bundan tashqari, yoshlarni faqat tashqi nazorat, intizomiy chora-tadbirlar yoki formal tarbiyaviy mexanizmlar orqali emas, balki rag'batlantiruvchi, ilhomlantiruvchi va ishonch asosidagi ijtimoiy muhitda tarbiyalash zarurati dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida belgilandi. Bu jarayonda yoshlarning o'z fikrini erkin ifoda etish, muhokama qilish, tanqidiy savollar berish va ijtimoiy muammolarga yechim taklif qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar yoshlar orasida faollik, tashabbuskorlik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini kuchaytiradi. Shu bilan birga, oilada mehr-oqibat, shukronalik, sabr-toqat, kechirimlilik va o'zaro hurmat tamoyillarini mustahkamlash, mahalla miqyosida esa yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash yoshlar axloqini me'yorlashtirish jarayonini izchil va samarali davom ettirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Bu muhitda yoshlar o'zini qadrlangan, eshitilgan va qo'llab-quvvatlangan shaxs sifatida

his qiladi, bu esa ularning ichki dunyosini boyitadi va axloqiy barqarorlikni ta'minlaydi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yoshlar tarbiyasida mahalla va oilaning o'zaro uyg'unligi, zamonaviy ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar bilan boyitilgan holda, nafaqat axloqiy me'yorlarni shakllantiradi, balki komil, mustaqil fikrlaydigan, tanqidiy tafakkurga ega va ma'naviy jihatdan yetuk avlodni tarbiyalashning kuchli omili sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvlar orqali yoshlar jamiyatda faqat ijrochi emas, balki ongli ishtirokchi, mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanadi. Mahalla va oilaning integratsiyalashgan tarbiyaviy modeli esa ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy uyg'unlik va milliy taraqqiyotning kafolati sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. Toshkent."O'zbekiston".2024.–B-414.
2. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. - Тошкент: Шарқ, 1990. 31 б.
3. Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. 4 қайта нашр. –Тошкент.: “Шарқ” НМАК, 2012.
4. Мусурмонова О. Шарқ мутафаккирларининг ёшлар соғлом турмуш тарзи ҳақидаги қарашлари. – Тошкент.: “Зарварақ”, 2022. – Б.3.
5. Сайфназаров И., Сайфназарова Ф. Ёшлар ва оила - Ватан таянчи. -Т 2018. «Та'лим nashriyot» -Б.23
6. Отамуротов С. Ёшлар сиёсий маданиятини ривожлантириш омиллари. –Тошкент: O'zbekiston, 2015. –Б. 92.
7. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. -Т.: Ўзбекистон, 2022. - Б.72

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

KARL POPPER'S VIEWS ON THE PHILOSOPHY OF KNOWLEDGE

Sherboboyev Mukhriddin Azimmurod oglu

Associate Professor of the Department of Social Sciences,
Alfraganus University, (PhD)

Hafizullayev Javlonbek

2nd year student of the National Idea,
Spirituality and Legal Education Department at Alfraganus University

Abstract. This article discusses the philosophy of Karl Popper on knowledge and its description, his attitude to epistemological problems in society. The difference between Popper's epistemology and the views of other scientists is shown.

Keywords: bilish, logic of scientific research, scientific worldview, epistemology, critical rationalism, epistemology.

KARL POPPERNING BILISH FALSAFASIGA OID QARASHLARI

Sherboboyev Muxriddin Azimmurod o'g'li,

Alfraganus universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, PhD

E-mail: msherboboyev@bk.ru

<http://orcid.org/0000-0002-9299-1475>

Javlonbek Hafizullayev

Alfraganus universiteti

Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Karl Popper falsafasining bilish va uning tavsifi, jamiyatdagi gnoseologik muammolarga uning munosabati yoritilgan. Popper epistemologiyasining boshqa olimlar qarashlaridan farqi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: bilish, ilmiy tadqiqot mantig'i, ilmiy dunyoqarash, epistemologiya, tanqidiy ratsionalizm, gnoseologiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N48>

Kirish. Ilm-fan taraqqiyotida XX asr o'ziga xosligi bilan juda katta iz qoldirdi. Bunga sabab shu davrdagi ilm-fanga hissa qo'shgan ko'plab shaxslarning ijodiy merosi bo'ldi. Shunday zabardast olimlardan biri Karl Popper bo'lib, u o'z davrining yetuk va ta'sirchan mutafakkirlaridan biri hisoblangan. U tabiiy falsafa va ijtimoiy fanlarga katta hissa qo'shdi. K.Popper g'oyalarining mohiyati bilimlar — aql tajribalaridan rivojlanadi degan, fikr atrofida mujassamlashadi. U har bir insonning qarorlari oldindan belgilangan o'tmish voqealari bilan bog'liq, degan fikrni rad etdi. Shuning uchun u antideterminizm g'oyalari tarafdori hisoblanadi. Bundan tashqari, u siyosiy bilimlarning turli sohalariga katta hissa qo'shishga muvaffaq bo'ldi.

U fan doirasidagi asosiy tamoyillarni baham ko'rgan, ammo sotsializm va sotsial demokratiya kabi bir-biriga mutlaqo o'xshash bo'lmagan ba'zi g'oyalarni murosaga keltirishga intildi.

Karl Raymund Popper 1902-yil 28-iyulda Venada tug'ilgan. O'sha paytda uning tug'ilgan shahri G'arb olamida madaniyatning yetakchi markazlaridan biri hisoblangan. Venadagi madaniy muhit hamda Popperring ota-onasi tomonidan berilgan e'tibor uning shakllanishiga ta'sir qildi. Bundan tashqari ular farzandini o'zgarishlarga befarq bo'lmasligi uchun unga olamdagi ijtimoiy-siyosiy g'oyalarga qiziqish uyg'otishga o'zlarini mas'ul deb bilishgan. Bu esa uni falsafa sohasiga kirib kelishiga zamin hozirladi. K.Popperga berilgan tarbiyaning yana bir muhim jihati – uning musiqaga bo'lgan qiziqishi hisoblanadi. Uning onasi musiqasohasiga qiziqishini uyg'otdi va musiqiy ijod uning falsafasida ko'plab yangi g'oyalarning yaratilishiga sabab bo'ldi. Aslida, Popper tanqidiy va dogmatik fikrning turli tarmoqlari o'rtasida taqqoslashni o'zining musiqaga bo'lgan qiziqishi natijasi deb biladi.[1.9-11]

Adabiyotlar tahlili va metodlar. XX asr boshlarida Vena shahri sobiq Avstriya imperiyasining poytaxti sifatida eng yirik madaniy, ma'naviy va falsafiy markazlardan biri edi. Bu yerdagi ijodiy muhit ilmiy dunyoqarashga intilish bilan yo'g'rilgan edi. Vena universitetining Induktiv falsafiy fanlar kafedrasini muvaffaqiyatli boshqargan E.Max, L.Bolsman, A.Shterlar tufayli uzoq vaqt davomida Vena shahrida asosan tabiiy fanlar bilan bog'liq yaxshi bir an'ana shakllangan edi. Vena universiteti o'sha davrning eng mashhur ziyolilarini birlashtira oldi va ular bu yerda progressiv qarashlarga ega bo'lgan mutlaqo mustaqil fikrlovchilar sifatida samarali faoliyat yuritdi.

Muhokama. Mustaqil izlanishlari tufayli faylasuf zamondoshlarini o'ylantirgan ijtimoiy tushunchalar va ilmiy nazariyalarni alohida tushunishga erishdi. 1918-yilda u axborot nazariyasining asosiy masalalari bo'yicha o'z qarashlarini shakllantirishga kirishdi. 30-yillarning boshlariga kelib K.Popper o'zi tayyorlayotgan maqolalarida dunyo va bilim haqidagi shakllangan qarashlar tizimini ishlab chiqish va ifodalashga intila boshladi. Dastlabki asarlaridan biri "Bilish nazariyasidagi ikki asosiy muammo" falsafiy qo'lyozmasi bo'lib, 1933-yilda Vena klubining "Erkenntnis" jurnali tomonidan "Empirik xarakter mezoni"[2.125] degan nom bilan birinchi marta nashr etilgan.

K.Popperring ilk g'oyalari o'sha davrda hukmron bo'lgan B.Rassel, L.Vitgenshteyn, M.Shlik, R.Karnap, G.Rayxenbaxlar ta'sirida shakllangan mantiqiy-uslubiy qarashlardan tubdan farq qiladi.

Butun hayoti davomida Popper olam bo'ylab ko'plab faylasuflarga ta'sir ko'rsatgan va ta'sir qiladigan kitoblar va adabiy asarlar yozgan. Uning asarlari orasida eng mashhurlariga qisqacha nazar soladigan bo'lsak, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy hamda fan metodologiyasiga aloqador ko'plab asarlardir.

Karl Popper yozgan asarlarning qisqacha tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak "Ilmiy tadqiqot mantig'i" 1934-yilda Venada yozilgan va shu yili nashr etilgan. K.Popper "Ilmiy tadqiqot mantig'i" asari bilan keng tanila boshlaydi. Keyinchalik (1959-yilda) u ingliz tiliga tarjima qilingan. U Popperring nomi tilga olinganda esga tushadigan birinchi kitobga aylandi. "Ilmiy tadqiqot mantig'i" kitobida Popper o'zining ilmiy bilish jarayonida soxtalashtirish g'oyalarni taqdim etadi va ilmiy ehtimol masalalari bilan ham shug'ullanadi. Bu asar fan falsafasi va zamonaviy ilmiy bilish jarayonida keng qo'llaniladi.

Popperring "Ilmiy tadqiqotlar mantig'i" asariga nashr etilganidan ko'p vaqt o'tmay dastlabki baholar berila boshlandi. Jumladan, R. Karnap shunday yozadi: "Umuman olganda,

Popperning kitobi fan mantig'idagi eng muhim zamonaviy asarlar qatoriga kiradi".[3.10-11] G.Rayxenbax esa, aksincha, bu asarga salbiy munosabat bildirdi: "...Popperning kitobida himoya qilingan tezislarga mutlaqo ishonib bo'lmaydigandek tuyuladi... Biz metafizik e'tiqodga haqli emasmiz va agar biz Popperning muammoni hal qilishidan mamnun bo'lsak, bu esa barcha ilmiy falsafaning tugashini anglatadi"[3.10-11]. Bu kabi qarama-qarshi fikrlar Popper ijodini yanada ommalashuviga sabab bo'ldi.

Natijalar. K.Popperning 1935-36-yillarda London universitetida qilgan ma'ruzalari "Tarixiylik qashshoqligi" asarining poydevori bo'lib xizmat qilgan. "Tarixiylik qashshoqligi" 1957-yilda nashr etilgan bo'lib, unda tarixiylikni siyosiy konsepsiyada ishlatish xavfi haqida gap boradi. Faylasufning fikriga ko'ra, tarixiy g'oyalar xavfli, buzuvchi va avtoritar rejimlarning asosiy qo'zg'atuvchilari hisoblanadi. Shu sababli ham Popper tarixiylikni tanqidiy mushohada qilishga harakat qiladi. K.Popper bu asarida Tomas Kunning "paradigma" g'oyasiga qarshi chiqadi. Bundan tashqari bu asarda tarixiylikning salbiy jihatlari tarixiy voqealar asosida sanab o'tiladi.

"Ochiq jamiyat va uning dushmanlari" asarining yozilish tarixiga kelsak, Popper bu kitobni Ikkinchi Jahon urushi paytida 1943-yilda yozgan va u 1945-yilda nashr etilgan. 1937-yilda natsistlar Avstriyani bosib olishlari kerak edi. Bosqindan oldin Popper Yangi Zelandiyaga ko'chib keldi va u yerda o'z kitobini yoza boshladi. K.Popper bu asarida Platon, Aristotel va Gegelning siyosiy tafakkurini baholashga harakat qiladi. Oxirgi bobda K.Popper bu g'oyalar bilan umri davomida uzluksiz va murosasiz adovatda bo'lishini ta'kidlaydi. U Marks g'oyalarini qaytarib bo'lmaydigan tarzda soxtalashtirganini ta'kidlaydi. Shunga ko'ra, zamonaviy jamiyat urushlararo davrda yo'q bo'lib ketish xavfiga duch keladi va bu tahdidning ildizlari "Yevropa siyosiy tafakkuri an'analarga (Aflotun, Aristotel, Gegel va Marks) borib taqaladi".[4.109] Inqirozning asosi yuqorida nomi keltirilgan shaxslar tomonidan ishlab chiqilgan g'oyalarda yotadi deb ta'kidlaydi Popper. Ushbu kitobda "Marks va Platon kabi faylasuflarni tarixiylik haqidagi qarashlarini falsafiy g'oyalar sifatida asos qilib olgani uchun tanqid qilgan".[5.151] Bu uning eng muhim qarashlaridan biri, ammo ayni paytda eng tanqid qilingan g'oyalaridan biri ham shu bo'ldi.

Vena pedagogika institutida tahsil olayotgan davrida Popper Yumning induksiya va sababiy munosabatlarni yaxshilash masalasiga qiziqib, umrining oxirigacha bu muammolarga qiziqishini saqlab qoldi. Keyinchalik, unga psixoanalitiklar "metafizik tahlil" deb ataydigan tushuncha paydo bo'ldi. Ehtimollar nazariyasi va kvant fizikasiga aloqador maqolalarini 1950-yillarda "The logic of scientific" jurnalining ingliz nashrida chiqa boshladi. 1980-yilda esa shu yo'nalishdagi barcha fikrlar jamlanib uchta kitob shaklida nashr etilgan. "Bular "Ochiq olam", "Realizm va fanning maqsadi", "Fizikada kvant nazariyasi" kabi metafizik muammolarga bag'ishlangan qiziqarli kitoblar edi. 1960-yillarda Popper biologik bilimlar va evolyutsiya nazariyasi tahlili bilan jiddiy shug'ullana boshladi. Bu 1969-yildagi "Ma'naviy bilim va jismoniy muammolar" nomli asaridan boshlab uning qarashlarida keskin o'zgarishlar sezila boshladi".[6.115]

Borliq haqidagi bilimlarni tatbiq qilish ilmiy bilimlarni tushunishga asos bo'ladi. Va bu qarash bizga shunchaki olam ontologiyasi haqida bilim bergani uchun emas, balki ilmiy bilish, "...bilimning aniqroq va shaffofroq turi bo'lganligi sababli, uni tahlil qilish orqali biz har qanday turdagi bilimlarni baholash ko'nikmasiga ega bo'lishimiz mumkinligini aytadi..." Fizika, matematika, mantiq, evolyutsiya nazariyasi haqida mulohaza yuritish va ular o'rtasidagi

bog'lanishlarni ko'rish orqali ma'lum natijalarni to'plagan Popper bu bilimlarni bir shaklda birlashtirishga kirishdi va yetishmayotgan aloqalarni metafizik farazlar bilan to'ldira boshladi.

“Ilmiy tadqiqotlar mantig'i” 1959-yilda ingliz tilida nashr etildi. Bu yillar mantiqiy empirizmning chuqur inqirozi bilan ham ajralib turadi, bu uning asosiy tamoyillarining nomuvofiqligiga borib taqalardi. Bunga K.Popperning sa'y-harakatlari katta yordam berdi. Shuning uchun ham uning “Ilmiy tadqiqotlar mantig'i” kitobi keyinchalik falsafiy jamoatchilikning diqqat markaziga aylandi.

Popper olamdagi eng nufuzli ijtimoiy va falsafiy mutafakkirlardan biri sifatida shuhrat qozona boshladi. Uning Angliyada yozgan asarlari bugungi kunda zamonaviy falsafa sohasidagi eng mashhur asarlar sifatida qaralmoqda. Biroq, professional darajadagi tan olinishidan tashqari, u shaxsiy darajadagi tanho odamga aylandi. Uning shaxsiyati uning g'oyalari bilan rozi bo'lmagan odamlarga nisbatan juda tajovuzkor edi. Avvaliga faylasufning dunyoqarashi Ikkinchi Jahon urushi dahshatlaridan yaqindagina chiqqan Angliya xalqiga yoqmad. Keyinchalik uning asarlari Angliya va butun Yevropada ilhom manbai sifatida tan olindi va yanada ommalashdi.

Hayotining so'nggi yillarida Popper o'z faoliyatini ilmga qaratganligi va keskin g'oyalari uchun ochiq tanqid qilindi. Bular ichida “falsifikatsiya mantig'iga” e'tibor qaratgani va boshqa ko'plab asarlarida ham shu g'oyaning singdirilganligi jiddiy tanqid qilindi. U 1969-yilda nafaqaga chiqqunga qadar London Universitetida ishlagan. 1965-yilda u ingliz qirolligi tomonidan ritsarlik unvoni bilan taqdirlandi va shu tariqa Ser Karl Popperga aylandi. Nafaqaga chiqqanidan keyin u 1994-yilda vafotigacha yozuvchi va notiq sifatida faoliyat yuritgan.

Xulosa. Popper farazlarni falsifikatsiya mezoni bilan aniqlash mumkinligini tushuntirish uchun boshqa olimlarning dalillaridan foydalandi. Ya'ni, olim o'z g'oyalarining to'g'riligini ular uchun istisnoni aniqlash orqali tekshirish mumkin. Agar gipotezaga zid narsa yo'q bo'lsa, demak u haqiqiydir. K.Popperning fikrigacha, astrologiya va metafizikaga o'xshash sohalar haqiqiy fan deb qaralmaydi, chunki ular mutafakkir tomonidan o'rnatilgan falsifikatsiya mezonining tamoyillariga amal qilmaydi. Bunga marksistik tarix ya'ni o'zi inkor etgan g'oyalar va Zigmund Freydning taniqli psixoanalizi kiradi. Bu ta'limotlar o'zlarining g'oyalarini mutlaq haqiqat sifatida ko'radilar. K.Popperning fikriga ko'ra, ratsionallik butunlay empirik ilmlar sohasi bilan cheklangan fikr emas. U shunchaki ratsionallikni bilim doirasidagi qarama-qarshiliklarni topish va keyin ularni yo'q qilish uchun foydalaniladigan usul deb biladi.[1.25] Ratsional deb hisoblash mumkin bo'lgan narsalarga qo'shgan hissalarini uning boshqa nazariyalarining g'oyalarini shakllantirgan asosiy etalon edi.

Xulosa qilib aytish mumkinki Popperning gnoseologik qarashlari shakllanishida ikkinchi jahon urushi va undan keyingi voqealar ta'sirida keskin jadallashtirdi. Bu ta'sir bilan u o'z falsafasini rivojlantirdi va yuksaltirdi. Buning eng katta isboti shundaki, totalitar jamiyat shakllanmasligi uchun “ilm-fandagi taraqqiyot” Popperning asosiy falsafasiga aylangan. Bu taraqqiyot sodir bo'lishi uchun u muammoli deb topgan tasdiqlovchi usul o'rniga falsifikatsiya usulini taqdim etdi. K.Popper o'z davrining ilm-fan tushunchasiga qarshi qo'ygan falsifikatsiya usuli bilan cheklash muammosiga yechim topishni maqsad qilgan. Bu esa ozmi- ko'pmi uning ijodining samarasida o'z aksini topdi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Карл Раймунд Поппер. «Неоконченный поиск. Интеллектуальная автобиография»: Праксис; Москва; 2014.- С 9-11.

2. К.Поппер. Логика научного исследования. – М., 2004. – С. 125.
3. Садовский В.Н. Карл Поппер и Россия. – М., 2002. – С. 10-11.
4. Popper K.R. The Open Society and Its Enemies. – London: Soros Foundation, 1964. –P. 109.
5. Маги, Браян. Карл Поппернинг фан фалсафаси ва сиёсат назарияси. (Тарж. Мете Тунсай). – Истанбул, 1990. –Б. 151.
6. Шишков И.З. В поисках новой рациональности: философия критического разума. – М.: Эдиториал УРСС, 2003. – С. 115.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF INFORMATION AND INFORMATION SYSTEMS

Nasriddinov Fakhriddin Khalmamatovich

Research Fellow of the National University of Uzbekistan

Abstract. This article provides definitions of the concepts of information and information systems, their philosophical analysis, and examines the importance of information in the development of the state and society, its role in ensuring social stability. Information is also considered as a means of ensuring social stability, forming social consciousness, and strengthening the system of values. In such areas of modern philosophical concepts as informalism, information ontology, and information ethics, some aspects related to the information problem, the information policy of the new Uzbekistan, and information security are analyzed.

Keywords: information, information systems, state, society, social development, social stability, social consciousness, value system, informalism, information ontology, information ethics, information policy, information security, youth spirituality.

AXBOROT VA AXBOROT TIZIMLARINING FALSAFIY TAHLILI

Nasriddinov Faxriddin Xalmamatovich

O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchi izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot va axborot tizimlari tushunchalarining ta'riflari, ularning falsafiy tahlili amalga oshirilib, davlat va jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida ularning ahamiyati, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'рни o'rganilgan. Shuningdek, axborot ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, qadriyatlar tizimini mustahkamlovchi vosita sifatida ko'rib chiqilgan. Zamonaviy falsafiy konsepsiyalarning informizm, axborot ontologiyasi, axborot etikasi kabi yo'nalishlarida axborot muammosi, yangi O'zbekiston axborot siyosati, axborot xavfsizligi bilan bog'liq ayrim jihatlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: axborot, axborot tizimlari, davlat, jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi, informizm, axborot ontologiyasi, axborot etikasi, axborot siyosati, axborot xavfsizligi, yoshlar ma'naviyati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N49>

G'arb olimlari – Aristotel, Platon, J. Dewey, H. Read singari mutafakkirlarning qarashlarida ham musiqaning estetik va axloqiy tarbiyadagi o'rnini muhim manba sifatida ko'rsatib o'tiladi. Jumladan, J. Dewey san'atni inson tajribasining ajralmas qismi sifatida talqin qilsa, H. Read estetik tarbiyani shaxs kamolotining eng muhim omillaridan biri sifatida ko'rsatadi.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, milliy musiqiy meros va estetik tarbiya masalalari qadimdan mutafakkirlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Hozirgi davrda esa ushbu merosni zamonaviy ta'lim jarayonlariga integratsiya qilish, uni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida yoshlar ongiga singdirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Natija va muhokama. Estetik did va badiiy tafakkur - inson ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutuvchi omillardan biri bo'lib, biror kishining xohish — istagi tufayli emas, jamiyatning qonuniy ehtiyojlaridan kelib chiqadigan zaruriyatdir. Estetik tarbiyaga e'tibor kecha yoki bugun paydo bo'lgani yo'q. Uning ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Rumo faylasuflari insonning ma'naviy va jismoniy kamoloti masalalariga jiddiy e'tibor qaratishgan. Arastu, Navoiy, Rumi kabi mutafakkirlar ta'limotlarida ma'naviy kamolot, komillikning muhim sharti sifatida ta'kidlab o'tilgan. Bugungi davrda ham

insonni borliqdagi go'zalikka, nafosat olamiga yaqinlashtirish, ya'ni estetik tarbiya davlatimizning ijtimoiy rivojlantirish vazifalari bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki estetik tarbiya ijtimoiy hayotimizning barcha sohalariga tegishlidir.

“Biz qurayotgan erkin fuqarolik jamiyati va unda har bir shaxsning yuksak estetik didga erishishi zamon talabidir. Chunki estetik did egasigina haqiqiy erkin fikrlash salohiyatiga, dunyo, Vatanni, hayotni go'zallik prizmasi orqali ko'rish qobiliyatiga ega bo'ladi”[3]. Estetik tarbiyaning vazifasi faqatgina go'zallikni tushunish va baholashni o'rgatish emas, ijtimoiy hayotda amalga oshirish uchun faol ishtirok etishga undashdir.

“Estetik tarbiya muammosi avvaldan jamoatchilik diqqat markazida. So'nggi paytlarda bu to'g'risida juda ko'p fikrlar aytili. Ba'zilar estetik tarbiyaning asosiy vazifasi xalqda ijodiy faollikni tarbiyalash, deyishsa boshqalar go'zallikni xunuklikdan farqlashni o'rgatish, uchinchilar yuksak ma'naviyat, rivojlangan estetik didni tarbiyalash deya ta'kidlashadi”[4]. Darhaqiqat, estetik tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri estetik did tarbiyasidir. Estetik ong tizimida o'ziga xos o'rin tutuvchi estetik did eng nozik, ziddiyatli, murakkab shuningdek qiziqarli va dolzarb masalalardan biri. Estetik didning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning voqelikka, narsa yoki hodisaga ko'rgan holatda beriladigan bahoda namoyon bo'ladi. Ilk bor ko'rib turgan san'at asari, mutolaa qilingan kitobga mushtariy yoshi, kasbi, ma'lumoti darajasiga ko'ra turlicha baho beradi. Mana shu jihatning o'zi uning faqat alohida insonga xos bo'lgan ammo, jamiyat uchun ham muhim ekanligini, ya'ni «shaxsiy masala» emasligini ko'rsatadi. Bu oddiygina «yoqadi yoki yoqmaydi» so'zlari orqali ifodalansada bizning estetik didimiz, dunyoqarashimiz, madaniyatimizni namoyon etadi. Bu bahoda bizning qarashlarimiz, tajribamiz, biz yashayotgan jamiyat, davr qarashlari ham ma'lum ma'noda aks etadi.

Estetik did his — tuyg'u va tafakkur birligi, inson o'zligini ifodalovchi, bir vaqtning o'zida ham uning, ham unga berilgan baho hamdir. Estetik did biz yashagan davr, biz ko'z ochgan vatan, biz eshitgan qo'shiq, biz qiziqib o'qiydigan kitob, gazeta – jurnallar kabi ma'naviy boyliklarni idrok etish jarayonida shakllanadi va rivojlanib boradi. “Har bir inson o'z davlatining fuqarosi bo'lgani kabi, o'z davrining ham fuqarosidir va agar o'zing yashayotgan axloq va odatlar bilan o'sha doiradan chiqish mumkin bo'lmasa, unda o'z faoliyating, diding va ehtiyojlarini tanlash”[5] mumkin.

Estetik did insonni o'rab turgan muhit orqali shakllanadi. Inson go'zal buyumlar va narsalar olamida yashasa, g'oyaviy-estetik jihatdan yetuk badiiy asarlar va matbuot bilan muloqotda bo'lsa, go'zallikdan zavqlanishni o'rganadi, uni his etadi, uni yaratadi. Aksincha tuban muhit, inson didini ham tubanlashtirib qo'yadi. Badiiy did bilan estetik did bir-biridan farq qilsa-da, har doim bir-birini to'ldirib boradi. Badiiy did estetik didga asoslanadi. turli janrlardagi badiiy adabiyot namunalari-hikoyalar, qissalar, mumtoz asarlar, ulardagi badiiy obrazlar, tasviriy vositalar jurnalxonning hissiyotlariga ta'sir ko'rsatadi, badiiy qadriyatlarni idrok etish va o'zlashtirishga yordam beradi, estetik zavq bag'ishlaydi.

O'zbekistonda modernizatsiyalash davrida ma'naviyatimizni yuksaltirish, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Har qanday mustaqil davlat o'zining yuksak ma'naviyati va madaniyati bilan qudratlidir. Olim A.Sher “Estetik did tushunchasining o'ziga xosligi shundaki, u bir tomondan, idrok, fahm, farosat kabi ildizi aqlga borib taqalsa, ikkinchidan, o'zining ehtiros, his-hayajon, subyektiv baholash xususiyati bilan ulardan ajralib turadi. Yoki, boshqacha qilib aytganda, biz ongning, birinchi hodisada – haqiqatga, keyingisida – ezgulikka, uchinchisida – go'zallikka munosabatini uchratamiz.”[6]

Ushbu fikridan ham anglashimiz mumkin estetik did axloqiy va estetik madaniyat bilan bevosita bog'liq. Zero, u ham aqliy, ham axloqiy, ham hissiy tarbiya uyg'unlashgan umumiylikdan iboratdir. Chunonchi, didning to'rt xil darajasi haqida mavjud fikrlar uning axloqiy-estetik madaniyat darajasini ham namoyon etishini e'tibordan qochirmaslik lozim. Bu darajalar odamlarning, madaniylik toifasi bilan bog'liqdir. Jamiyatda yuksak estetik didga ega bo'lgan kishilarning ko'pligi uning madaniy, axloqiy-estetik jihatdan taraqqiy etishida muhim o'rin tutadi.

G'arb dunyosini faqat qora bo'yoqlarda ko'rsatish ham adolatdan emas. Shu ma'noda jahondagi mashhur bastakorlar: Betxoven, Motsart, Bax, zamondosh bastakorlar yaratgan musiqa holat va kayfiyatga qarab insonga turlicha ta'sir qilishi aniqlangan. Ular bastalagan kuylar ezgulik va insonparvarlik ruhida bo'lgani uchun ham hanuz muhlislar tomonidan sevib tinglanadi. Hatto ba'zi mukammal kuylar umidbaxsh va hayotbaxshligi bilan farqlanib, tibbiyotda, tibbiy muassasalarda qo'llanayotgani hamda yaxshi samara berayotgani ham e'tiborga loyiqdir.

Agar adolat bilan kuzatsak, shunga amin bo'lamizki, mumtoz kuyni eshitganda asab tinchlanib, sarak-sarak bo'lib, boshlar qimirlagan bir holatda g'arb estradasi ohanglariga o'z-o'zidan oyoqlar harakatga keladi. Bosh bilan oyoqning farqi, ularning vazifasi yaxshi ma'lum. Shundan ham ayon bo'ladiki, kishining bosh yoki oyog'ining qimirlashidan qanday inson ekanligini aniqlab olish oson. Shunday kuzatuv usuli bilan o'rta asrlarda diniy ixtiloflar, kurashlar chog'ida musulmon mamlakatida musulmonlar orasiga kirib olgan missioner-ayg'oqchilar ushlab olingan.

Musiqa inson qalbida kuchli emotsional tuyg'u uyg'otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotni yanada boyitib boradi. Yoshlarda musiqaviy idrokni o'stirmay, ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqitirmay turib, har tomonlama jismoniy, boy ma'naviy va axloqiy sifatlarni tarbiyalab bo'lmaydi. Musiqaga yoshlikda uyg'ongan qiziqish kishining keyingi musiqaviy rivojida kuchli ta'sir o'tkazadi, boshqa ko'nikma va didlarning shakllanishini tahminlaydi, yaxshi musiqali didni tarbiyalaydi. Musiqa estetik va ma'naviy kayfiyatning ulkan manbaidir. Bu tuyg'u kishiga uning butun hayoti davomida ta'sir o'tkazib, his-tuyg'u uyg'otadi, hayajonlantirib, harakatga chorlaydi. Musiqa kishini ilhomlantirib, uning qalbini to'lqinlantiradi, tetiklashtirib, kuch — quvvat bag'ishlaydi. Shu bilan birga mungli yangragan kuy kishini g'am-g'ussaga, iztirobga soladi. Bu, ko'p jihatdan kishining musiqani qay darajada idrok etishiga, uning tinglash qobiliyati va o'zlashtirishga, estetik didi, umumiy madaniyatiga bog'liqdir. Shunga ko'ra musiqali idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan estetik tarbiyasi vazifalari bilan bog'liq umumiy maqsadlar bilan belgilaydi. Ma'lumki, bunday vazifalar yoshlarni musiqa sohasidagi faoliyatga jalb etish, badiiy musiqaga nisbatan estetik idrok etishni va emotsional o'zlashtirishni rivojlantirish, unga muhabbatni tarbiyalash, musiqali qobiliyatni o'stirish, musiqali didni shakllantirish, qisqasi yoshlarda badiiy ijodkorlik iqtidorini rivojlantirishdan iborat bo'lmog'i darkor.

Xulosa. Musiqaning, agar ijro mahorat bilan bajarilsa, yaxshisi va yomoni bo'lmasligi ma'lum. Musiqa turini qaysi biri ma'qul bo'lishi shaxsning yoshi, millati, musiqaviy madaniyat saviyasi, musiqaning tarkibi, estetik didning darajasi, kishining individual psixologik xususiyatlari kabi bir qator omillarga bog'liq. Yoshlar katta yoshdagilarga nisbatan rok

musiqasini ma’qul ko’rishlari yuqoridagilar bilan birga yana eng muhim ikki omil bilan belgilanadi:

1. Yosh bilan bog’liq psixologik xususiyatlar. Ma’lumki, yoshlik, serfaoliyatlilik, harakatchanlik, tinib-tinchimaslik va h.k.

2. Moda va tengdoshlarga taqlid. Yoshlar o’z tengdoshlaridan ko’p narsalar oladilar, ko’r-ko’rona taqlid qiladilar. Har bir yoshda individual orzularidan tashqari umumiy manzaraga ergashish tamoyillari mavjud.

Musiqa san’ati insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli ta’sir o’tkazib, uning umumiy madaniy rivojida katta o’rin tutadi. Jamiyat madaniy hayotida yanada kengroq o’rin tutayotgan musiqa kishiga butun hayot davomida uning doimiy hamrohi hisoblanadi. Musiqa — inson yuragiga juda chuqur kirib boruvchi yagona san’at bo’lib, qalb tug’yonini yorqin ifodalash qudratiga ega.

Musiqiy-estetik tarbiya jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo’lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog’i kerak. Omma orasida musiqali targ’ibot olib bormay turib, to’laqonli natijalarga erishib bo’lmaydi. Yoshlar bilan musiqali ish olib borish ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O’zbekistonda ijtimoiy-axloqiy va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari. – Toshkent: «Falsafa va huquq» instituti nashriyoti, 2007. – 76.
2. Qahharov N.V. Vokal asoslari. O’quv qo’llanma. - Toshkent.: «Iqtisod-moliya», 2008. – B.314
3. Qalandarova M. Tarix yaratgan qo’shiqlar. Monografiya. -Toshkent: Fan, 1987. –B. 23.
4. Qodirov B. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari. – Toshkent: Mehnat, 2001. – B.195.
5. Qosimov B. Milliy uyg’onish. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. –B.400.
6. Quronboev Q.Q. Talabalarning ma’naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari. (Yoshlar tashkilotlari misolida). Ped.fan.nomz. yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2000. –B.155.
7. Quronov M. Maktab ma’naviyati va milliy tarbiya. – Toshkent: Fan, 1995. –B. 118.
8. Quronov M. Bizni birlashtirgan g’oya. –Toshkent.: G’ofur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2016. –B. 348.
9. Qodirova Z. O’zbekiston jamiyati hayotining barcha sohalarini isloh qilishda yoshlarning ijtimoiy faolligi. Falsafa fanlari d-ri... dis. –T., O’zFA Falsafa va huquq ins-ti, 1999
10. Qurbonov R. Milliy g’oyaning yoshlarni harbiy vatanparvarligik ruhida tarbiyalashdagi roli. Falsafa fanlari nomzodi dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent, 2009. –B.24.
11. G’anieva I.A. O’zbek musiqasida “Tanavor”. (Tarixiy va nazariy muammolar kesimida): Avtoref. dis. ... san’atshunoslik fan. nom. –Toshkent: O’zbekiston badiiy akademiyasi, 2008. –B.22
12. G’oziev E. Tafakkur psixologiyasi / Dorilfunun talabalari uchun qo’ll. – Toshkent: O’qituvchi, 1990. –B.184.
13. G’ulom Zafariy G’. CHolg’umizni o’limdan qutqaraylik. // mahorif va o’qituvchi. 1925. № 1.
14. G’ulom Zafariy. O’zbek musiqasi to’g’risida // Alanga. 1930 yil yanvarg’. № 1.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

FOREIGN EXPERIENCES IN FORMING WORK CULTURE

Kholmirezayeva Jumagul Khamdamovna

Independent researcher at FarSU

Abstract. The article analyzes the importance of forming a work culture among young people and the obstacles that may be encountered in this process. The acquisition of work culture skills by young people is considered an important factor in increasing their social activity, ensuring their effective and responsible activities at work. Work culture is associated with a person's knowledge, personal qualities, creativity and initiative, and is the basis of human development not only economically, but also spiritually. The article emphasizes the importance of work culture and entrepreneurial skills in the conditions of a modern market economy, obstacles to the development of young people due to internal and external problems, as well as the need to introduce innovative systems to ensure their professional development.

Keywords: work culture, youth activism, social activism, labor relations, innovative systems, professional development, corporate growth, work ethic, market economy, civil society, education and upbringing, creativity, labor discipline, personnel policy, dedication.

MEHNAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH SOHADAGI XORIJIY TAJRIBALAR

Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna

FarDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada yoshlar orasida mehnat madaniyatini shakllantirishning ahamiyati va bu jarayonda uchrashi mumkin bo'lgan to'siqlar tahlili olib borilgan. Yoshlarning mehnat madaniyati ko'nikmalariga ega bo'lishi ularning ijtimoiy faolligini oshirish, ish joyida samarali va mas'uliyatli faoliyat yuritishini ta'minlashda muhim omil sifatida qaralgan. Mehnat madaniyati insonning bilimlari, shaxsiy fazilatlarini, ijodkorligi va tashabbuskorligi bilan bog'liq bo'lib, u nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy jihatdan ham inson kamolotining asosi hisoblanadi. Maqolada zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat madaniyati va tadbirkorlik qobiliyatining ahamiyati, yoshlarning ichki va tashqi muammolar tufayli rivojlanishidagi to'siqlar, shuningdek, ularning kasbiy rivojlanishini ta'minlash uchun innovatsion tizimlarni joriy etish zarurati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: mehnat madaniyati, yoshlar faolligi, ijtimoiy faollik, mehnat munosabatlari, innovatsion tizimlar, kasbiy rivojlanish, korporativ o'sish, mehnat axloqi, bozor iqtisodiyoti, fuqarolik jamiyati, ta'lim va tarbiya, ijodkorlik, mehnat intizomi, kadrlar siyosati, fidoiylik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N52>

Kirish. Yoshlar orasida faollikni oshirish uchun mehnat madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Inson axloqiy qadriyatlarini va uning ehtiyojlari o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjud. Abu Rayhon Beruniy ta'kidlaganidek, inson hayoti va ijtimoiy muhitni aql-idrok, mehnat, tafakkur, odob-axloq, ta'lim-tarbiya belgilaydi. Jamiyatda mehnat munosabatlarining vujudga kelishi va rivojlanishi, inson ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishi uning boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish zarurati, ehtiyojidan kelib chiqadi. Muayyan vazifalarni hamjihat va hamkorlikda ado etishga intilish odamlarni jamoaga birlashish ehtiyojini tug'diradi, natijada mehnat umumiy ijtimoiy xususiyat kasb etadi.

Insonning qadr-qimmati o'z manfaatini a'lo darajada bajarishida ko'zga tashlanadi, shuning uchun uning eng asosiy vazifasi mehnat faoliyati orqali belgilanadi [1, 40]. Bu jarayon mehnat madaniyatini yuzaga keltiradi.

Metodlar. Tadqiqotda analiz va sintez ya'ni mavzuni detallariga ajratish va umumiy xulosa chiqarish, qiyosiy yondashuv ya'ni turli holatlar yoki tushunchalarni taqqoslash, kontent tahlili ya'ni ma'lumotlarning mazmunini o'rganish, induksiya — aniq faktlardan umumiy qoidalarga o'tish, deduksiya - umumiy qoidalardan aniq holatlarga yondashish singari ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Natijalar. Mehnat madaniyati – bu shaxsning ish joyida egallab turgan lavozimi yoki maqomidan qat'i nazar, o'z vazifalarini vijdonan, mas'uliyat bilan va samarali tarzda bajarishini anglatadi. Uning asosiy mazmuni shundaki, har bir xodim mehnat intizomiga qat'iy rioya qilib, yuqori natijaga erishish uchun fidoyilik bilan faoliyat olib borishi lozim. Mehnat madaniyati jamoaviy ishlash madaniyatini rivojlantirishga, mehnat axloqining rasmiy va norasmiy qoidalarga amal qilishiga hamda mehnat munosabatlarini ichki nizomlar va amaldagi qonunlar doirasida tashkil etishga qaratilgan.

Insonning mehnat madaniyati uning bilimlari, amaliy tajribalari va shaxsiy fazilatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu madaniyat nafaqat iqtisodiy faollik bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning ma'naviy kamoloti, ijtimoiy faolligi va jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash uchun muhim omil hisoblanadi. Mehnat madaniyatining rivojlanishi shaxsning o'z ishiga bo'lgan munosabatini, ishga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirib, uni yanada samaraliroq, ijodkor va tashabbuskor qilishga xizmat qiladi. Shu bois, mehnat madaniyati jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, har bir fuqaroda uni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar zarurdir. Shuningdek, mehnat madaniyati xodimlar o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch va hamkorlik ruhini shakllantiradi, ish joyidagi nizolar va tushunmovchiliklarni kamaytiradi. Bu esa o'z navbatida korxonalar va tashkilotlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy mehnat sharoitlarida mehnat madaniyati, shuningdek, axborot texnologiyalari va yangi innovatsiyalarni tez o'zlashtirish, jamoa ichida ijodiy yondashuvlarni ilgari surishda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, mehnat madaniyati – bu shaxsning kasbiy mahorati, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy mas'uliyati uyg'unligidir. U nafaqat ish joyidagi muvaffaqiyatlarga erishishga, balki jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga ham hissa qo'shadi. Shuning uchun ham har bir insonda mehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, uning doimiy ravishda takomillashuvi uchun sharoit yaratish jamiyat va davlat oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday sohada faoliyat yurituvchi inson, eng avvalo, tadbirkorlik va ishbilarmonlik qobiliyatiga ega bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Negaki, "ayni bozor munosabatlari odamlarni yangilikka intiladigan, ilm-fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini dadil va tez joriy etadigan, kasb mahoratini munosib qadrlaydigan qiladi". [2, 30]

Bugungi kunda muammolarni tez va samarali hal qila oladigan, voqealarga to'g'ri baho bera oladigan, tashabbuskor va faol insonni mehnat madaniyatiga ega shaxs deb atash mumkin. U band bo'lgan ishga shunchaki munosabatda emas, balki yangilikka intiladigan, ijodkorlik bilan yondashadigan ijtimoiy faol shaxs hisoblanadi.

Mehnat madaniyatiga oid ba'zi fazilatlar insonda tug'ma holda bo'lishi mumkin, lekin ular tajriba va malaka orqali rivojlanadi. Bu jarayonda insonning shaxsiy faolligi muhim

ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan mehnat madaniyati iqtisodiy madaniyat bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyotining yangi davrida yoshlarda mehnat madaniyati ko'nikmalarini rivojlantirishda subyektiv va obyektiv to'siqlar paydo bo'lishi mumkin. Subyektiv to'siqlar yoshlarning bilimlari, faolliklari va dunyoqarashi bilan bog'liq bo'lsa, obyektiv to'siqlar tashqaridagi tizimlardagi loqaydlik va vijdotsizlik kabi muammolar bilan bog'liqdir. Bu muammolar yoshlarni bozor talablariga moslashishda qiynatadi. Yoshlarning bu sharoitlarga moslashuvini yaxshilash maqsadida quyidagi innovatsion usullarni joriy etish maqbul hisoblanadi:

Yoshlarni rejalashtirish va marketing tizimi yoshlar resurslarini samarali boshqarish va ulardan unumli foydalanishni ta'minlashga qaratilgan tizimdir. Bu tizim yoshlarning qiziqishlari, qobiliyatlari va bozor talablarini hisobga olgan holda ularning kelajakdagi faoliyatini rejalashtirishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, yoshlarni rag'batlantirish va ularni bozorga tayyorlash uchun maxsus marketing strategiyalari ishlab chiqiladi, bu esa ularning kasbiy faoliyatga tezroq va muvaffaqiyatli kirishishiga yordam beradi.

Yosh mutaxassislarni yollashda ularning qobiliyatlarini inobatga olish esa, mehnat bozorida haqiqiy malakali kadrlarni aniqlash va ishga joylashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda har bir yosh mutaxassisning bilim darajasi, kasbiy tajribasi, shuningdek, shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlari batafsil o'rganiladi. Shunday qilib, ularning imkoniyatlari va iste'dodlariga mos ish o'rinlari taqdim etilib, ularning kasbiy rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Faoliyatlarini monitoring qilish va baholash orqali rag'batlantirish esa, yosh mutaxassislarning ish samaradorligini doimiy nazorat qilish va ularni natijalari asosida rag'batlantirish mexanizmini o'z ichiga oladi. Bu jarayon ishda kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish va xodimlarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Baholash natijalari asosida mukofotlar, ko'tarilishlar va boshqa ijobiy rag'batlar taqdim etiladi, bu esa yosh mutaxassislarning kasbiy faolligini oshiradi.

Kasbiy rivojlanish va malaka oshirishni ta'minlash tizimi yosh mutaxassislarning doimiy ravishda o'z sohasida bilim va ko'nikmalarini yangilab borishlari uchun imkoniyat yaratadi. Bu o'quv kurslari, seminarlar, treninglar va boshqa professional rivojlanish tadbirlarini o'z ichiga oladi. Shu tariqa, yosh mutaxassislar bozor talablariga moslashib, yuqori malakali kadr sifatida shakllanadi.

Ichki korporativ o'sishni boshqarish, ya'ni ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi tashkilot ichida yosh mutaxassislarning ijodiy g'oyalarini rag'batlantirish, ularning o'sishi va professional rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Bu tizim orqali yoshlar o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon eta oladi, yangi loyihalar va innovatsiyalar yaratishda faol ishtirok etadi hamda tashkilotning umumiy muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi.

Imkoniyatlarni tadqiq qilish va turli tanlovlar orqali faollikni oshirish esa, yosh mutaxassislarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun maxsus dasturlar va musobaqalar tashkil etishni anglatadi. Bu tadbirlar yoshlarning o'zini namoyon etishiga, motivatsiyasining oshishiga va yangi bilimlar olishiga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday tanlovlar yoshlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratadi va ularning kasbiy o'sishini tezlashtiradi.

Munozaralar. Yoshlar mehnat madaniyatini egallashi uchun zamonaviy bilim, axborot texnologiyalari hamda raqamli iqtisodiyotga oid tushunchalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Mehnat madaniyati haqida fikr yuritar ekanmiz, Sharq va G'arb an'alariga alohida e'tibor qaratish zarur. Masalan, Sharqda mehnat madaniyatida insof va adolat ustuvor bo'lsa, G'arbda esa individual yondashuv kuchli. Masalan, AQShdagi mehnatga munosabat bilan Yaponiyadagisini taqqoslasak, bu farq yaqqol namoyon bo'ladi. Bu ikki rivojlangan davlatda mehnatga munosabatning turlicha yondashuvi mavjud.

Yaponiyalik professor Noriyuki Takayamaning ta'kidlashicha, Yaponiya jamiyati ishonch ruhiga asoslangan. Uning fikricha, ishonchsiz muhit nafaqat ma'naviy muhtojlik, balki jamiyatda birdamlikka ham to'siq bo'ladi. Yaponiyada insonlar jamoa bilan uyg'un yashashni, o'z guruhiga sadoqatli bo'lishni qadrlashadi. Yapon xalqida mehnat qilishga mas'uliyat va sadoqat tuyg'usi ilgari-ilgari shakllangan bo'lib, ular nazorat qilinyaptimi-yo'qmi - ishga bo'lgan munosabatlari o'zgarmaydi.

Agar kimdir ishonchni yo'qotsa, bunday insonni jamoa yana qabul qilmaydi. Ishonch saqlangan taqdirda esa inson o'z hayotida barqarorlikka va shaxsiy muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin. Shuningdek, Yaponiyada har kunlik mehnat faoliyati orqali katta bilim va tajriba to'plagan ziyolilar ham ancha ko'pchilikni tashkil etadi. "Shunga ko'ra, har bir muassasada qaror pastdan tepaga qarab chiqib boradi. Xodimlarning yuqoridan farmoyish kutib o'tirish hollari kamdan-kam uchraydi. Yaponiyaning yirik korxonalariga ishga kirayotgan har bir xodim har qancha qobiliyatli bo'lmasin, dastlab quyi lavozimga joylashtiriladi va ma'lum muddat o'tgandan keyingina uning mavqeyi pog'onama-pog'ona o'sib boradi. Yaponiyaning yirik muassasalarida kadrlar 2-3 yilda almashib turadi. Yangi rahbar eski xodimlarni bo'shatib yubormaydi" [4, 197].

"Inson o'zida ikki xususiyat mavjud bo'lmaguncha ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqara olmaydi. Birinchidan, boshqalardan farq qilishga qattiq urinishingiz kerak. Ikkinchidan, siz juda sezgir bo'lishingiz shart. Bu o'rinda sezgirlik-biror narsani ko'rganingizda uning yaxshiligini bilish yoki go'zallik zohir bo'lmagan narsada go'zallikni ilg'ay olish. Ijodiy salohiyat o'zingizdagi mavjud bilim va tajribani turli uslublarda birlashtira olish qobiliyatidir" [6, 4].

Amerika Qo'shma Shtatlarida mehnat faoliyatida tezkor rejalashtirish ustuvorlikka ega, ular uzoq muddatli, masalan 10-20 yillik loyihalarga ko'p vaqt ajratmaydilar. Xodimlar va ishchilar o'z ish joyiga sadoqatini ko'proq shaxsiy manfaatlar bilan bog'lashadi. Bunday vaziyatda ayrim korxonalarining muammolari, ishsizlikning oshib borishi va kadrlarning qoniqmasligi kuzatiladi. Shu bilan birga, mehnat madaniyati insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bozor iqtisodiyotida uning rivojlanishi zarurdir. Shu sababdan O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy fikrlash tarzida mehnat madaniyati g'oyalari alohida ahamiyat kasb etadi. "Xususan "Qobusnoma"da qayd etilganki, "hunarsiz, g'ayratsiz kishi bilan do'stlik qilmagil... Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf yetkurmas" [3, 21]. "Tuzuklar"da yozilishicha, buyuk Amir Temur odamlarga kasb berish, ularni ish bilan ta'minlashga alohida ahamiyat bergan, tadbirkorlik faoliyati bilan, tijorat ishlari bilan mashg'ul bo'luvchilarga yetarli sarmoya, uy-joylar qurib berish haqida qayg'urgan [5, 67]. Bundan anglash mumkin ushbu unsurlar mehnat madaniyati shakllanishida muhim o'ringa ega.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, shaxsning mehnat madaniyati halollik, odo-axloq, intizom, tashabbuskorlik, aniq maqsad qo'ya olish, zamonaviy texnologiyalar va

marketingga doir bilimlarga asoslanadi. Bu fazilatlar yaratuvchanlik, fidoyilik, sog'lom raqobat, saxiylik va mehnatsevarlik kabi ma'naviy-axloqiy mezonlar bilan namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, mamlakatimizda rivojlangan fuqarolik jamiyati ham mehnat madaniyatiga ta'sir ko'rsatadi. Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish jarayonida insonning ijtimoiy faolligi va tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislar ta'kidlashicha, har bir ish, jumladan inson tarbiyasi ham dastlab nazariy jihatdan rejalashtirilishi va keyin amaliy choralar belgilanishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абу Райхон Бериуний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. - Тошкент: Фан, 1989. - Б.40
2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 3-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 1994. –Б.30
3. Кайковус. Қобуснома. -Тошкент: Мерос, 1992,- Б.21
4. Такаяма Нориюки. Ўзбекистон ҳақида ўйлаганларим //Жаҳон адабиёти, -№1, 1997. – Б.197
5. Темур тузуклари. - Тошкент: Фан, 1993,- Б.67
6. Хаяшибара Кен. Эркинлик ва хавфсизлик-иқтисодий тараққиётнинг асосий шарти //Халқ сўзи, 2000 йил 20 июнь.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES

Received: 2 October 2025

Accepted: 15 October 2025

Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

LINGUOCULTURAL FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH THE CONCEPT OF «SCIENCE» IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Narmuratov Zayniddin Radjabovich

Doctor of Philological Sciences (DSc),

Termez University of Economics and Service

Abstract. This article analysis of theoretically studies the formation, etymology, semantic structure, translation problems, and research on their linguistic and cultural characteristics of phraseologisms and presents a conceptual approach to them. The specific features of phraseological units with the concept of science in the languages being compared are illustrated with practical examples.

Keywords: phraseology, science, equivalent, proverb, phraseology.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SCIENCE/ILM KONSEPTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGOMADANIY XUSUSIYATLARI

Narmuratov Zayniddin Radjabovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,

filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologizmlarning shakllanishi, etimologiyasi, semantik-strukturasi, tarjima muammolari, ularning lingvomadaniy xususiyatlariga oid tadqiqotlar nazariy jihatdan o‘rganilib chiqilgan va ularga konseptual munosabat bildirilgan. Chog‘ishtirilayotgan tillarda science/ilm konseptli frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari amaliy misollar bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, ta‘lim, ekvivalent, maqol, frazema.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N53>

Kirish. Lingvomadaniyat o‘tgan asrning 90-yillarida o‘z rivojlanish yo‘liga kirgan bo‘lib, bugunga kelib zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Lingvokulturologiya til va madaniyat hamda til va xalq mentaliteti, milliy o‘ziga xosligining o‘zaro munosabati va ta‘sirini tadqiq etadi [10]. Bu jihatdan u madaniyat hamda til haqidagi fan bilan o‘zaro bog‘lanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O.V.Balonkina rus va ingliz tillarida “suv” tarkibli frazemalarning lingvokulturologik ma‘nosi [11], O.S.Krasilnikova va I.M.Podgayskayalar qarindosh bo‘lmagan tillarda “suv” tarkibli frazemalar semantikasini [12] o‘rgangan. Ushbu tadqiqotda suv konseptli frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan bo‘lsa, bizning tadqiqotimizda **Science/ilm** mazmunli barqaror birikmalarning lingvomadaniy jihatlari tahlilga tortilganligi bilan mazkur tadqiqotdan farq qiladi.

N.A.Kindrya o'zining tadqiqotida ingliz va o'zbek tillaridagi zoonim komponentli frazeologik birliklarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilgan. Ishda o'tmishda shakllanib, hozirda semantik o'zgarishlarga uchragan zoonim komponentli frazeologik birliklarning lisoniy-madaniy, semantik xususiyatlari o'rganilgan [11].

Ingliz olimlarining lingvomadaniy tadqiqotlariga oid qarashlari turli davrlarda rivojlangan va o'zgarib borgan. Ular til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganish orqali turli nazariyalarni ilgari surganlar. Quyida ushbu sohadagi ba'zi olimlar va ularning asosiy qarashlari keltirilgan:

Edvard Sapirning nazariyasiga ko'ra, til faqat aloqa vositasi emas, balki u madaniy qiyofani ham shakllantiradi [6]. Benjamin Lee Whorf esa Sapirning izdoshi bo'lgan unga ko'ra til va madaniyat o'rtasidagi aloqani o'rganib, «lingvistik nisbiylik» nazariyasini taklif qilgan [9].

Keyingi tadqiqotchi esa Deborah Tannen lingvistik pragmatika va gender lingvistikasi sohasida tadqiqot olib borgan. U til va madaniyatning insonlar o'rtasidagi muloqotdagi roli, xususan, jinsi va ijtimoiy kontekstga asoslangan til uslublarni o'rganadi. Uning tadqiqotlari madaniyatning til orqali qanday ifodalanishini ko'rsatadi. U madaniyatning tilda qanday aks etishini va til orqali ijtimoiy hokimiyatni qanday boshqarilishini tahlil qiladi. Uning ishlarida tilning ijtimoiy va madaniy nuqtai nazardan qanday shakllanishi keng yoritilgan [8]. Bu olimlarning qarashlari til va madaniyatni uzviy bog'liq holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi va bu masala lingvistik va madaniy tadqiqotlar uchun asosiy ilmiy manba hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, lingvokulturologiya til va madaniyatshunoslikning kesishishidan shakllangan fan bo'lib, ma'lum bir xalqning madaniyatini tilida aks etishini tadqiq etuvchi fandır. Frazeologik va paremiologik birliklar esa xalqning madaniyatini, qadriyatini o'zida aks ettiruvchi tilning ko'zguşidir. Shu boisdan ham frazeologik birliklarni konseptual-lingvomadaniy tahlil etish frazemalarning milliy-madaniy mohiyatini aniqlashda muhim sanaladi.

Yana bir e'tiborlisi shundaki, lingvokulturologiya sohasida frazeologik birliklarni alohida ta'kidlash joizki, chunki frazemalar ham aynan xalqning madaniyatini tili orqali ifoda etuvchi asosiy vositalardan biridir. Misol uchun inglizcha *to know the way the wind blows* frazeologik birligi o'zbek tilidagi *yulduzni benarvon uradigan* frazeologik birligiga to'g'ri keladi. Ingliz tili idiomasi *know [bilmoq]* leksemasi qo'llanilgan shu qatorida o'zbek tili frazemasida *bilmoq* leksemasi qo'llanilmaganligini kuzatishimiz mumkin. Bu o'rinda qo'llanilgan leksemalar har bir xalqning leksik fondidan va xalq qarashlaridan kelib chiqib foydalanilgan. Bu esa xalqning lingvomadaniyatida tafovut borligini yorqin isbotidir.

Bizga ma'lumki, Angliya jahon tarixida dunyodagi eng kuchli dengiz flotiga ega mamlakat bo'lganligi sababli xalq hayotida suvning o'rni beqiyos. Umuman, geografik joylashuv ham frazeologizmlar yaratilishiga ham sabab bo'ladi. Ushbu yuqorida keltirilgan iborani yaratilish tarixi dengizchilar bilan bog'liq bo'lib, dengizchilar dengiz safariga chiqqanda shamolni ahamiyati muhim hisoblangan [7]. Shu bois ham *to know the way the wind blows* idiomasi yaratilgan.

O'zbek tilida qo'llanilgan *Yulduzni benarvon uradigan* frazeologik birlik esa salbiy ma'noga ega bo'lib, u olg'ir, mug'ombir, har qanday ishni bajarish qo'lidan keladigan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Masalan, U yulduzni benarvon urib, hatto oyga chovut soladigan ustasi faranglardan "Mushtum [O'TIL. 1 jild 2020.]; To'qaboy deganimiz qayishday mahkam, tulkidek ayyor, bo'ridek olg'ir, yulduzni benarvon uradigan shayton edi. Bu toifa kishilar shunday

odamlarki, ular qilayotgan ishlarga hech kim va hech narsa to'siq bo'la olmaydi, ular uchun ilojisi yoq degan narsani o'zi bo'lmaydi. So'zlashuv va badiiy asarlar uslubida nutqiy ta'sir va ifodalilik vositasi sifatida keng qo'llaniladi.

Inglizcha: **To bite the granite of science** [8] iborasi murakkab ilmiy o'rganishning qiyin tabiatini va murakkab bilimlarni egallash uchun zarur bo'lgan intellektual mehnatni tasvirleydigan aniq bir metaforadir. Bu ingliz madaniyatida sabr-toqat, mehnat va bilimni o'zlashtirishga bo'lgan yondashuv qadrlanishini aks ettiradi, xususan ilm-fan sohasida.

O'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti bo'lmasa-da, **ilm olishga kirishmoq** frazeologik birligi ma'no va mazmuni bilan mos keladi. Idioma ilmiy bilimlarni olish jiddiy va mashaqqatli vazifa ekanligini, ko'pincha chidamlilik va qat'iyatni talab qilishini ham ta'kidlaydi.

Inglizcha: **A thief knows thief as a wolf knows wolf** idiomasi "bo'ri bo'rini bilganday, o'g'ri o'g'rini biladi" ma'nosini beradi. Bu o'zbek tilida **Bo'ri bo'rini saqlar** frazeologik birligi orqali ifoda etiladi. Inglizcha idiomada *thief* [o'g'ri], *wolf* [bo'ri] so'zlari qo'llanilgan bo'lsa, o'zbekcha iborada esa o'g'ri leksemasi ishtirok etmagan, biroq bo'ri leksemasi qo'llanilgan. Bu o'rinda xalq o'z madaniyati, qarashlaridan kelib chiqib so'z qo'llagan. Ikki etnosning lingvomadaniy jihatlariga e'tibor bersak, ingliz lingvomadaniyatida *thief* [o'g'ri] leksemasi ijobiy ma'no ifodalab kelmoqda. O'zbek lingvomadaniyatida esa o'g'ri so'zi ijobiy ma'no ifodalamaydi. Inglizcha idiomada barcha o'z kasb doirasidagilarni bilishi haqida so'z borgan bo'lsa, o'zbekcha frazeologik birlikda do'stlik, birlik va ahillik kabi ma'nolarni namoyon etganini kuzatishimiz mumkin. Bu o'rinda frazema ikki tilda katta farq bilan ishlatilishini ko'rsatyapti.

Inglizcha: **Know the tricks of the trades** "savdogarning hiyla-nayranglarini bilmoq" ma'nosini anglatadi. O'zbek tilidagi **Biror sohaning piri bo'lmoq** frazeologik birligi mazmun-mohiyati bilan to'g'ri keladi. Ingliz tilidagi idiomada tarkibida qo'llangan *trade* [savdogar], *trick* [hiyla] so'zlari o'zbek tili tarkibidagi iborada qo'llanmagan.

O'zbekcha variantda esa *pir* leksemasi qo'llanilgan. Chog'ishtirilayotgan frazeologik birliklarning inglizcha variantida salbiy ma'no izohlangan bo'lsa, o'zbekcha idiomada ijobiy ma'no kuzatilyapti.

Taqqoslangan frazemalar tarkibidagi so'zlarning turlicha ekanligi ikki xalqning lingvomadaniyati bir biridan farq qilib turishidan dalolat berib turibdi. Bu o'rinda xalq o'zining lingvomadaniyatiga xos bo'lgan leksemadan foydalangan. Ikki etnos frazeologik birliklarining ma'no va mazmuni teng bo'lgani bilan ularda ishlatilgan ayrim so'zlar faqat shu tilga oid leksemalardir hamda ikkala xalqning o'zigagina xos bo'lgan odatlarini ifodalaydi.

Ingliz lingvomadaniyatida savdogarlar juda ayyor kishilar hisoblanadi. Shu bois ham qo'llanilgan idiomada "*tricks of the trades*" birikmasi ishlatilgan hamda ayyor savdogarning hiylalarini biladigan *aqlli*, *ilmli*, *bilimdon inson* obrazi namoyon bo'lmoqda. O'zbek lingvomadaniyatida esa *pir* [9] sufiylik an'anasida tariqatlarning oliy rahnamolari yoki obro'li rahnamolar. Aholi orasida *Pir* tushunchasi avliyo, ma'lum bir hunarning asoschisi ma'nosida ham ishlatiladi. Shu bois ham o'zbekcha iborada *pir* leksemasi ishlatilgan. Mazkur ibora o'zbek xalqi orasida biror-bir sohaning eng yaxshi mutaxassisi degan mazmunda foydalaniladi.

Inglizcha **The Devil knows many things because he is old** iborasi "shayton ko'p narsani biladi, chunki u qari" ma'nosini beradi. Bu o'zbek tilida **Qari bilganni pari bilmas** idiomasi orqali ifodalanadi. Frazemaning o'zbekcha variantida ijobiy ma'no kuzatilyapti. Agar inglizcha varianti bilan solishtiradigan bo'lsak, o'zbek tilida bu ijobiy xislatlarni ko'rsatadi, ya'ni o'zbek

xalqi nuroniy, uzoq yashab kelayotgan qariyalarni hayot tajribasini qadrlashadi va ularni hatto pariga tenglashtiradi. Bu o‘rinda iborada ikki tilda katta farq bilan ishlatilishini ko‘rsatyapti. U holda inglizcha ushbu iboraga boshqacha o‘zbekcha variant qidirish ehtiyoji tug‘iladi. Yoki inglizcha idiomaga mualliflar tomonidan noto‘g‘ri variant qo‘yilgan degan xulosaga kelinadi. Chunki o‘zbek xalqi tomonidan *shayton* obrazi hech qachon ijobiy baholanmagan.

Metafora usulida hosil bo‘lgan frazeologizmlar o‘xshatishning turli ko‘rinishlariga asoslanadi. Aksariyat metaforik frazeologizmlar shaxsga yoki shaxs bilan bog‘liq narsa-harakatga qaratilgan bo‘ladi va shaxsning ijobiy yoki salbiy xususiyatlarini ifoda etadi. Misol uchun **Mullo mingan eshakday** kabi frazeologizmlari hayvon xarakterini insonga o‘xshatish asosida shakllangan.

O‘zbek tilida ko‘plab frazeologizmlar hayvonlarning u yoki bu xususiyatlarini simvallashtirish asosida shakllangan. Bu qatordagi frazeologizmlarda ijobiy va salbiy ma‘no ifodalovchi frazemalar ko‘pchilikni tashkil etadi. Masalan, ilonning turli salbiy belgi-xususiyatlari asosida bir qancha frazemalar shakllangan. Jumladan, **yerning tagida ilon qimirlasa bilmoq** iborasi o‘ta sezgir, juda mug‘ombir kishilar xarakterini ifodalash maqsadida yaratilgan, chunki ilon aynan shunday xislatga ega. Bu ibora insonning juda sezgir, kuzatuvchan va barcha voqealardan xabardor bo‘lishini anglatadi. Ya‘ni, u yer ostida, ko‘zga ko‘rinmaydigan joyda biror narsa ro‘y berayotganini ham bilib olish qobiliyatiga ega ekanligini bildiradi.

O‘zbek madaniyatida bu ibora tajribali va dono odamlarni tasvirlashda qo‘llaniladi. O‘zbek xalqida bunday odamlar ko‘pincha yoshi ulug‘, hayotda ko‘p narsani ko‘rgan va o‘z hayotiy tajribalariga asoslanib harakat qiladigan kimsalar sifatida tan olinadi. Bu ibora ham dono, ko‘p narsadan xabardor odamni ulug‘lash uchun ishlatiladi. Ushbu ibora o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham keng tarqalgan bo‘lib, u ko‘pincha aql-zakovat, tajriba va chuqur kuzatuvchanlikni ifodalaydi. O‘zbek lingvomadaniyatida bunday iboralar orqali insonlarning qanday bo‘lishi, qanday fazilatlar ulug‘lanishi kerakligi haqida tushunchalar aks ettiriladi va o‘zbek xalqining hayotiy tajriba va dono qarorlar qabul qilishga katta ahamiyat berishini aks ettiradi.

Boshqa madaniyatlardagi o‘xshash iboralar bilan solishtirganda, bu ibora o‘ziga xosdir va o‘zbek tilida juda chuqur ma‘noga ega. Masalan, ingliz tilida bu iboraning aniq ekvivalenti mavjud emas, lekin **to have eyes in the back of one’s head** kabi iboralar o‘zbekcha iboraga yaqin kelishi mumkin.

Ingliz tilidagi **to have eyes in the back of one’s head** idiomasi tematik jihatdan tahlilga tortilgan o‘zbekcha paremadan farq qilib turibdi. O‘zbekcha ibora bilim leksemasi iboraning shakllanishiga mantiqiy asos bo‘lgan bo‘lsa, qiyos qilinayotgan idiomada esa bilim leksemasi ishtirok etmagan. Ushbu ibora metaforik tarzda odamning atrofida sodir bo‘layotgan hamma narsadan xabardor ekanligini tasvirlaydi.

Ibora tarkibidagi **Eyes** [ko‘zlar] leksikasi xabardorlik va sezgirlikni anglatadi. Ushbu kontekstda “eyes” so‘zi odamning to‘g‘ridan-to‘g‘ri oldida bo‘lmagan narsalarni ko‘rish yoki sezish qobiliyatini ifodalaydi. **Back of one’s head** (boshingning orqasi) odatda ko‘rinmaydigan tana qismi sifatida tasvirlanadi, bu esa har tomonlama ko‘rish qobiliyatining imkonsizligini anglatadi. Ibora odamning atrof-muhitiga nisbatan yuqori darajadagi hushyorlik yoki xabardorlikni ifodalaydi. Bu odam kuzatilmaydigan narsalarni sezishi mumkinligini bildiradi, masalan, ota-onalar o‘z farzandlari nima qilayotganini ko‘rmasalar ham biladigan holatlardagi kabi.

Ikki til lingvomadaniyatida ham bu farqlar saqlanib qolgan. ***To have eyes in the back of one's head*** idiomasi ingliz tilida keng tarqalgan va ma'lum bir ma'noni ifodalaydi.

G'arb madaniyatlarida, xususan, ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda, bu ibora odatda o'yin-kulgi yoki bo'rttirilgan tarzda ishlatiladi, kimningdir deyarli hamma narsani biladigandek tuyulishini tasvirlash uchun. Bu odatda ota-onalar yoki o'qituvchilar kabi nazorat qilishi kerak bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

Xususan, ingliz lingvomadaniyatida ***to have eyes in the back of one's head*** iborasi ingliz tilida so'zlashuvchi jamiyatlarda xabardorlik va hushyorlikka bo'lgan madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi obrazli ifodadir. Ushbu ibora lingvistik jihatdan oddiy, lekin madaniy jihatdan boy bo'lib, favqulodda idrok va mas'uliyat obrazlarini aks ettiradi.

Bu iborani o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish qiyin, chunki «orqangizda ko'z bo'lish» degan ibora o'zbek tilida mavjud emas. O'zbek tilida ***ko'z*** so'zi ko'pincha diqqat, kuzatish va xabardorlik bilan bog'liq ma'nolarda ishlatiladi. Bu jihatdan ibora tarjimasini uchun o'zbekcha muqobil so'zlar ishlatilishi mumkin. Ingliz tilidagi ***orqa*** ma'nosi o'zbek tilida ham xuddi shunday, lekin bu so'zning obrazli ma'nosi o'zbek madaniyatida kam uchraydi. O'zbek madaniyatida diqqat va e'tibor juda muhim qadriyat hisoblanadi, ayniqsa, jamiyatning kattalari va hurmatli kishilari bilan bog'liq holda. Shuning uchun, bu ibora o'zbekcha kontekstda ham qabul qilinishi mumkin, lekin boshqa ifodalar orqali. O'zbek madaniyatida ***ko'z*** bilan bog'liq boshqa obrazli iboralar ham mavjud, masalan, ***ko'z quloq bo'lish*** biroq inglizcha tahlilga tortilgan iboraga ***yerning tagida ilon qimirlasa bilmoq*** idiomasi to'liq muqobil bo'ladi.

O'zbek xalqi tomonidan tez-tez qo'llanib turadigan ***Tanasi boshqa dard bilmas, uyi boshqa g'am bilmas*** paremasi ko'pincha insonlarning ikki yuzlamachiligini yoki turli vaziyatlarda boshqacha munosabatda bo'lishini ifodalash uchun ishlatiladi. ***Tanasi boshqa dard bilmas*** qismi insonning o'z sog'lig'i, jismoniy holati bilan bog'liq muammolardan bexabarligini anglatadi, ***uyi boshqa g'am bilmas*** qismi esa odamning oilaviy yoki uy-ro'zg'or muammolaridan bexabar yoki mas'uliyatsiz ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek madaniyatida bu ibora ko'pincha salbiy ma'noda ishlatiladi va insonlarning bir-biriga nisbatan mas'uliyatsizlik yoki beparvolikni tanqid qilish uchun ishlatiladi. O'zbek xalqida insonlarning bir-biriga g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatni bo'lishish zarurligi ta'kidlanadi, shuning uchun bunday iboralar odamlarning mas'uliyatsizligi yoki o'z vazifalarini bajarmasligini qoralash uchun ishlatiladi. Bu ibora orqali odamlarning o'z vazifalari va burchlariga nisbatan sezgir bo'lishlari kerakligi ta'kidlanadi. O'zbek madaniyati uchun bu ibora insoniy munosabatlar va g'amxo'rlikning muhimligini yodga soladi.

Ingliz tili iborasi bilan qiyoslaganda, bu ifoda o'zbek tilida unikal hisoblanadi. Ingliz tilida befarqlikni ifodalovchi ***out of sight, out of mind*** kabi iboralar mavjud bo'lsa-da, ularning ma'nosi va qo'llanish konteksti biroz farqlidir.

Tahlilga tortilgan o'zbekcha idiomaga ***He who feels it, knows it*** iborasi mos keladi. Bu ibora shaxsiy tajriba biror narsani tushunishning eng haqiqiy usuli ekanligini bildiradi. Bu hech kim og'riqni, hissiyotlarni yoki holatni o'zi boshidan kechirmagan holda to'liq anglay olmasligini anglatadi.

Xulosa. Ingliz lingvomadaniyatida bu ibora shaxsiy tajriba bilim va tushunish manbai sifatida qadrliligi haqidagi madaniy qadriyatlarga asoslangan. U hayotning ba'zi jihatlarini, ayniqsa, og'riq yoki qiyinchiliklarni, ikkinchi darajali manbalar orqali to'liq baholash mumkin emasligini aks ettiradi va ko'pincha hamdardlik muhim bo'lgan kontekstlarda yoki

kimdir boshqalarga o‘z tajribasining chuqurligini tushuntirishga uringan holatlarda ishlatiladi. G‘arbda shaxsiy tajriba ko‘pincha individual donolik va tushunishning asosi sifatida qaraladi. Shuningdek, u hamdardlik va hamdardlikning chegaralari g‘oyasini bevosita aks ettiradi.

Adabiyotlar/Literatury/References:

1. Bazell C.E. Syntactic Relations and linguistic Typology.– Longman, 1956. – 148 p.
2. Bengt Altenberg, Cowie A.R. On the phraseology of spoken English // The evidence of recurrent word-combinations. Oxford: Clarendon Press, 1998. – 238 p.
3. Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologiyasi. – Toshkent: Navro‘z nashriyoti 2019. – B. 224.
4. Narmuratov Z.R. Qisqacha ikki tilli ilm-ma‘rifat paremiologik lug‘at. Toshkent: ADAST POLIGRAF, 2020. – 84 b.
5. Narmuratov Z.R., Safarmuratova M. Ta‘lim, ilm hikmatlari. Termiz davlat universiteti, NMM nashriyoti, Termiz, 2022. – 89 b.
6. Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. New York: Routledge. 2017. – 234 p.
7. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shoraxmedov. Ma‘nolar mahzani. – Toshkent. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – 334 b.
8. Tannen, D. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. New York: William Morrow and Company. 2020. – 274 p.
9. Whorf, B.L. Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf . Cambridge, MA: MIT Press. 2018. – 434 p.
10. Балонкина О.В. Лингвокультурная значимость имени первостихии вода в составе русских и английских фразеологизмов // Вестник Томского государственного университета. – 2017. – № 423. – С.5-14
11. Киндря Н.А. Английские и русские фразеологизмы с компонентом-зоонимом в свете истории культуры: Дисс.... канд. филол. наук. – Москва, 2005. – 203 с.
12. Красильникова О. С. Подгайская И. М Семантика фразеологических единиц с компонентом «вода» в разноструктурных языках // Материалы Международной научной конференции студентов и молодых ученых (Донецк, 17-20 октября 2017 г.). – Том 4: Филологические науки. Ч. 1: Иностранная филология. – Донецк: Изд-во ДонНУ, 2017. – С.44 – 47.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE ARTISTIC CHARACTERISTICS OF IMAGES IN ENGLISH FOLKTALES AND THEIR PECULIAR FEATURES

Payzibayeva Madinaxon Sobirjon qizi

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Lecturer, Department of Practical Translation (English Language)
Uzbekistan State University of World Languages
E-mail: payzibayevamadina@gmail.com

Abstract. This article analyzes the names of characters frequently found in English folk tales, their typological features of origin, and their structure. In addition, examples from English fairy tales are provided with corresponding commentary and analysis.

Keywords: character, fairy tale, main hero, typology of names, feature, nickname, component, myth, mythology.

INGLIZ XALQ ERTAKLARI OBRAZLARINING BADIY XUSUSIYATLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Payzibayeva Madinaxon Sobirjon qizi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Amaliy tarjima (Ingliz tili) kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz xalq ertaklarida tez-tez uchraydigan qahramonlarning nomlari, ularning kelib chiqishiga oid tipologik xususiyatlar hamda tuzilishi tahlil qilingan. Shuningdek, ingliz ertaklaridan olingan namunalar asosida izoh va tahlillar berilgan.

Kalit so'zlar: personaj, ertak, bosh qahramon, ismlar tipologiyasi, xususiyat, laqab, komponent, mif, mifologiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N54>

Kirish. Xalq og'zaki ijodining janri sifatida ertak yuqori aksiologik imkoniyatlarga ega. U muayyan mamlakatning lingvistik, mafkuraviy, tabiiy-geografik o'ziga xosligi va madaniy-etnik o'ziga xosligini o'zida mujassam etadi. Ertak o'zining "kundalik" maqsadini o'yin-kulgi va ta'lim sifatida belgilab, o'quvchini badiiy muhit yordamida jamiyatning aksiologik ko'rsatmalari tizimi bilan tanishtirish orqali tarbiyaviy funksiyani amalga oshiradi. Matnning g'oyaviy-badiiy o'ziga xosligini ochib berishda adabiy asarning onomastik komponenti muhim o'rin tutadi. Ertak janridagi asarlarning antroponimik korpusini va qahramonlarning xulq-atvor xususiyatlarini tahlil qilish asarni chuqurroq tushunishga, o'quv motivatsiyasini oshirishga, o'quvchining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi va nuqtai nazardan, atrofdagi voqelik bilan bog'liq bo'lgan badiiy haqiqatni modellashtirishga yordam beradi [1].

Ingliz xalq ertaklarida ko'pincha bosh qahramon inson bo'ladi, biroq hayvonlar ham bosh qahramon sifatida uchrashi mumkin. Odatda mushuk, it, echki, ho'kiz, xo'roz kabi uy hayvonlari qahramon sifatida ko'riladi. Bundan tashqari, mifologik mavjudotlar ham bosh

qahramon bo'lishi mumkin, masalan, Tom Thumb (kichik qahramon), dev (katta maxluq) yoki shayton. Ba'zi hollarda esa predmetlar ham bosh qahramon sifatida tasvirlanadi, masalan, "Janob Uksus" ertagidagi uksus (sirka).

Britaniya sehrli ertaklarida bosh qahramon ko'pincha oddiy dehqon, fermer, ovchi yoki baliqchi sifatida ko'rsatiladi. Bu qahramonlar ko'pincha jamiyat hayotidagi kundalik jarayonlarni boshdan kechirgan va ular orqali hayotning turli tomonlarini aks ettiradi. Bunday ertaklarda hayvonlarning roli juda kam, hatto sehrli yordamchi yoki sehrli buyum sifatida ham kam uchraydi. "Malla Etti" ertagidagi qarg'a esa bunday holatlardan bittasi. Shuningdek, bu ertaklarda yangi personajlar paydo bo'la boshlaydi va ularning soni ko'payadi; masalan, "Naughty princess" ertagida lakey obraziga duch kelish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Britaniya ertaklarining nomlari, qahramonlar ismlarining xususiyatlari, ularning kelib chiqishi, ma'nosi va tuzilishini o'rganish orqali bu ertaklarning o'ziga xosligi aniqlanadi. Ko'pchilik sehrli ertaklar o'z bosh qahramonlarining nomlari bilan ataladi. Masalan, "Tam Lin" (ya'ni "kuyov"), "Tom Tit Tot" ("yordamchi"), "Malla Etti" ("antagonist"). Shuningdek, ertak bosh qahramonining laqabiga qarab ham nomlanishi mumkin, bunda uning xarakterining muayyan jihatiga e'tibor qaratiladi ("Naughty princess", "Dangasa go'zal va uning xolalari").

Ingliz xalq ertaklari qahramonlari struktur jihatdan 3 xil komponentli ismlar bilan ataladi:

- 1) bir komponentli ismlar;
- 2) ikki komponentli ismlar;
- 3) uch komponentli ismlar.

Ingliz xalq ertaklarida qahramonlarning ismlari aksariyat xollarda bir komponentlidir. Ingliz ertaklarida ismlar kanonik bo'lib, kelib chiqishiga ko'ra grek va lotin tiliga borib taqaladi. Bunday ismlar oddiy qishloq odamlari yoki ingliz xalqining tipik vakillariga xos bo'lib, personaj xarakterini ifodalash uchun ishlatiladi: Jack / Jek, John / Jon, Jenny / Jenni, Mary / Meri, Valentine / Valentin, Margaret / Margaret:

"A lad named Jack was once so unhappy at home through his father's illtreatment, that he made up his mind to run away and seek his fortune in the wide world" (Jek ismli yigitcha otasining unga nisbatan yomon munosabatidan o'zini baxtsiz his qilardi va shuning uchun u uyidan qochib ketib, katta dunyoda o'z baxtini qidirishga qaror qiladi) [2].

Shuningdek, Jek ingliz ertaklarida eng ko'p uchraydigan ismdir:

"Jack... er... not Jack... but – whatever – we'll call him Jack anyhow. Don't make a matter..." (Jekmi... E... Jyekmasmi... baribir emasmi, nima bo'lganida ham uni Jek deb chaqiramiz. Muammo chiqarmanglar) [3].

"There lived formerly in the County of Cumberland a nobleman who had three sons, two of whom were comely and clever youths, but the other a natural fool, named Jack" (Bir zamonlar Kamberlend grafligida bir olijanob kishi yashagan ekan. Uning uch o'g'li bo'lib, ularning ikkitasi chiroyli va aqlli ekan, uchinchisi esa o'taketgan ahmoq ekan va uning ismi Jek ekan) [2].

Shuningdek, sehrli ertaklarda miflardan o'tib kelgan ismlar ham ishlatiladi: *Wrekin* / Ryokin, *Olwen* / *Olven*, *Guleesh* / *Gulesh*, *Musha* / *Musha*, *Menw* / *Menv*, *Teirgwaeth* / *Tirgveth*, *Fin* / *Fin*, *Cormac* / *Kormak* va boshqalar:

“She foretold to her stepson, Kuhuch, that it was his destiny to marry a maiden named Olwen, or none other” (U o‘gay o‘g‘li Kuuchuga Olven ismli qizga uylanishini, boshqa hech kimga uylanolmasligini bashorat qiladi) (Jacobs 2009, 100).

Muhokama va natijalar. Bogard (“Boggard”) — bu ingliz quyi mifologiyasida uy farishtasi sifatida qaraladi. Oksford lug‘atida Bogard “bugbear” deb ta’riflanadi, ya’ni har qanday qo‘rqituvchi mavjudot. Ular uzun sariq tishlarga va yumshoq paxtaga o‘xshash junlarga ega bo‘lib, qorong‘uda ko‘zlari porlaydi deb tasvirlanadi. Bogardlar odatda yolg‘iz yashashni ma’qul ko‘rishadi, chunki ular bir-birlari bilan yaxshi chiqishmaydi. Ular yashaydigan uy egalriga nisbatan do‘stona munosabatda bo‘lishiga qaramay, zararli odatlari va yomon xulq-atvori bilan ajralib turadi. Masalan, ular tunda yotoqxonaga kirib, odamlarning yuzlariga nam va sovuq qo‘llari bilan tegib, yopiq ko‘rpalarni yopinchasidan tortib olishadi. Agar g‘azablanishsa, hatto uy ichidagi idishlarni sindirib yuborishlari ham mumkin.

Shuningdek, afsonalardan ertaklarga ko‘chgan ismlar ham mavjud:

“Arthur, King of England, was a good king and a great warrior” (“Angliya qiroli Artur yaxshi qiroli va buyuk jangchi edi”) (Jacobs 1895, 67).

“Long before Arthur and the Knights of the Round Table, there reigned in the eastern part of England a king who kept his Court at Colchester” (“Artur va Aylana Stol ritsarlari davridan ancha avval Angliyaning sharqiy qismini boshqaruvchi bir qiroli bo‘lib, uning saroyi Kolchesterda joylashgandi”) [2].

Sehrli ertaklarda tez-tez uchraydigan ism turlaridan biri — ikki qismdan tashkil topgan ismlardir. Bunday ismlar odatda ism va laqabdan iborat bo‘ladi. Laqablar esa ko‘pincha personajning soch rangi, bo‘y-basti yoki boshqa tashqi xususiyatlarini ifodalaydi. Masalan, Jack Hannaford, Jack Turnip, Jack the Fool, Lazy Jack, Canny Jack, Jack the Farmer, Jack the Robber, Daft Jack, Clever Jack kabi ismlar bunga misol bo‘la oladi.

“The eldest and second eldest were cunning clever fellows, but they called the youngest Jack the Fool, because they thought he was no better than a simpleton” (“Katta va o‘rtancha akalar ayyor va aqli yigitlar edilar, ammo kenja ukani ular tentak Jek deb chaqirishardi, chunki ular Jekni o‘ta sodda va omi deb o‘ylashardi”) [2].

Ba’zan ismga yashash joyi ham qo‘shilishi mumkin, masalan, Jack o‘ Kent (Djek o‘ Kent).

Qahramonlar ismidagi yashirin ma’nolarni aniqlash uchun ko‘pincha adabiyot, lug‘atlar yoki boshqa tillar hamda madaniyatlarni bilish kerak bo‘ladi. Masalan, Mallasoch Ettin — bu ulkan odamning ismi bo‘lib, “ettin” so‘zi qadimgi ingliz tilida ulkan, yirik degan ma’noni anglatadi: “...extinct since 16c., from O.E. eoten – giant, monster”. Shu sababli, bu ismning so‘zma-so‘z tarjimai “Mallasoch ulkan odam” degan ma’noni beradi.

“The Red Ettin of Ireland Once lived in Ballygan, And stole King Malcolm’s daughter, The king of fair Scotland” (“Bir kuni Balliganda yashovchi irlandiyalik Malla Ettin Buyuk Shotlandiya qiroli Malkolmni qizini o‘g‘irlydi”) [2].

Shuningdek, ertak syujetining asosiy elementini kuchaytirib berishga xizmat qiluvchi murakkab laqabli ismlar ham uchraydi (Qamish Shapka – *Cap O’Rush*).

Uch komponentli ismlar ingliz sehrli ertaklarida kam uchraydi. Bular odatda personajga boshlang‘ich xarakteristika beruvchi murakkab laqabli ismlardir. Materiallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz ertaklari ular kam uchraydi va ular ism va murakkab laqablardan tarkib topgan (Jack the Giant-Killer / Jek Devlar Kushandasi), yoki murakkab familiya va ismdan tashkil topgan (Manny Mac Gragh / Menni Mak Graf):

“John Garve Macgillichallum, of Rayaz, was an ancient hero of great celebrity” (Rayazlik Jon Garv Makgillikalum qadimgi eng mashhur qahramon bo‘lgan) (Douglas 1901, 218).

“When the magistrates heard of this they made a declaration he should henceforth be termed Jack the Giant’Killer” (Amaldorlarga bu xabar yetib borgach, ular o‘sha paytdan boshlab uni Jek Ulkan odamlar kushandasi deb atash haqida e‘lon qildilar) [2].

Bunday ismlarga yana murakkab familiyali ismlar ham kiradiki, bu ertak poetikasida yangilikdir (Menni Mak Graf –*Manny MacGragh*).

Ingliz xalq ertaklari qahramonlari ismlari semantik jihatdan ham ma‘lum bir guruhlariga birlashtirilishi mumkin:

1) odamlarning shaxsiy ismlari ingliz xalq ertaklarida tez-tez qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Masalan: *Jack (Djek)*, *John (Djon)*, *Bill (Bill)*, *Tom (Tom)*, *Jenny (Djenni)*, *Molly (Molli)*, *Betty (Betti)*, *Kate (Keyt)*.

2) kanonik bo‘lmagan ismlar. Bu ismlar odatda mifologik hikoyalar qahramonlariga yoki inson bo‘lmagan mavjudotlarga beriladi: Rowland, Fionn, Florentine, Dando va boshqalar.

3) gipokoristikalar – shaxs ismlarining qisqartirilgan shakllari (Betty (Betti), Tom (Tom), Jack (Jyek), John (Jon) – ertak rivoyati doirasida oddiy qishloq aholisiga murojaat qilish uchun ishlatiladi, ular odatda ingliz xalq ertaklarining bosh qahramonlari hisoblanadi. Antroponimning to‘liq (rasmiy) shaklidan farqli o‘laroq, gipokoristika kundalik muloqotda eng ko‘p qo‘llaniladi. Ular muloqotchilar – bir xil ijtimoiy muhit yoki yosh guruhining vakillari tomonidan qo‘llaniladi va suhbat ishtirokchilari orasidagi masofani qisqartiradi.

4) turli laqablar. Laqablar ham o‘z ichida uch turga bo‘linadi:

a) qahramonlarning tashqi ko‘rinishini tavsiflovchi laqablar: *Cap o’ Rushes (Qamish qalpoq)*, *Tattercoats (Juldurkiyim)*, *Tom Thumb (Tom barmoqbola)*, *Teeny-Tiny (Mittivoy)* va boshqalar.

b) qahramonlarning intellektual qobiliyatlari, shaxsiyati va xatti-harakatlarini tavsiflovchi laqablar: *Silly Willy (Tentak Uilli)*, *Kate Crackernuts (Ket-qarsildoq)*, *Lazy Jack (Dangasa Jek)*, *Simpleton Peter (Sodda Piter)* va boshqalar.

Bu ertak qahramonlari ismlarining tavsiflovchi komponentlari yetarlicha semantik yukka ega bo‘lib, kitobxonga bu qahramonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ular bilan birinchi uchrashgandanoq to‘liq his qilish imkonini beradi.

v) qahramonlarni jamiyatdagi mavqeiga ko‘ra tavsiflovchi laqablar: *Earl Mar (Graf Mar)*, *Lord Lathom (Lord Leytom)*, *Lord Lambton (Lord Lemton)* va boshqalar. Bunda ismlar oldi komponentlarining semantikasi personajlarning jamiyatdagi mansab va titullarini bildiradi [1].

Ingliz xalq ertaklarida biz uchun g‘ayritabiiy ko‘rinadigan motivlar mavjud. O‘zbek xalq ertaklarida qahramonlar ko‘pincha kimnidir yengish, boylikka ega bo‘lish yoki biror mahoratga ega bo‘lish uchun harakat qilsa, ingliz ertaklarida bunday maqsadlar kam uchraydi. Aksincha, ingliz ertaklaridagi qahramonlar ko‘proq muayyan burchni bajarish yoki muvaffaqiyatsizliklardan qochishga intiladi va aynan shu sababli voqealar rivojlanadi.

Bir tomondan, bu elementlar syujetning sodda va tushunarli bo‘lishini ta‘minlaydi. Boshqa tomondan esa, qahramonlar afsonaviy obrazlardan oddiy, kundalik hayotdagi insonlarga yaqinroq bo‘ladi. Ingliz ertaklarida esa nozik va istehzoli ingliz hazillari aniq ko‘zga tashlanadi — ular biroz g‘alati va ba‘zida eksantrik bo‘lishi mumkin. Syujetda ko‘plab kulgili burilishlar va qiziqarli tafsilotlar mavjud. Masalan, “Uch aqlli bosh” ertagida qahramonlar ketma-ket ahmoqona harakatlar qiladi, “Dik Uittington va uning mushuki” ertagida esa oddiy

mushuk o'zining sarguzashti orqali katta boylikka erishadi. Mashhur ingliz ertagi "Uch cho'chqa bolasi" da (Three Little Pigs) inglizlarning uylariga bo'lgan munosabati juda yorqin va samimiy tarzda tasvirlangan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ertak janri ingliz adabiyotining takrorlanmas va o'chmas nodir asarlari hisoblanib, xalqning orzu-umidlari, kechinmalari, qiyinchiliklarini o'zida ifoda etib ko'p asrlardan beri shakllanib kelmoqda. inglizlar faktlarni yaxshi ko'radigan sinchkov xalq hisoblanadiki, bu hatto ularning ertaklarida ham o'z aksini topgan. Ingliz ertaklari turli faktlar va detallarga juda boy. Ba'zida butun bir ertak vaziyat tasviri va faktlar ustiga quriladi, yechim esa berilmasligi mumkin. Ko'pincha, syujetlarda kutilmagan burilishlar kuzatiladi. Hattoki, ertakdagi voqea-hodisalar haqiqatan ro'y berayotgandek mayda-chuyda detallarigacha hikoya qilinganligi sababli sehrlil ertaklar ham oddiy odamlar hayotidan so'zlangan oddiy hikoyalar kabi o'qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Галковская Ю.М. Имена персонажей Британских народных сказок и их использование в учебном процессе // Современное образование Витебщины. № 2(16). 2017. – С.30-32.
2. Jacobs Joseph. English Fairy Tales. – The Pennsylvania State University, 2002.
3. Halpert H., Widdowson J.D.A. Folktales of Newfoundland: The Resilience of the oral tradition.- Routledge library edition, 2015. – p 362.
4. Jacobs, J. English Fairy Tales [Electronic resource] / J.Jacobs. - London: David Nutt, 1890.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE ISSUE OF GENDER CATEGORY ASSIGNMENT OF BORROWED NEOLOGISMS IN THE GERMAN LANGUAGE SYSTEM

Akhmedov Anvar Botirovich,
Doctor of Philosophy (PhD),
Associate Professor of Karshi State University

Abstract. The article analyzes the morphological assimilation of neologisms borrowed from English into German, with a particular focus on their adoption of the gender category in the German language. Using 74 neologisms as examples, the study demonstrates the determination of gender based on morphemic structure, lexical synonyms, biological gender, and principles of hyperonymy. It is noted that gender variability in borrowings is a natural process of language development.

Keywords: borrowed neologisms, morphological assimilation, gender category, morphemic structure, semantic motivation, adaptation to the language system.

NEMIS TILI TIZIMIDA O'ZLASHMA NEOLOGIZMLARNING ROD KATEGORIYASIGA EGA BO'LISH MASALASI

Axmedov Anvar Botirovich,
Qarshi davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: axmedovanvar113@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ingliz tildan nemis tiliga o'zlashgan neologizmlarning morfologik assimilyatsiyasi, ayniqsa ularning nemis tilida rod kategoriyasini qabul qilish jarayoni tahlil qilingan. Tadqiqotda 74 ta neologizm misolida morfemik tarkib, leksik sinonimlar, biologik jins va giperonim tamoyillari asosida rod belgilanishi ko'rsatilgan. O'zlashmalarda rodning o'zgaruvchanligi tilning tabiiy rivojlanish jarayoni ekani ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: o'zlashma neologizm, morfologik assimilyatsiya, rod kategoriyasi, morfemik tarkib, semantik motiv, til tizimiga moslashuv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N55>

Kirish. Leksik birlik sifatida qo'llanishi uchun neologizmlar o'zlashish jarayonida qabul qiluvchi til tizimiga ozmi ko'pmi moslashadi. Assimilyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, neologizm qabul qiluvchi til tizimiga shunchalik tez singib ketadi. O'zlashmalarning qabul qiluvchi til tizimiga moslashishini fonetik, grafik, morfologik (grammatik), semantik va so'z yasalishi kabi mezonlar asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu mezonlar orasida grammatik jihatdan moslashuv boshqalariga qaraganda tezroq amalga oshadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Morfologik assimilyatsiya deganda, qabul qiluvchi til tizimi me'yor va qoidalari ta'sirida o'zlashma so'z grammatik tavsifining o'zgarishi tushuniladi. Bunday holda, morfologik assimilyatsiya qabul qiluvchi til tizimining me'yor va qoidalari ta'sirida qabul qilingan chet tili materialini grammatik xususiyatlarining o'zgarishini o'z ichiga oladi. Mustaqil so'z turkumlariga mansub inglizcha o'zlashmalarning katta qismi nemis

tili tizimiga kirib kelishi bilan qabul qiluvchi til me'yor va qonunlari ta'siri ostida muayyan o'zgarishlarga uchraydi [2; 14-b]. Bunday integratsiya jarayonlari chet tilidagi so'zlarni to'liq o'zlashtirgunga qadar asta-sekin sodir bo'ladi, shuningdek, so'z beruvchi va qabul qiluvchi tillardagi birliklarning belgilari mavjud bo'lgan turli xil oraliq shakllarda namoyon bo'ladi [3].

Nemis tiliga o'zlashgan neologizmlarning morfologik assimilyatsiyasini so'z turkumlariga ajratgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq. Ingliz va boshqa tillardan nemis tiliga o'zlashgan neologizmlarning aksariyati ot so'z turkumiga mansub. O'zlashma otlarning nemis tiliga morfologik assimilyatsiyasidagi muhim jihat ularning rod kategoriyasini qabul qilishi, son va kelishik tizimiga integratsiyasi masalasidir [11; 49-b]. Darhaqiqat o'zlashma otlar nemis tiliga xos bo'lgan rod, son va kelishik kategoriyasini qabul qiladi, o'zlashma fe'llar esa infinitiv va tuslanish shakllariga ega bo'ladi, sifatlar aniqlovchi sifatida aniqlanmish bilan moslashadi.

Ayrim tilshunoslarning fikricha, inglizcha o'zlashma otlarning nemis tili tizimida rod kategoriyasini qabul qilish masalasi bahslidir [1; 26-b].

Zamonaviy tilshunoslikda ingliz tilida rod kategoriyasining mavjudligi masalasida qat'iy fikr yo'q. Ingliz tilida otlarni rodga ajratishda ularning leksik ma'nosi, shuningdek denotatning tabiiy jinsi muhim mezon sanaladi. Formal jihatdan rod kategoriyasi ingliz tilida kishilik olmoshlari, qator suffikslar, shuningdek so'z yasash vositalarida o'z aksini topgan.

Nemis olimi Tea Shippaning fikricha, o'zlashma otlar nemis tilida rod kategoriyasini qabul qilishda manba tildagi o'zi mansub bo'lgan rod bilan mos kelishi kerak, rodga ajratishda tabiiy jins yoki semantik jihatdan yaqin bo'lgan nemischa so'zning rodiga analogiya asosida yaqinlashmog'i kerak [9; 265-b]. Rus tadqiqotchisi N.X.Mixalkning fikricha, inglizcha o'zlashma otlarni nemis tilida rodlarga ajratishda asosan quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1) so'zning morfemik tarkibiga ko'ra, ya'ni bir xil suffiksga ega otlar qabul qiluvchi tilda bir xil rodga ega bo'ladi, masalan -yer suffiksi bilan tugagan otlar nemis tilidagi kabi mujskoy rodga mansub bo'ladi: *der Winner, der Trainer, der Sprayer, der Songwriter, der Biker, der Off-Roader, der Jetsetter* va b. S. Shererning fikricha, rodlarga ajratish borasida mazkur mezon semantik va fonologik mezonlardan ko'ra ustun maqomga ega [8; 19-b]. Ko'pchilik tilshunoslar til egalari tomonidan suffiks sifatida qabul qilinuvchi va o'zlashma so'z rodiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi -er, -el, -e, -en kabi «soxta suffikslar»ni ham qayd etadilar.

2) qabul qiluvchi tilda o'ziga yaqin sinonim rodini qabul qilish tamoyili, masalan *das Bike* – das Rad; *die Crew* – die Mannschaft, die Besatzung; *die Group* – die Gruppe va h.k. B. Karstensen [5; 39-b] va B. Gregor [7; 59-b] kabi olimlarning ishlarida ingliz tilidan yaxshi xabardor nemis tili sohiblari o'zlashma otlarning rodini belgilashda so'zning morfem tarkibiga qaraganda xuddi shunday leksik sinonimlarga qarab mo'ljal olishi qayd etilgan. Biroq R. Fisherning qayd etishicha, sinonimlarning ko'pligi inglizcha o'zlashmalarning nemis tilida rodini belgilashda qiyinchilik tug'diradi [9; 287-b]. Shu bilan birga, M. Kalliyesning fikriga ko'ra, sinonimlarning mavjud emasligi o'zlashma otlarda o'zgaruvchanlik hodisasi sodir bo'lmaydi, degani emas [4; 67-b].

3) biologik jins tamoyili, masalan *der Boy* – *der Junge*.

4) giperonimning yetakchilik tamoyili: *der Alkohol* so'ziga analogiya asosida *der Whiskey, der Gin, der Longdrink*.

N. A. Kuleshovaning [2; 12-b] fikricha, inglizcha o'zlashma otlarning nemis tilida rod kategoriyasiga ega bo'lish jaryonida quyidagi tamoyillar amal qiladi: morfemalarga bo'linish

(*der Dealer, der Beamer, der Killer*), sinonimlarning mavjudligi (*play – das Spiel – das Play, girl – das Mädchen – das Girl*), rodning motivlanganligi (*der Boy, der Guy, der Chef*), o'zlashma otning leksik ma'no bilan bog'liqlik tamoyili (*der Jeep, der Fog, der Dollar*).

Muhokama. O'zlashma otlarning rodini belgilash jarayoni tashqaridan tartibga solinmaydi, balki til egalari tomonidan semantik, morfologik yoki etimologik analogiya asosida beixtiyor sodir bo'ladi. Shubhasiz, leksik analogiya va morfem tarkib metodlari ustuvor ahamiyat kasb etadi, biroq o'z navbatida, ulardan hech biri universal metod bo'la olmaydi. Qat'iy me'yorning mavjud emasligi o'zlashma so'zning turli til egalari tomonidan turlicha qo'llanishiga olib keladi. Buning ustiga, rodni belgilashdagi bunday o'zgaruvchanlik muloqot jarayonida qandaydir muammo keltirib chiqarmaydi, chunki turli rodga mansub (ayniqsa, mujskoy va sredniy roddagi otlar) otlarning kelishik shakllari qisman mos keladi [1; 10-b].

Natijalar. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, o'zlashma otlarning rodini belgilashda quyidagi tamoyillar asosida yondashish maqsadga muvofiq:

1) so'zning morfemik tarkibiga ko'ra, ya'ni manba va qabul qiluvchi tillarda bir xil suffiksga ega otlar bir xil rodga ega bo'ladi, masalan -er, -ism suffikslari bilan tugagan o'zlashma otlar nemis tilida mujskoy rodga mansub: *der Hater, der Remainer, [der Superrecogniser](#), der Youtuber*; -ism: *der Overtourism, der Slacktivism*; oxiri -ing suffiksi bilan tugagan o'zlashma otlar sredniy rodni qabul qiladi: *das [Clickbaiting](#), [das Crowdfunding](#), [das Cybergrooming](#), [das Gaslighting](#), [das Geoblocking](#), [das Ghosting](#), [das Homestaging](#), [das Landgrabbing](#), [das Manspreading](#), [das Mining](#), [das Phubbing](#), [das Planking](#), [das Scamming](#), [das Urban Farming](#), [das Upskirting](#), [das Upcycling](#), [das Urban Gardening](#)*; oxiri -tion suffiksi bilan tugagan o'zlashma otlar jenskiy rodni qabul qiladi: *die [Gamification](#)*;

2) qabul qiluvchi tilda o'ziga yaqin sinonim rodini qabul qilish tamoyili, masalan *die Bodycam – die Bodykamera, die Minischulterkamera; der Cobot – der Kobot, der Superrecogniser – der Supererkenner, der Superwiedererkenner; [die Smartwatch](#) – die Computerarmbanduhr* va x.k.

3) biologik jins tamoyili, masalan *der [Hater](#) – der Unruhestifter, der Remainer – der Antibrexiteer*

4) giperonimning yetakchilik tamoyili: *das Internet сўзига аналогия асосида das Clearnet, das Darknet.*

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, o'zlashma otlarning rodini belgilashda diaxron omil muhim ahamiyatga ega. R.Fisherning [6; b-287] fikricha, o'zlashma otlarda qabul qiluvchi til tizimida qo'llanishining dastlabki bosqichida rod jihatdan o'zgaruvchanlik tendensiyasi kuzatiladi, shu bilan birga, olim so'z qo'llanishining keyingi bosqichlarida rod jihatdan o'zgaruvchanlikning kamayib borish tendensiyasini ham qayd etadi. M.Shulte-Bekxauzenning ta'kidlashicha, o'zlashma otlarning rod kategoriyasini ifodalovchi vositalarning o'zgaruvchanligi so'zning keyingi qo'llanish bosqichlarida ayniqsa muhim, chunki leksema til egalari tomonidan ko'p qo'llana boshlashi bilan bitta rodga ega bo'la boradi [10; 32-b]. M.Kalliyes o'zlashma otlarda rod kategoriyasining o'zgaruvchanligi so'z morfem tarkibida uch roddan biriga mansublikni ko'rsatuvchi formal morfonologik belgi, ya'ni suffiks yoki soxta suffiks mavjud bo'lsa, rod bo'yicha o'zgaruvchanlik keskin kamayadi, deb hisoblaydi. O'zlashma ot rodini belgilashda semantik omilning muhimlik jihatidan ikkinchi o'rinda turishini qayd etar ekan, olim so'z leksik ma'nosini bilmaslik ham otning rodini belgilashda qiyinchilik tug'dirishini ta'kidlaydi [4; 68-b].

To'plangan materiallar tahlilidan ko'rinadiki, quyidagi inglizcha o'zlashma otlar nemis tilida bir necha rodga ega: *der, die Bitcoin; das, der, die Clickbait, der, das Doodle, das, der Emoji, der, das Pushback*. E'tiborli jihati shundaki, ular bitta leksik ma'noga ega, qiyosl. *Es gibt sogar schon das erste Buch, das in **Emoji** übersetzt wurde: Moby Dick. (Westdeutsche Zeitung, 07.02.2015). Auf Youtube kursieren tausende **Emoji**-Übersetzungen von Musikvideos; es gibt Nachrichten auf **Emoji**, Filme auf **Emoji**. (Der Tagesspiegel, 14.03.2015).*

Tahlilga tortilgan o'zlashma neologizmlarning 26 tasi (35 %) mujskoy rodga, 13 tasi (18 %) jenskiy rodga, 28 tasi (38%) sredniy rodga mansub bo'lsa, 2 tasi (3 %) rod kategoriyasiga ega emas, 1tasi (1 %) har uch rodga, 3 tasi (4 %) mujskoy va sredniy rodga, 1tasi (1 %) mujskoy va jenskiy rodga mansub ekani aniqlandi (jami 74 ta).

Demak, o'zlashma neologizmlarning nemis tili tizimida rod kategoriyasiga ega bo'lishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, bu jarayon bir xil kechmaydi: ayrim o'zlashma neologizmlar nemis tili tizimiga kirib kelish davrining boshlang'ich bosqichida, boshqalari esa ma'lum muddat qo'llangandan so'ng ham rod bo'yicha o'zgarib turadi.

Xulosa. Maqolada zamonaviy nemis tilidagi ingliz tilidan o'zlashgan neologizmlarning morfologik integratsiyasi, xususan, ularning nemis tilida rod, son, kelishik kabi grammatik kategoriyalarga moslashuvi tahlil qilindi. Tahlillardan ko'rinadiki, o'zlashma otlarning rodini aniqlashda bir qator omillar – morfemik tarkib, leksik sinonimlar, biologik jins, giperonimga asoslangan analogiya va semantik motivatsiya muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot davomida 74 ta ingliz tilidan ozlashgan neologizm tahlil qilinib, ularning aksariyati nemis tili tizimida muayyan grammatik o'zgarishlarga uchrashi kuzatildi. Jumladan, 35% mujskoy rod, 18% jenskiy rod, 38% sredniy rodga ega bo'lsa, qolganlari turli kombinatsiyalarda rod o'zgaruvchanligiga ega ekani aniqlangan. Bu esa, o'zlashmalar rodining shakllanishi qat'iy qoida asosida emas, balki tillarning tabiiy rivojlanish jarayoni, tildan foydalanish chastotasi, til egalari ongidagi tasavvurlar asosida amalga oshishini ko'rsatadi.

Demak, o'zlashma neologizmlarning morfologik integratsiyasi murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u nemis tili tizimining moslashuvchanligi, ochiqligi va til tizimida sodir bo'layotgan o'zgarishlarga tayyorligini yaqqol namoyon etadi. Ushbu holat lingvistik jihatdan muhim bo'lib, kelgusida tilshunoslik, nomlash nazariyasi va til siyosati sohalarida qo'llash mumkin bo'lgan qimmatli ilmiy natijalarni beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Васильева Л.В. Обогащение современного немецкого языка иноязычными заимствованиями: Экспериментально-типологическое исследование на материале англицизмов: дис... канд. филол. наук. – Ставрополь, 2004. – 220 с.
2. Кулешова, Н.А. Морфологическая и словообразовательная ассимиляция англоязычных заимствованных единиц в национальных вариантах немецкого языка: на материале прессы Германии, Австрии, Швейцарии: автореф. дис... канд. филол. наук. – М., 2009. – 25 с.
3. Руссу А.Н. Вариантные формы англо-американских глаголов в современном немецком языке // Вестник Московского государственного гуманитарного университета им. М.А. Шолохова. – 2013. – Вып. 4. Режим доступа: <http://cyberleninka.ru/article/n/variantnye-formy-anglo-amerikanskih-glagolov-v-sovremennom-nemetskom-yazyke>.
4. Callies M., Ogiermann E., Onysko A. Variation in gender assignment to english loanwords in German. The influence of methodological design, cognitive factors and sociolinguistic

- variables. / V. Pulcini, Virginia, FR González, C. Furiassi // the anglicization of european lexis. – Amsterdam: Benjamins, 2013. – P. 65-87.
5. Carstensen, B. Das Genus englischer Fremd- und Lehnwörter im Deutschen. // Studien zum Einfluss der englischen Sprache auf das Deutsche. Tübingen: Narr, 1980. – S. 37-76.
 6. Fischer R. Genuszuordnung. Theorie und Praxis am Beispiel des Deutschen. – Frankfurt am Main: Peter Lang, 2005. – 386 S.
 7. Gregor B. Genuszuordnung: Genus englischer Lehnwörter im Deutschen. – Berlin: De Gruyter, 1983. –194 S.
 8. Scherer C. Vom Fremdwort zum Lehnwort: Eine Untersuchung zur morphologischen Anpassung im Gegenwartsdeutschen. – Universität Marburg, 2000. – 115 S.
 9. Schippan T. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. – Tübingen: Niemeyer, 1992. – 307 S.
 10. Schulte-Beckhausen M. Genusschwankung bei englischen, französischen, italienischen und spanischen Lehnwörtern im Deutschen: Eine Untersuchung auf der Grundlage deutscher Wörterbücher seit 1945. – Frankfurt am Main: Peter Lang, 2002. – 430 S.
 11. Yang W. Anglizismen im Deutschen. Am Beispiel des Nachrichtenmagazins Der Spiegel. – Tübingen: Niemeyer. – 1990. – 237 S.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF ETHNOGRAPHIC REALIA

Djabbarova Shoira Baltayevna,

Senior teacher, Phd of Termez State University

E-mail: shoirajabborova75@gmail.com

Abstract. This article investigates the linguistic characteristics of ethnographic realia. Ethnographic realities reflect the customs, traditions, and way of life of a specific culture and society. The expression of these realia in language and speech processes, the role of language in social context, and how cultural norms are manifested through language are the main objectives of this research.

Keywords: ethnographic realia, inequivalent lexicon, phraseological units.

ETNOGRAFIK REALIYALARNING LINGVISTIK XUSUSIYATI

Djabbarova Shoira Baltayevna

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi, Phd

Annotatsiya. Ushbu maqola etnografik realiyalarning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etadi. Etnografik realiyalar muayyan bir madaniyat va jamiyatning urf-odatlarini, an'analari va yashash tarzini aks ettiradi. Ularning til va nutq jarayonlaridagi ifodalanishi, tilning ijtimoiy kontekstdagi o'ri, hamda madaniy normativlarning til orqali qanday namoyon bo'lishini o'rganish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadidir.

Kalit so'zlar: etnografik realiya, muqobilsiz leksika, frazeologik birliklar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N56>

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarni hamda milliy tilning rolini e'tiborga olish zarurdir. Zero, madaniyatlararo muloqotda jamiyatdagi munosabatlar jarayonida til orqali axborotni saralash, qayta yaratish va uzatish vositasi sifatidagi vazifasi o'ta murakkab jarayondir. Ayniqsa, badiiy matnlar o'zga tilga transformatsiya qilishda o'zga til xususiyatlarini hisobga olgan holda, axborotni mentallik hamda qadriyatlar tizimi zahirida o'ziga xosligi aks ettiriladi, til va madaniyat aloqasi, ulardagi tafovutlar haqida fikr yuritilgan ekan, etnografik realiya tushunchasini izohlash, tavsiflash ushbu yo'nalishdagi muhim va dolzarb masalalar qatorida turadi. Zero, til va madaniyat o'rtasidagi aloqaning farqli jihatlari aynan etnografik realiya doirasida yaqqol namoyon bo'ladi. Tillar va madaniyatlarni taqqoslashda realiyalar yoki muqobili bo'lmagan leksikani bilmasdan iloj yo'q. "Realiya" tushunchasini yanada batafsil o'rganishdan oldin muqobili bo'lmagan leksika va unga bog'liq atamalarining ta'rifini umumiy ravishda ko'rib chiqish zarur. Muqobili bo'lmagan leksika ekvivalent leksikaga qarama-qarshidir. Va shunga ko'ra, ma'nolari jihatidan tarjima qilinadigan matn qanchalik murakkab bo'lsa, muqobili bo'lmagan leksika shunchalik tez-tez uchraydi. Ushbu atamaga bo'lgan yondashuvlar juda xilma-xildir: ba'zi tadqiqotchilar muqobili bo'lmagan leksikani realiyalar deb hisoblashsa, boshqalari bu boshqa madaniyatlar va tillarda yo'q so'zlar va tarjima tilida tarjima ekvivalenti yo'q frazeologik va leksik birliklar deb

hisoblaydilar, uchinchilari esa bu boshqa tilga tarjima qilinmaydigan soʻzlar deb hisoblaydilar. Muqobilsiz leksika taʼrifi va uning tasnifi turli yondashuvlarni nazarda tutadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. L.S. Barkhudov muqobilsiz leksikani “shaxsiy nomlar, geografik nomlar va muassasa, gazeta va boshqalar nomlari; realiyalar; tasodifiy lakunalar (bir tilga tegishli soʻzlar, boshqa tilda leksik analoglari yoʻq)” tarzida tasniflaydi. [1, 94]. E. M. Vereshchagin va V.G.Kostomarov genetik asoslarni tematikalar bilan birlashtirgan tasnifni taklif qilganlar: 1) dialektizm; 2) sovetizmlar; 3) anʼanaviy predmetlar va hodisalar ichidagi nomlar; 4) tarixiy terminlar; 5) frazeologik birliklarning leksikasi; 6) folklordan va dialektdan olingan soʻzlar; 7) ruscha boʻlmagan kelib chiqishi ruscha soʻzlar”. [2,53]. A. O. Ivanov Muqobilsiz leksikani quyidagicha tasniflaydi: 1) referensial muqobilsiz leksika, bu oʻz navbatida quyidagi turlarga boʻlinadi: a) terminlar; b) neologizmlar; c) semantik lakunalar; 2) keng semantikaga ega soʻzlar; 3) qoʻshma soʻzli realiyalar. [3,46]. L.K.Latishev leksik muqobilsizlikning dastlabki sababini “boshlangʻich tilning leksik birligi uning sohiblariga yaxshi tanish boʻlgan hamda til leksikasiga mustahkam oʻrnashgan hodisani bildirsa, bu hodisa tarjima tili sohiblariga maʼlum boʻlmagan va shu boisdan ularning leksik tizimida aks etmaganligida” koʻradi. Olim ularga **realiya** deb nomlanuvchi – faqat shu xalqning moddiy va maʼnaviy hayotiga xos boʻlgan tushuncha sifatida qaraydi. [4,77].

O.S.Axmanovning “Lingvistik terminlar lugʻati” da **realiya** termini quyidagicha izohlanadi: “Realiya (lot. realia – ashyoviy, haqiqiy) – tashqi lingvistika tomonidan oʻrganiladigan turli-tuman omillar – muayyan mamlakatning davlat tuzumi, xalqning tarixi va madaniyati, mazkur til sohiblarining kommunikatsiyada ishtiroki, moddiy madaniyat predmetlari”. [5,53].

Shu bilan bir qatorda, realiyalar lisoniy birliklarning qaysi toifasiga kiradi, degan savolga bir xil javob mavjud emas, biroq, aksariyat olimlarning fikricha, har qanday holatda ham realiyalar alohida soʻzlar va soʻz birikmalari bilan semantik jihatdan teng soʻz. Aytish mumkinki, realiyalarning lisoniy birliklar sifatidagi grammatik shakli ularning aniq soʻz turkumiga mansubligi va tilning grammatik tuzilishiga bogʻliq boʻladi.

S.I.Vlaxova va S.Florinning fikricha, “realiyalar aksariyat hollarda ot soʻz turkumiga oid birliklar bilan ifodalanadi. Darhaqiqat, yuqorida koʻrib chiqilgan taʼriflardan kuzatiladiki, realiyalar koʻpincha predmetlar va hodisalarni nomlaydi. Shuningdek, realiyalar deb otdan yasalgan sifatlarni ham hisoblash mumkinki, ularning mazmuni bevosita realiyalar mazmuni bilan bogʻliq”. [6,42].

Oʻzbek tilshunos olimi I.Mirzaev “Проблемы передачи слов, обозначающих реалии французской жизни на узбекский язык” nomli nomzodlik dissertatsiyasida fransuz soʻz realiyalarini lingvostilistik xususiyatlari va ularni oʻzbek tilida berilishini tadqiq qilgan. [7,23]. Olimning tadqiqotida fransuz realiyalarining oʻzbek tilida berilishi, tarjima muammolari badiiy adabiyot misolida ochib berilgan. Mavzu borasida olib borilgan tadqiqot natijasiga koʻra muallif realiyalarni til birligining muhim leksik birligi sifatida qarab, realiya milliy xususiyatni namoyon qiladi, deb hisoblaydi va quyidagicha taʼriflaydi: “Realiya soʻzlar bir maʼnoli soʻz yoki soʻz birikmalari boʻlib, milliy tushuncha va predmetlarni, shuningdek, hodisalarni anglatadi. Realiyalar ijtimoiy geografik, etnografik, ijtimoiy voqelikni aks ettiradi. Shuning bilan birga realiyalar tegishli til qonuniyatlariga boʻysunadi”. I.Mirzaev realiyalar mavjud, tegishli boʻlgan tilning qonuniyatlariga boʻysunishi borasida fonetik, leksik va grammatik qonuniyatlarini nazarda tutadi. Shuningdek, realiyalar uchun polisemiya, sinonimiya va antonimiya hodisasi

xarakterli emasligi, shunga qaramay, realiyalarda omonimiya hodisasi kuzatilishi hamda ularning asosiy funksiyalaridan biri nominativlik ekanligini ta'kidlaydi. Olim realiya so'zlarni "sof ko'rinishdagi termin" sifatida qaraydi. Mazkur fikrlarining isboti sifatida quyidagi o'zbek etnografik realiyalarining ingliz va rus tillarida ifodalanishini kuzatishimiz mumkin: *hujra* – *hujra*– *хужра*, *guzar*– *guzar* – *гузар*, *quroq*– *kurok* – *курак*, *misvoq* – *misvok* – *мисвок*, *tillaqosh*– *tillakosh* – *тиллакош*, *chakmon* – *chakmon* – *чакман* va h.k.

Muhokama. Milliy madaniyatning ko'rinishlari tilda boshqa til madaniyatidan farqli o'ziga xos ma'noni o'z ichiga olgan ma'lum lisoniy birliklar shaklida mustahkamlanadi. Bunday til birliklari jumlasiga ma'lum bir lingvomadaniy hamjamiyat tomonidan tan olingan madaniy kodlar xotirasini o'zida saqlab qolgan madaniyat vakillari sifatida talqin qilinadigan etnografik voqealıklar kiradi. Ushbu maqolada ingliz matbuotida o'zbek tilidagi etnografik realiyalarning berilish xususiyatlarini tahlilga tortamiz.

Diniy-me'moriy inshootlarning nomlanishi. Инглиз матбуотида: *"The combination of Khiva's high clay walls and the famous Madrasas of Uzbekistan, with their blue and turquoise arabesques, give Khiva an «Arabian Nights» look and feel"* (Uzbekistan airways, 2018. №1).

Tarixiy obidalar, qadamjolarining nomlanishi. *Our first destination was the ancient stupa Zur-Mula (2nd century AD), which is situated only five kilometers from the centre of Termez. This is the oldest Buddhist structure in Central Asia, dating back to the Kushan period"* (Uzbekistan airways, 2018. №3);

Turar joy, uy qismlari bilan bog'liq realiyalar. *"Dwellings typically had two or four window openings and doors facing ayvan, a covered verandah"* (Uzbekistan airways, 2018. №1).

Milliy kiyim-kechak (libos), gazlama buyumlarini anglatuvchi realiyalar. *Skullcaps have many names – qalpoq, do'ppi, iroqi, qalampir and others. Looking at such a diversity one could understand that the skullcap is not only a part of the Uzbek national costume ..."; "Quite soon, however, the bay realized that the right kavush and his 'spouse' were just an ordinary pair of non-matching shoes"* (Uzbekistan airways, 2018. № 2)

Milliy zargarlik buyumlarini anglatuvchi realiyalar. *"In Samarkand, Tashkent and Kokand, they were known as tilya-kosh — "golden brows".* (Uzbekistan airways, 2018. №3)

O'zbek milliy taomlarini anglatuvchi realiyalar. *"The list of Uzbek desserts is far from being complete. There is also sumalyak, made from germinating wheat in the spring days of Navruz; solid talkon (oatmeal mixed with sugar).*

O'zbek milliy madaniyati va san'ati sohasiga oid realiyalar. *"This shows interest in folk traditions in general and bakhshilik or dastans in particular..."; "Early this year, performances of Alpamysh, the most famous and popular heroic epic, were held over five evenings".*

Natijalar. Ko'rinadiki, ushbu tushunchalar muqobilsiz leksikaning ko'plab guruhlaridan birini tashkil etuvchi va alohida xalqlarning milliy-madaniy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan etnografik voqealıklarga kiradi.

Haqiqatdan ham, har bir xalqning voqealikni aks ettiruvchi o'ziga xos vositalari va olamning lingvistik manzarasini idrok etish usullari mavjud. Turli jamiyatlarda umumiy hayot tushunchalari bir-biriga mos kelishi mumkin, ammo ularni talqin qilish usullari boshqacha tusga ega bo'lishi va bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi haqiqatdir. Globalizatsiya lingvistik manzaralarni qayta shakllantirishni davom ettirayotgan bir paytda, etnografik realiyalar o'z tilining madaniy meros va madaniyatlararo muloqot uchun qanday xizmat qilishini tushunish uchun muhimdir. Etnografik realiyalar o'z madaniy diskursini

shakllantirishda va milliy identitetni saqlab qolishda asosiy rol o'ynaydi, ayniqsa, ularning turli media shakllarida aks ettirilishi orqali. Ushbu madaniy jihatdan bog'liq elementlar, ya'ni ma'lum bir etnik yoki lingvistik jamoaga xos obyektlar, urf-odatlar, e'tiqodlar va an'analar adabiyot, xalqona, maqollar, zamonaviy media va jamoat diskursida chuqur joylashgan. Ularning yozma va og'zaki an'analaridagi ishtiroki nafaqat tarixiy uzluksizlikni aks ettiradi, balki avlodlar bo'ylab madaniy uzatish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, etnografik realiyalar muayyan xalq tafakkuri hamda yashash tarzining manzarasi haqida tasavvurni hosil qilishda o'z o'rniga ega. Etnografik realiyalarda milliy o'ziga xoslik madaniyatni ifodalovchi tilning imkoniyati bilan baholanadi. O'zbek tilidagi muqobilsiz leksikaning eng faol qo'llanish sohasi etnografik realiyalardir.

Adabiyotlar//Литература/References:

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). – М.: Международные отношения, 1975.– 240 с.
2. Верещагин Е.М., Костомаров В.М. Лингвострановедческая теория слова. – М.: Русский язык, 1980. – 320 с.
3. Иванов А.О. Безэквивалентная лексика: перевод, язык, культура: учеб. пособие. – СПб.: Филол. фак. С.-Петербур. гос. ун-та, 2006. – 83 с.
4. Латышев Л.К. Перевод: теория, практика и методика преподавания. – М.: Академия, 2003. – 192 с.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: УРСС: Едиториал УРСС,1996. – 571 с.
6. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 2009. – 360 с.
7. Мирзаев И.К. Проблемы передачи слов, обозначающих реалии французской жизни, на узбекский язык: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ленинград, 1975. – 28 с.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

PROBLEMS IN DEFINING FEUILLETON AS A GENRE

Genjemuratov Yakipbek Bakhriyatovich

Associate Professor of the Department of Journalism,
Karakalpak State University

Abstract. The article mainly analyzes the genre characteristics of the feuilleton genre, which has high endurance and impact among journalistic genres. In the process of analysis, there are attempts to compare different scientific views and form generalizations.

Keywords: feuilleton, artistic-journalistic genres, journalistic genres, satire, humor, literature.

FELETONNING JANR SIFATIDA ANIQLASH MUAMMOLARI

Genjemuratov Yaqipbek Baxriyatovich

Qoraqalpoq davlat universiteti,
jurnalistika kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Maqolada asosan jurnalistika janrlari ichida chidamliligi, ta'sirchanligi yuqori bo'lgan feleton janrining janr xususiyatlari tahlil qilingan. Tahlil jarayonida turli ilmiy qarashlarning bir-biriga taqqoslanishi va umumlashmalarni shakllantirish harakatlari mavjud.

Kalit so'zlar: Feleton, badiiy-publitsistik janrlar, jurnalistika janrlari, satira, yumor, adabiyot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N57>

Kirish. Har qanday janrning o'ziga xos jihati uning tarixiy rivojlanishida shakllanadi. Feleton janri ham shunday murakkab jarayonlar asosida rivojlanib, shakllanib bugungi kungacha yetib keldi.

Feletonning janr xususiyatlari haqida qator ilmiy qarashlar mavjud, shunga qaramasdan, janrning asosiy xususiyatlari asosida shakllangan umumiy nazariy qarashlar ancha kam. Maqolaning maqsadi ilmiy qarashlardan umumlashmalar ishlab chiqqan holda xulosa chiqarish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Feleton badiiy-publitsistik janr hisoblanadi va jurnalistika janrlari orasida o'z o'rniga, uslubiga ega hisoblanadi. Bu janrning asosiy vazifasi jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish va madaniy-ma'naviy hayotining barcha tomonlarini qamrab olgan holda o'zida aks ettirish, bu sohalarda uchray turgan kamchiliklar, ijtimoiy illatlarni ochib berish, tanqid qilish orqali ular haqida jamoatchilik fikrini uyg'otish va buning natijasida bu kamchiliklarni bartaraf etishga erishish, ya'ni jamiyat hayotining rivojlanishiga hissa qo'shish hisoblanadi. Feletonning jurnalistikaning boshqa janrlaridan farqi uning satirik publitsistika qonuniyatlariga asoslanishi, ya'ni ijtimoiy kulgi, satira va yumor vositalariga tayanishidir. D.Rozental feletonning xususiyatlariga e'tibor berish bilan birga bu janrning boshqalardan farqi tilida ekanligini ham ta'kidlaydi: "Og'ir tilda yozilgan

maqola, bu shunchaki maqola, garchi u yomon bo'lsa ham. Jozibasiz til bilan yozilgan feleton umuman feleton emas" [1].

Shunday ekan, feletonning tili, til unsurlaridan foydalanishda jurnalistdan katta tajriba va mahorat talab etadi. Shuning uchun ham barcha jurnalistlar feleton yozishga jur'at etavermaydi. Mashhur yozuvchi A.Qodiriy ijtimoiy kulgiga asoslangan satirik tanqidga yuksak baho beradi va uni "Umr bo'yi uchadigan burgut... tursiqqa yaramaydigan ojiz, hasadgo'y mangur, shunga o'xshash unsurlar unga xos"[2] deb ta'kidlagan edi. Shunday ekan, feleton ijtimoiy-estetik tanqid vazifasini bajaradigan dolzarb, ta'sirchan matbuot materiali, satirik va badiiy-publitsistik janr hisoblanadi. U o'z vazifasi jihatidan adabiyotning satirik hikoyasiga yaqin bo'lsa-da, maqsadi bo'yicha jurnalistik xulosasi bilan undan farq qiladi. Aniqroq qilib aytganda, feleton satirik adabiyot vositalariga asoslanadigan, ulardan keng tarzda foydalanadigan matbuot materialidir.

I.M.Shatunovskiy quyidagi fikrni bildiradi: "Jurnalistning mahoratini talab qiladigan murakkab janr. Mening fikrimcha satirik janrga hamma ham qo'l ura olmaydi. Kimlardir muammolarni ko'rib, sezib, o'zining tabiiy iste'dodi bilan ularni masxaralash, ularning ustidan kulish mumkinligini tushunadi. Ularning feletonlari yengil, o'qish uchun oson bo'lib keladi. Agar muallif adabiy iste'dodga ega bo'lsa unda feletonlari ham salmoqli, muammoga konstruktiv yondashuv bilan kirishadi" [3].

Muhokama va natijalar. Feletonda ortiqcha tasvirlash bo'lmaydi. "Original adabiy shakl — bu talab, usiz feletonda feletonchi ham bo'lmaydi. Feleton — adabiy-operativ maqsadlar uchun boshqa janrlarning usullari va tamoyillarini o'z ichiga qamrab oluvchi janr hisoblanadi. Lekin qamrab olish mexanik bo'lmasligi kerak"[4].

Feleton o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra ikki xil — ma'lum bir faktga asoslangan yoki umumiy feleton bo'lishi mumkin. Aniq faktga asoslangan feleton hayotdan olingan aniq faktlar, ma'lum bir odamlarning ijtimoiy kamchiliklari, ichki kamchiliklari haqida yoziladi. Umumiy feleton esa hayotdagi muayyan ijtimoiy illat, kamchilik va muammolar satirik usulda yoziladi. Ikkala feletonga ham qo'yiladigan talab jamiyat uchun muhim bo'lgan fakt, masala va muammolarni ko'tarib chiqish va ular bo'yicha jamoatchilik fikrini uyg'otish hisoblanadi.

A.K.Bobkovning "Gazeta janrlari" nomli kitobida feletonlar quyidagi turlarga bo'lib o'rganiladi: Feleton gazeta publitsistikasi uchun xos bo'lgan hodisalar ya'ni qisqalik, ko'zga tashlanish, tezkor xabar berish, tahlil, muammoni o'rganish, obrazlilik, tipiklashtirish, adabiy ishlov berishni o'z ichiga olgan. Janr ichidan muammoli feletonni ajratib ko'rsatish mumkin. Uning asosida kundalik, keskin muammo olinadi. Tanqidiy feleton, bunda kamchiliklarni oladi, ularni grotesk, giperbola metodlari bilan tanqid qiladi. Yaxshi feletonni ta'kidlash mumkin. Uning asosiy "yaxshi" faktlari olinadi, bunda axloq me'yorlariga, inson etikasiga zid bo'lgan xatti-harakatlarni qiladigan insonlar obraz qilib olinadi [5].

O'zbek feletonchiligida ham bir qator tematik feletonlarni uchratishimiz mumkin. Misol tariqasida, Furqatning "Hind nayrangbozi Yorkentda," A. Qodiriyning "Toshkent bo'ylari," "Eshonlarimiz" nomli feletonlarini aniq faktga asoslangan feletonlar qatoriga kiritishimiz mumkin, "Kalvak maxzumning xotira daftaridan," "Toshpo'lat tajang nima deydi?" nomli feletonlari, A. Qahhorning "Quyushqon" feletoni esa umumiy feletonlar qatoriga kiradi.

Feletonni shakli jihatidan kichik va oddiy feletonlarga bo'lish mumkin. Kichik feletonlarda turmushning nisbatan katta ahamiyatga ega bo'lmagan ma'lum bir fakt, kamchilik,

muammolar ko'tarib chiqiladi. "Feleton" ruknasi ostida beriladigan oddiy feletonda esa jamiyat uchun muhim bo'lgan voqea, hodisa, muammo o'z aksini topadi.

Publitsistik feleton ham shu janrning eng ko'p uchraydigan turlaridan biri hisoblanadi. Publitsistik feletonlarda fakt, muammo, undan kelib chiqadigan ijtimoiy xulosa ustuvor bo'ladi, bu turdagi feletonlarda belletristik elementlar cheklangan bo'ladi. Publitsistik feletonning asosiy maqsadi hayotda uchraydigan illatlar, kamchiliklarni aniq yoki umumlashtirilgan holda ochib berish va jamoatchilikka taqdim etish hisoblanadi. Bunday feletonlar ko'proq maqola yo'nalishida yoziladi, lekin faktlar, voqealarni tahlil qilishda satira va yumor elementlari keng tarzda qo'llaniladi. O'zbek matbuoti tarixida ko'plab publitsistik feletonlar uchraydi. A.Qodiriyning "Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r," A.Avloniyning "Madaniyat to'lqinlari," "Hifzi lison," H.Niyoziyning "Faqirlik nedan hosil o'lur?," A.Qahhorning "O'zing shifo ber," G'afur G'ulomning "Ish qopi bilan, gap qofiyasi bilan" kabi feletonlari, K.Aliyevning bir qator feletonlari shular jumlasidandir.

Shunday bo'lsa-da, olimlar orasida o'tgan asrning yigirmanchi yillaridayoq janrning satirik janrlar qatoriga kirishi yoki uning doirasidan chiqib ketishi haqida bahsli fikrlar ko'p bo'lgan. Ayniqsa, Ya.Shafir feleton bilan satiraning bir-biriga o'xshamasligini ta'kidlaydi [6]. A.D.Zaslavskiy esa feletonni to'liq ravishda satirik janrlar qatoriga kiritadi va mana bu fikrni bildiradi: "Satirik publitsistika janri o'zining asosiy maqsadini satira va yumor vositalari ya'ni voqeani tahlil qilish va tipiklashtirish asosida amalga oshiradi" [7].

I.Gruzdev mana bu fikrni bildiradi: "Feletonning maqsadi faktlarni tipiklashtirish, umumlashtirish, unga ishlov berib ijtimoiy hodisa shakliga keltirish hisoblanadi"[8]. D. Zaslavskiy esa "Feletondagi asosiy kurash... Ideal feleton juda sodda va obrazlilik to'laligicha siyosiy maqsadga bo'ysunishi kerak. Rassom juda asta-sekin harakat qiladi, asta-sekinlik publitsist uchun "zahar" hisoblanadi" [9] deb ta'kidlaydi.

Feletonda asosiy o'rinda muallif bahosi hisoblanadi. Feletonchi har bir fikrini, bahosini taroziga solishi kerak.

Feletonning muvaffaqiyatli chiqishida faktlarni umumlashtirish ham muhim hisoblanadi. Feletonda salbiy faktlar umumlashtiriladi. Shu bilan birga salbiy faktlarning ichki mazmuni ochib beriladi.

Ko'pchilik jurnalistlar feleton yozish uchun katta faktlar kerak deb ta'kidlaydilar, lekin kundalik faktlar ham feletonning obyektiga aylanishi mumkin. Lekin buning uchun o'sha faktlarning ruhiy ta'sir etuvchi tomonlarini payqash kerak bo'ladi.

Feleton uchun faktlarni protokol tarzida aks ettirish salbiy ta'sir ko'rsatadi. Feletonda satirik tipologizatsiya ustunlik qiladi.

Jamiyatda o'zining axloqiy xatti-harakatlari bilan ko'zga tushgan odamning satirik obrazini yaratish auditoriyaga katta ta'sir etadi. Feleton orqali yomon hodisalar, klassik personaj qahramonining salbiy tomonlarini ochib berish ham mumkin.

Feletonda haqiqat bilan ijodkorlik yonma-yon yuradi. Voqeaning detalini, uning mazmunini ochib beradigan badiiy detallardan foydalanish kerak. Feletonchi asosida yotgan dialoglar, sahnalarni o'ylab topadi. Feleton kundalik, xat ko'rinishida bo'lishi mumkin. Feletonda obrazli til zarur. Uning tili aniq bo'lishi kerak.

Feletonda gazeta janrlari uchun xos bo'lgan xususiyatlar: qisqalik, tezkor xabar berish, tahlil, muammolar tahlili, obrazlilik. Feletonning turlari sifatida muammoli feletonni qayd etish mumkin. Uning asosida kundalik, keskin muammolar yotadi. Tanqidiy feletonda muallif

kamchiliklarni o'rganib borish davomida ularni giperbola usullari yordamida tanqid qiladi. Shu bilan ijobiy feletonni ham ta'kidlash mumkin. Buning zamirida ijobiy faktlar yotadi.

Feletonning ocherkdan farqi shundaki, feletonda satirik asos ustunlik qiladi. Qadimdan mutaxassislar feletonga mos keladigan yoki to'g'ri kelmaydigan faktlar yo'q degan fikr mavjud. Publitsist muammoni yoritish uchun faktlarning o'ziga xos tahliliga e'tibor qaratadi.

Feletonning voqealarni umumlashtiruvchi va xo'jalik-iqtisodiy feleton turlari mavjud. Umumlashtiruvchi feletonlarda bir nechta faktlar bo'ladi. Bunday turdagi feletonlarni "feleton-montaj," "feleton-revyu" deb atashadi.

Xulosa. Bu janr transformatsiyaga uchrab bormoqda. M.E.Vilenskiy feleton janri bugungi kundagi salbiy faktlar va hodisalarning komik asosini ochib beradi deb ta'kidlagan [10].

Shunday ekan, bugungi zamon feletoni ko'p hollarda jamiyatning rivojlanish jarayonlari bilan to'liq bog'liq. Zamonaviy feletonlarda jamoatchilik uchun ahamiyatli bo'lgan voqea yoki faktlar o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish uchun yoritiladi. Nuqson va kamchiliklar oddiy tanqid bilan berilmaydi, mualliflar muayyan muammo yoki vaziyatning aniq aybdor shaxslarning xatti-harakatlarini ochib berishga harakat qiladilar.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Розенталь Д. Э. Практическая стилистика русского языка. - 4-е изд., испр. – М., 1977. – 316 с.
2. А.Қодирий. 26-йилда кулдирувчиларимиз. Кичик асарлар. Гафур Ғулум номидаги бадиий адабиёт нашриёти. Тошкент, 1969. 184 б.
3. Шатуновский И. М. Сатиры грозное оружие // Книжное обозрение. – № 30. 24 июля 1981. – С. 8.
4. Журбина Е. Искусство фельетона. – М., Художественная литература, 1965. – С. 284.
5. Бобков А.К. Газетные жанры. Иркутск. 2015. – С 48.
6. Ершов Л.Ф. Сатирические жанры русской советской литературы / Л.Ф. Ершов. – Л.: Издательство «Наука», 1977. – 284 с.
7. Заславский Д. Истоки и пути фельетона / Д. Заславский. – М.: Огонек, 1931. – 96 с.
8. Никоненко Ст. Король фельетона / Ст. Никоненко // Антология сатиры и юмора России XX века. – Т. 48. – Влас Дорошевич. – М.: Эксмо, 2006. – С. 8-20.
9. Заславский Д. Истоки и пути фельетона / Д. Заславский. – М.: Огонек, 1931. – 96 с.
10. Виленский, М.Э. Как написать фельетон / М.Э. Виленский. – М.: Мысль, 1982. – 13 с.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

REALIZATION OF THE CONCEPT OF “LOVE” IN ENGLISH PROVERBS

Tadjieva Mastura Fayzullaevna,

Senior teacher of Termez State University, PhD

E-mail: tadjieva_mastura@mail.ru

Abstract. This article analyzes the linguistic-cultural and semantic manifestation of the concept of “love” in the system of English proverbs. The study highlights how love is expressed in English paremias as an emotion, a moral value, devotion, and life experience. The proverbs are examined in terms of the power of love, its contradiction with reason, its relation to time, and its harmony with human virtues. As a result, it is substantiated that the concept of “love” in English paremiology is an essential component of the people’s worldview, cultural values, and life philosophy.

Keywords: paremiology, proverb, love, concept.

INGLIZ MAQOLLARIDA “LOVE” KONSEPTINING VOQELANISHI

Tadjiyeva Mastura Fayzullayevna,

Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD

E-mail: tadjieva_mastura@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz xalq maqollari tizimida “love” (muhabbat) konseptining lingvokulturologik va semantik jihatdan voqelanishi tahlil etiladi. Tadqiqotda ingliz paremiyalarida muhabbatning his-tuyg‘u, axloqiy qadriyat, sadoqat va hayotiy tajriba sifatida ifodalanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Maqollarda muhabbatning kuchi, aql bilan ziddiyati, vaqt bilan bog‘liqligi hamda insoniy fazilatlar bilan uyg‘unligi tahlil qilinadi. Natijada ingliz paremiologiyasida “love” konsepti xalqning dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va hayot falsafasining muhim tarkibiy qismi ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: paremiologiya, maqol, muhabbat, konsept.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N58>

Kirish. Til inson tafakkuri va madaniyatining eng muhim ko‘zgidir. “Xalq maqollarining xalq hayoti bilan chambarchas bog‘liqligi ularning milliy o‘ziga xosligini, ayni paytda umumbashariy xarakterini belgilab beradi” [4,23]. Xalq og‘zaki ijodi, xususan, paremiyalar millatning qadriyatlarini, axloqiy tamoyillarini va hissiy kechinmalarini o‘zida mujassam etadi. “Love” (muhabbat) konsepti insoniyat tarixida eng chuqur, universal va hissiy mazmunli tushunchalardan biri sifatida ajralib turadi. Ingliz paremiyalarida bu konsept turli shakllarda ifodalanib, ingliz xalqining hayot falsafasi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlari asosida o‘ziga xos tarzda voqelanadi.

Adabiyotlar tahlili. Xalq o‘zining hayotiy tajribasidan olgan xulosalarini, falsafiy mulohazalarini har doim maqollar orqali ifodalab kelgan va shu bois har bir xalq maqollari mavzu jihatdan xilma-xil va rang – barangligi bilan boshqa xalq maqollaridan ajralib turadi. Maqol – “grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma’noda ishlatiluvchi qisqa, ixcham xalq hikmatlari”dir [2, 17]. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy

tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan [3, 5].

P.Bakirov fikricha, "maqollarning universal tasnifini tuzishdan oldin, avvalo, har bir tilning maqol fondini chuqur o'rganish, so'ngra bir necha (ikki-uch) tilning maqol fondini qiyosiy tadqiq qilish, qiyoslanadigan tillar doirasini asta-sekin kengaytirib borish kerak. Gap shundaki, mantiqiy-semantik va strukturaviy-grammatik jihatdan o'xshash qardosh va qardosh bo'lmagan tillarning maqollari voqelikni belgilashda sezilarli farqlarga ega bo'lishi mumkin"[1,53]. "Love" lingvomadaniy konseptini o'rganishning to'liqligini ta'minlash uchun uning paremiologik fondini tahlil qilish zarur hisoblanadi. Ingliz tilida "love" so'zi keng semantik diapazonga ega bo'lib, u nafaqat romantik tuyg'ularni, balki do'stlik, oila, insoniy mehr va fidoyilikni ham bildiradi. Ingliz madaniyatida muhabbat shaxsiy erkinlik, samimiyat va o'zini anglash bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli paremiologik birliklarda muhabbat ko'pincha inson ruhiy dunyosining tabiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Muhokama. Ingliz tilida muhabbat mavzusiga bevosita aloqador bo'lgan jami 231 ta maqol aniqlandi va ular "Muhabbat – hayot mazmuni", "Muhabbat – qudratli kuch", "Muhabbat – azob, dard", "Muhabbat va boylik", "Muhabbat va vafo", "Muhabbat va go'zallik" va "Muhabbat va qadriyat" nomli semantik guruhlariga ajratilib o'rganildi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, maqollarda muhabbat konseptining turlicha ifodalanishi, avvalo, maqollarning ma'nosi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, maqollarning ichki shaklining o'zaro semantik ta'siri tahlili natijasida konseptning turli xususiyatlari ochiladi.

"Muhabbat – hayot mazmuni" g'oyasi bilan birlashgan maqollarning aksariyatida muhabbatning qiymati insoniylik va yaxshi fazilatlarida namoyon bo'ladi: *A penny weight of love is worth a pound of law; Love is the true price of love; In love is no lack.* Sevgi doimiy qadriyat bo'lib, turli manbalardan kelib chiqadi, ammo uning eng asosiy manbai bu sevgining o'zidir: *Love begets love.*

Maqollarda muhabbatning asl ma'nosi sevish va sevilish, qarama-qarshi jins vakillarining bir-biriga bo'lgan qiziqishi tabiiy ekanligi ta'kidlanadi: *Better to have loved and lost, than never to have loved at all.* Shundan kelib chiqadiki, sevgi ikki tomonlama bo'lsagina haqiqiy hisoblanadi

Ingliz maqollarida muhabbat borasida yosh farqini taqqoslaganda qarama-qarshi fikrlar mavjudligini ko'rish mumkin. Birida yoshlarning sevgisi jiddiy emas, sevgi tuyg'usini to'liq his qila olmaydi desa, ikkinchisida qarilikda sevgi olovi so'nadi va jo'shqinligini yo'qotadi, degan qarashlar ilgari suriladi: *To woo is a pleasure in a young man, a fault in an old; Calf love, half love; Old love, cold love.*

Ingliz tili so'zlashuvchilari ongida inson birinchi navbatda o'zini sevish kerak degan g'oya mavjud bo'lib, bu paremiyalarda o'z ifodasini topgan: *Love thyself; Lend yourself to others, but give yourself to yourself.*

Muhabbat – qudratli kuch. Muhabbat insonga xos eng buyuk tuyg'u bo'lib, u yuksak aql va tafakkur yondashuvlari asosida barcha to'siqlarni yenga olish va insonlarni o'zgartira olish qudratiga ega ekanligi maqollarda o'z ifodasini topadi. "Love" konseptining bunday metaforik ta'riflari inglizlarning sevgiga bo'lgan hissiy munosabatini aks ettiradi. Masalan, muhabbat dunyoni qurolsiz boshqaradi, to'siqlarni yengadi (*Love laughs at locksmiths*), dardlarni davolaydi (*Love can find a remedy for every sore*). "Love makes..." formulasi bilan yasalgan maqollar muhabbatning turli qobiliyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi: *Love makes all*

men equal, Love makes all hard hearts gentle. Ushbu guruh paremiyalarida antropomorfik metaforani, ya'ni muhabbatning inson sifatida namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin.

Ingliz maqollarda muhabbat ko'pincha urush bilan taqqoslanadi: *All's fair in love and war.* Majoziy ma'nodagi sevgi jangida raqiblar bo'lishi tabiiy hol: *No rose without a thorn, no love without a competitor.* Muhabbat ko'ngil ishi bo'lgani uchun, urushdan farqli ravishda bu jangda g'olib ham, mag'lub ham bo'lmaydi: *In the war of love, there leaves neither winner nor loser.*

Muhabbat shunday tuyg'uki, uni yashirib bo'lmaydi, oshiq o'zining xatti- harakati bilan uni oshkor etib qo'yadi: *Love and a cough cannot be hid.* Ingliz madaniyatini aks ettiruvchi quyidagi maqollarda sevgini inglizlarning asosiy taomlaridan biri bo'lgan pease-pottage (no'xatli sho'rva yoki bo'tqa) bilan taqqoslaydi: *Love and pease-pottage are two dangerous things.* Bunda sevgi ham, no'xatli bo'tqa ham o'zini oshkor etishi bilan izohlanadi. Muhabbatga majburlab erishib bo'lmaydi: *Love can't be compelled.*

“Muhabbat – azob, dard” nomli guruh maqollarida sevgiga salbiy baho berilganligini ko'rish mumkin. Sevgi insonning ruhiy va jismoniy iztiroblariga sababchi bedavo dard sifatida namoyon bo'ladi: *“Where love is in the case, the doctor is an ass”;* *Love hurts.* Muhabbat moxov yoki qizamiq kabi turli xil jiddiy kasalliklarga o'xshatiladi: *Love is like measles, we all have to go through it; Love and leprosy few escape.*

“Love is blind” ingliz maqolining paydo bo'lishi Rim mifologiyasida sevgi xudosi Kupidning ko'zi bog'langan bola sifatida tasvirlanishi bilan bog'liq. Mazkur ibora Shekspirning bir qator pyesalarida uchraydi. Bu guruhdagi maqollarning barchasi oshiq bo'lgan inson aql bilan nazorat qilish va oqilona fikr yuritish qobiliyatini yo'qotadi degan fikrni ifodalaydi: *One cannot love and be wise; The first sight of love is the last of wisdom.*

Muhabbat janjalsiz bo'lmaydi, ammo bu tortishuvlar tezda unutilib, oqibatida sevgi munosabatlari mustahkamlanadi kabi mazmundagi fikrlar quyidagi maqollarda o'z isbotini topadi: *He that loves dearly chides severely; Lover's quarrels are soon mended.*

Ingliz maqollarida aytilganidek, ayriliq chin muhabbatni toblaydi va uni kuchaytiradi: *Absence sharpens love, presence strengthens it.* Agar sevgi haqiqiy bo'lmasa, u ayriliqqa bardosh bera olmaydi va tezda tugaydi: *Absence diminishes little passions and increases great ones.*

Muhabbat va boylik tushunchalarining kesishuvi ingliz maqollarida ham uchraydi. Ingliz tili so'zlashuvchilari ongida “muhabbat bebaho, shu bilan bir qatorda, u moddiy boylikka bog'liq” degan qarama-qarshi fikrlar mavjud. Bir guruh maqollarda, sevgi inson hayotida eng muhim narsa emas, balki moddiy farovonlik, pul inson uchun his-tuyg'ulardan ko'ra muhimroq degan fikrni ifodalaydi va ular ko'pchilikni tashkil qiladi: *Love lasts as long as money endures.* Ikkinchi guruh maqollarda esa sevgida moddiy ne'mat muhim rol o'ynamaydi, muhabbat bebaho g'oyasi o'z ifodasini topgan: *Love is neither bought nor sold.* Ushbu semantik guruhga *“Love lives in cottages as well as in courts”* maqolini ham kiritish mumkin, chunki unda hatto kulba ham muhabbat bilan jannatga aylanishi ifodalangan.

Muhabbat va vafo tushunchasi chambarchas bog'liq, ammo ingliz tilida vafo, vafodorlik haqidagi maqollar deyarli uchramadi. Ushbu guruhda uning o'rnini qisman bosuvchi ishonch va chin muhabbatni aks etgan maqollar joy olgan.: *Love asks faith and faith firmness; The heart that once truly loves never forgets; A perfect love does not rust; The course of true love never did run smooth.*

Muhabbat va go‘zallik. Inson uchun tashqi va ichki go‘zallikning uyg‘unligi muhim. Bu g‘oya ingliz maqollarida ham tasdiqlanadi: *Love comes by looking; Love must be attracted by beauty of mind and body.* Xuddi shu guruhda go‘zallik ishqning majburiy atributi emas, degan qarama-qarshi fikrning ifodasini topamiz: *Love built on beauty, soon as beauty dies.*

Muhabbatning qadriyat bilan bog‘lanishi oila a‘zolari o‘rtasida mehr-muhabbat, do‘stlik va qo‘shnichilik kabi munosabatlarda bir-birlariga bo‘lgan mehr-shafqat, oqibat va vatanga muhabbat kabi insoniy fazilatlarda namoyon bo‘ladi.

Ingliz tilida “love” konseptiga tegishli maqollar ichida “Oila a‘zolari o‘rtasidagi mehr-muhabbat” haqidagi maqollar muhim ahamiyatga ega. Ona qaysi millat bo‘lmasin, uning farzandiga bo‘lgan muhabbatidek buyuk mehr-muhabbat bo‘lmaydi: *A mother’s love is best of all.* Ota mehri ham beqiyos bo‘lib, bu quyidagi maqolda o‘z tasdig‘ini topadi: *No love to a father’s.* Oila rishtasi qalin bo‘ladi, oilani tanlab bo‘lmaydi, uni boricha yaxshi ko‘rish kerak: *You can choose your friends, but you can’t choose your family.*

Ingliz maqollarida farzandga bo‘lgan mehr-muhabbat ochiq va yashirin ma‘noda berilgan. *“He that has no children knows not what love is”* maqolida farzandi yo‘q sevgi nimaligini bilmaydi, ya‘ni haqiqiy muhabbat –bu farzandga bo‘lgan muhabbat ekanligi ochiq bayon etilgan bo‘lsa, *“He that loves the tree loves the branch”* kabi maqollarda esa ota yoki onaning ko‘nglini olmoqchi bo‘lsa, bolasini ham yaxshi ko‘rish orqali unga erishish mumkin mazmuni tagida ota-ona uchun farzandiga bo‘lgan muhabbati hamma narsadan ustun ma‘nosi yashiringan. Shu o‘rinda aytish kerakki, bolaga bo‘lgan kuchli mehr-muhabbat uning tarbiyasini buzib qo‘ymasligini eslatib turadigan maqollar ham mavjud: *Love well, whip well.*

Ingliz maqollarida nikoh va sevgi qarama-qarshi qo‘yiladi va nikohni sevgining yakuni sifatida qaraladi: *Marriage is the tomb of love; When a man marries, his trouble begins.* Biroq bu fikrga zid mazmunli maqollar ham bor bo‘lib, ularda muhabbatda nikohning ahamiyati va afzalliklari ifodalanadi: *Marry first, and love will follow.*

Do‘stlik va qo‘shnichilik munosabatlarida muhabbatni aks ettirgan ingliz maqollar guruhida kamchiliklarga qaramay do‘stni va o‘zi kabi qo‘shnini yaxshi ko‘rish kerakligi bayon etilgan: *Love your friend with his fault; A true friend is one who knows all your faults and still loves you; Love thy neighbor as yourself.* Ammo, muhabbat va do‘stlik bir tuyg‘u emas: *When love puts in, friendship is gone.* Biroq, qo‘shni bilan yaxshi munosabatda bo‘lsada, chegarani saqlash kerakligini maslahat beruvchi maqollardan, bu muhabbat turi unchalik ham samimiy emasligini tushunish mumkin: *Love your neighbor, but don’t pull down your hedge; No one can love his neighbor on an empty stomach.*

Ingliz madaniyatida vatan tushunchasi “mamlakat”dan ko‘ra “uy” tushunchasiga biroz torayishi bilan ajralib turadi va birinchi navbatda uy va oilasini himoya qilish muhim hisoblanadi [5]: *An Englishman’s home is his castle.*

Vatan dunyodagi eng yaxshi joy uy sifatida qabul qilinadi: *East or West, home is best; There is no place like home; Every bird likes its own nest.*

Natijalar. Ingliz paremiologik tizimida “love” konsepti inson hayotining ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. U nafaqat hissiyot, balki insonning ma‘naviy kamoloti, fidoyilik va bag‘rikenglik timsoli sifatida qaraladi. Maqollar orqali ingliz madaniyatiga xos bo‘lgan individualizm, erkinlik va realistik dunyoqarash aks etadi.

Masalan, Love is blind kabi maqollar insoniy zaiflikni, Love conquers all esa muhabbatning kuchini ta'kidlaydi. Shu tarzda ingliz xalqining hayotiy donishmandligi va hissiy tajribasi "love" konsepti orqali umumlashgan ma'naviy qadriyatlarga aylangan.

Ingliz maqollaridagi "love" konseptini tahlil qilish ushbu til sohiblarining intellektual, madaniy, ijtimoiy va shaxsiy xislatlarini ko'rsatish hamda maqollarning qo'llanilish vaziyatlari va baholovchi ma'nolarini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ingliz paremiyalarida "love" konsepti ko'p qirrali ma'no kasb etadi. U inson ruhiyatining eng nozik tomonlarini ochib beradi va xalq madaniyatida chuqur ildiz otgan qadriyatlarni yoritadi. Muhabbat ingliz mentalitetida ham baxt manbai, ham sinov vositasi sifatida talqin qilinadi. Shu bois "love" konsepti ingliz paremiologiyasining markaziy mavzularidan biri bo'lib, milliy dunyoqarash va axloqiy qadriyatlarning yorqin ifodasiga aylangan.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 287 с.
2. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. Филол. фанлари док.(DSc) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 77 б.
3. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh., Ma'nolar maxzani, T., 2001.
4. Ўзбек халқ мақоллари (2-томлик)/ (Масъул муҳаррирлар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов) – Тошкент: "Фан", 1987. – 368 б.
5. Fayzullaevna T. M. The Concept "Love For The Homeland" In The English And Uzbek Proverbs //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 12.
6. Fayzullayevna T. M., Fayzullaevna T. M. TAMADDUN NURI jurnali/journal THE LIGHT OF CIVILIZATION FILOLOGIYA.
7. Apperson G.L. The Wordsworth Dictionary of Proverbs. – Ware, Hertfordshire: Wordsworth Editions Ltd, 1993. – 721 p.
8. Fergusson R. The Penguin Dictionary of Proverbs. – London: Claremont Books, 1995. – 388 p.
9. Mieder W. Proverbs: a handbook. – Westport, Connecticut: Greenwood Press, 2004. – 321 p.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

FEATURES OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC ANALYSIS OF HYDRONYMS

Qurbonova Gulnoza Abdulkholiq qizi

Termez State Pedagogical Institute

Senior Lecturer, Department of Practical English

E-mail: gulnozabduxoliqovna@gmail.com

Abstract. This article examines the structural and semantic characteristics of hydronyms, focusing on their morphological models, lexical-semantic layers, and etymological origins. Hydronyms, as an integral part of toponymy, preserve valuable information about the history, culture, and linguistic development of the peoples of Central Asia. The study analyzes the influence of Turkic, Persian-Tajik, and Arabic elements in the formation of Uzbek hydronyms and identifies the main structural types such as adjective + noun, noun + noun, and affixal formations. Furthermore, the semantic classification of hydronyms is proposed based on color, physical features, spatial attributes, and ethnocultural factors. The research is based on structural, semantic, and ethnolinguistic methods. The findings contribute to the broader understanding of the linguistic landscape of Uzbekistan and the cultural memory reflected in hydronymic systems.

Keywords: hydronym, toponymy, structure, semantics, etymology, linguistic culture, geographical names, ethnolinguistics.

GIDRONIMLARNING STRUKTUR-SEMANIK TAHLILINING XUSUSIYATLARI

Qurbonova Gulnoza Abduholiq qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Amaliy ingliz tili kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada gidronimlarning struktur va semantik jihatdan tahlili, ularning shakllanish mexanizmlari hamda etnolingvistik asoslari keng ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. O'zbekiston va Markaziy Osiyo hududidagi suv obyektlari nomlarining kelib chiqishida qadimiy turkiy, fors-tojik, arab va ba'zi hollarda yunoncha elementlarning ishtiroki kuzatiladi. Tadqiqotda gidronimlarning morfologik modeli, so'z yasovchi vositalar, semantik toifalar hamda ularning tarixiy qatlamlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, gidronimlarning xalq tafakkuri, geografik muhit va ijtimoiy omillar bilan o'zaro bog'liqligi ilmiy asosda isbotlangan. Maqola natijalari o'zbek toponimik tizimini chuqurroq o'rganish, lingvokulturologik tahlillarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: gidronim, toponimika, struktur tahlil, semantika, etimologiya, geografik nom, lingvokulturologiya, milliy identitet.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N59>

Kirish. Keyingi yillarda tilshunoslikda onomastika ilmiy tadqiqotlarda alohida o'rin tutmoqda. Onomastik birliklar, jumladan, toponimlar, antroponimlar, zoonimlar, gidronimlar va boshqa nomlash tizimlari xalq tili, ma'naviyati, dunyoqarashi tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Ular orasida gidronimlar — daryo, ko'l, dengiz, buloq kabi suv havzalarining nomlari xalqning qadimiy hayoti, ijtimoiy faoliyati, xo'jalik tajribasi, tabiiy muhit bilan bog'liq ma'naviy-madaniy jarayonlarni aks ettiruvchi o'ziga xos til hodisasini ifodalaydi. Shuning uchun gidronimlarning lingvistik tahlili tilshunoslik, tarixnavislik va etnografiyada alohida ahamiyatga ega.

Gidronimlarning strukturaviy-semantik tahlili, birinchi navbatda, ularning shakl yasovchi tuzilishi, grammatik xususiyatlari va semantik qatlamlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bunday tadqiqotlar orqali suv havzalari nomlari qanday shakllanganligi, qaysi til qatlamlariga mansubligini, qanday tarixiy-madaniy ma'lumotlarni yetkazishini aniqlash mumkin. Masalan, ba'zi gidronimlar qadimgi turkiy ildizlarga borib taqalsa, boshqalari keyingi davrlarda boshqa tillardan kirib kelgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun gidronimlar xalq tili, turmush tarzi, diniy e'tiqodi, geografik muhiti taraqqiyotini aks ettiruvchi til yodgorliklari hisoblanadi.

Ushbu maqolada gidronimlarning shakliy tuzilishi va mazmuniy xususiyatlari tizimli tahlil qilinadi. Shuningdek, ular xalqning tarixiy-madaniy hayotining ayrim qirralarini, tabiatga munosabatini, dunyoqarashini yoritib beradi. Maqolaning asosiy maqsadi gidronimlarni tarkibiy-semantik tahlil qilish orqali ularning tilshunoslikdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash hamda bu jarayonning ilmiy-nazariy asoslarini belgilab berishdan iborat [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Gidronimlar – geografik nomlarning eng qadimiy va barqaror qatlamlaridan biridir. Ular xalqning tarixiy xotirasi, tabiiy muhitni idrok etish uslubi hamda til taraqqiyotining muhim belgisi sifatida o'rganiladi. Gidronimlar orqali xalqning qadimiy joylashuvi, etnik harakati, madaniy aloqalari va til tizimidagi o'zgarishlar aniqlanadi.

O'zbekiston toponimik tizimida 11 mingdan ortiq suv obyektlari (daryo, ko'l, ariq, soy, buloq) nomlari mavjud bo'lib, ularning katta qismi qadimiy davrlarga borib taqaladi (Eshonqulov, 2015). Masalan, Amudaryo va Sirdaryo nomlari eramizdan avvalgi davrlarda shakllangan bo'lib, qadimiy "Oxos" (Amudaryo) va "Yaksart" (Sirdaryo) daryolari nomlari sifatida yunon manbalarida ham uchraydi.

Tilshunos olimlar (Qosimov, 1992; Superanskaya, 1985) gidronimlarni nafaqat geografik belgining nomi, balki xalq tafakkuri va dunyoqarashining lingvistik modeli sifatida talqin qiladilar. Shu nuqtai nazardan, ularning struktur-semantik tahlili tilshunoslikning onomastika, etimologiya, semasiologiya, hamda etnolingvistika yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq [2].

Ushbu tadqiqot gidronimlarning strukturaviy va semantik xususiyatlarini chuqur o'rganish uchun bir qator ilmiy usullarga asoslangan. Eng avvalo, gidronimlarning morfemik modeli va ularni hosil qiluvchi affikslarni tizimli tahlil qilish bilan birga strukturaviy-uslubiy yondashuv qo'llanildi. Xususan, o'zbek gidronimlarida keng qo'llangan -soy, -suv, -buloq, -rud, -ariq qo'shimchalarining shakl va mazmun jihatdan o'ziga xosligi aniqlandi. Gidronimlarning lug'aviy ma'nolari, majoziy va ramziy qatlamlari ham semantik tahlil yordamida o'rganilib, mavjud materiallar tematik guruhlariga ajratildi. Alohida rang, tabiiy, fazoviy, madaniy-etnik va metaforik guruhlar aniqlandi. Etnolingvistik tahlil gidronimlarning xalq madaniyati, tarixiy voqealari, diniy e'tiqodlari bilan aloqalarini aniqlashga qaratilgan. Natijada ayrim suv omborlari nomlari etnik guruhlar, qadimiy shaharlar yoki tarixiy hududlar nomlari bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatildi. Bundan tashqari, qiyosiy lingvistik tahlil orqali o'zbek gidronimlari qozoq, qirg'iz, turkman, tatar tillaridagi suv omborlari nomlari bilan qiyoslandi. Masalan, o'zbek tilidagi "Ko'ksuv" gidronimi turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan qozoqcha "Ko'ksu" yoki "Oqsuv" nomi bilan bog'liqligi aniqlanib, umumiy turkiy ildizlar mavjudligini ko'rsatadi [3].

Tadqiqotda, shuningdek, 500 dan ortiq gidronim namunalari strukturaviy-semantik tasnifini tuzish uchun statistik usullardan foydalanildi. Bu yondashuv gidronimlarning formal qoliplari va semantik guruhlarini aniq miqdoriy tasniflash imkonini berdi.

Muhokama va natijalar. Gidronimlarning lingvistik jihatdan tadqiqi, avvalo, ularning struktur va semantik tahliliga asoslanadi. Struktur tahlil gidronimlarning morfemik tarkibini, yasovchi affikslarni hamda soʻz birikmalari modellari asosida shakllanishini aniqlashga qaratiladi. Oʻzbek tilidagi gidronimlar asosan soʻz birikmalari, soddalashtirilgan birliklar yoki kompozit birliklar koʻrinishida ifodalanadi.

Struktur modellarning eng koʻp uchraydigan turlari sifat + ot, ot + ot va ot + suffiks shakllaridir. Masalan, Oqbuloq (oq + buloq), Qorasuv (qora + suv) kabi birliklar rang va obyekt nomining qoʻshilishi asosida hosil boʻlgan boʻlsa, Sirdaryo (Sir + daryo), Amudaryo (Amu + daryo) kabi gidronimlarda oʻlka yoki shahar nomi obyekt bilan birikkan. Shuningdek, Soʻxsoy, Koʻksuv, Zarafshon kabi nomlar suffikslar orqali hosil qilingan boʻlib, ularda yasovchi qoʻshimchalar semantik yuklamani kuchaytiradi. Tadqiqotlarga koʻra, Oʻzbekiston gidronimlarining 48 foizi sifat + ot, 37 foizi ot + ot, 15 foizi esa suffiksli hosila shakllardan tashkil topadi. Bu esa gidronimlar yaratishda tasviriy va belgilovchi elementlarning ustunligini koʻrsatadi [4].

Semantik jihatdan gidronimlarning maʼnosi ularning qanday tabiiy yoki madaniy belgiga asoslanganiga bogʻliq. Masalan, rang bildiruvchi gidronimlar – Oqbuloq, Qorasuv, Koʻksuv – suvning rangi yoki tiniqligi bilan bogʻliq boʻlsa, tabiiy belgi asosidagi gidronimlar – Issiqkoʻl, Sovuqsoy, Qaynarbuloq – suvning harorati yoki holatini ifodalaydi. Fazoviy belgili nomlarda – Pastsoy, Uzunsuv – oqim yoʻnalishi yoki geografik holat ifodalangan. Madaniy-etnik guruhga oid gidronimlar – Bobosuv, Shayxariq, Qoʻngʻirotsoy – shaxs, urugʻ yoki tarixiy guruh nomi bilan bogʻliq boʻlib, xalqning ijtimoiy-madaniy hayotini yoritadi. Metaforik nomlarda esa ramziy yoki poetik maʼno mujassam, masalan, Zarafshon (“oltin sochuvchi”) daryosi xalq tasavvuridagi estetik ifodani namoyon qiladi. Demak, oʻzbek gidronimlari semantik jihatdan ikki asosiy guruhga – denotativ (bevosita obyekt belgisi) va konnotativ (ramziy, estetik yoki diniy maʼno) turlarga ajraladi. Masalan, Koʻksuv gidronimi “koʻk” rang orqali tinchlik, osoyishtalikni anglatadi. Bu esa xalq dunyoqarashiga xos boʻlgan semantik qatlamni aks ettiradi [5].

Etnolingvistik va tarixiy tahlil ham gidronimlarning muhim xususiyatlarini ochib beradi. Koʻplab gidronimlar xalqning tarixiy joylashuvi va etnik tarkibiga oid qadimiy izlarni oʻzida mujassam etgan. Masalan, Amudaryo qadimiy “Amul” (hozirgi Turkmenobod) shaharidan olingan boʻlib, “Amu orqali oʻtuvchi daryo” maʼnosini bildiradi. Sirdaryo qadimiy “Sir” oʻlkasining nomidan kelib chiqqan. Zarafshon esa forscha “zar” (oltin) va “afshon” (sochuvchi) elementlaridan tashkil topgan boʻlib, qadimda daryo yuvib chiqargan oltin zarralari sababli shunday nomlangan [6].

Bu gidronimlarda til qatlamlari aralashuvi kuzatiladi: turkiy asos (soy, suv, buloq) va fors-tojik elementlari (zar, afshon, rud) oʻzaro qoʻshilib, yangi shakllarni hosil qilgan. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistondagi gidronimlarning 60% i turkiy, 30% i fors-tojik, 5% i arabcha va 5% i boshqa manbalardan olingan. Bu esa Oʻzbekiston hududida turli madaniyatlar va tillarning tarixiy aloqalarini ilmiy asosda tasdiqlaydi [7].

Xulosa. Oʻzbek gidronimlarining strukturaviy-semantik tadqiqi ularning koʻp qatlamli lingvistik tizimga ega ekanligini koʻrsatdi. Suv havzalari nomlari turkiy, fors-tojik, arab tillarining tarixiy taʼsirida asrlar davomida rivojlanib, shu kungacha boy semantik qatlamni saqlab kelmoqda. Eng keng tarqalgan strukturaviy model — sifat + ot birliklari. Oqbuloq, Qorasuv, Koʻksuv kabi misollar gidronimlarning tavsif va atributiv elementlar asosida yasalishini yaqqol koʻrsatib beradi. Semantik tahlil natijalariga koʻra gidronimlarda asosiy

semantik asoslar rang, holat, fazoviy belgilar, shaxs ismlari, ramziy belgilar hisoblanadi. Masalan, rangni bildiruvchi nomlar suvning shaffofligi va tashqi ko‘rinishini bildirsa, fazoviy belgilarga ega gidronimlar daryoning oqim yo‘nalishini yoki geografik joylashuvini bildiradi. Gidronimlar ramziy ma’noda xalqning estetik qarashlari va dunyoqarashini aks ettiradi. Etnolingvistik nuqtai nazardan gidronimlar xalqning qadimiy tarqalishi, tarixiy va etnik harakatlari, diniy va madaniy qadriyatlari haqida qimmatli ma’lumotlarni beradi. Masalan, Amudaryo, Sirdaryo kabi yirik gidronimlar qadimiy shahar va viloyatlar nomlari bilan bog‘langan bo‘lsa, Zarafshon kabi nomlar ramziy va estetik elementlarga urg‘u beradi.

Shunday qilib, gidronimlarni chuqur o‘rganish til tarixining qadimiy bosqichlarini qayta qurish, milliy tafakkurning o‘ziga xos namunalarini anglash, milliy o‘zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Gidronimlar o‘zbek xalqining “madaniy xotirasi” sifatida milliy merosning ajralmas qismi bo‘lib, ularni lingvistik tadqiq qilish onomastikaning dolzarb masalasidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Alimova N. Toponimika va tarixiy geografiya o‘zaro bog‘liqligi. – Toshkent. 2020.
2. Eshonqulov J. O‘zbekiston gidronimlari va ularning kelib chiqishi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.
3. Gulnoza Qurbonova Abduholiq qizi. (2024). Hydronyms are a component of onomastics. INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS, 1(1), 169–172.
4. Gulnoza Qurbonova Abduholiq qizi. (2024). Hydronyms are a component of onomastics. INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS, 1(1), 169–172.
5. Jo‘raev M. O‘zbek tilida toponimlarning struktur-semantik xususiyatlari. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2010.
6. Kretschmer P. Einleitung in die Geschichte der griechischen Sprache. – Berlin, 1896.
7. Matyoqubov M. Til va madaniyat: toponimlarning etnolingvistik tahlili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
8. Qosimov B. O‘zbek toponimikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 1992.
9. Qurbonova Gulnoza Abduholiqovna, & Toshtemirova Dinora Qurbonazarovna. (2021). DIFFICULTIES OF LEARNING ENGLISH. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 7(10), 128–131.
10. Поспелов Э.М. Географические названия мира. – Москва: Русские словари, 1998.
11. Суперанская А.В. Общая топонимика. – Москва: Наука, 1985.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

POETIC AND FUNCTIONAL FEATURES OF CHILDREN'S LITERATURE: AGE PSYCHOLOGY, DIDACTICS, AXIOLOGY

Ayimbetova Shyryn Jabbar qizi

Teacher of the Native Language and Literature at School No. 27
in Chimboy District, Republic of Karakalpakstan

Abstract. This article examines the poetic-functional nature of children's literature through the lenses of age psychology, didactics, and axiology. Adopting a comparative literary approach, it juxtaposes Uzbek works with examples from global and CIS children's literature. Findings indicate that artistry (rhythm, imagery, personification), emotional impact (humor, wonder, the "safe" experience of fear), age-appropriate language and composition, and an instructional layer (story-based scaffolding of knowledge) constitute the core features of children's texts. Axiological functions – embedding humanism, honesty, courage, and empathy via aesthetic experience – secure the works' enduring social relevance. Practical implications for authors include balancing technique and content, tailoring plot and diction to developmental stages, and integrating multimodal (digital) affordances judiciously. For curricula, cross-cultural treatments of a single theme and linking literary reading to emotional literacy prove effective. The paper outlines future directions in probing neuropsychological aspects of reading as applied to children's narratives.

Keywords: children's literature; poetic features; functional approach; age psychology; didactics; axiology; emotional engagement; value education; comparative analysis.

BOLALAR ADABIYOTINING POETIK-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI: YOSH PSIXOLOGIYASI, DIDAKTIKA, AKSILOGIYA

Ayimbetova Shyryn Jabbar qizi

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Chimboy tumani 27-maktabning
Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqola bolalar adabiyotining poetik-funksional tabiatini yosh psixologiyasi, didaktika va aksiologiya kesimida tahlil qiladi. Tadqiqotda qiyosiy-adabiy yondashuv qo'llanib, o'zbek adabiyoti bilan bir qatorda jahon va MDH bolalar adabiyotidan namunalar solishtirildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, badiiylik (ritm, obrazlilik, personifikatsiya), emotsional ta'sir (kulgi, hayrat, qo'rquvning xavfsiz tajribasi), yoshga mos nutq va kompozitsiya, hamda o'rgatuvchi-tarbiyaviy qatlam (bilimni "hikoya" orqali scaffoldlash) bolalar matnlarining markaziy xususiyatlaridir. Aksiologik funksiyalar – insonparvarlik, halollik, jasorat, hamdardlik kabi qadriyatlarining estetik tajriba orqali singdirilishi – asarlarning barqaror ijtimoiy ahamiyatini ta'minlaydi. Mualliflar uchun amaliy implikatsiya sifatida texnika va mazmunning muvozanati, yosh guruhiga mos til va syujet, hamda multimodal (raqamli) vositalardan ehtiyotkor foydalanish taklif etiladi. O'quv dasturlari uchun esa bitta mavzuni turli madaniy kontekstlarda o'qitish, emotsional savodxonlikni adabiy matnlar bilan bog'lash samarali ekanligi ta'kidlanadi. Kelgusida neyropsixologik o'qish tajribalarini bolalar matnlarida o'rganish istiqbollari belgilandi.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti; poetik xususiyat; funksional yondashuv; yosh psixologiyasi; didaktika; aksiologiya; emotsional jalb; qadriyat tarbiyasi; qiyosiy tahlil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N60>

Kirish. Bolalar adabiyoti – bolalar va o‘smirlar uchun yaratiladigan badiiy hamda ilmiy-ommabop asarlar majmui bo‘lib, u yosh avlodning ma‘naviy va estetik kamolotida muhim o‘rin tutadi. Badiiy ertak va hikoyalar avloddan-avlodga o‘tib, bolalarga axloqiy qadriyatlar, e‘tiqodlar, tasavvur va ijodiy xayol bilan boyituvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Bolalar adabiyoti nafaqat ko‘ngilochar, balki o‘rgatuvchi ahamiyatga ega bo‘lib, bilim berish va zavq bag‘ishlashni o‘zida uyg‘unlashtiradi – u haqiqiy “edutainment” (ta‘lim va ko‘ngilochar) ko‘rinishidir.

Bolalar kitoblarining o‘ziga xosligi shundaki, u doimiy rivojlanishda bo‘ladi – mazmun va shakl kitobxon bolalarning yoshi, davr talablari va ijtimoiy muhitga qarab o‘zgarib boradi. Masalan, kichik yoshdagilar uchun ertaklarda ezgulik va yovuzlik oddiy obrazlar orqali talqin etilsa, kattaroq yoshdagi bolalar adabiyotida murakkab ruhiy kechinmalar ham aks ettiriladi. Shu bois, bolalar adabiyotini tahlil etishda unga poetik (badiiy-estetik) va funksional (tarbiyaviy, didaktik va aksiologik) yondashuvlarning uyg‘unligi bilan qaralishi lozim. Darhaqiqat, bolalar adabiyotida badiiy-estetik komponent bilan bir qatorda ma‘rifiy-tarbiyaviy vazifa ham yetakchi ahamiyat kasb etadi. Barcha davrlarda bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillarida ma‘rifiylik (bolalarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash) ustuvor bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan bu adabiyot sof badiiyat unsurlarini ham tobora ko‘proq egallab, katta adabiyot rivojlanish tamoyillari bilan hamnafas bo‘lib bormoqda [1].

Ushbu maqolada bolalar adabiyotining aynan shunday poetik-funksional xususiyatlari – ya‘ni uning badiiylik va estetik jihatlari hamda ijtimoiy-psixologik, didaktik, aksiologik funksiyalari – yosh o‘quvchi psixologiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Maqolada mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda bolalar adabiyoti jamiyatning axloqiy barkamolligi uchun asos bo‘lib, unda poetik va funksional yondashuvlarni uyg‘un qo‘llash masalasi nihoyatda ahamiyatlidir.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda adabiy tahlil va qiyosiy-taqqoslash usullari qo‘llanildi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston bolalar adabiyoti hamda jahon va MDH xalqlari bolalar adabiyotidan namunaviy asarlar olindi. Jumladan, Astrid Lindgren (Shvetsiya), Korney Chukovskiy (Rossiya), Hans Christian Andersen (Daniya) kabi mashhur adiblarning bolalar uchun yozgan asarlari, shuningdek, o‘zbek adabiyotidan Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom kabi ijodkorlarning bolalar adabiyotiga oid asarlari tahlil etildi.

Tadqiqot davomida bolalar adabiyotini poetik (badiiy) va funksional (ijtimoiy-tarbiyaviy) jihatlardan o‘rganish uchun tizimli yondashuv qo‘llanildi. Matnlarni tahlil qilish jarayonida bolalar psixologiyasi va pedagogik adabiyotshunoslik bo‘yicha nazariy manbalar tavsiyalari e‘tiborga olindi. Xususan, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bolalar adabiyotining pedagogik, didaktik hamda psixologik (hatto terapevtik) o‘lchamlarini alohida ta‘kidlayotgani ham mazkur ishga metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Maqolada tanlangan asarlar mazmun-mundarijasini tahlil qilish, ularni qiyosiy ravishda solishtirish va umumlashtiruvchi xulosalar chiqarish metodlaridan foydalandik. Tadqiqot manbalari sifatida bolalar adabiyotiga oid ilmiy maqolalar, ensiklopedik ma‘lumotlar hamda tahlil qilinayotgan badiiy asarlarning o‘z matnlari xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari bolalar adabiyotining asosiy **poetik-funksional xususiyatlari** quyidagicha mujassam ekanini ko‘rsatdi:

1. Badiiylik va estetik tasvir: Bolalar adabiyoti asarlarida badiiy tasavvurning jonliligi va jozibadorligi muhim o‘rin tutadi. Kichik yoshdagi kitobxonlar olamni o‘ziga xos sehrli nigoh bilan ko‘radilar – ularning tasavvurida hatto jonsiz tosh ham, esayotgan shamol yoxud uchib

yurgan kapalak ham “muhabbat va hayot tilida so‘zlayotgandek” tuyuladi. Bolalar adabiyotida ana shunday poetik jonlantirish (personifikatsiya) usuli keng qo‘llanib, bolalarning hayotiy hodisalarni yanada qiziqarli va rang-barang qabul qilishini ta‘minlaydi. Shuningdek, bolalar kitoblari tili oddiy va ravon bo‘lsa-da, obrazli ifodalarga boy bo‘lib, yosh o‘quvchilarda go‘zallikni his etish qobiliyatini shakllantiradi. Masalan, bolalar she‘riyatida jo‘shqin ritm va ohangdor qofiyalarning qo‘llanishi asarga musiqiy jilo berib, kichkintoylarning estetik zavqini oshiradi [2]. Umuman, bolalar adabiyotida badiiylilik nafaqat uslubiy go‘zallik, balki bolalarcha tasavvur va fantaziyaning uyg‘otish mahoratini anglatadi.

2. Emotsional-funksional ta‘sir: Yaxshi bolalar asari kitobxonda kuchli hissiy tajriba uyg‘otishi zarur. Mutaxassislar fikricha, bolalar uchun mo‘ljallangan badiiy asar o‘quvchida ajablanish, sevishtirish, qo‘rqish kabi hissiyotlarni uyg‘otmasa, u yosh kitobxonni to‘lqinlantira olmaydi. Shuning uchun bolalar adabiyotida emotsional ta‘sir kuchli bo‘lishi uchun, ko‘pincha lirik ko‘tarinkilik va quvnoq yumorga boy uslub qo‘llanadi. Masalan, bolalar kulgisi va qiziqishini oshiruvchi quvnoq voqealar, hazil-mutoyibaga boy dialoglar asar davomida muhim ahamiyat kasb etadi. Qo‘rqinchli va qiziqarli lahzalar almashinuvi esa bolalarda hayajon va zavq uyg‘otib, ularning kitobga qiziqishini oshiradi. Demak, bolalar adabiyoti hissiy-funksional yondashuvni qo‘llab, o‘quvchining qalbiga yo‘l topadi va unda hayajon, qo‘rquv, quvonch kabi turli tuyg‘ularni boshdan kechirishga yordam beradi. Bu esa bolalarning emotsional intellekti rivojiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

3. Yosh psixologiyasiga moslik: Bolalar adabiyotining mazmuni va shakli kitobxon yoshiga mos bo‘lishi eng muhim talablardan biridir. Turli yoshdagi bolalar dunyoqarashi va psixologik qabul qilishi turlicha bo‘lgani bois, adiblar asarlarini muayyan auditoriyaga moslashtirgan holda yaratadilar. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yozilgan ertak va hikoyalarda voqealar rivoji oddiy, tushunarli va ko‘rgazmali tarzda bo‘ladi; ezgulik va yovuzlik kuchlari qat‘iy va sodda qarama-qarshi obrazlarda namoyon bo‘ladi. Bunday asarlarda kichkintoylar uchun mo‘jizaviy hodisalar, sehirli predmetlar ko‘p uchraydi, ularning e‘tiborini tortadi. O‘smir yoshdagi kitobxonlar uchun mo‘ljallangan adabiyotda esa hayotning murakkab haqiqatlari, qahramonlarning ichki dunyosi chuqurroq ochib berila boshlaydi. Misol tariqasida, balog‘at yoshiga yaqin o‘quvchilar uchun asarlarda qahramonlar katta sinovlardan o‘tishi, ruhiy iztiroblar, tanlovlar qarshisida qolishi tasvirlanadi – bu orqali yosh o‘quvchilar hayotiy tajribani kitob orqali bilib boradilar. Demak, bolalar adabiyotida yosh xususiyatlari hisobga olinishi – pedagogik psixologiyaning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, mazmun bolalarning idrok darajasiga monand ishlab chiqiladi.

4. Didaktik qamrov (o‘rgatuvchi vazifa): Bolalar adabiyoti doimo didaktik, ya‘ni o‘rgatuvchi funksiyani bajarib kelgan. Badiiy asarlar orqali bolalarga turli bilimlar va hayot ko‘nikmalari beriladi. Masalan, ilmiy-ommabop bolalar kitoblari koinot, tabiat, geografiya singari sohalardan sodda tushunchalar bersa, badiiy ertak va hikoyalar hayotiy saboqlarni o‘rgatadi. Bolalar adabiyoti namunalarini yosh kitobxonning dunyoqarashini kengaytiradi, olam va odam haqidagi bilimlarini oshiradi, lug‘at boyligini boyitadi. Natijada, bolalar kitob o‘qish orqali bilmagan yangi ma‘lumotlarni o‘zlashtiradi, tafakkuri va til madaniyati o‘sadi. Ma‘rifiylik bolalar adabiyotining barcha davrlardagi yetakchi sifatlaridan biri bo‘lib kelgan – ya‘ni u bolalarni bilimdon va ma‘rifatli etib voyaga yetkazishni maqsad qiladi. Shu sababli ko‘plab bolalar kitoblarida axloqiy pand yoki hayot darsi ohangida yakunlovchi xulosa beriladi, yoki asar davomida qahramonlarning xatti-harakatlaridan muayyan saboq chiqarish imkoniyati

yaratiladi. Didaktik funksiyaning samarasi shundaki, bola qiziqarli hikoya orqali bilib-bilmay muhim hayotiy haqiqatlarni anglab boradi. Masalan, sodda bir ertak orqali do'stlik yoki mehnatsevarlik haqida tushuncha oladi, yoxud sarguzasht orqali jasorat nimaligini his qiladi. Badiiy asar bolalar uchun "hayot darsligi" vazifasini o'tashi uning eng asosiy funksional yutug'idir.

5. Aksiologik funksiyalar (qadriyatlar talqini): Bolalar adabiyoti yosh avlodni axloqiy va estetik qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Har bir xalq ertak va afsonalari orqali bolalarga o'zi e'zozlaydigan ezgu fazilatlarni o'rgatib kelgan. Insonparvarlik, mehr-oqibat, halollik, jasorat, vatanparvarlik kabi tuyg'ular bolalar adabiyotining asosiy mazmuniy yo'nalishlaridandir. Masalan, Sharq mumtoz adabiyotidagi pandnoma va axloqiy hikoyatlar asrlar davomida bolalarni yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelganligi ma'lum [3]. Hozirgi zamon bolalar adabiyotida ham qahramonlarning to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatlari qarama-qarshi qo'yilib, yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qilish g'oyasi ilgari suriladi. Bu orqali bola ezgulik va yovuzlik me'yorlarini angelaydi, yaxshilik tarafida bo'lishga undov oladi. Bolalar adabiyotining tarbiyaviy (aksiologik) funksiyasi yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida o'stirishida namoyon bo'ladi – masalan, yaxshi qahramonlarning jasorati, halolligi, adolati tasvirlanib, bolalarda shu fazilatlarga havas uyg'otiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ertak va hikoyalar bolalarda hamdardlik tuyg'usini shakllantirish, vaziyatlarga axloqiy baho bera olish, go'zallik va xunuklikni farqlash kabilarni ham tarbiyalaydi. Shuningdek, bolalar adabiyoti asarlari estetik tarbiya vositasi hamdir – ya'ni go'zal badiiy matnni o'qish orqali bolalar badiiy did va tafakkur o'stiradi, san'at va adabiyotga mehr uyg'onadi. Xulosa qilib aytganda, bolalar adabiyotining aksiologik vazifasi – yaxshilik, go'zallik va haqiqat kabi umuminsoniy qadriyatlarni bolalarga singdirishdan iborat.

Munozara. Yuqorida sanab o'tilgan poetik va funksional xususiyatlar turli xalqlar bolalar adabiyoti namunalari misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Jahon bolalar adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyandalari o'z asarlarida bolalarga ta'sir qilishning o'ziga xos usullarini yaratganlar. Masalan, shved yozuvchisi Astrid Lindgren bolalar obrazini tasvirlashda doimo yosh kitobxon manfaatini ustun qo'ygan holda, ularni to'liq haq-huquqqa ega shaxs sifatida talqin etgan. Uning ijodida Peppi Uzuncho'loq (Pippi Longstocking) kabi qahramonlar erkin va mustaqil ruh bilan gavgaldanadi – bu qahramon hech kimga bo'ysunmaydi, o'z uyini o'zi boshqaradi va xayoliy sarguzashtlar qiladi. Lindgren asarlarida bolalar ko'pincha kattalarga qarshi isyonkor va ozodlikni sevuvchi sifatida namoyon bo'lib, adolat va mehribonlik uchun kurashadilar [4]. Masalan, "Emil from Lönneberga" qissasida Emil ismli bola qattiqqo'l ota tarbiyasida ulg'ayar ekan, topqirligi va sho'xligi bilan o'z dunyosini o'zi yaratadi. Astrid Lindgren pedagogikasi deb ataluvchi yondashuv bolaga katta ishonch bildirishga asoslangan: yozuvchi har doim qarorlar qabul qilishda bolalar haqiqatini qo'llab-quvvatlaydi va ularning huquqlarini himoya qiladi. Natijada, Lindgrenning ertaklari va hikoyalari jahon bolalar adabiyotida yangicha ruh – bolaning agentligi (mustaqil harakat qila olishi) g'oyasini olib kirdi. Bu asarlar nafaqat zavqli sarguzashtlari, balki bolalarni jasoratli, mustaqil va mehribon bo'lishga undovchi xabari bilan ham qimmatlidir.

Daniyalik ertakchi yozuvchi Hans Christian Andersen ijodida bolalar adabiyotining poetik va aksiologik xususiyatlari yorqin namoyon bo'lgan. Andersen yaratgan "The Little Mermaid" ("Suv parisi"), "The Snow Queen" ("Qor malikasi"), "The Little Match Girl" ("Gugurt chaqayotgan qizaloq") kabi ertaklar fantastik olamga ega bo'lsa-da, ularda umumbashariy

mavzular – mehr-shafqat, fidoiylilik, adolat va azob-uqubatga bardosh – chuqur ochib beriladi [5.]. Andersen ertaklarining ko‘p qahramonlari baxtga erishish yo‘lida katta sinov va azoblarni boshdan kechiradi. Masalan, “Gugurt chaqayotgan qizaloq” da kichkina qizning fojiali qismati tasvirlanib, o‘quvchida chuqur achinish va hamdardlik tuyg‘usini uyg‘otadi; “Suv parisi” ertagida bosh qahramon o‘z sevgisi yo‘lida jonini fido qiladi – bu bolaga o‘zgalarga xayrixohlik va fidoiy muhabbat sabog‘ini beradi. Andersen asarlarining yana bir jihati – ular kattalar uchun ham mazmunli falsafiy qatlamga ega. Chunki uning ertaklari, garchi bolalarga mo‘ljallangan deyilsa-da, ko‘pincha katta auditoriyaga ham xos bo‘lgan murakkab ma‘naviy muammolarni ochadi. Shu sababli Andersen ertaklari orqali bola estetik zavq olibgina qolmay, balki hayot haqiqatlari haqida chuqur mulohaza qilishga o‘rganadi. Uning ertaklari “bolalarga atalgan” shaklda yozilgan bo‘lsa-da, ularda axloqiy dilemmalar, fazilat va nuqson haqidagi xabarlar yosh o‘quvchi qalbiga singib boradi va ularni hayotiy qadriyatlar haqida o‘ylashga undaydi.

Rus adibi va shoiri Korney Chukovskiy esa bolalar she‘riyatida poetik mahorat va didaktik maqsadni nozik uyg‘unlashtira olgan. Chukovskiy 1920-yillarda Sovet bolalar adabiyotining asoschilaridan biri bo‘lib, “Moydodyr” (“Voydodir” – tozalik haqidagi she‘r-ertak), “Tarakanishche” (“Kaltakesak”) va “Telefon” kabi she‘riy ertaklari bilan butun avlod bolalarini quvontirgan. Uning she‘rlaridagi ohangdor ritm, topqir qofiyalar va bema‘ni syujetlar (“absurd” obrazlar) bolalarni o‘ziga rom etgan va hatto amerikalik mashhur bolalar shoiri Dr. Seuss ijodi bilan qiyos qilingan. Chukovskiy bolalar poeziyasiga sho‘x qiliq va yengil hazil ruhini olib kirib, inqilobdan avvalgi bolalar she‘riyatiga xos zerikarli didaktizmni batamom yo‘qotgan edi. Masalan, “Moydodyr” she‘rida kir bola bilan jonlangan suv chelagi, sovun va shimgichning muloqoti kabi bema‘ni vaziyatlar orqali bolalarga gigiyena sabog‘i beriladi – lekin bu o‘git shunchalik qiziqarli va hazilomuz tarzda yetkaziladiki, bola buni nasihat emas, balki zavqli o‘yin deb qabul qiladi. Chukovskiy she‘rlarining “qofiyali ertak” tarzida yozilgani, so‘z o‘yini va dinamik voqealar bilan to‘yinganligi bolalarning tasavvuriga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan. Uning “Telefon” she‘ridagi qatorlari (“Allo, allo! Bu men – ayiq, asal yo‘q, qani asal?!” kabi satrlar) nafaqat bolalar tiliga, balki kattalar kundalik nutqiga ham kirib kelgan iboralarga aylangan. Xulosa qilish mumkinki, Korney Chukovskiy bolalar adabiyotida badiiy shakl yutuqlari (ohang, ritm, sur‘at) va tarbiyaviy mazmunni ideal ravishda uyg‘unlashtira olgan ijodkordir – uning merosi orqaligina Sovet bolalar adabiy she‘riyati zerikarli pand-nasihatlardan xalos bo‘lib, sho‘x, o‘ynoqi uslubga erishgan.

O‘zbek bolalar adabiyoti tajribasida ham yuqoridagi xususiyatlar qator ijodkorlar asarida namoyon bo‘lgan. XX asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli yozuvchi Abdulla Qodiriy asosan tarixiy romanlari bilan tanilsa-da, uning ijodida bolalar auditoriyasiga mo‘ljallangan asarlar ham uchraydi. Jadid adabiyoti namoyandasi Qodiriy yangi usul maktablari uchun darsliklar va hikoyalar yozgan ma‘rifatparvar adiblar qatoridan edi. Masalan, u “Julqunboy” taxallusi ostida “Tayoq maktabi” nomli ibratli hikoya yozib, eski maktablardagi qattiqqo‘l muallimlar va bolalar ahvolini tasvirlagan. Shuningdek, Qodiriyning “Uloqda” va “Jinlar bazmi” kabi hikoyalari bevosita bolalar hayoti va ruhiyatini aks ettirgan bo‘lib, yosh qahramonlar boshidan kechirgan sarguzashtlar orqali ta‘limiy xulosa berishga intilgan. Qodiriy asarlaridagi bu jihat – bolalar ruhiyatini ko‘rsatish va ular orqali jamiyat kamchiliklarini tanqid qilish – aslida o‘zbek bolalar adabiyotining shakllanishiga qo‘shgan hissasidir. Olimlarning qayd etishicha, XX asr 20-yillarida Sadriddin Ayniy, Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, G‘ayraty kabi adiblarning bolalar uchun yozgan asarlari o‘zbek bolalar adabiyotining rivojiga chinakam sur‘at

bag'ishlagan. Demak, Qodiriy kabi yirik ijodkorlar ham bolalar adabiyotining aksiologik va didaktik an'analarini boyitib, milliy qadriyatlarni bolalarga yetkazishga xizmat qilgan.

Keywords: paralinguistic means, portrait description, linguocultural specificity, cross-linguistic analysis, intercultural understanding.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ ВЕРБАЛИЗАЦИИ ПАРАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ПОРТРЕТНЫХ ОПИСАНИЯХ В АНГЛИЙСКИХ И РУССКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ

Машарипова Валентина Сергеевна

Докторант, Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни

Аннотация. В статье рассматривается лингвокультурная специфика вербализации паралингвистических средств — невербальных элементов, таких как жесты, мимика, позы и интонация — в портретных описаниях персонажей в английской и русской литературе. На материале романов Джона Голсуорси «Собственник» (1906) и Фёдора Абрамова «Братья и сёстры» (1958) анализ выявляет, как данные средства отражают культурные ценности: индивидуализм и сдержанность в английских текстах противопоставляются коллективизму и эмоциональной глубине в русских. Исследование подчёркивает роль паралингвистики в усилении художественной выразительности и в развитии межкультурного понимания.

Ключевые слова: паралингвистические средства, портретное описание, лингвокультурная специфика, сопоставительный лингвистический анализ, межкультурное понимание.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N66>

Введение. Паралингвистические средства, включающие кинесику (жесты, мимику, позы) и фонацию (интонации, паузы), играют ключевую роль в художественных текстах, так как позволяют вербализовать невербальное общение и создавать яркие портреты персонажей [4; с.238]. В лингвокультурологии эти средства рассматриваются не просто как описательные детали, но как культурно обусловленные феномены, отражающие общественные нормы, эмоциональные модели и мировоззрение.

Данное исследование сопоставляет способы их вербализации в двух романах: «Собственник» Джона Голсуорси — первой части саги о Форсайтах, в которой критикуется буржуазный индивидуализм эдвардианской Англии, и «Братья и сёстры» Фёдора Абрамова — первой книги тетралогии, изображающей жизнь деревни во время и после Второй мировой войны, акцентируя коллективную стойкость. Выбор этих произведений позволяет проследить контраст между английской сдержанностью и русской экспрессивностью, обусловленный различиями культурных идеологий [5; с.36].

Теоретическую основу исследования составляют труды Дэвида Кристала по паралингвистике, где данные средства рассматриваются как выражение эмоций и индивидуальности [3; с.170], а также типологические исследования, выявляющие межъязыковые различия [6; с.550]. В литературе вербализация преобразует невербальные сигналы в языковые знаки, обогащая портреты культурными особенностями [1; с.337]. Так, например, жест «кивок» выражает согласие в обеих культурах, но различается по интенсивности: в английской культуре он едва заметен, в то время как в русской — подчеркнуто выразителен. В работе применяется метод сравнительного лингвокультурного анализа, включающий извлечение и сопоставление примеров из текстов для выявления сходств и различий.

Методология. В исследовании используется комплексный подход, сочетающий текстуальный анализ с лингвокультурным сопоставлением. Паралингвистические вербализации были выявлены в портретных описаниях — фрагментах, изображающих внешность персонажей, их поведение и взаимодействие.

Основные категории включают:

- **Кинесика:** жесты (например, движения рук), мимика (улыбки, нахмуренные брови), позы (наклон, напряжённость).
- **Фонация:** интонации (например, резкая, дрожащая), выраженные через глаголы типа *sighed* («вздыхнул»).

Примеры отбирались из текстов произведений. Типологическая схема позволила сопоставить английскую культуру (например, сдержанные улыбки, воспринимаемые как вежливые, но неискренние) с русской (например, открытое выражение тревоги). Полученные данные были систематизированы в таблицах для наглядности и интерпретированы с опорой на межкультурные исследования, раскрывающие культурно обусловленные значения паралингвистических средств.

Анализ вербализации паралингвистических средств в романе «Собственник»

В романе Джона Голсуорси паралингвистические средства вербализуются с целью подчеркнуть динамику отношений внутри семьи Форсайтов, акцентируя внимание на социальной респектабельности и идее личного обладания. Портретные описания часто характеризуются сдержанной кинесикой, что отражает культурные нормы англичан — самообладание и косвенное выражение эмоций.

Так, «непоколебимая спина» (“*inflexible back*”) тётушки Энн и «сжатые и переплетённые пальцы» (“*fingers... pressed... and interlaced*”) передают достойное напряжение, символизируя жёсткую собственническую натуру буржуазной среды. Мимика, как, например, «странная, яростная улыбка» (“*queer, fierce smile*”) Босинни отражает внутренние противоречия персонажей, вербализованные с помощью

прилагательных, передающих тонкие эмоциональные оттенки. Интонации в романе нередко краткие — как, например, «короткий смех» (“short laugh”) Босинни, который указывает на вызов и внутренний протест без излишней драматизации.

Анализ вербализации паралингвистических средств в романе «Братья и сёстры»

В произведении Фёдора Абрамова, действие которого происходит в годы войны в русской деревне, паралингвистические средства служат для отображения стойкого духа. Открытые выражения эмоций отражают славянскую эмоциональную отзывчивость и чувство общинной связи.

Так, героиня Настя выделяется «импульсивностью и удивительной энергией», передаваемыми через динамичные позы и жесты, контрастирующие с вялостью окружающих. Детские образы, наполненные «гневом, тревогой и решимостью» при «невинных и спокойных взглядах», передают сложную гамму чувств, символизирующую национальную стойкость. В описаниях подчёркивается, что персонажи «тревожно ждут лучшего будущего», что подразумевает нахмуренные брови и напряжённые позы, а выразительные тона речи отражают коллективистский характер эпохи. В отличие от сдержанности Голсуорси, у Абрамова вербализация паралингвистики строится на открытой кинесике — восклицаний, объятиях, слезах — что соответствует русской традиции искреннего и экспрессивного проявления чувств.

Сравнительные лингвокультурные наблюдения

Различия в вербализации паралингвистических средств обусловлены культурными идеологиями. Английская традиция тяготеет к сдержанности (например, «поднятая бровь» как выражение скептицизма), что воспринимается как проявление вежливости, но создаёт ощущение дистанции. Русская же традиция, напротив, характеризуется эмоциональной интенсивностью (например, «тревожные взгляды» как выражение коллективного страдания), способствующей эмпатии и чувству общности.

Общие черты проявляются в универсальных жестах — например, кивок головы как знак согласия вербализуется сходным образом, однако его интерпретация варьируется в зависимости от культурного контекста.

Ниже приведена таблица, сопоставляющая ключевые примеры:

| Аспект | Голсуорси, «The man of Property» (английский) | Абрамов, «Братья и сёстры» (русский) | Лингвокультурные различия |
|----------------|---|--|---|
| Выражения лица | «Странная, свирепая улыбка» (“queer, fierce smile”) Босинни (вызов, насмешливый взгляд); Ирэн «мягкий взгляд сочувствующих глаз» (“soft look of pitying eyes”) (эмоциональная сдержанность) | «Безмятежные взгляды» детей среди «тревоги» и «решимости» (невинная, но напряжённая) | Английский: Сдержанный, индивидуалистичный Русский: Открытый, коллективный |
| Жесты | Джордж сжимает кулак (clenches fist) (разочарование); Босинни | «Импульсивность» Насти энергичные движения, | Английский: Тонкие сигналы статуса |

| | | | |
|------|---|---|---|
| | ухмыляется (<i>grinning</i>) (беззаботность). | контрастирующие с семьёй. | Русский: Динамическое проявление энергии |
| Позы | «Негибкая спина» (“ <i>inflexible back</i> ”) тёти Энн (достоинство) | Персонажи « <i>тоскуют с тревогой</i> » (подразумеваются напряжённые позы). | Английский: Сдержанный, частный Русский: Напряжённый, общинный |
| Тон | «Резкие» (<i>curt</i>) ответы Босини, « <i>короткий смешок</i> » (“ <i>short laugh</i> ”) (вызывающий). | Тревожное томление (подразумеваемая дрожь или выразительная речь). | Английский: Сдержанный/недоказанный Русский: Эмотивный/эмоциональный |

Данная таблица иллюстрирует, как вербализация паралингвистических средств выполняет функцию культурного комментария: в английской литературе она сосредоточена на внешних масках личности, тогда как в русской — на выражении общих, разделяемых чувств и истин.

Заключение. Вербализация паралингвистических средств в рассмотренных произведениях подчёркивает их лингвокультурную специфику: у Голсуорси тонкие невербальные намёки усиливают идею личной сдержанности и социальной респектабельности, тогда как у Абрамова открытые выражения эмоций отражают коллективную идентичность и духовную общность. Такое сопоставление обогащает художественные портреты персонажей и способствует более глубокому межкультурному пониманию литературы.

Перспективы дальнейших исследований могут быть связаны с анализом современных текстов, где под влиянием глобализации наблюдаются новые формы взаимодействия индивидуалистических и коллективистских паралингвистических моделей.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Abduazizova, D. A., & Solieva, M. A. (2021). Reflection of paralinguistic means in a literary text. *JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 7(3), 335-341
2. Bogdanova-Beglarian, N., & Baeva, E. (2018). Nonverbal Elements in Everyday Russian Speech: an Attempt at Categorization. *CEUR Workshop Proceedings*, 2303, 1-11
3. Crystal, D. (1971). Paralinguistics. *Linguistics at Large*, 163-174
4. Kazyutina, E. S., & Ozerova, E. G. (2023). Linguocultural Markers of Literary Texts by B.L. Vasiliev. *RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics*, 14(1), 231-244
5. Kozlova, L. Ya. (2016). Contrastive Analysis of the English and Russian Language Picture of the World. *Russian Journal of Linguistics*, 4(4), 28-41
6. Qodirova, N. U. (2025). Linguocultural peculiarities of paralinguistic elements in English and Uzbek languages. *The Lingua Spectrum*, 4, 548-553
7. Schuller, B., Steidl, S., Batliner, A., Burkhardt, F., Devillers, L., Müller, C., & Narayanan, S. (2013). Paralinguistics in speech and language—State-of-the-art and the challenge. *Computer Speech and Language*, 27(1), 4-39
8. Valikova, O. A. (2016). Verbal Image in Linguistic Culture: Stages of Formation. *International Electronic Journal of Mathematics Education*, 11(9), 3261-3276

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

SYNTACTIC FEATURES OF ECONOMIC ANGLICISMS IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES

Abduqahhorova Gulnoza Abduvahobovna

Independent Researcher, Termez State University

E-mail: gulnoza8289@gmail.com

Abstract. The article provides a comparative analysis of the syntactic adaptation of anglicisms in Russian and Uzbek. In Russian, the Adj+N and appositive N+N models are active; in Uzbek, N+N and explanatory noun phrases prevail. Abbreviations (PMI, CPI, ESG, GDP, etc.) often function as the head; apposition quickly identifies the term; in news and analytical genres, predicative use conveys the thesis concisely. Linking devices differ: prepositional constructions dominate in Russian, whereas in Uzbek case-suffix patterns and explanatory noun phrases are preferred. For example, валютный своп → valyuta svopi, индекс PMI → PMI indeksi are considered standard solutions. Accordingly, in translation it is recommended to convert Adj+N to N+N, preserve appositive pairs, and keep abbreviations as the head.

Keywords: anglicism, economic terminology, N+N, Adj+N, apposition, abbreviation, syntactic adaptation.

RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI IQTISODIY ANGLISIZMLARNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Abduqahhorova Gulnoza Abduvahobovna

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqola iqtisodiy sohadagi anglitsizmlarning rus va o'zbek tillarida sintaktik moslashuvini qiyosiy tahlil qiladi. Zero rus tilida Adj+N hamda appozitiv N+N modellari faol; o'zbek tilida esa N+N va izohlovchi birikmalar ustun. Darhaqiqat, qisqartmalar (PMI, CPI, ESG, YAIM va b.) ko'pincha yadro vazifasini bajaradi; appozitsiya termini tez aniqlaydi; yangilik va tahliliy janrlarda predikativ qo'llanish tezisni ixcham beradi. Tilda bog'lovchi vositalar farqli o'laroq qo'llanadi: rus tilida predlogli qurilmalar ustun, o'zbek tilida esa kelishik affiksli va izohlovchi birikmalar afzal. Chunonchi, валютный своп → valyuta svopi, индекс PMI → PMI indeksi kabi yechimlar me'yoriy. Binobarin, tarjimada Adj+N → N+N o'girish, appozitsion juftlikni saqlash va qisqartmalarni yadro sifatida tutish amaliy strategiya sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: anglitsizm, iqtisodiy leksika, N+N, Adj+N, appozitsiya, qisqartma, sintaktik moslashuv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N67>

Kirish. Har qanday tilda xorijiy so'zlar mavjud. Ularning miqdori vaqt o'tishi bilan ortadi, zero bu hol axborot, iqtisodiyot, tibbiyot va texnologiya sohalarining rivoji bilan bog'liq. Jamiyat taraqqiy etar ekan, yangi hodisalar va buyumlar paydo bo'ladi, ularga nom talab etiladi. Masalan, kiyim-kechakning yangicha turlari yoki turfa texnika vositalari paydo bo'lganda, ular uchun maxsus atamalar shakllanadi. Ingliz tili bugun global ilm-fan, biznes va raqamli muloqotning asosiy tiliga aylanib bormoqda. Ko'plab yangiliklar avvalo inglizcha atamalar bilan yuzaga kelmoqda va aynan shu ko'rinishda boshqa tillarga o'tmoqda. Inglizcha so'zlarning keng tarqalishi nisbatan yaqin davrda jadallashdi, biroq bu jarayon umumbashariy maydonda kechdi.

Hozir ingliz tili *lingua franca*, ya'ni xalqaro aloqa tili maqomiga ega. Ayniqsa ishbilarmonlik muhitida faol qo'llanadi, holbuki uning doirasi faqat xalqaro maydon bilan chegaralanmaydi. Kundalik nutqda ham inglizcha kelib chiqishga ega so'zlar ko'p uchraydi. Odatda o'zlashmalar boshqa tilga yangi tushunchalarni nomlash uchun kiradi [15]; ba'zan esa tilning o'zida mos nom bo'lsa-da, o'zlashma shakl ohangdorligi yoki amaliy qulayligi bois afzal ko'riladi.

Anglitsizmlar masalasi turli tillar doirasida keng muhokama qilinadi. Mazkur mavzu dolzarb, chunonchi, til siyosati, normativ me'yor va amaliy kommunikatsiya kesishgan nuqtada tahlil talab etadi. Shunday savol tug'iladi: *anglitsizm o'zi nima? U shunchaki xorijiy so'zmi yoki maxsus tipdagi o'zlashmami?*

Adabiyot tahlili va metodologiya. Anglitsizm atamasi ilk bor 1687-yilda G.Myej tomonidan qo'llangan. U dastlab ingliz tilidan boshqa tillarga ko'chirilgan ibora va ifodalarni belgilash uchun ishlatilgan [14: 51]; [13:8]. Keyingi davrda atama mazmuni kengaydi, zero u inglizlarga xos odat va hodisalarni ham anglatadigan bo'ldi. Masalan, kriket o'yini hodisa sifatida, tushdan keyingi choy esa odat sifatida anglitsizm [13:8] deb atalgan.

Anglitsizmlar – ingliz tilidan o'zlashtirilgan so'zlar yoki birikmalar [1:32] bo'lib, "Usage Dictionary of Anglicisms in Selected European Languages" manbasida ular imlo, talaffuz va morfologik tuzilishi jihatidan ingliz tilining xususiyatlarini yaqqol namoyon etuvchi o'zlashma birlik sifatida [7] izohlanadi.

Dastlabki rasmiy ta'riflardan biriga ko'ra, anglitsizm – imlo, talaffuz yoki morfologiyasi (yoki hech bo'lmaganda shularning bittasi) jihatidan inglizcha ekani aniq seziladigan, biroq qabul qiluvchi tilning lug'at tarkibiga qabul qilingan so'z yoki iboradir [11:1]; [2]. Boshqa olimlar ham shunga yaqin yondashuvlarni taklif etgan: ularda anglitsizm asosan so'z birliklari yoki idiomatik frazeologiya orqali belgilab olinadi [3]; [5].

Umuman olganda, "anglitsizm" atamasi bo'yicha yakdil qarash yo'q; u ko'pincha "aralashuvning har qanday belgisini qamrab oluvchi soyabon atama" [12: 163] sifatida qo'llanadi.

Ko'plab tadqiqotchilar anglitsizmlarning Yevropa tillarida keskin ko'payishi Ikkinchi jahon urushidan keyin yuzaga chiqqanini ta'kidlaydi. Bu jarayon radio va teleeshittirishlarning ommalashuvi, ommabop musiqa hamda internetning jadal rivoji bilan, zero ingliz tili va AQShning global mavqeining mustahkamlanishi bilan bevosita bog'liq [8: 408]; [11:1]; [13:8].

Hozirgi davrda ingliz tili asosiy donor tilga aylangani bois, anglitsizmlar keng qo'llanadigan tillarni ifodalash uchun yangi atamalar paydo bo'ldi. Masalan, 1964-yilda R. Étiemble "*Parlez-vous franglais?*" ("Siz franglis tilida gapirasizmi?") nomli asarini e'lon qilgan [9].

Rus tilshunosligida unga o'xshash "runGLISH" termini ham ishlatiladi [6]. Bu, xususan, AQShda yashovchi rus tilida so'zlashuvchi muhojirlar tili uchun qo'llanadi [4: 4].

Ko'plab tillarda inglizcha o'zlashmalar (anglitsizmlar)ning kengayishi "Global Anglicism Database – GLAD" (Global Anglicism Database Network)ni yaratishga turtki bo'ldi. GLAD 2016-yilda anglitsizmlar tarqalishini o'rganishga qiziqqan olimlar uchun platforma sifatida yo'lga qo'yilgan bo'lib, bazani muntazam to'ldirish hamda o'zlashma hodisasini turli tillar kesimida tadqiq etishni ko'zlaydi [10].

Demak, anglitsizmlar lingvistik tahlil obyekti sifatida hanuz tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda, ularni qiyosiy nuqtai nazardan o'rganishning rivojlanishi esa lingvistlarning

o'zlashma nazariyasiga umuman daxldor bo'lgan qonuniyatlarni aniqlashga intilayotganidan dalolat beradi.

Muhokama. Iqtisodiy anglitsizm – bu iqtisodiyotga oid tushuncha, predmet yoki jarayonni ifodalovchi ingliz tilidan olingan birlik (so'z, ibora, qisqartma yoki kalka) bo'lib, ruscha va o'zbekcha iqtisodiy nutqda qo'llanadi. U terminologik aniqlik va ixchamlik beradi, vaholanki imlo hamda terminografik xilma-xillik ham keltirishi mumkin.

Iqtisodiy anglitsizmlarning sintaktik xususiyatlari gap va birikma ichida qanday bog'lanishi, qaysi rolni bajarishi va qaysi model bo'yicha tuzilishini anglatadi. Bunda ularning o'rni (pozitsiyasi), bosh-tobe munosabati, bog'lanish vositalari va variantlilik qamrab olinadi.

Iqtisodiy leksika qatlamiga kirayotgan inglizcha kelib chiqishli birliklar odatda compound noun asosida shakllanadi va matnda ot markazli konstruksiyalarni yuzaga keltiradi. Rus tilida Adj+N hamda N+N (ko'pincha yaqin appozitiv tartibda) modellari faol, o'zbek tilida esa N+N tipidagi ot birikmasi va izohlovchi birlik keng qo'llanadi. Appozitsiya – ya'ni qisqartma va to'liq nomning yonma-yon kelishi – ikki tilda ham termini aniqlashtirishning barqaror usuli bo'lib, ayrim birliklar tahliliy janrlarda predikativ vazifani ham bajaradi.

Rus tilidagi Adj+N modeli, odatda, ruscha affiksatsiya orqali hosil qilingan sifatlovchi qism va inglizcha yadro terminidan iborat bo'ladi: *валютный своп, кредитный дефолт, фьючерсный контракт*. Bunda bosh unsur – termin (*своп, дефолт, контракт*), tobe unsur – sohaga ishora qiluvchi sifat (*валюта, кредит, фьючерс*). O'zbek tilida ana shu mazmun aksariyat hollarda **N+N** yoki izohlovchi birlik orqali beriladi: *валюта свопи, кредит дефолти, фьючерс шартномаси*. Ru → Uz o'girishda sifatlatuvchi tarkib ko'pincha ot birikmasi bilan almashadi: *валютный своп* → *валюта свопи*; *дивидендная доходность* → *dividend rentabelligi*.

N+N strukturasi ham har ikki tilda uchraydi. Rus tilida *индекс PMI, рейтинг S&P, ETF фонд, IPO рынок* kabi birliklarda umumiy nom (*индекс, рейтинг, фонд, рынок*) qisqartma yoki nom bilan appozitiv tarzda birikadi. O'zbek tilida shunga monand *PMI indeksi, S&P reytingi, ETF fondi, IPO bozori* shakllari ko'proq me'yoriy sanaladi; bog'lanish kelishik qo'shimchalari orqali ifodalanadi (**-i, -si**).

Appozitsion juftlik iqtisodiy ko'rsatkichlar va reyting birliklarida ayniqsa barqaror: rus tilida *индекс PMI упал ниже 50 пунктов*, o'zbek tilida *PMI indeksi 50 ball pastiga tushdi*. Bunday tuzilma referensni tez aniqlaydi, statistik birlikni matnning ma'lumotga to'yingan nuqtalarida lo'nda ko'rsatadi. Shuningdek, qisqartmalar – *IPO, ETF, ESG, GDP/BBП/YAIM, CPI, PMI* – ko'pincha ot yadro sifatida keladi: rus tilida *ESG-требования усилились*; *BBП вырос*, o'zbek tilida ESG talablari kuchaydi; YAIM oshdi. Sarlavha va lead jumalarda qisqartmalarning gap boshiga chiqishi informatsion fokusni kuchaytiradi.

Bog'lanish vositalarida tizimlar farqlanadi: rus tilida predlogli konstruksiyalar faol – *опционы на нефть, налог на прибыль, своп по ставке*; o'zbek tilida esa kelishik qo'shimchalari va izohlovchi birlik asosiy vosita – *neft bo'yicha opsiolar, foyda solig'i, stavka bo'yicha своп*. Har ikkala tizimda ham yadro ko'pincha inglizcha kelib chiqishga ega termin (*своп, опцион, индекс*), tobe qism esa sohaga yoki parametr ga ishora qiladi (*валюта, нефть, ставка, bozor*).

Janr va auditoriya ta'siri bilan variantlilik kuzatiladi: *cash flow* rus tilida *кеш-флоу / денежный поток*, o'zbek tilida *naqd pul oqimi / kesh-flou* shakllarida almashadi. Rasmiy-huquqiy va statistik matnlarda **qisqartma + izoh** yoki **izoh + qisqartma** sxemasi tez

me'yorlashadi: *yalpi ichki mahsulot* (YAIM) / YAIM (yalpi ichki mahsulot); tahliliy OAVda esa qisqartma ko'pincha mustaqil yadroga aylanadi.

Quyidagi jadval asosiy sintaktik modellarning tilga xos ko'rinishlarini jamlaydi:

| Asosiy masala | Rus tili ko'rinishi | O'zbek tili ko'rinishi | Izoh/namuna |
|------------------------------|--------------------------------------|---|---|
| Kompozitsiya | Adj+N, N+N (yaqin appozitiv) | N+N, izohlovchi birlik | <i>валютный своп</i> → <i>valyuta svopi</i> |
| Appozitsiya | <i>индекс PMI, рейтинг S&P</i> | <i>PMI indeksi, S&P reytingi</i> | Referensni tez aniqlaydi |
| Bog'lanish vositasi | Predloglar: <i>на, по</i> | Kelishik/"bo'yicha" | <i>своп по ставке</i> → <i>stavka bo'yicha svop</i> |
| Qisqartma yadro | <i>ВВП вырос; ESG-требования...</i> | <i>YAIM oshdi; ESG talablari...</i> | Sarlavhada fokusni tortadi |
| Predikativ qo'llanish | <i>IPO состоялось; рынок в ралли</i> | <i>IPO muvaffaqiyatli o'tdi; bozor rally holatida</i> | Analitik janrlarda ixchamlilik |

Umumlashtirib aytganda, rus tilida **Adj+N** va appozitsiya o'qiluvchanlikni kuchaytiradi, o'zbek tilida **N+N** hamda izohlovchi birlik terminning aniq va me'yoriy ifodasini ta'minlaydi. Qisqartmalar har ikki tizimda sintaktik yadro vazifasini bajaradi; predikativ qo'llanish yangilik va tahliliy matnlarda dalil bayonini ixchamlashtiradi. Shunga ko'ra, **RU ↔ UZ** o'girishda **Adj+N** → **N+N** modeliga o'tish, appozitsion juftlikni saqlash hamda ot markazli konstruksiyalarga tayangan tarjima strategiyasi eng barqaror va amaliy yechim sifatida tavsiya etiladi.

Natijalar. Korpus kuzatuvlari iqtisodiy anglitsizmlarning ikki tilda ham asosan ot markazli konstruksiyalar orqali barqarorlashayotganini ko'rsatdi: kompozitsion modellarning ustuvorligi, qisqartmalarning yadro sifatidagi faoliyati va qisqartma-to'liq nomdan tuzilgan appozitsion juftliklarning keng ishlatilishi muntazam qayd etildi. Darhaqiqat, bu holat terminologik aniqlikni oshiradi va matnni ixchamlashtiradi.

Rus tilida **Adj+N** hamda **N+N** (ko'pincha appozitiv yaqinlashuv bilan) modellari yetakchi ko'rinish oldi: *валютный своп, дивидендная доходность; индекс PMI, рейтинг S&P* kabi birliklar shuni tasdiqlaydi. Farqli o'laroq, o'zbek tilida **N+N** tipidagi ot birikmasi va izohlovchi birlik ustun: *valyuta svopi, fyuchers shartnomasi; PMI indeksi, S&P reytingi*. Xolbuki, qisqartma va to'liq atama o'rni matn ehtiyojidan kelib chiqib almashadi: *yalpi ichki mahsulot (YAIM) / YAIM (yalpi ichki mahsulot)*.

Appozitsiya eng barqaror modellar qatoridan o'rin oldi. Chunonchi, statistik ko'rsatkichlar va reyting birliklarida (*PMI, MSCI, S&P, CPI*) qisqartma-to'liq nom juftligi terminni tez identifikatsiya qiladi: rus tilida *индекс PMI упал ниже 50 пунктов*, o'zbek tilida *PMI indeksi 50 ball pastiga tushdi*. Binobarin, appozitsion yechim referensni aniqlab, o'qiluvchanlikni mustahkamlaydi.

Predikativ qo'llanish ham faol zona sifatida namoyon bo'ldi. Vaholanki, yangilik va analitik tekstlarda anglitsizm kesim pozitsiyasida kelib, tezisni lo'nda ifodalaydi: rus tilida *IPO состоялось; рынок в ралли*, o'zbek tilida *IPO muvaffaqiyatli o'tdi; bozor rally holatida*. Kontekst mavjud bo'lganda bunday nomlash izohsiz ham yetarli bo'ldi.

Bog'lanish vositalarida til tizimlari o'ziga xos yo'l tutadi: rus tilida predlogli konstruksiyalar (*опционы на нефть, налог на прибыль, своп по ставке*), o'zbek tilida esa kelishik qo'shimchalari va izohlovchi birlik (*neft bo'yicha opsionlar, foyda solig'i, stavka bo'yicha svop*) ustuvor. Bosh-tobe munosabatida yadro odatda anglitsizmning o'zi (*svop*,

derivativ, indeks), tobe komponent esa sohaga yoki parametrqa ishora qiladi (valyuta, stavka, bozor).

Abbreviaturalar – IPO, ETF, ESG, GDP/BBП/YAIM, CPI, PMI – ikki tilda ham ot yadro vazifasini bajardi: rus tilida ESG-требования усилились; BBП вырос, o‘zbek tilida ESG talablari kuchaydi; YAIM oshdi. Darhaqiqat, sarlavha va lead gaplarda qisqartmalar gap boshiga chiqib, informatsion fokusni tortadi.

Morfosintaktik moslashuv erkin kechadi. Ko‘plik va kelishik ko‘rsatkichlari rus tilida свопы/свопов; индекса/индексы, o‘zbek tilida svoplar/svopning; indekslar/indeksni tarzida qo‘llandi. Atributivlashda rus tilida -ный/-ой modeli (фьючерсный контракт), o‘zbek tilida esa izohlovchi birlik (fyuchers shartnomasi) izchil ishladi.

Variantlilik masalasida janr va auditoriya ta‘siri sezilarli. Cash flow atamasi rus tilida кеш-флоу/денежный поток, o‘zbek tilida naqd pul oqimi/cash flow shakllarida almashdi. Holbuki, rasmiy-huquqiy va statistik matnlarda qisqartma + izoh (yoki aksincha) sxemasi tez me‘yorlashdi, OAV hamda tahliliy yozuvlarda qisqartma ko‘pincha mustaqil yadroga aylandi.

RU ↔ UZ o‘g‘irishda eng ishonchli strategiya – appozitsion juftlikni saqlash (индекс PMI → PMI indeksi) va Adj+N → N+N mosligi (валютный своп → valyuta svopi; дивидендная доходность → dividend rentabelligi). Predikativ yechimlar esa mazmunni ixcham uzatish imkonini beradi (IPO состоялось → IPO muvaffaqiyatli o‘tdi). Shunga ko‘ra, ikkala tilda ham qisqartmalarni yadro sifatida tutish, appozitsiyani uslubiy tayanch sifatida qo‘llash hamda ot birikmalariga tayangan modellardan foydalanish amaliy natijada eng barqaror va aniq yechim bo‘lib chiqdi.

Xulosa. Muxtasar qilib aytganda, iqtisodiy anglitsizmlar rus tilida asosan Adj+N va appozitiv N+N, o‘zbek tilida esa N+N hamda izohlovchi birlik asosida moslashadi. Zero qisqartmalar (PMI, CPI, ESG, YAIM va b.) ko‘pincha yadro vazifasini bajaradi, appozitsiya esa terminni tez aniqlaydi; darhaqiqat, yangilik va tahliliy janrlarda predikativ qo‘llanish (IPO muvaffaqiyatli o‘tdi) tezisni ixcham ifodalaydi. Rus tilida predlogli qurilmalar, o‘zbek tilida kelishik shakllari va “bo‘yicha” konstruksiyasi barqaror qo‘llanadi. Chunonchi, валютный своп → valyuta svopi, индекс PMI → PMI indeksi mos keladi. Binobarin, tarjimada Adj+N → N+N o‘g‘irish, appozitsion juftlikni saqlash va qisqartmalarni yadro sifatida tutish maqsadga muvofiq; keyingi bosqichda korpus asosida tez-tezlik hamda janrlararo farqlarni sinchiklab tahlil etish lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. – 5-е изд., испр. и доп. – Назрань: «Пилигрим», 2010. – 486 с.
2. Логинова З.С. Англицизмы в спортивной терминологии русского языка: дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1978. – 181 с.
3. Морозова И.О. Англицизмы в современном русском студенческом сленге: сопоставительное исследование на материале английского и русского языков: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Пятигорск, 2006. – 18 с.
4. Найдёнова Н. Runglish. – СПб.: СПбКО, 2010. – 100 с.
5. Селиванова М.С. Семантическая адаптация англицизмов в русском языке: дис. ... канд. филол. наук. – Великий Новгород, 2007. – 45 с.
6. Ходжагельдыев Б. Д., Шурупова О. С. Русский с английским привкусом: развитие русского языка в эпоху глобализации. – М.: Библио-Глобус, 2017. – 348 с.

7. A dictionary of European Anglicisms: a usage dictionary of Anglicisms in sixteen European languages. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – 351 c.
8. Abecassis M. Manfred Görlach. English Words Abroad // Lexikos. – 2004. – № 14. – P. 408-410.
9. Étiemble R. Parlez-vous français? – Paris: Gallimard, 1964. – 398 c.
10. García C. L., Pulcini V. Anglicisms in domain-specific discourse: fashion, leisure and entertainment // Revista de Lenguas para Fines Específicos. – 2018. – Vol. 24, no. 1. – P.10-17.
11. Görlach M. English Words Abroad. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2003. – 188 p.
12. Gottlieb H. Anglicism and Translation // In and Out of English: for Better, for Worse? / ed. by G.M.Anderman, M.Rogers. – Clevedon: Multilingual Matters, 2005. – P.161-184.
13. Introduction. Studying Anglicisms // Anglicisms in Europe: Linguistic Diversity in a Global Context / ed. by R. Fischer. – Cambridge: Cambridge Scholars Publishing, 2008. – 350 p.
14. Planchon C. Anglicisms and Online Journalism: Frequency and Patterns of Usage // Belais Infiéis. – 2014. – Vol. 3, No. 2. – P.43-61.
15. Qodirova M. Ingliz biznes diskursini tartibga solishda pragmatik konventsionallikning roli //news of the nuuz. – 2024. – т. 1. – №. 1.9. 1. – C.306-308.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

AESTHETIC INTERPRETATION OF SOCIAL TRAGEDY IN LITERARY WORKS

Rakhmonova Yulduz Khusanovna

Tashkent State Transport University
Doctoral student (PhD)

Abstract. Aesthetic interpretation is not just an interpretation of a chain of events, but a process of deep analysis of the beauty, tragedy and dramatic layers of art, understanding the artistic intention of the creator and conveying it to the reader. The aesthetic interpretation of tragedy performs a number of functions in literature. First, it has a reflective function, and secondly, aesthetic interpretation performs an educational and moral function.

Keywords: aesthetic interpretation, existentialism, the inner content of a work of art, the tragic and dramatic layer, emotional impact, critical reception.

ADABIY ASARLARDA IJTIMOY FOJIAVIYLIKNING ESTETIK TALQINI

Raxmonova Yulduz Xusanovna

Toshkent Davlat Transport Universiteti
Doktorant

Annotatsiya. Estetik talqin faqatgina voqealar zanjirini sharhlash emas, balki san'atning go'zallik, fojiaviylik va dramatik qatlamlarini chuqur tahlil qilish, ijodkorning badiiy niyatini anglash va uni o'quvchiga yetkazish jarayonidir. Fojiaviylikning estetik talqini adabiyotda bir qator funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, u aks ettiruvchi funksiyaga ega, ikkinchidan, estetik talqin tarbiyaviy va axloqiy funksiyani bajaradi.

Kalit so'zlar: estetik talqin, ekzistensializm, badiiy asarning ichki mazmunini, fojiaviylik va dramatik qatlam, hissiy ta'sir, tanqidiy qabul.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N68>

Adabiyotshunoslik tarixida "estetik talqin" tushunchasi ko'p asrlik falsafiy-an'anaga ega bo'lib, u badiiy asarning ichki mazmunini, uning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyatini tushuntirishda muhim metodologik kategoriya sifatida qaraladi. Estetik talqin faqatgina voqealar zanjirini sharhlash emas, balki san'atning go'zallik, fojiaviylik va dramatik qatlamlarini chuqur tahlil qilish, ijodkorning badiiy niyatini anglash va uni o'quvchiga yetkazish jarayonidir.

Qadimgi davrlardan boshlab, Aristotel "Poetika" asarida fojiaviylikni insoniy ehtirolarning tozalanishi – katarsis hodisasi bilan bog'lagan. Uning nazarida tragediya nafaqat voqeani ifodalaydi, balki tomoshabinning qalbini larzaga solib, uni ma'naviy poklanishga chorlaydi [1, p. 45]. Keyingi davrlarda Gegel ham fojiaviylikni insoniy erkinlik va zarurat to'qnashuvi sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, tragediyada har ikkala tomon ham haq, biroq ularning murosasizligi insoniyat hayotining dramatik mohiyatini ochib beradi. Demak, fojiaviylikning estetik talqini ijtimoiy voqelik va shaxsiy taqdirning bir-biriga zid munosabatida namoyon bo'ladi.

XX asr adabiyotida ijtimoiy tragediyaning estetik talqini yanada murakkablashdi. Jamiyatning keskin siyosiy o'zgarishlari, urushlar, inqiloblar, mafkuraviy kurashlar badiiy asarlarda insoniy taqdirni chuqurroq ochib berishni taqozo etdi. Masalan, Ernest Hemingueyning "Quyosh baribir chiqaveradi" romanida "yo'qotilgan avlod" ning ma'naviy iztiroblari, urushdan keyingi jamiyatda ma'no va qadriyatlarini yo'qotib qo'ygan insonlarning ichki fojialari o'z ifodasini topadi [2, p. 78]. Heminguey estetikasida tragediya ochiq dramatik voqealar bilan emas, balki yashirin ma'naviy bo'shliq, befarqlik va mavjudlikning ma'nosizligi orqali ifodalanadi. Bu esa klassik tragediyadan farqli ravishda modern adabiyotga xos estetik talqin shaklidir.

O'zbek adabiyotida ham fojiviylilikning estetik talqini o'ziga xos tarixiy rivojlanishga ega. Cho'lponning [3, p. 102] "Kecha va kunduz" romanida milliy uyg'onish davrida xalq taqdirining fojiviylilik jihatlari, millatni zulm ostiga solgan siyosiy va ijtimoiy kuchlar tasviri beriladi. Bu asarda fojiviylilik estetik jihatdan shaxsiy taqdir bilan xalq taqdiri o'rtasidagi uzviy bog'liqlik orqali namoyon bo'ladi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida ham o'zbek jamiyatining o'zaro nizolar, feodal tarqoqlik tufayli kelajakni boy berishi estetik tragediya darajasida talqin etilgan [4, p. 56].

XX asrning ikkinchi yarmida esa O'tkir Hoshimov ijodida fojiviylilikning estetik talqini yanada chuqurroq ma'naviy-falsafiy mazmun kasb etdi. Xususan, "Tushda kechgan umrlar" asarida insonning orzu va hayot o'rtasidagi tafovut, vaqtning shafqatsiz o'tishi va baxt izlash jarayonidagi yo'qotishlar fojiasi tasvirlanadi [5, p. 130]. Asarda qahramonlarning ichki dunyosi, ularning hayotdan kutgan umidlari va ro'yobga chiqmagan orzulari estetik tarzda, chuqur badiiy vositalar orqali ochib berilgan. Bu tragediya shaxsiy taqdir bilan cheklanmay, butun jamiyatning ma'naviy iztiroblarini ham yoritadi.

Estetik talqinning yana bir muhim jihati shundaki, u fojiviylilikni nafaqat "og'riq" sifatida, balki "haqiqatni anglash vositasi" sifatida namoyon qiladi. Ya'ni, adabiy asarda tragediya orqali o'quvchi insoniy hayotning eng muhim savollarini o'ylashga majbur bo'ladi: erkinlik nima? Inson o'z taqdiriga qanchalik hukmron? Jamiyatning zulmi yoki insonning zaifligi qaysi biri halokatli? Ana shu savollar fojiviylilikning estetik talqini orqali o'quvchi ongida uyg'onadi.

Estetik talqinning funksiyalari va badiiy namoyondalari

Fojiviylilikning estetik talqini adabiyotda bir qator funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, u aks ettiruvchi funksiyaga ega: jamiyatda mavjud ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy muammolar badiiy obrazlarda mujassamlanadi. Ikkinchidan, estetik talqin tarbiyaviy va axloqiy funksiyani bajaradi: fojia orqali inson o'z hayotini, o'z xatti-harakatlarini tahlil qiladi, saboq chiqaradi.

Uchinchidan, estetik talqin estetik zavq uyg'otadi, chunki fojiviylilik faqat og'riq emas, balki ma'naviy yuksalish, go'zallikni his qilish jarayonidir.

Masalan, Shekspir tragediyalarida fojiviylilikning estetik talqini qahramonlarning yuksak ideal va ehtirolari bilan ularning hayotiy zaifliklari to'qnashuvida namoyon bo'ladi. "Gamlet" asarida insonning ichki inqirozi, hayot va o'lim, burch va adolat haqidagi savollar estetik darajada ifoda topadi [6, p. 220]. Gamletning mashhur "Bo'lish yoki bo'lmaslik?" monologi shunchaki falsafiy savol emas, balki insoniyatning abadiy fojiviylilik iztiroblarining umumlashmasidir [6, p. 140]. Demak, estetik talqin tragediyani umumiy insoniy muammolar bilan bog'laydi.

Amerika adabiyotida Uilyam Folkner ijodi fojiaiylikning estetik talqinini o'ziga xos ko'inishda ifodalaydi. Uning "Shovqin va g'azab" romani janubiy shtatlar jamiyatining inqirozi va qadriyatlarining yemirilishini tasvirlaydi [7, p. 312]. Bu asarda fojia nafaqat shaxsiy taqdir, balki butun ijtimoiy qatlamning tanazzuli sifatida talqin etiladi. Folkner estetikasida vaqt va xotira kategoriyalari markaziy o'rin tutadi: o'tmishning og'riqli izlari qahramonlarni o'z domiga tortib, ularning kelajagini ham belgilab qo'yadi. Bunday yondashuv fojiaiylikni tarixiy va madaniy jarayonlar bilan bog'lab, unga estetik-falsafiy teranlik bag'ishlaydi.

O'zbek adabiyotida ham estetik talqin milliy mentalitet, tarixiy taqdir va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida fojiaiylik faqat Otabek va Kumushning fojiali muhabbati emas, balki butun millatning kelajakdan mosuvo bo'lib qolishi tarzida estetik talqin qilingan [4, 112-b.]. Asar qahramonlari individual taqdirlarining inqirozi orqali jamiyatning ijtimoiy-siyosiy fojiaiyligi namoyon bo'ladi. Bu jihatdan "O'tkan kunlar" o'zbek romanchiligida fojiaiylikning eng yorqin estetik talqinlaridan biridir [4, 130-b.].

Estetik talqinning psixologik va falsafiy qatlamlari

Fojiaiylikning estetik talqini nafaqat ijtimoiy hayotning badiiy ifodasi, balki inson psixologiyasi va falsafiy tafakkurini ham chuqur o'rganish imkonini beradi. Chunki har qanday fojia inson ruhiyati bilan chambarchas bog'liq: qo'rquv, umidsizlik, ishonch va shubha, muhabbat va nafrat kabi qarama-qarshi tuyg'ular estetik talqin orqali o'z badiiy shaklini topadi.

Psixologik qatlamda fojiaiylik qahramonlarning ichki kurashi, ularning ruhiy iztiroblari, shaxsiy qarorlari va o'zligini anglash jarayoni orqali namoyon bo'ladi. Masalan, Dostoyevskiy romanlarida fojiaiylik qahramonlarning ichki dunyosida kechadigan ziddiyatlar – axloqiy tanlov va vijdon azoblarida o'z ifodasini topadi. "Jinoyat va jazo" dagi Raskolnikovning ruhiy azobi estetik talqinning psixologik jihatini yorqin ko'rsatadi: u jinoyat qilgani uchun emas, balki o'zini insoniyatdan ajratib qo'ygani uchun fojiaiga duchor bo'ladi [16, 218-b.].

Falsafiy qatlamda esa fojiaiylik hayot ma'nosi, inson erki va taqdir haqidagi abadiy savollar bilan bog'lanadi. Estetik talqin bu savollarni san'at tiliga ko'chiradi. Shopengauer falsafasida inson doimiy azob va iztirob bilan yashaydi, san'at esa shu iztiroblarni yengillashtiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi [17, 97-b.]. Ekzistensializm falsafasida (Sartre, Kamyu) fojiaiylik "hayotning absurdligi" tushunchasi orqali talqin qilinadi: insonning mavjudligi o'z-o'zidan fojialidir, san'at esa uni anglash va ifodalash vositasiga aylanadi [12, 152-b.].

Uchinchidan, estetik talqin estetik zavq uyg'otadi, chunki fojiaiylik faqat og'riq emas, balki ma'naviy yuksalish, go'zallikni his qilish jarayonidir.

O'zbek adabiyotida ham fojiaiylikning psixologik va falsafiy talqinlari ko'p uchraydi. Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dramasida qahramonlar nafaqat siyosiy, balki ma'naviy inqiroz ichida tasvirlanadi. Asarda insonning "ruhiy ozodligi" masalasi ko'tariladi: qahramonlar erkinlik uchun kurashsa-da, ularning qalbida shubha va qo'rquv hukmron. Shu tariqa fojiaiylik inson ruhining ichki tarangligi orqali estetik jihatdan yoritiladi [8, p. 107].

Muhammad Yusuf she'riyatida fojiaiylik ko'proq milliy ruh va shaxsiy dard uyg'unligida talqin qilinadi. Uning "Ket, ey qush" she'rida oddiy xalqning iztiroblari, hijron va vatan dardining fojiaiy ohanglari estetik ifoda topgan [9, p. 58]. Shoirning "Onajon" she'rida esa insonning eng yaqin qadriyat – ona timsoli orqali yo'qotish iztirobi universallashtiriladi.

Bu yerda fojaviylik falsafiy umumlashmaga aylanadi: insonning hayotiy quvonchi ham, eng katta fojiasi ham onaga bog'liq[9, p. 65].

Xurshid Davron ijodida esa fojaviylik ko'proq tarixiy-falsafiy talqinda namoyon bo'ladi. "Samarqand xayoli" she'rlar turkumida o'tmish shon-shuhrati va bugungi kundagi tanazzul o'rtasidagi tafovut fojaviy ohangda beriladi. Tarixiy xotira orqali shoir o'quvchini millat taqdiri ustida o'ylashga undaydi. Estetik talqin bu yerda "o'tgan buyuklik va hozirgi iztirob" o'rtasidagi kontrastga asoslanadi[10, p. 81].

Psixologik va falsafiy qatlamlarning qo'shilishi fojaviylikni chuqurlashtiradi. Qahramonning ichki iztiroblari va uning hayot ma'nosini izlash jarayoni o'zaro uyg'unlashib, asarni estetik jihatdan mukammal qiladi. Shu sababli fojaviylikning estetik talqini insoniyat uchun faqat "qayg'u" emas, balki "fikrlash va o'zini anglash maktabi"ga aylanadi.

Zamonaviy adabiyot va san'atda fojaviylikning estetik talqini

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida adabiyot hamda san'at insoniyat tarixida yuz bergan ulkan o'zgarishlarni estetik jihatdan talqin qilishga intildi. Urushlar, totalitar rejimlar, milliy-ozodlik kurashlari, migratsiya, texnologik inqilob va ekologik inqiroz – bularning barchasi san'atda yangi fojaviy ohanglar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Zamonaviy davrda fojaviylik endi faqat klassik ma'nodagi qahramonning halokati yoki millatning qulashi bilan cheklanmaydi; u insonning ruhiy bo'shlig'i, begonalashuvi, yolg'izligi va ma'naviy qadriyatlarining yemirilishi orqali ifodalanadi.

Zamonaviy romanlarda fojaviylik ko'pincha shaxsning jamiyatdan uzilib qolishi, texnologiyalar hukmronligida insoniyatning "insoniyligi"ni yo'qotishi bilan bog'liq. Masalan, amerikalik yozuvchi Don DeLillo asarlarida ("Oq shovqin" romanida) zamonaviy jamiyatning informatsiya, reklama va texnologiyalar girdobida insoniy mohiyatini yo'qotishi fojaviy tarzda ko'rsatiladi. Bu yerda estetik talqin odamlarning real hayotdan uzilib, "mediaviy illuziya" ichida yashashini ochib beradi[11, p.45].

Kinematografiyada fojaviylik o'ziga xos yangi shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, amerikalik rejissyor Stiven Spilbergning "Shindler ro'yxati" filmi klassik fojaviylik an'anasini davom ettiradi, biroq uni zamonaviy estetik ifoda – hujjatli aniqlik, rangsiz kadrlar va psixologik dramatism orqali beradi. Filmda insoniyatning eng yirik fojialaridan biri – Holokost estetik shaklda tasvirlanib, tomoshabinni nafaqat qo'rquv va achinish, balki umid va insoniy mehr hissiga chorlaydi.

O'zbek zamonaviy adabiyotida ham fojaviylikning estetik talqini kengayib, yanada ko'p qirrali bo'lib bormoqda. Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani mustaqillik arafasidagi xalq iztiroblarini estetik talqinda aks ettiradi. Asarda qishloq odamlari hayotidagi yo'qotishlar, erkinlikka intilish, tarixiy jarayonlarning shaxsiy taqdirga ta'siri fojaviy ruhda ochib berilgan. Bunda estetik talqin nafaqat voqealarni dramatik ko'rsatadi, balki xalqning milliy xotirasi va ruhiy iztiroblarini badiiy obrazlar orqali yuksaltiradi[13, p. 142].

Yana bir muhim misol –Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romani. Bu asarda insonning "iztirob va izlanish" hayoti falsafiy talqinda ochiladi: qahramon o'zligini topishga intiladi, biroq doimiy begonalik, ichki qarama-qarshiliklar uni fojaviy qiyofada ko'rsatadi. Asarda insonning jamiyatdagi o'rni, tarixiy xotira va kelajak haqida o'ylar estetik talqin vositasida falsafiy umumlashmaga aylanadi[14, p. 98].

She'riyatda esa fojaviylik ko'proq ruhiy va ma'naviy iztiroblar orqali ifodalanadi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida faxriya, g'urur va iztirob birlashgan fojaviy ohanglar kuchli

seziladi. Jumladan, Usmon Azimning ko‘plab she‘rlarida insoniy muhabbat va Vatan dardi uyg‘unlashib, fojiviy estetikaga xos chuqur hislar bilan talqin etiladi[15, p. 33].

Dramaturgiyada fojiviylik ijtimoiy konfliktlar orqali ko‘rsatiladi. Hozirgi o‘zbek teatrida sahnalashtirilayotgan asarlar ko‘pincha tarixiy mavzularga yoki jamiyatdagi dolzarb muammolarga bag‘ishlanadi. Masalan, Erkin A‘zamning sahna asarlarida insonning axloqiy tanlovi, jamiyat oldidagi mas‘uliyati fojiviy dramaturgiyada ochiladi. Estetik talqin bu yerda tomoshabinni o‘z hayoti, tanlovlari haqida chuqur o‘ylashga undashga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy san‘atning boshqa shakllarida ham fojiviylik yangi talqinlarda ifodalanmoqda. Rassomlikda urush va migratsiya mavzulari, musiqada esa zamonaviy insonning yolg‘izligi, tushkunlik kayfiyati ko‘p uchraydi. Masalan, Bob Dylan qo‘shiqlarida ijtimoiy fojiviylik va falsafiy iztirob estetik ifodaga ega bo‘ladi. O‘zbek estradasida esa Serali Jo‘rayev qo‘shiqlarida tarixiy xotira va xalq dardi fojiviy ohang bilan talqin etilgan.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy adabiyot va san‘atda fojiviylikning estetik talqini kengayib, yanada ko‘p qirrali bo‘lib bormoqda. Agar klassik davrda fojiviylik ko‘proq qahramonning taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi davrda u insoniyatning global muammolari, jamiyatning inqirozlari, shaxsning ma‘naviy bo‘shlig‘i va ruhiy iztiroblarida namoyon bo‘ladi. Estetik talqin esa ana shu fojiviy jarayonlarni nafaqat tasvirlash, balki ularni chuqurroq anglash va tahlil qilish vositasiga aylanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Aristotel. Poetika. — O‘zgartirilgan nashr. — Toshkent: Fan, 1978.
2. Hemingway, Ernest. The Sun Also Rises (“Quyosh ham chiqadi”). — New York: Scribner, 1926.
3. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. — Toshkent: Sharq, 1932.
4. Qodiriy, Abdulla. O‘tkan kunlar. — Toshkent: O‘zbekiston, 1947.
5. Hoshimov, O‘tkir. Tushda kechgan umrlar. — Toshkent: Gafur G‘ulom nomidagi nashriyoti, 1985.
6. Shakespeare, William. Hamlet. — London: Oxford University Press, 1603 / Oxford: 1954.
7. Faulkner, William. The Sound and the Fury (“Shovqin va g‘azab”). — New York: Jonathan Cape & Harrison Smith, 1929.
8. Vohidov, Erkin. Ruhlar isyoni (drama). — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa, 1975.
9. Yusuf, Muhammad. She‘riyat to‘plami. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1990.
10. Davron, Xurshid. Samarqand xayoli. — Toshkent: Sharq, 1998.
11. DeLillo, Don. White Noise (“Oq shovqin”). — New York: Viking Press, 1985.
12. Sartre, J.-P. Ekzistensializm — bu gumanizm. — Parij: Gallimard, 1946. — 210 b.
13. Murod, Tog‘ay. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
14. Sulton, Isajon. Boqiy darbadar. — Toshkent: Adib, 2010.
15. Azim, Usmon. She‘riyat to‘plami. — Toshkent: Yosh gvardiya, 1992.
16. Dostoyevskiy, F. M. Jinoyat va jazo. — Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1984. — 560 b.
17. Shopengauer, A. Dunyo iroda va tasavvur sifatida. — Moskva: Nauka, 1993. — 432 b.
18. Rakhmonova, Y. K. (2024). THE COMPLEXITY OF TRANSLATING HEMINGWAY'S SIMPLICITY: CHIASTIC PATTERNS IN THE SUN ALSO RISES. *World of Scientific news in Science*, 2(2), 701-709.
19. Raxmonova, Y. (2023). TARJIMANING TIL MUAMMOLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).

20. Raхmonova, Y. (2023). TARJIMA TILIDA ASLIYATDAGI SEMANTIC MAYDON (“Alvido qurol” romani misolida). *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5 (5).
21. Raхmonova, Y. (2023). MATN VA USLUB. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5 (5).
22. Raхmonova, Y. (2023). BADIY MATN TAHLILI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5 (5).

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

SCHOLARLY RESEARCH ON THE ANIMALISTIC GENRE AND SYMBOLIC IMAGERY IN LITERATURE

Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi

PhD researcher at Karakalpak State University

E-mail: danyaimbetova@gmail.com

Abstract. This study examines the role of the animalistic genre and imagery in English, Russian, Turkic, Uzbek, and Karakalpak literature. It explores how animal symbols reflect human emotions, morality, and the relationship between humans and nature. Through comparative analysis, the research identifies both universal and culture-specific aspects of animalistic expression. The article also discusses philosophical and ecological dimensions of animal imagery in various literary traditions. By integrating linguistic and cultural perspectives, the study reveals how animal symbolism serves as a mirror of human consciousness and a vital artistic means of conveying ethical and existential ideas.

Keywords: animalistic genre; animal imagery; symbolism; comparative literature; English literature; Russian literature; Turkic literature; Uzbek literature; Karakalpak literature; philosophy of nature; mythology; ecological thought; artistic expression.

ADABIYOTDA ANIMALISTIK JANR VA RAMZIY OBRAZLAR BO'YICHA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOTLAR

Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi

Qoraqalpoq Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz, rus, turkiy, o'zbek va qoraqalpoq adabiyotlarida animalistik janr va obrazlarning badiiy hamda falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot hayvon obrazlari orqali insoniy tuyg'ular, axloqiy tamoyillar va insonning tabiat bilan munosabati qanday ifodalanishini o'rganadi. Qiyosiy tahlil asosida animalistik timsollarning umumiy va milliy xususiyatlari aniqlanadi. Shuningdek, maqolada hayvon obrazlarining falsafiy va ekologik o'lchovlari yoritiladi. Til va madaniyatlararo yondashuv orqali tadqiqot hayvon ramzlari inson ongining in'ikosi va axloqiy hamda ekzistensial g'oyalarni ifodalovchi muhim badiiy vosita ekanini namoyon etadi.

Kalit so'zlar: animalistik janr; hayvoniy obrazlar; ramziylik; qiyosiy adabiyot; ingliz adabiyoti; rus adabiyoti; turkiy adabiyot; o'zbek adabiyoti; qoraqalpoq adabiyoti; tabiat falsafasi; mifologiya; ekologik tafakkur; badiiy ifoda.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N69>

Kirish. **Animalistik obraz** tushunchasi badiiy asarda hayvonlar (fauna vakillari)ning badiiy tasviriga taalluqlidir. Keng ma'noda **animalistika** – bu hayvonot olamini tasvirlash bilan bog'liq san'at yo'nalishi sifatida tushuniladi.[37] Rus tili lug'atlari “animalistik” sifatlovchisiga “hayvonlarni tasvirlashga oid; hayvonot olamini ifodalovchi” deb ta'rif beradi; bu “animalizm” atamasiga tenglashtiriladi.[32] Dastlab bu atama tasviriy san'atda (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika) mustahkam o'rnatilgan bo'lib, u yerda **animalistik janr** – asosiy obyekt hayvonlar bo'lgan janr hisoblanadi.[21] Ilgari ensiklopedik nashrlar animalistik janrni asosan vizual san'atlar kontekstida sharhlagan.[17. 275-282b.] Biroq zamonaviy filologiyada “**adabiy**

animalistika” va **“animalistik obraz”** tushunchalari adabiyotga nisbatan keng qo‘llaniladi: bu tushunchalar hayvonlar mustaqil qahramon yoki muhim ramz sifatida ishtirok etadigan asarlar va obrazlar majmuasini ifodalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ingliz adabiyoti an‘analari va animalistik she‘riyatni tadqiq qilish. XX–XXI asr ingliz tilidagi she‘riyat “hayvonlar” motivlariga nihoyatda boy. Atigi bir nechta mashhur va ta‘sirchan shoirlarni tilga olish kifoya: masalan, Ted Xyuz (Angliya) o‘zining yirtqich “Yaguar” va “Lochin” she‘rlari bilan tanilgan; Meriann Mur va Elizabet Bishop (AQSh) esa dengiz mavjudotlari va qushlarni nozik tasvirlashda mohir edilar; Meri Oliver (AQSh) yovvoyi hayvonlarni – g‘ozlardan tortib kiyiklarga qadar – kuzatishlar asosida butun bir she‘riy kanon yaratgan; Les Myurrey (Avstraliya) esa o‘z she‘rlarida ko‘pincha inson tili doirasidan tashqaridagi mavjudot “mavjudligi”ni sezdiradi. Ushbu va boshqa ko‘plab mualliflar nafaqat hayvonlarni she‘riyatga olib kiradi, balki o‘quvchini inson va tabiat o‘rtasidagi chegaralar haqida chuqur o‘ylashga undaydi.

Rus adabiyotshunosligida animalistik obrazlarning tadqiqi. Rus adabiyotshunosligida animalistik obrazlar masalasi mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu sohaga oid izlanishlar avvalo L.G.Baranovskaya (Duktova)ning Belorussiya adabiyotida hayvoniy motivlarning ochilishini ko‘zda tutgan birinchi kandidatlik dissertatsiyasi bilan boshlangan[15]. Keyinchalik N.A.Artemyeva I.A.Krilov masallaridagi hayvon obrazlarining struktura va funksiyalarini tahlil qilgan[13], E.M.Nikitina esa M.A.Sholoxov ijodida bu obrazlarning janrlararo evolyutsiyasi va poetik ahamiyatini ko‘rsatgan. Animalistik obrazlarning boshqa adabiy makonlardagi ifodasi ham qator dissertatsiyalarda tadqiq etilgan: A.A.Mostepanov XX asr ingliz ertaklaridagi animalistik janrni[26], E.V.Zuyeva esa zamonaviy Britaniya adabiyotidagi janriy o‘ziga xoslikni yoritgan[21].

Turkiy xalqlar adabiyoti an‘analari va animalistik she‘riyatni tadqiq qilish. Turkiy xalqlar adabiyotida animalistik obrazlar muhim ramziy va mifopoetik ahamiyatga ega. Bu xalqlar ko‘chmanchi hayot tarzi sababli hayvonlarga nafaqat turmushda, balki madaniyat va e‘tiqodda ham chuqur hurmat bilan qarashgan. Bo‘ri, ot, burgut kabi hayvonlar turkiy mifologiyada ajdodlar homiysi va olamlar o‘rtasidagi vositachilar sifatida qadrlangan. Turkiy og‘zaki ijodda ham hayvonlar qahramonlarning yordamchisi, xabarchi yoki himoyachi sifatida ko‘rinadi. She‘riyatda esa ular ko‘pincha inson ruhiy holatining ramziy ifodasi bo‘lib xizmat qiladi – bulbul ilohiy sevgi, arslon jasorat, lochin esa hukmdorlik timsolidir.

XX asr va undan keyingi davrlarda turkiy adabiyotda hayvonlar obrazi yanada chuqurlashgan. Xususan, ot obrazi qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz va boshqa turkiy adabiyotlarda inson hayoti bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlanadi. Masalan, “Qulager” (I.Jansugurov), “Oqboz ot” (T.Alimqulov), “Hayr, Gulsari!” (Ch.Aytmatov) kabi asarlar o‘tini nafaqat transport vositasi, balki xalq ruhiyatining ramzi sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, hayvonlar obrazi turkiy nasrda ham syujet va qahramon psixologiyasini ochuvchi vosita sifatida ishlatilgan[14].

O‘zbek adabiyotshunosligida animalistik obrazlar tadqiqi. Xalq ertaklari va miflarida hayvonlar totemik timsol yoki majoziy qahramon sifatida maydonga chiqqan bo‘lsa, zamonaviy adabiyotda ular realizm va psixologizm darajasida tasvirlanmoqda. O‘zbek adabiyotshunosligida animalistik obrazlar mavzusiga bag‘ishlangan so‘nggi tadqiqotlar bu obrazlarning estetik, ramziy, psixologik hamda ijtimoiy-falsafiy talqinlarini chuqur o‘rganib, ularning tarixiy taraqqiyoti va boshqa xalqlar adabiyoti bilan bog‘liqligini tahlil qilmoqda.

Ushbu bo'limda Sh.Ashurova[3], N.Ochilova[11], Sh.Xalilova[12], N.Achilova[1], S.Nurullaeva[29] va T.Akramova[2] kabi olimlarning dissertatsiya tadqiqotlari asosida ana shu masalalar ochib beriladi. Har bir tadqiqotning maqsadi, uslubi va asosiy xulosalari yoritilar ekan, hayvoniy timsollarning folklor va zamonaviy adabiyotda tutgan o'рни, janrlardagi o'zgarishi hamda G'arb va Sharq adabiy aloqalari kontekstidagi qiyosiy jihatlariga e'tibor qaratiladi.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida hayvon obrazlari tadqiqi. Qoraqalpoq adabiyotshunosligida hayvon obrazlari masalasi to'liq ravishda “animalistik obrazlar” termini bilan atalmagan bo'lsa-da, mazkur yo'nalishga oid ayrim ilmiy qarashlar mavjud. Mazkur masala atrofida olib borilgan tadqiqotlarda olimlar hayvon obrazlarining badiiy hamda mifologik mohiyatiga turlicha yondashganlar. Xususan, folklorshunos I.Sag'itov o'zining “Qaraqalpaq xalqini qaharmanliq eposi”[31] nomli tadqiqotida xalq eposlari tarkibidagi hayvon obrazlarini qahramonlik an'alarining ajralmas unsuri sifatida tahlil qilgan. Q. Mambetnazarov esa “Qaraqalpaq ertekleri haqqida”[24] asarida xalq ertaklaridagi hayvon obrazlarining estetik va tarbiyaviy ahamiyatini yoritib bergan. Shuningdek, Q. Maqsetov “Qaraqalpaq qaharmanliq dastani 'Qirq qiz'”[23] nomli tadqiqotida ot obrazining ramziy va mifologik ma'nolariga alohida e'tibor qaratgan. J. Xoshniyazov o'zining “Milliy ruvhiy du'nyamizdin sa'gaları”[20] nomli ilmiy asarida qoraqalpoq qahramonlik dostonlarining tarixiy-folklorik qatlamlarini tahlil qilib, ulardagi mifologik va ramziy timsollarni izohlab o'tgan. Q. Ayimbetov “Xalq danalığı”[35] nomli tadqiqotida xalq donishmandligi kontekstida ot obrazining badiiy-falsafiy talqinlarini keng yoritgan. Shu bilan birga, J. Xoshniyazov “Mifler ha'm da'stanlar: genesis, spetsifikasi, da'wirlik qatlamları”[19] asarida qoraqalpoq dostonlaridagi mifologik qatlamlar, miflar hamda obrazlar tizimini ilmiy asosda tahlil qilgan. Demak, qoraqalpoq adabiyotshunosligi doirasida “animalistik obraz” atamasi to'liq shaklda qo'llanmagan bo'lsa-da, yuqoridagi tadqiqotlarda hayvon obrazlari xalq ijodining ajralmas tarkibiy qismi sifatida turli burchaklardan talqin etilganini ko'rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz adabiyotshunoslari shoirlarning hayvonlarni qanday tasvirlashi va bu tasvirning maqsadiga katta e'tibor berishadi. 1960-yillarning o'zidayoq shoir U.X.Oden “hayvonlar haqidagi adabiyot”ning asosiy turlarini tasniflashga uringan edi. U 1962-yilgi esseda matndagi inson va hayvon o'rtasidagi o'zaro munosabat xarakteriga asoslangan bir nechta toifalarni ajratib ko'rsatgan[4]. Ular orasida quyidagilar mavjud:

1) Masal shakli, ya'ni hayvonlarga insoniy ong berilib, ular odamlar kabi so'zlaydi va harakat qiladi (klassik masallarda – “inson xarakteriga ega hayvonlar”);

2) Romantik uchrashuv, bu yerda she'r tasodifiy inson-hayvon uchrashuvini tasvirlaydi, bu esa insoniy tafakkur va his-tuyg'ular uchun turtki bo'ladi;

3) Antropomorf metafora – hayvonlarni inson holatini ifodalovchi timsollar yoki o'xshatishlar sifatida ishlatish; va boshqa shakllar.

Odenning umumiy xulosasi shundan iborat ediki, barcha holatlarda hayvon obrazining ahamiyati – u inson holati haqida qanday samarali fikr bildirayotganiga bog'liq. Boshqacha aytganda, ingliz poetik tanqid an'anaviy tarzda hayvonni “inson holati” – ya'ni inson hayoti, tuyg'ulari va axloqining oynasi sifatida ko'rib kelgan.

So'nggi o'n yilliklarda esa antropotsentrik qarashni qayta ko'rib chiqishga intiluvchi yangi ilmiy yo'nalish paydo bo'ldi. Ayniqsa, amerikalik tadqiqotchi Aaron Moe'ning “Zoopoetics: Animals and the Making of Poetry” (2013) [9] asari nashr etilgach, “zoopoetics”

atamasi ommalasha boshladi. A.Moe hayvonlarga faqat tasvir obyekt sifatida emas, balki she'riyat shaklining hamijodkori sifatida qarashni taklif qiladi: uning fikricha, hayvonlarning harakati va tovushlari shoirlarni yangi ritmlar va metaforalarga ilhomlantirishi mumkin, ya'ni hayvonlar ma'lum bir "she'riy agentlik"ka ega. Shu bilan birga, inson va hayvon o'rtasidagi chegaralarni qayta ko'rib chiqayotgan postgumanistik adabiy tanqid ham rivojlanmoqda. Masalan, taniqli faylasuf Jak Derrida o'zining "The animal that therefore I am" [6. 369-418-b.] esesida hayvonning insonga qaratgan nigohi qanday qilib odatiy gumanistik nuqtai nazarni izdan chiqarishini savol ostiga qo'ygan edi. Ushbu g'oyalar asosida ingliz zaban adabiyotshunoslar she'riyatni yanada e'tiborliroq o'qiy boshladilar – unda hayvonlarning "ovozini" eshitishga yoki hech bo'lmaganda hayvon tajribasining idrok etilmasligini tan olishga harakat qilmoqdalar.

Ingliz zaban adabiyotshunoslikda muhim asarlardan biri Maykl Maleyning "The Figure of the Animal in Modern and Contemporary Poetry" (2018) nomli monografiyasidir[7]. M.Maley oldin tilga olingan shoirlar – Meriann Mur, Elizabet Bishop, Ted Xyuz va Les Myurreyning ijodini tahlil qilib, she'riyat inson tili bilan hayvon tajribasi o'rtasidagi "ko'priq"ni qanday qurishga urinayotganini tushunishga harakat qiladi. U Jon Bergerning metaforasiga tayangan: inson va hayvon o'rtasida "tor, tubsiz chuqurlik" yotadi va shoirlar aynan shu bo'shliqni yengib o'tishga intilishadi. E.Bishopning "The Fish" yoki M.Murning "The Jerboa" kabi she'rlarini diqqat bilan tahlil qilgan M.Maley, shoirlar aynan hayvonni to'liq ifodalay olmaslik orqali maqsadga erishayotganini ko'rsatadi. Ya'ni, hayvonni tasvirlash urinishlari har doim ma'lum darajada muvaffaqiyatsiz bo'ladi, ammo aynan shu muvaffaqiyatsizlik she'riy g'alabaga aylanadi. Boshqacha aytganda, "boshqacha" – hayvoniy tajribani to'la anglab bo'lmasligi poetik ijod uchun kuchli manbaga aylanadi: til eng chekkagacha cho'ziladi, yangi metafora va shakllarni izlaydi, ammo baribir jonli mavjudot u haqdagi so'zlardan kattaroq ekanligini tan oladi. M.Maleyning fikricha, hayvonni bunday diqqat bilan kuzatishning o'zi ham axloqiy mazmunga ega – bu ekologik etosdir: shoir hayvonda "tilda ifoda etib bo'lmaydigan tirik mavjudlikni" ko'ra boshlaydi. Qizig'i shundaki, yozuvchi J.M.Kutsi bunga yaqin fikrni ilgari surgan – uning qahramoni Elizabet Kostello aytganidek, she'riyatning vazifasi – "tirik, elektron mavjudotni tilda qayta jonlantirish"dir. M.Maley va boshqa zamonaviy tadqiqotchilar, aslida, shu g'oyani rivojlantirishmoqda: she'riyat inson bilan hayvon o'rtasidagi begonalikni yengishga harakat qilishi mumkin va kerak, hatto bu to'liq anglash mumkin bo'lmasa ham.

Tahlil va natijalar. Yirik monografiyalardan tashqari, ingliz zaban animalistik she'riyati bo'yicha ayrim xususiy jihatlarga bag'ishlangan maxsus ilmiy maqolalar ham paydo bo'lmoqda. Masalan, niderlandiyalik tadqiqotchi Tirtsa Bryuggeman 2017-yilda chop etilgan "Animal Poetry and Empathy" maqolasida[5. 18-b.] hayvonlar haqidagi she'riyat qanday qilib empatiya (ya'ni boshqaning holatiga kirib borish) rivojiga xizmat qilishini o'rganadi. U zamonaviy she'rlar tahlili orqali shoirlar o'quvchini qanday qilib hayvon o'rniga qo'yishga va dunyoni hayvon nigohi bilan his etishga undashini ko'rsatadi. T.Bryuggeman psixologik empatiya nazariyalariga tayanadi va shunday xulosaga keladi: she'riy tasavvur insonda o'zidan juda farq qiladigan mavjudotlarga – masalan, qush yoki tulkiga – ham hamdardlik tuyg'usini uyg'ota oladi. Shu tariqa, animalistik she'riyat muhim axloqiy funksiyani bajaradi – u bizning "men" chegaralarimizni kengaytiradi va butun tirik mavjudotlar bilan yaqinlik tuyg'usini sezishga imkon yaratadi.

“Animalistik she’riyat” diskursining shakllanishida antologiyalar, kirish so‘zlari, esse va sharhlar ham muhim rol o‘ynaydi. Ilgari tilga olingan “Penguin Book of Animal Verse” (1965, tuzuvchi: J.Makbet)[8] va “The Faber Book of Beasts” (1997, tuzuvchi: P.Maldaun)[10] antologiyalari nafaqat ingliz tilidagi animalistik eng yaxshi she’riy namunalarni o‘rta asrlardan tortib XX asrgacha jamlagan, balki ushbu materialni muhokama qilish uchun asos yaratgan. J.Makbet o‘z kirish so‘zida “animalistik she’r” tarixini tahlil qiladi va shuni ta’kidlaydiki, qadim zamonlardan boshlab bunday she’rlar odamlar o‘z tabiati ustida fikr yuritishiga yordam bergan. U, masalan, o‘rta asr zoolirikasi asosan didaktik bo‘lganini (ya’ni hayvonlar axloqiy saboq tashuvchilari sifatida namoyon bo‘lganini), XVIII asrda esa ularning obrazi satirik yoki “neytral” (hayvon – bezak elementi) bo‘lganini ko‘rsatadi. Ammo hayvon obraziga shaxsiy hissiyot kirib kelishi – ya’ni chinakam lirik ifoda – romantiklardan boshlanadi. J.Makbetning fikricha, aynan hayvon obraziga individual hissiyotni qo‘shish – zamonaviy she’riyatning o‘ziga xos belgisi hisoblanadi. XX asrda shoir hayvon haqida endi shunchaki ramz sifatida emas, balki o‘z shaxsiy his-tuyg‘ulari, ichki javobi orqali yozadi – bu esa bunday she’rlarni chuqur lirik qiladi. Shunga qaramay, J.Makbet urg‘u qaratadi: texnika qanday bo‘lishidan qat’i nazar, muvaffaqiyatli animalistik she’riyat uchun eng muhim shart – hayvonlar dunyosini markazda saqlash, ularni ko‘zdan qochirmaslikdir. Bu nuqtai nazardan ingliz tilidagi adabiy tanqid muvozanat izlaydi: bir tomondan, hayvon she’rda o‘quvchiga ta’sir qilishi, uning tajribasida aks etishi kerak; boshqa tomondan esa – u butunlay allegoriyaga “erib” ketmasligi, ya’ni o‘z begonaligini saqlab qolishi lozim. Zamonaviy adabiy tanqidchi Maykl Maley Ted Xyuz yoki Les Myurreyning ijodi misolida ko‘rsatadiki, shoir hayvon nomidan so‘zlashi yoki uning hayotini inson tili orqali “tarjima qilishga” urinishi mumkin, biroq yakunda baribir shuni tushunadi: hayvon insoniy kategoriyalarga sig‘maydi, va aynan shu haqiqatni tan olish – insonning o‘z mohiyatini qayta ko‘rib chiqishga olib keladi.

Yuqoridagi tahlil natijalarini umumlashtirib shuni aytish mumkinki, ingliz zabon adabiyotshunoslikda animalistik she’riyatni o‘rganish bo‘yicha boy ilmiy an‘ana shakllangan. Uning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

- 1) Tarixiy qiziqish – inson obrazi hayvon timsoli orqali qanday aks etishi (masalan, masal allegoriyalaridan tortib, zamonaviy nozik psixologik parallellargacha);
- 2) Yangi zamonaviy e’tibor – hayvon obrazining mustaqil qadriyat sifatidagi o‘rni, tabiatga “ovoz berish” va o‘quvchida empatiya uyg‘otishga urinishlar;
- 3) Fanlararo yondashuvning kuchliligi – badiiy tahlilga falsafa, etika, ekologiya, zoologiya kabi sohalarni jalb qilish;
- 4) Alohida “animalistik shoirlar” ijodini tahlil qilish – masalan, Ted Xyuz yoki Meri Oliver singari shoirlarning poetikasi animalistik obrazlar atrofida qanday shakllangani.

Ingliz zabon adabiyotshunoslik an‘anasi she’riyatda hayvonlar rolini chuqur tushunishga yordam beradigan juda keng talqinlar doirasini taklif etadi – bu talqinlar matnga asoslangan ramziy yondashuvlardan tortib, zamonaviy axloqiy muammolargacha boradi.

So‘nggi yillarda rus adabiyotshunosligida ushbu mavzuda yozilgan ilmiy maqolalar ham animalistik obrazlarning badiiy-estetik rolini ochib berishga xizmat qilmoqda. Masalan, Ye.M.Shastina Elias Kanetti asarlarida hayvonlar orqali inson tabiatining tahlilini taklif qilgan[34. 200-203b.] bo‘lsa, Ye.A.Volk apokaliptik mazmundagi hikoyalarda animalistik obrazlarining mifologik ildizlarini ko‘rsatgan[16. 17b]. S.V.Kopyrulin S.A.Yesenin she’riyatida ot obrazining ma’naviy-falsafiy yukini ochib bergan[22. 107-109b], Ye.Panova esa

K.G.Paustovskiy ertaklarida hayvonlar orqali bola dunyoqarashining shakllanishini tahlil qilgan[30. 68-72b]. 2017-yilda nashr etilgan “Мир животных в мифопоэтическом ракурсе” ilmiy to‘plami[25] esa hayvon obrazlarining folklor, til, adabiyot va san’atdagi ramziy qirralarini keng qamrovli tarzda tahlil qilgan. Bularning barchasi animalistik obrazlarni zamonaviy adabiy tahlil doirasiga olib kirib, ularning ijtimoiy, estetik va ramziy funksiyalarini aniqlashga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy turkiy xalq adabiyot tadqiqotlarda, xususan, Ramil Sharafetdinovning ishida tatar adabiyotidagi ayiq, bo‘ri, it obrazlarining mifopoetik talqini o‘rganiladi. Bu obrazlar qadimiy totemizm, xalq ongidagi xavfsizlik va tabiat timsollari bilan bog‘lanib, zamonaviy adabiy kontekstda ham o‘z funksiyasini yo‘qotmaydi[33]. E.Erkin esa qozoq folkloridagi yovvoyi hayvon va qushlarning muqaddas ma‘nolarini tahlil qiladi, masalan, burgut va bo‘ri – bashorat va himoya timsollari[18].

Boshqa tomondan, rus adabiyotida ham turkiy mifopoetik obrazlar aks etganini ko‘rish mumkin. Masalan, S.Yesenin lirikasida ot obrazi nafaqat dehqon hayoti, balki butun xalq taqdiri va falsafiy mushohada vositasi sifatida aks etadi[22]. Bu turkiy va slavyan madaniyatlar o‘rtasidagi ramziy yaqinlikni ochib beradi. Shu tariqa, animalistik obrazlar bugungi kunda ham ekologik, falsafiy va madaniy kontekstda dolzarb mavzu bo‘lib qolmoqda.

O‘zbek adabiyotshunosligida, Sh.Ashurova o‘z tadqiqotida G‘arb (Ernest Seton-Tompson) va o‘zbek (Normurod Norqobilov) adabiyotida animalistik janrning shakllanishi va rivojini qiyosiy adabiyotshunoslik asosida tahlil qiladi[3]. G‘arbda hayvonlar odatda o‘z tabiiy holatida, realistik-psixologik yondashuvda tasvirlansa, N.Norqobilov o‘zbek adabiyotida hayvonni ilk bor badiiy asarning bosh qahramoni darajasiga olib chiqqan[27; 28]. Uning asarlarida hayvonlar insoniyatning tabiatga bo‘lgan zolimona munosabatiga javob beruvchi kuch sifatida gavdalanadi; masalan, “Oqbo‘yin” va “To‘g‘dagi yolg‘iz odam” asarlarida hayvonlar qasoskor obrazda tasvirlanadi.

Sh.Ashurova, shuningdek, animalistik obrazlarining tarixiy-evolyusion taraqqiyotini ko‘rsatib, Abdulla Qodiriyning “ippik” (yunoncha hippos – “ot” so‘zidan) janrni boshlab bergani, Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom”i orqali bu yo‘nalish yuksalganini ta’kidlaydi. N.Norqobilovning “Dashtu dalalarda” romanigacha bu an‘ana rivoj topib, o‘zbek adabiyotida animalistik janr mustahkam o‘rnashgani ko‘rsatiladi. G‘arb adabiyotining tarjimalari, xususan Seton-Tompson asarlarining o‘zbek adabiyotiga kirib kelishi bu jarayonga katta ta’sir ko‘rsatgan.

N.Ochilova o‘z tadqiqotida ingliz va o‘zbek nasrida ot obrazining ramziy va estetik talqinini qiyosiy adabiyotshunoslik asosida tahlil qiladi[11]. U Seton-Tompson, Anna Syuvell (“Qora go‘zallik”), Tog‘ay Murod (“Ot kishnagan oqshom”) va Turob To‘la asarlaridagi ot obrazini solishtirib, bu hayvon timsolining insoniyat tarixiy ongidagi chuqur ildizlarini ko‘rsatadi. Ot, G‘arbda axloqiy-didaktik va sadoqat timsoli (masalan, Syuvell romanida ot jamiyatdagi zo‘ravonlikka “so‘zsiz guvoh” bo‘lib xizmat qiladi), Sharqda esa ozodlik va milliy ruh ramzi sifatida talqin etiladi.

N.Ochilova, shuningdek, “ippik” janrining o‘zbek adabiyotidagi taraqqiyotini yoritib, ot obrazining eposlardan tortib zamonaviy nasrgacha bo‘lgan evolyutsiyasini kuzatadi. U ingliz adabiyotidagi mashhur hayvonlar haqidagi asarlarni o‘zbek nasridagi namunalar bilan bog‘lab, otning badiiy talqini har bir xalqning madaniy-tarixiy xotirasi va ijtimoiy tafakkurini aks ettirishini ta’kidlaydi.

Sh.Xalilovning tadqiqoti o'zbek va ingliz xalq ertaklaridagi animalistik obrazlarni qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan[12] bo'lib, u bu obrazlarning umumiy arxetipik xususiyatlari bilan birga milliy tafovutlarini ham tahlil qiladi. Hayvon va qush qiyofasidagi qahramonlar deyarli barcha ertaklarda uchraydi, chunki ular qadimiy totemistik e'tiqodlar bilan bog'liq. Masalan, o'zbek ertaklarida bo'ri ko'pincha aldangan, tentak rolida bo'lsa, ingliz ertaklarida u yovuzlik timsoli sifatida tasvirlanadi. Shuningdek, syujet va motivlar – sehrli qush, yovuz kuch ustidan g'alaba kabi elementlar har ikki adabiy an'anada mavjud, biroq ular milliy ruh va ijtimoiy qadriyatlarga ko'ra o'ziga xos rang kasb etadi.

Tadqiqot struktural-semiotik yondashuv asosida hayvon obrazlarining syujetdagi funksional rolini ochib beradi: tulki – ayyorlik, sher – podsholik, bo'ri – xavf ramzi sifatida harakat qiladi. Sh.Xalilovning xulosasiga ko'ra, bu obrazlar insoniyatning umumiy mifologik xotirasidan kelib chiqsa-da, har bir xalq ularni o'z mentaliteti va estetik qarashlariga moslab talqin qiladi. Bu esa ertak obrazlari orqali xalq dunyoqarashi va madaniyatini qiyosiy kontekstda o'rganish imkonini beradi.

N.Achilovning tadqiqoti ajdarho obrazining o'zbek adabiyotida tarixiy, mifologik va estetik talqinlarini "Ipak yo'li aspekti" doirasida o'rganadi[1]. U Sharq (Xitoydagi "Long") va G'arb (Yevropadagi "Dragon") miflaridagi ajdarho timsollarini qiyoslab, bu obrazning madaniy-mintaqaviy o'zgarishlarini tahlil qiladi. Xitoy va qadimiy turkiy tasavvurlarda ajdarho ijobiy (donolik, himoya) timsol bo'lsa, Yevropada u odatda yovuz kuch sifatida tasvirlanadi. O'zbek adabiyotida esa bu obraz ilk bor xalq ertaklarida va diniy hikoyaviy matnlarda (masalan, Rabg'uziy asarlarida) uchraydi, turli kontekstlarda esa u mo'jiza, vasvasa, najotkor yoki yovuz kuch sifatida namoyon bo'lgan.

N.Achilova Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlarida ajdarhoni syujet va majoz vositasi sifatida chuqur tahlil qilib, bu obrazning lirika, tasavvuf va tarixiy asarlardagi ko'p qatlamli mazmunini ochib beradi. Masalan, "Farhod va Shirin"da ajdar yovuzlik ustidan ezgulikning g'alabasini bildirsa, ba'zi g'azallarda u "nafs" yoki yor zulfini ifodalovchi metaforaga aylangan. Ajdarho obrazining madaniy "ko'chishi" Ipak yo'li orqali yuz bergan bo'lib, u turli xalqlarning tasavvurlarida turlicha talqin topgan. N.Achilovning xulosasiga ko'ra, ajdarho umuminsoniy ramz bo'lib, uning o'zgaruvchan talqinlari orqali madaniyatlararo muloqot va xalq tafakkuridagi evolyutsiya aks etadi.

S.Nurullaeva zamonaviy o'zbek she'riyatida mifologik obrazlarning stilizatsiyasi va metaforizatsiyasini tahlil qilib, shoirlar qadimiy timsollarni qanday yangi badiiy shakllarda talqin qilishini o'rganadi[29]. Mirtemir, Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Rauf Parfi va boshqalar ijodida Humo, Simurg', ajdarho, dev, pari kabi mifologik qahramonlar milliy va umuminsoniy ma'no yuklangan obrazlar sifatida qayta ishlangan. Tadqiqotga ko'ra, metafora orqali bu timsollar erkinlik, orzu, sadoqat yoki ichki kechinmalar ifodasiga aylangan, stilizatsiya esa she'r matniga mifologik ruh baxsh etgan.

S.Nurullaeva mifologik obrazlarning poetik funksiyalarini ham belgilaydi: ular estetik, ramziy va identifikatsion vazifalarni bajaradi. Masalan, Erkin Vohidov Afrosiyob obrazini ajdodlar ruhi sifatida talqin qilsa, A.Oripov va Sh.Rahmon she'riyatida Qorqud ota yoki Shayton kabi timsollar milliy o'zlik va psixologik holatlarni aks ettiradi. Tadqiqot xulosasiga ko'ra, mifologik obrazlarning zamonaviy she'riyatda jonlanishi adabiy yangilanishning kuchli mexanizmi bo'lib, milliy poetik merosni bugungi davr ruhiyatiga uyg'unlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

T.Akramovaning dissertatsiyasi Edgar Allan Po ijodidagi badiiy obrazlar, xususan animalistik timsollarning (masalan, “Qora mushuk” va “Qarg’a”) g’oyaviy-estetik xususiyatlarini va ularning tarjima jarayonidagi talqinlarini tahlil qiladi[2]. E.A.Poe asarlarida hayvonlar chuqur psixologik va metaforik mazmunga ega: mushuk – inson vijdoni, qarg’a – qayg’u va o’lim timsoli sifatida talqin etiladi. T.Akramova ushbu obrazlarning original matndagi ritm, atmosfera va gotik uslub orqali qanday yaratilganini tahlil qilib, ularning rus va o’zbek tarjimalarida qanday saqlanganini yoki o’zgarganini ko’rsatadi. Misol uchun, “The Raven”dagi “Nevermore” iborasi ruscha “Никогда” va o’zbekcha “Aslo” tarzida tarjima qilingan bo’lsa ham, qarg’aning mistik nidosi bilan bog’liq ayrim stilistik vositalar yo’qolgan.

Tadqiqotda tarjimonlar tomonidan qo’llangan strategiyalar (lug’aviy tarjima, badiiy interpretatsiya, funksional ekvivalentlik) tahlil qilinib, har biri qanday estetik natija bergani baholanadi. E.A.Poe asarlarida mavjud gotik obrazlarni o’zbek tilida saqlash oson emas, chunki bu obrazlar madaniy kontekstga ham bog’liq. Shunga qaramay, o’zbek tarjimonlar, E.A.Poe ijodini o’zbek adabiy muhitiga moslashtirishda mahorat ko’rsatgan. Bu jarayonda ba’zi obrazlar, xususan hayvoniy timsollar, milliy adabiyotimizda yangi ma’no kasb etgan: masalan, “qora mushuk” endi shunchaki yomon alomat emas, balki inson ichki zulmatining ramzidir.

T.Akramovaning tadqiqoti shuni ko’rsatadiki, G’arb adabiyotidagi badiiy timsollarni, jumladan hayvon obrazlarini tarjima qilish – bu nafaqat tilni, balki madaniy mazmunni ham ko’chirish demakdir. Bu orqali jahon adabiyotining hayvoniy obrazlari o’zbek adabiy kontekstiga kirib kelib, yangi qirralar kasb etmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa tariqasida aytish mumkinki, o’zbek adabiyotida animalistik obrazlar masalasi turli tarixiy bosqichlarda estetik, ramziy va falsafiy jihatlar bilan boyib borgan. Animalistik obrazlar didaktik, psixologik va falsafiy kontekstda o’z vazifasini bajargan: ot – erkinlik va sadoqat timsoli, ajdarho – ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi qarama-qarshilik belgisi, mushuk va qarg’a – inson vijdoni va ruhiy holatining badiiy aks ettiruvchisi. Qiyosiy tadqiqotlar bu obrazlarning boshqa xalqlarda qanday talqin qilinishini ko’rsatgan holda, ularning umumiy arxetipik ildizlari va milliy rang-barangligini ochib beradi. Shu orqali o’zbek adabiyoti animalistik obrazlar orqali nafaqat milliy mentalitetni, balki jahon adabiy jarayoni bilan uzviy bog’liqligini isbotlaydi. Bu timsollar milliy ruh, estetik tafakkur va ijtimoiy muammolarni badiiy ifodalashda vosita bo’lib xizmat qilmoqda. Bugungi adabiyotshunoslik esa bu timsollarni individual emas, balki tizimli, tarixiy va qiyosiy kontekstdagi yondashuv bilan chuqur tadqiq etmoqda. Shu bois, animalistik obrazlar adabiy tafakkurning uzluksiz rivojida muhim estetik hodisa sifatida o’z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Achilova Nurxon Normuxammedovna. *Ipak yo’li aspekti: O’zbek adabiyotida ajdarho obrazi talqinlari*. Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand – 2024.
2. Akramova Taxmina Kamiljonovna. *Edgar Allan Po asarlaridagi g’oyaviy-badiiy obrazlar va ularni tarjimada qayta yaratish usullari*. Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand – 2023.
3. Ashurova Shahnoza Almasovna. *Inglizabon g’arb adabiyoti va o’zbek adabiyotida animalistika janri xususiyatlari (E. Seton-Thompson va N. Norqobilov ijodi misolida)*. Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2020.
4. Auden, W.H. (1962). “Two Bestiaries.” In *The Dyer’s Hand and Other Essays*. London: Faber.

5. Bruggemann, T. (2017). *Animal Poetry and Empathy*. Humanities, 6(2), 18.
6. Derrida, Jacques, and David Wills. "The Animal That Therefore I Am (More to Follow)." *Critical Inquiry*, 28.2 (2002): 369–418.
7. Malay, Michael. *The Figure of the Animal in Modern and Contemporary Poetry*. Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2018.
8. Macbeth, George. *The Penguin Book of Animal Verse*. 1965.
9. Moe, Aaron M. *Zoopoetics: Animals and the Making of Poetry*. Lexington Books, 2013.
10. Muldoon, Paul. *The Faber Book of Beasts*. 1997.
11. O'chilova Nilufar Ulmasovna. *Inglizzabon g'arb va o'zbek nasrida ot obrazi talqini (Seton-Thompson, Anna Syuvell, Tog'ay Murod, Turob To'la asarlari asosida)*. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktor (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro – 2022.
12. Xalilova Shaxlo Jalilovna. *O'zbek va ingliz ertaklaridagi yetakchi obrazlarning qiyosiy o'rganilishi*. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktor (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Termiz – 2023.
13. Артемьева, Наталья Анатольевна. *Анималистические образы в баснях И. А. Крылова: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук*. Смоленск, 2012.
14. Аскарлова, Г., Айтбаева, А., & Курмамбаева, К. (2024). *Судьба коня и человека в современных казахских рассказах*. *Кегуен*, 83(2), 225–235.
15. Бараноўская Л.Г. *Мастацкая анімлістыка ў беларускай літаратуры другой паловы ХХ стагоддзя: аўтарэф. ... дыс. канд. філал. навук*. Мінск, 2005.
16. Волк Е. А. *Эсхатологические мотивы в рассказах Л. Петрушевской «Гигиена» и «Новые Робинзоны»*. *Classical and Contemporary Literature: Continuity and Prospects of Updating*, 2017, №7, С.17.
17. Дуктова Л. *Художественная анималистика: к вопросу определения термина*. // *Питання літературознавства*. 2010. №79. С.275–282.
18. Е. Еркин. *Священные понятия, связанные с дикими животными и птицами в казахском фольклоре*. *Кегуен*, Т. 66, №1 (2020).
19. Ж. Хошниязов. *Мифлер ҳам дастанлар: генезиси, спецификаси, дауирлик қатламлари*. Ташкент: Anorbooks, 2022. – 380 б.
20. Ж. Хошниязов. *Миллий рухий дунямыздын сағалары*. Нөкис: Қарақалпақстан, 2007.
21. Зуева Екатерина Владимировна. *Жанровое своеобразие британской анималистики второй половины ХХ века: диссертация ... кандидата филологических наук: 10.01.03*. Казань, 2018. – 154 с.
22. Копырюлин, С. В. *Анималистические образы в лирике С. А. Есенина: образ коня*. // *Молодой ученый*. 2018. №28 (214). С.107–109.
23. К. Мақсетов. *Қарақалпақ қаһарманлық дастаны "Қырқ қыз"*. Нөкис: Қарақалпақстан, 1962.
24. К. Мәмбетназаров. *Қарақалпақ ертектери ҳаққында*. Нөкис: Қарақалпақстан, 1981.
25. Мир животных в мифопоэтическом ракурсе / Отв. ред. и сост. М. В. Завьялова, Т. В. Цивьян. *Vicenza–Москва: LEGORUSSIA*, 2017. – 292 с.
26. Никитина, Елена Михайловна. *Анималистическая образность в прозе М. А. Шолохова 1920–1930-х годов (от «Донских рассказов» – к «Тихому Дону»): автореферат диссертации*. Воронеж, 2015.
27. Норқобилов Н. *Пахмоқ / Тоғдаги ёлғиз одам*. Т.: "Ўзбекистон" НМИУ, 2011.
28. Норқобилов Н. *Оқбўйин / Тоғдаги ёлғиз одам*. Т.: "Ўзбекистон" НМИУ, 2011.
29. Нуруллаева Сарвиноз Мажидовна. *Замонавий ўзбек шеърятисида мифологик образлар стилизацияси ва метафоризацияси*. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автoreферати. Самарқанд – 2022.
30. Панова Е. П. *Роль мифопоэтических представлений о животных в литературной сказке К. Паустовского*. // *Гуманитарные исследования*. 2014. №1. С.68–72.

31. Сағитов И.Т. *Қарақалпақ халқының қаҳарманлық эпосы*. Нөкис: Қарақалпақстан, 1986.
32. Словарь русского языка: В 4-х т. / АН СССР, Ин-т рус. яз.; Под ред. А. П. Евгеньевой. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Русский язык, 1981–1984. Словарь современного русского литературного языка: В 20 т. / АН СССР, Ин-т рус. яз.; Гл. ред. К. С. Горбачевич. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Рус. яз., 2002. -976с.
33. Шаряфетдинов Р. Х. *Мифопоэтические образы животного мира как отражение картины мира тюркских народов в современной татарской литературе*. // *Наука и школа*. 2024. №3. С.18–28. DOI: 10.31862/1819-463X-2024-3-18-28.
34. Шастина Е. М. «Антропологическая анималистика» Элиаса Канетти. // *Филологические науки. Вопросы теории и практики*. 2014. №3-2. С.200–203.
35. Қ. Айымбетов. *Халық даналығы*. Қарақалпақстан, 1968.
36. Қ. Мақсетов. *Қарақалпақ қаһарманлық дастаны “Қырқ қыз”*. Нөкис: Қарақалпақстан, 1962.
37. Анимализм [Электронный ресурс]. URL: <http://ru.wikipedia.org/wiki/Анимализм>.

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

**CRIMINAL-LEGAL REGULATION OF DEEPFAKES:
THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN**

Fazilov Farkhod Maratovich,
Acting Professor of the Department of Criminal Law,
Criminology and Fight Against Corruption
of Tashkent State University of Law
DSc in Law

Abstract. The article examines the criminal-legal regulation of deepfakes in Uzbekistan in a comparative perspective with foreign jurisdictions. Deepfakes — synthetic media generated by artificial intelligence — pose growing threats to privacy, reputation, democracy, and cybersecurity. The author analyzes doctrinal debates among scholars about whether to create new criminal offenses or expand existing ones, emphasizing proportionality and the balance between technological progress and protection of human rights. The study concludes that effective criminal-law policy must combine legal, technical, and educational measures, including clear definitions of harmful deepfakes, improved forensic expertise, and international cooperation in combating AI-based manipulation.

Keywords: deepfake, criminal law, Uzbekistan, artificial intelligence, cybercrime, extortion, fraud, human rights, AI regulation, international experience.

**УГОЛОВНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ДИПФЕЙКОВ:
ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА**

Фазилов Фарход Маратович,
Исполняющий обязанности профессора кафедры «Уголовное право,
криминология и противодействие коррупции» Ташкентского
государственного юридического университета,
Доктор юридических наук (DSc)

Аннотация. В статье рассматривается уголовно-правовое регулирование технологии дипфейк в Республике Узбекистан в сравнительно-правовом контексте. Дипфейки — синтетические аудио-, фото- и видеоматериалы, созданные с помощью искусственного интеллекта, — представляют растущую угрозу частной жизни, репутации, демократическим процессам и кибербезопасности. Особое внимание уделено законодательным новациям Узбекистана, предусматривающим ответственность за вымогательство и мошенничество с применением технологий дипфейка, а также инициативам по обязательной маркировке ИИ-контента и защите биометрических данных. В статье приведены научные позиции о необходимости введения специальных уголовно-правовых норм либо квалифицирующих признаков, обеспечивающих баланс между развитием технологий и защитой прав граждан. Сделан вывод, что эффективная уголовно-правовая политика требует сочетания правовых, технических и просветительских мер: четкого определения вредоносных дипфейков, совершенствования экспертизы и международного сотрудничества в противодействии злоупотреблениям искусственным интеллектом.

Ключевые слова: дипфейк, уголовное право, Узбекистан, искусственный интеллект, киберпреступность, вымогательство, мошенничество, права человека, регулирование ИИ, международный опыт.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N70>

Введение. Дипфейки (от англ. *deepfakes*) – это синтетические аудио-, фото- или видеоматериалы, создаваемые с помощью искусственного интеллекта, на которых реальные люди кажутся говорящими или делающими то, чего они никогда не говорили и не делали [1, с.107]. Развитие этой технологии резко обострило проблему дезинформации и злоупотреблений в цифровой среде. Дипфейки способны нанести ущерб частной жизни, репутации, демократии и безопасности, поскольку они **искажают реальность** и легко распространяются в интернете. Уже сейчас фиксируются случаи использования дипфейков в преступных целях – от мошенничества и вымогательства до политических провокаций и кибербуллинга [2, с.97-105].

Стремительное совершенствование алгоритмов *deepfake* и доступность приложений для их создания ставят перед правовой системой сложные задачи [3]. С одной стороны, возникает необходимость **адекватного правового регулирования** для защиты прав граждан и предотвращения злоупотреблений. С другой – важно не перегородить путь полезным применениям технологии (в образовании, киноиндустрии и др.) и соблюсти баланс с правом на свободу выражения. В настоящей статье рассматриваются подходы различных стран к уголовно-правовому регулированию дипфейков, состояние законодательства Узбекистана, практика применения норм, а также мнения ученых и предложения по совершенствованию законодательства.

Текущее состояние законодательства. В Республике Узбекистан еще недавно **не существовало норм**, прямо упоминающих технологию дипфейк. Тем не менее, определенные деяния, совершаемые с использованием дипфейков, уже попадали под действие законодательства:

Уголовный кодекс содержит главы о киберпреступлениях и информационной безопасности. В 2020 году УК был дополнен ст.244.6 «Распространение ложной информации». Таким образом, **распространение клеветнического дипфейка** может квалифицироваться по ст.244.6 УК (после предварительного административного взыскания). Кроме того, в УК Узбекистана сохранилась статья **«Клевета» (ст.139)** – за заведомо ложные порочащие сведения (если они не подпадают под 244.6). Эта статья теоретически применима к дипфейкам, но необходимо доказать факт ложности сведений и их распространение именно обвиняемым лицом, что затруднительно при анонимном вбросе.

Право на изображение. Статья 99 Гражданского кодекса гласит, что изображение гражданина не может быть использовано без его согласия, и нарушитель обязан возместить ущерб. Это означает, что **жертва дипфейка** (чье лицо незаконно использовано в видео/фото) имеет право на гражданско-правовую защиту – требовать удалить контент и взыскать компенсацию морального вреда. Однако ст.99 ГК говорит только о *визуальном изображении*; в ней не упомянут **голос** или иные биометрические данные. Поэтому защита от **аудиодипфейков** (подделки голоса) пока пробел: голос формально не охраняется как образ. Специалисты указывают на необходимость расширить ст.99, закрепив охрану голоса и прочих биометрических параметров человека.

Закон «Об информатизации». В этой сфере узбекское законодательство активно развивается. Пока в нем нет специальных норм о маркировке дипфейков, однако есть

статья 12.1, обязывающая владельцев интернет-ресурсов **не допускать размещения заведомо ложной информации**. Нарушение влечет административный штраф. Эксперты предлагают дополнить Закон «Об информатизации» новой ст.121.1, которая **введет обязанность маркировать дипфейк-контент** при его публикации онлайн. Такая поправка сделала бы незаконным распространение *deepfake*-материалов без заметки об их искусственности, что повысило бы ответственность источников информации.

Таким образом, **законодательство Узбекистана не содержит прямого запрета или наказания за дипфейки**. Однако общие нормы (о ложной информации, клевете, мошенничестве, вымогательстве) могут применяться в конкретных случаях злоупотреблений дипфейком. Практика, правда, пока скудна – известны лишь единичные эпизоды.

Новые изменения и инициативы (2023–2024)

В конце 2023 года в Узбекистане произошел **значимый сдвиг** в отношении уголовно-правового регулирования дипфейков. Рост киберпреступлений, связанных с подделкой личности, подтолкнул власти к ужесточению закона:

Поправки в УК, принятые в ноябре 2023 г. 27 ноября 2023 года Сенат Олий Мажлиса одобрил законопроект о внесении изменений в Уголовный кодекс, предусматривающий **наказание за создание и распространение дезинформации, в частности дипфейков** [4]. Было отмечено, что в стране учащаются случаи рассылки вредоносных программ и захвата аккаунтов для вымогательства, а также **подделки фотографий, голоса и иных биометрических данных лиц посредством специальных программ**. Новым законом введена ответственность за такие действия. В частности, внесено изменение в **статью 166 УК (вымогательство)**: теперь прямо наказуемо вымогательство, сопряженное с угрозой распространения клеветнической информации. Эта мера направлена на защиту граждан от **шантажистов, использующих дипфейки**.

Ужесточение за изготовление дипфейков. Еще 25 октября 2023 г. Сенат рассмотрел законопроект об усилении наказания за изготовление дипфейков и фальсификацию фото с помощью программ. По данным Сената, все чаще появляются дипфейки с известными личностями, злоумышленники требуют деньги за «нераспространение» таких видео, участились блокировки телефонов и соцсетей с целью выкупа. Законопроект предусматривал как раз поправки к ст.166 (вымогательство) и ст.168 (мошенничество), чтобы учесть новые способы преступлений. После одобрения поправок Сенатом и подписания закона президентом (в начале 2024 г.), **ответственность за кибервымогательства и мошенничество с применением дипфейков значительно повышена**.

Административные меры. Одновременно усилена административная ответственность за распространение фейков. Еще в 2020 г. КоАО дополнили ст.202.2 (распространение ложной информации). В частности, обсуждается обязанность помечать в соцсетях видео/аудио, которые были изменены нейросетью. Если эта мера будет реализована, Узбекистан станет одной из первых стран региона, установившей **обязательную маркировку дипфейков на законодательном уровне**.

Государственная программа и стратегия. В президентском указе от 21.02.2024 г. (Государственная программа по реализации Стратегии «Узбекистан-2030») прямо упомянуто внедрение современных биометрических систем защиты данных и **противодействие мошенничеству в банковской сфере**. Это косвенно связано с задачей бороться с дипфейками, поскольку последние все чаще применяются в **финансовых махинациях** (подделка голоса директора для перевода денег и пр.). Факт включения этих задач в стратегическую программу говорит о высоком приоритете проблемы. Кроме того, Узбекистан в марте 2024 г. поддержал резолюцию ГА ООН 78/265 об ответственном использовании ИИ, демонстрируя политическую волю участвовать в международных усилиях по регулированию ИИ, включая дипфейки.

Будущие шаги. На экспертном уровне выдвигаются предложения, актуальные для совершенствования законодательства. Первый – выделить отдельную главу в УК, объединяющую все преступления с применением технологий глубокого синтеза. Второй (предпочтительный) – **ввести отдельный квалифицирующий признак** в соответствующие статьи УК. Отдельно подчеркивается целесообразность *не требовать для дипфейков административной преюдиции* (предварительного штрафа), а наказывать сразу, учитывая высокую общественную опасность таких деяний. Кроме того, узбекские специалисты считают нужным закрепить **право на голос** в ГК (для защиты от голосовых дипфейков) и прописать обязанность **маркировки дипфейков** в интернете на законодательном уровне. Эти предложения, вероятно, найдут отражение в новых законопроектах. Также обсуждается подготовка **Закона о регулировании искусственного интеллекта**, который установит принципы использования ИИ и распределит ответственность госорганов за надзор в этой сфере. В его рамках, возможно, будут заложены и основы обращения с дипфейк-технологией [5].

Правоприменительная практика и проблемы

Несмотря на постепенное появление законов, **практических дел по дипфейкам пока немного**, и они раскрывают сложность привлечения виновных к ответственности:

Мошенничество и кражи. Одним из первых широко известных инцидентов был случай **в Великобритании (2019)**, когда директор компании перевел €220 тыс. мошенникам после звонка с *аудиодипфейком* голоса его начальника. Преступление было квалифицировано как обычное мошенничество, но выявить исполнителей оказалось крайне сложно – атака шла из-за рубежа, и ущерб не был возмещен. В **Германии (2020)** схожая схема с поддельным голосом привела к хищению €35 тыс.; там следствие также шло по статье о мошенничестве. В **России** зафиксировано несколько случаев: в 2019 г. некий злоумышленник с помощью аудиодипфейка представился руководителем и убедил подчиненного осуществить крупный банковский перевод – ущерб составил более \$200 тыс.. В декабре 2023 г. концертный директор известного певца два дня думал, что переписывается с артистом в Telegram (получая от него даже короткие *deepfake*-видео); в итоге выяснилось, что это мошенник пытался похитить \$10 000, мастерски имитируя образ звезды. Эти кейсы показывают, что **дипфейки стали новым инструментом дистанционного мошенничества**, против которого традиционные методы безопасности (например, голосовое подтверждение) бессильны. Правоохранителям приходится **разрабатывать криминалистические методы** распознавания дипфейков и доказывания обмана. Основная проблема – идентификация

преступника: технологии позволяют действовать анонимно и из любого уголка мира, усложняя расследование и международное сотрудничество.

Вымогательство и шантаж. Злоумышленники используют дипфейки для **шантажирования жертв**, угрожая опубликовать компрометирующие поддельные материалы. В Узбекистане, как сообщают власти, мошенники все чаще требуют у граждан деньги за «неразмещение» фальшивых фото и видео с ними. Аналогично, в 2021 г. в США мать одной из школьниц создала дипфейки обнаженных и пьющих девушек – соперниц своей дочери по группе чирлидинга – и разслала их тренеру с явной целью дискредитировать девочек. Этот случай привлек внимание к отсутствию строгих законов: женщине предъявили лишь обвинения в киберпреследовании, так как прямой статьи за такое деяние не было. Сейчас в ряде штатов подобные действия уже квалифицируются как уголовное преследование с использованием образа лица без согласия (например, в Нью-Йорке по закону Hinchey это преступление). В России известны случаи увольнения сотрудников по «скандальным видео», которые затем оспаривались в суде со ссылкой на то, что **записи были сфальсифицированы** (подмена изображения и звука). Техническая экспертиза подтвердила монтаж, и увольнения признавались незаконными. Это показывает потенциал дипфейков для **репутационного шантажа**: человека можно скомпрометировать поддельным роликом «аморального поведения» и поставить ультиматум – либо уйдешь с должности/заплатишь, либо видео в сети. Для правоохранителей в таких ситуациях ключевой вызов – **быстро отличить фальшивку от реальной записи**, что требует цифровой экспертизы. Пока эксперты отмечают: если дипфейки первого поколения детектировались со 100% точностью, то современные – лишь в 15–30% случаев. Криминалисты по всему миру разрабатывают новые методики поиска артефактов подделки, но гонка вооружений между ИИ-генерацией и ИИ-детекцией продолжается.

Политические провокации. В марте 2022 г. во время военных действий появилось дипфейк-видео Президента Украины, призывающее солдат сдаться – его быстро разоблачили, но само событие продемонстрировало опасность подобных вбросов. Дипфейки в политике могут быть использованы для **дезинформации избирателей** (например, ложное высказывание кандидата) или для подрыва доверия к лидерам. В США подобного прямых уголовных дел пока не было – скорее, применяются превентивные меры (спецслужбы мониторят соцсети на предмет дипфейков, а законы штатов, как в Техасе и Калифорнии, уже запрещают такие акции перед выборами). В других странах – например, Бразилии, Индонезии – имели место волны фейковых видео с заявлениями чиновников, которые пресекались через опровержения и блокировки, но не через суд. *Проблема правоприменения* здесь в том, что **граница между политической сатирой и дезинформацией размыта**. Суду нужно доказать умысел исказить факты и причинить вред. Кроме того, если дипфейк изготовлен за рубежом, привлечь автора практически невозможно. Поэтому многие юрисдикции (например, ЕС) уповают больше на **ответственность платформ**: обязать соцсети удалять заведомо ложные медиа и помечать подозрительный контент. Но платформы пока действуют добровольно согласно своим политикам – большинство крупных сетей **запретили дипфейки** на своих ресурсах правилами сообщества, но мониторинг неидеален.

Доказательства в суде. Отдельный практический аспект – **использование дипфейков для фальсификации доказательств.** В уголовных расследованиях и судах все чаще полагаются на видео- и аудиозаписи (записи с камер, прослушки и т.п.). Появление технологии *deepfake* ставит под сомнение **достоверность цифровых доказательств.** В Узбекистане, к примеру, адвокаты уже указывают, что видео, представленные стороной обвинения, **могут быть изменены нейросетью**, и требуют обязательной экспертизы. Судебные экспертизы (фоноскопические, видеотехнические) теперь должны включать проверку на признаки ИИ-подмены. Пока нет стандартизированной методики выявления дипфейков в судебном порядке, что признается проблемой – специалисты призывают разработать надежные судебно-экспертные алгоритмы выявления дипфейков. Без этого есть риск, что виновные будут отрицать свою вину, заявляя «это не я, это дипфейк», или наоборот, жертвы подделок не смогут доказать факт монтажа. Таким образом, системе правосудия тоже приходится адаптироваться: возможно, появится **реестр или цифровая подпись видео** при их сборе в качестве доказательств, или особый протокол проверки.

Основные проблемы правоприменения при дипфейках можно обобщить так:

Анонимность. Найти автора дипфейка крайне трудно: он может действовать через сети VPN, публиковать на зарубежных платформах, использовать криптовалюты. Международное право пока не имеет механизма выдачи лиц за «цифровые преступления», если они не наносят прямого экономического ущерба.

Экспертиза. Требуется доказать, что данный контент – именно подделка, и что обвиняемый знал об этом и имел умысел навредить. Без экспертизы, подтверждающей *deepfake*-синтез, суд может счесть видео настоящим. Но и сама экспертиза может быть оспорена стороной защиты как недостоверная, учитывая совершенство современных ИИ.

Юрисдикция. Контент распространяется мгновенно по всему миру, поэтому даже если в одной стране дипфейк запрещен, его могут залить на сервер за рубежом. Возникает вопрос экстерриториального применения законов. Например, сингапурский запрет дипфейков во время выборов бессилен против публикации на иностранном сайте, доступном сингапурским избирателям (власти могут лишь заблокировать ресурс целиком).

Баланс с правами. Правоохранителям нужно действовать так, чтобы не ограничить законные формы творчества и слова. Не каждый дипфейк – преступление: есть пародии, фан-видео, учебные проекты. Задача – четко отличить **злонамеренные дипфейки** (*harmful deepfakes*) от **безобидных**. Критерии пока размыты, что создает риск либо избыточного преследования (цензура), либо наоборот – ухода виновных от ответственности, прикрывающихся «шуткой».

Практика по дипфейкам только начинает складываться, поэтому каждый новый случай – тест для системы. От ее гибкости и оснащенности (наличия экспертов, технологий детекции) зависит успех применения даже хороших законов. Международное сотрудничество, обмен опытом, возможно, выработка **глобальных стандартов** (как предложено в резолюции ООН 2024 г.) помогут преодолеть часть этих трудностей.

Мнения ученых и дискуссия о мерах ответственности

В научных и экспертных кругах идет **активная полемика** о том, как лучше регулировать дипфейки в уголовно-правовом поле. Ниже выделены основные подходы и предложения, озвученные в литературе разными авторами:

1. Необходимость новых уголовных норм. Многие исследователи утверждают, что существующие составы преступлений **не достаточны** для охвата специфического вреда от дипфейков. Так, американские профессора Даниэль Ситрон и Роберт Чесни в своей влиятельной работе (2019) подчеркнули, что дипфейки порождают *новые формы злоупотреблений*, в том числе шантаж, политическое вмешательство и «подрывают саму реальность», поэтому требуется пересмотр законов. Они рекомендовали комбинацию мер: **введение уголовных наказаний, гражданской ответственности и регулятивных запретов** для сдерживания угрозы. В частности, Ситрон предлагает криминализировать **распространение интимных дипфейков** как форму сексуального насилия над личностью (digital sexual abuse), поскольку жертвы испытывают сравнимый с реальным насилием ущерб. Аналогично, британские правоведы отмечают, что дипфейки-пародии можно пресечь законами о клевете лишь *после* нанесения вреда, а нужно **превентивное наказание** именно за создание обманки без пометки – иначе высок риск для публичного доверия. Поэтому они поддержали французскую реформу ст.226-8 УК как модель для Европы: наказание за сам факт несанкционированной подделки лица без обозначения искусственности.

2. Осторожный подход, опора на существующие законы. Другие эксперты предупреждают против чрезмерной криминализации. Например, Electronic Frontier Foundation (EFF) в США выступила с позицией: **«Не надо спешить с регулированием дипфейков»**, чтобы не навредить свободе слова и инновациям. Они указывают, что уже есть статьи за мошенничество, вымогательство, распространение порнографии – и их можно применять к ситуациям с дипфейками. Представители этого лагеря предлагают сосредоточиться на **улучшении технических средств обнаружения дипфейков** и на самоорганизации индустрии (кодексы поведения для соцсетей, добровольные метки на контенте). Известный кейс – когда в 2020 г. Facebook и Microsoft спонсировали *Deepfake Detection Challenge* и открыли датасет дипфейков для исследователей. Такой путь, по мнению скептиков уголовных санкций, эффективнее, чем введение новых норм, которые трудно применять. В российской литературе аналогичную мысль высказывают Ефремова М.А. и Русскевич Е.А.: **нет достаточных социально-правовых оснований криминализовать любые действия с дипфейками**, ведь технология может использоваться и в позитивных целях. Они пишут, что проблема дипфейков «не имеет сугубо правового решения» – требуются комплексные меры организационного и технологического характера. Авторы предлагают ограничиться *минимальными изменениями* в УК – ввести лишь квалифицирующий признак, не плодя новые составы. Такой подход позволяет наказать злоумышленников, не создавая риск уголовного преследования, скажем, для создателей развлекательных дипфейков на YouTube. Кроме того, оппоненты чрезмерных новелл указывают на **сложности доказательства и правоприменения**, описанные выше: мол, бесполезно вводить строгий закон, если его нельзя эффективно применять.

3. Компромиссные решения: маркировка и отягчающие обстоятельства. Многие специалисты считают оптимальным балансирующим решением –

обязательная маркировка дипфейков. Эту идею поддерживают и на Западе, и в Азии. Например, В. Виноградов и Д. Кузнецова по итогам анализа США, Китая и Сингапура заключили, что **ключевой мерой** должна стать **обязательная пометка всех видов дипфейк-контента**. Маркировка «создано с помощью ИИ» или специальный видимый знак позволяют зрителю сразу усомниться в реальности картинки. Если же автор не пометил – это уже основание для ответственности (административной или уголовной при тяжких последствиях). Такой подход предлагается реализовать и в Узбекистане: включить требование о маркировке в закон, регулирующий интернет. Помимо этого, компромисс – **признать использование дипфейка отягчающим обстоятельством** во всех преступлениях против личности и порядка. Это повысит наказание для преступников, не запрещая саму технологию. Ученые отмечают, что именно так когда-то поступали с компьютерными преступлениями – сначала добавляли квалифицирующий признак «с использованием ЭВМ» к существующим статьям, прежде чем выделять их в отдельные составы.

4. Защита прав потерпевших и новые составы. Отдельное направление дискуссии – нужно ли вводить **специальные составы преступлений**, защищающие жертв дипфейков. Например, ряд юристов предлагают уголовно наказуемым сделать **незаконное использование чужой личности** (образа) в киберпространстве. В США обсуждалась идея федеральной статьи «*Digital Impersonation*», но пока ее заменяют частные иски (в некоторых штатах признается деликтом неправомерное использование лица). В Узбекистане и РФ звучат предложения ввести в УК состав вроде «**распространение цифровой подделки, порочащей честь или нарушающей права граждан**» – который охватывал бы самые грубые случаи дипфейков, не попадающие под клевету (например, явный монтаж без ложных фактов, но унижающий достоинство). Также предлагается **прямо запретить дипфейки в политической агитации** – внести изменения в избирательное законодательство (в РФ, например, рекомендовано дополнить закон о выборах президента и Думы запретом использования дипфейков в агитационных материалах). Это превратит создание и распространение дипфейков в контексте выборов в правонарушение, даже если оно не подпадает под уголовную статью – по крайней мере, позволит аннулировать такую агитацию и штрафовать виновных. В целом, сторонники новых составов говорят о **пробелах**: традиционные статьи о клевете и порнографии часто требуют, чтобы материал был *реальным* (фото/видео с изображением лица обычно понималось как реальное изображение). Дипфейк же – парадокс, *нереальное изображение реального лица*. Закон этого раньше не знал. Значит, надо прямо прописать, что **воспроизведение образа лица без согласия** (пусть даже искусственное) – противоправно и карается.

5. Международная и междисциплинарная перспектива. Ученые также обсуждают, что эффективная борьба с дипфейками требует **международного сотрудничества**. Предлагаются инициативы вроде **международного договора** о предотвращении дезинформации с ИИ, обмен «цифровыми отпечатками» известных дипфейков между странами, создание глобальной базы данных дипфейк-контента для облегчения идентификации. В сфере национальной безопасности звучат идеи относиться к распространению разрушительных дипфейков как к **акту информационной войны**, что могло бы подпадать под компетенцию Совбеза ООН. Хотя

пока это теоретические предложения, они подчеркивают серьезность проблемы: бесконтрольные дипфейки могут дестабилизировать целые общества, посеять хаос на биржах (поддельные заявления глав центробанков), спровоцировать конфликты. Поэтому наряду с юристами работают и технические специалисты – например, разрабатываются системы **цифровой «водяной марки»** для фото/видео, создаваемых ИИ, чтобы впоследствии отслеживать источник. Юристы предлагают обязать производителей алгоритмов внедрять такие маркировщики.

Зарубежная наука сходится во мнении, что **уголовное право должно адаптироваться к вызовам дипфейков**, но не сходится в методах. Одни требуют **новых законов и строгих наказаний**, видя в дипфейках угрозу основам общества. Другие призывают к **осторожности**, опираясь на уже имеющиеся механизмы и не желая ограничивать свободы. Третьи ищут **«золотую середину»** – маркировать контент, наказывать злоумышленников тяжелей, но не запрещать саму технологию, которая может служить и благим целям.

Правовые риски использования дипфейков в различных сферах

Завершая анализ, следует акцентировать **особые риски**, которые несут дипфейки в отдельных областях – киберпреступность, политика и частная жизнь – и как право пытается им противостоять:

Киберпреступления и финансовые махинации. Дипфейк превратился в **инструмент социального инжиниринга**: мошенники имитируют голос или лицо доверенного лица, чтобы обмануть жертву (пример с переводом денег по поддельному звонку – не единичный). Использование дипфейков в дистанционном банковском обслуживании прогнозируется как новая волна преступности. Кроме хищений, возможны **«глубокие фишинговые атаки»** – когда видеообращение от имени директора компании просит сотрудников раскрыть пароли или данные. Важно **международное сотрудничество** (инструменты вроде Будапештской конвенции о киберпреступности) и обмен информацией о используемых ИИ-алгоритмах. Для компаний же риски финансовые (средняя потеря от дипфейков у бизнеса – ~\$450k), поэтому вводятся **комплаенс-стратегии**: обучение сотрудников не доверять даже видеозвонкам без проверки, использование кодовых слов, внедрение систем детекции голосовых подделок. Прогрессивный шаг – признание дипфейк-махинаций угрозой критической инфраструктуре, что может привести к **квалификации таких действий как кибертерроризм**, с более строгими санкциями.

Политика и демократия. Риски в этой сфере – **влияние на общественное мнение** путем ложных высказываний от лица политиков, фальшивые видео с инцидентами (например, «преступление» кандидата на видео, которого не было) и даже провокации международного масштаба (дипфейк лидера, объявляющего войну). Опасность для **демократических институтов** колоссальна: выборы могут быть искажены, доверие к СМИ и официальным заявлениям подорвано (эффект «ничему нельзя верить»). Правовые меры, наблюдаемые в мире: **запрет дипфейков в агитации за определенный период до выборов**, требование к партиям и кандидатам верифицировать свой контент [6, с.87-103]. Также – наделение избирательных комиссий особыми полномочиями оперативно опровергать или блокировать выявленные дипфейки (например, в Франции суд по требованию кандидата может за 48 часов

остановить распространение заведомо ложной информации в период выборов – закон 2018 г. «о борьбе с манипуляцией информацией»). Риски национальной безопасности заставляют привлекать **спецслужбы**: в США угрозы дипфейков признаны на слушаниях Конгресса 2019 г. реальной угрозой обществу, ФБР периодически выпускает предупреждения об активизации «шифровальщиков и дипфейков» в дезинформационных кампаниях. Законодательно в будущем возможно введение **уголовной ответственности за создание дипфейка, угрожающего госбезопасности** – по аналогии со шпионажем или государственной изменой, если будет доказано намерение дестабилизировать ситуацию. Пока же акцент на **быстром удалении**: законы вроде британского Online Safety Act и европейского DSA требуют, чтобы платформы незамедлительно снимали опасный контент (в т.ч. дипфейки) по указанию властей. Это не столько уголовное право, сколько **регуляторный механизм**, но он снижает риск широкой вирусности фейка. Для Узбекистана этот аспект тоже актуален: защита выборов и информационной стабильности – приоритет, поэтому инициатива по запрету дипфейков в агитации, упомянутая выше, крайне важна.

Частная жизнь и права граждан. Здесь главные риски – **ущерб репутации, честь, достоинству**, а также **сексуализированное насилие** в цифровой форме. Примеры порномести с дипфейками (подделка лица бывшей партнерши на порно-видео) уже фиксировались на Западе, и жертвы испытывали серьезные психологические травмы, хотя формально изнасилования не было. Дипфейки могут стать орудием **домашнего насилия** (угроза «слить» фейковое интим-видео, чтобы контролировать человека) – такие кейсы описаны в отчете британского правительства, где отмечено, что женские лица непропорционально часто становятся мишенью дипфейков сексуального характера. Правовой риск – **недостаточная защита интимной сферы**: законы о порнографии требуют обычно реального изображения, а дипфейки юридически «не реальны». Ответом стала криминализация «**порнографии, созданной без согласия с использованием изображения лица**» – как во Франции, Корее, ряде штатов США. Узбекистан также может в будущем уточнить ст.130 УК (изготовление и распространение порнографии) и ст.131 (совращение несовершеннолетних) – включив туда ответственность за дипфейк-порно. Еще один риск – **нарушение права на собственное изображение и голос**: человек теряет контроль над своим образом, который могут использовать в рекламе, мемах, мошенничестве. Это посягательство на *идентичность личности*. Многие страны, как мы видели, расширяют гражданско-правовые механизмы: например, Япония и Китай прямо закрепили охрану «*персональных образов, созданных ИИ*». Физическое лицо может требовать удаления дипфейка и компенсации. В Узбекистане в этой связи важно скорректировать ГК (ст.99), дополнив защиту биометрических данных (голос, манера речи). Пока же основная надежда жертв – статья о клевете или ст.244.6 УК (если дипфейк содержит ложные сведения, унижающие честь). Но для успеха дела придется доказать, что распространивший дипфейк **знал о его ложности** и имел цель опорочить – а это не всегда просто.

Правовые риски от дипфейков универсальны – поэтому во всех перечисленных сферах звучит единый призыв: повышать **цифровую грамотность населения** и информировать о существовании дипфейков. Знающий человек менее

склонен доверять «компромату» и не станет жертвой мгновенно. Государства включают это в стратегию: Узбекистан, например, подчеркивает значение разъяснительной работы среди граждан и обучения следователей новым компетенциям. Таким образом, наряду с юридическими барьерами, на передовую выходят **образовательные и технические меры** – они снижают риски там, где право бессильно.

Заключение. Технология дипфейк бросает беспрецедентный вызов уголовному праву, требуя от законодателей тонкого баланса между защитой граждан и свободой творчества. Международный обзор показывает, что одни страны (США, Китай, Сингапур, Франция и др.) уже выработали **специальные нормы** – будь то уголовные запреты на злонамеренные дипфейки, либо обязательные требования к прозрачности контента. Другие пока опираются на **общие составы** (мошенничество, клевета), постепенно адаптируя их к новой реальности. Республика Узбекистан, проводя сравнительно-правовой анализ зарубежного опыта, начала внедрять у себя **комплекс мер**: законодательное ужесточение наказаний за дипфейк-вымогательство, планы по маркировке ИИ-контента, укрепление правовых гарантий (охрана голоса, новые квалифицирующие признаки).

Практика применения норм против дипфейков еще формируется, но уже очевидно: **одним уголовным запретом проблему не решить**. Необходимо сочетать правовые, технические и просветительские подходы. Как верно отмечают исследователи, реальное противодействие дипфейкам предполагает:

Разработку четких критериев «вредоносного дипфейка» и их отражение в законе;

Совершенствование экспертиз и методов обнаружения подделок, создание лабораторий при МВД/МЮ;

Государственно-частное партнерство, вовлечение IT-компаний и соцсетей в борьбу (маркировка, фильтрация контента);

Обучение кадров – от следователей до судей – навыкам работы с цифровыми доказательствами и пониманию технологий;

Повышение информированности общества, чтобы каждый пользователь интернета знал о наличии дипфейков и проверял шокирующую информацию.

Уголовно-правовые механизмы, безусловно, играют ключевую роль: они дают сигнал о недопустимости определенных действий, позволяют наказать наиболее опасные формы злоупотреблений и тем самым **обеспечить превенцию**. Уже сейчас можно назвать **обязательные элементы** эффективной уголовно-правовой политики в этой сфере: **запрет порнодипфейков** (ради защиты интимной жизни), **запрет предвыборных дипфейков** (ради защиты демократии), **ответственность за дипфейк-мошенничество и вымогательство** (ради защиты собственности и безопасности граждан). Именно эти направления прослеживаются в новейших законах США, ЕС, Азии и Узбекистана.

Литература/Adabiyotlar/References:

1. Danielle K. Citron & Robert Chesney, *Deep Fakes: A Looming Challenge for Privacy, Democracy, and National Security*, 107 California Law Review 1753 (2019). Available at: https://scholarship.law.bu.edu/faculty_scholarship/640

2. Ефремова М.А., Русскевич Е.А. Дипфейк (deepfake) и уголовный закон // Вестник Казанского юридического института МВД России. 2024. Т. 15. № 2 (56). С. 97 – 105.
3. Виноградов Вадим Александрович, Кузнецова Дарья Владимировна Зарубежный опыт правового регулирования технологии «дипфейк» // Право. Журнал Высшей школы экономики. 2024. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-pravovogo-regulirovaniya-tehnologii-dipfeyk> (дата обращения: 04.10.2025).
4. Сенат принял закон, ужесточающий наказание за «дипфейки» <https://upl.uz/obshestvo/38100-news.html>
5. Расулев А. Аферы с дипфейками: в чём их опасность? // Институт законодательства и правовой политики. URL: <https://illp.uz/аферы-с-дипфейками-в-чем-их-опасность/> (дата обращения: 04.10.2025).
6. Калятин, В.О. Дипфейк как правовая проблема: новые угрозы или новые возможности? / В.О. Калятин // Закон. 2022. № 7. С. 87—103.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

FOREIGN STATES' EXPERIENCE IN HANDLING CITIZENS' APPEALS: A COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS

Zokirov Sherzod Ilxom o'gli

doctor of philosophy (PhD) on science in law

Email: sherzokirov@gmail.com

<http://orcid.org/0000-0003-2890-9120>

Abstract. This article provides a comparative legal analysis of the right of citizens to petition state authorities in foreign countries. It examines constitutional guarantees of this right in the USA, Germany, Italy, Spain, Slovenia, the Czech Republic, Poland, and Moldova. Special attention is given to Arab monarchies such as Kuwait, Bahrain, Saudi Arabia, and Jordan, where the right to petition is limited and influenced by religious and monarchical traditions. The study also highlights how, in totalitarian regimes like North Korea, the petition right functions mainly as an ideological tool, whereas in China it reflects specific features linked to modernization efforts. The author emphasizes the absence of a unified approach: in some states the right is granted only to citizens, while in others it applies to everyone. The article concludes that globalization and international legal principles increasingly contribute to the development and harmonization of the right to petition.

Keywords: right to petition, citizens' appeals, foreign countries, constitution, democracy, totalitarian regime, Arab states, China, comparative analysis, international law.

FUQAROLAR MUROJAATLARI BILAN ISHLASH BO'YICHA CHET EL DAVLATLARI TAJRIBASI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li,

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada xorijiy davlatlarda fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilish huquqining huquqiy asoslari qiyosiy tahlil qilingan. AQSH, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Sloveniya, Chexiya, Polsha, Moldova kabi demokratik davlatlar Konstitutsiyalarida bu huquqning kafolatlari yoritilgan. Shu bilan birga, arab mamlakatlari (Quvayt, Bahrayn, Saudiya Arabistoni, Iordaniya)dagi murojaat huquqi diniy va monarxik tizimlarga bog'liq ravishda cheklovlar bilan ta'minlanishi ko'rsatilgan. Maqolada Shimoliy Koreya kabi totalitar tuzumlarda murojaat huquqi faqat rasmiy siyosiy mafkura doirasida amal qilishi, Xitoyda esa bu huquqni amalga oshirishning o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Shu asosda muallif xorijiy davlatlarda murojaat huquqini tartibga solishda yagona yondashuv mavjud emasligini, ayrim hollarda huquq faqat fuqarolarga, boshqa davlatlarda esa barchaga berilganini ta'kidlaydi. Maqola globallashuv va xalqaro huquq tamoyillari murojaat huquqini rivojlantirishga ta'sir qilayotganini ham ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: murojaat huquqi, fuqarolar murojaati, xorijiy davlatlar, Konstitutsiya, demokratiya, totalitar tuzum, arab davlatlari, Xitoy, qiyosiy tahlil, xalqaro huquq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N71>

Kirish. Hozirgi kunda fuqarolarning davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga murojaat qilish huquqi demokratik jamiyatning ajralmas belgilaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Murojaatlar orqali fuqarolar o'z huquq va manfaatlarini ifoda etadilar, jamiyat hayotida faol ishtirok etadilar, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradilar. Shu boisdan, murojaat huquqi inson huquq va erkinliklari tizimida muhim o'rin tutadi.

Xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyotida murojaat huquqi turli yo'nalishlarda tartibga solingan. Ayrim mamlakatlarda u konstitutsiyaviy darajada kafolatlangan bo'lsa, boshqalarida maxsus qonunlar va qonunosti hujjatlari orqali belgilangan. Masalan, AQSH Konstitutsiyasida xalqning tinch yo'l bilan namoyish o'tkazish va hukumatdan suiiste'molliklarni bartaraf etishni talab qilish huquqi mustahkamlangan. Germaniya Asosiy Qonunining 17-moddasida esa har bir shaxsning davlat organlariga yozma so'rov va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi qayd etilgan. Shu bilan birga, Italiya, Ispaniya, Sloveniya, Chexiya, Polsha va Moldova kabi davlatlarda ham bu huquq turli shakllarda kafolatlangan.

Biroq, murojaat huquqining qonuniy tartibga solinishi barcha davlatlarda bir xil emas. Masalan, demokratik davlatlarda murojaat huquqi keng qo'llanilsa, arab mamlakatlarida bu huquq diniy qoidalar va monarxik tizimlar ta'sirida ma'lum darajada cheklangan. Quvayt va Bahrayn kabi davlatlarda fuqarolarning murojaatlari asosan yakka tartibda amalga oshirilishi mumkin, jamoaviy murojaatlar esa qonuniy ravishda tashkil etilgan tuzilmalar orqali yuborilishi talab etiladi. Saudiya Arabistonida esa murojaat huquqi asosiy qonun sifatida Qur'on va sunnat normalariga bog'lab qo'yilgan.

Shuningdek, totalitar tuzumlarga ega davlatlarda murojaat huquqi formal tarzda mavjud bo'lib, amalda siyosiy mafkura doirasida cheklab qo'yiladi. Shimoliy Koreya Konstitutsiyasida fuqarolarga shikoyat va ariza berish huquqi nazarda tutilgan bo'lsa-da, bu huquq davlat hokimiyati ustidan samarali nazoratni ta'minlamaydi. Xitoy Xalq Respublikasida esa murojaat huquqi konstitutsiyaviy jihatdan kafolatlangan bo'lib, uni amalga oshirish jarayonida so'z erkinligi va davlat organlari ustidan jamoatchilik nazoratining ayrim elementlari mavjud. Shu bilan birga, Xitoyda murojaat qilish huquqi milliy mafkura va davlat siyosati bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqiladi.

Shu jihatdan, turli davlatlar tajribasini o'rganish va ularni qiyosiy tahlil qilish, ushbu huquqning rivojlanishi hamda uning amaliy ahamiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tadqiqot xorijiy davlatlarda murojaat huquqining huquqiy asoslarini o'rganish, ularning o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash orqali umumiy tendensiyalar va istiqbollarni belgilashga xizmat qiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi – turli davlatlarda fuqarolarning murojaat huquqi qanday huquqiy asoslarda tartibga solinayotganini qiyosiy tahlil qilish, ushbu huquqning mazmun va mohiyatini ochib berish hamda xalqaro huquq tamoyillari bilan uyg'unlikda baholashdir. Shu bilan birga, tadqiqotda xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun nazariy va amaliy xulosalar shakllantirish ko'zda tutilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada xorijiy davlatlarda fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilish huquqi qiyosiy-huquqiy tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqotda tarixiy, qiyosiy-huquqiy va sistemali tahlil usullari qo'llanildi.

Asosiy manbalar sifatida AQSH, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Chexiya, Polsha, Moldova, shuningdek arab monarxiyalari (Quvayt, Bahrayn, Saudiya Arabistoni, Iordaniya), Xitoy va Shimoliy Koreya Konstitutsiyalari hamda qonunchilik hujjatlari tahlil qilindi.

Metodologiya asosan qonun normalarini taqqoslash, umumiy va farqli jihatlarni aniqlash hamda xalqaro huquq tamoyillari bilan uyg'unlikda baholashga qaratildi.

Muhokama va asosiy natijalar. Deyarli barcha zamonaviy davlatlarda fuqarolar davlat hokimiyati va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga murojaat qilish huquqiga ega. Ularning ba'zilarida bu huquq konstitutsiyaviy tarzda mustahkamlangan bo'lsa, boshqalarida qonun va qonunosti hujjatlarida belgilab qo'yilgan.

Germaniya Federativ Respublikasining 1949-yil 23-mayda qabul qilingan Asosiy Qonunining 17-moddasida "Har bir inson alohida yoki boshqa shaxslar bilan birgalikda vakolatli organlarga va xalq vakolatxonalariga yozma so'rovlar yoki shikoyatlarni taqdim etish huquqiga ega"ligi belgilangan [1].

Italiyada "Qonunchilik choralari va jamoat ehtiyojlari uchun chora ko'rishni talab qilish" to'g'risida murojaat qilish huquqi 1945-yilgi Italiya Respublikasi Konstitutsiyasining "siyosiy munosabatlar" deb nomlangan 4-bobida mustahkamlangan [2].

Ispaniya Konstitutsiyasining 29-moddasida barcha ispanlar davlat organlariga qonunda belgilangan shaklda va maqsadlarda yozma ravishda yakka tartibda va jamoaviy murojaatlar yuborish huquqiga egadir" deb belgilangan [3].

Sloveniya Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasi o'z fuqarolariga murojaat qilish huquqini kafolatlaydi, ularning qiymati iltimosnomalar (petitsiyalar), shuningdek umumiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tashabbuslarga tengdir [4].

Chexiyada murojaat qilish huquqi maxsus hujjatda – Chexiya Respublikasining 1991-yil 9-yanvardagi "Asosiy huquqlar va erkinliklar Xartiyasi"da berilgan. Ushbu Xartiyaning 18-moddasida "Iltimosnoma (petitsiya) berish huquqi kafolatlanadi; har kim alohida o'zi yoki boshqa shaxslar bilan birgalikda davlat va hududiy o'zini o'zi boshqarish organlariga jamoatchilik yoki boshqa umumdavlat manfaatlari masalalari bo'yicha so'rovlar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega"ligi qayd etilgan [5].

1997-yil 2-aprelda qabul qilingan Polsha Respublikasi Konstitutsiyasida murojaatlar – iltimosnoma (petitsiya), taklif va shikoyatlarga ajratilgan. Konstitutsiyaning 63-moddasida "Har bir inson, o'z manfaatlarini ko'zlab yoki boshqa shaxsning roziligi bilan xalq manfaati yo'lida iltimosnoma, taklif va shikoyatlarni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga, shuningdek jamoat tashkilotlari va muassasalariga o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalar munosabati bilan yuborish huquqiga ega. Iltimosnoma, takliflar va shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi qonun bilan belgilanishi" nazarda tutilgan [6].

1994-yilgi Moldova Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasi o'z fuqarolariga, shuningdek qonun bilan tuzilgan jamoalarga murojaat qilish huquqini kafolatlaydi [7]. Bundan tashqari, respublikada 1994-yil 19-iyulda qabul qilingan "Petitsiyalar berish to'g'risida"gi Qonun [8] amalda bo'lib, bu qonunning o'ziga xos jihati, har qanday ariza, taklif, shikoyat va murojaatlar – petitsiya hisoblanishidir va ushbu qoidalar Moldova Respublikasi fuqarolari, jamoalari, shuningdek, davlat hududida huquqlari poymol etilgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan qo'llanilishidir.

Milliy qonunchilikdan farqli o'laroq, bir qator monarxiya davlatlari hisoblangan arab davlatlari Konstitutsiyalarida murojaatlarga oid qoidalar o'zgacha ifodalangan. Masalan, Quvayt davlati Konstitutsiyasining 45-moddasida shunday deyilgan: "Har bir inson davlat organlariga yozma va o'z imzosi bilan murojaat qilish huquqiga ega. Faqatgina qonuniy ravishda tashkil etilgan tashkilotlar va korporativ tashkilotlar hokimiyat idoralariga jamoaviy ravishda murojaat qilish huquqiga ega" [9; B.345]. Mazkur keltirilgan normadan quyidagilarni anglash mumkin:

Birinchidan, bu davlatda yashovchi fuqarolar davlat organlariga faqatgina o‘z nomlaridan (o‘z imzolari orqali) murojaat yo‘llay oladilar. Murojaatlarni yo‘llashda vakillik nazarda tutilmagan;

Ikkinchidan, fuqarolar jamoaviy tarzda murojaatlar yo‘llay olmaydilar. Ularning bunday huquqlarini ro‘yobga chiqarish, faqatgina qonuniy ravishda tashkil etilgan tashkilotlar va korporativ tashkilotlar tomonidangina amalga oshirilishi mumkin.

Yana bir arab davlati hisoblangan Bahrayn qirolligida 2002-yilda qabul qilingan Konstitutsiyasining 29-moddasiga muvofiq, “Har qanday shaxs o‘z imzosi bilan davlat organlariga faqat yozma ravishda murojaat qilishi mumkin. Hokimiyat organlariga jamoaviy murojaatlar yuborish faqat qonuniy asoslarga ko‘ra tashkil etilgan organlar va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin” [10]. Ushbu keltirilgan qoidalardan fuqarolarning murojaat yo‘llash huquqlari cheklanganligini ko‘rish mumkin.

Shunday qilib, davlatlarning boshqaruv shaklidan qat‘i nazar, ko‘plab davlatlarning konstitutsiyalarida fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilish huquqlari kafolatlangan. Bu huquq g‘arbning rivojlangan demokratik mamlakatlarida ham, postsovet davlatlari hamda shariat normalariga asosan boshqariladigan musulmon davlatlarida ham keng tarqalgan. Bu tasodifiy emas, albatta, chunki globallashuv va xalqaro huquq turli davlatlarning huquqiy tizimlarini birlashtirishga yordam beradi.

Xalqaro huquqda mavjud prinsiplar (tamoyillar), jumladan, inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish jahon hamjamiyatining barcha mamlakatlari uchun majburiy hisoblanadi. Xorijiy davlatlar fuqarolarning muhim jamoatchilik qarorlarini qabul qilinishida ishtirok etishlari, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish, hokimiyatni suiiste‘molliklardan nazorat qilish imkonini berganligi tufayli ularning murojaat qilish huquqiga katta ahamiyat beradi.

Shu bilan birga, ushbu davlatlarning huquqiy hujjatlarida ushbu huquqni tartibga solish va tushunishga yagona yondashuv mavjud emasligini ko‘rish mumkin. Ya‘ni, ba‘zi hollarda bu huquq faqat mamlakat fuqarolariga tegishli bo‘lsa, boshqa davlatlarda esa – barchaga tegishli. Ayrim davlatlarning konstitutsiyalarida murojaatlarni faqat yozma tarzda yo‘llash mumkinligi kafolatlangan.

Totalitar siyosiy rejim hukmron bo‘lgan davlatlarda ham fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilish huquqlari mavjud. Misol uchun, qat‘iy totalitar siyosiy rejim o‘rnatilgan Shimoliy Koreya (KXDR) Konstitutsiyasining 69-moddasida fuqarolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi va hal etilishi lozim bo‘lgan shikoyat va arizalarni taqdim etish huquqiga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan [11].

Biroq rus olimi V.I.Chirkin ta‘kidlaganidek, zamonaviy totalitar sotsializm mamlakatlari konstitutsiyalarida asosiy e‘tibor inson huquqlariga emas, balki, fuqarolar huquqlariga qaratiladi. Fuqarolarga bu huquq sotsialistik davlat tomonidan beriladi [12; B.127].

Ushbu davlatda barcha harakatlarining asosini Kim Ir Sen asos solgan “chuchxe” mafkurasi va nazariyasi tashkil etadi [13]. Uning asosiy g‘oyasini – hammaning o‘z kuchiga tayanishi tashkil etadi. Bu ta‘limotning markazida mustaqillik va ongga ega bo‘lgan shaxs alohida o‘rin egallaydi [14; B.87-97].

KXDR Konstitutsiyasiga ko‘ra, ijtimoiy tuzum mehnatkash ommaning jamiyatdagi hamma narsa va har bir narsaning ustasi bo‘lgan shaxs manfaatlariga xizmat qiladi. Konstitutsiyada Ishchilar partiyasining yetakchilik roli mustahkamlab qo‘yilgan. Inson

huquqlari bo'yicha tadqiqot uyushmasi tomonidan 2014-yilda tayyorlangan hisobotda aytilishicha, mamlakatda "Shikoyat va arizalar to'g'risida"gi qonun qabul qilingan.

Unda Konstitutsiyaning tegishli moddasi (69-modda) asosida fuqarolarning shikoyat va arizalarini davlat organlariga topshirish, qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish qoidalari, ko'rib chiqish prinsiplari, ariza va shikoyatlarni tekshirish va qaror qabul qilish paytida qo'llaniladigan usullar to'g'risida normalar o'rnatilgan [15].

Bu masala, shuningdek, 1998-yil 17-iyunda Oliy Xalq Majlisining doimiy qo'mitasi tomonidan qabul qilingan 120-sonli qaror bilan ham tartibga solinadi va u hozirgacha 3-marta qayta ko'rib chiqilgan va to'ldirilgan [16; B.51].

Assotsiatsiya ma'lumotlariga ko'ra, "KXDRda mazkur qonun asosida tuzilgan shikoyat va arizalar tizimi davlat organlari va mansabdor shaxslarning ishchilar huquqlarini himoya qilish va ularni mamlakat boshqaruviga faol jalb etish ishlarini takomillashtirish va mustahkamlash bo'yicha demokratik tizim hisoblanadi" [17].

Rus olimi N.A.Yeliseyev fikriga ko'ra, KXDR Konstitutsiyasi demokratik tarzda yozilgan, ammo, aslida unda o'rnatilgan tamoyillar hamma yerda buziladi. Ya'ni, davlatda o'rnatilgan hokimiyat umumiy (total) nazorat, diktatura va terror orqali o'z mavqeyini saqlab qolishga harakat qiladi [18; B.32-33].

Buning yorqin misoli sifatida, hozirgi kunda KXDR rahbari hisoblangan Kim Chen In tomonidan o'z mamlakati fuqarolariga davlat hokimiyati organlari haqida gapirganda piching ishlatishni taqiqlashida ko'rish mumkin. Hokimiyat organlarini, uning rasmiylarini bilvosita tanqid qilish ham davlatga nisbatan dushmanlik harakatlari sifatida ko'rib chiqiladi [19].

Shunday qilib, Shimoliy Koreyaning davlat tuzilishi murojaat qilish huquqi, shuningdek, Konstitutsiyada e'lon qilingan fuqarolarning boshqa huquqlari totalitar rejimni saqlab qolish va davlat mafkurasini amalga oshirishga qaratilganligini ko'rsatadi. Totalitar tuzumga ega bo'lgan davlatda murojaat qilish huquqi demokratik mamlakatlardagi kabi bir xil mazmunda ko'rib chiqilmasligi kerak. Uning ta'minlanishi va amalga oshirilishi fuqarolarni mamlakat siyosiy hayotida ishtirok etishga jalb etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish va tiklashga emas, balki muxolifatga barham berish va demokratiyaga taqlid qilishga qaratilgan hisoblanadi.

Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) Konstitutsiyasida mustahkamlangan murojaat huquqini o'rganish alohida qiziqish uyg'otadi.

Konstitutsiyaning 41-moddasida shunday deyilgan: "Xitoy Xalq Respublikasi fuqarolari har qanday davlat organi yoki mansabdor shaxsning faoliyatini tanqid qilish va o'z takliflarini bildirishga haqlidir. Fuqarolar qonunni buzgan yoki o'z xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmagan har qanday davlat organi yoki mansabdor shaxsqa qarshi shikoyat yoki ayblov yoki oshkoralik bilan tegishli davlat organlariga murojaat qilish huquqiga ega, ammo, tuhmat yoki yolg'on ayblovlar bilan faktlarni soxtalashtirish yoki buzib ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi. Tegishli davlat organi dalillarni aniqlagandan so'ng, fuqarolarning shikoyatlari, ayblovlari va arizalarining tahliliga mas'uliyat bilan yondashishi kerak. Hech kim bunday shikoyatlar, ayblovlar yoki oshkoraliklarni bostirishga yoxud ularni ilgari surgan fuqarolarni javobgarlikka tortishga haqli emas. Har qanday davlat organi yoki mansabdor shaxs tomonidan o'z huquqlariga tajovuz qilish natijasida zarar ko'rgan fuqarolar qonuniy kompensatsiya olish huquqiga egadirlar" [20; B.209].

Boshqa davlatlar bilan taqqoslaganda shuni ta’kidlash kerakki, Xitoy Xalq Respublikasida fuqarolarning huquqlari davlat tomonidan ko’proq darajada kafolatlanadi va ularni ta’minlash shaxsga, uning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan. XXR Konstitutsiyasi o’z fuqarolariga davlat organlari va davlat xizmatchilarini adolatli tanqid qilinishi huquqini kafolatlaydi. Bunday huquq, masalan, Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (KXDR – Shimoliy Koreya)da aniq taqiqlab qo’yilgan [18; B.32-33].

Xitoy davlati, ayni paytda mamlakatni modernizatsiya qilish, jumladan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash yo’lidan bormoqda. So’nggi yillarda Xitoy Hukumati xalqning hayot sifatini yaxshilashga e’tibor qaratib kelmoqda. 2004-yilda XXR Konstitutsiyasiga “Davlat inson huquqlarini hurmat qiladi va ta’minlaydi” degan o’zgartirish kiritildi [21]. Bu o’zgartirishning mohiyati, Konstitutsiyaning 33-moddasiga kiritilgan bo’lib, unda insonning davlat tomonidan hurmat qilinishi va kafolati prinsipi belgilanganligi bilan ifodalanadi.

Bundan tashqari, Xitoy davlatida inson huquqlari sohasida 2016-2020-yillarga mo’ljallangan Davlat harakat dasturi qabul qilingan [22; B.65-75]. Bu dasturda fuqarolarning murojaat huquqlari o’z huquqlarini ifoda etish va davlat ishlarini nazorat qilishda ishtirok etish sifatida belgilab qo’yilgan. Dasturning murojaatlarga oid quyidagi o’ziga xos jihatlari mavjud. Jumladan,

- so’z erkinligiga bo’lgan huquqning to’liq ro’yobga chiqarilishi;
- fuqarolar tomonidan ularning murojaat huquqlari orqali barcha hokimiyatlar ustidan jamoatchilik nazoratini o’rnatish;
- barcha darajadagi davlat muassasalari ustidan shikoyat qilish, huquqbuzarliklarni fosh etish va ro’yxatga olish tartib-qoidalarini amalga oshirish;
- Davlat organlarining elektron pochta manzillari va ishonch telefonlarining ishlashini yaxshilash kabilar [23; B.209].

Bundan tashqari, Dasturda jamoatchilikning qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok etishini ko’zda tutilgan, bu eng muhim qonun loyihalarini ko’rib chiqishda davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, mutaxassislar va olimlar ishtirokidagi maslahatlashuvlarda namoyon bo’lishi kerakligi belgilab qo’yilgan. Shuningdek, fuqarolarning qonun ijodkorligi jarayonida tartibli ishtirokini kengaytirish, ishlab chiqilayotgan qonun loyihalari, qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan fikr va mulohazalar uchun ochiq so’rovlar mexanizmini kengaytirish yo’llari ko’rsatilgan.

Bundan ko’rinadiki, Xitoy Xalq Respublikasida murojaat qilish huquqi demokratik davlatlardagi kabi darajada kafolatlanadi. Biroq, bu huquq davlat mafkurasi bo’lgan mamlakatlarda fikr va so’z erkinligi huquqidan, huquq va erkinlik tushunchasini tushunishdan ajratilgan holda ko’rib chiqilishi mumkin emas. Ya’ni, **birinchidan**, XXR Konstitutsiyasi shaxsning emas, balki fuqaroning huquqlariga qaratilgan, bu ularning tabiiy xususiyatlarini inkor etadi; **ikkinchidan**, XXR Konstitutsiyasiga fikr erkinligi huquqi kiritilmagan, bu esa, ayrim tadqiqotchilarning fikricha, davlat fuqarolarga so’z erkinligini berish orqali davlat mafkurasiga qarshi ishlaydigan fikrlarni ifodalash uchun sanksiyalarni oldindan belgilab berilishini ko’rsatadi [24; B.89].

Inson huquq va erkinliklari, jumladan, murojaat huquqi Arab davlatlarida boshqacha tarzda himoya qilinishi va amalga oshirilishini ko’rish mumkin. Rasmiy ravishda, hozirgi paytda Arab davlatlari ligasiga a’zo bo’lgan davlatlarni shunday deb hisoblash odat tusiga kirgan. Ular hozirda 22 tani tashkil qiladi [25; B.206]. Ularning aksariyati mutlaq yoki dualistik monarxiya

davlatlari hisoblanadi. Davlat va ijtimoiy tartibotning butun tizimi, davlat hokimiyatini tashkil etish, huquq va erkinliklarni berish va himoya qilish rasmiy dinga va uning homiysi – monarxga bo'ysunadi. Muqaddas kitoblar bunday davlatlarda huquqning asosiy manbai hisoblanadi.

Murojaatlarga bo'lgan huquq 1992-yilda qabul qilingan Saudiya Arabistoni Qirolligining Asosiy nizomida belgilangan [26; B. 481-510]. Bizga ma'lumki, Saudiya Arabistoni mutlaq monarxiyaga asoslangan teokratik davlat hisoblanadi.

Ushbu hujjatning 1-moddasida Islom dini davlat dini ekanligi, Konstitutsiya esa – Muqaddas Qur'on va Muhammad (s.a.v) payg'ambarning sunnati ekanligi ta'kidlangan. 9-moddada "Saudiya jamiyatining poydevori oiladir. Uning a'zolari Islom aqidasi, uning farz bo'lgan sadoqati va qudratli Allohga, uning Payg'ambari Muhammad (s.a.v) ko'rsatmalariga va hokimiyat vakillariga itoat qilish asosida ta'lim olishlari, qonunlarni hurmat qilishlari va ularni ado etishlari, Vatanni va uning shonli tarixini sevishlari va qadrlashlari lozim"ligi nazarda tutilgan.

Asosiy nizomning 43-moddasi subyektlarga qirol yoki valiahd devoni (kanselyariyasi)ga shikoyat qilish va har bir shaxsning o'z masalasi bo'yicha davlatning rasmiy organlariga murojaat qilish huquqini beradi. Nizomga asoslanib, huquq va erkinliklar davlat tomonidan ta'minlanishi, shuningdek, fuqarolarning ta'minoti to'g'risida g'amxo'rlik qilish davlatning zimmasida ekanligini anglash mumkin.

Bu shuni ko'rsatadiki, Saudiya Arabistonida hamma narsa Islom aqidasi amal qilishni taqozo etadi, u nafaqat davlat dini, balki fuqarolarning fikrlash tarzi, qirolning o'zi ham huquqiy normalar tizimi vazifasini bajarishda unga amal qilishini ko'rsatadi.

Fikr va so'z erkinligi to'g'risida Nizomda so'z yuritilmagan va bu haqda muhokamaga o'rin ham yo'q. Nizomning 39-moddasi ommaviy axborot vositalari faoliyatini cheklab, ularni davlat qonunlariga rioya qiladigan munosib harakat qilishlariga yo'naltiradi. Mamlakatdagi asosiy qonunlar Qur'on va Sunnat bo'lgani uchun ommaviy axborot vositalari ularda belgilangan qoida va amallardan nariga o'ta olmaydi.

Nizomda fuqarolar qirolga faqat shikoyat bilan murojaat qilishlari mumkinligi belgilangan. Murojaatning bu turi faqatgina inson huquqlari buzilgan taqdirdagina qabul qilinadi. Boshqa tarafdin, fuqarolar qirolidan tashqari davlat organlariga boshqa masalalar yuzasidan murojaat qilish huquqiga egalar. Shuni unutmaslik kerakki, murojaatlarni yo'llashda davlat dinida belgilangan qoidalardan tashqariga chiqish man etiladi. Shuning uchun ham hukumatni (monarxni), davlat tizimini tanqid qilish, uni modernizatsiya qilish bo'yicha takliflar kiritish mumkin emas, balki muomaladagi fikrlarni ifodalash Islom dini normalariga zid bo'lmasligi talab etiladi.

Arab davlatlari ligasiga a'zo bo'lgan davlatlardan yana bir misol sifatida Iordaniya Hoshimiylar Qirolligi keltirish mumkin.

Ushbu davlatning 1952-yilgi Konstitutsiyasiga binoan, davlat tuzumi avloddan avlodga meros sifatida o'tuvchi monarxiyaga asoslangan parlament tizimi, davlat dini esa Islom dini ekanligi qayd etilgan.

Biroq, Konstitutsiyaning 14-moddasida, agar bu jamoat tartibiga yoki axloqqa zid bo'lmasa, din erkinligi huquqi mustahkamlangan. 15-modda agar bu jamoat tartibi va ijtimoiy axloq qoidalarini buzmasa, qonun doirasida fikr erkinligiga bo'lgan huquqni ham kafolatlaydi.

Bundan tashqari, Konstitutsiya yig'ilishlar erkinligi huquqini o'zida aks ettirgan. 17-modda esa, fuqarolarning davlat organlariga har qanday shaxsiy yoki davlat masalalarini

hal qilish huquqini o'z ichiga oladi. Biroq, bu huquqlar asosan qonunlar bilan cheklangan [27; B.143].

Masalan, so'z erkinligiga bo'lgan huquq Iordaniyaning nafaqat ochiq senzura, balki cheklovchi matbuot qonunlari, qog'oz va asbob-uskunalar yetkazib berish bo'yicha nazorat va soliqlar kabi nozik usullardan foydalanishi bilan cheklab qo'yilgan. Jurnalistlarning kasbiy etikasiga va unga amal qilishlariga katta ahamiyat beriladi. Ularga "o'z mamlakatining rivojlanishi, jahon miqyosida tinchlik jarayoni va ma'naviy qadriyatlarni tarqatish, uni taqdim etish uchun eng to'liq va to'g'ri ma'lumot yetkazish, mas'uliyatni ta'minlash, shuningdek, har kimning his-tuyg'ulari va qarashlarini toptamasliklari" vazifasi topshirilgan [28; B.86].

Yuqoridagilarga asoslanib, murojaat qilish huquqi dunyoning aksariyat mamlakatlari konstitutsiyalarida kafolatlanganligini ta'kidlash mumkin. Biroq, uning mazmuni va tushunchasi davlatda o'rnatilgan siyosiy rejimning turiga bog'liq bo'lib, fikr va so'z erkinligi huquqi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

Xulosa. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilish huquqi zamonaviy davlatchilikning ajralmas qismi hisoblanadi. U demokratik jamiyatlarda jamoatchilik nazoratini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini amalga oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq, turli mamlakatlar qonunchiligida bu huquqni tartibga solishda yagona yondashuv mavjud emas. Ayrim davlatlarda murojaat huquqi faqat fuqarolarga tegishli bo'lsa, boshqalarida barcha shaxslarga berilgan. Shuningdek, demokratik davlatlarda murojaatlar keng imkoniyatlar yaratsa, totalitar yoki diniy-mafkuraviy tizimlarda bu huquq ko'proq formal xarakterga ega bo'lib, cheklovlar bilan ta'minlanadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, murojaat huquqini amalga oshirishning samaradorligi, avvalo, uning konstitutsiyaviy kafolatlari, qonuniy asoslari va amaliy mexanizmlariga bog'liq. Xalqaro huquq tamoyillari esa, ushbu huquqni umumiy demokratik standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

O'rganilgan tajribalardan kelib chiqib, O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirishda qiyosiy tahlil muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, murojaatlarni ko'rib chiqishda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish hamda davlat organlari mas'uliyatini kuchaytirish kelgusidagi ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. https://www.1000dokumente.de/index.html?c=dokument_de&dokument=0014_gru&object=translation&st=&l=ru
2. <https://worldconstitutions.ru/?p=148> 50-модда
3. <https://worldconstitutions.ru/?p=149>
4. Конституции государств Европы: в 3 т. /под общ. ред. Л. А. Окунькова. - М. : НОРМА.Т. 3. 2001.
5. <https://czholding.ru/about-cz/konstitucija-chehii/>
6. http://www.concourt.am/armenian/legal_resources/world_constitutions/constit/poland/poland-r.htm
7. <http://www.presedinte.md/titulul2#2>
8. http://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=3264
9. Конституции государств Азии: в 3 т. / отв. ред. Т. Я. Хабриева. - М. : Норма. Т. 1 : Западная Азия. 2010. - С. 345. <https://worldconstitutions.ru/?p=91>

10. [https://en.wikisource.org/wiki/Constitution_of_the_Kingdom_of_Bahrain_\(2002\)#Article_29_\[Petition\]](https://en.wikisource.org/wiki/Constitution_of_the_Kingdom_of_Bahrain_(2002)#Article_29_[Petition])
11. <https://worldconstitutions.ru/?p=30>
12. Чиркин В.Е. Правовые системы современности: взаимовлияние, сближение и антагонизмы //Вестник Российского университета дружбы народов. Сер. Юридические науки. 2014. - N 2. - С. 127.
13. Мишин Валерий Юрьевич Особенности северокорейского национализма // Россия и АТР. 2014. №3 (85). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-severokoreyskogo-natsionalizma> (дата обращения: 18.04.2020).
14. Идеология в КНДР: возникновение, история и современный этап //Научно-аналитический журнал Обозреватель – OBSERVER. 2016. - № 11. - С. 87-97.
15. <https://www.kfausa.org/report-dprk-association-human-rights-studies/>
16. А.А.Титов. “Право граждан Российской Федерации на обращение в органы государственной власти: конституционно-правовое исследование”, дисс. кан. наук, 2018, с-51
17. <https://www.kfausa.org/report-dprk-association-human-rights-studies/>
18. Елисеев Н.А. Особенности организации власти в Северной Корее (КНДР) //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2016. - N 3-3. - С. 32-33.
19. В Северной Корее запретили с сарказмом говорить о властях //Независимая газета. 2016. 09 сентября
20. Конституции государств Азии: в 3 т. /отв. ред. Т. Я. Хабриева. - М.: Норма. Т. 3 : Дальний Восток, 2010. - С. 209. <https://asia-business.ru/law/law1/pravo/constitution/>
21. Третьяков К. Н. Некоторые особенности изменения конституции КНР // Вестник МГИМО. 2010. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-osobennosti-izmeneniya-konstitutsii-knr> (дата обращения: 18.04.2020).
22. Кафрин Е.А. Китай: модернизация в интересах человека //Проблемы Дальнего Востока. 2012. - N 4. - С. 67- 75.
23. http://russian.news.cn/importnews/2016-09/29/c_135723004.htm
24. Колмаков С.Ю. Сравнительно-правовое исследование свободы слова в России и Китае. Влияние российской правовой системы на китайскую //Сравнительная политика. 2013. - N 2. - С. 89.
25. Сюкияйнен Л.Р. Конституционный статус шариата как источника законодательства в арабских странах // Право. Журнал высшей школы экономики. 2016. - N 4. - С. 206.
26. Сапронова М.А. Конституция Королевства Саудовская Аравия / М.А. Сапронова // Конституции государств Азии: в 3 т. Т.1: Западная Азия // под ред. Т.Я. Хабриевой. - М.: Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве Российской Федерации: Норма, 2010. - С. 481-510.
27. Конституции государств Азии: в 3 т. /отв. ред. Т. Я. Хабриева. - М. : Норма. Т. 1 : Западная Азия. 2010. - С. 143.
28. Тахсин Моххамд Анис Шарадга. Анализ современных средств массовой информации Иордании //Вестник Российского университета дружбы народов. Сер. Литературоведение, журналистика. 2011. - N 3. - С. 86.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

ISSUES OF DETERMINING THE CIVIL LEGAL STATUS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN UZBEKISTAN

Rakhmonov Tolib,

Lecturer of Civil Law Department

Tashkent State University of Law

<http://orcid.org/0000-0002-1954-8514>

Abstract. This article is dedicated to the issue of determining the legal status of artificial intelligence within the framework of civil law in Uzbekistan. The author analyzes scholarly approaches to defining the concept of “artificial intelligence” and proposes a personal definition. The article discusses the classification of AI as a subject and as an object of civil law, analyzes the current approaches to this matter, and outlines their shortcomings. Additionally, the theory of the “electronic agent” is examined. In writing this article, the author relies not only on the national legislation of Uzbekistan but also on the international experience of developed countries. The conclusion emphasizes that determining the civil legal status of AI requires a comprehensive analysis, taking into account the dynamic nature of this phenomenon.

Keywords: civil legal status, artificial intelligence, subject of civil law, legal personality, object of civil law, electronic personhood, will, reason, civil liability, digital agent.

O‘ZBEKISTONDA SUN’IY INTELLEKTNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINI ANIQLASH MASALALARI

Raxmonov Tolib,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Fuqarolik huquqi kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston fuqarolik huquqida sun‘iy intellektning huquqiy maqomini aniqlash masalasiga bag‘ishlangan. Muallif tomonidan “sun‘iy intellekt” tushunchasini aniqlash bo‘yicha ilmiy yondashuvlarni tahlil qilingan hamda muallif o‘z shaxsiy ta‘rifini taklif etgan. Maqolada sun‘iy intellekt fuqarolik huquqining subyekti va obyektı sifatida tasnifi ko‘rib chiqilgan va mavjud yondashuvlar tahlil qilinib, ularning kamchiliklari ko‘rsatilgan. Shuningdek, “elektron agent” nazariyasi ham o‘rganilgan. Ushbu maqolani yozishda muallif nafaqat O‘zbekiston milliy qonunchiligiga, balki rivojlangan davlatlarning xalqaro tajribasiga ham tayangan. Xulosa sifatida sun‘iy intellektning fuqarolik huquqiy maqomini aniqlash uchun uning dinamik tabiatini inobatga olgan holda kompleks tahlil zarurligi ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar: fuqarolik huquqiy maqomi, sun‘iy intellekt, fuqarolik huquqining subyekti, huquq subyekti, fuqarolik huquqining obyektı, elektron shaxs, iroda, aql, fuqarolik javobgarligi, raqamli agent.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N72>

Introduction. Today, in the era of digitalization, the role of artificial intelligence (hereinafter referred to as AI) is increasing day by day. This phenomenon has become virtually inseparable from the modern world and is widely applied in various fields, including finance, medicine, logistics, and more. The legal field is no exception, as AI is gaining new momentum in this domain and is gradually becoming an effective tool for resolving legal issues.

However, the legal nature of AI remains unregulated not only in national legislation but also at the international level. Considering that AI controls many aspects of our lives, the issue of determining its legal status becomes particularly relevant. The lack of a unified approach to defining the legal status of AI may lead to difficulties in allocating liability for harm caused by AI, in recognizing authorship rights for works created with AI participation, and so forth. Therefore, this scientific article aims to define the civil legal status of artificial intelligence.

Definition of AI

At present, **Uzbekistan does not have a single legislative act** that defines the concept of “artificial intelligence”. This should be regarded as a normal phenomenon, since legal theory and practice require a certain amount of time to respond to such innovations and to formulate a comprehensive definition of AI. An attempt to define AI was made in the **Artificial Intelligence Technology Development Strategy until 2030**, approved by **Presidential Decree No. PP-358**. In particular, according to this Strategy, artificial intelligence is defined as *a set of technological solutions that enable the imitation of human knowledge and skills (including autonomous learning and decision-making) and allow for the achievement of results comparable to those of human intellectual activity in the performance of specific tasks* [1]. This definition indicates that AI is **not an independent legal subject**, but merely a **technological tool** capable of reproducing human cognitive functions.

It should be noted that the **European Union** was one of the first to adopt a **separate legal act** regulating legal relations involving AI. **Article 3 of the EU Artificial Intelligence Act** defines this phenomenon as *software developed using one or more of the methods and approaches listed in Annex I, and capable, in accordance with human-defined objectives, of generating outputs such as content, predictions, recommendations, or decisions, which influence the environment with which it interacts* [2]. The EU Act treats AI as an **idea generator** that functions based on **human instructions**.

Among the post-Soviet states, the **Russian Federation** formulated a definition of AI as early as **2019** in its **National Strategy for the Development of Artificial Intelligence for the Period up to 2030**, approved by **Presidential Decree No. 490**. According to this Strategy, artificial intelligence is defined as *a set of technological solutions that enable the imitation of human cognitive functions (including problem-solving without a predefined algorithm) and the achievement of results, in performing specific tasks, that are comparable to or exceed the results of human intellectual activity* [3].

The analysis of the definitions of artificial intelligence found in the aforementioned regulatory acts shows that **artificial intelligence is not regarded as a legal subject**, but rather as **a set of technological solutions that imitate human cognitive functions**, including the **generation of new ideas**.

A number of scholars and experts have also proposed their own definitions of artificial intelligence. For example, **Alex Andrew** defines AI as *a computational machine that exhibits “intelligent” behavior* [4].

D.V. Smolin believes that an intellectual system is one that is capable of *purposeful behavior, adapting not only its operational parameters but also its mode of behavior based on the state of informational inputs, with behavior depending not only on current input states but also on the system’s previous states* [5].

Notably, **Elaine Rich** and **Kevin Knight** consider artificial intelligence to be a scientific discipline. In their view, AI is *the science of how to make computers do things that, for now, humans do better* [6]. It should be acknowledged, however, that this definition is overly general and does not clearly convey the **essence of the phenomenon**.

AI expert **Cole Stryker** defines artificial intelligence as *a technology that enables computers and machines to imitate human learning, understanding, problem-solving, decision-making, creativity, and autonomy* [7].

In summary, we can conclude that in a general sense, **artificial intelligence is understood as a technology, software, or a set of technological solutions capable of imitating human cognitive functions, including problem-solving, thinking, decision-making, and so on.**

AI as a Subject of Civil Law?

Traditionally, civil law theory distinguishes three main categories of legal subjects:

- a. **Natural persons** (citizens, stateless persons, foreign nationals);
- b. **Legal entities** (commercial and non-commercial organizations);
- c. **The state.**

To be a subject of civil legal relations implies the presence of **civil legal personality**. Renowned civil law scholar **E.A. Sukhanov** defines civil legal personality as *the socio-legal capacity of a subject to participate in civil legal relations* [8]. The key elements of legal personality are **legal capacity** and **capacity to act** (active legal capacity), without which one cannot become a full-fledged subject of civil law relations.

According to **Article 17 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan** (hereinafter – CC), legal capacity is defined as *the ability of a person to have civil rights and bear civil obligations*. Legal capacity arises at the **moment of birth** and is terminated upon **death** [9]. The law recognizes legal capacity for all individuals. In the case of a legal entity, the process differs slightly—**legal capacity and capacity to act arise simultaneously** at the moment of its creation, i.e., **upon official state registration** in the prescribed manner.

Capacity to act, as the second element of legal personality, differs from legal capacity in its grounds and timing of emergence, though both concepts are closely interrelated. **Article 22 of the CC** states that capacity to act is *the ability of a citizen, through their own actions, to acquire and exercise civil rights, create civil obligations for themselves, and fulfill them* [10]. Capacity to act arises upon reaching **legal adulthood**, i.e., at **eighteen years of age**, except in cases where it is acquired earlier through **marriage** or **emancipation**. It should be noted that **legally incapacitated persons**, as well as those with **limited capacity**, also remain subjects of civil law **by virtue of their legal capacity alone**.

As previously mentioned, the moment a legal entity gains capacity to act is tied to the moment of its **state registration**.

There is currently no universal approach to defining the legal personality of AI. The recognition of AI as a subject of civil law remains the subject of intense academic and legal debate. One group of legal scholars advocates for **classifying artificial intelligence technologies as legal subjects** by assigning them the status of “**electronic persons**”, capable of independently holding civil rights and bearing legal obligations.

In particular, **foreign legal scholar A. I. Ovchinnikov** argues that *robots can be treated as legal entities, since they are property lacking independent subjective will, but may still be*

registered in the Unified State Register [11]. As an example, he refers to the case in **Belgium**, where a humanoid robot named **Fran Pepper** was granted citizenship and issued identity documents [12].

In several countries, AI has been **partially granted legal personality**. For instance, in **2017**, a robot developed by the Hong Kong-based company **Hanson Robotics** became the first machine in the world to receive citizenship (**Saudi Arabia**); **Japan** granted **residency status** to the chatbot **Shibuya Mirai**, and in **South Africa**, there is precedent for granting a **patent** to an artificial intelligence system [13].

However, the majority of scholars maintain that **AI cannot replace a human being** and, accordingly, **reject its status as a subject of civil law**. One Russian legal scholar notes that *arguments asserting AI's legal personality based on analogies with established civil law subjects are nothing more than arbitrary interpretations, disconnected from legislative provisions and distorting the fundamental principles of civil law* [14].

The **European Union** has also taken a similar position regarding the civil-law status of AI. Specifically, the **EU Resolution on the application of artificial intelligence systems** rejects the recognition of AI as an “electronic person” and clearly states that **this technology does not possess human intelligence** [15].

We consider this approach to be the more appropriate one, for the following reasons:

First, AI does not possess legal personality. **No legislative act currently recognizes AI as holding civil rights and obligations**. This technology is the result of **human intellectual activity** and does not possess civil rights on its own. Furthermore, AI cannot independently bear obligations for the actions it performs, which excludes it from having legal capacity. Although AI may exhibit a form of **reasoning**, it **lacks will**, and operates solely on the **prompts (instructions)** given by humans.

In contrast, a **legal entity**, though an abstract construct, is vested with civil rights and obligations under the law. A legal entity exercises its rights and performs its duties **through its governing bodies**, which are integral to the entity's organizational structure.

Secondly, as previously noted, AI lacks will, motivation, and purpose, and operates strictly within the parameters of human-assigned tasks. The absence of will eliminates the possibility of civil liability, as under civil law, liability is assigned to persons with legal capacity, which AI does not possess.

Enshrining provisions in legislation that impose liability on AI for caused damages would increase the risk of abuse by individuals and legal entities. Such a rule would allow those who use AI for personal gain to evade civil liability for harm caused by the AI system. This practice would violate one of the fundamental principles of civil law—the principle of good faith, which obliges participants in civil legal relations to act honestly and fairly, without infringing upon the rights and lawful interests of others.

As one scholar rightly notes in his academic work, if AI were granted legal personality, it would be required to “personally” bear liability for the damage caused – a scenario that is unacceptable, since its actions are still ultimately determined by humans, and therefore it is the human operator who should bear responsibility for its conduct [16].

It is worth noting that the European Union is already developing regulations that would govern civil liability for harm caused by AI [17]. One proposed solution is to introduce a mandatory insurance system for AI liability, similar to automobile insurance. At first glance,

this proposal appears promising; however, the implementation mechanisms for such a system remain unclear at this stage.

To sum up, based on the analysis presented above, we can conclude that AI currently does not and cannot qualify as a subject of civil legal relations. The primary reasons include the absence of free will, legal capacity, active legal capacity, and tort capacity, all of which are essential components of civil legal personality.

AI as an Object of Civil Law?

The issue of classifying artificial intelligence as an object of civil law is also of considerable importance. Traditionally, the objects of civil legal relations include tangible and intangible goods. Article 81 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan lists several types of objects of civil rights, including money and securities, other items, property (including property rights), works and services, inventions, industrial designs, works of science, literature, and art, and other results of intellectual activity, as well as personal non-property rights [18]. Notably, the legislator has left the list of civil law objects open, thus not excluding the possibility emergence of new types of objects.

Despite a large number of proponents who consider AI as an object of civil law, there are still doubts within civil law doctrine. This is due to the fact that AI, unlike other material objects, demonstrates a certain degree of autonomy, although it still operates within human-defined tasks.

Another approach views AI as an object of intellectual property, as a result of intellectual activity. However, this approach is also not flawless, as it raises certain legal questions. Specifically, AI, like a human, can create intellectual property, which ultimately brings us to the issue of recognizing AI as the author of the work and holder of the intellectual property rights.

Therefore, given the dynamic nature of this technological phenomenon, the question of classifying AI as an object of civil rights requires thorough consideration and research. Nonetheless, the possibility of recognizing AI as an object of civil law is not entirely ruled out.

The theory of “electronic agent”

An increasingly popular theory among civil law scholars is the theory of the digital agent (electronic agent). The essence of this theory is that AI may act within civil legal relations and perform legally significant actions on behalf of a principal. However, this approach also has certain drawbacks. As previously mentioned, AI currently lacks legal personality and free will. Yet the will of the agent is a key element of an agency agreement, without which the rules of agency law cannot be applicable [19]. Therefore, the digital agent theory is inextricably linked to the issue of granting legal subjectivity to AI.

Conclusion. In conclusion, we note that neither national legislation nor the international community is currently prepared to recognize AI as a subject of civil law. In our view, this is primarily due to the absence of sense and free will in AI, which are inherent to human beings. The lack of will also represents a weakness in the “electronic agent” theory. At present, there is an active discussion regarding classifying AI as an object of civil rights. While this approach appears more feasible, it still requires in-depth study of civil law doctrine and the relevant legal norms.

References/Adabiyotlar/Literatura:

1. **Strategy for the Development of Artificial Intelligence Technologies until 2030**, approved by Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan No. PP-358 of October 14, 2024 // *National Legal Database*, October 17, 2024, No. 07/24/358/0825.
2. **EU Artificial Intelligence Act**. Available at: <https://artificialintelligenceact.eu/the-act/>
3. **National Strategy for the Development of Artificial Intelligence until 2030**, approved by the Decree of the President of the Russian Federation No. 490. // URL: <https://base.garant.ru/72838946/>
4. Andrew, A. *Artificial Intelligence*. Translated from English; edited and with a foreword by D.A. Pospelov. Moscow: Mir. 1985. 264 p. (p. 17).
5. Smolin, D.V. (2004). *Introduction to Artificial Intelligence: Lecture Notes*. Moscow: Fizmatlit. 208 p. (pp. 15–17).
6. Rich, E., & Knight, K. (1991). *Artificial Intelligence* (2nd ed.). New York: McGraw-Hill.
7. Stryker, C., & Kavlakoglu, E. (2024). *What is Artificial Intelligence (AI)?* URL: <https://www.ibm.com/think/topics/artificial-intelligence>
8. Sukhanov, E.A. (ed.). (2020). *Civil Law: Textbook in 4 Volumes*. Vol. III (2nd ed., revised and expanded). Moscow: Statut. p. 97.
9. **Civil Code of the Republic of Uzbekistan** // *National Legal Database*, February 19, 2025, No. 03/25/1031/0160.
10. **Civil Code of the Republic of Uzbekistan** // *National Legal Database*, February 19, 2025, No. 03/25/1031/0160
11. Ovchinnikov, A.I. (2018). Trends in the Development of Law in the Context of a New Technological Paradigm. *Philosophy of Law*, No. 3, p. 27.
12. *Robot Added to the List of Residents of Belgium* // URL: <https://stmegi.com/posts/41999/robota-vnesli-v-spisok-zhiteley-belgii/>
13. *Legal Personality of Artificial Intelligence: Is It Possible? Legal and Moral-Ethical Aspects*. Zakon.ru. October 17, 2023. URL: https://zakon.ru/blog/2023/10/17/pravosubektnost_iskusstvennogo_intellekta_vozmozhno_li_pravovoj_i_moralno-eticheskij_aspekt (Accessed: 14 September 2025).
14. Vasilevskaya, L.J. Artificial Intelligence: Problems of Civil Law Qualification. *Courier of Kutafin Moscow State Law University (MSAL)*, (2023) (5), pp. 32–40. (In Russian). URL: <https://doi.org/10.17803/2311-5998.2023.105.5.032-040>
15. *Artificial Intelligence and Legal Personality* // URL: <https://liedekerke.com/en/insights/artificial-intelligence-and-legal-personality>
16. Zuikova, M.S. (2023). Artificial Intelligence as a Subject of Civil Law. *Forum of Young Scientists*, No. 11(87) // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/iskusstvennyy-intellekt-kak-subekt-grazhdanskogo-prava>
17. European Parliament *Resolution of 16 February 2017 with Recommendations to the Commission on Civil Law Rules on Robotics* (2015/2103(INL)). // URL: https://www.europarl.europa.eu/doceo/document/TA-8-2017-0051_EN.html
18. **Civil Code of the Republic of Uzbekistan** // *National Legal Database*, February 19, 2025, No. 03/25/1031/0160
19. *AI as Agents* // URL: <https://www.cambridge.org/core/books/abs/cambridge-handbook-of-artificial-intelligence/ai-as-agents/A15807BF655559096E806F462C5AB939>

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE PRACTICE OF “FATWA SHOPPING” IN ISLAMIC BANKING OPERATIONS AND LEGAL MECHANISMS FOR ITS PREVENTION

Sobitkhonov Joxongir Zunnurxon ugli

Lecturer at the Department of Business Law,
Tashkent State University of Law (TSUL),
Independent Researcher at TSUL
E-mail: sobitxonovjahongir@gmail.com

Abstract. This article analyzes the essence of the “fatwa shopping” practice observed in Islamic banking activities, its economic and legal implications, and mechanisms for its prevention. The study comparatively examines the recommendations of international organizations and the experiences of Malaysia, Pakistan, Bahrain, Indonesia, the United Kingdom, and CIS countries. In addition, the views of prominent Islamic jurists – Abdus Sattar Abu Ghuddah, Muhammad Taqi Usmani, Nizam Yaquby, and Ali al-Qaradaghi – are reviewed. Based on the analysis, it is recommended to implement legal instruments such as a centralized Shariah council, Shariah audit, and fit-and-proper criteria to prevent this issue.

Keywords: fatwa shopping, Islamic banking, Shariah Advisory Council, International Islamic Fiqh Academy, AAOIFI, IFSB.

ISLOM BANKLARI FAOLIYATIDA “FATVO SHOPPING” AMALIYOTI VA UNING OLDINI OLIŞ BO‘YICHA HUQUQIY MEXANIZMLAR

Sobitxonov Joxongir Zunnurxon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti (TDYUU)
Biznes huquqi kafedrasi o‘qituvchisi,
TDYUU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom banklari faoliyatida ko‘zatilayotgan «fatvo shopping» (fatwa shopping) amaliyotining mohiyati, iqtisodiy va huquqiy oqibatlari hamda uning oldini olish mexanizmlari tahlil etilgan. Ilmiy ishda Xalqaro tashkilotlar tavsiyalari hamda Malayziya, Pokiston, Bahrayn, Indoneziya, Buyuk Britaniya va MDH davlatlari tajribasi qiyosiy tarzda o‘rganilgan. Shuningdek, islom huquqi bo‘yicha olimlar – Abdus Sattor Abu G‘udda, Muhammad Taqiy Usmoniy, Nizom Yaqubiy va Ali Qoradog‘iy fikrlari tahlil qilingan. Tahlil natijalariga ko‘ra muammoni oldini olish yuzasidan markazlashgan shariat kengashi, shariat auditi va “fit-and-proper” mezonlari kabi huquqiy vositalarni jriy qilish tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: fatvo shopping, islomiy bank, Shariah Advisory Council, International Islamic Fiqh Academy, AAOIFI, IFSB.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N73>

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda islomiy bank tizimi jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllandi. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (International Monetary Fund – IMF) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yil holatiga ko‘ra, jahon islomiy moliya bozorining umumiy aktivlari 4,5 trillion AQSH dollaridan oshgan [1; 12–13-b.]. Bu ko‘rsatkich islom banklari va moliya institutlari nafaqat musulmon mamlakatlarda, balki Yevropada, Amerikada va Janubi-Sharqiy Osiyoda ham faol ravishda rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Islomiy bank tizimining tez sur'atlarda kengayishi uning ichki huquqiy va axloqiy tizimini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Bu tizimda shariat qoidalariga amal qilish asosiy prinsip hisoblanadi. Mazkur prinsip «shar'iy muvofiqlik» (Shariah compliance) deb ataladi. Ammo amaliyotda ayrim bank va moliyaviy muassasalar shariat talablariga to'liq amal qilmasdan, faqat tashqi ko'rinishda «islomiy» degan nomni qo'llayotgani kuzatiladi [2; 45–47-b.].

Bu jarayonda ko'pincha “fatvo shopping” (fatwa shopping) deb ataladigan holatlar sodir bo'ladi. Bu atama “shopping” so'zidan olingan bo'lib, ma'nosi – ma'lum bir iqtisodiy yoki huquqiy faoliyat uchun qulay fatvoni izlab, turli ulamolar yoki shariat kengashlariga murojaat qilishdir [3; 25-b.]. Masalan, bank yoki moliya kompaniyasi o'z amaliyotini shariatga muvofiqlashtirish uchun muftiy yoki kengashga murojaat qiladi, ammo uning xulosasi tijoriy manfaatlariga to'g'ri kelmasa, boshqa ulamodan “yengilroq” hukm olishga harakat qiladi.

Shu yo'l bilan “foyda uchun fatvo izlash” amaliyoti shakllanadi. Bu holat islom huquqidagi asosiy tamoyillardan biri – “adolat va halollik” prinsipiga zid bo'lib, fatvoning ma'naviy qimmatini pasaytiradi [4; 18-b.].

Klassik fiqhda bu amaliyot “tatabbu' ar-ruxas” deb nomlangan. Imom Navaviy va Ibn Obidin kabi ulamolar bu holatni “dinda yengillik orqali nafs xohishini qondirish” sifatida ta'riflagan va undan qaytarganlar [5; 62-b.]. Biroq zarurat va maslaha (islom huquqining eng muhim tamoyillaridan biri bo'lib, u inson manfaatini (yaxshilikni) ko'zlash va zararni bartaraf etish) holatlarida boshqa mazhab fatvolaridan foydalanish mumkinligi ham ta'kidlangan. Masalan, Imom Molik va Imom Shofeyi ta'limotida moliyaviy ehtiyojlar tufayli boshqa mazhab hukmini qabul qilish joiz deb hisoblangan [6; 29–30-b.].

Hozirgi global iqtisodiy tizimda shunday faoliyat ko'p uchraydi. Masalan, ayrim banklar «rivo» (riba – foiz)ni taqiqlovchi qoidalarni aylanib o'tish uchun «tavvaruq» yoki «murabaxa» kabi shartnomalarni ishlatishadi. Bu shartnomalar fiqh nuqtai nazaridan o'ziga xos iqtisodiy mohiyatga ega bo'lsa-da, ayrim hollarda ular islom huquqining mohiyatidan uzoqlashib, amaliy jihatdan foizning niqoblangan shakliga aylanib qoladi [7; 51–53-b.].

Islomiy moliyaviy muassasalar uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti tomonidan 2023-yilda ishlab chiqilgan (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions – AAOIFI) Shariat standartlariga muvofiq, “fatvo shopping shariat qoidalarini manfaat uchun o'zgartirish yoki ularni o'z maqsadiga yo'naltirish amaliyoti bo'lib, u islomiy moliyaviy institutlar obro'siga va ishonchliligiga jiddiy zarar yetkazadi” [8; 9-b.].

Shu bois ko'pgina mamlakatlar bu holatning oldini olish uchun markazlashgan shariat kengashlarini tashkil etishga kirishdi. Jumladan, **Malayziyada** Shariat maslahat kengashi (Shariah Advisory Council – SAC) 2003-yildan buyon markaziy bank tarkibida faoliyat yuritadi va uning qarorlari sudlar uchun majburiy hisoblanadi [9; 27–29-b.].

Pokistonda 2018-yilgacha har bir bankda mustaqil shariat kengashi mavjud bo'lgan, natijada turli fatvolar o'rtasida ziddiyat paydo bo'lgan. 2023-yilda Davlat banki (State Bank of Pakistan – SBP) yagona shariat standartlari “Shariah Governance Framework”ni joriy etdi [10; 33-b.].

Bahraynda va **Birlashgan Arab Amirliklarida** shariat masalalari bo'yicha yagona markaziy organlar faoliyat ko'rsatmoqda. Bahrayn Markaziy banki (CBB) barcha banklar faoliyatini AAOIFI standartlari asosida tekshiradi [11; 18–20-b.].

O‘zbekiston uchun esa bu masala ayni paytda dolzarbdir. Mamlakatda islomiy moliya tizimi shakllanish bosqichida bo‘lib hozirda islom banklari to‘g‘risidagi qonun loyihasi ishlab chiqilmoqda [12; 4-b.]. Agar shariat boshqaruvi tizimi markazlashmagan holda joriy etilsa, fatvo shopping amaliyoti kelajakda moliyaviy va axloqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shu sababli, fatvo shoppingning oldini olish masalasi nafaqat huquqiy yoki diniy muammo, balki davlat miqyosidagi iqtisodiy barqarorlik va qonun ustuvorligi bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. “Fatvo shopping” masalasi islomiy huquq va moliya sohasida so‘nggi o‘n yillikda eng ko‘p muhokama qilinayotgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu atama ilk bor 1990-yillarda “Islamic Financial Review” va “Journal of Islamic Economics” jurnallarida ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u islomiy moliya muassasalarida fatvo berish jarayonidagi **shariat izchilligining buzilishini** anglatgan [1; 15–17-b.].

AAOIFI va Islomiy moliyaviy xizmatlar bo‘yicha kengash (Islamic Financial Services Board – IFSB) kabi xalqaro tashkilotlar 2010-yildan boshlab “Shari‘ah Governance Framework” va “Shari‘ah Standards” nomli hujjatlar orqali ushbu muammoni tizimli hal etishga harakat qilmoqda [2; 11-b.]. Ular fatvo chiqarish jarayonini aniq tartibga solish, shariat kengashlarining mustaqilligini ta‘minlash va olimlar hamjamiyati o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishni maqsad qilgan.

Bundan tashqari, islom huquqshunoslari ham bu masalada turli yondashuvlarni ilgari surishgan. Doktor Abdus Sattor Abu G‘udda “Fiqh al-Mu‘amalat al-Maliyyah al-Mu‘asira” asarida fatvoning shariatdagi vazifasi “ilohiy hukmni aniqlash” ekanligini ta‘kidlab, fatvoni tijorat yoki shaxsiy manfaat bilan bog‘lashni “qat‘iy man etilgan illat” deb baholaydi [3; 44–46-b.].

Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniyning “An Introduction to Islamic Finance” asarida fatvo shopping “islomiy moliyaning ichki axloqiy inqirozi” sifatida talqin qilinadi. Uning fikricha, bank yoki moliya kompaniyasi fatvoni “bozorbop mahsulot yaratish vositasi” sifatida ko‘rmasligi, balki “Allohning hukmini topish usuli” sifatida qabul qilishi shart [4; 27-b.].

Shayx Ali al-Qoradog‘iy esa “Maqasid al-Sharia fi al-Mu‘amalat al-Maliyyah al-Mu‘asira” asarida bu muammoni **maqosidiy yondashuv** orqali hal qilishni taklif etadi. Uning fikricha, fatvoning qiymati uning shariatning besh asosiy maqsadi – din, aql, mol, nasl va jonni himoya qilishga xizmat qilishi bilan o‘lchanadi [5; 53–54-b.].

Shayx Vahba az-Zuhayliyning “Al-Fiqh al-Islomiy va adillatuhu” asarida “tatabbu’ ar-ruxas” amaliyotiga nisbatan qattiq tanqid bildirilgan. Uning ta‘kidlashicha, har bir fiqhiy mazhab ichidagi hukmlar tizimi yaxlit bir mantiqiy bog‘lanishga ega, shuning uchun ularni aralashtirish “talfiq”ga olib keladi va bu shariatning izchilligiga xatar tug‘diradi [6; 81–82-b.].

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, fatvo shopping muammosi nafaqat axloqiy yoki diniy, balki iqtisodiy barqarorlik va huquqiy tizim muvozanati bilan bog‘liq masaladir.

Tadqiqotda masalani har tomonlama o‘rganish uchun quyidagi to‘rtta metodologik yondashuvdan foydalanilgan:

1) Normativ-huquqiy yondashuv

Bu usul islom moliyasi sohasini tartibga soluvchi xalqaro va milliy qonunchilik normalarini tahlil qilishga qaratilgan. Masalan, Malayziyada 2003-yilda qabul qilingan “Central

Bank of Malaysia Act”ga muvofiq Shariat maslahat kengashi (SAC) markaziy bank tizimida yagona shariat organi sifatida ishlaydi va uning qarorlari barcha moliya muassasalari uchun majburiydir [7; 26–28-b.].

Pokistonda esa 2023-yilda Davlat banki “Shari’ah Governance Framework for Islamic Banking Institutions”ni joriy etdi. Bu hujjatda har bir bankdagi shariat kengashi faqat mahalliy emas, balki milliy darajadagi shariat organi bilan muvofiq ish yuritishi shartligi belgilangan [8; 33–34-b.].

Bahrayn va BAAda markazlashgan shariat kengashi barcha banklar uchun yagona fatvo reyestrini yuritadi. Bu usul fatvo shoppingni cheklashning samarali huquqiy usuli sifatida tan olingan [9; 19–21-b.].

2) Taqqoslama (qiyosiy) yondashuv

Bu usul orqali turli mamlakatlardagi shariat boshqaruv tizimlari solishtirildi. Malayziya, Pokiston, Indoneziya, Saudiya Arabistoni va Bahrayndagi amaliyotlar tahlil qilinganda, fatvo shopping darajasi shariat organlari markazlashgan davlatlarda pastligi aniqlandi [10; 55–57-b.].

MDH mamlakatlarida esa shariat organlari hali shakllanish bosqichida ekanligi sababli, bu muammo hanuz dolzarb. Masalan, Qozog’istonda “Islomiy banklar to’g’risida”gi qonun 2009-yilda qabul qilingan bo’lsa-da, amalda fatvo nazorati to’liq markazlashmagan [11; 12–13-b.].

3) Fiqhiy (doktrinal) yondashuv

Bu usul orqali zamonaviy ulamolarning fatvo shopping haqidagi qarashlari o’rganildi. Muftiy Usmoniy fatvoni “ijtihad mahsuli” sifatida ko’rsa, Abu G’udda uni “axloqiy mas’uliyat” deb ta’riflaydi. Shuning uchun u fatvo beruvchi faqih iqtisodiy tashkilotdan moddiy jihatdan mustaqil bo’lishi kerakligini ta’kidlaydi [12; 47-b.].

4) Maqosidiy (maqsadga yo’naltirilgan) yondashuv

Bu yondashuv fatvo shoppingni islomiy huquqning maqsadlari nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Shariatning asosiy maqsadlari — din, mol, aql, nasl va jonni himoya qilish bo’lib, fatvo shopping ularning kamida uchtasini (din, mol va axloq) zaiflashtiradi [13; 51–53-b.].

Shayx Ali Qoradog’iy bu haqda shunday deydi:

“Fatvo shoppingning oldini olish shariatni qattiqashtirish emas, uning maqsadlarini to’g’ri anglashdir” [5; 54-b.].

Muhokama. “Fatvo shopping” muammosi haqida zamonaviy faqihlar o’rtasida fikrlar xilma-xil bo’lib, ularning har biri bu holatni turli nuqtai nazardan baholaydi.

Doktor **Abdus Sattor Abu G’udda** bu masalada keskin pozitsiyani egallab, “fatvo shopping”ni “ijtihadni tijoratlashtirish” deb ataydi. Uning ta’kidlashicha, fatvo — Alloh hukmini ifoda etuvchi ilohiy vazifa bo’lib, uni inson manfaatlariga moslashtirish “shariatning qadriyatlarini tahqirlash” bilan barobardir [1; 45–46-b.]. U fatvo chiqaruvchi faqihning iqtisodiy yoki ma’muriy ta’sirdan mutlaqo mustaqil bo’lishi zarurligini ta’kidlaydi.

Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy esa “fatvo shopping”ni “islomiy moliya tizimining eng katta axloqiy inqirozi” deb baholaydi. Uning fikricha, fatvoning maqsadi tijorat foydasi emas, balki ilohiy rozilikdir. Shu sababli, bank yoki kompaniya o’z faoliyatini “shariatga muvofiq” deb e’lon qilishdan oldin, uning mazmunan ham shariat maqsadlariga xizmat qilayotganiga ishonch hosil qilishi shart [2; 37–38-b.].

Shayx Nizom Yaqubiy bu masalaga nisbatan nisbatan yumshoqroq yondashuvni taklif qiladi. Uning fikricha, agar turli mazhablar orasidagi farq shariat maqsadlariga xizmat qilsa, bu holat “fatvo shopping” emas, balki “fiqhiy tanlov erkinligi” hisoblanadi [3; 29–30-b.]. Shu bilan birga, u shunday deydi:

“Mazhablar xilma-xilligi islomning boyligi, ammo uni nafs yoki foyda manfaati uchun suiiste’mol qilish — ilmiy xiyonatdir” [3; 31-b.].

Shayx Ali al-Qoradog’iy esa fatvo shoppingni “maqosid al-shari’a” asosida baholash kerakligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, agar bir fatvo umumiy manfaatni ta’minlasa, u boshqasiga nisbatan ustun bo’lishi mumkin, ammo u foyda uchun emas, shariatning umumiy maqsadi uchun tanlanishi lozim [4; 53-b.].

Shayx Vahba az-Zuhayliy bu holatni “talfiq” — turli mazhablar hukmlarini aralashtirish — shaklida baholaydi. Uning ta’kidlashicha, har bir mazhab tizimi yaxlit fiqhiy mantiqqa ega, shuning uchun ularni erkin birlashtirish shariatning izchilligini buzadi va bu “maqbul ijthod” doirasidan chiqadi [5; 82–83-b.].

Xalqaro darajada fatvo shopping muammosini cheklash maqsadida qator tashabbuslar amalga oshirilgan. Jumladan, **AAOIFI** o’zining 2023-yilgi “Shari’ah Standards” to’plamida fatvo shoppingni ochiqdan-ochiq tanqid qildi va shariat kengashlari uchun axloq kodeksini joriy etdi. Unda shunday deyiladi:

“Har qanday fatvo iqtisodiy foyda yoki tashkilot siyosati ta’siri ostida chiqarilgan bo’lsa, u haqiqiy fatvo hisoblanmaydi” [6; 14-b.].

IFSB 2025-yilda qabul qilingan “Guiding Principles for Shariah Governance” hujjatda fatvo shoppingning oldini olish uchun “ikki bosqichli shariat auditi” tizimini joriy etishni tavsiya qildi [7; 41–43-b.]. Bu tizimda bank ichidagi ichki auditdan tashqari, milliy darajadagi tashqi audit ham amalga oshiriladi.

Xalqaro islom fiqhi akademiyasi (International Islamic Fiqh Academy – IIFA) 2009-yildagi 179-sonli qaror orqali “tashkillashtirilgan tavvaruq” (organised tawarruq) amaliyotini man etdi, chunki u “shariatdagi ribo qoidasini aylanib o’tish” usuli sifatida qo’llanilayotgan edi [8; 12–14-b.].

Islom taraqqiyot banki (Islamic Development Bank – IsDB) 2023-yilda “Shari’ah Compliance Framework”ni qabul qildi. Unda fatvo chiqaruvchilar uchun axloq qoidalari va manfaatlar to’qnashuvini oldini olish bo’yicha 10 ta talab belgilandi [9; 23–24-b.].

Shu bilan birga, **Malayziya, Bahrayn** va **BAA**da shariat qarorlari markazlashgan tizimda chiqariladi. Masalan, Malayziyadagi Shariat maslahat kengashi (SAC) qarorlari sudlar uchun majburiy bo’lib, fatvo shopping ehtimolini deyarli yo’qqa chiqargan [10; 28–29-b.].

O’zbekistonda islomiy bank tizimi hozirgi kunda rivojlanish bosqichida. Mamlakatda 2025-yilda qabul qilinishi kutilgan “Islom banklari to’g’risida”gi qonun loyihasida shariat kengashi instituti nazarda tutilgan bo’lsa-da, uning markazlashtirilgan yoki detsentralizovan shakli hali aniqlanmagan [11; 3-b.].

O’zbekiston Markaziy banki va Moliya vazirligi tomonidan yaratilgan “Islamiy moliyani rivojlantirish yo’l xaritasi”ga ko’ra, shariat muvofiqligi ustidan nazorat AAOIFI va IFSB standartlari asosida amalga oshirilishi kerak. Biroq amalda milliy shariat organi hali tuzilmaganligi sababli, har bir bank o’z faqihlari bilan ish olib borishi mumkin. Bu esa fatvo shopping xavfini oshiradi [12; 18–19-b.].

MDH davlatlaridagi tajriba shuni ko'rsatadiki, fatvo shoppingning oldini olish uchun markazlashgan kengash juda muhim. Masalan, Qozog'istonda 2009-yildan faoliyat yurituvchi shariat kengashi banklar faoliyatini muvofiqlashtirib kelmoqda, Qirg'izistonda esa 2021-yilda markaziy bank huzurida maxsus Shariat maslahat kengashi tuzilgan [13; 17–18-b.].

O'zbekiston uchun eng to'g'ri yo'l — Malayziya va Bahrayn modellarini uyg'unlashtirgan "Yagona milliy shariat kengashi"ni tashkil etishdir. Bu kengash faqat fatvo chiqarish bilan cheklanmasdan, fatvolar reyestrini yuritish, shariat auditini amalga oshirish va barcha moliya muassasalari faoliyatini monitoring qilish bilan shug'ullanishi lozim.

Shuningdek, fatvo chiqaruvchi faqihlar uchun "fit-and-proper" mezonlarini joriy etish kerak. Bu mezonlar ulamo va shariat maslahatchilarida ilmiy salohiyat, amaliy tajriba va axloqiy mezon talablarini belgilaydi [14; 36–37-b.].

Fatvo shoppingning xavfi faqat iqtisodiy yoki huquqiy emas, balki ijtimoiy va ma'naviydir. Agar fatvolar tijorat manfaati uchun chiqarilsa, jamoatchilikning shariatga va ulamolarga bo'lgan ishonchi so'nadi. Bu esa islomiy moliya tizimining axloqiy asoslariga putur yetkazadi [15; 44–45-b.].

Fiqhiy nuqtai nazardan, fatvo shopping "ribo"ni niqoblash, "hiyla"ga murojaat qilish yoki shariatni manfaat vositasiga aylantirish bilan bir ma'noni anglatadi. Shuning uchun bu holatni faqat huquqiy cheklovlar orqali emas, balki jamiyatdagi diniy bilim va ma'naviy mas'uliyatni kuchaytirish orqali ham bartaraf etish lozim [16; 22–24-b.].

Natijalar. Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, "fatvo shopping" muammosi islomiy bank tizimining faqat huquqiy yoki nazariy emas, balki amaliy va tizimli muammosidir. Bu hodisaning oldini olish uchun qator davlatlarda turli huquqiy va institutsional choralar joriy etilgan.

1. Markazlashgan shariat boshqaruv tizimi samarasi

Fatvo shopping darajasi eng past bo'lgan davlatlar — shariat boshqaruvi markazlashgan mamlakatlardir. **Malayziya, Bahrayn** va **BAA** tajribasi shuni ko'rsatadiki, markaziy shariat kengashi mavjud bo'lganda, banklar o'z amaliyotini boshqa manbadan "qulayroq" fatvo bilan asoslash imkoniga ega bo'lmaydi.

Malayziyadagi **Shariah Advisory Council (SAC)** qarorlari sudlar uchun majburiy bo'lib, 2014-yilda mamlakat Oliy sudi "Bank Islam Malaysia Berhad v. Adnan Omar" ishida SAC fatvosini qonun kuchiga teng deb e'tirof etgan [1; 27–28-b.]. Shu bilan birga, Bahrayndagi **Central Bank of Bahrain (CBB)** AAOIFI standartlarini majburiy etib belgilagan va har bir fatvo AAOIFIning markaziy bazasida ro'yxatdan o'tkaziladi [2; 18–19-b.].

Bu usul faqat shariatning izchilligini ta'minlabgina qolmasdan, xalqaro investorlar uchun ishonch muhitini ham yaratadi.

2. MDH mamlakatlari natijalari

Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda islomiy moliya tizimi so'nggi o'n yillikda rivojlana boshladi. Biroq bu davlatlarda shariat organlari hanz to'liq mustaqil emas. Masalan, Qozog'istonda 2009-yilgi "Islomiy banklar to'g'risida"gi qonunda shariat kengashi bank ichki tuzilmasi sifatida belgilangan [3; 11–12-b.]. Bu holat shariat qarorlarining xolisligini ta'minlashda muammo tug'diradi.

Qirg'izistonda 2021-yildan "Shar'iy Maslahat Kengashi" markaziy bank huzurida tashkil etildi, ammo uning vakolati hali cheklangan [4; 23–24-b.]. Shu sababli, mazkur mamlakatlarda fatvo shopping ehtimoli hanz yuqori.

3. O‘zbekiston sharoitidagi amaliy tahlil

O‘zbekistonda hozircha markaziy shariat organi mavjud emas. 2025-yilda qabul qilinishi kutilgan “Islom banklari to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ushbu yo‘nalishda dastlabki huquqiy asos bo‘ladi [5; 5–6-b.].

Yuqoridagilarga asosan O‘zbekistonda fatvo shoppingni oldini olish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- 1) **Yagona milliy shariat kengashini** tashkil etish — bu organ fatvolarni markazlashtirib ro‘yxatga oladi va ularni yagona bazaga kiritadi.
- 2) **Shariat auditi tizimini joriy etish** — ichki va tashqi audit orqali bank faoliyati shariat mezonlariga mosligi tekshiriladi.
- 3) **Shariat maslahatchilari uchun “fit-and-proper” mezonlarini belgilash** — faqihlar ilmiy daraja, tajriba va axloqiy talablarga javob berishi lozim.
- 4) **AAOIFI va IFSB standartlarini milliy qonunchilikka integratsiya qilish** — bu orqali xalqaro muvofiqlik ta‘minlanadi.
- 5) **Fatvo reyestri va yagona ma‘lumotlar bazasini yaratish** — har bir chiqarilgan fatvo yagona elektron tizimda saqlanishi va ommaga ochiq bo‘lishi kerak.

Bu choralar faqat huquqiy emas, balki axloqiy barqarorlik nuqtai nazaridan ham muhimdir. Chunki shariat asosidagi tizimda fatvolarning tozaligi — islomiy moliyaning ishonchliligi kafolatidir [6; 34–35-b.].

Xulosa. Tadqiqot natijalariga asosan quyidagi umumiy xulosalar chiqarildi:

Fatvo shopping mohiyati – bu shariat hukmlarini shaxsiy yoki tijorat manfaatlariga moslashtirish orqali shariat ruhidan chekinish amaliyotidir. U islomiy bank tizimidagi axloqiy va huquqiy barqarorlikka jiddiy xavf soladi.

Markazlashgan shariat boshqaruvi fatvo shoppingning oldini olishning eng samarali usuli hisoblanadi. Malayziya va Bahrayn tajribasi shuni ko‘rsatdiki, yagona shariat kengashi fatvolarni muvofiqlashtirish orqali tizimdagi ziddiyatlarni yo‘qotadi.

AAOIFI va IFSB standartlarini milliy qonunchilikka joriy etish zarur. Bu islom banklari faoliyatida xalqaro shariat talablariga to‘liq muvofiqlikni ta‘minlaydi.

O‘zbekistonda islom bankchiligi tizimi hali shakllanish bosqichida bo‘lgani sababli, fatvo shopping xavfini oldindan bartaraf etish uchun huquqiy, axloqiy va institutsional choralar tizimini yaratish lozim.

Shariat maslahatchilari va ulamolarning mustaqilligi ta‘minlanishi kerak. Faqat iqtisodiy yoki siyosiy ta‘sirdan xoli faqihlar tomonidan chiqarilgan fatvoga haqiqiy shariat hukmi sifatida qabul qilinishi mumkin.

Jamiyatda ma‘naviy mas‘uliyatni kuchaytirish ham muhim omildir. Agar shariat fatvolariga bo‘lgan ishonch susaysa, islomiy moliyaning barcha afzalliklari yo‘qoladi.

Shu tariqa, fatvo shoppingga qarshi kurash nafaqat huquqiy, balki ma‘naviy islohotlar tizimini ham o‘z ichiga olishi lozim. Bu holda islomiy bank tizimi haqiqiy adolat va halollik asosida faoliyat yuritishi mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. AAOIFI. *Shari‘ah Standards 2023 Edition*. Manama: AAOIFI, 2023.
2. Bank Negara Malaysia. *Shariah Resolutions in Islamic Finance*. Kuala Lumpur, 2024.
3. Central Bank of Bahrain. *Rulebook – Volume 2: Shari‘a Governance Module*. Manama, 2024.
4. DSN-MUI. *Fatwa No. 82 on Tawarruq*. Jakarta, 2011.

5. Qaradaghi, A. A. *Maqasid al-Sharia fi al-Mu'amalat al-Maliyyah al-Mu'asira*. Doha, 2020.
6. Usmani, M. T. *An Introduction to Islamic Finance*. Karachi, 2019.
7. Abu Ghudda, A. S. *Fiqh al-Mu'amalat al-Maliyyah al-Mu'asira*. Jidda: Dar al-Qalam, 2018.
8. IIFA. *Resolution No. 179 on Organized Tawarruq*. Jidda, 2009.
9. IFSB. *Guiding Principles for Shariah Governance*. Kuala Lumpur, 2025.
10. Zuhayliy, W. *Al-Fiqh al-Islami wa Adillatuhu*. Damashq: Dar al-Fikr, 2004.
11. <https://lex.uz/ru/docs/7089547>
12. RBK. *Российская пилотная программа исламских финансов*. Москва, 2023.
13. SAMA. *Shariah Governance Framework*. Riyadh, 2023.
14. IsDB. *Shariah Compliance Framework*. Jidda, 2023.
15. IIFA Journal. *Ethics in Islamic Financial Fatwas*. Jidda, 2022.
16. BNM Bulletin. *Islamic Banking Governance*. Kuala Lumpur, 2024.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

DEVELOPMENT OF SUKUK IN UZBEKISTAN: LEGAL REFORMS, INFRASTRUCTURE, CHALLENGES AND OPPORTUNITIES

Mamatmurodov Farrux Farxod ugli

Tutor of Private law

Tashkent state university of law

Abstract. This article analyzes the process of forming the Sukuk (Sharia-compliant investment securities) market in Uzbekistan from a legal, institutional and infrastructural perspective. First, the theoretical foundations of Sukuk and international experience - on the example of Malaysia, Great Britain and Kazakhstan - are considered. It also highlights the legal reforms necessary to establish Sukuk issuance in Uzbekistan, the creation of a Sharia Council system, the introduction of the principles of tax neutrality and the development of financial infrastructure. The article analyzes the main problems, such as the existing legal gaps, the lack of Sharia control mechanisms, low human resources and a narrow investor base, and puts forward proposals to eliminate them. According to the results of the study, it is concluded that a stable and internationally compliant Sukuk market can develop in Uzbekistan only when a coherent legal framework, Sharia governance and infrastructure elements are formed.

Keywords: Sukuk, Islamic finance, Uzbekistan, legal reforms, Sharia Council, tax neutrality, SPV, capital market, infrastructure, investor base.

O'ZBEKISTONDA SUKUKNI RIVOJLANTIRISH: HUQUQIY ISLOHOTLAR, INFRATUZILMA, MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li

Xususiy huquq fakulteti tyutori

Toshkent davlat yuridik universiteti

Email: mamatmurodovfirdavs@gmail.com

<http://orcid.org/0009-0002-4169-366X>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda Sukuk (Shariatga muvofiq investitsion qimmatli qog'ozlar) bozorini shakllantirish jarayoni huquqiy, institutsional va infratuzilmaviy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Avvalo, Sukukning nazariy asoslari va xalqaro tajriba — Malayziya, Buyuk Britaniya hamda Qozog'iston misolida — ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekistonda Sukuk emissiyasini yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan huquqiy islohotlar, Shariat kengashi tizimini yaratish, soliq neytralligi tamoyillarini joriy etish va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar yoritilgan. Maqolada mavjud huquqiy bo'shliqlar, Shariat nazorat mexanizmlarining yo'qligi, kadrlar salohiyatining pastligi va investorlar bazasining torligi kabi asosiy muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, izchil huquqiy baza, Shariat boshqaruvi va infratuzilma elementlari shakllantirilgandagina O'zbekistonda barqaror va xalqaro talablarga mos Sukuk bozori rivojlanishi mumkin degan xulosaga kelinadi.

Kalit so'zlar: Sukuk, Islom moliyasi, O'zbekiston, huquqiy islohotlar, Shariat kengashi, soliq neytralligi, SPV, kapital bozori, infratuzilma, investorlar bazasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N74>

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekiston o'z kapital bozorlarini diversifikatsiya qilish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida bir qator moliyaviy va huquqiy islohotlarni amalga

oshirdi. Ushbu tashabbuslarga Islom moliyasiga xos bo'lgan sukuk (Shariatga muvofiq investitsiya sertifikatlari) hamda boshqa moliyaviy instrumentlar kiradi.

Sukuk ko'pincha "islomiy obligatsiyalar" deb ataladi, biroq u an'anaviy obligatsiyalardan tubdan farq qiladi: ular foizli qarz majburiyatini emas, balki jismoniy aktiv yoki undan foydalanish huquqiga egalikni ifodalaydi. Sukuk bo'yicha daromadlar foiz to'lovlari orqali emas, balki ushbu aktivlarning o'zidan olinadigan daromadlar orqali shakllanadi, bu esa foizga ruxsat bermaydigan islomiy moliya tamoyillariga to'la mos keladi [1, 45-bet].

Global miqyosda sukuk bozori Islom moliyasining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri bo'lib, hozirda Malayziya, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Buyuk Britaniya, shuningdek, Qozog'iston kabi yirik emitentlar tomonidan muvaffaqiyatli tarzda chiqarilmoqda. Bu davlatlarning tajribasi sukuk bozori xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish hamda ichki kapital bozorlarini mustahkamlashda katta salohiyatga ega ekanini ko'rsatdi [2, 88-bet].

Aholisining aksarini musulmonlar tashkil etadigan va moliyaviy tizimi rivojlanish bosqichida bo'lgan O'zbekiston ham sukukni milliy kapitalni diversifikatsiya qilish va ichki hamda xalqaro mablag'larni safarbar etish vositasi sifatida tan oldi. Biroq, sukuk bozorini shakllantirish uchun faqat investorlar talabi kifoya emas — kompleks huquqiy asos, regulyatorlar tomonidan aniq tartibga solish, shariatga muvofiqlikni ta'minlaydigan boshqaruv mexanizmlari va boshqa moliyaviy infratuzilmalar ham zarur [3, 130-bet].

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida sukukni rivojlantirish jarayonini huquqiy o'zgarishlar, institutsional va infratuzilmaviy rivojlanish, mavjud muammolar hamda kelajak istiqbollari nuqtai nazaridan tahlil qiladi.

Sukuk: G'oya va jahon tajribasi.

"Sukuk" atamasi arabcha "sakk" so'zining ko'plik shakli bo'lib, "sertifikatlar" yoki "hujjatlar" degan ma'noni anglatadi. Islom moliya institutlari buxgalteriya va audit tashkiloti (AAOIFI) ta'rifiga ko'ra, sukuk — bu bir xil qiymatdagi sertifikatlar bo'lib, ular moddiy aktivlar, foydalanish huquqlari (usufukt), xizmatlar yoki ma'lum bir loyiha yoki investitsiya faoliyatiga bo'lgan bo'linmagan ulushli egalikni ifodalaydi [4, 12-bet]. Shuning uchun sukuk egalari asosiy aktivlardan kelib chiqadigan daromadlarni olish huquqiga ega bo'ladi, oddiy obligatsiya egalari esa foiz oladi.

Malayziya zamonaviy sukuk bozorida yetakchi bo'lib, 2000-yillarning boshlarida islom moliyasini kapital bozor tuzilmasiga kiritgan holda regulyativ asos va 1993-yilgi "Qimmatli qog'ozlar komissiyasi to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqdi [5, 75-bet].

Buyuk Britaniya esa 2003, 2007 va 2008-yillardagi "Moliya to'g'risida"gi qonunlariga (Finance Acts) o'zgartishlar kiritgach, sukukka an'anaviy obligatsiyalar bilan bir xil soliq rejimini berdi va bu 2014-yilda suveren sukuk emissiyasiga ruxsat berilishiga olib keldi [6, 21-bet].

Qozog'iston 2017-yilda Astana xalqaro moliyaviy markazi (AIFC) asosida Islom moliyasi bo'yicha maxsus huquqiy institut va tartib tizimini yaratish orqali maxsus huquqiy rejimni joriy qildi hamda 2022-yilda korporativ sukuk emissiyasiga ruxsat berdi [7, 56-bet].

Xalqaro bozor tajribasi shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli sukuk bozori huquqiy aniqlik, izchil shariat boshqaruvi va bozor likvidligiga tayanadi. Bu omillarsiz sukuk investitsiya vositasi sifatida to'g'ri faoliyat yurita olmaydi.

O‘zbekistonda islom moliyasining huquqiy asosi.

O‘zbekistonning amaldagi huquqiy tartibi asosan dunyoviy fuqarolik huquqi tizimiga asoslangan. Hozircha u islom moliyaviy instrumentlari (sukuk) va “Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risida”gi qonun hamda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilangan tartiblar asosida tartibga solinmagan. Bu borada katta ehtiyoj mavjud bo‘lib, shu sababli hukumat islom moliyasini milliy huquqiy tizimning bir qismi sifatida kiritish maqsadida bir qator islohotlarni boshladi. 2022-yilda “Islom moliyasini rivojlantirish choralari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni qabul qilinib, islom moliyasi tushunchalarini milliy qonunchilik tizimiga integratsiya qilish uchun zamin yaratildi. Shundan so‘ng, islom moliyasi bo‘yicha ishchi guruh tashkil etildi. U Moliya vazirligi huzurida faoliyat yuritadi va uning tarkibiga Markaziy bank, Kapital bozorini rivojlantirish agentligi, Banklar assotsiatsiyasi hamda xorijiy mutaxassislar kiradi. Ushbu ishchi guruhning vazifasi — birinchi suveren sukuk emissiyasiga tayyorgarlik ko‘rish hamda milliy qonunchilikni xalqaro me‘yorlarga moslashtirishdan iborat.

Sukukni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosati uchta strategik yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

- Sukuk chiqarish va joylashtirish mexanizmini yaratish, shuningdek Fuqarolik kodeksi, Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonun va Kompaniyalar to‘g‘risidagi qonunga tegishli o‘zgartishlar kiritish.
Abstract. This article analyzes from a scientific, theoretical and practical point of view the legal status of the entities carrying out an accusatory function in criminal proceedings, their powers, as well as the existing gaps in the current legislation. The subject of the study are persons engaged in prosecutorial activity in criminal proceedings, the topic - questions of determination of their legal status, and the goal - justification for the need to improve the current regulatory framework. The relevance of the topic is that fair and effective prosecution depends to a large extent on the legal status of the accused and the mechanisms for monitoring their activities. Methods of comparative legal analysis, generalization, induction and deduction are used as the research methodology. The results show that the current Code of Criminal Procedure does not clearly define the status and powers of individual entities - investigators and investigators, which leads to different interpretations in practice. The author has justified the inclusion of the prosecutor, investigator, interrogator, heads of investigative bodies and bodies of inquiry and their deputies, public prosecutor, victim, civil plaintiff and their representatives in the composition of entities carrying out an accusatory function. Field of application of the results - improvement of criminal procedure legislation, increase of accuracy and efficiency of law enforcement.

Keywords: criminal process, prosecution function, prosecutor, investigator, inquest officer, legal status, public prosecutor, victim and civil plaintiff.

JINOYAT PROTSESSIDA AYBLOV FUNKSIYASINI AMALGA OSHIRUVCHI SUBYEKTLARNING HUQUQIY MAQOMIGA OID MUAMMO VA YECHIMLAR

Uteniyazov Keulimjay Kuanishbayevich

Berdag nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

<https://orcid.org/0009-0003-3461-3120>

E-mail: u_keulimjay@karsu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat protsessida ayblov funksiyasini amalga oshiruvchi subyektlarning huquqiy maqomi, ularning vakolatlari hamda amaldagi qonunchilikda mavjud bo'shliqlar ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot predmeti – jinoyat protsessida ayblov faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar, mavzusi – ularning huquqiy maqomini belgilash masalalari, maqsadi esa amaldagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zaruratini asoslab berishdan iborat. Mavzuning dolzarbligi shundaki, ayblovning adolatli va samarali yuritilishi ko'p jihatdan ayblov subyektlarining huquqiy maqomi hamda ularning faoliyati ustidan nazorat mexanizmlariga bog'liqdir. Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil, umumlashirish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksda ayrim subyektlar – tergovchi va surishtiruvchilarning maqomi hamda vakolatlari aniq belgilab berilmagan, bu esa amaliyotda turli talqinlarga olib kelmoqda. Muallif tomonidan ayblov funksiyasini amalga oshiruvchi subyektlar tarkibiga prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, tergov va surishtiruv organlari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, jamoat ayblovchisi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar hamda ularning vakillari kiritilishi asoslangan. Natijalarning qo'llanish sohasi – jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida aniqlik va samaradorlikni oshirishdir.

Kalit soʻzlar: jinoyat protsessi, ayblov funksiyasi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, huquqiy maqom, jamoat ayblovchisi, jabrlanuvchi va fuqaroviy daʼvogar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N76>

Kirish. Jinoyat-protsessual faoliyat tizimida ayblov funksiyasi markaziy ahamiyatga ega boʻlib, u orqali davlatning jinoyatlarni qonuniy tartibda taʼqib qilish vakolatlari amalga oshiriladi. Ayblov funksiyasi doirasida jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash, unga rasmiy ayb eʼlon qilish va sud muhokamasiga jalb qilish kabi protsessual harakatlar davlat nomidan yuritiladi. Shu tarzda, ayblov funksiyasi nafaqat huquqiy, balki siyosiy-huquqiy mazmunga ega boʻlgan konseptual institut sifatida ham namoyon boʻladi.

Amaldagi Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat-protsessual faoliyatning tuzilishi va funksional yoʻnalishlari alohida ahamiyatga ega ekanligi taʼkidlanadi. Xususan, Kodeksning 25-moddasida jinoyat protsessidagi uchta asosiy funksional yoʻnalish aniq belgilab berilgan: 1) ayblov funksiyasi; 2) himoya funksiyasi; 3) ishni hal etish funksiyasi [1]. Ushbu funksiyalar jinoiy odil sudlovni taʼminlash jarayonida muhim tarkibiy elementlar hisoblanadi va ularning har biri belgilangan huquqiy maqom va vakolatga ega subyektlar tomonidan amalga oshiriladi. Shunga koʻra, ayblov funksiyasi davlat nomidan jinoyatni fosh etish bilan bogʻliq boʻlsa, himoya funksiyasi shaxsning huquq va erkinliklarini kafolatlashga qaratilgan, ishni hal etish funksiyasi esa adolatli hukm chiqarish bilan bevosita bogʻliqdir.

Material va metodlar. Tadqiqotda jinoyat protsessida ayblov funksiyasini amalga oshiruvchi subyektlarning huquqiy maqomiga oid qonunchilik normalari, milliy va xorijiy huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, amaliyot tahlili kabilardan foydalanildi. Materiallar sintez, kuzatish, qiyosiy-huquqiy tahlil, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlarini qoʻllagan holda oʻrganildi.

Tadqiqot natijalari tahlili. Qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat-protsessual faoliyatning asosiy funksiyalari — yaʼni ayblov, himoya va ishni hal etish funksiyalari aniq belgilangan boʻlsa-da, ularni bevosita amalga oshiruvchi subyektlarga nisbatan mukammal va aniq taʼrif berilmagan. Ushbu boʻshliqni toʻldirishda ilmiy-nazariy yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Xususan, jinoyat protsessi ishtirokchilari toifasi, ularning maqomi va huquqiy maqsadlari masalasiga oid chet el mualliflari tomonidan bildirilgan nazariy mulohazalar nazarga sazovordir. Jumladan, ingliz huquqshunosi J.Simonson tomonidan taklif etilgan tasnif bu borada eng keng qamrovli va nisbatan aniq yondashuv sifatida eʼtirof etiladi [2]. Uning taʼkidlashicha, jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslar turli maqom va vazifalarga ega boʻlgan holda quyidagi toifalarga ajratiladi:

- jinoyat-protsessual funksiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar;
- jinoyat ishini yuritish boʻyicha vakolatli shaxslar;
- shaxsiy huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar;
- jinoyat protsessini amalga oshiruvchi organ faoliyatiga koʻmaklashuvchi shaxslar;
- jinoyat ishidan bevosita shaxsiy manfaatdorligi mavjud boʻlmagan boshqa ishtirokchilar.

Mazkur yondashuvni yanada rivojlantirgan holda, A.F.Volobuyev jinoyat protsessi ishtirokchilarini tasniflash masalasidagi mavjud nomutanosibliklarni bartaraf etish zarurligini taʼkidlaydi va ularni jinoyat-protsessual faoliyat bosqichlari hamda ishtirokchilar tomonidan

bajariladigan funksiyalarning huquqiy-amaliy xususiyatlaridan kelib chiqib, muayyan toifalarga ajratishni taklif etadi [3].

Ayblov tomoni vakillarini aniqlashda ularning protsessual maqomi va vakolatlarini hisobga olish alohida ahamiyatga ega, chunki ayblov tomoni davlat nomidan harakat qiladigan mansabdor shaxslar toifasini o'z ichiga oladi. Ushbu shaxslar jinoiy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish maqsadida maxsus vakolatlar bilan ta'minlangan. A.F. Volobuyev fikriga ko'ra, bu toifaga prokuror, surishtiruvchi, surishtiruv organi rahbari, tergovchi, tergov bo'limi rahbari hamda tergov vakolatiga ega operativ bo'linma xodimi kirishi mumkin va ular umumiy tarzda "dastlabki tergov organlari" atamasi ostida birlashtiriladi. Shu nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlab, V.V. Vapnyarchuk ayblov tomoni vakillarini boshqa protsess ishtirokchilaridan farqli holda dastlabki tergovning bevosita subyektlari sifatida qarash lozimligini ta'kidlaydi [4]. Biroq nazarimizda, faqat funksional yoki bosqichlarga asoslangan klassifikatsiya orqali ayblov funksiyasini amalga oshiruvchi subyektlar doirasini to'liq va aniq belgilash imkoni yo'q. Ushbu masala ilmiy-nazariy tahlil va huquqiy-me'yoriy asoslardan kelib chiqib kengroq yoritilishi zarur.

Bu o'rinda muhim va mantiqiy savol tug'iladi: ayblov funksiyasini amalga oshiruvchi subyektlar deganda kimlar nazarda tutiladi? Ayrim huquqshunos olimlar fikriga ko'ra, ayblov faoliyati jinoyat protsessida turli bosqichlarda o'z ifodasini topadi, jumladan ham dastlabki tergov jarayonida, ham sud muhokamasi davomida. Bu yondashuv ayblovning protsessual faoliyatdagi ko'pqirraliligi va turli subyektlar ishtirokida amalga oshirilishini ko'rsatadi [5]. Ushbu faoliyat doirasida jinoyat ishini yuritishda ayblovni ilgari surish, uni asoslash, dalillar to'plash va ayblovni sudda qo'llab-quvvatlash vazifalari yuklatilgan subyektlar ayblov tarafiga mansub hisoblanadi.

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilik va nazariy manbalardagi qarashlar tahliliga asosan ayblovni amalga oshiruvchi subyektlar qatoriga quyidagilar kiradi [6]: prokuror, tergovchi, tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhi boshlig'i va uning o'rinbosari, surishtiruvchi, surishtiruv bo'linmasi boshlig'i va uning o'rinbosari, jamoat ayblovchisi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar hamda ularning vakillari. Ushbu subyektlar ayblov faoliyatini jinoyat-protsessual faoliyatning turli bosqichlarida va turlicha shakllarda amalga oshirsalar-da, ularni birlashtirib turuvchi asosiy jihat shundaki, ularning har biriga jinoyat ishini yuritishda ayblovni ilgari surish, uni asoslash va mazkur ayblovni huquqiy asosda yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi protsessual harakatlarni amalga oshirishga oid muayyan vakolatlar, huquq va majburiyatlar yuklatilgan.

Har qanday davlatda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim institutsional vosita sifatida huquqni muhofaza qiluvchi organ va subyektlarning, xususan, prokurorning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Prokuror huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida markaziy subyektlardan biri sifatida namoyon bo'lib, u jinoyat-protsessual faoliyatning barcha bosqichlarida – jinoyat ishini qo'zg'atishdan tortib, sud qarori chiqarilishigacha bo'lgan jarayonlarda – ayblov funksiyasining samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Shu ma'noda prokurorning faoliyati nafaqat jinoiy ta'qibni yuritish, balki davlat nomidan ayblovni ilgari surish, uni asoslash va sudda qo'llab-quvvatlash orqali ayblov funksiyasining asosiy subyekti sifatida namoyon bo'ladi. C.N. Manovanning ta'kidlashicha, prokurorlarning vakolatlari shunchalik kengki, ular ko'p jihatdan jinoiy odil sudlov tizimining

shakllanish usulini belgilab beradi [7]. Shu sababli, prokuror jinoyat-protsessual tizimda ayblov faoliyatining markaziy va eng nufuzli subyektlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Prokurorning ayblov funksiyasini amalga oshirishdagi ustuvor maqomi va uning jinoyat protsessidagi hal qiluvchi roli amaldagi qonunchiligimizda ham o'z ifodasini topgan. Xususan, "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasiga asosan, sudlarda jinoyat ishlari ko'rib subyektlarning davlat ayblovini quvvatlash prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari qatoriga kiradi [8]. O'zbekiston Respublikasi JPKning 409-moddasida sud muhokamasida prokurorning ishtiroki belgilangan bo'lib [9], prokuror birinchi instansiya sudida davlat ayblovini qo'llab-quvvatlaydi va dalillarni tekshirishda ishtirok etadi. Agar sud tergov natijalari ayblovni o'zgartirish yoki undan voz kechish zarurligini ko'rsatsa, prokuror bu haqda asoslangan bayonot beradi. Prokurorning ayblovdan voz kechishi sud uchun jinoyat ishini rehabilitatsiya asosida tugatishga asos bo'ladi.

Milliy olimalarimizdan D.Dovudovning ta'kidlashicha, prokuror sud davlatning vakili sifatida ayblovni quvvatlab, o'ziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, qonunda belgilangan vakolatlar orqali sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatlilik bo'lishiga ko'maklashadi hamda qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlaydi [10]. Mazkur fikrni qo'llab-quvvatlagan holda shuni aytishimiz mumkinki, prokuror nafaqat sud, balki ishni sudga qadar yuritish bosqichida ham fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilinishi uchun mas'ul subyekt hisoblanadi.

Tergov bosqichida amalga oshiriladigan prokuror nazorati faqatgina shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bilangina cheklanib qolmay, balki tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan amalga oshiriladigan ayblov faoliyatining qonuniy, asosli va to'la hajmda yuritilishiga ham bevosita xizmat qiladi. Bu esa prokurorning ayblov faoliyatidagi ishtirokini nazorat funksiyasi orqali yanada mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, jinoyat ishini sudgacha yuritish bosqichida prokurorlar faoliyatining amaliy tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, amalda prokuror hanuzgacha jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal etishda, shuningdek, tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan amalga oshiriladigan tergov hamda boshqa protsessual harakatlarga muayyan darajada ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. Bu holat, tergovchi yoki surishtiruvchining mustaqil faoliyat yuritishi tamoyiliga muayyan darajada ta'sir etuvchi omil sifatida namoyon bo'lsa-da, aslida prokurorning jinoyat-protsessual funksiyalari (ayniqsa, ayblov) bilan uzviy bog'liq bo'lgan va jinoyat protsessining samaradorligini ta'minlashga qaratilgan institutsional muvozanatni ifodalaydi.

Mazkur nazariy qarashlarning amaliy tasdig'i sifatida 2024-yilda prokuratura organlari tomonidan jinoyat ishlari bo'yicha tergovni amalga oshirishda qonuniylikni ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlarning natijalariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Xususan, o'tgan yilda 14 623 ta jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlari prokuratura organlari tomonidan bevosita amalga oshirilgan bo'lib, ular doirasida 13 589 nafar shaxsga nisbatan 8 950 ta jinoyat ishi sudga yuborilgan. Shuningdek, surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan tergov qilingan 78 543 nafar shaxsga oid 63 454 ta jinoyat ishi prokuror nazoratida ko'rib chiqilib, tegishli sudlarga yuborilgan. Bundan tashqari, tergov jarayonidagi qonuniylikni ta'minlash maqsadida prokurorlar tomonidan 2 684 ta noqonuniy protsessual qaror bekor

qilingan va 56 601 yozma ko'rsatma berilgan. Sud bosqichida esa 80 862 ta jinoyat ishi yuzasidan prokurorlar ishtirok etgani, ularning davlat ayblovini qo'llab-quvvatlashdagi mas'uliyati va ishtirok darajasi yuqori ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi [11].

Shu bilan birga, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligimizda tergovchi va surishtiruvchiga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri berilgan ta'rif mavjud emas. Qonun chiqaruvchi, faqat JPKning 35-moddasi va 38-moddasi orqali tegishincha dastlabki tergovni va surishtiruvni amalga oshiruvchi organlarni belgilash bilan cheklangan. Bu holat, nazarimizda, tergovchi va surishtiruvchining jinoyat-protsessual faoliyatdagi vazifalari va funksiyalariga oid aniq huquqiy mezonlar yetarli darajada mustahkamlanmaganini ko'rsatadi va, o'ziga xos ravishda, ushbu shaxslarning protsessual funksiyalari yuzasidan turlicha ilmiy-nazariy qarashlar shakllanishiga zamin yaratgan. Xususan, bir qator milliy tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, "tergovchi — dastlabki tergov bosqichida qonuniylik va fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlash, jinoyat sodir etgan har bir shaxsning jazosiz qolmasligi va birorta aybsiz shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilishiga yo'l qo'yilmasligi uchun qonunni to'g'ri qo'llashga mas'ul bo'lgan jinoyat protsessining ishtirokchisidir. Bunday yondashuvga ko'ra, tergovchining vazifasi faqat bitta funktsiya – jinoyat ishini tergov qilish bilan chegaralanadi va u ayblov funksiyasining mazmun jihatdan shakllanishida muhim omillardan biri hisoblanadi" [12].

Ayni masala yuzasidan F.M.Muxitdinovning yondashuvi e'tiborga molikdir, chunki u o'z tadqiqotlarida dastlabki tergov organlarini ayblov funksiyasini amalga oshiruvchi subyektlar qatorida ko'rsatib, ularning faoliyatini bevosita jinoiy ta'qibni amalga oshirish bilan bog'laydi. Muallifga ko'ra, mazkur organlar jinoyat sodir etilganligi haqida ma'lumot olgan paytdan boshlab, ayblanuvchi shaxsning shaxsini aniqlash, unga ayb e'lon qilish va javobgarlikka tortish kabi huquqiy jarayonlarni amalga oshirib, jinoiy ta'qibning markaziy vazifalarini bajaradi [13]. Bu esa, o'z navbatida, jinoyat-protsessual qonunchilikda ayblovni amalga oshiruvchi subyektlarni belgilashda kompleks yondashuv talab etilishini ko'rsatadi. Shuningdek, ko'p hollarda tergovchi bajaradigan funksiyalari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi: ayblov, himoya, ishni hal etish, jinoyatchilikning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashda jamoatchilikni jalb etish, tarbiya va boshqalar.

Mazkur nuqtada tergovchilarning huquqiy maqomi va vakolatlari masalasida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga (MDH) a'zo ayrim davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligidagi yondashuvlar e'tiborga molikdir. Jumladan, Qirg'iz Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida "Ayblov tomonidagi protsess ishtirokchilari" deb nomlangan V bobda, xususan 36-moddasida tergovchining huquqiy maqomiga aniq ta'rif berilgan [14]. Unda tergovchi JPKda belgilangan vakolatlar doirasida jinoyat ishi bo'yicha tergov olib borish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs sifatida e'tirof etiladi. Xuddi shunday normalar Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksida ham mavjud bo'lib, uning 38-moddasida tergovchining protsessual maqomi, funksional vakolatlari va mustaqilligiga oid qoidalar aniq belgilangan [15].

Nazarimizda, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat ishi yuritilishida shaxsning aybini isbotlash, ayblovga tayyorgarlik ko'rish, shaxsga ayb e'lon qilish hamda unga nisbatan tegishli protsessual qarorlar qabul qilish kabi jarayonlarda faol ishtirok etar ekan, ularning vakolatlari ayblov funksiyasi bilan chambarchas bog'liq ekanini anglatadi. Shuningdek, ular o'z faoliyatini prokuror nazorati ostida amalga oshiradigan mansabdor shaxslar sifatida, asosan shaxsni oqlovchi emas, balki uning aybini tasdiqlovchi dalillarni aniqlash va yig'ishga yo'naltirilgan ish faoliyatini olib boradilar, deb xulosa qilish mumkin.

Umuman olganda, jinoyat ishini sudga qadar yuritishning tergov bosqichida tergovchi va surishtiruvchilar O'zbekiston Respublikasi JPKning 36- va 38¹-moddalarida belgilangan vakolatlar doirasida faoliyat olib boradilar. Ushbu bosqichda ular jinoyat ishining har tomonlama, to'liq va xolisona tergov qilinishini ta'minlash maqsadida keng ko'lamli protsessual huquqlardan foydalanadilar. Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilik normalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, tergovchi (yoki surishtiruvchi) faoliyati ustidan uch xil nazorat mexanizmi shakllantirilgan: idoraviy nazorat, prokuror nazorati va sud nazorati. Shu tariqa, tergovchi (yoki surishtiruvchi) ushbu uch turdagi nazorat turlaridan tashqari holatlarda o'z vakolatlari doirasida protsessual mustaqillikka ega hisoblanadi. Ya'ni, u qonun normalari asosida o'z ichki ishonchiga tayanib, jinoyat ishini yuritish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish huquqiga ega. Nazarimizda, tergovchilarning mustaqilligi tamoyili u mutlaq erkinlikka ega degani emas, balki nazorat va muvozanat mexanizmlari orqali cheklangan holda qonuniylik tamoyiliga bo'ysundirilganligini anglatadi.

Bunda aytib o'tish joizki, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligimizda tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhi boshlig'i va ularning o'rinbosarlariga (shu jumladan surishtiruv bo'linmasi boshlig'i va uning o'rinbosariga) berilgan vakolatlarni tahlil qilish, ularning ham jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida amalga oshiriladigan ayblov faoliyatiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatishlari va unga hissa qo'shishlari mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tashkiliy, nazorat va tartibga soluvchi funksiyalar orqali tergovchilarning faoliyati muvofiqlashtirilishi, belgilangan protsessual talablarga rioya etilishi ta'minlanadi. Shu jihatdan qaralganda, tergovchi protsessual mustaqil shaxs sifatida o'z vakolatlarini amalga oshirar ekan, yuqorida ko'rsatilgan shaxslar va ularning o'rinbosarlari ayrim holatlarda ayblov faoliyatining samaradorligi va tizimlilikini ta'minlashda bilvosita (ayrim hollarda bevosita) ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladilar.

Shuningdek, amaliyot tahlillari shuni ko'rsatadiki, jinoyat-protsessual qonunchiligimizda nafaqat tergovchi (yoki surishtiruvchi), balki muayyan holatlarda tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi yoki guruhi rahbarlari va ularning o'rinbosarlari (shu jumladan surishtiruv bo'linmasi boshlig'i va uning o'rinbosari) ham jinoyat ishi yuzasidan tergovchining (yoki surishtiruvchining) vakolatlaridan foydalanib, dastlabki tergovni shaxsan amalga oshirish huquqiga ega (JPKning 37- va 39-moddalar). Bu esa mazkur shaxslarning ayblov faoliyati shakllanish jarayonidagi rolini faqat tashkiliy-nazorat funksiyalari bilan cheklab qo'ymasdan, balki bevosita ishtirokchi sifatida namoyon bo'lishlarini ham asoslab beradi.

Shu bilan birga, prokurorga ham jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan ayrim holatlarda tergovni bevosita amalga oshirish, jumladan, jinoyat ishini yuritish, alohida tergov harakatlarini o'tkazish, dalillarni to'plash va ularni baholashda ishtirok etish huquqi berilgan (JPKning 382-moddasi). Prokurorning bunday faoliyat yuritishi ayblov faoliyatining shakllanishi, qonuniylikning ta'minlanishi hamda jinoiy ta'qib samaradorligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Amaldagi qonunchilik va ilmiy-nazariy qarashlar asosida ayblovni amalga oshiruvchi subyektlar tarkibiga quyidagilar kirishi haqida ilmiy xulosaga kelindi: prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, tergov va surishtiruv organlari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, jamoat ayblovchisi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar hamda ularning vakillari.

Прокурор jinoyat-protsessual faoliyatda ayblov funksiyasining yetakchi va eng markaziy subyekti sifatida faoliyat yuritadi. U jinoyat ishini qo'zg'atish, nazorat, ayblovni tasdiqlash, davlat ayblovini qo'llab-quvvatlash, sudda ishtirok etish va zarur hollarda tergovni bevosita amalga oshirish vakolatlariga ega. Shu bilan birga, prokurorning tergovni shaxsan olib borish holatida qanday protsessual maqomda harakat qilishi qonunchilikda ochiq qoldirilgani, tegishli o'zgartirishlar kiritish zaruratini yuzaga keltirmoqda, degan xulosaga kelindi. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi JPKning 382-moddasi uchinchi qismining yettinchi xatboshisiga o'zgartirish kiritilishi va quyidagi tahrirda bayon etilishi taklifi ilgari suriladi:

«surishtiruvda, dastlabki tergovda ishtirok etadi hamda zarur hollarda, ushbu Kodeksga muvofiq har qanday ish bo'yicha ayrim tergov harakatlarini shaxsan bajaradi yoki **tergovchi vakolatlaridan foydalanib**, tergovni to'liq amalga oshiradi»;

Tergovchi va surishtiruvchi jinoyat protsessida ayblovni tayyorlash va shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular ishni sudga qadar yuritish bosqichida ayblov, himoya, ishni hal etish, jinoyatchilikning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashda jamoatchilikni jalb etish, tarbiya va boshqa funksiyalarni bajaradi.

Shuningdek, jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogar ham ayblov tarafidagi mustaqil protsessual ishtirokchilar sifatida tan olinadi. Ularning protsessual manfaatlari ayblanuvchining javobgarligi isbotlanishiga bevosita bog'liq bo'lib, ular tomonidan ilgari surilgan ayblov subyektiv tusga ega bo'lishi mumkin. Jamoat ayblovchisi esa jamiyat nomidan sud muhokamasida ayblovning asoslanganligini ta'minlashda ishtirok etadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси - <https://lex.uz/docs/-111460>
2. Simonson J. The place of “the people” in criminal procedure //Columbia Law Review. – 2019. – Т. 119. – №. 1. – С. 249-308.
3. Volobuyev A. F. Participants in criminal proceedings: problematic issues of classification //Bulletin of Kharkiv National University of Internal Affairs. – 2024. – Т. 107. – №. 4. – С. 126-136.
4. Вапнярчук В. В. Щодо особливостей окремих способів збирання доказів у кримінальному провадженні. Науковий вісник Ужгородського національного університету. Серія «Право». 2022. Вип. 70. С. 405–410. DOI: <https://doi.org/10.24144/2307-3322.2022.70.65>.
5. Головинская И. В., Столетовых Н. Г. Уголовный процесс //Учебное пособие. Издание. – 2021. – с 59.
6. Жиноят процессида таъкиб фаолиятини такомиллаштиришнинг назарий, амалий ва қонунчилик муаммолари /Ф.М.Мухитдинов; масъул муҳаррирю. ф.д., проф. Р.Ж. Рўзиев; Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, Тошкент давлат юридик институти - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ нашриёти, 2012. – б 97; Головинская И. В., Столетовых Н. Г. Уголовный процесс //Учебное пособие. Издание. – 2021. – с 59.
7. Манова Н. С. Роль прокурора в координации деятельности органов дознания и предварительного следствия по осуществлению уголовного преследования // Legal Concept = Правовая парадигма. – 2021. – Т. 20, № 2. – С. 12–20. – DOI: <https://doi.org/10.15688/lc.jvolsu.2021.2.2>
8. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 29.08.2001 йилдаги 257-II-сон - <https://lex.uz/docs/106197>
9. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси - <https://lex.uz/docs/-111460>

10. Д.Довудова. Биринчи инстанция судларида жиноят ишларини юретишда прокурор ваколати тушунчаси, юридик табиати. Мақола. Ўзбекистон Республикаси Бош Прокуратураси Академияси Ахборотномаси. №4 (40) 2019. 65-б.
11. Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратурасининг расмий сайтидаги очиқ маълумотлар: <https://prokuratura.uz/#/ochiqmalumot>
12. Тўлаганова Г.З. Базарова Д.Б. Хидоятлов Б.Б. Жиноят процесси иштирокчилари. ўқув-қўлланма. -Т.: ТДЮУ нашриёти, 2022. -148 б.
13. Жиноят процессида таъкиб фаолиятини такомиллаштиришнинг назарий, амалий ва қонунчилик муаммолари /Ф.М.Мухитдинов; масъул муҳаррир. ф.д., проф. Р.Ж. Рўзиев; Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, Тошкент давлат юридик институти - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ нашриёти, 2012. – б 98-99.
14. Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики от 28 октября 2021 года № 129 (с изменениями и дополнениями по состоянию на 14.03.2025 г.) - https://continent-online.com/Document/?doc_id=36639004#pos=6;
15. Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации от 18 декабря 2001 года № 174-ФЗ (с изменениями и дополнениями по состоянию на 07.06.2025 г.) - https://continent-online.com/Document/?doc_id=30407315#pos=1031;

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS OF JUDICIAL CONTROL OVER OPERATIONAL-SEARCH ACTIVITIES

Khidirov Ganisher Tojimurodovich,

Independent researcher at the Judicial Academy under the Supreme Council of Judges of the Republic of Uzbekistan

E-mail: tojimurodovich@gmail.com

Abstract. article is devoted to a comparative legal analysis of judicial control over operational-search activities. It highlights the role of judicial oversight in ensuring the legality and validity of restrictions on individual rights and freedoms, and compares the experiences of different countries. First of all, the European model is examined, which is based on the Convention for the Protection of Human Rights and the decisions of the European Court of Human Rights, emphasizing that state interference in private life is permissible only on legal grounds, with a legitimate aim, and under conditions necessary in a democratic society. In the legislation of Ukraine, Germany, Kazakhstan and the Russian Federation, special investigative actions such as covert surveillance, wiretapping of telephone conversations, and the collection of electronic data are clearly regulated, and the requirement of prior judicial authorization for such measures is emphasized. The analysis of the legislation of CIS countries reveals both similarities and differences in control systems. In the United States, restrictive measures in the field of intelligence are carried out through the FISA Court, while in the United Kingdom special attention is paid to guarantees of the citizens' right to appeal. The conclusion substantiates the necessity of improving Uzbekistan's legislation: introducing clear criteria for sanctioning operational measures, expanding mechanisms for notifying individuals, and strengthening judicial control. The research has theoretical and practical significance for law enforcement practice and lawmaking.

Keywords: operational-search activity, judicial control, human rights, covert surveillance, criminal procedure, international law.

TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USTIDAN SUD NAZORATINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

Xidirov G'anisher Tojimurodovich,

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi

huzuridagi Odil sudlov akademiyasi

mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqola tezkor-qidiruv faoliyati ustidan sud nazoratining qiyosiy-huquqiy tahliliga bag'ishlangan. Unda shaxs huquq va erkinliklarini cheklashning qonuniyligi va asosligini ta'minlashda sud nazoratining o'rni yoritilgan hamda turli mamlakatlar tajribasi qiyoslangan. Avvalo, Yevropa modeli Inson huquqlarini himoya qilish Konvensiyasi va Yevropa sudining qarorlari asosida tahlil qilinib, davlatning shaxsiy hayotga aralashuvi faqat qonuniy asoslarda, legitim maqsadlarda va demokratik jamiyat uchun zarur hollarda amalga oshirilishi shartligi ko'rsatib o'tilgan. Ukraina, Germaniya, Qozog'iston va Rossiya qonunchiligida yashirin kuzatuv, telefon so'zlashuvlarini nazorat qilish, elektron ma'lumotlarni yig'ish kabi maxsus tergov harakatlari tartibga solingani hamda ularda sud ruxsatisiz tadbir o'tkazilmasligi talabi alohida ta'kidlangan. MDH davlatlari qonunchiligi tahlili esa nazorat mexanizmlarining o'xshash va farqli jihatlarini ochib beradi. AQShda razvedka faoliyatiga oid cheklovlar FISA sudi orqali amalga oshirilishi, Buyuk Britaniyada esa fuqarolarning shikoyat huquqi kafolatlari qayd etiladi. Xulosa qismida O'zbekiston qonunchiligini yanada takomillashtirish, tezkor-qidiruv tadbirlarini sanksiyalashda aniq mezonlar belgilash, shaxsni xabardor qilish mexanizmlarini kengaytirish hamda sud

nazoratini kuchaytirish zarurligi asoslab berilgan. Mazkur izlanish huquqni muhofaza qilish amaliyoti va qonun ijodkorligida nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit soʻzlar: tezkor-qidiruv faoliyati, sud nazorati, inson huquqlari, yashirin kuzatuv, jinoyat protsessi, xalqaro huquq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N77>

Kirish. Dunyoda shaxsning odil sudlovga boʻlgan huquqini taʼminlash, shaxsning asosiy huquqlari va erkinliklarini cheklashning qonuniyligi va asoslilikini nazorat qilishning barqaror va samarali mexanizmlarini yaratish, shaxs huquqlarini cheklashda mutanosiblik prinsipini taʼminlash tendensiyasi kuzatilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha erishilishi lozim boʻlgan “Barqaror rivojlanish maqsadlari” (Sustainable Development Goals)dan biri ham aynan qonun ustuvorligini taʼminlash va odil sudlovga erishish darajasini oshirishdan iborat boʻlib, 2024-yilda qonun ustuvorligi indeksida (WJP Rule of Law Index) Oʻzbekiston Respublikasi 83-oʻrinni egallagan boʻlsa, jinoyat ishlari boʻyicha odil sudlov yoʻnalishida 70-oʻrinni, ayblanuvchilarning huquq va erkinliklarining protsessual kafolatlari boʻyicha 93-oʻrinni egallagan [1].

Jahonda sudning inson huquqlarini himoya qilish va taʼminlash funksiyasini amalga oshirish, shaxs konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish mexanizmini takomillashtirish, buzilgan huquqlarni oʻz vaqtida va samarali tiklash, tezkor-qidiruv faoliyati ustidan nazoratning amaldagi mexanizmlari samaradorligini oshirish, uning predmeti va chegarasini kengaytirish, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurash va shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini kafolatlash oʻrtasida muvozanatni taʼminlash boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borish, qonunchilikni takomillashtirishga jiddiy eʼtibor qaratilmoqda.

Respublikamizda sud himoyasida boʻlish, yaʼni har bir shaxsning oʻz huquqlarini sud orqali himoya qilishini kafolatlash, «Xabeas korpus» institutini qoʻllash sohasini kengaytirish, jinoyatchilikka qarshi kurashda shaxsning huquqlari asossiz cheklanishining oldini olish maqsadida keng koʻlamli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism. Kontinental huquq tizimida tezkor-qidiruv faoliyatining oʻrni uning ustidan sud nazoratining tabiatiga ham bevosita taʼsir oʻtkazganligini koʻrishimiz mumkin. Yaʼni, tezkor-qidiruv faoliyati jinoyat protsessiga unifikatsiya qilinganligi natijasida, uning ustidan nazoratning zarurati va predmeti muammosi mavjud emas.

Sud nazoratining Yevropa modeli Inson huquqlarini himoya qilish Yevropa konvensiyasi va Inson huquqlari boʻyicha Yevropa sudining qarorlariga asoslanib, unga muvofiq davlatning shaxsiy hayotga har qanday aralashuvi:

qonun bilan belgilangan boʻlishi;

legitim maqsadni koʻzlashi (shu jumladan jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat xavfsizligini taʼminlash);

demokratik jamiyatga zarur boʻlishi talab qilinadi.

Buning uchun, TQTlariga ruxsat berish asoslari aniq boʻlishi, ruxsat berish mustaqil nazorat organi (sud tomonidan amalga oshirilishi), agar tergovga zarar yetkazmasa unga nisbatan TQT oʻtkazilganligi haqida keyinchalik shaxsning xabardor qilinishi talab qilinadi.

Jumladan, Fransiyada tergovga qadar tekshiruv tezkor-qidiruv faoliyati, maʼmuriy faoliyat va jinoyat protsessining elementlaridan iborat boʻlib umuman politsiyaning faoliyati sifatida qaraladi. Jinoyat ishini qoʻzgʻatish politsiya faoliyatini protsessual faoliyatdan ajratuvchi chegara sifatida qaraladi.

Ukrainada jinoyat ishi doirasida o'tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlari, nooshkora tergov (qidiruv) harakatlari sifatida JPKning 21-bobi bilan tartibga solingan.

Ukraina JPKning 247-moddasiga muvofiq, nooshkora tergov (qidiruv) harakatlariga ruxsat berish haqida iltimosnoma apellyatsiya instansiyasining tergov sudyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Ahamiyatli jihati, JPKning 248-moddasiga muvofiq, iltimosnomada boshqa ma'lumotlar bilan birga, jinoyat va uni sodir etgan shaxs haqida ma'lumotlarni boshqa usul bilan olishning imkoni yo'qligi, nooshkora tergov (qidiruv) harakatlari natijasida jinoyat holatlari va uni sodir etgan shaxs haqida jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni olish mumkinligi asoslantirilishi lozim.

Umuman tezkor-qidiruv faoliyati ustidan sud nazoratining Ukraina tajribasini ijobiy baholash va quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

nooshkora tergov (qidiruv) harakatlariga ruxsat berish haqida iltimosnomani qanoatlantirish asoslari aniq belgilangan (jinoyatning og'irlik darajasi, ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan dalillar olinishi mumkinligi);

tergov sudyasining qarorida amal qilish muddati ko'rsatilishi (2 oydan oshirish mumkin emas);

o'ziga nisbatan nooshkora tergov(qidiruv) harakatlari o'tkazish shaxsni xabardor qilish majburiyati belgilangan [2].

Germaniya Federativ Respublikasi JPK (99, 100 paragraf)iga muvofiq, telegraf pochta jo'natmalarini nazorat qilish va olib qo'yish sudning ruxsati, kechiktirib bo'lmaydigan hollarda prokuror tomonidan amalga oshiriladi.

Ahamiyatli jihati telefon so'zlashuvlari eshitib turilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar toifasi belgilangan. Faqatgina sudning qarori, favqulodda hollarda prokurorning ruxsati bilan tezkor xodimlarning turar joyga kirishiga ruxsat beriladi. Yashirin kuzatuvga faqat gumon qilinuvchiga nisbatan, dalillarni olish va uni qayerdaligini aniqlashning boshqa imkoni bo'lmaganda yo'l qo'yiladi [3].

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi «Axlyustin Rossiya Federatsiyasiga qarshi» ishi bo'yicha qarorida [4]:

Inson huquqlari bo'yicha Konvensiyaning 8-moddasida qayd qilingan "domicile" so'zi nafaqat turar joy balki ish joyini ham qamrab olishi;

xizmat xonalari shu jumladan davlat xizmatchisining kabinetidan amalga oshirilgan qo'ng'iroq "shaxsiy hayot" va "korrespondensiya" tushunchasi bilan qamrab olinishi;

arizachiga nisbatan yashirin kuzatuv choralari vakolat doirasidan ehtimoliy chetga chiqishga qarshi zarur kafolatlarga ega bo'lmaganligiga asoslanib, TQF subyektlari xizmat xonalarida maxsus texnik vositalardan foydalanib, elektron kuzatuvni amalga oshirish uchun sudning ruxsati olishi zarurligi haqida xulosaga kelgan.

"Shaxsiy hayot daxlsizligiga oqilona ishonch" doktrinasiga muvofiq, davlatning ichki qonunchiligi fuqarolarga davlat organlari qanday holat va shartlarda so'zlashuvlarni eshitib turishga haqli ekanligi haqida mutanosib tasavvur berish darajasida aniq bo'lishi talab qilinadi.

Sudning pozitsiyasiga muvofiq, yashirin nazorat manfaatdor shaxslar yoki jamiyat tomonidan nazorat qilinmasligi, ijro etuvchi hokimiyati yoki sudga cheklanmagan vakolatlarda ifodalanadigan huquqiy diskresiya huquq ustuvorligiga zid hisoblanadi.

Binobarin qonun, shaxsga o'zboshimchalik bilan aralashuvdan himoyalaniş uchun yetarli darajada aniqlik bilan vakolatli organlarga beriladigan bunday diskresiyaning hajmini va undan foydalanish usulini belgilab berishi zarur [5].

Быков Rossiyaga qarshi ishi bo'yicha qarorida tezkor eksperiment davomida sud arizachi va V. o'rtasidagi suhbatni yozib olish uchun foydalanilgan radio-uzatuvchi amalda telefon so'zlashuvlarni eshitib turishga teng hisoblanishi, suhbatni eshitib turish hech qanday shart bilan cheklanmaganligi, uni amalga oshirish chegarasi va usuli belgilanmaganligi, hech qanday kafolatlar ko'zda tutilmaganligidan kelib chiqib, arizani qanoatlantirish haqida xulosaga kelgan.

Iordaniya va boshqalar Moldovaga qarshi ishi bo'yicha qarorida sud arizachilarning 2005-2007-yillarda Moldova sudlari tomonidan tergov organining xabarlarini nazorat qilish haqida iltimosnomalarining 98% qanoatlantirilganligi, ya'ni sudylar aksariyat iltimosnomalarning aksariyatini qanoatlantirganligi, so'zlashuvlarni nooshkora eshitib turish haqida sudning ajrimlari asoslantirilmaganligi va tizim suiste'molliklarga yo'l qo'yilishini Inson huquqlari bo'yicha Konvensiyaning 8-moddasi buzilishi sifatida e'tirof etgan [6].

Vyetnam Respublikasida tezkor-qidiruv tadbirlari qisman JPKga integratsiya qilingan bo'lib, 2015-yildagi JPK 223 – 228-moddalarida:

nooshkora video va audioyozuvni amalga oshirish;

telefon aloqasini nooshkora nazorat qilish;

elektron ma'lumotlarni nooshkora to'plash maxsus tergov harakatlari sifatida belgilangan. Vyetnam Respublikasida maxsus tergov harakatlari faqatgina milliy xavfsizlikka tajovuz qiluvchi, giyohvand moddalar noqonuniy aylanishi bilan bog'liq, korrupsiyaviy jinoyatlar, terrorizm, pul yuvish bilan bog'liq, shuningdek uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilgan va o'ta og'ir jinoyatlar yuzasidan o'tkazilishi mumkin.

MDH davlatlarida tezkor-qidiruv faoliyatiga oid qonunchilik tahlili, deyarli barcha davlatlarda TQF ustidan sud nazoratini o'rnatish va TQFni jinoyat protsessiga integratsiya qilish asosiy muammolardan bo'lganligini ko'rsatadi.

MDH davlatlaridan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Ukraina, Moldova, Ozarbayjon, Armanistonda tezkor-qidiruv faoliyati ustidan sud nazoratining barcha shakllari, garchi turli shakllarda bo'lsada to'liq amal qilishini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasining "Tezkor-qidiruv faoliyati" to'g'risida Qonuni 5-moddasi [7], Armaniston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida" qonuni 34-moddasi [8], Ozarbayjon Respublikasi "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida" qonuni 10-moddasida belgilangan [9].

Ozarbayjon Respublikasida tezkor-qidiruv faoliyati ustidan sud nazoratining ijobiy xususiyati shundan iboratki, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida" qonuni 19¹-moddasida sud nazorati Jinoyat-protsessual kodeksda belgilangan tartibda amalga oshirilishi to'g'ridan-to'g'ri belgilangan.

Jumladan, telefon so'zlashuvlarni eshitib turish, pochta telegraf va boshqa jo'natmalarni tekshirish; aloqaning texnik kanallari va boshqa texnik vositalardan axborot olish, uy-joy va boshqa binolarga kirish va ko'zdan kechirish, binolar shu jumladan turar joylarni ko'zdan kechirish, shaxslarni kuzatish sudning ruxsati bilan amalga oshiriladi [10].

Rossiya Federatsiyasining "Tezkor-qidiruv faoliyati" to'g'risida Qonuni 5-moddasida jinoyat sodir etganlikda aybliligi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmagan, ya'ni

harakatlarida jinoyat tarkibi mavjud emasligi sababli unga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish rad qilingan yoki tugatilgan va unga nisbatan tezkor-qidiruv tadbirlari o'kazilganligi haqida faktlarga ega shaxs, uning huquqlari buzilgan deb hisoblasa, unga doir olingan ma'lumotlarni tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organdan, konspiratsiya talablari yo'l qo'yadigan va davlat sirini oshkor qilish ehtimolini istisno qiladigan darajada talab qilib olishga haqli ekanligi belgilangan. Agar, so'ralgan ma'lumotlarni taqdim qilish rad qilinsa yoki mazkur shaxs ma'lumotlar to'liq hajmda olinmagan deb hisoblasa, shaxs ushbu masalani sud tartibida shikoyat qilishga haqli.

Ishni sudda ko'rish jarayonida, mazkur shaxsga ma'lumotlarni berishni, shu jumladan to'liq hajmda berishni rad qilishning asosligini isbotlash majburiyati tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi tegishli organga yuklatiladi. Mazkur organ arizachiga taqdim qilish rad qilingan ma'lumotlarni sudyaning talabiga ko'ra, taqdim qilishga majbur.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organning, zarur ma'lumotlarni arizachiga taqdim qilishni rad qilish haqida qarori asossiz deb topilgan holda, sudya mazkur organga arizachiga ma'lumotlarni taqdim qilish majburiyatini yuklatish mumkin [11].

RF sudlari tomonidan 2024-yil davomida tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazish haqida 537 364 ta iltimosnoma ko'rib chiqilib, 537 080 tasi qanoatlantirilgan, ya'ni faqatgina 272 ta holatda rad qilingan [12].

Yuqoridagi holat, RFda tezkor-qidiruv faoliyati ustidan sud nazorati samaradorligi bilan bog'liq savollarni yuzaga chiqaradi, shu bilan birga, tezkor-qidiruv faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari ustidan konstitutsiyaviy nazoratning alohida o'rni mavjudligini qayd qilish zarur.

RF Konstitutsiyaviy sudining bir qator qarorlari, shu jumladan tezkor qidiruv jarayonida sud himoyasi bo'lish huquqi [13], tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning qarorlari ustidan shikoyatlarning sudlovga taalluqliligi [14], tezkor-qidiruv tadbirlari jarayonida shaxsiy daxlsizlik huquqining buzilishi [15], tezkor-qidiruv tadbiri davomida advokat yordamidan foydalanish huquqi [16] kabi muhim masalalar yuzasidan qonunni qo'llash amaliyotiga jiddiy ta'sir o'tkazgan.

RF qonunchiligini o'rganish, TQF ustidan sud nazoratini huquqiy tartibga solishda ba'zi bo'shliqlar mavjudligi, jumladan:

TQF ustidan sud nazoratini amalga oshirishning protsessual tartibi aniq belgilanmaganligi;

TQFlarga ruxsat berish haqida sud ajrimlari ustidan shikoyat qilish umuman ko'zda tutilmaganligini ko'rsatadi.

Qozog'iston Respublikasida jinoyat ishi doirasida o'tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlari nooshkora tergov harakatlari sifatida JPK bilan tartibga solingan.

Jumladan, JPKning 232-moddasiga muvofiq, nooshkora tergov harakatlari jinoyat ishi bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniqlash uchun faktlar haqida ma'lumotlarni manfaatlariga daxl qilinadigan shaxslarni xabardor qilmasdan olish zarur bo'lganda o'tkaziladi.

Nooshkora tergov harakatlari pochta va boshqa jo'natmalarni nazorat qilishni istisno qilganda, ishni sudga qadar yurituvchi organning topshirig'iga ko'ra, huquqni muhofaza qiluvchi organning vakolatli bo'linmasi yoki maxsus davlat organi tomonidan tezkor-qidiruv faoliyatining shakl va usullaridan foydalanib amalga oshiriladi.

Joy yoki shaxsni audio va (yoki) videonazorat qilish, elektrik (telekommunikasiya) tarmoqlari orqali uzatiladigan axborotni nooshkora nazorat qilish, ushlab qolish va olish, abonentlar va (yoki) abonent qurilmalari o'rtasida bog'lanishlar haqida ma'lumotlarni nooshkora olish, ma'lumotlarni to'plash, kompyuter, server va ma'lumotlarni qayta ishlash, yig'ish va saqlashga mo'ljallangan boshqa uskunalardan axborotni nooshkora tarzda olish, pochta va boshqa jo'natmalarni nooshkora nazorat qilish, joyga nooshkora kirish va (yoki) ko'zdan kechirish tergov sudyasining sanksiyasiga asosan amalga oshiriladi.

Qozog'iston Respublikasi JPKning 232-moddasiga muvofiq, nooshkora tergov harakatlari bir yildan ko'proq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi ko'zda tutilgan, shuningdek guruh tomonidan tayyorlanayotgan va sodir etilayotgan jinoyatlar yuzasidan o'tkazilishi mumkin.

E'tiborli jihati, Qozog'iston Respublikasida nooshkora tergov harakatlari aynan kimga nisbatan o'tkazilishi mumkinligi aniq belgilangan bo'lib:

jinoyat haqida ariza va xabarda jinoyatni tayyorlayotgan, sodir etayotgan yoki sodir etgan shaxs sifatida ko'rsatilganga;

gumon qilinuvchiga;

jabrlanuvchiga, uning yozma roziligi bilan;

uchinchi shaxsga agar u ish uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotni olayotgan yoki berayotganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lsa;

joylar agar ish uchun ahamiyatga ega bo'lsa.

Qozog'iston Respublikasida nooshkora tergov harakatlari ustidan preventiv va keyingi sud sud nazorati ko'zda tutilgan bo'lib, kechiktirib bo'lmaydigan hollarda o'tkazilgan nooshkora tergov harakatlari 24 soat ichida mazkur tergov harakatini o'tkazishning asosligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan tergov sudyasiga yuboriladi.

Nooshkora tergov harakatiga sanksiya berish chog'ida taqdim qilingan axborotning haqqoniyligiga shubha mavjud bo'lgan taqdirda, tergov sudyasi qarorga sanksiya berib, 24 soat ichida uning qonuniyligini tekshirish uchun prokurorga yuborishi mumkin.

Sanksiya olinishi talab qilinadigan nooshkora tergov harakati 30 sutkadan ortiq o'tkazilishi mumkin emas, muddatni yana 30 sutkagacha uzaytirish tergov sudyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Nooshkora tergov harakati natijalaridan, JPK talablari asosida baholanganidan, aniqrog'i nooshkora tergov harakatlari natijalarini tekshirish bayonnomasi tuzilganidan so'ng foydalanish mumkin bo'ladi [17].

Turli shakllarga mansubligiga qaramay, oshkora va nooshkora tergov harakatlari vakolatli davlat organlari tomonidan jinoyat ishlarini sudga qadar tergov qilish bosqichida daliliy axborotni to'plashning asosiy vositasi sifatida o'zlarining qidiruv, bilish, va tasdiqlash yo'nalishini saqlab qoldi. Ushbu holat bizning fikrimizcha, qonun chiqaruvchiga dalillarni to'plashning har ikkala shaklini "tergov harakatlari" umumiy turdosh tushuncha bilan birlashtirish imkonini berdi[18, B.132].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tezkor-qidiruv faoliyati ustidan sud nazorati yuzasidan Qozog'iston tajribasining quyidagi xususiyatlarini alohida ajratish mumkin:

Ayrim tezkor-qidiruv tadbirlari nooshkora tergov harakatlari sifatida JPKning o'zi bilan tartibga solingan;

Aksariyat nooshkora tergov harakatlari ustidan sud nazorati oʻrnatilgan, kechiktirib boʻlmaydigan hollarda oʻtkazilgan nooshkora tergov harakatlarining qonuniyligi tergov sudyasi tomonidan tekshiriladi;

nooshkora tergov harakatlari aynan qanday toifadagi ishlar yuzasidan kimlarga nisbatan oʻtkazilishi mumkinligi aniq belgilangan;

unga nisbatan nooshkora tergov harakati oʻtkazilganligi haqida, mazkur shaxs, ishni sudga qadar yurituvchi organ tomonidan jinoyat ishi boʻyicha yakuniy qaror qabul qilingandan olti oydan kechiktirmasdan xabardor qilinishi lozim;

kompyuter, server va maʼlumotlarni qayta ishlash, yigʻish va saqlashga moʻljallangan boshqa uskunalardan axborotni nooshkora tarzda olish nooshkora tergov harakati sifatida belgilangan;

jinoyatga tayyorgarlik koʻrish yoki sodir etishda aybdorligi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmagan shaxs tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organdan unga nisbatan tekshiruv oʻtkazish uchun asos va unga nisbatan maʼlumot xarakteri bilan tanishishga haqli (Tezkor-qidiruv faoliyati toʻgʻrisida qonun 5-moddasi).

Biroq Qozogʻiston Respublikasida nooshkora tergov harakatlari natijalari boshqa tergov harakatlari natijalaridan nisbatan farqlanishini JPKning 120-moddasida gʻayrihuquqiy harakatlar haqida faktik maʼlumotlar qayd qilingan, qonun talablariga muvofiq olingan materiallar hujjatlar hisoblanishi va jinoyat protsessida dalil sifatida foydalanilishi mumkinligi belgilanganligidan koʻrishimiz mumkin.

Qirgʻiziston Respublikasida jinoyat ishi doirasida oʻtkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlari, JPKning 31-bobida “maxsus tergov harakatlari” sifatida tartibga solingan. Qirgʻiziston Respublikasida tezkor-qidiruv faoliyati ustidan sud nazoratining oʻziga xos xususiyatlariga;

maxsus tergov harakatlarining faqat qoʻzgʻatilgan jinoyat ishi doirasida oʻtkazilishi;

maxsus tergov harakatlari ustidan sud nazorati oʻrnatilganligi va tergov sudyasi tomonidan amalga oshirilishi;

maxsus tergov harakatlari uchinchi shaxslarga nisbatan ham oʻtkazilishi mumkinligi;

obyektni oshkor qilinishini oldini olish uchun shaxsga oid maʼlumotlar oʻrniga uning iltimosnomada uning taxallusi koʻrsatilishi mumkinligi;

maxsus tergov harakatlari jinoyat ishi yuzasidan tergov muddati doirasida biroq 2 oydan oshmagan muddatda oʻtkazilishi mumkinligi;

alohida hollarda maxsus tergov harakatlarini oʻtkazish muddati tergovchining iltimosnomasiga binoan bir yilgacha uzaytirilishi mumkinligi;

unga nisbatan maxsus tergov harakati oʻtkazilganligi haqida, mazkur shaxs, tergovchi tomonidan xabardor qilinishi;

maxsus tergov harakatlari bayonnomalari va uning natijasida olingan boshqa dalillarni legallashtirish yaʼni alohida tartibda koʻzdan kechirish va tekshirish talab qilinmasligi, dalil sifatida toʻgʻridan-toʻgʻri foydalanilishi.

Buyuk Britaniya va AQShning TQF sohasidagi qonun hujjatlari mazmuni ulardagi qoidalarning jinoyatchilikka qarshi kurashish yoki razvedka yoki kontrrazvedka maqsadlariga yoʻnaltirilganligidan farqlanadi. Biroq, tezkor-qidiruv faoliyatining subʼyekti va maqsadlaridan qatʼiy nazar «ubi jus ibi remedium» (huquq uni himoya qilish vositasi bor joydadir) prinsipiga

qat'iy amal qilinadi, ya'ni har bir hujjat bilan zarar yetkazilgan deb taxmin qilingan shaxslarning shikoyatlarini ko'rib chiqishning batafsil tartibi ko'zda tutiladi.

AQSHda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklovchi tadbirlar ustidan sud nazorati xorijiy razvedkani kuzatish haqida qonunga asosan amalga oshiriladi (Foreign Intelligence Surveillance Act — FISA). Mazkur tadbirlarga maxsus sudning ruxsati bilan yo'l qo'yiladi (FISA Court).

TQF ustidan sud nazoratining AQSH tajribasi:

TQTga ruxsat berish faqat vakolatli organning iltimosnomasiga asosan amalga oshirilishi;

sud jarayonining yopiqligi;

ma'lumotlarning qonuniyligi ustidan nazorat jinoyat ishi mazmunan ko'rilishida amalga oshirilishi bilan belgilanadi.

Xulosa. Xulosa qilib, «Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida»gi Qonunda, tezkor eksperiment jinoyat faoliyati haqida ma'lumot mavjud bo'lgan fuqaroga nisbatan va quyidagi shartlar mavjud bo'lganda o'tkazilishini belgilash taklif qilinadi:

shaxsga yoki uning yaqinlariga nisbatan tayyorlanayotgan, sodir etiladigan va sodir etilayotgan uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etilayotganligi haqida arizaning mavjudligi;

aniq shaxsga nisbatan o'tkazilishi (noma'lum shaxsga nisbatan emas);

tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organda, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida dastlabki ma'lumotlarning tegishli tartibda rasmiylashtirilganligi holatlariga aniq baho berilishi lozim.

Shuningdek, Tezkor-qidiruv faoliyati ustidan sud nazoratining Ukraina tajribasini ijobiy baholash va quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

nooshkora tergov (qidiruv) harakatlariga ruxsat berish haqida iltimosnomani qanoatlantirish asoslari aniq belgilangan (jinoyatning og'irlik darajasi, ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan dalillar olinishi mumkinligi);

tergov sudyasining qarorida amal qilish muddati ko'rsatilishi (2 oydan oshirish mumkin emas);

o'ziga nisbatan nooshkora tergov (qidiruv) harakatlari o'tkazishda shaxsni xabardor qilish majburiyati belgilangan.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining pozitsiyasiga muvofiq, yashirin nazorat manfaatdor shaxslar yoki jamiyat tomonidan nazorat qilinmasligi, ijro etuvchi hokimiyati yoki sudning cheklanmagan vakolatlarida ifodalanadigan huquqiy diskresiya huquq ustuvorligiga zid hisoblanadi.

Shu bilan birga, Tezkor-qidiruv faoliyati ustidan sud nazorati yuzasidan Qozog'iston tajribasining quyidagi xususiyatlarini alohida ajratish mumkin:

ayrim tezkor-qidiruv tadbirlari nooshkora tergov harakatlari sifatida JPKning o'zi bilan tartibga solingan;

aksariyat nooshkora tergov harakatlari ustidan sud nazorati o'rnatilgan, kechiktirib bo'lmaydigan hollarda o'tkazilgan nooshkora tergov harakatlarining qonuniyligi tergov sudyasi tomonidan tekshiriladi;

nooshkora tergov harakatlari aynan qanday toifadagi ishlar yuzasidan kimlarga nisbatan o'tkazilishi mumkinligi aniq belgilangan;

unga nisbatan nooshkora tergov harakati o'tkazilganligi haqida, mazkur shaxs, ishni sudga qadar yurituvchi organ tomonidan jinoyat ishi bo'yicha yakuniy qaror qabul qilingandan olti oydan kechiktirmasdan xabardor qilinishi lozim;

kompyuter, server va ma'lumotlarni qayta ishlash, yig'ish va saqlashga mo'ljallangan boshqa uskunalardan axborotni nooshkora tarzda olish nooshkora tergov harakati sifatida belgilangan;

jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki sodir etishda aybdorligi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmagan shaxs tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organdan unga nisbatan tekshiruv o'tkazish uchun asos va unga nisbatan ma'lumot xarakteri bilan tanishishga haqliligini alohida qayd etish lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. WJP Rule of Law Index: Uzbekistan Overall Score, 2024 // URL: <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/country/2024/Uzbekistan/Criminal%20Justice/>
2. https://continent-online.com/Document/?doc_id=31197178#pos=2909;-22
3. Uголовно-processual'nyj kodeks FRG [Electron version] // URL: <http://www.juristlib.ni/book>
4. Postanovlenie ESPCh ot 07.11.2017 "Delo Ahljustin (Akhlyustin) protiv Rossijskoj Federacii" (zhaloba N 21200/05) // URL: [https://hudoc.echr.coe.int/#{%22documentcollectionid2%22:\[%22GRANDCHAMBER%22,%22CHAMBER%22\]}](https://hudoc.echr.coe.int/#{%22documentcollectionid2%22:[%22GRANDCHAMBER%22,%22CHAMBER%22]})
5. Sudning "Meloun Birlashgan qirolikka qarshi", "Leander Shvetsiyaga qarshi", "Yuvig Fransiyaga qarshi", "Veber va Saraviya Germaniga qarshi ishlari bo'yicha" qarorlari [judgments in the cases of Malone v. the United Kingdom, Leander v. Sweden, Yuvignac v. France, and Weber and Saravia v. Germany] // URL: [https://hudoc.echr.coe.int/#{%22documentcollectionid2%22:\[%22GRANDCHAMBER%22,%22CHAMBER%22\]}](https://hudoc.echr.coe.int/#{%22documentcollectionid2%22:[%22GRANDCHAMBER%22,%22CHAMBER%22]})
6. Иордаки и другие против Молдавии [Iordachi and Others v. Moldova] (№ 25198/02) Постановление от 10 февраля 2009 г. [вынесено IV Секцией] [Iordaki i drugie protiv Moldavii [Iordachi and Others v. Moldova] (№ 25198/02) Postanovlenie ot 10 fevralja 2009 g. [vyneseno IV Sekciej]] // URL: [https://hudoc.echr.coe.int/#{%22documentcollectionid2%22:\[%22GRANDCHAMBER%22,%22CHAMBER%22\]}](https://hudoc.echr.coe.int/#{%22documentcollectionid2%22:[%22GRANDCHAMBER%22,%22CHAMBER%22]})
7. Федеральный закон об оперативно-розыскной деятельности [Federal'nyj zakon ob operativno-rozysknoj dejatel'nosti] // URL: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_7519/
8. Закон Республики Армения "Об оперативно-розыскной деятельности" [Zakon Respubliki Armenija "Ob operativno-rozysknoj dejatel'nosti"] // URL: <https://www.arlis.am/documentview.aspx?docid=81018>
9. Закон Азербайджанской Республики об оперативно-розыскной деятельности [Zakon Azerbajdzhanskoj Respubliki ob operativno-rozysknoj dejatel'nosti] // URL: <https://mia.gov.az/ru/legislation/1/view/2/>
10. Закон Азербайджанской Республики об оперативно-розыскной деятельности [Zakon Azerbajdzhanskoj Respubliki ob operativno-rozysknoj dejatel'nosti] // URL: <https://mia.gov.az/ru/legislation/1/view/2/>
11. "Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации" от 18.12.2001 N 174-ФЗ ["Uголовно-processual'nyj kodeks Rossijskoj Federacii" ot 18.12.2001 N 174-FZ] // URL: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/
12. Судебный департамент при Верховном Суде Российской Федерации [Sudebnyj departament pri Verhovnom Sude Rossijskoj Federacii] // URL: <https://cdep.ru/>

13. Определение КС РФ от 14 июля 1998 г. № 86-О [Opredelenie KS RF ot 14 ijulja 1998 g. № 86-О] // URL: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_19780/
14. Определение КС РФ от 1 апреля 2008 г. № 386-О-О [Opredelenie KS RF ot 1 aprelja 2008 g. № 386-О-О] // URL: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_19780/
15. Определение КС РФ от 15 апреля 2008 г. № 312-О-О [Opredelenie KS RF ot 15 aprelja 2008 g. № 312-О-О] // URL: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_19780/
16. Определение КС РФ от 1 декабря 1999 г. № 211-О., Определение КС РФ от 21 апреля 2011 г. № 580-О-О [Opredelenie KS RF ot 1 dekabrja 1999 g. № 211-О., Opredelenie KS RF ot 21 aprelja 2011 g. № 580-О-О] // URL: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_19780/
17. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан [Ugolovno-processual'nyj kodeks Respubliki Kazahstan] // URL: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575852
18. Ахпанов А.Н., Хан А.Л. О соотношении гласных и негласных следственных действий в уголовном процессе Республики Казахстан. Вестник Института законодательства РК// №4 (45) 2016 [Ahpanov A.N., Han A.L. O sootnoshenii glasnyh i neglasnyh sledstvennyh dejstvij v ugovnom processe Respubliki Kazahstan. Vestnik Instituta zakonodatel'stva RK// №4 (45) 2016 – Str. 132]

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND HUMAN RIGHTS: THEORETICAL AND LEGAL FOUNDATIONS

Bahronov Ravshan Rashid o'glu

Independent researcher in human rights
Leading manager of the NGO Zakovat

Abstract. This article analyzes the theoretical and legal foundations of human rights in the context of the rapid development of artificial intelligence (SI) technologies. The study explores the concept and stages of development of SI, modern human rights concepts, and the interplay between these two areas. Based on literature analysis, the article reveals the impact of SI development on human rights, the effectiveness of existing legal mechanisms and the challenges facing the global community. The summary section provides recommendations for improving legal regulation in the SI field.

Keywords: artificial intelligence, human rights, legal regulation, digital rights, ethical SI, international law, technological policy.

SUN'IY INTELLEKT VA INSON HUQUQLARI: NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLAR

Baxronov Ravshan Rashid o'g'li

Inson huquqi fanlari mustaqil izlanuvchisi
Zakovat NNT yetakchi menejeri
E-mail: bahronov.ravshan@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida inson huquqlarining nazariy va huquqiy asoslarini tahlil qiladi. Tadqiqot SI tushunchasi va rivojlanish bosqichlarini, zamonaviy inson huquqlari konsepsiyalarini hamda ushbu ikki soha orasidagi o'zaro aloqadorlikni o'rganadi. Adabiyotlar tahlili asosida maqola SI rivojlanishining inson huquqlariga ta'sirini, mavjud huquqiy mexanizmlarning samaradorligini va global hamjamiyat oldida turgan muammolarni ochib beradi. Xulosa qismida SI sohasidagi huquqiy tartibga solishni takomillashtirish uchun tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, inson huquqlari, huquqiy tartibga solish, raqamli huquqlar, axloqiy SI, xalqaro huquq, texnologik siyosat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N78>

Kirish. Zamonaviy dunyoda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalarini shiddat bilan o'zgartirmoqda. Ushbu texnologiyalar insoniyatga beqiyos imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda, inson huquqlari sohasida ham jiddiy savollar va muammolarni keltirib chiqarmoqda [1]. SI tibbiyot, ta'lim, transport, huquqni muhofaza qilish va boshqa ko'plab sohalarda keng qo'llanilmoqda. Biroq, SI algoritmlari qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etgani sari, ularning shaffofligi, adolatligi va inson huquqlariga ta'siri masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda [2].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar orqali kafolatlangan huquq va erkinliklar raqamli

texnologiyalar kontekstida yangi ma'no va ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, shaxsiy ma'lumotlar maxfiylik, so'z erkinligi, kamsitishdan himoyalash huquqi kabi masalalar SI tizimlarini rivojlantirish va qo'llash jarayonida alohida e'tibor talab etmoqda [3].

Ushbu tadqiqotning maqsadi SI va inson huquqlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning nazariy va huquqiy asoslarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda SI texnologiyalarini huquqiy tartibga solishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilashdan iborat. Tadqiqot doirasida SI tushunchasi va uning rivojlanish bosqichlari, zamonaviy inson huquqlari yondashuvlari hamda ularning o'zaro munosabati masalalari yoritiladi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqot SI va inson huquqlari mavzusidagi ilmiy maqolalar, huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ekspert fikrlarining kompleks tahlili asosida amalga oshirildi. Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv va kontekstual tahlil usullarini o'z ichiga oladi.

Sun'iy intellekt tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari bo'yicha Russell va Norvig [4] tomonidan taklif etilgan klassifikatsiya muhim nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Ular SI tizimlarini inson kabi fikrlash, inson kabi harakat qilish, ratsional fikrlash va ratsional harakat qilish kabi to'rt yo'nalishda tasniflaydilar. Bundan tashqari, Bostrom [5] tomonidan ilgari surilgan "kuchli" va "kuchsiz" SI tushunchalari hamda ularning rivojlanish istiqbollari tahlil qilindi.

Inson huquqlari kontekstida SI masalalarini o'rganishda Risse [6] ning "Inson huquqlarining raqamli kelajagi" nomli tadqiqoti, shuningdek Yevropa Ittifoqining 2021-yilda qabul qilingan "Sun'iy intellektga oid qonun" loyihasi muhim manba bo'lib xizmat qildi [7]. O'zbekiston kontekstida mamlakat qonunchiligida sun'iy intellektni tartibga solish masalalari Yunusov [8] tomonidan o'rganilgan. Rossiya Federatsiyasida SI sohasida huquqiy tartibga solish masalalari Nazmutdinov [9] ishlarida batafsil yoritilgan.

SI va inson huquqlari o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda BMTning "Biznes va inson huquqlari bo'yicha rahbariy tamoyillari" [10] hamda xalqaro huquq ekspertlari guruhi tomonidan 2018-yilda ishlab chiqilgan "Toronto deklaratsiyasi" kabi xalqaro hujjatlar o'rganildi.

Natijalar va muhokama. Sun'iy intellekt — bu insoniy aql uchun xos bo'lgan funksiyalarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lgan kompyuter tizimlari va algoritmlarni yaratish borasidagi ilmiy-texnologik sohadir. SI rivojlanishida bir necha asosiy bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin: mustaqil algoritmlarga asoslangan dastlabki tizimlar (1950-1960-yillar), ekspert tizimlar (1970-1980-yillar), mashina o'rganishi (1990-2000-yillar) va chuqur o'rganishga asoslangan zamonaviy neyron tarmoqlari (2010-yildan hozirgi kungacha) [4].

Zamonaviy SI tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, murakkab muammolarni hal qilish, matnlar bilan ishlash, tasvirlarni tanish va boshqa ko'plab funksiyalarni bajara oladi. Biroq, SI tizimlarining mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati inson nazorati va javobgarligi masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Bostrom ta'kidlaganidek, "kuchli SI" yoki umumiy sun'iy intellekt (Artificial General Intelligence) rivojlanishi bilan bog'liq xavf-xatarlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega [5].

Inson huquqlari — bu har bir insonga tug'ilishidan berilgan, uning qadr-qimmatini ta'minlaydigan asosiy huquq va erkinliklardir. Zamonaviy yondashuvlar inson huquqlarining universalligini, bo'linmasligini va o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Biroq, raqamli texnologiyalar

rivojlanishi bilan yangi avlod huquqlari — raqamli huquqlar masalasi kun tartibiga chiqmoqda [6].

Raqamli muhitda shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, axborot xavfsizligi, raqamli tenglik va ommaviy kuzatuv tizimlaridan himoyalanish kabi masalalar tobora dolzarb bo'lib bormoqda. SI tizimlari ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, shuningdek, shaxsni identifikatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda, bu esa shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini ta'minlash bo'yicha yangi yondashuvlarni talab etmoqda [3].

Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan Ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglament (GDPR) va "Sun'iy intellektga oid qonun" loyihasi kabi huquqiy hujjatlar raqamli muhitda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan muhim qadamlar hisoblanadi [7]. O'zbekistonda ham "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lib, u raqamli muhitda fuqarolar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan [8].

SI va inson huquqlari o'rtasidagi munosabatlar ikki yo'nalishda rivojlanmoqda: birinchidan, SI tizimlarining inson huquqlariga ta'siri; ikkinchidan, SI rivojlanishi davomida inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari.

SI tizimlarining inson huquqlariga ta'siri juda ko'p qirrali bo'lib, ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, SI tibbiyot sohasida qo'llanilishi hayot va sog'liqni saqlash huquqini ta'minlashga yordam bersa, SI asosidagi nazorat tizimlari shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini cheklashi mumkin [9].

Xalqaro darajada SI sohasida axloqiy va huquqiy me'yorlarni shakllantirish jarayoni faol davom etmoqda. BMTning "Biznes va inson huquqlari bo'yicha rahbariy tamoyillari" texnologiya kompaniyalari uchun muhim yo'riqnoma vazifasini o'tamoqda [10]. 2018-yildagi "Toronto deklaratsiyasi" esa SI tizimlarini ishlab chiqish va qo'llashda kamsitishga yo'l qo'ymaslik tamoyillarini belgilab bergan [11].

Quyidagi jadval orqali turli sohalarda qo'llanilayotgan SI tizimlarining inson huquqlariga ijobiy va salbiy ta'sirini baholash mumkin:

1-jadval.

Sun'iy intellekt tizimlarining turli sohalarda inson huquqlariga ta'siri

| Soha | SI tizimi turi | Ijobiy ta'sir | Salbiy ta'sir | Ta'sir etilgan asosiy huquqlar |
|-------------------------|--|--|---|--|
| Tibbiyot | Diagnostik algoritmlar, kasallik taxminlash tizimi | Davolash imkoniyatlarini kengaytirish, tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish | Noto'g'ri tashxislar xavfi, ma'lumotlar maxfiyligining buzilishi | Sog'liqni saqlash huquqi, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi |
| Ta'lim | Adaptiv o'qitish tizimlari | Individuallashtirilgan ta'lim, maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun imkoniyatlar | Raqamli tafovutni kuchaytirish, standartlashtirilgan yondashuv | Ta'lim olish huquqi, rivojlanish huquqi |
| Huquqni muhofaza qilish | Prognozli politsiya tizimlari, yuz tanish | Jinoyatchilikni samarali oldini olish | Noto'g'ri ayblovlar, ayrim guruhlarini haddan tashqari nazorat qilish | Adolatli sud huquqi, kamsitilmaslik huquqi |

| | | | | |
|---------------|---------------------------------|--|--|---|
| Moliya | Kredit skoring tizimlari | Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish | Mavjud ijtimoiy tengsizliklarni mustahkamlash | Iqtisodiy huquqlar, tenglik huquqi |
| Mehnat bozori | Ishga qabul qilish algoritmlari | Samarali nomzod tanlash, subyektiv omillarni kamaytirish | Gender, irqiy va boshqa belgilarga ko'ra kamsitish | Mehnat qilish huquqi, kamsitilmaslik huquqi |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, SI tizimlari bir vaqtning o'zida ham inson huquqlarini ta'minlashga yordam berishi, ham ularni cheklashi mumkin. Bu ziddiyatli vaziyat SI tizimlarini ishlab chiqish va joriy etishda kompleks yondashuvni talab etadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, SI tizimlarining inson huquqlariga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun quyidagi choralarni ko'rish zarur:

SI tizimlari shaffofligini ta'minlash: Algoritmarga asoslangan qaror qabul qilish jarayonlarini tushuntirish imkoniyatini yaratish, SI tizimlarining ishlash tamoyillarini ochiq-oydin bayon qilish.

Doimiy monitoring va audit: SI tizimlarining inson huquqlariga ta'sirini muntazam ravishda baholab borish, ijtimoiy-huquqiy oqibatlarni tahlil qilish.

Ko'p tomonlama boshqaruv: SI sohasidagi huquqiy tartibga solish jarayonida davlat organlari, xususiy sektor, fuqarolik jamiyati institutlari va ekspertlar hamkorligini ta'minlash.

Huquqiy savodxonlikni oshirish: Jamiyatda SI tizimlari bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, fuqarolarni o'z huquqlarini himoya qilish mexanizmlari bilan tanishtirish.

Yuqoridagi tahlil natijalariga ko'ra, SI va inson huquqlari o'rtasidagi munosabatlar kompleks xarakterga ega bo'lib, har bir SI tizimini ishlab chiqish va joriy etishda inson huquqlari tamoyillariga rioya qilish zarur. SI sohasidagi huquqiy tartibga solishni takomillashtirish orqali ushbu texnologiyalarning ijobiy salohiyatini saqlagan holda, salbiy oqibatlarini kamaytirish mumkin.

Xulosa. Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida inson huquqlarini ta'minlash masalasi global hamjamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, SI va inson huquqlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalasi kompleks yondashuvni talab etadi.

Birinchidan, SI tizimlari ishlab chiqilishi va qo'llanilishining barcha bosqichlarida inson huquqlari tamoyillariga rioya qilinishini ta'minlash zarur. Bu maqsadda SI tizimlarining shaffofligini oshirish, diskriminatsion amaliyotlarga yo'l qo'ymaslik va axloqiy me'yorlarga rioya qilish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, mavjud huquqiy mexanizmlarni SI rivojlanishi sharoitida yangi vujudga kelayotgan muammolarni hal qilishga moslashtirish zarur. Bu jarayonda xalqaro va milliy darajalarda SI sohasidagi huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, yangi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va mavjudlarini yangilash talab etiladi.

Uchinchidan, jamiyatda SI texnologiyalari bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni oshirish, fuqarolarni o'z huquqlarini himoya qilish usullari bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Bu yo'nalishda ta'lim tizimini takomillashtirish, axborot kompaniyalarini o'tkazish va jamoat muhokamalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, SI texnologiyalari rivojlanishi insoniyatga beqiyos imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda, inson huquqlari sohasidagi an'anaviy tushunchalar va mexanizmlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. SI va inson huquqlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun texnologik rivojlanish bilan huquqiy tartibga solish o'rtasida uzviy aloqani ta'minlash zarur.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Eubanks, V. (2018). *Automating Inequality: How High-Tech Tools Profile, Police, and Punish the Poor*. New York: St. Martin's Press.
2. O'Neil, C. (2016). *Weapons of Math Destruction: How Big Data Increases Inequality and Threatens Democracy*. New York: Crown Publishers.
3. Zuboff, S. (2019). *The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power*. New York: Public Affairs.
4. Russell, S., & Norvig, P. (2020). *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. 4th edition. Pearson Education Limited.
5. Bostrom, N. (2014). *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies*. Oxford: Oxford University Press.
6. Risse, M. (2019). *Human Rights and Artificial Intelligence: An Urgently Needed Agenda*. *Human Rights Quarterly*, 41(1), 1-16.
7. European Commission. (2021). *Proposal for a Regulation on a European Approach for Artificial Intelligence*. Brussels: European Commission.
8. Yunusov, O. (2022). *O'zbekistonda sun'iy intellekt sohasidagi huquqiy tartibga solish muammolari*. *Huquq va innovatsion texnologiyalar*, 3(2), 45-58.
9. Nazmutdinov, B. (2021). *Pravovoe regulirovanie iskusstvennogo intellekta v Rossii i mire*. *Journal of Law and Digital Technologies*, 2(1), 24-36.
10. United Nations. (2011). *Guiding Principles on Business and Human Rights*. New York and Geneva: United Nations.
11. The Toronto Declaration: Protecting the right to equality and non-discrimination in machine learning systems. (2018). Amnesty International & Access Now. <https://www.accessnow.org/the-toronto-declaration-protecting-the-rights-to-equality-and-non-discrimination-in-machine-learning-systems/>

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

TRACKING AND FREEZING ILLEGALLY OBTAINED ASSETS: A COMPARATIVE STUDY OF APPROACHES

Usmonov Malik,

Independent PhD Candidate,
Tashkent State University of Law

Abstract. This comprehensive study examines the diverse national approaches to tracing and freezing illicitly obtained assets, focusing on their effectiveness in the broader context of asset recovery. Through a comparative analysis of legal frameworks, procedural mechanisms, and practical implementations across various jurisdictions, the research highlights the critical role of asset tracing and freezing in combating financial crimes and corruption. The study explores the challenges faced by different nations, including due process concerns, human rights considerations, and the impact of political influence on asset recovery efforts. By analyzing best practices and successful case studies from multiple regions, this research aims to identify effective strategies and propose ways to harmonize and enhance asset tracing and freezing mechanisms on a global scale. The findings underscore the need for increased international cooperation and the development of more robust, standardized approaches to improve the efficacy of asset recovery initiatives worldwide.

Keywords: asset tracing, asset freezing, national approaches, comparative law, corruption, financial crime, international cooperation, due process, human rights.

ОТСЛЕЖИВАНИЕ И ЗАМОРАЖИВАНИЕ НЕЗАКОННО ПОЛУЧЕННЫХ АКТИВОВ: СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПОДХОДОВ

Усмонов Малик

Самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Данное исследование представляет собой всесторонний анализ национальных подходов к отслеживанию и замораживанию незаконно полученных активов, сосредотачивая внимание на их эффективности в более широком контексте возврата активов. Посредством сравнительного анализа правовых рамок, процессуальных механизмов и практической реализации в различных юрисдикциях работа подчеркивает ключевую роль данных мер в борьбе с финансовыми преступлениями и коррупцией. Исследование также выявляет существующие вызовы, включая вопросы надлежащей правовой процедуры, соблюдение прав человека и влияние политических факторов на усилия по возврату активов. Путем анализа успешных практик и кейсов из различных стран, автор стремится предложить эффективные стратегии и пути гармонизации механизмов отслеживания и замораживания активов на глобальном уровне. Результаты подчеркивают необходимость усиления международного сотрудничества и разработки более устойчивых, стандартизированных подходов к возврату активов.

Ключевые слова: отслеживание активов, замораживание активов, национальные подходы, сравнительное право, коррупция, финансовые преступления, международное сотрудничество, правовая процедура, права человека.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N79>

Введение. Незаконные финансовые потоки (НФП) являются растущей проблемой как для развитых, так и для развивающихся стран. По оценкам ООН,

развивающиеся государства ежегодно теряют более **88,6 миллиардов долларов** из-за НФП, значительная часть которых связана с коррупцией и финансовыми преступлениями. Поэтому меры по отслеживанию и замораживанию активов играют ключевую роль не только в обеспечении справедливости и сдерживания преступлений, но и в восстановлении ресурсов, критически важных для общественного блага.

Хотя международные договоры, такие как **Конвенция ООН против коррупции (UNCAC)** [1], и рекомендации **ФАТФ** предлагают основу, реализация этих инструментов в разных странах существенно различается. Настоящая работа предлагает сравнительный анализ для оценки сильных и слабых сторон национальных стратегий.

Отслеживание активов (Asset Tracing) представляет собой процесс идентификации местонахождения, собственности и движения активов, полученных в результате преступной деятельности.

Замораживание активов (Asset Freezing) предполагает введение временных ограничений на передачу, перемещение или использование активов до завершения судебного разбирательства, что служит мерой пресечения преступной деятельности и обеспечивает возможность последующей конфискации [2].

Ключевые нормативные акты, регулирующие данные процессы, включают:

- Конвенцию Организации Объединенных Наций против коррупции (UNCAC, 2003), в статьях 31 и 54 которой предусмотрены обязательства государств о реализации мер по замораживанию и возврату активов, приобретённых незаконным путём.
- Рекомендации Группы разработки финансовых мер борьбы с отмыванием денег (ФАТФ), конкретно рекомендации 4 и 38, подчеркивающие необходимость наличия эффективных механизмов изъятия активов и обеспечения международного сотрудничества.
- Директиву Европейского Союза 2014/42/ЕС, стандартизирующую процедуры замораживания и конфискации активов на территории стран-членов ЕС.

В соответствии с мнением Дейли Биркетта (2020), нормы международного права в сфере прав человека требуют обеспечения того, чтобы меры по замораживанию активов соответствовали принципам законности, соразмерности и уважения прав на судебную защиту.

Сравнительный анализ подходов к изъятию активов свидетельствует о значительном разнообразии юридических и процедурных механизмов, используемых в различных странах. В Соединенных Штатах наблюдается развитая система изъятия активов, осуществляемого как в уголовном, так и в гражданском порядке, что подтверждается действием законодательства, такого как Закон о конфискации активов, основанный в 2000 году. Особое значение имеет инициатива Kleptocracy Asset Recovery, направленная на возвращение активов, похищенных иностранными должностными лицами. В практике широко применяется конфискация без предъявления обвинения (non-conviction based confiscation, NCB). Тем не менее, исследования Хендри и Кинга (2023) указывают на наличие критических замечаний в адрес системы гражданской конфискации, критикуя высокий уровень перераспределения ресурсов в пользу государства при недостаточном обеспечении процессуальных гарантий.

В Соединённой Королевстве внедрены законодательные инструменты, регулирующие изъятие активов, такие как Закон о доходах от преступной деятельности 2002 года (POCA) и Закон о финансовых преступлениях 2017 года. Среди ключевых механизмов — ордера на необъясненное богатство (UWO) и ордера на замораживание счетов (AFO). Несмотря на их эффективность, исследования Кинга и Уокера (2022) указывают на наличие значительных пробелов в доказательственной базе и несогласованность в их применении.

В Швейцарии деятельность по замораживанию активов регламентируется Законом FRAIA, который предусматривает возможность блокировки активов, связанных с политически значимыми лицами (PEPs). Важную роль играет практика взаимной правовой помощи (MLA), обеспечивающая международное сотрудничество. В то же время Базельский институт управления (2023) отмечает, что процедурные аспекты нередко страдают от затягивания процессов, обусловленных высокими требованиями к доказательствам.

Во Франции существенным развитием стало создание системы AGRASC, которая централизовала управление замороженными активами. Исследования Нэнса и Дюбуа (2018) свидетельствуют о том, что благодаря структурированной системе доказывания Франция демонстрирует большую эффективность в отслеживании и изъятии активов по сравнению с США.

В Нигерии ситуация характеризуется интеграцией деятельности Комиссии по экономическим и финансовым преступлениям (EFCC) с международным сотрудничеством. Согласно мнению Лекгоуэ (2023), несмотря на прогресс, сохраняется проблема политического давления и недостатка институциональной устойчивости, что негативно влияет на эффективность применения законов о конфискации активов.

Основные проблемы, связанные с отслеживанием и замораживанием активов, включают вопросы гарантий процессуального характера и соблюдения верховенства закона. В частности, исследование Хендри и Кинга (2023) указывает на потенциал нарушения принципа презумпции невиновности и прав собственности при использовании методов конфискации, основанных на национальных компетенциях без достаточного уровня правовых ограничений [3].

В сфере защиты прав человека важным аспектом является соответствие мер замораживания установленным критериям. Биркерт (2020) подчеркивает необходимость обеспечения соразмерности применяемых мер, их временной ограниченности и наличия права на судебную защиту. Эти принципы получили признание Европейским судом по правам человека, особенно в деле «М против Франции» (2006), что подчеркивает необходимость соблюдения международных стандартов в данной области.

Политизация процесса замораживания активов также представляет серьезную проблему. Лекгоуэ и Ву Као (2024) отмечают, что в условиях слабых судебных систем меры замораживания могут не только выполнять свою целевую функцию, но и использоваться в качестве инструмента политического давления, что подрывает их легитимность и эффективность.

Мнения зарубежных научных исследователей

В международной академической литературе систематически представлены теоретические концепции, эмпирические исследования и нормативные рекомендации, освещающие различные аспекты процессов отслеживания (tracing) и замораживания (freezing) незаконных активов. Ниже приводится обзор ключевых идей и доводов различных авторов, а также их применение к области сравнительного анализа.

В области теоретического анализа выделяется работа Jennifer Hendry и Colin King, посвященная вопросам границ допустимости мер по конфискации активов без вынесения уголовного приговора. Они обращают особое внимание на то, что, несмотря на высокую эффективность механизмов non-conviction-based (NCB) в борьбе с организованной преступностью и коррупцией, данные меры могут нарушать фундаментальные принципы уголовного права, такие как презумпция невиновности, требования стандарта доказательства и защиту прав собственника. Авторы предлагают применять теорию систем для оценки воздействия этих мер на легитимность правовой системы, уровень доверия граждан и баланс интересов государства и индивидов.

Анализ конституционных и правовых аспектов практической реализации подобных механизмов представлен в исследовании Госего Рокфола Лекгове, посвященном конституционной и судебной проверке режима конфискации без осуждения в Ботсване. Автор отмечает, что хотя законодательство — в данном случае Закон о доходах и инструментах преступлений 2014 года (PICA) — прошло соответствующие судебные и конституционные экспертизы, остаются неясными стандарты доказательства и процедуры защиты прав третьих лиц, что потенциально может приводить к злоупотреблениям и нарушениям прав человека.

Практическое и сравнительное исследование, проведенное в рамках анализа практики США и Франции, выявляет существенные различия в процедурах отслеживания активов. В частности, в американской системе отмечаются определенные слабости, такие как сложности в доказывании происхождения средств, размытые стандарты и высокая сложность перекладывания бремени доказывания, что уменьшает эффективность процедур по сравнению с французскими механизмами.

Важным аспектом является анализ законодательства Вьетнама, который посвящен вопросам внедрения механизмов NCB-конфискации. В работе Минха Ву Као и Тхи Нго Ань Као подчеркивается, что текущая правовая база Вьетнама не содержит норм, позволяющих эффективно применять такие меры, однако существует необходимость их разработки и внедрения. Авторы акцентируют внимание на международных нормах, таких как UNCAC и FATF [4], которые уже предусматривают использование инструментов, основанных на конфискации без осуждения, и подчеркивают важность модернизации законодательства страны с учетом обеспечения прав человека и гарантий безопасности.

В области прав человека и судебной практики обращается внимание на работу Daley J. Birkett о требованиях международных судов по правам человека к процедурам замораживания активов [5]. Статья анализирует, как Европейский суд по правам человека и Межамериканский суд по правам человека формируют стандарты для таких мер, особенно в контексте деятельности международных органов, таких как

Международный уголовный суд (ИСС) и СБ ООН. Основные выводы демонстрируют, что меры замораживания неразрывно связаны с правами на собственность, частную и семейную жизнь, а также право на справедливое судебное разбирательство. Судебная практика подчеркивает необходимость соблюдения принципов пропорциональности и временности—то есть, что меры должны быть соразмерными цели и не носить неограниченный характер без судебного контроля.

Исходя из мнений исследователей, можно сделать следующие обобщения и применить их:

| Вывод исследователей | Последствия для национальных подходов |
|---|--|
| Неоднозначность стандартов доказательства в NCB конфискации замораживании | Необходимо четко прописывать, какой стандарт доказательства используется (например: "достаточные основания", "преобладание доказательств", "разумное подозрение") и обеспечить, чтобы он не был занижен во имя эффективности. |
| Требование судебного контроля и защиты третьих лиц | Законодательства, использующие NCB или civil forfeiture, должны включать процедуры, позволяющие собственникам или третьим лицам оспорить меры, получить право на слушание, защиту, возможно компенсацию. |
| Пропорциональность и временные рамки замораживания активов | Необходимо, чтобы заморозка не была длительной без судебного решения, и была возможность снять или смягчить меры при отсутствии достаточной активности со стороны ордеров или расследования. |
| Южный (развивающийся) контекст институциональные ограничения | Страны с низким уровнем ресурсов, слабой судебной системой, высоким уровнем коррупции особенно нуждаются в поддержке, в том числе международной, технической, нормативной, чтобы внедрить подходы, уже проверенные в других государствах, с адаптацией к местным условиям. |
| Необходимость гармонизации и стандартов в международном сотрудничестве | Чтобы MLA (взаимная правовая помощь) и признание ордеров на конфискацию / замораживание работали эффективно на трансграничном уровне, необходимо содействие унификации стандартов, обмен информацией, создание прецедентов, возможно разработка моделей законодательства. |

Заключение. Отслеживание и замораживание активов требует тонкого баланса между эффективностью и соблюдением прав. Хотя в таких странах, как США, Великобритания и Швейцария, действуют развитые механизмы, их реализация варьируется в зависимости от правовых, институциональных и политических факторов.

Международное сотрудничество сталкивается с рядом препятствий, таких как различия в правовых стандартах между государствами, сложности, связанные с процедурой международного правового запроса (MLA), а также непрозрачность юрисдикций, особенно офшорных зон. Базельский институт подчеркивает, что низкий уровень доверия между странами затрудняет проведение совместных расследований и обмен информацией, что в значительной степени ограничивает эффективность международных мер по отслеживанию и замораживанию активов.

Научные исследования показывают, что отсутствие правовых гарантий и политизация подрывают доверие к системе. Для преодоления этих вызовов государства должны укреплять процессуальные гарантии, развивать международное сотрудничество и унифицировать стандарты.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Конвенция Организации Объединенных Наций против коррупции (UNCAC).
2. <https://star.worldbank.org/>(<https://star.worldbank.org>.
3. <https://star.worldbank.org/>(<https://star.worldbank.org>.
4. <https://www.unodc.org/unodc/en/treaties/CAC/>
5. Birkett, D. J. (2020). Asset Freezing at the European and Inter-American Courts of Human Rights. *Human Rights Law Review*, 20(3), 502–532.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

ALTERNATIVE METHODS TO RESOLVE DISPUTES RELATED TO DIGITAL ASSETS

Abdusattarov Jaloliddin Sharafutdin ugli

Employee of the Justice Department of Qibray
Justice Administration of Tashkent region

Abstract. This article examines the causes, characteristics, and alternative ways to resolve digital asset disputes. The article analyzes the importance of alternative dispute resolution mechanisms, in particular, arbitration, mediation, and electronic platforms, compared to traditional litigation.

Keywords: digital assets, disputes, alternative dispute resolution methods.

RAQAMLI AKTIVLAR BILAN BOG'LIQ NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULLARI

Abdusattarov Jaloliddin Sharafutdin o'g'li

Toshkent viloyati Adliya boshqarmasi
Qibray tumani Adliya bo'limi xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqola raqamli aktivlar bilan bog'liq nizolarning sabablari, xususiyatlari va ularni hal qilishning muqobil usullarini ko'rib chiqadi. Maqolada an'anaviy sud yo'li bilan solishtirganda, alternativ nizolarni hal etish mexanizmlari, xususan, arbitraj, vositachilik va elektron platformalarning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamli aktivlar, nizolar, muqobil nizolarni hal etish usullari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N80>

Raqamli aktivlar bilan bog'liq nizolarni hal qilishning muqobil usullari deganda agar ular bilan bog'liq nizo vujudga kelsa ularni hal etishning tartib-taomillari tushuniladi. Bunda boshqa huquqiy munosabatlarda qo'llaniluvchi nizolarni muqobil hal qilish (ADR) usullarini qo'llashimiz mumkin bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda nizolarni hal qilishning eng samarali usullaridan mediatsiya hamda arbitraj hisoblanadi. Nega deganda, arbitraj qarorlari majburiy bo'lsa (keyinchalik sud orqali ijro xati olingandan keyin), mediativ kelishuv ham tegishli majburiyatlarni yuzaga keltiradi. Quyida nizolarni hal qilishning ushbu usullari yoritiladi hamda uning raqamli aktivlar bilan bog'liq nizolarga qo'llanishining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan munosabatlar jadal rivojlanib borayotganligi sababli subyektlar o'rtasida turli nizolar kelib chiqishi muqarrar; bundan tashqari, amaldagi amaliyot shuni ko'rsatadiki, oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ko'plab ziddiyatli vaziyatlar mavjud; nizoni hal qilish uchun tomonlar bunday vaziyatda mediatsiya tartib-taomilini qo'llashlari ham mumkin bo'ladi. Mediatsiya – taraflarning o'zaro kelishuvi bo'yicha nizoni mediator yordamida hal etish usuli. Mediatorlar

neytral tomon hisoblanadi. Hozirgi vaqtda nizolarni suddan tashqari hal etishga qaratilgan vositachilik-kelishuv jarayoni rivojlangan xorijiy davlatlarning huquqiy tizimlarida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda haqiqiy bozor jarayonlaridan foydalanishni tartibga soluvchi qonunchilik bazasi yaratilishi kerak. “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi ham ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qilishi bilan ahamiyatli. 2019 yil 1-yanvardan kuchga kirgan bu qonun haqida fikr yuritganda, avvalambor, “mediatsiya” so‘zining lug‘aviy ma‘nosiga to‘xtalish lozim. Vositachilik ma‘nosini anglatuvchi bu atama lotincha “mediare” so‘zidan olingan bo‘lib, jahonning ko‘plab davlatlarida nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishning eng maqbul usuli sifatida tan olingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF60-sonli Farmonining 15-maqsadida nizolarni haetishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo‘llash doirasini yanada kengaytirish vazifasi belgilangan. Shu bilan birga mediatsiyaning qo‘llanilishi sud tomonidan ko‘riladigan ishlar hajmini kamaytirishga olib kelishi mumkin. Oliy sudning statistik ma‘lumotlariga ko‘ra 2022-yilda iqtisodiy ishlarda 3568 ta, fuqarolik ishlarda 3265 ta mediatsiya qo‘llanilgan va bu 2021-yilga qaraganda tegishli 1,5 baravar 3 baravarga oshgan.

Tarixni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, mediatsiya amaliyoti Bobil, Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rimda huquq tizimining evolyutsiyasi davrida qonuniylashtirilgan. Mediatsiya nizolarni hal etish vositasi sifatida Yustinian kodeksidan (miloddan avvalgi 6-asr) boshlab Rim huquqida tan olingan. “Vositachi” so‘zi rimliklar tomonidan nizolarni hal qiladigan mutaxassislarga nisbatan ishlatilgan. Ular ruhoniylar va daholar bilan bir darajaga qo‘yilgan. 20-asrning ikkinchi yarmida AQSh, Avstraliya va Buyuk Britaniyada zamonaviy tushunchalarda vositachilik shakllana boshladi. Oilaviy kelishmovchiliklar Yevropadagi vositachilar tomonidan hal qilinadi. Umuman olganda, mediatsiya — bahs-munozaralarni uchinchi betaraf tomon ishtirokida tartibga solishga doir huquqiy texnologiya [1].

Mediatsiya sohasidagi munosabatlarga mediatsiya kelishuvini tuzish, mediatsiya jarayonini o‘tkazish, mediativ kelishuvni tuzish va uni ijro qilish bilan bog‘liq munosabatlar kiradi. O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi deganda necha hujjat bilan tuzilishi (xoh u bitta hujjatdan iborat bo‘ladimi, xoh u ikkita hujjatdan iborat bo‘ladimi) yoki o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir qancha hujjatlardan iborat bo‘ladimi)dan, bundan tashqari, o‘zining nomidan va tuzilish shaklidan (shartnoma, konvensiya, bayonnoma, bitim, pakt, akt, xatlar yoki notalar almashinuvi yoki xalqaro shartnomaning boshqacha nomlari va tuzilish usullaridan) qat‘i nazar, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan chet davlat, xalqaro tashkilot yoxud xalqaro shartnomalar tuzish huquqiga ega bo‘lgan boshqa subyekt bilan yozma shaklda tuzilgan, xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan xalqaro kelishuv tushuniladi. Misol uchun, agar O‘zbekiston Respublikasi Singapur konvensiyasiga qo‘shilsa, chet elda tuzilgan mediativ kelishuvlar O‘zbekiston Respublikasida ushbu Konvensiyada belgilangan qoidalar asosida ijro qilinadi [2]. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 2-moddasining 1-qismiga asosan fuqarolik huquqiy munosabatlarga fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilash, shartnoma majburiyatlari va o‘zga majburiyatlarni, shuningdek boshqa mulkiy hamda u bilan

bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlar kiradi. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga asosan tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 11-moddasining 2-qismiga ko'ra mehnat to'g'risidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini ish beruvchi tomonidan ta'minlashda xodimning mehnat vazifasini ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda haq evaziga shaxsan bajarishi haqidagi, xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga asoslangan munosabatlar yakka tartibdagi mehnat munosabatlaridir. Ushbu Kodeksning 575-moddasiga asosan hozirda jamoaviy mehnat nizosini mediator ishtirokida hal etish (tartibga solish) ham joriy etilgan. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 5-moddasiga asosan oilaviy huquqiy munosabatlar nikoh tuzish, nikohning tugatilishi va uni haqiqiy emas deb topish shartlari va tartibini belgilash, oila a'zolari: er-xotin, ota-ona va bolalar (farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar) o'rtasidagi, oila to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda va doirada esa qarindoshlar hamda o'zga shaxslar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlardan iborat. Mediatsiya faqat taraflarning kelishuvi asosida o'tkazilishi mumkin. Shuning uchun mediatsiyada ishtirok etmayotgan uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamoat manfaatlariga daxl qiladigan yoki daxl qilishi mumkin bo'lgan nizolarga nisbatan qo'llanmasligi belgilab qo'yilmoqda.

Mediatsiya ishtirokchilari ushbu Qonunning 10-moddasida belgilab qo'yilgan. Jamoatchilik uchun ochiq bo'lgan sud muhokamasidan farqli o'laroq, mediatsiya konfidensial jarayon hisoblanadi. Konfidensiallik taraflar va mediatorning jarayon paytidagi holatlarni oshkor etmaslik haqidagi majburiyatida ifodalanadi. Jarayon davomidagi ma'lumotlar oshkor qilinmasligi va mediator sudda ushbu ish bo'yicha guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emas. Ushbu modda qoidalari mediatsiya taomiliga tegishli dalillarni boshqa muhokamalarda (sud, hakamlik) foydalanishga yo'l qo'yilmaslikka qaratilgan. Bunday qoidalarni kiritishdan maqsad mediatsiya jarayonida taraflar ma'lumotlarni oshkor etishlari va kelishmovchiliklarni ochiq ifoda etib, keyinchalik bu muhokamalar ularga qarshi ishlatilishi mumkinligidan qo'rqmasliklari uchun ochiq muhokama va mazmunli muzokarlarni rag'batlantirishdan iborat, shuningdek bu qoidalar nizoga erkin va ijodiy yechimlar topish imkonini beradi. Ushbu qoidalar mediatsiya taomilining muhim huquqiy himoyasi hisoblanadi. Tarafning huquqiy vorisi deb bir shaxsdan ikkinchi shaxsga huquq va majburiyatlar yoki majburiyatlar bir qismining o'tishi tushuniladi. Huquqiy vorislik qonun kuchi bilan, shartnoma yoki boshqa yuridik asoslarga muvofiq amalga oshirilishi mumkin [3]. Maxfiylik prinsip ayniqsa kripto-aktivlar bilan bog'liq nizolarni hal etishda juda muhim rol o'ynaydi.

Mediatsiyani qo'llash to'g'risidagi kelishuv – bitimlarning bir turi bo'lib, FKning 101-moddasiga asosan bitimlar deb fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlariga aytiladi. FKning 353-moddasiga ko'ra ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi. Mediatsiyani qo'llash to'g'risidagi kelishuv shartnomaning sharti yoki alohida kelishuv tarzida yozma shaklda tuzilishi belgilangan. Taraflar mediatsiyani nizo kelib chiqqanda yoki kelajakda kelib chiqqanda qo'llashlari haqida kelishib olishlari belgilanmoqda, shuningdek ular o'z

munosabatlaridan kelib chiqqan barcha nizolarni yoki ma'lum bir turdagi nizolarni mediatsiya qo'llab hal etishni kelishib olishlari shart. Shu bilan birga taraflar ushbu kelishuvga nizo predmeti, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish tartibi, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarda taraflarning ishtirok etish shartlari, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish muddatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritishlari mumkin.

Mediatsiya va unga taalluqli axborotning maxfiyligi muhim jihatlardan bo'lib, uning maqsadi taraflarning mediatsiya jarayonida nizo bilan bog'liq holatlarni ochiq muhokama qilib, har bir tarafning o'z manfaatlarini to'liq ifoda etib, taraflarning mediatorga bo'lgan ishonchini oshirib, o'zaro maqbul qarorga kelishga imkoniyat yaratishdir. Shu sababli ushbu moddada keltirilgan holatlarga mediatsiya ishtirokchilarining kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan sud, hakamlilik va boshqa muhokamalarda, agar taraflar boshqacha qoida haqida kelishib olmagan bo'lsa, havola qilishi taqiqlangan.

Arbitraj – nizolarni muqobil hal qilish (ADR) shakli bo'lib, unda nizo tomonlari arbitr sifatida tanilgan neytral uchinchi shaxsga ega bo'lishga rozi bo'lib, ularning ishini ko'rib chiqadi va majburiy qaror qabul qiladi. Ushbu jarayon tez-tez sudda da'voga muqobil ravishda qo'llaniladi, chunki u tezroq, kamroq rasmiy va tejamkor bo'lishi mumkin. Arbitrajda nizoda ishtirok etuvchi tomonlar o'zlarining dalillarini hakam (arbitr)ga taqdim etadilar, so'ngra u faktlarni ko'rib chiqadi va qaror chiqaradi. Arbitrning qarori har ikki tomon uchun ham qonuniy kuchga ega va zarurat tug'ilganda sud tomonidan ijro etilishi mumkin. Arbitrajning ikki turi mavjud, jumladan, ad-hoc arbitraj va institutsional arbitraj. Ad-hoc arbitraj arbitraj jarayonining qoidalari va tartiblarini kelishib olgan tomonlarni o'z ichiga oladi, institutsional arbitraj esa arbitraj uchun qoidalar va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim etuvchi arbitraj instituti tomonidan boshqariladi. Arbitraj turli sohalardagi nizolarni, jumladan, tijorat shartnomalari, mehnat nizolari, qurilish nizolari va oilaviy huquq masalalarini hal qilish uchun ishlatilishi mumkin. Bu ko'pincha o'z nizolarini hal qilishda maxfiylikni qadrlaydigan subyektlar tomonidan afzal ko'riladi, chunki arbitraj muhokamasi odatda maxfiy tartibda o'tkaziladi. Arbitrajning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u tomonlarga nizo predmeti bo'yicha o'z tajribasiga asoslanib, o'z arbitrlarini tanlash imkonini beradi. Bu suddagi da'vo bilan solishtirganda ko'proq xabardor va samarali qaror qabul qilishga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, arbitraj tomonlarga nizolarni an'anaviy sud muhokamasidan tashqarida hal qilishning moslashuvchan va samarali usulini taklif qiladi. Bu nizolarni adolatli va xolis hal qilish bilan birga vaqt va pulni tejash imkonini beradi.

Taraflarning kelishuvi asosida qo'llanuvchi qonunchilikni aniqlashning xususiyatlari yoki uni belgilash to'g'risidagi qoidalar, boshqacha qilib aytganda arbitraj kelishuvi yoki shartini imzolash yo'li bilan rasmiylashtirilgan kelishuvlar muhim bo'lib hisoblanadi. O'zining yuridik tabiatiga ko'ra, arbitraj kelishuvi uning turidan qat'iy nazar asosiy shartnomaga nisbatan mustaqil xarakterga ega bo'lgan fuqarolik-huquqiy shartnoma bo'lib hisoblanadi. FKning 109-moddasi 3-qismiga ko'ra, qonunda yoki taraflarning kelishuvida aniq ko'rsatilgan bitimning yozma shakliga rioya etmaslik uning haqiqiy emas deb topilishiga olib keladi. To'xtalib o'tish joizki, ishtirokchilardan hech bo'lmasa bittasi O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi yoki O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lgan tashqi iqtisodiy bitim, bitim tuzish joyidan qat'i nazar yozma shaklda amalga oshiriladi. 1958-yilgi Nyu-York Konvensiyasining 2-moddasi 1-bandiga ko'ra, har bir Ahdlashuvchi mamlakat, taraflar ular o'rtasida obyektivi arbitraj tomonidan ko'rib chiqish predmeti bo'lishi mumkin bo'lgan biror-bir

konkret shartnomaviy yoki boshqa huquqiy munosabatlar yuzasidan yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tortishuvlarni arbitrajga uzatish majburiyatini oladigan yozma kelishuvni tan oladi. Arbitraj kelishuvi matnidagi ikki ma'noli iboralarning oldini olish maqsadida, xalqaro arbitraj institutlari arbitraj kelishuvlarining namunaviy shakllarini tavsiya qiladilar, masalan, Xalqaro savdo palatasi quyidagi namunaviy arbitraj shartini qo'llashni tavsiya etadi: "Mazkur shartnoma yuzasidan vujudga keladigan har qanday tortishuvlar, Xalqaro savdo palatasining Arbitraj reglamentiga muvofiq, bir yoki bir necha arbitrlar tomonidan ushbu reglamentga mos ravishda uzil-kesil tartibga solinishlari lozim."

FK 1189-moddasining 3-qismi qo'llanuvchi huquqni nazarda tutadi, masalan, chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi Konvensiya (Nyu York, 10-iyun 1958-y.) ning 2-moddasiga muvofiq, shartnomada taraflar tomonidan imzolangan arbitraj izohi yoki arbitraj kelishuvini tuzishda yoki shartnomani xat yoki telegramma almashish yo'li bilan tuzilishi mumkin. Ushbu Konvensiyaning mazmuniga ko'ra, xar qaysi shartlashayotgan mamlakat, taraflar, ular o'rtasida obyektini arbitrajda ko'rib chiqish predmeti bo'lishi mumkin bo'lgan biron-bir shartnomaviy yoki boshqa munosabat bilan bog'liq vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan barcha yoki biron-bir nizolarni, arbitrajga topshirish majburiyatini oladigan yozma kelishuvni tan oladi.

Arbitraj raqamli aktivlar bilan bog'liq nizolarni hal qilishda hal qiluvchi vositadir. Raqamli aktivlar bozori o'sishda va rivojlanishda davom etar ekan, nizolarni hal qilishning ishonchli va samarali mexanizmiga bo'lgan ehtiyoj tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Arbitraj ushbu kontekstda bir qator afzalliklarni taqdim etadi va bu raqamli aktivlar bo'yicha nizolarni hal qilish uchun ideal tanlovdir. Arbitrajning asosiy afzalliklaridan biri uning moslashuvchanligidir. An'anaviy sud jarayonlarida jarayon uzoq va qimmatga tushishi mumkin, bu ayniqsa raqamli aktivlarning tez sur'atda rivojlanayotgan dunyosi uchun mos kelmaydi. Arbitraj tomonlarga jarayonni o'zlarining maxsus ehtiyojlariga moslashtirish, jumladan, raqamli aktivlar bo'yicha nizolar bo'yicha tajribaga ega arbitrlarni tanlash va ularning talablariga mos vaqt jadvalini belgilash imkonini beradi.

Bundan tashqari, arbitraj maxfiylikni ta'minlaydi. Sud muhokamasidan farqli o'laroq, arbitraj tomonlarga o'z nizolarini jamoatchilik e'tiboridan chetda saqlashga imkon beradi. Bu, ayniqsa, maxfiylik va xavfsizlik bilan bog'liq masalalar muhim bo'lgan raqamli aktivlar dunyosida muhim bo'lishi mumkin. Arbitraj, shuningdek, tomonlarga nizolarni hal qilish uchun neytral forumni taqdim etadi. Raqamli aktivlar bo'yicha tajriba yoki bilimga ega bo'lmagan sudyalarga ishonish o'rniga, tomonlar ushbu sohada mutaxassis bo'lgan va murakkabliklarni tushuna oladigan hakamlarni tanlashlari mumkin. Bu ko'rib chiqilayotgan masalalarni chuqur tushunadigan shaxslar tomonidan qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, arbitraj qarorlari odatda Nyu-York konvensiyasi kabi xalqaro konvensiyalar orqali bir nechta yurisdiksiyalarda ijro etilishi mumkin. Bu tomonlarga arbitraj orqali qabul qilingan har qanday qaror, ular qayerda joylashganidan qat'i nazar, qo'llab-quvvatlanishi va ijro etilishiga ko'proq ishonch hosil qiladi. Umuman olganda, arbitraj raqamli aktivlar bilan bog'liq nizolarni hal qilishning soddalashtirilgan va samarali usulini taklif qiladi. Uning moslashuvchanligi, konfidensialligi va ijro etilishi uni ushbu jadal rivojlanayotgan raqamli huquqlar davrida nizolarni samarali va adolatli hal etishni ta'minlash uchun bebaho vositaga aylantiradi.

Onlayn nizolarni hal qilish bu nizoni hal qilish vositasi, yarashish yoki hakamlik jarayoni bo'ladimi yoki yo'qmi onlayn texnologiyalar tomonlar o'rtasidagi nizoni hal qilishda foydalaniladigan texnologiyalar. Onlayn nizolarni hal qilishning uch bosqichi mavjud: tomonlar o'rtasidagi muzokaralar (onlayn muzokaralar), vositachilik (onlayn mediatsiya) va arbitraj. Onlayn arbitraj tushunchasi bir nechta ma'noga ega, ammo ko'pincha jarayon ishtirokchilari o'rtasida masofaviy aloqa texnologiyalaridan foydalangan holda bo'lib o'tgan hakamlik muhokamasini tasvirlash uchun ishlatiladi. Hozirgi vaqtda nizolarni onlayn hal qilish uchun ko'plab onlayn platformalar yaratilgan. Biroq Internetdagi bitimlar ko'pincha kam miqdorda amalga oshirilganligi sababli amaldagi onlayn platformalarning aksariyati kichik nizolarni hal qilishga qaratilgan. Ko'pchilik davlatlar Nyu-York konvensiyasining ishtirokchilari hisoblanadi. Shuning uchun ularning xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etishni tartibga soluvchi qonunlari konvensiyasining tegishli qoidalariga asoslanadi. Muammo shundaki, bugungi kunda ko'p jihatdan hakamlik bitimi, hakamlik sudi qaroriga, shuningdek, onlayn protsedura tartibiga qo'yiladigan talablar nizoni an'anaviy shaklda (oflayn) hal qilishga qaratilgan. Ushbu standartlar elektron vositalarni ishlatishda yuzaga keladigan barcha xususiyatlarni hisobga olmaydi. Ushbu ishning maqsadlari uchun elektron axborot muhitida huquqiy nizolarni hal qilish tartibini rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan uchta sabab mavjud. Birinchidan, bu hakamlik bitimi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, toifadagi huquqiy to'siqlar protsessual xarakterga ega, va nihoyat, onlayn arbitrajga qo'yilgan to'siqlar oxirgi qaror bilan bog'liq. Shu sababli nizolarni hal qilish uchun elektron vositalardan foydalanish protsessual talablarning buzilishi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin emas. Biroq nizoni elektron vositalar yordamida ko'rib chiqishda barcha asosiy prinsiplarga rioya qilish kerak, tomonlar an'anaviy protsedura (oflayn) dan foydalanishda bo'lgani kabi bir xil protsessual huquqlar va imkoniyatlar kafolatlanishi lozim. Onlayn nizolarni hal qilish tartibining yana bir xususiyati shundaki, tomonlar va hakamning o'zaro munosabati bilvosita -onlayn platforma orqali ro'y beradi. Bu asosiy protsessual kafolatlar va tamoyillarni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Internet orqali nizolarni hal qilish protsedurasi taraflarga ishda ishtirok etish, ishda o'z pozitsiyalarini, dalillar va e'tirozlarni taqdim etish uchun teng imkoniyatlarni taqdim etishi kerak. Onlayn rejimda nizolarni hal qilish natijasida arbitraj qarori elektron shaklda amalga oshiriladi. Uning matni tomonlarga elektron pochta orqali yuborilishi yoki hakamlik sudining veb-saytiga joylashtirilishi mumkinligi to'g'risida tomonlarga majburiy ravishda xabar beriladi. Agar milliy qonun hujjatlarida hujjatning elektron shakli yozma shaklga, elektron imzo esa qo'lda yozilgan imzoga teng ekani belgilangan bo'lsa, elektron imzo bilan imzolangan arbitraj qarori to'siqlarsiz bajarilishi mumkin. Arbitraj qarorini bajarishni rad etish xavfi ushbu qarorga nisbatan qo'llaniladigan milliy qonunchilik uning shakli uchun qat'iy talablarni belgilab qo'ygan va elektron ish oqimi va elektron imzodan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari mavjud bo'lmagan taqdirdagina yuzaga keladi. Shu bois, "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonunda onlayn tarzda nizolarni qo'rib chiqish va hal etish, shuningdek, chet el davlati arbitraj (hakamlik) sudining xalqaro tijorat va xalqaro savdo sohasidagi nizolar bo'yicha chiqargan qarorlarini tan olish va ijro etish tartibini nazarda tutish lozim. Bundan tashqari, Qonun loyihasini xalqaro me'yorlarga mos holda qabul qilishimiz lozim. Muhokama va qabul qilish bosqichida Amerika Qo'shma Shtatlari, Singapur, Gonkong, Fransiya va Dubay kabi davlatlar va shaharlarning tajribasini diqqat bilan o'rganish tavsiya etiladi. Kelajakda O'zbekistondagi xalqaro arbitrajga ko'proq e'tibor qaratilsa, huquq sohasiga katta ijobiy tomonlar keltirishi

mumkin. Mamlakatimizda nufuzli yuridik kompaniya bo‘lgan “White&Case”ning kiritilishi ushbu vazifani amalga oshirishni sezilarli darajada tezlashtiradi va shu bilan birga, xalqaro nizolarni hal qilishda mamlakatimizdagi mahalliy yuridik firmalar uchun xarajatlarni kamaytiradi.

Raqamli aktivlar bilan bog‘liq nizolarni hal qilish usullari haqida gap ketganda hozirgi kunda frilanserlik platformalarida qo‘llaniladigan nizolarni hal qilish usullariga ham to‘xtalib o‘tishimiz lozim. Yaxshi bilamizki, hozirgi kunda Upwork va Fiverr kabi onlayn frilanserlik platformalari mavjud bo‘lib, bunda platformalar mehnat bozori vazifasini o‘taydi, ya‘ni talab va taklif birlashadigan joy bo‘lib, mijozlar o‘z ishlarini frilanserga berishlari hamda frilanserlar ishni bajarib mutanosib haq olishlari mumkin bo‘ladi. Qiziqarlisi shuki, ushbu platformalarda ham nizolar, ayniqsa frilanserlar tomonidan qilingan ishlarning sifati bilan bog‘liq nizolar uchun tegishli tartibda ularni hal qilish mexanizmlar mavjud bo‘lib hisoblanadi. Masalan, Upwork platformasida nizolar mustaqil mediator/ekspert tomonidan hal etiladi. Bunda mediato/ekspert platforma tomonidan tayinlanib, taraflarga kim haq yoki ham nohaq ekanligini aytmaydi, balki tavsiyalar beradi [4]. Fiverr platformasida esa ishdan qoniqmagan “sotib oluvchi” frilanserning qilgan ishi yuzasidan “Dispute resolution center” ga murojaat qilishga haqli bo‘lib [5], unda ishni 10 kun davomida platforma tomonidan tayinlangan mustaqil uchinchi tomon ko‘radi va tegishli qaror qabul qiladi, bunda frilanserga tushishi kerak bo‘lgan pul, agar ish haqiqatdan ham sifatsiz deb topilsa, “sotib oluvchi”ga qaytariladi [6].

Yuqoridagilarni ko‘rgan holda shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbekistonda domen nomining ma‘muriga o‘z platformasida (ayniqsa yuqoridagi frilanserlik platformalarida) nizolarni hal qilish mexanizmini yaratishning majburiyigi va bunda professional mediatorni tayinlashni majburiy qilib qo‘yish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Domen nomining ma‘muri domen nomini o‘z nomiga ro‘yxatdan o‘tkazgan yuridik yoki jismoniy shaxs hisoblanib, u platformaning egasi hisoblanadi. Fiverr, Upwork yoki shu kabi pul aylanmalari, akkauntida pul turuvchi va aylanuvchi boshqa platformalar O‘zbekistonda juda ko‘p. Shuning, unda nizolarni hal etishda domen ma‘muriga yuqorida aytilgan majburiyatlarni o‘rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham, “UZ” domenidagi domen nomlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda, domen ma‘murining majburiyatlari oshirilib, unda nizolarni hal qilishning tegishli mexanizmini yaratish hamda bunda faqatgina professional mediatorlar ishtirokini ta‘minlash tavsiya etiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Giacalone, M., & Arnone, G. (2024). Dispute Resolutions for Digital Assets in a Decentralized Virtual World. *Eur. J. Privacy L. & Tech.*, 117.
2. https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/mediadocuments/uncitral/ru/mediation_convention_r_0.pdf.
3. Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati/Mas‘ul muharrir H.R.Rahmonqulov//T.: “Sharq”, 2003. 428-b.
4. <https://support.upwork.com/hc/en-us/sections/360002713853-Disputes>.
5. Arnone, G., & Giacalone, M. (2025). Redefining Dispute Resolution Mechanisms for Digital Assets in the Metaverse: Exploring the Role of Blockchain and Emerging Technologies. *European Journal of Law and Technology*, 16(2).
6. <https://help-pro.fiverr.com/hc/en-us/articles/16279984394001-Cancel-an-order-with-the-Resolution-Center>.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE ESSENCE OF THE CONCEPTS OF INSURANCE COMPENSATION, INSURANCE AMOUNT AND INSURANCE PREMIUM IN PROFESSIONAL LIABILITY INSURANCE OF MEDICAL WORKERS

Islamkulova Shohsanam Vahobjon kizi,
Tashkent State Medical University
Chief Legal Counsel of the Legal Department

Abstract. This article discusses the subtleties, procedures, and key issues to consider when determining the insurance premium, insurance compensation, and insurance amount in a medical professional liability insurance contract. The article also discusses the importance of insurance tariffs for determining the amount of the insurance premium, and the factors to be taken into account when defining insurance definitions.

Keywords: professional liability of a medical worker, medical professional liability insurance contract, insurance premium, insurance compensation, insurance money, insurance rates.

TIBBIYOT XODIMINING KASBIY JAVOBGARLIGINI SUG'URTALASHDA SUG'URTA TOVONI, SUG'URTA PULI VA SUG'URTA MUKOFOTI TUSHUNCHALARINING MOHIYATI

Islomqulova Shohsanam Vahobjon qizi,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Yuridik bo'lim bosh yuriskonsulti
E-mail: shoxsanams85@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot xodimining kasbiy javobgarligini sug'urta qilish shartnomasida sug'urta mukofoti, sug'urta tovonini va sug'urta pulini belgilashning nozik jihatlari, tartib-qoidalarini, ahamiyat qaratish lozim bo'lgan asosiy masalalar haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada sug'urta mukofoti miqdorini aniqlash uchun sug'urta tariflarining ahamiyati, sug'urta ta'riflarini belgilashda inobatga olish lozim bo'lgan omillar haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: tibbiyot xodimining kasbiy javobgarligi, tibbiyot xodimining kasbiy javobgarligini sug'urta qilish shartnomasi, sug'urta mukofoti, sug'urta tovonini, sug'urta puli, sug'urta tariflari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N81>

Tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini sug'urtalash bemorlarga yetkazilgan zarar uchun sug'urta to'lovlarini tez va to'liq olish imkonini beradi. Ushbu sug'urta turi tibbiyot muassasalarining jabrlanuvchilar bilan nizolarini mustaqil hal qilish jarayonida ko'rgan xarajatlarini kamaytirish va qoplashga qaratilgan. Sug'urtaning ushbu turi bilan nizolarni sudgacha hal qilish sudlarning ish yukini kamaytiradi. Bu tibbiyot xodimlarida o'z huquqlarini himoya qilishga bo'lgan ishonchni ta'minlaydi, ularga o'zlarining kasbiy faoliyati doirasida muayyan bemorning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, zamonaviy tibbiy texnologiyalar yutuqlaridan foydalangan holda eng samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Ammo ushbu huquqiy munosabatlarning yetarli darajada qonuniy tartibga solinmaganligi sababli O'zbekiston Respublikasida tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini sug'urtalash bilan bog'liq munosabatlar keng avj olmagan. Shuning uchun ham ushbu sug'urta shartnomasida aynan qanday maxsus qoidalar bo'lishi kerakligi va nimalarga ahamiyat berish lozimligi bo'yicha normativ-huquqiy baza mavjud emas. Sug'urtalangan shaxsni va shartnoma shartlarini belgilash bilan bog'liq barcha masalalar tomonlarning kelishuviga qoldirilganligi sababli bu har doim ham ushbu huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilarining manfaatlariga to'liq javob bermaydi.

Ushbu shartnomaning asosiy talablarini va o'ziga xos xususiyatlarini yoritishda O'zbekiston qonunchiligining javobgarlikni sug'urtalash bilan bog'liq umumiy qoidalariga, shuningdek xorijiy mamlakatlar amaliyotiga tayanamiz.

Qonunchiligimizga nazar tashlasak, sug'urta shartnomasining amalga oshishi uchun, avvalo, sug'urta mukofotining to'lanishi shart qilib qo'yilmoqda. Bu to'g'risida XIX asrning oxirida rus olimi I.I.Stepanov o'zining "Sug'urta shartnomasi nazariyasi bo'yicha tajriba" asarida shunday degan: "sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchidan haq evaziga sug'urta xizmatini oladi. Mulkni sug'urtalash shartnomasi bo'yicha kompensatsiya sug'urtalovchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urta tovonini to'lashini nazarda tutadi, ushbu huquqiy munosabatlar yuzaga kelishi uchun sug'urta qildiruvchi shartnoma tuzayotganda sug'urta mukofotini to'lashi kerak" [1].

Ko'rib turibmizki, sug'urta shartnomasining kuchga kirishi bo'yicha qoidalar fuqarolik huquqidagi shartnomalar imzolangan paytdan boshlab amal qiladi, degan umumiy qoida bilan bir xil emas. Fuqarolik kodeksining 947-moddasida sug'urta shartnomasi, agar unda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti yoki birinchi badal to'langan paytda kuchga kirishi, shuningdek agar shartnomada sug'urta amal qilishi boshlanishining boshqacha muddati nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnomada shartlashilgan sug'urta sug'urta shartnomasi kuchga kirganidan keyin yuz bergan sug'urta hodisalariga nisbatan tatbiq etilishi nazarda tutilgan.

Shu o'rinda sug'urta mukofoti bo'yicha AQSH amaliyotiga nazar tashlaymiz. Ularga ko'ra, sug'urta mukofoti — bu jismoniy shaxs yoki yuridik shaxsning sug'urta polisi bo'yicha sug'urta qoplamasi evaziga sug'urta kompaniyasiga to'laydigan pul miqdori. Mukofotlar odatda yillik, yarim yilda, chorakda yoki oyda to'lanadi [2].

Sug'urta mukofotining miqdorini belgilashda quyidagi omillar ta'sir etadi:

Xavf. Sug'urta xavfi qanchalik yuqori bo'lsa, sug'urta mukofotining miqdori ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Qamrov. Sug'urta shartnomasi qanchalik keng qamrovli bo'lsa, ya'ni qanchalik keng sug'urta hodisalarini nazarda tutgan bo'lsa, sug'urta mukofoti shunchalik yuqori bo'ladi.

Chegirma. Yuqori chegirma to'lovning kamayishiga olib keladi.

Sug'urtalanuvchining o'ziga xos xususiyatlari (masalan yoshi, ish tajribasi, kasbiy faoliyat tarixi). Bu omillar ham mukofotga ta'sir qilishi mumkin. Misol uchun, odatda yosh va tajribasi kam bo'lgan tibbiyot xodimlarining sug'urta hodisasining sabab bo'lish ehtimoli yuqori bo'ladi. Shuning uchun ular aksariyat holatda boshqa tibbiyot xodimlariga qaraganda sug'urta mukofotlarini ko'proq to'laydilar.

Sug'urta kompaniyasi. AQSHda turli sug'urta kompaniyalari turli xil sug'urtalash mezonlari va xavf-xatarni baholash modellariga ega, bu esa sug'urta mukofotlarining o'zgarishiga olib kelishi mumkin[3].

Sug'urta mukofotlarini to'lashning ahamiyati shundaki, sug'urta mukofotlarini o'z vaqtida to'lash sug'urta qoplamasini saqlab qolish uchun juda muhimdir. Mukofotlarni to'lamaslik sug'urta qoplamasining uzilishiga olib kelishi mumkin, ya'ni sug'urtalanuvchi da'vo qilingan taqdirda himoyalalanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 915-moddasiga ko'ra, fuqarolik javobgarligi xavfining sug'urtalanishi bo'yicha shartnomalar mulkiy sug'urta shartnomasi hisoblanadi. Mulkiy sug'urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug'urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda boshqa tarafga (sug'urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug'urta puli) doirasida to'lash (sug'urta to'lovni to'lash) majburiyatini oladi.

Ushbu qoidani tibbiyot xodimining kasbiy javobgarligini sug'urtalash shartnomasining ta'rifiga moslashtiradigan bo'lsak, **tibbiyot xodimining kasbiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi** — sug'urtalovchi uning bo'yicha sug'urta hodisasi vujudga kelganda kelishilgan to'lov (sug'urta mukofoti) yuzasidan tibbiyot xodimiga va (yoki) jabrlanuvchiga yoxud naf oluvchiga shartnomada nazarda tutilgan sug'urta hodisasi sodir bo'lganda jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini sug'urta summasi doirasida qoplash majburiyatini oladigan sug'urta shartnomasi hisoblanadi.

Rus olimi S.V.Dedikov mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta taraflarining majburiyatlari haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini to'lashi, sug'urtalovchini sug'urta xavfining ortishi yoki sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi to'g'risida darhol xabardor qilishi shart, shu bilan birga u sug'urta to'lovini talab qilishga haqlidir. Sug'urtalovchi sug'urta mukofotini to'lashni talab qilishga haqli va sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta to'lovlarini amalga oshirishga majburdir [4, 28-b.].

Tibbiyot xodimining kasbiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining shakliga haqida gapiradigan bo'lsak, zamon talabidan kelib chiqib, barcha shartnomalarni yozma shakldan tashqari elektron shaklda tuzish imkoniyatlari ham yaratilmoqda.

Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktyabrdagi PQ-5265-son "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori[5] asos bo'ldi deyish mumkin. Qarorga ko'ra 2022-yil

1-iyuldan sug'urtaning barcha turlarini (klasslarini) elektron shaklda amalga oshirishga ruxsat berilgan va 2023-yil 1-yanvardan boshlab majburiy sug'urtaning barcha turlari bo'yicha sug'urta polislarini qog'oz blankalarda rasmiylashtirish amaliyoti bekor qilingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-dekabrdagi 694-son qarori bilan tasdiqlangan Elektron turdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizom[6] qabul qilinib, unda sug'urtaning barcha turlarini (klasslarini) elektron shaklda sotish, rasmiylashtirish va ularning haqiqiylikini tekshirish sug'urta qildiruvchi va

sug'urta tashkiloti o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi yo'li bilan, sug'urta tashkilotining axborot tizimida, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog'idagi resursida sug'urta shartnomasini tuzishda, uni Yagona axborot tizimida ro'yxatga olish va sug'urta polisiga noyob raqam berish orqali amalga oshirilishi belgilangan.

Demak, vaqt o'tishi bilan sug'urta jarayonida texnologiyalarning ham roli ortib bormoqda, bu esa keyinchalik elektron sug'urta shartnomalarining ham ahamiyati oshishiga sabab bo'ladi. Shunga ko'ra, tibbiyot xodimining kasbiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi yozma va elektron shaklda tuzilishini nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Sug'urta shartnomasining yana bir muhim qoidasi sug'urta tarifidir. Mamlakatimizda majburiy sug'urta uchun sug'urta tariflari davlat tomonidan qonunchilik hujjatlari bilan qat'iy belgilab qo'yiladi.

Ammo Rossiyada sug'urta tariflari bilan bog'liq yondashuvlar biznikidan farqlanadi. Aynan tibbiyot xodimini sug'urtalash masalasiga kelsak, bugungi kunda davlat barcha tibbiyot muassasalaridagi tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini sug'urta qilish imkoniyatiga ega emas. Majburiy tibbiy sug'urta doirasidagi vazifa yoki majburiyatni bajarishga qaratilgan davlat va munitsipal mablag'lar tufayli faqat boshqa moliyalashtirish manbalariga (byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan) ega bo'lgan byudjet muassasalari o'zlarining javobgarligini sug'urta qilishlari mumkin[7, 104-105-b.].

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasida tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarlik sug'urtasiga nisbatan qo'llaniladigan tariflar davlat tomonidan tartibga solinmaydi. Sug'urta tashkilotlari ushbu masalaga mustaqil ravishda yondashadilar, tegishli tarif yo'riqnomalarini ishlab chiqadilar va ularni vakolatli mansabdor shaxs yoki boshqaruv organi tomonidan kelgusida foydalanish uchun tasdiqlaydilar[8].

Shuningdek, Rossiyada ta'rif stavkasi kelib chiqadigan sug'urta hodisasining holatiga qarab ham farqlanadi. Masalan bemorga tashxis qo'yish, davolanishni o'tkazishda xatolik tufayli zarar yetkazilganda asosiy tarif miqdori qolganlardan sezilarli darajada farq qiladi.

Sug'urta ta'riflari mutaxassis tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi va quyidagi holatlarga bog'liq bo'ladi:

tibbiy tashkilotning ixtisoslashuviga;

tibbiyot xodimlarining kasbiy tajribasiga;

xodimlar soni va ularning malakasiga;

ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar hajmi va o'tgan yildagi bemorlar soniga[9].

Xorijiy davlatlarda sug'urta tariflarini belgilan bo'yicha turli amaliyot mavjud bo'lsada, ammo sug'urta tariflari bo'yicha bazaviy stavkalarining sug'urta hodisasiga qarab farqlanishi lozimligi to'g'risidagi fikrlar va amaliyot asoslidir. Chunki bizningcha ham tibbiyot xodimining aybi bilan yengil zarar ko'rgan bemor bilan og'ir asoratlarga sabab bo'lgan bemorga to'lanadigan sug'urta to'lovi miqdorida farq bo'lishi lozim.

Xalqaro tajribani tahlil qilgan holda taklif qilishimiz mumkinki, bizningcha sug'urta tariflarining bazaviy stavkalari quyidagilarni inobatga olib belgilanishi lozim:

tibbiyot xodimining kasbiy tajribasi va malakasi;

ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning turlari;

tibbiy yordam ko'rsatilishida zarar yetkazish ehtimoli;

yetkazilgan zararining hajmiga ta'sir etuvchi boshqa omillar.

Masalan, sug'urta hodisasi kelib chiqish ehtimoli yuqori bo'lgan tibbiy yordam turlari, aytaylik jarrohlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi tibbiyot xodimlari uchun sug'urta stavkalari boshqalariga qaraganda yuqoriroq belgilanishi mumkin.

Bundan tashqari, tibbiy faoliyat uchun javobgarlikni sug'urta qilish shartnomasini tayyorlash doirasida sug'urta puli va javobgarlik chegaralari belgilanishi kerak. Sug'urta pulining miqdori tibbiyot muassasasining ixtisosligiga, tibbiyot xodimlarining soniga va zarar yetkazishi mumkin bo'lgan bemorlarning soniga bog'liq. Sug'urta pulining miqdoriga, shuningdek, ma'lum xarajatlar (yuridik, ekspertiza va boshqalar) va (yoki) ma'naviy zarar qoplanishi kerakmi yoki yo'qligi ta'sir qiladi [10, 51-b.].

Masalan, ish beruvchi o'z xodimlari uchun haqiqatan ham javobgar bo'lsa-da, ammo bemorning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazish ehtimoli bevosita har bir tibbiyot xodimiga va uning kasbiy faoliyati doirasiga bog'liq.

Bu uning faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq xavflar bevosita tibbiyot xodimining ixtisosligiga, shuningdek uning kasbiy tajribasiga bog'liqligi bilan izohlanadi. Sug'urtalovchining ham, sug'urta qildiruvchining ham manfaatlarini ta'minlash uchun ushbu shartlar hisobga olinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, sug'urta to'voni (sug'urta to'lovi) — sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta qildiruvchiga, sug'urtalangan shaxsga (naf oluvchiga) har bir sug'urtalangan shaxs uchun sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'lari summasi hisoblanadi.

Shuningdek ushbu Qonunda sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lash bo'yicha qo'yidagicha qoidalar belgilangan:

"Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan shaxsga faqat sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lashi shart.

Sug'urtalovchi quyidagilarga haqli emas:

agar u sug'urta shartnomasida yoki qonunda ko'rsatib o'tilgan sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risidagi dalillarni olgan bo'lsa, sug'urta shartnomasida belgilangan muddatda sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lashni rad etishga;

agar sug'urta hodisasining yuz berishi sug'urta qildiruvchining (sug'urtalangan shaxsning va (yoki) naf oluvchining) sug'urta hodisasi yuz berishiga qaratilgan qasddan qilgan harakatlari natijasida kelib chiqqan bo'lsa, sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lashga. Bunday holda sug'urtalovchi to'langan sug'urta mukofotini qaytarmaydi.

Taraflarning kelishuviga ko'ra, sug'urtalovchi zararlarni to'liq hisob-kitob qilguniga qadar sug'urta tovonining bir qismini taraflardan birortasi ham nizolashmaydigan miqdorda to'lashi mumkin".

Rossiyada ushbu sug'urta turi majburiy bo'lmaganligi sababli hozirda sug'urta to'voni miqdorini belgilash bo'yicha aniq qoidalar yo'q va bu bo'yicha masala sug'urta shartnomasiga havola etiladi, ya'ni taraflar shartnomada qanday miqdorni kelishsalar shu orqali amalga oshirilaveradi.

Qozog'iston Respublikasining amaliyotiga qaraydigan bo'lsak, u yerda ushbu sug'urtani qonunchilik orqali majburiy sug'urta turiga aylantirish bo'yicha harakatlar amalga oshirilmogda. Ammo ularda sug'urta to'voni miqdorini belgilash bo'yicha eng ustuvor takliflar bu Qozog'iston Respublikasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni [11] dan analogiya sifatida foydalanishdir. Ya'ni

ushbu Qonun analogiyasidan foydalanganda tibbiyot xodimining kasbiy javobgarligi sug'urtasi bo'yicha sug'urta to'voni miqdori qo'yidagilarga bog'liq bo'lishi kerak:

- tibbiy xato bemorning nogironligiga sabab bo'lmasa;
- tibbiy xato bolaning nogironligiga sabab bo'lsa;
- tibbiy xato bemorning III guruh nogironligiga sabab bo'lsa;
- tibbiy xato bemorning II guruh nogironligiga sabab bo'lsa;
- tibbiy xato bemorning I guruh nogironligiga sabab bo'lsa;
- tibbiy xato bemorning o'limiga sabab bo'lsa.

Ushbu qoidalarni O'zbekiston qonunchiligi uchun ham qo'llash mumkin. Ammo hammasi bilan ham kelishib bo'lmaydi. Masalan, tibbiy xato bolaning nogironligiga sabab bo'lishini alohida asos qilib olish va bu uchun alohida sug'urta to'lovini belgilash kelgusida tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Bizningcha bola bo'ladimi yoki katta yoshli odam ularning hammasi bemor deb qaralishi va nogironlikning kelib chiqishiga qarab umumiy sug'urta to'lovi belgilanishi kerak. Shuningdek, tibbiy xatolar nafaqat bitta, balki bir nechta bemorlarning sog'lig'iga zarar yetkazilishiga yoki o'limiga olib kelishi mumkinligi holatlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Bunda, albatta, sug'urta to'lovi har bir bemor uchun alohida to'lanishi lozimligi nazarda tutilishi kerak.

Navbatdagi masala tibbiyot xodimining kasbiy javobgarligini sug'urtalashda sug'urta puli masalasidir. Ushbu sug'urta pulining miqdorini belgilashda ham turli xil davlatlarda turli yondashuvlar mavjud. Masalan AQSHda sug'urta puliga ta'sir etuvchi omillar[12] sifatida quyidagilarni inobatga olishadi:

Amaliyot turi. Yuqori xavfli mutaxassisliklar (masalan, jarrohlik, akusherlik) uchun odatda yuqori sug'urta puli to'lanadi.

Amaliyot doirasi. Ko'rilgan bemorlar soni va bajarilgan muolajalar xavf darajasiga ta'sir qiladi.

Geografik joylashuv. Tibbiy xatolik xavfi shtat qonunlari, iqlim va aholi zichligiga qarab farq qilishi mumkin.

Da'volar tarixi. Tibbiyot xodimining ustidan oldin qilingan da'volar tarixi sug'urta puli miqdoriga ta'sir qilishi mumkin.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda xulosa qiladigan bo'lsak, sug'urta tariflarining bazaviy stavkalarini belgilashda tibbiyot xodimining kasbiy tajribasi va malakasi, ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning turlari, tibbiy yordam ko'rsatilishida zarar yetkazish ehtimoli, yetkazilgan zararining hajmiga ta'sir etuvchi boshqa omillar inobatga olinishi lozim.

Mazkur sug'urta shartnomasining kuchga kirish vaqti sug'urta mukofoti yoki birinchi sug'urta badali to'langan payt hisoblanib, ushbu xususiyatiga ko'ra bu shartnoma konsessual shartnoma turiga kiradi;

Sug'urta to'voni miqdorini aniqlashda esa kelib chiqadigan sug'urta hodisasining bemor uchun xavflilik darajasiga bog'liq holda belgilanishi lozimligi bo'yicha amaliyot ko'plab rivojlangan davlatlarda mavjud.

Shuningdek, sug'urta pulini to'lashda ham ko'plab omillar inobatga olinadi, masalan tibbiyot xodimi tomonidan taqdim etilayotgan amaliyot turi, ushbu amaliyotning doirasi, tibbiy xizmat amalga oshirilgan joyning geografik joylashuvi hamda tibbiyot xodimiga nisbatan qilingan da'volarning tarixi kabilar.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Степанов И.И. Опыт теории страхового договора / Степанов И. – Казань: Унив. тип., 1875. – С. 14.
2. Rodwin, M. A. Why the medical malpractice crisis persists even when malpractice insurance premiums fall [Текст] / M. A. Rodwin, J. Silverman, D. Merfeld // Health Matrix. – 2015. – № 15. – P. 163-226.
3. Завражский Александр Валерьевич. Анализ отечественного и зарубежного опыта страхования профессиональной ответственности медицинских работников. [file:///C:/Users/STUDENT/Downloads/analiz otechestvennogo i zarubezhnogo opyta strahovaniya professionalnoy%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/STUDENT/Downloads/analiz%20otechestvennogo%20i%20zarubezhnogo%20opyta%20strahovaniya%20professionalnoy%20(2).pdf)
4. Дедиков С.В. Договоры имущественного и морского страхования: сравнительное исследование / С.В. Дедиков. – С. 28.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 23 октябрдаги ПҚ-5265-сон “Суғурта бозорини рақамлаштириш ва ҳаёт суғуртаси соҳасини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 23.10.2021 й., 07/21/5265/0992-сон.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 5 декабрдаги 694-сон [қарори](#) билан тасдиқланган Электрон турдаги суғурта хизматларини кўрсатиш тартиби тўғрисидаги низом //Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 06.12.2022 й., 09/22/694/1068-сон.
7. А.В.Воропаев, И.А.Воропаева, Ю.С.Исаев. Страхование профессиональной ответственности медицинских работников. Основы медицинского права и этики. Сибирский медицинский журнал, 2006, № 2. С. 104-106.
8. О.Ю.Красильников, Риски страхования профессиональной ответственности медицинских работников. <http://risk2021.sgu.ru/files/Agenda2021.pdf>
9. Четырус Евгений Игоревич. Страхование гражданско-правовой ответственности за причинение вреда: дис. ... канд. юрид. наук: 12:00:03, Москва-2015.
10. Kozinov, A.E. Sushestvennie usloviya dogovora strahovaniya grajdanskoy otvetstvennosti po rossiyskomu zakonodatelstvu: dis. ... kand. yurid. nauk: 12:00:03 / Kozinov Aleksandr Yevgenevich; Rossiyskiy gosudarstvenniy sotsialniy universitet. – M., 2011. – S. 51.
11. Закон Республики Казахстан от 1 июля 2003 года № 446-III Об обязательном страховании гражданско-правовой ответственности владельцев транспортных средств. Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1041172&pos=5;-106#pos=5;-106.
12. Frakes, M. D. The Surprising Relevance of Medical Malpractice Law / M. D. Frakes // University of Chicago Law Review. Forthcoming – 2014. Available at: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2410426## (дата обращения 04.02.2019).

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

CONSTITUTIONAL AND LEGAL STATUS OF JUDGES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND FOREIGN STATES

Ibodullo Khayrullo Jaxongir ugli

Assistant at the Department of State and Legal Sciences,
Faculty of Law, Samarkand State University
named after Sharaf Rashidov
E-mail: khayrullo261996@gmail.com

Abstract. This article examines the legal regulation of the status of judges in the Republic of Uzbekistan and other countries. Particular attention is paid to the fundamentals of the legal status of judges as the bearer of judicial authority. The independence and immunity of judges as the executor of judicial authority reflect the fundamental principle of the entire judicial branch.

Keywords: status of judges, independence, immutability, immunity, judicial system, responsibility, rights, duties.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY DAVLATLAR SUDYALARINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MAQOMI

Ibodullo Xayrullo Jaxongir o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti yuridik fakulteti
"Davlat huquqiy fanlar" kafedrasida assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida va xorijiy mamlakatlarda sudyalarning maqomini huquqiy tartibga solishga bag'ishlangan. Sudyaning sud hokimiyati tashuvchisi sifatidagi huquqiy maqomi asoslariga alohida e'tibor qaratilgan. Sudyaning sud hokimiyati yurituvchisi sifatidagi mustaqilligi va daxlsizligi, butun sud hokimiyatining asosiy g'oyasini namoyon qiladi.

Kalit so'zlar: sudya maqomi, mustaqillik, o'zgarimaslik, daxlsizlik, sud tizimi, javobgarlik, huquqlar, majburiyatlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N82>

Sud hokimiyati davlat hokimiyatining mustaqil, to'laqonli va ajralmas tarmog'i sifatida qonunni himoya qilishda davlatning muhim vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham qonun ustuvorligi prinsipini qaror toptirishda sud hokimiyati yetakchi rol o'ynaydi.

Sud hokimiyatining huquqiy tamoyillari uning tashkil etilishi va faoliyatining barcha masalalarini tartibga solishning negizi sifatidagi g'oyalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan va amaldagi qonun hujjatlarida rivojlantirilgan. Konstitutsiyada sudyaning sud hokimiyati tashuvchisi sifatidagi huquqiy maqomiga alohida e'tibor beriladi. Ushbu tamoyillar asosiy konstitutsiyaviy g'oyadan – milliy huquq tizimidagi sud hokimiyatining mustaqilligidan kelib chiqadi. Sudyaning sud hokimiyati tashuvchisi sifatidagi mustaqilligi va daxlsizligi tamoyillari bu hokimiyat mustaqilligining asosiy g'oyasini butun holda rivojlantiradi. Ularning mazmuni sud hokimiyatining aniq o'ziga xosligini ochib

beradi, uning o'ziga xos me'yoriy manbalari va rivojlanish istiqbollari nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 130, 136-138-moddalari qoidalarida qayd etilgan tamoyillar ichki huquq tizimida sudya maqomini belgilashda asosiy g'oya sifatida e'lon qilingan [1].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 136-moddasiga muvofiq, sudyalarning mustaqildirlar va faqat Konstitutsiya va qonunga bo'ysunadilar. Mahalliy yuridik fanda sudyalarning mustaqilligi deganda, ular ishlarni ularga tashqi ta'sirni istisno qiladigan sharoitlarda ko'rib chiqishlari va hal etishlari tushuniladi. O'zbekiston Respublikasida sudyalarning mustaqilligi siyosiy, iqtisodiy va huquqiy kafolatlar bilan ta'minlanadi.

Sudyalarning mustaqilligining siyosiy kafolatlariga ularning har qanday davlat yoki boshqa tashkilotlarning vakili bo'lishlari, siyosiy partiyalar, harakatlarga a'zoligi kabi turli qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan taqiqlovchi qoidalar kiradi.

Iqtisodiy kafolatlar sudyalarni davlat hisobidan moddiy va ijtimoiy ta'minot bilan ta'minlaydigan qonun hujjatlarining qoidalarini o'z ichiga oladi.

Bu ularning yuksak mavqeyiga, moddiy ne'matlariga mos keladi.

Sudyalarning mustaqilligining huquqiy kafolatlariga quyidagilar kiradi: odil sudlovni amalga oshirishning qonun bilan belgilangan tartibi, sudyalarni lavozimga tanlash va ularga tegishli vakolatlarini berish tartibi, sudyaning iste'foga chiqish huquqi va boshqalar [2].

Sudyalarning mustaqilligi prinsipi xalqaro huquqiy manbalarda e'lon qilingan, chunki u Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyaning 6-moddasida mustahkamlangan. Bu tamoyil deyarli barcha konstitutsiyalarda e'lon qilingan. Eng mashhur formula: "Sudyalarning mustaqildirlar va faqat qonunga bo'ysunadilar".

Sudyalarning mustaqilligi shuni anglatadiki, ular o'z vakolatlarini amalga oshirishda faqat qonunga amal qiladilar va hech kim ularga hech qanday maslahat yoki ko'rsatmalar berishga, bundan tashqari, bevosita bosim o'tkazishga ham haqli emas. Sudya o'zi ko'rayotgan yoki uning ish yuritishidagi holat bo'yicha biror kishiga ishning mohiyati yuzasidan rasmiy tushuntirishlar berishga majbur emas. Sudyaning o'z vakolatlarini amalga oshirishdagi faoliyatiga har qanday mansabdor shaxs tomonidan aralashuvi ushbu shaxslar uchun javobgarlikka, shu jumladan jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin. Sudyalarning mustaqilligini pasaytiradigan qonunlar va boshqa hujjatlar qabul qilinishi mumkin emas.

Sudyalarning mustaqilligining muhim kafolati ularning rasmiy ish haqining yuqoriligidir. Albatta, konstitutsiyalarning o'zi ushbu mukofot miqdorini belgilamaydi, ammo ular ish haqining o'zi haqida gapiradi va shu bilan ushbu holatning muhimligini ta'kidlaydi: "Sudyalarning daromadlari ular bajaradigan funksiyalarga mos kelishi kerak" (Gretsiya Konstitutsiyasi, 88-modda). Amerika Qo'shma Shtatlari Konstitutsiyasiga ko'ra, sudyalarning o'z xizmatlari uchun belgilangan vaqtlarda haq oladilar, ular lavozimida bo'lgan vaqtlarida uni kamaytirish mumkin emas (III-modda). Ma'lumki, xuddi shu Qo'shma Shtatlar va boshqa rivojlangan demokratik davlatlarda sudyalik lavozimlari eng yuqori maosh oladiganlar qatoriga kiradi.

Mustaqillik tamoyili nafaqat sudyaning o'ziga, balki ma'lum darajada sud organlariga ham taalluqlidir. Bu holat BMTning "Sud hokimiyati mustaqilligining asosiy tamoyillari" hujjatida o'z ifodasini topgan: sudyaning aniq ishni ko'rib chiqishiga aralashish, unga bosim o'tkazishga yo'l qo'yib bo'lmaydi, biroq mustaqillik prinsipi tufayli muayyan sud organi faoliyatiga aralashishga ham yo'l qo'yib bo'lmaydi. "Barcha davlat organlari va boshqa

institutlar sud hokimiyati mustaqilligini hurmat qilishga va unga rioya qilishga majburdirlar”, deyiladi mazkur hujjatda; shuningdek, sud organi mustaqilligining moddiy kafolati haqida soʻz boradi: “Har bir davlat sud hokimiyatining oʻz vazifalarini toʻgʻri bajarishi uchun tegishli vositalarni taqdim etishga majburdir” [2].

Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 136-modda va “Sudlar toʻgʻrisida” gi qonunning 9-moddasiga binoan, sudyani muayyan ishning muhokamasidan chetlashtirishga yoki uning vakolatlarini toʻxtatib turishga, boshqa lavozimga oʻtkazishga faqat qonunda belgilangan tartibda va asoslarga koʻra yoʻl qoʻyilishi nazarda tutilgan.

Biroq, 1958-yildagi Fransiya Konstitutsiyasining sud hokimiyati toʻgʻrisidagi boʻlimi boshqa mamlakatlar konstitutsiyalarining tegishli boʻlimlariga qaraganda ancha ixchamroq boʻlib, adolat asoslari haqida deyarli hech narsa aytmagan boʻlsa-da, bu tamoyilni qisqa formula bilan qayd etgan: “Sudyalari oʻzgarmasdir” [3].

Bizning fikrimizcha, lavozimga tayinlangan sudya uning roziligisiz (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan alohida sabablar bundan mustasno) ishdan boʻshatilmaydi yoki faoliyatining toʻxtatib turilishi yoki boshqa lavozimga – na quyi, na yuqori lavozimga oʻtkazilishi mumkin emas deb hisoblaymiz. Bu tamoyil amalda sudyalarni belgilangan muddatdan oldin lavozimidan chetlashtirish, ularni lavozimidan vaqtincha chetlashtirish, boshqa joyga koʻchirish yoki isteʼfoga chiqishga majburlash mumkin emasligini bildiradi.

Oʻzgarmaslik prinsipi Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy qonunida, ayniqsa aniq va izchil mustahkamlangan boʻlib, uning 97-moddasida: “sudyalari vakolat muddati tugagunga qadar oʻz xohishlariga koʻra ishdan boʻshatilishi, vaqtincha yoki doimiy ravishda lavozimidan chetlashtirilishi yoki boshqa lavozimga oʻtkazilishi yoki faqat sud qarori asosida isteʼfoga chiqarilishi mumkin” deb koʻrsatilgan. Ushbu qoidadan yagona istisno — sud tashkiloti yoki sud okruglari tarkibidagi oʻzgarishlar: bu hollarda sudyalari boshqa sudga oʻtkazilishi yoki lavozimidan ozod qilinishi mumkin, lekin toʻliq ish haqi saqlangan holda. Oʻzgartirilmasligi toʻgʻrisidagi masalalar sud tomonidan hal qilinadigan Germaniya Federativ Respublikasidan farqli oʻlaroq, sud hokimiyatining oliy kengashlari faoliyat yuritadigan mamlakatlarda bu masalalar ularning vakolatiga kiradi [4].

Zamonaviy konstitutsiyaviy huquqda sudyalarni umrbod tayinlash ustunlik qiladi. Polsha Konstitutsiyasining 179-moddasida shunday deyilgan: “Sudyalari Milliy Adliya Kengashi taklifiga binoan Respublika Prezidenti tomonidan nomaʼlum muddatga tayinlanadi” [5]. Koʻpgina konstitutsiyalar sudyaning faoliyatini toʻxtatishi mumkin boʻlgan holatlarnigina koʻrsatib, umrbod tayinlanishni nazarda tutadi.

Biroq, umrbod egalik qilish tom maʼnoda qabul qilinmasligi kerak. Qoida tariqasida, sudyaning martabasi maʼlum bir yosh chegarasiga yetgandan soʻng tugashi belgilanadi (oʻsha Polsha Konstitutsiyasida sudyaning nafaqaga chiqish yoshi qonun tomonidan belgilanishi belgilab qoʻyilgan, 180-modda). Sudyaning faoliyati sudyalik faoliyatini normal amalga oshirishga imkon bermaydigan jismoniy holati, shuningdek jinoyat yoki ogʻir intizomiy huquqbuzarlik sodir etganligi, axloqiy va axloqiy meʼyorlarni qoʻpol ravishda buzganligi munosabati bilan toʻxtatilishi mumkin. AQSH Konstitutsiyasining formulasi hammaga maʼlum, unga koʻra ham Oliy sud, ham quyi sudlar sudyalari xulq-atvori benuqson boʻlsa, oʻz lavozimlarini saqlab qoladilar [6]. Germaniya Federativ Respublikasining asosiy qonunida federatsiya yoki davlatning asosiy konstitutsiyaviy qoidalarining buzilishi sudyani ishdan boʻshatish uchun asoslardan biri sifatida koʻrsatilgan va bu holda masala Bundestagning

taklifiga binoan Federal Konstitutsiyaviy sud tomonidan hal qilinadi [4]. Ko'pgina konstitutsiyalar sudyalarni lavozimidan chetlashtirish, ishdan bo'shatish yoki iste'foga chiqarish mumkin emasligi to'g'risidagi umumiy qoida bilan cheklanadi, qonunda nazarda tutilgan hollar va kafolatlar bundan mustasno (masalan, Ispaniya Qirolligi Konstitutsiyasining 117-moddasi [7]).

Sudyalarning belgilangan muddatga tayinlanishi kam uchraydi. Shunday qilib, Yaponiyada quyi sudlar sudyalari Hukumat tomonidan o'n yil muddatga tayinlanadi, lekin ikkinchi muddatga tayinlanishi mumkin (Konstitutsiya, 80-modda). Ko'pincha, konstitutsiyalarda dastlabki vakolat muddati (bir turdagi sinov muddati) belgilanadi, shundan so'ng sudya umrbod tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 71-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi yetmish yoshni, boshqa sudlar sudyalari uchun — oltmish besh yoshni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi o'zining roziligi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan besh yilgacha, boshqa sudlar sudyasining yoshi esa O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tomonidan xuddi shunday besh yilgacha uzaytirilishi mumkin.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 64-moddasiga ko'ra, sudyaning shaxsi daxlsiz, unga nisbatan jinoyat ishi faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi hamda sudya O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining xulosasi olinmasdan va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi mumkin emasligi ta'kidlab o'tilgan. Bir qator xorijiy mamlakatlarda sudyalarning jinoiy va ma'muriy javobgarligiga nisbatan daxlsizlik prinsipi amal qiladi. Sudyalarning intizomiy javobgarligiga kelsak, bu masalani sud hokimiyati organlarining o'zi, asosan, sud hokimiyati oliy kengashlari hal qiladi. Biroq, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, sudya muayyan ishlar bo'yicha qabul qilgan qarorlari uchun intizomiy (va undan ham ko'proq jinoiy va ma'muriy) javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Shuningdek, u sud funksiyalarini bajarishda noto'g'ri xatti-harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan moddiy zarar uchun javobgar emas: "Sud xatosi natijasida yetkazilgan zarar, shuningdek odil sudlovni amalga oshirishdagi noto'g'ri harakatlar natijasida yetkazilgan zarar qonun hujjatlariga muvofiq davlat hisobidan zararni qoplash huquqini beradi" (Ispaniya Konstitutsiyasining 121-moddasi) [7].

Bir qator xorijiy davlatlarning sud tizimida sudyaning huquqiy maqomi nomuvofiqlik tamoyili, ya'ni sudyalarning, aniqrog'i, sudyalar korpusiga tegishli bo'lgan barcha shaxslarning bir vaqtning o'zida boshqa davlat yoki jamoat lavozimlarini egallashiga taqiq qo'yilishi bilan ham tavsiflanadi. Bu qoida barcha konstitutsiyalarda shakllantirilmagan, lekin u barcha mamlakatlarda amal qiladi; sudyalar to'g'risidagi qonunlarda nomuvofiqlik tamoyilini ochib beruvchi maxsus bo'limlar yoki moddalar guruhlar mavjud.

Portugaliya Respublikasi Konstitutsiyasi (222-modda) sudyalar o'z xizmat vazifalarini bajarayotib, bir vaqtning o'zida davlat yoki xususiy tashkilotlarda haq evaziga boshqa funksiyalarni bajara olmaydilar, shuningdek, Magistratura Oliy Kengashining ruxsatisiz sud faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan komissiyalarga tayinlanishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan [8].

Gretsiya Konstitutsiyasi (89-modda) ikki tomonlama taqiqni nazarda tutadi: sudyalarga boshqa haq to'lanadigan lavozim bilan ta'minlash taqiqlanadi, sudyalarning o'zlari esa boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari (oliy o'quv yurtlarida o'qituvchilik qilishdan tashqari) taqiqlanadi. Ushbu qoida o'zimizning qonunchilikda ham mavjud [9].

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonunda ham xuddi shunday taqiqlarni nazarda tutiladi (62-modda).

Sudyalarning huquqiy maqomi masalalari O'zbekiston va xorijiy yuridik fanlarda eng ko'p muhokama qilinadigan masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida va xorijiy mamlakatlarda sudyalarning konstitutsiyaviy va huquqiy maqomini taqqoslab, shuni ta'kidlash kerakki, konstitutsiyalarning qoidalari sezilarli darajada farq qilmaydi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi sudyaning maqomi to'g'risidagi qoidalarni aniq belgilaydi va ochib beradi. O'zbekistonda ham, bir qator xorijiy mamlakatlarda ham sudyalik lavozimiga nomzodlarga ma'lum talablar qo'yiladi: majburiy kasbiy fazilatlar, oliy yuridik ma'lumot, yuridik faoliyat sohasidagi boshqa lavozimlarda ma'lum ish staji, yuqori axloqiy fazilatlar, sudlanmaganligi va boshqalar.

Sudyalarning huquqiy maqomi aniq belgilangan, adolatli barqaror huquq va kafolatlar tizimini odil sudlovni amalga oshirishni ta'minlaydi. Aynan odil sudlovni amalga oshirish sudlarning mutlaq funksiyasi bo'lib, unda yetakchi rol sudyaga tegishlidir. Shu sababli, masalan, Latviyada birinchi marta ushbu lavozimga saylangan sudya tomonidan qabul qilingan qasamyodda quyidagi so'zlar mavjud: "Men sudyalik burchini o'z zimamga olib, o'zimga yuklangan mas'uliyatni tan olaman halol va adolatli, Latviya Respublikasiga sadoqatli bo'lishga tantanali ravishda qasamyod qilaman va haqiqatni aniqlashda Latviya Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga bo'ysunaman" [10]; yoki O'zbekistonda: «Zimamga yuklatilgan vazifalarni halol va vijdonan bajarishga, odil sudlovni faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga bo'ysungan holda amalga oshirishga, sudyalik burchim va vijdonim buyurganidek beg'araz, xolis va adolatli bo'lishga tantanali qasamyod qilaman».

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, sudyaning maqomi jamiyatdagi sud hokimiyatining tashuvchisi sifatidagi huquqiy maqomini hamda sud-huquq tizimidagi mansabdor shaxs sifatidagi mavqeyini ifodalovchi unga tegishli huquq va majburiyatlarning majmuidir. Yuqorida qayd etilgan tamoyillar davlatda adolatli va mustaqil odil sudlovni amalga oshirishning kafolati bo'lgan sudya maqomi tuzilishining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-сон;
2. Домнина, О. В. Принцип независимости судей как элемент метода механизма правового регулирования гражданского процессуального права / О. В. Домнина // Вестник Саратовской государственной академии права. – 2011. – № 18. – С. 150–154;
3. Fransiya Konstitutsiyasi 1958-y. – URL: <http://dic.academic.ru/>;
4. Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy qonuni. – URL: <http://lawyers-ssu.narod.ru>;
5. Polsha Konstitutsiyasi 1997 g. – URL: <http://ru.wikipedia.org>;
6. AQSH Konstitutsiyasi. – URL: <http://ru.wikipedia.org>;
7. Dunyo davlatlarining (mamlakatlarning) konstitutsiyalari. Ispaniya Qirolligi Konstitutsiyasi 1978-y. – URL: <http://worldconstitutions.ru>;

8. Dunyo davlatlarining (mamlakatlarining) konstitutsiyalari. Portugaliya Respublikasining 1976 йил Конституцияси. – URL: <http://worldconstitutions.ru/>;
9. Dunyo davlatlarining (mamlakatlarining) konstitutsiyalari. Gretsiya Konstitutsiyasi 1975-yil. – URL: <http://worldconstitutions.ru/>;
10. Latviya qonunlari rus tilida. – URL: http://pravo.lv/likumi/11_zon.html.

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SCIENCE

Received: 2 October 2025

Accepted: 15 October 2025

Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

**FOREIGN EXPERIENCE IN DEVELOPING UNUSUAL TESTING SKILLS
IN FUTURE EDUCATORS**

Kholamtova Ziroatkxon Anvarovna

Professor, DSc of Kokand State University

Abstract. This article presents some opinions on the foreign experience in developing the skills of creating unusual tests in future pedagogues. The article also mentions the history of unusual testing and its importance in the educational process, the types of unusual tests and their content, and the principles of choosing the content of test tasks.

Keywords: unusual tests, integrative tests, adaptive tests, criterion-referenced tests, experience, efficiency, result.

**BO'LG'USI PEDAGOGLARDA NOSTANDART TESTLARNI TUZISH
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASI**

Xolmatova Ziroatxon Anvarovna

Qo'qon davlat universiteti professori, p.f.d (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lg'usi pedagoglarda nostandart testlarni tuzish ko'nikmalarini rivojlantirishda xorij tajribasi xususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek maqolada, nostandart testing vujudga kelish tarixi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, nostandart testlarning turlari va ularning mazmuni, test topshiriqlari mazmunini tanlash prinsiplari xususida ham ayrim fikrlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: nostandart testlar, integrativ testlar, adaptiv testlar, mezonli — mo'ljal olish testlari, tajriba, samaradorlik, natija.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N83>

Kirish. Mazkur maqolada bo'lg'usi pedagoglarda nostandart testlarni tuzish ko'nikmalarini rivojlantirishda xorij tajribasi xususida so'z borib, maqolaning aksariyat qismida "test" tushunchasiga duch kelamiz. Ta'lim mazmuniga kiritilgan har bir yangilikni Davlat Ta'lim Standartlariga muvofiq holda darsda qo'llay olish o'qituvchidan yuqori bilim va ko'nikmani talab etadi. PISA — xalqaro tadqiqot dasturida ham o'quvchilarning bilim olishi, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalari hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlari turli testlar yordamida sinovdan o'tkaziladi. Shu maqsadda hozirgi zamonaviy amaliy fanlar mutaxassislar oldiga nazariy muammolar, matematik yondashuvlar, model va metodlarni ishlab chiqmoqda. Xususan, ana shunday metodlardan biri test metodidir.

Ma'lumki, fanlar bo'yicha tuziladigan test topshiriqlari ikki guruhga bo'linadi:

1. Standart testlar topshiriqlari.
2. Nostandart test topshiriqlari.[1.B.169]

Birinchi guruhga mansub test topshiriqlarida bitta topshiriq va to'rtta (ba'zan beshta) javob beriladi.

Maqolamizda so'z boradigan nostandart testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Integrativ testlar;
2. Adaptiv testlar;
3. Mezonli — mo'ljal olish testlari.[2.B.97]

Integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, talabaning tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi. Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, o'quvchilarga nisbatan individual yondashish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida talabaning egallashi mumkin bo'lgan bali va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'ladi. Adaptiv testlarning asosiy guruhini piramidali testlar qo'llanish maqsadiga ko'ra: o'rtacha og'irlikdagi, o'quvchining tanlashiga ko'ra aralash, topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo'lishi mumkin. Adaptiv testlar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning modul-kredit paradigmasida muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin. Buning uchun pedagog bitta mavzu, bob, bo'lim, kurs mazmuni bo'yicha turli qiyinchilik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lishi lozim.

Mezonli-mo'ljal olish testlari o'quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi mazkur fanning o'qitilish sifati, pedagogning pedagogik mahorati, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Mazkur test topshiriqlarini tuzish uchun avvalo o'quv kursi mazmuni DTS asosida tahlil etiladi, bilim ko'nikma va malakalar aniqlanadi, ularni aniqlash uchun topshiriqlar majmuasi tuziladi mazkur topshiriqlar test topshiriqlariga aylantiriladi va sinov o'tkaziladi, pirovard natijada o'quvchilarning shu fanni o'zlashtirish darajasi yuzasidan xulosa tayyorlanadi.[3.B.26]

Nostandart test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o'rinni egallaydi. Shu sababli, nostandart test topshiriqlari mazmunini tanlash prinsiplari haqida fikr yuritish lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Nostandart test topshiriqlari yuzasidan xorijiy tajribani o'rganadigan bo'lsak, 1884-yilda AQShda o'z ichiga qator topshiriqlar va besh balli tizimda baholanadigan javoblarni olgan test materiallaridan iborat birinchi kitob nashr qilinganligini ko'ramiz. Unga matematika, tarix, grammatika, navigatsiyaga oid topshiriqlar kiritilgan bo'lib, insholarning taxminiy matnlari va ularni baholash usuli ilova qilinardi. Bu tarixda ilk bor pedagogik jarayonda oddiy statistik hisob-kitobning qo'llanishi bo'lgan.

Djeyms Makkin Kettel nostandart testlarni qo'llash metodikasining asoschisi bo'lib AQShda faoliyat ko'rsatgan mashhur amerikalik ruhshunos hisoblanadi. Uning "Intellektual testlar va ulardan foydalanish" nomli maqolasi (1896) da diagnostikaning aniq usullari ishlab chiqilgan. Kettel fanga "test" va "nostandart test" so'zlarini kiritdi va bu bilan hozirgi Amerika ta'limida an'anaga aylangan o'quv yurtlariga kirayotganlarni test yordamida tanlash usulini boshlab berdi.[4.B.28]

Yevropada nostandart testlarning asoschisi sifatida taniqli ingliz olimi Frensis Galton (1822-1911) tan olingan. O'zining "Inson qobiliyatlari va ularning rivojlanishini o'rganish" asarida u insonning aqliy qobiliyatlari asosan nasldan-naslga o'tadi, degan fikrni ilgari suradi.

U fanga “umumiy qobiliyatlar” (general ability) va “maxsus moyillik” (special aptitudes) degan atamalarni kiritib, ularning birinchisi tabiat tomonidan ato etiladi, ikkinchisi insonning hayoti davomida shakllanadi, deb ta’kidlaydi. Galton o’z faoliyati davomida insonning jismoniy va ruhiy xususiyatlarini aniqlash usullarini ishlab chiqdi. Bu tadqiqotlar testlarni yaratishning boshlanishi bo’ldi. 1884-85 yillarda u o’zining laboratoriyasiga keluvchilar orasida sinovlar o’tkazardi. U yerga 5 yoshdan 80 yoshgacha bo’lgan kattalar va bolalar kelishar, ozgina haq evaziga reaksiya tezligi, vazn, o’pka hajmi, kaft kuchi (dinamometr yordamida – bu ham F.Galtonning ixtirosi edi), mushtum kuchi, bo’y uzunligi, ko’zning o’tkirlik darajasi o’lchanardi. Undan tashqari, harflarni eslab qolish va rang ajratish qobiliyati, organizmning qator fiziologik imkoniyatlari va psixik xususiyatlari baholanardi. Butun dastur bo’yicha 9337 nafar odam tekshirilgan.[5.B.37]

Tahlil va natijalar. XIX asr oxiriga kelib Yevropada bilimlarni nazorat qilishning ikki turi an’anaviy bo’lib qoldi. Birinchisini shartli ravishda nemischa an’ana deb atashgan bo’lib, unda imtihonning og’zaki shakllariga e’tibor qaratilgan. Kamida ikki kishidan iborat komissiya ishtirokida o’tkaziladigan bunday imtihonda bitta katta hajmli savolga beriladigan javob butun kurs bo’yicha bilimlar darajasini ko’rsatishi kerak bo’lgan. Boshqa an’ana inglizcha deyilib, nazoratning yozma shaklidan iborat edi va sinalayotganlarga turli mavzulardagi 10-12 ta qisqa vazifa berilardi.

Bolalarning aqliy layoqatini ilk bor o’lchashga urinish XX asr boshida Fransiyada yuz bergan. Bunday maqsadda tuzilgan testning mualliflari Alfred Bine va Teodor Simon testga kiritiladigan topshiriqlarning empirik tekshiruvini o’tkazishgan. Topshiriqlarning maqsadga muvofiqligini tekshirish uchun mualliflar ikki asosiy mezondan foydalanganlar: 1) har bir topshiriqning turli yoshdagi bolalar guruhlarida murakkabligini aniqlaydigan empirik o’lchovi; 2) test natijalarining ota-onalar fikri bilan qanchalik mosligi haqidagi ma’lumot.

O’zlari olgan natijalarni boshqa tadqiqotchilar olgan natijalar bilan taqqoslash va o’lchovdagi xatolarni imkon qadar kamaytirishga erishish uchun A.Bine va T.Simon testga uni o’tkazish bo’yicha standart yo’riqnoma ilova qilganlar.

Ma’lumki, fanlarni o’zlashtira olmaslikning sabablari har xil. Ba’zi bolalarning aqliy layoqatlari yuqori bo’lsa-da, ular yalqovlik yoki boshqa xususiyatlarga ko’ra yomon o’qiydilar, boshqalari aqliy tanqislik sababli oddiy maktabda o’qiy olmaydilar. Lekin qanday qilib bu sabablarni aniqlash mumkin? O’qituvchilarning har bir o’quvchi to’g’risidagi fikrlari har doim qarama-qarshi va subyektiv bo’ladi. Shuning uchun aqliy layoqatlarni xolisona aniqlaydigan usul kerakligi ayon bo’ldi. Bine testlarining paydo bo’lishi ana shu zaruriyatdan kelib chiqqan.

Bine o’zining tadqiqotlari bilan bolaning kelajagini muayyan test ko’rsatkichlari asosida oldindan aytib berish uchun emas, balki ta’lim jarayonidagi nuqsonlarni aniqlash uchun xizmat qilgan. U bolaning aqliy rivojlanishida ijtimoiy-madaniy sharoitning ahamiyati katta ekanligini, testlardan foydalanishda raqamlarga berilib ketmaslik kerakligini ta’kidlagan. Uning quyidagi fikriga e’tibor bering: “Shaxs tafakkuri o’sishi mumkin emas, degan noxush fikrga zamonamizning ba’zi faylasuflari ruhan ko’nikib qolmoqdalar. Biz ... bu kabi fikrlar asossiz ekanligini isbotlashimiz zarur. Bolaning miyasini haydalmagan dalaga qiyoslasak, tajribali fermer bunday dalada erni parvarish qilish orqali o’ylagan niyatlarini amalga oshirishi va natijada unumsiz er o’rniga unumdor erga ega bo’lishi mumkin...”

Bilim, malaka va ko’nikmalarni nazorat qiladigan birinchi nostandart testlar XX asr boshida paydo bo’lgan. Ular tezda Angliya va AQShning oliy o’quv yurtlari va maktablari

o'qituvchilari orasida ommalashib ketgan. Taxminan o'sha paytdan ularni AQShda pedagogik nostandart testlar deb atay boshlaganlar. Aynan shu testlar an'anaviy, "sof", testlarsiz pedagogik fan va amaliyot tarafdorlarining qarshiligiga uchragan.

Xorijiy tajribalarni o'rganish asnosida nostandart test topshiriqlariga quyidagi talablar qo'yiladi deyish mumkin:

- Test topshiriqlariga quyidagi talablar qo'yiladi:
- Test topshirig'i mazmunining to'g'riligi;
- Savolning mantiqiy jihatdan to'g'ri tanlanishi;
- Test topshirig'i shaklining to'g'riligi;
- Test topshirig'ining savol va javobning qisqaligi;
- Test topshirig'i elementlarining to'g'ri joylashganligi;
- Test topshirig'ining to'g'ri javoblari bir xil baholanishi;
- O'quvchilarga test topshirig'ining bajarish bo'yicha bir xil ko'rsatma berilishi;
- Ko'rsatmalarning test topshirig'i va mazmuniga mosligi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda nostandart testlar ta'lim jarayonida keng qo'llanilib kelinmoqda. Bunga misol tariqasida xalqaro baholash dasturlari hisoblangan, PISA, PIRLS, TALIS, EGMA kabi baholash dasturlarini keltirish mumkin. Nostandart testlar ta'lim jarayonini qiziqarli qilish bilan birgalikda, ta'lim samaradorligini oshirishga, ta'lim oluvchilarda kreativ fikrlarni yuzaga chiqarishda hamda kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Axmedova, Z. Nodavlat o'quv markazlari tizimi platformasi uchun mobil ilova yaratish. Академические исследования современной науке, 3(6), 162-179.
2. Akhmedova, Z. Structures of small database management systems. Solution of social problems in management and economy, 3(1), 97-107.
3. Roid G.H., Haladyna T.V. A Technology for Test-item Writing.-N.Y.: Academic Press, 1982.
4. Spearman C. Correlation calculated from faulty data//British Journal of Psychology, 1910, Vol.3, N2.-P.271-295.
5. Clarck J.L.D. Foreign-Language Testing. Theory and Practice.-Philadelphia, 1972.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE INTEGRATION OF MORAL AND AESTHETIC EDUCATION

Mamajonova Gulnoza Karimovna

Senior Lecturer, Department of Social Sciences (PhD)
Namangan State Technical University

Abstract. The article analyzes the harmony of moral and aesthetic education from a pedagogical perspective. The primary aim of the study is to identify the conceptual and methodological foundations for educating a well-rounded personality through the integration of moral and aesthetic components, and to develop practical recommendations. The author proposes an integrated model encompassing pedagogical principles of moral-aesthetic education, content-structural blocks, methodological tools, and assessment mechanisms.

Keywords: moral education; aesthetic education; harmony; pedagogical principles; integrated model; assessment.

AXLOQIY VA ESTETIK TARBIIYA INTEGRATSIYASINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Mamajonova Gulnoza Karimovna

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi (PhD)
Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Maqolada axloqiy va estetik tarbiyaning uyg'unligini pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Axloqiy va estetik komponentlarni integratsiyalash orqali yetuk shaxsni tarbiyalashning konseptual va metodik asoslarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi. Muallif axloqiy va estetik tarbiyaning pedagogik tamoyillari, mazmun-struktur bloklari, metodik vositalar va baholash mexanizmlarini o'z ichiga olgan integratsiyalashgan modelni taklif etadi.

Kalit so'zlar: axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, uyg'unlik, pedagogik tamoyillar, integratsiyalashgan model, baholash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N84>

Kirish. Zamonaviy ta'lim va tarbiya jarayoni inson shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda faqat kasbiy yoki intellektual tayyorgarlik emas, balki ma'naviy, axloqiy va estetik yetuklikni ta'minlash masalasi ham muhim o'rin egallaydi. XXI asrda globallashuv, raqamli madaniyat va axborot oqimlarining tezkor sur'atlarda rivojlanishi inson ongiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sharoitda ta'lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsning ichki dunyosini, ma'naviy qadriyatlarini, axloqiy me'yorlarini va go'zallikni anglash qobiliyatini rivojlantiruvchi jarayon sifatida qayta ko'rib chiqilmoqda. Demak, bugungi pedagogik amaliyotda "shaxsni har tomonlama yetuk inson sifatida tarbiyalash" konsepsiyasi markaziy o'rinni egallamoqda. Axloqiy tarbiya shaxsning ijtimoiy me'yorlarga, jamiyat qadriyatlariga va insoniy fazilatlarga nisbatan ongli munosabatini shakllantiradi. U insonning mas'uliyat, halollik, adolat, empatiya, hurmat kabi axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Estetik tarbiya esa shaxsning go'zallikka bo'lgan

idrokin, badiiy didini, tasavvurini, ijodiy tafakkurini va hissiy sezgirligini shakllantiradi. Estetik tajriba orqali inson nafaqat san'at asarlarini, balki hayotdagi go'zallikni, muvozanat va uyg'unlikni anglaydi, bu esa uning axloqiy qarorlariga, xulq-atvoriga va ijtimoiy munosabatlariga bevosita ta'sir etadi. Shu jihatdan axloqiy va estetik tarbiya bir-birini to'ldiruvchi, sinergik ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik kategoriyalar sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik nuqtai nazardan olganda, axloqiy-estetik uyg'unlik shaxsni faqat tashqi me'yorlarga bo'ysunuvchi emas, balki ichki e'tiqod va qadriyatlarga asoslanib harakat qiluvchi, go'zallikni va yaxshilikni ajrata oluvchi ongli individ sifatida shakllantiradi. Estetik idrok orqali o'quvchi insoniy qadriyatlarni chuqurroq his qiladi, axloqiy muammolarni hissiy darajada qabul qiladi va bu tushunchalar kundalik hayotdagi xulqida, tanlovlarida namoyon bo'ladi. Masalan, adabiyot darolarida badiiy asarlar orqali axloqiy konfliktlarni estetik shaklda tahlil qilish, musiqiy asarlar yordamida his-tuyg'ularni tarbiyalash yoki tasviriy san'at orqali go'zallikni his etish barchasi axloqiy-estetik integratsiyaning amaliy ko'rinishlaridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Axloqiy va estetik tarbiya masalasi pedagogik tafakkur tarixida uzoq yillardan beri muhim mavzulardan biri bo'lib keladi. Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy kabi allomalar estetik go'zallik va axloqiy komillik o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ta'kidlaganlar. Forobiy "Fozil shahar ahli" asarida insonning baxt-saodatga erishuvi uchun aqliy, axloqiy va estetik jihatdan yetuk bo'lishini zarur deb bilgan; Beruniy esa go'zallikni ilmiy bilish va ma'naviy tarbiya bilan bog'lagan. G'arb falsafasida ham bu g'oya K. Helvetsiy, I. Kant, F. Shiller, J. Dewey kabi mutafakkirlar asarlarida o'z ifodasini topgan. Xususan, Kant estetik didni axloqiy hukm bilan uyg'un holda ko'rib, go'zallikni "axloqiylikning ramzi" deb atagan. Shiller esa san'atni insonni erkinlik va axloqiy yetuklikka eltuvchi vosita sifatida talqin etgan.

Bugungi ta'lim tizimida bu falsafiy qarashlar zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilmoqda. Interfaol o'qitish, loyiha asosidagi ta'lim, refleksiv tahlil, muammoli vaziyatlar orqali o'qitish, badiiy-estetik muhit yaratish kabi metodlar axloqiy-estetik tarbiyani samarali integratsiyalash imkonini beradi. Biroq amaliyotda ko'plab holatlarda bu ikki yo'nalish fanlar kesimida ajralib ketadi: axloqiy tarbiya ko'proq ijtimoiy fanlar doirasida, estetik tarbiya esa san'at fanlarida yoritiladi. Natijada, tarbiyaviy jarayonning yaxlitligi buziladi, o'quvchi shaxsining ma'naviy-estetik rivojlanishida tafovutlar paydo bo'ladi. Shu bois, pedagogik tizimda bu ikki yo'nalishni yagona integratsiyalashgan model asosida birlashtirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyasi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasining markazida turadi. Chunki bu yondashuv orqali o'quvchi nafaqat intellektual jihatdan, balki ruhiy va hissiy jihatdan ham rivojlanadi. Integratsiyalashgan model o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi, ularni hayotiy vaziyatlarga axloqiy-estetik mezonlar asosida baho berishga o'rgatadi. Shu jihatdan, bunday yondashuv shaxsni ijtimoiy mas'uliyatli, go'zallikni qadrllovchi, jamiyatga foydali a'zoga aylantiradi.

Demak, axloqiy va estetik tarbiya integratsiyasining pedagogik asoslarini tadqiq etish nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. U orqali o'qituvchi o'z faoliyatida shaxsning ichki dunyosini chuqurroq anglash, uning hissiy va axloqiy ehtiyojlariga mos pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bois, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi axloqiy va estetik tarbiyaning uyg'unligini ta'minlaydigan pedagogik tamoyillarni aniqlash, integratsiyalashgan modelni ishlab chiqish va uni zamonaviy

ta'lim muhitida samarali qo'llash imkoniyatlarini ochib berishdan iboratdir. Mazkur maqola aynan shu maqsadni ko'zlab, axloqiy va estetik tarbiyaning nazariy asoslari, ularning integratsiyalashgan pedagogik modeli hamda oliy ta'lim tizimidagi amaliy tatbiq imkoniyatlarini har tomonlama tahlil etishga bag'ishlangan. Axloqiy va estetik tarbiya masalalari psixologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik sohalarida keng yoritilgan. Faylasuf va pedagoglar (Platondan tortib zamonaviy olimlargacha) insonga beriladigan tarbiya tushunchalari doirasida ma'naviy va go'zallik jihatlarini birdek muhokama qildilar. Zamonaviy tadqiqotlarda axloqiy va estetik tarbiyaning o'zaro bog'liqligi yanada aniqroq ko'rsatildi: estetik tajriba axloqiy hissiyotlar va qarorlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi e'tirof etildi. Masalan, Zautorova[2] axloqiy-estetik tarbiyaning psixologik asoslarini ochib bergan, uning fikricha, estetik did va axloqiy qarashlar insonning ichki dunyosida o'zaro ta'sir qiladi. Kuntsevich[1] esa estetik va axloqiy tarbiyaning maktab tarbiyasi tizimidagi ajralmasligini ta'kidlaydi va amaliy tavsiyalar beradi. Mahalliy o'zbek tilidagi metodik ishlanmalar badiiy san'at orqali axloqiy qadriyatlarini yetkazish amaliyotiga e'tibor qaratadi, bu esa modelni milliy kontekstga moslashtirish uchun muhim resurs hisoblanadi[3].

Xalqaro hujjatlar, xususan UNESCO hamda boshqa xalqaro tashkilotlar san'at va madaniyat orqali ta'limni rivojlantirishni rag'batlantiradi. UNESCO ramkalari san'at ta'limining fuqarolik, ijtimoiy javobgarlik va madaniy identifikatsiyani shakllantirishdagi rolini ko'rsatadi. Bularning barchasi akademik adabiyotlar integratsiyalashgan yondashuv zarurligini tasdiqlaydi[4].

Tanlangan manbalar ichidan axloqiy va estetik tarbiya mavzusidagi ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar va metodik tavsiyalar tahlil qilindi. Diqqat markazida pedagogik tamoyillar, metodik yondashuvlar va baholash usullari bo'ldi. Turli mualliflarning nazariy yondashuvlari, taklif qilingan metodlar va amaliy tavsiyalar taqqoslandi; ularning umumiy va farqli tomonlari ajratib olindi hamda adabiyotlar tahlili asosida axloqiy-estetik tarbiyani universitet muhitida amalga oshirish uchun integratsiyalashgan pedagogik model ishlab chiqildi, uning mazmuni, metodlari va baholash mezonlari aniqlab olindi.

Muhokama. Axloqiy va estetik tarbiyaning uyg'unligini ta'minlash uchun bir qator pedagogik tamoyillar zarur. Integratsiyalash tamoyili axloqiy va estetik mazmuni o'quv dasturlari va ta'lim faoliyati ichiga sinergik tarzda kiritishni taqozo etadi. Gumanistik tamoyil o'quvchining shaxsiy fazilatlarini, uning ichki dunyosi va ijodiy erkinligini inobatga olgan holda tarbiyalashni nazarda tutadi. Faol-interaktiv tamoyil his-tuyg'ular va tafakkur orasidagi aloqani mustahkamlaydigan interfaol usullarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Kontekstuallik tamoyili esa mazmun va metodlarni milliy madaniy va zamonaviy ijtimoiy sharoitga moslashtirishni talab qiladi.

Axloqiy-estetik tarbiya mazmuni uch asosiy blokka ajratildi: nazariy-konseptual blok, badiiy-madaniy blok va amaliy-reflektiv blok. Har bir blok o'z vazifasini bajaradi: nazariy poydevor yaratiladi, estetik va badiiy mazmun orqali axloqiy qadriyatlar etkaziladi, amaliy va reflektiv faoliyat orqali esa o'quvchi o'zlashgan nazariy bilimlarni hayotiy kontekstga tatbiq qiladi. Ushbu tadqiqotda axloqiy-estetik tarbiyani amalga oshirish uchun samarali metodlar sifatida quyidagilar tavsiya etiladi: badiiy matnlarni axloqiy-etik tahlil qilish (case-discussion), drammatizatsiya va rol o'ynash, loyiha usuli, multimediyaviy vositalari orqali estetik tajriba yaratish, hamda refleksiya (esse, jurnal, portfoliolar) orqali ichki o'zgarishni qayd etish. Dars jarayonida badiiy asarni muhokama qilish paytida axloqiy masalalarni muhokama qilish, guruh

ishlarini tashkil etish va ijodiy tasvirlar yaratish orqali estetik hamda axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Estetik va axloqiy natijalarni baholash uchun kombinatsiyalashgan vositalar ishlab chiqildi: kriteriy asosidagi rubrikalar, portfoliolar, reflektiv esse, ijodiy taqdimotlar (performance) va guruh bahosi. Rubrikalar empatiya, ijtimoiy mas'uliyat, estetik did, ijodiy yondashuv va muhokamada faol qatnashish kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Har bir kriteriyaga aniq indikatorlar biriktiriladi, bu baholashning obyektivligini oshirishga yordam beradi. Modelni amalga oshirish uchun quyidagi shartlar muhimligi aniqlangan: o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, material-texnik baza (san'at asboblari, laboratoriyalar, kutubxona va multimediyalar resurslari), o'quv dasturlarining fleksibl va integratsiyalashgan bo'lishi hamda oila va jamoatchilik bilan hamkorlik. Ushbu shart-sharoitlar bo'lmaganda model samarali ishlamasligi mumkin.

Natijalar. Axloqiy va estetik tarbiyaning uyg'unligi pedagogik nazariyada muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, estetik tajriba o'quvchilarning hissiy-axloqiy pozitsiyalarini mustahkamlashi mumkin. Badiiy asarlar orqali axloqiy mavzularni estetik kontekstga joylashtirish talabalarda empatiya, mas'uliyat va etik qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Boshqa tomondan, axloqiy mezonlarga asoslangan muhokamalar estetik tafakkurni chuqurlashtirishga hissa qo'shadi.

Amaliyotda esa bir qancha to'siqlar mavjud: o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetishmasligi, dars jadvalidagi vaqt va kredit chegaralari, hamda moddiy texnik bazaning cheklanganligi. Shu sababli modelni joriy etishda bosqichma-bosqich yondashuv, pilot loyihalar va o'qituvchilar uchun treninglar tashkil etish muhimdir. Yana bir muhim jihat baholashdagi subyektivlik muammosi. Estetik did va axloqiy qarashlar ko'pincha individual va madaniy kontekstga bog'liq bo'lib, ularni baholashda aniq mezonlar va indikatorlar ishlab chiqish zarur. Taklif qilingan rubrikalar va portfoliolar bu muammoni kamaytirishga qaratilgan chora sifatida ko'riladi; biroq ularning validatsiyasi empirik tekshiruv orqali amalga oshirilishi lozim. Kelajak tadqiqotlari uchun tavsiya etiladi: taklif qilingan modelni pilot loyihalar orqali sinovdan o'tkazish, baholash vositalarini validatsiyalash, va modelni turli yosh guruhlarida hamda madaniy kontekstlarda moslashtirish.

Xulosa. Ushbu maqolada axloqiy va estetik tarbiyaning o'zaro uyg'unligi pedagogik asoslari nuqtai nazaridan nazariy-analitik jihatdan keng qamrovda tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida inson shaxsining ma'naviy va estetik kamolotini ta'minlashda integratsiyalashgan yondashuvning zarurligi ilmiy dalillar asosida asoslab berildi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirishda axloqiy qadriyatlar bilan bir qatorda estetik did, badiiy idrok va ijodiy tafakkurni shakllantirish pedagogik tizimning ajralmas elementi sifatida namoyon bo'ldi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, axloqiy va estetik tarbiya komponentlarini uyg'unlashtirish orqali talabalarda nafaqat axloqiy fazilatlar, balki go'zallikni anglash, badiiy qadriyatlarni baholash va estetik hissiyotlarni ifodalash qobiliyatlari ham rivojlanadi.

Integratsiyalashgan pedagogik modelni ishlab chiqish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish shaxsni tarbiyalashning yangi bosqichini belgilaydi. Mazkur modelda axloqiy-estetik qadriyatlar tizimi, ularni o'qitish tamoyillari, mazmun-struktur bloklar, interfaol va ijodiy metodlar hamda kombinatsiyalashgan baholash tizimi yagona pedagogik jarayonga uyg'unlashtirilgan. Bunday yondashuv, o'z navbatida, ta'lim oluvchilarda ongli axloqiy tanlov, ijodiy fikrlash, estetik sezgirlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi ko'nikmalarni shakllantirishga

xizmat qiladi. Shuningdek, integratsiyalashgan modelning muvaffaqiyatli tatbiqi o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, pedagogik innovatsiyalarga ochiqligi va zarur resurslarning mavjudligiga bevosita bog'liq ekanligi aniqlangan.

Kelajakda ushbu modelni real ta'lim muhitida, xususan, oliy ta'lim muassasalarida pilot sinovdan o'tkazish, uning samaradorligini aniqlash va baholash mezonlarini validatsiya qilish zarur. Shuningdek, natijalar tahlili asosida modelning tarkibiy qismlarini takomillashtirish, yangi pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash va baholash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish istiqbollari mavjud.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda bir qator ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Avvalo, pedagogika fakultetlari va malaka oshirish markazlarida "Axloqiy-estetik ta'lim metodlari" bo'yicha maxsus o'quv modullarini joriy etish, o'qituvchilar uchun amaliy seminar va treninglar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'lim va umumta'lim muassasalarida axloqiy-estetik integratsiyani ta'minlovchi fanlararo modullarni o'quv rejalari va kredit-modul tizimiga kiritish, badiiy asarlar orqali axloqiy muhokamalarni tashkil etish dars jarayonini mazmunan boyitadi. Shuningdek, taklif etilgan baholash rubrikalari, o'quv portfoliolar va reflektiv tahlil usullarini amaliyotda sinab ko'rish, ularning validatsiyasini amalga oshirish orqali tizimning ishonchliligi oshiriladi. Oila, mahalla va jamoatchilik bilan hamkorlikda madaniy-ma'naviy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar, talabalarning ishtirokida ko'rgazmalar, teatr sahnalari va estetik seminarlarni tashkil etish esa axloqiy-estetik uyg'unlikni mustahkamlashda muhim ijtimoiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, axloqiy va estetik tarbiya integratsiyasining pedagogik asoslari faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki zamonaviy ta'lim tizimining amaliy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Ushbu yo'nalish ta'limning insonparvarlik mohiyatini, madaniy merosga hurmatni, estetik idrokni va ma'naviy yetuklikni uyg'un holda rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari nafaqat pedagogik nazariya, balki ta'lim amaliyoti uchun ham yangi istiqbollari ochadi va talabalarda yuksak axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirishning samarali yo'llarini belgilab beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Kuntsevich S.I. Esteticheskoe i nравstvennoe vospitanie kak neot'emlemaia chast' shkol'noy sistemy // *Sovremennye problemy pedagogiki*. 2014. № 3.
2. Zautorova E.V. *Nравstvenno-esteticheskoe vospitanie lichnosti*. Monografiya. — M.: Izdatelstvo, 2013.
3. Saidova D.E., Roziyev D.Y. Bolalarda axloqiy-estetik tarbiyani shakllantirish omillari // *Pedagogika i psixologiya*. 2022. № 1.
4. UNESCO. *Aesthetic and Artistic Education Framework*. — Paris: UNESCO, 2020.
5. Zyabkina L.V. Badiiy adabiyot orqali bolalarda axloqiy-estetik tarbiyani shakllantirish // *Pedagogicheskii zhurnal*. 2012. № 4.
6. Materialy konferentsii "Problemy esteticheskogo obrazovaniya v kontekste ustoychivogo razvitiya obshchestva". Minsk, 2021.
7. Savelyeva O.E. Esteticheskoe vospitanie kak faktor formirovaniya pozitivnyh tsennostnyh orientatsiy u shkolnikov // *Molodoy Ucheniy*. 2024. № 7.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE EFFECTIVENESS OF ACTIVE TEACHING METHODS IN EDUCATION: EXPERIENCE AND ANALYSIS

Gulomova Komila Makhamatzhanovna

Associate Professor, Social Sciences Department,
Tashkent University of Economics and Technology

Abstract. This article examines the profound reforms taking place in the education system and the approaches aimed at bringing the higher education process to a modern level. It analyzes issues of digital transformation, the implementation of innovative pedagogical technologies, strategic design in education, and outcome-oriented teaching methods. Special attention is given to active learning methods and project-based approaches.

Keywords: modern education, instructional design, assessment system, interactive methods, learning outcomes.

TA'LIMDA FAOL O'QITISH METODLARINING SAMARADORLIGI: TAJRIBA VA TAHLIL

Gulomova Komila Maxamatjanovna

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsent v.b.

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar, oliy ta'lim jarayonini zamonaviy bosqichga olib chiqish yo'lidagi yondashuvlar tahlil qilinadi. Unda raqamli transformatsiya, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'limning strategik dizayni va natijadorlikka yo'naltirilgan o'qitish metodlari, xususan, faol o'qitish va loyihalash metodlarining o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, loyihalash, baholash tizimi, interaktiv metodlar, o'quv natijasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N85>

Kirish. Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi tub islohotlar, xususan, oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan chora-tadbirlar, bugungi globallashuv jarayonlari bilan hamohang tarzda amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning bosh maqsadi – ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqish, raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga samarali joriy etish, xalqaro tajribalarni kontekstga moslashtirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali o'quvchi-shaxs rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda o'qituvchining roli faqatgina bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini strategik loyihalovchi, texnologik vositalar yordamida boshqaruvchi va talaba shaxsiga yo'naltirilgan o'quv muhitini yaratuvchi sifatida talqin qilinmoqda. Shu bois, bugungi pedagogning kasbiy kompetensiyasi doirasida innovatsion ta'lim texnologiyalarini ongli tanlash, ularni dars jarayonida moslashtirish, texnologik xaritalar va o'quv mashg'ulotlari rejalarini ishlab chiqish, o'quvchilar yosh va psixologik xususiyatlariga mos ta'lim shakllarini joriy etish kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etadi [1].

O'quv faoliyatini samarali tashkil etishda maqsadni aniq belgilash pedagogik dizaynning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Maqsad – bu kutilayotgan o'quv natijasining modelidir. U ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalarini qanday bosqichda egallashi kerakligini belgilab beradi. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchi tomonidan o'quv faoliyati mazmunini tuzishda, ta'lim uslublarni tanlashda va baholash mezonlarini ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quv natijasi ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchisi, ta'lim oluvchining individual rivojlanish dinamikasini aks ettirsa, ikkinchisi, ta'lim jarayonining rejalashtirilgan maqsadlarga nechog'li erishganini aniqlaydi. Mazkur yondashuv, pedagogik faoliyatda natijadorlikni baholashda tizimli yondashuvni, ya'ni maqsad, mazmun, metod va natija o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash zaruratini taqozo etadi [2]. Shunday ekan, ta'lim jarayonida qo'yilgan o'quv maqsadlari o'zining aniq, o'lchanuvchan, real va amaliy natijalarga yo'naltirilganligi bilan ajralib turishi lozim. Bu holat nafaqat o'quvchilar faoliyatini samarali boshqarish, balki umuman olganda, ta'lim tizimining sifatli rivojlanishi uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar chuqur tahlilni va samarali yechimlarni talab qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirishda ko'plab qiyinchiliklar mavjud. Xususan, o'quv jarayonida ilgari surilayotgan pedagogik yondashuvlar kutilgan natijalarni bermayotgani, o'quvchilar faol ishtirok etmasligi va o'zlashtirish jarayonidagi passivlik kabi muammolar keng tarqalgan.

Bunday holatlarning asosiy sababi ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta'lim usullarining tizimli va uzluksiz qo'llanilmasligi bilan bog'liq. O'qituvchilar dars mazmunini rejalashtirishda maqsad, metod va vositalarni muvofiqlashtirishga yetarlicha e'tibor bermasligi, innovatsion usullarni muntazam ravishda joriy etmasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, baholash tizimidagi nomuvofiqlik o'quvchilarning faoliyatini pasaytirib, bilimlarning amaliy qo'llanilishiga to'sqinlik qilmoqda [3].

Muammolarni hal qilishda zamonaviy ta'lim konsepsiyalari va texnologiyalaridan foydalanish zarur. Jumladan, ta'limda samaradorlikni oshirish uchun "Faol o'qitish" yondashuvi muhim o'rin tutadi. Bu yondashuvda o'quvchilar faqat passiv qabul qiluvchi emas, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va muloqot qilishga faol jalb qilinadi. Ta'lim jarayoni interaktiv metodlar yordamida tashkil qilinib, loyiha ishlari, guruh ishlari, muammoga yo'naltirilgan topshiriqlar va diskussiyalar orqali bilim va ko'nikmalar chuqurroq egallanishi ta'minlanadi.

Shuningdek, ta'lim jarayonida "Loyihalash" yondashuvi keng tatbiq qilinishi kerak. Bu nazariyaga ko'ra, o'quvchilar o'z bilimlarini faollik orqali, amaliy vaziyatlarda mustaqil ravishda quradilar. Ta'limning mazmuni o'quvchilar tajribasi va ehtiyojlariga mos kelishi, ular uchun mazmunli va qiziqarli bo'lishi ta'minlanadi. Shu bilan birga, baholash tizimi faqat test natijalariga emas, balki ijodiy ishlarga, loyiha natijalariga ham asoslangan bo'lishi lozim [4].

Ushbu yondashuvlarning amaliyotga tatbiqi talabalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi va bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu tariqa, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining uzluksiz va tizimli tatbiqi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarning o'quv maqsadlariga erishishini baholashda ularning mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarini amaliy loyihalar orqali egallash darajasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Loyihalash metodi ta'lim jarayonida talabalar o'zlashtirgan ma'lumotlarni mustaqil ravishda tahlil qilish, muammolarni hal qilish va yaratish jarayonlariga faol jalb etishga imkon beradi [5]. Shuning uchun ta'lim samaradorligini baholashda an'anaviy testlar o'rniga loyiha asosidagi vazifalar va ularning natijalari asosiy mezon sifatida qabul qilinadi.

Loyihalash metodi zamonaviy ta'limda o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish uchun samarali vosita sifatida ko'riladi. Rus va xorijiy pedagog olimlarining fikrlariga ko'ra, loyiha asosida ta'lim talabalarni nafaqat bilim olishga, balki ularni amaliyotga tatbiq etishga, shuningdek, jamoaviy hamkorlik va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yo'naltiradi. Rossiyalik pedagog olim S.A. Xarchenko loyihalashtirish metodini ta'limning interaktiv va integratsiyalashgan shakli sifatida qaraydi. Unga ko'ra, loyiha asosida ta'lim jarayonida o'quvchilar o'z mustaqil ishlarini rejalashtirib, amalga oshirib, baholashga jalb qilinadi. Bu usul o'quvchilarning ijodkorligini va mas'uliyatini oshiradi, deb hisoblaydi. L.T. Sharapova loyiha metodining psixologik va pedagogik asoslarini tadqiq qilgan. U talabalarni kasbiy faoliyatga jalb qilish, guruhda ishlash va o'zaro yordam orqali bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam berishini ta'kidlaydi. Shuningdek, baholash tizimining loyihalar natijasiga asoslanishi ta'lim sifatini oshirishda muhim ekanini qayd etadi [5].

Loyihalash metodikasi doirasida quyidagi bosqichlar orqali talabalar o'z bilimlarini amalda namoyon qiladilar:

1. Mavzuni anglash va aniqlash. Bu bosqichda talabalar loyiha uchun muhim bo'lgan muammoni yoki mavzuni belgilaydilar. Ular mavzuni chuqur o'rganib, asosiy ma'lumotlarni yig'ish, mavzuning ahamiyatini tushunish, dolzarb savollarni aniqlash kabi vazifalarni bajaradi. Bu bosqichda talabalar mustaqil izlanish, fikr almashish va o'zaro muloqot orqali o'rganish jarayonini boshlaydilar.
 2. Rejalashtirish va tashkil etish. Talabalar loyihaning maqsadlarini aniq belgilaydilar, zarur resurslar va usullarni tanlaydilar hamda ish jadvalini tuzadilar. Ushbu bosqichda guruh ichida vazifalar taqsimlanadi va hamkorlikda ish olib borish mexanizmi yaratiladi. Bu jarayon talabalarni tashkiliy ko'nikmalarni rivojlantirishga o'rgatadi.
 3. Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish. Talabalar kerakli ma'lumotlarni to'playdi, ularni taqqoslaydi, muhim jihatlarni ajratib ko'rsatadi va loyihaga moslashtiradi. Bu bosqichda talabalar tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshiradilar.
 4. Loyihani amalga oshirish va yaratish. Talabalar o'z rejasiga muvofiq loyiha ishlarini bajaradilar, yechim ishlab chiqadilar. Bu bosqich ijodkorlik, innovatsion fikrlash va mustaqil ishlarni bajarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhimdir.
 5. Natijalarni taqdim etish va baholash. Talabalar o'z ishlarini taqdim etadilar, fikr-mulohazalar qabul qiladilar va natijalarni baholaydilar. Bu jarayon ularni ochiq muloqotga, o'z fikrini himoya qilishga va baholash me'yorlarini tushunishga o'rgatadi.
- Loyihalash metodi ta'lim jarayoniga kiritilganda:
- Talabalar mavzuni nafaqat yodlash, balki chuqur anglab, amalda qo'llashga o'rgatiladi;
 - Mustaqil ish va ijodiy yondashuv kuchayadi;

- O‘quvchilar muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadilar va real vaziyatlarda o‘z bilimlarini sinab ko‘radilar;
- Baholash jarayoni an‘anaviy testlardan farqli o‘laroq, ijodiy mahsulotlar va amaliy ko‘rsatkichlar asosida amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, loyihalash metodining samaradorligi talabalar va o‘qituvchilar orasidagi doimiy muloqot, fikr almashish va fikrlarni konstruktiv tahlil qilishga bog‘liq. Ushbu yondashuv nafaqat talabalarning bilim darajasini, balki ularning ijodiy salohiyatini ham aniq ko‘rsatadi. Loyiha asosidagi ta‘lim va baholash tizimi ta‘lim jarayonida o‘quv maqsadlariga erishishni aniq va haqqoniy baholash imkonini beradi hamda talabalarning mustaqil, ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Muhokama va natijalar. Oliy ta‘limda bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida loyihalash metodining qo‘llanilishi ta‘lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, loyiha metodlari orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni chuqurroq egallashadi, balki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu metod talabalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va ijodiy yondashuvlarni qo‘llashga rag‘batlantiradi.

Loyihalash metodining eng asosiy afzalliklaridan biri – bu ta‘lim jarayonining interaktiv va faol xarakterga ega bo‘lishi. Bu usul bo‘yicha ishlaydigan talabalar nafaqat o‘qituvchidan mustaqil ravishda bilim olishadi, balki o‘zaro hamkorlik, muloqot va guruhda ishlash ko‘nikmalarini ham shakllantiradilar. Bu esa kelajakda pedagog sifatida ular uchun juda muhim kasbiy malakadir [6].

Shuningdek, loyiha metodining joriy etilishi ta‘lim jarayonida raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashishini ta‘kidlash zarur. Bu jarayon talabalarni nafaqat zamonaviy bilimlar bilan ta‘minlash, balki ularni doimiy ravishda o‘z ustida ishlashga undaydi.

Loyihalash metodini samarali qo‘llash uchun ta‘lim dasturlari va o‘quv rejalarini moslashtirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish hamda o‘quv muhitini zamonaviy pedagogik talablarga moslashtirish lozim. Bu shartlar bajarilganda loyihalash metodi oliy ta‘limda bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Loyihalash metodi oliy ta‘limda bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu metod talabalarni faol, interaktiv o‘rganishga jalb qilib, guruhda hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi va zamonaviy raqamli texnologiyalar hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo‘llash imkonini beradi. Loyiha metodini muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun ta‘lim dasturlarini yangilash, o‘qituvchilarning malakasini oshirish hamda pedagogik muhitni takomillashtirish zarur. Natijada, loyihalash metodining doimiy qo‘llanilishi oliy ta‘lim sifatini oshirish va bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Zamonaviy oliy ta‘lim tizimida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy jihatdan tayyorlash jarayoni ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Bu jarayonda loyihalash metodi o‘qitishning samarali, interaktiv va natija beruvchi shakli sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur metod orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki ularni real pedagogik vaziyatlarda amaliyotga tatbiq etish, muammoni hal qilish va kasbiy refleksiya ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, loyihalash metodini qo'llash bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda, ya'ni o'quv jarayonini rejalashtirish, metodlarni tanlash, natijalarni baholash hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish malakalarini oshirishda ijobiy samara beradi. Bu metod ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuv asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, loyihaviy faoliyat talabalarni jamoaviy ishga, kommunikativ madaniyatga, tanqidiy fikrlashga va o'z-o'zini baholashga o'rgatadi. Bu esa ularning kelajakda muvaffaqiyatli, innovatsion fikrlovchi va zamonaviy ta'lim talablariga mos pedagog bo'lib shakllanishlariga zamin yaratadi. Shu boisdan, oliy pedagogik ta'limda loyihalash metodini tizimli ravishda joriy etish va uni o'qitish jarayonining ajralmas qismi sifatida shakllantirish bo'lajak pedagoglarni raqobatbardosh, malakali va ijodkor mutaxassis sifatida tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Nematova, S. R. Faol va interaktiv o'qitish metodlari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 156 b.
2. Кларин, М. В. Педагогическая технология проектного обучения: от идеи к реализации. // Педагогика, 2019, №6. – С. 15–21.
3. Jo'raqulova, D. A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – 188 b.
4. Abduqodirov, A. A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Noshir, 2021. – 210 b.
5. Левитас, Г. Г. Проектная деятельность в образовании: теория и практика. Санкт-Петербург: Питер, 2021. – 192 с.
6. Juraev, M. T. Oliy ta'limda loyihaviy yondashuv asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish yo'llari. // Pedagogik ta'lim, 2023, №4. – B. 44–49.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

PRINCIPLES OF FORMING THE CREATIVE COMPETENCIES OF FUTURE PRESCHOOL EDUCATION TEACHERS THROUGH AN INNOVATIVE APPROACH

Berdiyorova Nilufar

Independent researcher at the International Nordic University,
Lecturer at the Department of Psychology and Preschool Education

Abstract. This article analyzes the principles of forming creative competencies of future preschool education teachers through an innovative approach. The relevance of the topic is substantiated by the need for creativity, innovation, and the search for pedagogical solutions in the educational process. The study reveals the essence of creative competence, examines methods and approaches aimed at its development, and highlights the advantages of applying innovative technologies. In addition, the factors of creativity enhancement in teachers' professional activities and the conditions for achieving effectiveness are scientifically justified. The research results show that the innovative approach plays a crucial role in developing the creative competencies of preschool education teachers.

Keywords: creative competence, innovative approach, preschool education, teacher-pedagogue, creativity, educational technologies, methodology, effectiveness.

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHI – PEDAGOGLARINING IJODIY KOMPETENSIYALARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

Berdiyorova Nilufar Berdiyori qizi

Xalqaro Nordik Universiteti mustaqil izlanuvchisi,
“Psixologiya va maktabgacha ta’lim” kafedrasida o’qituvchisi

Email: n.berdiyorova@nordicuniversity.org

<http://orcid.org/0009-0005-0573-1923>

Annotatsiya. Ilmiy ahamiyatga moyil bo'lgan ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarning ijodiy kompetensiyalarini innovatsion yondashuv asosida shakllantirish tamoyillari va asoslari tahlil qilingan. Mavzuning dolzarbligi shundaki, ta'lim jarayonida yaratuvchanlik, yangilikka intilish va pedagogik faoliyatda kreativ yechimlar topish va ijodiy yechimlar zarurati bilan asoslanadi. Ilmiy maqolada ijodiy kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati ochib beriladi, ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari, tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy faoliyatida kreativlikni rivojlantirish omillari hamda samaradorlik shartlari ilmiy jihatdan asoslanadi va tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalarida maktabgacha ta'lim tizimida pedagoglarning ijodiy kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvning ustuvor ahamiyatga ega ekani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: ijodiy kompetensiya, innovatsion yondashuv, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi-pedagog, kreativlik, ta'lim texnologiyalari, metodika, samaradorlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N86>

Kirish. Bugungi zamonaviy dunyoda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, bolalar tarbiyasida zamonaviy yondashuvlarni keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor

yoʻnalishlaridan biridir. Shu boisdan, boʻlajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy faoliyatida ijodkorlik va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Chunki hozirgi davrda pedagogdan nafaqat mavjud bilimlarni yetkazish, balki yangicha yechimlar topish, innovatsion metodlarni qoʻllash va bolalarning mustaqil fikrlashini ragʻbatlantirish talab etiladi. Ilmiy izlanishlar shuni koʻrsatadiki, ijodiy kompetensiya pedagog shaxsining eng muhim sifatlaridan biri boʻlib, uning kasbiy samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Bu kompetensiya nafaqat tarbiyachining oʻzini rivojlantirishiga, balki taʼlim jarayonini yanada samarali tashkil etishga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, boʻlajak tarbiyachilarda kreativ yondashuvlarni shakllantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish va taʼlim jarayoniga yangicha qarashni tatbiq etish zaruriy ehtiyojdir. Ilmiy maqolada ushbu masalaning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etiladi va tahlil qilinadi, boʻlajak maktabgacha taʼlim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvning oʻrni va ahamiyati ilmiy asosda koʻrib chiqiladi. [1-4:2b]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Soʻnggi yillarda taʼlim tizimida, xususan, maktabgacha taʼlimda ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi koʻplab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng oʻrganilgan. Oʻzbekiston olimlaridan Sh. Mirziyoyeva, N. Mahmudova, I. Soliyevlarning izlanishlarida maktabgacha taʼlimda innovatsion yondashuvlarning samaradorligi, shuningdek, tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar bayon etilgan. [6:2b]

Xorijiy tadqiqotlarda esa (A. Craft, K. Robinson, R. Sternberg va boshqalar) taʼlim jarayonida ijodiylikni rivojlantirish, pedagoglarning kreativ fikrlashini qoʻllab-quvvatlash va bolalarda mustaqil tafakkurni shakllantirish asosiy masala sifatida taʼkidlangan. Ularning nazariy qarashlarida kreativlik shaxsiy rivojlanishning ajralmas qismi ekanligi, ayniqsa, pedagogik faoliyatda uning ahamiyati alohida urgʻu bilan koʻrsatib oʻtiladi. Mavjud adabiyotlarning tahlili shuni koʻrsatadiki, innovatsion yondashuv asosida ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni taʼlim tizimining zamonaviy talablariga toʻla mos keladi. Shu sababli, boʻlajak tarbiyachi-pedagoglar faoliyatida kreativlikni rivojlantirish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. [2-4-5:3b]

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim nazariyalari, kompetensiyaga asoslangan yondashuv hamda innovatsion pedagogika konsepsiyalari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

- 1) **Nazariy tahlil** – mavjud ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va ilgʻor xorijiy tajribalarni oʻrganish orqali mavzuga oid ilmiy asos yaratildi.
- 2) **Qiyosiy tahlil** – mahalliy va xorijiy tajribalar solishtirilib, maktabgacha taʼlim sohasida ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali jihatlari aniqlab olindi.
- 3) **Pedagogik kuzatuv** – boʻlajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida ularning kreativlik darajasini amaliy jihatdan baholash imkonini berdi.
- 4) **Eksperimental usul** – ayrim innovatsion metodlarni oʻquv jarayoniga tatbiq qilish orqali ularning natijadorligi sinovdan oʻtkazildi.
- 5) **Statistik tahlil** – tajriba natijalarini umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarishda qoʻllanildi.

Metodologik yondashuvlarning uygʻunligi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini taʼminladi va mavzuga oid xulosalarning ishonchliligini oshirdi. [1-6:3b]

Muhokama. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning ijodiy kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion yondashuv nafaqat samarali, balki zaruriy shart sifatida qaralishi lozim. Eksperimental kuzatuvlar davomida interaktiv metodlardan muntazam foydalanilgan guruhlar o'zlashtirish ko'rsatkichlari va kreativ topshiriqlarni bajarish bo'yicha yuqoriroq natijalarga erishgani aniqlandi. Bu esa nazariy qarashlarning amaliyotda o'z tasdig'ini topayotganidan dalolat beradi. [3-8:3b] Yuqorida keltirilgan nazariy tahlillar, tajriba-sinov ishlari va muhokamalar natijasi shuni ko'rsatadiki, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy tayyorgarligida ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi zamonaviy ta'limning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijodiy kompetensiya pedagog shaxsining kasbiy mahorati, innovatsion tafakkuri va yangilikka ochiqligini belgilovchi muhim sifat bo'lib, u nafaqat individual rivojlanishni ta'minlaydi, balki ta'lim jarayonining samaradorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. [3:5b] Tadqiqot davomida aniqlanishicha, innovatsion yondashuvlar — xususan, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o'yinlashtirilgan mashg'ulotlar — bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rag'batlantiruvchi asosiy mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, mazkur jarayonni tizimli amalga oshirish uchun metodik ta'minot, moddiy-texnik baza va pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi o'zaro uyg'unlikda tashkil etilishi zarur. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni faqatgina alohida metod yoki texnologiyadan foydalanish bilangina cheklanib qolmaydi. Bu jarayon kompleks yondashuvni talab qiladi: bir tomondan, pedagogik faoliyatning nazariy-metodologik asoslari mustahkamlanishi, ikkinchi tomondan, pedagoglarning amaliy faoliyatida yangiliklarni tatbiq etish uchun shart-sharoitlar yaratilishi lozim. [8:5b] Ushbu shartlar bajarilganda, bo'lajak tarbiyachilar nafaqat zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, balki mustaqil fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va kreativ qarorlar qabul qila oladigan mutaxassislar sifatida shakllanadilar. Umumlashtirib aytganda, mazkur tadqiqot innovatsion yondashuv asosida ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat ta'lim tizimining dolzarb ehtiyojiga mos kelishini, balki uning uzoq muddatli rivojlanishi uchun strategik zarurat ekanini ko'rsatdi. Shu bois, pedagog kadrlar tayyorlash tizimida ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish va kasbiy malaka oshirish mexanizmlarini takomillashtirish ta'lim sifatini tubdan oshirishning muhim omili sifatida qaralishi lozim. [1:5b]

Muhokama jarayonida ikki asosiy jihat ko'zga tashlandi:

- 1) **Kuchli tomonlar.** Innovatsion texnologiyalardan foydalanish (multimedia vositalari, elektron resurslar, o'yinlashtirilgan mashg'ulotlar) bo'lajak pedagoglarda nafaqat kreativ fikrlashni rivojlantirdi, balki ularni yangilikka ochiq bo'lishga, tashabbuskorlikni namoyon etishga undadi. Shuningdek, tarbiyachilarning mustaqil ta'lim olish motivatsiyasi ham ortgani kuzatildi.
- 2) **Zaif tomonlar.** Tajriba davomida ayrim metodlarning samaradorligini cheklovchi omillar aniqlandi. Jumladan, metodik qo'llanmalar va didaktik materiallarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, ba'zi hollarda texnik jihozlarning yetishmasligi, shuningdek, pedagoglarning o'zini o'zi rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji sustligi muammolar sifatida qayd etildi. [3-6:4b]

Muhokama natijalari SWOT usulida tahlildan kelib chiqib aytish mumkinki, ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun faqat metodlarni takomillashtirish emas, balki

pedagoglarning uzluksiz kasbiy o‘shishi va amaliy faoliyatda qo‘llash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi solishtirma tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud ilmiy qarashlar o‘zini oqlamoqda, biroq ular to‘liq samaraga erishishi uchun ta‘lim tizimida metodik, moddiy-texnik va tashkiliy jihatlarining yaxlitligi ta‘minlanishi lozim. [3:4b]

Natijalar. Tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan nazariy tahlil, kuzatuvlar va tajriba-sinov ishlari quyidagi muhim natijalarni ko‘rsatdi:

Ijodiy kompetensiyaning ahamiyati – bo‘ljak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy rivojlanishida ijodiy kompetensiyalar hal qiluvchi o‘rin tutishi, ular orqali pedagoglar o‘quv-tarbiyaviy jarayonda yangicha yondashuvlar ishlab chiqishi mumkinligi tasdiqlandi.

Innovatsion yondashuvning samaradorligi – interaktiv usullar, elektron resurslar va o‘yinlashtirilgan mashg‘ulotlardan foydalangan guruhlarda kreativlik darajasi yuqoriligi kuzatildi. Bu, innovatsion texnologiyalarning ta‘lim jarayonidagi ijobiy ta‘sirini ilmiy asosda ko‘rsatib berdi.

Motivatsiya va tashabbuskorlik – innovatsion yondashuv asosida o‘qitilgan talabalarda mustaqil ta‘lim olishga bo‘lgan qiziqish ortdi, shuningdek, ularda yangilikka intilish va tashabbuskorlik ko‘nikmalari shakllandi.

Muammoli jihatlar – metodik qo‘llanmalar yetishmasligi, texnik bazaning to‘liq ta‘minlanmaganligi va ayrim pedagoglarda o‘zini o‘zi rivojlantirishga bo‘lgan motivatsiyaning sustligi ta‘lim samaradorligiga to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida aniqlandi.

Tizimli yondashuv zarurati – yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatdiki, bo‘ljak tarbiyachilarda ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish faqatgina metodlarni qo‘llash bilangina chegaralanmay, balki uzluksiz kasbiy rivojlanish, metodik ta‘minot va moddiy-texnik bazaning yaxlitligi orqali yanada samarali bo‘ladi. [4:4b]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida pedagoglarning ijodiy kompetensiyalari yuqori bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bolalar bilan ishlash faoliyatida barcha jarayonlarda kreativ va noodatiy yondashuv muhim. Shu bilan bir qatorda innovatsion yondashuv esa hozirgi zamonaviy dunyoning eshigi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Innovatsion yondashuv orqali tarbiyachi-pedagoglarning ijodiy kompetensiyalarini yana tez va samarali shakllantirish mumkin. Shu o‘rinda ijodiy yondashuv nafaqat mashg‘ulotlar yoki faoliyatlar davomida emas, balki butun kun davomida bolalar bilan o‘tkaziladigan barcha faoliyatlarda qo‘llash mumkin. Innovatsion yondashuv ta‘lim sifatini yanada samarali tashkil etishda yordam beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Baer J. Creativity doesn't develop in a vacuum // *New Directions for Child and Adolescent Development*. – 2015. – №151. – P. 9–20. DOI: 10.1002/cad.20151.
2. Craft A. *Creativity in schools: Tensions and dilemmas*. – London: Routledge, 2005. – 208 p.
3. Ibroxim To‘xtaxo‘jaevich Uluxanov, Go‘Zal Abdurasulovna Xusayinova, & Solijon Qodirovich Ubaydullaev (2021). O‘QUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIKINI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI. *Scientific progress*, 2 (8), 814-822.
4. Karimova, B. (2024). KREATIV PEDAGOGIKA. *Journal of Universal Science Research*, 2(5), 598. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/34175>
5. Nasritdinova Madina Murullayevna, & Turg‘Unoy Axmadjanovna Egamberdiyeva (2024). BO‘LAJAK PEDAGOGLAR BADIY-IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

- METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ARTPEDAGOGIKANING O'RNI VA VAZIFALARI. Eurasian Journal of Academic Research, 4 (5-3), 162-167. doi: 10.5281/zenodo.11475476
6. Kupers E., Lehmann-Wermser A., McPherson G. E., van Geert P. Children's creativity: A theoretical framework and systematic review // *Review of Educational Research*. – 2019. – Vol. 89, №1. – P. 93–124. DOI: 10.3102/0034654318815707.
 7. Robinson K. *Out of our minds: Learning to be creative*. – Oxford: Capstone Publishing, 2011. – 326 p.
 8. Berikbayev, A. (2025). KOMPETENSIYA-FAOLIYATIMIZNI MUSTAQIL VA IJODIY AMALGA OSHIRISHDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK .*Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 2(4.1), 226–229. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/86835>
 9. Sternberg R. J., Lubart T. I. The concept of creativity: Prospects and paradigms // Sternberg R. J. (Ed.). *Handbook of creativity*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – P. 3–15. DOI: 10.1017/CBO9780511807916.003.
 10. Солиев И. С. Мақтбача таълим тизимида инновацион ёндашувнинг услубий асослари ва педагогик шарт-шароитлари // *Science and Innovation*. – 2023. – Т. 2, №5. – С. 14654–14662. DOI: 10.5281/zenodo.7933108.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

CARL ROGERS' HUMANISTIC PEDAGOGY AND ITS SIGNIFICANCE FOR THE DEVELOPMENT OF MODERN EDUCATION

Fadlieva Amina Ilkhamovna

Lecturer of the Department of Education
Management and Pedagogy of the
Tashkent International University of Education

Abstract. This article explores the key principles of humanistic pedagogy developed by American psychologist and educator Carl Rogers and examines their relevance to contemporary educational practices. Central concepts such as the learner-centered approach, unconditional positive regard, empathy, and self-actualization are analyzed as foundational elements of Rogers' educational philosophy. Through a review of relevant literature, the paper highlights the influence of humanistic principles on creating an educational environment that fosters student engagement, emotional well-being, and personal growth. The study also discusses the practical implications, benefits, and challenges of integrating Rogers' ideas into modern classrooms. The findings suggest that Rogers' approach significantly contributes to enhancing students' intrinsic motivation, independent thinking, and holistic development.

Keywords: humanistic pedagogy, learner-centered education, empathy, intrinsic motivation, modern education, educational approaches.

ГУМАНИСТИЧЕСКАЯ ПЕДАГОГИКА КАРЛА РОДЖЕРСА И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Фадлиева Амина Ильхамовна

Стажер-преподаватель
кафедры Управления образованием и педагогики
Международного университета
«Tashkent International University of Education»
E-mail: t495@tiue.uz

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные положения гуманистической педагогики американского психолога и педагога Карла Роджерса, а также их значение для развития современного образования. Особое внимание уделяется таким концепциям, как личностно-ориентированный подход, безусловное принятие, эмпатия и самоактуализация, которые лежат в основе педагогических взглядов Роджерса. На основе анализа научной литературы выявляется влияние гуманистического подхода на формирование образовательной среды, способствующей раскрытию потенциала учащихся. Также рассматриваются возможности и ограничения внедрения идей Роджерса в современную образовательную практику. Сделан вывод о высокой эффективности гуманистического подхода в развитии внутренней мотивации, самостоятельного мышления и личностного роста обучающихся.

Ключевые слова: гуманистическая педагогика, личностно-ориентированный подход, эмпатия, мотивация учащихся, современное образование, педагогические подходы.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N87>

Введение. Современная система образования переживает глубокие изменения, связанные с переходом от традиционной, знаниевой модели обучения к личностно-

ориентированному подходу. В центре педагогического процесса все чаще оказывается не столько усвоение объема знаний, сколько развитие личности учащегося, его самостоятельности, ответственности, критического и творческого мышления. В связи с этим особое значение приобретают гуманистические идеи, которые акцентируют внимание на уникальности каждого человека, его внутреннем мире, чувствах и мотивации к обучению. Одним из наиболее влиятельных представителей гуманистического направления в психологии и педагогике является американский ученый Карл Роджерс.

Карл Роджерс (1902-1987) разработал теорию, которая произвела переворот в представлениях о человеке и процессе обучения [1, с.15]. Он утверждал, что каждый индивид обладает врожденной способностью к саморазвитию и самосовершенствованию, а задача педагога состоит не в навязывании знаний, а в создании условий, способствующих раскрытию потенциала личности. Его подход, получивший название «личностно-ориентированного обучения», стал основой гуманистической педагогики. В отличие от традиционных моделей, где учитель является центральной фигурой, а учащийся — пассивным получателем информации, Роджерс рассматривал образовательный процесс как диалог, сотрудничество и совместное познание.

Важным элементом педагогической концепции Роджерса является идея безусловного принятия личности ученика. Он считал, что только в атмосфере доверия, открытости и эмоциональной поддержки человек способен развиваться гармонично и стремиться к самореализации. Для этого педагог должен проявлять эмпатию, искренний интерес и уважение к индивидуальности обучающегося. Такое понимание роли учителя принципиально меняет характер образовательных отношений — из вертикальных, авторитарных они превращаются в горизонтальные, партнерские.

ответственности за результаты обучения, а также способствует развитию эмоционального интеллекта и социальных компетенций.

Актуальность исследования заключается в том, что в условиях динамично меняющегося мира и информационного общества традиционные методы преподавания уже не способны полностью удовлетворить образовательные потребности личности. Современному человеку необходимо не только обладать знаниями, но и уметь мыслить, принимать решения, взаимодействовать с другими людьми и адаптироваться к изменениям. В этом контексте гуманистическая педагогика Роджерса предлагает эффективные пути обновления образования, ориентированные на развитие человека как активного, самостоятельного и ответственного субъекта деятельности.

Цель данной статьи заключается в анализе основных положений гуманистической педагогики Карла Роджерса и выявлении их значения для развития современного образования. Для достижения поставленной цели предусматривается решение следующих задач:

- рассмотреть теоретические основы гуманистической педагогики Роджерса;
- проанализировать ключевые понятия его концепции: личностно-ориентированный подход, безусловное принятие, эмпатию и самоактуализацию;
- определить влияние идей Роджерса на формирование образовательной среды;

– выявить возможности и ограничения внедрения гуманистических принципов в современную педагогическую практику.

Таким образом, обращение к идеям Карла Роджерса обусловлено необходимостью поиска новых ориентиров в образовании, отвечающих вызовам XXI века. Гуманистическая педагогика выступает не просто как теоретическая концепция, а как живое, динамичное направление, способное преобразить образовательную практику и вернуть в нее главную ценность — человека.

Анализ литературы. Гуманистическая педагогика занимает особое место в современной психолого-педагогической мысли, поскольку она рассматривает личность обучающегося как активного субъекта образования, способного к саморазвитию и самоактуализации. В основе данного направления лежат идеи американского психолога Карла Роджерса, чьи труды оказали огромное влияние на развитие личностно-ориентированного подхода в педагогике. Анализ научной литературы показывает, что взгляды Роджерса нашли широкое отражение и развитие в работах многих зарубежных и отечественных ученых. Рассмотрим их позиции более подробно.

Прежде всего, необходимо отметить, что идеи Роджерса оказали значительное влияние не только на психологию, но и на современные педагогические теории и практику. Его взгляды нашли отражение в концепции гуманизации образования, личностно-ориентированных технологиях, интерактивных методах обучения и педагогике сотрудничества [2, с.25]. Многие современные исследователи подчеркивают, что гуманистический подход позволяет формировать у учащихся внутреннюю мотивацию к познанию, чувство что взгляды Карла Роджерса (1902-1987) стали основой гуманистического направления в психологии и педагогике XX века. В своих трудах, таких как “Freedom to Learn” (“Свобода учиться”) и “Client-Centered Therapy” (“Терапия, направленная на клиента”), он утверждал, что обучение должно строиться на основе доверия, эмпатии и безусловного принятия личности учащегося [3, с.35].

Роджерс подчеркивал, что только в атмосфере психологической безопасности возможно раскрытие внутреннего потенциала человека. Он выступал против авторитарного обучения и считал, что учитель должен быть не контролером, а фасилитатором, помогающим учащемуся самостоятельно находить знания и смыслы. Близкие идеи развивал Абрахам Маслоу, один из основателей гуманистической психологии. В своей известной “Иерархии потребностей” Маслоу подчеркивал, что потребность в самоактуализации — высшая цель человеческого развития [4, с.45].

По мнению Маслоу, образование должно способствовать удовлетворению не только когнитивных, но и эмоциональных, социальных и духовных потребностей личности. Он утверждал, что успешное обучение возможно только при условии уважения и принятия индивидуальных особенностей учащегося. В этом смысле его идеи тесно связаны с концепцией Роджерса о “личностно-ориентированном обучении”. Существенный вклад в развитие гуманистической педагогики внес Джон Дьюи, американский философ и педагог, чьи работы предшествовали и во многом подготовили появление гуманистического подхода. Дьюи в книге “Democracy and Education” (“Демократия и образование”) рассматривал обучение как активный процесс взаимодействия человека с окружающей средой [5, с.65].

Он утверждал, что знания не должны передаваться в готовом виде, а должны формироваться через опыт и деятельность. Роджерс развил эти идеи, дополнив их акцентом на психологических условиях, способствующих обучению — эмпатии, искренности и поддержке. Значительный интерес представляет также позиция Льва Выготского, который, хотя и не принадлежал к гуманистическому направлению, оказал заметное влияние на его развитие [6, с.77]. Его концепция “зоны ближайшего развития” предполагает, что обучение должно ориентироваться на потенциальные возможности учащегося, которые реализуются при поддержке взрослого. Роджерс, в свою очередь, расширил это понимание, подчеркивая не только когнитивные, но и эмоциональные аспекты взаимодействия педагога и ученика. Таким образом, между идеями Выготского и Роджерса существует методологическая преемственность: оба подчеркивают роль сотрудничества и доверия в процессе обучения. Кроме того, следует упомянуть исследования Виктора Франкла, австрийского психолога и философа, основателя логотерапии [7, с.85]. Франкл рассматривал поиск смысла как главную движущую силу человеческой жизни. Его подход близок к Роджерсу тем, что оба ученых видели в человеке активное, ответственное существо, способное делать выбор и нести ответственность за свое развитие. В педагогическом контексте это означает, что обучение должно помогать ученику находить личностный смысл в учебной деятельности, а не просто усваивать знания. Среди современных исследователей идеи Роджерса развивали такие ученые, как Г. Олпорт, Р. Мэй, Н. Г. Алексеева, И. С. Якиманская и другие. Например, Якиманская подчеркивала, что личностно-ориентированное обучение требует создания образовательной среды, в которой ученик чувствует себя ценным и уважаемым участником процесса. Алексеева отмечала, что применение гуманистических принципов способствует развитию внутренней мотивации и повышает учебную активность. [8, с.56]. Обобщая различные точки зрения, можно сказать, что гуманистическая педагогика представляет собой синтез психологических, философских и педагогических идей, направленных на раскрытие человеческого потенциала. Роджерс, Маслоу, Дьюи, Выготский и Франкл по-разному формулировали свои подходы, но всех их объединяет вера в человека, в его способность к саморазвитию и ответственности за собственное обучение.

Методология исследования. Методологическую основу данного исследования составляют принципы системного, личностно-ориентированного и гуманистического подходов, позволяющих рассматривать процесс образования как целостное явление, включающее когнитивные, эмоциональные и социальные аспекты развития личности. Исследование построено на анализе и обобщении теоретических источников, посвященных педагогическим и психологическим концепциям Карла Роджерса и его последователей. Для обеспечения научной достоверности исследования использованы принципы системности, объективности и комплексности, что позволило рассмотреть педагогические идеи Роджерса в контексте эволюции гуманистической мысли XX–XXI веков. Также применялся метод интерпретации, который дал возможность раскрыть психологический смысл понятий «эмпатия», «самоактуализация», «безусловное принятие» и их педагогическую значимость [9, с.95].

Результаты и обсуждение. Проведённый анализ научных источников показал, что гуманистическая педагогика Карла Роджерса представляет собой целостную

систему взглядов, направленную на раскрытие личности учащегося через создание условий для его самореализации. В отличие от традиционных педагогических моделей, где основное внимание уделяется усвоению знаний, Роджерс рассматривает обучение как процесс личностного роста, в котором центральное место занимает внутренний опыт ученика.

Основные результаты исследования свидетельствуют о том, что идеи Роджерса нашли широкое применение в современной педагогике и психологии. Прежде всего, это касается развития личностно-ориентированного подхода, ставшего ведущим направлением образовательной реформы во многих странах. Его суть заключается в признании уникальности каждого ученика, необходимости учитывать его индивидуальные потребности, способности и мотивацию. Такой подход способствует формированию активной позиции учащегося в процессе познания, а также развитию ответственности за собственное обучение.

Одним из ключевых результатов анализа является выявление влияния концепции безусловного принятия на построение педагогического взаимодействия. Согласно Роджерсу, принятие личности ученика без оценочных суждений создаёт психологически комфортную атмосферу, где ученик не боится ошибаться и проявлять инициативу. Это способствует росту внутренней уверенности и развитию познавательной активности. Современные педагоги отмечают, что именно эмоциональная поддержка и эмпатия со стороны учителя становятся важнейшими условиями эффективного обучения.

Значительное внимание в рамках исследования уделено категории эмпатии, рассматриваемой Роджерсом как способность педагога понимать внутренний мир ученика. Эмпатийное взаимодействие позволяет учителю не просто передавать знания, а выстраивать глубокий межличностный контакт, основанный на доверии и взаимопонимании. В практике это выражается в применении диалоговых форм обучения, совместных проектов, дискуссий, где учащиеся чувствуют свою значимость и возможность самовыражения.

Результаты анализа также подтвердили, что идеи Роджерса тесно связаны с понятием самоактуализации, предложенным Абрахамом Маслоу. В образовательном контексте самоактуализация означает стремление ученика реализовать свой потенциал, выйти за рамки заданных стандартов и проявить творческую инициативу. Современные исследователи подчеркивают, что гуманистический подход способствует развитию креативного мышления, эмоциональной устойчивости и способности к рефлексии — качеств, крайне востребованных в XXI веке.

На основе обобщения педагогического опыта можно выделить несколько направлений реализации идей Роджерса в образовательной практике:

- Создание поддерживающей образовательной среды, в которой каждый ученик ощущает себя принятым и значимым;
- Использование фасилитативных методов обучения, когда педагог выполняет роль партнёра и наставника, а не контролёра;
- Развитие навыков саморефлексии и саморегуляции, способствующих формированию внутренней мотивации;

- Включение учащихся в активные формы деятельности — проектную, исследовательскую, творческую;
- Формирование культуры сотрудничества и взаимного уважения в учебных коллективах.

В ходе исследования также были выявлены ограничения и трудности внедрения гуманистических идей в образовательную практику. К ним относятся: недостаточная подготовленность педагогов к фасилитативной роли, ограниченные ресурсы образовательных учреждений, а также существование традиционных форм контроля и оценки, которые не всегда соответствуют духу гуманистического подхода. Тем не менее, даже частичное применение принципов Роджерса показывает положительные результаты: повышение мотивации учащихся, снижение уровня тревожности, улучшение коммуникативных навыков и повышение качества усвоения знаний.

| | | Devorga suyangan holda bir oyoqni yuqoriga ko'tarib cho'zish | Har bir oyoqqa 15-20soniya | 2 mashg'ulotdan iborat, 3-4 marta takrorlanadi | 110-125 | Mashqlar orasida 30 soniya,seriyalar orasi 1.5-2 daq. |

Izoh: ushbu jadvalda YuQS – yurak qisqarish sonini ifodalaydi.

Ushbu jadvalda siz boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh dzyudochilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun berilgan umumiy va maxsus mashqlar mavjud.

Natijalar. Mashqlar majmuasi asosida ishlab chiqilgan dasturga ko'ra beriladigan mashqlar haftaning seshanba, payshanba, shanba kunlari alohida to'garak shaklida olib borilgan. Bu mashqlarning samaradorlik ko'rsatkichlari esa maxsus mashqlarni bajarish nazorat testi orqali aniqlangan.

Jadval 2

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi turli vazn toifasidagi dzyudochilarni maxsus jismoniy tayyorgarligini mashg'ulotlar ta'sirida o'sish sur'ati tadqiqot guruhi (n=18)

| N | Oldinga 10 marta umbaloq oshish (vaqti, s) | | 10 metr masofaga tizzalab yurish (vaqti, s.) | | Ko'prik holatda 10 metr masofani yurish (vaqti, s.) | | 10 soniya ko'prik holatida bosh osha hatlab o'tish (marta.) | |
|-----------|--|------------|--|------------|---|------------|---|-----------|
| | Tad. boshi | Tad. oxiri | Tad. boshi | Tad. oxiri | Tad. boshi | Tad. oxiri | Tad. boshi | Tad.oxiri |
| 1 | 9.7 | 9.0 | 5.4 | 4.6 | 8.7 | 7.0 | 11 | 15 |
| 2 | 9.1 | 8.6 | 5.9 | 4.1 | 9.6 | 8.7 | 7 | 12 |
| 3 | 9.5 | 9.0 | 4.9 | 4.0 | 9.5 | 8.9 | 11 | 13 |
| 4 | 10.4 | 9.6 | 5.7 | 4.1 | 8.5 | 8.0 | 11 | 12 |
| 5 | 10.8 | 9.5 | 4.7 | 3.9 | 8.1 | 6.2 | 9 | 14 |
| 6 | 10.9 | 9.7 | 5.6 | 3.9 | 7.4 | 6.8 | 10 | 11 |
| 7 | 11.3 | 10.8 | 5.6 | 4.9 | 8.9 | 8.2 | 11 | 12 |
| 8 | 11.5 | 10.7 | 5.5 | 4.6 | 10.4 | 8.7 | 9 | 11 |
| 9 | 12.5 | 11.9 | 5.1 | 4.4 | 8.4 | 7.7 | 9 | 13 |
| 10 | 12.9 | 12.1 | 6.1 | 5.0 | 9.6 | 8.1 | 8 | 11 |
| 11 | 12.3 | 11.7 | 6.5 | 5.8 | 12.6 | 11.8 | 8 | 12 |
| 12 | 11.8 | 10.4 | 6.9 | 5.1 | 14.8 | 13.1 | 8 | 12 |
| 13 | 12.5 | 12.0 | 7.2 | 6.1 | 9.4 | 7.6 | 8 | 10 |
| 14 | 14.2 | 13.6 | 7.3 | 6.7 | 13.9 | 12.2 | 7 | 9 |
| 15 | 14.5 | 13.8 | 8.6 | 7.6 | 15.3 | 14.7 | 8 | 11 |
| 16 | 12.1 | 11.6 | 9.1 | 7.1 | 13.6 | 11.8 | 5 | 10 |
| \bar{x} | 11.62 | 10.88 | 6.12 | 5.22 | 10.46 | 9.14 | 8.81 | 11.81 |
| σ | 1.50 | 1.55 | 1.28 | 1.15 | 2.62 | 2.55 | 1.77 | 1.56 |
| V (%) | 12.94 | 14.24 | 20.92 | 22.03 | 25.05 | 27.89 | 20.1 | 13.2 |

Izoh: ushbu jadvalda Tad.boshi.- tadqiqot boshida, Tad.oxiri-tadqiqot oxirida olingan natijalarni ifodalaydi. №- ushbu mashqlardagi natijalarni bajargan sportchilar sonini ko'rsatadi. X- o'rtacha arifmetik qiymat, σ -bu standart og'ish, V,%- variatsiya koeffitsiyentini ifodalaydi.

Birinchi mashqda tadqiqot boshida o'rtacha ko'rsatkich 11.62 s bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida 10.88 s gacha qisqargan. Bu natija o'rtacha **0.74 soniyaga (6.4%)** yaxshilanishni bildiradi.

Bu mashqda **vaqt kamayishi** sportchilarning chaqqonlik va muvofiqlashtirish qobiliyati oshganini ko'rsatadi. Standart og'ish (σ) 1.50 dan 1.55 gacha biroz oshgan, ya'ni ishtirokchilar orasida natijalar biroz farqlangan, lekin **variatsiya koeffitsiyenti (V%)** 12.94 dan 14.24% gacha o'sishi o'rta darajadagi barqarorlikni ko'rsatadi. O'rtacha natija yaxshilangan, ammo natijalardagi tarqoqlik biroz ortgan, bu esa individual rivojlanish sur'atlarining har xil bo'lganini bildiradi. Tadqiqot natijasi ishonchli va musbat yo'nalishda.

Ikkinchi mashqda o'rtacha vaqt 6.12 sekunddan 5.22 sekundgacha qisqargan, ya'ni **0.9 sekund (14.7%)** yaxshilanish kuzatilgan. Bu mashq pastki tananing kuchi va muvozanatni ifodalaydi — demak, **ko'nikma va tezlik ancha rivojlangan**. Standart og'ish 1.28 dan 1.15 gacha kamaygan, bu esa natijalarning **barqarorlashganini** bildiradi. Ammo variatsiya koeffitsiyenti 20.92% dan 22.03% gacha oshgani ishtirokchilar orasidagi farqlar biroz ko'payganini anglatadi.

Umumiy natija yaxshilangan, mashq bo'yicha rivojlanish samarali. Variatsiya yuqoriligi ayrim sportchilarda natijalar o'rtachadan past bo'lganini bildiradi, ammo umumiy ishonchlik saqlanib qolgan.

Uchinchi mashqda o'rtacha vaqt 10.46 dan 9.14 sekundgacha qisqargan — **1.32 soniyalik (12.6%)** yaxshilanish mavjud. Bu mashq asosan **bel, qo'l va oyoq mushaklari kuchi, hamda egiluvchanlikni** sinaydi. Standart og'ish (σ) 2.62 dan 2.55 gacha biroz kamaygan, ammo variatsiya koeffitsiyenti 25.05% dan 27.89% gacha oshgan. Bu shuni bildiradiki, natijalar orasidagi tafovut biroz ortgan — ayrim ishtirokchilar kuchli o'sish ko'rsatgan, boshqalari esa pastroq rivojlangan. Mashq natijalari yaxshilangan, lekin o'quvchilar orasida o'zlashtirish darajalari farq qiladi. Rivojlanish samarali, ammo barqarorlik pastroq.

To'rtinchi mashqda tadqiqot boshida o'rtacha 8.81 marta bo'lgan ko'rsatkich tadqiqot oxirida 11.81 martaga yetgan, ya'ni **3.0 martalik (34%)** sezilarli o'sish bor. Bu mashq tananing koordinatsiyasi, orqa mushaklar kuchi va egiluvchanlik darajasini ifodalaydi. Standart og'ish 1.77 dan 1.56 gacha kamaygan — bu **barqarorlik oshganini** bildiradi. Shuningdek, variatsiya koeffitsiyenti 20.10% dan 13.20% gacha kamaygani natijalarning **bir tekis, ishonchli yaxshilanganini** ko'rsatadi. Eng samarali o'sish aynan shu mashqda kuzatilgan. Barqarorlik yuqori, ishtirokchilar o'rtasidagi tafovut kamaygan, natijalar ishonchli va ilmiy jihatdan sezilarli.

Jadval 3

Olingan natijalarning absolyut va nisbiy o'sish ko'rsatkichlari


| Mashq turi | Absolyut o'sish | Nisbiy o'sish (%) |
|----------------------------------|-----------------|----------------------|
| Oldinga 10 marta o'mbaloq oshish | -0.74 s | +6.37 % yaxshilanish |
| 10 m tizzalab yurish | -0.90 s | +14.7 % yaxshilanish |
| Ko'prik holatda 10 m yurish | -1.32 s | +12.6 % yaxshilanish |
| 10 s bosh osha hatlab o'tish | +3.00 marta | +34.0 % yaxshilanish |

Izoh: Manfiy qiymat (vaqtning kamayishi) — bu ijobiy o'sish, ya'ni mashqni tezroq bajarayotganini bildiradi.

Statistik tahlil natijalarini ham ko'rib chiqamiz.

| Ko'rsatkich | Bosqich | O'rtacha qiymatlar tahlili |
|-------------------|---|----------------------------|
| \bar{x} | Barcha mashqlarda yaxshilangan (kamayish yoki oshish yo'nalishida) | Mashqlar samarador |
| σ | Aksariyat mashqlarda biroz kamaygan | Natijalar barqarorlashgan |
| V% | Ko'prikda hatlab o'tishda keskin kamaygan (20.1 → 13.2%) | Eng ishonchli mashq |
| Umumiy ishonchlik | Tadqiqot natijalari statistik jihatdan ishonchli, chunki o'rtacha qiymatlar ijobiy o'zgarish ko'rsatgan va V% ko'rsatkichlari <30% bo'lgan. | |

Endi shu natijalarning o'sish ko'rsatkichlarini diagrammasini ko'rib chiqamiz.



Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, tanlangan jismoniy mashqlar tizimli ravishda qo'llanilganda ishtirokchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasi sezilarli darajada yaxshilandi. Tadqiqot davomida o'rganilgan barcha mashqlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar (\bar{x}) ijobiy o'zgarishlarni namoyon etdi. Jumladan, oldinga 10 marta o'mbaloq oshish mashqida vaqt o'rtacha 6,4 foizga qisqargan bo'lsa, 10 metr tizzalab yurish mashqida bu ko'rsatkich 14,7 foizni tashkil etdi. Ko'prik holatda 10 metr yurish mashqida 12,6 foizga, eng katta o'sish esa 10 soniya ko'prik holatida bosh osha hatlab o'tish mashqida — 34 foizga teng bo'ldi.

Standart og'ish (σ) ko'rsatkichlarining aksariyat hollarda kamaygani ishtirokchilar natijalarining barqarorlashganini bildiradi. Ayniqsa, "ko'prik holatida bosh osha hatlab o'tish" mashqida variatsiya koeffitsiyenti (V) 20,10 % dan 13,20 % gacha pasaygani bu mashq bo'yicha o'zgarishlarning statistik jihatdan ishonchli ekanini tasdiqlaydi. Barcha mashqlar bo'yicha variatsiya koeffitsiyentlari 30 foizdan past bo'lib, bu esa tadqiqot natijalari ishonchli va ilmiy jihatdan asoslangan ekanini ko'rsatadi. Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatadiki, tadqiqot davomida qo'llanilgan mashqlar bolalarning egiluvchanlik, muvofiqlashtirish, kuch va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilgan. Natijalar dinamikasi mashg'ulot dasturi to'g'ri tanlangani va uning ta'sir kuchi yuqori bo'lganini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Akbarov A., Sportda matematik tahlil usullari, o'quv qo'llanma, O'zDJTSU nashriyoti, 2020. 228b.
2. Багдасаров А.Ю. - Специфика построения соревновательной деятельности дзюдоистов высокого класса при использовании интервальной мышечной тренировки //кандидата Педагогических наук: дисс.автореф., ВАК ЎзР 13.00.04., Ташкент. УзГИФК. 2010. – 131 с.
3. Платонов В.П., Запоржанов В.А. Теоретические аспекты отбора в современном спорте. Отбор, контроль и прогнозирование в спортивной тренировке. -Киев, 2009. – С. 5-16.

4. Bakiyev Z.A. – Erkin kurash nazariyasi va uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. O‘zDJTI, 2011. 266 b.
5. Булгакова Н.Ж. Отбор в спортивном плавании // Плавание. – М.: Физкультура и спорт, 1973 – Вып.2, - С. 25.
6. Керимов Ф.А., Рузиев А.А., Рахимов М.М. Контроль совершенствования деятельности борцов //Алтуальные проблемы теории и практики физической культуры: Материалы международной научно-практической конференции, посвященной 10-летию независимости Республики Казахстан. – Алматы, 2001. – С.353-354.
7. Маткаримов Р.М. Вопросы временной адаптации тяжелоатлетов кразличным климатогеографическим условиям. “Фан-спортга” ж. 2020. Б.4-7.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

THE CONTENT AND ESSENCE OF THE CONCEPTS OF “MOTIVATIONAL APPROACH” AND “CREATIVE THINKING”

Toshnazarova Mohinur Osarali kizi

Independent researcher at Kokand State University

Abstract. This article presents the content and essence of the concepts of “motivational approach” and “creative thinking” and their coverage in various scientific sources. It also presents considerations on the study of the process of developing creative thinking skills of students of pedagogical education based on the Motivational Approach.

Keywords: motivational approach, motive, motivation, creativity, creative thinking, pedagogical higher education institution, development of creative qualities, specialist.

“MOTIVATSION YONDASHUV” HAMDA “KREATIV FIKRLASH” TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATI

Toshnazarova Mohinur O’sarali qizi

Qo‘qon DU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada “motivatsion yondashuv” hamda “kreativ fikrlash” tushunchalarining mazmun va mohiyati hamda turli ilmiy manbalarda yoritilishi xususida fikr mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, motivatsion yondashuv asosida pedagogika ta’lim yo‘nalishi talabalarining kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini tadqiq etish xususida ham mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: motivatsion yondashuv, motiv, motivatsiya, kreativlik, kreativ fikrlash, pedagogik oliy ta’lim muassasasi, ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish, mutaxassis.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N90>

Kirish. Bugungi fan-texnikaning rivojlanishi ta’lim-tarbiya masalasini ham chetlab o‘tmayapti. Zamonaviy talablar pedagogik oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilari zimmasiga har tomonlama yetuk, kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalari rivojlangan mutaxassis kadrlarni tayyorlash bilan birgalikda ularda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish, pedagogik ta’lim jarayonidagi muammolarni yangicha yechimlar yordamiga hal qila oladigan pedagog kadrlarni tayyorlash vazifasini ham qo‘ymoqda. Shu sababli bugungi kunda pedagogik oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash jarayonida ularning kreativ fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlariga e’tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda motivatsion yondashuvning o‘rni beqiyosdir. Motivatsion yondashuv asosida pedagogika ta’lim yo‘nalishi talabalarining kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini tadqiq etishda dastlab tayanch tushunchalar – motivatsiya, motivatsion yondashuv, kreativlik, kreativ fikrlash kabilarning mohiyatidan yetarlicha xabardor bo‘lishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. “Pedagogika” ensiklopediyasida “Motiv – 1) insonni o‘qishga yoki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig‘indisi;

2) o'quvchining ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyilligi. Motivlashtirish – ta'lim oluvchilar faoliyatini ma'lum ehtiyojlardan kelib chiqib, psixologik ta'sir etish yo'llari bilan maqsadga muvofiq yo'naltirishdir. **Motivatsiya esa** inson faoliyatini boshqarishda uning axloqiy mayllaridan foydalanish. **Motivatsion ko'nikma** – shaxs motivlarining yig'indisi va uning ijodiy ilmiy mehnatga layoqatligining eng muhim belgisi"[1.B.368] tarzida talqin qilingan.

Falsafa qomusiy lug'atida motiv tushunchasi "shaxsni aqliy, amaliy harakatga va xulq-atvorni amalga oshirishga undovchi, muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan uzviy bog'liq mayl yoki sababiyat" deb ta'riflanadi.

Psixologik lug'atlarda "**Motiv** – shaxsdagi u yoki bu xulq – atvoriga nisbatan bo'lgan moyillik; **Motivlashtirish**-shaxsning nima uchun ma'lum vaqtda boshqa fikr va harakatlarni emas, faqat shu fikr va harakatlarni bajarishga qaror qilganligini asoslab berishi, tushuntirib berishdan iborat mantiqiy jarayon; **Motivatsiya**-inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmui hisoblanadi" deyiladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida motiv tushunchasi "1) Syujetning tarkibiy unsuri, asarning asosiy mazmuni, mavzusi. 2) Quyining eng kichik qismi" [2.B.618] deb ta'riflanadi.

Muhokama va natijalar. Motivatsiya ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi. Ehtiyojning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta'minlaydi. Harakat faoliyatning tarkibi bo'lganligi tufayli u faoliyatning maqsadi va motivatsiya orqali boshqariladi. Ba'zan motivatsiya tushunchasini "emotsiya", "maqsad", "ustanovka" atamalari bilan almashtirish hollari ham uchraydi. Goho turtki, qo'zg'ovchi, undovchi tushunchalari bilan aynanlashtiriladi.

Motiv hamda motivatsiya tushunchalari tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Masalan, A.Maslou motivni ehtiyoj bilan bog'lasa, S.L.Rubinshteyn motivni mazkur ehtiyojning his qilinishi va qondirilishi, deb hisoblaydi.

B.X.Xodjayevning fikricha, motivatsiya – motivlarning harakatlanish jarayoni, insonni asosiy faoliyatga undovchi motivlar yig'indisi. Motiv esa fransuzchadan tarjima qilinganda, undovchi kuch, sabab degan ma'noni bildiradi.[3.B.36]

A.N.Leontyev motivatsiyani ehtiyojlarni qanoatlantirishga inson faoliyatini yo'naltiradigan va uni qo'zg'atadigan obyektivlik deb hisoblaydi. L.I.Bojovichning fikricha motivatsiya nafaqat tashqi obyektiv omillar, balki tasavvurlar, g'oyalar, his-tuyg'ular, bir so'z bilan aytganda ichki subyektiv omillar ko'rinishida ham bo'lishi mumkin.[4.B.14]

A.A.Reanning ta'rificha, motivatsiya deb shaxsni faoliyatning u yoki bu turiga ichki jihatdan undashga aytiladi. V.K.Vilyunas motivni qo'zg'alish va faoliyat uchun javob beradigan jarayonlar tizimi deb hisoblaydi.

Sh.S.Shodmonovanning fikricha, olimlarning motivatsiyaga bergan tasniflari turlicha bo'lib, ularning ayrimlari insonda vujudga keluvchi holatlarni, ya'ni insonni xatti-harakatga keltiruvchi holatlarni motivatsiya deb atashsa, ayrimlari insonlarning maqsadi, qiziqishi, orzu-istagi, niyati, intilishi, manfaati, ehtiyoji va e'tiqodlarini motiv sifatida keltirishadi, yana boshqa birlari motivatsiyani jarayon sifatida talqin etishgan.[5.B.105] K.S.Okilovanning fikricha, motivatsiya "o'qituvchi yoki o'quvchi tomonidan o'zining ta'lim berish va olishga, shaxsiy hamda kasbiy manfaatlarini, o'z maqsadlariga erishishni ta'minlashga undaydigan, ehtiyojlarini uyg'otadigan va rag'batlantiradigan kuchlarning doimiy faol jarayonidir"[6.B.11]

Tadqiqotimizning yana bir asosiy tayanch tushunchasi bu motivatsion yondashuvdir. Motivatsion yondashuv tushunchasi turli xil fan sohalarini o'qitish jarayoniga xos bo'lib, unga berilgan ta'riflarning turfa xilligida akslanadi. Jumladan, M.Shamilova motivatsion yondashuv tushunchasini xorijiy tillar misolida sharhlab shunday deydi "Motivatsion yondashuv - talabalarning chet tilida tinglash va tushunish kompetensiyalarini oshirishda asosiy omillardan biri sifatida qaraladi".[7.B.22] Motivatsion yondashuvni chet tillarni o'qitish yuzasidan sharhlagan Z.Yariyeva motivatsion yondashuvni "til o'rganishga bo'lgan ichki va tashqi rag'batlarini shakllantirish orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik strategiya" sifatida baholaydi.

Sh.Qo'chqarovaning fikricha, motivatsion yondashuv shaxsni faol jarayonga undovchi sabablar majmui bo'lib, fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi, jarayonni samarali kechishini ta'minlovchi yondashuvdir deb ta'kidlab, uning tarkibiy komponentlari sifatida yo'nalganlik tashkilotchilik, qo'llab quvvatlash kabilarni keltiradi. N.Sh.Mannopovaning fikricha motivatsion yondashuv shaxsning faoliyat natijalarini yuzaga chiqarishga, ta'lim jarayonida faol fikrlashga undovchi, uning harakatchanlik qobiliyatlarini ta'minlovchi tizimlar yig'indisidir.

A.Maslou o'zining "Ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasi" nomli asarining "Motivatsiya va shaxsiyat" deb nomlanuvchi bobida motivatsion yondashuvga quyidagicha ta'rif beradi: "Shaxsning ichki va tashqi olamini harakatga keltiruvchi, uning bor mahoratini yuzaga chiqaruvchi hamda maqsad sari intilishga undovchi yondashuv".

Frederick Herzberg "Ikki omil nazariyasi" kitobida motivatsion yondashuvni ish faoliyatidagi o'rni yuzasidan sharhlab quyidagicha bayon etadi: "Xodimlarni rag'batlantirish, ularning ish qobiliyatlarini oshirish va tashkilot samaradorligini yaxshilash uchun qo'llaniladigan usullar va mexanizmlar tizimi".

Ilmiy-pedagogik manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlik tushunchasiga yagona, yaxlit ta'rif mavjud emas. Kreativlik tushunchasi turli manbalarda turlicha sharhlanadi.

Jumladan, kreativlik tushunchasi pedagogika ensiklopediyasida (ijodiylik) (lot. creation – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – 1) qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon. 2) shaxsning yangi g'oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati deb tavsiflanadi. Shuningdek, pedagogika ensiklopediyasida "shaxs xatti-harakati, faoliyatida kreativlik mavjudligini amaldagi an'anaviy holatlar, tajribalardan farqli o'laroq muammoni yangicha yondashuv asosida, nostandart tarzda yechish yuzasidan mustaqil qaror chiqara bilish iqtidori mavjudligi bilan belgilanadi. Aslida kreativlikka moyillik tug'ma tarzda barchada mavjud bo'lishi mumkin. Kreativlikni namoyon bo'lishi (yoki namoyon bo'lmasligi)ning bir qator omillari mavjud. Atrof-muhit hamda ta'lim mazmuni va metodikasi kreativlikni namoyon bo'lishi va rivojlanishining bosh omili hisoblanadi". Shuningdek, kreativlik "(ijodiylik) (lot. creation – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon; shaxsning yangi g'oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati" hisoblanadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida kreativlik "yaratuvchanlik, ijodkorlik" tarzida bayon qilingan. Psixologik lug'atlarda kreativlik "tadqiqot xarakteriga ega bo'lib, o'quvchi-talabalarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi" tarzida bayon qilinadi. Psixologik nuqtai nazardan kreativlik "insonning ijodiy imkoniyatlarini namoyon bo'lishi (fikrlash, his-tuyg'ular, muloqot, shaxsiy faoliyat) sifatida qaraladi va umumiy holda uning alohida jihatlarini,

faoliyat mahsulotlarini, ularni yaratish jarayonini tavsiflaydi”. Falsafiy ensiklopediya lug’atida kreativlik (lotincha *creo*-ijod etmoq, yaratmoq) berilgan jarayon va muammolarni noodatiy ko’rinishda yechimini topishga yo’naltirilgan ijodiy o’zgarishlarga bo’lgan qobiliyat sifatida tavsiflanadi.

Shuni qayd etish lozimki, kreativlik tushunchasini sharhlashga urinish mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan alohida qiziqish obyekti hisoblanadi. Jumladan, xorijiy olimlardan Ken Robinson kreativlikni “o’z qiymatiga ega original g’oyalari majmui”[8.B.566] sifatida talqin etsa, Gardner kreativlikni “shaxs tomonidan amalga oshirilaigan amaliy harakat bo’lib, u o’zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo’lishi lozim”[9.B.300] deb ta’riflaydi. Kreativlik deydi Embayl “muayyan soha bo’yicha o’zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko’nikmalarga ham ega bo’lishdir”. T.Lyubardning fikricha, kreativlik “yangilikka ega va shu bilan birga o’zi joylashgan kontekstga mos keladigan mahsulot yaratish qobiliyati sifatida ko’rilishidir”.

P.Torrens fikricha, kreativlik “muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish” hisoblanadi. D.Veksler “Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo’lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o’ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi” – deb ta’kidlaydi. A.X.Maslou kreativlikda o’z-o’zini shakllantirishning ikki darajasini keltirib o’tgan: birinchisi – “ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo’ladi”, “ikkinchisi – ixtiyoriy, og’ir mehnat bilan bog’liq, uzluksiz ta’lim, kamolotga intiluvchanlik”.

Xulosa. Shunday qilib, motivatsion yondashuv asosida kreativ fikrlash pedagogga xos muhim zaruriy komponent sanaladi. Motivatsion yondashuv asosida kreativ fikrlash ko’nikmasiga egalik pedagogning zamonaviy ta’limni tashkil etishda, ta’lim oluvchilarga ishtiyoq berishda, ularda yangi g’oyalarni, nostandart yechimlarni yuzaga chiqarishda ko’zga tashlanadi. Pedagogik ta’lim jarayonida turli yoshdagi, turli ijtimoiy mavqeyidagi shaxslar bilan munosabatga kirishishi, ularning ta’lim jarayoniga munosabatni o’rganish, shaxsiy, individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda dars jarayonini samarali tashkil etishi, ulardagi mavjud qobiliyatlarni rivojlantirib borishi muhim omil sanaladi. Shu nuqtai nazardan aytganda, pedagogika ta’lim yo’nalishi talabalarining motivatsion yondashuv asosida kreativ fikrlash ko’nikmasiga egaligi muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Pedagogika: ensiklopediya. II jild. Jmoa // Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 368 b.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. 2015. 2 том. – Б. 618.
3. Ходжыев В.Х. Umumta’lim maktabi o’quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishning didaktik asoslari (5-7 sinf tarix darslari misolida): Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – Т., 2009. – В.36.
4. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. - М.:ВЛАДОС, 1999. – С.14
5. Шодмонова Ш.С. Талабаларда мустақиллик тафаккурини ривожлантириш ва ривожлантириш. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2008. – Б.105

6. Okilova K.S. O'qituvchilarning uzliksiz kasbiy rivojlanishiga motivatsion tayyorgarlik kompetentligini rivojlantirish. Ped.fan.bo'y.fals.dok. diss.avto-ref. Samarqand. 2023. – B. 11.
7. Shamilova M. "Motivatsion yondashuv asosida talabalarning auditiv kompetenstsiyalarini takomillashtirish: Xorij tajribasi" // Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. 2025. [Vol. 16 No. 3. – B. 22.](#)
8. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. Инновационный курс. – Казань: Изд-во КГУ, 1996. – 566 с.
9. Вишнякова, Н.Ф. Креативная акмеология. Психология высшего образования / Н.Ф. Вишнякова. - Мн.: Народная асвета, 2007. - 300 с.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

PRAGMATIC PROBLEMS IN DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS AND THEIR SOLUTIONS

Makhmudova Nigorakhon Boykozi kizi

basic doctoral student of Namangan State University

Abstract. This article presents some thoughts on pragmatic problems in developing the communicative competence of future foreign language teachers and their solutions. The article also presents considerations on pragmatic competence and the need for teachers to have special knowledge and skills in teaching pragmatics. Always memorized vocabulary and grammatical rules do not help develop communicative competence. Constantly collecting new English words and phrases found in various literary texts, newspapers, and other media, such as advertising, and using them in practical speech, helps to develop speech easily and quickly.

Keywords: future foreign language teachers, communicative competence, pragmatic problems, skills, vocabulary and grammatical rules, one authentic material, knowledge and ideas, rapid exchange.

BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA PRAGMATIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak chet tili o'qituvchilarini kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda pragmatik muammolar va ularning yechimlari xususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada pragmatik kompetensiya hamda o'qituvchilar pragmatikani o'rgatishda maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerakligi xususida ham mulohazalar bayon etilgan. Doim ham yodlab olingan lug'at va grammatik qoidalar — kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yordam bermaydi. Turli badiiy matnlar, gazeta, reklama kabi matbuot vositalarida uchraydigan yangi inglizcha so'z va iboralarni doimiy ravishda yig'ib, ulardan amaliy nutqda foydalanish, nutqni oson va tez rivojlanishiga yordam beradi.

Kalit so'zlar: bo'lajak chet tili o'qituvchilari, kommunikativ kompetensiya, pragmatik muammolar, ko'nikma, lug'at va grammatik qoidalar, biri aucentik materiallar, bilim va g'oya, tezkor almashinuv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N91>

Kirish. Barchamizga ma'lumki, bugungi kundagi globallashuv davrida, xalqaro muloqotning ahamiyati keskin oshib bormoqda. Har qanday sohaga tegishli bo'lgan axborotlar, madaniyatlar, bilim va g'oyalarning tezkor almashinuvi zamonaviy ta'limda faqatgina tilni grammatik va leksik jihatdan o'rganishni emas, balki uni kontekstga mos, samarali, vaziyatga muvofiq qo'llay bilishni ham talab etadi. Pragmatika orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda, har qanday boshqa ko'nikmada bo'lgani kabi, insonning o'zi ham yetarli darajada tashabbus ko'rsatishi kerak bo'ladi.

Insoniyat borki, muloqotsiz yashay olmaydi. Ular jamiyatda odamlar bilan muomalada bo'lish uchun tilni faol ravishda ishlatadilar va bu orqali ular tengdoshlar orasida pragmatik kompetensiyani qanday qo'llashni va tilni vaziyatga moslashni o'rganadilar. Doim ham yodlab

olingan lug‘at va grammatik qoidalar — kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yordam bermaydi. Turli badiiy matnlar, gazeta, reklama kabi matbuot vositalarida uchraydigan yangi inglizcha so‘z va iboralarni doimiy ravishda yig‘ib, ulardan amaliy nutqda foydalanish, nutqni oson va tez rivojlanishiga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Pragmatik kompetensiya — turli vaziyatlarda ijtimoiy, madaniy va nutqiy me‘yorlarni anglash va ularni to‘g‘ri qo‘llash qobiliyati, shuningdek, til o‘rganuvchining o‘z kommunikativ maqsadlariga erishish uchun til vositalarini mohirona boshqara olish qobiliyati hisoblanadi.[1;347] Tilni egallashda hamda uni rivojlantirishda pragmatik kompetensiya muhim rol o‘ynaydi. Uning yo‘qligi muloqotda ko‘plab salbiy tushunmovchiliklarga olib keladi. Agar so‘zlovchi pragmatik jihatdan mos bo‘lmagan tilni ishlatasa, eng yaxshi holatda – hamkorlikdan yiroq, yomon holatda – qo‘pol yoki hatto haqorat qilgan shaxs sifatida ko‘riladi. Shu sababdan til o‘rganuvchi kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida pragmatikaga alohida ahamiyat berishi kerak.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda boshqa bosqichlarda bo‘lgani kabi pragmatikani o‘rganishda ham til o‘rganuvchilar (talabalar) bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ana shunday qiyinchiliklardan biri **ausentik materiallarning yetishmasligi** ya‘ni real hayotga yaqin materiallarning mavjud emasligidir. Ausentik materiallar ona tilida so‘zlashuvchilar tomonidan yaratilgan, asl maqsadi ta‘lim emas, balki real kommunikatsiyani amalga oshirish bo‘lgan matnlar yoki media vositalari sanaladi. Bunday materiallarga real suhbatlar ya‘ni podkastlar yoki turli intervyular, film va seriallardan lavhalar, rasmiy va norasmiy elektron xatlar, ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar, shuningdek, kundalik hayotda qo‘llaniladigan yozuvlar (reklama, e‘lonlar, ogohlantirishlar) kiradi.[2;97]

Muhokama va natijalar. Pragmatik kompetensiya til o‘rganishda nafaqat til qoidalarini, balki nutqning ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday ishlatilishini tushunishni talab qiladi. Shu bois, o‘qituvchilar pragmatikani o‘rgatishda maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Biroq, o‘quv jarayonida ko‘plab o‘qituvchilarning pragmatikani o‘qitish bo‘yicha **yetarli tayyorgarlikka ega emasligini** ham ko‘rish mumkin. O‘qituvchilarning o‘zida pragmatik ko‘nikmalarni samarali o‘rgatish uchun zarur bo‘lgan bilim va ishonchning yo‘qligi, talabalarning pragmatika borasidagi bilimlari yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi. Agar o‘qituvchilarning pragmatik bilim va ko‘nikmalari cheklangan bo‘lsa, til o‘rganuvchilar ham tilni faqat grammatik va leksik jihatdan o‘rganib, nutqni amaliy ijtimoiy vaziyatlarda noto‘g‘ri ishlatishga moyil bo‘ladi.[3;21] Buning natijasi albatta, pragmatik xatoliklar, noto‘g‘ri muloqot, madaniyatlararo tushunmovchiliklarga olib keladi. Til o‘rganuvchilarning kommunikativ qobiliyatlari yetarlicha rivojlanmaydi, bu esa real hayotda tilni samarali ishlatishda muammolar tug‘diradi. Mashhur olimlardan biri bo‘lmish Bardovi-Harlig o‘zining “Pragmatikani o‘qitish zarurati bo‘yicha empirik dalillar” deb nomlangan maqolasida til o‘qituvchilarining pragmatika bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega emasliklari, ta‘lim natijalarining nomuvofiqligiga va sifatsiz shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkinligi haqida o‘z qarashlarini bildirib o‘tadi.[4;13] Bu muammolarning yechimlaridan biri — o‘qituvchilar uchun maxsus trening va seminarlar tashkil etish ya‘ni pragmatikani o‘qitish metodologiyasi bo‘yicha malaka oshirish kurslari o‘tkazilishi kerak. Bu kurslarda til o‘rgatishda madaniyat va ijtimoiy kontekstni o‘rganishga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, o‘quv jarayonida rol o‘yinlari va real hayotiy vaziyatlarda muloqot mashqlardan foydalanish ham samarali natija beradi. Shuningdek, M.Celce-Murcia, Z.Dornyei va S.Thurrellarning

”Pragmatik kompetensiyani o’qitishda pedagogik yondashuvlar” deb nomlangan ilmiy maqolasida ham o’qituvchilarda ham til o’rganuvchilarda ham pragmatik kompetensiyani o’rganish uchun darslik va materiallarda pragmatik vaziyatlar, dialoglar, madaniyatlararo muloqotga oid bo’limlar ko’proq kiritilishi lozimligi xususida bir nechta ijobiy fikrlar keltirib o’tiladi.[5;5]

Demak, pragmatika kommunikativ kompetensiyani rivojlanishida juda muhim bo’lib, uni til o’rganuvchilarga muvaffaqiyatli o’rgatish uchun eng avvalo, real hayotga yaqin mashqlar va aseptik materiallar asosida o’quv mashg’ulotlarini tashkil etish hamda dastlab, o’qituvchilarning o’zida pragmatika bo’yicha yetarli bilim va ko’nikma mavjud bo’lishi talab etiladi.

Pragmatikani o’rganish davomida **pragmatik terminologiyalarni aniq tushunmaslik** borasida ham qiyinchiliklarga uchrash mumkin. Bunda ko’pincha talabalarning pragmatik tushunchalar bo’lmish lokutiv, illokutiv, perlokutiv, deixis, implikatura kabi atamalar haqida nazariy jihatdan yaxshi bilimlarga ega emasliklari ko’zda tutiladi. Bo’lajak chet tili o’qituvchilari bu terminlarning asl mazmuni va ularning mohiyatini to’liq tushunib yetmasdan turib, amaliy kontekstda ularni qo’llashga harakat qilishlari, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda jiddiy to’siqqa olib keladi. Pragmatik terminlarni tushunish haqidagi nazariy bilimlarga ega bo’lish uchun J.Austin va J.Searlning ishlariga murojaat etish maqsadga muvofiq bo’ladi. Pragmatik terminlar haqida so’z ketganda asosan quyidagi atamalarni o’rganish nazarda tutiladi:

- illokutiv (illocution). Gapiruvchining nutq orqali bajarayotgan maqsadi (buyruq, so’rov, maslahat);
- perlokutiv (perlocution). Eshituvchiga ta’siri, ya’ni nutq orqali yuzaga keladigan real natija;
- deiksis (deixis). Joy, shaxs, vaqtga bog’liq ishora so’zlari (“bu yerda”, “u”, “hozir”);
- implikatura (implicatura). Gapda aytilmagan, lekin kontekst orqali anglash mumkin bo’lgan yashirin ma’no.[6;167]

Ko’pincha o’quv jarayonida talabalar faqat atamalarni yod olib, ularning real muloqotdagi qo’llanilishiga e’tibor qaratishmaydi. Ular “implikatura” ni faqat nazariy ta’rifinigina biladilar xolos, ammo uni kinoya hamda yashirin iltimos ifodalari mavjudligidan ko’pincha bexabar qoladilar. Bunga sabab, terminlarni yuzaki yod olish va ularni real hayotda qo’llamaslikdir. Bu kabi muammolarning yechimi faqatgina pragmatik terminlar va tushunchalarni amaliyotga moslab o’rganishdan iboratdir. Ya’ni, talabalar nutq aktlari, deikis, implikatura tushunchalari haqida nazariy bilimga ega bo’lganlaridan so’ng talabalar ularni darhol real vaziyatlarga solishlari kerak bo’ladi.

Bundan tashqari, pragmatikani o’rgatish jarayonida **madaniyatlararo tafovutlarni aniqlashdagi muammolarga** ham duch kelishlari mumkin. Bunga sabab turli mamlakatdagi madaniy normalarning keskin bir-biridan farq qilinishidir. Albatta, bu tahlil jarayonida talabalarni chalkashtiradi. Madaniyatlararo tafovutni aniqlashdagi qiyinchiliklar haqida so’z ketganda, S.Thomasning 1983-yildagi “Cross-cultural pragmatic failure” deb nomlangan konsepsiyasini yodga olib o’tish maqsadga muvofiq ish bo’ladi. Chunki, bu konsepsiyada ikki yoki undan ortiq madaniyat vakillari o’rtasidagi muloqotda yuzaga kelinishi mumkin bo’lgan pragmatik tushunmovchiliklar haqida keng ma’lumot berilgan. S.Thomas ushbu konsepsiyasida asosan tilni rivojlantirishdagi xatoliklar faqatgina grammatik yoki leksik

jihatdan emas, balki tilning madaniy tafovutlaridan ham yuzaga kelishi mumkinligi soʻz yuritadi. Bu haqida soʻz yuritilishiga sabab, har bir madaniyatning nutq aktlarini tushunish va ishlatishda oʻsha tilning oʻziga xos, madaniy qoidalarining mavjudligini ochib berish boʻlgan. Shuningdek, S.Thomas ushbu konsepsiyasida nutq aktlaridagi pragmatik muvaffaqiyatsizliklarni uch asosiy turga ajratadi: *birinchisi*, til qoidalarini notoʻgʻri qoʻllash boʻlib, bunda soʻzlar yoki iboralarning notoʻgʻri tanlanishi; *ikkinchisi*, madaniyatga xos ijtimoiy qoidalarni tushunmaslik yoki notoʻgʻri qoʻllash boʻlib, bunda kimga qanday tarzda murojaat qilish, yaʼni rasmiylik darajasi; *uchinchisi*, muloqot madaniyatining asosiy printsiplarini buzish, yaʼni gapni uzilishsiz olib borish yoki mavzudan chetga chiqib ketish holatlaridir.[7;96-97]

Madaniyatlararo tafovutlarni aniqlash borasidagi qiyinchiliklarini bartaraf etish uchun oʻqituvchilar taʼlimiy sharoitda ingliz tilidagi badiiy matnlar, dialoglar va real voqeikka asoslangan matnlarni yoki suhbatlarning kontekstiga eʼtibor qaratgan holda madaniyatlararo tafovutlarni aniqlash oʻrgatish kerak boʻladi. Bunga misol qilib biz Helen Spencer-Oateyning 2000-yilda nashr etilgan “Culturally Speaking: Managing Rapport through Talk across Cultures” deb nomlangan anekdot shaklidagi asaridan foydalanishga qaror qildik. Anekdotlardan iborat boʻlgan ushbu asar madaniyatlararo muloqot va suhbatdagi madaniy farqlar haqida boʻlib, odamlarning turli madaniyatlarda bir-biri bilan qanday munosabatda boʻlishini tahlil qiladi. Masalan, bu asardan olingan quyidagi dialogli matnga eʼtibor qaratamiz:

Setting: Hong Kong bus stop, a group of students approaches.

(Joy: Gonkong avtobus bekati, talabalar guruh bilan uchrashadi.)

Student 1: Hello, Professor Spencer-Oatey! Where are you going?

(Talaba 1: Salom, professor Spencer-Oatey! Qayerga ketyapsiz?)

Spencer-Oatey: (slightly uncomfortable) Oh, hello... Just to the city center.

(Spencer-Oatey: (ozgina noqulaylik bilan) Oh, salom... Faqat shahar markaziga.)

Student 2: (smiling) Have you had your lunch?

(Talaba 2: (jilmayib) Tushlik qildingizmi?)

Spencer-Oatey: (surprised) Yes, thank you... And you?

(Spencer-Oatey: (hayron boʻlib) Ha, rahmat... Sizlar-chi?)

Student 1: (laughing) Yes, we just ate! Bye, have a good trip!

(Talaba 1: (kulib) Ha, biz yangi ovqatlanidik! Xayr, yoʻlingiz oson boʻlsin!)[8;1]

Ushbu suhbatda Helen Spencer-Oatey Gonkongdagi avtobus bekati talabalari tomonidan toʻxtatilgani va ulardan “Qayerga ketyapsiz?” degan savol olgani bayon etiladi. Britaniyalik sifatida u bu savolni shaxsiy chegaralarga tajovuzkorlik va hurmatsizlik deb hisoblaydi. Ammo bu Xitoy madaniyatida bu savolning doʻstona salomlashish shakli ekanligini va aniq javob talab qilinmasligini tushunib yetadi. Bu savol Xitoy tilida koʻpincha shunchaki suhbat boshlash uchun ishlatiladi va shaxsiy hayotga qiziqish bildirishdan koʻra formal xushmuomalalikni anglatadi. Shuningdek, ingliz madaniyatida koʻpincha insonlar ob-havo haqida gapirib salomlashadi, masalan, “Salom, bugun biroz sovuqroq, shunday emasmi?” Xitoy madaniyatida esa salomlashish koʻpincha ovqatga oid boʻladi, masalan, “Salom, tushlik qildingizmi?” Bu birga ovqatlanishga taklif emas, balki kishining ahvolidan xabar olish usuli hisoblanadi. Anekdot shaklidagi ushbu suhbat bir madaniyatda oddiy va doʻstona deb hisoblangan narsa boshqa madaniyatda noqulay yoki hurmatsizlik sifatida qabul qilinishi mumkinligini koʻrsatib beradi. Ushbu matnda keltirilgan kabi turli madaniyatlardagi nutq normalarining solishtirilishi birinchi navbatda, talabalarning madaniy bilimlarini oʻstiradi va

bu ulardagi madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni aniqlashdagi qiyinchiliklarini qisman kamaytiradi. Shuningdek, turli rolli o'yinlar jarayonida qahramonning so'rovi talaba tomonidan zamonaviy kontekstda qayta talqin qilinishi ham madaniyatlararo farqlarni yodda tutilishiga sabab bo'ladi.

Navbatdagi pragmatik muammo bu — chet tilidagi pragmatik elementlarning **darsliklarda kam yoritilishidir**. Bilamizki, chet til darsliklarda tilning faqat grammatik va leksik tomonlari yaxshi yoritilib, lekin qanday holatda, kim bilan, qayerda, qanday ohangda gapirilishi kerakligi ya'ni pragmatika yetarli darajada o'rgatilmaydi. Albatta, bu muammo talabalarni tilni grammatik to'g'ri, lekin noto'g'ri kontekstda qo'llashiga sabab bo'ladi. Asosan, chet tili darsliklarida talabalar xorijiy tilni o'rganish ko'pincha so'z yodlash, grammatikani tushuntirish va gap tuzish bilan cheklanayotganligiga guvoh bo'lamiz. Buning natijasida talabalar so'zlar qanday kontekstda, ohangda, kimga nisbatan ishlatiladi degan muhim savollarga javob berolmay qolishadi. Masalan, "Sorry", "Excuse me" va "Pardon" so'zlarini olaylik. Ko'pgina ingliz tili darsliklari uchalasi ham "kechirasiz" deb tarjima qiladi, lekin ular butkul turli vaziyatlarda qo'llaniladi. "Sorry" – biror qilgan ayb ishi uchun kimdandur uzr so'rash ma'nosida, "excuse me" – gap boshlash e'tibor qaratish ma'nosida va "pardon" esa gapni eshitmagan paytda qo'llaniladi. Darsliklarda bu farqlar ko'rsatilmagan bo'lsa, talabalar noto'g'ri ishlatadi va bu madaniy noqulaylikka, muloqotda tushunmovchilikka olib keladi.

Ushbu pragmatik muammoni yanada tushunarliroq qilish uchun "Do you want some coffee?" va "Would you like some coffee?" iboralarini misol tariqasida olaylik.

"Do you want some coffee?" — noformal, yaqin do'stga nisbatan qo'llaniladi. Agar o'qituvchiga yoki rasmiy suhbatda ishlatilsa, u qo'pol muomalaga aylanadi.

"Would you like some coffee?"- Rasmiy, muloyim shakl sifatida foydalaniladi. Darslikda "Want" ni har doim "xohlash" deb bersa, talaba bu nozik farqni bilmasligi mumkin.

Bu kabi muammolarni hal qilishning birdan bir yechimi darsliklarda kontekstual misollarni ko'paytirish, ya'ni har bir ibora qayerda, kimga, qachon ishlatilishi haqida qisqacha izohlar berishdir. Shuningdek, nutq aktlarini o'rgatuvchi mashqlarni joriy etish ham ancha samarali natija beradi. Bunda asosan talabalarga kechirim so'rash, minnatdorchilik bildirish, rad etish, maslahat berish kabi holatlar ko'proq berilishi kerak. Demak, pragmatik elementlarning kam yoritilishi chet tilini sun'iy, hayotdan uzilgan shaklda o'rganishga olib keladi. Talaba grammatik jihatdan to'g'ri gapiradi, biroq suhbatdoshni ranjitishi, noqulay holatga tushib qolishi, madaniy noaniqliklar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, har qanday chet tilini o'rgatishda faqat "qanday gap tuzish" emas, balki "qayerda, kimga va qanday ohangda gapirish kerak?" degan savollarni ham yoritish talab etiladi.

Keyingi eng dolzarb pragmatik muammolardan biri talabalarining **kommunikativ xavotiri (anxiety)** tufayli og'zaki nutqdan qochishidir. Pragmatik xatolardan qo'rqish (masalan, noto'g'ri gapirib qo'yish) talabani og'zaki muloqotda qatnashmaslikka olib keladi, bu esa kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga yaxshigina to'sqinlik qiladi. Aynan kommunikativ xavotir chet tilida yoki umuman til o'rganuvchilarning ijtimoiy va til asosidagi muloqotda duch keladigan asabiylilik, qo'rquv va stress holati hisoblanadi. Talabalar og'zaki nutqdan turli sabablarga ko'ra qochishi mumkin: *birinchisi*, xato qilishdan qo'rqishadi, ya'ni talabalar o'z nutqlaridagi xatolar tufayli tanqidga uchrashidan yoki hazilga qolishidan xavotirda bo'lishadi; *ikkinchisi*, baholash qo'rquvi bo'lib, aksariyat hollarda o'qituvchi yoki tengdoshlari oldida nutq so'zlashda baholanishdan xavotirga tushishadi; *uchinchisi*, noto'g'ri talaffuz yoki

grammatika, ya'ni bunda til qoidalarini to'liq bilmaslik yoki ularni noto'g'ri qo'llash qo'rquvi nazarda tutiladi. Ushbu sabablar ta'sirida talaba og'zaki nutqdan qochib, ular suhbatda faol qatnashishdan bosh tortadi, kam gapiradi, faqat yozma ishlar yoki passiv tinglovchi bo'lib qoladi. Yoki ularda til o'rganish jarayonining sekinlashuvi kuzatiladi va buning natijasida suhbatga qo'shilmaslik yangi so'z va ifodalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini cheklaydi, shuningdek, o'z navbatida til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi ham pasayadi.[9;125]

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun talabalarga nutq so'zlay olishlari uchun kichik guruh mashqlari tashkil qilish, darsni qiziqarli qilish va asabiylikni kamaytirish uchun interaktiv o'yinlar qo'llash, talabalarni erkin fikr-mulohaza yuritishga ko'proq jalb etish lozimdir. Til o'qituvchilar talabalarda kuzatilayotgan muammolarni aniqlab, o'quv jarayonida maxsus yondashuvlar (kichik guruh mashqlari, ijobiy rag'batlantirish, interaktiv o'yinlar) orqali anxiety darajasini pasaytirishi lozim. Bu nafaqat til o'rganishni yengillashtiradi, balki talabalar orasida mustahkam kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi so'nggi pragmatik muammo — ***kontekstual moslikni tushunmaslikdir ya'ni pragmatik inferensiyaning yo'qligidir.*** Aksariyat hollarda talabalar so'zlarning lug'aviy ma'nosiga tayanib, kontekstga mos kelmaydigan ifodalarni ishlatib qo'yishiga guvoh bo'lamiz. Bu holat pragmatik inferensiyaning yetishmasligidan dalolat beradi. Pragmatik inferensiya (Pragmatic inference) til ma'nosini bevosita aytilgan so'zlardan tashqari, kontekst yordamida tushunish jarayoni sanaladi. Bu inferensiya yordamida til o'rganuvchi yoki tinglovchi gapdagi yashirin ma'no va niyatni anglab olishi kerak bo'ladi. Buning natijasida birinchi o'rinda talabalar so'zlarni noto'g'ri kontekstda ishlatadi, masalan, rasmiy suhbatda noformal iboralar yoki aksincha bo'lishi mumkin. Shuningdek so'zning ma'no va niyati noto'g'ri tushuniladi.

Har bir muammoni o'z yechimi bo'lganidek bu qiyinchilikning ham o'ziga mos yechimlari mavjud. Masalan, birinchi navbatda o'quv jarayonida talabalarni pragmatik inferensiyadan xabardor etish kerak. Ya'ni, ularga kontekstual moslikni turli kontekstual misollar va vaziyatli dialoglar orqali o'rgatish kerak. Bundan tashqari, rolli o'yinlar, muayyan vaziyatlarda nutqni kontekstga moslashtirish kabi ishlar ham bu muammoni bartaraf etishga yordam beradi. Shuningdek, real suhbatlardan olingan video yoki audio materiallar orqali kontekstni o'rgatish ham ancha samarali natija bera oladi. Umuman olganda, kontekstual moslikni tushunmaslik talabalarning eng katta pragmatik muammolaridan biri sanaladi. Pragmatik inferensiyaning rivojlanmasligi natijasida ular gapning yashirin ma'nosini anglay olmay, noto'g'ri yoki madaniy jihatdan qabul qilinmaydigan ifodalarni ishlatishadi. Shu sababdan, til o'rgatishda pragmatik inferensiyani chuqur o'rgatish va kontekstga asoslangan mashqlarni ko'paytirish lozim.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda faqat lingvistik bilimlarga e'tibor qaratish emas, balki tilni kontekstga mos, samarali, vaziyatga muvofiq tilni qo'llay bilish talab etiladi. Bunga erishishda pragmatik kompetensiyaning roli muhim bo'lib, u til o'rganuvchilarga chet tilini chuqurroq tushunish va uni o'rgatishda zamonaviy kommunikativ talablarga mos ravishda harakat qilish kerakligini ko'rsatib beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. — Englewood Cliffs, NJ : Prentice Hall, 1994. — 228 p. 347 p.

2. Gilmore A. Authentic materials and authenticity in foreign language learning // *Language Teaching*. – 2007. – Vol. 40, № 2. – P. 97–118.
3. Kasper G. Can pragmatic competence be taught? // *The Language Teacher*. 1997. № 21. P. 21-39.
4. Bardovi-Harlig, K. Empirical evidence of the need for instruction in pragmatics // *Pragmatics in language teaching* / K. Rose, G. Kasper (eds.). — New York : Cambridge University Press, 2001. — P. 13–32.
5. Celce-Murcia M., Dornyei Z., Thurrell S. Communicative competence: A pedagogically motivated model with content specifications // *Issues in Applied Linguistics*. – 1995. – Vol. 6, № 2. – P. 5–35
6. Austin J. L. *How to Do Things with Words*. — Oxford: Oxford University Press, 1962. — 167 p
7. Thomas J. Cross-cultural pragmatic failure // *Applied Linguistics*. — 1983. — Vol. 4, No. 2. — P. 96–97
8. Spencer-Oatey H. *Culturally Speaking: Managing Rapport through Talk across Cultures* / H. Spencer-Oatey. — London: Continuum, 2000. — 1 p.
9. Horvits E.K., Horvits M.B., Koup J. Foreign language classroom anxiety // *The Modern Language Journal*. – 1986. – Vol. 70, №2. – P. 125–132.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

INNOVATIVE APPROACHES TO DEVELOPING CRITICAL THINKING IN FUTURE TEACHERS

Hamroyeva Robiya Sherali qizi

Master of the Asian International University

E-mail: xamroyevarobbiya@gmail.com

Abstract. This article examines the relevance, essence, and both theoretical and practical aspects of developing critical thinking among future teachers. The role of innovative educational technologies, problem-based learning, project-based learning, and the STEAM approach in fostering critical thinking is highlighted. Furthermore, the article analyzes evaluation criteria and performance indicators for assessing the level of critical thinking in teacher education students. The importance of shaping the identity of a modern teacher through innovative pedagogical approaches is substantiated.

Keywords: critical thinking, innovative approach, pedagogical technology, problem-based learning, project-based learning, STEAM approach, reflection, digital education, future teacher, competence, creative thinking.

KELAJAK PEDAGOGLARINING TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Hamroyeva Robiya Sherali qizi

Osiyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada kelajak pedagoglarida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi, mazmuni hamda innovatsion yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining, muammoli o'qitish, loyiha asosida o'qitish va STEAM yondashuvlarining o'rni yoritilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy tafakkurini baholash mezonlari va natijadorlik ko'rsatkichlari ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Maqolada innovatsion pedagogik yondashuvlar orqali zamonaviy o'qituvchi shaxsini shakllantirishning muhimligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy tafakkur, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiya, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, STEAM yondashuvi, refleksiya, raqamli ta'lim, kelajak pedagogi, kompetensiya, ijodiy fikrlash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N92>

Bugungi globallashuv, axborotlashuv va raqamli texnologiyalar asrida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – bu bo'lajak pedagoglarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishdir.[1; 28- b.] Chunki zamonaviy dunyo shiddat bilan o'zgarib borayotgan bir paytda, ta'lim jarayoni faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki mustaqil fikrlovchi, tahlil qila oluvchi, yangicha yondashuvlar taklif eta oladigan shaxslarni tayyorlashga yo'naltirilmoqda.

Tanqidiy fikrlovchi o'qituvchi — bu bilimni tahlil qilish, dalillarni baholash, muammolarni chuqur anglash va asosli qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsdir. U faqat ma'lumot yetkazuvchi emas, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantiruvchi, ularni fikrlashga, tahlilga, izlanishga undovchi yo'lboshchi sifatida faoliyat yuritadi. Bunday pedagog:

- o‘z kasbiy faoliyatida muammolarga ijodiy yondashadi;
- ta‘lim jarayonida samaradorlikni oshiruvchi innovatsion metodlarni qo‘llaydi;
- o‘quvchilarning fikrini hurmat qiladi, har bir nuqtai nazarni tahlil etadi;
- zamonaviy texnologiyalar yordamida axborotni izlay oladi, tahlil qiladi va tanlaydi.

Shuningdek, tanqidiy tafakkurga ega bo‘lgan o‘qituvchi axborot oqimlarida yo‘qolib qolmay, ularni to‘g‘ri saralash, baholash va o‘zining pedagogik qarashlariga mos ravishda qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, kelajak pedagoglarining tanqidiy tafakkurini shakllantirish – bu nafaqat shaxsiy intellektual rivojlanish, balki butun ta‘lim tizimining yangilanishi, innovatsion rivojlanishning kafolati hamdir. Zero, tanqidiy fikrlovchi o‘qituvchi – bu o‘z ustida ishlaydigan, yangilikka ochiq, o‘quvchini faqat bilim bilan emas, balki fikrlash madaniyati bilan qurollantiruvchi zamonaviy mutaxassisdir.

Ta‘lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish bugungi kunda nafaqat zamon talabi, balki tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Chunki innovatsion yondashuvlar ta‘lim jarayonida o‘quvchini faqat tayyor bilimlarni egallovchi emas, balki bilimni mustaqil izlovchi, tahlil qiluvchi va baholovchi faol subyekt sifatida shakllantiradi. Bunday yondashuv o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi an‘anaviy “axborot beruvchi – tinglovchi” munosabatini o‘zgartirib, ta‘limni hamkorlikka, ijodiy izlanishga va muammoli vaziyatlarni hal etishga yo‘naltiradi.

Zamonaviy pedagogika nazariyasi va amaliyotida innovatsion yondashuvlar ko‘plab yangi metodik g‘oyalar va texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, innovatsion ta‘lim texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya vositalari (AKT), STEAM yondashuvi, hamda interaktiv o‘qitish metodlari tanqidiy tafakkurni shakllantirishda samarali vositalar sifatida keng qo‘llanilmoqda.

Masalan, AKT asosidagi ta‘lim muhirlari (masofaviy ta‘lim platformalari, raqamli laboratoriyalar, sun‘iy intellekt tizimlari) talabalarga mustaqil o‘rganish, axborotni tahlil qilish va baholash imkonini beradi. STEAM yondashuvi esa fan, texnologiya, muhandislik, san‘at va matematika fanlarini integratsiya qilish orqali analitik va ijodiy tafakkurni uyg‘unlashtiradi, bu esa tanqidiy fikrlashni tabiiy ravishda rivojlantiradi.

Interaktiv metodlar — zamonaviy ta‘lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ular talabalarda mustaqil va tanqidiy fikrlash, muloqot, tahlil hamda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday metodlar o‘qituvchi va talaba o‘rtasida faol muloqot, hamkorlik va o‘zaro fikr almashuv asosida o‘quv jarayonini tashkil etishga imkon beradi.

Masalan, “Aqliy hujum” (Brainstorming) metodi talabalarning ijodiy tafakkurini rag‘batlantirib, ularni muammoni yechishning turli variantlarini taklif qilishga undaydi. Bu jarayonda hech bir g‘oya tanqid qilinmaydi, aksincha, har bir fikr baholanadi va umumiy yechim ishlab chiqiladi. Shu tariqa talabalar mustaqil fikrlash, muammoga turli nuqtai nazardan qarashni o‘rganadilar.

“Debat” metodi esa talabalarning dalillarga asoslangan fikr yuritish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish va muloqot madaniyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bahs-munozara jarayonida talabalar bir-birining fikrlarini tinglash, tahlil qilish, asosli dalillar keltirish, shuningdek, o‘z pozitsiyasini mantiqiy asoslashni o‘rganadilar. Bu jarayon tanqidiy tafakkurning amaliy mashqi bo‘lib xizmat qiladi.

“Fishbone” (sabab-oqibat diagrammasi) usuli muammoli vaziyatlarni chuqur tahlil qilishda, ularning sabablarini aniqlash va oqibatlarini baholashda samarali hisoblanadi. Talabalar muammo ildizini aniqlash orqali mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi, dalillarni tizimlashtirishni o‘rganadi.

“Venn diagrammasi” usuli esa ikki yoki undan ortiq tushunchalarni solishtirish, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash orqali analitik fikrlashni kuchaytiradi. Bu usul talabalarni axborotni taqqoslash, umumlashtirish va tahlil qilishga o‘rgatadi.

“Loyiha asosida o‘qitish” (Project-based learning) esa tanqidiy fikrlashni shakllantirishda eng samarali usullardan biridir. Chunki bu yondashuvda talabalar real hayotdagi muammolarni o‘rganadi, yechim variantlarini ishlab chiqadi va o‘z loyihasini amaliy tarzda himoya qiladi. Loyiha jarayoni tahlil, rejalashtirish, ijodkorlik va muloqotni o‘z ichiga olgan kompleks faoliyat bo‘lib, talabadan mustaqillik va mas‘uliyat talab etadi.

Shu tarzda, interaktiv metodlar orqali tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarni faollikka, fikrni asoslashga, dalillarni tahlil qilishga, boshqalarning fikrini hurmat bilan baholashga o‘rgatadi. Natijada, o‘quvchi yoki talaba o‘z fikriga tanqidiy yondashadi, boshqalarning qarashlarini tahlil qiladi, muammolarni ko‘p qirrali nuqtai nazardan ko‘ra oladi va mantiqiy, asosli qarorlar qabul qilish madaniyatiga ega bo‘ladi.

Masalan J. Dewey, P.A. Facione va L.S. Vygotskiylarning ilmiy qarashlari va asarlari mazmunini qisqacha ko‘rib chiqamiz.

J.Deweyning asarlarida tafakkur jarayonining mohiyati va ta‘limdagi rolini tahlil qiladi.

- Dewey “reflektiv fikrlash” (ya‘ni o‘ylangan, izchil va maqsadga yo‘naltirilgan tafakkur) tushunchasini kiritadi.
- Inson qanday qilib muammoni anglaydi, farazlar ilgari suradi, tajriba orqali yechim topadi — shu jarayon bosqichma-bosqich tushuntiriladi.
- Dewey fikricha, ta‘limning asosiy maqsadi – mustaqil va tanqidiy fikrlovchi shaxsni shakllantirish.
- O‘qituvchining roli — o‘quvchini tayyor javoblarga emas, fikrlashga, izlanishga o‘rgatish.[3; 45- b.]

P.A. Facionening asarlarida tanqidiy fikrlash (critical thinking) tushunchasi chuqur tahlil qilinadi.

- Muallif tanqidiy fikrlashni quyidagi ko‘nikmalar yig‘indisi deb belgilaydi:
 - tahlil qilish (analysis),
 - baholash (evaluation),
 - xulosa chiqarish (inference),
 - tushuntirish (explanation),
 - metakognitsiya (o‘z fikrlashini kuzatish).
- Facione tanqidiy fikrlovchi insonni quyidagicha ta‘riflaydi: “U dalillarni tahlil qiladi, sabablarni solishtiradi, xulosalarga asosli baho beradi.”
- Asarda tanqidiy fikrlashning ta‘limdagi o‘rni, qaror qabul qilish va muammoni hal etishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.
- Xulosa sifatida muallif bu ko‘nikmalarni har qanday sohada muvaffaqiyat kaliti sifatida ta‘kidlaydi.[4; 28- b.]

L.S. Vygotskiyning asarlarida bolaning psixik rivojlanishi va ta‘lim jarayonidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qiladi.

- Vygotskiy “yaqin rivojlanish zonasi” (zone of proximal development) nazariyasini asoslab beradi:
 - Bu bola mustaqil bajara oladigan ish bilan katta yordamida bajara oladigan ish orasidagi masofa.
- Asarda nutq va tafakkur rivoji, o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotning psixologik mexanizmlari yoritilgan.
- Vygotskiy ta’limni ijtimoiy jarayon sifatida talqin etadi — ya’ni bilimlar muloqot orqali o‘zlashtiriladi.
- Shuningdek, motivatsiya, e’tibor, xotira, emotsiya kabi psixologik jarayonlarning o‘qitishdagi roli ko‘rsatilgan.[5; 56- b.]

Shunday qilib, ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish — bu faqat texnik yangilik emas, balki tafakkur, o‘qitish falsafasi va o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayoniga yangicha qarash demakdir. U tanqidiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish orqali kelajak pedagoglarining mustaqil, ijodkor va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

1. Tanqidiy tafakkur tushunchasi va uning pedagogik mazmuni

Tanqidiy tafakkur (critical thinking) – bu insonning ma’lumotni chuqur tahlil qilish, dalillarni baholash, mantiqiy xulosalar chiqarish hamda qarorlarni asoslash jarayonidir. Pedagogik nuqtai nazardan tanqidiy tafakkur — bu o‘qituvchining mustaqil fikrlash, tahlil qilish, asosli qaror qabul qilish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatidir.

Kelajak pedagogi uchun bu kompetensiya quyidagi jihatlarda muhimdir:

- O‘quvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rag‘batlantirish;
- Ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarni tahlil qilish;
- Ta’lim texnologiyalarini tanlashda asosli qarorlar qabul qilish;
- O‘z faoliyatini tanqidiy baholash va doimiy takomillashtirish.

Tanqidiy fikrlash — bu shunchaki tanqid qilish emas, balki mantiqiy tahlil, ishonchli dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish madaniyatidir. Shu boisdan, uni pedagogik jarayonning markaziy komponenti sifatida rivojlantirish dolzarb masala sanaladi.

2. Innovatsion yondashuvlarning nazariy asoslari

Innovatsion yondashuv – bu ta’lim jarayoniga yangicha fikrlash, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlarni joriy etish orqali o‘qitish samaradorligini oshirish jarayonidir. Innovatsion pedagogika nazariyasida bu yondashuv konstruktivizm, kompetensiyaga asoslangan ta’lim, hamda shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish tamoyillariga tayangan holda shakllanadi.

Tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlarga quyidagilar kiradi:

1. Muammoli ta’lim — o‘quvchilarni fikrlashga, tahlil qilishga undaydigan muammoli vaziyatlar yaratish.
2. Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning) — o‘quvchilarni real muammolarni yechishga yo‘naltiradi.
3. STEAM yondashuvi — fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika integratsiyasi orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni uyg‘unlashtiradi.
4. Raqamli ta’lim muhitlari — onlayn platformalar, simulyatsiyalar, sun’iy intellektdan foydalanish orqali mustaqil tahliliy faoliyatni rag‘batlantiradi.

3. Kelajak pedagoglarida tanqidiy tafakkurni shakllantirish bosqichlari

Bo'lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish tizimli yondashuvni talab etadi.

Quyidagi bosqichlar samarali metodika sifatida qaraladi:

1. Motivatsion bosqich — talabalarda tanqidiy fikrlashning ahamiyatini anglash, fikrlashga qiziqishni shakllantirish.
2. Tahliliy bosqich — mavjud bilimlarni tahlil qilish, dalillarni solishtirish, mantiqiy izchillikni o'rganish.
3. Kreativ bosqich — yangi g'oyalar ishlab chiqish, muammolarga noodatiy yondashuvlarni izlash.
4. Refleksiv bosqich — o'z fikrlarini baholash, natijalarni tahlil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish.

Bu jarayonda o'qituvchi yo'lboshchi, tashkilotchi va motivator sifatida ishtirok etadi.

Tanqidiy tafakkur rivojlanishi uchun talabalarda mustaqillik, ijodkorlik, tahliliy fikrlash hamda refleksiya madaniyatini shakllantirish zarur.

4. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining amaliy qo'llanilishi

Tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda quyidagi innovatsion metodlar va texnologiyalar o'z samarasini bermoqda:

- Debatlar va bahs-munozaralar — talabalarda dalillar asosida fikr bildirish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.
- "Klaster", "Aqliy hujum", "Venn diagrammasi" kabi grafik metodlar — tahliliy fikrlashni vizuallashtiradi.
- Gamifikatsiya (o'yinlashtirish) — raqamli vositalar orqali o'rganish jarayoniga motivatsiya qo'shadi.
- Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar — eksperiment va tahlilni real muhitga yaqinlashtiradi.
- Refleksiya mashg'ulotlari — o'z fikrini tahlil qilish va baholash madaniyatini shakllantiradi.[2; 67- b.]

Ushbu metodlar o'qituvchidan ijodkorlik, texnologik savodxonlik va pedagogik moslashuvchanlikni talab etadi. Natijada, bo'lajak pedagoglar o'z faoliyatida tanqidiy fikrlashni asosiy professional kompetensiya sifatida qo'llay oladi.

5. Tanqidiy tafakkurni baholash va natijadorlik mezonlari

Tanqidiy tafakkur darajasini baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

- Muammoni aniqlash va tahlil qilish qobiliyati;
- Dalillarni solishtirib, asosli xulosa chiqarish;
- Mustaqil qaror qabul qilish va uni himoya qilish;
- Innovatsion g'oyalarni ilgari surish;
- Reflektiv fikrlash va o'z faoliyatini tahlil qilish.

Pedagogik monitoring, portfoliolar, loyiha ishlari va test baholash tizimlari orqali tanqidiy tafakkur darajasi aniqlanadi. Bu esa o'qituvchi tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda tanqidiy tafakkur – zamonaviy pedagogning eng muhim professional sifatlaridan biridir. Uni rivojlantirish uchun innovatsion ta'lim texnologiyalari,

muammoli yondashuv, loyiha asosida o‘qitish, raqamli platformalar va refleksiya metodlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelajak pedagoglarining tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish orqali biz:

- mustaqil fikrlovchi,
- tahliliy yondasha oladigan,
- zamonaviy texnologiyalarni ongli qo‘llay oladigan,
- ijodkor va innovatsion shaxsni tayyorlaymiz.

Shunday qilib, tanqidiy tafakkur — bu faqat o‘qituvchi malakasi emas, balki butun ta’lim tizimining intellektual rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini oshirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3775-son qarori, 2018-yil.-28 b
2. Hasanov A., Karimova N. *Innovatsion ta’lim texnologiyalari*. Toshkent, 2021.-67 b
3. Dewey J. *How We Think*. Boston, 1933.-45 p
4. Facione, P. A. *Critical Thinking: What It Is and Why It Counts*. 2015.-28 p
5. Vygotskiy L.S. *Pedagogik psixologiya*. Toshkent, 2010.-56 b

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

METHODS OF IMPROVING STRENGTH AND ENDURANCE OF FEMALE STUDENT WRESTLERS BY SPECIAL EXERCISES

Tug'anboyeva Zamirakhon Shukhratbek qizi

Uzdzhitsu basic doctoral student

Email: Magistrzamira@gmail.com

Abstract. For increasing the strength endurance of female student wrestlers, a set of special exercises is developed. Even if the exercises are taken from different types of sports, they will be directed exactly to increasing strength endurance, and at the same time it is also important to select some wrestling techniques.

Keywords: wrestling, strength, endurance, physical training, physical condition, special exercises, general exercises, resistance band, methods.

TALABA KURASHCHI QIZLARING KUCH CHIDAMLILIGINI MAXSUS MASHQLAR ORQALI OSHIRISH METODIKASI

Tug'anboyeva Zamiraxon Shuxratbek qizi

Uzdjitsu tayanch doktoranti

Annotatsiya. Talaba kurashchi qizlarni kuch chidamliligini oshirish uchun maxsus mashqlar orqali mashqlar majmuasi ishlab mashq turli xil sport turlaridan olinsa ham aynan kuch chidamliligini oshirishga qaratilgan holatda bo'ladi va shu bilan birga kurash usullaridan ham tanlab olish muhimdur.

Kalit so'zlar: kurash, kuch, chidamlilik, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy holat, maxsus mashqlar, umumiy mashqlar, rezina, usullar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N93>

Kirish. Yurtimizda milliy kurash sport turimizni ham shu vaqtgacha saqlab olib kelish hamda hozirgi vaqtda dunyoga targ'ib qilishda bir qancha qiyinchiliklar bartaraf etilmoqda. Shu bilan birgalikda milliy qadriyatlarimiz, barcha milliyligimiz timsoli aylangan barcha urf-odatlarimiz e'zozlanib asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazib berishimizga harakat qilinmoqda, shular jumlasidan bag'ri kenglik, mardlik, oliyjanoblik, halollik timsoli "Milliy kurash" hisoblanadi. Kurash milliy sport turini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish, uning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish va xorijiy mamlakatlarda yanada keng targ'ib qilish, shuningdek, kurashni rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha faoliyatni tizimli qo'llab-quvvatlashni tashkil qilish maqsadida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-450-son, 20.12.2024-yil qarori Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.11.2020-yildagi PQ-4881-son Milliy kurash sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishdan oldin ham, keyin ham, hozirgi vaqtlarda ham o'zimizning milliy

qadriyatlarimizni ulugʻlanib va asrab avaylanib kelmoqda shular tarkibida milliy kurash ham mavjud boʻlib tobora yuksalib rivojlanib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Kurash sport turlarida muhim ahamiyatga ega boʻlgan sifatlarni tarkibiga kuch sifatini tanlab olsak. Jismoniy sifatlari biri “kuch” deganda kurashchining raqib qarshiligini engib oʻtish yoki mushak kuchlanishi hisobiga unga qarshilik koʻrsatish qobiliyati tushuniladi.

Kuchning quyidagi turlarini ajartish qabul qilingan: umumiy va maxsus, mutlaq va nisbiy, tezkor va portlovchan, kuch chidamliligi [3; 86-b.]. Kuch chidamliligi — bu sportchining mushaklarini zoʻriqishini dastlabki lahzasida ish uchun kuchlanishning tez rivojlantirish qobiliyati [6; 34-b.].

Kuch chidamliligini shakllantirish - harakat va nafas uygʻunligidagi murakkab sanʼat. Kuch chidamliligini rivojlantirish - bu oddiy jarayon emas, balki organizmning barcha tizimlarini uygʻun ishlashiga yoʻnaltirilgan murakkab jarayondir. Mashgʻulotlarda faqat mushak kuchini oshirish emas, balki **vegetativ funksiyalarni mukammal boshqarish**, ularni mashq jarayoniga moslashtirish ham muhim oʻrin tutadi. Kuch chidamliligini oshirishning bir necha yoʻnalishlari mavjud. Masalan, **vazning maksimal qiymatidan 30-70%** ogʻirlik bilan ishlashda **takrorlashlar soni 5 tadan 12-14 tagacha** boʻlishi tavsiya etiladi. Har bir yangi urinish organizm dam olganidan soʻng amalga oshiriladi. Bu usul mushaklar harakat faoliyatini yaxshilab, kislorod tanqisligini kamaytiradi. Agar yuklama **60% atrofida** boʻlsa, mashqlar oʻrta surʼatda bajariladi, **takrorlashlar soni 15 tadan 30 tagacha**, urinishlar esa 2-5 marotabadan oshmasligi kerak. Dam olish oraligʻi bu holatda **4-5 daqiqa** boʻlishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, yuklama **20-70%** orasida boʻlsa, takrorlashlar mashgʻulot oxirigacha davom ettiriladi, ammo **yondashuvlar soni 4-5 tadan oshmasligi** lozim. Dam olish oraligʻi oʻzgarib turishi turli natijalarga olib keladi: agar tanaffus qisqa (1–3 daqiqa) boʻlsa, mushaklarning **ichki anaerob energiya manbalari** faol ishlaydi; aksincha, tanaffus 5-10 daqiqa boʻlsa, mushak apparatining **anaerob ishlash qobiliyati** takomillashadi. Kuch chidamliligini rivojlantirishda ikkita asosiy shakl mavjud: **Tanlangan mashqlar seriyasini ketma-ket bajarish;**

Aylanma mashgʻulot shakli - bunda turli mashqlar ketma-ket bajarilib, butun tana faoliyati sinxron tarzda chiniqtiriladi. [5; 79.]. A.I.Babakov, S.B.Ulyankin mazkur mualliflarning fikriga koʻra kurashchilarda umumiy chidamlilikni rivojlantirishda sekin shidatli, lekin uzoq muddat davomida bajariladigan mashqlarni, maxsus chidamlilikni rivojlantirishda esa musoboqa shiddatida ijro etiluvchi mashqlarni vazn toifalariga qarab qoʻllash lozim ekan [6;46-b.]. Chidamlilik belgilari va sifatlari juda koʻp mashqlarni takrorlash, uzoq vaqtlar mashq boʻlishini talab etadi. Chidamlilikda nafas olish, nafasni ichda saqlab turish, mushaklar va barcha boʻgʻinlarning ogʻir-yengil harakatlarni bajarishga odatlanishi ustuvor turadi. Chidamlilik belgilari va sifatlari koʻproq quyidagi faol harakatlarda uchraydi va belgilanadi. Sport sohasida kuchlilik asosan shtanga, kurash, boks, qoʻl kuchini sinash, tosh koʻtarishda qoʻllaniladi. Yuqorida taʼkidlangan sport turlarida mushaklarning tortish, choʻzish, itarish, urish, saqlab turish (shtanga) va h.k. harakatlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir sport turining xususiyati, texnik-taktik jihatdan harakatlarni bajarishda sekin, tez va tezkor-kuch sifatlari ishlatiladi. Mushaklarning kuchi (dinometriya, stanometriya) va harakat tezligi (sekundomer, kompyuter va h.k.) asosiy oʻrinda turadi, ular maxsus asboblari orqali oʻlchanadi. Harakat tezligi (suzish, yugurish, toʻpni urish, tepish va h.k.) kuch bilan bogʻliq boʻlishi mumkin.

Ya'ni suzish, yugurish, to'pni darvozaga zarb-kuch bilan tepishda texnik-taktik harakatlar, tezlik va kuchlar bir-biri bilan bog'lanib ketadi [4; 40-41-b].

1-jadval

Talaba kurashchi qizlarni umumiy kuch chidamliligini oshiruvchi umumiy mashqlar tashkil topgan mashqlar metodikasi

| № | Mashq nomi | Mashqni amalga oshirishdagi o'rtacha vaqt | Takrorlash soni | Dam olish oralig'i | Yuklamalarni shiddati | YuQS zarba/daq |
|----|---|---|--------------------------------|---|-----------------------|----------------|
| 1. | 1000 metrga yugurish | 4-5 daqiqagacha | 2marta takrorlash | Dam olish oralig'i 1-1.5 daqiqa, | 3-4 | 140-180 |
| 2. | Zinaga chiqib tushish butun stadion bo'ylab (har bir oyoqqa qumli 0.5 kg dan tashkil topgan og'irlikni kiygan holatda) | 20- 30munit ichida | 1marta takrorlash | Dam olish oralig'i 5daqiga | 3-4 | 140-185 |
| 3. | Zinaga chiqib tushish bitta zinani o'zida (har bir oyoqqa qumli 0.5 kg dan tashkil topgan og'irlikni kiygan holatda) | 1) 10 soniya 2) 20 soniya 3) 30soinya | 1marta takrorlash | Dam olish oralig'i 1) 10s, 2) 15s,3) 20s, seriyalar orasida | 2-3 | 145-175 |
| 4. | Turnikda kurash yaktagi ilingan bo'ladi, yaktakni yoqasiga ikki qo'l yordamida osilib turiladi 10kg og'irlik beliga osilgan holatda bo'ladi | 30 soniya 45 soniya 1munit | 3 seriya, 1 marta takrorlash | Dam olish oralig'i 20 soniya 40 soniya 1daqiga seriyalar orasida 1.5,2 daqiqa | 2-3 | 140-150 |
| 5. | Turnikda tortinish | 7-15 marta | 2 seriyadan 2marta | Dam olish oralig'i 40 soniya seriyalar orasida 1.5, 2 daqiqa | 1-2 | 145-160 |
| 6. | Brusda qo'lni bukilgan holatda muvozanat saqlab turish | 15 s 20 s | 2seriya 1marta | Dam olish oralig'i 15 soniyadan 30 soniya Seriyalar orasida 30 soniya | 2-3 | 140-155 |
| 7. | Brusda tizzani yarim bukilgan holatda ko'tarib turish | 30 soniya 1 daqiqa charchaguncha | 2seriya 1marta | Dam olish oralig'i 15 soniyadan, 30 soniya Seriyalar orasida 30 soniya | 2-3 | 130-140 |
| 8. | Rezinani tarang tortib, ikki qo'lni ko'krak oldiga ko'tarib, gavda bilan o'ng va chap yelka rezinani qo'lni boricha yozilgan holatda tortish, bosh qarama-qarshi tomonga harakatlanadi (rezinani bog'langanligiga qarab tarangligi belgilanadi) | 1daqiga 2daqiga 3 daqiqa | 3 seriyadan, 1marta takrorlash | Dam olish oralig'i 20soniya 30soniya 1daqiga Seriyalar orasida 1daqiga ichida | 2-3 | 140-155 |

Yuqoridagi jadvalda biz talaba kurashchi qizlarni kuch chidamliligini oshirish uchun umumiy sportga taalluqli bo'lgan mashqlarni kuch chidamlilik qobiliyatiga moslashtirilgan holatda ishlab chiqildi. Mashqlarni ishlashda me'yori va takrorlash soni yuklama shiddat zonasi yurak qisqarish soni moslashtirilgan holatda namoyon qilindi.

2-jadval

Talaba kurashchi qizlarni maxsus kuch chidamliligini oshiruvchi texnik usullardan tashkil topgan mashqlar metodikasi

| № | Usullar nomi | Tashqi qarshilikda foydalaniladigan predmetlar hamda jonli tashqi qarshilik turidan foydalanish | Mashqni amalga oshirishdagi o'rtacha vaqt | Takrorlash soni | Dam olish oralig'i | Yuklamalar shiddati | YuQS zarb a/daq |
|----|---|--|--|-------------------|--|---------------------|-----------------|
| 1. | Raqibni qo'lini qulay joyidan ushlab hamda yelkasini orqa tomonidan ushlab, raqib oyog'ini oldi tomonini oyog'i bilan to'sib, qo'lidan tortib usulga kiradi | Usulni amalga oshirayotganda, birinchi kurashchini beliga rezin bog'langan holatda bo'ladi, ikkinchi kurashchi usulga kirib chiqadi. | 1.2daq28-40 marta 2. 3daq40-57martagacha | 3seriya 1marta | 1.1daq 2.2daq Seriylar orasida 1 daq | 2-3 | 152-185 |
| 2. | Raqib qo'lini qulay joyidan ushlab, bitta qo'lini yaktakni yoqasidan ushlab yelkadan oshirib tashlash | Usulni amalga oshirayotganda, birinchi kurashchini beliga rezin bog'langan holatda bo'ladi, ikkinchi kurashchi usulga kirib chiqadi | 1.2daq28-40 marta 2. 3daq40-57martagacha | 3seriya 1marta | 1.1daq 2.2daq Seriylar orasida 1 daq | 2-3 | 152-185 |
| 3. | Raqibni qo'lidan va belidan ushlab taz bilan ko'tarib tashlash. | Usulni amalga oshirayotganda, birinchi kurashchini beliga rezin bog'langan holatda bo'ladi, ikkinchi kurashchi usulga kirib chiqadi | 1.2daq28-40 marta 2. 3daq40-57martagacha | 3seriya 1marta | 1.1daq 2.2daq Seriylar orasida 1 daq | 2-3 | 152-185 |
| 4. | Raqibni bir qo'lini qulay joyidan ushlab, ikkinchi qo'lni raqibni orqa belbog'idan ushlab o'ziga tortib, raqib oyog'ini tashqi tomoniga oyog'i bilan tepib tashlash | Usulni amalga oshirayotganda, birinchi kurashchini beliga rezin bog'langan holatda bo'ladi, ikkinchi kurashchi usulga kirib chiqadi | 1.2daq28-40 marta 2. 3daq40-57martagacha | 3seriya 1marta | 1.1daq 2.2daq Seriylar orasida 1 daq | 2-3 | 152-185 |
| 5. | Raqibni orqa belbog'dan ushlab, ikkinchi qo'lni raqibni ushlagan tomondagi oldi belbog'idan ushlab o'ziga tortib, yonbosh holatda kirib tizza yordamida ko'tarib uloqtirish | Usulni amalga oshirayotganda, birinchi kurashchini beliga rezin bog'langan holatda bo'ladi, ikkinchi kurashchi usulga kirib chiqadi | 1daq1qa 25-33tagacha 2daq1qa 35-43tagacha 3daq1qa 45-58tagacha | 4seriya 1marta | Dam olish oralig'i 30 soniyadan 1 daqiqa 2daq1qa Seriylar orasida 1daq1qa | 2-3 | 152-185 |
| 6. | Raqibni qo'lini tirsak tepasidan ushlab, ikkinchi qo'lni xuddi o'sha qo'lni siqib ushlab, ushlangan qo'l tomondagi oyog'idan, oyoq yordamida chalib orqaga itarib usulni bajarish | Usulga kirayotgan kurashchini oyog'ida rezina bog'langan holatda, oyoq harakatlarini amalga oshiradi | 1. 1daq1qa 20-28 marta 2. 2daq1qa 28-40 marta 3. 3daq1qa 40-57martagacha | 4seriya 1marta | Dam olish oralig'i 30 soniyadan 1 daqiqa 2daq1qa Seriylar orasida 1daq1qa | 2-3 | 152-185 |

Yuqoridagi jadvalda biz talaba kurashchi qizlarni kuch chidamliligini oshirish uchun texnik usullardan tashkil bo'lgan mashqlarni kuch chidamlilik qobiliyatiga moslashtirilgan holatda ishlab chiqildi. Mashqlarni ishlashda qanday tarzda usulni amalga oshirishi hamda me'yori va takrorlash soni, yuklama shiddat zonasi, yurak qisqarish soni moslashtirilgan holda namoyon qilindi.


3-jadval

Talaba kurashchi qizlarning texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari (n=7)

| № | Yonbosh usuli, 30 son, marta | | Yelka usuli, 30 son, marta | | Yuklama usuli, 30 son, marta | |
|-----------|------------------------------|--------|----------------------------|--------|------------------------------|---------|
| | T/o | T/k | T/o | T/k | T/o | T/k |
| 1. | 10 | 14 | 10 | 15 | 13 | 15 |
| 2. | 13 | 15 | 13 | 17 | 16 | 19 |
| 3. | 16 | 19 | 16 | 19 | 14 | 18 |
| 4. | 14 | 17 | 14 | 18 | 10 | 15 |
| 5. | 13 | 19 | 15 | 18 | 13 | 18 |
| 6. | 14 | 19 | 16 | 20 | 16 | 20 |
| 7. | 16 | 20 | 13 | 18 | 13 | 18 |
| \bar{X} | 13.71 | 17.57 | 13.86 | 17.86 | 13.57 | 17.57 |
| σ | 2.06 | 2.30 | 2.12 | 1.57 | 2.07 | 1.90 |
| V, % | 15.01 % | 13.08% | 15.27 % | 8.81 % | 15.25 % | 10.83 % |

Kuch chidamliligini rivojlantirish natijalarining umumiy tahlili. O'tkazilgan uch bosqichli kuzatuv va tahlillar natijalariga ko'rinib turibdiki, sportchilarning **kuch chidamliligi mashg'ulotlar davomida yaxshi o'sish** bog'liqligini namoyon etdi. Tadqiqot boshidagi bosqichlarda o'rtacha ko'rsatkichlar **13.5–13.8** atrofida bo'lib, bu davrda natijalarning tarqoqligi yuqori (variatsiya koeffitsiyenti **15–15.3%**) ekanligi aniqlandi.

Jadval-4



Izoh: t/b tadqiqot boshi, t/o- tadqiqot oxiri

Xulosa. Bu holat kurashchi qizlarning kuch qobiliyatini va chidamlilik zaxiralari o'rtasida sezilarli farq mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqot oxiriga kelib esa jami tahlillarda o'rtacha natijalar **17.5–17.9** gacha o'sganini, variatsiya esa **8.8–13%** oralig'igacha kamaygani kuzatildi. Bundan shu ma'lum bo'ldiki, mashg'ulotlar jarayonida: sportchilar kuchni ko'paytirish va saqlab qolish ko'nikmalarini rivojlantirgan, yuklamalarga moslashuv jarayoni yaxshilangan, mushaklarning zaxira energiya ta'minoti tizimi (ayniqsa anaerob imkoniyatlar) faollashgan, va eng muhimi — natijalar **barqarorlik** kasb etgan.

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'rtacha ko'rsatkichlar oshgan sari **standart og'ish** (σ) biroz kamayib, variatsiya darajasi pasaygan. Bu o'z navbatida mashg'ulot jarayonining **samarali tashkil etilgani** va **individual yondashuv** o'z samarasini berganini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-450-son, 20.12.2024y qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prizdentining 04 11 2020 yildagi PQ-4881-sonli qarori.
3. A.M.Achilov., J.A.Akromov., O.V.Goncharova. Bolalar jismoniy sifatlarni tarbiyalash o'quv qo'llanma. Toshkent 2009 y. 207 b.
4. Бабаков А.И.Ульянкин С.В. Физическая и волевая подготовка борцов на поясах основе использования методики самовоспитания. Учебное пособие. Владимир - 2010.46-b
5. Kerimov F.A. Sport kurashi nazaryasi va uslubyati.Darslik.Toshkent. 2008.86-87-b.
6. Madaminov, B, R.Salomov. Jismoniy tarbiya nazaryasi va uslubyatining amaliyoti. "Muxarrir" nashriyoti Toshkent 2013 yil. 34b.

7. Xudoyberganov. J.S. Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning. Ahamiyati central asian research journal for interdisciplinary studies .2021 yil.40-41b.

Received: 2 October 2025
Accepted: 15 October 2025
Published: 25 October 2025

Article / Original Paper

COMPETENCE IN WEB APPLICATION DESIGN AND ITS DEVELOPMENT

Sadritdinova Dinora Azamjon kizi

Navoi State University PhD student

Abstract. The article examines the concept of competence in web application design, its theoretical foundations, and practical significance. In the context of the rapid development of digital education and information technologies, the formation of web application design skills is of great importance. The study highlights the use of programming languages, algorithmic approaches, principles of user interface development, and security issues. In addition, the article presents methodological strategies for enhancing students' design competence, innovative approaches, and the application of modern educational technologies.

Keywords: web application, design, competence, digital education, programming, innovative technology.

WEB ILOVALARNI LOYIHALASHGA OID KOMPETENTLIK VA UNI RIVOJLANTIRISH

Sadritdinova Dinora A'zamjon qizi

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: neverevermind0702@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada web ilovalarni loyihalash jarayonida talab qilinadigan kompetentlik tushunchasi, uning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli ta'lim va axborot texnologiyalari rivojlanishi sharoitida web ilovalar bilan ishlash malakasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada web ilovalarni loyihalashda qo'llaniladigan dasturlash tillari, algoritmik yondashuvlar, foydalanuvchi interfeysini yaratish tamoyillari va xavfsizlik masalalari yoritilgan. Shuningdek, talabalarda loyihalash kompetentligini rivojlantirishning metodik usullari, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: web ilova, loyihalash, kompetentlik, raqamli ta'lim, dasturlash, innovatsion texnologiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N94>

Kirish. Bugungi globalashuv va raqamli transformatsiya davrida ta'lim tizimi oldida yangi talab va vazifalar paydo bo'lmoqda. Dunyoda kechayotgan raqamli islohotlar natijasida web texnologiyalar hayotning barcha sohalariga, xususan, ta'lim, fan, tibbiyot va ishlab chiqarish jarayonlariga chuqur kirib kelmoqda. Shu sababli, web ilovalarni loyihalash bo'yicha chuqur bilim, amaliy ko'nikma va ijodiy fikrlashga ega bo'lgan mutaxassislarini tayyorlash dolzarb masalaga aylangan. Web ilovalarni loyihalash - bu nafaqat dasturlash texnologiyalarini bilish, balki tizimli fikrlash, dizayn prinsiplari, foydalanuvchi tajribasi (UX/UI) hamda xavfsizlik asoslarini puxta o'zlashtirishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Shuning uchun ham ushbu sohada o'quvchilarning va talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirish zamonaviy ta'lim strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda web ilovalarni yaratish bo'yicha kompetentlik faqat texnik bilim bilan cheklanib qolmay, balki muammoli

vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash, kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lish hamda foydalanuvchi ehtiyojlarini tahlil qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Bunday kompleks yondashuv shaxsning raqamli savodxonligini oshirish, uni zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirish imkonini beradi. Web ilovalarni loyihalash kompetentligini rivojlantirishda ta'lim muassasalarining o'rni beqiyosdir. Chunki o'quv jarayoniga amaliy loyiha asosidagi ta'limni joriy etish, interaktiv platformalar (masalan, Replit, CodePen, Figma, GitHub) orqali mashg'ulotlar tashkil etish, jamoaviy ishlash va real loyihalarda ishtirok etish o'quvchilarning ijodkorligi, tashabbuskorligi hamda mas'uliyatini oshiradi. Bu esa ularning nafaqat kasbiy tayyorgarligini, balki shaxsiy rivojlanish darajasini ham belgilab beradi.

Bundan tashqari, web ilovalarni loyihalash bo'yicha kompetentlikni rivojlantirishda o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, yangiliklardan boxabar bo'lishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli ta'lim muhitida web texnologiyalarni o'qitish jarayoni nafaqat texnik bilimlarni, balki talabalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatni hal qilish va jamoaviy ishlash kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi. [1; 57-58 B.] O'qituvchi nafaqat bilim manbai, balki o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rag'batlantiruvchi mentor sifatida faoliyat yuritishi zarur. Shu bois, web ilovalarni loyihalashga oid kompetentlikni rivojlantirish masalasi nafaqat texnik, balki pedagogik, psixologik va innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda hal etilishi kerak. Bu jarayon zamonaviy ta'limning sifatini oshirish, o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish hamda raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan mutaxassislarni yetishtirishda muhim o'rin tutadi.

Metodlar. Mazkur tadqiqotda web ilovalarni loyihalashga oid kompetentlikni rivojlantirish jarayonini o'rganish uchun tizimli yondashuv, taqqoslash, tajriba-sinov va pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar o'quvchilarning texnik, ijodiy va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini har tomonlama tahlil qilish imkonini berdi. Tizimli yondashuv yordamida web ilovalarni loyihalash jarayonidagi asosiy bosqichlar - tahlil, dizayn, kodlash, testlash va loyihani joriy etish ketma-ketligi o'rganildi. Har bir bosqichda o'quvchilarning kompetentlik darajasini aniqlash uchun maxsus mezonlar ishlab chiqildi. Taqqoslash metodi orqali an'anaviy o'qitish uslubi bilan amaliy loyiha asosida o'qitish samaradorligi solishtirildi. O'quv jarayonida ishtirok etgan ikki guruhdan biri nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan cheklangan bo'lsa, ikkinchi guruh web ilovalar yaratish bo'yicha real loyihalarda qatnashdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, amaliy loyiha asosida ta'lim olgan guruh o'z kompetentlik darajasini ancha yuqori ko'rsatgan.

Tajriba-sinov metodi asosida o'quvchilar uchun web loyihalash bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etildi. Bu jarayonda ularga HTML, CSS, JavaScript, hamda UI/UX dizayn asoslarini o'zlashtirish, shuningdek, foydalanuvchi interfeysini yaratish bo'yicha mustaqil topshiriqlar berildi. Har bir bosqichda o'quvchilarning mustaqil ishlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish va jamoada ishlash ko'nikmalari baholandi. Pedagogik kuzatish natijalari o'quvchilarning faolligi, qiziqish darajasi, vaqtni to'g'ri taqsimlash qobiliyati va kreativ fikrlash holatini aniqlashga xizmat qildi.

Loyiha asosidagi ta'lim texnologiyalari orqali web ilovalar yaratish ko'nikmasi shakllantirilganda, o'quvchilar real amaliyotga yaqin sharoitda bilimlarni mustahkamlaydi va innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. [2; 41-42 B] Shu orqali o'quv jarayonida web texnologiyalarni o'qitishning qaysi usullari eng samarali ekanligi aniqlandi. Tadqiqot

jarayonida, shuningdek, o'quvchilarning dasturlash va dizayn bo'yicha tayyorgarlik darajasi maxsus diagnostik testlar orqali baholandi. Tahlil natijalari keyingi bosqichlarda kompetentlikni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga asos bo'ldi.

Muhokama. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, web ilovalarni loyihalashga oid kompetentlikni rivojlantirish faqat nazariy bilimlarni berish bilan chegaralanmasligi kerak. Aksincha, o'quvchilarni real muhitda amaliy faoliyatga jalb etish, ularni mustaqil fikrlashga va muammolarni tahliliy hal etishga o'rgatish zarur. Tadqiqotda olingan natijalar shuni isbotladiki, loyiha asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning bilim darajasini chuqurlashtiradi, motivatsiyasini oshiradi hamda kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi. Web ilovalarni loyihalash kompetentligining shakllanish jarayoni ko'p qirrali bo'lib, u texnik, kommunikativ, kognitiv va ijodiy jihatlarni o'z ichiga oladi. O'quvchilar web ilovalarni yaratish orqali kod tuzish, dizayn konsepsiyasini ishlab chiqish, ma'lumotlar bazasi bilan ishlash, foydalanuvchi ehtiyojlarini o'rganish kabi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Bunday faoliyat ularni raqamli fikrlash va innovatsion yondashuvga o'rgatadi.

Mazkur tadqiqot natijalari ilgari o'tkazilgan ayrim ilmiy izlanishlar bilan uyg'unlikda bo'lib, ularning nazariy xulosalarini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Masalan, zamonaviy pedagogik tadqiqotlar (S. Ergasheva, 2023; J. Karimov, 2024)da ham loyiha asosidagi ta'lim web texnologiyalarni o'qitishda eng samarali yondashuvlardan biri ekanligi ta'kidlanadi. Bizning tadqiqotda ham ushbu metod o'quvchilar kompetentligining barcha komponentlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, o'quvchilarning texnik ko'nikmalari tez shakllansa-da, ularning kommunikativ va reflektiv kompetentligini rivojlantirish uchun ko'proq vaqt talab etiladi. Shu sababli, web ilovalarni loyihalashni o'qitishda ko'p bosqichli va tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarga mustaqil tahlil, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha yo'naltirilgan topshiriqlar berish, ularning o'z faoliyatiga tanqidiy qarashini shakllantiradi. Bundan tashqari, o'qituvchining roli ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'quvchi uchun nafaqat bilim manbai, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi mentor sifatida faoliyat yuritishi kerak.

